203. (v15-105-5) ^{210}Bi va ^{65}Cu yadrolarining to'qnashishi oqibatida 1 ta neytron va noma'lum element yadrosi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan yadroning massasini (A) va zaryadini (Z) aniqlang.

A) 272; 113
B) 275; 111
C) 274; 112
D) 144; 54

204. (v15-117-25)

$^{252}_{Z}E + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow ^{A}_{100}Fm + 2^{0}_{+}\beta + 6^{1}_{0}n$

Ushbu yadro reaksiyasida $63{,}5\cdot10^{-3}$ g Fm hosil bo'lsa, necha milligrammm He reaksiyaga kirishadi? (E va Fm o'zaro izoton)

A) 2 B) 5,6
C) 4 D) 11,2

205. (v15-118-8) ^{210}Bi va ^{70}Zn yadrolarining to'qnashishi oqibatida 1 ta neytron va noma'lum element yadrosi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan yadro massasini (A) va zaryadini (Z) aniqlang.

A) 278; 113 B) 279; 112
C) 278; 112 D) 279; 113

206. (v15-120-10)

$^{268}_{108}Mt \rightarrow ^{A}_{Z}E + x^{4}_{2}\alpha + 2^{0}_{+}\beta + 6^{1}_{0}n$

Ushbu yadro reaksiyasida 25,8 mg Mt izotopi yemirilishidan necha sm^3 (n. sh.) He gazi hosil bo'ladi? E ning tarkibidagi neytronlar soni Mt ning elektronlar soniga teng bo'lsa, E tarkibidagi e, p, n larning yig'indisini aniqlang.

A) 33,6; 180 B) 44,8; 256
C) 40,32; 251 D) 22,4; 252

207. (v15-121-15)

$^{254}_{Z}Es + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow E + {}_{-}\beta + 3^{1}_{0}n$

Ushbu reaksiyada 0,1036 g E elementi hosil bo'lgan bo'lsa necha milligrammm Es parchalangan? (Es va E o'zaro izoton)

A) 101,6 B) 76,2 C) 127 D) 152,4

208. (v15-125-32) $^{210}_{Z}E + ^{A}_{74}W + x^{4}_{2}\alpha + 6^{0}_{+}\beta$

Ushbu yadro reaksiyasida E va W o'zaro izoton bo'lsa, E tarkibidagi nuklonlarning necha foizini neytronlar tashkil qiladi?

A) 42 B) 59 C) 68 D) 29

209. (v16-102-4) ^{288}A → ^{144}B + ^{89}C +-n yadro reaksiyasida A elementning izotopi tarkibidagi neytronlar soni B element izotopi tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko'p, C element izotopi tarkibidagi neytronlar sonidan esa 90 taga ko'p bo'lsa, B va C element izotoplari neytronlari yig'indisini aniqlang.

A) 196 B) 141 C) 231 D) 90

210. (v16-106-3) $_{101}$Md → $_{88}$Ra + x^{4}_{2} α + y^{0}_{-1} β yadro reaksiyada 10,24 mg mendeleyeviy parchalanganda $4\cdot10^{-5}$ mol elektron hosil bo'ldi. Agar Md atomida neytronlar soni radiy atomidagi neytronlar sonidan 15 neytron ko'p bo'lsa, Ra izotopidagi neytronlar sonini toping.

A) 150 B) 140
C) 256 D) 228

211. (v16-106-7) Pa izotopi parchalanish yadro reaksiyada $_{91}$Pa → $_{82}$Pb + x^{4}_{2} α + y^{0}_{-1} e 41,6 mg Pb va $1\cdot10^{-3}$ mol elektron hosil bo'ldi. Agar Pa da neytronlar soni Pb gagi neytronlar sonidan 19 taga ko'p bo'lsa qo'rg'oshin atomidagi neytronlar sonini toping.

A) 145 B) 236
C) 208 D) 126

212. (v16-109-8) Pa izotopi parchalanish yadro reaksiyada $_{91}$Pa → $_{82}$Pb + x^{4}_{2} α + y^{0}_{-1} e 41,6 mg Pb va $1\cdot10^{-3}$ mol elektron hosil bo'ldi. Agar Pa da neytronlar soni Pb dagi neytronlar sonidan 19 taga ko'p bo'lsa, protaktiniyning atom massasini toping.

A) 145 B) 236
C) 208 D) 126

213. (v16-115-5) ^{235}A→ ^{144}B + ^{89}C + 2^{1}_{0} n yadro reaksiyasida A element izotopi tarkibidagi neytronlar soni B element izotopi tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko'p, B element izotopi tarkibidagi neytronlar soni C element izotopi tarkibidagi neytronlar sonidan 35 taga ko'p bo'lsa, A va C element izotoplari yadro zaryadlari yig'indisini aniqlang.

A) 128 B) 139
C) 152 D) 148

214. (v16-116-14) $_{92}$U → $_{82}$Pb + x^{4}_{2} α + y^{0}_{-1} β yadro reaksiyada 11,8 mg uran parchalanganda $1\cdot10^{-4}$ mol elektron hosil bo'ldi. Agar Pb atomida neytronlar soni U atomidagi neytronlar sonidan 14 neytron ko'p bo'lsa, Pb atomidagi neytronlar sonini toping.

A) 144 B) 236 C) 212 D) 130

215. (v16-120-8)

$^{252}_{Z}E + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow ^{A}_{100}Fm + 2^{0}_{-}\beta + 6^{1}_{0}n$

Ushbu yadro reaksiyasida $20{,}16\cdot10^{-3}$ g E parchalangan bo'lsa, nechta alfa-zarracha sarflangan? (E va Fm o'zaro izoton)

A) $9{,}6\cdot10^{19}$ B) $1{,}806\cdot10^{20}$
C) $18{,}06\cdot10^{20}$ D) $3{,}01\cdot10^{20}$

216. (v16-120-12) ^{235}A → ^{144}B + ^{89}C + $2^{1}_{0}n$ yadro reaksiyasida A elementning izotopi tarkibidagi neytronlar soni B element izotopi tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko'p, C element izotopi tarkibidagi neytronlar sonidan esa 90 taga ko'p bo'lsa, B va C element izotoplari yadro zaryadlari nisbatini aniqlang.

A) $\frac{14}{9}$ B) $\frac{23}{14}$ C) $\frac{23}{7}$ D) $\frac{23}{9}$

217. (v16-122-19) $^{210}_{Z}E \rightarrow ^{A}_{74}W + x^{4}_{2}\alpha + 6^{0}_{+}\beta$

Ushbu yadro reaksiyasida $84\cdot10^{-3}$ g E parchalangan bo'lsa, necha mg W hosil bo'ladi? (E va W o'zaro izoton)

A) 59,4 B) 79,2 C) 62,4 D) 39,6

218. (v16-123-34) Toriy izotopi parchalanish yadro reaksiyasida $_{90}$Th → $_{82}$Pb + x^{4}_{2} α + y^{0}_{-1} β 10,5 mg Pb va $2\cdot10^{-4}$ mol elektron hosil bo'ldi. Agar toriy atomida neytronlar soni Pb dagi neytronlar sonidan 16 neytron ko'p bo'lsa, Pb atomidagi neytronlar sonini toping.

A) 144 B) 234 C) 210 D) 128

219. (v17-102-23) Qaysi turdagi radioaktiv parchalanishda quyidagilarni hosil qiladi:

a) protaktiniy $^{234}_{91}$ Pa- $^{234}_{90}$ Th toriydan;

b) poloniy $^{214}_{84}$ Po- $^{214}_{83}$ Bi vismutdan.

A) β₋-parchalash
B) β₊-parchalash
C) γ-parchalash
D) α-parchalash

220. (v17-103-20) Э → W + x.
W izotopning massasi noma'lum element izotopning massasidan 6% ga kam. Noma'lum elementining neytronlar sonini aniqlang. Э va W o'zaro izotoplardir.

A) 128
B) 110
C) 118
D) 124

221. (v17-106-25) Quyidagi grafikda radioaktiv x element izotopining parchalanishi reaksiyasi ifodalangan. Ushbu grafikdan foydalangan holda R element izotopi hosil bo'lish jarayonida ajralib chiqqan zarrachalarni ko'rsating.



A) α, e, α, p B) –β, e, p, e
C) α, e, α, e D) p, e, p, e

222. (v17-107-25) Th → ... + x.
Noma'lum izotopning massasi toriy izotopi massasidan 8,4% ga kam. Noma'lum element tarkibidagi neytronlar tarkibini (%) aniqlang. Th va Э o'zaro izotop hisoblanadi.

A) 53,5%
B) 42%
C) 48,4%
D) 51,38%

223. (v17-107-26)

$^{210}_{Z}$ E → $^{A}_{74}$ W + x^{4}_{2} α + 2^{0}_{+}β yadro

reaksiyasida E va W bir-biri bilan izotop. W elementida elektronlar ulushini (%) aniqlang.

A) 26,4 B) 46,2
C) 46,5 D) 42,6

224. (v17-109-8) Quyidagi grafikdan foydalangan holda TX_3 va Z_2Y_5 birikmalarining molyar massalar yig'indisini hisoblang.



A) 222 B) 226
C) 238 D) 230

225. (v17-111-28) $^{A}_{Z}E \rightarrow ... + 4\alpha + \beta$ + $^{A}_{90}Th$ yadro reaksiyasidan $^{A}_{Z}E$ ning neytronlar soni E ning protonlar sonidan 46 taga ko'p bo'lsa, noma'lum element tarkibidagi neytronlar sonini aniqlang.
A) 145 B) 130
C) 140 D) 152

226. (v17-113-10) $_{91}Pa \rightarrow {}_{82}Pb + x\,^{4}_{2}\alpha + y\,^{0}_{-1}\beta$ yadro reaksiyasida protaktiniy izotopining parchalanishida 41,6 mg Pb va $1 \cdot 10^{-3}$ mol elektron hosil bo'ldi. Agar protaktiniy neytronlar soni qo'rg'oshinnikidan 19 ga ko'p bo'lsa, qo'rg'oshin neytronlar sonini aniqlang.
A) 145 B) 236
C) 208 D) 126

227. (v17-113-21) $^{x}_{92}U + 10\alpha \rightarrow$ E + A + p + 7n
Ushbu yadro reaksiyasida E element izotopi massasi uran izotopi massasidan 4/5 marta, A element izotopi massasidan esa 2,4 marta katta. E elementdagi elektronlar soni A element elektronlari sonidan 43 taga ko'p bo'lsa, uran izotopi massasidan A element izotopi massasi ayiramasini aniqlang.
A) 160 B) 138
C) 148 D) 152

228. (v17-119-6) $Th \rightarrow ... + x$.
Noma'lum element izotopi massasidan 8,4% ga kichik. Noma'lum element tarkibidagi elektronlar miqdorini (%) aniqlang. Th va Э o'zaro izotop hisoblanadi.
A) 24,3% B) 22,88%
C) 51,61% D) 28,3%

229. (v17-119-30) $_{91}Pa \rightarrow {}_{82}Pb + x\,^{4}_{2}\alpha + y\,^{0}_{-1}\beta$ yadro reaksiyasida protaktiniy izotopi parchalanishda 41,6 mg Pb va $1 \cdot 10^{-3}$ mol elektronlar hosil bo'ldi. Agar protaktiniy neytronlar soni qo'rg'oshinnikidan 19 marta ko'p bo'lsa, qo'rg'oshin neytronlar sonini toping.
A) 145 B) 236 C) 208 D) 126

230. (v17-120-31) Yadro reaksiyasi asosida element hosil bo'ldi. Bu elementning neytronlar soni azotnikidan 1 taga ko'p. Azotning barcha zarrachalaridagi neytronlar tarkibi (%) Y dagi bilan teng. X ni aniqlang.
A) $^{0}_{-1}\theta$ B) $^{4}_{2}He$ C) $^{2}_{1}D$ D) $^{12}_{6}C$

231. (v17-126-6) $Th \rightarrow ... + x$.
Noma'lum element izotopining massasi toriy izotopining massasidan 8,4% ga kam. Noma'lum elementdagi elektron, proton va neytronlar yig'indisini aniqlang. Th va Э o'zaro izotoplar hisoblanadi.
A) 288
B) 264
C) 162
D) 254

232. (v17-130-16) $^{227}Pa \rightarrow Rn + x$.
56,75 mg protaktiniy yemirilishi natijasida hosil bo'lgan elektronlar sonini hisoblang. Pa ning yemirilishidan hosil bo'lgan Rn massasi Pa nisbatan 7,6% ga kam.
A) $4.515 \cdot 10^{20}$
B) $45.15 \cdot 10^{20}$
C) $9.03 \cdot 10^{20}$
D) $90.3 \cdot 10^{20}$

4. Atomlarning elektron konfiguratsiyalari. Ionlarining elektron konfiguratsiyasi. Atomning nisbiy va absalyut massasi

1. (96-3-9) Qaysi energetik pog'onada taqsimlangan elektronlar III davr III guruh elementlariga mos keladi?
A) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^1$ B) $1s^2 2s^2 2p^4 3s^2 3p^3$
C) $1s^2 2s^2 2p^3 3s^2 3p^4$ D) $1s^2 2s^2 2p^2 3s^2 3p^1$
E) $1s^2 2s^2 2p^5 3s^2 3p^3$

2. (96-3-10) Qaysi atomda juftlashmagan elektronlar ko'p? (qavsda yadro zaryadi berilgan)
A) O(8) B) Br(35) C) Mn(25)
D) Ni(28) E) Cu(29)

3. (96-4-16) Tartib raqami 34 bo'lgan elementning elektron qobig'ida nechta to'lgan qobiqchalar bor?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

4. (96-4-18) Konfiguratsiyasining oxiri $...4s^2 4p^2$ bo'lgan elementni va uning tartib raqamini toping?
A) Zn, 30 B) Ga, 31 C) Ge, 32
D) As, 33 E) Se, 34

5. (96-7-8) Marganetsning tashqi elektron pog'onasida nechta elektron bor? Marganes Davriy sistemada yettinchi gruppa, to'rtinchi davrda joylashgan. [Z(Mn) = 25]
A) 5 B) 7 C) 4 D) 6 E) 2

6. (96-8-102) Quyidagi qaysi elementlar atomlarida bitta s-elektron d-orbitalga ko'chib o'tgan?
1) rux; 2) mis; 3) temir; 4) xrom.
A) 1, 2 B) 1, 3
C) 1, 4 D) 2, 4 E) 3, 4

7. (96-10-13) Tabiatdagi misning o'rtacha nisbiy atom massasi 63,5. Uning ^{63}Cu va ^{65}Cu izotoplaridan iboratligi ma'lum. Tabiiy misdagi ^{63}Cu izotopining massa ulushini (% larda) toping.
A) 25 B) 45 C) 55 D) 65 E) 75

8. (96-10-14) Elementning elektron formulasining oxiri $...4s^3 4p^2$ bilan tugaydi. Shu elementning tartib raqamini aniqlang.
A) 33 B) 30 C) 28
D) 25 E) 23

9. (96-13-6) Yadro zaryadlari: 1) 16; 2) 9 va 3) 33 bo'lgan elementlarda valent elektronlar sonining ortib borishi qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 2
C) 2, 3, 1 D) 3, 1, 2
E) 2, 1, 3

10. (96-13-46) Temir atomining d-qobiqchasida nechta elektron bor? [Z(Fe) = 26].
A) 4 B) 10 C) 14 D) 2 E) 6

11. (96-13-80) Element atomlarining elektron qavatining "d" pog'onachasida eng ko'pi bilan nechta elektron bo'ladi?
1) 2; 2) 6; 3) 14; 4) 16; 5) 10.
A) 5 B) 1 C) 2 D) 4 E) 3

12. (96-15-8) Quyidagi elektron formulalardan qaysi biri mis atomiga tegishli? Misning tartib raqami 29.
A) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^2$
B) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^9 4s^1$
C) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^8 4s^2$
D) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^1$
E) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^2 4p^1$

13. (96-15-88) Xrom elementining davriy jadvaldagi tartib raqami 24. Uning atomining tashqi qobig'idagi toq elektronlar soni nechta?
A) 4 B) 5
C) 6 D) 3 E) 2

14. (96-15-110) Saxarozaning bir dona molekulasining massasi necha grammga teng? ($M_r(C_{12}H_{22}O_{11}) = 342$)
A) $0,57 \cdot 10^{-21}$ B) $1,14 \cdot 10^{-22}$
C) $0,57 \cdot 10^{-22}$ D) $1,14 \cdot 10^{-22}$
E) $0,57 \cdot 10^{-22}$

15. (96-15-114) Tartib raqami 34 bo'lgan selen elementning Se^{-2} ionining elektron formulasini toping.
A) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2 3d^1 4p^4$
B) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2 3d^{10}$
C) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2 3d^8$
D) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2 3d^{10} 4p^6$
E) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10}$

16. (97-1-6) Quyida keltirilgan elektron konfiguratsiya qaysi elementning oksidlanish darajasi +2 bo'lgan zarrachasiga taalluqli? $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^2$
A) oltingugurt B) fosfor C) xlor
D) brom E) azot

17. (97-1-42) Elektron konfiguratsiyasi, $4s^1 3d^{10}$ xolda tugallangan elementning tartib raqamini toping.
A) 31 B) 27 C) 28 D) 30 E) 29

18. (97-2-39) Tartib raqami 16 bo'lgan element atomining eng yuqori valentlik imkoniyatini beradigan elektronlar sonini ko'rsating.
A) 1 B) 2 C) 4 D) 6 E) 8

19. (97-3-10) 4-energetik pog'onada ko'pi bilan nechta elektron bo'lishi mumkin?
A) 32 B) 25 C) 18 D) 8 E) 14

20. (97-3-11) Agar elementning elektron formulasi $...3s^2 3p^5$ bilan tugasa ning atomida nechta proton bor?
A) 13 B) 14
C) 15 D) 16 E) 17

21. (97-3-44) Berilliy ioniga mos keluvchi elektron formulani toping:
A) $1s^2 2s^2$ B) $1s^2 2s^1$ C) $1s^2$
D) $1s^2 2s^2 2p^1$ E) $1s^2 2s^2 2p^2$

22. (97-4-6) Quyidagi tuzlar:1) Marganes (II) xlorid; 2) Kobalt (II) xlorid; 3) Xrom (III) nitrat; 4) Mis (II) xlorid; 5) Temir (III) sulfat tarkibidagi qaysi metall ionning elektron formulasi $...3p^6 3d^5$ bilan tugallanadi.
A) faqat 1 B) faqat 2 C) faqat 3
D) 2 va 4 E) 1 va 5

23. (97-4-38) Elektron formulasi $...4s^2 3d^5$ bilan tugallanadigan elementning davriy sistemada joylashgan o'rnini aniqlang.
A) IV davr III guruhining qo'shimcha guruhchasida
B) III davr II guruhning asosiy guruhchasida
C) IV davr VII guruhning qo'shimcha guruhchasida
D) II davr V guruhning qo'shimcha guruhchasida
E) IV davr VII guruhining asosiy guruhchasida

24. (97-4-48) Qaysi element atomining elektron formulasi shartli ion Cr^{6+} ning elektron formulasi bilan bir xil?
A) kalsiy B) kripton C) xlor
D) argon E) oltingugurt

25. (97-4-58) Atom massasi 63,54 bo'lgan mis atomi ikkita izotop ^{63}Cu va ^{65}Cu aralashmasidan iborat. Aralashmadagi ^{63}Cu izotopning massa ulushini hisoblang.
A) 27 B) 73 C) 68 D) 47 E) 81

26. (97-4-60) Elektron formulasi $...4s^23d^1$ bilan tugallanadigan element atomining tartib raqamini aniqlang.
A) 20 B) 21 C) 22 D) 25 E) 24

27. (97-4-83) Elektron formulasi $1s^22s^22p^2$ va $1s^22s^22p^4$ bo'lgan elementlardan tashkil topgan kislota qoldig'i nomini aniqlang:
A) nitrat B) nitrit C) karbonat
D) sulfat E) fosfat

28. (97-5-6) IV davrining III guruh p-elementidagi umumiy elektronlar sonini toping:
A) 17 B) 29 C) 31 D) 19 E) 24

29. (97-5-47) Tartib raqami 33 bo'lgan elementning elektron qobiqchalari to'lib borish tartibi to'g'ri aks ettirilgan holatni ko'rsating:
A) 1s, 2s, 2p, 3p, 3s, 4s
B) 1s, 2s, 2p, 3s, 3p, 4s, 3d, 4p
C) 1s, 2p, 2s, 3p, 3s, 4p, 4s
D) 1s, 2s, 2p, 3s, 3p, 3d, 4s
E) 1s, 2s, 2p, 3s, 3p, 3d, 4s, 4p

30. (97-5-69) Galogenlarning tashqi energetik qobig'ida nechta toq elektronlar bo'ladi?
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4 E) 5

31. (97-6-5) Elektron konfiguratsiyasi $...6s^2$ bilan tugallangan element oksidining suvli eritmasi quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) vodorod xlorid; 2) litiy gidroksid; 3) kaliy sulfat; 4) karbonat angidrid; 5) temir (III) oksid; 6) vodorod oksid.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6
E) 1, 3, 4

32. (97-6-6) Qaysi element atomning qo'zg'almagan holatida juftlashmagan elektronlar soni ko'proq bo'ladi?
A) azot B) fosfor C) xrom D) temir
E) xlor

33. (97-6-13) Elektron formulasi $...4s^24p^3$ bilan tugallanadigan elementning eng yuqori oksidlanish darajali oksidi va gidroksidining formulasini aniqlang.
A) C_2O_5 va H_3CO_4
B) CO va $C(OH)_2$
C) C_2O_5 va $C(OH)_3$
D) CO_2 va HCO_3
E) CO_3 va H_2CO_4

34. (97-6-18) Elektron formulasi $...4s^23ds^5$ bilan tugallanadigan elementning elementlar davriy sistemasida joylashgan davr, guruh va guruhcha raqamini aniqlang.
A) V davr, VI guruhning asosiy guruhchasi
B) IV davr, VI guruhning qo'shimcha guruhchasi
C) IV davr, VII guruhning asosiy guruhchasi
D) IV davr, VII guruhning qo'shimcha guruhchasi
E) V davr, II guruhning asosiy guruhchasi

35. (97-6-52) Fosfor atomi qo'zg'almagan va qo'zg'algan holatlarida necha valentli bo'ladi?
A) 1 va 3 B) 3 va 5 C) 3 va 4 D) 2 va 6
E) 4 va 5

36. (97-6-56) Elektron formulasi $...3d^{10}4p^4$ bilan tugallangan elementning eng past va eng yuqori oksidlanish darajasini aniqlang.
A) –4 va +4 B) –1 va +7
C) –3 va +5 D) –2 va +6
E) –2 va +4

37. (97-7-23) Tartib raqami 25 bo'lgan element atomining nechta bo'sh d-orbitali bor?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) yo'q

38. (97-8-14) Elektron formulasi $...4s^23d^5$ bilan tugallangan element atomining:
1) tartib raqamini; 2) oxirgi energetik pog'onasidagi elektronlar sonini; 3) maksimal oksidlanish darajasini; 4) yadrodagi protonlar sonini aniqlang.
A) 25,7, +7,25 B) 24,2, +6,25
C) 26,3, –1-3,27 D) 25,2, +7,25
E) 25,2, –1-2,25

39. (97-8-23) Hali kashf etilmagan 108-element atomining tashqi d-orbitalida nechta elektron bo'ladi?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 6 E) 10

40. (97-9-6) Titan va xlorid ioniga tegishli elektron konfiguratsiyalarni ko'rsating:
1) $...3s^23p^6$; 2) $...3s^23p^4$; 3) $...4s^2$;
4) $...3d^24s^2$; 5) $...2s^22p^3$.
A) 3, 1 B) 5, 2 C) 1, 3 D) 4, 1 E) 4, 5

41. (97-10-6) Quyidagi atomlarning energetik pog'onalari ichidan metallmaslik xossani kuchliroq ifodalaydiganini ko'rsating:
A) $...3s^23p^3$ B) $...3s^23p^4$
C) $...3s^23p^6$ D) $...3s^2$
E) $...4s^23d^{10}4p^3$

42. (97-10-23) Xlor atomi uchun quyidagi elektron holatlardan atomning tinch holatiga mos keladiganini toping.
A) $1s^22s^22s^23p^43d^1$
B) $1s^22s^22p^63s^23p^33d^2$
C) $1s^22s^22p^63s^13p^33d^3$
D) $1s^22s^22p^63s^23p^5$
E) $...3s^13p^33d^3$

43. (97-10-43) Uchinchi davr elementlarining atomlari eng ko'pi bilan qancha elektronga ega bo'lishi mumkin?
A) 4 B) 8 C) 16 D) 18 E) 32

44. (97-10-97) Bittadan kaliy va temir metallari atomlarining massalarini (g) toping.
A) $6,48\cdot10^{23}$ va $0,93\cdot10^{-23}$
B) $6,5\cdot10^{-24}$ va $9,3\cdot10^{-24}$
C) $6,48\cdot10^{-24}$ va $9,3\cdot10^{-23}$
D) 39 va 55,8
E) $3,9\cdot10^{-23}$ va $5,6\cdot10^{-23}$

45. (97-10-110) Kaliy ionida nechta to'liq elektron qavat va jami nechta elektron bor?
A) 3 va 19 B) 3 va 18
C) 2 va 18 D) 3 va 20 E) 2 va 19

46. (97-10-117) $1s^22s^22p^63s^23p^64s^23d^{10}4p^65s^1$ elektron formulaga ega bo'lgan elementni ko'rsating.
A) K B) Cu C) Fr D) Cs E) Rb

47. (97-10-133) Fosfor atomi uchun normal holatni qaysi elektron konfiguratsiya ifodalaydi?
A) $1s^22s^22p^53s^23p^23d^2$
B) $1s^22s^22p^63s^13p^63d^3$
C) $1s^22s^22p^63s^23p^33d^3$
D) $1s^22s^22p^63s^23p^3$
E) $1s^22s^22p^63s^23p^53d^1$

48. (97-10-174) Elektron formulasi $[^{18}Ar]\ 3d^34s^2$ bo'lgan elementni aniqlang.
A) Sc B) Ti C) V D) Cr E) Mn

49. (97-11-109) Elektron formula asosida eng kuchli oksidlovchi elementlar juftini belgilang.
A) $1s^22s^22p^1$; $1s^22s^22p^2$
B) $1s^22s^22p^4$; $1s^22s^22p^3$
C) $1s^22s^22p^6$; $1s^22s^22p^4$
D) $1s^22s^22p^5$; $1s^22s^22p^4$
E) $1s^22s^22p^5$; $1s^22s^22p^6$

50. (97-11-111) Elektron formulasi $1s^22s^22p^4$ bo'lgan elementga quyidagi xususiyatlardan qaysinisi xos?
1) yuqori oksidlanish darajasi +4; 2) allotropik shakl o'zgarish mavjud; 3) kuchli qaytaruvchi; 4) zaharli yashil tusli gaz; 5) valentligi 2,4; 6) reaksiyada oksidlovchi ham, qaytaruvchi ham.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 5 D) 2, 6 E) 4, 5

51. (97-11-112) Oksidlanish darajasi +5 bo'lgan xlor ioniga mos elektron formulani aniqlang.
A) $...3s^23p^53d^0$ B) $...3s^13p^33d^1$
C) $...3s^2$ D) $...3s^23p^63d^3$
E) $...3s^23p^63d^0$

52. (98-1-16) Mishyak atomida nechta elektron bilan to'lgan qobiq va qobiqchalar borligini ko'rsating: [Z(As) = 33]
A) 3,3 B) 4,3 C) 4,8 D) 3,7 E) 2,8

53. (98-2-41) Elektron formulasi $...4s^13d^{10}$ bilan tugallanadigan elementning 16 gramm konsentrlangan sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan gazning hajmini (l) aniqlang.
A) 5,4 B) 2,24 C) 5,60
D) 11,2 E) 22,4

54. (98-4-1) Kislorod atomi nechtadan s- va p-elektronlarga ega? [Z(O) = 8]
A) 2 ta s- va 4 ta p
B) 4 ta s- va 4 ta p
C) 2 ta s- va 6 ta p
D) 2 ta 5- va 8 ta p
E) 6 ta s- va 2 ta p

55. (98-4-2) Fosfor atomining tashqi elektron qobig'ida nechta elektron mavjud? [Z(P) = 15]
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

56. (98-6-7) Qaysi elementlar davriy sistemaning II va VI guruhida joylashgan?
1) $...2s^2$; 2) $...3s^3$; 3) $...4p^6$; 4) $...2p^4$;
5) $...3p^4$; 6) $...2p^6$.
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3 C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6
E) 1, 3, 6

57. (98-6-8) Davriy sistemadagi X element atrofidagi 4 ta qo'shni elementlar nisbiy atom massalari 128, 32, 80, 75 ga teng. Shu ma'lumotlar asosida X elementning nisbiy atom massasini aniqlang.
A) 95,9 B) 52,0 C) 78,5 D) 127 E) 99

58. (98-6-24) Qaysi elementlar birikishidan ionli xususiyati eng yuqori bo'lgan birikma hosil bo'ladi?
A) $...6s^1 + ...5p^3$ B) $...6s^1 + ...2p^5$
C) $...3p^2 + ...3p^3$ D) $...2s^1 + ...5p^5$
E) $...2s^1 + ...2p^5$

59. (98-6-26) Elektron formulasiga asoslanib, ionlanish energiyasi qaysi elementlarda katta bo'lishini aniqlang.
A) $...2p^5$, $...3p^5$ B) $...2p^2$, $...3p^3$
C) $...2s^1$, $...3s^1$ D) $...2p^3$, $...3p^3$
E) $...2s^2$, $...3s^2$

60. (98-6-35) Elektron formulasi qanday bo'lgan elementlar juftligi molekulyar kristall panjarali modda hosil qila oladi?
1) $1s^22s^1$; 2) $1s^22s^22p^1$; 3) $1s^22s^22p^3$;
4) $1s^22s^22p^2$; 5) $1s^22s^22p^6$; 6) $1s^22s^22p^4$.
A) 1 va 3 B) 2 va 5
C) 3 va 5 D) 1 va 5
E) 4 va 6

61. (98-8-43) d-elementlar joylashgan qatorni aniqlang.
A) Al, Sc, La B) Ti, Ge, Sn
C) Ti, V, Cr D) La, Ge, Hf
E) K, Cu, Ag

62. (98-8-45) Tartib raqami 28 bo'lgan elementning qisqartirilgan elektron formulasini ko'rsating.
A) $...3d^84s^1$ B) $...4s^23d^7$
C) $...3d^84s^2$ D) $...3d^74s^2$
E) $...3d^94s^2$

63. (98-8-76) 3d-pog'onachaga elektronlarning joylashishi tartib raqami necha bo'lgan elementdan boshlanib, qaysi tartib raqamli elementda tugallanadi?
A) 20; 29 B) 21; 30 C) 22; 31
D) 23; 32 E) 24; 33

64. (98-8-77) $...3s^23p^5$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lgan element uchun: 1) davr tartib raqamini; 2) energetik pog'onalar bo'yicha elektronlarning taqsimlanishini; 3) valent elektronlarning maksimal sonini ko'rsating.
A) III, 2e8e7e, 5 B) IV, 2e2e7e, 4
C) III, 2e8e7e, 7 D) V, 1e8e7e, 6
E) IV, 2e8e7e, 5

65. (98-8-78) 5p-energetik pog'onachadan keyin qaysi pog'onacha elektron bilan to'la boshlaydi?
A) 6s B) 5d C) 4f D) 4d E) 5s

66. (98-9-6) Elektron formulalari keltirilgan elementlarni atomlarining metallik aktivligi ortib borish tartibida joylashtiring.
1) $1s^22s^22p^63s^1$; 2) $1s^22s^22p^63s^23p^64s^1$;
3) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^{10}4s^2$; 4) $1s^22s^1$.
A) 4, 2, 1, 3 B) 2, 3, 1, 4
C) 3, 2, 1, 4 D) 3, 4, 1, 2
E) 1, 2, 3, 4

67. (98-10-4) Modda molekulasining massasi $5{,}65\cdot10^{-26}$ kg bo'lsa, uning nisbiy molekulyar massasi qanchaga teng bo'ladi? [m(s) ≈ $2\cdot10^{-26}$ kg].
A) 34 B) 36 C) 38 D) 32 E) 48

68. (98-10-17) As^{5+} ionning elektron konfiguratsiyasini aniqlang [${}^{75}_{33}As$].
A) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^{10}$
B) $1s^22s^22p^63s^23p^64s^24p^3$
C) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^{10}4s^24p^3$
D) $1s^22s^22p^63s^23p^64s^24p^3$
E) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^54s^24p^3$

69. (99-1-21) Fosfid ionining elektron konfiguratsiyasi qaysi inert gazning, galogen va ishqoriy metall ionlarining konfiguratsiyasiga o'xshash bo'ladi?
A) neon, ftor, litiy
B) argon, xlor, kaliy
C) argon, ftor, natriy
D) neon, xlor, litiy
E) neon, ftor, natriy

70. (99-1-22) Oksidlanish darajasi +4 bo'lgan kremniy ionining elektron konfiguratsiyasi qaysi element atomining elektron konfiguratsiyasiga o'xshash bo'ladi?
A) argon B) geliy C) neon D) natriy
E) xlor

71. (99-1-37) Qaysi qatorda elementlar ulardagi toq elektronlar soni ortib borishi tartibida joylashtirilgan?
A) skandiy, titan, vanadiy, xrom, marganes
B) skandiy, titan, vanadiy, marganes, xrom
C) marganes, xrom, vanadiy, titan, skandiy
D) titan, vanadiy, skandiy, xrom, marganes
E) xrom, marganes, vanadiy, titan, skandiy

72. (99-3-4) Litiy, natriy, kaliy, xlor va brom atomlaridagi elektronlar bilan to'lgan energetik pog'onalar sonini ko'rsating.
A) 1, 2, 2, 2, 3 B) 2, 3, 3, 2, 3
C) 1, 3, 3, 2, 2 D) 2, 2, 2, 3, 2
E) 1, 2, 3, 2, 3

73. (99-3-6) Qo'zg'almagan holatda: 1) bor; 2) mishyak; 3) simob; 4) xrom atomlaridagi toq elektronlar sonini aniqlang.
A) 1, 4, 1, 4 B) 3, 5, 2, 1 C) 2, 3, 0, 5
D) 1, 3, 0, 6 E) 2, 2, 1, 6

74. (99-3-36) Qo'rg'oshin, galliy, surma, kalsiy va yod atomlaridagi valent elektronlar soni keltirilgan qatorni toping.
A) 2, 2, 5, 2, 5 B) 4, 3, 5, 2, 7
C) 4, 4, 3, 2, 6 D) 4, 3, 5, 3, 7
E) 4, 2, 5, 4, 7

75. (99-4-36) Oltinchi davr elementi uchun elektron formula to'g'ri yozilgan javobni ko'rsating.
A) $...5d^{10}4f^{14}6s^26p^6$ B) $...4f^{14}5d^{10}6s^26p^6$
C) $...6s^24f^{14}5d^{10}6p^6$ D) $...4f^{14}6s^25d^{10}6p^6$
E) $...6s^26p^64s^{14}5d^{10}$

76. (99-6-42) Agar nisbiy atom massa birligi qiymati sifatida uglerod izotopi-12 massasining 1/12 qismini emas, 1 atom uglerod massasi 12 ni qabul qilsak moddaning bir mol miqdorining massasi o'zgaradimi?
A) o'zgarmaydi
B) 12 marta kattalashadi
C) 12 marta kamayadi
D) modda tarkibiga kiruvchi elementlar massalariga qarab o'zgaradi
E) elementlar izotoplari massasiga qarab o'zgaradi

77. (99-6-43) Qaysi elementlarda elektron ko'chish ("sakrash") kuzatiladi?
1) xrom; 2) marganes; 3) mis; 4) vanadiy; 5) titan; 6) temir; 7) azot; 8) rux.
A) 1, 2 B) 3, 5
C) 1, 3 D) 4, 6 E) 7, 8

78. (99-6-53) Ammoniy dixromat tarkibidagi xromning elektron konfiguratsiyasini toping.
A) $1s^22s^22p^63s^23p^6$
B) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^44s^2$
C) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^54s^1$
D) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^4$
E) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^5$

79. (99-6-55) Mishyakning eng yuqori oksidlanish darajasiga ega bo'lgan ionning elektron konfiguratsiyasini toping?
A) $...3s^23p^63d^{10}4s^24p^3$
B) $...3p^64s^2$
C) $...3p^63d^{10}$
D) $...3d^{10}4s^24p^5$
E) $...3d^{10}4s^24p^1$

80. (99-10-5) Uglerodning bitta atomi massasi necha grammni tashkil etadi?
A) $3{,}01\cdot10^{-22}$ B) $2\cdot10^{-22}$
C) $0{,}2\cdot10^{-23}$ D) $3{,}01\cdot10^{-23}$
E) $2\cdot10^{-23}$

81. (99-10-6) Kislorodning 1 ta molekulasi massasini (g) aniqlang.
A) $5{,}3\cdot10^{-23}$ B) $0{,}53\cdot10^{-23}$
C) $32\cdot10^{-23}$ D) $3{,}2\cdot10^{-22}$
E) $5{,}3\cdot10^{-22}$

82. (99-10-33) Fe^0 va Fe^{+3} elektron konfiguratsiyalarini ko'rsating.
A) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^64s^2$; $1s^22s^22p^63s^23p^63d^{10}$
B) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^64s^1$; $1s^22s^22p^63s^23p^63d^5$
C) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^64s^2$; $1s^22s^22p^63s^23p^63d^5$
D) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^64s^2$; $1s^22s^22p^63s^23p^63d^9$
E) $1s^22s^22p^63s^23p^63d^64s^1$; $1s^22s^22p^63s^23p^63d^5$

83. (99-10-34) $1s^22s^22p^63s^23p^6$ elektron formulasiga qaysi element atomi yoki ioni muvofiq keladi?
A) Ar, Cl^-, S^{+4} B) Ar, Cl^+, Ca^{2+}
C) K^+, Ca^{2+}, Na^+ D) Ar, Cl^-, Ca^{2+}
E) Cl^-, Ar, Sa

84. (99-10-39) Hg^+ va Hg^{+2} ionlarda elektronlarning soni nechta?
A) 77 va 78 B) 80 va 81
C) 78 va 79 D) 79 va 78
E) 79 va 80

85. (99-10-40) Quyidagi qaysi atom yoki ionlar juftida elektronlarga nisbatan protonlarning soni ko'proq?
A) Na^+ va Cl^- B) K^+ va Cl^0
C) Cu^{+2} va Cl^- D) Cl^- va Cu^0
E) K^+ va Ca^{+2}

86. (00-1-3) Har bir energetik pog'onadagi elektronlarning maksimal sonini qaysi formula yordamida hisoblash mumkin?
A) $3n^2$ B) $4n^2$ C) $2n^2$
D) $2n^2 + 1$ E) $2n^2 - 1$

87. (00-1-19) Elektron formulasi quyidagicha bo'lgan atomlarning qaysi birida metallmaslik xossasi kuchliroq ifodalangan?
A) $...3s^2$ B) $...3s^23p^2$
C) $...3s^23p^5$ D) $...3s^23p^4$
E) $...3s^23p^1$

88. (00-1-20) Elektron formulasi quyidagicha bo'lgan atomlarning qaysi birida metallik xossasi kuchliroq ifodalangan?
A) $...4p^2$ B) $...3s^23p^2$ C) $...3p^23p^6$
D) $...3s^23p^5$ E) $...3s^{10}4s^1$

89. (00-5-8) Massaning atom birligi qiymatini ko'rsating.
A) $2\cdot10^{-23}$ B) $1{,}66\cdot10^{-24}$
C) 1 D) $\frac{1}{12}$ E) 12

90. (00-5-15) Azotning 1 ta molekulasining massasi (g) qanchaga teng?
A) 28
B) 14
C) $4{,}65\cdot10^{-23}$
D) $2{,}32\cdot10^{-23}$
E) $9{,}3\cdot10^{-23}$

91. (00-5-24) Natriy perxloratning beshta molekulasi massasini hisoblang.
A) 612,5 B) 122,5
C) $6130\cdot10^{-23}$ D) $1{,}02\cdot10^{-21}$
E) $10{,}2\cdot10^{-23}$

92. (00-5-33) Quyidagi zarrachalardan qaysilarining elektron konfiguratsiyasi marganes atomining barcha valent elektronlari ionlanganidan keyin qolgan elektron konfiguratsiyasiga o'xshash bo'ladi?
1) Ne; 2) Cr^-; 3) Ar; 4) K^+;
5) S^{2-}; 6) Kr; 7) Co^{2+}; 8) Al^{3+}
A) 1, 4, 7, 8 B) 2, 3, 4, 5
C) 2, 4, 6, 7 D) 3, 4, 5, 8
E) 2, 4, 6, 8

93. (00-9-1) Atomining tashqi elektron pog'onasi konfiguratsiyasi $...3s^23p^3$ bilan ifodalangan elementning nomi va elektron tuzilishiga ko'ra qaysi turkumga mansubligini aniqlang.
A) fosfor, p-element
B) oltingugurt, p-element
C) xlor, p-element
D) fosfor, d-element
E) azot, p-element

94. (00-9-3) Tartib raqami 36 bo'lgan element atomida nechta to'lgan elektron pog'ona va pog'onachalar bor?
A) 5 va 9 B) 4 va 8 C) 3 va 8 D) 6 va 8
E) 7 va 9

95. (00-9-4) Tartib raqami 20 bo'lgan element atomida nechta to'lgan elektron pog'ona va pog'onachalar bor?
A) 4 va 6 B) 4 va 5 C) 2 va 6 D) 3 va 7
E) 4 va 4

96. (01-1-39) Silan molekulasidagi markaziy atomning elektron konfiguratsiyasini ko'rsating.
A) $1s^22s^22p^63s^23p^2$ B) $1s^22s^22p^63s^23p^6$
C) $1s^22s^22p^63s^2$ D) $1s^22s^22p^6$
E) $1s^22s^22p^43s^23p^2$

97. (01-2-22) Tabiiy xlor atom massalari 35 va 37 bo'lgan izotoplardan tashkil topgan. Ularning massa ulushlarini foizda aniqlang.
A) 77,6; 22,4 B) 75,4; 24,6
C) 74,6; 25,4 D) 75,6; 24,4
E) 76,1; 23,9

98. (01-2-23) Tabiy rubidiy tarkibida ikkita izotop ^{85}Rb va ^{87}Rb bo'ladi. Rubidiyning nisbiy atom massasi 85,47 ga teng. Har qaysi izotopning massa ulushini foizlarda aniqlang.
A) 75; 25 B) 72; 28
C) 76,50; 23,5 D) 50; 50 E) 78; 22

99. (01-4-2) Quyidagi elementlarni toq elektronlari kamayib borish tartibida joylashtiring: 1) marganes; 2) temir; 3) xrom; 4) ftor; 5) kremniy.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 3, 1, 2, 4, 5
C) 3, 2, 1, 4, 5 D) 3, 1, 2, 5, 4
E) 5, 4, 2, 1, 3

100. (01-4-3) Lavriy jadvalda 56-o'rinda joylashgan elementning tashqi pog'onasida nechta elektron bor?
A) 2 B) 18 C) 8 D) 0 E) 1

101. (01-4-4) Yadrosida 42 ta proton bo'lgan element atomining s-, p-, d- va f-elektronlar sonini aniqlang.
A) 2, 18, 10, 12 B) 8, 16, 18, 0
C) 10, 16, 14, 12 D) 9, 18, 15, 0
E) 18, 14, 10, 0

102. (01-4-13) Elektron konfiguratsiyasida faqat s-elektronlarga ega bo'lgan elementlarni aniqlang.
1) litiy; 2) azot; 3) vodorod; 4) berilliy; 5) geliy; 6) oltingugurt; 7) kislorod; 8) kaliy.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5
C) 1, 3, 4, 5 D) 4, 5, 6, 7
E) 5, 6, 7, 8

103. (01-4-14) Quyidagi elementlarni atomlarida s-elektronlar soni kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) berilliy; 2) litiy; 3) vodorod; 4) geliy.
A) 3, 1, 2, 4 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 1, 3, 4 D) 3, 4, 2, 1
E) 1, 2, 4, 3

104. (01-4-15) Quyidagi elementlar atomlarining qaysilari toq elektronlarga ega? 1) bor; 2) argon; 3) uglerod; 4) bariy; 5) kripton.
A) 1, 2 B) 2, 5
C) 1, 3 D) 4, 5 E) 2, 3, 4, 5

105. (01-4-19) Quyidagi elementlarning qaysilarida tashqi pog'onadagi s- va p-elektronlar soni teng emas?
1) uglerod; 2) kislorod; 3) kremniy; 4) magniy.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3 E) 2, 4

106. (01-4-20) Tashqi va tashqaridan bitta oldingi pog'onalaridagi elektronlar soni teng bo'lgan elementlarni ko'rsating.
A) neon va kripton B) kripton va ksenon
C) argon va neon D) berilliy va kripton
E) argon va berilliy

107. (01-5-45) Mis atomining absolyut massasi necha gramm?
A) $3{,}9\cdot10^{-23}$ B) $1{,}1\cdot10^{-22}$
C) $6{,}4\cdot10^{-23}$ D) $2\cdot10^{-22}$
E) $3\cdot10^{-22}$

108. (01-6-2) Qaysi qatorda ionlar toq elektronlarining soni ortib borish tartibida joylashtirilgan?
A) Cr^{2+}, Mn^{2+}, Co^{2+} B) Cr^{2+}, Mn^{2+}, Fe^{2+}
C) Co^{2+}, Cr^{2+}, Mn^{2+} D) Fe^{2+}, Mn^{2+}, Cr^{2+}
E) Mn^{2+}, Cr^{2+}, Co^{2+}

109. (01-6-39) Simob atomining absolyut massasi necha grammga teng?
A) $2{,}4\cdot10^{-2}$ B) $1{,}2\cdot10^{-23}$
C) $1{,}5\cdot10^{-22}$ D) $5{,}1\cdot10^{-22}$ E) $3{,}3\cdot10^{-22}$

110. (01-8-2) Elektron konfiguratsiyasi $...5s^04d^{10}$ bilan tugaydigan elementini aniqlang.
A) kripton B) ksenon C) palladiy
D) mis E) kumush

111. (01-10-14) Xohlagan elementning tashqi elektron pog'onasidagi maksimal elektronlar sonini ko'rsating.
A) 2 B) 22 C) 18 D) 32 E) 8

112. (01-10-46) Quyidagi tuzlarning qaysi birida geliy va neon elektron konfiguratsiyasiga ega bo'lgan ionlar qatnashgan?
A) ammiak B) litiy ftorid
C) litiy xlorid D) natriy ftorid
E) magniy ftorid

113. (01-11-13) Elektron konfiguratsiyasi nodir gazniki kabi bo'lgan, qaytaruvchi xususiyatiga ega bo'lgan ionlarni toping.
1) Ca^{2+}; 2) Fe^{2+}; 3) S^{2-}; 4) Cl^-; 5) Cu^+; 6) Cr^{3+}
A) 1, 2, 6 B) 5, 6
C) 3 D) 3, 4 E) 1, 2, 5, 6

114. (01-11-42) Quyidagi moddalarning qaysilarida kimyoviy bog'larda qatnashuvchi zarrachalarning biri neon elektron qobig'iga, ikkinchisi esa argon elektron qobig'iga ega?
1) magniy ftorid; 2) magniy xlorid; 3) kalsiy xlorid; 4) kalsiy ftorid; 5) uglerod (IV) xlorid.
A) 1, 5 B) 1, 4
C) 2, 3 D) 2, 4 E) 1, 2

115. (01-11-45) Ikki valentli metall ionlarining elektron konfiguratsiyasi qanday bo'lishi mumkin?
1) $...3s^1$; 2) $...3s^2$; 3) $...2p^6$; 4) $...3p^6$.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 1, 3 E) 2, 4

116. (02-3-71) Juftlashgan elektronlar soni toq elektronlar soniga teng bo'lgan elementlar atomlarini ko'rsating.
1) natriy; 2) litiy; 3) bor; 4) kremniy; 5) uglerod.
A) 2, 5 B) 1, 4 C) 3, 5 D) 2, 4 E) 1, 3

117. (02-3-72) Tarkibida faqat $3s^23p^6$ konfiguratsiya bo'lgan ionli birikmalarni ko'rsating:
1) kaliy xlorid; 2) temir (II) xlorid; 3) kalsiy sulfid; 4) temir (III) xlorid; 5) titan (IV) xlorid.
A) 2, 3, 5 B) 2, 3, 4
C) 1, 2, 5 D) 2, 4, 5 E) 1, 3, 5

118. (02-4-14) "Mazkur davrdagi elementlarning elektronlar bilan to'lib borayotgan pog'onalar soni ayni davr tartib raqamiga teng" degan qoidaga bo'ysunmaydigan elementni toping.
A) molibden B) nikel
C) platina D) palladiy
E) poloniy

119. (02-4-15) Tarkibidagi faqat bir element atomining elektron konfiguratsiyasi geliyniki kabi bo'lgan birikmalarni toping:
1) berilliy xlorid; 2) berilliy gidrid; 3) litiy xlorid; 4) kalsiy gidrid; 5) metan.
A) 1, 2 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 1, 2, 3
E) 3, 4, 5

120. (02-5-9) Qo'zg'algan holatdagi brom atomining d-pog'onachasidagi elektronlari soni nechta?
A) 3 B) 1 C) 2 D) 10 E) 0

121. (02-5-10) Quyidagi zarrachalarning qaysilarida tashqi elektron qavati elektronlar bilan butunlay to'lgan?
1) natriy; 2) oltingugurt; 3) bir zaryadli neon katnoni; 4) kislorod anioni; 5) sulfid ioni.
A) 3 B) 1, 2 C) 4, 5 D) 4 E) 5

122. (02-5-11) Bir atom natriyning massasi necha grammga teng?
A) $1{,}66\cdot10^{-24}$ B) $2{,}0\cdot10^{-24}$
C) $2{,}66\cdot10^{-24}$ D) $23\cdot10^{-24}$
E) $38{,}18\cdot10^{-24}$

123. (02-6-35) N^{-3} zarrachasining elektron konfiguratsiyasini ko'rsating.
A) $1s^22s^22p^3$ B) $1s^22s^22p^6$
C) $1s^22s^22p^33d^3$ D) $1s^22s^22p^22d^4$
E) $1s^22s^23d^6$

124. (02-7-38) Radon atomida nechta energetik qavat elektronlar bilan to'lgan?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

125. (02-8-2) Germaniy atomining asosiy holatdagi elektron konfiguratsiyasini ko'rsating.
A) $...4s^14p^3$ B) $...4s^24p^2$
C) $...3d^94s^2$ D) $...3d^{10}4p^1$
E) $...4s^24p^4$

126. (02-8-7) Texnetsiy atomi uchun normal holatdagi elektron konfiguratsiyani aniqlang.
A) $...5s^24d^5$ B) $...5s^25p^5$
C) $...5s^15p^6$ D) $...5s^24d^25p^3$
E) $...4d^55s^2$

127. (02-8-8) Qaysi elektron konfiguratsiya qo'zg'algan holatni ifodalaydi?
1) $...2s^2$; 2) $...3s^23p^33d^1$; 3) $...4s^23d^2$; 4) $...3p^33d^2$; 5) $...3s^13p^33d^1$; 6) $...4s^23d^7$.
A) 2, 3, 6 B) 1, 4, 6 C) 2, 4, 5
D) 2, 3, 4, 5, 6 E) 1, 2, 3

128. (02-8-9) Qaysi pog'onacha oldin to'ladi: 6s yoki 4f va 5p yoki 4d?
A) 6s va 5p B) 6s va 4d
C) 4f va 5p D) 4f va 4d
E) hammasi bir vaqtda to'ladi

129. (02-8-45) Molibden atomining valent elektronlari asosiy holatda qanday elektron konfiguratsiyaga ega?
A) $...5s^25p^4$ B) $...5s^24d^4$
C) $...5s^14f^{14}4d^5$ D) $...5s^24f^{14}4d^4$
E) $...5s^14d^5$

130. (02-8-47) Uchinchi energetik pog'onasida 13 ta elektron bor bo'lgan elementlarni ko'rsating:
1) vanadiy; 2) xrom; 3) molibden; 4) marganes; 5) temir; 6) nikel.
A) 2, 3 B) 4, 5
C) 1, 5 D) 2, 4 E) 1, 6

131. (02-11-51) Misning nisbiy atom massasi 63,54 bo'lsa, uning ikkita izotopi ^{63}Cu va ^{65}Cu lardan ^{63}Cu ning mol ulushini (%) hisoblang.
A) 72,5 B) 74 C) 71 D) 72 E) 73

132. (03-1-55) Germaniy atomida elektronlar bilan to'lgan energetik pog'onachalarning soni nechta?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7 E) 8

133. (03-2-31) Tabiatda tarqalgan magniyning 78,6% ini ^{24}Mg izotopi, 10,1% ini ^{25}Mg izotopi va 11,3% ini ^{26}Mg izotopi tashkil qiladi. Magniyning o'rtacha nisbiy atom massasini toping.
A) 24,43 B) 24,33 C) 24,53
D) 24,00 E) 24,13

134. (03-2-32) O'rtacha nisbiy atom massasi 69,72 bo'lgan galliy elementining tabiatda ^{71}Ga va ^{69}Ga izotoplari mavjud. Ularning tabiatdagi massa ulushlarini toping.
A) 36 va 64 B) 56 va 44
C) 38 va 62 D) 42 va 58
E) 50 va 50

135. (03-3-2) Pog'onachalardagi elektronlarning maksimal soni qanday formula bilan aniqlanadi?
A) $2n^2$ B) $2(2l + 1)$ C) n^2
D) $2l + 1$ E) $2(2l - 1)$

136. (03-3-3) Lantan atomida nechta bo'sh f-orbital bor?
A) 0 B) 1 C) 6 D) 5 E) 7

137. (03-3-4) Qalay atomining 5p-pog'onachasida normal va qo'zg'algan holatlarda nechtadan elektron bo'ladi?
A) 0 va 2 B) 4 va 3 C) 2 va 3 D) 1 va 3 E) 1 va 4

138. (03-3-5) Hali kashf etilmagan 114-element qaysi oilaga mansub bo'lishi mumkin?
A) s B) p C) d D) f E) g

139. (03-3-37) E^{3+} ioni tarkibida 118 ta neytron va 76 ta elektron bo'ladi. Shu elementning atom massasi nechaga teng?
A) 118 B) 121 C) 79 D) 197 E) 201

140. (03-4-4) 100 dona azot atomining massasi necha gramm bo'ladi?
A) $2{,}34\cdot10^{-21}$ B) $23{,}24\cdot10^{-24}$
C) $1{,}7\cdot10^{-21}$ D) $1{,}39\cdot10^{-22}$
E) $1{,}66\cdot10^{-24}$

141. (03-4-22) To'rtinchi elektron pog'onada nechta energetik katakcha (yacheyka) bo'ladi va $N = 2n^2$ formula bilan atomdagi qanday zarrachalar soni hisoblab topiladi?
A) 16 ta va elektron B) 32 ta va ^1n, p^1
C) 5 ta va ^1n D) 7 ta va pozitron
E) 13 ta va elektron

142. (03-4-23) Qavatlarning elektronlar bilan to'lib borish tartibiga binoan 4f-pog'onachadan oldin qaysi energetik pog'onacha elektron bilan to'ladi?
A) $5d^1$ B) $6s^2$ C) $5d^2$ D) $4p^6$ E) $6d^3$

143. (03-4-24) 4f-pog'onacha qaysi energetik pog'onachadan oldin elektronlar bilan to'ladi?
A) 5d B) 5p
C) 4d D) 4p E) 6s

144. (03-6-50) Atom massasi $4\cdot10^{-26}$ kg ga teng bo'lgan elementning nomini aniqlang.
A) uglerod B) magniy
C) kalsiy D) temir
E) kislorod

145. (03-7-12) Atomning massasi $5{,}845\cdot10^{-26}$ kg ga teng. Uning yadrosidagi protonlar soni 17 ta ekanligi ma'lum bo'lsa, undagi neytronlar sonini toping.
A) 17 B) 18 C) 19 D) 20 E) 21

146. (03-7-13) Bir element atomining massasi $6{,}179\cdot10^{-26}$ kg ga tengligi va undagi protonlar soni 17 ta ekanligi ma'lum bo'lsa, undagi neytronlar sonini toping.
A) 17 B) 18 C) 19 D) 20 E) 21

147. (03-7-16) "Temirning nisbiy atom massasi 56 ga teng" degan jumla sizga nimani anglatadi?
A) bitta temir atomining massasi 56 g ga tengligini
B) bir mol temir atomlarining massasi 56 g ga tengligini
C) bitta temir atomining massasi bitta $^{12}_{6}C$ atomining massasidan 56 marta katta ekanligini
D) bitta temir atomining massasi bitta uglerod atomi massasining 1/12 qismidan 56 marta og'irligini
E) $6{,}02\cdot10^{23}$ ta temir atomlarining massasi 56 g ga tengligini

148. (03-7-61) Nisbiy atom massasining o'lchov birligi qilib C^{12} uglerod izotopi massasining 1/12 qismi emas, balki 1/4 qismi qabul qilindi deylik. U holda 1 mol moddaling massasi qanday o'zgaradi?
A) 2 marta ortadi B) 3 marta ortadi
C) o'zgarmaydi D) 4 marta ortadi
E) 3 marta kamayadi

149. (04-1-37) Soni 150 ta bo'lgan azot atomlari massasini xisoblang.
A) $3{,}5\cdot10^{-21}$ B) $23{,}24\cdot10^{-24}$
C) $1{,}71\cdot10^{-21}$ D) $1{,}39\cdot10^{-22}$
E) $1{,}66\cdot10^{-24}$

150. (04-1-52) Bitta natriy atomining massasi ... .
A) $1{,}66\cdot10^{-23}$ B) $2{,}0\cdot10^{-22}$
C) $2{,}66\cdot10^{-24}$ D) $23\cdot10^{-24}$
E) $38{,}18\cdot10^{-24}$

151. (04-1-67) Nisbiy atom massasi 69,72 bo'lgan galliy tarkibida ^{71}Ga va ^{69}Ga bo'lsa, ularning mol ulushlarini hisoblang.
A) 42 va 58 B) 56 va 44
C) 38 va 62 D) 36 va 64
E) 50 va 50

152. (04-1-76) Agar nisbiy atom massa qiymatida uglerod-12 ning 1/12 qismi emas, 1/3 qismi olinsa, bir mol modda massasi qanchaga o'zgaradi?
A) 2 marta ortadi B) 4 marta ortadi
C) o'zgarmaydi D) 3 marta ortadi
E) 3 marta kamayadi

153. (04-1-78) Atom massasi $6{,}68\cdot10^{-26}$ kg bo'lgan elementni ko'rsating.
A) uglerod B) magniy C) kalsiy
D) temir E) kislorod

154. (04-1-201) Tartib raqami 34 bo'lgan elementning elektron qobig'ida nechta p va s elektronlar bor?
A) 12 B) 14 C) 24 D) 16 E) 18

155. (04-1-205) Mishyakning eng past oksidlanish darajasiga ega bo'lgan ionining elektron konfiguratsiyasini toping?
A) $...3s^23p^63d^{10}4s^34p^6$
B) $...3p^64s^2$
C) $...3p^63d^{10}$
D) $...3d^{10}4s^24p^5$
E) $...3d^{10}4s^24p^1$

156. (04-1-208) Agar elementning elektron konfiguratsiyasi $...4s^13d^5$ bilan tugasa, uning atomidagi neytronlar, protonlar va elektronlar yig'indisini toping.
A) 24 B) 52 C) 72 D) 76 E) 28

157. (04-1-213) Tashqi elektron qavati elektronlar bilan butunlay to'lmagan zarrachalarni tanlang?
1) natriy; 2) oltingugurt; 3) bir zaryadli neon kationi; 4) kislorod anioni; 5) sulfid ioni.
A) 3 B) 1, 2, 3 C) 4, 5 D) 4 E) 5

158. (04-1-217) Davriy sistemaning III gruppasidagi p-elementlar atomlari qanday umumiy elektron formulaga ega?
A) ns^2np^2 B) ns^1np^3 C) np^4 D) ns^2np^3 E) ns^2np^1

159. (04-1-218) Quyidagi elektron konfiguratsiyalarning qaysi biri gipoxlorit kislotadagi xlorga taalluqli?
A) $...3s^23p^4$ B) $...3s^2p^5$
C) $...3s^2p^1$ D) $...3s^23p^2$
E) $...3s^23p^6$

160. (04-1-228) Elektron konfiguratsiyasi $...5s^24d^2$ bilan tugagan element atomining yadro zaryadi qiymatini toping.
A) 40 B) 24 C) 22 D) 42 E) 72

161. (04-1-233) Qaysi element atomi 3d-pog'onachada maksimal miqdorda bo'sh katakchalarga ega?
A) kalsiy B) titan
C) xrom D) vanadiy
E) selen

162. (04-1-297) Qaysi energetik pog'onachadagi elektronlar hisobiga vodorod va ftor molekulalari atomlari orasidagi bog'lanish sodir bo'ladi?
A) 2s, 2p B) 1s, 2p C) 1s, 3p D) 2s, 3p E) 1s, 3s

163. (04-1-520) Elektron konfiguratsiyasi $...6s^2$ bilan tugallangan element oksidining suvli eritmasi quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirisha olmaydi?
1) vodorod xlorid; 2) litiy gidroksid; 3) kaliy sulfat; 4) karbonat angidrid; 5) temir (III) oksid; 6) vodorod oksid.
A) 1, 2, 3 B) 2, 5, 6
C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6
E) 1, 3, 4

164. (05-1-89) Xlor atomining maksimal valentlik hosil qilish imkoniyati nechaga teng?
A) 7 B) 4 C) 3
D) 5 E) 6

165. (05-1-94) Tartib raqami 34 bo'lgan elementning elektron qobig'ida nechta va p elektronlar bor?
A) 6 va 18 B) 10 va 14
C) 12 va 12 D) 8 va 16
E) 8 va 14

166. (05-1-110) Elementning elektron formulasining oxiri $...4s^34p^4$ bilan tugaydi. Shu elementning tartib raqamini aniqlang.
A) 33 B) 34 C) 35 D) 16 E) 52

167. (v4-103-2) IV davr VI guruhidagi d-elementida nechta s-elektron bor?
A) 5 B) 9 C) 8 D) 7 E) 6

168. (v4-105-4) Elektron formulasi $1s^22s^22p^63s^23p^64s^24p^2$ bo'lgan elementning kimyoviy xossalari qaysi elementlarnikiga o'xshaydi?
1) uglerod; 2) azot; 3) kislorod; 4) fosfor; 5) selen.
A) 3, 4 B) 4, 5
C) 1, 2 D) 2, 4
E) 2, 3

169. (v4-106-4) 5s-elektroni 4d- qavatga ko'chib o'tgan elementlarni toping.
1) xrom; 2) kumush; 3) vanadiy; 4) niobiy; 5) mis; 6) titan; 7) molibden; 8) palladiy; 9) radon
A) 2, 4, 7, 6 B) 3, 4, 5, 9
C) 1, 3, 5, 7 D) 1, 4, 5, 8
E) 2, 3, 5, 8

170. (v4-114-4) Xromning tashqi elektron pog'onasida nechta elektron bor?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 6 E) 1

171. (v4-115-4) Tartib raqami Z = 27 bo'lgan elementning asosiy holatida nechta toq elektron bo'ladi?
A) 4 B) 2 C) 6 D) 3 E) 5

172. (v4-116-4) Elektron konfiguratsiyalari quyida keltirilgan elementlarning qaysilari metallmaslik xossasiga ega?
1) $...3d^24s^2$; 2) $...3s^23p^5$; 3) $...2s^23p^63s^1$; 4) $...2s^22p^4$.
A) 2 va 4 B) 1 va 4 C) 1 va 2 D) 2 va 3 E) 1 va 3

173. (v4-118-17) 5 ta marganes atomining absolyut massasi necha gramm?
A) $4{,}6\cdot10^{-22}$ B) $5{,}5\cdot10^{-23}$
C) $7{,}9\cdot10^{-23}$ D) $9{,}13\cdot10^{-23}$
E) $9{,}1\cdot10^{-22}$

174. (v4-119-4) Magniy atomining tarkibida nechta s- va p-elektronlar bor?
A) 6 ta s va 6 ta p B) 5 ta s va 7 ta p
C) 4 ta s va 8 ta p D) 8 ta s va 4 ta p
E) 2 ta s va 10 ta r

175. (v4-120-4) Elektron konfiguratsiyalarning qaysi biri tartib raqami 23 bo'lgan elementga mos keladi?
A) $...3d^54s^2$ B) $...3d^44s^2$
C) $...3s^23d^3$ D) $...3d^54s^1$
E) $...3d^34s^2$

176. (v4-129-4) Elementlarning d qobiqchalarida 8 ta elektron bo'lganda, ularning nechtasi toq holda joylashadi?
A) 3 B) 5 C) 1 D) 4 E) 2

177. (v4-130-4) Elementning elektron formulasining oxiri $...4s^24p^4$ bilan tugaydi. Shu elementning tartib raqamini aniqlang.
A) 35 B) 52 C) 33 D) 16 E) 34

178. (v5-104-4) Xrom atomida elektronlar bilan to'lgan pog'ona va pog'onachalar sonini ko'rsating.
A) 3, 6 B) 2, 5 C) 4, 7 D) 3, 5 E) 4, 6

179. (v5-107-4) H_2O_2 molekulasidagi kislorodning elektron konfiguratsiyasi – ... .
A) $...2s^22p^6$ B) $...2s^02p^0$
C) $...2s^22p^4$ D) $...2s^22p^5$ E) $...2s^22p^2$

180. (v5-110-2) Quyidagi qaysi elementlar atomida bitta s-elektron d-orbitalga ko'chib o'tgan?
1) Zn; 2) Cu; 3) Fe; 4) Cr.
A) 1, 4 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 2, 4 E) 1, 3

181. (v5-110-4) Energetik pog'ona va pog'onachalarning elektronlar bilan to'lishi tartibida 3d dan avval elektron qaysi orbitalga tushadi?
A) 3s B) 4d C) 4s D) 4p E) 3p

182. (v5-111-4) Arsenat kislotadagi mishyakning elektron konfiguratsiyasi qanday bo'ladi?
A) $...4s^04p^0$ B) $...4s^24p^0$
C) $...4s^24p^3$ D) $...4s^23d^{10}4p^3$
E) $...4s^24p^6$

183. (v5-111-17) Xlor molekulasining massasini (g) toping.
A) 35,5 B) 107,5 C) $5{,}9\cdot10^{-23}$
D) 71 E) $11{,}8\cdot10^{-23}$

184. (v5-112-4) Quyida keltirilgan elektron konfiguratsiya qaysi elementning oksidlanish darajasi +7 bo'lgan zarrachasiga tegishli? $1s^22s^22p^6$.
A) xlor B) argon C) oltingugurt
D) kremniy E) fosfor

185. (v5-112-10) Bitta kislorod molekulasining massasini (g) hisoblang.
A) $5{,}3\cdot10^{-23}$ B) $2{,}6\cdot10^{-23}$ C) 32
D) $6{,}02\cdot10^{-23}$ E) 16

186. (v5-112-17) Bir dona xrom atomining massasi necha kilogramm bo'ladi?
A) $6{,}38\cdot10^{-25}$ B) $6{,}83\cdot10^{-27}$
C) $8{,}63\cdot10^{-26}$ D) $8{,}36\cdot10^{-26}$
E) $3{,}68\cdot10^{-24}$

187. (v5-120-4) NH_4^+ ionidagi azotning elektron tuzilishi qanday bo'ladi?
A) $1s^22s^22p^0$ B) $1s^22s^02p^0$
C) $1s^22s^22p^3$ D) $1s^22s^22p^5$
E) $1s^22s^22p^6$

188. (v6-101-6) Keltirilgan javoblarning qaysi birida silan molekulasidagi markaziy atomning elektron konfiguratsiyasi to'g'ri ko'rsatilgan?
A) $1s^22s^22p^63s^23p^6$ B) $1s^22s^22p^63s^23p^2$
C) $1s^22^22p^6$ D) $1s^22s^22p^63s^2$

189. (v6-102-6) Grafit bug'ining ultrabinafsha nurlanishga uchrashi natijasida hosil bo'lgan C^+ ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...2s^22p^1$ B) $...2s^12p^1$
C) $...2s^22p^3$ D) $...2s^22p^2$

190. (v6-105-6) Quyida berilgan atom va ionlar tarkibidagi toq elektronlar soni ortib borish tartibida joylashtirilgan javobni belgilang.
1) xrom; 2) kobalt (VI) kationi; 3) temir (III) kationi; 4) nikel (III) kationi; 5) marganes (II) kationi.
A) 1, 3, 5, 2, 4 B) 4, 2, 3, 5, 1
C) 2, 3, 1, 4, 5 D) 1, 5, 2, 4, 3

191. (v6-107-6) Uchinchi elektron pog'onada 13 ta elektron bo'lgan atom va ionlarni tanlang:
1) xrom; 2) kobalt (III) kationi; 3) temir (III) kationi; 4) nikel (III) kationi; 5) marganes (III) kationi.
A) 2, 4 B) 1, 4 C) 2, 3, 5 D) 1, 3, 5

192. (v6-114-6) Quyida keltirilgan elektron konfiguratsiya qaysi elementning oksidlanish darajasi +2 bo'lgan zarrachasiga taalluqli? $1s^22s^22p^63s^23p^63d^5$.
A) fosfor B) oltingugurt
C) marganes D) xlor

193. (v6-118-6) Kriptonning ultrabinafsha nurlanishga uchrashi natijasida hosil bo'lgan Kr^+ ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^23d^{10}4p^5$ B) $...4s^23d^94p^6$
C) $...4s^23d^{10}4p^65s^1$ D) .. $4s^23d^{10}4p^6$

194. (v7-101-4) Molibden atomidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.
A) 9; 15 B) 10; 14
C) 10; 15 D) 11; 13

195. (v7-102-4) Mis atomidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.
A) 9; 10 B) 7; 10 C) 7; 11 D) 8; 9

196. (v7-104-4) Palladiy atomidagi s va d elektronlar sonini hisoblang.
A) 11; 19 B) 10; 18
C) 8; 20 D) 9; 20

197. (v7-105-4) Kumush atomining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4p^64d^{10}5s^1$ B) $...5s^24d^9$
C) $...5s^14d^9$ D) $...4s^24p^64d^{10}5s^2$

198. (v7-106-4) Kobalt (III) ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^23d^{10}$ B) $...3s^23p^64s^23d^7$
C) $...3s^23p^63d^6$ D) $...4s^23d^4$

199. (v7-107-4) Temir (III) ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^03d^6$ B) $...3s^23p^64s^23d^6$
C) $...3s^23p^63d^5$ D) $...4s^23d^3$

200. (v7-109-4) Xrom atomining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^23d^6$ B) $...3s^23p^64s^24d^4$
C) $...4s^13d^5$ D) $...3s^22p^66s^22d^5$

201. (v7-110-4) Temir (III) ionidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.
A) 8; 6 B) 8; 3 C) 7; 8 D) 6; 5

202. (v7-111-4) Molibden atomining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^23d^{10}4p^65s^24d^4$ B) $...5s^24d^4$
C) $...4p^64d^55s^1$ D) $...5s^24d^6$

203. (v7-112-4) Ruteniy atomining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4d^65s^0$ B) $...5s^24d^6$
C) $...4s^24p^64d^55s^2$ D) $...4s^24p^64d^75s^1$

204. (v7-113-4) Niobiy atomining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^23d^{10}4p^65s^14p^6$ B) $...5s^24d^3$
C) $...5s^24d^4$ D) $...4s^24p^64d^45s^1$

205. (v7-115-4) Rodiy atomining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...5s^24d^6$
B) $...5s^24d^7$
C) $...4s^24p^64d^85s^1$
D) $...4s^24p^64d^85s^2$

206. (v7-117-4) Xrom atomidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.
A) 6; 3 B) 8; 4 C) 8; 5 D) 7; 5

207. (v7-124-4) Xrom (III) ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...3p^64d^13s^5$ B) $...3s^23p^64s^23d^4$
C) $...3p^64s^13d^2$ D) $...3s^23p^63d^3$

208. (v8-102-6) Oltin atomidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.
A) 11; 30 B) 12; 29
C) 11; 28 D) 12; 30

209. (v8-106-6) Co, Co^{+2}, Co^{+3} larning 3d pog'onachasidagi elektronlar sonini aniqlang.
A) 7, 6, 6 B) 7, 5, 4
C) 7, 5, 5 D) 7, 7, 6

210. (v8-108-6) Mn, Mn^{+2}, Mn^{+4} larning 3d pog'onachasidagi elektronlar sonini aniqlang.
A) 5, 4, 4 B) 5, 4, 3
C) 5, 5, 3 D) 5, 5, 5

211. (v8-111-6) Tartib raqami 44 bo'lgan elementda nechtadan s- va d-elektronlar bo'ladi?
A) 9; 17 B) 10; 16
C) 9; 18 D) 10; 18

212. (v8-114-6) ... ns pog'onachadan (n – 1)d ga bitta elektron o'tishi ro'y beradi.
A) mis, oltin va ruteniyda
B) xrom, marganets va niobiyda
C) texnetsiy, platina va kobaltda
D) molibden, kumush va palladiyda

213. (v8-123-6) Atomlarida ns pog'onachadan elektronlar ko'chishi hisobiga (n – 1)d pog'onachada to'la to'lish kuzatiladigan elementlarni tanlang.
A) mis, niobiy, rodiy, molibden
B) texnetsiy, mis, xrom, molibden
C) kumush, oltin, palladiy, mis
D) platina, oltin, kumush, ruteniy

214. (v8-125-6) Atomlarida ns pog'onachadan elektronlar ko'chishi hisobiga (n – 1)d pog'onachada yarim to'lish kuzatiladigan elementlarni tanlang.
A) mis, kobalt B) texnetsiy, molibden
C) kumush, palladiy D) xrom, molibden

215. (v9-105-4) Qaysi elementlar atomlarida ns pog'onachadan (n – 1) d pog'onachaga bitta elektron ko'chishi kuzatiladi?
1) xrom; 2) marganes; 3) kobalt; 4) mis; 5) texnetsiy; 6) ruteniy; 7) volfram; 8) kumush; 9) palladiy.
A) 2, 3, 5, 7 B) 1, 4, 6, 8, 9
C) 2, 3, 5, 7, 9 D) 1, 4, 6, 8

216. (v9-109-22) Temir (II) ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^23d^4$ B) $...3s^23p^63d^5$
C) $...3s^23p^64s^23d^4$ D) $...4s^03d^6$

217. (v9-112-3) Rodiy atomidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.
A) 9; 18 B) 10; 16
C) 10; 17 D) 9; 17

218. (v9-113-13) Kumush (I) ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
A) $...4s^24p^64d^{10}$ B) $...4p^64d^{10}5s^1$
C) $...5s^24d^9$ D) $...5s^24d^8$

219. (v9-114-35) Ruteniy atomining elektron konfiguratsiyasmi belgilang.
A)$...4s^24p^64d^75s^1$ B).. $4s^24p^64d^6$
C)$...4p^65s^24d^6$ D)$...4s^24p^64d^75s^2$

220. (v9-116-35) Quyida berilgan atom va ionlar tarkibidagi toq elektronlar soni ortib borishi tartibida joylashtirilgan javobni belgilang.
1) kobalt; 2) marganes (II) kationi; 3) temir (III) kationi; 4) nikel; 5) kobalt (III) kationi.
A) 2, 3, 5, 1, 4 B) 4, 1, 2, 5, 3
C) 4, 1, 5, 2, 3 D) 3, 2, 1, 5, 4

221. (v9-117-1) Atomlarida elektron ko'chish kuzatilmaydigan elementlarni belgilang.
1) texnetsiy; 2) mis; 3) xrom; 4) palladiy; 5) molibden; 6) volfram; 7) platina; 8) oltin; 9) kumush.
A) 2, 4, 8, 9 B) 4, 7
C) 3, 5 D) 1, 6

222. (v9-118-1) Uchinchi elektron pog'onada 14 ta elektrod bo'lgan atom va ionlarni tanlang:
1) kobalt (III) kationi; 2) xrom; 3) temir (II) kationi; 4) nikel (III) kationi; 5) temir.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 3, 5

223. (v9-119-22) Mn va Mn^{+2} larning 3d pog'onachasidagi elektronlar sonini aniqlang.
A) 5, 4 B) 5, 3 C) 5, 5 D) 5,6

224. (v9-126-1) Qaysi elementlar atomlarida ns pog'onachadan (n – 1)d pog'onachaga elektron ko'chishi kuzatilmaydi?
1) xrom; 2) texnetsiy; 3) volfram; 4) ruteniy; 5) platina; 6) palladiy.
A) 2, 3 B) 2, 3, 6
C) 1, 4, 5 D) 1, 4, 5, 6

225. (v11-101-29) Davriy sistemaning II va VI guruhida elektron konfiguratsiyalari keltirilgan qaysi elementlar joylashmagan?
1) ...$4p^6$; 2) ...$3p^2$; 3) ...$2s^2$; 4) ...$2p^4$; 5) ...$3p^4$; 6) ...$2p^6$.
A) 1, 4, 5 B) 3, 4, 5
C) 1, 2, 6 D) 1, 2, 3

226. (v11-101-34) Qaysi tuzlar tarkibidagi metall ionining elektron konfiguratsiyasi ...$3s^2 3p^6 3d^5$ bilan yakunlanadi?
1) marganets (II) sulfat; 2) kobalt (III) xlorid; 3) xrom (III) sulfat; 4) temir (II) xlorid; 5) temir (III) nitrat; 6) nikel (III) xlorid.
A) 1, 5 B) 1, 4, 6 C) 3, 6 D) 2, 4

227. (v11-102-34) Qalay atomining asosiy va qo'zg'algan holatlarda 5p-pog'onachasida nechtadan elektronlar bo'lishi mumkin?
A) 4 va 3 B) 1 va 3
C) 2 va 3 D) 0 va 2

228. (v11-103-11) Tashqi elektron qavati elektronlar bilan butunlay to'lgan zarrachalarni aniqlang:
1) natriy; 2) oltingugurt; 3) vodorod; 4) sulfid ioni.
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 4 D) 3

229. (v11-107-30) Asoslik xossasi katta bo'lgan element gidridi uchun elektron konfiguratsiya ns^2np^4 da n qiymatini tanlang.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

230. (v11-122-17) Quyidagi elementlarning qaysilarida tashqi pog'onasidagi toq elektronlar soni teng?
1) xrom; 2) azot; 3) mishyak; 4) marganes.
A) 1, 4 B) 1, 2 C) 1, 3 D) 2, 3

231. (v12z-201-28) Berilgan tartibda elementlar tarkibidagi s elektronlar soni qanday o'zgarishini aniqlang (elementlarning tartib raqami berilgan).
42 $\xrightarrow{1}$ 24 $\xrightarrow{2}$ 23 $\xrightarrow{3}$ 41
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-b, 2-b, 3-a
C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-a

232. (v12z-203-18) s- va d-pog'onalarida elektronlar soni teng bo'lgan elementni aniqlang.
A) Sr B) Co C) Cr D) Zn

233. (v12z-203-19) E^{+3} ioni ... $2p^6 3s^2$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) xrom B) azot
C) fosfor D) alyuminiy

234. (v12z-204-24) E^{-2} ioni ...$3s^2 3p^6$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) oltingugurt B) kremniy
C) selen D) xrom

235. (v12z-206-3) Berilgan tartibda elementlar tarkibidagi s elektronlar soni qanday o'zgarishini aniqlang (elementlarning tartib raqami berilgan).
43 $\xrightarrow{1}$ 42 $\xrightarrow{2}$ 41 $\xrightarrow{3}$ 40
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-b, 2-b, 3-b B) 1-b, 2-c, 3-a
C) 1-b, 2-a, 3-b D) 1-a, 2-c, 3-b

236. (v12z-211-20) E^{+5} ioni ...$2p^6 3s^2$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) N B) Cr C) P D) Cl

237. (v12z-211-32) 3p- va 3d-pog'onalaridagi elektronlar soni teng bo'lmagan atom yoki ionlarni tanlang.
1) Fe; 2) Ni; 3) Co; 4) Fe^{+2}; 5) Cr^{+2}; 6) Co^{+3}.
A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 2, 3, 4 D) 2, 5, 6

238. (v12z-212-14) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^3$ elektron konfiguratsiya $E_2(HPO_4)_3$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Mn B) Co C) Cr D) Fe

239. (v12z-216-28) E^{-1} ioni ...$2s^2 2p^6$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) neon B) ftor
C) natriy D) kislorod

240. (v12z-217-25) Berilgan tartibda elementlar tarkibidagi s elektronlar soni qanday o'zgarishini aniqlang (elementlarning tartib raqami berilgan).
47 $\xrightarrow{1}$ 46 $\xrightarrow{2}$ 45 $\xrightarrow{3}$ 44
a) kamayadi; b) ortadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-a, 2-a, 3-a B) 1-a, 2-c, 3-a
C) 1-a, 2-b, 3-c D) 1-a, 2-c, 3-b

241. (v12z-219-26) E^{+3} ioni ...$3s^2 3p^2$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) P B) Al C) Cl D) Cr

242. (v12z-220-32) E^{+1} ioni ...$3s^2 3p^6$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) xlor B) marganes
C) xrom D) brom

243. (v12z-228-11) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^1$ elektron konfiguratsiya K_2EO_4 tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Mn B) Cr C) P D) S

244. (v12z-240-1) E^{+5} ioni ...$3p^6 3d^{10} 4s^2$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) Br B) P C) Cl D) Cr

245. (v12z-257-1) Ruteniy atomidagi s- va d-elektronlar sonini belgilang.
A) 10; 16 B) 7; 17
C) 17; 9 D) 9; 17

246. (v12c-101-29) $1s^2 2s^2 2p^6$ elektron konfiguratsiya $(EOH)_3(PO_4)_2$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Fe B) Al C) Mg D) Ca

247. (v12c-102-4) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10}$ elektron konfiguratsiya K_2HEO_4 tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) As B) P C) Mn D) S

248. (v12c-102-33) p- va d-pog'onalaridagi elektronlar soni teng bo'lgan elementni aniqlang.
A) Pd B) Ba C) W D) Xe

249. (v12c-103-11) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^5$ elektron konfiguiatsiya ESO_4 tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Cu B) Mn C) Cr D) Fe

250. (v12c-104-15) $1s^2 2s^2 2p^6$ elektron konfiguratsiya $(AlOH)_3(EO_4)_2$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) S B) Cl C) N D) P

251. (v12c-105-31) E^{+7} ioni ...$3s^2 3p^6$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) marganes B) xlor
C) xrom D) brom

252. (v12c-108-23) $1s^2 2s^2 2p^6$ elektron konfiguratsiya $(NH_4)_2HEO_4$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Se B) Cl C) P D) S

253. (v12c-108-27) Berilgan tartibda elementlar tarkibidagi d-elektronlar soni qanday o'zgarishini aniqlang (elementlarning tartib raqami berilgan).
25 $\xrightarrow{1}$ 24 $\xrightarrow{2}$ 23 $\xrightarrow{3}$ 19
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c, 2-b, 3-b B) 1-c, 2-b, 3-a
C) 1-a, 2-b, 3-b D) 1-b, 2-b, 3-b

254. (v12c-109-12) E^{+4} ioni ...$3s^2 3p^6 3d^3$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) kobalt B) xrom
C) temir D) marganes

255. (v12c-109-23) Berilgan tartibda elementar tarkibidagi d-elektronlar soni qanday o'zgarishini aniqlang (elementlarning tartib raqami berilgan).
46 $\xrightarrow{1}$ 28 $\xrightarrow{2}$ 27 $\xrightarrow{3}$ 45
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-b, 2-a, 3-a B) 1-a, 2-a, 3-b
C) 1-b, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-c, 3-c

256. (v12c-110-10) E^{+3} ioni ...$3s^2 3p^6 3d^3$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) marganes B) xrom
C) kobalt D) temir

257. (v12c-111-32) $1s^2 2s^2 2p^6$ elektron konfiguratsiya K_2HEO_4 tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) As B) P C) Si D) S

258. (v12c-112-13) $1s^2 2s^2 2p^6$ elektron konfiguratsiya $(MgOH)_2EO_4$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Cl B) N C) S D) P

259. (v12c-113-8) $1s^2 2s^2 2p^6$ elektron konfiguratsiya $K_3HE_2O_7$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) S B) Cr C) I D) P

260. (v12c-114-6) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10}$ elektron konfiguratsiya HEO_4 tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Br B) I C) Cl D) Mn

261. (v12c-115-34) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6$ elektron konfiguratsiya $K_2E_2O_7$ tarkibidagi E ga tegishli, bo'lsa, B ni aniqlang.
A) Cr B) P C) Mn D) S

262. (v12c-118-36) E^{+6} ioni ...$3s^2 3p^6$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa elementni aniqlang.
A) celen B) oltingugurt
C) xrom D) marganes

263. (v12c-120-32) ...$3s^2 3p^6 4s^2 3d^{10} 4p^6$ elektron konfiguratsiya $(EOH)_3AsO_4$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang
A) Cu B) Ba C) Cd D) Sr

264. (v12c-121-1) E^{+4} ioni ...$2p^6 3s^2$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) selen B) oltingugurt
C) kremniy D) xrom

265. (v12c-123-1) p- va d-pog'onalaridagi elektronlari teng bo'lmagan element(lar)ni aniqlang.
A) Rh va W B) Pd C) Rh D) W

266. (v12c-125-18) Quyidagi elementlardan qaysi binning s-elektronlari soni eng ko'p?
A) Mo B) Si C) Pd D) Cs

267. (v12c-125-33) $1s^22s^22p^6$ elektron konfiguratsiya $(EOH)_2SO_4$ tarkibidagi E ga tegishli bo'lsa, E ni aniqlang.
A) Mg B) Mn C) Al D) Ca

268. (v12c-126-4) E^{+2} ioni $...3s^23p^63d^9$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) marganes B) temir
C) mis D) xrom

269. (v12c-128-25) p va d-pog'onalaridagi elektronlar soni teng bo'lgan atom yoki ionlarni tanlang:
1) Re; 2) W; 3) Pd^{+2}; 4) La; 5) Rn; 6) Sr.
A) 1, 4, 6 B) 1, 2, 3
C) 4, 5, 6 D) 2, 3, 5

270. (v12c-131-14) p- va d-pog'onalaridagi elektronlar soni teng bo'lmagan atom yoki ionlarni tanlang:
1) Re; 2) W; 3) Pd^{+2}; 4) La; 5) Rn; 6) Sr.
A) 2, 3, 5 B) 4, 5, 6
C) 1, 4, 6 D) 1, 2, 3

271. (v14-101-8) 6s energetik pog'onachadan keyin qaysi energetik pog'onacha to'ladi?
A) 7p B) 4f C) 5d D) 7f

272. (v14-108-35) $EOH(NO_3)_2$ birikmasi tarkibidagi E ning elektron konfiguratsiyasi $1s^22s^22p^63s^23p^63d^5$ bo'lsa, shu elementni aniqlang.
A) Co B) Fe C) Mn D) Cr

273. (v14-115-7) E^{+4} ioni $...2p^63s^2$ konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) selen B) kremniy
C) xrom D) oltingugurt

274. (v14-127-5) Qaysi birikma tarkibidagi marganes ionida s va d-elektronlarning bir-biriga nisbati 2:1?
A) $KMnO_4$ B) $MnCl_3$
C) $MnO(OH)_2$ D) $MnSO_4$

275. (v14-129-6) Quyidagi berilgan qatorda d-elektronlar soni qanday o'zgaradi (elementlar tartib raqami berilgan)?
$25 \xrightarrow{1} 24 \xrightarrow{2} 23 \xrightarrow{3} 19$
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-a, 2-b, 3-b
B) 1-c, 2-b, 3-b
C) 1-b, 2-b, 3-b
D) 1-c, 2-b, 3-a

276. (v15-101-24) E^{+3} ioni $...3s^23p^63d^5$ konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) marganes B) xrom
C) temir D) galliy

277. (v15-101-28) Fosforning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Shu ikki iondagi elektronlar yig'indisini toping.
A) 30 B) 33 C) 22 D) 38

278. (v15-103-35) 3 ta pog'onasi va 9 ta pog'onachasi elektron bilan to'lgan elementni ko'rsating.
A) Pd B) Kr C) Mn D) Cr

279. (v15-105-3) X^{-2} ionining elektronlar soni Ti^{+2} ionining elektronlar sonidan 2 marta kam bo'lsa, titanning yadro zaryadi X ning yadro zaryadi dan necha marta katta?
A) 3 B) 2 C) 1,75 D) 2,75

280. (v15-105-29) Mn atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 3; 8 B) 2; 6 C) 2; 5 D) 3; 9

281. (v15-106-28) Cu atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 3; 7 B) 3; 10 C) 3; 6 D) 2; 6

282. (v15-108-6) 2 ta pog'onasi va 6 ta pog'onachasi elektron bilan to'lgan elementni ko'rsating.
A) Zn B) Sr C) Ca D) Cu

283. (v15-108-7) Qaysi birikmada galogen ionining elektron tuzilishi inert gaznikidek bo'ladi?
A) COF_2 B) $NaBrO_4$ C) $KClO_3$ D) HOCl

284. (v15-109-12) Fosforning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Shu ikki iondagi elektronlar ko'paytmasini toping.
A) 168 B) 140 C) 216 D) 180

285. (v15-109-28) Pd atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 3; 9 B) 3; 8 C) 2; 5 D) 2; 6

286. (v15-111-19) S atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 2; 5 B) 1; 2 C) 2; 3 D) 2; 4

287. (v15-114-7) Elektron konfiguratsiyasi $...3s^23p^6$ bo'lgan E^{+6} elementni toping.
A) oltingugurt B) selen
C) xrom D) marganes

288. (v15-114-29) Zn atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 3; 10 B) 3; 7 C) 2; 6 D) 3; 6

289. (v15-115-21) Sr atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 2; 6 B) 3; 9 C) 3; 7 D) 3; 6

290. (v15-118-3) 3 ta pog'onasi va 6 ta pog'onachasi elektron bilan to'lgan elementni ko'rsating.
A) Sr B) Ca C) Cu D) Zn

291. (v15-118-24) Fosforning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng. p–elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ularning zaryadlari yig'indisini toping.
A) 3 B) 8 C) 0 D) 4

292. (v15-120-23) Oltingugurtning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ularning zaryadlari yig'indisini toping.
A) 3 B) 0 C) 2 D) 10

293. (v15-121-7) 2 ta pog'onasi va 3 ta pog'onachasi elektron bilan to'lgan elementni ko'rsating.
A) S B) Ar C) F D) Ne

294. (v15-121-36) Fosforning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p–elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ulardan zaryadi katta bo'lgan ionini toping.
A) P^0 B) P^{3+} C) P^{3-} D) P^{5+}

295. (v15-126-16) Qaysi elementlarda elektron sakrashi hisobiga d-pog'onacha to'la to'ladi?
A) kumush, palladiy B) platina, niobiy
C) molibden, xrom D) rodiy, ruteniy

296. (v15-126-32) Oltingugurtning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ularning zaryadlari kichik ionini toping.
A) S^0 B) S^{6+} C) S^{4+} D) S^{2-}

297. (v15-128-1) Oltingugurtning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ulardan zaryadi katta bo'lgan ionidagi s-elektronlar sonini toping.
A) 6 B) 4 C) 8 D) 5

298. (v15-128-22) $K_2E_2O_7$ birikmasi tarkibidagi E ning elektron konfiguratsiyasi $1s^22s^22p^63s^23p^6$ dan iborat bo'lsa, shu elementni aniqlang.
A) Mn B) Cr C) P D) S

299. (v15-129-34) Quyidagi elektron formulaga ega bo'lgan elementlar uchun berilgan iboralardan qaysilari to'g'ri?
X: $...3s^23p^2$; Y: $...3p^64s^2$; Z: $...4s^23d^5$.
1) uchala element – metall;
2) X atom kristall panjara hosil qiladi, Y va Z esa metall kristall panjara hosil qiladi;
3) Z ning ionizatsiya energiyasi X ning energiyasidan kattaroq;
4) Y ni suvda eritilsa, ishqor hosil qiladi.
A) 2, 4 B) 1, 4 C) 2, 3 D) 3, 4

300. (v15-131-4) Oltingugurtning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Shu ikki ionda elektronlar yig'indisini toping.
A) 33 B) 22 C) 38 D) 30

301. (v15-133-6) Pog'onachada 15 ta orbital bo'lsa, ushbu pog'onachaning orbital kvant soni qiymatini aniqlang.
A) 5 B) 6 C) 7 D) 4

302. (v16-105-22) Marganes atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 3; 9 B) 2; 5 C) 3; 8 D) 2; 6

303. (v16-106-24) 2 ta pog'onasi va 6 ta pog'onachasi elektron bilan to'lgan elementni ko'rsating.
A) Zn B) Sr C) Ca D) Cu

304. (v16-108-6) S atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 2; 5 B) 1; 2 C) 2; 3 D) 2; 4

305. (v16-111-13) Fosforning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ularning zaryadi qiymatlari nisbatini toping.
A) 1:5 B) 1:1,5 C) 1:1 D) 3:5

306. (v16-114-29) Xlorning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Shu ikki iondagi elektronlar yig'indisini toping.
A) 38 B) 30 C) 22 D) 33

307. (v16-115-34) Fosforning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Shu ikki iondagi elektronlar farqini toping.
A) 3 B) 5 C) 2 D) 6

308. (v16-119-24) Xlorning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ularning zaryadlari yig'indisini toping.
A) 4 B) 6 C) 3 D) 2

309. (v16-119-29) 1 ta pog'onasi va 2 ta pog'onachasi elektron bilan to'lgan elementni ko'rsating.
A) Ar B) F C) S D) Ne

310. (v16-120-17) Fosforning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ulardan zaryadi kichik bo'lgan ionini toping.
A) P^{3-} B) P^{5+} C) P^{3+} D) P^0

311. (v16-120-18) Xlorning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ulardan zaryadi katta bo'lgan ionidagi elektronlar sonini toping.
A) 10 B) 14 C) 18 D) 12

312. (v16-127-9) E^{+3} ioni $...3s^23p^63d^5$ elektron konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) galliy B) marganes
C) xrom D) temir

313. (v16-128-19) F atomida elektron bilan to'lgan nechta pog'ona va pog'onacha mavjud?
A) 2; 4 B) 1; 2 C) 2; 3 D) 2; 5

314. (v17-103-10) $(X(OH)_2)_2SO_4$ tarkibidagi noma'lum elementning elektronlari soni oltingugurtning elektronlari sonidan 2,5 marta kichik bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) Ni B) Fe C) Cr D) Al

315. (v17-105-31) E^{+3} ioni $...3p^63d^{10}4s^2$ konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.
A) Cr B) Cl C) Br D) P

316. (v17-111-14) Mn^{+x} marganets ionida neytronlar barcha zarrachalarning 40% ni tashkil etdi. Ionning konfiguratsiyasini toping.
A) $...4s^2$ B) $...3p^63d^2$
C) $...3p^63d^8$ D) $...3p^53d^7$

317. (v17-112-28) $E_2(HPO_4)_3$ birikmasi tarkibdagi E ning elektron konfiguratsiyasi $1s^22p^22p^63s^23p^63d^3$ bo'lsa, shu elementni aniqlang.
A) Co B) Mn C) Fe D) Cr

318. (v17-118-18) Neon element elektron konfiguratsiyasidan 2 ta elektron olinsa, qanday moddaga aylanadi va bu moddaning allotropik hosilasi bo'lsa, bu ikkala moddaning hajmiy ulushini toping.

D_{H_2} = 4 ga teng.

A) 50%, 50%
B) 0,5%, 0,5%
C) 0,7%, 0,3%
D) 0,6%, 0,7%

319. (v17-121-6) $(X(OH)_2)_2SO_4$ tarkibidagi noma'lim elementning elektronlari soni oltingugurtning elektronlari sonidan 4,2 marta katta bo'lsa, noma'lim elementni aniqlang.
A) Cr B) Fe C) Al D) Ni

320. (v17-123-20) Cr^{+x} xrom ionida neytronlar 40% ni tashkil etadi. Ion konfiguratsiyasini toping.
A) $...3s^23p^6$
B) $...4s^03d^2$
C) $...4s^03d^1$
D) $...3p^63d^3$

321. (v17-125-26) Xlorofilning 1 ta molekula massasini toping ($C_{55}H_{72}MgN_2O_5$).
A) $1{,}245\cdot10^{-21}$ g B) $2{,}404\cdot10^{-21}$ g
C) $1{,}435\cdot10^{-21}$ g D) $0{,}543\cdot10^{-21}$ g

322. (v17-127-8) Quyidagi grafikda X_2Y_3 massa x ning massalari o'rtasidagi bog'liqlik ifodalangan bo'lsa, uning atom massasini aniqlang.



A) 12 B) 16 C) 28 D) 32

323. (v17-127-26) Quyidagi grafikdan foydalanilgan holda x ning nisbiy atom massasini aniqlang.



A) 24 B) 40
C) 55 D) 65

324. (v17-128-8) Pt^{+x} platina ionlarida neytronlar soni 43,33% ni tashkil etadi. Ion konfiguratsiyasini toping.
A) $...4f^{14}5d^8$ B) $...5p^65d^7$
C) $...6s^05d^9$ D) $...6s^05d^8$

325. (v17-128-23) N^{+x} azot ionida neytronlar 35% ni tashkil etadi. Ion konfiguratsiyasini toping.
A) $...2s^22p^1$ B) $...1s^2$
C) $...2s^2$ D) $...2s^22p^2$

326. (v17-128-34) Agar birikmadagi Э ning konfiguratsiyasi $...4s^24p^65s^24d^{10}5p^6$ bo'lsa, $(ЭOH)_3AsO_4$ tarkibida Э ni toping.
A) Sr B) Cu C) Ba D) Cd

327. (v17-129-4) Tirik organizmda bo'ladigan insulin gormoni $C_{254}H_{377}N_{65}O_{75}S_6$. Shuning bitta atomidagi massasini toping.
A) $1\cdot10^{-23}$ B) $0{,}9\cdot10^{-23}$
C) $951\cdot10^{-1}$ D) $9{,}51\cdot10^{-21}$

328. (v17-130-29) Kimyoviy element ikki izotopdan iborat. Birinchi izotop yadrosida 10 proton va 10 neytron bor. Ikkinchi izotop yadrosida neytronlar soni 2 ga ko'p. 9 ta yengil izotoplarga og'ir izotoplarning bir atomiga teng. Elementning o'rtacha atom massasini hisoblang.
A) 21 B) 19,87 C) 20,2 D) 20

5. Kvant sonlar

1. (00-1-1) Atomdagi elektron energiyasi qaysi kvant sonlari bilan ifodalanadi?
1) magnit; 2) spin; 3) orbital; 4) bosh; 5) orbital va magnit.
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 1, 5 D) 4, 5 E) 3, 5

2. (00-1-8) Quyidagi orbitallarning qaysi birida elektronning energiyasi yuqoriroq bo'ladi?
A) 1s B) 2s C) 3p D) 2p E) 3s

3. (00-1-27) Quyida keltirilgan orbitallardan qaysilarida elektronlarning yadro bilan bog'lanish energiyasi deyarli bir-biriga teng bo'ladi?
A) 2s va 2p B) 2s va 3s
C) 3s va 2p D) 1s va 2s
E) 4s va 3d

4. (02-8-13) Elektronning energiyasini qaysi kvant sonlar belgilaydi?
A) bosh B) orbital C) magnit
D) spin E) bosh va orbital

5. (02-8-50) Orbital kvant son 3 ga teng bo'lgan pog'onachadagi elektronlarning maksimal soni nechaga teng bo'ladi?
A) 2 B) 8 C) 14 D) 18 E) 32

6. (02-8-51) Galliy atomining valent p-elektroni uchun kvant sonlari (n, l, m_l, m_s) ni aniqlang.
A) 4, 1, +2, +1/2 B) 4, 2, +2, –1/2
C) 3, 1, –1, +1/2 D) 4, 1, –1, +1/2
E) 2, 1, +1, +1/2

7. (03-3-1) Atom tarkibidagi elektronlar uchun quyidagi kvant sonlar (n, l, m_l) to'plamlarining qaysi biri to'g'ri keladi?
1) 3, 1, –1; 2) 3, 2, 1; 3) –2, 1, 4; 4) 1, 0, 0; 5) 1, 1, 1.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4
C) 1 D) 2 E) 4

8. (03-3-6) Galliy atomi valent elektronlarining kvant sonlarini (n, l, m_l, m_s) aniqlang.
A) n = 4, 4, 4; l = 0, 0, 1; m_l = 0, 0, –1;
$m_s = +\frac{1}{2}, -\frac{1}{2}, +\frac{1}{2}$
B) n = 4, 4, 4; l = 1, 1, 1; m_l = –1, +1, –1;
$m_s = +\frac{1}{2}, -\frac{1}{2}, +\frac{1}{2}$
C) n = 3, 3, 3; l = 1, 1, 2; m_l = 0, 0, –1;
$m_s = +\frac{1}{2}, +\frac{1}{2}, +\frac{1}{2}$
D) n = 3, 3, 4; l = 2, 2, 2; m_l = –2, –1, 0;
$m_s = -\frac{1}{2}, -\frac{1}{2}, +\frac{1}{2}$
E) n = 4, 4, 3; l = 3, 3, 2; m_l = –3, –2, –1;
$m_s = +\frac{1}{2}, -\frac{1}{2}, +\frac{1}{2}$

9. (03-3-7) Qaysi element atomining tashqi energetik pog'onasidagi elektronlari quyidagi kvant sonlar bilan ifodalanadi? N = 4, l = 0, m_l = 0, $m_s = +\frac{1}{2}$. Uning elektronlar bilan to'lgan nechta 3d-orbitali bor?
A) K; 0 B) V; 2 C) Cr; 5 D) Ag; 1 E) Cu; 0

10. (03-3-8) Elektron bulutning shaklini qaysi kvant son belgilaydi?
A) bosh B) orbital C) magnit
D) spin E) bosh va orbital

11. (03-3-9) Pog'onalardagi energetik holatlar (orbitallar) soniini qaysi kvant son belgilaydi?
A) bosh B) orbital C) magnit
D) spin E) bosh va orbital

12. (03-3-10) Elektronning xususiy holatini qaysi kvant son belgilaydi?
A) bosh B) magnit C) spin
D) orbital E) bosh va orbital

13. (03-3-12) Elektronining kvant sonlari (n, l, m_l, m_s) 3; 2; –2; $+\frac{1}{2}$ bilan tugallangan elementning elektron konfiguratsiyasini aniqlang.
A) $...4s^24r^1$ B) $...3s^23p^1$
C) $...4s^1$ D) $...4s^23d^2$
E) $...4s^23d^1$

14. (04-1-235) Qaysi elementning tashqi energetik pog'onasidagi elektronlari n = 4, l = 0, m_1 = 0 va m_2 = +1/2 kvant sonlari bilan tavsiflanadi? Shu elementning 3d-orbitalidan nechtasi elektronlar bilan ishg'ol etilgan.
A) Ag, 1 B) V, 2 C) Cr, 5
D) K, 0 E) Cu, 0

15. (04-1-237) Elektron konfiguratsiyaning oxiridagi elektronlarga tegishli bo'lgan kvant sonlari (n, l, m_1, m_2,) 3, 2, –2, +1/2 bo'lsa, tegishli elektron konfiguratsiyani tanlang.
A) $...4s^23d^1$ B) $...3s^23p^1$
C) $...4s^1$ D) $...4s^23d^2$
E) $...4s^24p^1$

16. (v4-123-4) Element atomining har bir energetik pog'onasining d pog'onachasida eng ko'pi bilan nechta elektron bo'ladi?
A) 14 B) 10
C) 5 D) 6 E) 8

17. (v5-101-19) Orbital deb nimaga aytiladi?
A) birinchi va yettinchi energetik pog'onalar orasidagi joyga aytiladi
B) "s" va "p" pog'onachalar oralig'idagi bo'shliqqa aytiladi
C) yadro atrofida elektronning bo'lish ehtimolligi eng ko'p bo'lgan fazoga aytiladi
D) yadro atrofida protonning bo'lish ehtimolligi eng kam bo'lgan fazoning qismiga aytiladi
E) fazoning proton va neytron joylashgan qismiga aytiladi

18. (v5-102-4) Tashqi pog'onaning bosh kvant soni qaysi kattalik bilan bir xil bo'ladi?
1) guruh tartib raqami; 2) davr tartib raqami; 3) qator tartib raqami; 4) pog'onachalar soni; 5) tashqi pog'onadagi elektronlar soni.
A) 1, 4 B) 1, 2
C) 4, 5 D) 2, 3 E) 2, 4

19. (v11-106-23) Davrlarda bosh gruppacha elementlarining atom radiusi va bosh kvant sonlari qanday o'zgaradi?
A) atom radiusi kamayadi, bosh kvant soni kamayadi
B) atom radiusi oshadi, bosh kvant soni kamayadi
C) atom radiusi oshadi, bosh kvant soni oshadi
D) atom radiusi kamayadi, bosh kvant soni o'zgarmayd

20. (v13-132-16) Orbitallardagi harakatlana oladigan maksimal elektronlar soni qaysi formula bilan aniqlanadi?
A) n^2 B) $2n^2$ C) 2l + 1 D) 2(2l + 1)

21. (v15-104-33) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun orbital kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
55 $\xrightarrow{1}$ 24 $\xrightarrow{2}$ 35 $\xrightarrow{3}$ 25
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-b, 2-c, 3-b
C) 1-a, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-c

22. (v15-104-34) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
87 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 38
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-b, 2-a, 3-c B) 1-b, 2-b, 3-a
C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-c, 2-a, 3-b

23. (v15-107-11) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
88 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 87
a) ortadi b) kamayadi c) o'zgarmaydi
A) 1-c; 2-a; 3-b B) 1-b; 2-c; 3-a
C) 1-b; 2-a; 3-c D) 1-b; 2-b; 3-a

24. (v15-108-31) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
81 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 82
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c; 2-a; 3-b B) 1-b; 2-b; 3-a
C) 1-b; 2-c; 3-a D) 1-b; 2-a; 3-c

25. (v15-110-35) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun orbital kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
55 $\xrightarrow{1}$ 47 $\xrightarrow{2}$ 35 $\xrightarrow{3}$ 24
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c; 2-a; 3-b B) 1-a; 2-b; 3-a
C) 1-b; 2-c; 3-b D) 1-b; 2-a; 3-c

26. (v15-115-3) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun orbital kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
37 $\xrightarrow{1}$ 24 $\xrightarrow{2}$ 35 $\xrightarrow{3}$ 25
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c; 2-a; 3-b B) 1-b; 2-a; 3-c
C) 1-b; 2-c; 3-b D) 1-a; 2-b; 3-a

27. (v15-115-26) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
55 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 38
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-b; 2-a; 3-c B) 1-c; 2-a; 3-b
C) 1-b; 2-b; 3-a D) 1-b; 2-c; 3-a

28. (v15-119-9) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun orbital kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
37 $\xrightarrow{1}$ 45 $\xrightarrow{2}$ 35 $\xrightarrow{3}$ 25
a) ortadi b) kamayadi c) o'zgarmaydi
A) 1–a; 2–b; 3–a B) 1–b; 2–c; 3–b
C) 1-c; 2–a; 3–b D) 1–b; 2–a; 3–c

29. (v15-124-35) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
37 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 55
a) ortadi b) kamayadi c) o'zgarmaydi
A) 1-b; 2-c; 3-a B) 1-c; 2-a; 3-b
C) 1-b; 2-b; 3-a D) 1-b; 2-a; 3-c

30. (v15-125-33) Kimyoviy elementlar davriy sistemasida 120 ta element bor deb hisoblab, nechta elementda kvant sonlari n=3, l=2, m_l=+2, s=+1/2 bo'lgan elektron mavjud ekanligini aniqlang.
A) 97 B) 120 C) 96 D) 23

31. (v15-126-14) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqamlari berilgan).
54 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 56
a) ortadi b) kamayadi c) o'zgarmaydi
A) 1-b; 2-c; 3-b B) 1-c; 2-a; 3-b
C) 1-b; 2-c; 3-a D) 1-b; 2-a; 3-c

32. (v16-102-14) Atomda ikkita energetik pog'onadagi elektronlarning maksimal soni va yacheykalarning yig'indisi 102 ga teng, ayirmasining yig'indisi esa 48 ga teng. Energetik pog'onalarning bosh kvant sonlarining yig'indisini toping.
A) 8 B) 7 C) 6 D) 5

33. (v16-102-17) Atomda ikkita energetik pog'onadagi elektronlarning maksimal soni va yacheykalarning yig'indisi 102 ga teng, ayirmasining yig'indisi esa 48 ga teng. Kichik bosh kvant sonini toping.
A) 8 B) 7 C) 3 D) 5

34. (v16-104-25) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun orbital kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi (elementlarning tartib raqamlari berilgan)?
55 $\xrightarrow{1}$ 24 $\xrightarrow{2}$ 35 $\xrightarrow{3}$ 25
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-b, 2-c, 3-b
C) 1-a, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-c

35. (v16-106-10) Atomda ikkita energetik pog'onadagi elektronlarning maksimal soni va yacheykalarning yig'indisi 102 ga teng, ayirmasining yig'indisi esa 48 ga teng. Kattaroq bosh kvant sonini toping.
A) 8 B) 7 C) 6 D) 5

36. (v16-108-11) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun orbital kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi (elementlarning tartib raqamlari berilgan)?
55 $\xrightarrow{1}$ 47 $\xrightarrow{2}$ 35 $\xrightarrow{3}$ 24
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-a, 2-b, 3-a
C) 1-b, 2-c, 3-b D) 1-b, 2-a, 3-c

37. (v16-108-22) $3d^6$ dagi oxirgi elektron uchun kvant sonlari qiymatini (n, l, m, s) aniqlang.
A) 3; 2; –2; +1/2 B) 3; 1; –1; –1/2
C) 3; 2; 0; +1/2 D) 3; 2; –2; –1/2

38. (v16-111-4) $3d^7$ dagi oxirgi elektron uchun kvant sonlari qiymatini (n, l, m, s) aniqlang.
A) 3; 2; 0; –1/2 B) 3; 2; –1; +1/2
C) 3; 2; –1; –1/2 D) 3; 2; 0; +1/2

39. (v16-113-33) Atomda ikkita energetik pog'onadagi elektronlarning maksimal soni va yacheykalarning yig'indisi 102 ga teng, ayirmasining yig'indisi esa 48 ga teng. Energetik pog'onalarning bosh kvant sonlarining ayirmasini toping.
A) 8 B) 2 C) 6 D) 5

40. (v16-115-28) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi (elementlarning tartib raqamlari berilgan)?
52 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 54
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-b, 2-c, 3-a
C) 1-b, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-c

41. (v16-117-13) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi (elementlarning tartib raqamlari berilgan)?
37 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 87
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-b, 2-a, 3-c B) 1-b, 2-c, 3-a
C) 1-b, 2-b, 3-a D) 1-c, 2-a, 3-b

42. (v16-122-1) $3p^4$ va $3d^2$ lardagi oxirgi to'ldirgan elektronlari o'zaro bir-biridan qaysi kvant sonlari bilan farq qiladi?
A) spin va magnit B) bosh va spin
C) orbital va spin D) magnit va orbital

43. (v16-122-3) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi (elementlarning tartib raqamlari berilgan)?
55 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 54
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-b, 2-a, 3-c
C) 1-b, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-c, 3-a

44. (v16-123-25) Kimyoviy elementlar davriy sistemasida 120 ta element bor deb hisoblab, nechta elementda kvant sonlari n = 3, l = 2, m_l = +2, s = +1/2 bo'lgan elektron mavjud ekanligini aniqlang.
A) 96 B) 97 C) 120 D) 23

45. (v16-127-28) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun bosh kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi (elementlarning tartib raqamlari berilgan)?
52 $\xrightarrow{1}$ 32 $\xrightarrow{2}$ 33 $\xrightarrow{3}$ 54
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-b, 2-b, 3-a B) 1-b, 2-a, 3-c
C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-c, 2-a, 3-b

46. (v16-128-30) Berilgan tartibda elementlarning oxirgi elektroni uchun orbital kvant sonining qiymati qanday o'zgaradi (elementlarning tartib raqamlari berilgan)?
19 $\xrightarrow{1}$ 24 $\xrightarrow{2}$ 35 $\xrightarrow{3}$ 25
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-b, 2-c, 3-b
C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-a, 2-b, 3-a

47. (v17-102-15) Atomda ikkita energetik pog'onalardagi elektron va yacheykalar yig'indisi maksimal soni 102 ga teng, ayirmasi esa 48 ga teng. Energetik pog'onalarning bosh kvant sonlar qiymatlari farqini aniqlang.
A) 8 B) 2 C) 6 **D) 5**

48. (v17-102-34) Asosiy holatdagi oxirgi valentli elektronning kvant sonlarini qarab guruhlang:
a) kislorod; b) xlor; c) kremniy;
1) n = 3; l = 1; m_l = 0; m_s = –1/2;
2) n = 3; l = 1; m_l = 0; m_s = +1/2;
3) n = 2; l = 1; m_l = –1; m_s = –1/2;
4) n = 2; l = 1; m_l = –2; m_s = –1/2.
A) a-4, b-2, c-1
B) a-4, b-1, c-2
C) a-3, b-1, c-2
D) a-2, b-1, c-4

49. (v17-103-29) Noma'lum elementning oxirgi elektronining kvant soni qiymati n = 3; l = 2; m_l = x; m_s = –1/2. Agar shu qiymatlar yig'indisi 2,5 ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) V B) Cu C) Fe D) Mn

50. (v17-105-2) $3d^6$ dagi oxirgi elektron uchun kvant sonlari qiymatini (n, l, m, s) aniqlang.
A) 3; 1; –1; –1/2 B) 3; 2; –2; –1/2
C) 3; 2; 0; +1/2 D) 3; 2; –2; +1/2

51. (v17-108-29) $3d^7$ dagi oxirgi elektron uchun kvant sonlari qiymatini (n, l, m, s) aniqlang.
A) 3; 2; 0; –1/2 B) 3; 2; 0; +1/2
C) 3; 2; –1; +1/2 D) 3; 2; –1; –1/2

52. (v17-117-9) Noma'lum elementning oxirgi elektronining kvant soni qiymati n = 3; l = 2; m_1 =x; m_2 = –1/2. Agar shu qiymatlar yig'indisi 3,5 ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) Ti B) Ni C) Sc D) Co

6. D.I. Mendeleyevning Davriy qonuni. Elementlarning davriy sistemasi

1. (96-3-12) Davriy sistemada aktinoidlar qanday holatni egallaydi?
A) 7 davr 3 guruh B) 6 davr 3 guruh
C) 6 davr 4 guruh D) 7 davr 4 guruh
E) 7 davr 5 guruh

2. (96-3-13) Katta va kichik davrlar bir birlaridan nima bilan farq qiladi?
A) kichik davrda faqat s-elementlar joylashgan
B) kichik davrda faqat p-elementlar joylashgan
C) kichik davrda faqat s- va p-elementlar, katta davrda esa, bundan tashqari d- va f-elementlar joylashgan
D) katta davrda faqat d-elementlar joylashgan
E) katta davrda faqat f-elementlar joylashgan

3. (96-3-16) Nima uchun elementlar asosiy va qo'shimcha guruhlarga bo'lingan?
A) tashqi qavatida elektronlar soni turlicha
B) oksidlanish darajasi turlicha
C) elektron tuzilishi turlicha
D) fizik xossalari turlicha
E) yadro zaryadlari turlicha

4. (96-4-15) Tartib raqami 37 bo'lgan element qaysi davr, qator va guruhda joylashgan?
A) V davr, 6-qator, III guruh
B) VI davr, 8-qator, III guruh
C) V davr, 6-qator, I guruh
D) VI davr, 8-qator, IV guruh
E) V davr, 7-qator, VIII guruh

5. (96-5-2) Faqat metallmas elementlardan tashkil topgan qatorni aniqlang.
A) N_2, Be, Ca, Si B) C, Al, Cl_2, Zn
C) F_2, S, B, P D) H_2, K, C, Mg
E) B, Na, Cu, I_2

6. (96-5-9) Quyidagi elementlarni metallmaslik xossasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) fosfor; 2) bor; 3) xlor; 4) uglerod;
5) oltingugurt. [Z(P) = 15, Z(B) = 5, Z(Cl) = 17, Z(C) = 6, Z(S) = 16].
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 3, 2, 1, 4, 5
C) 2, 4, 1, 5, 3 D) 4, 2, 5, 1, 3
E) 5, 4, 7, 3, 2

7. (96-5-34) Davriy sistemada II davr metallmaslari o'zlarining yuqori oksidlarida qanday oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) hammasi plyus ikki
B) hammasi guruh raqamiga teng
C) ftor minus bir, qolganlari guruh raqamiga teng
D) o'zgaruvchan
E) hammasi minus ikki

8. (96-7-10) Nima sababdan vodorod elementlar davriy sistemasida ham birinchi, ham yettinchi gruppalarda keltiriladi?
A) Bitta elektroni bo'lgani uchun I gruppada, gaz (n. sh. da) bo'lgani uchun VII gruppada.
B) birikmalarda bir valentli bo'lgani uchun.
C) atom tuzilishi jihatidan.
D) tartib raqami birinchi bo'lgani uchun.
E) galogenlar kabi metalli birikmalarida minus bir, metallar kabi metallmaslar bilan hosil qilgan birikmalarda plyus bir oksidlanish darajani namoyon etgani uchun

9. (96-8-84) Metallarning qaysi birining zichligi alyuminiynikiga yaqin bo'lsa ham alyuminiydan taxminan uch marta mustahkam?
A) zanglamas po'lat B) rux
C) titan D) temir
E) xrom

10. (96-10-12) D.I. Mendeleyev davriy jadvalining bitta guruhchasida joylashgan elementlarning atomlari qaysi xususiyatlari bilan o'zaro o'xshash bo'ladi?
1) Yadro zaryadi bir xilligi bilan; 2) Tashqi qobiqdagi elektronlar soni bilan; 3) Elektron qobiqlarining soni bilan; 4) Kimyoviy xossalari bilan; 5) Fizik xossalari bilan.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 3 D) 2, 4
E) 3, 5

11. (96-13-1) Quyidagi alomatlarning qaysilari elementga taalluqli?
1) kislorod havoga nisbatan og'irroq;
2) Kislorodning molekulasida ikkita atom bor;
3) kislorodning tarkibi massalari 16,17 va 18 m.a.b. ga teng bo'lgan izotoplardan tashkil topgan; 4) kislorod II davrning VI guruhida joylashgan.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 3, 4
E) 2, 4

12. (96-13-44) II davr elementlari orasida qaysi guruhning bosh guruhcha elementlarining gibridlari uchuvchan, qaysilariniki qattiq moddalar bo'ladi?
A) I, VI B) II, VII C) IV, V D) V, VI
E) VII, II

13. (96-13-45) Keltirilgan elementlardan qaysilarining maksimal valentligi ularning o'rnashgan guruh raqamidan katta bo'lishi mumkin?
A) Hg B) B C) C D) N E) Cu

14. (96-15-2) Faqat metall elementlaridan tashkil topgan qatorni aniqlang:
1) Li, Mn, H, Cl; 2) Ca, S, Pb, B; 3) Cu, B, Si, Zn; 4) Ag, Mg, Fe, Cr; 5) Fe, P, S, O.
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2 E) 5

15. (97-3-18) Metallarning qaysi biri yuqori valentli oksid hosil qiladi?
A) Al B) Fe
C) Cr D) Mn
E) In

16. (97-9-4) Davriy sistemadagi davr raqamining fizik ma'nosi qaysi holda to'g'ri ifodalangan?
1) yadro atrofidagi elektron qobiqlar soni;
2) chetki qobiqdagi elektronlar soni; 3) oxirgi qobiqdan avvalgi qobiqdagi elektronlar soni;
4) tashqi elektron qobiqning raqami.
A) 2, 3 B) 1, 2
C) 1, 3 D) 3, 4 E) 1, 4

17. (97-9-40) Nima sababdan D.I. Mendeleyevning davriy jadvalida lantanoidlar bitta guruhda joylashgan?
1) 4f-pog'onacha elektronlar bilan to'lib borganligi uchun; 2) tashqi elektron qobiq bir xil bo'lganligi uchun; 3) bir xil kimyoviy xossa namoyon qilganliklari uchun; 4) 5d-pog'onacha bo'lmaganligi uchun; 5) fizik xossalari bir xil bo'lganligi uchun.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 3 C) 3, 4, 5
D) 2, 3, 4 E) 1, 2, 4

18. (97-11-78) Oksidlanish darajasi o'zgarishiga ko'ra har qanday atomning radiusi ham o'zgaradi. Ushbu birikmalarning qaysinisida xlor ioni maksimal katta radiusga ega bo'ladi?
A) kaliy perxlorat B) kaliy xlorat
C) kaliy gipoxlorit D) kaliy xlorid
E) kaliy xlorit

19. (97-11-104) Faqat kimyoviy elementlar keltirilgan qatorni aniqlang.
A) olmos, ozon, grafit, uglerod
B) ozon, kislorod, olmos, vodorod
C) azot, ozon, vodorod, kislorod
D) uglerod, olmos, azot, ozon
E) uglerod, kislorod, vodorod, azot

20. (97-11-179) Olmos, grafit, osh tuzi, sulfat kislota, shakar va natriy gidroksid moddalari berilgan. Shu moddalar tarkibini necha xil element tashkil etgan:
A) 8 B) 7 C) 6 D) 5 E) 4

21. (97-11-183) Qaysi element quyida berilgan ham ma moddalar tarkibiga kirgan? kaliy permanganat, kaliy manganat, vodorod peroksid, xrom (III) sulfat, sulfat kislota, nitrat kislota, kaliy xromat.
A) kaliy, vodorod B) marganes, xrom
C) vodorod D) kislorod
E) oltingugurt

22. (98-2-13) D.I. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasida nechta s- va nechta p-elementlar bor?
A) 12 va 30 B) 12 va 28
C) 14 va 24 D) 14 va 32
E) 14 va 30

23. (98-8-37) Quyidagilar orasidagi d-elementni ko'rsating:
A) natriy B) kalsiy
C) xlor D) temir
E) kislorod

24. (98-8-50) II davr elementlarining qaysi guruhlarida joylashgan bosh guruhcha elementlarining birikmalari elektron donorlik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin?
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6
C) 2, 5, 7 D) 5, 6, 7
E) 1, 2, 3

25. (98-9-1) Kichik davrda joylashgan element atomlarining tuzilishidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsating:
A) elektron pog'onalar soni bir xil, tashqi elektron pog'onalaridagi elektronlar soni va yadro zaryadlari har xil
B) elektron pog'onalar soni bir xil va tashqi elektron pog'onalaridagi elektronlar soni teng
C) elektron pog'onalar soni har xil, tashqi elektron pog'onalaridagi elektronlar soni har xil bo'lib, guruh raqamiga teng
D) elektron pog'onalar har xil va har xil miqdordagi tashqi elektronlarga ega
E) elektron pog'onalari, protonlar soni bir xil, elektron va neytronlari soni har xil

26. (98-10-2) Qaysi elementga metallmaslik xos emas?
A) kislorod B) oltingugurt C) selen
D) poloniy E) tellur

27. (99-1-3) Qaysi davr va guruh elementining metallmaslik xossasi kuchliroq?
A) 3-davr, VI guruh B) 3-davr, IV guruh
C) 2-davr, V guruh D) 2-davr, VI guruh
E) 2-davr, VII guruh

28. (99-2-34) Quyidagilardan d-elementlarni ko'rsating:
1) alyuminiy; 2) kalsiy; 3) xrom;
4) mis; 5) vismut; 6) lantan.
A) 1 va 2 B) 3 va 4
C) 3, 4 va 5 D) 2 va 5
E) 3, 4 va 6

29. (99-10-35) Quyida keltirilgan qaysi elementning xossalari kalsiy elementining xossalariga o'xshash?
A) alyuminiy B) kaliy C) skandiy
D) rux E) bariy

30. (99-10-36) O'xshash kimyoviy xossalarga ega bo'lgan elementlar juftini aniqlang.
A) Na va K B) Ca va Zn
C) Cu va Ba D) Cr va S
E) Mg va Al

31. (00-1-11) Davriy sistemaning 3-davridagi 8 ta elementning nechtasi p-element hisoblanadi?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 6 E) 8

32. (00-1-12) Quyida keltirilgan elementlardan qaysi biri d-elementlar oilasiga kiradi?
A) Zn B) Ca C) Rb D) P E) I

33. (00-9-6) Qaysi elementdan boshlab, 3p-pog'onacha elektronlar bilan to'la boshlaydi va qaysi elementda to'ladi?
A) Al, Ar B) Mg, Cl C) Al, Cl D) B, Ne
E) Mg, Ar

34. (00-10-4) Normal sharoitda juftlashmagan elektronlar soni eng ko'p bo'lgan elementni aniqlang.
A) kaliy B) fosfor C) ftor D) kalsiy
E) alyuminiy

35. (00-10-21) s-elementlarga mansub bo'lgan qaysi metall amfoter gidroksid hosil qiladi.
A) Ve B) Zn C) Al D) Cr E) Mg

36. (01-4-5) Tartib raqamlari 8, 16, 34, 52, 84.bo'lgan elementlar uchun tegishli bo'lmagan javoblarni belgilang:
1) p-elementlar oilasiga mansub; 2) d-elementlar oilasiga mansub; 3) umumiy nomi – galogenlar; 4) tashqi pog'onaning tuzilishi ns^2np^5;
5) tashqi pog'onasida 2 tadan toq elektronlar bor; 6) S, 16,34 lar – p-elementlar, qolganlari d-elementlar.
A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 3, 4, 5
C) 1, 4, 5, 6 D) 1, 3, 5, 6
E) 2, 3, 4, 6

37. (01-4-7) Davriy jadvalda tartib raqamlari 30, 48 va 80 bo'lgan elementlar uchun mos bo'lmagan javoblarni toping.
1) d-elementlar oilasiga mansub; 2) 2 tasi s-element, bittasi esa p-element; 3) tashqi pog'onasida 4 tadan elektronlari bor; 4) tashqi pog'onasida 2 tadan toq elektronlari bor; 5) toq elektronlarga ega emas; 6) III guruh elementlari.
A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 2, 3, 5, 6 D) 4, 3, 5, 6
E) 2, 3, 4, 6

38. (01-4-8) Davriy jadvaldagi elementlar tartib raqamining fizik ma'nosi qaysi hollarda noto'g'ri ifodalangan?
1) davriy jadvaldagi o'rni; 2) atomdagi elektronlar soniga teng; 3) yadro zaryadiga teng; 4) proton va neytronlar soniga teng; 5) elektron va neytronlar soni yig'indisi; 6) yadrodagi protonlar soni.
A) 2, 3, 4
B) 1, 2, 3
C) 3, 4, 6
D) 1, 2, 6
E) 1, 4, 5

39. (01-4-11) Davriy jadvaldagi asosiy va qo'shimcha gruppacha elementlarining eng muhim farqi nimada?
1) asosiy gruppacha 1-yoki 2-davrdan boshlanadi, qo'shimcha gruppacha esa 4-davrdan boshlanadi; 2) asosiy gruppacha elementlari metallmaslar va metallardan, qo'shimcha gruppacha elementlari esa faqat metallardan tashkil topgan; 3) asosiy gruppacha elementlar atomlari faqat tashqi qavatidagi elektronlarini beradi. Qo'shimcha gruppacha elementlar atomlari esa tashqi pog'onadan bitta oltindagi pog'onadagi elektronlarini ham bera oladi.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2, 3 E) 2, 3

40. (01-4-12) Oraliq elementlar deb quyidagilarning qaysi biriga aytiladi?
A) s-elementlar B) p-elementlar
C) s- va p-elementlar D) d-elementlar
E) f-elementlar

41. (01-4-17) Davriy jadvaldagi qaysi gruppalardagi elementlar atomlarining tashqi pog'onasidagi elektronlar soni gruppa raqamiga teng?
A) I va II gruppalarning asosiy gruppachalari
B) barcha gruppalarning faqat asosiy gruppachalari, geliy bundan istisno
C) VIII gruppaning qo'shimcha gruppachasidan tashqari barcha gruppalar
D) I–VII gruppalarning asosiy gruppachalari, I va II gruppalarning qo'shimcha gruppachalari (geliydan tashqari)
E) barcha gruppalarning qushimcha va asosiy gruppachalari

42. (01-4-29) Metallmaslarga tegishli bo'lgan xossalarni aniqlang.
1) barcha metallmaslar p-elementlardir; 2) kuchsiz oksidlovchilar; 3) metallmaslarda elektrmanfiyliklari qiymati nisbatan katta; 4) ko'pchilik p-elementlar metallmaslardir; 5) temperatura oshirilganda, elektr tokini o'tkazadi; 6) issiqlikni yaxshi o'tkazadi; 7) ionlanish energiyasi kichik; 8) faqat metallmaslar oksidlovchi bo'ladi.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 5 D) 3, 4, 8
E) 4, 6, 7, 8

43. (01-10-15) Atomning elektron pog'onalar soni nimaga teng bo'ladi?
A) tartib raqamiga
B) massa soni va protonlar soni farqiga
C) davr raqamiga
D) protonlar sonining yarmiga
E) guruh tartib raqamiga

44. (01-10-26) Qaysi elementlar davriy sistema guruhlarida tashqi pog'ona elektronlarining umumiy soniga mos tartibda joylashgan?
1) s-elementlarning bittasidan tashqari barchasi; 2) p-elementlarning ikkitasidan tashqari barchasi; 3) d-elementlar; 4) f-elementlar; 5) s-elementlarning barchasi; 6) p-elementlarning barchasi.
A) 1, 6 B) 1, 2 C) 3 D) 4 E) 5, 6

45. (01-11-2) Bosh gruppacha elementlar atomlarida tashqi pog'onaning elektronlar soni guruh tartib raqamiga teng degan qoidadan chetlashish qaysi element atomida kuzatiladi?
A) alyuminiy B) selen C) geliy
D) mishyak E) yod

46. (01-11-4) Qaysi elementlarning kimyoviy va fizik xossalari bir-biriga ko'p jihatdan o'xshashlikka ega?
1) d-elementlar; 2) s-elementlar; 3) aktinoidlar; 4) p-elementlar; 5) lantanoidlar.
A) 1 B) 2, 5 C) 3, 4 D) 3, 5 E) 2, 4

47. (02-8-60) Qaysi elementlar kislotali oksidlar hosil qilishi mumkin?
1) kumush; 2) xlor; 3) marganes; 4) bor; 5) xrom; 6) oltingugurt; 7) bariy; 8) mishyak.
A) 2, 4, 6, 8 B) 1, 3, 5, 7
C) 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5, 6, 8
E) faqat oltingugurt

48. (02-10-4) Kimyoviy xossalari o'xshash bo'lgan (analog) elementlar uchun quyidagilarning qaysi biri to'g'ri?
A) neytronlar va protonlar soni teng
B) atomlarning radiuslari teng
C) valent elektronlarining soni har xil
D) bir xil davrda joylashgan
E) bir xil guruhda joylashgan

49. (02-10-5) Yadrodagi musbat zaryadi ma'lum bo'lgan element atomining quyidagi xususiyatlaridan qaysi birini mutlaqo bilib bo'lmaydi?
A) davr raqami B) guruh raqami
C) elektronlar soni D) proton soni
E) atom massasi

50. (02-10-15) Muayyan element ftor va kisloroddan so'ng elektrmanfiyligi eng yuqori bo'lgan elementlardan biri bo'lib, u +1, +3, +5, +7 oksidlanish darajalarini namoyon qilsa, quyidagi formulalardan qaysi biri shu element uchun xos hisoblanadi?
1) $NaEO_3$; 2) $NaEO_4$;
3) K_2EO_2; 4) Li_2EO_3; 5) KEO.
A) 2, 4, 5 B) 2, 3 C) 1, 2, 5
D) 1, 4 E) 4, 5

51. (02-10-56) Qaysi qatorda faqat d-elementlar joylashgan?
A) alyuminiy, kremniy, lantan
B) titan, germaniy, kaliy
C) titan, vanadiy, xrom
D) lantan, seriy, gafniy
E) vodorod, azot, kislorod

52. (03-4-20) Tartib raqami 46 bo'lgan element atomining tashqi elektron qavatida nechta elektron bo'ladi va u qaysi oila elementlariga kiradi?
A) 0, d B) 3, p C) 4, d D) $5s^1$, s
E) $5s^2$, s

53. (03-4-21) I, II va III–VIII gruppaning asosiy gruppacha elementlari qanday oilalarga kiradi?
A) s va p B) faqat p C) d va f
D) p, d va f E) s, p va d

54. (03-6-30) Qaysi element nomi lotinchada "nurli" degan ma'noni anglatadi?
A) Ra B) Rn
C) U D) Po E) Ac

55. (03-6-31) Qaysi element nomi uni kashf etgan olimning vatani sharafiga qo'yilgan?
A) Po B) Rn
C) Fr D) Am E) Gf

56. (04-1-10) Qaysi element quyida berilgan hamma moddalar tarkibiga kirgan?
1) kaliy permanganat; 2) kaliy manganat; 3) vodorod peroksid; 4) Bertole tuzi; 5) potash; 6) kaliy nitrat; 7) kaliy xromat.
A) kaliy, kislorod B) marganes
C) vodorod D) kislorod
E) kaliy

57. (04-1-13) Qaysi hollarda kislorod elementi haqida gap boradi?
1) suv tarkibida kislorod bor; 2) sulfat kislota tarkibiga kislorod kiradi; 3) qum tarkibida kislorod bor; 4) baliqlar suvda erigan kislorod bilan nafas oladi; 5) kislorod qaytaruvchi va oksidlovchi bo'lishi mumkin.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 4, 5
E) 2, 5

58. (04-1-24) Kimyoviy elementga tegishli bo'lgan xosalarni aniqlang.
1) atom massa; 2) zichlik; 3) elektron qavat; 4) rang; 5) yadro zaryadi; 6) qaynash va suyuqlanish temperaturasi; 7) izotoplar; 8) protonlar va neytronlar soni.
A) 1, 3, 5, 7 B) 1, 3, 4, 7, 8
C) 1, 2, 4, 5 D) 2, 5, 6, 7
E) 1, 3, 5, 7, 8

59. (04-1-28) Kimyoviy elementga tegishli bo'lgan holatlarni ko'rsating.
1) zichlik; 2) rang; 3) qaynash va suyuqlanish temperaturalari; 4) izotoplar; 5) atom massa; 6) elektron qobiq; 7) yadro zaryadi.
A) 2, 3, 7 B) 1, 2, 5 C) 4, 6, 7 D) 3, 5, 7
E) 5, 6, 7

60. (04-1-147) Analog elementlar uchun quyidagi holatlarning qaysi biri to'g'ri bo'ladi?
A) neytron va protonlar sonining tengligi
B) atom radiuslarning yaqinligi
C) bitta gruppada joylashganligi
D) bitta davrda joylashganligi
E) valent elektronlar sonining bir xil bo'lishi

61. (04-1-148) Element atomi yadrosining musbat zaryadi kattaligini bilgan xolda element atomning qaysi xususiyatini aniq topib bo'lmaydi?
A) davr tartib raqami B) gruppa tartib raqami
C) elektronlar soni D) atom massasi
E) protonlar soni

62. (04-1-177) Quyidagi elementlardan qaysilarining hosil qilishi mumkin bo'lgan valentliklari o'zlari joylashgan gruppaning tartib raqamidan yuqori bo'lishi mumkin?
1) rux; 2) mis; 3) uglerod; 4) azot; 5) berilliy; 6) xlor; 7) bor; 8) oltin.
A) 2, 5, 7, 8 B) 1, 2, 5, 8
C) 2, 4, 7 D) 3, 4, 5, 7
E) 2, 4, 5, 8

63. (04-1-190) L. Poling taklif etgan elementlarning nisbiy elektrmanfiyligi qaysi elementga nisbatan olingan?
A) H B) Li C) C D) O E) Au

64. (04-1-207) Davriy jadvalda tartib raqamlari 29, 47 va 79 bo'lgan elementlar uchun mos bo'lgan javoblarni toping.
1) d-elementlar oilasiga mansub; 2) 2 tasi s-element, bittasi esa p-element; 3) tashqi pog'onasida 4 tadan elektronlari bor; 4) tashqi pog'onasida 2 tadan toq elektronlari bor; 5) toq elektronlarga ega emas; 6) III guruh elementlari; 7) tashqi pog'onasida 1 ta dan toq elektronlari bor; 8) I guruh elementlari.
A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 7, 8 E) 2, 3, 4, 6

65. (04-1-215) I, II va III–VIII gruppaning qo'shimga gruppacha elementlari qanday oilalarga kiradi?
A) s va p B) faqat d
C) d va f D) p, d va f
E) s, p va d

66. (04-1-317) Maksimal valentligi Davriy sistemada joylashgan gruppa tartib raqamidan kichik bo'lgan elementlarni aniqlang.
1) xlor; 2) azot; 3) brom; 4) ftor; 5) kislorod; 6) temir; 7) fosfor; 8) xrom; 9) tellur; 10) platina.
A) 1, 2, 4, 6, 8 B) 1, 3, 4, 5, 9
C) 2, 4, 5, 6, 10 D) 2, 4, 6, 7, 10
E) 4, 6, 7, 9, 10

67. (05-1-103) Quyida keltirilgan elementlarning qaysi biri elementlarning p-oilasiga kiradi?
1) vodorod; 2) geliy; 3) neon; 4) ftor; 5) stronsiy; 6) xrom; 7) brom.
A) 1, 3, 6 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 7 D) 3, 4, 7
E) 1, 4, 7

68. (v4-105-1) Faqat metall elementlardan tashkil topgan qatorni aniqlang.
A) azot, oltingugurt, bor, fosfor
B) rubidiy, stronsiy, kobalt, titan
C) azot, berilliy, kalsiy, kremniy
D) vodorod, kaliy, uglerod, magniy
E) uglerod, alyuminiy, xlor, rux

69. (v4-105-3) Faqat o'zgaruvchan valentlik namoyon qiluvchi elementlar qatorini ko'rsating.
A) azot, xlor, xrom, marganes, natriy
B) fransiy, natriy, kalsiy, kumush, temir
C) xlor, uglerod, oltingugurt, azot, fosfor temir
D) kalsiy, mis, temir, kislorod, vodorod, ftor
E) mis, bariy, azot, xlor, brom, xrom

70. (v4-108-2) Element joylashgan davrning raqami nimaga teng bo'ladi?
A) elektron pog'onalar soniga
B) guruh tartib raqamiga
C) tartib raqamiga
D) protonlar sonining yarmiga
E) massa soni va protonlar soni farqiga

71. (v4-109-2) Tartib raqami 39 bo'lgan element qaysi davr, qator va guruhda joylashgan?
A) V davr, 6–qator, I guruh
B) V davr, 7–qator, VIII guruh
C) V davr, 6–qator, III guruh
D) VI davr, 8–qator, IV guruh
E) VI davr, 8–qator, III guruh

72. (v4-113-2) Elementlar . sosiy va qo'shimcha guruhlarga bo'linishiga sabab nima?
A) yadro zaryadlari turlicha
B) elektron tuzilishi turlicha
C) tashqi qavatida elektronlar soni turlicha
D) fizik xossalari turlicha
E) oksidlanish darajasi turlicha

73. (v4-118-4) Galliyning davriy jadvaldagi tartib raqami 31. Uning atomining tashqi elektron qobig'ida nechta elektron bor?
A) 3 B) 5 C) 1 D) 4 E) 2

74. (v5-103-2) "Davriy jadvalda elementlarning joylanishi atom massasining ortishi bo'yicha boradi" degan fikr ... o'tganda to'g'ri kelmaydi.
1) Na dan Mg ga; 2) Ar dan K ga; 3) U dan Np ga; 4) Re dan Os ga; 5) Cr dan Mn ga.
A) 3, 5 B) 2, 3, 5
C) 2, 3 D) 3, 4
E) 1, 2

75. (v5-110-1) Quyidagi qaysi modda uchun molekula va atom tushunchalari bir xil bo'ladi?
A) azot B) argon C) xlor
D) brom E) kislorod

76. (v5-119-4) s-elementlardan qaysi biri amfoter gidroksid hosil qiladi?
A) berilliy B) natriy
C) kaliy D) kalsiy
E) magniy

77. (v7-103-2) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalining qaysi qismida nisbiy elektrmanfiyligi kichik va atom radiusi katta elementlar joylashgan?
A) lantanoidlar guruhida
B) IA guruhda
C) I va VII guruhlar oralig'ida
D) VIIA guruhda

78. (v7-119-2) Metallmaslar uchun xarakterli bo'lgan xossalarni ko'rsating.
1) s-elementlar; 2) d-elementlar;
3) elektrmanfiylik qiymati yuqori; 4) ko'pchilik metallmaslar p-elementlar; 5) ionlanish energiyasi kichik; 6) f-elementlar.
A) 1, 5 B) 1, 2, 6 C) 3, 4, 5 D) 3, 4

79. (v8-105-16) Metallarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
1) elektromanfiyligi nisbatan past bo'ladi;
2) ionlanish energiyasi nisbatan kichik bo'ladi;
3) elektromanfiyligi nisbatan yuqori bo'ladi;
4) atom radiusi nisbatan kichik bo'ladi;
5) ionlanish energiyasi nisbatan yuqori bo'ladi; 6) atom radiusi nisbatan katta bo'ladi.
A) 1, 5, 6 B) 1, 2, 6 C) 2, 3, 4 D) 3, 4, 5

80. (v9-120-15) Qaysi qatorda faqat metalmaslar keltirilgan?
A) rubidiy stronsiy kobalt, azot
B) natriy, alyuminiy, kaliy, rux
C) azot, oltingugurt, xlor, fosfor
D) kislorod, berilliy kalsiy kremniy

81. (v11-102-29) Quyidagi jumlani tugallang: "Kimyoviy elementlarning xossalari ular atomlari ... davriy ravishda bog'liq".
A) tashqi energetik qavatidagi valent elektronlarga
B) nisbiy molekulyar massalariga
C) yadro zaryadlarining ortib borishiga
D) radiuslariga davriy ravishda bog'liq

82. (v11-106-5) Nodir gazlarning tartib raqamidan ikkitaga katta bo'lgan elementlar uchun qaysi ifoda noto'g'ri bo'ladi?
A) birikmalarida +2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi
B) ikkinchi valent elektronini yo'qotganda ularning tartib raqami nodir gazlarnikiga teng bo'ladi
C) birinchi elektronining ionlanish potensiali kichik
D) qaytaruvchi xossaga ega

83. (v11-111-25) 8, 16, 34, 52, 84 tartib raqamli elementlarga xos bo'lmagan xususiyatlarni aniqlang.
1) p-elementlar oilasiga mansub;
2) d-elementlar oilasiga mansub; 3) umumiy nomlanishi – galogenlar; 4) tashqi elektron qavati tuzilishi – ns^2np^5; 5) tashqi qavatida 2 tadan juftlashmagan elektronlar bor;
6) 8, 16, 34 – p-elementlar, qolganlari – d-elementlar.
A) 2, 3, 4, 6 B) 1, 5
C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 5, 6

84. (v12z-213-33) Nyulends elementlarning qaysi xossalariga asoslanib, 1865-yilda "oktavalar qonuni"ni taklif etdi?
A) atom massasiga
B) ekvivalentiga
C) valentligiga
D) elektromanfiyligiga

85. (v12c-112-36) 1817–1829-yillarda Debernev elementlarning qaysi xossalariga asoslanib triadalarni, ya'ni uchta o'xshash elementdan iborat tabiiy oilalarni tuzdi?
A) valentligiga
B) elektromanfiyligiga
C) ekvivalentiga
D) atom massasiga

86. (v13-101-18) Quyidagi elementlarni elektromanfiylik qiymati kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) Ca; 2) Ba; 3) Cl; 4) Sr; 5) S; 6) Si; 7) Al; 8) P
A) 3, 5, 8, 6, 7, 1, 4, 2
B) 2, 4, 1, 7, 6, 8, 5, 3
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
D) 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1

87. (v13-104-7) Quyidagi xossalar qaysi elementga taalluqli? Sariq rangli, qattiq modda, suvda erimaydi, uglerod disulfid eriydi, kislorod ta'sirida ko'kimtir yonadi.
A) I_2 B) P
C) Au D) S

88. (v13-122-36) Reniy elementi qaysi olim(lar) tomonidan kashf qilingan?
A) K. Vinkler
B) Nilson
C) V. Noddak va I. Noddak
D) L. De Buabodran

89. (v15-115-11) Atom radiusi ortib borish tartibida berilgan kimyoviy elementlar qatorini ko'rsating.
A) F, Cl, Br, I B) H, Li, Na, K
C) Al, Si, P, S D) O, N, C, B

90. (v16-101-3) Stibium silitsium lotincha nomlar qaysi elementlarga taalluqli?
1) nikel; 2) kremniy; 3) azot; 4) surma; 5) qalay.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 4, 2

91. (v16-101-28) Aurat, arsenit anionlarning tarkibida qaysi elementlarning atomlari bo'ladi?
1) oltin; 2) kremniy; 3) mishyak; 4) qalay; 5) mis.
A) 3, 1 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 2, 5

92. (v16-107-21) Lotincha nomlar nitrogenium, nikkolum qaysi elementlarga taalluqli?
1) nikel; 2) kremniy; 3) azot; 4) surma; 5) qalay.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 3, 1 D) 4, 2

93. (v16-109-7) Stannat silitsid anionlarning tarkibida qaysi elementlarning atomlari bo'ladi?
1) oltin; 2) kremniy; 3) mishyak; 4) qalay; 5) mis.
A) 4, 2 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 2, 5

94. (v16-124-25) Berilgan tartibda elementlar tarkibidagi d-elektronlar soni qanday o'zgarishini aniqlang (elementlarning tartib raqami berilgan).
$46 \xrightarrow{1} 28 \xrightarrow{2} 27 \xrightarrow{3} 45$
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-a, 2-a, 3-b B) 1-b, 2-b, 3-a
C) 1-b, 2-c, 3-c D) 1-b, 2-a, 3-a

95. (v16-126-24) Berilgan yo'nalishda moddalar tarkibidagi elektron, proton va neytronlar yig'indisi qanday o'zgarishini aniqlang.
a) kamayadi; b) ortadi; c) o'zgarmaydi.
$NO_2 \xrightarrow{1} O_3 \xrightarrow{2} N_2O_5 \xrightarrow{3} \rightarrow NO \xrightarrow{4} SiH_4$
A) 3-b, 4-b, 1-b, 2-b B) 4-a, 3-b, 2-a, 1-a
C) 1-b, 2-b, 3-a, 4-b D) 2-b, 1-c, 4-c, 3-a

96. (v16-127-6) Berilgan tartibda ionlanish potensiali qanday o'zgarishini aniqlang (elementlarning tartib raqami berilgan).
$3 \xrightarrow{1} 4 \xrightarrow{2} 12 \xrightarrow{3} 13$
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi.
A) 1-a, 2-b, 3-a B) 1-b, 2-a, 3-b
C) 1-b, 2-b, 3-b D) 1-a, 2-a, 3-a

97. (v17-104-33) «Yalqov» nomini olgan element?
A) Ar B) Ne
C) Kr D) Cl

98. (v17-104-34) Mendeleyev: «Vafotimdan keyin mening nomim bilan 4 ta narsani bog'lashadi. Ular mening boyliklarim», deb aytgan. Bu boyliklar qaysi?
1) davriy jadval; 2) kimyo asoslari; 3) gaz.
A) elementlar
B) bog'lanishlar
C) o'zi 3 ta edi, 4-si yo'q
D) eritma

99. (v17-105-27) D.I. Mendeleyev bashorat qilgan elementlar ichida uchtasiga to'liq ta'rif bergan. Uchtasidan eng yengilidagi neytronlar sonini aniqlang.
A) 19 B) 24
C) 13 D) 14

100. (v17-108-16) D.I. Mendeleyev bashorat qilgan barcha elementlar orasida uchtasiga to'liq ta'rif bergan. Uchtasini ichidan eng og'irining neytronlar sonini aniqlang.
A) 40 B) 24 C) 45 D) 48

101. (v17-112-4) 1939-yilda neonning qanday birikmasi topilgan?
A) $NeO \cdot H_2O$ B) $Ne \cdot 6H_2O$
C) $Ne \cdot 8H_2O$ D) $Ne \cdot 9H_2O$

102. (v17-113-17) Rangdor reklama naylar inert gazlar bilan to'dirilganda turli ranglar hosil bo'ladi. Zangori rangi qaysi inert gaz hosil qiladi?
A) argon B) ksenon
C) kripton D) neon

103. (v17-114-9) 1862-yilda qaysi olim tomonidan kimyoviy elementlarning silindr shaklidagi jadval yaratildi?
A) V. Franklend B) I.V. Lomonosov
C) N. Nyulends D) V. de. Shonkurta

104. (v17-119-19) Qaysi elementni rustiliga tarjima qilganda «U xursand» degan ma'noni bildiradi.
A) Ne B) H_2 C) Xe D) Rn

7. Elementlar va ularning binar birikmalari xossalarining davriyligi

1. (96-8-56) Atomlarning ionlanish potensiali ortib borish tartibini toping:
1) P; 2) N; 3) As; 4) Se.
A) 2, 1, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4
C) 3, 2, 1, 4 D) 2, 3, 4, 1
E) 4, 3, 1, 2

2. (96-8-80) Ionlanish potensiali kattaroq bo'lgan elementning elektron konfiguratsiyasini toping:
A) $\ldots 3s^2 3p^5$ B) $\ldots 3s^2 3p^6$
C) $\ldots 4s^1$ D) $\ldots 4s^2$
E) $\ldots 3s^2 3p^4$

3. (96-10-15) V guruh bosh guruhchasidagi elementlarning vodorodli birikmalarining asosli xossalari qanday tartibda ortib boradi?
A) NH_3, PH_3, AsH_3, SbH_3
B) PH_3, AsH_3, NH_3, SbH_3
C) AsH_3, SbH_3, NH_3, PH_3
D) SbH_3, NH_3, PH_3, AsH_3
E) SbH_3, AsH_3, PH_3, NH_3

4. (96-13-4) II davr elementlaridan qaysi qatorida atomlarning ionlanish potensiali ortib boradi?
1) berilliy; 2) ftor; 3) azot.
A) 1, 2, 3 B) 2, 1, 3 C) 3, 2, 1 D) 2, 3, 1
E) 1, 3, 2

5. (96-15-33) Davriy sistemaning VII guruh elementlari eng yuqori oksidlanish darajasiga ega bo'lganda qanday oksid xossasini namoyon etadi?
A) beqaror B) amfoter
C) kislotali D) asosli
E) beqaror va kislotali

6. (96-15-109) Odam va hayvonlarning tanasiga mustahkamlik (qattiqlik) beruvchi moddalar qanday elementlardan tarkib topgan?
A) C, O, Ca B) P, O, Ca
C) C, N, P D) Ca, N, P
E) C, H, O

7. (97-1-4) Quyidagi qatorlarning qaysi birida elementlar elektro manfiylik qiymati ortib borish tartibida joylashgan?
A) Be, C, O, N, B B) C, N, Be, O, B
C) O, N, C, B, Be D) Be, B, C, N, O
E) Be, B, O, N, C

8. (97-1-40) Quyidagi qatorlarning qaysi birida atomlar radiusi ortib boradi?
1) fosfor; 2) oltingugurt; 3) alyuminiy; 4) kremniy.
A) 1, 2, 3, 4 B) 3, 4, 1, 2
C) 2, 1, 4, 3 D) 4, 3, 2, 1
E) 4, 2, 3, 1

9. (97-2-4) D.I. Mendeleyevning davriy jadvalidagi elementlarning xossalariga oid to'g'ri ta'riflarni toping:
1) kuchli oksidlovchi xossalarga ega bo'lgan elementlar jadvalning quyi qatorlarining o'ng tomonida joylashgan; 2) eng kuchli qaytaruvchilar quyi qatorlarning chap tomonida joylashgan; 3) eng kuchli qaytaruvchilar yuqori qatorlarning chap tomonida joylashgan; 4) eng kuchli oksidlovchilar yuqori qatorning o'ng tomonida joylashgan.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4 E) 3, 4

10. (97-2-19) Quyidagi qatorlarda oksidlarning kislotalik xossalari qanday o'zgaradi?
1) P_2O_5–SO_3–Cl_2O_7; 2) SO_3–SeO_3–TeO_3;
3) P_2O_5–SiO_2–AlO_3; 4) B_2O_3–Al_2O_3–Tl_2O.
A) 1, 4 – oshadi, 2, 3 – kamayadi
B) 1, 2 – oshadi, 3, 4 – kamayadi
C) 1 – oshadi, 2, 3, 4 – kamayadi
D) 2 – oshadi, 1, 3, 4 – kamayadi
E) 4 – oshadi, 1, 2, 3 – kamayadi

11. (97-2-37) Quyidagi qatorlarning qaysi birida elementlarning elektronga moyilligi chapdan o'ngga oshib boradi?
A) Li→Na→K→Rb B) S→Se→Te→Po
C) Si→P→S→Cl D) O→N→C→B
E) F→Cl→Vr→I

12. (97-3-42) II-guruhning qaysi elementida metall xossalari yaqqolroq namoyon bo'ladi?
A) berilliy B) bariy
C) kalsiy D) stronsiy
E) magniy

13. (97-3-45) Qaysi element elektronlarni o'ziga kuchliroq ravishda tortib olish xususiyatiga ega bo'lishi kerak?
A) $\ldots 2p^5$ B) $\ldots 3p^5$ C) $\ldots 2p^6$ D) $\ldots 3p^6$
E) $\ldots 4p^5$

14. (97-4-57) Tashqi energetik pog'onasi:
A) $\ldots 3s^2 3p^6$ B) $\ldots 3s^1$
C) $\ldots 2s^2$ D) $\ldots 4s^1$
E) $\ldots 3s^2$ bilan tugallangan element atomlarining qaysi birida ionlanish energiyasi eng kam bo'ladi?

15. (97-5-44) Quyidagi elementlar qatorida elektromanfiylik qanday o'zgaradi: natriy, magniy, alyuminiy, kremniy, fosfor, oltingugurt, xlor?
A) kamayadi
B) ortib boradi
C) boshlanishda ortib boradi, oxiriga yaqinlashganda kamayadi
D) o'zgarmaydi
E) oldin kamayadi, keyin ortadi

16. (97-5-63) Quyidagi metallarni ular aktivligi ortib borish tartibida joylashtirilgan javobni ko'rsating: magniy, kumush, kaliy, mis, temir.
A) kumush, magniy, kaliy, temir, mis
B) kumush, mis, temir, magniy, kaliy
C) mis, temir, kumush, kaliy, magniy
D) magniy, kaliy, mis, temir, kumush
E) kaliy, temir, magniy, kumush, mis

17. (97-7-59) Qaysi metalning oksidida asoslik xossa kuchliroq ifodalangan?
A) bariy oksid B) litiy oksid
C) magniy oksid D) kaliy oksid
E) kalsiy oksid

18. (97-9-38) Element atomlarining radiusi davr ichida chapdan o'ngga qarab qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) o'zgarmaydi
C) oldin ortib, keyin kamayadi
D) oldin kamayib, keyin ortadi
E) kamayadi

19. (97-10-4) Quyidagi qatorlardagi birikmalarda bog'ning barqarorligi chapdan o'ngga qanday o'zgaradi?
1) NH_3–PH_3–AsH_3–SbH_3; 2) CH_4–NH_3–H_2O–HF; 3) HF–HCl–HBr–HJ; 4) H_2O–H_2S–H_2Se–H_2Te.
A) 1,3 – kamayadi; 2, 4 – kuchayadi
B) 1, 3, 4 – kamayadi; 2 – kuchayadi
C) 1, 2 – kamayadi; 3, 4 – kuchayadi
D) 2 – kamayadi; 1, 3, 4 – kuchayadi
E) 1, 4 – kamayadi; 2, 3 – kuchayadi

20. (97-10-41) Quyidagi elementlarda ionlanish potensiali qanday o'zgaradi?
Bi → Sb → As →
A) kamayadi
B) oshadi
C) o'zgarmaydi
D) avvaliga kamayib, so'ng oshadi
E) avvaliga oshib, so'ng kamayadi

21. (97-10-189) Eng beqaror bo'lgan gidridni belgilang.
A) BiH_3 B) NH_3
C) PH_3 D) AsH_3
E) SbH_3

22. (97-11-73) Birinchi guruhdagi elementlardan qaysi birining ionlanish energiyasi eng kichik qiymatga ega?
A) natriy B) litiy C) kaliy D) seziy
E) rubidiy

23. (97-11-116) Quyida ba'zi elementlarning nisbiy elektrmanfiylik qiymatlari berilgan? Na(1,01), K(0,91), H(2,1), Br(2,87), S(2,6), C(2,5). Shu qiymatlarga asoslanib, oltingugurtning qaysi elementli birikmasida qutblanish yuqori darajada bo'lishini aniqlang.
A) natriy sulfid B) kaliy sulfid
C) vodorod sulfid D) uglerod sulfid
E) oltingugurt bromid

24. (97-11-166) Ionlanish energiyasining qiymati qaysi qatorda keskin ortib boradi (qavslar ichida elementlar tartib raqami keltirilgan)?
A) B (5), Be (4), Li (3)
B) Mg (12), Ca (20), Sr (38)
C) Mg (12), Al (13), S (16)
D) Mg (12), S (16), Cl (17)
E) Mg (12), Cl (17), Ar (18)

25. (97-11-167) Elementlar atom radiuslarining kichiklashib borish tartibini ko'rsating (qavslar ichida yadro zaryadi qiymati keltirilgan).
A) Al (13), Si (14), P (15)
B) S (16), P (15), Al (13)
C) Na(11), K (19), Rb (37)
D) Al (13), Mg (12), Na (11)
E) B (5), Al (13), C (6)

26. (97-11-170) Elementlarni ularning metallmaslik xossalari ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) magniy; 2) alyuminiy; 3) kremniy; 4) fosfor; 5) oltingugurt; 6) xlor; 7) natriy.
A) 7, 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 7, 1, 2, 4, 3, 5, 6
C) 7, 2, 1, 4, 3, 5, 6 D) 7, 2, 1, 3, 4, 5, 6
E) 7, 1, 2, 4, 3, 6, 5

27. (97-11-173) Tartib raqami 3 bo'lgan elementdan to 10-elementgacha atomlar radiusi qisqarib boradi. Shu elementlarda qaysi xossalar ortib borishi kuzatiladi?
1) metallik xossasi; 2) metallmaslik xossasi; 3) ionlanish energiyasi; 4) elektronga moyillik; 5) nisbiy elektrmanfiylik; 6) vodorodli birikma valentligi.
A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 3, 4, 6
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5
E) 2, 4, 5, 6

28. (98-1-9) Atom radiusi eng kichik elementni ko'rsating:
A) oltingugurt B) kremniy
C) natriy D) alyuminiy
E) xlor

29. (98-1-10) Elementlar metallmaslik xossalari ortib borishi tartibida joylashtirilgan qatorni ko'rsating.
1) kaliy; 2) kislorod; 3) sera; 4) tellur; 5) selen.
A) 1, 4, 5, 3, 2 B) 2, 3, 5, 4, 1
C) 4, 1, 5, 3, 2 D) 5, 4, 1, 2, 3
E) 5, 4, 1, 3, 2

30. (98-1-11) Oksidlarda kislotalik xossa ortib borish qatorini ko'rsating:
1) qalay (IV) oksid; 2) kremniy (IV) oksid; 3) germaniy (IV) oksid; 4) uglerod (IV) oksid; 5) qo'rg'oshin (IV) oksid.
A) 4, 2, 3, 1, 5 B) 5, 1, 3, 2, 4
C) 5, 3, 1, 2, 4 D) 5, 2, 1, 3, 4
E) 5, 1, 3, 4, 2

31. (98-2-54) Quyidagi
HF → HCl → HBr → HI
qator bo'yicha kislotalarning kuchi qanday tartibda o'zgaradi?
A) kamayadi B) o'zgarmaydi
C) o'zgaradi D) ortadi
E) Qatordagi barcha kislotalar teng kuchli.

32. (98-6-2) Davriy jadvaldagi o'rniga asoslanib, tegishli guruhchalardagi eng kuchli oksidlovchi elementlarni aniqlang.
1) neon; 2) kislorod; 3) litiy; 4) uglerod; 5) ftor; 6) xlor; 7) oltingugurt; 8) natriy; 9) qalay.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 6 C) 2, 4, 9 D) 1, 3, 8
E) 1, 2, 7

33. (98-6-3) Davriy sistemaning tegishli guruhchalaridagi eng kuchli qaytaruvchi elementlarni aniqlang.
1) neon; 2) ftor; 3) litiy; 4) xlor; 5) argon; 6) natriy; 7) kaliy; 8) mis; 9) kumush; 10) oltin; 11) brom; 12) yod.
A) 1, 3, 6 B) 3, 8, 12
C) 2, 4, 7 D) 5, 9, 11 E) 4, 8, 10

34. (98-6-4) Elementlarning elektron formulasini va davriy jadvaldagi o'rnini taqqoslab, nisbiy elektrmanfiylikning son qiymati eng katta bo'lgan elementlar guruhini aniqlang.
A) $...2s^1$, $...3s^1$, $...4s^1$ B) $...2s^2$, $...2p^1$, $...2p^2$
C) $...2p^3$, $...2p^4$, $...3p^5$ D) $...2p^3$, $...3p^3$, $...3p^4$
E) $...2p^5$, $...2p^4$, $...2p^3$

35. (98-6-6) Ikkinchi elektronning ionlanish potensiali qaysi elementda kamroq bo'lishi kerak?
A) mis B) natriy
C) litiy D) argon
E) kaliy

36. (98-6-10) Atom radiuslari ortib borishi tartibida joylashgan elementlar qatorini belgilang.
A) fosfor, kremniy, alyuminiy, magniy
B) natriy, magniy, alyuminiy, kremniy
C) alyuminiy, magniy, kremniy, fosfor
D) magniy, alyuminiy, kremniy, fosfor
E) kremniy, fosfor, magniy, alyuminiy

37. (98-6-11) Litiydan neongacha elementlarning qaysi xossalari kuchayib boradi?
A) metallik B) amfoterlik
C) oksidlovchilik D) qaytaruvchilik
E) maksimal valentligi

38. (98-6-12) Eng kuchli oksidlovchi elementning davriy sistemadagi o'rnini aniqlang:
A) I guruh, 1 davr B) III guruh, 2 davr
C) V guruh, 7 davr D) VII guruh, 7 davr
E) VII guruh, 2 davr

39. (98-6-13) Davriy jadvalda elementlarning atom radiuslari qaysi javob qatorida to'g'ri o'zgarib boradi?
A) 2 davr elementlarida chapdan o'ngga ortib boradi
B) ishqoriy metallarda yuqoridan pastga tomon ortib boradi
C) 3 davr elementlarida o'ngdan chapga qarab kamayib boradi
D) seziydan litiyga tomon ortib boradi
E) VIII guruhdan I guruh elementlari tomon kamayib boradi

40. (98-6-14) Nisbiy elektrmanfiyligi eng yuqori va atom radiuslari kichik bo'lgan elementlar davriy sistemaning qaysi qismida joylashgan?
A) VIII guruhda
B) lantanoidlar guruhida
C) VII guruhning asosiy guruhchasida
D) VII guruh bilan I guruh oralig'ida
E) V guruh bilan II guruh oralig'ida

41. (98-6-15) Ionlanish energiyasi eng kichik qiymatga ega bo'lgan elementni aniqlang.
A) VII guruh, 2 davr B) VII guruh, 3 davr
C) I guruh, 7 davr D) I guruh, 1 davr
E) II guruh, 2 davr

42. (98-6-20) Elementlarning nisbiy elektr-manfiylik qiymatlari berilgan: [x(F) = 4,0; x(Cs) = 0,86; x(P) = 2,1, x(As) = 2,0]. Ionli bog'lanish qaysi elementlar juftligida vujudga kelishini aniqlang.
A) ftor va oltingugurt
B) ftor va mishyak
C) seziy va mishyak
D) fosfor va oltingugurt
E) ftor va seziy

43. (98-8-6) Quyidagi qatordagi asoslarning kuchi chapdan o'ngga qanday o'zgaradi? Magniy gidroksid, kalsiy gidroksid, stronsiy gidroksid, bariy gidroksid.
A) oshadi
B) kamayadi
C) avval oshadi, so'ng kamayadi
D) avval kamayadi, so'ng oshadi
E) o'zgarmaydi

44. (98-8-44) Oksidlari amfoterlik xossasini namoyon qiladigan metallarni ko'rsating:
1) Fe (III); 2) Fe (II); 3) Cr (II); 4) Cr (III); 5) Zn (II).
A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 5 D) 2, 4, 5
E) 1, 3, 5

45. (98-8-47) VII guruhni bosh guruhchasidagi elementlarda yuqoridan pastga tushish tartibida ular gibridlarining qaysi xossalari kuchayib boradi?
1) kislotaliligi; 2) termik turg'unligi; 3) oksidlovchilik xossasi; 4) bog'lar qutbliligi; 5) qaytaruvchilik xossasi.
A) 1, 2 B) 1, 3
C) 2, 4 D) 1, 5
E) 3, 4

46. (98-8-49) Quyidagi elementlarni ularning nisbiy elektrmanfiyligi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) azot; 2) ftor; 3) bor; 4) kislorod; 5) uglerod; 6) vodorod.
A) 1, 2, 3, 5, 6, 4 B) 3, 6, 5, 1, 4, 2
C) 1, 2, 3, 4, 6, 5 D) 2, 1, 3, 6, 4, 5
E) 3, 4, 2, 1, 5, 6

47. (98-8-51) II davr elementlarining qaysi guruhlarida joylashgan bosh guruhcha elementlarining birikmalari elektron juftlar qabul qilib, akseptorlik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin?
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 2, 6, 7
E) 1, 2, 3

48. (98-8-60) Davriy sistemaning bosh guruhcha elementlarida elementlar atomlarining tartib raqami ortib borishi bilan atomlarda qanday xususiyatlar kuzatiladi?
A) radiusi va elektrmanfiyligi ortib boradi
B) radiusi kamayadi va metallik xossasi kuchayadi
C) radiusi ortib boradi va meshlik xususiyati kuchayadi
D) radiusi kamayadi va metallmaslik xossasi susayadi
E) massasi ortib boradi va metallmaslik xususiyati kuchayadi

49. (98-9-17) Keltirilgan elektron formulalariga asoslanib, elementlarni elektrmanfiyliklari ortib borish tartibida joylashtiring.
1) $1s^2 2s^1$; 2) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^4$; 3) $1s^2 2s^2 2p^5$; 4) $1s^2 2s^2 2p^4$.
A) 2, 4, 3, 1 B) 1, 3, 2, 4
C) 1, 2, 4, 3 D) 4, 3, 2, 1
E) 3, 2, 1, 4

50. (98-9-40) Vodorod galogenidlarining molekulyar massasi ortib borish tartibida birikmalarning qaysi xususiyatlari kuchayib boradi?
1) kislotalilik; 2) oksidlovchilik;
3) qaytaruvchilik; 4) turg'unlik; 5) bog' qutbliligi; 6) galogenlarning massa ulushlari.
A) 1, 2, 4 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 6 D) 3, 5, 6
E) 2, 5, 6

51. (98-9-47) Qaysi qatorlardagi elementlar atom radiuslari ortib borish tartibida joylashgan?
1) kislorod, azot, uglerod; 2) uglerod, azot, kislorod; 3) mishyak, oltingugurt, ftor; 4) ftor, oltingugurt, mishyak; 5) ftor, xlor, yod; 6) yod, brom, xlor.
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 4
C) 2, 4, 6 D) 3, 4, 5
E) 1, 3, 5

52. (98-10-10) Atomlarning qanday xususiyatlari davriy tartibda o'zgaradi?
A) atomning yadro zaryadi
B) atomdagi energetik pog'onalar soni
C) nisbiy atom massa
D) atom yadrosidagi protonlar soni
E) tashqi elektron qobiqdagi elektronlar soni

53. (98-10-11) Davr va guruh raqami ortib borganda, element atomining radiusi qanday o'zgaradi?
A) kattalashadi; kattalashadi
B) kattalashadi; qisqaradi
C) qisqaradi; kattalashadi
D) qisqaradi; qisqaradi
E) o'zgarmaydi

54. (98-10-12) Quyidagi qatorda ionlarning radiusi qanday o'zgaradi? P^{+3}, S^{-2}, Cl^-, Na^+, Mg^{2+}, Al^{3+}, S^{+4}
A) ortadi
B) Cl^- gacha kamayadi, undan keyin ortib boradi
C) kamayadi
D) Cl^- gacha ortadi, undan keyin ortib boradi
E) o'zgarmaydi

55. (98-11-17) Qaysi guruhdagi elementlarda qaytaruvchilik xossasi eng kuchli?
A) ishqoriy metallarda
B) ishqoriy-yer metallarda
C) III guruhning asosiy guruhchasi elementlarida
D) III guruhning yonaki guruhchasi elementlarida
E) galogenlarda

56. (98-11-18) Qaysi guruhdagi elementlarda oksidlovchilik xossalari eng kuchli?
A) ishqoriy metallarda
B) ishqoriy-yer metallarda
C) galogenlarda
D) lantanoidlarda
E) aktinoidlarda

57. (98-12-53) Quyidagi juftlarning qaysi biri suvli eritmada alyuminiy oksid bilan reaksiyaga kirishadi?
A) xlorid kislota magniy oksid
B) natriy gidroksid, sulfat kislota
C) oltingugurt (VI) oksid, mis gidroksid
D) mis sulfat, nitrat kislota
E) kaliy nitrat, ortofosfat kislota

58. (99-1-35) Qaysi qatorda elementlar ucharning nisbiy elektrmanfiyligi ortib borish tartibida joylashtirilgan?
A) ftor, kislorod, xlor, brom, oltingugurt
B) oltingugurt, brom, xlor, kislorod, ftor
C) brom, xlor, oltingugurt, kislorod, ftor
D) oltingugurt, kislorod, brom, xlor, ftor
E) oltingugurt, brom, kislorod, xlor, ftor

59. (99-2-4) $H_2O \rightarrow H_2S \rightarrow H_2Se \rightarrow H_2Te$ qatorida moddalarning qaysi xossalari kuchayib boradi?
1) asoslik; 2) kislotalik; 3) oksidlovchilik;
4) qaytaruvchilik; 5) amfoterlik.
A) 1, 2 B) 2, 3
C) 2, 4 D) 3, 5 E) 1, 4

60. (99-2-32) Quyidagi metallarni ionlanish potensiali ortib borish tartibida joylashtiring:
1) litiy; 2) seziy; 3) kaliy; 4) natriy; 5) rubidiy.
A) 1, 4, 3, 5, 2 B) 2, 5, 3, 4, 1
C) 3, 5, 4, 1, 2 D) 3, 5, 2, 4, 1
E) 3, 4, 1, 5, 2

61. (99-5-18) Davriy sistemada elementlarning tartib raqami ortishi bilan ularning:
A) atom massasi va elektronlarning umumiy soni ortadi
B) atom massasi ortadi, elektronlarning umumiy soni kamayadi
C) atom massasi va elektronlarning umumiy soni o'zgarmaydi
D) atom massasi kamayadi, elektronlarning umumiy soni ortadi
E) atom radiuslari kichiklashadi, massasi o'zgarmaydi

62. (99-6-45) Quyidagi elementlar: He, Ne, Ar, Kr va Xe atomlarida ionlanish energiyasi qanday o'zgaradi?
A) o'zgarmaydi
B) kamayadi
C) ortib boradi
D) Ar gacha kamayadi, so'ngra o'zgarmaydi
E) davriy o'zgaradi

63. (99-6-54) 2-davr elementlari atomlari vodorodli birikmalarining molyar massasi ortib borishi tartibida atomlararo masofa qanday o'zgaradi?
A) ortib boradi B) kamayib boradi
C) o'zgarmaydi D) maksimumdan o'tadi
E) minimumdan o'tadi

64. (99-10-42) Qaysi ion eng katta radiusga ega?
A) Br^- B) Ca^{2+} C) K^+ D) F^- E) S^{2-}

65. (00-3-4) Quyidagi elementlar atomlarining metallik xossalari kuchayib borish tartibida joylashtiring:
1) seziy; 2) bariy; 3) germaniy; 4) stronsiy; 5) kalsiy.
A) 3, 5, 4, 2, 1 B) 5, 3, 4, 1, 2
C) 4, 3, 5, 2, 1 D) 2, 1, 3, 5, 4
E) 4, 2, 1, 3, 5

66. (00-3-35) Elementlar elektrmanfiylik qiymati ortib borishi tartibida joylashgan qatorni toping.
A) N, C, B, F, O
B) F, N, O, C, D
C) B, C, N, O, F
D) C, B, N, O, F
E) O, F, N, C, B

67. (00-9-61) Elektrmanfiylikka berilgan to'g'ri ta'rifni aniqlang.
A) atomning elektronlarni osoi bershi xususiyati
B) davriy sistemadagi birinchi guruh elementlarining xususiyati
C) atomning birikmada o'ziga elektronlarni tortish xususiyati
D) elementning reaksiyaga kirishish xususiyati
E) atom yadrosidan proton ajralib chiqish jarayoni

68. (01-1-42) Quyidagi qatorda C–Si–Ge–Sn–Pb elementlar atomlarining yuqori oksidlari xossalari qanday tartibda o'zgaradi?
A) kislotalik xossalari kamayib boradi
B) kislotalikdan amfoterlikka, undan asoslik xossaga o'tadi
C) kislotalikdan asoslikka o'tadi
D) kislotalikdan amfoterlikka o'tadi
E) asoslik xossa kuchayib boradi

69. (01-2-32) SO_2–SeO_2–TeO_2–PoO_2 qatorida kislotalik xossa qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) kamayadi
C) deyarli o'zgarmaydi
D) avval ortib, keyin kamayadi
E) avval kamayib, keyin ortadi

70. (01-2-36) Ushbu qator Cl_2–Br_2–I_2–At_2 bo'yicha molekulalarning qutblanuvchanligi, bog' mustahkamligi va oksidlovchilik xossasi qanday o'zgaradi?
A) pasayadi, pasayadi, kuchayadi
B) kuchayadi, kuchayadi, pasayadi
C) pasayadi, pasayadi, pasayadi
D) kuchayadi, pasayadi, pasayadi
E) kuchayadi, kuchayadi, kuchayadi

71. (01-2-45) Ushbu Mg–Ca–Sr–Ba qator bo'yicha karbonatlarining parchalanish harorati qanday o'zgaradi?
A) kamayadi
B) avval kamayib, keyin ortadi
C) avval ortib, keyin kamayadi
D) ortadi
E) o'zgarmaydi

72. (01-3-98) Ionlanish energiyasi eng katta bo'lgan elementni ko'rsating.
A) litiy B) natriy C) vodorod
D) kalsiy E) kaliy

73. (01-4-24) Quyidagi moddalarni bog'lanish energiyasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) azot; 2) vodorod; 3) kislorod; 4) xlor.
A) 1, 2, 4, 3 B) 1, 3, 2, 4
C) 1, 2, 3, 4 D) 4, 2, 3, 1 E) 2, 1, 3, 4

74. (01-6-50) Qo'shimcha gruppacha elementlarida yadro zaryadining ortishi bilan ularning kimyoviy aktivligi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) kamayadi
C) o'zgarmaydi
D) oldin ortadi, so'ng kamayadi
E) oldin kamayadi, so'ng ortadi

75. (01-8-11) Elektrmanfiyligi kamayib borgan elementlar qatorini toping.
A) Al, I, Br, Cl, F
B) Br, Se, As, Ge, Ga
C) B, C, N, O, F
D) Po, Te, Se, S, O
E) Ga, Ge, As, Se, Br

76. (02-1-63) Davriy sistemadagi qaysi elementlar o'zaro diagonal o'xshashlik xususiyatiga ega?
1) berilliy; 2) magniy; 3) bor; 4) alyuminiy; 5) germaniy; 6) skandiy.
A) 1 va 2; 1 va 4 B) 1 va 3; 3 va 4
C) 3 va 4; 4 va 5 D) 1 va 4; 5 va 6
E) 1 va 4; 4 va 6

77. (02-7-16) Litiydan neongacha elementlarning qaysi xossalari kuchayib boradi?
1) metallik; 2) metallmaslik; 3) oksidlovchilik; 4) qaytaruvchilik; 5) maksimal valentligi; 6) atom radiusi; 7) ionlanish energiyasi.
A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 4, 6
C) 2, 3, 5, 7 D) 2, 3, 7 E) 3, 7

78. (02-8-41) Quyidagi juftliklardan metallik xossalari kuchli ifodalangan elementlarni aniqlang: litiy va natriy; seziy va bariy; kalsiy va rux.
A) Na, Cs, Zn B) Na, Ba, Ca
C) Na, Cs, Ca D) Li, Cs, Ca
E) Li, Ba, Zn

79. (02-8-48) Quyidagi juftliklardan metallmaslik xususiyati kuchli ifodalangan elementlarni aniqlang: oltingugurt va xlor; brom va yod; selen va brom; kremniy va vodorod.
A) xlor, brom, brom, kremniy
B) oltingugurt, yod, selen, kremniy
C) xlor, brom, brom, vodorod
D) xlor, brom, selen, vodorod
E) oltingugurt, brom, brom, kremniy

80. (02-10-3) Quyidagi xossalardan qaysi biri davriy jadvalda o'ng tomonga borgan sari ortadi va nodir gazlarda eng yuqori bo'ladi?
A) oksidlanish darajasi
B) elektronga moyillik
C) 1-ionlanish energiyasi
D) elektron biriktirish qobiliyati
E) kimyoviy jihatdan metallmaslik xossalari

81. (02-10-8) Na^+, Al^{+3}, Mg, O, F, Ca larni 1 ta elektronini tortib olish uchun sarf bo'ladigan energiyalarni kamayib borish tartibida joylashtiring.
A) Na^+, Ca, Mg, Al^{+3}, O, F
B) F, O, Al^{+3}, Mg, Ca, Na^+
C) Al^{+3}, Na^+, F, O, Mg
D) F, O, Mg, Na^+, Ca, Al^{+3}
E) O, F, Na^+, Mg, Al^{+3}, Ca

82. (02-10-10) Quyidagi YBr–XI–ZF shartli belgilar bilan ifodalangan elementlar galogenidlarida ion bog'lanish mustahkamligi ortib borish tartibida joylashtirilgan. Shu asosda X, Y, Z elementlarini ionlanish energiyasi ortib borish tartibida joylashtiring.
A) X–Y–Z B) Y–X–Z
C) Y–Z–X D) Z–X–Y E) Z–Y–X

83. (02-11-26) Quyida natriy, magniy va alyuminiy uchun ularning birinchi elektronini tortib olish (1, 2, 3) uchun talab etiladigan energiya ($kJ \cdot mol^{-1}$) va ion radiuslari (4, 5, 6) keltirilgan. Ularning qaysilari magniyga taalluqli bo'ladi?
1) 577; 2) 494; 3) 736; 4) 0,050; 5) 0,068; 6) 0,098.
A) 1, 4 B) 2, 6 C) 1, 5 D) 3, 4 E) 3, 5

84. (03-1-49) Ionlanish energiyasi eng katta bo'lgan atomni ko'rsating.
A) Cs B) P C) I D) Br E) F

85. (03-2-14) Quyidagi jumlalardan qaysilari to'g'ri ekanligini ko'rsating:
1) aktivlik qatorida chapdan o'ng tomon o'tgan sari metallarning aktivligi kamayib boradi; 2) metall atomi elektronini qanchalik oson bersa, u hosil qilgan ionning elektronga moyilligi shunchalik kam bo'ladi; 3) metall qanchalik kuchli qaytaruvchi bo'lsa, uning ioni shunchalik kuchsiz oksidlovchi bo'ladi.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 3 D) 1, 2 E) 1, 2, 3

86. (03-4-11) III davr elementlarida elementlar gidroksidlarining ion radiusi va yuqori oksidlanish darajasi chapdan o'ngga o'tganda qanday o'zgaradi?
A) kamayadi, ortadi
B) ortadi, ortadi
C) kamayadi, kamayadi
D) ortadi, kamayadi
E) o'zgarmaydi

87. (03-4-12) $Mn(OH)_2$, $Mn(OH)_3$, $Mn(OH)_4$, H_2MnO_4, $HMnO_4$ qatorida marganetsning ion radiusi, ion zaryadi va birikmalarning asos xossasi qanday o'zgaradi?
A) kamayadi, ortadi, kamayadi
B) ortadi, ortadi, kamayadi
C) kamayadi, kamayadi, ortadi
D) ortadi, kamayadi, ortadi
E) o'zgarmaydi, ortadi, kamayadi

88. (03-4-13) Elementlar tartib raqami ortishi bilan qanday xossalarining o'zgarishida davriylik kuzatiladi?
1) atomning yadro zaryadi; 2) atomlarning o'lchami; 3) nisbiy atom massasi; 4) ionlanish energiyasi; 5) elektrmanfiylik; 6) atomdagi energetik pog'onalar soni; 7) elektronga moyilligi; 8) oksidlanish darajasi; 9) tashqi energetik pog'onalardagi elektronlar soni.
A) 2, 4, 5, 7, 8, 9 B) 1, 2, 3, 4
C) 5, 6, 7, 8 D) 6, 7, 8, 9
E) 1, 2, 3, 6, 7, 9

89. (03-4-14) Davriy sistemaning II va III davrlarida elementlarning atom radiusi kamayganda, ...
A) metallik xossalari susayadi.
B) ionlari radiusi kamayadi.
G) elektrmanfiyligi kamayadi.
D) metallik xossalari kuchayadi.
E) yadroga elektronlar yutilishi susayadi.

90. (04-1-127) Atom radiusi eng katta bo'lgan elementni aniqlang.
A) oltingugurt B) kremniy
C) natriy D) alyuminiy
E) kaliy

91. (04-1-128) Elementlar metallik xossalari kamayib borishi tartibida joylashtirilgan qatorni aniqlang.
1) kaliy; 2) kislorod; 3) oltingugurt; 4) tellur; 5) selen.
A) 1, 4, 5, 3, 2 B) 2, 3, 5, 4, 1
C) 4, 1, 5, 3, 2 D) 5, 4, 1, 2, 3
E) 5, 4, 1, 3, 2

92. (04-1-134) Uchinchi davr elementlarida tartib raqamning ortib borishi bilan ularning o'zida va birikmalarida qaysi xossalar susayib boradi?
1) metallik; 2) elektrmanfiylik; 3) ionlanish potensiali; 4) vodorodli birikmalarda elementlarning oksidlanish darajasining maksimal qiymati; 5) kislorodli birikmalarning valentligi; 6) elektronga moyillik energiyasi; 7) yuqori musbat oksidlanish darajasi holatida ion radiusi; 8) atom radiusi; 9) metallmaslik.
A) 2, 3, 4, 8, 9 B) 1, 4, 7, 8
C) 1, 7, 8 D) 1, 3, 4, 8, 9
E) 1, 2, 3, 6

93. (04-1-145) Quyida natriy, magniy va alyuminiy uchun ularning birinchi ionlanish energiyasi ($kJ \cdot mol^{-1}$) va ion radiusi (4–6; nm) keltirilgan. Ular orasidan magniy uchun tegishli qiymatlarni tanlang:
1) 577; 2) 494; 3) 736; 4) 0,050; 5) 0,068; 6) 0,098.
A) 1, 4 B) 1, 5
C) 2, 6 D) 3, 4 E) 3, 5

94. (04-1-146) Davrlarda qaysi xususiyat chapdan o'ngg a ortib boradi va nodir gazlarda maksimal kattalikka ega bo'ladi?
A) birinchi ionlanish energiyasi
B) elektronga moyillik energiyasi
C) oksidlanish darajasi
D) elektron biriktirib olish xossasi
E) kimyoviy jihatdan metallmaslik xususiyati

95. (04-1-152) Davriy sistemaning III davrida chapdan o'ngga o'tishda elementlarning radiusi va oksidlanish darajasi qanday o'zgaradi.
A) kamayadi, ortadi B) ortadi, ortadi
C) kamayadi, kamayadi D) ortadi, kamayadi
E) o'zgarmaydi

96. (04-1-154) Elementlarning tartib raqami ortib borish tartibida xossalarning qaysi birida davriylik kuzatiladi?
1) atomning yadro zaryadi; 2) atomlarning o'lchami; 3) nisbiy atom massa; 4) ionlanish energiyasi; 5) elektrmanfiylik; 6) atomdagi energetik pog'onalar soni; 7) elektronga moyillik; 8) oksidlanish darajasi; 9) tashqi energetik pog'onadagi elektronlar soni.
A) 2, 4, 5, 7, 8, 9 B) 1, 2, 3, 4
C) 5, 6, 7, 8 D) 6, 7, 8, 9
E) 1, 2, 3, 6, 7, 9

97. (04-1-155) Davriy sistemaning II va III davrlarida atomlarning radiusi kamayganda
A) metallik xususiyatlar zaiflashadi
B) ionlar radiusi kamayadi
C) elektrmanfiylik kamayadi
D) metallik xususiyati ortadi
E) atomlar yadrolarining elektronni qamrab olish xususiyati zaiflashadi

98. (04-1-158) Quyidagi javoblarning qaysi birida eng aktiv metallmaslarning uchtasi uchun metallmaslik xususiyati ortib boradi?
A) N, C, B B) Cl, O, F
C) S, Cl, F D) F, O, Cl
E) Si, H, B

99. (04-1-159) Qaysi javobda keltirilgan elementlar ularning atom radiuslari ortib borish tartibida joylashgan?
1) Na, Mg, Al, Si; 2) Y, Br, Cl, F; 3) O, S, Se, Te; 4) Te, Se, O, S; 5) F, O, N, C.
A) 1, 2 B) 3, 5 C) 2, 4 D) 2, 5 E) 1, 5

100. (04-1-296) Quyidagi elementlar gidroksidlarini asosli xossalari kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) magniy; 2) kremniy (IV); 3) stronsiy; 4) alyuminiy; 5) kalsiy.
A) 2, 1, 4, 5, 3 B) 4, 2, 3, 1, 5
C) 1, 2, 4, 5, 3 D) 5, 3, 1, 4, 2
E) 3, 5, 1, 4, 2

101. (05-1-60) III davr elementlarining qaysi qatorida atomlarning ionlanish potensiali kamayib boradi?
1) fosfor; 2) magniy; 3) xlor.
A) 1, 2, 3 B) 2, 1, 3 C) 3, 2, 1 D) 2, 3, 1
E) 3, 1, 2

102. (05-1-61) Quyidagi elementlarni atom radiuslari ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) Li; 2) G'; 3) Ve; 4) O; 5) C.
A) 1, 2, 4, 5, 3 B) 1, 3, 5, 4, 2
C) 2, 4, 5, 3, 1 D) 3, 5, 4, 2, 1
E) 4, 5, 3, 1, 2

103. (05-1-66) VII guruh bosh guruhchasidagi elementlarning vodorodli birikmalari kislotalik kuchi qanday tartibda ortib boradi?
A) HJ, HCl, HBr, HF B) HCl, HF, HJ, HBr
C) HJ, HBr, HF, HCl D) HF, HBr, HCl, HJ
E) HF, HCl, BBR, HJ

104. (05-1-345) Oksidlarining asos xossasi kamayib borish qatorini toping:
1) fosfor (V) oksid; 2) mishyak (V) oksid;
3) azot (V) oksid; 4) surma (V) oksid.
A) 1, 2, 3, 4 B) 3, 1, 4, 2
C) 4, 2, 1, 3 D) 3, 1, 2, 4
E) 3, 4, 2, 1

105. (v4-102-2) Davriy jadvalning II davr elementlar oksidlarining asosli xossalari element tartib raqamining kamayishi bilan … .
A) o'zgarmaydi
B) avval kuchayadi, so'ngra susayadi
C) kuchayadi
D) avval susayadi, so'ngra kuchayadi
E) susayadi

106. (v4-107-2) D.I. Mendeleyev davriy jadvalining bitta guruhchasida joylashgan elementlarning atomlari qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
1) tashqi qobiqdagi elektronlar soni bilan;
2) yadro zaryadining qiymati bilan;
3) elektron qobiqlarining soni bilan;
4) kimyoviy xossalari bilan.
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 2 D) 2, 4 E) 1, 3

107. (v4-117-2) III davr elementlarining qaysi qatorida atomlarning ionlanish potensiali kamayib boradi?
1) fosfor; 2) magniy; 3) xlor.
A) 3, 2, 1 B) 3, 1, 2
C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 1 E) 2, 1, 3

108. (v5-103-4) Quyidagi elektron konfiguratsiyaga ega bo'lgan metallarni metallik xossalari kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) …$3p^6 4s^2$; 2) …$2p^6 3s^2$; 3) …$4p^6 5s^2$;
4) $1s^2 2s^2$; 5) …$5p^6 6s^2$.
A) 1, 2, 4, 3, 5 B) 3, 4, 5, 2, 1
C) 5, 3, 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5, 3
E) 5, 4, 3, 2, 1

109. (v5-107-2) Davriy jadvalning bosh guruhcha elementlarida elementlar tartib raqami kamayishi bilan …
1) radius; 2) elektrmanfiylik; 3) metallik;
4) metallmaslik; 5) atom massa.
A) 1, 3, 5-kamayadi, 2, 4-ortadi
B) 3, 4-ortadi, 1, 2, 5-kamayadi
C) 1, 3, 5-ortadi, 2, 4-kamayadi
D) 1, 2, 3-kamayadi, 4, 5-ortadi
E) 1, 4-kamayadi, 5-ortadi

110. (v5-113-2) I guruhning asosiy gruppachasida atom massasi ortishi bilan metallik, oksidlovchilik xossalari, radiusi va ionlanish potensiali mos ravishda qanday o'zgaradi?
A) ortadi, kamayadi, ortadi, ortadi
B) ortadi, kamayadi, ortadi, kamayadi
C) ortadi, ortadi, ortadi, kamayadi
D) kamayadi, kamayadi, ortadi, ortadi
E) kamayadi, ortadi, ortadi, kamayadi

111. (v5-116-20) Galogen vodorodlarning bog' uzunligi kamayishi tartibida joylashtiring.
1) HCl; 2) HBr; 3) HF; 4) HI.
A) 1, 3, 2, 4 B) 4, 2, 1, 3
C) 3, 1, 2, 4 D) 4, 1, 2, 3
E) 1, 2, 3, 4

112. (v5-117-2) Na, K, Rb, Cs, N, O, F elementlar qatorida ionlanish potensiali – … .
A) ortadi
B) kamayadi
C) o'zgarmaydi
D) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi
E) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi

113. (v5-121-2) Quyidagi birikmalarni oltingugurt atomi yoki ionining radiusi ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) S; 2) H_2S; 3) SO_2; 4) SO_3.
A) 4, 3, 1, 2 B) 3, 2, 1, 4
C) 3, 1, 2, 4 D) 4, 3, 2, 1
E) 1, 2, 4, 3

114. (v6-102-3) Li–Na–K–Rb–Cs. Ushbu qatorda ishqoriy metallarning atom radiuslari, ionlanish potensiallari, oksidlovchilik xossalari, nisbiy elektrmanfiyliklari qanday o'zgaradi?
A) ortadi, kamayadi, ortadi, ortadi
B) ortadi, ortadi, kamayadi, kamayadi
C) ortadi, kamayadi, kamayadi, kamayadi
D) kamayadi, ortadi, ortadi, kamayadi

115. (v6-108-3) Quyida berilgan vodorodli birikmalarning asosli xossasi kamayib borishi tartibida joylashtiring:
1) ammiak; 2) fosfin; 3) stabin; 4) arsin.
A) 3, 4, 1, 2 B) 3, 4, 2, 1
C) 4, 3, 2, 1 D) 1, 2, 4, 3

116. (v6-112-3) Tashqi energetik pog'onasi … bilan tugallangan elementning ionlanish energiyasi eng kam bo'ladi.
A) …$3s^1$ B) …$3s^3 3p^6$
C) …$4s^1$ D) …$2s^2$

117. (v6-113-3) Quyidagi elementlar atomlarining metallik xossalari susayib borishi tartibida joylashtiring.
1) seziy; 2) bariy; 3) magniy; 4) stronsiy; 5) kalsiy.
A) 1, 2, 4, 5, 3 B) 3, 5, 4, 2, 1
C) 2, 1, 3, 5, 4 D) 4, 3, 5, 2, 1

118. (v6-114-3) Na, Mg, Al, Si, P, S, Cl elementlar qatorida atom radiusi qanday o'zgaradi?
A) ortib boradi
B) kamayadi
C) o'zgarmaydi
D) oldin kamayadi, keyin ortadi

119. (v6-116-3) H, Li, Na, K, Xe, Kr, Ar, Ne, He Ushbu elementlar qatorida atomlar ionlanish energiyasi qanday o'zgaradi?
A) kamayib boradi
B) ortib boradi
C) Xe gacha ortadi, so'ng kamayadi
D) Xe gacha kamayadi, so'ng ortadi

120. (v6-117-3) Elementlarning qaysi xossalari ularning tartib raqami ortib borishi bilan ortib boradi?
1) elektrmanfiylik; 2) yadro zaryadi; 3) atom massasi; 4) valentlik; 5) atom radiusi;
6) elektronlar soni.
A) 2, 3, 6 B) 1, 3, 4
C) 1, 5, 6 D) 2, 4, 5

121. (v6-118-3) Quyidagi moddalarni atom radiuslari ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) fosfor; 2) oltingugurt; 3) alyuminiy;
4) kremniy.
A) 3, 4, 1, 2 B) 1, 2, 3, 4
C) 4, 3, 2, 1 D) 2, 1, 4, 3

122. (v6-119-3) II guruhning qaysi elementida metallmaslik xossalari yaqqolroq namoyon bo'ladi?
A) bariy B) berilliy
C) stronsiy D) kalsiy

123. (v6-121-3) Elementlar elektrmanfiylik qiymati kamayib borishi tartibida joylashgan qatorni toping.
A) F, O, N, C, B B) N, C, B, F, O
C) C, B, N, O, F D) B, C, N, O, F

124. (v7-101-2) Element atomlarining davr bo'yicha (asosiy guruhda) elektrmanfiyligi qanday o'zgaradi?
1) ortadi; 2) kamayadi; 3) o'zgarmaydi.
A) 2 B) 1 C) 1, 2 D) 3

125. (v7-104-2) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalidagi asosiy guruhchasida tartib raqami kamayishi bilan element xossalari qanday o'zgaradi?
A) atom radiusi kamayadi va metallik xossasi ortadi
B) atom radiusi ortadi va elektrmanfiylik kamayadi
C) atom radiusi kamayadi va elektrmanfiylik ortadi
D) atom radiusi ortadi va metallik xossasi kamayadi

126. (v7-107-2) Qaysi qatorda elementlar atomlarining radiusi kamayib borishi tartibida joylashgan?
1) oltingugurt; 2) alyuminiy; 3) magniy;
4) fosfor; 5) kremniy; 6) natriy.
A) 1, 4, 5, 2, 3, 6 B) 6, 3, 2, 5, 4, 1
C) 6, 5, 4, 2, 3, 1 D) 1, 4, 3, 2, 5, 6

127. (v7-111-2) Elementlarning qaysi xususiyatlari tartib raqami ortib borishi bilan to'xtovsiz ortadi?
1) elektrmanfiylik; 2) atom massasi; 3) atom radiusi; 4) elektronlar soni; 5) ionlanish potensiali; 6) yadro zaryadi.
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5 C) 1, 5 D) 4, 6

128. (v7-112-2) Elementlar tartib raqami ortishi bilan (asosiy guruhda) qaysi xossalar davriy ravishda o'zgarishi kuzatiladi?
1) atomning yadro zaryadi; 2) atom radiusi;
3) nisbiy atom massa; 4) ionlanish energiyasi; 5) elektrmanfiylik; 6) tashqi energetik qavatdagi elektronlar soni.
A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 4, 5
C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 3

129. (v7-113-2) Qaysi qatorda elementlarning ionlanish potensiali kamayib boradi?
A) Gs; Rb; K; Na B) Mg; Ca; Sr; Be
C) Li; K; Na; H D) He; Ne; Ar; Kr

130. (v7-117-2) Birinchi guruhning asosiy guruhida atom massa ortishi bilan metallik, oksidlovchilik xossalari, atom radiusi va ionlanish potensiali (berilgan tartibda) qanday o'zgaradi?
A) kamayadi, ortadi, ortadi, ortadi
B) ortadi, ortadi, ortadi, kamayadi
C) ortadi, kamayadi, ortadi, kamayadi
D) ortadi, kamayadi, ortadi, ortadi

131. (v7-118-2) Elementlarning atom radiusi kamayib borish tartibida joylashgan qatorni tanlang.
A) natriy, magniy, alyuminiy, kremniy
B) fosfor, kremniy, alyuminiy, magniy
C) magniy, fosfor, alyuminiy, kremniy
D) alyuminiy, magniy, kremniy, fosfor

132. (v7-121-2) Qaysi qatorda elementlarning ionlanish potensiali ortib boradi?
A) Gs; Rb; K; Na B) Mg; Ca; Sr; Be
C) Li; K; Na; H D) He; Ne; Ar; Kr

133. (v7-124-2) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalida davr bo'ylab (asosiy guruhida) tartib raqam ortib borish bilan quyidagi qaysi qonuniyat kuzatiladi?
A) atom massasi ortadi, elektronlar soni kamayadi
B) davr oxiriga qarab atom radiusi kamayadi, atom massasi ortadi
C) elementlar atom massasi kamayadi, atom radiusi o'zgarmaydi
D) atom massasi va juftlashmagan elektronlar soni ortadi

134. (v7-125-2) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalidagi atomlar elektrmanfiyligining o'zgarishi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?
A) ishqoriy metallarda yuqoridan pastga qarab ortadi
B) 2-davrdagi elementlarda chapdan o'ngga kamayadi
C) litiydan ftorga ortadi
D) 3-davrdagi elementlarda chapdan o'ngga kamayadi

135. (v8-101-4) Qaysi qatordagi elementlar elektromanfiyligi kamayib borishi tartibida joylashgan?
A) K, Ca, V, Ti, Sc B) K, Ca, Sc, Ti, V
C) Nb, Zr, Y, Cr, Rb D) I, Br, Cl, F, N

136. (v8-102-16) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalidagi atomlar elektromanfiyligining o'zgarishi (asosiy guruhda) qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?
A) ishqoriy metallarda yuqoridan pastga ortadi
B) 2-davr elementlarida chapdan o'ngga ortadi
C) 3-davr elementlarida o'ngdan chapga kamayadi
D) IIA guruh elementlarida pastdan yuqoriga ortadi

137. (v8-105-4) Qaysi qatorda elementlar atom radiusi kamayib borishi tartibida joylashtirilgan?
1) ftor; 2) berilliy; 3) azot; 4) kislorod; 5) bor; 6) uglerod.
A) 2, 5, 6, 3, 4, 1 B) 2, 6, 3, 5, 4, 1
C) 1, 4, 3, 6, 5, 3 D) 1, 4, 5, 3, 6, 2

138. (v8-106-4) Qaysi qatorda elementlar atom radiusi kamayib borishi tartibida joylashtirilgan?
1) selen; 2) kislorod; 3) tellur; 4) oltingugurt; 5) poloniy.
A) 5, 3, 1, 4, 2 B) 2, 4, 1, 3, 5
C) 5, 1, 4, 3, 2 D) 2, 3, 4, 1, 5

139. (v8-106-16) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalidagi atomlar ionlanish potensialining o'zgarishi (asosiy guruhda) qaysi javobda noto'g'ri ifodalangan?
A) ishqoriy metallarda yuqoridan pastga ortadi
B) 2-davr elementlarida chapdan o'ngga ortadi
C) 3-davr elementlarida o'ngdan chapga kamayadi
D) IIA guruh elementlarida pastdan yuqoriga ortadi

140. (v8-108-16) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalining qaysi qismida nisbiy elektromanfiylik katta va atom radiusi kichik elementlar joylashgan?
A) lantanoidlar guruhida
B) VIA guruhida
C) I va VII guruhlar oralig'ida
D) VIIA guruhida

141. (v8-109-4) Qaysi qatorda elementlarning ionlanish potensiali kamayib boradi?
A) Ba, Sr, Ca, Mg, Be
B) B, C, N, O, F
C) Li, Na, K, Cs, Fr
D) Cl, S, Si, P, Al

142. (v8-109-16) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalidagi IA guruhda joylashgan elementlar atomlari qanday xossalari bilan farq qiladi?
1) atom radiusi; 2) yadrodagi protonlar soni; 3) tashqi energetik qavatdagi elektronlar soni; 4) elektromanfiylik; 5) ionlanish energiyasi.
A) 1, 2, 4, 5 B) 3, 4, 5
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3

143. (v8-110-16) Ikkinchi davr elementlari atomlarida tartib raqami kamayib borishi bilan ularning qaysi xususiyatlari susayib boradi?
1) elektromanfiylik; 2) metallik; 3) ionlanish potensiali; 4) tashqi energetik qavatdagi elektronlar soni; 5) metallmaslik; 6) atom radiusi.
A) 3, 5 B) 1, 3, 4, 5
C) 2, 6 D) 2, 4, 6

144. (v8-113-4) Qaysi qatorda elementlar atom radiusi kamayib borishi tartibida joylashtirilgan?
1) ftor; 2) berilliy; 3) azot; 4) kislorod; 5) bor; 6) uglerod.
A) 2, 5, 6, 3, 4, 1 B) 2, 6, 3, 5, 4, 1
C) 1, 4, 3, 6, 5, 3 D) 1, 4, 5, 3, 6, 2

145. (v8-114-16) Birinchi guruhning asosiy guruhchasida tartib raqamning kamayishi bilan metallik, oksidlovchilik, atom radiusi va ionlanish potensiali (mos ravishda) qanday o'zgaradi?
A) kamayadi, ortadi, kamayadi, ortadi
B) ortadi, ortadi, ortadi, kamayadi
C) ortadi, kamayadi, ortadi, kamayadi
D) kamayadi, ortadi, ortadi, kamayadi

146. (v8-116-16) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalidagi atomlar ionlanish potensialining o'zgarishi (asosiy guruhda) qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?
A) ishqoriy metallarda yuqoridan pastga ortadi
B) 2-davr elementlarida chapdan o'ngga kamayadi
C) 3-davr elementlarida o'ngdan chapga kamayadi
D) IIA guruh elementlarida pastdan yuqoriga kamayadi

147. (v8-118-16) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalida pastdan yuqoriga qarab elementlarning (asosiy guruhda) atom radiusi va elektromanfiyligining o'zgarishi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?
A) atom radiusi kamayadi va elektromanfiyligi ortadi
B) atom radiusi va elektromanfiyligi ortadi
C) atom radiusi va elektromanfiyligi kamayadi
D) atom radiusi ortadi va elektromanfiyligi kamayadi

148. (v8-119-4) Quyidagi qatorda elektromanfiylik qanday o'zgaradi?
K, Ca, Cs, Ti, V, Cr, F
A) ortadi
B) kamayadi
C) avval ortadi, so'ngra kamayadi
D) avval kamayadi, so'ngra ortadi

149. (v8-120-16) Qaysi xususiyatlar tartib raqami ortishi bilan davriy o'zgaradi?
1) elektronga moyillik; 2) atom radiusi; 3) yadro zaryadi; 4) ionlanish energiyasi; 5) elektronlar soni; 6) elektromanfiylik.
A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 3, 5
C) 2, 4, 6 D) 3, 5

150. (v8-124-16) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalining IA guruhida yuqoridan pastga qarab quyidagi xususiyatlarning qaysilari ortib boradi?
1) elektromanfiylik; 2) atom radiusi; 3) metallik xossasi; 4) yadro zaryadi; 5) ionlanish potensiali.
A) 1, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 2, 4

151. (v9-102-30) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalining bitta guruhchasida (asosiy) joylashgan element atomlarining qanday xususiyatlari umumiy bo'ladi?
1) tashqi energetik qavatdagi elektronlar soni; 2) valentlik; 3) elektron qavatlar soni; 4) oksidlarning formulasi; 5) elektrmanfiylik.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 5
C) 1, 2, 4 D) 3, 5

152. (v9-104-34) Qaysi qatordagi elementlar elektrmanfiyligi ortib borishi tartibida joylashgan?
A) yod, brom, xlor, ftor, azot
B) niobiy, sirkoniy, ittriy, stronsiy, rubidiy
C) kaliy, kalsiy, vanadiy, titan, skandiy
D) kaliy, kalsiy, skandiy, titan, vanadiy

153. (v9-105-22) Qaysi qatorda elementlar atomlari radiusi kamayib borishi tartibida joylashgan?
A) natriy, kaliy, rubidiy, vodorod
B) qalay, germaniy, kremniy, uglerod
C) kislorod, oltingugurt, selen, telim
D) uglerod, bor, berilliy, ftor

154. (v9-106-4) Qaysi qatorda elementlarning ionlanish potensiali kamayib boradi?
A) litiy, kaliy, natriy, vodorod
B) magniy, kalsiy, stronsiy, berilliy
C) seziy, rubidiy, kaliy, natriy
D) geliy, neon, argon, kripton

155. (v9-107-20) D.I. Mendeleyev elementlar davriy jadvalidagi IA guruhda joylashgan element atomlarida tartib raqami kamayishi bilan quyidagi xususiyatlar qanday o'zgaradi?
12. (98-6-17) A, D, E va L elementlarining tartib raqamlari 6, 9, 10 va 19 qaysi elementlar juftligi ion bog'lanishli birikma hosil qilishini aniqlang.
A) A bilan L B) A bilan E
C) D bilan L D) D bilan E
E) E bilan L

13. (98-6-19) Ionli birikma hosil qila oladigan elementlar juftligini aniqlang:
1) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^1$; 2) $1s^2 2s^2 2p^5$; 3) $1s^2 2s^2 2p^2$; 4) $1s^2 2s^2 2p^2$; 5) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^5$.
A) 1 va 2; 1 va 5 B) 2 va 3; 4 va 5
C) 1 va 5; 2 va 5 D) 3 va 4; 2 va 4
E) 1 va 3; 3 va 5

14. (98-6-29) Ion bog'lanishga ega bo'lgan va jami elektronlarining yig'indisi 30 bo'lgan moddani aniqlang.
A) kremniy (IV) oksid B) kaliy oksid
C) magniy ftorid D) natriy xlorid
E) kaliy ftorid

15. (98-6-31) Belgilari A, D, E va E bo'lgan elementlarning tartib raqamlari 6, 9, 10 va 11 ga teng. Qaysi elementlar juftligi o'zaro ion bog' tabiatli modda hosil qiladi?
A) E_1 va D B) E va A
C) A va D D) E va D
E) E va E_1

16. (98-8-81) Molekulasida ion bog'lanish mavjud bo'lgan oksidlarni ko'rsating.
1) xlor (V) oksid; 2) oltingugurt (IV) oksid; 3) xrom (III) oksid; 4) seziy oksid; 5) fosfor (V) oksid; 6) kalsiy oksid.
A) 1, 5, 6 B) 3, 4, 5 C) 1, 2, 3 D) 4, 5, 6
E) 3, 4, 6

17. (98-10-22) Qaysi birikmalarda atomlar ion bog'lanish orqali bog'langan?
1) ammiak; 2) karbonat angidrid; 3) seziy ftorid; 4) natriy xlorid; 5) vodorod sulfid; 6) uglerod (IV) sulfid; 7) kaliy bromid.
A) 1, 2, 4 B) 2, 4, 6 C) 3, 4, 7 D) 4, 5, 6
E) 1, 4, 7

18. (98-10-25) Qanday qattiq moddalarda, ular suyuqlanma holatiga o'tganda, elektr tokini o'tkazish xususiyati paydo bo'ladi?
1) kaliy nitrat; 2) germaniy; 3) natriy xlorid; 4) natriy gidroksid; 5) oltingugurt; 6) kaliy gidrid; 7) natriy oksid.
A) 1, 2, 3, 4, 6 B) 1, 2, 3, 5, 7
C) 1, 3, 4, 5, 6 D) 1, 3, 4, 6, 7
E) 2, 4, 5, 6, 7

19. (99-1-6) Ionli bog'lanish qaysi elementlar birikmasida yaqqolroq bo'ladi?
A) 2-davr, III va IV guruh elementlarida
B) 3-davr, IV va V guruh elementlarida
C) 5-davr, VII va VIII guruh elementlarida
D) 2-davr, I va VII guruh elementlarida
E) 7-davr, I va IV guruh elementlarida

20. (99-1-7) Ion bog'lanishli birikma hosil qiluvchi kimyoviy elementlar juftligini aniqlang?
1) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^1$; 2) $1s^2 2s^2 2p^3$; 3) $1s^2 2s^2 2p^5$; 4) $1s^2 2s^2 2p^6$; 5) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^3$.
A) 1 va 3 B) 2 va 3 C) 3 va 4 D) 4 va 5
E) 1 va 5

21. (99-2-8) Qaysi tuzda ion bog'lanish kuchli ifodalangan?
A) osh tuzi B) kaliy yodid
C) kaliy ftorid D) seziy ftorid
E) natriy bromid

22. (99-6-75) Quyidagi kaliy-alyuminiyli achchiqtosh $KAl(SO_4)_2 \cdot 12H_2O$ tarkibidagi qaysi bog'ning ionli darajasi yuqoriroq?
A) kaliy-alyuminiy
B) kaliy-oltingugurt
C) alyuminiy-oltingugurt
D) kaliy-kislorod
E) alyuminiy-kislorod

23. (00-5-51) Ion bog'lanishga ega bo'lgan oksidlarni tanlang.
1) xlor (V) oksid; 2) oltingugurt (VI) oksid; 3) xrom (III) oksid; 4) seziy oksid; 5) fosfor (V) oksid; 6) kalsiy oksid.
A) 1, 4, 6 B) 2, 4, 6 C) 3, 4, 6 D) 4, 5, 6
E) 1, 3, 5

24. (00-9-71) Ionli bog'lanish hosil qiladigan elementlar juftliklari berilgan qatorlarni aniqlang:
1) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^1$; 2) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2$; 3) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6$; 4) $1s^2 2s^2 2p^6$; 5) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^5$.
A) 1–5, 2–5 B) 1–3, 1–4
C) 2–3, 4–5 D) 3–4, 1–3
E) 2–3, 2–4

25. (01-4-25) Qaysi xususiyatlar ion bog'lanishli moddalar uchun xos?
1) qaynash va suyuqlanish temperaturalari yuqori; 2) qutblangan erituvchilarda oson ionlanadi; 3) eritmalari va suyuqlanmalari elektr tokini yaxshi o'tkazadi; 4) termik beqaror; 5) qattiq holatda elektr tokini o'tkazmaydi.
A) 1, 2, 3, 5 B) 2, 3, 4, 5
C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5
E) 1, 2, 3, 4, 5

26. (01-12-39) Bog'lanishning ionlilik darajasi ortib boradigan qatorni tanlang.
A) B–Cl, Na–Cl, Ca–Cl, Be–Cl
B) B–Cl, Be–Cl, Ca–Cl, Na–Cl
C) B–Cl, Be–Cl, Na–Cl, Ca–Cl
D) Na–Cl, Ca–Cl, B–Cl, Be–Cl
E) Be–Cl, B–Cl, Na–Cl, Ca–Cl

27. (04-1-275) Qaysi birikmalarda ion bog'lanish mavjud emas?
1) seziy ftorid; 2) karbonat angidrid; 3) ammiak; 4) natriy xlorid; 5) vodorod sulfid; 6) uglerod (IV) sulfid; 7) kaliy bromid.
A) 2, 3, 5, 6 B) 2, 4, 6 C) 3, 4, 7
D) 4, 5, 6 E) 1, 4, 7

28. (04-1-293) Molekulasida ion bog'lanish mavjud bo'lgan oksidlarni aniqlang.
1) xrom (III) oksid; 2) seziy xlorid; 3) xlor (V) oksid; 4) oltingugurt (IV) oksid; 5) fosfor (V) oksid; 6) kalsiy oksid; 7) natriy xlorid.
A) 1, 6 B) 3, 4, 5
C) 1, 2, 6 D) 1, 2, 6, 7
E) 3, 4, 6

29. (v17-104-7) Qaysi juft elementlar o'rtasida ion li birikma hosil bo'lishi mumkin?
1) natriy va kislorod; 2) fosfor va oltingugurt; 3) rubidiy va ftor; 4) uglerod va kislorod; 5) bariy va xlor.
A) 1, 3, 5
B) 1, 2, 3
C) 2, 3, 4
D) 1, 3, 4

9.2. Kovalent bog'lanish

1. (96-1-15) Quyidagi molekulalarning qaysi birida bog'lovchi elektron jufti bir elementdan ikkinchisiga ko'proq siljigan?
A) vodorod bromid
B) vodorod yodid
C) vodorod astatid
D) vodorod ftorid
E) vodorod xlorid

2. (96-3-17) Quyidagi birikmalarni ulardagi bog' barqarorligining ortib borish tartibida joylashtiring: 1) HCl; 2) NF; 3) NVr; 4) HI.
A) 4, 3, 1, 2
B) 1, 2, 4, 3
C) 1, 4, 2, 3
D) 4, 3, 2, 1
E) 3, 4, 2, 1

3. (96-3-42) Qaysi birikmada element bilan vodorod orasidagi bog' eng qutbli?
A) CH_4 B) HCl
C) H_2S D) CH_3OH
E) CH_3COOH

4. (96-5-44) Chumoli kislotada har bir kimyoviy bog' elektronlari qaysi element atomiga siljigan?
A) uglerod-vodorod, uglerod-kislorod bog'larda uglerodga, kislorod-vodorod bog'da kislorodga siljigan
B) uglerod-vodorod bog'da uglerod atomiga, qolgan bog'larda kislorod atomiga siljigan bo'ladi
C) uglerod-vodorod bog'da uglerod atomiga, kislorod uglerod bog'larda kislorod atomiga siljigan bo'ladi
D) uglerod-kislorod bog'da uglerod atomiga, qolgan bog'larda vodorod atomiga siljigan bo'ladi
E) hamma bog'da uglerod atomiga siljigan bo'ladi

5. (96-7-13) Qutbsiz kovalent bog'lanish qanday element atomlari orasida hosil bo'ladi?
A) bir xil metalning turli atomlari orasida
B) to'rli metallar orasida
C) metall bilan metallmas atomlari orasida
D) turli metallmaslar atomlari orasida
E) bir xil metallmas atomlari orasida

6. (96-7-14) Kovalent bog'lanishda valentlik nima bilan aniqlanadi?
A) tashqi pog'onadagi umumiy elektronlar soni bilan
B) tashqi pog'onadagi juft elektronlar soni bilan
C) barcha elektronlar soni bilan
D) hosil bo'lgan umumiy elektron juftning soni bilan
E) tashqi va tashqaridan oldingi pog'onadagi elektronlar soni bilan

7. (96-8-11) Qanday bog'larda to'yinuvchanglik, yo'naluvchanglik va qutbsiz erituvchilarda eruvchanlik xususiyatlari mavjud emas?
A) vodorod bog' B) kovalent bog'
C) ion bog' D) metall bog'
E) qutbli kovalent bog'

8. (96-13-8) Quyidagi gidridlar qatorida kovalent bog' barqarorligi qaysi tartibda ortib boradi?
1) H_2O; 2) H_2S; 3) H_2Se; 4) H_2Te.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 1, 4, 3
C) 3, 2, 1, 4 D) 4, 3, 2, 1
E) 3, 1, 4, 2

9. (96-15-13) Keltirilgan birikmalarning qaysi birida kovalent qutbli bog' kuchli ifodalangan?
A) CO B) H_2O C) NH_3 D) NO
E) Cl_2O_3

10. (96-15-43) Sirka kislotasida har bir kimyoviy bog' qaysi element atomiga siljigan?
A) uglerod-vodorod, uglerod-kislorod bog'larda uglerod atomiga
B) kislorod-vodorod, kislorod-uglerod bog'larda kislorod atomiga, qolgan bog'larda vodorod atomiga
C) uglerod-uglerod bog'da kislorod bilan bog'langan uglerod atomga, uglerod-vodorod bog'da uglerod atomiga, kislorod-uglerod, kislorod-vodorod bog'larda kislorod atomiga
D) kislorod-vodorod, kislorod-uglerod bog'larda kislorod atomiga, uglerod-uglerod bog'da kislorod bilan bog'langan uglerod atomiga siljigan bo'ladi
E) uglerod-vodorod bog'larda uglerod atomiga, uglerod-kislorod bog'larida ham uglerod atomiga

11. (96-15-69) Qaysi molekulalarda atomlar o'zaro qutbli kovalent bog'lar vositasida birikadi?
1) H_2O; 2) N_2; 3) HCl; 4) KBr; 5) NH_3; 6) F_2.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 4 D) 2, 5, 6
E) 1, 4, 5

12. (96-15-70) Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri qutbsiz kovalent bog'lanishli birikmalarga xos?
A) yuqori temperaturalarda qaynaydi
B) past temperaturalarda qaynaydi
C) yuqori temperaturalarda suyuqlanadi
D) elektr o'tkazuvchanligi yaxshi
E) suvda yaxshi eriydi

13. (96-15-71) Azot molekulasida atomlar necha juft elektronlar vositasida birikadi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

14. (97-3-14) Qaysi birikmalarda qutbsiz kovalent bog'lanish mavjud?
1) HF; 2) NCl_3; 3) NH_3; 4) RH_3.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3 E) 2, 4

15. (97-3-15) Qaysi birikmalardagi markaziy atom to'yinuvchanglik hassasiga ega?
1) SO_4^{2-}; 2) NaCl; 3) CO_2; 4) NaOH; 5) SiO_2; 6) CO; 7) HF; 8) F_2.
A) 1, 3, 5, 8 B) 1, 2, 3, 7
C) 2, 4, 5, 8 D) 3, 4, 5, 8
E) 4, 5, 6, 8

16. (97-4-20) Qaysi birikmada kovalent bog' kuchli qutblangan?
A) ammiak B) vodorod sulfid
C) metan D) suv
E) fosfin

17. (97-5-4) Qaysi molekuladagi bog'ning qutbliligi kamroq?
A) berilliy oksid B) magniy oksid
C) kalsiy oksid D) stronsiy oksid
E) bariy oksid

18. (97-5-8) Qutbli kovalent bog'ga ega bo'lgan ikkita moddalarni tanlang.
A) ammiak, vodorod sulfid
B) nitrat kislota, bariy xlorid
C) natriy gidroksid, natriy sulfid
D) magniy bromid
E) natriy xlorid, vodorod sulfid

19. (97-6-14) Kovalent bog'ning to'yinuvchanglik xossasi nimalarga bog'liq?
A) atomdagi juftlashmagan elektronlar soniga. shuningdek, ularda mavjud bo'lgan ajralmas elektron juftlar soniga bog'liq. Chunki bog'lanish hosil bo'lishida, bir atom o'zidan ajralmas elektronlar juftini (donor) energetik pog'onasida bo'sh orbitallari bo'lgan boshqa atomlarga (akseptor) beradi va hamma imkoniyatlar bog' hosil qilishda qatnashib bo'ladi
B) atomning yadro zaryadiga va undagi juftlashmagan elektronlar soniga bog'liq
C) elementning davriy sistemada joylashgan o'rniga va tashqi pog'onasidagi elektronlar soniga bog'liq
D) kimyoviy bog' hosil bo'lishida ishtirok etadigan juftlashmagan elektronlar soniga bog'liq
E) atomning tashqi energetik pog'onasini tugallangan qavatga aylantirish uchun yetishmayotgan elektronlar soniga bog'liq

20. (97-6-49) Quyidagi birikmalar va molekulalarning qaysilarida qutbli kovalent bog'lanish mavjud?
1) xlor; 2) vodorod sulfid; 3) kaliy ftorid; 4) ammiak; 5) fosfor (V) oksid; 6) vodorod bromid (gaz); 7) natriy oksid; 8) vodorod oksid; 9) ozon.
A) 1, 3, 5, 7, 8 B) 2, 4, 5, 6, 8
C) 2, 3, 5, 7, 9 D) 3, 5, 6, 7, 8
E) 3, 5, 6, 7, 9

21. (97-8-18) Quyidagi elementlar orasidagi bog'larning qaysi biri eng kuchli qutblangan?
A) ftor-ftor B) vodorod-xlor
C) vodorqd-yod D) fosfor-ftor
E) xlor-yod

22. (97-9-43) Quyidagi vodorodli birikmalarni bog'larining qutbliligi ortishi bo'yicha joylashtirilgan qatorni toping:
1) natriy gidrid; 2) vodorod xlorid; 3) vodorod ftorid; 4) vodorod oksid; 5) vodorod sulfid; 6) fosfin.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 6, 5, 2, 4, 1, 3
C) 3, 2, 4, 5, 6, 1 D) 6, 5, 1, 2, 4, 3
E) 2, 4, 6, 1, 3, 5

23. (97-10-9) Qaysi moddalar juftida bog'dagi elektron zichlik kislorod atomi tomon siljigan?
A) OF_2 va CO
B) Cl_2O va NO
C) H_2O va OF_2
D) P_2O_5 va OF_2
E) Cl_2O va OF_2

24. (97-10-45) Kovalent bog'li molekulalar juftini ko'rsating.
A) MgI_2, SO_2 B) NaBr, HBr
C) HBr, PH_3 D) S_8, F_2
E) H_2S, SF_6

25. (97-10-177) Atomlar orasidagi bog'lanish faqat s-orbitallardagi elektronlar hisobiga bo'lgan moddani aniqlang?
A) Cl_2 B) H_2 C) CH_4 D) HCl
E) C_2H_2

26. (97-11-8) Molekulasi qutbli kovalent bog'lanishga ega bo'lgan moddani aniqlang.
A) azot B) kislorod
C) vodorod D) vodorod xlorid
E) litiy xlorid

27. (97-11-114) Temir (III) sulfat molekulasida kislorod atomlaridan nechtasi bevosita temir atomi bilan bog'langan?
A) 8 B) 7 C) 6 D) 5 E) 4

28. (98-1-20) Qaysi birikmadagi kislorod-vodorod bog'ning qutbliligi katta?
A) metanol B) butanol-2
C) fenol D) butanol-1
E) 2, 4, 6-trinitrofenol

29. (98-1-22) Kovalent bog' tabiatli molekulalar qanday xususiyatga ega bo'ladi?
A) suyuqlanish temperaturalari past, bog' energiyalari yuqori, suvda yomon eriydi
B) suyuqlanish va qaynash temperaturalari yuqori, bog'lanish energiyalari yuqori, suvda yomon eriydi, issiqlik o'tkazuvchanligi yuqori
C) suyuqlanish va qaynash temperaturalari past, bog'lanish energiyalari past, suvda eruvchanligi yaxshi
D) suyuqlanish va qaynash temperaturalari past, bog'lanish energiyalari yuqori, qutbsiz erituvchilardagi eruvchanligi yomon
E) suyuqlanish va qaynash temperaturalari yuqori, bog'lanish energiyalari yuqori, benzoldagi eruvchanligi yaxshi

30. (98-4-4) Qaysi molekulalarda atomlar qutbli kovalent bog' vositasida bog'langan?
1) vodorod oksid; 2) azot; 3) vodorod xlorid; 4) kaliy bromid; 5) ammiak; 6) ftor.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 4 D) 2, 5, 6
E) 1, 4, 5

31. (98-5-3) Kovalent bog'lar hisobiga tuzilgan molekulali moddalarning xususiyatlari qaysi javoblarda to'g'ri ko'rsatilgan?
1) molekulyar massalari nisbatan yuqori;
2) suyuqlanish temperaturasi nisbatan past;
3) suvdagi eruvchanligi yaxshi; 4) organik erituvchilardagi eruvchanligi yaxshi;
5) molekulalardagi bog'larning to'yinuvchan bo'lmasligi; 6) molekulalardagi bog'larning yo'naluvchan bo'lishligi.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6
C) 1, 4, 6 D) 2, 5, 6
E) 2, 3, 5

32. (98-6-16) Qutbsiz kovalent bog'lanishli molekulalar qatorini aniqlang:
1) ammiak; 2) fosfin; 3) azot (III) xlorid;
4) uglerod (IV) sulfid; 5) oltingugurt (IV) oksid.
A) 1, 2 B) 1, 5 C) 3, 4 D) 4, 5 E) 3, 5

33. (98-6-18) Qaysi elementlar juftligi kuchsiz qutbli kovalent bog'lanishli birikma hosil qila oladi?
1) kislorod va kislorod; 2) vodorod va uglerod;
3) xlor va brom; 4) seziy va ftor;
5) kaliy va xlor; 6) seziy va xlor.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5
C) 2, 4, 6 D) 4, 5, 6
E) 1, 4, 5

34. (98-6-25) A, D, E, L va X elementlarining tartib raqamlari mos ravishda 2, 6, 8, 9 va 11 shu elementlar birikmalari orasida qutbli kovalent bog'lanishga ega bo'lgan moddalar qatorini aniqlang.
A) AX, AE B) DE_2, EL_2
C) AL, A_2E D) LX, X_2E
E) E–E, L–L

35. (98-6-28) Qutbli kovalent bog'lanishga ega bo'lgan moddalar qatorini aniqlang:
1) kaliy sulfid; 2) vodorod sulfid; 3) kislorod;
4) oltingugurt (IV) oksid; 5) vodorod xlorid;
6) natriy gidroksid; 7) suv.
A) 1, 3, 6, 7 B) 2, 4, 5, 7
C) 1, 5, 6, 7 D) 3, 4, 5, 6
E) 2, 5, 6, 7

36. (98-6-32) Belgilari X, Y, Z va D bo'lgan elementlar berilgan, ularning tartib raqamlari 2, 6, 8 va 10 shu elementlardan qaysi juftlik qutbli kovalent bog'lanishli modda hosil qiladi?
A) X va D B) Y va Z C) D va Y
D) X va Z E) Y va D

37. (98-8-46) Uglerod sulfid (CS_2) molekulasidagi bog'lovchi elektron juftlar qaysi atom tomon siljigan bo'ladi?
A) qisman oltingugurt atomi tomon
B) ikki atomning teng o'rtasida
C) qisman uglerod atomi tomon
D) uglerod atomi tomon ko'proq
E) oltingugurt atomi tomon ko'proq

38. (98-9-31) Qaysi birikmalarning molekulasi qutbsiz tabiatga ega?
1) Cl_2; 2) HCl; 3) H_2; 4) H_2S; 5) H_2O; 6) NH_3; 7) CO_2; 8) is gazi.
A) 1, 2, 8 B) 1, 3, 7 C) 2, 5, 6 D) 3, 5, 7
E) 5, 6, 7

39. (98-12-6) Quyidagi bog'larning qaysi biri vodorod sulfid molekulasidagi kimyoviy bog'ga taalluqli?
A) ion B) qutbsiz kovalent
C) qutbli kovalent D) metalli
E) ionli va kovalent

40. (99-1-39) Kimyoviy bog'lanish turi qutbli kovalent bo'lgan, lekin molekulasi qutbsiz bo'lgan moddani ko'rsating.
A) vodorod xlorid B) suv
C) ammiak D) uglerod (IV) oksid
E) vodorod sulfid

41. (99-3-8) Quyidagi birikmalarni ulardagi bog' qutbliligi ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) magniy oksid; 2) bor oksid; 3) uglerod (IV) oksid; 4) azot (II) oksid; 5) vodorod oksid.
A) 4, 3, 5, 2, 1 B) 3, 4, 5, 1, 2
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 5, 4, 3, 2, 1
E) 2, 1, 4, 3, 5

42. (99-4-7) Quyidagi gidridlar-suv, natriy gidrid, vodorod ftorid, kalsiy gidrid va metanda bog'lovchi elektron juftlari qaysi element atomi tomon siljigan?
A) H, Na, F, H, C B) O, Na, F, Ca, C
C) O, H, F, H, C D) H, H, H, H, H
E) O, Na, F, H, C

43. (99-5-22) Vodorod va xlor molekulalarida atomlar orasidagi bog'lanish qaysi energetik pog'onachadagi elektronlar hisobiga bo'ladi?
A) 2s, 2p B) 1s, 2p C) 1s, 3p D) 2s, 3p
E) 1s, 3s

44. (99-6-66) Qutbsiz kovalent bog'i bo'lgan molekulalarni tanlang:
1) etan; 2) xlor; 3) metilamin;
4) metilmerkaptan (CH_3SH); 5) metilxlorid;
6) chumoli aldegid.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 2, 4, 5 D) 2, 4, 6
E) 1, 2, 6

45. (99-7-64) Karbonat kislota molekulasida qanday bog'lar mavjud?
A) qutbli kovalent
B) qutbli kovalent va qutbsiz kovalent
C) qutbli kovalent va ionli
D) qutbli kovalent va, σ-bog'lar
E) ionli, π- va σ-bog'lar

46. (00-1-23) Qaysi kimyoviy bog'lanish to'yinuvchanlik xossasiga ega emas?
1) qutbsiz kovalent; 2) qutbli kovalent; 3) ion; 4) donor-akseptor; 5) metall.
A) 3, 5 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 5 E) 1, 4

47. (00-5-41) Qutbliligi katta bo'lgan bog'ni ko'rsating.
A) H–Cl B) H–Br
C) H–I D) H–S E) H–O

48. (00-5-42) Qutbliligi eng kichik bo'lgan bog'ni ko'rsating.
A) H–S B) K–S
C) S–O D) C–S E) H–O

49. (00-9-12) Qutbsiz kovalent bog'lanishli molekulalar qatorini aniqlang.
A) kislorod, xlor, azot (III) xlorid, vodorod
B) xlor, suv, metan, ammiak
C) kislorod, xlor, ammiak, vodorod
D) vodorod, azot, vodorod ftorid, ammiak
E) azot, ftor, ozon, vodorod xlorid

50. (01-5-53) Qaysi molekulada kimyoviy bog'ning uzunligi eng kichik bo'ladi?
A) NBr_3 B) I_2 C) Cl_3N D) PCl_3
E) NH_3

51. (01-5-59) Kimyoviy bog'ning uzunligi eng katta bo'lgan molekulani ko'rsating.
A) kremniy ftorid B) fosfor (V) ftorid
C) ftor oksid D) brom (V) ftorid
E) yod (V) ftorid

52. (01-6-40) Kovalent bog'ning qutbiyligi kamayib boradigan qatorin ko'rsating.
A) arsin, ammiak, fosfin
B) vodorod bromid, vodorod xlorid, vodorod yodid
C) ammiak, fosfin, arsin
D) selen (IV) oksid, tellur (IV) oksid. oltingugurt (IV) oksid
E) uglerod (IV) oksid, uglerod (IV) xlorid, uglerod (IV) ftorid

53. (01-8-12) Atomlari orasidagi masofa eng kichik bo'lgan modda molekulasini toping.
A) F_2O B) Cl_2O C) Vr_2O D) I_2O
E) H_2O

54. (01-10-32) Bog'lari qutbli, lekin molekulasi qutbsiz bo'lgan molekulalarni toping.
1) karbonat angidrid; 2) is gazi;
3) oltingugurt (IV) oksid; 4) to'rtxlorli uglerod.
A) 1, 2 B) 2, 3, 4 C) 3, 4 D) 1, 2, 3
E) 1, 4

55. (01-12-38) Brom atomining kovalent radiusi 0,114 nm ga teng. Agar vodorod atomining kovalent radiusi 0,03 nm ga teng bo'lsa, brom molekulasi va vodorod brommidagi yadroaro masofalarni aniqlang.
A) 0,114; 0,053 B) 0,258; 0,03
C) 0,117; 0,372 D) 0,228; 0,144
E) 0,258; 0,114

56. (02-1-80) Kimyoviy bog'lari qutbli, lekin molekulalari qutbsiz bo'lgan molekulalarni tanlang.
1) kremniy (IV) oksid; 2) oltingugurt (IV) oksid;
3) uglerod (IV) sulfid; 4) uglerod (IV) oksid;
5) kislorod ftoridi; 6) azot (III) xlorid;
7) azot (III) oksid; 8) fosfin;
9) oltingugurt (VI) oksid.
A) 3, 5, 7, 8 B) 3, 4, 5, 9
C) 1, 4, 6, 9 D) 2, 5, 7, 9
E) 3, 4, 8, 9

57. (02-1-82) Quyidagi moddalar orasidan qutbsiz molekulalarni tanlang:
1) benzol; 2) metanol; 3) sirka kislota;
4) to'rtxlorli uglerod; 5) chumoli aldegid;
6) anilin; 7) 2,2-dimetilpropan; 8) fenol;
9) natriy gidroksid; 10) bor ftorid.
A) 1, 3, 6, 9 B) 1, 4, 7, 10
C) 2, 5, 7, 8 D) 1, 4, 8, 10
E) 2, 4, 6, 8

58. (02-6-36) C–E bog'ning qutbliligi oshib borgan qatorni tanlang.
A) karbonat angidrid, uglerod (IV) sulfid, to'rtxlorli uglerod
B) uglerod tetraftorid, metan, is gazi
C) uglerod disulfid, uglerod (IV) oksid, uglerod to'rtftorid
D) to'rtxlorli uglerod, is gazi, etan
E) karbonat angidrid, uglerod (IV) sulfid, to'rtftorli uglerod

59. (02-8-3) Quyidagi qatorlar bo'yicha birikmalarning barqarorligi qanday o'zgaradi?
CH_4, SiH_4, GeH_4, SnH_4, PbH_4, va H_2Te, H_2Se, H_2S, H_2O.
A) ortadi, kamayadi B) ortadi, ortadi
C) kamayadi, kamayadi D) kamayadi, ortadi
E) o'zgarmaydi

60. (03-1-16) Kovalent bog'ning qutbliligi kamayib boradigan qatorni ko'rsating.
A) PH_3, PCl_3, PF_3 B) H_2O, H_2S, HF
C) HCl, HI, HBr D) CF_4, CCl_4, CBr_4
E) H_2S, PH_3, PCl_3

61. (03-2-50) Vodorod xlorid molekulasida qanday kimyoviy bog' mavjud?
A) ion B) koordinatsion
C) qutbli kovalent D) qutbsiz kovalent
E) vodorod bog'

62. (03-3-70) Kimyoviy bog'ning uzunligi qaysi molekulada eng katta qiymatga ega?
A) HCl B) VF_5
C) WF_6 D) SF_6
E) NF_3

63. (03-7-58) Qaysi molekula qutbli kovalent bog'lanishga ega bo'lgan holda qutbsiz molekulaga misol bo'ladi?
A) azot B) suv
C) ammiak D) uglerod(IV) xlorid
E) azot va ammiak

64. (03-8-41) Qaysi modda molekulasining bog'lanishi mustahkam?
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

65. (04-1-142) Quyidagi qatorlarda birikmalar turg'unligi qanday o'zgaradi? CH_4, SiH_4, GeH_4, SnH_4, PbH_4 va H_3Te, H_2Se, H_2S, H_2
A) kamayadi B) ortadi, ortadi
C) kamayadi, kamayadi D) ortadi, kamayadi
E) o'zgarmaydi

66. (04-1-151) Qaysi molekulada bog'lanish uzunligi kattaroq?
A) HCl B) VF_5
C) NF_3 D) Sfe E) WF_6

67. (04-1-277) Moddalar: 1) magniy oksid; 2) bor oksid; 3) vodorod oksid; 4) azot (II) oksid; 5) uglerod (IV) oksiddagi bog' qutbliligi kamayib borish tartibini toping.
A) 4, 3, 5, 2, 1 B) 4, 5, 1, 3, 2
C) 1, 2, 3, 5, 4 D) 5, 4, 3, 2, 1
E) 2, 1, 4, 3, 5

68. (04-1-294) Qutbli kovalent bog'li, lekin molekulasi qutbsiz bo'lgan moddani ko'rsating.
A) bor xlorid B) suv
C) ammiak D) uglerod (II) oksid
E) vodorod sulfid

69. (04-1-300) Quyidagi elementlar orasidagi bog'ning qutbliligi ortib borish tartibini toping:
1) xlor – ftor; 2) brom – ftor; 3) yod – ftor;
4) brom – xlor; 5) yod – xlor; 6) yod – brom.
A) 1, 2, 3, 4, 6, 5 B) 4, 6, 5, 1, 2, 3
C) 5, 6, 4, 1, 2, 3 D) 4, 5, 6, 1, 2, 3
E) 4, 6, 5, 2, 1, 3

70. (05-1-154) Qaysi zarrachada qutbsiz kovalent bog'lanish mavjud?
A) PO_4^{3-} B) SO_3^{2-} C) NH_4^+ D) NH_3
E) PH_3

71. (05-1-157) Quyidagi birikmalarni bog' barqarorligining kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) vodorod xlorid; 2) vodorod ftorid;
3) vodorod bromid; 4) vodorod yodid.
A) 4, 3, 1, 2 B) 1, 2, 4, 3
C) 2, 1, 4, 3 D) 4, 3, 2, 1
E) 2, 1, 3, 4

72. (v4-103-21) Quyidagi moddalar orasidan eng kam qutblangan kovalent bog'lanishli molekulani toping.
A) HCl B) HF C) CH_4 D) HBr
E) NH_3

73. (v4-104-21) Element bilan vodorod orasidagi bog' qaysi birikmada eng qutbli hisoblanadi?
A) vodorod sulfid B) chumoli kislota
C) metan D) metanol
E) vodorod ftorid

74. (v4-111-5) Brom atomining kovalent radiusi 0,085 nm ga teng. Agar vodorod atomining kovalent radiusi 0,05 nm ga teng bo'lsa, brom molekulasi va vodorod bromiddagi yadroaro masofalarni aniqlang.
A) 0,117; 0,372 B) 0,17; 0,135
C) 0,114; 0,053 D) 0,228; 0,144
E) 0,258; 0,03

75. (v5-110-20) O_2, N_2, F_2 molekulalarining bog'lanish energiyalari ortib borishi tartibida joylashtiring.
A) F_2; O_2; N_2
B) O_2; F_2; N_2
C) N_2; O_2; F_2
D) N_2; F_2; O_2
E) F_2; N_2; O_2

76. (v6-102-22) Quyidagi elementlar orasidagi bog'ning qutbliligi ortib bolish tartibini toping:
1) xlor – ftor; 2) brom – ftor; 3) yod – ftor;
4) brom – xlor; 5) yod – xlor; 6) yod – brom.
A) 4, 6, 5, 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4, 6, 5
C) 4, 5, 6, 1, 2, 3 D) 5, 6, 4, 1, 2, 3

77. (v6-106-21) CO_2, SO_2, NH_3, CH_4, H_2O, SO_3 molekulalaridagi markaziy atomning tashqi elektron qavatida reaksiyaga qatnashmagan elektron juftlar sonini ko'rsating.
A) 2, 2, 3, 1, 0, 1 B) 4, 6, 5, 4, 6, 6
C) 0, 1, 1, 1, 2, 1 D) 0, 1, 1, 0, 2, 0

78. (v11-101-21) Quyidagi berilgan molekulalardan qaysilari qutbli kovalent bog'lanishga ega? H_2, O_2, H_2O, CO_2, CH_4, H_2S.
A) CO_2, H_2S B) CH_4, H_2S
C) H_2O, CO_2 D) H_2O, H_2S

79. (v12c-102-7) Qutbli kovalent bog'lanishli, markaziy atomi sp^2 tipda gibridlanmagan molekulani aniqlang.
A) oltingugurt (IV) oksid B) fosfin
C) suv D) bor gidrid

80. (v12c-127-28) Qutbli kovalent bog'lanishli, markaziy atomi sp^3 tipda gibridlanmagan molekulani aniqlang.
A) suv B) oltingugurt (IV) oksid
C) bor gidrid D) fosfin

81. (v13-102-29) Qaysi birikmalarda kimyoviy bog'lanishlari yo'naluvchanlik xususiyatiga ega?
A) PCl_3, SO_2, H_2CO_3, NH_3
B) $NaCO_3$, NO_2, CaO, HNO_3
C) KCl, SO_3, H_2SO_4, $AlCl_3$
D) NaBr, CO_2, NH_4Cl, $NaNO_3$

82. (v13-113-19) C–C, C=C, C≡C $sp^3 \rightarrow sp^2 \rightarrow sp$. Ushbu qatorda ...
1) kimyoviy bog'ning qutblanuvchanligi ortib boradi; 2) C atomining kovalent radiusi kamayadi; 3) C atomining kovalent radiusi ortadi; 4) bog' uzunligi ortadi; 5) C–C bog' uzunligi kamayadi; 6) bog' energiyasi ortadi; 7) bog' energiyasi kamayadi; 8) C–H bog'ning qutbliligi ortadi.
A) 1, 3, 4, 7, 8 B) 1, 2, 5, 6, 8
C) 1, 3, 5, 7 D) 2, 4, 6, 8

83. (v13-133-30) Quyidagi qaysi elementlar orasidagi bog'lar eng kuchli qutblangan?
A) fosfor-vodorod
B) azot-vodorod
C) oltingugurt-vodorod
D) xlor-vodorod

84. (v13-137-11) Quyidagi qaysi birikmada element bilan vodorod orasidagi bog' eng qutbli?
A) CH_4 B) HCl
C) HBr D) H_2S

85. (v13-152-36) Quyidagi moddalarning tarkibida (a) qutbli kovalent, (b) qutbsiz kovalent, (c) donor-akseptor, (d) ionli bog'lari bor bo'lganlarini aniqlang?
1) Cl_2; 2) NH_3; 3) KCl; 4) K_2SO_4; 5) CO; 6) KNO_3.
A) a-2, 4, 5, 6; b-1; c-5, 6; d-3
B) a-2, 4, 6; b-1; c-5, 6; d-3, 4, 6
C) a-2, 4, 5, 6; b-1; c-5, 6; d-3, 4, 6
D) a-2, 4; b-1; c-5, 6; d-3

86. (v14-101-13) To'yinuvchanlik va yo'naluvchanlikka ega bo'lgan moddalarni ko'rsating:
1) NH_3; 2) LiH; 3) CaH_2; 4) C_2H_4; 5) $CrCl_3$; 6) SiH_4.
A) 1, 4, 6 B) 1, 3, 5
C) 2, 3, 5 D) 2, 4, 6

87. (v14-116-1) Qutbsiz kovalent bog'lanishga ega bo'lgan molekulalar qanday xususiyatlarga ega?
1) molekula qutbsiz; 2) qutbli erituvchilarda dissotsialanadi; 3) qaynash va suyuqlanish temperaturasi past; 4) qaynash va suyuqlanish temperaturasi yuqori; 5) qutbli erituvchilarda ionlanmaydi.
A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 5
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4

88. (v15-110-22) Qaysi moddalar qatorida elektron zichlik vodorod atomi tomon siljigan?
A) H_2O, SiH_4 B) BH_3, NH_3
C) BH_3, SiH_4 D) CH_4, H_2S

89. (v15-120-12) Keltirilgan molekulalarni qutbli (I) va qutbsiz (II) molekulalarga ajrating.
1) N_2; 2) CO; 3) O_3; 4) SO_2; 5) PH_3; 6) SO_2; 7) SO_3; 8) H_2.
A) I – 2, 4, 5, 7; II – 1, 3, 6, 8
B) I – 2, 3, 4, 5, 6; II – 1, 7, 8
C) I – 2, 3, 4, 5; II – 1, 6, 7, 8
D) I – 2, 4, 6; II – 1, 3, 0, 7, 8

90. (v15-131-32) Atomlarning umumiy elektron juftlari vositasida bog'lanishi bog'lanish deyiladi.
A) kovalent B) ion
C) metall D) vodorod

91. (v17-102-26) Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?
$HF \xrightarrow{1} H_2O \xrightarrow{2} \rightarrow NH_3 \xrightarrow{3} CH_4$
a) ortadi; b) kamayadi.
A) 1-a, 2-b, 3-a B) 1-b, 2-a, 3-a
C) 1-b, 2-b, 3-b D) 1-b, 2-a, 3-b

92. (v17-104-35) Atomlari o'rtasida qutbli kovalent bog'i bor moddalar qatorini toping.
A) Na_2CO_3, NO_2, CaO, HNO_3
B) PCl_3, SO_2, H_2CO_3, NH_3
C) NaBr, CO_2, NH_4Cl, $NaNO_3$
D) KCl, SO_3, H_2SO_4, $AlCl_3$

93. (v17-107-17) Qaysi birikmalarda elektron zichligi vodorod atomi tomoniga siljigan?
A) H_2O, SiH_4
B) BH_3, SiH_4
C) BH_3, NH_3
D) CH_4, H_2S

94. (v17-108-13) Agar I_2 va F_2 molekulalarida yadrolar orasidagi masofa tegishlicha $2{,}67 \cdot 10^{-10}$ va $3{,}04 \cdot 10^{-10}$ m ga teng bo'lsa, IF molekulasidagi bog' uzunligini hisoblang.
A) $5{,}71 \cdot 10^{-10}$ m B) 5,71 nm
C) $2{,}85 \cdot 10^{-10}$ m D) $28{,}5 \cdot 10^{-10}$ m

95. (v17-118-25) Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?
$CH_4 \xrightarrow{1} NH_3 \xrightarrow{2} \rightarrow H_2O \xrightarrow{3} HF$.
a) ortadi; b) kamayad.
A) 1-a, 2-a, 3-a B) 1-b, 2-a, 3-a
C) 1-a, 2-b, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-a

96. (v17-122-3) Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?
$HF \xrightarrow{1} H_2O \xrightarrow{2} \rightarrow NH_3 \xrightarrow{3} CH_4$
a) ortadi; b) kamayadi.
A) 1-a, 2-b, 3-a
B) 1-b, 2-a, 3-a
C) 1-b, 2-b, 3-b
D) 1-b, 2-a, 3-b

9.3. Vodorod bog'lanish va metall bog'lanish

1. (96-3-20) Qaysi birikmalar vodorod bog' hosil qiladi?
1) C_3H_8; 2) C_3H_7OH; 3) H_2S; 4) $C_2H_5NH_2$; 5) H_2O; 6) C_2H_6.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 5, 6
E) 1, 2, 3, 5

2. (96-15-75) Keltirilgan moddalardan qaysilarining molekulalari o'zaro vodorod bog'lanish bilan biriga oladi?
1) C_2H_5OH; 2) H_2O; 3) PH_3; 4) CH_3COOH.
A) 1, 2 B) 1, 2, 4 C) 2, 3 D) 2, 4
E) 1, 2, 3

3. (97-8-39) DNK molekulasining qo'shaloq spirali qanday bog' hisobiga vujudga keladi?
A) ko'sh bog' B) peptid bog'
C) σ-bog' D) vodorod bog'
E) π-bog'

4. (97-11-45) Kimyoviy bog'lanishning qaysi turida qattiq jismning elektr o'tkazuvchanligi yuqori bo'ladi?
A) kovalent B) kovalent qutbli
C) ion bog'lanish D) metalli bog'lanish
E) qutbsiz kovalent

5. (98-4-10) Qaysi moddalar molekulalari orasida vodorod bog' hosil bo'ladi?
1) etanol; 2) vodorod oksid; 3) fosfin; 4) sirka kislota; 5) nitrometan.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 4 C) 2, 3, 4 D) 2, 4, 5
E) 1, 2, 3

6. (98-6-34) Vodorod bog'lanish qaysi moddalar ishtirokida sodir bo'ladi?
1) geksan; 2) siklogeksan; 3) glitserin; 4) propan; 5) benzol; 6) etilbenzol; 7) etilenglikol; 8) benzin; 9) vodorod oksid; 10) chumoli kislota.
A) 1, 3, 4, 8 B) 2, 3, 5, 9
C) 1, 4, 6, 9 D) 3, 7, 9, 10
E) 2, 5, 8, 10

7. (98-8-48) Vodorod bog' hosil qiluvchi molekuladagi vodorod bilan bog'langan elementlarni ko'rsating:
1) azot; 2) uglerod; 3) kislorod; 4) yod; 5) fosfor; 6) ftor; 7) xlor; 8) kremniy; 9) brom; 10) oltingugurt.
A) 1, 2, 5, 7, 8, 9
B) 2, 4, 5, 7, 9, 10
C) 1, 3, 6, 7, 9, 10
D) 3, 4, 5, 6, 8, 10
E) 1, 3, 5, 6, 8, 9

8. (99-3-39) Vodorod bog'lanish hosil qiladigan molekulalarni ko'rsating:
1) sirka aldegid; 2) benzol; 3) metanol; 4) suv; 5) etan; 6) etil spirt; 7) sirka kislota; 8) atseton.
A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 3, 6 C) 2, 3, 5, 7
D) 4, 5, 6, 7 E) 3, 4, 6, 7

9. (99-6-62) Keltirilgan moddalar orasidan ichki molekulyar vodorod bog' hosil qiladiganini tanlang.
A) C_2H_5ONa B) CH_3NH_3Cl
C) C_2H_5OH D) $CH_2(OH)–CH_2NH_2$
E) NH_4OH

10. (99-6-70) Qaysi moddalar vodorod bog'lanish hosil qilmaydi?
1) ammiak; 2) metanol; 3) vodorod ftorid; 4) glitsin; 5) chumoli aldegid; 6) atseton; 7) glyukoza; 8) vodorod yodid.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6
C) 5, 6, 8 D) 4, 6, 7
E) 2, 6, 7

11. (00-5-52) Qaysi sababga ko'ra vodorod oksidning qaynash temperaturasi kislorod guruhchasidagi boshqa elementlar oksidlarining qaynash temperaturasidan yuqori bo'ladi?
A) kislorod atomida d-orbitallar yo'q bo'lishi tufayli
B) kislorodning elektrmanfiyligi eng yuqori bo'lganligi sababli
C) suv molekulalari orasida vodorod bog' mavjudligi sababli
D) suvning molekulyar massasi juda kichikligi tufayli
E) kislorod atomining radiusi eng kichikligi tufayli

12. (00-6-2) Quyidagi moddalarni ularning qaynash temperaturasi kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) sirka kislota; 2) valerian kislota; 3) etilatsetat; 4) moy kislota.
A) 3, 2, 4, 1 B) 1, 4, 2, 3
C) 2, 4, 1, 3 D) 3, 1, 4, 2
E) 1, 2, 4, 3

13. (01-6-67) Quyidagi molekulalarning qaysi birida ichki molekulyar vodorod bog'lanish mavjud?
A) suv B) etanol
C) sirka aldegid D) sirka kislota
E) etilenglikon

14. (02-2-62) Ichki molekulyar vodorod bog'lanish hosil qiladigan molekulalarni tanlang.
A) o-nitrofenol B) sirka, kislota
C) suv D) etanol
E) ammiak

15. (02-3-49) Qaysi moddalar vodorod bog'i hisobiga assotsilanadi?
1) propanal; 2) butanol-2; 3) butadiyen-1,3; 4) 2-xlorpropan; 5) sirka kislota; 6) 1-aminopropan; 7) trimetilamin.
A) 1, 5, 6 B) 2, 3, 5
C) 1, 2, 6 D) 1, 5, 7
E) 2, 5, 6

16. (02-5-45) Qaysi moddalar uchun vodorod bog'lanish xos?
1) sirka aldegid (suyuq); 2) benzol (suyuq); 3) metanol; 4) suv; 5) etan; 6) etanol; 7) sirka kislota; 8) atseton.
A) 1, 2, 4
B) 1, 2, 5, 8
C) 3, 4, 6, 7
D) 1, 2, 4, 6
E) 1, 2, 4, 8

17. (02-7-44) Quyidagi hodisalarning qaysilarini vodorod bog'lanish orqali tushuntirish mumkin?
A) Kalsiy vodorod bilan ta'sirlashib, kalsiy gidrid hosil qiladi.
B) Xlorning vodorod bilan ta'sirlashuvi natijasida zanjirli tuzilish hosil bo'ladi.
C) Suvning qaynash temperaturasi vodorod sulfidikidan yuqori.
D) C_7H_{16} ning qaynash temperaturasi C_3H_8 nikidan yuqori.
E) Qaldiroq, gaz – kuchli portlovchi aralashma.

18. (04-1-280) Keltirilgan moddalar orasidan ichki molekulyar vodorod bog' hosil qiladiganini tanlang.
A) $C_6H_{12}O_6$ B) CH_3NH_3Cl
C) C_2H_5OH D) $CH_2(OH)–CH_2–CH_3$
E) NH_4OH

19. (04-1-281) Qaysi moddalar vodorod bog'lanish hosil qilmaydi?
1) chumoli aldegid; 2) metanol; 3) vodorod ftorid; 4) etilatsetat; 5) ammiak; 6) atseton; 7) dietilefir; 8) glyukoza.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 5, 6, 8
D) 1, 4, 6, 7 E) 1, 6, 8

20. (04-1-285) Quyida keltirilgan zarrachalar orasidan qaysilari elektron akseptori bo'lishi mumkin?
1) fosfor (III) xlorid; 2) alyuminiy xlorid; 3) berilliy xlorid; 4) bor ftorid; 5) ammiak.
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 5
E) 3, 4, 5

21. (05-1-134) Qaysi birikmalar vodorod bog' hosil qilmaydi?
1) benzol; 2) etin; 3) vodorod ftorid; 4) etilamin; 5) propan; 6) etan.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 5, 6
E) 1, 2, 3, 5

22. (v4-118-20) Vodorod bog'i hisobiga assotsialanadigan moddalarni toping:
1) propanal; 2) butanol-2; 3) butadiyen-1,3; 4) 2-xlorpropan; 5) sirka kislota; 6) trimetilamin; 7) 1-aminopropan.
A) 1, 2, 6 B) 2, 5, 7 C) 1, 5, 6 D) 1, 5, 7
E) 2, 3, 5

23. (v5-104-21) Quyidagi moddalarning qaysilarida ichki molekulyar vodorod bog'lanish mavjud?
1) o-nitrofenol; 2) p-nitrofenol; 3) o-ftorbenzoy kislota; 4) DNK ning qo'shaloq spirali; 5) glitserin.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 4, 5
C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 5
E) 1, 3, 4, 5

24. (v6-102-21) Suvning qaynash temperaturasi undagi kislorod atomiga o'xshash elementlar gidridlari – vodorod sulfid, vodorod selenid va vodorod telluridlarning qaynash temperaturasidan yuqori ekanligini qanday izohlash mumkin?
A) kislorod atomida d-orbital bo'lmaganligi sababli
B) kislorod atomining radiusi unga o'xshash elementlar atomining radiusidan kichik bo'lganligi sababli
C) suv molekulalari orasida kuchli vodorod bog'lanish mavjud bo'lganligi sababli
D) suvning molekulyar massasi unga o'xshash elementlar molekulyar massasidan kichik bo'lganligi sababli

25. (v6-104-21) Vodorod bog'lanish hosil qilib assotsilanmaydigan moddalarni tanlang:
1) sirka aldegid; 2) benzol; 3) metanol; 4) suv; 5) etan; 6) etanol; 7) sirka kislota; 8) atseton.
A) 1, 2, 5, 8 B) 1, 2, 4
C) 1, 2, 4, 6 D) 3, 4, 6, 7

26. (v7-112-16) Quyidagi moddalarni qaynash temperaturasining ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) glitserin; 2) etil spirt; 3) etilenglikol.
A) 1, 3, 2 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 1 D) 3, 2, 1

9.4. Donor-akseptor bog'lanish

1. (96-5-14) Quyidagi birikmalarning qaysi birida donor-akseptor bog' mavjud?
A) CaS B) CH_4 C) CO_2 D) NH_4Cl
E) NaI

2. (96-13-49) Proton bilan suv molekulasi birikganda hosil bo'lgan yangi bog' tabiati qanday?
A) kovalent B) ion
C) donor-akseptor D) vodorod bog'
E) qutbli kovalent

3. (96-15-14) Keltirilgan birikmalarning qaysi birida atomlar o'zaro donor-akseptor bog'-orqali bog'langan?
A) H_2O B) $Mg(OH)_2$
C) C_2H_6 D) $[Cu(NH_3)_4]Cl_2$
E) $KAl(SO_4)_2$

4. (97-2-42) Agar kimyoviy bog' hosil bo'lishda juftlashmagan elektronlardan tashqari shu elementning bo'linmagan elektron jufti bilan ikkinchi elementning tashqi energetik qavatning bo'sh orbitali ishtirok etsa, hosil bo'lgan bog'ning nomi:
A) vodorod bog'
B) kovalent bog'
C) donor-akseptor mexanizmi bo'yicha kovalent bog'
D) ion bog'
E) qutbli kovalent

5. (98-12-7) Chumoli kislota qaysi sababga ko'ra suyuq agregat holatga ega?
A) molekulyar massasi kichik bo'lishi tufayli
B) molekulyararo vodorod bog'ga ega bo'lgani sababli
C) molekulasida kovalent bog' mavjudligi tufayli
D) qaynash temperaturasi past bo'lishi tufayli
E) molekulasining tekis tuzilishga ega bo'lishi tufayli

6. (99-6-69) Qanday moddalar suvda eritilganda, donor-akseptor bog' hosil bo'lishi mumkin?
1) karbonat angidrid; 2) ammiak; 3) vodorod xlorid; 4) bor ftorid; 5) vodorod bromid; 6) oltingugurt (IV) oksid.
A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 4, 5
E) 2, 3, 4, 5

7. (00-5-32) Ionlar orasida NH_4^+, H_3O^+ lar mavjud, lekin CH_5^+ bo'la olmasligi sababini aniqlang.
A) uglerod besh valentli bo'la olmaydi
B) uglerod o'z birikmalarida tetraedr tuzilishga ega
C) uglerodning qo'zg'algan holatida taqsimlanmagan elektron juftlar yo'q unda erkin elektron orbitallari ham yo'q

D) uglerod atomida d-pog'onacha yo'q
E) uglerod atomi atrofiga 4 ta elektron juftdan ortiq juftlar sig'maydi

8. (00-5-38) Tarkibida donor-akseptor bog'i bo'lgan molekula yoki zarrachalarni aniqlang:
1) $(NH_4)_2Fe(SO_4)_2$; 2) $FeCl_3$; 3) H_3O^+; 4) CO; 5) $Na[Al(OH)_4]$; 6) HNO_3; 7) H_2SO_4; 8) H_2O; 9) K_3PO_4; 10) CCl_4.
A) 1, 3, 4, 5, 6 B) 3, 4, 6, 8, 10
C) 1, 2, 5, 8, 9 D) 5, 6, 7, 9, 10
E) 2, 4, 5, 8, 10

9. (01-5-1) Quyidagilardan qaysilarida donor-akseptor bog'lanish mavjud?
1) sulfat kislota; 2) ammoniy xlorid;
3) karbonat kislota anioni; 4) natriy ortofosfat;
5) gidroksoniy kationi; 6) uglerod (II) oksid;
7) azot (V) oksid.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 5, 6, 7
C) 3, 4, 5, 6 D) 4, 5, 6
E) 2, 3, 6, 7

10. (02-1-44) Quyidagi zarrachalar tarkibidagi donor-akseptor bog'lar sonining ortib borishi tartibida joylashtirilgan qatorni toping: 1) azot (V) oksid; 2) uglerod (II); 3) tetraaminmis (II) sulfat; 4) sariq qon tuzi.
A) 2, 1, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 1, 4, 3 D) 4, 3, 1, 2
E) 4, 3, 2, 1

11. (02-1-79) Quyida keltirilgan zarrachalar orasidan tarkibida donor-akseptor bog'lar soni ortib borish qatorini toping:
1) kaliy nitrat; 2) kaliy gidroksid; 3) azot (V) oksid; 4) 2,4,6-trinitrotoluol; 5) kaliy sulfat; 6) kaliy perxlorat.
A) 1, 2, 4 B) 4, 5, 6
C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 6
E) 1, 3, 4

12. (04-1-292) Quyidagi zarrachalarning qaysilarida donor-akseptor bog' qatnashmaydi?
1) NO; 2) CO; 3) N_2O; 4) HNO_3; 5) H_3O^+; 6) N_2O_5.
A) 1, 3, 5, 6 B) 2, 4, 5, 6
C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 3, 4, 5 E) 1, 3

13. (05-1-136) Quyidagi birikmalarning qaysi birida donor-akseptor mexanizm orqali hosil bo'lgan bog' mavjud.
A) kalsiy sulfid B) metan
C) uglerod (IV) oksid D) azot (V) oksid
E) natriy yodid

14. (05-1-146) Quyidagilardan qaysilarida donor-akseptor bog'lanish mavjud emas?
1) sulfat kislota; 2) ammoniy xlorid;
3) karbonat kislota anioni; 4) natriy ortofosfat;
5) gidroksoniy kationi; 6) uglerod (II) oksid;
7) azot (V) oksid.
A) 1, 3, 4 B) 2, 5, 6
C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6 E) 1, 3, 6

15. (05-1-150) Zarrachalar tarkibida donor-akseptor bog'lar bo'lmagan qatorni toping
1) kaliy nitrat; 2) kaliy gidroksid; 3) azot (V) oksid; 4) 2,4,6-trinitrotoluol; 5) kaliy sulfat; 6) kaliy perxlorat.
A) 1, 2, 4 B) 4, 5, 6
C) 2, 5, 6 D) 1, 4, 6 E) 1, 3, 4

16. (05-1-156) Ammiak molekulasi bilan proton birikkanda hosil bo'lgan yangi bog' qanday tabiatga ega bo'ladi?
A) donor-akseptor B) ion
C) kovalent D) vodorod bog'
E) qutbli kovalent

17. (v4-102-21) Ammiak bilan proton molekulasi birikkanda hosil bo'lgan yangi bog' qanday tabiatga ega bo'ladi?
A) kovalent B) qutbli kovalent
C) donor-akseptor D) vodorod bog'
E) ion

18. (v4-108-20) Donor-akseptor bog'lar soni quyidagi zarrachalarda kamayib borishi tartibini toping.
1) azot (V) oksid; 2) uglerod (II);
3) tetraaminmis (II) sulfat; 4) qizil qon tuzi.
A) 2, 1, 4, 3 B) 4, 3, 2, 1
C) 2, 1, 3, 4 D) 4, 3, 1, 2
E) 3, 4, 1, 2

19. (v5-101-20) Molekulasida donor-akseptor bog' bo'lgan moddani aniqlang.
1) uglerod (IV) oksid; 2) kislorod; 3) is gazi;
4) ammoniy ioni; 5) fosfin; 6) azot (V) oksid;
7) kaliy nitrat; 8) xlor.
A) 4, 5, 6, 7 B) 2, 5, 7, 8
C) 3, 4, 6, 7 D) 1, 3, 4, 8
E) 1, 2, 5, 8

20. (v5-105-21) Qaysi birikmada donor-akseptor bog' yo'q?
A) CO_2 B) N_2O_5 C) NH_4Cl D) HNO_3 E) CO

21. (v5-111-12) Uglerod (II) oksidi, ammoniy va gidroksoniy ionlarining qanday o'xshashliklari bor?
A) tarkibidagi atomlar soni bir xil
B) o'xshashlik yo'q
C) ion bog'lanishlar soni bir xil
D) tarkibidagi elektronlar soni bir xil
E) donor-akseptor bog'lar soni bir xil

22. (v12z-215-1) Tarkibida donor-akseptor bog' bo'lmagan moddani aniqlang.
A) kaliy xlorid B) qizil qon tuzi
C) kaliy nitrat D) is gazi

23. (v12z-240-22) Tarkibida donor-akseptor bog' bo'lgan moddani aniqlang.
A) K_2SO_4 B) KCl C) K_3PO_4 D) KNO_3

24. (v12c-106-15) Tarkibida donor akseptor bog' bo'lgan moddani aniqlang.
A) P_2O_5 B) SO_3 C) CO D) SO_2

25. (v13-161-6) Quyidagilardan donor-akseptor bog' hosil qilmaydigan moddalarni belgilang:
1) CO; 2) CO_2; 3) N_2O; 4) HCN; 5) $MgCO_3$.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4

26. (v14-130-25) Quyidagi zarrachalar tarkibidagi donor-akseptor bog' soni teng borganlarini ko'rsating:
1) azot (V) oksid; 2) uglerod (IV) oksid;
3) uglerod (II) oksid; 4) ammoniy ioni;
5) nitrat ioni.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 4, 5

27. (v15-127-5) N_3O^+, NH_4^+, CO, HNO_3 molekulalaridagi donorlik nomoyon qilgan elementlarni ko'rsating.
A) O, H, C, N B) O, N, C, N
C) O, N, O, H D) O, N, O, N

28. (v17-106-27) Koordinatsion bog'lanishli birikmalarni aniqlang:
1) karbonat angidrid; 2) ammoniy xlorid;
3) magnezit; 4) gidrakaoniy kationi.
A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 3

10. Valentlik va oksidlanish darajasi

1. (96-1-33) Ammoniy xlorid tarkibidagi azotning oksidlanish darajasi va valentligi qanday?
A) –3, 3 B) –3, 4 C) –4, 4 D) –4, 5
E) –3, 5

2. (96-3-39) Azot (V) oksidi molekulasidagi azotning oksidlanish darajasini, valentligini, donor-akseptor bog'lanishlar sonini aniqlang.
A) +3, 4, 1 B) +3, 4, 0
C) +5, 4, 1 D) +5, 4, 0
E) +5, 3, 1

3. (96-4-17) Quyidagi birikmalardagi uglerod atomining oksidlanish darajalar ketma-ketligini toping: $COCl_2$, CH_2Cl_2, $CHCl_3$, CCl_4.
A) +4, +2, –2, 0 B) 0, –2, +3, –4
C) +4, 0, +2, +4 D) +2, +4, –2, –4
E) +4, –2, –4, +4

4. (96-4-19) Metilnitrat va nitrometandagi azot atomlarining oksidlanish darajasi qanday?
A) +4, +5 B) +5, +3
C) +3, +5 D) +3, +3
E) +4, +3

5. (96-7-57) Quyidagi birikmalardan qaysi birida marganetsning oksidlanish darajasi +4 ga teng?
A) $KMnO_4$ B) $MnO(OH)_2$
C) $MnSO_4$ D) Mn_2O_3
E) K_2MnO_4

6. (96-8-57) Qaysi birikmada element valentligi uning oksidlanish darajasidan kattaroq?
A) CO_2 B) NH_3
C) CO D) SO_2
E) SO_3

7. (96-8-87) Quyida keltirilgan raqamlar orasida azotning eng yuqori va eng past oksidlanish darajalariga va valentligiga mos keladiganlarni tanlang.
A) –3, +5; 3,5 B) –3, +4; 3,4
C) –3, +5; 3,4 D) +5, +3; 3,4
E) +5, +3; 3,5

8. (96-8-89) Element +3 oksidlanish darajasiga o'tganda qolgan elektronlar soni 32 ta bo'lsa, uning eng past va eng yuqori oksidlanish darajalari qanday bo'ladi?
A) –2, +6 B) –2, +5
C) –3, +5 D) –4, +4
E) –1, +7

9. (96-10-17) Qaysi qator faqat valentligi o'zgaruvchan elementlardan iborat?
A) K, C, S, N, P, Fe
B) Cu, Ba, N, Cl, Br, Cr
C) C, Cr, Cu, P, S
D) Ca, Cu, C, H, F, O
E) Al, Na, Ca, Ag, Fe, H

10. (96-13-5) Davriy sistemaning II davr elementlaridan qaysilarining birikmalarida oksidlanish darajalar miqdori ko'proq?
1) uglerod; 2) bor; 3) azot; 4) kislorod.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3 E) 2, 4

11. (96-13-26) Formulasi $H(PF_6)$ bo'lgan birikmada fosforning valentligi va oksidlanish darajasi qanday bo'ladi?
A) 5, +5 B) 4, +5 C) 5, +6 D) 6, +4
E) 6, +5

12. (96-13-79) Quyidagi birikmalardagi to'rt valentli elementlarni ko'rsating:
1) $Al_2(SO_4)_3$; 2) $MnO(OH)_2$; 3) H_2CrO_4;
4) $HClO_4$; 5) H_2SiO_3; 6) CH_3OH.
A) Cr, Cl B) S, Mn
C) Mn, Si, C D) Cl, Si
E) Cr, S

13. (96-15-11) Keltirilgan birikmalarning qaysi birida azot atomining oksidlanish darajasi beshga teng?
A) NH_3 B) N_3H_4
C) KNO_3 D) NH_4NO_2
E) $(NH_2)_2CO$

14. (96-15-37) VI guruh metallmaslari vodorodli birikmalarida qanday oksidlanish darajani namoyon etadi?
A) –6 B) +6 C) +2 D) –2 E) +4

15. (96-15-41) Organik birikmalarda uglerodning valentligi nechaga teng?
A) 2 B) 3 C) 5 D) 4 E) 1

16. (96-15-61) Qaysi birikmada azotning oksidlanish darajasi eng yuqori va eng past qiymatlarga ega bo'ladi?
A) ammoniy sulfat B) ammoniy nitrit
C) ammoniy nitrat D) mochevina
E) kalsiy nitrat

17. (96-15-72) Quyidagi birikmalarning qaysi birida azotning oksidlanish darajasi –3 va +3 ga teng?
A) $(NH_4)_2SO_4$ B) $(NH_4)_2HPO_4$
C) NH_2CONH_2 D) NH_4NO_3
E) NH_4NO_2

18. (96-15-106) Quyidagi birikmalarning qaysilarida uglerodning valentligi oksidlanish darajasiga (+4 ga) teng bo'ladi?
1) CO_2; 2) CH_4; 3) C_2H_6; 4) $NaHCO_3$;
5) K_2CO_3; 6) HCOOH.
A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 6
E) 2, 3, 6

19. (97-1-5) Birikmalarida oksidlanish darajalari –2, +4 va +6 bo'ladigan element qaysi guruh va davrda joylashgan?
A) IV guruh 2-davrda B) V guruh 3-davrda
C) VI guruh 2-davrda D) VII guruh 3-davrda
E) VI guruh 3-davrda

20. (97-1-41) Qaysi birikmalarda azot atomining oksidlanish darajalar: bir xil, lekin valentliklari farq qiladi?
1) NH_4Cl; 2) KNO_3; 3) KNO_2; 4) NH_3.
A) 1 va 2 B) 1 va 3 C) 2 va 3 D) 1 va 4
E) 3 va 4

21. (97-1-62) Quyidagi birikmalarda uglerod atomlarining oksidlanish darajasi ketma-ketligini ko'rsating. 1) HCOOH; 2) $COCl_2$;
3) HCHO; 4) CH_3OH.
A) –2, 0, +2, +4 B) +2, +4, 0, –2
C) 0, +2, +4, –2 D) +4, +2, 0, –2
E) 0, –2, +2, +4

22. (97-2-5) Quyidagi birikmalardagi oltingugurtning valentliklari keltirilgan qatorni ko'rsating:
1) CS_2; 2) SF_6; 3)Na_2SO_3; 4) H_2.
A) 2, 6, 2, 4 B) 2, 6, 4, 2
C) 2, 2, 4, 6 D) 4, 6, 2, 2
E) 4, 6, 4, 4

23. (97-2-38) Qaysi modda molekulasida fosfor atomining oksidlanish darajasi eng kichik?
A) H_3PO_4 B) H_3PO_3 C) HPO_3 D) H_3PO_2
E) $H_4P_2O_7$

24. (97-2-57) H_3PO_3 molekulasida fosforning valentligi va oksidlanish darajasi nechaga teng?
A) 3 va +3 B) 5 va +3
C) 3 va +5 D) 1 va +3
E) 5 va +1

25. (97-3-13) Qaysi zarrachalarda elementlarning valentligi 3 ga teng?
1) CO; 2) SO_3; 3) NH_3; 4) H_2O.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3
E) 2, 4

26. (97-3-33) Vodorod peroksiddagi kislorod atomining valentligi va oksidlanish darajasi nechaga teng? Valentligi: oksidlanish darajasi.
1) 2; 2) –2; 3) 1; 4) –1; 5) +1.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 2, 4
E) 2, 5

27. (97-3-43) Valentligi 3 va 4 bo'lgan elementlar ishtirok etgan birikmalar qatorini toping:
A) ammiak, metan, is gazi
B) malaxit, osh tuzi, xrom (II) oksid
C) metan, vodorod peroksid, qo'rg'oshin (IV) oksid
D) vodorod sulfid, rux oksid, natriy oksid
E) nikel (II) xlorid, temir (II) oksid, simob (II) oksid

28. (97-4-24) Quyidagi birikmalarni ular tarkibidagi xlorning oksidlanish darajasi ortib borishi tartibida joylashtiring.
1) to'rtxlorli uglerod; 2) gipoxlorit kislota;
3) perxlorat kislota; 4) xlor; 5) bertole tuzi.
A) 4, 2, 1, 5, 3 B) 2, 1, 4, 5, 3
C) 4, 1, 2, 3, 5 D) 3, 5, 2, 4, 1
E) 4, 5, 3, 2, 1

29. (97-5-22) Galogenlar uchun (ftordan tashqari) qaysi oksidlanish darajalari mavjud?
A) +1, +3, +5 B) –1, +1, +3, +5, +7
C) –1, +3, +5, +7 D) +1, +5, +7
E) –3, –1, +1, +3

30. (97-5-45) Quyidagi birikmalarda qaysi element valentligi bir xil: azot (III) oksid, kaliy sulfid, kalsiy karbonat, natriy nitrat, uglerod (II) oksid.
A) azot B) uglerod
C) oltingugurt D) natriy E) kislorod

31. (97-5-71) Valentligi 6 ga teng bo'lgan oltingugurtning bog'larini hosil qilishda qaysi elektronlar ishtirok etadi?
A) oltita p-elektronlar
B) bitta s- va beshta p-elektronlar
C) ikkita s- va to'rtta p-elektronlar
D) uchta s- va uchta p-elektronlar
E) ikkita s-, uchta p- va bitta d-elektron

32. (97-5-72) Ammoniy sulfat tarkibidagi azotning valentligini va oksidlanish darajasini ko'rsating.
A) 3, –4 B) 4, –4 C) 3, –3 D) 4, –1
E) 4, –3

33. (97-6-8) Quyidagi: 1) tellur; 2) germaniy; 3) fosfor; 4) azot; 5) xlor elementlarining birikmalardagi eng past oksidlanish darajalarini aniqlang. Javobni elementlarning qatorda joylashish tartibida belgilang.
A) –1, –3, –3, –4, –2 B) –2, –4, –3, –3, –1
C) –6, –4, –5, –5, –7 D) +2, +4, +3, +3, +1
E) –6, +3, +3, –4, –1

34. (97-6-53) Quyidagi moddalarni ular tarkibidagi uglerodning oksidlanish darajasi ortib borish tartibida joylashtiring.
1) Glyukoza; 2) Metan kislota; 3) Metanol;
4) Metan; 5) Etan; 6) Uglerod (IV) oksid.
A) 4, 5, 3, 1, 2, 6 B) 6, 2, 1, 3, 5, 4
C) 1, 3, 5, 2, 4, 6 D) 3, 4, 5, 2, 1, 6
E) 5, 3, 2, 6, 1, 4

35. (97-9-5) Kaliy dixromatdagi xrom ionining oksidlanish darajasini ko'rsating.
A) +3 B) +6 C) +4 D) +2 E) +5

36. (97-9-39) Markaziy atomning oksidlanish darajasi +6 bo'lgan moddalarni ko'rsating.
1) sulfat kislota; 2) sulfit kislota; 3) kaliy permanganat; 4) kaliy xlorat; 5) ortofosfat kislota; 6) kaliy manganat; 7) nitrat kislota; 8) kaliy dixromat; 9) selenat kislota.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5
C) 4, 5, 6, 8 D) 1, 6, 8, 9
E) 2, 3, 6, 7

37. (97-10-5) Tarkibida sakkiz valentli metallar bo'lgan birikmalarni ko'rsating:
1) O_8F_8; 2) $PdCl_2$; 3) RuF_5; 4) RuO_4; 5) $NiSO_4$;
5) $NiSO_4$.
A) 1, 2 B) 1, 4 C) 3, 5 D) 2, 5 E) 4, 5

38. (97-10-42) Quyidagi birikmalarning qaysilarida to'rt valentli metallar borligini toping:
1) PtO_2; 2) $PdCl_2$; 3) RuF_5; 4) RuO_2; 5) $FeCl_3$;
6) $IrCl_4$; 7) $OsCl_2$.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 7 C) 1, 3, 6 D) 2, 5, 6
E) 1, 4, 6

39. (97-10-86) Quyida keltirilgan birikmalarning qaysi birida Mn^{+6} oksidlanish darajasi namoyon bo'ladi?
A) MnO_2 B) $MnSO_4$ C) K_2MnO_4
D) $KMnO_4$ E) MnO

40. (97-10-132) Bertole tuzida xlorning oksidlanish darajasi nechaga teng?
A) –1 B) +2 D) +4 C) +3 E) +5

41. (97-10-148) Vodorod peroksidda kislorodning oksidlanish darajasi nechaga teng?
A) +1 B) +2 C) –2 D) –2 E) 0

42. (97-10-151) Xlor atomi uchun qanday oksidlanish darajalari xarakterlidir?
A) –1, 0 B) –1, 0, +1
C) 0, +1, +2 D) –1, 0, +1, +2
E) –1, 0, +1, +3, +5, +7

43. (97-11-4) $Na_2B_4O_7$ moddasida borning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) 0 B) +1 C) +3 D) +2 E) –3

44. (97-11-74) Tarkibida valentligi 4 va oksidlanish darajasi +4 bo'lgan element mavjud bo'lgan moddalar qatorini aniqlang.
A) nitrat kislota, nitrit kislota, ammoniy ioni
B) xlorid kislota, xlorat kislota, perxlorat kislota
C) uglerod (IV) oksid, metall, uglerod sulfid
D) oltingugurt (IV) oksid, oltingugurt (VI) oksid, vodorod sulfid
E) suv, sulfat kislota, fosfat kislota

45. (97-11-110) Oksidlanish darajasi mol bo'lgan elementli birikmalar qatorini aniqlang.
A) formaldegid, dixlormetan
B) metanol, metan
C) vodorod sulfid, vodorod xlorid
D) ammiak, ammoniy karbonat
E) chumoli kislota

46. (97-12-14) Quyidagi birikmalarni ular tarkibidagi azotning oksidlanish darajasi ortib borish tartibida joylashtiring.
1) ammoniy xlorid; 2) kalsiy nitrat; 3) nitrat kislotaning termik parchalanish mahsuloti;
4) kaliy nitrit.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 1
C) 1, 3, 2, 4 D) 1, 2, 4, 3 E) 1, 4, 3, 2

47. (98-1-13) Quyidagi elementlar uchun oksidlanish darajalarining eng kichik qiymatlari qatorini ko'rsating:
1) selen; 2) kremniy; 3) fosfor; 4) azot; 5) xlor.
A) –6, –4, –5, –3, –7 B) –6, –4, –3, –4, –1
C) –2, –4, –5, –3, –1 D) –2, –4, –5, –4, –1
E) –2, –4, –3, –3, –1

48. (98-1-14) Ammoniy xloridda azot atomining oksidlanish darajasi, valentligi va donor-akseptor bog'lar sonini ko'rsating.
A) –3, 4, 0 B) +3, 4, 1
C) +5, 5, 1 D) –3, 4, 1
E) +5, 4, 1

49. (98-1-15) Chumoli kislotasidagi uglerod atomining oksidlanish darajasi va valentligini ko'rsating:
A) +4, 4 B) –4, 4
C) +2, 4 D) –2, 4 E) +2, 2

50. (98-2-51) Tashqi energetik pog'onasi $...5s^25p^3$ bo'lgan elementning yuqori va eng past oksidlanish darajasini aniqlang.
A) +5 va 0 B) +5 va –3
C) +2 va –3 D) +5 va –2
E) +7 va –1

51. (98-4-7) Qaysi birikmada azot atomlari +3 va –3 oksidlanish darajasiga ega?
A) trinitroglitserin
B) dimetilaminning nitrat kislota bilan hosil qilgan tuzi
C) karbamid
D) ammoniy nitrat
E) ammoniy nitrit

52. (98-4-64) CO molekulasida uglerod atomining oksidlanish darajasi va valentligining qiymati qanday bo'ladi?
A) +2 va 3 B) +2 va 2
C) +4 va 2 D) +4 va 4
E) –2 va 2

53. (98-8-63) Quyidagi moddalarda oksidlanish darajasi bir xil bo'lgan element birikmalar qatorini toping.
A) bor gidrid, ammiak
B) chumoli kislota, uglerod (II) oksid
C) seziy oksid, etan
D) uglerod (II) oksid, atsetilen
E) uglerod (IV) oksid, ammiak

54. (98-9-12) 3,3-dimetilbutindagi to'rtlamchi uglerod atomining oksidlanish darajasi va gibrid holatini ko'rsating.
A) 0; sp^3 B) –4; sp^2
C) +4; sp D) 0; sp^2
E) –3; sp^3

55. (98-9-15) Quyidagi birikmalarni ular tarkibidagi azot atomining oksidlanish darajasi ortib borish tartibida joylashtiring.
1) ammoniy xlorid; 2) gidrazin N_2H_4; 3) natriy nitrat; 4) azot (III) oksid; 5) azot (IV) oksid.
A) 2, 1, 4, 5, 3 B) 1, 2, 4, 5, 3
C) 3, 4, 5, 2, 1 D) 1, 2, 5, 4, 3
E) 2, 1, 3, 5, 4

56. (98-9-29) Kalsiy karbidda uglerod atomining valentligi va oksidlanish darajasi qanchaga teng bo'ladi?
A) 4; –2 B) 1; –1 C) 4; –1 D) 2; –1
E) 2; –2

57. (98-11-32) $H_4P_2O_7$ va PH_4I dagi fosforning oksidlanish darajalari qanday? [x(P) = 2,2]
A) +4, +3 B) –3, +3 C) +4, –3 D) +3, –3
E) +5, –3

58. (98-11-40) Quyidagi CH_3–$C(CH_3)(C_2H_5)$–$CH(CH_3)$–$C(CH_3)(C_3H_7)$–CH_2–CH_3 birikmaning asosiy zanjiridagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?
A) –3, –2, –2, 0, –1, 0, –2, –3
B) –3, –2, –1, –1, 0, –2, –2, –3
C) –3, –2, 0, –1, 0, –2, –2, –3
D) –3, 0, –1, 0, –2, –2, –2, –3
E) –3, –2, 0, –1, 0, 0, –2, –3

59. (98-12-4) Alyuminiy oksid, vodorod oksid, vodorod peroksid, ftor oksidlarda kislorod atomining oksidlanish darajasi to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating.
A) –2, –2, +1, +2 B) –2, +2, +1, –2
C) –1, –2, +1, –2 D) –2, –2, –1, +2
E) +2, –1, –2, +1

60. (98-12-38) Qaysi birikmada xlor atomining valentligi va oksidlanish darajasi yuqori bo'ladi?
A) vodorod xloridda B) xlor (III) oksidda
C) bor xloridda D) kaliy xloratda
E) perxlorat kislotada

61. (99-1-4) Uglerod elementining qaysi birikmalarida atomning oksidlanish daraja qiymati va valentlik soni o'zaro mos keladi?
1) natriy karbonat; 2) metanol; 3) uglerod (IV) oksid; 4) metan; 5) formaldegid; 6) atsetilen; 7) uglerod tetraxlorid.
A) 1, 3, 4, 7 B) 2, 3, 4, 5
C) 2, 4, 6, 7 D) 1, 3, 5, 6
E) 1, 3, 6, 7

62. (99-1-10) Xlor o'zining kuchsiz elektrolit bo'lgan kislotasi tarkibida qanday oksidlanish darajasiga ega?
A) –1 B) 0 C) +1 D) +3 E) +7

63. (99-4-54) Pirit tarkibidagi oltingugurtning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) +4 B) –1 C) +1 D) +6 E) –2

64. (99-4-55) Quyidagi birikmalarning qaysi birlarida azotning oksidlanish darajasi manfiy qiymatga ega?
1) litiy nitrid; 2) azot (II) oksid; 3) bariy nitrid; 4) ammiak; 5) nitrit kislota; 6) azot (V) oksid.
A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 4
E) 2, 4, 5

65. (99-6-27) α-aminopropion kislotadagi uglerod atomlarining oksidlanish darajalarini aniqlang.
A) –4, +2, –2 B) –3, +1, –3
C) +2, –1, +3 D) +3, 0, –3
E) –2, +1, +2

66. (99-6-50) Kislorod va azot atomlarining elektron tuzilishiga tayangan holda, ular uchun maksimal valentlik qiymatini aniqlang.
A) 4,4 B) 2,3 C) 2,4 D) 2,5 E) 3,5

67. (99-6-51) Quyidagi kremniy birikmalari uchun keltirilgan tarkiblardan kremniyning oksidlanish darajalarini toping. Dala shpati-$K_2Al_2Si_6O_{16}$ kaolin-$H_4Al_2Si_2O_9$ asbest-$CaMg_3Si_{14}O_{12}$.
A) +4, +4, +4 B) +4, –4, +4
C) +4, –4, –4 D) +4, +2, +4
E) +2, +2, +4

68. (99-6-52) Element atomining elektron konfiguratsiyasi quyidagicha tugallanadi …$3d^5 4s^2$. Bu qaysi element? Uning maksimal va minimal oksidlanish darajasini toping.
A) Mn, +2, –1 B) Cr, +6, –2
C) Fe, 3, 0 D) Mn, +7, –1
E) Mn, +7, 0

69. (99-7-57) Kalsiy fosfid gidrolizi natijasida hosil bo'lgan mahsulotdagi fosforning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) –3 B) 0 C) +1 D) +3 E) +5

70. (99-9-21) Karbonil guruhdagi uglerod atomining gibridlanish turini ko'rsating. Undagi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.
A) sp^3; +1 B) sp^2; +2 C) sp; –1
D) sp^3; 0 E) sp^2; +1

71. (00-3-17) Quyidagi birikmalarning qaysi birlarida azotning oksidlanish darajasi musbat qiymatga ega?
1) litiy nitrid; 2) bariy nitrid; 3) azot (II) oksid; 4) ammiak; 5) nitrit kislota; 6) azot (V) oksid.
A) 3, 5, 6 B) 1, 2, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5
E) 3, 4, 5

72. (00-5-18) Gipobromit va bromat ionlarining zaryadlari yig'indisini hisoblang.
A) +4 B) –2 C) 0 D) –5 E) –1

73. (00-5-20) Ammoniy nitratning termik parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan azot birikmasidagi azotning oksidlanish darajasi qanday bo'ladi?
A) 0 B) +1 C) +2 D) +3 E) +5

74. (00-5-26) Birikmalarni xlor atomining oksidlanish darajasi kamayib borishi tartibida joylashtiring.
1) HClO; 2) $NaClO_3$; 3) Cl_2; 4) $SOCl_2$; 5) $KClO_4$; 6) $Mg(ClO_2)_2$.
A) 1, 4, 3, 6, 2, 5 B) 4, 3, 1, 6, 2, 5
C) 5, 2, 6, 1, 3, 4 D) 5, 6, 4, 2, 3, 1
E) 5, 2, 6, 4, 1, 3

75. (00-5-31) Oksidlanish darajasi va valentligi bir xil bo'lmagan atomlari bo'lgan molekulalarni ko'rsating.
1) NH_3; 2) SiO_2; 3) CO_2; 4) H_3PO_4; 5) NH_4Cl; 6) C_2H_6; 7) CO; 8) H_2SO_4; 9) N_2O; 10) HNO_3.
A) 2, 5, 6, 9, 10 B) 5, 6, 7, 9, 10
C) 1, 5, 7, 8, 9 D) 3, 4, 5, 6, 7
E) 2, 5, 7, 8, 10

76. (00-5-53) Azot (V) oksiddagi azot atomining oksidlanish darajasini, valentligini va donor-akseptor bog'lar sonini aniqlang.
A) +5, 4, 1 B) +5, 4, 2
C) +4, 5, 0 D) +5, 5, 0
E) +4, 5, 2

77. (00-9-14) Quyidagi H_2S; K_2SO_3; SO_4^{2-} molekulalar va iondagi oltingugurtning oksidlanish darajalarini aniqlang.
A) –2, +4, +6 B) –2, +4, +4
C) +2, +4, +6 D) 0, +4, +6
E) +2, +4, +4

78. (00-9-15) C_2H_4, CH_3OH, H_2CO va HCOOH birikmalarda uglerodning oksidlanish darajasini ko'rsating.
A) –2, –2, 0, +2 B) –2, –2, +2, 0
C) –2, +2, 0, +2 D) –2, –2, 0, –2
E) –2, +2, 0, –2

79. (00-9-16) Kislorodning oksidlanish darajasi –1 va +2 bo'lgan birikmalarni ko'rsating.
A) Na_2O_2 va OF_2 B) H_2O_2 va Cl_2O
C) HClO va F_2O D) H_2O va Cl_2O_7
E) CaO_2 va H_2O_2

80. (00-9-20) Sut kislotasidagi uglerod atomining oksidlanish darajalarini aniqlang.
A) +3, 0, –3 B) +3, –2, –3
C) –3, 0, –3 D) –2, 0, –3
E) –3, 0, –1

81. (01-2-81) $Cr_2O_7^{2-}$, CrO_4^{2-}, CrO_2^- ionlaridagi xromning oksidlanish darajalarini ko'rsating.
A) +3, +6, +2 B) +6, +6, +2
C) +2, +3, +6 D) +3, +3, +3
E) +6, +6, +3

82. (01-4-31) O'zgaruvchan valentlikka ega bo'lgan d-elementlarni ko'rsating:
1) rux; 2) titan; 3) mis; 4) kadmiy.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3 E) 3, 4

83. (01-4-118) $H_2C_2O_4$ va NaSCN da uglerodning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) +3, +4 B) +2, +4 C) +4, +4 D) +3, +3
E) +4, +3

84. (01-4-119) Quyidagi birikmaning asosiy zanjiridagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasini ko'rsating:
$CH_2(OH)C(CH_3)_2C(O)C(OH)(NH_2)Cl$.
A) +3, 0, –1, –3 B) +3, +2, 0, –1
C) –3, –1, +1, –3 D) +3, 0, –1, +3
E) qolsin

85. (01-6-11) Kislorod atomining maksimal valentlik hosil qilish imkoniyati nechaga teng?
A) 2 B) 4 C) 3 D) 5 E) 6

86. (01-8-28) Molekula tarkibidagi atomlarning valentligi bilan oksidlanish darajasi bir xil qiymatga ega bo'lmagan moddalar soni nechta?
1) NH_4NO_3; 2) O_2; 3) H_2O_2; 4) CH_2Cl_2; 5) F_2O; 6) CO; 7) NH_3; 8) H_3PO_4; 9) $C_3H_{12}O_6$.
A) 6 B) 5 C) 4 D) 7 E) 8

87. (01-10-42) Zaryadi –2 bo'lgan anionlarni tanlang:
1) xlorat; 2) gidrofosfat; 3) digidrofosfat; 4) dixromat; 5) gidrosulfat; 6) sulfat; 7) xromat.
A) 1, 3, 6, 7 B) 1, 2, 7
C) 1, 2, 3, 7 D) 2, 4, 6
E) 2, 4, 6, 7

88. (02-2-16) Kislorod atomi bilan bog'langan uglerod atomlarining oksidlanish darajalari furan molekulasida nechaga teng?
A) –2, –2 B) +1, +1 C) –1, –1 D) +2, +2
E) 0, 0

89. (02-2-17) Tarkibidagi elementning valentligi birga va oksidlanish darajasi nolga teng bo'lgan moddani toping.
A) xlor B) vodorod xlorid
C) azot D) ammiak
E) fosfor (III) oksid

90. (02-2-26) Tarkibida azot bo'lgan qaysi moddalarda azotning valentligi 3 ga teng va ulardan ikkitasi π-bog' bo'ladi?
1) ammoniy nitrat; 2) azot; 3) piridin;
4) aromatik aminlar; 5) sianid kislota;
6) nitrobirikmalar; 7) metilnitrat.
A) 1, 7 B) 2, 6 C) 3, 4 D) 2, 5
E) 3, 6

91. (02-2-40) Gidroksid gruppalari bilan bog'langan uglerod atomlarining oksidlanish darajalari pirokatexin molekulasida nechaga teng?
A) –1 B) +2 C) +1 D) –2 E) 0

92. (02-4-33) Ozon formulasidagi

rim raqamlari bilan belgilangan kislorod atomlarida qanday zaryadlar to'plangan?
A) 0; +2; –2 B) +1; 0; –1
C) 0; 0; 0 D) +1; –1; 0
E) –1; +1; 0

93. (02-7-2) Quyidagi jarayonda:
$Cr_2O_7^{2-} + H^+ \rightarrow Cr_3 + H_2O$ xromning oksidlanish darajasi necha birlikka o'zgaradi?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

94. (02-7-36) Kislorodning minimal va maksimal oksidlanish darajasi, maksimal valentlik namoyon qilish imkoniyati ko'rsatilgan javobni belgilang.
A) –2, 2, 2 B) –2, 2, 3
C) –2, 2, 4 D) –1, 1, 2
E) –2, 0, 3

95. (02-7-37) Dixromat anionidagi xromning oksidlanish darajasini toping.
A) +7 B) +6 C) +4 D) +2 E) +3

96. (02-8-4) Ftor, oltingugurt, mishyak qanday eng past va eng yuqori oksidlanish darajasini namoyon qilishi mumkin?
A) –1, –2, –3 va +7, +6, +5
B) +7, +6, +5 va –1, –2, –3
C) –1, 0, –3 va +5, +4, +3
D) –1, –2, –3 va 0, +6, +5
E) –7, –6, –5 va +1, +2, +3

97. (02-10-57) Qaysi birikmada uglerodning oksidlanish darajasi eng kichik qiymatga ega?
A) uglerodtetraxlorid B) metanol
C) sirka kislota D) metan
E) karbonat angidrid

98. (02-12-57) 3-xlorbenzol kislota va mis (II) gidrokarbonatdagi barcha uglerodning jami oksidlanish darajasi yig'indisi nechaga teng?
A) +7 B) +8 C) +6 D) +10 E) +9

99. (03-2-53) Oltingugurt va kislorod orasida boradigan reaksiyalarda oltingugurt qanday oksidlanish darajalarini namoyon qiladi?
A) +4; +5 B) +4; +6
C) +4; –6 D) –4; –6
E) +2; +6

100. (03-6-40) Kaliy sianiddagi elementlar oksidlanish darajalarining ketma-ketligini aniqlang.
A) +1; +4; –3 B) +1; +2; –3
C) +1; +3; –3 D) +1; +3; –4
E) +1; +1, –2

101. (03-6-46) Quyidagi birikmalarning qaysi birida vodorod manfiy oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) suv B) ammiak
C) natriy gidrid D) vodorod sulfid
E) fosfin

102. (03-6-61) Qaysi birikmada kislorod musbat oksidlanish darajasini namoyon qilgan?
A) natriy oksid B) kalsiy nitrat
C) suv D) vodorod peroksid
E) ftor oksid

103. (03-7-34) $K_2Cr_2O_7$ dagi xromning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) +7 B) +5 C) +6 D) –6 E) –7

104. (03-8-45) Qaysi modda tarkibidagi elementning valentligi – (III) ga, oksidlanish darajasi – (0) nolga teng?
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

105. (03-10-47) Suyultirilgan nitrat kislota aktiv metallar bilan ta'sirlashganda, azotning oksidlanish darajasi qanday o'zgaradi?
A) + 5 dan –3 gacha B) + 5 dan +4 gacha
C) +4 dan –3 gacha D) +5 dan +2 gacha
E) +5 dan –2 gacha

106. (03-10-48) Ammoniy nitrit qizdirilish natijasida parchalanganda, azotning oksidlanish darajasi qanday o'zgaradi?
A) +3 dan 0 gacha
B) + 3 va –3 dan 0 gacha
C) +3 va –3 gacha
D) –3 dan 0 gacha
E) +3 va –3 dan +1 gacha

107. (03-10-55) Kaliy manganatning uy temperaturasida parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan birikmalardagi marganetsning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) +7 B) +4 C) +7 va +4
D) +6 va +4 E) +2

108. (03-10-56) Bertole tuzining katalizatorsiz parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan birikmalardagi xlorning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) +5 B) +7
C) +5 va –1 D) +7 va –1
E) +7 va 0

109. (04-1-162) IV guruh metallmaslari vodorodli birikmalarda qanday oksidlanish darajasini namoyon etadi?
A) –4 B) +6 C) +4 va –4
D) –2 E) +4

110. (04-1-163) Quyidagi birikmalardagi oltingugurtning valentliklari to'g'ri berilgan qatorni tanlang:
1) CS_2; 2) SF_6; 3) Na_2SO_3; 4) H_3SO_4.
A) 2, 6, 2, 4 B) 2, 6, 4, 2
C) 2, 2, 4, 6 D) 2, 6, 4, 6
E) 4, 6, 4, 4

111. (04-1-170) Qaysi birikmalarda uglerodning oksidlanish darajasi +4 va –4 qiymatlarga ega?
1) uglerodtetraxlorid; 2) sirka kislota;
3) karbonat angidrid; 4) metanol; 5) metan.
A) 2, 4 B) 1, 5 C) 3, 5 D) 1, 3
E) 1, 3, 5

112. (04-1-180) Kislorodning oksidlanish darajasini (eng kichik va eng kattasi) va maksimal valentligini ko'rsating.
A) –2, 2, 2 B) –2, 2, 3
C) –1, 1, 2 D) –2, 2, 4
E) –2, 0, 3

113. (04-1-181) Ftor, oltingugurt va mishyak elementlar atomlarining eng kichik va eng katta oksidlanish darajasini ko'rsating.
A) –1, 0, –2, +6, –3, +5
B) +7, +6, +5 va –1, –2, –3
C) –1, –2, –3 va +7, +6, +5
D) –1, –2, –3 va 0, +6, +5
E) –7, –6, –5 va +1, +2, +3

114. (04-1-197) Vodorod qaysi birikmada manfiy oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) suv B) ammiak
C) natriy D) vodorod sulfid
E) fosfin

115. (04-1-199) Tarkibida oksidlanish darajasi –2 bo'lgan uglerod atomini tutgan birikmalarni ko'rsating.
1) atsetilen; 2) etil spirt; 3) malaxit; 4) etilen; 5) xloroform; 6) siklopropan.
A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 3, 5, 6
C) 3, 4, 5, 6 D) 4, 6
E) 1, 4, 5

116. (04-1-289) Gidroksoniy kationida kimyoviy bog' hosil qilishda nechta elektron va necha juft taqsimlanmagan elektronlar qatnashadi, undagi kislorod atomining valentligi va oksidlanish darajasi qanday bo'ladi?
A) 6, 2, 2, –2 B) 6, 1, 3, –2
C) 6, 3, 3, –2 D) 6, 3, 3, –1
E) 8, 2, 3, –2

117. (04-1-683) V gruppa metallmaslari o'zlarining kislorodli birikmalarida qanday yuqori oksidlanish darajasini namoyon etadi?
A) –5 B) +5 C) +3 D) –3 E) 0

118. (05-1-81) V guruh metallmaslari vodorodli birikmalarida qanday oksidlanish darajasini namoyon etadi?
A) –3 B) +5 C) –3 va +3 D) +3 E) –5

119. (05-1-83) Quyidagilarning qaysi birida oksidlanish darajasi bir xil bo'lgan xlor birikmalari keltirilgan?
A) xlorli ohak, osh tuzi, xlor
B) xlorid kislota, xlor (III) oksid, kaliy xlorid
C) bertole tuzi, xlor (V) oksid, xlorat kislota
D) xlor (III) oksid, kaliy xlorid, magniy xlorid
E) gidroxlorid kislota, xlor (I) oksid, xlorid kislota

120. (05-1-84) Quyidagi birikmalardagi uglerod atomining oksidlanish darajalari ketma-ketligini toping: etan, xloroform, dixlormetan, uglerod to'rt xlorid.
A) –3, 0, +2, –4 B) 0, –2, +3, –4
C) +4, 0, +2, +4 D) –3, +2, 0, +4
E) +3, –2, +4, –4

121. (05-1-85) Tarkibida azot bo'lgan ammoniy ioni, nitrat ioni, nitrit ioni qatorida azotning oksidlanish darajalari quyidagilarning qaysi biriga mos ravishda teng bo'ladi?
A) –3, +3, +5 B) +5, –3, +3
C) –3, +5, +3 D) –4, +5, +3
E) +4, +5, +3

122. (05-1-88) Qaysi moddalarda markaziy elementning valentligi b ga teng bo'lib, ikkita π-bog'i bo'ladi?
1) ammoniy nitrat; 2) azot; 3) kaliy silikat;
4) natriy selenat; 5) sianid kislota; 6) kaliy xromat; 7) kalsiy sulfat.
A) 6, 7 B) 2, 6 C) 3,4 D) 2,5
E) 3, 6

123. (05-1-95) Element +2 oksidlanish darajasiga o'tganda qolgan elektronlar soni 12 ta bo'lsa, uning eng past va eng yuqori oksidlanish darajalari qanday bo'ladi?
A) –2, +6 B) –2, +5 C) –1, +7 D) –4, +4
E) –3, +5

124. (05-1-116) Zaryadi +1 bo'lgan kationlarni ko'rsating:
1) digidroksoalyuminiy; 2) gidroksoammoniy;
3) gidroksorux; 4) geksaamminnikel.
A) 3, 4 B) 1, 2 C) 2, 3 D) 1, 4 E) 1, 3

125. (05-1-384) Oksidlanish darajasi kattaroq bo'lgan azoti bor zarrachalarni tanlang:
1) N_2; 2) NH_4^+; 3) NH_3; 4) N_2O_5; 5) NO.
A) 1, 2 B) 1, 3
C) 2, 3 D) 3, 4
E) 4, 5

126. (v4-102-11) IV gruppa metallmaslari o'zlarining kislorodli birikmalarida qanday yuqori oksidlanish darajasini namoyon etadi?
A) +4 B) 0 C) –5 D) –4 E) +5

127. (v4-103-3) Davriy sistemaning III davr elementlaridan qaysilarining birikmalarida oksidlanish darajasining miqdori ko'proq bo'ladi?
1) magniy; 2) oltingugurt; 3) xlor; 4) alyuminiy.
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 2, 3
E) 1, 3

128. (v4-104-3) Kislorod atomi bilan bog'langan uglerod atomining oksidlanish darajasi fenol molekulasida nechaga teng?
A) –1 B) 0 C) –2 D) +2 E) +1

129. (v4-110-28) Qaysi zarrachalarda azotning valentligi va oksidlanish darajasi bir xil emas?
1) N_2O; 2) NH_3; 3) NO; 4) NO_2; 5) HNO_3; 6) NH_4^+.
A) 2, 4, 6 B) 1, 5, 6 C) 2, 5, 6 D) 2, 3, 4
E) 1, 3, 5

130. (v4-112-20) Perxlorat kislotadagi markaziy atomning oksidlanish darajasini va gibridlanish xilini aniqlang.
A) sp, +2 B) sp^3, +7 C) sp^3, +3
D) sp^3, +5 E) sp^2, +3

131. (v4-117-3) Oksidlanish darajasi –2 da +6 gacha bo'la oladigan elementning davriy jadvaldagi o'rnini aniqlang.
A) VII guruh, 2-davr B) VIII guruh, 2-davr
C) VII guruh, 3-davr D) VI guruh, 3-davr
E) VI guruh, 6-davr

132. (v4-119-3) Quyida keltirilgan raqamlar orasidan fosfor va azotning eng yuqori oksidlanish darajalarini va ularga mos keladigan valentliklarni tanlang.
A) +5, +5; 5, 5 B) +5, +5; 5, 4
C) –3, +5; 3, 5 D) +5, +5; 4, 5
E) +5, –3; 3, 5

133. (v4-126-3) Qaysi birikmalarda oltingugurtning valentligi 4 ga teng?
1) Na_2SO_4; 2) SO_2; 3) $Al_2(SO_4)_3$; 4) K_2SO_3; 5) H_2S.
A) 1, 5 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 1, 3 E) 3, 4

134. (v4-126-4) Element +2 oksidlanish darajasiga o'tganda qolgan elektronlar soni 12 ta bo'lsa, uning eng past va eng yuqori oksidlanish darajalari qanday bo'ladi?
A) –1, +7 B) –3, +5 C) –2, +6 D) –4, +4
E) –2, +5

135. (v5-102-3) Quyida keltirilgan ionlardagi markaziy atomning oksidlanish darajalarini ko'rsating. CrO_4^{-2}; ClO_3^-; NH_4^+; HPO_3^{-2}.
A) +2, +6, +4, +3 B) +7, +3, –3, +5
C) +6, +5, –3, +3 D) +6, +5, +3, –3
E) +7, +5, –4, +5

136. (v5-103-3) Vodorod manfiy oksidlanish darajasiga ega bo'lgan birikmani toping.
A) suv B) sirka aldegid
C) natriy gidrid D) ammoniy ioni
E) vodorod sulfid

137. (v5-106-3) Quyida berilgan moddalardagi azotning oksidlanish darajalarini tartib bo'yicha aniqlang.
NH_2OH, N_2H_4, NH_3, HNO_2, NO, HNO_3, NO_2.
A) –2, –3, –1, +3, +2, +4, +1
B) +4, +3, +2, +1, +5, –2, –3
C) –3, –2, –1, +1, +2, +4,+5
D) +5, +4, +3, +2, +1, –2, –3
E) –1, –2, –3, +3, +2, +5, +4

138. (v5-106-16) 2,4-dixlorfenoksisirka kislotaning natriyli tuzi tarkibidagi benzol halqasidagi barcha uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini hisoblang.
A) +3 B) –2 C) 0 D) +2 E) –1

139. (v5-107-3) Qaysi birikmalarda temirning oksidlanish darajasi +2 bo'ladi?
1) mor tuzi; 2) sariq qon tuzi; 3) qizil qon tuzi; 4) kaliy ferrat; 5) temir kuporosi.
A) 2, 3 B) 1, 4, 5 C) 1, 2 D) 1, 2, 5
E) 1, 2, 4

140. (v5-107-10) Kislorod elementining eng yuqori valentlik namoyoni qilish imkoniyati ...
A) 3 B) 1 C) 5 D) 2 E) 4

141. (v5-107-33) Ochiq halqali dezoksiribozaning ikkinchi uglerod atomi oksidlanish darajasi nechaga teng?
A) +4 B) +3 C) –2 D) 0 E) –1

142. (v5-110-3) Birikmalarning qaysi birida oltingugurtning oksidlanish darajasi – 1 ga teng.
A) vodorod sulfid B) kalsiy gidrosulfat
C) temir disulfid D) natriy sulfit
E) uglerod disulfid

143. (v5-113-3) Oksidlanish darajasi manfiy bo'lgan azot birikmalarini toping:
1) HNO_3; 2) NH_4Cl; 3) NH_3; 4) NO;
5) NH_2OH; 6) $NaNO_3$.
A) 2, 3, 6 B) 4, 5, 6 C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 5
E) 1, 2, 6

144. (v5-116-12) Qaysi birikmada uglerodning oksidlanish darajasi eng kichik bo'ladi?
A) chumoli kislota B) vodorod sianid
C) metanol D) fosgen
E) metanal

145. (v5-117-20) Kalsiy karbid gidrolizi natijasida hosil bo'lgan gaz mahsulot aktivlangan ko'mir ustidan o'tkazilganda olingan aromatik modda tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi va gibridlanishi – ... .
A) 0 va sp^2 B) +1 va sp
C) +1 va sp^2 D) –1 va sp^2 E) –1 va sp

146. (v5-118-3) Temir kislorodda yonganda qaysi modda hosil bo'ladi va undagi temirning oksidlanish darajasi nechaga teng?
A) $FeCO_3$ va +2 B) Fe_3O_4 va +2, +3
C) FeO va +2 D) Fe_2O_3 va –3
E) Fe_2O_3 va +3

147. (v5-119-3) Pikrin kislotadagi uglerod atomlari oksidlanish darajalarining yig'indisi – ... .
A) –1 B) +2 C) +4 D) +5 E) –3

148. (v5-122-3) Qaysi birikmalardagi uglerodning oksidlanish darajasi bir xil bo'ladi?
1) is gazi; 2) karbonat angidrid; 3) metan kislota; 4) formaldegid; 5) xloroform.
A) 3, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 3 D) 1, 4, 5
E) 1, 2, 4

149. (v5-130-20) Atomining valentligi uchga, oksidlanish darajasi esa nolga teng bo'lgan molekulani toping.
A) ammiak B) vodorod ftorid
C) azot D) fosfor (V) oksid
E) xlor

150. (v5-134-9) O'zgarmas valentlikka ega bo'lgan d metallarni ko'rsating:
1) K; 2) Zn; 3) Co; 4) Ni; 5) Al; 6) Cd.
A) 2, 4 B) 2, 6 C) 1, 5 D) 2, 5
E) 2, 3

151. (v6-104-9) Azotning oksidlanish darajasi +2 ga qaytarilganlarini tanlang.
1) $HNO_3 + Ag = AgNO_3 + NO_2 + H_2O$;
2) $HNO_3 + HCl + Au = H[AuCl_4] + NO + H_2O$;
3) $HNO_3 + CuS = CuSO_4 + NO_2 + H_2O$;
4) $HNO_3 + CaCO_3 = Ca(NO_3)_2 + CO_2 + H_2O$;
5) $HNO_3 + P = H_3PO_4 + NO_2 + H_2O$;
6) $HNO_3 + HCl + Pt = H_2[PtCl_6] + NO + H_2O$;
7) $HNO_3 + Cu = Cu(NO_3)_2 + NO_2 + H_2O$.
A) 1, 4 B) 1, 3, 5, 7
C) 2, 3, 5, 7 D) 2, 6

152. (v6-106-5) Karbol kislota molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) –4 B) –2 C) –6 D) –5

153. (v6-107-33) Yopiq halqali 6 a'zoli glyukozadagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini belgilang.
A) –2 B) 0 C) +1 D) –1

154. (v6-112-5) Gidrazindagi azotning oksidlanish darajasi va valentligini aniqlang.
A) –3, 3 B) –3, 4 C) –2, 3 D) –1, 3

155. (v6-112-21) N_2O_5 dagi azot atomining oksidlanish darajasini, valentligini va donor-akseptor bog'lar sonini aniqlang.
A) +5, 4, 2 B) +5, 4, 1
C) +5, 5, 0 D) +4, 5, 0

156. (v6-113-4) Quyidagi birikmalardan tarkibidagi azotning oksidlanish darajasi va valentligi bir xil (absolyut qiymati) bo'lganlarini tanlang:
1) ammoniy nitrat; 2) ammoniy gidroksid; 3) mochevina; 4) gidrazin; 5) kalsiy nitrid; 6) nitrit kislota; 7) metilamin.
A) 2, 5, 6, 7 B) 3, 5, 6, 7
C) 1, 5 D) 1, 3, 6, 7

157. (v7-102-3) Glyukoza molekulasidagi oltinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.
A) –2 B) –1 C) +2 D) +1

158. (v7-107-3) Glyukon kislota molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) 0 B) –6 C) +2 D) +1

159. (v7-109-3) Glitserin molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajalari yig'indisini toping.
A) –3 B) –5 C) –4 D) –2

160. (v7-110-3) Gidroxinon molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) –4 B) –2 C) –1 D) –6

161. (v7-112-3) Etilenglikol molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajalari yig'indisini toping.
A) –3 B) –4 C) 0 D) –2

162. (v7-115-3) Izobutilspirt molekulasidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.
A) –2 B) –1 C) –3 D) 0

163. (v8-101-5) Metilakrilat molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini aniqlang.
A) –3 B) –4 C) –2 D) –6

164. (v8-117-5) Ammoniy gidroksid molekulasidagi azotning oksidlanish darajasi va valentligini aniqlang.
A) –3, III B) –3, IV C) –4, III D) –4, IV

165. (v9-119-23) Vodorod, uglerod azot, oltingugurt qanday birikmalarda manfiy oksidlanish darajasiga ega?
A) gidrid, karbonat, nitrat, sulfat
B) gidrid, karbid, nitrid, sulfit
C) gidrid, karbid, nitrid, sulfid
D) gidrat, karbonat, nitrid, sulfid

166. (v11-102-24) Natriy sianiddagi elementlar oksidlanish darajalarining ketma-ketligini aniqlang.
A) +1; +2; –4 B) +1; +2; –3
C) +1; +4; –3 D) +1; +3; –3

167. (v11-104-20) Quyidagi molekulalardan markaziy atomining oksidlanish darajasi bir xil bo'lgan juftlikni aniqlang.

A) chumoli kislota, berilliy ftorid
B) bor gidrid, ammiak
C) ammiak, gidroksilamin
D) gidrazin, sulfat angidrid

168. (v11-105-29) Vodorod bilan hosil qilgan birikmalarida manfiy oksidlanish darajasiga ega bo'ladigan elementlarni aniqlang:
1) uglerod; 2) azot; 3) fosfor; 4) natriy; 5) kremniy; 6) litiy.
A) 2, 6 B) 1, 2, 3 C) 4, 5, 6 D) 1, 5

169. (v11-111-20) Quyidagi birikmalarda HRO_2 noma'lum element atomining massa ulushi kislorodning massa ulushidan 2,5 marta katta bo'lsa shu elementnig eng yuqori valentligi berilgan javobni toping.
A) 5 B) 6 C) 7 D) 4

170. (v12z-209-14) Quyidagi xususiyat(lar)ning qaysilari Cl_2O va F_2O lar uchun umumiy emas?
1) markaziy atomning valentligi; 2) bog'lovchi elektronlar soni; 3) molekulaning fazoviy tuzilishi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4

171. (v12c-119-25) Natriy persulfatdagi ($Na_2S_2O_8$) oltingugurt atomlarining oksidlanish darajasini aniqlang.
A) –2, +6 B) +6, +6 C) +7, 0 D) +6, –2

172. (v13-101-26) Azot elementi faqat manfiy oksidlanish darajasiga ega bo'lgan molekulalarni aniqlang.
A) N_2H_4, $(CH_3)_2NH$
B) HNO_3, $Ca(NO_3)_2$
C) NH_2Cl, NO_2
D) NH_4NO_3, NH_4Cl

173. (v14-101-1) $Na_2S_2O_3$ tarkibidagi oltingugurt atomlarining oksidlanish darajalarini toping.
A) +4; 0 B) +2; +2
C) +3; +3 D) +6; –2

174. (v14-117-6) $[Co(NH_3)_4(H_2O)_2]Cl_3$ birikmasidagi akseptorning koordinatsion soni, valentligi va oksidlanish darajasini ko'rsating.
A) 4; 4; –3 B) 4; 4; +3
C) 3; 6; +3 D) 6; 6; +3

175. (v15-102-6) X^{-2} ioni Y^n ioniga 4 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +2 B) +6 C) –4 D) +4

176. (v15-105-15) X^{+2} ionining elektronlar soni Br^- ionining elektronlar sonidan 3 marta kam bo'lsa, bromning yadro zaryadi X ning yadro zaryadidan necha marta katta?
A) 2,0 B) 2,75 C) 2,5 D) 3,6

177. (v15-107-18) X^{+1} ioni Y^n ioniga 2 ta elektron bersa, zaryadlari teng bodib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +5 B) +3 C) +7 D) –1

178. (v15-110-19) Sariq qon tuzi molekulasi tarkibidagi markaziy atomning valentligi va oksidlanish darajasini aniqlang.
A) VI; +3 B) IV; +3 C) VI; +2 D) V; +3

179. (v15-113-36) X^{+1} ioni Y^n ioniga 1 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi, «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +3 B) –1 C) +5 D) +7

180. (v15-114-10) X^{-1} ioni Y^n ioniga 4 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) 0 B) +7 C) –4 D) –1

181. (v15-117-21) X^{-4} ioni Y^n ioniga 2 ta elektron bo'lsa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A)+1 B) –3 C) –1 D) 0

182. (v15-119-19) Akrolein tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajalari yig'indisini toping.
A) –1 B) 0 C) –2 D) +2

183. (v15-124-22) X^{-2} ioni Y^n ioniga 3 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +3 B) +1 C) –1 D) +4

184. (v15-127-2) X_2Y_3 moddada 20% X bor bo'lsa, X_4Y moddada necha foiz Y borligini aniqlang.
A) 27,28 B) 40 C) 72,72 D) 60

185. (v15-129-20) X^{+4} ioni Y^n ioniga 1 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +3 B) +7 C) +5 D) +6

186. (v16-103-8) $BaFeO_4$ da temirning oksidlanish darajasini toping.
A) +2 B) +3 C) +6 D) +4

187. (v16-103-34) X^{-4} ioni Y^n ioniga 1 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +2 B) –3 C) –2 D) –1

188. (v16-104-22) Azotning oksidlanish darajasi minimal (eng past) bo'lgan birikmani ko'rsating.
A) NF_3 B) NH_3 C) NO_2 D) N_2O

189. (v16-104-32) X^{-4} ioni Y^n ioniga 2 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) 0 B) –1 C) –3 D) +1

190. (v16-105-3) X^{+1} ioni Y^n ioniga 2 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +5 B) +3 C) +7 D) –1

191. (v16-113-15) X^{-3} ioni Y^n ioniga 2 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi. «n» ning qiymatini aniqlang.
A) –1 B) +1 C) 0 D) –4

192. (v16-120-13) $K_2Cr_2O_7$ birikmasidagi Cr ning oksidlanish darajasini aniqlang.
A) 0 B) +3 C) +5 D) +6

193. (v16-122-13) X^{-2} ioni Y^n ioniga 2 ta elektron bersa, zaryadlari teng bo'lib qoladi «n» ning qiymatini aniqlang.
A) +2 B) –1 C) +3 D) 0

194. (v17-103-36) Kremniy, fosfor, kislorod, oltingugurt, brom, mishyak, xlor birikmalarning uchuvchan vodorodli birikmalarining oksidlanish darajalarini aniqlang.
A) –4, –3, –2, –2, –1, –3, –1
B) –3, –5, –2, –2, –1, –3, –1
C) –4, –3, –2, –4, –1, –2, –1
D) –4, –3, –2, –6, –2, –3, –1

195. (v17-105-10) Qaysi birikmada kislorod – 2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) H_2O_2 B) KO_2 C) OF_2 D) H_2O.

196. (v17-106-3) Qaysi qatordagi moddalar tarkibidagi o'zgaruvchan valentli metallmaslar bir xil valentlik namoyon qiladi?
A) BeH_2, ZnO, $PbCl_2$
B) B_2O_3, CO, HNO_2
C) P_2O_5, HNO_3, $KHCO_3$
D) SeF_2, H_2S, $SnCl_2$

197. (v17-106-14) Uranning oksidlanish darajalarini ko'rsating.
A) +3; +5; +7; +8
B) +2; +3; +4; +7
C) 1; +2; +3; +8
D) +3; +4; +5; +6

198. (v17-107-14) Quyida keltirilgan moddalarning bog'lanish turlarini aniqlang: (a) qutbsiz kovalentli; (b) qutbli kovalentli; (c) donor-akseptorli; (d) ionli.
1) P_2O_5; 2) O_2; 3) CO; 4) K_2SO_3; 5) $Na_2S_2O_8$; 6) $Ba(NO_3)_2$.
A) a-2, 5; b-1, 3, 4, 5, 6; c-3, 6; d-4, 6
B) a-2; b-1, 3, 4, 5, 6; c-3; d-4, 6
C) a-2, 5; b-1, 3, 4, 5, 6; c-3; d-4, 5, 6
D) a-2, 5; b-1, 3, 4, 5, 6; c-3, 6; d-4, 5, 6

199. (v17-110-12) 120 = kPa va 17°C dagi N_2 gazning zichligi 185 kPa. Bosimda turgan neonning zichliklari o'zaro teng. Inert gazning temperaturasi (C°)ni hisoblang.
A) 320 B) 46
C) 300 D) 27

200. (v17-116-21) «Valentlik» degan iborani qaysi olim kimyoga kiritgan?
A) Kekule B) Bertlo
C) Franklend D) Bertselius

201. (v17-127-22) Qaysi birikmada kislorod +2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) OF_2 B) KO_2 C) H_2O D) H_2O_2

11. Elektron orbitallarning gibridlanishi Molekulalardagi bog'lar soni σ, π

1. (96-8-63) CO_2 va SiO_2 qaysi xususiyatlari bilan farq qiladilar?
1) valentlik; 2) oksidlanish darajasi; 3) kristall panjara turi; 4) gibridlanish turi; 5) qaynash va suyuqlanish temperaturasi.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 3, 4, 5 D) 2, 4, 5
E) 1, 2, 5

2. (01-6-4) Qaysi birikmalarda sp^2-gibridlanish mavjud?
1) oltingugurt (IV) oksid; 2) ammiak; 3) uglerod (IV) oksid; 4) eten; 5) nitrat kislota; 6) oltingugurt (IV) oksid.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 4, 5, 6
E) 1, 2, 4, 6

3. (02-1-41) Quyidagi NH_3 va NH_4^+ zarrachalardagi markaziy atomning gibridlanish turini va uning fazoviy geometriyasini tanlang:
1) sp^2; 2) sp^3; 3) teng tomonli uchburchak; 4) piramida; 5) tetraedr.
A) 1, 3 va 2, 5 B) 1, 4 va 2, 4
C) 1, 4 va 2, 5 D) 1, 5 va 2, 5
E) 2, 4 va 2, 5

4. (02-1-75) Gibridlanish jarayonida keltirilgan holatlarning qaysilari yuz berishi mumkin?
1) gibridlanish jarayonida s- va p-elektronlar ishtirok etadi; 2) gibridlanish jarayonida faqat bog' hosil qilayotgan toq elektronlar qatnashadi; 3) gibridlanish jarayonida toq elektronlarga ega bo'lgan s-, p-, d- va f-orbitallar ishtirok etishi mumkin;
4) gibridlanish natijasida atomlar orasida σ- va π-bog'lar hosil bo'ladi; 5) gibridlanishda juft elektronlari bo'lgan atom orbitallar ham qatnashishi mumkin.
A) 1, 3 B) 3, 5 C) 1, 5 D) 2, 4
E) 2, 5

5. (02-1-76) Qiyda keltirilgan moddalar orasidan sp^2-gibridlangan atomga ega bo'lganlarini toping:
1) etilen; 2) azot; 3) vodorod xlorid; 4) uglerod (IV) oksid; 5) tetrafosfor; b) etin; 7) uglerod (II) oksid.
A) 2, 4, 6 B) 2, 3, 4, 6 C) 2, 4, 6, 7
D) 1, 2, 6 E) 2, 4, 5, 6

6. (02-2-57) Quyida keltirilgan reaksiyalarning qaysilarida hosil bo'lgan mahsulotlarning tarkibida bir xil miqdorda π-bog'lar mavjud bo'ladi? metanol;
1) $H_2 + N_2 \rightarrow$; 2) $O_2 + CO \rightarrow$; 3) $CH_4 + O_2 \rightarrow$;
4) $H_2 + CO \rightarrow$; 5) $Cl_2 + CO \rightarrow$; 6) $NH_3 + O_2 \rightarrow$.
A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 6 C) 2, 3, 5 D) 3, 5, 6
E) 4, 5, 6

7. (02-12-46) Elektr yoyi yordamida uglerodning azot bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan moddada nechta π-bog' bo'ladi, undagi uglerod atomlarining gibridlanish turi va oksidlanish darajalari qanday bo'ladi?
A) 4; sp^3; –3 B) 4; sp; +3
C) 2; sp; –3 D) 4; sp^2; +2
E) 2; sp^2; –4

8. (03-4-33) $[NO_2]^-$ va $[NO_3]^-$ ionlari markaziy atomlarining gibridlanish turini va fazoviy shaklini aniqlang.
1) sp^2; 2) sp^3; 3) burchakli; 4) teng tomonli uchburchak; 5) uchburchakli piramida.
A) 1, 3 va 1, 4 B) 2, 3 va 2, 4
C) 1, 4 va 2, 5 D) 2, 5 va 2, 4
E) 2, 3 va 1, 3

9. (04-1-273) Markaziy atomning orbitallari sp^2-gibridlanish holatida bo'lgan molekulalarni aniqlang:
1) bor ftorid; 2) berilliy xlorid; 3) metan;
4) kumush atsetileni; 5) atsetilen.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 2, 4, 5
E) faqat 1

10. (v5-105-20) Quyida berilgan molekulalar markaziy atomlarining gibridlanish tiplarini aniqlang:
1) BeH_2; 2) BF_3; 3) CCl_4; 4) NH_3; 5) H_2O.
A) sp^3, sp^2, sp^3, sp, sp^3
B) sp, sp, sp^3, sp^3, sp^3
C) sp, sp^2, sp^3, sp^2, sp^3
D) sp, sp^2, sp^3, sp^3, sp^3
E) sp^2, sp, sp^3, sp^2, sp^3

11. (v6-109-21) Quyida keltirilgan moddalar orasidan markaziy atomning gibridlanish turi sp^3 bo'lganlarini tanlang:
1) etan; 2) uglerod (IV) oksid; 3) ammiak;
4) chumoli kislotadagi uglerod atomi;
5) olmos; 6) sulfit angidrid.
A) 2, 4, 5 B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

12. (v6-110-12) Quyida berilganlardan SiO_2 va CO_2 lar uchun har xil bo'lganlarini belgilang:
1) markaziy atomning oksidlanish darajasi;
2) markaziy atomning gibridlanishi;
3) markaziy atomning valentligi; 4) kristall panjara tuzilishi; 5) suyuqlanish va qaynash temperaturasi.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3 C) 1, 3, 5 D) 2, 3

13. (v6-114-21) $[SO_4]^{-2}$ ionida oltingugurt atomining valentligi, oksidlanish darajasi va gibridlanish turini aniqlang.
A) 3; +3 va sp^2 B) 4; +6 va sp^3
C) 6; +6 va sp^3 D) 6; +3 va sp^3

14. (v7-101-19) HCN va BeF_2 molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) molekulaning fazoviy tuzilishi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 2, 4 B) 1, 3, 4 C) 2, 3, 4 D) 1, 3

15. (v7-109-19) BF_3, BCl_3, SO_3 molekulalari uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi; 2) markaziy atomning valentligi; 3) molekulaning fazoviy strukturasi; 4) bog' qutbli, molekula qutbsiz bo'lishi.
A) 2 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 3, 4 D) 4

16. (v7-112-19) SO_2, CO_2, SiO_2 molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) molekulaning fazoviy strukturasi;
4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2 D) 2, 4

17. (v7-120-19) CH_4, NH_3, H_2O molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyat(lar) umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi; 2) markaziy atomning valentligi; 3) molekulaning fazoviy strukturasi; 4) valent burchak qiymati.
A) 1 B) 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 4

18. (v7-130-19) ClO_2^{-1}, ClO_3^{-1}, ClO_4^{-1} ionlar uchun quyidagi qaysi xususiyat(lar) umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning ekvivalentligi;
3) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 1 B) 1, 3 C) 3 D) 2

19. (v7-182-19) SO_2 va CO_2 molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) molekulaning fazoviy strukturasi;
4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 2, 3, 4

20. (v8-102-18) H_2O va $[H_3O]^+$ lar uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy emas?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning oksidlanish darajasi;
3) molekula(ion)ning fazoviy tuzilishi;
4) markaziy atomning valentligi; 5) markaziy atomning kislorod ekanligi.
A) 3, 4 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 5

21. (v8-118-18) HCN va BeF_2 molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy emas?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) molekulaning fazoviy tuzilishi;
4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 2 B) 1, 3, 4 C) 2, 3, 4 D) 3

22. (v8-119-18) CO_2 va SO_2 molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) markaziy atomning oksidlanish darajasi;
4) molekulaning fazoviy strukturasi.
A) 2, 3 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2 D) 2, 4

23. (v9-103-11) Molekulalarni tarkibidagi π- va σ-bog'lar yig'indisi ortib borishi tartibida joylashtiring.
1) Itingugurt (VI) oksid; 2) metanal;
3) vodorod peroksid; 4) chumoli kislota;
5) gipoxlorit kislota.
A) 1, 4, 2, 3, 5 B) 5, 2, 4, 3, 1
C) 5, 3, 2, 4, 1 D) 1, 2, 3, 4, 5

24. (v9-106-15) Molekulasida bitta sp-gibridlangan uglerod atomi tutgan moddani aniqlang.
A) CO_2 B) CH_3CH_3
C) CH_3CHO D) CH_3COOH

25. (v9-106-23) Tarkibida 2 ta π-bog' bo'lgan molekulalarni aniqlang:
1) azot; 2) kislorod; 3) metan;
4) oltingugurt (VI) oksid; 5) atsetilen;
6) karbonat angidrid.
A) 1, 6 B) 3, 4 C) 2, 3, 4 D) 1, 5, 6

26. (v9-112-31) Tarkibida 3 ta σ-bog' bo'lgan molekulalarni aniqlang:
1) oltingugurt (VI) oksid; 2) metanal;
3) vodorod peroksid; 4) chumoli kislota;
5) gipoxlorit kislota.
A) 1, 2, 3 B) 3, 5 C) 1, 2, 5 D) 2, 4

27. (v11-101-31) Qaysi xususiyat(lar) ClO_2^{-1}, ClO_3^{-1} va ClO_4^{-1} ionlar uchun umumiy?
1) markaziy atomning ekvivalentligi;
2) markaziy atomning gibridlanishi;
3) markaziy atomning oksidlanish darajasi
A) 1, 3 B) 3 C) 2 D) 1

28. (v11-106-11) Qaysi xususiyatlar BeCl, BeF_2, CO_2 molekulalari uchun umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) molekulaning fazoviy strukturasi;
4) bog' qutbli, molekula qutbsiz bo'lishi.
A) 1, 2, 3, 4 B) 3, 4
C) 1, 3, 4 D) 1, 2

29. (v11-107-1) Qaysi xususiyat(lar) SO_3 va SO_2 molekulalar uchun umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) molekulaning fazoviy strukturasi;
4) bog' qutbli, molekula qutbsiz bo'lishi.
A) 1, 4 B) 3 C) 1 D) 2, 3

30. (v12z-207-32) Valent elektronlarining elektron orbitallari sp^3 gibridlangan modda qatorini belgilang.
A) SiO_2; CO_2; SO_2 B) H_2O; $CHSiO_2$
C) CH_4; H_2O; CO_2 D) HCl; NO; CO_2

31. (v12z-219-8) H_2O va H_2Te molekulalari uchun qaysi xususiyatlar umumiy?
1) markaziy atomning valentligi; 2) kovalent bog'lanish turi; 3) markaziy atomning gibridlanishi; 4) molekulaning fazoviy tuzilishi
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 3 D) 2, 4

32. (v12z-224-28) NH_4^+ va SiH_4 lar uchun qaysi xususiyat(lar) umumiy?
1) donor-akseptor bog'ning borligi;
2) markaziy atomning gibridlanishi;
3) markaziy atomning valentligi;
4) markaziy atomning oksidlanish darajasi
A) 2, 3, 4 B) 1 C) 2, 3 D) 1, 4

33. (v12z-231-16) CH_4 va SiH_4 lar uchun qaysi xususiyat(lar) umumiy?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi;
3) markaziy atomning oksidlanish darajasi
4) molekulaning fazoviy tuzilishi.
A) 3 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2 D) 1, 2, 4

34. (v12c-101-22) BH_3 va NH_3 lar uchun qaysi xususiyat(lar) umumiy emas?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi; 3) markaziy atomning oksidlanish darajasi;
4) molekulaning fazoviy tuzilishi.
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3

35. (v12c-105-7) HNO_2 va $HClO_2$ molekulalari uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
1) markaziy atomning gibridlanish turi;
2) markaziy atomning valentligi; 3) bog' hosil qilishda ishtirok etgan orbitallar soni; 4) shu burikmalardagi markaziy atomning elektron konfiguratsiyasi; 5) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 1, 3, 4 B) 1, 4
C) 2, 3, 5 D) 2, 5

36. (v12c-106-35) NH_3 va AsH_3 lar uchun qaysi xususiyat(lar) umumiy emas?
1) markaziy atomning gibridlanishi;
2) markaziy atomning valentligi; 3) markaziy atomning oksidlanish darajasi; 4) tarkibidagi protonlar soni; 5) molekulaning fazoviy tuzilishi
A) 3, 4 B) 1, 2, 5 C) 1, 2, 3, 5 D) 4

37. (v12c-120-22) NH_4^+ va CH_4 lar uchun qaysi xususiyat(lar) umumiy emas?
1) donor-akseptor bog'ning borligi;
2) markaziy atomning gibridlanishi;
3) markaziy atomning valentligi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 2, 3 B) 1 C) 2, 3, 4 D) 1, 4

38. (v12c-129-27) Quyidagi elementlardan σ- va π-bog'lan yigindisi 8 ga teng bo'lganlarini tanlang:
1) $CO(NH_2)_2$; 2) C_4H_6; 3) C_3H_4; 4) $AlPO_4$; 5) H_2SO_3; 6) $KClO_2$.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3 C) 2, 3, 4 D) 1, 5, 6

39. (v12c-132-16) Qutbsiz kovalent bog'lanishli, markaziy atomi sp^2 tipda gibridlanmagan molekulani aniqlang.
A) bor gidrid B) suv
C) ammiak D) fosfin

40. (v12c-133-14) Qutbsiz kovalent bog'lanishli, markaziy atomi sp^3 tipda gibridlanmagan molekulani aniqlang.
A) oltingugurt (IV) oksid B) bor gidrid
C) fosfin D) suv

41. (v13-103-4) $[NiCl_4]^{2-}$, $[Co(NH_3)_6]^{3-}$ ionlardagi markaziy atomning gibridlanish turini aniqlang.
A) sp^3, sp^2 B) sp^3, sp^3d^2
C) sp^2, sp^3d D) sp^3d, sp^3d^2

42. (v16-101-36) Natriy dixromat, temir (III) sulfat, seziy pirofosfat moddalaridagi jami kimyoviy bog'lar yig'indisi qancha bo'ladi?
A) 50 B) 32 C) 51 D) 52

43. (v16-103-9) $Ca(OH)_2$ $CaSO_4$ molekulasidagi σ- va π-bog'lar sonini aniqlang.
A) 14 va 2 B) 10 va 2
C) 9 va 1 D) 12 va 2

44. (v16-111-7) Rux gidrooksosulfat tarkibidagi σ-bog'lar sonini aniqlang.
A) 12 B) 6 C) 8 D) 10

45. (v16-113-32) Natriy arsenat, alyuminiy sulfit va qo'rg'oshin (II) atsetatdagi jami kimyoviy bog'lar yig'indisi qancha bo'ladi?
A) 42 B) 39 C) 41 D) 40

46. (v16-115-32) Magniy arsenat, alyuminiy sulfit va mis (II) atsetatdagi jami kimyoviy bog'lar yig'indisi qancha bo'ladi?
A) 51 B) 49 C) 48 D) 50

47. (v16-128-24) Malaxit molekulasidagi σ va π-bog'lar sonini toping.
A) 9 va 1 B) 14 va 0
C) 14 va 2 D) 8 va 1

48. (v17-101-25) sp^3-s bog'lar soni 2 ta bo'lgan molekulalarni tanlang:
1) sirka kislota; 2) suv; 3) pentadiyen-1,4;
4) sulfat kislota; 5) metan kislota; 6) oksalat kislota.
A) 1, 4, 5, 6 B) 3, 4, 5, 6
C) 2, 3, 4, 6 D) 1, 6

49. (v17-101-29) CH_4 va SiH_4 uchun umumiy bo'lgan xususiyat(lar)ni toping:
1) markaziy atomning gibridlanish turi;
2) markaziy atomnining valentligi;
3) molekulaning fazoviy tuzilishi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 3

50. (v17-102-4) ClO_3^- va ClO_4^- uchun umumiy bo'lmagan xususiyat(lar)ni toping:
1) xlorning markaziy atom ekanligi;
2) markaziy atomning valentligi; 3) markaziy atomning oksidlanish darajasi; 4) markaziy atomning gibridlanish turi; 5) ionning fazoviy tuzilishi.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 4 C) 1 D) 2, 3, 5

51. (v17-105-20) CH_4 va NH_4^+ uchun umumiy bo'lmagan xususiyat(lar) ni toping:
1) donor-akseptor bog'ining mavjudligi;
2) markaziy atomning oksidlanish darajasi;
3) markaziy atomning valentligi: 4) markaziy atomning gibridlanish turi.
A) 1, 4 B) 2, 3, 4
C) 2, 3 D) 1, 2

52. (v17-111-16) Quyidagi moddalar tarkibidagi sp^3-s bog'lar soni ortib borish tartibida joylashtirilgan qatorni toping.
A) suv, sulfat kislota, oksalat kislota, karbonat kislota
B) oksalat kislota, fenol, buten-2, buten-1
C) fenol, oksalat kislota, buten-1, buten-2
D) nitrat kislota, sulfat kislota, sirka kislota, oksalat kislota

53. (v17-118-3) NH_4^+ va CH_4 uchun umumiy bo'lgan xususiyat(lar)ni toping.
1) donor-akseptor bog'ining mavjudligi;
2) markaziy atomning gibridlanish turi;
3) markaziy atomning valentligi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi.
A) 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 4 D) 1

11.1. Anorganik birikmalardagi elektron orbitallarning gibridlanishi. Bog'lar σ, π soni

1. (96-1-13) Quyidagi moddalardan qaysi birining grafik formulasida 2 ta dan π-bog' mavjud?
1) alyuminiy oksid; 2) magniy sulfat; 3) sulfit. kislota; 4) kalsiy karbonat.
A) 1 va 2 B) 1 va 3 C) 1 va 4 D) 2 va 3
E) 3 va 4

2. (96-3-38) Markaziy atomning atom orbitali, sp-gibridlangan holatdagi zarrachani ko'rsating.
1) PO_4^{3-}; 2) CO_2; 3) H_2O; 4) SO_3; 5) $BeCl_2$.
A) 2, 3 B) 2, 5 C) 1, 2 D) 4, 5 E) 3, 4

3. (96-4-10) Qaysi moddalar molekulasida markaziy atom sp^3-gibridlanish holida bo'ladi?
A) CH_4, H_2O, NH_3 B) BCl_3, NH_3, PH_3
C) SiH_4, CH_4, C_2H_4 D) H_2O, H_2S, BeF_2
E) BeF_2, H_2O, NH_3

4. (96-8-17) Kaliy permanganatning grafik formulasida nechta σ- va π-bog'lar mavjud?
A) 3σ va 3π B) 4σ va 4π C) 3σ va 4π
D) 5σ va 2π E) 4σ va 3π

5. (96-8-88) Quyidagi molekulalarning qaysilarida markaziy atomning gibridlanishi sp-holatda bo'ladi?
1) $VeCl_2$; 2) CO_2; 3) H_2O; 4) SO_2.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3 E) 3, 4

6. (96-8-90) Quyidagi zarrachalarning qaysilarida σ- va π-bog'lar soni bir xil?
1) $KMnO_4$; 2) H_3PO_4; 3) $K_2Cr_2O_7$;
4) $HC{\equiv}C-C{=}O$ (O pastda).
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3 E) 3, 4

7. (96-13-10) Dixromat kislotasidagi atomlararo bog'larning turlari va miqdorlari qanday?
A) 2π + 12σ B) 4π + 10σ
C) 3π + 11σ D) 3π + 12σ
E) 4π + 14σ

8. (97-1-25) Ortofosfat kislotaning grafik formulasida necha kimyoviy bog'lar bor?
A) 8 B) 7 C) 6 D) 9 E) 10

9. (97-1-44) Qaysi molekulada sp-gibridlanish amalga oshadi?
A) SO_2 B) CO_2 C) NO D) SO_3
E) H_2O

10. (97-1-46) Temir (III) gidrofosfatning grafik formulasida nechta σ- va π-bog'lar mavjud?
A) 2π + 24σ B) 3π + 22σ C) 2π + 23σ
D) 3π + 23σ E) 3π + 24σ

11. (97-3-36) Sulfat kislotaning grafik formulasida atomlarni necha juft elektronlar biriktiradi?
A) 9 B) 5 C) 6 D) 7 E) 8

12. (97-5-10) Kaliy permanganatda, mis xloridning asos tuzida va bariy sulfatning nordon tuzida jami kimyoviy bog'lar yig'indisini toping:
A) 16 B) 23 C) 31 D) 19
E) 27

13. (97-5-52) Qo'sh bog'lar soni ko'proq bo'lgan modda formulasini tanlang: kislorod, sulfat kislota, karbonat kislota, kaliy dixromat, uglerod (II) oksid.
A) karbonat kislota B) uglerod (II) oksid
C) sulfat kislota D) kislorod
E) kaliy dixromat

14. (97-7-9) Alyuminiy gidrofosfat molekulasi tarkibida kimyoviy bog'larning soni nechta?
A) 5 B) 12 C) 18 D) 24 E) 30

15. (97-7-13) Markaziy atomning orbitallari sp-gibridlanish holatida bo'lgan molekulalarni ko'rsating:
1) bor ftorid; 2) berilliy xlorid; 3) metan;
4) bariy xlorid; 5) atsetilen.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 2, 4, 5
E) 1, 3, 5

16. (97-7-48) Fosfor atomining besh valentli holati uchun gibridlanish turini ko'rsating (fosforning tartib raqami 15).
A) sp B) sp^2 C) s^2p^3 D) s^2p^4
E) dsp^3

17. (97-8-49) Quyidagi moddalar molekulasining qaysi biri tarkibida qo'sh bog'lar soni eng ko'p?
A) kaliy bixromat B) oltingugurt (IV) oksid
C) fosfat kislota D) alyuminiy digidrofosfat
E) alyuminiy sulfat

18. (97-9-10) Alyuminiy sulfat molekulasining grafik formulasida nechta kimyoviy bog' mavjud:
A) 26 B) 12 C) 18 D) 24 E) 21

19. (97-9-44) Quyida keltirilgan sxemalarning qaysi biri kalsiy gidrofosfatning grafik formulasiga to'g'ri keladi?



20. (97-11-7) Vodorod xlorid molekulasidagi kimyoviy bog'lanishda qaysi orbitallardagi elektronlar ishtirok etadi?
A) s- va s- B) p- va p-
C) sp^2- va sp^2- D) s- va p-
E) sp^3- va sp^3-

21. (97-11-48) Fosfat kislota molekulasining grafik formulasida nechta kislorod atomi o'zaro bir-biri bilan bog'langan?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1 E) 0

22. (97-11-82) Alyuminiy sulfat molekulasining tuzilish formulasida alyuminiy va oltingugurt atomlari o'zaro nechta kislorod atomi orqali bog'langan?
A) 12 B) 10 C) 8 D) 6 E) 4

23. (98-3-1) Kaliy xlorat molekulasida nechta kimyoviy bog' mavjud?
A) 3 B) 6 C) 7 D) 9 E) 14

24. (98-3-2) Kaliy sulfat molekulasining grafik formulasida nechta σ-bog' mavjud?
A) 2 B) 4 C) 5 D) 6 E) 8

25. (98-3-3) Alyuminiy oksid molekulasining grafik formulasida nechta π-bog' mavjud?
A) 2 B) 5 C) 4 D) 6 E) 3

26. (98-3-4) Quyidagi moddalar grafik formulalarining qaysilarida bir xil miqdorda kimyoviy bog' mavjud?
1) bor xlorid; 2) alyuminiy sulfid; 3) magniy karbonat; 4) berilliy oksid; 5) kalsiy gidroksid.
A) 2, 4 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 3, 5 E) 2, 5

27. (98-3-5) Qaysi juftdagi moddalarning grafik formulalarida σ- va π-bog'lar soni bir xil bo'ladi?
A) litiy gidroksid, vodorod bromid
B) magniy sulfit, bariy karbonat
C) alyuminiy oksid, kalsiy gidroksid
D) natriy sulfat, mapganes (IV) oksid
E) kremniy oksid, ammoniy xlorid

28. (98-3-6) Xromat kislotaning grafik formulasida nechta oddiy va nechta qo'sh bog'lar mavjud?
A) 6 va 2 B) 5 va 1 C) 4 va 2 D) 6 va 1
E) 8 va 2

29. (98-8-25) Magniy digidrofosfat molekulasidagi kimyoviy bog'lar sonini ko'rsating.
A) 14 B) 16 C) 18 D) 12 E) 10

30. (98-8-80) Uglerod (IV) oksidda uglerod atomi:
1) sp-; 2) sp^2-; 3) sp^3-; gibridlanish holatida bo'ladi, chunki; 4) uglerod atomining hamma elektronlari kimyoviy bog'lanish hosil bo'lishida ishtirok etadi; 5) uglerod atomining 2p-pog onachasida ikkita juftlashmagan elektron bor; 6) uglerod (IV) oksid molekulasi chiziqli tuzilishga ega.
A) 1, 5 B) 2, 5 C) 3, 4 D) 1, 6 E) 2, 4

31. (98-12-43) Kimyoviy bog'lar soni bir xil miqdorda bo'lgan molekulalarni tanlang.
1) azot; 2) uglerod (IV) oksid; 3) ammiak; 4) vodorod xlorid; 5) kaliy xlorat; 6) stronsiy sulfat.
A) 1, 3 B) 2, 5 C) 3, 4 D) 2, 6 E) 1, 4

32. (99-2-9) Fosfat kislota molekulasida kimyoviy bog'lar soni nechta?
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8 E) 9

33. (99-4-39) Gipoxlorit kislota, xlorat va perxlorat ionlardagi markaziy atomlarning gibridlanish holati qanday?
A) sp^2, sp^3, sp^3 B) sp^2, sp^2, sp^3
C) sp^3, sp^3, sp^3 D) sp^2, sp, sp^2
E) sp, sp^2, sp^2

34. (99-6-71) Digidroksoalyuminiy xlorid tarkibidagi bog'lar sonini toping.
A) 6 B) 7 C) 5 D) 9 E) 10

35. (99-6-73) Molekulasida bog'lanish soni maksimal bo'lgan kislotalarni tanlang.
1) nitrat; 2) sulfat; 3) gipoxlorit; 4) ortofosfat; 5) perxlorat; 6) yodid; 7) gipobromit; 8) vodorod xlorid.
A) 4, 6 B) 2, 4 C) 2, 4, 5 D) 2, 5, 7
E) 4, 5, 8

36. (00-5-39) Kalsiyning fosfati, gidrofosfati va digidrofosfati tarkibidagi σ- va π-bog'larning umumiy sonlarini hisoblang.
A) 36σ va 6π B) 36σ va 4π
C) 21σ va 3π D) 28σ va 4π
E) 35σ va 5π

37. (00-5-56) Digidroksoalyuminiy karbonat molekulasidagi σ- va π-bog'lar sonini hisoblang.
A) 13; 1 B) 12; 2 C) 14; 0 D) 10; 2
E) 10; 4

38. (01-2-27) Quyidagi birikmalardagi oltingugurt atomining gibridlanish holati to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating:
1) SO_2; 2) SO_3; 3) SF_6; 4) SO_4^{2-}.
A) sp^2; sp^3; sp^3d; sp^2 B) sp; sp^2; sp^3d^3; sp
C) sp^3; sp^2; sp^3d^2; sp^3 D) sp^2; sp^2; sp^2d^2; sp^2
E) sp^3; sp^3; sp^3d; sp^2

39. (01-2-29) Pirofosfat kislota molekulasidagi σ- va π-bog'lar sonini ko'rsating.
A) 13σ, 1π B) 8σ, 6π C) 12σ, 2π
D) 12σ, 4π E) 10σ, 2π

40. (01-9-23) Quyida keltirilgan moddalar orasidan markaziy atomning gibridlanish turi sp^3 bo'lganlarini tanlang:
1) oksid; 2) kremniy (IV) oksid; 3) sulfit kislota; 4) ftor oksid; 5) chumoli kislotadagi uglerod atomi; 6) ammiak; 7) sulfit angidrid; 8) suv.
A) 1, 4, 6, 8 B) 2, 4, 5, 8
C) 2, 4, 6, 8 D) 3, 4, 6, 7
E) 2, 6, 8

41. (01-9-38) Quyidagi moddalarning qaysilarida markaziy atomning gibridlanish turi sp^3 bo'ladi?
1) bor ftorid; 2) gipoxlorid kislota;
3) uglerod (IV) oksid; 4) kremniy (IV) oksid;
5) bertole tuzi; 6) ammiak; 7) suv;
8) metilnitrat.
A) 1, 4, 5, 6, 7, 8
B) 2, 3, 5, 6, 7, 8
C) 2, 5, 6, 7, 8
D) 2, 4, 5, 6, 7, 8
E) 2, 4, 6, 7, 8

42. (02-3-32) Qaysi moddalar molekulasini hosil qilishda bir xil miqdorda kimyoviy bog'lar mavjud bo'ladi?
1) azot; 2) uglerod (IV) oksid; 3) is gazi;
4) azot (II) oksid.
A) 1, 2 B) 1, 4 C) 1, 3 D) 2, 4 E) 3, 4

A) 12 B) 32 C) 16 D) 24

201. (v15-116-12) Xlorning ikkita ioni tarkibida s–elektronlar soni o'zaro teng, p–elektronlar esa 1:2 nisbatda.
Ulardan zaryadi katta bo'lgan ionidagi s-elektronlar sonini toping.
A) 6 B) 8 C) 4 D) 5

202. (v15-116-23) Xlor (V) oksid va marganes (VII) oksidning qanday mol nisbatida ulardagi atomlar soni nisbati 7:9 ga teng bo'ladi?
A) 1:1 B) 2:1 C) 1:1,4 D) 3:1

203. (v15-117-7) 12 g ugleroddagi alomlar soniga teng sonda atom tutuvchi temir kislorod bilan tasirlashib qancha (g) qo'shoksid hosil qiladi?
A) 52 B) 72 C) 79,8 D) 77,33

204. (v15-119-31) 4 hajm X_2H_6 va 3 hajm YH_4 aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 14,86 ga teng. Agar gazlar 3:1 hajmda olingan aralashmadagi vodorodning massa ulushi 11/58 ga teng bo'lsa noma'lum elementlarni aniqlang.
A) P; C B) B; Si C) P; Si D) Si; C

205. (v15-120-20) Necha gramm KCl tarkibidagi molekulalar soni 11,7 g osh tuzi tarkibidagi molekulalar soniga teng?
A) 14,9 B) 12,15 C) 16,2 D) 11,10

206. (v15-120-32) Kislorod 18 izotopi tutgan kislorod ftoridning molekulyar massasi 56 m.a.b. ga teng bo'lsa, birikmaning qanday massasida (g) Avogadro sonidan 6 marta ko'p sonda neytron bo'lishini aniqlang.
A) 22,4 B) 13 C) 12 D) 11,2

207. (v15-129-2) 11,2 litrida (n. sh.) $42{,}14 \cdot 10^{23}$ ta elektron bo'lgan gazning formulasini toping.
A) CO B) NH_3 C) H_2S D) NO

208. (v16-103-1) Vodorodga nisbatan zichligi 18,2 ga teng bo'lgan 3 litr (n.sh.) azot (II) va azot (IV) oksidlari aralashmasiga 2 litr (n.sh.) kislorod qo'shilsa, boshlang'ich aralashmaning hajmi necha litr (n.sh.) ga kamayadi? (Barcha hajmlar bir xil sharoitda o'lchangan.)
A) 0,9 B) 2,0 C) 1,8 D) 0,5

209. (v16-104-12) Qaysi oddiy modda 12,1 sm^3/mol molyar hajmga va 2,32 g/sm^3 (n. sh.) zichlikka ega bo'ladi?
A) C_2H_4 B) N_2 C) Si D) CO

210. (v17-101-15) 1,71:1 nisbat atomlar soni ikki moddaniki. Birinchi modda atomlar ikkinchi moddanikidan 1,5 marta ko'p. Shu ikkala moddani toping.
A) HF va HCl
B) H_3PO_4 va H_2SO_4
C) H_2SO_4 va H_2SO_3
D) H_2SO_3 va HBr

211. (v17-121-15) 5,6 litr (n. sh.) propan tarkibidagi vodorod atomlari sonini aniqlang.
A) $1{,}806 \cdot 10^{24}$ B) $1{,}204 \cdot 10^{24}$
C) $4{,}214 \cdot 10^{24}$ D) $2{,}167 \cdot 10^{24}$

17. Modda tarkibining doimiylik qonuni. Birikma formulasini chiqarish bo'yicha masalalar

1. (96-5-5) Tarkibida marganetsning massa ulushi 49%, kislorodniki 51% bo'lgan oksid formula-sini ko'rsating. [A_r(Mn) = 54, A_r(O) = 16].
A) Mn_2O_3 B) MnO_2 C) MnO D) MnO_3
E) Mn_2O_7

2. (97-1-54) Valentligi 3 ga teng bo'lgan metall oksidning 1,6 g miqdorini qaytarish uchun 3 g vodorod sarf bo'lsa, oksid formulasini toping.
[A_r(Al) = 27, A_r(Cr) = 52, A_r(Te) = 56, A_r(Co) = 59, A_r(Ga) = 70].
A) Al_2O_3 B) Cr_2O_3 C) Fe_2O_3 D) Co_2O_3
E) Ga_2O_3

3. (97-6-12) 19,2 g noma'lum metall (ikki valentli) suyultirilgan nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishib, tarkibida 46,67% azot bo'lgan 4,48 l (n. sh.) oksid hosil bo'ldi. Reaksiya uchun qaysi metall olingan?
A) magniy B) rux
C) kalsiy D) mis
E) simob

4. (97-6-20) Noma'lum metall xlorid tuzi tarkibining 31% ini metall tashkil etadi. Agar metalning nisbiy atom massasi 47,9 bo'lsa, uning valentligi nechaga teng bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
E) 5

5. (97-6-22) Agar 350 ml fosfor bug'lari n. sh. da 0,97 g kelsa, bug'da fosfor molekulalarining tarkibi qanday bo'ladi?
A) P B) P_2 C) P_4 D) P_6 E) P_8

6. (97-6-65) 2,4 g ikki valentli metall oksidni eritish uchun 20% li HCl eritmasidan 10,95 g sarflandi. Oksidni aniqlang.
A) MgO B) SaO C) FeO D) CuO
E) ZnO

7. (97-9-22) 4,9 g tuzni parchalab, normal sharoitda 1,344 litr kislorod va kaliy xlorid olindi. Dastlabki birikmaning formulasini aniqlang. [M_r(KCl) = 74,5]
A) $KClO_2$ B) $KClO_3$ C) KClO D) $KClO_4$
E) $KClO_2$, $KClO_4$

8. (97-9-58) 6,4 g tuz qizdirilganda, 3,6 g suv va 2,24 l (n. sh.) azot hosil bo'ldi. Tuzning formulasini aniqlang.
A) NH_4NO_3 B) NH_4NO_2
C) $NvH_6(NO_3)_2 \cdot N_2O$ D) $NH_2OH \cdot HNO_3$
E) $N_2H_4 \cdot HNO$

9. (98-2-19) Bir element oksidi tarkibida 50,45% kislorod bor. Agar shu elementning nisbiy atom massasi 55 ga teng bo'lsa, uning valentligi nechaga teng bo'ladi?
A) 7 B) 6 C) 5 D) 4 E) 2

10. (98-4-58) 0,3 mol mis 0,8 mol nitrat kislota bilan o'zaro ta'sirlashganda, 0,3 mol mis (II) nitrat, 0,2 mol X va 7,2 g suv olingan. X orqali ifodalangan modda formulasini va uning miqdorini toping?
A) N_2; 0,10 B) O_2; 0,15
C) NH_3; 0,25 D) NO; 0,20
E) NO_2; 0,20

11. (98-8-73) E_3O_4 tarkibli birikmada noma'lum elementning ulushi 72,4% ni tashkil etadi. Elementni aniqlang.
A) temir B) qo'rg'oshin
C) qalay D) marganes
E) xrom

12. (98-8-75) 10 g noma'lum metalning yonishidan 18,9 g oksid hosil bo'ldi, bunda metalning oksidlanish darajasi 3 birlikka o'zgardi. Bu qaysi metall?
A) kobalt B) temir
C) xrom D) alyuminiy
E) nikel

13. (98-8-89) Ikki valentli metalning 80 g karbonati parchalanishidan 17,92 l CO_2 (n. sh.) ajraldi. Karbonat hosil qilgan metalni aniqlang.
A) temir B) magniy
C) bariy D) kalsiy
E) mis

14. (98-8-97) Davriy sistemaning IV guruh elementining hosil qilgan yuqori valentli xloridi va oksidining molekulyar massalari nisbati 17:6 ni tashkil etadi. Bu elementni aniqlang.
A) qo'rg'oshin B) uglerod
C) germaniy D) qalay
E) kremniy

15. (98-10-52) 3,9 g ishqoriy metall suv bilan ta'sirlashishi natijasida 1120 sm^3 vodorod (n. sh.) hosil bo'lgan. Metalni aniqlang.
A) litiy B) natriy C) kaliy D) seziy
E) rubidiy

16. (99-1-15) 4,0 g ikki valentli element oksidini eritish uchun 0,1 mol sulfat kislota sarflandi. Qaysi metall oksidi olingan?
A) berilliy oksid B) kalsiy oksid
C) rux oksid D) magniy oksid
E) mis (II) oksid

17. (99-1-48) 18 g noma'lum metall yondirilganda, uning 34 g oksidi hosil bo'ladi. Reaksiya uchun qaysi metall olingan?
A) magniy B) kalsiy
C) temir D) alyuminiy
E) berilliy

18. (01-5-4) Oksidlanish darajasi +3 ga teng bo'lgan elementning 19,4 g oksidini olish uchun (n. sh.) 1,4 l O_2 sarf bo'ldi. U qaysi element?
A) temir B) xrom
C) alyuminiy D) vismut
E) nikel

19. (01-5-28) Massasi 24,25 g bo'lgan metall sulfidi (metalning oksidlanish darajasi +2) kuydirilganda. Ajralib chiqqan gaz tarkibida 63,5 g yod bo'lgan eritmani rangsizlantiradi. U qaysi metall?
A) temir B) mis
C) rux D) kadmiy
E) kalsiy

20. (01-10-4) Massasi 25,6 g bo'lgan ikki valentli metall oksidi vodorod oqimida qaytarilganda, 3,6 g suv bug'i hosil, bo'lgan. Reaksiya uchun qaysi metall oksidi olingan?
A) Cd B) Zn C) Cu D) Fe E) Mn

21. (02-7-22) Davriy sistemaning IV gruppa elementi hosil qilgan sulfidi va bromidning molekulyar massalari nisbati 23:87. Bu qaysi element?
A) kremniy B) kaliy
C) germaniy D) uglerod
E) qo'rg'oshin

22. (02-12-25) 1 gramm oddiy modda tarkibida $37{,}625 \cdot 10^{21}$ ta atom bo'lib, u (n. sh. da) 0,4667 l hajmni egallasa, shu oddiy moddaning formulasini toping.
A) O_3 B) O_2 C) N_2 D) H_2 E) Ar

23. (02-12-58) 0,05 mol oddiy modda yondirilganda, metandan 2,75 marta og'ir bo'lgan 67,2 l (n. sh.) gaz hosil bo'lgan. Oddiy moddaning formulasini toping.
A) C_{60} B) C_{50} C) C_{40} D) C_{70} E) C_{80}

24. (03-4-8) Temir oltingugurt bilan 7:4 nisbatda birikadi. Quyidagilardan qaysi biri to'g'ri ifodalangan?
1) 7 m.a.b:4 m.a.b; 2) 7 g:4 g; 3) $7 \cdot 10^{22}$:$4 \cdot 10^{22}$.
A) 2, 3 B) 1, 2 C) 1 D) 2
E) 1, 2, 3

25. (03-8-33) Organik modda bug'ining havoga nisbatan zichligi 1,59 ga teng bo'lsa, moddaning formulasining aniqlang.
A) propan B) propan
C) siklopropan D) etil spirt
E) chumoli kislota

26. (03-12-24) Tarkibi 60% xlor va 40% vodoroddan iborat 1 l aralashma portlatildi. Qancha hajm (l, n. sh.) vodorod xlorid hosil bo'lishini toping.
A) 1,2 B) 0,6 C) 0,8 D) 0,4 E) 0,2

27. (03-12-27) Tarkibi 43,39% natriy, 11,33% uglerod va 45,28% kisloroddan iborat bo'lgan moddadagi atomlar nisbati qanday bo'ladi?
A) 2:1:3 B) 1:1:3 C) 2:1:2 D) 1:2:3
E) 2:1:3

28. (03-12-32) Tarkibi 94,12% kislorod va 5,88 vodoroddan iborat bo'lgan moddaning kimyoviy formulasi bilan tarkibi 88,9% kislorod va 11,1% vodoroddan iborat bo'lgan moddaning kimyoviy formulasi qanday farq qiladi?
A) 1 ta vodorod atomiga
B) 2 ta vodorod atomiga
C) 1 ta kislorod atomiga
D) 1 ta vodorod va 1 ta kislorod atomiga
E) farq qilmaydi

29. (03-12-38) Gaz holatidagi modda yondirilganda, uning har 2 litriga 3 l dan kislorod sarflandi. Shunday gazning yonishi natijasida 2 l karbonat angidrid bilan 4 l suv bug'i hosil bo'ldi. Gazning formulasini aniqlang.
A) C_2H_6 B) CH_4 C) C_3H_8 D) C_4H_8
E) C_2H_2

30. (03-12-41) 2,21 g mis(II) gidrooksikarbonatni qizdirishdan 1,58 g CuO; 0,44 g CO_2 va 0,18 g H_2O hosil bo'lgan. Shu tuzning molekulyar formulasini toping.
A) $CuCO_3$ B) $Cu(OH)_2$
C) $Cu(OH)_2CO_3$ D) $Cu(HCO_3)_2$
E) $CuCl_2O_3$

31. (04-1-74) Massasi 3,915 g bo'lgan marganes oksidi alyuminiy bilan qaytarilganda hosil bo'lgan alyuminiy oksidining soni $1{,}806 \cdot 10^{22}$ ta bo'lgan. Qaytarilgan oksidning formulasini ko'rsating.
A) MnO_2 B) Mn_3O_4 C) MnO D) Mn_2O_3
E) Mn_2O_7

32. (04-1-84) Fosforning ftorli birikmasi tarkibidagi ftorning massa ulushi 0,647 bo'lgandagi modda formulasini toping.
A) PF_5 B) PF_3 C) $H[PF_6]$ D) $H[PF_4]$
E) P_2F_{10}

33. (04-1-185) 14 g metall havoda yondirilganda, uning 20 g oksidi hosil bo'ldi. Metall ekvivalentini va oksid formulasini toping.
A) 9; Al_2O_3 B) 18,66; Fe_2O_3
C) 32; Cu D) 17,33; Cr_2O_3
E) 28; FeO

34. (04-1-337) Kaliy oksidi va peroksidi aralashmasida kaliyning 8 ta atomiga 7 ta kislorod atomi to'g'ri keladi. Kaliy oksidning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 70,5 B) 22 C) 91,6 D) 78 E) 86,3

35. (04-1-491) Ikki valentli metalning 80 g karbonati parchalanishidan 21,3 l CO_2 (n. sh.) ajraldi. Karbonat hosil qilgan metalni aniqlang.
A) temir B) magniy C) bariy D) kalsiy
E) mis

36. (v4-103-18) Fosforning ftorli birikmasi tarkibidagi ftorning massa ulushi 0,78 bo'lgandagi modda formulasini toping.
A) $H[PF_6]$ B) P_2F_{10} C) PF_5 D) $H[PF_4]$
E) PF_3

37. (v4-119-18) 44,4 g malaxit qattiq qizdirilganda uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 8 B) 2,8 C) 4 D) 28 E) 16

38. (v4-122-12) 8,4 gramm kalsiy "X" modda bilan reaksiyaga kirishib, 10,6 gramm kalsiy oksid hosil bo'ldi. "X" moddaning nomini va qancha miqdorda (g) olinganini aniqlang.
A) karbonat angidrid; 5,06
B) karbonat angidrid; 11,0
C) kislorod; 3,03
D) karbonat kislota; 6,2
E) kislorod; 16,0

39. (v5-102-25) 14,4 g ikki valentli metall oksidi vodorod ta'sirida qaytarilganda 11,2 g metall olindi. Metalni aniqlang.
A) Fe B) Zn C) Cu D) Ni E) Mg

40. (v5-107-25) 6,39 g marganes oksidi alyuminotermiya usuli bilan qaytarilganda $1{,}806 \cdot 10^{22}$ ta alyuminiy oksidi hosil bo'lsa, marganetsning qaysi oksidi qaytarilgan?
A) Mn_2O_3 B) Mn_2O_7 C) MnO D) Mn_3O_4
E) MnO_2

41. (v5-117-9) Jez tarkibida 60% Cu, 40% Zn bo'lsa, uning formulasini toping.
A) Cu_2Zn B) Cu_3Zn_5
C) CuZn D) Cu_2Zn_3
E) Cu_3Zn_2

42. (v5-121-18) Qalay xlorid tarkibida 37,4% xlor bo'lsa, qalay xloridning formulasini aniqlang.
A) $SnCl_4$ B) SnCl C) $SnCl_2$
D) $SnCl_5$ E) $SnCl_3$

43. (v5-122-25) 4,74 g marganes oksidi alyuminotermiya usuli bilan qaytarilganda $1{,}806 \cdot 10^{22}$ ta alyuminiy oksidi hosil bo'lsa, marganetsning qaysi oksidi qaytarilgan?
A) Mn_2O_3 B) Mn_2O_7 C) MnO D) Mn_3O_4
E) MnO_2

44. (v5-125-25) 2,86 g marganes oksidi alyuminotermiya usuli bilan qaytarilganda $1{,}806 \cdot 10^{22}$ ta alyuminiy oksidi hosil bo'lsa, qaytarilgan oksid formulasini toping.
A) Mn_2O_3 B) Mn_2O_7 C) MnO D) Mn_3O_4
E) MnO_2

45. (v6-107-3) Uran ftorid birikmasida uran ($^{238}_{92}U$) o'zining eng yuqori valentligini namoyon qiladi. Bu modda uchuvchan bo'lib bug'ining kislorodga nisbatan zichligi 1 ga teng. Birikmaning formulasini aniqlang.
A) UF_4 B) UF_3 C) UF_6 D) UF_5

46. (v7-111-25) 5 g ikki valentli noma'lum metall karbonati nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishib 8,2 g metall nitrat hosil qildi. Metalning nisbiy atom massasini hisoblang.
A) 40 B) 20 C) 24 D) 64

47. (v7-116-26) 85 g 20% li kumush nitrat eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda natriy galogenid bo'lgan 65 g eritma qo'shildi so'ng cho'kma ajratilgandan so'ng 6.72% li eritma hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi tuzning eritmasi ishlatilgan?
A) NaBr B) NaCl C) NaF D) NaI

48. (v8-104-23) 841,5 g suvda ikki valentli metall gidridi eritilganda 4,48 l (n. sh.) gaz ajralib, 2% li eritma hosil bo'ldi. Qaysi metall gidridi ishlatilgan?
A) bariy B) kalsiy C) magniy D) stronsiy

49. (v9-102-13) 4,20 g A_2B_5 modda tarkibida $36{,}12 \cdot 10^{21}$ dona A atomi bo'lsa, ushbu moddaning molekulyar massasini hisoblang.
A) 135 B) 142 C) 108 D) 54

50. (v9-104-28) 1,94 g metall sulfidi kuydirilganda ajralib chiqqan gaz tarkibida 5,08 g yod bo'lgan eritmani rangsizlantirgan. Shu metalni aniqlang.
A) mis B) rux C) kalsiy D) kadmiy

51. (v9-105-10) 14 g metall kislota bilan o'zaro ta'sirlashganda 5,6 l (n. sh.) vodorod siqib chiqardi. 11,2 g ushbu metall 21.3 g metallmas bilan to'la reaksiyaga kirishdi. Metallmasning molyar massasini hisoblang.
A) 254 B) 160 C) 71 D) 32

52. (v9-117-11) 20,4 g oksid olish uchun 6,72 l (n. sh.) kislorod sarf bo'lsa, shu metalni aniqlang.
A) temir B) xrom C) vismut D) alyuminiy

53. (v12z-207-33) 11,2 l (n. sh.) noma'lum gaz tarkibida $3{,}01 \cdot 10^{24}$ ta proton bo'lsa, uni aniqlang.
A) NH_3 B) CO C) PH_3 D) NO

54. (v12z-236-20) O'rta tuzning gidrolizga uchrashi natijasida 5,88% vodorod bo'lgan H_2X tarkibga ega bo'lgan noma'lum modda va 50,49% metall bo'lgan $Me(OH)_3$ hosil bo'ldi. X ni toping.
A) S B) P C) F D) Cl

55. (v12z-245-8) 602 ta molekulasining massasi $3{,}2 \cdot 10^{-20}$ g bo'lgan modda formulasini aniqlang.
A) SO_2 B) CH_4 C) SO_3 D) O_2

56. (v12c-106-25) 11,2 l (n. sh.) noma'lum gaz tarkibida $42,14 \cdot 10^{23}$ ta proton bo'lsa, uni aniqlang.
A) NO B) CO C) H_2S D) NH_3

57. (v12c-119-30) O'rta tuzning gidrolizga uchrashi natijasida 5,88% vodorod bo'lgali H_2X tarkibga ega bo'lgan noma'lum modda va 50,49% metall bo'lgan $Me(OH)_3$ hosil bo'ldi. Tuzning formulasini toping.
A) MnS B) CrS C) Cr_2O_3 D) Cr_2S_3

58. (v13-109-12) Tarkibi 34,59% natriy, 23,31% fosfor va 42,10% kisloroddan iborat moddaning formulasini va modda tarkibidagi elementlarning massa nisbatini aniqlang.
A) $Na_4P_2O_7$; 1,5:1:1,8
B) Na_3PO_4; 2,22:1:2,06
C) Na_3PO_4; 2,06:1:1,8
D) Na_2HPO_4; 2,2:1:1,8

59. (v13-112-36) 14,56 l (n. sh.) noma'lum oddiy gaz tarkibida $1,41 \cdot 10^{25}$ ta p va ē bor. Oddiy gazni aniqlang.
A) He B) Ne C) Ar D) Xe

60. (v13-163-29) 11,2 l (n. sh.) noma'lum oddiy gaz tarkibida $2,047 \cdot 10^{25}$ ta p va ē bor. Oddiy gazni aniqlang.
A) O_2 B) Cl_2 C) Ar D) F_2

61. (v14-101-14) 11,2 litrida (n. sh.) $54,18 \cdot 10^{23}$ ta elektron bo'lgan gazning formulasini toping.
A) NO B) CO C) H_2S D) NH_3

62. (v14-106-2) Noma'lum elementning bromidi va bromatining molyar massalari nisbati 1:1,522 ga teng. Noma'lum elementni aniqlang.
A) Rb B) Mg C) Ca D) K

63. (v15-101-32) Noma'lum elementning bromidi va bromatining molyar massalari nisbati 1:1,403 ga teng. Noma'lum elementni aniqlang.
A) K B) Sr C) Mg D) Fe

64. (v15-103-6) Kinovar (HgS) moddasini tashkil qilgan elementlarning massa nisbati qanday bo'ladi?
A) 1:1 B) 6,28:1 C) 3,14:1 D) 2:1

65. (v15-104-5) 2 mol miqdordan olingan XO va Y_2O larning massalari yig'indisi 200 g ni tashkil qiladi. Noma'lum elementlarni aniqlang. [Ar(X):Ar(Y) = 20:7]
A) Mg; H B) Ca; N C) Ne; Li D) Ca; Li

66. (v15-106-9) 3 hajm XO_2 va 2 hajm YO_2 aralashmasining geliyga nisbatan zichligi 13,3 ga teng. Agar gazlar teng hajmda olingan aralashmada kislorodning massa ulushi 32/55 ga teng bo'lsa, noma'lum elementlarni mos ravishda aniqlang.
A) N; S B) N; C C) S; C D) C; S

67. (v15-107-26) E_2O_5 tarkibli oksid tarkibida 34,8% kislorod bo'lsa, oksidni aniqlang.
A) N_2O_5 B) P_2O_5 C) Sb_2O_5 D) As_2O_5

68. (v15-124-26) Olti valentli elementning 0,4373 g ikki asosli kislotasi parchalanishidan 0,4058 g angidridi hosil bo'ldi. Kislotaning molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 118 B) 121 C) 250 D) 98

69. (v15-125-12) 1 hajm XO va 3 hajm YO_3 aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 33,75 ga teng. Agar gazlar 2:3 hajmda olingan aralashmadagi kislorodning massa ulushi 44/75 ga teng bo'lsa, noma'lum elementlarni mos ravishda aniqlang.
A) C; S B) N; Se C) N; S D) S; Se

70. (v16-105-20) Marganes (VII) oksiddagi marganesning massa ulushini toping.
A) 52% B) 48% C) 49,5% D) 51,5%

71. (v17-111-18) Elementning xloridi va perxloratida molyar massalari nisbati 1:2,347 ga teng. Elementni aniqlang.
A) Ca
B) K
C) Mg
D) Na

18. Moddalar massasining saqlanish qonuni. Tenglama bo'yicha masalalar

1. (97-1-59) 3,4 kg ammiak hosil qilish uchun necha litr vodorod va azot aralashmasi (n. sh.) talab etiladi [$A_r(N) = 14$]?
A) $2,24 \cdot 10^3$ B) $5,6 \cdot 10^3$
C) $3,36 \cdot 10^3$ D) $8,96 \cdot 10^3$
E) $6,72 \cdot 10^3$

2. (97-3-55) 6,5 gramm pyx 7,3 gramm vodorod xlorid bilan reaksiyaga kirishganda necha litr (n. sh. da) vodorod ajraladi? [$A_r(Zn) = 65$, $A_r(Cl) = 35,5$]
A) 22,4 B) 11,2 C) 5,6 D) 2,8 E) 2,24

3. (97-5-3) 57,5 g natriy kislorod bilan reaksiyasi natijasida natriy peroksid hosil bo'ldi. Reaksiyaga kirishgan natriyning mol miqdori, kislorod hajmi va hosil bo'lgan natriy peroksid massasi yozilgan qatorni toping.[$A_r(Na) = 23$]
A) 2 mol, 44,8 l, 78 g
B) 2,5 mol, 28 l, 97,5 g
C) 1,5 mol, 33,6 l, 39 g
D) 2 mol, 22,4 l, 97,5 g
E) 3 mol, 44,8 l, 117 g

4. (97-5-42) 75 kg kalsiy karbonat parchalanganda hosil bo'lgan uglerod (IV) oksid massasini, hajmini va miqdorini hisoblang.
A) 25 kg, 11,2 m^3, 600 mol
B) 33 kg, 16,8 m^3, 750 mol
C) 30 kg, 15 m^3, 700 mol
D) 35 kg, 18 m^3, 800 mol
E) 28 kg, 19 m^3, 750 mol

5. (97-7-2) Tarkibida $1,2 \cdot 10^{23}$ ta alyuminiy gidroksid molekulasi bo'lgan cho'kmani eritish uchun 49% li sulfat kislota eritmasidan necha gramm kerak?
A) 60 B) 50 C) 40 D) 30 E) 20

6. (97-7-6) 100 ml 2 M kaliy gidroksid eritmasi necha gramm alyuminiy gidroksidni kaliy geksagidroksoalyuminat hosil qilib eritishi mumkin?
A) 5,9 B) 7,7 C) 9,6 D) 13,6 E) 5,2

7. (97-9-3) 100 ml bir molyarli alyuminiy sulfat eritmasining qoldiqsiz reaksiyaga kirishi uchun necha millilitr bir molyarli qo'rg'oshin nitrat eritmasidan qo'shish kerak?
A) 200 B) 100 C) 33 D) 150 E) 300

8. (97-10-93) 24 g oltingugurt bilan qoldiqsiz reaksiyaga kirishadigan alyuminiy massasini toping.
A) 14,2 B) 14,0 C) 13,5 D) 13,0 E) 13,8

9. (97-10-94) 15 g alyuminiy sulfid hosil qilish uchun kerak bo'ladigan alyuminiy va oltingugurt massalarini toping.
A) 11,8 g Al; 3,2 g S B) 5,4 g Al; 9,6 g S
C) 2,7 g Al; 12,3 g S D) 8,6 g Al; 6,4 g S
E) 8,1 g Al; 6,9 g S

10. (97-11-66) 4,9 g sulfat kislotani neytrallash uchun necha gramm miqdorda kaliy gidroksid olinadi? [$M_r(H_2SO_4) = 98$, $M_r(KOH) = 56$]
A) 11,2 B) 5,6 C) 5,8 D) 6,0 E) 5,5

11. (97-11-96) Ikki mol miqdor suv ta'sirida kalsiy gidriddan necha litr (n. sh. da) vodorod olish mumkin?
A) 22,4 B) 33,6 C) 48,4 D) 44,8 E) 48,0

12. (97-11-131) 8,0 g mis (II) oksid vodorod bilan to'liq qaytarilganda, necha gramm mis hosil bo'ladi? [$A_r(Cu) = 64$, $A_r(O) = 16$]
A) 6,0 B) 6,2 C) 6,4 D) 3,5 E) 5,8

13. (97-11-134) 11,2 l (n. sh. da) sulfit angidridni qancha (g) natriy sulfitdan olish mumkin? [$A_r(S) = 32$, $A_r(Na) = 23$, $A_r(O) = 16$]
A) 60 B) 61 C) 63 D) 65 E) 66

14. (97-11-154) 21,7 g simob oksid parchalanganda, necha gramm kislorod ajraladi? [$M_r(Hg) = 201$]
A) 1,5 B) 1,4 C) 1,6 D) 1,7 E) 1,65

15. (97-11-163) Taxminan 4,5 l vodorod olish uchun sulfat kislota necha gramm rux bilan reaksiyaga kirishishi kerak? [$A_r(Zn) = 65$, $A_r(S) = 32$].
A) 12 B) 11 C) 13 D) 14 E) 15

16. (97-11-190) 224 kg xromli temirtosh rudasidan necha kilogramm xrom ajratib olish mumkin? [$A_r(Fe) = 56$, $A_r(Cr) = 52$, $A_r(O) = 16$]
A) 52 B) 104 C) 100 D) 90 E) 110

17. (97-12-8) Standart sharoitda (25°C; 101,325 kPa) 5,6 l vodorod olish uchun, rux metalli bilan konsentratsiyasi 2 mol/l bo'lgan xlorid kislota eritmasidan necha millilitr sarf bo'lgan? [$^{65}_{30}Zn$, $^{32}_{16}S$].
A) 410 B) 324 C) 273 D) 229 E) 172

18. (97-12-54) 8 g CuO bilan 4,9% li 195 ml sulfat kislota eritmasi ($\rho = 1,03$ g/ml) o'zaro ta'sir ettirildi. Eritma filtrlandi va suv hammomida bug'latildi. Bunda qancha (g) modda hosil bo'ladi?
A) 16 B) 20 C) 25 D) 30 E) 35

19. (98-1-4) Ruxning $6,02 \cdot 10^{22}$ atomlarining xlorid kislota bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan vodorodning massasini (g) ko'rsating [$A_r(Zn) = 65$].
A) 100 B) 50 C) 10 D) 5 E) 0,2

20. (98-1-5) 67,2 l (n. sh.) uglerod (IV) oksid olish uchun kalsiy karbonatning qanday massasi (g) talab etiladi? [$A_r(Ca) = 40$, $A_r(C) = 12$]
A) 50 B) 100 C) 125 D) 300 E) 250

21. (98-7-16) Metallotermiya usulida 1 mol vanadiy (V) oksiddan kalsiy metali bilan qaytarib, necha gramm vanadiy olish mumkin? [$N_r(V) = 51$, $N_r(O) = 16$; $N_r(Ca) = 40$]
A) 102 B) 51 C) 26 D) 204 E) 91

22. (98-7-31) 0,672 l vodorod va 0,224 l azotdan necha litr ammiak sintez qilish mumkin?
A) 0,224 B) 0,112 C) 0,448 D) 0,336
E) 0,560

23. (98-7-34) 170 g natriy nitratdan 63% li nitrat kislota eritmasini necha gramm olish mumkin? [$M_r(Na) = 23$, $M_r(N) = 23$, $M_r(O) = 16$]
A) 100 B) 180 C) 190 D) 200 E) 210

24. (98-12-17) 28,2 t kaliy oksiddan qancha massa (t) potash olish mumkin?
A) 12,3 B) 28,2 C) 36,7 D) 19,5 E) 41,4

25. (98-12-44) 10% li magniy sulfat eritmasining 200 g miqdori bilan 5% li bariy xloridning 350 g eritmasi aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma massasini (g) hisoblang. [$M_r(Mg) = 24$, $M_r(Ba) = 137$, $M_r(S) = 32$]
A) 19,6 B) 9,6
C) 12,4 D) 4,0 E) 23,1

26. (98-12-51) Temir kuyundisining 46,4 kg miqdori vodorod oqimida qaytarilganda, necha kilogramm temir hosil bo'ladi? [$M_r(Fe) = 56$].
A) 42,2 B) 23,2
C) 11,2 D) 11,6
E) 33,6

27. (99-1-20) 10,7 g ammoniy xloridga 14,8 g kalsiy gidroksid qo'shib qizdirilganda, qancha (l) ammiak hosil bo'ladi? Reaksiya unumi 98%.
A) 6,2 B) 5,5 C) 4,4 D) 7,5 E) 8,0

28. (99-6-37) Malaxit kuydirilganda hosil bo'lgan qattiq, moddaning molyar massasini toping.
A) 162 B) 178 C) 80 D) 98 E) 144

29. (99-6-79) Tarkibida 196 g sulfat kislota bo'lgan eritmani neytrallash uchun kaliy ishqorning 0,2 M li eritmasidan qancha hajm (l) talab etiladi?
A) 1 B) 2 C) 4 D) 20 E) 10

30. (99-7-31) Agar titan (IV) xloridni natriy gidrid ishtirokida qaytarish jarayonida 4,48 l oddiy gaz modda hosil bo'lsa, reaksiyada qancha natriy gidrid qatnashgan?
A) 9,6 B) 4,8 C) 19,2 D) 6,4 E) 12,8

31. (99-10-27) 4 g vodorod hosil qilish uchun necha gramm kaliy gidrid suv bilan reaksiyaga kirishishi kerak?
A) 20 B) 80 C) 40 D) 60 E) 120

32. (00-5-16) 10,8 g alyuminiy xlorid kislotada va natriy ishqorida eriganda hosil bo'ladigan vodorod hajmlarini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 13,44; 13,44 B) 26,88; 13,44
C) 13,44; 26,88 D) 26,88; 26,88
E) 22,4; 22,4

33. (00-9-42) 10% li 60 g sulfat kislotani to'la neytrallash uchun natriy gidroksidning 10% li eritmasidan necha gramm sarf bo'ladi?
A) 49,0 B) 45,5 C) 40,4 D) 50,2 E) 54,5

34. (00-10-16) Volfram oksidi WO_3 dan 18,4 g volfram olish uchun necha gramm vodorod zarur?
A) 1,1 B) 0,60 C) 0,2 D) 0,44 E) 0,86

35. (01-1-30) 8 l oltingugurt (IV) oksid va kislorod aralashmasida moddalar orasidagi reaksiya natijasida 16 g oltingugurt (VI) oksid hosil bo'lgan. Boshlang'ich aralashmadagi har bir gazning hajmiy tarkibini (%) hisoblang.
A) 67; 33 B) 56; 44 C) 72; 28 D) 86; 14
E) 20; 80

36. (01-3-48) 4,8 g oltingugurt yonishidan hosil bo'lgan SO_2 dan qancha (g) sulfat kislota olish mumkin?
A) 7,2 B) 8,2 C) 9,8 D) 14,7 E) 0,64

37. (01-3-50) 7,2 g uglerodning yonishidan hosil bo'lgan karbonat angidriddan qancha massa (g) karbonat kislota olish mumkin?
A) 9,3 B) 18,6 C) 6,9 D) 37,2 E) 23,5

38. (01-3-94) 0,5 M li alyuminiy xlorid eritmasi (ρ = 1,12 g/ml) ning 200 ml hajmiga 51,3 g bariy gidroqsid qo'shildi. Reaksiya tugagandan keyin qolgan eritma massasini hisoblang.
A) 275,3 B) 238,5 C) 271,4 D) 267,5
E) 263,6

39. (01-5-31) 4 mol qattiq holatdagi NaBr ga yuqori haroratda konsentrlangan H_2SO_4 ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan tuzning massasini aniqlang.
A) 214 B) 142 C) 284 D) 242 E) 568

40. (01-6-51) Ikki mol ammoniy dixromat tuzini parchalab, necha litr azot gazi (n. sh.) olish mumkin?
A) 44,8 B) 22,4 C) 33,6 D) 11,2 E) 65,5

41. (01-7-12) Tegishli miqdordagi 3 M li (ρ = 1,09 g/ml) H_2SO_4 eritmasi bilan 218 g $BaCl_2$ tuzining o'zaro reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan eritma va cho'kmaning massalari nisbatini aniqlang.
A) 354,6; 244,2 B) 392,22; 206,58
C) 341,2; 257,6 D) 366,8; 232
E) 334,4; 264,4

42. (02-3-54) Hajmi 1 l bo'lgan azot (II) oksid 5 l havo bilan aralashtirildi. Azot (II) oksid batamom azot (IV) oksidga aylangandan keyin azot (IV) oksid kislorod va azotning hajmlarini (l) ko'rsating.
A) 1; 1; 4 B) 1; 1,5; 3
C) 1,5; 0,5; 4 D) 0,5; 1; 3
E) 1; 0,5; 4

43. (02-6-2) Quyidagi sxema
$Cu \rightarrow Cu(NO_3)_2 \rightarrow Cu(OH)_2$ bo'yicha 24,5 g mis (II) gidroksid olish uchun 62% li nitrat kislotadan necha gramm olish kerak?
A) 39,5 B) 79 C) 118,5 D) 158 E) 237

44. (02-6-44) 21,525 g kumush xlorid cho'kmasini hosil qilish uchun kumush nitratning 2% li eritmasi bilan 3,5% li osh tuzi eritmasidan qancha grammdan olish kerak?
A) 1700 va 2755 B) 1585 va 2450
C) 1435 va 2350 D) 1800 va 2530
E) 1275 va 2507

45. (02-10-33) 8 l NH_3 ning hammasi N_2 va H_2 ga aylantirilsa, hosil bo'lgan vodorod hajmi azotning hajmidan necha litr ko'p bo'ladi?
A) 2 B) 4 C) 6 D) 8 E) 3

46. (02-11-35) Quyidagi sxemada magniy nitrid $\xrightarrow{H_2O}$ X $\xrightarrow{P_2SO_4}$ Y u massasi 150 g bo'lgan magniy nitriddan olingan, u moddaning massasini hisoblab toping (x modda-gaz, P_2SO_4 ning massasi esa 150 g ekanligini hisobga oling).
A) 396 B) 172,5 C) 345 D) 198 E) 210

47. (02-11-56) Quyidagi sxema:
$D_2O \xrightarrow{CaC_2}$ X $\xrightarrow{D_2O,D_2SO}$ Y $\xrightarrow{H_2}$ Z
bo'yicha 96 g kalsiy karbid va 54 g og'ir suv olingan bo'lsa, oxirgi modda g massasini (g) hisoblang.
A) 69 B) 70,2 C) 62,1 D) 67,5 E) 75

48. (02-12-52) $TiO_2 + Cl_2 + C \rightarrow$ reaksiyani tugallab, 28 g metall oksidi bilan reaksiyaga kirishgan va hosil bo'lgan gaz moddalarining hajmini (n. sh. da) hisoblang.
A) 15,68; 15,68 B) 25,5; 22,4
C) 22,4; 22,4 D) 11,2; 22,4
E) 11,2; 8,96

49. (03-3-40) 196 g sulfat kislotani to'liq neytrallash uchun qancha (g) kristall soda kerak bo'ladi?
A) 643 B) 544 C) 583 D) 572 E) 598

50. (03-4-3) Xona temperaturasida oltingugurt bug'i tarkibidagi bitta molekula Sx ning massasi $4,26 \cdot 10^{-22}$ g ga teng. Oltingugurt atomining massasi $5,32 \cdot 10^{-23}$ g ga teng bo'lsa, polioltingugurtdagi "x"ning qiymatini toping.
A) 6 B) 8 C) 10 D) 12 E) 14

51. (03-4-9) Tarkibida ikki atom misga bir atom kislorod to'g'ri keladigan modda ma'lum. Ikkala boshlang'ich modda to'liq reaksiyaga kirishishi uchun ularni qanday nisbatda olish kerak?
1) 8 g:1 g; 2) 8 m.a.b:1 m.a.b;
3) $3,76 \cdot 10^{22} : 18,8 \cdot 10^{21}$.
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 2 D) 1 E) 1, 2, 3

52. (03-5-2) Suyultirilgan sulfat kislotaga rux ta'sir ettirilganda ajralayotgan vodorodga asosan qanday gazlar aralashgan bo'ladi?
A) vodorod sulfid, oltingugurt(IV) oksid
B) arsin, stibin
C) vodorod sulfid, azot(IV) oksid
D) stibin, vodorod sulfid
E) vodorod sulfid, telurovodorod

53. (03-6-48) $3,01 \cdot 10^{23}$ ta temir atomi bilan birika oladigan oltingugurtning massasini (g) toping.
A) 6 B) 16 C) 24 D) 12 E) 32

54. (03-8-10) Quyidagi
$Zn + H_2SO_4 = ZnSO_4 + H_2S + S + SO_2$ reaksiya uchun 65 g rux olingan bo'lsa, qancha hajm (l, n. sh.) gaz ajraladi?
A) 5,6 B) 11,2 C) 22,4 D) 44,8 E) 67,2

55. (03-12-11) Temirning mis(II) sulfat eritmasi bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida 128 g mis ajralib chiqqan bo'lsa, necha gramm temir(II) sulfat hosil bo'lgan?
A) 304 B) 403 C) 204 D) 156 E) 152

56. (03-12-28) 0,68 g murakkab modda yonganda, 1,28 g sulfit angidrid va 0,36 g suv hosil bo'ldi. Shu moddaning oddiy formulasini toping.
A) H_2S B) S
C) H_2SO_3 D) FeS
E) to'g'ri javob yo'q

57. (04-1-45) 122,5 g Bertole tuzi parchalanishidan 0°C va 101,3 kPa bosimda hosil bo'lgan kislorod moddasi massasini toping.
A) 2,00 B) 1,50 C) 1,00 D) 1,75 E) 3,00

58. (04-1-77) Soni $3,01 \cdot 10^{23}$ ta bo'lgan temir atomi bilan qoldiqsiz reaksiyaga kirishish uchun talab etiladigan oltingugurtning massasini (g) hisoblang.
A) 6 B) 16 C) 24 D) 12 E) 32

59. (04-1-85) 22,2 g malaxit qattiq qizdirilganda uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 4 B) 16 C) 8 D) 28 E) 32

60. (04-1-319) Tarkibida 2,67 g alyuminiy xlorid bo'lgan eritmaga 4,0 g kaliy sulfid qo'shilganda hosil bo'ladigan cho'kmaning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,234 B) 1,56 C) 0,02 D) 0,01 E) 0,78

61. (04-1-514) Suyultirilgan sulfat kislotadan magniy erishi natijasida 5,6 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Necha mol magniy reaksiyaga kirishgan?
A) 1,2 B) 0,25 C) 6 D) 1,8 E) 3

62. (04-1-560) 11,1 g malaxitning parchalanishidan 0,56 l (n. sh. da) karbonat angidrid ajralib chikqan bo'lsa, qancha g malaxit parchalangan?
A) 4,46 B) 5,08 C) 8,93 D) 50 E) 9,86

63. (04-1-610) Reaksiyaga kirishgan xlor moddasi massasi qanday bo'lganda 32 g oltingugurt xlor bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 67,5 g S_2Cl_2 hosil bo'ladi?
A) 45,0 B) 35,5 C) 1,50 D) 71 E) 1,00

64. (04-1-628) 2,5 mol sulfat kislotani to'la neytrallash uchun 0,5 kg kaliy ishqori eritmasi sarf bo'lsa, ishqorning eritmadagi massa ulushi qancha bo'ladi?
A) 0,22 B) 0,28 C) 0,32 D) 0,56 E) 0,40

65. (04-1-632) Suyultirilgan sulfat kislotadan rux erishi natijasida 22,4 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqqan bo'lsa, necha gramm rux reaksiyaga kirishgan?
A) 98 B) 130,74 C) 65,37
D) 49 E) 32,7

66. (04-1-634) Suyultirilgan sulfat kislotada rux eritilganda 11,2 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Reaksiyaga kirishgan ruxning massasini (g) hisoblang.
A) 65,4 B) 16,35 C) 49 D) 8,2 E) 32,7

67. (04-1-637) Reaksiya unumi 100% bo'lsa, 1 tonna sulfat kislota ishlab chiqarish uchun necha mol pirit kerak bo'ladi?
A) 1224 B) 918 C) 612 D) 5100 E) 459

68. (04-1-662) Magniyning suyultirilgan nitrat kislota bilan reaksiyasida NO hosil bo'lgan. Unda 3 mol magniy necha mol HNO_3 bilan reaksiyaga kirishgan.
A) 2,0 B) 2,7 C) 4 D) 8 E) 10

69. (04-1-678) 60 g ammoniy nitratning parchalanishidan hosil bo'ladigan azot oksidi miqdoriga teng bo'lgan mahsulotni hosil qilish uchun, necha gramm magniy bilan nitrat kislota reaksiyaga kirishishi kerak?
A) 72 B) 144 C) 36 D) 228 E) 216

70. (04-1-706) 6,6 g uglerodning yonishidan hosil bo'lgan karbonat angidriddan qancha mol karbonat kislota olish mumkin?
A) 0,3 B) 1,86 C) 34,1 D) 37,2 E) 0,55

71. (04-1-726) Malaxit minerali termik parchalanganda 22 g uglerod (IV) oksid hosil bo'lgan. Reaksiyada qanday massadagi (g) mineral ishtirok etgan?
A) 104 B) 111 C) 120 D) 108 E) 114

72. (05-1-303) O'rta tuz hosil bo'lishi uchun 28 g kaliy gidroksid bo'lgan eritmaga necha gramm vodorod sulfid yutilishi kerak?
A) 34 B) 8,5 C) 2,55 D) 0,5 E) 17

73. (05-1-369) Suyultirilgan sulfat kislotada rux erishi natijasida 16,8 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqqan bo'lsa, necha gramm rux reaksiyaga kirishgan?
A) 98 B) 130,74 C) 65,37 D) 48,75 E) 32,7

74. (v4-104-27) 6,8 g ammiakdan ammoniy sulfat olish uchun 30% li sulfat kislota eritmasidan necha gramm kerak bo'ladi?
A) 65,32 B) 52,26 C) 32,66 D) 39,2 E) 19,6

75. (v4-106-27) Suyultirilgan sulfat kislotada rux eritilganda 5,6 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Reaksiyaga kirishgan ruxning massasini (g) hisoblang.
A) 17,0 B) 32,5 C) 16,25 D) 16,35 E) 28,8

76. (v4-107-9) Ikki tonna temir (II) oksididan necha tonna toza temir olish mumkin?
A) 1,6 B) 2,1 C) 1,4 D) 2,8 E) 6,7

77. (v4-107-28) Magniyning suyultirilgan nitrat kislota bilan reaksiyasida NO hosil bo'lgan. Unda 1,5 mol magniy necha mol HNO_3 bilan reaksiyaga kirishgan?
A) 4 B) 10 C) 2,0 D) 8 E) 2,7

78. (v4-110-26) 5 mol qattiq holatdagi NaBr ga yuqori haroratda konsentrlangan H_2SO_4 ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan tuzning massasini aniqlang.
A) 299 B) 359 C) 355 D) 351 E) 350

79. (v4-116-18) Ikki mol ammoniy dixromat tuzi termik parchalanganda, uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 33,6 B) 60,3 C) 44,8 D) 39,7 E) 55,2

80. (v4-129-18) 1,5 mol natriyning suv bilan reaksiyasi natijasida necha litr (n. sh.) vodorod hosil bo'ladi?
A) 33,6 B) 16,8 C) 1,68 D) 2,24 E) 3,35

81. (v5-101-12) 4,44 g malaxit parchalanganda 3,2 g mis (II) oksidi va 0,36 g suv hosil bo'lsa, necha gramm gaz ajralib chiqadi?
A) 0,66 B) 1,10 C) 0,44 D) 0,88 E) 0,22

82. (v5-104-24) 1,5 mol HNO_3 ni to'liq neytrallash uchun 20% li (ρ = 1,25 g/ml) KON eritmasidan necha millilitr kerak?
A) 350 B) 305 C) 336 D) 270 E) 320

83. (v5-125-1) "Moddalar massasini saqlanish qonuni"ni M. V. Lomonosovdan bexabar anchagina keyin kashf etdi.
A) J. P. Prust B) E. Franklend
C) Ya. Berselius D) R. Boyl
E) A. Lavuazye

84. (v5-127-1) ... "kimyoviy reaksiyalar natijasida moddalarning massasi o'zgaradi", degan noto'g'ri xulosaga kelgan edi.
A) fransuz olimi J. P. Prust
B) mashhur ingliz olimi R. Boyl
C) mashhur fransuz olimi A. Lavuazye
D) shved olimi Ya. Berselius
E) rus olimi M. V. Lomonosov

85. (v5-127-26) 49,7 g xlor olish uchun kaliy permanganat bilan ... ml 36,5% li (ρ = 1,17 g/ml) xlorid kislota reaksiyaga kirishishi kerak.
A) 191 B) 174,2 C) 81,75 D) 94,6 E) 224

86. (v6-102-12) 44,8 l (n. sh.) karbonat angidrid hosil qilish uchun necha gramm $CaCO_3$ ni parchalash zarur?
A) 50 B) 25 C) 200 D) 100

87. (v6-108-29) 56 l kislorod qancha hajm (l, n. sh.) ammiakni katalitik oksidlay oladi?
A) 11,2 B) 8,96 C) 44,8 D) 6,72

88. (v6-110-26) 212 g 1,5% li natriy karbonat eritmasiga 6,66 g alyuminiy sulfat kristallogidrati $(Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O)$ qo'shilganda hosil bo'lgan eritmaning massasini (g) toping.
A) 217,34 B) 218,66
C) 217,10 D) 215,78

89. (v6-114-25) Hajmi 1 l dan bo'lgan xlorid kislota (0,2 N) va natriy ishqori eritmalari (0,1 mol/l) aralashtirilishidan hosil bo'lgan eritmadagi xlor ionining massasini (g) toping.
A) 7,1 B) 3,55 C) 3,65 D) 5,85

90. (v6-119-12) 448 t kalsiy oksid olish uchun qancha (t) kalsiy karbonat kerak?
A) 200 B) 400 C) 600 D) 800

91. (v6-132-34) 13 g 16% li bariy xlorid eritmasi bilan 17,75 g 8% li natriy sulfat eritmasi aralashtirildi. So'ngra shu eritmaga 50 ml (0,2 mol/l) kumush nitrat eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan cho'kmaning umumiy massasini (g) toping.
A) 1,43 B) 2,33 C) 3,76 D) 5,2

92. (v7-102-28) 13,2 g ammoniy sulfat va 17 g natriy nitratdan iborat aralashma uzoq vaqt davomida qizdirilib, doimiy og'irlikka keltirilganda necha gramm modda qoladi?
A) 16 B) 30,2 C) 23,4 D) 14,2

93. (v9-101-5) 3,36 l (n. sh.) kislorod olish uchun necha gramm kaliy permanganatni termik parchalash kerak (reaksiya unumi 75%)?
A) 63,2 B) 47,4 C) 94,8 D) 31,6

94. (v9-102-23) 50 g malaxit kuydirilganda massasi 6,2 g ga kamaysa, hosil bo'lgan aralashmadagi malaxitning massasini (g) va mis (II) oksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 27,8; 36,5 B) 43,8; 16
C) 22,2; 6,2 D) 27,8; 16

95. (v9-103-29) 40,05 g alyuminiy xlorid tutgan eritmaga tarkibida 49,5 g kaliy sulfid bo'lgan eritma qo'shildi. Hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 31,2 B) 23,4 C) 35,1 D) 15,6

96. (v9-108-10) 4 g vodorod hosil qilish uchun necha gramm bariy gidrid kerak bo'ladi?
A) 166,8 B) 111,2
C) 152,9 D) 139

97. (v11-104-19) Tarkibida 37,4% xlor bo'lgan qalay xloridning formulasini aniqlang.
A) $SnCl_3$ B) $SnCl_4$
C) $SnCl_2$ D) $SnCl_5$

98. (v12z-251-33) 40,05 g aminokislota bilan to'la reaksiyaga kirishishi uchun NaOH ning 180 g 10% li eritmasi sarflandi. Aminokislotani toping.
A) glitsin B) valin C) alanin D) serin

99. (v12c-109-13) MnO_2 maxsus sharoitda NH_3 bilan reaksiyaga kirishganda 2,24 l (n. sh.) N_2 ajralib chiqdi. Reaksiya uchun olingan MnO_2 ning massasini (g) aniqlang.
A) 146,6 B) 78,68 C) 52,2 D) 87

100. (v12c-122-8) 195 g simob (II) nitratga yetarli miqdorda ishqor qo'shilganda hosil bo'ladigan sariq cho'kma massasini toping.
A) 128,6 B) 120,6 C) 141 D) 130,2

101. (v15-101-22) PbS ning 0,75 mol O_3 bilan oksidlanishidan hosil bo'lgan tuzning massasini (g) va gazning hajmini (l, n. sh.) toping.
A) 227,2; 16,8 B) 227,2; 84
C) 113,6; 8,4 D) 113,6; 16,8

102. (v16-109-3) 38,2 kg buradan necha mol bor olish mumkin?
A) 0,4 kmol B) 40 mol
C) 0,04 mol D) 0,4 mol

103. (v17-118-9) 10 g Mg OHCl parchalanganda hosil bo'lgan modda sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishganda qancha massa $MgSO_4$ hosil bo'ladi?
A) 14,45
B) 13,76 g
C) 20,16 g
D) 15,68 g

19. Gaz qonunlari. Mendeleyev-Klayperon tenglamasi

1. (96-1-1) Bir xil sharoitda bir xil hajmli idishlarda vodorod, xlor, azot, kislorod va uglerod (IV) oksid berilgan. Qaysi gazli idishdagi bosim eng yuqori?
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) uglerod (IV) oksid

2. (97-4-43) Kaliy permanganatning 31,6 g miqdori parchalanishidan hosil bo'lgan gaz 32°C, 101,325 kPa bosimda qancha hajmni (l) egallaydi?
A) 2,1 B) 2,5 C) 2,7 D) 2,9 E) 3,1

3. (97-8-46) Suv bug'ining 25°C da bosimi 3171 Pa ga teng bo'lganda, 1 ml hajmida nechta molekula bo'ladi?
A) $7,71 \cdot 10^{17}$ B) $6,02 \cdot 10^{23}$
C) $4,31 \cdot 10^{18}$ D) $3,01 \cdot 10^{23}$
E) $2,01 \cdot 10^{19}$

4. (98-7-12) Hajmi 2 l bo'lgan idishdagi Ag_2O 673 K da qizdirilganda ajraladigan kislorodning mol miqdorini aniqlang. Reaksiya $Ag_2O \rightleftarrows Ag + O_2$ ning muvozanat konstantasi K_P = 14,7 kPa.
A) $4,3 \cdot 10^{-3}$ B) $3,2 \cdot 10^{-3}$
C) $5,3 \cdot 10^{-3}$ D) $6,3 \cdot 10^{-3}$
E) $2,3 \cdot 10^{-3}$

5. (98-10-3) Qaysi gazning diffuziya tezligi (bir xil temperatura va bosimda) sekinroq bo'ladi?
A) vodorod B) geliy
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

6. (99-1-34) Sig'imi 15 l bo'lgan idishga massasi 30,3 g bo'lgan gazlar aralashmasi to'ldirilgan. Agar idishdagi temperatura 18° va bosim 122 kPa bo'lsa shu gazlar aralashmasining nisbiy molekulyar massasini aniqlang.
A) 30 B) 28 C) 40 D) 44 E) 34

7. (99-3-2) 2 l vodorodning 15°C va 100,7 kPa bosimdagi massasini (g) hisoblab toping.
A) 0,183 B) 0,168 C) 0,149 D) 0,161
E) 0,175

8. (99-3-42) 150 g vodorod peroksid eritmasiga oz miqdorda katalizator-marganes (IV) oksid qo'shildi, bunda 40°C va bosim 89 kPa da o'lchangan $2 \cdot 10^{-3}$ m^3 kislorod ajralib chiqdi. Boshlang'ich eritmadagi vodorod peroksidning massa ulushini hisoblab toping.
A) 2,0 B) 5,2 C) 3,1 D) 1,8 E) 2,9

9. (99-5-16) 0°C va 101,3 kPa bosimda 122,5 g bertole tuzi parchalanishidan qancha miqdor kislorod moddasi hosil bo'ladi?
A) 2,00 B) 1,50 C) 1,00 D) 1,75
E) 2,25

10. (99-6-89) Gaz holdagi uglerod (IV) oksid 10132,5 kPa bosim va 25°C da hajmi 50 l bo'lgan po'lat ballonda saqlanadi. Shu gazning massasini (kg) hisoblang.
A) 107,2 B) 7,5 C) 0,89 D) 9
E) 1,05

11. (99-7-40) Hajmi 10 l bo'lgan kislorod yostig'idagi kislorodning massasini (g) toping. yostiqdagi gaz bosimi 152 kPa.
A) 320 B) 180 C) 21,4
D) 14,3 E) 7,2

12. (99-7-49) Sulfit kislota bilan vodorod sulfid orasidagi reaksiya natijasida 25,6 g oltingugurt hosil qilish uchun 94 kPa bosim va 25°C da o'lchangan vodorod sulfid hajmini hisoblang.
A) 4,7 B) 7 C) 11 D) 14 E) 18

13. (99-10-30) Idish vodorod va xlor gazlari aralashmasi bilan to'ldirilgan. Shu aralashma orqali elektr uchqunlari o'tkazilganda, idishdagi bosim qanday o'zgaradi?
A) ortadi, so'ngra o'zgarmaydi
B) kamayadi
C) ortadi
D) kamayadi, so'ngra o'zgarmaydi
E) o'zgarmaydi

14. (00-4-17) 49°C da zichligi 1,129 g/l bo'lgan gazda kislorod bilan qanday gaz teng hajmda aralashgan ekanligini toping.
A) CO B) CO_2 C) Cl_2 D) Ar
E) CH_3Cl

15. (00-8-21) Azot bilan qaysi gaz aralashmasining normal atmosfera bosimi va 30°S dagi zichligi 1,223 g/l bo'ladi?
A) CO B) C_3H_8 C) H_2 D) CH_4
E) C_2H_4

16. (00-9-59) 250 kPa bosim va 20°C temperaturada massasi 5,1 gramm bo'lgan ammiak qancha hajmni egallaydi?
A) 3,0 B) 2,95 C) 2,90 D) 2,98 E) 2,92

17. (00-9-60) 25°C temperatura va 300 kPa bosimda 90 gramm etan qancha hajm egallaydi?
A) 25,00 B) 24, 55 C) 25,44 D) 24,00
E) 24,76

18. (01-3-97) Vodorod va xlor aralashmasidan iborat bo'lgan gazlar aralashmasi orqali elektr uchquni o'tkazilganda, idish bosimi qanday o'zgaradi?
A) o'zgarish bo'lmaydi
B) bosim ortadi
C) kamayadi
D) oldin ortadi, reaksiya oxirida kamayadi
E) oldin kamayadi, reaksiya oxirida ortadi

19. (01-7-42) Oddiy sharoitdagi gazning konsentratsiyasi 0,0285 mol/l edi. Agar idishdagi bosim 6 marta ortganda va boshqa holatda bosim 4,8 marta kamayganda, konsentratsiya qanday o'zgaradi?
A) 0,065 va 0,179 B) 0,09 va 0,072
C) 0,22 va 0,05 D) 0,17 va 0,06
E) 0,65 va 0,06

20. (01-7-51) Hajmi 5 l bo'lgan po'lat idishda 250 kPa bosim ostida 27°C sharoitidagi ammiakda nechta vodorod atomi mavjud?
A) $9,0 \cdot 10^{23}$ B) $9,1 \cdot 10^{24}$
C) $4,5 \cdot 10^{24}$ D) $4,5 \cdot 10^{23}$
E) $3,6 \cdot 10^{23}$

21. (01-7-57) Hajmi 624 ml bo'lgan gaz 17°C va bosim 104 kPa bo'lganda, 1,56 g massaga ega. Gazning molekulyar massasini toping.
A) 48 B) 58
C) 68 D) 78 E) 88

22. (01-8-30) Massasi 273 g bo'lgan gaz 20°C va normal bosimda 156,3 l hajmni egallasa, uning vodorodga nisbatan zichligini toping.
A) 19,6 B) 23,4 C) 21,8 D) 21,0 E) 25,1

23. (01-8-31) Azot bilan qaysi galoidvodorod aralashmasining 202,65 kPa bosim va 50°C dagi zichligi 1,886 g/l bo'ladi?
A) H_2S B) HCl C) HBr D) HI E) HF

24. (02-1-11) Sig'imi 500 ml bo'lgan berk idishda xlorid kislotaning zichligi 1,24 g/sm^3 bo'lgan 25% li eritmasidan 50 ml va 0,5 g rux metali bor.
Agar tajribadan oldingi sharoit normal holatda bo'lsa reaksiya tugagandan keyin bosim qancha bo'ladi?
A) 101,3 B) 136,2 C) 234,9 D) 115,4
E) 15,5

25. (02-1-12) Hajmi besh litr bo'lgan berk idishda 22,45 g kislorod va 5 g fosfor bor. Fosfor yondirildi, idish 0°C gacha sovutilsa, uning ichidagi bosim (kPa) qanchaga teng bo'ladi?
A) 227 B) 224, 5
C) 90,8 D) 317,6
E) 10,6

26. (02-1-59) Yarim mol miqdordagi ammiak 22° va 177,32 kPa bosim ostida joylashtirilgan. Shu gaz tarkibidagi vodorod atomlari sonini hisoblang.
A) 9,03 10^{23} B) $5,6 \cdot 10^{23}$
C) $15,1 \cdot 10^{23}$ D) $11,2 \cdot 10^{23}$
E) $4,5 \cdot 10^{23}$

27. (02-2-1) Massasi 0,666 g bo'lgan gazning 50°C, 120 kPa bosimdagi hajmi 480 ml bo'ladi. Shu gazning molyar massasini hisoblang.
A) 32 B) 62 C) 60 D) 48 E) 31

28. (02-3-55) 150°C da yopiq idishda teng hajmda olingan kislorod va atsetilen joylashtirilgan. Atsetilen kislorodda yongandan keyin idish temperaturasi boshlang'ich holatga keltirilganda bosim qanday o'zgaradi?
A) 10% ga ortadi B) 10% ga kamayadi
C) 20% ga ortadi D) o'zgarmaydi
E) 30% kamayadi

29. (02-5-26) Uglerod (IV) oksid 22°C da va 500 kPa bosimda hajmi 20 l bo'lgan idishda saqlanadi. Uning massasini (g) hisoblab toping.
A) 179,5 B) 201,4
C) 220,6 D) 240,6
E) 158,4

30. (02-6-22) Tarkibi $3CO + 2CO_2$ dan iborat 100 g gazlar aralashmasining 50°C va 98,6 kPa bosimdagi hajmini hisoblang.
A) 66 B) 72 C) 75 D) 79 E) 84

31. (02-6-61) Agar bosim 101,3 kPa ga teng bo'lsa, hajmi 1 l bo'lgan xlor qanday temperaturada (°C) 1 g massaga ega bo'ladi?
A) 864 B) 593 C) 600 D) 300 E) 273

32. (02-6-62) 27°C da hajmi 100 l bo'lgan idishda $3,01 \cdot 10^{24}$ ta gaz molekulalari bo'lsa, idishdagi bosim (kPa) qanday bo'lgan?
A) 101,3 B) 110,4 C) 124,7 D) 138
E) 202,6

33. (02-8-17) Hajmi 1 ml bo'lgan metan molekulalari sonini aniqlang (ρ = 96 kPa, t = 300 K).
A) $3,0 \cdot 10^{18}$ B) $2,3 \cdot 10^{19}$
C) $3,0 \cdot 10^{17}$ D) $2,7 \cdot 10^{18}$
E) $2,7 \cdot 10^{19}$

34. (02-8-18) Hajmi 5,6 l bo'lgan idishda (n. sh.) 1 g vodorod, 3,65 g vodorod xlorid va 35,5 g xlor to'ldirilgan. Idishdagi bosimni (kPa) hisoblang.
A) 202,6 B) 40,5 C) 445,6 D) 202,6
E) 402,1

35. (02-8-20) 1,5 mol gazning 25°C va 101325 Pa bosimda egallagan hajmini (l) hisoblang.
A) 36,67 B) 26,85 C) 38,44 D) 42,25
E) 48,86

36. (02-8-21) 23°C va 10000 Pa bosimda hajmi 22,4 l bo'lgan gazning n. sh. dagi hajmini (l) hisoblang.
A) 5,04 B) 4,04 C) 3,04 D) 2,04 E) 1,04

37. (02-8-24) 25°C va 101325 Pa bosimda gaz 1 m^3 hajmmi egallaydi. Shu temperatura va 405300 Pa bosimda bu gazning hajmi qancha bo'ladi?
A) 2,5 m^3 B) 0,5 m^3 C) 200 l D) 4 m^3
E) 250 l

38. (02-8-26) Massasi 1 g bo'lgan metall 27°C va normal bosimda 0,1188 l kislorodni biriktira oladi. Bu qaysi metall?
A) Ba B) Pb C) Sn D) Hg E) Mn

39. (02-8-28) 273 K da hajmiy $1,12 \cdot 10^{-2}$ m^3 bo'lgan idishga 0,042 kg azot va 0,008 kg metan to'ldirilgan. Idishdagi bosimni (kPa) hisoblang.
A) 303,8 B) 101,3 C) 405,1 D) 325,6
E) 426,9

40. (02-8-35) Qaysi gazning 1 gramm 0°C 101,1 kPa bosimda $5,1 \cdot 10^{-4}$ m^3 hajmni egallaydi?
1) N_2O; 2) N_2; 3) CO; 4) CO_2;
5) C_2H_4; 6) C_3H_8.
A) 2, 3, 5 B) 3, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 1, 4, 6
E) 3, 4, 6

41. (02-8-39) 0°C da hajmi 11,2 l bo'lgan idishda 1 g vodorod 8,5 g ammiak va 28 g azot aralashmasi to'ldirilgan. Idishdagi bosimni (kPa) hisoblang.
A) 101,3 B) 202,6 C) 405,1 D) 303,8
E) 810,2

42. (02-10-49) Idishdagi azot gaziga teng og'irlikda He gazi qo'shilsa, azot uchun quyidagi kattaliklardan qaysilari ortmaydi?
1) mol soni; 2) zarrachalar soni; 3) umumiy og'irlik; 4) hajmi; 5) bosim.
A) 1, 2
B) 1 yoki 2 C) 4 yoki 5
D) 2 yoki 3 E) 2 yoki 5

43. (03-1-36) 18° va 101,325 kPa bosimda 112 ml vodorod ajralib chiqishi uchun kislotada necha gramm rux eritilishi kerak?
A) 0,1 B) 0,5 C) 0,7 D) 0,3 E) 0,9

44. (03-6-41) Hajmi 3 l bo'lgan gazning bosimi 93,3 kPa ni tashkil etadi. Shu gaz hajmi 2,8 l bo'lguncha siqilsa, uning bosimi qanday (kPa) bo'ladi?
A) 80 B) 90 C) 110 D) 100 E) 120

45. (03-8-37) 40 g dimetilamin yonganda ajralib chiqqan azot 15°C va 95 kPa bosimda qanday hajmni (l) egallaydi?
A) 4,48 B) 5,60 C) 6,72 D) 8,96 E) 11,2

46. (04-1-43) 15°C va 100,7 Pa bosimdagi 4 l vodorodning massasini (g) hisoblab toping.
A) 0,183 B) 0,168 C) 0,000337
D) 0,337 E) 0,0337

47. (04-1-56) Bosimi 96 kPa va temperaturasi 300 K bo'lgan metanning 1 ml hajmidagi molekulalar sonini hisoblang.
A) $3{,}0\cdot10^{18}$ B) $2{,}7\cdot10^{19}$
C) $3{,}0\cdot10^{17}$ D) $2{,}7\cdot10^{18}$
E) $2{,}3\cdot10^{19}$

48. (04-1-57) Hajmi 22,4 l bo'lgan gazning 23°C va 1000 kPa bosimdan egallagan hajmini (l, n. sh.) toping.
A) 5,04 B) 2,46 C) 3,04 D) 4,04 E) 1,04

49. (04-1-58) Qaysi gazlarning 1 g miqdori 0°C va 101,1 kPa bosim ostida $5{,}1\cdot10^{-4}$ m^3 hajmni egallaydi?
1) N_2O; 2) N_2; 3) CO; 4) CO_2; 5) C_2H_4; 6) C_3H_8.
A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 3, 4, 6
E) 1, 3, 6

50. (04-1-79) Massasi 18,4 g bo'lgan metall hajmi 20 l (n. sh.) bo'lgan idishdagi xlor bilan qo'shib qizdirildi. Reaksiyadan keyin idishdagi bosim 55,93 kPa bo'lgan. Xlor bilan qaysi metall reaksiyada qatnashganligini aniqlang.
A) kaliy B) kalsiy
C) temir D) magniy
E) natriy

51. (04-1-107) Massasi 100 g va tarkibi $3CO + 2CO_2$ bo'lgan gazning 50°C va 98,6 kPa bosimdagi hajmini (l) hisoblang.
A) 66 B) 79 C) 75 D) 72 E) 84

52. (04-1-108) 27°C da 100 l hajmni egallagan $3{,}01\cdot10^{24}$ ta gaz molekulasi qanday bosimga (kPa) ega bo'ladi?
A) 124,7 B) 110,4 C) 101,3 D) 138,0
E) 202,6

53. (04-1-115) Hajmi 3 l bo'lgan idishdagi gaz 93,3 kPa bosim ostida turibdi. Agar gaz egallagan hajm 2,8 l gacha siqilsa, bosim qanday bo'ladi.
A) 80 B) 90 C) 110 D) 100
E) 120

54. (04-1-118) Doimiy temperaturada 5 l metan va 2 l azot aralashtirildi. Natijada idishdagi bosim 405,3 kPga teng bo'lgan. Metanga azot qo'shilmasidan oldingi bosimni aniqlang.
A) 252 B) 266 C) 272 D) 289
E) 302

55. (04-1-595) Hajmi 20 l bo'lgan idishda uglerod (V) oksid 22°C da va 500 kPa bosimda saqlanadi. Uning miqdorini (mol) hisoblab toping.
A) 179,5 B) 2 C) 4 D) 24,06
E) 15,84

56. (04-1-648) Sulfit kislota bilan vodorod sulfid orasidagi reaksiya natijasida 32,8 g oltingugurt hosil qilish uchun 94 kPa bosim va 25°C da o'lchangan vodorod sulfid hajmini hisoblang.
A) 4,7 B) 7 C) 11 D) 14 E) 18

57. (05-1-15) Suv bug'ining 10°C dagi bosimi 2733 Pa ga teng. Shu bug'ning besh ml da nechta suv molekulalari bo'ladi?
A) $1{,}75\cdot10^{6}$ B) $1{,}2\cdot10^{24}$
C) $7{,}0\cdot10^{19}$ D) $7{,}5\cdot10^{19}$
E) $3{,}5\cdot10^{18}$

58. (v4-103-25)
$HNO_3 + Al + KOH + H_2O \rightarrow K[Al(OH)_4] + NH_3$ reaksiya natijasida 4 g alyuminiy sarflangan bo'lsa, 27°C va 97,8 kPa bo'lgan sharoitda necha litr gaz ajralib chiqadi?
A) 1,3 B) 1,5 C) 1,6 D) 1,4
E) 1,2

59. (v4-123-17) Hajmi 624 ml bo'lgan gaz 27°C va bosim 120 kPa bo'lganda, 2,64 g massaga ega. Gazning molekulyar massasini toping.
A) 68 B) 88
C) 98 D) 78 E) 58

60. (v4-126-18) Hajmi 2,5 l bo'lgan po'lat idishda 250 kPa bosim ostida 27°C sharoitidagi ammiakda nechta vodorod atomi mavjud?
A) $4{,}5\cdot10^{24}$ B) $5\cdot10^{23}$
C) $9{,}0\cdot10^{23}$ D) $4{,}5\cdot10^{23}$
E) $9{,}1\cdot10^{24}$

61. (v4-127-18) Massasi 273 g bo'lgan gaz 20°C va normal bosimda 164 l hajmni egallasa, uning vodorodga nisbatan zichligini toping.
A) 21,8 B) 20,0 C) 19,6 D) 21,0
E) 23,4

62. (v5-101-17) 400 ml 2 atomli gazning massasi 27°C, 133322 Pa bo'lgan sharoitda 0,685 g ga teng. Bu qanday gaz?
A) Cl_2 B) O_2 C) F_2 D) H_2 E) N_2

63. (v5-119-18) 3 mol Bertolle tuzi to'liq parchalansa, 25°C va 90 kPa bo'lgan sharoitda ajralib chiqadigan gazning hajmini (l) aniqlang.
A) 82,58 B) 100,8 C) 123,8 D) 61,94
E) 92,8

64. (v9-105-35) Teng hajmli idishlarda bir xil massali (0°C) azot (1), vodorod (2), kislorod (3), karbonat angidrid (4) berilgan. Idishlardagi bosimning kamayib borish tartibini aniqlang.
A) 2, 1, 3, 4 B) 4, 1, 3, 2
C) 4, 3, 1, 2 D) 2, 3, 1, 4

65. (v9-122-6) Elektronlar soni teng bo'lgan metan va neon aralashmasining 0°C temperatura va 101,3 kPa boshidagi zichligini (g/l) hisoblang.
A) 0,8 B) 18 C) 1,2 D) 1,6

66. (v12z-231-22) 9 g suv bug'i 2 atm. bosimda 127°C temperaturada qanday hajmni (l, n. sh.) egallaydi?
A) 4,1 B) 10,4 C) 8,2 D) 3,2

67. (v13-105-6) 0,6 l (t = 360 K, P = 83200 Pa) hajmdagi noma'lum modda bug'ining massasi 1,3 g ga teng. Moddaning havoga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 2,29 B) 2,78 C) 2,44 D) 2,68

68. (v13-107-33) 22,35 g qattiq holdagi ishqoriy metalning xloridi konsentrlangan H_2SO_4 bilan ta'sirlashganda 20°C harorat va 1,2 atmosfera bosimida 6 litr (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Noma'lum metalni toping.
A) Na B) K C) Li D) Cs

69. (v13-132-29) 250 ml eritmada 3 g qandaydir uglevod eritilgan va bu eritmaning 12°C da osmotik bosimi 83,14 kPa ga teng bo'lsa, noma'lum uglevodorodning nisbiy molekulyar massasini aniqlang.
A) 342 B) 46 C) 180 D) 32

70. (v13-145-2) 40 g piridinni 200°C va 500 kPa bosim ostida katalitik gidrogenlash uchun zarur bo'ladigan vodorodning hajmini (l, n. sh.) toping.
A) 11,94 B) 40 C) 22,4 D) 11,2

71. (v14-115-12) 101,0325 kPa bosim va 300 K temperaturada azot oksidining zichligi 1,788 g/l ga teng bo'lsa, oksid formulasini toping.
A) N_2O B) N_2O_4 C) NO D) NO_2

72. (v15-114-21) 300 K va 83 kPa bosimda 20 litr ammiakdagi vodorod atomlari soniga teng sonda vodorod atomlari saqlagan metanning massasini (g) aniqlang.
A) 16 B) 8 C) 10,67 D) 12

73. (v15-116-19) 17 g ammiak hajmi 20 l bo'lgan idishga joylanib 600°C ga qadar qizdirilganda idishdagi bosim 435 kPa ga teng bo'ldi. Ammiakning parchalanish reaksiyasi unumini (%) aniqlang.
A) 28 B) 30 C) 20 D) 40

74. (v15-128-18) Qaysi aminning argon bilan aralashmasi zichligi 1,27 g/1 (normal bosim va 65°C) ga teng?
A) metilamin B) butilamin
C) izopropilamin D) etilamin

75. (v16-119-11) 12 g SO_2 gazi 15°C temperatura va 100 kPa bosimda qanday hajmni (litr) egallaydi?
A) 1,3 B) 9,8 C) 22,4 D) 4,5

76. (v17-102-9) Qandaydir galogenvodorodli N_2 bilan aralashma 70°C temperaturada normal bosim ostida bo'lsa, aralashmasining zichligi 0,711 g/l bo'lsa, noma'lum galogenli vodorod birikmasini toping.
A) HBr B) HF C) HCl D) HI

77. (v17-103-15) 152,5 kPa bosim bilan qon tomirda harakat qilayotgan 2 mol uglerod va 3 mol kislorod 90°C temperatura ostida qancha hajmni egallaydi?
A) 98,9 l B) 95,4 l
C) 90 l D) 91,5 l

78. (v17-105-6) 5,6 g massaga ega azot gazining 273 K harorat hamda 0,8 atmosfera bosimidagi hajmini (litr) aniqlang.
A) 5,6 B) 4,48 C) 3,36 D) 2,8

79. (v17-106-15) H_2 va O_2 massa ulushlari 49,1 l ga teng. 25°C temperaturada aralashma normal bosim ostida shu aralashmaning massasini toping.
A) 7,52 B) 8,49 C) 8 g D) 50 g

80. (v17-109-9) Kislorod va qanday gazning teng hajmli aralashmasining 127°C va 90 kPa dagi zichligi 1,3 g/l keladi?
A) NH_3 B) N_2O
C) PH_3 D) SO_2

81. (v17-111-24) Normal sharoitda gazning bosimi 4 marta, temperaturasi 2,5 marta oshirilganda uning molyar hajmi (litr/mol) nechaga teng bo'ladi?
A) 28 B) 14 C) 5,6 D) 22,4

82. (v17-119-26) 5,6 l idishda 1 g H_2; 8,5 g NH_3; N_2 28 g 0°C temperaturada qancha bosimni egallaydi?
A) 1,800 kPa
B) 800,5 kPa
C) 811 kPa
D) 810,2 kPa

83. (v17-120-10) CO_2 va O_2 massa ulushlari 76,1 l ga teng. 35°C temperaturada aralashma normal bosim ostida shu aralashmaning massasini va o'rtacha molyar massasini toping.
A) 111,7 g, 37,1 g/mol
B) 200,1 g, 47,2 g/mol
C) 100,5 g, 44,2 g/mol
D) 156,9 g, 32,5 g/mol

20. Ekvivalent. Ekvivalentlar qonuni

1. (97-4-62) Olti valentli element oksidining 48% ni kislorod tashkil etsa, uning atom massasi nechaga teng bo'ladi?
A) 32 B) 52 C) 55 D) 96
E) 79

2. (97-11-174) Olti valentli element oksidi tarkibida 33% kislorod bor. Shu elementni aniqlang.
A) $^{32}_{16}S$ B) $^{53}_{24}Cr$ C) $^{79}_{34}Se$
D) $^{96}_{42}Mo$ E) $^{128}_{52}Te$

3. (97-12-3) 5,1 g uch valentli element oksidi vodorod bilan qaytarilishi natijasida 2,7 g suv hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi element oksidi olingan?
[$^{52}_{24}Cr$, $^{56}_{26}Fe$, $^{11}_{5}B$, $^{27}_{13}Al$, $^{59}_{27}Co$]
A) xrom B) temir C) bor
D) alyuminiy E) kobalt

4. (97-12-57) Bir xil miqdordagi metall 0,4 g kislorodni yoki 3,995 g galogenni biriktirib olishi mumkin. Bu qaysi galogen?
A) ftor B) xlor C) brom D) yod
E) astat

5. (98-1-47) Bir valentli kation hosil qiladigan metalning 7,8 g miqdori suv bilan reaksiyaga kirishganda, 2,24 l gaz modda hosil bo'ladi. Bu qaysi metall?
A) Kumush B) Litiy
C) Mis D) Kaliy
E) Natriy

6. (98-2-58) 3,2 g uch valentli metall gidroksididan 7,7 g metall nitrati olindi. Bu qaysi metall? [A_r(Al) = 27, A_r(Fe) = 56, A_r(Sc) = 45, A_r(Cr) = 52, A_r(Co) = 59]
A) alyuminiy B) temir
C) skandiy D) xrom
E) kobalt

7. (98-7-19) Ikki valentli kation hosil qiluvchi 6,85 g metalga suv ta'sir ettirilganda, 1,14 l gaz (n. sh. da) ajralib chiqqan. Bu qaysi metall ekanligini aniqlang. [N_r(Mg) = 24, N_r(Ca) = 40, N_r(Zn) = 65, N_r(Ba) = 137, N_r(Sr) = 88]
A) stronsiy B) kalsiy
C) magniy D) rux
E) bariy

8. (98-8-5) Massasi 8,5 g bo'lgan ishqoriy metall mo'l miqdor suv bilan ta'sirlashganda 1,12 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Qanday metall olingan edi?
A) kaliy B) litiy C) natriy D) seziy
E) rubidiy

9. (98-8-91) 4,80 g noma'lum metall oksidi vodorod oqimida qaytarilishdan 1,62 g suv hosil bo'ldi. Shu metall xlor oqimida qizdirilganda metalning uchta xlor tutgan birikmasi hosil bo'ladi. Qanday oksid qaytarilganini toping.
A) temir (III) oksid B) alyuminiy oksid
C) xrom (III) oksid D) magnetit
E) xrom (III) oksoxlorid

10. (98-8-96) Besh valentli element oksidi tarkibida 56,33% kislorod bor. Elementning nisbiy atom massasini aniqlang.
A) 75 B) 31
C) 14 D) 122
E) 208,5

11. (99-6-33) Tarkibida 40% kislorod bo'lgan ikki valentli metall oksididagi metalning molyar massasini hisoblang.
A) 40 B) 24 C) 16 D) 64 E) 65

12. (99-6-34) Beshinchi guruh elementining eng yuqori oksidi tarkibida 34,8% kislorod bo'lsa, bu qaysi element ekanligini toping.
A) fosfor B) azot
C) mishyak D) vanadiy
E) surma

13. (99-10-4) 50 g ikki valentli metall karbonati parchalanganda, 11,2 l karbonat angidridi ajralib chiqdi. Bu tuzning nomini aniqlang.
A) bariy karbonat B) magniy karbonat
C) berilliy karbonat D) kalsiy karbonat
E) dolomit

14. (00-3-33) 6,4 g kislorod massasi 16,0 g bo'lgan element bilan birikib, EO tarkibli oksid hosil qilgan bo'lsa, elementning nomini aniqlang.
A) magniy B) bariy C) kalsiy
D) stronsiy E) simob

15. (00-9-19) Oksidlanish darajasi +4 bo'lgan metallmas kislorod bilan birikib massa ulushi 50% bo'lgan oksid hosil qiladi. Bu elementni aniqlang.
A) oltingugurt B) azot
C) fosfor D) tellur
E) selen

16. (01-1-20) Massasi 19 g bo'lgan VIII gruppa elementining xlor bilan reaksiyasi natijasida 55,25 g xlorid hosil bo'lgan. Metalni aniqlang.
A) temir B) kobalt
C) nikel D) platina E) palladiy

17. (01-4-129) Quyidagi reaksiyani oxiriga yetkazing va oksidlovchining ekvivalent massasini aniqlang.
$FeSO_4 + H_2O_2 + H_2SO_4 \rightarrow$
A) 51 B) 18 C) 16 D) 34 E) 17

18. (01-4-130) Quyidagi reaksiyani oxiriga yetkazing va qaytaruvchining ekvivalent massasini aniqlang.
$FeSO_4 + K_2Cr_2O_7 + H_2SO_4 \rightarrow$
A) 152 B) 76 C) 284 D) 142
E) 71

19. (01-6-18) Vodorodli birikmasining formulasi HE bo'lgan elementning yuqori oksidi tarkibida 41,17% kislorod bor. Bu qaysi element?
A) ftor B) brom C) xlor D) yod
E) astat

20. (01-12-4) 2,45 g kislotani neytrallash uchun 2 g natriy gidroksid sarflandi. Kislotaning ekvivalent molyar massasini toping.
A) 36,5 B) 32,7 C) 63,0 D) 49,0
E) 31,0

21. (01-12-6) Tarkibida 47% kislorod bo'lgan oksid tarkibidagi metalning ekvivalent molyar massasini aniqlang.
A) 12 B) 23 C) 20 D) 9 E) 8

22. (02-7-21) Davriy sistemaning IV gruppa elementi hosil qilgan yuqori valentli xloridi va oksidining molekulyar massalari nisbati 17:6. Bu qaysi element?
A) uglerod B) kremniy
C) germaniy D) kaliy E) qo'rg'oshin

23. (02-7-23) Ortofosfat kislotaning 100 ml 0,1 mol/l eritmasini neytrallash uchun 450 ml (n. sh. da) ammiak sarflandi. Bu reaksiyada kislotaning ekvivalentini toping.
A) 98,00 B) 32,67 C) 49,00
D) 147,00 E) 196,00

24. (02-8-19) 10 g metall n. sh. da 6 l xlor bilan to'liq reaksiyaga kirishdi. Shu metalning nomini va valentligini aniqlang.
A) Cr, 2 B) Fe, 2 C) Cr, 3 D) Fe, 3
E) Ti, 4

25. (02-8-22) Agar 2,69 g metall xloridan 1,95 g metall gidroksid olingan bo'lsa, metalning ekvivalent massasini (g/mol) aniqlang.
A) 27,25 B) 31,75 C) 33,45 D) 35,15
E) 68,50

26. (02-8-23) 5 g metall oksid vodorod yordamida qaytarilib, 2,7 g suv olindi. Metalning ekvivalent massasini (g/mol) aniqlang, u qanday oksid hosil qiladi?
A) 51,75; PbO_2 B) 8,67; CrO_3
C) 30,67; WO_3 D) 10,2; V_2O_5
E) 32; Cu_2O

27. (02-8-29) 1 mol temir (III) digidroksoxlorid 2 mol xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishgan. Reaksiyaga kirishgan tuzning ekvivalent massasini (g/mol) aniqlang.
A) 125,50 B) 62,75 C) 41,83
D) 31,37 E) 25,20

28. (02-8-30) Kalsiy gidrofosfat ortofosfat kislota bilan ekvimolekulyar nisbatda reaksiyaga kirishadi. Tuzning ekvivalent massasini (g/mol) aniqlang.
A) 136,0 B) 68,0 C) 45,3 D) 34,0
E) 27,2

29. (02-8-31) 3,6 g metall oksidning vodorod bilan qaytarilishi natijasida 0,81 g suv hosil bo'ladi. Metalning ekvivalent massasini (g/mol) hisoblang.
A) 26 B) 9 C) 28 D) 24 E) 12

30. (02-8-32) 6,3 g metall nitratdan 2,7 g metall oksid olindi. Metalning ekvivalent massasini (g/mol) hisoblang.
A) 32,5 B) 32 C) 24,5 D) 24
E) 20

31. (02-8-37) Alyuminiy digidroksoxloridning xlorid kislota bilan ekvimolyar nisbatda olingan reaksiyasidagi ekvivalent massasini (g/mol) hisoblang.
A) 24,12 B) 32,2 C) 48,5 D) 72,6
E) 96,5

32. (02-8-40) Massasi 14 g bo'lgan metall havoda yonib, 20 g oksid hosil qildi. Metalning ekvivalent massasini va oksidining formulasini aniqlang.
A) 9; Al_2O_3 B) 17,33; Cr_2O_3
C) 32; Cu D) 18,66; Fe_2O_3
E) 28; FeO

33. (02-8-59) Natriy gidroksidning fosfat kislota bilan neytrallanish reaksiyasida kislotaning ekvivalent massasi 49 g/mol bo'lsa, qanday tuz hosil bo'ladi?
1) natriy fosfat; 2) natriy digidrofosfat;
3) natriy gidrofosfat.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 2, 3 E) 1, 2, 3

34. (02-9-17) Quyidagi reaksiyada $H_2S + Cl_2 + H_2O \rightarrow H_2SO_4 + HCl$ vodorod sulfidning ekvivalent massasini hisoblang.
A) 34 B) 17
C) 8,5 D) 5,67 E) 4,25

35. (02-12-67) 24,5 g 40% li H_3PO_4 eritmasini neytrallash uchun 1 H NaOH eritmasining 300 ml miqdori sarf. bo'lgan. Kislotaning ekvivalentini toping.
A) 32,6 B) 4,04
C) 23,3 D) 4,46
E) 8,32

36. (02-12-70) Kationi 3 valentli bo'lgan 5,4 g metall havoda qizdirilganda, shu metalning 10,2 g oksidi hosil qilingan. Qizdirish uchun qanday metall olingan?
A) Fe B) Al C) Ca D) Cr E) Mg

37. (03-1-1) 245 g 10% li kislota eritmasini neytrallash uchun 20 g NaOH sarf bo'ldi. Kislotaning ekvivalenti nechaga teng?
A) 36,5 B) 49,0 C) 32,6 D) 63,0
E) 41,0

38. (03-1-3) Metall oksidida metalning ekvivalent massasi kislorodning ekvivalent massasidan 2 marta katta. Oksidning massasi metalning massasidan necha marta katta?
A) 1,5 B) 2 C) 2,5 D) 3 E) 3,5

39. (03-1-4) 0,2 g kislorod va 3,17 g galogen bilan metall bir xil miqdorda birikadi. Galogenning ekvivalent massasini aniqlang.
A) 19,0 B) 35,5 C) 80,0 D) 127,0
E) 7,1

40. (03-1-5) Xlorning ekvivalent massasi 11,8 g/mol bo'lgan birikmani ko'rsating.
A) HCl B) HClO C) $HClO_3$ D) $HClO_4$
E) $HClO_2$

41. (03-1-12) Massasi 4,975 g ikki valentli metall oksidi vodorod yordamida qaytarilganda, 3,910 g metall ajralib chiqdi. Reaksiya uchun qaysi metall oksidi olingan?
A) Zn B) Cu C) Fe D) Cr E) Ni

42. (03-1-14) Oksidlanish darajasi 3 ga teng bo'lgan noma'lum elementning 19,4 g oksidi hosil bo'lishida 1,4 l O_2 (n. sh.) sarf bo'ldi. U qaysi element?
A) Fe B) Bi C) Cr D) Al E) Co

43. (03-3-27) Metalning galogenli birikmasi tarkibida 48,72% galogen, uning oksidi tarkibida 28,57% kislorod bor. Galogenni aniqlang.
A) ftor B) xlor C) yod D) brom
E) astat

44. (03-4-7) 5,1525 g marganes oksid alyuminotermiya usuli bilan qaytarilganda, $1{,}806 \cdot 10^{22}$ ta alyuminiy oksid hosil bo'ldi. Qaytarilgan oksid formulasini toping.
A) Mn_2O_3 B) Mn_3O_4 C) MnO D) MnO_2
E) Mn_2O_7

45. (03-6-44) 0,87 g vismutni oksidlash uchun 0,1 g kislorod sarflangan. Vismutning ekvivalent massasini aniqlang.
A) 69,6 B) 68,7 C) 79,6 D) 78,7
E) 88,6

46. (03-7-21) Bir xil miqdordagi metall 0,4 g kislorodni yoki 0,95 g galogenni biriktirib olishi mumkin. Bu qaysi galogen?
A) ftor B) xlor C) brom D) yod
E) astat

47. (03-7-59) 1,89 g kislotani neytrallash uchun 0,5 n o'yuvchi kaliy eritmasidan 60 ml sarflandi. Kislotaning ekvivalentini aniqlang.
A) 49,2 B) 63,0 C) 32,76 D) 36,5
E) 81,0

48. (03-8-32) 3 g metall yonganda, uning 5,67 g oksidi hosil bo'ldi. Oksiddagi metalning oksidlanish darajasi 13 ga teng bo'lsa, qanday metall olingan?
A) magniy B) alyuminiy C) natriy
D) kaliy E) kalsiy

49. (03-9-9) 6,5 g uch valentli metalning gidroksidi nitrat kislota bilan reaksiyada uning 17,75 g nitratiga aylandi. Metalni aniqlang.
A) xrom B) temir
C) indiy D) alyuminiy
E) kobalt

50. (04-1-83) Oltinchi guruh elementining vodorod bilan hosil qilgan birikmasi tarkibida 5,9% vodorod bor. Birikmaning molyar massasini toping?
A) 32 B) 28 C) 52 D) 34 E) 79

51. (04-1-106) Hajmi 100 ml bo'lgan 0,1 molyarli ortofosfat kislota eritmasini neytrallash uchun hajmi 450 ml (n. sh.) bo'lgan ammiak sarf bo'lgan. Ammiakning ekvivalenti 17 bo'lsa, shu reaksiyada kislotaning ekvivalent qiymatini hisoblang.
A) 49,0 B) 32,7 C) 98,0 D) 147,0
E) 196,0

52. (04-1-164) 5 g metall oksid vodorod yordamida qaytarilib, 0,625 g suv olindi. Metalning ekvivalent massasini (g/mol) aniqlang, u qanday oksid hosil qiladi?
A) 64; Cu_2O
B) 8,67; CrO_3
C) 30,67; WO_3
D) 10,2; V_3O_6
E) 32; Cu_2O

53. (04-1-165) 1 mol temir (III) digidroksoxlorid 2 mol xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishgan. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan tuzning ekvivalent massasini (g/mol) aniqlang.
A) 54,67 B) 62,75 C) 41,83 D) 31,37
E) 25,20

54. (04-1-167) Alyuminiy digidroksoxloridning xlorid kislota bilan ekvimolyar nisbatda olingan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan tuzning ekvivalent massasini (g/mol) hisoblang.
A) 24,12 B) 32,2 C) 48,25 D) 44,5
E) 96,5

55. (04-1-171) 163 g 10% li kislota eritmasini neytrallash uchun 20 g NaOH sarf bo'ldi. Kislotaning ekvivalenti nechaga teng?
A) 36,5 B) 49,0 C) 32,6 D) 63,0
E) 41,0

56. (04-1-172) Ikki valentli metalning ekvivalent massasi 32 g/mol ga teng. Shu metall hosil qilgan oksidning ekvivalent massasini hisoblang.
A) 30,0 B) 28,0 C) 20 D) 68,5
E) 40

57. (04-1-173) Metall oksidida metalning ekvivalent massasi kislorodning ekvivalent massasidan 4 marta katta. Oksidning massasi metalning massasidan necha marta katta?
A) 1,5 B) 2 C) 2,5 D) 3
E) 1,25

58. (04-1-174) Xlorning ekvivalent massasi 35,5 g/mol bo'lgan birikmalarni aniqlang: 1) HCl; 2) HClO; 3) $HClO_3$; 4) $HClO_4$; 5) $HClO_2$.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 4, 5 D) 1, 4
E) 1, 2, 3, 4, 5

59. (04-1-175) 3 g metall yonganda, uning 5 g oksidi hosil bo'ladi. Oksiddagi metalning oksidlanish darajasi +2 ga teng bo'lsa, qanday metall olingan.
A) magniy B) alyuminiy
C) natriy D) kaliy
E) kalsiy

60. (04-1-182) Normal sharoitda 10 g metall 6 l xlor bilan to'la reaksiyada qatnashdi. Metalni va uning valentligini aniqlang.
A) Cr, II B) Fe, III C) Cr, III D) Fe, II
E) Ti, IV

61. (04-1-184) Alyuminiy digidroksoxloridi va xlorid kislota o'zaro ekvimolekulyar nisbatda reaksiyaga kirishdi. Reaksiyaga kirishgan alyuminiy tuzning ekvivalent massasini (g/mol) hisoblang.
A) 24,12 B) 32,2
C) 72,6 D) 48,25
E) 96,5

62. (04-1-191) Massasi 245 g bo'lgan 10% li kislota eritmasini neytrallash uchun 20 g NaOH sarf bo'lgan. Kislota ekvivalentini hisoblang.
A) 36,5 B) 63,0 C) 32,6 D) 49,0
E) 41,0

63. (04-1-192) Metalning oksididagi ekvivalent massasi kislorodning ekvivalent massasidagi metall massasidan necha marta katta?
A) 1, 5 B) 2 C) 2, 5 D) 3 E) 3, 5

64. (04-1-195) Massasi 3,405 g bo'lgan metaldan uning 3,805 g oksidi hosil bo'lsa, oksidlanish darajasi +3 bo'lgan metalni aniqlang.
A) marganes B) alyuminiy
C) temir D) xrom
E) talliy

65. (04-1-196) 3,84 g kislotani neytrallash uchun 0,5 H kaliy ishqorining 60 ml hajmi sarf bo'lsa, kislota ekvivalentini hisoblang.
A) 49,0 B) 32,7 C) 60,0 D) 63
E) 128

66. (04-1-489) 8,0 g ikki valentli metall suv bilan reaksiyaga kirishganda, 4,48 l (n. sh.) da gaz ajralib chiqdi. Metall atomining absolyut massasini (kg) toping?
A) $6{,}7 \cdot 10^{-26}$ B) $6{,}7 \cdot 10^{-27}$
C) $1{,}1 \cdot 10^{-26}$ D) $4 \cdot 10^{-26}$
E) $4 \cdot 10^{-27}$

67. (04-1-494) Ikki valentli element oksidning 4,0 g ni eritish uchun 0,1 mol xlorid kislota sarflandi. Qaysi metall oksidi olingan?
A) berilliy oksid B) kalsiy oksid
C) rux oksid D) magniy oksid
E) mis (II) oksid

68. (04-1-551) Reaksiya uchun qaysi metall olinganda, uning 18 grammidan 50 g oksidi hosil bo'ladi?
A) magniy B) kalsiy
C) temir D) alyuminiy
E) berilliy

69. (04-1-563) Sakkizinchi gruppa elementining 19 grami xlor bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 0,318 mol xlorid hosil bo'lgan. Metalni aniqlang.
A) temir B) osmiy
C) nikel D) platina
E) palladiy

70. (04-1-617) Bir xil miqdordagi metall 0,4 g kislorodni yoki 0,95 g galogenni biriktirib olishi mumkin. Galogenning ekvivalenti nechaga teng?
A) 19 B) 35,5 C) 127 D) 80 E) 71

71. (04-1-618) Massasi 4,0 g bo'lgan ikki valentli element oksidini eritish uchun xlorid kislotaning 29,2% li eritmasidan 17,8 g sarflandi. Eritish uchun qaysi element oksidi olingan?
A) kalsiy B) temir C) magniy
D) bariy E) berilliy

72. (04-1-691) Besh valentli element oksidi tarkibida 74,07% kislorod bor. Element atomining absolyut massasini (kg) aniqlang.
A) 75 B) 31 C) 14
D) $2{,}34 \cdot 10^{-26}$ E) $1{,}67 \cdot 10^{-27}$

73. (05-1-36) Tarkibida azotning massa ulushi 0,30 bo'lgan oksidni ko'rsating.
A) azot (I) oksid
B) azot (III) oksid
C) azot (V) oksid
D) azot (II) oksid
E) azot (IV) oksid

74. (05-1-58) Tarkibida 30% kislorod bo'lgan oksid tarkibidagi metalning ekvivalent molyar massasini aniqlang.
A) 17,67 B) 19 C) 20 D) 9
E) 18,67

75. (05-1-358) Xlor oksidlaridan birida kislorodning 112 og'irlik qismiga xlorning 71 og'irlik qismi to'g'ri keladi. Xlorning atom massasi 35,5 ga teng bo'lsa, bu birikmaning formulasi va undagi xlorning valentligi qanday bo'ladi?
A) ClO_2; IV B) Cl_2O; I
C) Cl_2O_3; III D) Cl_2O_5; V
E) Cl_2O_7; VII

76. (v4-106-18) 1,575 g kislotani neytrallash uchun 1 g natriy gidroksid sarflandi. Kislotaning ekvivalent molyar massasini toping.
A) 63,0 B) 98 C) 64 D) 49,0 E) 1,5

77. (v4-112-9) 4,8 gramm metall suyultirilgan sulfat kislotada erib, metall (II) sulfat tuzini va 4,48 l vodorodni hosil qildi. Bu qanday metall?
A) Cr B) Ca C) Mn D) Zn E) Mg

78. (v4-112-18) Beshinchi guruh elementining vodorod bilan hosil qilgan birikmasi tarkibida 3,85% vodorod bor. Birikmaning molyar massasini toping.
A) 78 B) 54 C) 75 D) 124 E) 34

79. (v4-120-24) 0,46 g ikki asosli organik kislotani neytrallash uchun KOH ning 0,2 M eritmasidan 35 ml sarf bo'lgan. Kislotaning molyar massasini toping.
A) 180 B) 105 C) 110 D) 131
E) 115

80. (v5-104-11) 0,11 ortofosfat kislotaning 0,1 mol/l eritmasini neytrallash uchun 448 ml (n. sh.) ammiak sarflandi. Kislota ekvivalentini aniqlang.
A) 98 B) 39,2 C) 49 D) 24,5
E) 32,67

81. (v5-106-9) 2 g to'rt valentli element 0,378 l (n. sh.) kislorodni biriktirsa, shu elementni va uning ekvivalentini toping.
A) Pb; 51,75 B) N; 3,5
C) Sn; 29,63 D) S; 8
E) C; 3

82. (v5-109-3) Tarkibida 15,79% uglerod va 84,21% oltingugurt bo'lgan birikmadagi oltingugurtning valentligini va ekvivalentini toping.
A) VI; 5,33 B) VI; 8 C) II; 16
D) IV; 16 E) IV; 8

83. (v5-109-24) 0,64 g metalning suv bilan o'zaro ta'sirlashuvida 183,7 ml vodorod ajralib chiqdi. Metalning ekvivalentligini aniqlang.
A) 9 B) 20,03 C) 39 D) 31,25 E) 22,9

84. (v5-110-11) 0,1 l ortofosfat kislotaning 0,1 mol/l eritmasini neytrallash uchun 448 ml (n. sh.) ammiak sarflandi. Kislota ekvivalentini aniqlang.
A) 98 B) 39,2 C) 49 D) 24,5
E) 32,67

85. (v5-111-24) Ekvivalenti 12,16 ga teng bo'lgan magniyning 24,32 grammi bilan 98,08 gramm sulfat kislota reaksiyaga kirishadi. Sulfat kislota ekvivalentini toping.
A) 98,06 B) 8,16 C) 49,04 D) 24,57
E) 4,8

86. (v5-111-26) H_2S, SO_2, SO_3 birikmalardagi oltingugurtning ekvivalenti keltirilgan qatorni belgilang.
A) 16; 8; 5,33 B) 17; 8; 5,33
C) 17; 16; 13,3 D) 8; 8; 8
E) 16; 16; 16

87. (v5-113-9) Ekvivalenti 27,9 ga teng bo'lgan metalning ma'lum miqdordagi kislotaga ta'sir etishidan 0,7 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Reaksiyada ishtirok etgan metalning massasini (g) toping.
A) 1,83 B) 1,91 C) 1,74 D) 1,57
E) 1,65

88. (v5-114-9) 3 massa qism magniy 2 massa qism kislorod bilan birikadi. Magniyning ekvivalentini toping.
A) 12 B) 20 C) 24 D) 6 E) 48

89. (v5-115-18) 25 g metall oksidini qaytarish uchun 1,345 g uglerod sarflandi. Hosil bo'lgan metalni ishqorda eritilganda vodorod ajralib chiqdi. Metall oksidining formulasi – ... .
A) CaO B) Li_2O C) K_2O D) NiO
E) PbO

90. (v5-119-9) Metall gidridi tarkibida 4,76% vodorod bo'lsa, metalning ekvivalentini aniqlang.
A) 12,15 B) 40 C) 10,35 D) 3 E) 20

91. (v5-119-12) Uglerod (IV) oksididagi uglerodning ekvivalentini aniqlang.
A) 3 B) 22 C) 2 D) 6 E) 4

92. (v5-120-9) Mis (II) xlorid tuzining ekvivalentini aniqlang.
A) 49,75 B) 22 C) 135 D) 67
E) 67,5

93. (v5-120-10) Yuqori oksidi R_2O_7 bo'lgan qaysi elementning vodorodli birikmasida 1,23% vodorod bo'ladi?
A) brom B) selen C) ftor D) yod
E) xlor

94. (v5-121-9) 1,91 g ikki valentli metall oksidi uglerod bilan qaytarilganda 191,8 ml (n. sh.) is gazi va ... g metall hosil bo'ladi.
A) 2,93 B) 1,12 C) 1,77 D) 2,19
E) 3,6

95. (v5-122-9) 4,56 g magniy yonganda 7,56 g magniy oksidi hosil bo'ldi. Magniyning ekvivalentini aniqlang.
A) 20,16 B) 1,71
C) 12,16 D) 5,26
E) 13,26

96. (v5-123-10) Yuqori oksidi RO_3 bo'lib, uning vodorodli birikmasida 2,47% vodorod bo'lsa, bu qaysi element?
A) Te B) P C) S D) Cr E) Se

97. (v5-128-26) Yuqori oksidi R_2C_7 bo'lgan elementning vodorodli birikmasida 0,78% vodorod bo'lsa, bu qanday element?
A) marganes B) ftor
C) xlor D) brom
E) yod

98. (v5-131-25) $2{,}14 \cdot 10^{-3}$ kg metall kislotadan $2 \cdot 10^{-3}$ m^3 (n. sh.) vodorodni siqib chiqardi. Metalning ekvivalentini hisoblang.
A) 18,1 B) 52 C) 11,98 D) 20,1
E) 56,2

99. (v5-143-9) 16,8 g metalni eritish uchun 0,15 mol sulfat kislota sarflandi. Metalning ekvivalentini va reaksiya natijasida ajralib chiqqan vodorodning hajmini (l, n. sh.) toping.
A) 20; 5,6 B) 3,25; 5,04
C) 56; 3,36 D) 9; 11,2
E) 28; 4,48

100. (v5-153-25) Simob oksidi tarkibida 92,6% metall bor. Simobning ekvivalentini aniqlang.
A) 200 B) 104 C) 216 D) 100
E) 208

101. (v6-102-4) Cl_2, $HClO_2$, $AlCl_3$, $HClO_4$ birikmalaridagi xlorning ekvivalentligi to'g'ri keltirilgan qatorni belgilang.
A) 71; 11,83; 44,5; 7,1
B) 35,5; 35,5; 35,5; 35,5
C) 71; 35,5; 9; 17,75
D) 35,5; 11,83; 35,5; 5,07

102. (v6-103-3) To'rtinchi guruh elementlaridan birining kislorodli birikmasi tarkibida 53,3% kislorod borligi aniqlangan bo'lsa, shu elementning nomi nima?
A) kremniy B) uglerod
C) qalay D) germaniy

103. (v6-111-19) Yuqori oksidi EO_3 formulaga ega bo'lgan va vodorod bilan 2,47% vodorodli birikma hosil qiladigan element nomini toping.
A) Se B) S C) Po D) Te

104. (v7-101-3) $HBrO_3$, Br_2, KBr, $KBrO_4$ birikmalaridagi bromning ekvivalentligi to'g'ri keltirilgan qatorni belgilang.
A) 16; 80; 80; 11; 42
B) 80; 80; 80; 80
C) 5; 1; 1; 7
D) 80; 160; 240; 80

105. (v7-107-18) 8 g metall oksidini qaytarish uchun 2,24 l (n. sh.) vodorod sarf bo'lgan. Oksidning formulasini toping.
A) FeO B) ZnO C) NiO D) CuO

106. (v9-101-17) Oksidda metalning ekvivalent massasi kislorodning ekvivalent massasidan bir yarim marta katta. Ushbu oksidni aniqlang.
A) titan (IV) oksid B) niobiy (VI) oksid
C) marganes (III) oksid D) xrom (II) oksid

107. (v9-107-23) Bir xil miqdordagi metall 0,36 g kislorodni yoki 3,6 g galogenni biriktirib olishi mumkin. Galogenning ekvivalentini aniqlang.
A) 127 B) 35,5
C) 80 D) 19

108. (v9-107-32) 19,6 g metall suyultirilgan xlorid kislotada eritilganda 7,84 l (n. sh.) vodorod ajralsa, metalni aniqlang.
A) kremniy B) temir
C) ittriy D) rux

109. (v9-114-20) Oksidi R_2O_3 formulaga ega bo'lgan elementning vodorodli birikmasi tarkibida 3,84% vodorod bo'lsa, shu elementning nomini toping.
A) mishyak B) surma
C) fosfor D) azot

110. (v9-121-5) Uch valentli element oksidi tarkibida 30% kislorod bor. Shu elementning nisbiy atom massasini hisoblang.
A) 48 B) 56 C) 112 D) 160

111. (v9-124-22) Oltinchi guruh elementining eng yuqori oksidi tarkibida 60% kislorod bo'lsa, bu qaysi element ekanligini aniqlang.
A) S B) Te C) Po D) Se

112. (v11-103-17) Alyuminiy xloridning 267 gramm 5% li eritmasidagi alyuminiyni to'la natriy geksagidroksoalyuminatga o'tkazish uchun 20% li (ρ = 1,2 g/ml) natriy gidroksid eritmasidan qancha hajm (ml) zarur bo'ladi?
A) 89 B) 24 C) 100 D) 120

113. (v12z-204-19) VA asosiy guruh elementining vodorodli birikmasida vodorodning massa ulushi 17,6% ga teng. Ushbu elementni aniqlang.
A) P B) Bi C) As D) N

114. (v12z-207-16) Element xlorlanganda uning massasi 51,83% ga ortdi. Elementni aniqlang.
A) Mg B) Ca C) Fe D) Da

115. (v12z-246-20) 68,7 g oksidni alyuminotermiya usuli bilan qaytarish uchun 21,6 g alyuminiy sarflansa, hosil bo'lgan metall massasini (g) aniqlang.
A) 58,7 B) 50,4 C) 41,6 D) 49,5

116. (v12z-247-34) Element xlorlanganda uning massasi 295,83% ga ortdi. Elementni aniqlang.
A) Mg B) Ca C) Fe D) Ba

117. (v12c-104-29) Element oksidlanganda uning massasi 88,88% ga ortdi. Elementni aniqlang.
A) Be B) Al C) Mg D) Na

118. (v12c-105-6) VIA asosiy guruh elementining kislorodli birikmasida elementning massa ulushi 62,5% ga teng. Ushbu elementni aniqlang.
A) S B) Po C) Te D) Se

119. (v12c-107-2) Element yonganda uning massasi 24,6% ga oshdi. Elementni aniqlang.
A) Mn B) Fe C) Cu D) Zn

120. (v13-101-10) 5 gramm 2 valentli noma'lum metall suv bilan ta'sirlashib 9,25 g $M(OH)_2$ va 2,8 l (n. sh.) gaz hosil qilgan bo'lsa, metalni va uning ekvivalentni toping.
A) Ca, 20 B) Na, 23
C) Mg, 12 D) Au, 98,5

121. (v13-101-32) 4,05 g EO tarkibli biror element oksidi 3,65 g HCl bilan reaksiyaga kirishishi ma'lum bo'lsa, elementni aniqlang. Ularning to'la reaksiyaga kirishishini qaysi qonunga asoslanib isbotlash mumkin?
A) Zn; ekvivalentlar qonuni
B) Cu; Avogadro qonuni
C) Ba; tartibning doimiylik qonuni
D) Au; hajmiy nisbatlar qonuni

122. (v13-102-20) Beshinchi guruh elementining eng yuqori oksidi tarkibida 34,8% kislorod bo'lsa, oksidni aniqlang.
A) P_2O_5 B) N_2O_5 C) Sb_2O_5 D) As_2O_5

123. (v13-112-27) 6,2 g fosfor bilan 5,6 l (n. sh.) kislorod reaksiyaga kirishgan bo'lsa, hosil bo'lgan birikmadagi fosforning ekvivalentini aniqlang.
A) 6,2 B) 3,1 C) 31 D) 10,3

124. (v13-166-21) 25,6 g ikki valentli metall oksidi vodorod oqimida qaytarilganda 3,6 g suv bug'i hosil bo'lsa, metalni aniqlang.
A) Cd B) Mg C) Mn D) Fe

125. (v14-101-25) Atsetilenni kaliy permanganatning suvli eritmasi shavel kislotaga qadar oksidlaydi. Oksidlovchi va qaytaruvchining ekvivalent massasini (g/mol) aniqlang.
A) 52,7; 6,5 B) 31,6; 6,5
C) 52,7; 3,25 D) 158; 13

126. (v15-105-13) Marganes oksid tarkibida 36,78% kislorod bo'lsa, u qanday xossali oksid?
A) befarq
B) asosli
C) amfoter
D) kislotali

127. (v15-108-24) Noma'lum metall asosli fosfat tuzining molyar massasi 322
Shu tuzning ekvivalenti 53,667 ga teng bo'lsa, metalning ekvivalentini aniqlang.
A) 15 B) 18,67 C) 9 D) 17,33

128. (v15-126-30) Molibden oksidi tarkibida kislorodning massa ulushi 0,333. Molibdenning valentligini aniqlang.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 6

129. (v15-130-23) Noma'lum III valentli metall asosli fosfat tuzining molyar massasi 278. Shu tuzning ekvivalent 92,67 ga teng bo'lsa, metalning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 23,8 B) 45,1 C) 29,1 D) 26,5

130. (v16-116-27) 24 g metall oksididan 88,8 g metall bromidi olingan. Metalning ekvivalentini aniqlang.
A) 17,33 B) 28 C) 18,67 D) 9

131. (v17-101-21) Noma'lum III valenti metall sulfat tarkibidagi jami kislorodning protonlari soni noma'lum elementning elektronlar sonidan 3,69 marta ko'p bo'lsa, noma'lum elementini aniqlang.
A) Cr B) Mn C) Fe D) Al

132. (v17-107-21) Noma'lum III valentli metall sulfidi tarkibidagi elektronlar soni 1:2,7 nisbatda bo'lsa, metallni aniqlang.
A) Fe
B) Co
C) Al
D) Cr

133. (v17-108-34) 13 g $FeCl_3$ bo'lgan eritmasiga mol miqdorda KOH qo'shiladi. Bunda 8,56 g ↓ cho'kma hosil bo'ldi. Temirning valentligini aniqlang.
A) 2
B) 3
C) 0
D) 4

134. (v17-109-23) Metallning galogenli birikmasi tarkibida 86,96% galogen uning oksidi tarkibida 40% kislorod bor. Galogenni aniqlang.
A) yod
B) xlor
C) ftor
D) brom

135. (v17-112-5) 12 g metall oksididan 44,4 g metall bromidi olingan. Metallning ekvivalentini aniqlang.
A) 17,33 B) 18,67
C) 28 D) 9

136. (v17-112-26) $\frac{38}{28}$ g azot oksidi tarkibida 0,5 g azot bor. Shu oksid tarkibdagi azotning ekvivalentni aniqlang.
A) $\frac{14}{5}$ B) $\frac{14}{3}$ C) 7 D) $\frac{7}{2}$

137. (v17-117-26) 48,6 g metall oksididan 81,6 g metall xloridi olingan. Metallning ekvivalentini aniqlang.
A) 28 B) 20 C) 68,5 D) 32,5

138. (v17-118-27) Noma'lum III valenti element oksidning ekvivalent molyar massasi 25,333 (g/mol ekv) ga teng bo'lsa, noma'lum elementi aniqlang.
A) Al
B) P
C) Cr
D) N

139. (v17-123-2) Noma'lum III valentli element oksidining ekvivalent molyar massasi 17 (g/mol ekv) ga teng bo'lsa, oksidning molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 152 B) 110
C) 76 D) 102

140. (v17-124-14) Xrom oksidining ekvivalenti 25,33 ga teng xrom necha valentli?
A) II
B) III
C) IV
D) VI

141. (v17-125-21) $\frac{2}{56}$ g azot oksidi tarkibida $\frac{1}{92}$ g azot bor. Shu oksid tarkibidagi azotning ekvivalentini aniqlang.
A) $\frac{7}{2}$
B) $\frac{14}{5}$
C) $\frac{14}{3}$
D) 7

142. (v17-128-17) Gidrofosfatning molyar massasi – 342, ekvivalent massasi – 57. Tuzning qanday massasida $3{,}106 \cdot 10^{25}$ ta neytron bo'ladi?
A) 205,2
B) 20,2
C) 21,5
D) 102,6

143. (v17-130-36) Biror elementning bir ekvivalenti 62 g ekvga teng. 30 g uning oksidini qaytarish uchun necha gramm vodorod kerak bo'ladi? (kislorodning ekvivalent massasi 8 ga teng.)
A) 43 B) 0,34
C) 0,43 D) 1,4

21. Kombinatsiyalangan masalalar. Kimyoviy reaksiya turlari

1. (96-1-20) Quyidagilarning qaysilari neytrallash reaksiyalari hisoblanadi?
1) $NaOH + HCl = \ldots$;
2) $NaHCO_3 + NaOH = \ldots$;
3) $NaHCO_3 + HCl = \ldots$
A) 1 B) 2 C) 3 D) 2 va 3 E) 1 va 2

2. (96-1-24) Quyidagi tenglama $NaHCO_3 + NaOH = H_2O + Na_2CO_3$ reaksiya turlarining qaysi birlariga taalluqli?
A) parchalanish B) birikish
C) almashinish D) neytrallanish
E) o'rin olish

3. (96-7-20) Keltirilgan tenglamalardan qaysi biri parchalanish reaksiyasi?
1) $LiOH + HNO_3 = LiNO_3 + H_2O$;
2) $Ca(OH)_2 \xrightarrow{t} CaO + H_2O$;
3) $NH_3 + HCl = NH_4Cl$;
4) $CaCO_3 + 2HCl = CaCl_2 + H_2O + CO$;
5) $SO_3 + H_2O = H_2SO_4$.
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3 E) 1

4. (96-8-8) Ionli ko'rinishda yozilgan tenglama $Fe + 2H^+ \rightarrow H_2 + Fe^{2+}$? qaysi turdagi reaksiyaga xos?
A) o'rin olish B) oksidlanish-qaytarilish
C) birikish D) almashinish
E) parchalanish

5. (96-10-26) Simob (II) nitrat eritmasi bilan misning ta'sirlashuvi kimyoviy reaksiyalarning qaysi sinfiga mansub?
1) birikish; 2) ajralish; 3) o'rin olish;
4) almashinish; 5) oksidlanish-qaytarilish.
A) 1, 5 B) 2, 5 C) 3, 5 D) 4, 5
E) 2, 4

6. (96-10-30) Quyidagi jarayonlardan qaysilari birikish reaksiyalariga misol bo'la oladi?
1) neytrallanish; 2) gidratlanish;
3) gidrogenlanish; 4) eterifikatsiya; 5) gidroliz.
A) 1 va 2 B) 2 va 3 C) 1 va 4 D) 4 va 5
E) 2 va 5

7. (96-15-19) Quyidagi reaksiya qaysi reaksiyalar sinfiga kiradi?
$H_2SO_4 + 2NaOH = Na_2SO_4 + H_2$
A) oksidlanish-qaytarilish B) birikish
C) parchalanish D) neytrallanish
E) o'rin olish

8. (97-1-52) Yuzasi tozalangan temir mix qo'rg'oshin atsetat eritmasiga tushirilganda uning yuzasi to'q kulrang tusga o'tgan. Bu jarayonda qanday turdagi reaksiya sodir bo'lgan?
A) o'rin olish B) parchalanish
C) birikish D) almashinish
E) gidroliz

9. (97-2-48) O'rin olish reaksiyasi tenglamasini ko'rsating.
A) $Ca + 2H_2O = Ca(OH)_2 + H_2$
B) $Ca(OH)_2 + CO_2 = CaCO_3 + H_2O$
C) $CaCO_3 + H_2O + CO_2 = Ca(HCO_3)_2$
D) $CaCO_3 = CaO + CO_2$
E) $CaO + H_2O = Ca(OH)_2$

10. (97-3-32) Qaysi tenglamalar neytrallanish reaksiyasiga to'g'ri keladi?
1) HCl + NaOH →;
2) $CaCO_3 + CO_2 + H_2O$ →;
3) $Al(OH)_3$ + NaOH →; 4) KJ + J_2 →.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3
E) 3, 4

11. (97-6-17) Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri birikish reaksiyasiga taalluqli?
A) kaliy gidroksid + xlorid kislota →
B) natriy sulfat + bariy xlorid →
C) kalsiy karbonat →
D) mis (II) oksid + xlorid kislota →
E) kalsiy karbonat + karbonat angidrid + suv →

12. (97-6-48) Quyidagi reaksiya turini aniqlang: $Al(OH)_2Cl + HCl$ →
A) birikish B) o'rin olish
C) eterifikatsiya D) gidratlanish
E) neytrallanish

13. (97-7-10) Quyidagi tenglama bilan ifodalangan reaksiya turini ko'rsating:
$Ca(HCO_3)_2 + Ca(OH)_2$ →
A) oksidlanish-qaytarilish B) parchalanish
C) neytrallanish D) birikish
E) gidratlanish

14. (97-10-79) Quyidagi tenglamalar ichidan o'rin olish reaksiyasiga mos keladiganini ko'rsating.
A) $Cu(OH)_3 + HCl$ → B) $CuO + H_2$ →
C) $CuO + H_2SO_4$ → D) $Cu_3(OH)_2CO_3$ →
E) $CuCl_2 + AgNO_3$ →

15. (97-10-81) Quyidagi tenglamalar ichidan neytrallanish reaksiyalariga tegishlisini ko'rsating:
1) H_3SO_4 + NaOH →; 2) SO_3 + NaOH →;
3) $AgNO_3$ + NaCl →; 4) $AlCl_3 + H_2O$ →;
5) $Na_2O + H_2O$ →; 6) Na_2O + HCl →.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 5 C) 3, 4, 6 D) 1, 2, 6
E) 4, 5, 6

16. (97-11-16) Birikish reaksiyasini aniqlang.
A) $2HgO \rightarrow 2Hg + O_2$
B) $Zn + 2HCl \rightarrow ZnCl_2 + H_2$
C) $FeF_3 + 3KF \rightarrow K_3[FeF_6]$
D) $CaCl_2 + K_2CO_3 \rightarrow CaCO_3$
E) $2Cu + 2H_2SO_4 + O_2 \rightarrow 2CuSO_4$

17. (97-12-53) Temir (II) xlorid va temir (III) xlorid eritmalari aralashmasiga kumush nitrat eritmasi ta'sir ettirilganda, reaksiyaning qaysi turi sodir bo'ladi?
A) almashinish va o'rin olish
B) oksidlanish-qaytarilish
C) neytrallanish va almashinish
D) o'rin olish va neytrallanish
E) oksidlanish-qaytarilish va almashining

18. (98-1-40) Reaksiyalarning qaysilari o'rin olish turiga mansub?
1) $Zn + CuCl_2 \rightarrow ZnCl_2 + Cu$;
2) $C_6H_5OH + NaOH \rightarrow C_6H_5ONa + H_2O$;
3) $H–C(O)–H + Ag_2O \rightarrow HC(O)–OH + Ag$;
4) $C_2H_6 + Cl_2 \rightarrow C_2H_5Cl + HCl$;
5) $C_2H_5OH + Na \rightarrow C_2H_5Ona + H_2$.
A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 4, 5
E) 1, 2, 5

19. (98-1-43) Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri disproporsiyalanish turiga mansub?
A) $NH_4NO_3 \xrightarrow{t}$ B) $H_2S + Ca \rightarrow$
C) $Cl_2 + NaOH \rightarrow$ D) $C_2H_5OH + Na \rightarrow$
E) $2KClO_3 \xrightarrow{t}$

20. (98-12-14) Temir (III) oksid bilan magniy orasidagi reaksiya qaysi reaksiya turiga mansub?
A) birikish B) almashinish
C) parchalanish D) o'rin olish
E) neytrallanish

21. (99-5-55) Neytrallanish reaksiyasining ta'rifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) kislota bilan asos ta'sirlashishi natijasida tuz va suv hosil bo'ladigan reaksiyalar
B) kislota bilan metall orasida, boradigan, natijada tuz va vodorod hosil bo'ladigan reaksiyalar
C) modda qizdirilganda parchalanib oksid va suv hosil bo'ladigan reaksiyalar
D) modda suv bilan reaksiyaga kirishib, suvda eriydigan asos hosil qiladigan, asosli oksid bilan suv orasida boradigan reaksiyalar
E) vodorod bilan metallmaslar orasida boradigan reaksiyalar

22. (99-5-62) Quyidagi reaksiyaning koeffitsiyentlarini toping va u reaksiyalarning qaysi turiga kirishini aniqlang.
$FeCl_3$ + NaOH → $Fe(OH)_3$ + NaC
A) 1-3-1-3, o'rin olish
B) 1-3-1-3, almashinish
C) 3-1-1-3, birikish
D) 1-3-3-1, ajralish
E) 2-3-2-3, neytrallanish

23. (99-7-17) Kalsiy karbonatdan uning gidrokarbonatini hosil qilish qaysi reaksiya turiga taalluqli?
A) birikish
B) neytrallanish
C) oksidlanish-qaytarilish
D) almashinish
E) o'rin olish

24. (99-7-19) Tenglamasi
$CuCO_3 \cdot Cu(OH)_2 \rightarrow CuO + H_2O + CO_2$
bo'lgan reaksiya qanday reaksiya hisoblanadi?
A) neytrallanish
B) parchalanish
C) o'rin olish
D) oksidlanish-qaytarilish
E) gidroliz

25. (99-10-15) $Mg + O_2 = MgO$ reaksiya turini aniqlang.
A) birikish; oksidlanish; qaytar
B) birikish; oksidlanish-qaytarilish; endotermik
C) oksidlanish-qaytarilish; birikish; qaytar
D) birikish; oksidlanish; qaytarilish
E) birikish; oksidlanish-qaytarilish; ekzotermik

26. (00-6-45) Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri fotografiya jarayoni asosida yotadi?
A) 2Aggal → 2Ag + gal_2
B) $2AgNO_3 \rightarrow 2Ag + 2NO_2 + O_2$
C) $CH_3CHO + Ag_2O \rightarrow CH_3COOH + 2Ag$
D) $AgNO_3$ + HCl → AgCl + HNO_3
E) $2AgNO_3 + 2NaOH \rightarrow Ag_2O + 2NaNO_3 + H_2O$

27. (01-1-5) Almashinish reaksiyalarini ko'rsating.
1) $KClO_3 + I_2 = KIO_3 + Cl_2$;
2) $AgCl + SnCl_2 = Ag + SnCl_4$;
3) $Na_2SO_4 + BaCl_2 = BaSO_4 + NaCl$;
4) $CaCO_3 + SiO_2 = CaSiO_3 + CO_2$;
5) $PCl_3 + Cl_2 = PCl_5$;
6) $Cu(NO_3)_2 + NH_3 = [Cu(NH_3)_4](NO_3)_2$.
A) 1, 4 B) 2, 5 C) 3, 4 D) 1, 6
E) 1, 2

28. (01-1-8) Quyidagi reaksiya qaysi turlarga mos keladi?
$NaHCO_3 + NO_2 \rightarrow NaNO_2 + NaNO_3 + H_2O +$ + CO_2
1) almashinish; 2) parchalanish;
3) oksidlanish-qaytarilish (disproporsiyalanish); 4) o'rin olish;
5) molekulalararo oksidlanish – qaytarilish; 6) neytrallanish.
A) 4, 5, 6 B) 1, 2, 3
C) 1, 4, 5 D) 1, 3, 6
E) 1, 2, 4

29. (02-1-19) 19,8 g suvga 2,3 g natriy ta'sir ettirish yo'li bilan hosil qilingan o'yuvchi natriy eritmasida natriy ishqorining har bir molekulasiga suvning necha molekulasi to'g'ri keladi?
A) 10 B) $6{,}02 \cdot 10^{23}$ C) 5 D) 10^{23} E) 15

30. (02-4-7) 2 mol suvga necha millilitr etil spirt (ρ = 0,78 g/ml) qo'shilganda hosil bo'lgan eritmada spirt molekulalarining soni suvnikidan 2 marta kam bo'ladi?
A) 39 B) 36 C) 59 D) 55 E) 46

31. (02-10-48) NH_3 va CO dan iborat 20 l aralashma mo'l miqdorda olingan HCl eritmasi orqali o'tkazilganda, gaz aralashmasining hajmi 4 litrga kamaydi. CO ning hajmiy ulushi boshlang'ich aralashmada qanday bo'lgan?
A) 0,4 B) 0,8 C) 0,6 D) 0,5 E) 0,2

32. (02-10-55) Quyidagi reaksiyalar turini aniqlang:
I) $KClO_3 \rightarrow KCl + KClO_4Al(OH)_3 \rightarrow Al_2O_3 + H_2O$
II) $K_2O + N_2O_5 \rightarrow KNO_3FeCl_3 + Fe \rightarrow FeCl_2$.
A) I-ajralish; II-o'rin olish
B) I-birikish; II-almashinish
C) I-o'rin olish; II-ajralish
D) I-ajralish; II-birikish
E) I-almashinish; II-birikish

33. (04-1-433) Quyidagi reaksiyalarning qaysi biri birikish reaksiyasini ifodalaydi?
A) kaliy gidroksid + xlorid kislota →
B) natriy oksid + suv →
C) kalsiy karbonat $\xrightarrow{t}$
D) mis (II) oksid + xlorid kislota →
E) kalsiy gidroksid + karbonat angidrid →

34. (04-1-434) Quyidagi reaksiya turini aniqlang. CuO + H_2 →
A) birikish
B) o'rin olish
C) eterifikatsiya
D) gidratlanish
E) neytrallanish

35. (04-1-445) Tenglamasi $FeCl_3 + KI \rightarrow$ reaksiyani tugallang, koeffitsiyentlarini toping va u qaysi turga kirishini aniqlang.
A) 1-3-1-3, oksidlanish-qaytarilish
B) 1-3-1-3, almashinish
C) 3-1-1-3, birikish
D) 1-3-3-1-2, ajralish
E) 2-2-1-2-2, oksidlanish-qaytarilish

36. (05-1-248) Quyidagi $H_2SO_4 + 2NaOH = Na_2SO_4 + 2H_2O$ reaksiya qaysi reaksiyalar turiga kiradi?
A) oksidlanish-qaytarilish
B) birikish
C) parchalanish
D) neytrallanish
E) o'rin olish

37. (v5-121-25) 8,93 g qo'rg'oshin (II) oksid vodorod bilan qaytarilganda 0,54 g suv hosil bo'ladi. Qaytarilgan oksid va qolgan qoldiqning massasi (g) qancha?
A) 6,21; 2,24 B) 6,21; 8,45
C) 2,24; 8,93 D) 6,69; 2,24
E) 6,69; 8,45

38. (v9-102-25) Ushbu reaksiya tenglamasi qaysi tipga mansub?
$Ca(HCO_3)_2 + Ca(OH)_2 \rightarrow$
A) oksidlanish-qaytarilish B) parchalanish
C) birikish D) neytrallanish

39. (v9-112-29) Neonga nisbatan zichligi 1,66 bo'lgan C_2H_2 va C_3H_8 iborat 22,4 l (n. sh.) aralashmani yondirish uchun qancha hajm (l, n. sh.) havo kerak bo'ladi ($\varphi(O_2) = 0,2$)?
A) 262 B) 78,4 C) 239 D) 392

40. (v9-112-35) Quyidagi reaksiya(lar)dan qaysilari neytrallanish reaksiyasiga mansub?
1) $NaOH + HClO =$;
2) $NaHCO_3 + NaOH =$;
3) $NaHCO_3 + HCl =$.
A) 1, 3 B) 1 C) 1, 2 D) 3

41. (v12z-201-26) 3:1 mol nisbatda olingan $AgNO_3$ va $Cu(NO_3)_2$ dan iborat aralashma qizdirilganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini aniqlang.
A) 39 B) 42 C) 40 D) 44

42. (v12z-233-5) NH_3, CH_4 va SiH_4 iborat aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 10,55 ga teng. Agar aralashmadagi ammiakning hajmiy ulushi 30% bo'lsa, undagi silanning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 45,5 B) 42,2 C) 30 D) 55,5

43. (v13-167-8) Neytronlar soni bir xil bo'lgan azot va ammiakdan iborat gazlar aralashmasidagi azotning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 35 B) 55 C) 65 D) 45

44. (v15-111-3) 1:2 hajmiy nisbatda olingan X va Y gazlari aralashmasining o'rtacha molyar massasi bilan 2:1 hajmiy nisbatda olingan X va Y gazi aralashmasining o'rtacha molyar massasi ayirmasi 8 ga teng, yig'indisi esa ayirmasidan 13 marta katta. X va Y gazlarni toping.
A) O_2, O_3 B) CH_4, Ne
C) N_2, O_2 D) Ar, SO_2

45. (v16-123-23) 4 hajm X_2H_6 va 3 hajm YH_4 aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 14,86 ga teng. Agar gazlar 1:2 hajmda olingan aralashmadagi vodorodning massa ulushi 7/46 ga teng bo'lsa, noma'lum elementlarni mos ravishda aniqlang.
A) B, C B) C, S
C) B, Si D) P, Si

46. (v16-125-31) 3 hajm XH_3 va 1 hajm YH_4 aralashmasining havoga nisbatan zichligi 0,5 ga teng. Agar gazlar 2:1 hajmda olingan aralashmadagi vodorodning massa ulushi 5/22 ga teng bo'lsa, noma'lum elementlarni mos ravishda aniqlang.
A) N, Si B) P, Si C) B, C D) B, Si

47. (v17-101-4) $X_2O_3^{2+}$ oksidi tarkibida 5 ta elektron bor noma'lum elementni toping 15 g shuelementdan qancha oksid olish mumkin?
A) 28,33 g
B) 18,33 g
C) 33,33 g
D) 30 g

48. (v17-101-32) Kislorod massa ulushi 49,5% ni bo'lgan 61,4 g massali X_2O_5 va X_2O_3 aralashma. Kislorod bilan ta'sirlashgan massasi 71 g bitta murakkab modda hosil bo'ldi. X elementni aniqlang.
A) P
B) N
C) As
D) Sb

49. (v17-101-33) Uchta bir xil kolbaning birinchisi CO_2 bilan to'ldirilganda 422 g, ikkinchisi H_2S bilan to'ldirilganda 417 g keldi. 3-kolba esa teng hajmda O_3 va X gaz bilan to'ldirilganda 420 g ga teng bo'ldi. X gazni aniqlang.
A) O_2
B) Ne
C) NO_2
D) N_2O

50. (v17-102-16) Uchta gazdan iborat aralashmada NO va Ar larning mol ulushlari 25% ga, NO ning massa ulushi esa 19% ga teng bo'lsa, noma'lum gazning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 21,8
B) 44
C) 38,5
D) 55,7

51. (v17-102-29) +2 oksidlanish darajasiga ega bo'lgan metall karbonati va oksidi aralashmasida massa ulushi 12% uglerod va 54,4% kislorod bo'lsa, metallni toping.
A) Fe
B) Cu
C) Zn
D) Mg

52. (v17-109-6) Vodorod, etilen va karbonat angidrid gazi aralashmasining o'rtacha molekulyar massasi 29,5 g/mol ga teng ($\omega(CO_2) = 74,6\%$). Platina katalizatori tushirilgandan so'ng idishdagi bosim 25% ga kamaydi. Olingan aralashmaning vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 19,67
B) 39,33
C) 14,75
D) 29,5

53. (v17-112-23) +1 oksidlanish darajasiga ega bo'lgan metall sulfiti va oksidi aralashmasida massa ulushi 32% oltingugurt va 51,2% kislorod bo'lsa, metallni toping.
A) Na B) Rb
C) K D) Li

54. (v17-115-23) Kislorodning massa ulushi esa 49,5% bo'lgan massasi 61,4 g X_2O_5 va X_2O_3 tarkibli aralashmasi kislorod bilan ta'sirlashganda massasi 71 g bitta murakkab modda hosil bo'ldi. XH_3 bir molining massasini aniqlang.
A) 34 B) 17
C) 36 D) 54

55. (v17-121-12) 192 g $(NH_4)_2SO_4$ eritmasida $10,836 \cdot 10^{24}$ vodorod atomlari bor. Tuzning massa ulushini (%) toping.
A) 26,615
B) 12,124
C) 42,415
D) 34,325

56. (v17-126-25) 11,2 l qon tomirda 1 mol (I_2) va 3 mol (H_2) 527°C temperaturada harakatlanmoqda. Umumiy qon bosimi tenglashgandan keyin qon tomirdagi bosimni toping.
A) 2483,5 kPa
B) 2374,3 kPa
C) 2244,5 kPa
D) 2558,5 kPa

57. (v17-127-28) NaOH eritmasiga 180 ml H_2O qo'shildi, shunda kontsentratsiyasi 1,6 martaga kamaydi, atomlar soni esa 23/13 ga oshdi. Olingan eritmadagi H_2O suvning massa ulushini aniqlang.
A) 25%
B) 75%
C) 40%
D) 60%

IV bob. Kimyoviy reaksiyaning tezligi

22. Kimyoviy reaksiyaning tezligi

1. (96-4-36) Hajmi 5 l bo'lgan reaktorda reaksiya borishi natijasida 30 sek davomida konsentratsiyasi 6,8 moldan 3,4 molgacha kamaysa, shu reaksiya tezligini ($mol \cdot l^{-1} \cdot sek^{-1}$) hisoblang.
A) 0,115 B) 0,575 C) 0,23 D) 0,023
E) 0,046

2. (97-1-51) Ma'lum temperaturada gomogen sistema $H_2 + I_2 \rightarrow 2HI$ da reaksiya konstantasi 0,24 ga teng. Agar sistemada $[H_2] = 0,06$ mol/l, $[I] = 0,05$ mol/l bo'lsa, reaksiyaning boshlang'ich tezligini toping.
A) $3,5 \cdot 10^{-4}$ B) $4,8 \cdot 10^{-4}$
C) $6,4 \cdot 10^{-4}$ D) $6,8 \cdot 10^{-4}$
E) $7,2 \cdot 10^{-4}$

3. (97-5-58) Hajmi 10 l bo'lgan yopiq idishda 0,5 mol oltingugurt (IV) oksid va kislorod mavjud. Reaksiya davomida 8 sekund vaqt o'tganda SO_2 miqdori 0,46 molgacha kamaysa, shu reaksiya tezligi ($mol \cdot l^{-1} \cdot s^{-1}$) ni hisoblang.
A) 0,01 B) 0,05
C) 0,001 D) 0,005
E) 0,0005

4. (97-9-15) Kimyoviy reaksiya tezligi ... .
A) reaksiya vaqtida reagent molekulalarining harakat tezligi
B) reaksiya tashqi belgilarining namoyon bo'lish tezligi
C) vaqt oralig'ida reagent miqdorining kamayishi yoki mahsulot miqdorining ortishi
D) vaqt oralig'ida reagent va reaksiyaga kiruvchi modda molekulalarining o'zaro to'qnashuvlar soni
E) reaksiya davom etgan vaqt (sekundlarda)

5. (97-11-87) Reaksiyaga kirishayotgan moddalardan birining Boshlang'ich konsentratsiyasi 1,5 mol/l bo'lib, reaksiya boshlangandan 5 sekund o'tgach, uning konsentratsiyasi 0,5 mol/l ga teng bo'lgan. Reaksiyaning o'rtacha tezlik qiymatini aniqlang.
A) 0,3 B) 0,2
C) 0,1 D) 0,4
E) 0,5

6. (98-3-34) Quyidagi formulalarning qaysi biri kimyoviy reaksiyaning o'rtacha tezligini ifodalaydi?

A) $V = n \cdot V_m$ B) $D(H_2) = \frac{M}{2}$

C) $V = \frac{c_1 - c_2}{t_2 - t_1}$ D) $Vm = \frac{V}{n}$

E) $M = \frac{m}{n}$

7. (98-3-36) Agar 5 sek davomida vodorod peroksidning konsentratsiyasi 0,8 mol/l dan 0,6 mol/l gacha kamaygan bo'lsa, reaksiya tezligining o'rtacha qiymati (mol/l·sek) qanchaga teng bo'ladi?
A) 2,0 B) 0,8 C) 0,01 D) 0,04 E) 0,15

8. (98-3-37) Agar 20 sek davomida boshlang'ich modda miqdori 0,5 sek mol/l ga kamaygan bo'lsa, reaksiyaning o'rtacha tezligi (mol/l sek) qanchaga teng bo'ladi?
A) 0,3 B) 0,01
C) 0,005 D) 0,06
E) 0,025

9. (98-3-38) Agar reaksiyaning o'rtacha tezligi 0,2 mol/l·sek bo'lganda, boshlang'ich moddalardan birining konsentratsiyasi 1 mol/l ga kamaysa, reaksiyaning davom etgan vaqti (sek) qancha bo'ladi?
A) 2 B) 5 C) 8 D) 1 E) 12

10. (98-3-39) Agar reaksiyaning o'rtacha tezligi 0,4 mol/l·sek bo'lganda, boshlang'ich modda konsentratsiyasi 2,5 mol/l dan 1,3 mol/l gacha kamaygan bo'lsa, reaksiyaning davom etgan vaqti (sek) qancha bo'ladi?
A) 3 B) 12 C) 4 D) 6 E) 8

11. (98-3-40) Reaksiya tezligi 0,03 mol/l sek bo'lganda, 30 sek davomida boshlang'ich modda konsentratsiyasi qanchaga (mol/l) o'zgaradi?
A) 0,2 B) 1,3 C) 0,6 D) 0,9 E) 2,1

12. (98-3-41) Reaksiyaning o'rtacha tezligi 0,001 mol/l·sek bo'lganda, 2 min davomida boshlang'ich modda konsentratsiyasi (mol/l) qanchaga o'zgaradi?
A) 0,01 B) 0,9 C) 0,12 D) 2,5
E) 1,45

13. (98-3-42) Qaysi omillar temir va mis sulfat orasidagi reaksiya tezligini orttiradi?
1) temperatura; 2) mis sulfat miqdorini ko'paytirish; 3) temir bo'lakchalarining maydalanish darajasi; 4) bosim.
A) 1, 3 B) 2, 3
C) 1, 4 D) 1, 2 E) 2, 4

14. (98-3-43) Qaysi omillar azot va vodorod orasidagi reaksiya tezligini kamaytiradi?
1) azot konsentratsiyasini oshirish;
2) ingibitor qo'shish; 3) reaksiyaga kirishuvchi moddalarni aralashtirib turish; 4) sovitish;
5) qizdirish; 6) katalizator; 7) bosimni kamaytirish.
A) 1, 5, 6 B) 2, 4, 7
C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 6
E) 3, 5, 7

15. (98-5-13) Qaysi javobda $C + O_2 \leftrightarrows CO_2$ to'g'ri reaksiyaning tezlik tenglamasi to'g'ri ifodalangan?
A) $V = K[O_2]$
B) $V = K[C]^2[O_2]$
C) $V = [C]^2[O_2]^2$
D) $V = K[O]^2$
E) $V = K\frac{[O_2]}{[C]^2}$

16. (98-6-38) Hajmi 6,5 l bo'lgan idishda boshlang'ich konsentratsiyasi 2,5 mol/l bo'lgan moddaning konsentratsiyasi 10 sekunddan keyin 1,5 mol/l ni tashkil etdi. Reaksiyaning o'rtacha tezlik qiymatini (mol/l·s) toping.
A) $1{,}2 \cdot 10^{-2}$ B) $1{,}5 \cdot 10^{-2}$
C) $2{,}0 \cdot 10^{-3}$ D) $2{,}5 \cdot 10^{-2}$
E) $6 \cdot 10^{-2}$

17. (98-6-39) O'rtacha tezligi 0,1 $\frac{mol}{l \cdot sek}$ ga teng bo'lgan reaksiyada modda konsentratsiyasining dastlabki qiymati 2,5 mol/l bo'lsa, 10 sekunddan keyin modda konsentratsiyasining qiymati qanday bo'ladi?
A) 0,5 B) 1,0 C) 2,0 D) 1,5 E) 3,0

18. (98-6-40) Reaksiyaning o'rtacha tezligi mol 0,1 $\frac{mol}{l \cdot sek}$ ga teng. Reaksiya boshlangandan 10 sekund o'tgach, modda konsentratsiyasi 1,5 mol/l ga teng bo'lsa, moddaning dastlabki konsentratsiyasi qanchaga teng bo'lgan?
A) 3,0 B) 2,5 C) 2,0 D) 3,5 E) 4,0

19. (98-6-46) Hajmi 2 l bo'lgan sistemada 3600 sekund davomida 2 mol mahsulot hosil bo'ldi. Reaksiyaning o'rtacha tezligi [mol/(l·s)] ni aniqlang.
A) 0,05 B) 0,01 C) 0,00028
D) 0,0028 E) 0,02

20. (98-8-85) Ikkita har xil reaksiya natijasida vodorod ajralib chiqdi, ularning birida bir minutda 2,24 l (n. sh.), ikkinchisida esa 2 g vodorod ajralgan. Ikkinchi reaksiya tezligi birinchisiga nisbatan qanday farq qilishini aniqlang.
A) 10 marta tez B) 5 marta sekin
C) 15 marta tez D) tezliklar bir xil
E) 8 marta sekin

21. (98-9-67) Agar tenglamasi $A + B = 2C$ bo'lgan reaksiyada V moddaning konsentratsiyasi 2 min davomida 0,40 mol/l dan 0,15 mol/l gacha kamaygan bo'lsa, shu reaksiya tezligi ($mol \cdot l^{-1} \cdot s^{-1}$) V modda konsentratsiyasi bo'yicha qancha bo'ladi?
A) $1{,}2 \cdot 10^{-3}$ B) $1{,}5 \cdot 10^{-3}$
C) $2{,}1 \cdot 10^{-3}$ D) $2{,}6 \cdot 10^{-3}$
E) $3{,}0 \cdot 10^{-3}$

22. (98-9-71) Hajmi 2 l bo'lgan idishda 4,5 mol modda miqdori 20 s o'tgandan so'ng 2,5 molgacha kamaysa, reaksiya tezligi ($mol \cdot l^{-1} \cdot s^{-1}$) qanchaga teng bo'ladi?
A) 0,10 B) 0,20
C) 0,05 D) 0,50
E) 0,25

23. (98-12-47) Reaksiyalarning birida 10 s davomida 3,4 g vodorod sulfid, ikkinchisida 3,6 g suv, uchinchisida 17 g fosfin, to'rtinchisida 3,4 g ammiak, beshinchisida 16 g oltingugurt (IV) oksid hosil bo'lsa, reaksiya ulardan qaysi birining tezligi kattaroq bo'lgan?
[$A_r(S) = 32$, $A_r(P) = 31$, $A_r(N) = 14$].
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

24. (99-1-12) Reaksiya boshlanmasdan oldin moddaning konsentratsiyasi 1,6 mol/l bo'lib, 5 minutdan so'ng uning konsentratsiyasi 0,2 mol/l ga teng bo'ldi. Reaksiya tezligini [mol/(l·s)] aniqlang.
A) $2{,}8 \cdot 10^{-2}$
B) $1{,}4 \cdot 10^{-2}$
C) $7 \cdot 10^{-3}$
D) $4{,}7 \cdot 10^{-3}$
E) $1{,}8 \cdot 10^{-2}$

25. (01-1-3) Tenglamasi $CO_2 + H_2 \leftrightarrows CO + H_2O$ bo'lgan reaksiya boshlangandan 110 s vaqt o'tganda, is gazining konsentratsiyasi 0,27 mol/l bo'lgan, shundan keyin yana 3 min 15 s o'tgandan keyin esa 0,34 mol/l bo'lgan. Shu reaksiyaning o'rtacha tezligini hisoblang.

A) 0,147 $\frac{mol}{l \cdot min}$ B) 0,067 $\frac{mol}{l \cdot min}$

C) 0,0017 $\frac{mol}{l \cdot s}$ D) 0,2 $\frac{mol}{l \cdot min}$

E) 0,083 $\frac{mol}{l \cdot min}$

26. (01-3-7) Quyida keltirilgan omillarning qaysilari kimyoviy reaksiyalarning tezligiga ta'sir ko'rsatadi?
1) moddalarning tabiati; 2) konsentratsiya;
3) katalizator; 4) temperatura.
A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 1, 2, 3
E) 1, 2, 3, 4

A) 4,75; 6,75 B) 5,25; 7,75
C) 3,75; 6,25 D) 2,75; 2,25

107. (v11-107-6) Quyidagi $NH_{3(g)} + O_{2(g)} \leftrightarrows N_{2(g)} + H_2O_{(g)}$ reaksiyada kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalar konsentratsiyasi (mol/l) $[NH_3] = 1,2$; $[O_2] = 0,9$; $[H_2O] = 1,2$ ni tashkil qildi. Reaksiya hajmi 15 l bo'lgan idishda olib borilgan bo'lsa, reaksiya uchun olingan NH_3 va O_2 larning dastlabki miqdorini (mol) hisoblang.
A) 12; 9 B) 0,8; 0,6
C) 30,0; 22,5 D) 2,0; 1,5

108. (v11-115-33) Tenglamasi $CH_{4(g)} + H_2O_{(g)} = CO_{(g)} + H_{2(g)}$ bo'lgan reaksiyada muvozanat qaror topganda ($K_M = 1$) vodorodning konsentratsiyasi 3 mol/l ni tashkil qildi, CH_4 ning dastlabki konsentratsiyasi 4 mol/l bo'lsa, suvning dastlabki konsentratsiyasini aniqlang.
A) 9 B) 4 C) 6 D) 10

109. (v11-122-36) $CH_{4(g)} + H_2O_{(g)} = CO_{(g)} + H_{2(g)}$ reaksiyada CH_4 ning 50% sarflanganda muvozanat qaror topdi. Reaksiya uchun olingan CH_4 va H_2O konsentratsiyalari mos ravishda 1,7 va 2,3 mol/l bo'lsa, CO va H_2 lar muvozanat konsentratsiyalarining (mol/l) yig'indisini aniqlang.
A) 1,6 B) 0,4 C) 3,4 D) 1,2

110. (v12z-222-19) $A_{(g)} + B_{(g)} = C_{(g)} + D_{(g)}$ sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalari (mol/l) mos ravishda 2, 4, 8, 3 ga teng. Muvozanat holatdagi sistemaga

3 mol A modda qo'shildi. A va C moddalarning yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda olib borildi).
A) 4; 4 B) 4,4; 9,6 C) 4; 9 D) 3,2; 10,8

111. (v12z-224-19) $A_{(g)} + B_{(g)} = C_{(g)} + D_{(g)}$ sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalari (mol/l) mos ravishda 2, 4, 8, 3 ga teng. Muvozanat holatdagi sistemaga 3 mol A modda qo'shildi. C va D moddalarning yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda olib borildi).
A) 3; 9 B) 5,8; 10,8 C) 9; 4 D) 8,5; 3,5

112. (v12z-237-12) Muvozanatdagi $N_2 + 3H_2 \leftrightarrows 3NH_3$ sistemada moddalarning muvozanat konsentratsiyalari mos ravishda 0,1; 0,4; 0,4 (mol/l) bo'lsa, azot va vodorodning boshlang'ich konsentratsiyalari (mol/l) yigindisi qanday bo'lgan?
A) 1,4 B) 0,8 C) 1,6 D) 1,3

113. (v12z-239-24) $2SO_2 + O_2 = 2SO_3$ reaksiyaning ma'lum temperaturadagi muvozanatli konsentratsiyalari mos ravishda 0,04; 0,06; 0,02 (mol/l) ga teng bo'lsa, muvozanat konstantasini hamda SO_2 va O_2 ning dastlabki konsentratsiyalarini (mol/l) toping.
A) 4,17; 0,07; 0,06 B) 4,17; 0,01; 0,04
C) 4,17; 0,02; 0,01 D) 4,17; 0,06; 0,07

114. (v12z-240-18) A + B = C + D reaksiyaning muvozanat konsentratsiyasi ma'lum temperaturada 1 ga teng bo'lib, u hajmi 8 l bo'lgan idishda olib borildi. Reaksiya uchun A va B dan mos ravishda 4 va 6 moldan olingan bo'lsa, ularning muvozanat holatdagi konsentratsiyalarini (mol/l) mos ravishda hisoblang. (K = 1)
A) 0,6; 04 B) 0,4; 0,2
C) 0,3; 0,2 D) 0,2; 0,4

115. (v12z-254-15) $NO + O_2 = NO_2$ reaksiya hajmi 5 l bo'lgan idishda olib borildi NO ning 70% sarflanganda muvozanat qaror topdi. Reaksiya uchun |NO| = 6 mol va $|O_2|$ = 8 mol olingan bo'lsa, barcha moddalar muvozanat konsentratsiyalarining (mol/l) yig'indisini aniqlang.
A) 2,38 B) 0,9 C) 1,2 D) 3,2

116. (v12z-259-5) $N_2 + H_2 \leftrightarrows NH_3$ reaksiyada muvozanat vujudga kelgan paytda N_2 = 0,3 mol/l, H_2 = 0,08 mol/l, NH_3 = 0,8 mol/l bo'lgan. N_2 va H_2 larning dastlabki konsentratsiyalari (mol/l) yig'indisini aniqlang.
A) 2 B) 1,98 C) 1,08 D) 0,7

117. (v12c-108-2) $A_{(g)} + B_{(g)} = C_{(g)} + D_{(g)}$ sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalari (mol/l) mos ravishda 2, 4, 8, 3 ga teng. Muvozanat holatdagi sistemaga 3 mol A modda qo'shildi. B va D moddalarning yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda olib borildi).
A) 3,2; 4,8 B) 4,4; 3,6 C) 4; 4 D) 3; 4

118. (v12c-120-21) $A_{(g)} + B_{(g)} = C_{(g)} + D_{(g)}$ sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalari (mol/l) mos ravishda 2, 4, 8, 3 ga teng. Muvozanat holatdagi sistemaga 3 mol A modda qo'shildi B va C moddalarning yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda olib borildi).
A) 3,4; 9,6 B) 3; 9 C) 4; 4 D) 2,2; 10,8

119. (v12c-124-18) A + B = C + D sistemada muvozanat holatidagi konsentratsiyasi (mol/l) tenglamaga mos ravishda 8,2,4,4 teng, sistemada B moddadan 7 mol' qo'shigandan keyin B va C moddalarini yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda deb borildi).
A) 4,54:5,46 B) 5,46:4,54
C) 6,36:3,64 D) 6,76:6,24

120. (v12c-129-2) A + B = C + D sistemada muvozanat holatidagi konsentratsiyasi tenglamaga mos ravishda 8,2,4,4 ga teng. Sistemada B moddadan 2 mol qo'shilgandan keyin B va D moddalarni yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda deb borildi).
A) 4,6; 3,4 B) 3,4; 4,6
C) 4,8; 3,2 D) 3,2; 4,8

121. (v13-135-22) Atsetilenga nisbatan zichligi 1,2 ga teng bo'lgan azot (II) oksid va kisloroddan iborat 1,5 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($NO_{(g)} + O_{2(g)} = NO_{2(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini neonga nisbatan zichligi 1,8 ga teng bo'lsa, muvozanat holatidagi azot (II) oksidni hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 15,4 B) 30,7 C) 53,8 D) 33,3

122. (v13-136-25) Atsetilenga nisbatan zichligi 1,2 ga teng bo'lgan azot (II) oksid va kisloroddan iborat 1,5 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($NO_{(g)} + O_{2(g)} = NO_{2(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini neonga nisbatan zichligi 1,8 ga teng bo'lsa, muvozanat qaror topishi uchun azot (II) oksidni necha foizi sarflangan?
A) 66,6 B) 33,3 C) 22,2 D) 77,7

123. (v13-137-27) Etanga nisbatan zichligi 0,575 bo'lgan metan va suv bug'idan iborat 3,2 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($CH_{4(g)} + H_2O_{(g)} = CO_{(g)} + H_{2(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini neonga nisbatan zichligi 0,69 ga teng bo'lsa, muvozanat holatidagi vodorodni hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 10 B) 40 C) 20 D) 30

124. (v13-141-35) $CH_{4(g)} + H_2O_{(g)} \rightarrow CO_{(g)} + H_{2(g)}$ reaksiyada CH_4 ning 50% i sarflanganda muvozanat qaror topdi. Reaksiya uchun olingan CH_4 va H_2O larning konsentratsiyalari mos ravishda 1,7 va 2,3 mol/l bo'lsa, CO va H_2 larning muvozanat konsentratsiyalari (mol/l) yig'indisini aniqlang.
A) 1,2 B) 3,4 C) 1,6 D) 0,4

125. (v13-147-23) $A_{(g)} + B_{(g)} \leftrightarrows C_{(g)} + D_{(g)}$ sistemadagi moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalari mos ravishda 6, 3, 2 va 9 (mol/l) ga teng. Sistemaga B moddadan 3 mol qo'shilgandan keyin A va C moddalarning yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang. (Reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda olib borildi.)
A) 4,87; 9,78 B) 2,78; 2,64
C) 5,22; 2,78 D) 4,36; 8,54

126. (v13-156-14) Etanga nisbatan zichligi 0,575 bo'lgan metan va suv bug'idan iborat 3,2 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($CH_{4(g)} + H_2O_{(g)} = CO_{(g)} + H_{2(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini neonga nisbatan zichligi 0,69 ga teng bo'lsa, muvozanat konstantasini (K_M) aniqlang.
A) 1,85 B) 1,04 C) 0,54 D) 0,96

127. (v13-162-3) Etanga nisbatan zichligi 0,575 bo'lgan metan va suv bug'idan iborat 3,2 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($CH_{4(g)} + H_2O_{(g)} = CO_{(g)} + H_{2(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini neonga nisbatan zichligi 0,69 ga teng bo'lsa, muvozanat holatidagi is gazini hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 30 B) 10 C) 40 D) 20

128. (v13-169-12) Temperatura koeffitsienti 2 ga teng bo'lgan $AB_2 + A \leftrightarrow AB_3 + AB$ reaksiyaning 20°C dagi tezligi 1 mol/l·min ga teng. Temperatura 40°C gacha oshirilganda reaksiya 45 sekund davom etdi va muvozanat qaror topdi. 20°C dagi konsentratsiyalari mos ravishda 12, 4, 6, 3 mol/l ga teng bo'lgan sistema muvozanat konstantasi qiymatini toping.
A) $2{,}7 \cdot 10^{-2}$ B) $2{,}34 \cdot 10^{-2}$
C) $2{,}6 \cdot 10^{-3}$ D) $3{,}75 \cdot 10^{-1}$

129. (v14-101-18) 2A + xB → 2C reaksiyada $0{,}04 \cdot 10^2$ mol A moddaning 50% i sarflangan. B ning 50% i ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, x ni toping. (Km = 1)
A) 5 B) 1 C) 4 D) 2

130. (v14-102-36) Argonga nisbatan zichligi 1,33 ga teng bo'lgan 8 mol oltingugurt (IV) oksid va azot (IV) oksid aralashmasi 4 l hajmli idishda o'zaro ta'sirlashdi. Agar azot (IV) oksidning 40% i sarflangan bo'lsa, muvozanat konstantasini toping (reaktsiyada SO_3 va NO hosil bo'ladi).
A) 0,24 B) 1,0 C) 0,5 D) 0,12

131. (v14-112-7) 1 mol C_3H_6 va H_2 aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 15 ga teng. Gazlar aralashmasi yopiq idishda Pt katalizator ishtirokida 320°C gacha qizdirildi. Bunda harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 24% ga kamaygan bo'lsa, reaksiyaning muvozanat konstantasini toping.
A) 1,74 B) 1,143 C) 8,7 D) 5,7

132. (v14-130-5) 2A + xB → 2C reaksiyada $0{,}04 \cdot 10^2$ mol A moddaning 50% i sarflangan. B ning 50% i ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli sarflangan? (Km = 1)
A) 1 B) 5 C) 4 D) 2

133. (v15-101-15) Bir xil hajmli, bosimi 8 atm SO_2 va 6 atm O_2 gazlari reaksiyaga kirishganda sistema bosimi 12 atm ga teng bo'ldi. Ushbu $2SO_{2(g)} + O_{2(g)} \leftrightarrow 2SO_{3(g)}$ reaksiyada kimyoviy muvozanat qaror topdi Muvozanat doimiysini (Kp) toping.
A) 0,25 B) 2,5 C) 10 D) 20

134. (v15-102-1) $3Fe_{(q)} + 4H_2O_{(g)} \leftrightarrows Fe_3O_{4(q)} + 4H_{2(g)}$ reaksiyada muvozanat holatida vodorod va suv bug'ining parsial bosimlari 3,2 kPa va 2,4 kPa ga teng Muvozanat doimiysini aniqlang.
A) 1,33 B) 3,16 C) 4,74 D) 6,32

135. (v15-103-21) Reaksiya muvozanatga kelgandan so'ng mol ulushlari teng bo'lgan 6 mol gazlar aralashmasi hosil bo'ldi ($N_2 + 3H_2 \leftrightarrow 2NH_3$). Azotning (mol/l) necha foizi sarflanganini toping (idish hajmi 2 l).
A) 66,67 B) 60 C) 40 D) 33,33

136. (v15-105-11) Bir xil hajmli, bosimi 7 atm NO va 5 atm O_2 gazlari reaksiyaga kirishganda sistema bosimi 10 atm ga teng bo'ldi. Ushbu $2NO_{(g)} + O_{2(g)} \leftrightarrow 2NO_{2(g)}$ reaksiyada kimyoviy muvozanat qaror topdi Muvozanat doimiysini (Kp) toping.
A) 3/2 B) 1/20 C) 16/27 D) 1/4

137. (v15-108-17) Bir xil hajmli, bosimi 0,6 atm SO_2 va 0,4 atm O_2 gazlari reaksiyaga kirishganda sistema bosimi 0,8 atm ga teng bo'ldi. Ushbu $2SO_{2(g)} + O_{2(g)} \leftrightarrow 2SO_{3(g)}$ reaksiyada kimyoviy muvozanat qaror topdi Muvozanat doimiysini (K_p) toping.
A) 1,5 B) 20 C) 2,5 D) 0,15

138. (v15-108-26) Argonga nisbatan zichligi 1,33 ga teng bo'lgan 8 mol oltingugurt (IV) oksid va azot (IV) oksid aralashmasi 4 l hajmli idishda o'zaro ta'sirlashdi. Agar azot (IV) oksidning 40%i sarflangan bo'lsa, muvozanat konstantasini toping. (Reaktsiyada SO_3 va NO hosil bo'ladi)
A) 1,0 B) 0,24 C) 0,5 D) 0,12

139. (v15-109-13) Bir xil hajmli, bosimi 0,8 atm SO_2 va 0,6 atm O_2 gazlari reaksiyaga kirishganda sistema bosimi 1,2 atm ga teng bo'ldi. Ushbu $2SO_{2(g)} + O_{2(g)} \leftrightarrow 2SO_{3(g)}$ reaksiyada kimyoviy muvozanat qaror topdi. Muvozanat doimiysini (Kp) toping.
A) 0,25 B) 20 C) 2,5 D) 10

140. (v15-112-34) Bir xil hajmli, bosimi 0,7 atm NO va 0,5 atm O_2 gazlari reaksiyaga kirishganda sistema bosimi 1,0 atm ga teng bo'ldi. Ushbu $2NO_{(g)} + O_{2(g)} \leftrightarrow 2NO_{2(g)}$ reaksiyada kimyoviy muvozanat qaror topdi. Muvozanat doimiysini (Kp) toping.
A) 20/27 B) 3/20 C) 160/27 D) 5/2

141. (v15-113-32) A + B ⇆ 2C reaksiya bo'yicha barcha moddalar 1 moldan olinib aralashtirildi. Muvozanat qaror topganda aralashmaga C moddaning miqdori 1,5 molga tengligi aniqlandi. Muvozanat doimiysini aniqlang. (Idish hajmi 1 litr deb hisoblansin.)
A) 4 B) 2 C) 1 D) 36

142. (v15-121-1) $N_2 + 3H_2 \leftrightarrows 2NH_3$ reaksiya uchun $K_M = 4$ bo'lsa $1/2N_2 + 3/2H_2 \Leftrightarrow NH_3$ reaksiya uchun muvozanat doimiysini aniqlang.
A) 1,41 B) 1,0 C) 2,0 D) 2,82

143. (v15-121-10) Azotga nisbatan zichligi 1,6 ga teng bo'lgan 5 mol oltingugurt (IV) oksid va kislorod aralashmasi 2 l hajmli idishda o'zaro ta'sirlashdi. Agar 40% oltingugurt (IV) oksid ta'sirlashmay qolgan bo'lsa, muvozanat konstantasini toping.
A) 7,50 B) 2,75 C) 1,88 D) 0,94

144. (v15-126-26) A + xB → 2C reaksiyada $0{,}05 \cdot 10^2$ mol A moddaning 20% i sarflangan, B ning 25%i ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli ortib qolgan? (Km = 1)
A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

145. (v15-127-7) Geliyga nisbatan zichligi 12,8 ga teng bo'lgan 2 mol oltingugurt (IV) oksid va kislorod aralashmasi 5 l hajmli idishda o'zaro ta'sirlashdi. Agar kislorodning 50% i sarflangan bo'lsa, muvozanat konstantasini toping.
A) 39,06 B) 50 C) 2,56 D) 20

146. (v15-130-32) Argonga nisbatan zichligi 1,33 ga teng bo'lgan 5 mol oltingugurt (IV) oksid va azot (IV) oksid aralashmasi 2 l hajmli idishda o'zaro ta'sirlashdi. Agar oltingugurt (IV) oksidning miqdori ikki marta kamaygan bo'lsa, muvozanat konstantasini toping. (Reaktsiyada SO_3 va NO hosil bo'ladi)
A) 0,2 B) 0,50 C) 1,0 D) 0,25

147. (v17-113-20) Hajmi 5 l bo'lgan reaktor oltingugurt (IV) oksidi hamda geliyga nisbatan zichligi 12,8 ga teng kislorod bilan to'ldirilgan. Reaksiyaga 50% kislorod kirishgandan so'ng muvozanat konstantasini aniqlang.
A) 50 B) 20 C) 2,56 D) 39,06

148. (v17-117-20) $CO + O_2 = CO_2$ tizimida CO ning boshlang'ich konsentratsiyasi 3 mol, reaksiyaga kislorod kirishishi bilan muvozanat o'rnatildi. Kislorodning boshlang'ich konsentratsiyasini aniqlang (K = 2).
A) 3 B) 2 C) 1 D) 4

149. (v17-126-10) $CO + O_2 = CO_2$ tizimida CO dastlabki konsentratsiyasi 5 mol, reaksiyaga 50% kislorod kirishishi bilan muvozanat o'rnatildi. Muvozanatdagi karbonat angidrid gazining konsentratsiyasini aniqlang (K = 8).
A) 3 B) 2 C) 4 D) 2,5

28. Aralash masalalar

1. (02-6-43) 1 mol kaliy metali suv bilan reaksiyaga kirishganda, 188,4 kJ issiqlik ajraldi. Agar 28,25 kJ issiqlik ajralgan bo'lsa qanday massadagi kaliy suv bilan reaksiyaga kirishgan?
A) 6,67 B) 13,34 C) 18,84
D) 5,85 E) 11,7

2. (02-6-55) Ushbu $A_{2(g)} + B_{2(g)} \leftrightarrows 2AB_{(g)}$ reaksiya sistemasida bosim 2 marta va temperatura 10°C ga oshirildi. To'g'ri va teskari reaksiyalarning temperatura koeffitsiyenti mos holda 2 va 3 ga teng bo'lsa, muvozanat qaysi yo'nalishda siljiydi?
A) chapga B) o'ngga
C) siljimaydi D) muvozanat qaror topmaydi
E) bosim ta'sir etmaydi

3. (03-4-41) $HCOOH \rightarrow CO_2 + H_2$ reaksiyaning 140°C dagi tezlik konstantasi $5{,}75 \cdot 10^{-4}$ ga, 180°C da esa $9{,}2 \cdot 10^{-3}$ ga teng. Reaksiyaning temperatura koeffitsiyentini toping.
A) 1,8 B) 1,5 C) 2,5 D) 3 E) 2

4. (04-1-408) Azot (V) oksidning parchalanish reaksiya tezligi konstantasining 25°C va 45°C dagi qiymatlari $3{,}46 \cdot 10^{-5}$ s^{-1} va $49{,}8 \cdot 10^{-5}$ s^{-1} bo'lsa, shu reaksiya tezligining temperatura koeffitsiyentni hisoblang.
A) 3,0 B) 3,2 C) 3,4 D) 3,8 E) 4,0

5. (04-1-409) Azot (V) oksidning termik parchalanish reaksiya tezligi konstantalarining 25 va 65°C dagi qiymatlari $3{,}46 \cdot 10^{-5}$ s^{-1} bo'lsa, shu reaksiya tezligining temperatura koeffitsiyenti qiymatini hisoblang.
A) 2,5 B) 3,0 C) 3,10 D) 3,25 E) 3,44

6. (04-1-410) Azot (V) oksidning termik parchalanish reaksiya tezligining konstantasi 25 va 55°C oralig'ida $3{,}46 \cdot 10^{-5}$ s^{-1} dan $150 \cdot 10^{-5}$ s^{-1} gacha o'zgarsa, shu reaksiya tezligining temperatura koeffitsiyentini toping.
A) 3,40 B) 3,44 C) 3,51 D) 3,65 E) 3,78

7. (04-1-530) 1 mol kaliy metali suv bilan reaksiyaga kirishganda, 188,4 kJ issiqlik ajraladi. Agar 32,32 kJ issiqlik ajralgan bo'lsa, qanday massadagi kaliy suv bilan reaksiyaga kirishgan?
A) 6,69 B) 13,34 C) 18,84
D) 5,85 E) 11,7

8. (v9-105-30) Azot (V) oksidining 39°C va 69°C dagi parchalanish reaksiyalarining tezlik konstantasi tegishli ravishda $3{,}6 \cdot 10^{-4}$ s^{-1} va $28{,}8 \cdot 10^{-4}$ s^{-1} ga teng bo'lsa, reaksiyaning temperatura koeffitsiyentini aniqlang.
A) 2 B) 4 C) 3 D) 8

9. (v11-106-18) Temperaturaning pasayishi va sistema hajmining kamayishi muvozanatning o'ng tomonga siljishiga olib keladigan reaksiyalarni ko'rsating:
1) $NO + O_2 \leftrightarrows NO_2 + Q$;
2) $C_{(q)} + H_2O_{(g)} \leftrightarrows CO + H_2 - Q$;
3) $N_2 + H_2 \leftrightarrows NH_3 + Q$;
4) $NO + Cl_2 \leftrightarrows NOCl + Q$.
A) 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3

10. (v13-133-16) Neonga nisbatan zichligi 1,65 ga teng bo'lgan vodorod sulfid va kisloroddan iborat 2,4 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($H_2S_{(g)} + O_{2(g)} = SO_{2(g)} + H_2O_{(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini geliyga nisbatan zichligi 9 ga teng bo'lsa, muvozanat holatidagi vodorod sulfidni hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 18,2 B) 27,3 C) 36,4 D) 50,0

11. (v13-139-25) Kislorodga nisbatan zichligi 0,25 bo'lgan azot va vodoroddan iborat 2,6 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($N_{2(g)} + H_{2(g)} = NH_{3(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini atsetilenga nisbatan zichligi 0,4 ga teng bo'lsa, muvozanat qaror topishi uchun azotni necha foizi sarflangan?
A) 45,0 B) 33,3 C) 66,7 D) 50,0

12. (v13-142-29) Kislorodga nisbatan zichligi 0,25 bo'lgan azot va vodoroddan iborat 2,6 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($N_{2(g)} + H_{2(g)} = NH_{3(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini atsetilenga nisbatan zichligi 0,4 ga teng bo'lsa, muvozanat qaror topishi uchun vodorodni necha foizi sarflangan?
A) 33,3 B) 50,0 C) 66,7 D) 45,0

13. (v13-143-4) Kislorodga nisbatan zichligi 0,25 bo'lgan azot va vodoroddan iborat 2,6 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($N_{2(g)} + H_{2(g)} = NH_{3(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini atsetilenga nisbatan zichligi 0,4 ga teng bo'lsa, muvozanat holatidagi ammiakni hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 15,0 B) 30,0 C) 20,0 D) 55,0

14. (v13-145-25) Neonga nisbatan zichligi 1,65 ga teng bo'lgan vodorod sulfid va kisloroddan iborat 2,4 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($H_2S_{(g)} + O_{2(g)} = SO_{2(g)} + H_2O_{(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini geliyga nisbatan zichligi 9 ga teng bo'lsa, muvozanat konstantasini (K_M) aniqlang.
A) 0,12 B) 8,33
C) 5,4 D) 0,18

15. (v13-151-13) Kislorodga nisbatan zichligi 0,25 bo'lgan azot va vodoroddan iborat 2,6 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($N_{2(g)} + H_{2(g)} = NH_{3(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini, atsetilenga nisbatan zichligi 0,4 ga teng bo'lsa, muvozanat konstantasini (K_M) aniqlang.
A) 0,45 B) 0,9
C) 2,2 D) 1,1

16. (v13-152-18) Neonga nisbatan zichligi 1,65 ga teng bo'lgan vodorod sulfid va kisloroddan iborat 2,4 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada (hajmi 1 l) reaksiyaga kirishdi ($H_2S_{(g)} + O_{2(g)} = SO_{2(g)} + H_2O_{(g)}$) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini geliyga nisbatan zichligi 9 ga teng bo'lsa, muvozanat holatidagi oltingugurt (IV) oksidning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 27,3 B) 18,2
C) 36,4 D) 32,3

17. (v17-101-27) 2A + xB → 2C reaksiyada $0{,}04 \cdot 10^2$ mol A moddaning 50% i safiangan, B ning 50% i ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli ortib qolgan? ($K_m = 1$)
A) 1 B) 4
C) 2 D) 5

18. (v17-105-32) Ushbu reaksiyada, ya'ni $2NO_2 \leftrightarrows N_2O_4 + 13$ kkal muvozanat –9,3°C bilan +144°C da qaror topadi. Shu muvozanatning ikki marta hajmini kamaytirib, temperaturani oshirsak, reaksiya qaysi tomonga siljiydi?
A) o'ng
B) chap
C) teng, buning ta'siri yo'q
D) t° va V ning ta'siri teng

19. (v17-108-10) A + xB ⟶ 2C reaksiyada $0{,}05 \cdot 10^2$ mol A moddaning 20% i sarflangan, B ning 25% i ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning boshlang'ich konsentratsiyasini (mol/l) toping. ($K_m = 1$)
A) 3
B) 2
C) 1
D) 4

20. (v17-116-12) $A_{2(g)} + 3B_{2(g)} \rightarrow 2AB_{3(g)}$. Quyidagi jadvalda AB_3 moddasining vaqti va konsentratsiya bog liqligi ko rsatilgan. Bunga ko'ra vaqt 20 minutdan 30 minutga o'zgarganda B_2 moddaning tezligini toping.

Vaqt min	$[AB_3]$ mol/l
0	–
10	0,2
20	0,35
30	0,45

A) 0,015
B) 0,15
C) 1,15
D) 3

21. (v17-117-11) 1 mol C_3H_6 va H_2 aralashmasi ($D_{H_2} = 14{,}5$) yopiq idishda Pt katalizator ishtirokda 320°C gacha qizdirildi. So'ngra harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 20% ga kamaygan bo'lsa, reaksiyaning nazariy jihatdan unumini (%) toping.
A) 61,54
B) 32,5
C) 35
D) 20

22. (v17-119-1) Gazlarda tezlikni topish uchun molyar konsentratsiya (hajm birligidagi mollar soni) o'rniga … ni ham ishlatish mumkin.
A) hajm birligidagi massalar soni
B) porsial bosim
C) hajm birligi
D) temperaturaning o'zgarishi

23. (v17-125-25) Etilen va vodorod aralashmasi 5 l reaktor hajmida 5 sek davomida katalizator ishtirokida qizdirilgan vaqtda reaksiya boshlandi: $C_2H_4 + H_2 \rightarrow \rightarrow C_2H_6 + 136$ kj/mol 47,6 kj issiqlik ajratildi. Qancha mol etan hosil bo'lgan? Bu reaksiyada o'rtacha tezlikini hisoblang.
A) 0,07 mol/1 sek
B) 0,014 mol/1 sek
C) 0,35 mol/1 sek
D) 0,015 mol/1 sek

24. (v17-129-17) 1 mol C_3H_6 va H_2 aralashmasi ($D_{H_2} = 14{,}5$) yopiq idishda Pt katalizator ishtirokida 320°C gacha qizdirildi. So'ngra harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 30% ga kamaygan bo'lsa, reaksiyaning nazariy jihatdan unumini (%) toping.
A) 75 B) 70
C) 92,3 D) 30

28.1. Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti

1. (99-5-33) Termit (alyuminiy bilan temir oksidlarining aralashmasi) yonganda 3300 kJ/mol issiqlik chiqadi. Shunday jarayonda 108 g alyuminiy ishtirok etganda qancha issiqlik ajralib chiqadi?
A) 1305,0 B) 1650,0 C) 1240,0
D) 1370,3 E) 1279,0

2. (99-6-40) Qaysi javobda reaksiyaning issiqlik effekti tushunchasi to'g'ri ifodalangan?
A) kimyoviy reaksiyalarda ajralib chiqadigan issiqlik miqdori
B) kimyoviy reaksiyalarda yutiladigan issiqlikmiqdori
C) portlash bilan sodir bo'ladigan reaksiyalarda ajralib chiqadigan issiqlik miqdori
D) yonish jarayonida ajralib chiqadigan issiqlik miqdori
E) kimyoviy reaksiyalarda ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori

3. (01-2-75) Agar $C + O_2 = CO_2 + 393{,}5$ kJ va $CO + 1/2O_2 = CO_2 + 283$ kJ ga teng bo'lsa, grafitning CO ga qadar yonish issiqligini hisoblab toping.
A) 125,5 B) 677,5 C) 110,5
D) 118,5 E) 95,5

4. (01-12-36) 3,04 g magniy yonganda, 76,45 kJ issiqlik ajralgan bo'lsa, magniy oksidning hosil bo'lish entalpiyasini (kJ/mol) hisoblang.
A) 1382,3 B) 905,8 C) 1264,2
D) 603,6 E) 1006

5. (02-1-71) Quyidagi ma'lumotlardan $E_N = 941{,}4$ kJ, $E_{N-H} = 389{,}11$ kJ, $E_{H-H} = 435{,}14$ kJ foydalanib, ammiakning elementlardan hosil bo'lish reaksiyasi uchun entalpiya (kJ) qiymatini toping.
A) 87,84 B) 94,65 C) –87,84
D) –94, 65 E) –104,44

6. (02-1-72) Atsetilenning to la gidrogenlanishi reaksiyasi $C_2H_{2(g)} + 2H_{2(g)} - C_2H_{6(g)}$ uchun entalpiya qiymatini (kJ/mol) quyidagi ma'lumotlar asosida toping: $E_{c\equiv c} = 836{,}8$; $E_{c-c} = 347{,}27$; $E_{c-n} = 414{,}22$; $E_{n-n} = 435{,}14$.
A) 283,6 B) 253,5 C) –506,25
D) –297,11 E) –304,2

7. (02-1-73) Quyida keltirilgan tenglamalar asosida vodorod peroksidning oddiy moddalardan hosil bo'lish entalpiyasini (kJ/mol) hisoblang.
$H_{2(g)} + 0{,}5O_{2(g)} \rightarrow H_2O_{(g)}$ $\Delta H = -284{,}5$ kJ/mol
$H_2O_{(g)} + 0{,}5O_{2(g)} \rightarrow H_2O_{(g)}$ $\Delta H = 96{,}23$ kJ/mo
A) 188,3 B) –168,3 C) 168,3
D) –188,3 E) –178,3

8. (02-1-74) Keltirilgan tenglamalar asosida SO_3 ning oddiy moddalardan hosil bo'lish entalpiyasini (kJ/mol) toping.
$S_{(k)} + O_{2(k)} \rightarrow SO_{2(g)}$, $\Delta H = -292{,}88$ kJ/mol.
$\Delta H = -83{,}68$ kJ/mol
A) –376,56 B) 376,56 C) 209,2
D) –104,6 E) –209,6

9. (02-6-40) Ko'mirning molyar yonish issiqligi 393,5 kJ/molga teng. Tarkibida 55% uglerod bo'lgan 1 kg ko'mir to'liq yonganda, qancha issiqlik ajraladi?
A) 1280 B) 18035,4 C) 19350
D) 180,40 E) 3935

10. (02-6-42) 1 mol xrom (III) oksid alyuminiy bilan qaytarilganda, 534 kJ issiqlik ajraldi. Agar 7,6 g xrom (III) oksid qaytarilgan bo'lsa, qancha miqdor issiqlik ajraladi?
A) 70,26 B) 53,40 C) 76,00
D) 35,13 E) 26,70

11. (02-9-32) Quyidagi sistemada $SO_2 + O_2 \leftrightarrows SO_3$, $\Delta H = 192$ kJ, 1 l (n. sh.) oltingugurt (IV) oksidning yonishida qancha issiqlik (kJ) ajralib chiqadi?
A) 4,3 B) 8,6 C) 17,2 D) 96,2 E) 192

12. (03-1-22) 100 g Fe_2O_3 ni alyuminiy bilan qaytarganda, 476 kJ energiya ajraladi. Reaksiyaning issiqlik effekti necha kJ ga teng bo'ladi?
A) 238 B) 328 C) 762 D) 830 E) 876

13. (03-4-36) Vodorod molekulasi hosil bo'lishining termokimyoviy tenglamasi quyidagicha: $H + H \rightarrow H_2 + 436$ kJ/mol. Bir dona molekula uchun bog'lanish energiyasini (J) toping.
A) $7{,}24 \cdot 10^{-22}$ B) $4{,}35 \cdot 10^{-23}$ C) $8{,}7 \cdot 10^{-22}$
D) $1{,}45 \cdot 10^{-22}$ E) $7{,}24 \cdot 10^{-19}$

14. (03-4-37) Metan hosil bo'lishining termokimyoviy tenglamasi:
$C + 4H \rightarrow CH_4 + 1656{,}88$ kJ/mol. Bir molekula metan hosil bo'lishidagi bog'lanish energiyasining (J) qiymatini toping.
A) $2{,}75 \cdot 10^{-20}$ B) $27{,}5 \cdot 10^{-18}$ C) $6{,}88 \cdot 10^{-20}$
D) $6{,}88 \cdot 10^{-20}$ E) $2{,}75 \cdot 10^{-21}$

15. (03-5-27) Kalsiy oksidning hosil bo'lish issiqligi 635,1 kJ ga, CO_2 ning hosil bo'lish issiqligi 393,5 kJ ga teng bo'lsa va $CaCO_3$ parchalanganda, 145,3 kJ issiqlik yutilsa, $CaCO_3$ ning hosil bo'lish issiqligini (kJ) toping.
A) 1174 B) 539 C) 780 D) 925 E) 1025

16. (03-5-28) Agar ammiakning hosil bo'lish issiqligi 46 kJ, NO ning hosil bo'lish issiqligi 90,4 kJ va suv bug'larining hosil bo'lish issiqligi 242 kJ ga teng bo'lsa, ammiakning katalitik oksidlanish reaksiyasining issiqlik effektini (kJ) hisoblang.
A) 1630 B) 1583 C) 1539
D) 378 E) 1251

17. (03-5-29) Etil spirtning yonish issiqligi 1379 kJ ga teng bo'lsa, 1 kg etil spirt yonganda, qancha issiqlik (kJ) chiqadi?
A) 25642 B) 29978 C) 30964
D) 32768 E) 34560

18. (03-5-30) Ohakni so'ndirish reaksiyasida 67 kJ/mol issiqlik ajraladi. Tarkibida issiqlik effektiga ta'sir etmaydigan 20% qo'shimchasi bo'lgan 1 t ohak so'ndirilganda, qancha (kJ) issiqlik chiqadi?
A) $9{,}6 \cdot 10^5$ B) $8{,}7 \cdot 10^5$ C) $6{,}4 \cdot 10^5$
D) $1{,}2 \cdot 10^6$ E) $2{,}4 \cdot 10^6$

19. (03-7-28) 3,2 g oltingugurt yonganda, 27,9 kJ issiqlik ajralib chiqqan bo'lsa, oltingugurt (IV) oksidning hosil bo'lish issiqligini aniqlang.
A) 277 B) 377 C) 279 D) 270 E) 280

20. (03-9-5) Zichligi 0,9 g/ml bo'lgan 2 l benzolning to'liq yonishi uchun qancha hajm (m^3) havo zarur bo'ladi. Agar 1 mol benzol yonishida 3267,7 kJ issiqlik ajralsa, bu reaksiyada ajralgan issiqlik miqdorini (kJ) hisoblang.
A) 18,46; 75408,46
B) 12,30; 50272,30
C) 9,23,37704,23
D) 7,38; 30163,38
E) 6,15; 25136,15

21. (04-1-727) Qora poroxning portlash jarayonida uglerod, oltingugurt va kaliy nitrat aralashmasi orasida qattiq qoldiqning miqdoriga qaraganda gaz mahsulotlarining miqdori 4 marta ortiq bo'lib, unda 707 kJ issiqlik ajralib chiqadi. Shu jarayonda qatnashgan moddalar koeffitsiyentlari yig'indisini toping.
A) 8 B) 9 C) 10 D) 11 E) 12

22. (v5-125-26) Xlor molekulasi hosil bo'lishining termokimyoviy tenglamasi quyidagicha: Cl + Cl → Cl_2 + 242 kJ/mol. Bir dona molekula uchun bog'lanish energiyasini (J) hisoblang.
A) $7,3\cdot10^{-24}$ B) $4,5\cdot10^{-21}$ C) $4,02\cdot10^{-22}$
D) $4,02\cdot10^{-19}$ E) $2,4\cdot10^{20}$

23. (v6-101-23) Vodorod va metandan iborat 4.48 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 83,03 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida aralashmadagi metanning miqdorini (mol) hisoblang. $2H_2 + O_2 = 2H_2O + 572$ kJ; $CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O + 803$ kJ.
A) 0,15 B) 0,01 C) 0,11 D) 0,05

24. (v6-102-23) CH_4 va H_2 dan iborat 8.736 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 220,11 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida aralashmadagi vodorod hajmini (ml, n. sh.) hisoblang.
$CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O + 803$ kJ
$2H_2 + O_2 = 2H_2O + 572$ kJ.
A) 3357 B) 4704 C) 4032 D) 5379

25. (v6-103-23) Etin va etendan iborat 6.72 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 404,86 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida boshlang'ich gazlar aralashmasidagi atsetilenning miqdorini (mol) hisoblang.
$C_2H_2 + 2,5O_2 = 2CO_2 + H_2O + 1301$ kJ;
$C_2H_4 + 3O_2 = 2CO_2 + 2H_2O + 1413$ kJ.
A) 0,17 B) 0,14 C) 0,09 D) 0,13

26. (v6-106-23) Etilen va etindan iborat 6.72 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 412,7 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida boshlang'ich gazlar aralashmasidagi gazlarning hajmiy nisbatini hisoblang.
$C_2H_2 + 2,5O_2 = 2CO_2 + H_2O + 1301$ kJ;
$C_2H_4 + 3O_2 = 2CO_2 + 2H_2O + 1413$ kJ.
A) 1:1,5 B) 1:2 C) 1:3 D) 1:1

27. (v6-107-23) Reaksiyaning issiqlik effekti tenglamasi asosida 56 g metanolning to'la yonishidan hosil bo'lgan issiqlik hisobiga necha gramm qaynash temperaturasida turgan suvni bug'latish mumkin?
$2CH_3OH_{(g)} + 3O_{2(g)} = 2CO_{2(g)} + 4H_2O_{(g)} + 1530$ kJ; $H_2O_{(g)} = H_2O_{(g)} - 40$ kJ/mol.
A) 602,43 B) 2975 C) 18 D) 33,46

28. (v6-108-23) C_2H_4 va C_2H_2 dan iborat 8.064 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 495,24 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida boshlang'ich gazlar aralashmasidagi etilenning hajmini (ml, n. sh.) hisoblang. $C_2H_4 + 3O_2 = 2CO_2 + 2H_2O + 1413$ kJ;
$C_2H_2 + 2,5O_2 = 2CO_2 + H_2O + 1301$ kJ.
A) 3875 B) 4351 C) 2688 D) 5376

29. (v6-109-23) Reaksiyaning issiqlik effekti tenglamasi asosida 40 g propanolning to'la yonishidan hosil bo'lgan issiqlik hisobiga necha gramm qaynash temperaturasida turgan suvni bug'latish mumkin?
$2CH_3CH_2CH_2OH_{(g)} + 9O_{2(g)} = 6CO_{2(g)} + 8H_2O_{(g)} + 4020$ kJ; $H_2O_{(g)} = H_2O_{(g)} - 40$ kJ/mol.
A) 2978 B) 33,5 C) 603 D) 1340

30. (v6-110-32) 0,5 kg metil spirti yonganda qancha issiqlik (kJ) ajralib chiqishini quyidagi reaksiya asosida hisoblang.
$CH_3OH + 1,5O_2 \rightarrow CO_2 + 2H_2O + 595,3$ kJ.
A) 9301,6 B) 8807,5
C) 93,16 D) 10000

31. (v6-111-23) Reaksiyaning issiqlik effekti tenglamasi asosida 92,4 g propanol-2 ning to'la yonishidan hosil bo'lgan issiqlik hisobiga necha gramm qaynash temperaturasida turgan suvni bug'latish mumkin?
$2CH_3CH(OH)CH_{3(s)} + 9O_{2(g)} = 6CO_{2(g)} + 8H_2O_{(s)} + 3972$kJ; $H_2O_{(s)} = H_2O_{(g)} - 40$ kJ/mol.
A) 76,46 B) 6796,5 C) 3058,4 D) 1376,3

32. (v6-116-22) Quyidagi termokimyoviy tenglama asosida 10 ta metan molekulasi hosil bo'lishidagi bog'lanish energiyasining qiymatini (J) toping. C + 4H = CH_4 + 1656 kJ.
A) $6,02\cdot10^{-23}$ B) $2,75\cdot10^{-20}$
C) $1,82\cdot10^{-21}$ D) $2,75\cdot10^{-17}$

33. (v6-117-23) Metan va vodoroddan iborat 11,2 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 323,95 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida boshlang'ich aralashmadagi gazlarning mol nisbatini hisoblang. $CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O + 803$ kJ, $2H_2 + O_2 = 2H_2O + 572$ kJ.
A) 0,18:0,32 B) 0,20:0,30
C) 0,15:0,35 D) 0,10:0,40

34. (v8-102-19) Reaksiyaning issiqlik effekti tenglamasi asosida 64 g metanning to'la yonishidan hosil bo'lgan issiqlik hisobiga necha gramm qaynash temperaturasida turgan suvni bug'latish mumkin?
$CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O + 800$kJ,
$H_2O(c) = H_2O(g) + 40$ kJ/mol.
A) 3200 B) 80 C) 18 D) 1440

35. (v8-104-19) CH_4 va H_2 dan iborat 22,4 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 580 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida aralashmadagi vodorodning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
$2H_2 + O_2 \rightarrow 2H_2O + 500$kJ,
$CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O + 800$kJ.
A) 40 B) 25 C) 75 D) 60

36. (v8-105-19) Reaksiyaning issiqlik effekti tenglamasi asosida 90 g izopropanolning to'la yonishidan hosil bo'lgan issiqlik hisobiga necha mol qaynash temperaturasida turgan suvni bug'latish mumkin?
$CH_3CH(OH)CH_{3(c)} + 4,5O_{2(g)} = 3CO_{2(g)} + 4H_2O_{(c)} + 2000$ kJ; $H_2O_{(c)} \rightarrow H_2O_{(g)} - 40$ kJ/mol.
A) 75 B) 1350 C) 3000 D) 18

37. (v8-107-19) Vodorod va metandan iborat 11,2 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 290 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida aralashmadagi metanning miqdorini (mol) hisoblang.
$2H_2 + O_2 = 2H_2O + 500$ kJ;
$CH_4 + 2O_2 \rightarrow CO_2 + 2H_2O + 800$ kJ.
A) 0,2 B) 0,1 C) 0,4 D) 0,3

38. (v8-112-19) Etilen va etindan iborat 26,88 l (n. sh.) yondirilganda 1640 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida boshlang'ich aralashmadagi gazlarning hajmiy nisbatin hisoblang.
$C_2H_2 + 2,5O_2 = 2CO_2 + H_2O + 1300$ kJ;
$C_2H_4 + 3O_2 = 2CO_2 + 2H_2O + 1400$ kJ.
A) 1:4 B) 1:2 C) 1:3 D) 1:1

39. (v8-113-19) Metan va vodoroddan iborat 44,8 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 1160 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida boshlang'ich aralashmadagi gazlarning mol nisbatini hisoblang. $2H_2 + O_2 = 2H_2O + 500$ kJ, $CH_4 + 2O_2 = CO_2 + 2H_2O + 800$ kJ.
A) 1:3 B) 1:1,5 C) 1:2,5 D) 1:4

40. (v8-116-19) Etin va etendan iborat 17,92 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 1100 kJ issiqlik ajralgan. Termokimyoviy tenglamalar asosida boshlang'ich aralashmadagi atsetilenning miqdorini (mol) hisoblang.
$C_2H_2 + 2,5O_2 = 2CO_2 + H_2O + 1300$ kJ;
$C_2H_4 + 3O_2 = 2CO_2 + 2H_2O + 1400$ kJ.
A) 0,1 B) 0,4 C) 0,6 D) 0,2

41. (v11-103-6) 3,04 g temir (II) sulfatni oksidlash uchun necha gramm kaliy permanganat talab etiladi? Agar jarayon kislotali muhitda olib borilgan bo'lsa.
A) 0,316 B) 3,16 C) 0,79 D) 0,632

42. (v14-101-16) C_2H_2, CO_2 va H_2O ni hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda –226,7; 393,5 va 285,8 kJ/mol ga teng bo'lsa, 62,4 g asetilen gaz yonishidan necha kJ issiqlik ajraladi?
A) 554,8 B) –554,8 C) 6237,6 D) 3118,8

43. (v14-110-8) CO_2 va $H_2O_{(s)}$ ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 393,5 va 285,8 kJ/mol ga teng. C_2H_2 ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping (62,4 g asetilen gaz yonishidan 3118,8 kJ issiqlik ajraladi)?
A) 226,7 B) 113,35 C) –226,7 D) –113,35

44. (v14-116-2) CO_2 va C_2H_4 ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda, 393,5 va –52,4 kJ/mol ga teng. H_2O ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping (56 g etilen gazi yonishidan 2646 kJ issiqlik ajraladi)?
A) 241,8 B) 179,4 C) 269,1 D) 258,8

45. (v14-118-4) 84 g diboran gazi yonishidan necha kJ issiqlik ajraladi (B_2H_6, B_2O_3 va $H_2O_{(s)}$ ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 95,3; 1273,5 va 285,8 kJ/mol ga teng)?
A) 2035,6 B) 4071,2
C) 6106,8 D) 1017,8

46. (v14-130-21) B_2O_3 va H_2O ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 1273,5 va 285,8 kJ/mol ga teng. B_2H_6 ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping (44,8 l (n. sh.) diboran gazi yonishidan 4071,2 kJ issiqlik ajraladi).
A) 190,6 B) 98,8 C) 285,9 D) 95,3

47. (v15-124-9) $2C_2H_6 + 7O_2 \rightarrow 4CO_2 + 6H_2O$ reaksiyaning issiqlik effektini (kJ) aniqlang. $H_2O_{(g)}$, CO_2 va C_2H_6 larni hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 241,8 kJ/mol; 393,5 kJ/mol va 89,7 kJ/mol ga teng.
A) 2845,4 B) 4268,1
C) 1422,7 D) 2134,05

48. (v15-130-15) Necha gramm diboran gazi yonishidan 6106,8 kJ issiqlik ajraladi? B_2H_6, B_2O_3 va $H_2O_{(s)}$ hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 95,3; 1273,5 va 285,8 kJ/mol ga teng.
A) 52 B) 56 C) 28 D) 84

49. (v15-132-11) CO_2 va C_2H_4 ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda, 393,5 va –52,4 kJ/mol ga teng. H_2O ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping. (56 g etilen gazi yonishidan 2646 kJ issiqlik ajraladi.)
A) 241,8 B) 258,8 C) 269,1 D) 179,4

50. (v16-113-4) Reaksiya natijasida 29,8 litr (25°C, 207,85 kPa) kislorod hosil bo'lishi uchun kaliy xloratni parchalashga sarflangan issiqlik miqdorini (kJ) aniqlang. (Kaliy xlorat va kaliy xloridlarning hosil bo'lsh issiqliklari mos ravishda 391 kJ/mol va 437 kJ/mol ga teng.)
A) 766 B) 76,6 C) 378 D) 18,32

51. (v16-117-11) Reaksiya natijasida 9,6 g kislorod hosil bolishi uchun kaliy xloratni parchalashga sarflangan issiqlik miqdorini (kkal) aniqlang. (Kaliy xlorat va kaliy xloridlarning hosil bo'lsh issiqliklari mos ravishda 391 kJ/mol va 437 kJ/mol ga teng. 1 kkal = 4,184 kJ.)
A) 9,2 B) 2,2 C) 9200 D) 18.4

52. (v16-121-25) Reaksiya natijasida 5,6 g azot hosil bo'lishi uchun ammoniy dixromatni parchalashga sarflangan issiqlik miqdorini (kkal) aniqlang. (Ammoniy dixromat, xrom (III) oksid va suvlarning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 1808 kJ/mol, 1141 kJ/mol va 286 kJ/mol ga teng, 1 kkal = 4,184 kJ.)
A) 22,8 B) 285 C) 95,4 D) 1192,5

53. (v17-105-23) Murakkab moddalarning oddiylarga parchalashdagi issiqligi ularning hosil bo'lish issiqliklariga teng va qarama-qarshi ishora bilan ifodalanadi. Bu qonunni yaratgan olimlarni ko'rsating:
A) Boyl va Mariott
B) Lavuaz'ye va Laplas
C) Arrenius va Rezenford
D) Mendeleyev va Klayperon

54. (v17-107-22) Sulfat kislotaning erishida hosil bo'ladigan issiqlik jarayonlari, ammoniy nitrat erishidagi hosil bo'ladigan issiqlikdan nima bilan farq qiladi?
A) ekzotermik jarayon, endotermik jarayon
B) endotermik jarayon, ekzotermik jarayon
C) qaytarish jarayoni
D) oksidlanish jarayoni

55. (v17-112-29) 6 g sirka kislota yonishida 87,379 kJ issiqlik ajraladi. Bu reaksiyaning termokimyoviy tenglamasini tuzing.
A) 853,79 kJ B) 873 kJ
C) 873,79 kJ D) 8730 kJ

56. (v17-115-32) Metil spirtining yonish reaksiyasi issiqlik effektini aniqlang.
$CH_3OH - \Delta H_1 - 58,5$ kj
$CO_2 - \Delta H_2 - 94$ kj
$H_2O - \Delta H_3 - 68,3$ kj.
A) 289,1 B) 239,1
C) 229,1 D) 220,1

57. (v17-117-1) CH_4 va O_2 aralashmasi yondirilishidan 3,2 g O_2 ortib qoldi va 160 kJ issiqlik ajralib chiqdi. Metanning yonish issiqligi 800 kJ/mol bo'lsa, dastlabki aralashmaning mol nisbatini toping.
A) 2:5 B) 2:3 C) 1:4 D) 1:3

58. (v17-120-3) Agar karbonat angidrid gazi, botqoq gazi va suvning entalpiyalari 293,5; –127,5; 185,5 bo'lsa, 41,6 g botqoq gazining yonishidan qancha issiqlik (kJ) ajraladi?
A) 751
B) 1770
C) 2059,2
D) 880

V bob. Elekrolit va noelektrolitlar eritmalarining fizik-kimyoviy nazariyasi

29. Eritmalar konsentratsiyasining ifodalash usullari. Eritmalar

1. (96-10-32) zichligi 1,611 g/sm^3 bo'lgan 70% li sulfat kislota eritmasining molyar konsentratsiyasini hisoblang [A_r(S) = 32].
A) 5,57 B) 11,50 C) 17,45
D) 23,0 E) 28,75

2. (96-13-11) Sulfat kislotaning 0,5 molyarli eritmasidan 500 ml tayyorlash uchun 2 molyarli kislota eritmasidan qancha talab etiladi?
A) 175 ml B) 150 ml C) 125 ml
D) 200 ml E) 250 ml

3. (96-15-82) Agar tashqi ta'sir bo'lmasa qanday dispers sistemalar barqaror bo'ladi, ya'ni eskirmaydi?
1) chin eritmalar; 2) suspenziyalar;
3) emulsiyalar; 4) kolloid eritmalar.
A) 1 va 4 B) faqat 1 C) 2 va 3
D) faqat 4 E) 3 va 4

4. (96-15-108) Zichligi 1,1 g/sm^3 bo'lgan 20% li xlorid kislota eritmasining necha litrida 3 mol vodorod xlorid bor?
A) 2,0 B) 1,5 C) 1,0 D) 0,5 E) 0,3

5. (97-3-20) 1 litrida 11,2 l vodorod xlorid erigan eritmaning molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 0,5 B) 0,6 C) 0,75 D) 1,0 E) 1,2

6. (97-3-49) 0,5 litr suvda 500 gramm kaliy nitrat eritilgan bo'lsa, eritmaning protsent konsentratsiyasini aniqlang:
A) 50 B) 30 C) 40 D) 45 E) 25

7. (97-4-12) Olmalarni qishda saqlash uchun, ular kalsiy xloridning 0,3% li eritmasiga bir necha sekund botirib olinadi va so'ngra omborga teriladi. Shu eritmaning molyar konsentratsiyasini aniqlang? [A_r[Ca] = 40, A_r[Cl] = 35,5].
A) 1,27 B) 0,154 C) 0,127
D) 0,054 E) 0,027

8. (97-4-40) 34% li sulfat kislota eritmasining (ρ = 1,25 g/ml) molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 2,5 B) 3,3 C) 4,3 D) 5,1 E) 5,8

9. (97-4-46) 61,6 g $Fe_2(SO_4)_3 \cdot 12H_2O$ 138,4 g suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmadagi temir (III) sulfatning massa ulushini aniqlang [A_r(Fe) = 56, A_r(S) = 32]
A) 20 B) 25 C) 30 D) 35 E) 40

10. (97-11-50) Natriy gidroksid eritmasining konsentratsiyasi 40% li bo'lsa, uning molyar konsentratsiyasi qanday? (ρ = 1,2 g sm^{-3}), [A_r(Na) = 23].
A) 6,2 B) 8,0 C) 10 D) 12 E) 14

11. (97-11-101) Nitrat kislotani 12,0 M eritmasining (ρ = 1,35 g sm^{-3}) foiz konsentratsiyasi qancha bo'ladi?
A) 55,0 B) 55,5 C) 56,0 D) 56,5 E) 56,9

12. (97-12-24) 60% li fosfat kislota eritmasining (ρ = 1,5 g/ml) molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 8 B) 9,2 C) 10,2 D) 1,2 E) 12,7

13. (98-1-23) Tarkibida 18,9 g nitrat kislota tutgan eritmaning 0,5 l miqdorini 0,5 l da 14 g kaliy gidroksid tutgan eritma bilan aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmadagi tuzning molyar konsentratsiyasi qanday?
A) 0,30 B) 0,25 C) 0,48
D) 0,55 E) 0,60

14. (98-3-12) Quyidagi qaysi xususiyatlar eritmalarga taalluqli bo'ladi?
1) bir jinsli sistemalar; 2) ko'p jinsli sistemalar;
3) erituvchi faqat suv bo'ladi; 4) erituvchi sifatida xohlagan suyuqlik bo'lishi mumkin;
5) erigan modda-faqat suyuqlik; 6) erigan modda qattiq, suyuq, gaz bo'lishi mumkin.
A) 1, 2, 5 B) 1, 4, 6 C) 1, 4, 6
D) 2, 3, 5 E) 2, 5, 6

15. (98-3-31) Konsentratsiyasi 0,3 mol/l bo'lgan eritmaning 200 ml miqdorida necha gramm natriy karbonat erigan? [A_r(Na) = 23]
A) 10,6 B) 8,0 C) 6,36 D) 12,7 E) 4,12

16. (98-3-32) Vodorod xloridning necha gramm miqdoridan 2 l 0,5 mol/l li eritma tayyorlash mumkin? [A_r(Cl) = 35,5].
A) 54,75 B) 18,25 C) 9,1 D) 36,5 E) 27,7

17. (98-3-33) Konsentratsiyasi 0,2 mol/l bo'lgan 500 ml temir (III) xlorid eritmasi tayyorlash uchun necha gramm tuz talab etiladi? [A_r(Fe) = 56, A_r(Cl) = 35,5]
A) 162,5 B) 45 C) 18
D) 81,25 E) 16,25

18. (98-4-14) 20% li xlorid kislota eritmasining (ρ = 1,1 g/sm^3) qanday hajmida 3 mol vodorod xlorid bo'ladi?
A) 672 B) 498 C) 564 D) 402 E) 503

19. (98-4-62) 2 litr 2 molyar eritma tayyorlash uchun qancha mol kaliy gidroksid kerak?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

20. (98-8-59) O'yuvchi kaliyning massa ulushi 0,2 bo'lgan eritmasi (zichligi 1,25 g/ml) dan 140 g miqdori bilan 120 ml 1,5 mol/l konsentratsiyali eritmasi aralashtirilganda hosil bo'lgan yangi eritmadagi moddaning molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 2,5 B) 2,9 C) 3,2 D) 4,2 E) 4,7

21. (98-8-67) 55,5 ml atseton bilan 44,5 ml suv aralashmasidagi atsetonning massa ulushini toping. Atsetonning 25°C dagi zichligi 0,786 g/ml. Eritma hosil bo'lishida hajm o'zgarishini hisobga olmang.
A) 0,50 B) 0,45 C) 0,55 D) 0,60 E) 0,40

22. (98-8-68) 55,5 ml atseton bilan 44,5 ml suv aralashmasi (eritma zichligi 0,99 g/ml) dagi atsetonning molyar konsentratsiyasini aniqlang. Atsetonning zichligi 0,786 g/ml. Eritma hosil bo'lishida xajm o'zgarishini hisobga olmang [M_r(atseton) = 58]
A) 7,5 B) 7,0 C) 6,6 D) 5,8 E) 5,0

23. (98-9-58) Massasi 87,75 g bo'lgan osh tuzi 750 ml suvda eritilganda hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini hisoblang. Eritma tayyorlashda hajm o'zgarishini hisobga olmang. [M_r(Na) = 23; M_r(Cl) = 35,5]
A) 1,75 B) 2,0 C) 2,25 D) 2,5 E) 2,75

24. (98-12-9) Konsentratsiyasi 5% (ρ = 1,06 g/ml) bo'lgan 700 ml va 300 ml 15% li (ρ = 1,17 g/ml) natriy gidroksid eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan aritmaning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 2,4 B) 2,8 C) 2,0 D) 2,2 E) 2,5

25. (99-1-9) 0,1 l suvda 45 litr vodorod xlorid gazi eritilganda, zichligi 1,21 g/sm^3 bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Hosil qilingan xlorid kislotaning foiz va molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 33,0; 14 B) 36,0; 10 C) 37,6; 20
D) 39,0; 12 E) 40,2; 13

26. (99-2-10) 20% li NaOH eritmasining (ρ = 1,2 g/ml) molyar konsentratsiyasi qanchaga teng bo'ladi?
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8 E) 9

27. (99-5-56) Eritmaning muayyan hajmida erigan moddaning miqdori kam bo'lsa, bunday eritma qanday nomlanadi?
1) konsentrlangan; 2) to'yinmagan; 3) o'ta to'yingan; 4) to'yingan; 5) suyultirilgan.
A) 1, 2 B) 2, 5 C) 3, 4 D) 1, 4 E) 3, 5

28. (99-5-59) Berilgan temperaturada erigan moddadan yana erishi mumkin bo'lgan eritma qanday nomlanadi?
1) konsentrlangan; 2) suyultirilgan; 3) to'yingan eritma; 4) to'yinmagan; 5) o'ta to'yingan.
A) 1, 5 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 4 E) 4, 5

29. (99-6-76) Eritmaning titri uning 1 ml hajmida erigan moddaning grammlar soniga (g/ml) teng. Sulfat kislotaning besh molyarli eritmasining titrini hisoblang.
A) 0,98 B) 0,49 C) 4,9 D) 9,8 E) 49,0

30. (99-6-78) Massa ulushi 0,38 bo'lgan xlorid kislotaning qanday hajmi (ml) dan (zichligi 1,19 g/ml) 0,05 m 10 l eritma tayyorlash mumkin?
A) 4,04 B) 15,33 C) 480,3
D) 40,36 E) 20,18

31. (99-6-80) Tarkiblarida 18,9 g/l nitrat kislota, 3,2 g/l natriy gidroksid bo'lgan eritmalarni qanday hajm nisbatida aralashtirganda, neytral sharoit hosil bo'ladi?
A) 1,73:1 B) 2:3,75 C) 1:3,75
D) 1:5,9 E) 7,5:1

32. (99-6-84) Molyar konsentratsiyasi 0,25 mol/l li RO_4^{3-} ionlari bo'lgan eritmaning 2 l miqdoridagi ionlar massasini (g) hisoblang.
A) 23,75 B) 24,5 C) 47,5 D) 49 E) 380

33. (99-7-4) Eritmaning zichligi qaysi formuladan foydalanib topiladi?
A) $n = \frac{m}{M}$ B) $V = \frac{m}{\rho}$ C) $\rho = \frac{m}{V}$
D) $w = \frac{m}{M}$ E) $M = \frac{m}{n}$

34. (99-7-37) Hajmi 200 ml bo'lgan alyuminiy sulfat eritmasidan 40,8 g alyuminiy oksid olingan bo'lsa, boshlang'ich eritmadagi tuzning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 0,002 B) 0,02 C) 0,2 D) 2 E) 0,4

35. (99-7-44) Bromning zichligi 3,12 g/ml. Hajmi 2 l bo'lgan idishdagi brom massasini (g) va modda miqdorini hisoblang.
A) 6240; 34,67 B) 64; 4 C) 140; 0,4
D) 280; 12,5 E) 624; 0,04

36. (00-1-50) 50 ml HCl eritmasi 100 ml 2,0 M li KOH ni to'liq neytrallaydi. HCl eritmasining konsentratsiyasi (mol/l) nechaga teng?
A) 4 B) 5 C) 3 D) 2 E) 1

37. (00-3-51) Mo'l miqdordagi kislorod ishtirokida 0,8 mol azot (IV) oksid 4 mol suvda eritildi. Eritmaning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 0,8 B) 1,25 C) 11 D) 5 E) 9

38. (00-5-14) Massasi 615 g bo'lgan magniy sulfat kristallogidratida tuz molekulalarining suv molekulalariga nisbati 1:7 bo'lsa, undagi kislorod atomlari sonini toping.
A) 11 B) 27,5 C) $15 \cdot 10^{23}$
D) $17,5\ 10^{23}$ E) $1,65 \cdot 10^{25}$

39. (00-6-53) Hajmi 2 ml bo'lgan 37% li eritmada erigan modda miqdori 0,762 g bo'lsa, eritmaning zichligi (g/ml) ni aniqlang.
A) 1,12 B) 1,07 C) 1,03 D) 1,14 E) 1,09

40. (00-7-11) Konsentratsiyasi 25% bo'lgan eritmaning 1 ml hajmida 0,458 g modda bor bo'lsa, shu eritmaning zichligi (g/ml) ni aniqlang.
A) 1,48 B) 1,74 C) 1,46
D) 0,458 E) 1,83

41. (00-9-31) 32 g metil spirt 128 g suvda eritildi. Agar hosil bo'lgan eritmaning zichligi 0,97 g/ml ga teng bo'lsa, uning molyar konsentratsiyasi (mol/l) qanchaga teng bo'ladi?
A) 6,1 B) 6,5 C) 6,8 D) 7,2 E) 8,5

42. (00-9-32) Massa ulushi 40% bo'lgan natriy nitrat eritmasining (zichligi 1,32 g/ml) molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 6,2 B) 5,6 C) 6,4 D) 6,8 E) 7,1

43. (00-9-85) 20% li sulfat kislotaning (ρ = 1,15) molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 2,20 B) 2,12 C) 2,35 D) 2,05 E) 1,96

44. (01-2-74) Kislotali sharoit uchun olingan 2 l 0,1 M $K_2Cr_2O_7$ eritmasini tayyorlash uchun qancha gramm $K_2Cr_2O_7$ kerak?
A) 58,4 B) 65,6 C) 77,2
D) 68,3 E) 89,8

45. (01-3-81) Sulfat kislotaning 0,5 molyarli eritmasidan 750 ml tayyorlash uchun uning 1 M li eritmasidan qancha hajm (ml) olish kerak?
A) 225 B) 125 C) 250 D) 375 E) 300

46. (01-3-83) Zichligi 1,55 g/ml bo'lgan 60% li sulfat kislota eritmasining molyar konsentratsiyasini toping.
A) 9,2 B) 9,5 C) 9,0 D) 8,5 E) 8,8

47. (01-3-84) Zichligi 1,611 g/ml bo'lgan 70% li sulfit kislota eritmasining molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 10,36 B) 12,36 C) 13,36
D) 11,45 E) 13,75

48. (01-3-85) Hajmi 0,75 l bo'lgan suvda 1,12 l (n. sh.) vodorod xlorid eritildi. Eritmaning molyar konsentratsiyasini toping (ρ = 1,015 g/ml).
A) 0,18 B) 0,20 C) 0,22
D) 0,067 E) 0,25

49. (01-3-86) Zichligi 1,361 g/ml bo'lgan 63% li nitrid kislota eritmasining molyar konsentratsiyasini toping.
A) 15,6 B) 14,3 C) 18,3
D) 13,6 E) 14,6

50. (01-3-88) 250 g suvda 60 g sulfat kislota eritildi. Hosil bo'lgan eritmaning foizli va molyar konsentratsiyalarini aniqlang. Eritma zichligi 1,055 g/ml.
A) 9,6; 0,82 B) 19,4; 2,1 C) 9,0; 0,82
D) 8,9; 0,90 E) 7,5; 0,8

51. (01-3-89) Kaliy xloridning 0,5 M 250 ml eritmasidagi K^+ va Cl^- ionlarining massasini hisoblab toping.
1) 4,44; 2) 444,0; 3) 44,4;
4) 487,5; 5) 48,75; 6) 4,88.
A) 1, 4 B) 2, 5 C) 3, 6 D) 1, 6 E) 6, 1

52. (01-7-7) HNO_3 ning 40 ml 96% li eritmasi (ρ = 1,5 g/ml) bilan HNO_3 ning 30 ml 48% li eritmasi (ρ = 1,3 g/ml) ni aralashtirish orqali olingan eritmaning zichligi ρ = 1,45 g/ml bo'lsa, shu kislotaning molyar konsentratsiyasini toping.
A) 17 B) 17,7 C) 16 D) 15 E) 17,3

53. (01-7-9) $CuSO_4$ ning 10 ml 10% li (ρ = 1,1 g/ml) eritmasi bilan 10 ml 1% li (ρ = 1,0 g/ml) eritmasi aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini toping.
A) 0,11 B) 0,625 C) 0,445
D) 0,375 E) 0,15

54. (01-7-54) Konsentratsiyasi 3 M bo'lgan eritmaning 500 ml hajmini necha litrgacha suyultirilganda, uning konsentratsiyasi 0,5 molyar bo'ladi?
A) 5 B) 2 C) 1,6 D) 6 E) 3

55. (01-8-37) Hajmi 4 l, konsentratsiyasi 20% bo'lgan kaliy ishqori eritmasi (ρ = 1,19 g/l) ning hajmi ikki marta kamayguncha bug'latilganda qolgan eritmaning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 0,35 B) 6,5 C) 12,3 D) 9,8 E) 8,5

56. (01-10-37) Qaysi modda eritmasida rux plastinkasi saqlab turilganda, plastinkaning massasi kamayadi?
1) $FeSO_4$; 2) $Pt(NO_3)_2$; 3) $HgCl_2$; 4) HCl.
A) 2, 3 B) 2 C) 1, 2 D) 1, 4 E) 1, 3, 4

57. (01-12-24) Normal sharoitda 1 hajm suvda 4 hajm vodorod sulfid erisa, hosil bo'lgan sulfid kislota eritmasining molyarligini hisoblang.
A) 0,19 B) 0,10 C) 0,18 D) 0,17 E) 0,16

58. (02-1-85) 450 ml 1,2 M li kalsiy xloridning eritmasi suyultirilganda, 0,8 M li eritma hosil bo'lgan. Hosil bo'lgan eritmaning hajmini (l) toping.
A) 0,9 B) 1,2 C) 1,5
D) 0,675 E) 1,35

59. (02-2-8) Kaliy gidroksidning ikki molyarli eritmasini hosil qilish uchun 1,2 molyarli eritmasining 150 ml hajmidan necha millilitr suvni bug'latish kerak?
A) 45 B) 55 C) 60 D) 65 E) 70

60. (02-5-6) Sulfat kislotaning 2 M 134 g (ρ = 1,12 g/ml) va 4 M 282 g (ρ = 1,24 g/ml) eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 2,8 B) 0,6 C) 3,3 D) 3,8 E) 2,9

61. (02-5-7) Mis sulfatning 0,1 M eritmasidan 2 l tayyorlash uchun necha gramm mis kuporosi kerak bo'ladi?
A) 32 B) 38 C) 46 D) 50 E) 64

62. (02-7-11) Hajmi 5 ml bo'lgan 27% li eritmada erigan moddaning massasi 1,5 g bo'lsa, eritmaning zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,12 B) 1,08 C) 1,11
D) 1,09 E) 1,14

63. (02-9-49) Titri 0,735 g/ml bo'lgan sulfat kislota eritmasining normalligini hisoblang.
A) 0,735 B) 1,88 C) 3,75
D) 7,5 E) 15

64. (02-9-51) Titrlari bir xil bo'lgan qaysi modda eritmasining molyar konsentratsiyasi eng yuqori?
A) natriy bromid B) rubidiy nitrat
C) kaliy sulfat D) kalsiy xlorid
E) natriy sulfat

65. (02-9-54) Quyidagi bir xil massa ulushga ega bo'lgan eritmalarning qaysi birida eritmaning normalligi eng katta (eritmaning zichligi bir xil deb hisoblang)?
A) xlorid kislota B) sulfat kislota
C) mis (II) sulfat D) natriy gidroksid
E) kaliy yodid

66. (02-10-50) 41 gramm Na_3PO_4 suvda eritilib, hajmi 750 ml ga yetkazildi. Hosil bo'lgan eritmadagi natriy ionlarining konsentratsiyasini (mol/l) toping.
A) 0,01 M B) 0,4 M
C) 0,25 M D) 1 M
E) 1,5 M

67. (02-10-52) 0,3 M $CaBr_2$ va 0,3 M NaBr lar eritmalarining teng hajmlari aralashtirilganda, eritmadagi brom ionlarining molyar konsentratsiyasi qanday bo'ladi?
A) 0,1 B) 0,45 C) 0,9
D) 0,6 E) 0,3

68. (02-11-8) Ma'lum temperaturada 100 hajm suvda 2 hajm efir eriydi. Suvdagi efirning mol ulushini hisoblang (ρ_{efir} = 0,71 g/ml).
A) $5,56 \cdot 10^{-2}$ B) $5,56 \cdot 10^{-3}$ C) $3,44 \cdot 10^{-2}$
D) $3,44 \cdot 10^{-3}$ E) 0,019

69. (02-12-4) Tarkibida 11,2 mol vodorod atomi bor $Al_2(SO_4)_3$ eritmasining konsentratsiyasi 44% ga teng bo'lsa, eritma va erigan modda massasini toping.
A) 180; 79,2 B) 110; 70,5 C) 120; 67,4
D) 180; 70,5 E) 101; 79,2

70. (02-12-6) Agar eritmaga erigan moddadan qo'shganimizda, konsentratsiya oshmasa, buning sababi nimada?
A) erigan moddaning mol soni ortishi bilan eritmaning hajmi ham ortadi
B) erigan moddadan kristallizatsiya suvi ajralib chiqadi va erituvchi miqdori ortadi
C) eritma soviydi
D) eritma to'yingan, qo'shilgan modda cho'kmada qoladi
E) bunday hodisa bo'lishi mumkin emas

71. (02-12-7) Konsentrlangan tuz eritmasiga shu tuzning suyultirilgan eritmasi qo'shilganda, nima kamayadi?
A) tuzning mol soni
B) erituvchi miqdori
C) eritmaning temperaturasi
D) eritmaning hajmi
E) eritmaning konsentratsiyasi

72. (02-12-8) Ikkita HCl eritmalarining konsentratsiyalari orasidagi nisbat 1:2 ga teng. Ikkala eritmaning umumiy hajmi 25 l bo'lsa, konsentratsiyasi kichik bo'lgan eritmaning hajmi necha litr bo'ladi (Ikkala eritmada bir xil massada HCl eritilgan)?
A) 16,67 B) 10,0 C) 15,56
D) 17,77 E) 18,88

73. (02-12-28) Hajmi 1 ml bo'lgan 25% li eritmadagi erigan moddaning massasi 0,458 g bo'lsa, eritmaning zichligini toping.
A) 1,832 B) 2,016 C) 1,082
D) 1,563 E) 2,832

74. (03-3-13) Titrlari bir xil bo'lgan qaysi kislota eritmasining molyar konsentratsiyasi eng kichik bo'ladi?
A) sulfat B) perxlorat C) nitrat
D) xlorid E) vodorod yodid

75. (03-3-51) KOH ning zichligi 1,263 g/ml bo'lgan 28% li eritmasining normalligini toping.
A) 6,3 B) 3,15 C) 12,6 D) 8 E) 5,2

76. (03-5-51) Zichligi 1,035 g/ml bo'lgan 9% li saxaroza eritmasining molyarligini hisoblang.
A) 0,18 B) 0,27 C) 0,38
D) 0,51 E) 0,72

77. (03-6-65) 34% li 1 ml eritmaning tarkibida 0,435 g erigan modda bo'lsa, eritmaning zichligini toping (g/ml).
A) 1,28 B) 1,75 C) 2,4
D) 2,25 E) 2,28

78. (03-7-51) 59,24% li (ρ = 1,49 g/sm^3) sulfat kislota eritmasining normal konsentratsiyasini aniqlang.
A) 18 B) 9 C) 27 D) 36 E) 49

79. (03-10-22) Mis(II) sulfatning 24°C da to'yingan eritmasida 18% li mis(II) sulfat (ρ = 1,2 g/ml) bo'ladi. Shu eritmaning molyar konsentratsiyasini (%) toping.
A) 2,35 B) 1,35 C) 1,53
D) 1,83 E) 2,15

80. (04-1-61) Molyar konsentratsiyalari bir xil bo'lgan eritmalarning zichliklari bir xil bo'lsa, ularning qaysi birida erigan moddaning massa ulushi kattaroq bo'ladi?
A) mis (II) sulfat B) sulfat kislota
C) xlorid kislota D) nitrat kislota
E) kaliy yodid

81. (04-1-318) Tarkibida 36,5% xlorid kislota tutgan eritmaning (ρ = 1,28 g·sm^{-3}) molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 11,8 B) 10 C) 12,8
D) 13,2 E) 14,1

82. (04-1-325) Tarkiblarida 0,48 g/l nitrat kislota, 3,2 g/l kaliy gidroksid bo'lgan eritmalarni qanday hajm nisbatida aralashtirganda neytral muhit hosil bo'ladi?
A) 1,73:1 B) 2:3,75 C) 1:5
D) 1:7,5 E) 7,5:1

83. (04-1-327) Massa ulushi 41,2% bo'lgan natriy nitrat eritmasining (zichligi 1,32 g/ml) molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 6,2 B) 5,6 C) 6,4 D) 6,8 E) 7,1

84. (04-1-558) Hajmi 200 ml bo'lgan alyuminiy sulfat eritmasidan 8,16 g alyuminiy oksid olingan bo'lsa, boshlang'ich eritmadagi tuzning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 0,002 B) 0,02 C) 0,2 D) 2 E) 0,4

85. (05-1-169) Zichligi 1,25 g/sm^3 bo'lgan 36,5% li xlorid kislota eritmasining necha litrida 5 mol vodorod xlorid bor?
A) 2,0 B) 1,5 C) 0,4 D) 0,5 E) 0,3

86. (v4-111-24) Kalsiy xloridning 250 ml 0,75 M eritmasi bilan reaksiyaga kirishish uchun natriy karbonatning 1,2 M eritmasidan necha millilitr kerak?
A) 252,5 B) 93,75 C) 300,5
D) 281,2 E) 156,25

87. (v4-115-34) Massa ulushi 36,5% xlorid kislota eritmasidan (ρ = 1,18 g/ml) qancha hajm (ml) olib, 1,5 molyarli eritmadan 2,5 l tayyorlash mumkin?
A) 318 B) 336 C) 269
D) 248 E) 296

88. (v5-103-25) Temir (III) xlorid eritmasining 40 sm^3 bilan to'la reaksiyaga kirishish uchun o'yuvchi natriyning 1 M eritmasidan 20 ml sarflangan. $FeCl_3$ ning normalligini hisoblang.
A) 0,8 B) 1,3 C) 0,3 D) 1 E) 0,5

89. (v5-105-11) 60% li (ρ = 1,5 g/ml) fosfat kislota eritmasining molyarligini aniqlang.
A) 9,5 B) 10,4 C) 9,2
D) 8,3 E) 8,9

90. (v5-114-24) 14,7% li KON eritmasining zichligi 1,35 g/sm^3 ga teng bo'lsa, eritmaning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 4,3 B) 2,7 C) 5,2 D) 3,5 E) 12,9

91. (v5-116-26) 4,24 g natriy karbonatni neytrallash uchun 800 ml sulfat kislota eritmasi sarflandi. Sulfat kislota eritmasining molyarligini hisoblang.
A) 0,03 B) 0,04 C) 0,05
D) 0,06 E) 0,02

92. (v6-108-18) Bir xil hajmli ikkita kolbaning birini metan kislota, ikkinchisini suv bilan toldirishga $10{,}05 \cdot 10^{23}$ kislota va $21{,}07 \cdot 10^{23}$ suv molekulalari sarflandi. Kislotaning zichligini (g/ml) hisoblang.
A) 1,22 B) 0,98 C) 1,36 D) 1,18

93. (v6-115-29) 10 mol/l nitrat kislota eritmasining (ρ = 1,30 g/sm^3) foiz konsentratsiyasi qanday bo'ladi?
A) 42 B) 38 C) 55 D) 48

94. (v7-118-28) Tarkiblarida 9,8 g/l sulfat kislota va 12 g/l natriy gidroksid bo'lgan eritmalarni qanday hajm nisbatida (mos ravishda) aralashtirilganda neytral sharoit hosil bo'ladi?
A) 0,5:1 B) 1:1
C) 1,25:1 D) 1,5:1

95. (v8-108-23) 3 ml 28% li eritmada 0,7 g etanol bo'lsa, shu eritmaning zichligini toping.
A) 0,69 B) 0,95 C) 10,83 D) 0,74

96. (v9-107-11) 200 g 13,25% li natriy karbonat va 150 g 14,6% li xlorid kislotalarning o'zaro ta'sirlashuvidan olingan eritmadagi (ρ = 1,13 g/ml) moddalarning molyar konsentratsiyalarini aniqlang.
A) 1/3; 5/6
B) 1/3; 5/3
C) 1/4; 3/4
D) 1/2; 1/4

97. (v12z-202-33) $NaNO_3$ eritmasining foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 6,8:1 bo'lsa, eritma zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 0,85 B) 1,85 C) 1,25 D) 1,68

98. (v12z-206-29) HI eritmasining (ρ = 1,6 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbatini aniqlang.
A) 8:1 B) 12,8:1 C) 4:1 D) 1,6:1

99. (v12z-210-17) HBr eritmasining (ρ = 1,35 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbatini aniqlang.
A) 4:1 B) 13,5:1 C) 8,1:1 D) 6:1

100. (v12z-221-21) H_2SO_4 eritmasining foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 5 l bo'lsa, eritma zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,96 B) 1,5 C) 1,84 D) 1,2

101. (v12z-222-20) HI eritmasining foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 8:1 bo'lsa; eritma zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,6 B) 0,81 C) 1,28 D) 1,8

102. (v12z-225-8) Qaysi modda eritmasining (ρ = 1,5 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 8:1?
A) HI B) $Ba(OH)_2$ C) $MgSO_4$ D) H_2SO_3

103. (v12z-226-24) HNO_3 eritmasining foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 3,5:1 bo'lsa, eritma zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,35 B) 1,63 C) 1,7 D) 1,8

104. (v12z-229-9) Qaysi modda eritmasining (ρ = 1,25 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 6,8:1?
A) NaOH B) H_2SO_3
C) $Ca(OH)_2$ D) $NaNO_3$

105. (v12z-230-17) 0,7 mol KOH tutgan eritmaning foiz va molyar konsentratsiyalari nisbati 4:1 bo'lsa eritma zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 0,7 B) 1 C) 1,2 D) 1,4

106. (v12z-230-19) $NaNO_3$ eritmasi tarkibida 4,5% vodorod bo'lsa, shu eritmadagi kislorodning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 36 B) 64 C) 69,6 D) 38,1

107. (v12z-237-33) Ikkita natriy ishqori eritmalarining molar konsentratsiyalari orasidagi nisbat 1:3 ga teng. Ikkala eritmaning umumiy hajmi 40 l bo'lsa, past konsentratsiyali eritmaning hajmi necha litr bo'ladi (ikkala eritmada bir xil massada NaOH eritilgan)?
A) 30 B) 20 C) 5 D) 10

108. (v12z-250-12) Qaysi modda eritmasining (ρ = 1,4 g/ml) foiz va molyar konsentratsiyalari nisbati 4:1 ga teng?
A) H_2SO_3 B) KOH C) $Ca(OH)_2$ D) H_3PO_4

109. (v12c-104-27) Qaysi modda eritmasining (ρ = 1,14 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 15 l?
A) $Al_2(SO_4)_3$ B) HI
C) K_2CO_3 D) $Ba(OH)_2$

110. (v12c-106-17) $Ca(OH)_2$ eritmasining foiz va molyar konsentratsiyalari nisbati 4 l bo'lsa, eritma zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,5 B) 1,74 C) 1,85 D) 1,4

111. (v12c-109-32) $NaNO_3$ eritmasining (ρ = 1,25 g/ml) foiz va molar konsentrasiyalangan nisbatini aniqlang.
A) 12,5:1 B) 6,8:1 C) 8,5:1 D) 1,25:1

112. (v12c-113-1) $MgSO_4$ eritmasining (ρ = 1,5 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbatini aniqlang.
A) 8 l B) 15 l C) 12 l D) 1,5 l

113. (v12c-113-3) 280 l (n. sh.) vodorod va 280 l (n. sh.) xlor reaksiyadan necha litr 32% li xlorid kislota (ρ = 1,36 g/ml) olish mumkin?
A) 3,16 B) 2,46 C) 2,24 D) 2,85

114. (v12c-114-26) $Ca(OH)_2$ eritmasining (ρ = 1,85 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbatini aniqlang.
A) 4:1 B) 8,5:1 C) 5:1 D) 7,4:1

115. (v12c-116-28) H_2SO_4 eritmasining foiz va molar konsentratsiyalari nisbati 7 l bo'lsa, eritma zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1 B) 1,7 C) 1,4 D) 1,84

116. (v12c-117-11) Qaysi modda eritmasining (ρ = 1,6 g/ml) foiz va molar konsentratsiyalari nisbati.
A) $Ba(OH)_2$ B) K_2CO_3 C) H_2SO_4 D) HI

117. (v12c-118-14) Qaysi modda eritmasining (ρ = 1,6 g/ml) foiz va molyar konsentratsiyalari nisbati 8 l?
A) HI B) K_2SO_4 C) H_2OH_4 D) $Ba(OH)_2$

118. (v12c-118-32) 1 hajm suvda 4 hajm HBr eritildi (n. sh.). Hosil bo'lgan eritmadagi HBr ning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 2,48 B) 14,6 C) 1,42 D) 1,24

119. (v12c-119-36) 1 hajm suvda 300 hajm HCl eritildi (n. sh.). Hosil bo'lgan eritmadagi HCl ning konsentratsiyasini toping.
A) 32,8 B) 50,2 C) 40,8 D) 22,8

120. (v12c-124-28) KOH eritmasining (ρ = 1,4 g/ml) foiz va molyar konsentratsiyalari nisbatini aniqlang.
A) 4 l B) 7 l C) 1,4 l D) 8,5 l

121. (v12c-130-36) 8 l 0,5 M li sulfat kislota eritmasini neytrallash uchun 2 M li natriy gidroksid eritmasidan necha litr talab etiladi?
A) 4 B) 6 C) 2 D) 8

122. (v15-118-31) H_2SO_4 ning 4,8M li eritmasi tarkibida 29,4% H_2SO_4 bo'lsa, kislotaning zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 12 B) 0,6 C) 1,34 D) 1,6

123. (v15-120-15) Sulfat kislotaning 9,4 N eritmasi tarkibida 25% kislota bo'lsa, kislotaning (kg/m^3) zichligini aniqlang.
A) 1,49 B) 18,7 C) 1,84 D) 3,7

124. (v15-125-5) 0,25 g suvga necha gramm LiH qo'shilganda hosil bo'lgan eritmada eruvchi va erituvchi massalari tenglashadi?
A) 47,6 B) 54,05 C) 55,55 D) 49,82

125. (v15-127-9) Nitrat kislotaning 40% li (ρ = 1 g/ml) eritmasidan 0,7M li eritma tayyorlash uchun dastlabki eritmani necha marta suyultirish kerak?
A) 9,07 B) 7,09 C) 11,02 D) 8,07

126. (v15-128-13) Zichligi va foiz konsentratsiyalari teng bo'lgan eritmaning titri 25,6 mg/ml ga teng bo'lsa, eritmaning zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,5 B) 1,3
C) 1,2 D) 1,6

127. (v16-102-12) 4,8 M li sulfat kislota eritmasi tarkibida 29,4% H_2SO_4 bo'lsa, kislotaning zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,6 B) 12
C) 1,34 D) 0,6

128. (v16-106-26) Teng massali kaliy va suv ta'sirlashuvidan 33,6 litr (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Olingan eritmaning (ρ = 1,25 g/ml) molyar konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.
A) 16,23 B) 11,2
C) 15,8 D) 33,3

129. (v16-126-7) 60 g 70,5% li nitrit kislota disproporsiyalanish reaksivasiga kirishishi natijasida hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,2 g/ml) normal konsentratsiyasini aniqlang.
A) 26,3 B) 8,6
C) 5,0 D) 45

130. (v17-104-31) Molyar konsentrasiyalari nisbati 2:1 bo'lgan sulfat va xlorid kislota eritmalarini to'la neytrallash uchun 200 g 28% li KOH eritmasi sarflandi. Reaksiyaga kirishgan sulfat kislota massasini (g) aniqlang.
A) 39,2 B) 49
C) 98 D) 7,3

131. (v17-109-3) X ml $CuSO_4$ eritmasi 3 M $CuSO_4$ 400 ml bilan aralashtirildi. Hajm 2 martaga oshdi, konsentratsiyasi 1,25 barobar oshdi. Birinchi eritmadagi $CuSO_4$ miqdorini (mol) aniqlang.
A) 2 B) 0,8 C) 0,6 D) 0,7

132. (v17-113-1) 3,75 mol/kg molyal konsentratsiyasi eritma tayyorlash uchun 96 g mis sulfatga necha massa (g) suv qo'shish kerak?
A) 160 B) 104 C) 180 D) 117

133. (v17-118-17) Molyal konsentratsiyasi 1,25 mol/kg bo'lgan eritma tayyorlash uchun 140 g mis sulfat tuziga necha gramm suv qo'shish zarur?
A) 400 B) 500 C) 600 D) 700

134. (v17-126-31) Tarkibda noma'lum modda saqlagan 250 g eritmaning molyarligi 6,25 ga teng bo'lsa, eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang (ρ = 1,25 g/ml deb hisoblansin).
A) 20 B) 50 C) 40 D) 25

30. Erigan moddaning massa ulushi

1. (97-8-45) 34,5 g natriy metalli 1 l suvda erishidan hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.
A) 1,8 B) 3,2 C) 5,8 D) 6,6 E) 7,2

2. (97-10-138) 22,4 vodorod xlorid 146 ml suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmadagi xlorid kislotaning massa ulushini foizlarda aniqlang.
A) 14 B) 16 C) 18 D) 20 E) 22

3. (97-10-191) 10,0 mol/l nitrat kislota eritmasining (ρ = 1,30 $g \cdot sm^{-3}$) foiz konsentratsiyasi qanday bo'ladi? [$A_r(N) = 14$]
A) 38 B) 42 C) 48 D) 55 E) 60

4. (98-3-23) 0,5% li eritmaning 820 g miqdoridan necha gramm tuz ajratib olish mumkin?
A) 1,2 B) 0,6 C) 8,2 D) 4,1 E) 0,82

5. (98-3-24) Massasi 550 g bo'lgan 0,2% li eritmada necha gramm tuz erigan?
A) 0,2 B) 1,1 C) 0,22 D) 1,0 E) 2,2

6. (98-3-26) Gipertoniya kasalligini davolashda magniy sulfatning 25% li eritmasi qo'llanadi. Shunday eritmaning 10 g miqdorini tayyorlash uchun necha gramm tuz talab etiladi? [$A_r(Mg) = 24$, $A_r(Cl) = 35,5$]
A) 1,0 B) 1,5 C) 2,5 D) 4,0 E) 5,0

7. (98-4-9) 17% li 10 g eritma tayyorlash uchun necha litr (n. sh.) ammiak talab etiladi?
A) 0,56 B) 1,12 C) 1,68 D) 2,24 E) 3,36

8. (98-9-32) 100 g suvda 0,1 mol kaliy gidroksid erigan eritmada ishqorning massa ulushi qanchaga teng?
A) 5,3 B) 4,7 C) 5,6 D) 5,0 E) 3,9

9. (98-12-22) 150 ml suvda qanday hajmda (l) vodorod sulfid (n. sh.) eritilganda, 2,5% li eritma hosil bo'ladi?
A) 4,5 B) 5,6 C) 2,6 D) 12,2 E) 22,4

10. (99-5-60) 40 g 4% li eritma hosil qilish uchun necha gramm modda va suv olish kerak?
A) 2,5 va 37,5 B) 0,4 va 39,6
C) 5 va 35 D) 1,6 va 38,4
E) 2,0 va 38,0

11. (99-5-61) 80 g 15% li eritmaga 20 g suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi moddaning massa ulushi (%) qanday bo'ladi?
A) 13,0 B) 10,9 C) 12,0
D) 12,6 E) 11,4

12. (99-5-66) 25% li 80 gramm eritmadagi moddaning massasini (g) toping:
A) 25 B) 20 C) 23 D) 19 E) 27

13. (99-5-69) 180 g suvda 90 g modda erishidan hosil bo'lgan eritmaning massa ulushini aniqlang:
A) 0,36 B) 0,38 C) 0,33
D) 0,30 E) 0,32

14. (99-5-71) 150 g suvda 50 g $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ ni eritishdan hosil bo'lgan eritmadagi tuzning massa ulushini hisoblab toping.
A) 0,50 B) 0,80 C) 0,32
D) 0,16 E) 0,43

15. (99-7-2) Massasi 480 g 5% li natriy xlorid eritmasini tayyorlash uchun kerak bo'lgan tuzning massasini (g) ko'rsating.
A) 48 B) 24 C) 36 D) 20 E) 65

16. (00-1-59) 1 l suvda (n. sh.) 2,3 l H_2S erigan bo'lsa, hosil bo'lgan eritmadagi H_2S ning massa ulushi nechaga teng?
A) 0,23 B) 0,35 C) 0,48
D) 0,75 E) 0,82

17. (00-4-53) Massasi 15 g bo'lgan eritma tarkibida $4,8 \cdot 10^{23}$ ta kislorod atomi bo'lgan eritmaning tarkibidagi natriy nitratning massa ulushi (%) ni hisoblang.
A) 8,9 B) 7,9 C) 9,2 D) 8,7 E) 8,4

18. (00-5-44) 60% li eritma tarkibidagi suvning massasi uch barobar ko'paytirildi. Hosil bo'lgan eritmaning massa ulushini hisoblang.
A) 20 B) 15 C) 28 D) 33 E) 35

19. (00-8-51) Sulfat kislotaning qanday massa ulushli (%) eritmasida vodorod va kislorod atomlari soni o'zaro teng bo'ladi?
A) 94 B) 73 C) 90 D) 84 E) 86

20. (00-9-28) 2,78 g temir kuporosi $FeSO_4 + 7H_2O$ 40 g suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmadagi temir (II) sulfatning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 4,4 B) 4,8 C) 3,6 D) 5,4 E) 5,8

21. (00-9-38) 12,5 g mis kuporosi 87,5 g suvda eritildi. Olingan eritmada mis (II) sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 8,0 B) 10,2 C) 12,1
D) 14,0 E) 16,6

22. (00-9-39) 250 g 10% li natriy gidroksid eritmasiga 150 g suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi ishqorning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 6,25 B) 8,85 C) 5,50
D) 9,25 E) 10,25

23. (00-9-74) Mis sulfatning 600 g eritmasiga ishqor qo'shilganda 29,4 g cho'kma hosil bo'ldi. Mis sulfatning dastlabki (boshlang'ich) konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 4,0 B) 6,0 C) 10,0 D) 12,0 E) 8,0

24. (01-3-22) Magniy xloridning massa ulushi 0,04 bo'lgan 400 g eritmasiga 400 g suv qo'shildi. Eritmadagi magniy xloridning massa ulushini (%) toping.
A) 32 B) 8 C) 16 D) 4 E) 2

25. (01-3-23) Kaliy xloridning massa ulushi 0,08 bo'lgan 400 g eritmasidagi Kaliy xloridning massasini toping.
A) 28 B) 30 C) 32 D) 34 E) 36

26. (01-3-24) Massa ulushi 0,2 bo'lgan osh tuzining 200 g eritmasiga 40 g tuz qo'shildi. Eritmadagi osh tuzining massa ulushini toping.
A) 0,25 B) 0,40 C) 1,0 D) 0,33 E) 0,38

27. (01-3-25) Massa ulushi 0,2 bo'lgan osh tuzining 150 g eritmasiga 50 g osh tuzi qo'shildi. Eritmadagi osh tuzining massa ulushini toping.
A) 0,37 B) 0,40 C) 0,54
D) 0,63 E) 0,75

28. (01-3-26) Kaliy xloridning massa ulushi 0,03 bo'lgan 500 g eritmasi bug'latilishi natijasida eritma massasi 300 g ga kamaydi. Qolgan eritmadagi kaliy xloridning massa ulushini toping.
A) 0,15 B) 0,02 C) 0,05
D) 0,075 E) 0,08

29. (01-3-106) Massasi 120 g bo'lgan 15% li sulfat kislota eritmasiga 12 g oltingugurt (VI) oksid qo'shilganda hosil bo'lgan eritmadagi moddaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 20,2 B) 22,7 C) 24,8
D) 27,0 E) 29,3

30. (01-4-35) Bir tuzning xona temperaturasidagi to'yingan eritmasidagi massa ulushi 0,2 ga teng. Shu tuzning massa ulushi 0,3 bo'lgan 300 g eritmasi uy temperaturasigacha sovutilganda, qancha (g) tuz cho'kmaga tushadi?
A) 37,5 B) 82,5 C) 50,0 D) 85,2 E) 48,0

31. (01-7-1) Oltingugurt (VI) oksidning massa ulushi 8% bo'lgan eritmasidagi sulfat, kislotaning massa ulushini hisoblang.
A) 8 B) 9,8 C) 16 D) 49 E) 98

32. (01-7-27) Konsentratsiyasi 19% li sulfat kislota eritmasi bilan mo'l miqdorda olingan ruxning o'zaro reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 27,8 B) 31,2 C) 26,8
D) 27,2 E) 25,9

33. (01-7-49) Konsentratsiyasi 45% bo'lgan perxlorat kislotaning 100 g eritmasidagi kislorod atomlari sonini hisoblang.
A) $18{,}4\cdot10^{25}$ B) $1{,}2\cdot10^{25}$ C) $1{,}08\cdot10^{24}$
D) $4{,}6\cdot10^{25}$ E) $21{,}3\cdot10^{23}$

34. (01-7-55) Tuzning 30% li eritmasidan 500 kg tayyorlash uchun uning 40 va 23% li eritmalaridan qanchadan (kg) olib aralashtirish kerak?
A) 200 va 300 B) 206 va 294
C) 250 va 250 D) 150 va 350
E) 210 va 290

35. (02-1-6) Bir hajm suvda 125 hajm (n. sh.) vodorod xlorid eritilgan. Hosil bo'lgan xlorid kislota eritmasini massa ulushini (%) aniqlang.
A) 18,5 B) 10,4 C) 12,5
D) 16,9 E) 20,4

36. (02-5-19) Sulfat kislotaning 2,87 M eritmasining (ρ = 1,17 g/sm^3) foiz konsentratsiyasini toping.
A) 24 B) 26 C) 28 D) 20 E) 17

37. (02-12-3) Eritmadagi suvning tarkibida $3{,}612\cdot10^{24}$ ta vodorod atomi bo'lgan 23% li HCl eritmasining va suvsiz kislotaning massasini toping.
A) 16,1; 70,1 B) 17,2; 65,1
C) 19,00; 65,1 D) 16,1; 87,6
E) 14,5; 70,1

38. (02-12-5) 10% li 20 g $CuCl_2$ eritmasiga 10 g suv va 5 g $CuCl_2$ tuzi qo'shildi va eritma massasi 2 marta kamayguncha bug'latildi. So'nggi eritmadagi tuzning massa ulushini (%) toping.
A) 40 B) 25 C) 20 D) 17,5 E) 33,3

39. (02-12-14) 25% li tuz eritmasiga unga nisbatan 2,5 marta og'irroq bo'lgan 10% li eritma qo'shildi. Olingan eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.
A) 14,3 B) 15,6 C) 10,0 D) 12,4 E) 18,3

40. (02-12-29) Saxarozaning eritmadagi mol ulushi 2% bo'lsa, uning massa ulushi nimaga teng?
A) 28 B) 29 C) 30 D) 26 E) 27

41. (03-5-48) Zichligi 1,18 g/ml bo'lgan 30 li foizli 0,7 l HNO_3 eritmasidan uning 1 H li qanday hajmdagi eritmasini tayyorlash mumkin?
A) 1,78 B) 2,58 C) 3,93
D) 4,66 E) 5,81

42. (03-8-17) 8% li 150 g osh tuzi eritmasiga 50 g suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 6 B) 3 C) 9 D) 13 E) 7

43. (03-8-18) 7 g natriy xlorid 43 ml suvda eritilganda hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 14 B) 13 C) 7 D) 6 E) 16

44. (03-11-11) 160 g suvda 40 g osh tuzi eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 20 B) 30 C) 15 D) 25 E) 12

45. (03-11-15) 900 g suvda 100 g osh tuzi eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 20 B) 10 C) 15 D) 25 E) 12

46. (03-11-16) 400 g suvda 200 g osh tuzi eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 30,3 B) 33,3 C) 35,6 D) 18,3 E) 20

47. (03-11-25) 46 g natriy metallining 400 g suvda erishi natijasida hosil bo'lgan eritmadagi o'yuvchi natriyning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 12 B) 16 C) 20 D) 18 E) 21

48. (03-11-27) 31 g natriy oksidning 250 g suvda erishi natijasida hosil bo'lgan eritmadagi o'yuvchi natriyning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 14,2 B) 12,4 C) 16,3
D) 13,6 E) 18,2

49. (03-11-29) 2,24 l (n. sh.) ammiak 100 g suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmadagi ammoniy gidroksidning massa ulushini toping.
A) 2,4 B) 4,2 C) 6,2
D) 4,5 E) 3,4

50. (04-1-338) 10% li 200 ml NaOH eritmasi (ρ = 1,43 g/ml) va 20% li (ρ = 1,1 g/ml) 200 ml NaOH eritmasi bilan aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritma foiz konsentratsiyasini toping.
A) 26,2 B) 14,3 C) 10,0
D) 36,1 E) 30,0

51. (04-1-567) Alyuminiy sulfat kristallgidrati tarkibidagi alyuminiyning massa ulushi 8,1% ga teng bo'lsa, kristallgidrat tarkibidagi suvning massa ulushini aniqlang.
A) 60 B) 96 C) 52,2 D) 48,7 E) 18

52. (04-1-667) 189,2 g suvda 21,6 g azot (V) oksid eritilganda hosil bo'lgan mahsulotning massa ulushini hisoblang.
A) 12,6 B) 10,8 C) 6,3 D) 22,0 E) 12

53. (05-1-179) Massa ulushi 9,8% bo'lgan 600 g fosfat kislota eritmasida 21,3 g fosfor (V) oksid eritilgandan so'ng hosil bo'lgan eritmadagi H_3PO_4 ning massa ulushi (%) nechaga bo'ladi?
A) 16,7 B) 14,2 C) 15,6
D) 17,6 E) 13,1

54. (v4-103-34) Hajmi 200 ml (ρ = 1,1 g/ml) bo'lgan eritmada sulfat kislotaning massa ulushi 0,12 ga teng. Bu eritmaga 30 gramm suv qo'shildi. Suyultirilgan eritmadagi sulfat kislotaning massa ulushini aniqlang (%)
A) 13,2
B) 13,8
C) 12,0
D) 10,56
E) 12,20

55. (v4-119-17) Galaktozaning 20% li suvli eritmasidagi erigan modda bilan erituvchi molekulalari soni orasidagi nisbatni toping.
A) 1:45 B) 1:40 C) 2:95
D) 2:45 E) 1:80

56. (v4-121-27) 20 g oltingugurt (VI) oksidning 650 g suvda eritilishidan hosil bo'lgan eritmadagi kislotani foiz konsentratsiyasini aniqlang.
A) 3,1 B) 2,5 C) 3,7 D) 4,2 E) 2,8

57. (v4-129-25) Konsentratsiyasi 14% li sulfat kislota eritmasi bilan mo'l miqdorda olingan ruxning o'zaro reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 23,0 B) 19,3 C) 17,8
D) 24,5 E) 21,1

58. (v5-101-28) Sulfat kislotaning 10% li eritmasini hosil qilish uchun sulfat angidridning $3{,}01\cdot10^{23}$ ta molekulasini necha litr suvda eritish kerak?
A) $42{,}75\cdot10^{-1}$ B) $47\cdot10^{-4}$ C) $45\cdot10^{-2}$
D) $33\cdot10^{-3}$ E) $49{,}5\cdot10^{-3}$

59. (v5-103-29) Bir litr (ρ = 1,310 g/sm^3) 50% li nitrat kislota eritmasiga 690 ml suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 2,5 B) 30 C) 38,75
D) 35,2 E) 32,75

60. (v5-103-33) Glyukozaning 20% li 200 g, 50% li 100 g va 65% li 300 g eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan aralashmadagi glyukozaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 42,5 B) 50 C) 22,5
D) 47,5 E) 30,5

61. (v5-104-27) 183 ml suvda 11,2 l (n. sh.) vodorod sulfid eritildi. Eritmadagi H_2S ning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 0,91 B) 8,5 C) 9,3
D) 5,7 E) 1,08

62. (v5-110-24) Zichligi 1,19 g/sm$_3$ bo'lgan 400 ml 20% li kaliy karbonat eritmasida qancha (ml) suv bo'ladi?
A) 381 B) 390 C) 300
D) 384 E) 320

63. (v5-112-1) Natriy gidroksidning bitta molekulasiga 24 ta suv molekulasi to'g'ri kelsa, eritmadagi ishqorning massa ulushini hisoblang.
A) 4,0 B) 7,2 C) 8,47 D) 9,24 E) 6,16

64. (v5-117-26) 4,48 l (n. sh.) vodorod xlorid 12,7 ml suvda eritilganda hosil bo'lgan xlorid kislotaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 20 B) 18,25 C) 36,5 D) 73,0 E) 7,3

65. (v5-117-29) 300 g suvda 100 l (n. sh.) NH_3 eritildi. Ammiakning eritmadagi massa ulushini (%) toping.
A) 20 B) 17 C) 75 D) 34 E) 25

66. (v5-118-24) Xlorid kislotaning 500 g 20% li eritmasini neytrallash uchun qancha (g) NaOH kerak?
A) 102,5 B) 107,6 C) 109,6
D) 100 E) 108

67. (v5-129-25) Quyidagi eritmalardan qaysi birlarini kumush nitratning 1,7% li 200 g eritmasiga qo'shganda bir xil massadagi cho'kma hosil bo'ladi?
1) 7,3 g 2% li xlorid kislota eritmasi; 2) 73 g 2% li xlorid kislota eritmasi; 3) 100 g 10% li osh tuzi eritmasi; 4) 20 g 10% li osh tuzi eritmasi; 5) kaliy xloridning 10 ml 0,1 mol/l eritmasi; 6) kaliy xloridning 100 ml 0,1 mol/l eritmasi.
A) 1, 2, 5, 6 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 3, 4
D) 1, 3, 5 E) 3, 4, 5

68. (v5-129-26) Qusishga qarshi vosita sifatida xloroformning 0,5% li suvdagi eritmasi ishlatiladi. 400 g eritma tayyorlash uchun kerakli bo'lgan xloroform va suvning massasini (g) toping.
A) 1; 399 B) 40; 360 C) 2; 398
D) 20; 380 E) 4; 396

69. (v5-139-24) KNO_3 eritmasida 1 mol tuzga 15 mol suv to'g'ri kelsa, kaliy nitratning eritmadagi massa ulushini (%) hisoblang.
A) 37,40 B) 72,77 C) 6,73
D) 27,22 E) 14,85

70. (v6-104-28) 2 l suvga 79,8 l (0°C, 101,3 kPa) SO_3 shimdirilishidan hosil bo'lgan eritmadagi sulfat anionining massa ulushini (%) toping.
A) 16,62 B) 12,47
C) 14,96 D) 15,27

71. (v6-104-34) Natriy karbonatning 18% li 400 g eritmasiga necha gramm $CaCl_2 \cdot 6H_2O$ qo'shilsa, natriy karbonatning massa ulushi 12% ga teng bo'lib qoladi?
A) 35 B) 56
C) 44 D) 61

72. (v6-105-25) Natriy ishqorining 2,5% li 320 g eritmasi 12,4 g natriy oksid bilan aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmadagi gidroksid ionining konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 4,15 B) 6,13 C) 7,22 D) 3,07

73. (v6-105-27) 1 l suvda 2,24 l (n. sh.) xlor eritilganda ($Cl_2 + H_2O \rightarrow HCl + HClO$) hosil bo'lgan eritmadagi gipoxlorid kislotaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 7,1 B) 5,25 C) 0,70 D) 0,52

74. (v6-108-34) 200 g 0,71% li natriy gidrofosfat va 50 g 1,46% li xlorid kislota eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmadagi natriy tuzining massa ulushini (%) aniqlang.
A) 0,47 B) 0,39 C) 0,83 D) 0,71

75. (v6-109-25) Namligi 20% bo'lgan 310 g Chili selitrasi 290 g suvda eritilganda hosil bo'lgan eritmaning massa ulushini hisoblang.
A) 0,41 B) 0,52 C) 0,48 D) 0,03

76. (v6-120-34) 0,5% li 284 g natriy gidrofosfat va 0,4% li 200 g natriy gidroksid eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan mahsulotning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 0,45 B) 0,64 C) 0,34 D) 0,81

77. (v6-121-34) 0,87% li 200 g kaliy gidrofosfat va 1,5% li 73 g xlorid kislota eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmadagi tuzning massa ulushini (%) toping.
A) 0,55 B) 0,43 C) 0,38 D) 0,67

78. (v6-126-34) Kalsiy xloridning 10% li 1,2 kg eritmasiga qanday massadagi (g) kristall soda qo'shilsa, kalsiy xloridning massa ulushi 4% ga teng bo'ladi?
A) 169 B) 187 C) 154 D) 173

79. (v7-101-25) 20% li 710 g natriy sulfat eritmasiga 250 g mis kuporosi qo'shilganda hosil bo'lgan eritmadagi sulfat ionining massa ulushini hisoblang.
A) 0,20 B) 0,31 C) 0,17 D) 0,26

80. (v7-102-20) 1 kg suvga necha gramm kalsiy qo'shilsa, 0,5% li kalsiy gidroksid eritmasi hosil bo'ladi?
A) 2,7 B) 5,0
C) 1,3 D) 6,8

81. (v7-103-27) Sulfat kislotaning 10% li 400 g eritmasiga necha gramm sulfat angidrid shimdirilganda 30% li eritma hosil bo'ladi?
A) 49,6 B) 24,2 C) 62,4 D) 86,5

82. (v7-107-12) Bir idishga hajmlari 22,4 l (n. sh.) dan bo'lgan ammiak, vodorod xlorid va 746,5 g suv joylashtirildi. Hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang (gidroliz jarayoni hisobga olinmasin).
A) 9,6 B) 3,6 C) 14,3 D) 6,7

83. (v7-108-28) Eritmaga 600 g suv qo'shilganda moddaning massa ulushi 3,5 marta kamaydi. Boshlang'ich eritmaning massasini (g) hisoblang.
A) 130 B) 380 C) 600 D) 240

84. (v7-111-28) Eritmaga 300 g suv qo'shilganda moddaning massa ulushi 4 marta kamaydi. Hosil bo'lgan eritmaning massasini (g) hisoblang.
A) 100 B) 300 C) 400 D) 150

85. (v8-102-15) Tarkibida 6,02 10^{23} ta kislorod atomi bo'lgan 21,8 g eritmadagi kaliy gidroksidning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 43,2 B) 18,3 C) 32,4 D) 25,7

86. (v8-111-31) Kalsiy xloridning 10% li 500 g eritmasiga qanday massadagi (g) kristall soda qo'shilsa, kalsiy xloridning massa ulushi 7,5% ga teng bo'ladi?
A) 38,9 B) 11,1 C) 43,5 D) 28,6

87. (v8-117-23) 25,3% li 400 g osh tuzi eritmasiga necha gramm kumush nitrat qo'shilganda, eritmadagi osh tuzining massa ulushi 10% bo'ladi?
A) 170 B) 158,5 C) 108,8 D) 134,6

88. (v8-122-31) Nitrat kislotaning necha foizli eritmasida vodorod va kislorod atomlari soni teng bo'ladi?
A) 47 B) 85 C) 63 D) 38

89. (v8-130-31) Natriy karbonatning 15% li 400 g eritmasiga necha gramm $CaCl_2 \cdot 6H_2O$ qo'shilsa, natriy karbonatning massa ulushi 6,5% ga teng bo'ladi?
A) 65,7 B) 56,8 C) 45,3 D) 73,6

90. (v9-101-1) Ammoniy gidroksidning 175 g 10% li eritmasiga 16,8 l (n. sh.) ammiak yuttirildi. Hosil bo'lgan eritmadagi ammoniy gidroksidning massa ulushini hisoblang.
A) 0,10 B) 0,23 C) 0,29 D) 0,17

91. (v9-101-8) Vodorodga nisbatan zichligi 18,25 bo'lgan 22,4 l (n. sh.) gaz 163,5 ml suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmaning (ρ = 1,25 g/ml) konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 18,25 B) 4,25 C) 6,25 D) 4,85

92. (v9-105-12) Konsentrlangan (100 g 90% li) nitrat kislotada kumush eritilganda kislotaning massa ulushi 44% gacha kamaydi. Hosil bo'lgan eritmadagi kislotaning massasini (g) hisoblang.
A) 37,8 B) 32,4 C) 52,2 D) 51

93. (v9-107-34) Kumush nitratning 100 g 8,5% li eritmasiga yetarli miqdorda natriy xlorid qo'shilganda hosil bo'lgan moddaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 4,43 B) 3,74 C) 5,23 D) 8,91

94. (v9-108-2) Kumush nitratning 3,4% li eritmasiga yetarli miqdorda natriy xlorid tuzi qo'shilishidan hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 14,35 B) 1,73
C) 1,94 D) 5,85

95. (v9-110-21) Natriy karbonatni to'la neytrallash uchun 200 g 19,6% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, hosil bo lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 25 B) 9,8
C) 19 D) 7,2

96. (v9-111-7) Xlorid kislotaning 18,25% li eritmasiga yetarli miqdorda rux karbonat qo'shilganda hosil bo'lgan moddaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 34 B) 26,2 C) 28,3 D) 32

97. (v9-114-8) 9,8% li 400 g ortofosfat kislota eritmasida 42,6 g fosfor (V) oksid eritildi. Hosil bo'lgan moddaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 19 B) 15,5 C) 22 D) 9,8

98. (v9-115-35) Kumush nitratning 100 g 8,5% li eritmasiga yetarli miqdorda kaliy bromid qo'shilganda hosil bo'lgan moddaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 8,9 B) 5,2 C) 4,7 D) 3,4

99. (v9-127-20) 9,8% li sulfat kislota eritmasi bilan mo'l miqdorda olingan rux reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 15 B) 6,5 C) 26 D) 9,8

100. (v12z-204-36) 25,284 10^{23} dona kislorod atomi saqlovchi 88 g $NaNO_3$ ning suvli eritmasiga 22 g $NaNO_3$ qo'shilsa, necha foizli eritma hosil bo'ladi?
A) 34,14 B) 38,18 C) 40,12 D) 36,84

101. (v12z-229-1) Qalay 70% li HNO_3 (kons.) eritmasi bilan reaksiyaga kirishganda 0,2 mol gaz ajralib chiqdi. HNO_3 eritmasining massasini (g) aniqlang.
A) 6,3 B) 18 C) 12,6 D) 25,2

102. (v12z-239-16) Yodning tibbiyotda ishlatiladigan 5% li spirtli eritmasidan 250 g tayyorlash uchun zichligi 0,8 g/ml bo'lgan spirtdan necha millilitr kerak bo'ladi?
A) 297 B) 237,5 C) 295 D) 250

103. (v12z-251-15) Sirka kislotaning 6% li eritmasi (ρ = 1,007 g/ml) oshxona sirkasi, 80% li eritmasi (ρ = 1,07 g/ml) esa sirka essensiyasi deb ataladi. 500 sm^3 oshxona sirkasini tayyorlash uchun necha millilitr sirka essensiyasi kerak bo'ladi?
A) 37,76 B) 35,3
C) 30,21 D) 36,7

104. (v12c-105-3) Eritmaga 500 g suv qo'shganda moddaning massa ulushi 6 marta kamaydi. Boshlang'ich eritmaning massasini (g) hisoblang.
A) 100 B) 240 C) 280 D) 72

105. (v12c-109-14) Massasi 16 g bo'lgan eritmada 3,612·10^{23} dona kislorod atomi bo'lsa, eritma tarkibidagi kaliy nitritning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 40 B) 60 C) 44 D) 56

106. (v12c-111-15) Sulfat kislota eritmasida vodorod atomlarining kislorod atomlariga nisbati 10,8 ga teng. Eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 40,5 B) 60,6 C) 57,6 D) 39,4

107. (v12c-116-4) 205,2 g alyuminiy sulfat eritmasi tarkibida 638,12·10^{23} ta proton bo'lsa, eritmadagi tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 66,7 B) 40,0
C) 60,0 D) 33,3

108. (v12c-122-9) 136,8 g alyuminiy sulfat eritmasi tarkibida 445,48·10^{-3} ta proton bo'lsa, eritmadagi tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 66,7 B) 33,3
C) 25,0 D) 50,0

109. (v12c-131-15) 171 g alyuminiy sulfat eritmasi tarkibida 547,82·10^{23} ta proton bo'lsa, eritmadagi tuzning massa ulushini (%) aniqlang
A) 40,0 B) 30,0
C) 70,0 D) 45,6

110. (v13-102-10) Eritmaga undagi tuzning massasicha suv qo'shilganda 30% li eritma olingan bo'lsa, dastlabki eritma necha foizli bo'lgan?
A) 64,5% B) 32,3% C) 21,5% D) 43%

111. (v13-103-16) NaCl eritmasiga undagi tuz massasicha suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning 1/4 qismicha miqdorda NaCl qo'shilsa, 40% li eritma olingan bo'lsa, dastlabki eritma necha (%) bo'lgan?
A) 25% B) 66,67% C) 33,33% D) 50%

112. (v13-106-8) Tarkibida 12 g NaOH bo'lgan eritmaga 200 ml suv qo'shilganda uning konsentratsiyasi 8% ga kamaygan bo'lsa, natriy gidroksid eritmasining boshlang'ich massasini (g) toping.
A) 300 B) 400 C) 100 D) 200

113. (v13-111-30) Eritmaga undagi tuzning massasidan 2,5 marta ko'p suv qo'shilganda 20% li eritma olingan bo'lsa, dastlabki eritma necha foizli bo'lgan?
A) 40% B) 30% C) 20% D) 60%

114. (v13-122-31) NaCl eritmasiga undagi tuz massasicha suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning 1/4 qismicha miqdorda NaCl qo'shilsa, 30% li eritma olingan bo'lsa, dastlabki eritma necha (%) bo'lgan?
A) 28,6% B) 10,7% C) 21,45% D) 14,3%

115. (v13-138-34) Tarkibida 12 g NaOH bo'lgan eritmaga 200 ml suv qo'shilganda uning konsentratsiyasi 8% ga kamaygan bo'lsa, natriy gidroksid eritmasining boshlangach konsentratsiyasini (%) toping.
A) 16 B) 20 C) 12 D) 14

116. (v13-146-32) Eritmaga undagi tuzning massasidan 2 marta ko'p suv qo'shilganda 20% li eritma olingan bo'lsa, dastlabki eritma necha foizli bo'lgan?
A) 25% B) 66,6% C) 33,3% D) 50%

117. (v13-147-5) NaCl eritmasiga undagi tuz massasicha suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning 1/4 qismicha miqdorda NaCl qo'shilsa, 25% li eritma olingan bo'lsa, dastlabki eritma necha (%) bo'lgan?
A) 5% B) 13,34% C) 6,67% D) 10%

118. (v13-157-27) 16,8 l azot (IV) oksid va kislorod aralashmasi suvda eritilganda zichligi 1,18 g/ml ga teng bo'lgan 30% li nitrat kislota eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan eritmaning hajmining (ml) toping.
A) 107 B) 170 C) 1074 D) 117

119. (v15-103-29) 0,2052 kg alyuminiy sulfat eritmasi tarkibida $66,22 \cdot 10^{24}$ ta proton bo'lsa, eritmadagi tuzning massa ulushini aniqlang (%).
A) 33,3 B) 66,7 C) 60,0 D) 40,0

120. (v15-103-32) Tarkibida $10,836 \cdot 10^{24}$ dona vodorod atomi bo'lgan 192 g eritmadagi ammoniy sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 44,375 B) 24,375
C) 4,375 D) 34,375

121. (v15-107-7) NaOH eritmasiga 180 ml suv qo'shilganda eritmaning konsentratsiyasi 1,6 marta kamaydi. Bunda eritmadagi jami atomlar soni 23/13 marta ortdi. Boshlang'ich eritmadagi ishqorning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 40 B) 180
C) 60 D) 120

122. (v15-112-36) X g bariy metalli 100 g 25% li bariy gidroksid suvli eritmasiga solindi. Natijada Y g 40% li bariy gidroksid eritmasi hosil bo'ldi. X va Y qiymatlarini aniqlang.
A) 15,45; 115,1 B) 17,56; 117,3
C) 20,15; 119,8 D) 13,25; 113,25

123. (v15-114-26) 200 ml (ρ = 1,225 g/ml) 6% li H_2SO_4 eritmasiga 150 ml (ρ = 1,12 g/ml) 5% li eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.
A) 8,95 B) 7,52 C) 2,85 D) 5,6

124. (v15-118-21) $Al_2(SO_4)_3$ eritmasiga 540 ml suv qo'shilganda eritmaning konsentratsiyasi 2,5 marta kamaydi. Bunda eritmadagi jami atomlar soni 3,25 marta ortdi. Hosil bo'lgan eritmadagi suvning konsentratsiyasini (%) aniqlang (tuzning gidrolizlanishi hisobga olinmasin).
A) 19 B) 47,5 C) 52,5 D) 81

125. (v16-112-23) Zichligi va foiz konsentratsiyalari teng bo'lgan eritmaning titri 19,6 mg/ml ga teng bo'lsa, eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.
A) 1,5 B) 1,2 C) 1,4 D) 1,3

126. (v16-113-7) 160 g 10% li $CuSO_4$ eritmasidagi barcha elektronlar sonini aniqlang.
A) $87,7 \cdot N_A$ B) $7,7 \cdot N_A$
C) $16 \cdot N_A$ D) $80 \cdot N_A$

127. (v16-118-34) 2,8 g tuz 46 g X% li eritmasiga qo'shilganda to'yingan eritmaga aylanadi. Shu tuzning eruvchanlik koeffitsiyenti 22 ga teng bo'lsa, X ning qiymatini toping.
A) 18,03 B) 9,26 C) 13,04 D) 12

128. (v16-119-19) 0,1842 kg suvda KH va NaH aralashmasi eritilishi natijasida eritmaning umumiy massasi 1 grammga kamaygan va eritmada 12,4% ishqor bo'lsa, boshlang'ich gidridlarning massa nisbatini aniqlang.
A) 1:0,8 B) 1:0,4 C) 0,3:0,2 D) 0,6:0,3

129. (v16-120-23) 0,2 kg (ρ = 1,25 g/ml) suvda eriydigan tuzning 2,5 molyarli eritmasiga uning 0,24 litr 1,5 molyar eritmasi aralashtirilganda 15,2% li (ρ = 1,175 g/ml) eritmasi hosil bo'ldi. Qo'shilgan 1,5 molyarli eritma massasini (g) aniqlang.
A) 230 B) 250 C) 210 D) 270

130. (v17-101-12) x% li eritma massasining 1/5 qismi bug'latildi. Bunda erituvchining massasi 1/4 qismga kamaydi. Eritmaning masa ulushi 5/4 marta ortasa, x ni aniqlang.
A) 15 B) 25
C) 30 D) 20

131. (v17-102-24) Massa ulushi 10% bo'lgan 10 g chumoli kislotasiga xuddi shunday massa ulushiga ega 10 g natriy gidroksidi quyildi. Hosil bo'lgan tuzning massasini aniqlang.
A) 2,3 B) 3,1
C) 1,5 D) 1,0

132. (v17-103-5) 75 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 50% li eritma hosil bo'ladi?
A) 12,5 B) 17,5
C) 25 D) 39

133. (v17-108-12) 60 g 74% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shiganda 48% li eritma hosil bo'ladi?
A) 75 B) 50 C) 22,5 D) 32,5

134. (v17-109-19) Osh tuzining 200 g 20% li va 200 g 40% li eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan yangi eritmadagi tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 25 B) 30 C) 60 D) 35

135. (v17-109-28) 250 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 50% li eritma hosil bo'ladi?
A) 250 B) 200 C) 130 D) 175

136. (v17-111-9) 4 g kalsiy ammiak gazi ishtirokida reaksiyaga kirishganda qancha massa tuz va qancha gaz ajraladi?
A) 2 g; 5,6 l
B) 10 g; 20,16 l
C) 7,2 g; 2,24 l
D) 7 g; 1,12 l

137. (v17-111-12) Massa ulushi 10% bo'lgan chumoli kislotaga xuddi shunday massa ulushiga ega bo'lgan 10 g natriy gidroksidi qo'shildi. Hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 1,5 B) 1,2 C) 15 D) 12

138. (v17-113-12) 400 g 60% li eritmaga eritma massasidan 4 marta ko'p noma'lum konsentratsiyali eritma qo'shildi. Natijada eritmaning konsentratsiyasi (%) dastlabki konsentratsiyaga nisbatan 0,6 marta ortdi. Qo'shilgan eritmadagi suvning massasini (g) aniqlang.
A) 1200 B) 1120 C) 1250 D) 1800

139. (v17-116-32) 63% li nitrat kislota eritmasiga 20 ml suv quyilganda 56,7% li eritma olinadi. Dastlabki eritmaga 70 g toza nitrat kislota quyilganda necha foizli eritma olinadi?
A) 73,36
B) 78,4
C) 81,76
D) 75,6

140. (v17-119-28) 150 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 48% li eritma hosil bo'ladi?
A) 87,5 B) 150 C) 50 D) 175

141. (v17-120-20) 900 g 40% li eritmada erituvchi (suv) va erigan modda mol nisbati 15:1 bo'lsa, qanday modda eriganligini aniqlang.
A) NaOH B) saxaroza
C) glyukoza D) H_2SO_4

142. (v17-121-1) 20 g tuz saqlagan 10% li eritma olish uchun 15% li va 5% li eritmalari aralashtirildi. 15% li va 5% li eritmalari mos ravishda necha grammdan tuz saqlagan?
A) 10; 10
B) 17; 3
C) 19; 1
D) 15; 5

143. (v17-121-21) Massa ulushi 25% bo'lgan magniy sulfat eritmasi gipertonik kasalligida qo'llaniladi. 300 g eritma tayyorlash uchun necha gramm tuz olish zarur?
A) 75
B) 65
C) 85
D) 100

144. (v17-126-34) 540 g 40% li eritmada erituvchi (suv) va erigan modda mol nisbati 15:1 bo'lsa, qanday modda eriganligini aniqlang.
A) glyukoza B) H_2SO_4
C) saxaroza D) NaOH

145. (v17-127-33) Xg Y % li va Yg X % li eritmalar aralashtirilib, 120 g 53,33% li eritma hosil bo'ldi. X va Y ni aniqlang.
A) 80:40 B) 30:20
C) 30:60 D) 20:40

146. (v17-130-31) 50 g sulfat kislotasining 30% li eritmasiga 5 g sulfat angidridi qo'shildi. Eritma sulfat kislotaning massa ulushi qanaqa bo'ladi?
A) 48,4 B) 384
C) 48 D) 38,4

31. Eritmalarni tayyorlash

1. (97-6-21) 20% li o'yuvchi natriy eritmasini hosil qilish uchun 507 ml suvda necha gramm natriy oksid eritish kerak?
A) 50 B) 66 C) 71 D) 93 E) 100

2. (97-6-40) 200 g 10% li natriy karbonat eritmasini tayyorlash uchun necha gramm kristall soda $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ olish kerak?
A) 34 B) 44 C) 54 D) 64 E) 74

3. (97-7-26) 10% o'yuvchi natriy eritmasi hosil qilish uchun 600 ml suvga necha ml 40% li NaOH eritmasidan (ρ = 1,43 g/ml) qo'shish kerak?
A) 130 B) 140 C) 150 D) 160 E) 170

4. (97-8-63) 93 g natriy oksid necha ml suvda eritilganda, 20% li o'yuvchi natriy eritmasi hosil bo'ladi? [A_r(Na) = 23]
A) 504 B) 519 C) 590 D) 599 E) 507

5. (97-10-48) Massa ulushi 3% bo'lgan Na_2CO_3 ning 50 g eritmasini tayyorlash uchun necha gramm kristallik soda olish kerak?
A) 3,70 B) 4,70 C) 4,50
D) 4,05 E) 3,45

6. (97-10-152) Tarkibida 5 mol ammiak bo'lgan eritma olish uchun uning 25% li eritmasidan necha gramm olish kerak?
A) 292 B) 310 C) 325
D) 340 E) 360

7. (97-10-180) 400 ml suvga 200 ml konsentrlangan (ρ = 1,4 g/ml s = 63%) HNO_3 aralashtirilgan bo'lsa, nitrat kislotaning foiz konsentratsiyasi qancha bo'ladi?
A) 20 B) 28 C) 26 D) 30 E) 40

8. (97-11-10) O'yuvchi natriyning 200 g 40% li va 300 g 20% li eritmalari o'zaro aralashtirilganda, eritmaning foiz konsentratsiyasi qanday bo'lishini aniqlang.
A) 30 B) 25 C) 28 D) 32 E) 35

9. (98-1-25) Natriy gidroksidning massa ulushi 10% bo'lgan eritmasidan tayyorlash uchun 180 ml suvga 25% li NaOH eritmasi (ρ = 1,2 g/ml) dan necha millilitr qo'shish kerak?
A) 50 B) 80 C) 100 D) 120 E) 150

10. (98-3-14) 300 g 2,5% li eritma tayyorlash uchun massalari qanday bo'lgan suv va tuz olish kerak?
A) 300 g va 2,5 g B) 300 g va 10 g
C) 292,5 g va 7,5 g D) 275 g va 25 g
E) 297,5 g va 2,5 g

11. (98-3-15) 500 g 6% li eritma tayyorlash uchun necha gramm tuz va suv olish kerak?
A) 10 g va 490 g B) 35 g va 465 g
C) 6 g va 494 g D) 30 g va 470 g
E) 20 g va 480 g

12. (98-3-16) 1200 g 4% li eritma tayyorlash uchun massasi qanday bo'lgan tuz va suv talab etiladi?
A) 4 g va 1096 g B) 48 g va 1152 g
C) 12 g va 1188 g D) 4 g va 1196 g
E) 48 g va 1,2 kg

13. (98-3-17) 750 g 25% li eritma tayyorlash uchun necha grammdan tuz va suv olish kerak?
A) 30 g va 720 g B) 62,5 g va 687,5 g
C) 75 g va 675 g D) 25 g va 725 g
E) 187,5 g va 562,5 g

14. (98-3-19) 300 g 12% li va 200 g 3% li eritmalar aralashtirilganda hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 2,0 B) 6,1 C) 7,3
D) 8,4 E) 12,7

15. (98-3-25) Tabobatda kalsiy xloridning 5% li eritmasi qo'llanadi. Shunday eritmadan 150 g tayyorlash uchun necha gramm kalsiy xlorid talab etiladi? [A_r(Ca) = 40, A_r(Cl) = 35,5].
A) 7,5 B) 5,0 C) 2,5 D) 10,0 E) 12,2

16. (98-3-27) 30% li NaOH eritmasining necha grammidan 5 kg 1% li eritma tayyorlash mumkin?
A) 120,5 g B) 166,7 g C) 62,3 g
D) 150 g E) 246,1 g

17. (98-3-28) 4% li mis sulfat eritmasining 100 g miqdoriga qancha (g) suv qo'shilganda, 1% li eritma hosil bo'ladi?
A) 300 g B) 175 g C) 250 g
D) 100 g E) 125 g

18. (98-3-29) 1,7 kg 3% li nitrat kislota eritmasini tayyorlash uchun 15% li kislota eritmasidan necha gramm talab etiladi?
A) 150 g B) 170 g C) 280 g
D) 215 g E) 340 g

19. (98-3-30) 800 ml 2 mol/l konsentratsiyali mis (II) xlorid eritmasini tayyorlash uchun necha gramm tuz talab etiladi? [A_r(Cu) = 64]
A) 128 B) 216 C) 71 D) 299 E) 135

20. (98-5-9) Konsentratsiyasi 2,5 molyar bo'lgan sulfat kislota eritmasining 15 ml miqdoridan foydalanib, necha ml 0,5 molyarli eritma tayyorlash mumkin?
A) 75 B) 80 C) 70 D) 85 E) 90

21. (98-8-82) 20% li KOH eritmasini hosil qilish uchun, tarkibida 44 g KOH tutgan 453 g eritmada qancha massali (g) kaliy oksidni eritish kerak?
A) 47 B) 48 C) 45 D) 51 E) 42

22. (98-9-55) Massa ulushi 0,12 bo'lgan eritma tayyorlash uchun 450 ml suvda necha litr (n. sh.) ammiak eritish kerak? [M_r(N) = 14]
A) 61,4 B) 81 C) 76 D) 44,8 E) 89,6

23. (99-1-40) Sulfat kislotaning 20% li eritmasini hosil qilish uchun 500 g suvda necha gramm oltingugurt (VI) oksidni eritish kerak?
A) 78,25 B) 85,48 C) 97,56
D) 100 E) 125

24. (99-5-24) 5% li eritma hosil qilish uchun 200 ml 20% li (ρ = 1,14 g/ml) sulfat kislota eritmasiga qancha (ml) suv quyish kerak?
A) 675 B) 660 C) 690 D) 684 E) 693

25. (99-5-68) 15% li eritma tayyorlash uchun 100 g suvda necha gramm KCl ni eritish kerak?
A) 17,65 B) 15,00 C) 16,43
D) 18,58 E) 15,60

26. (00-4-52) Necha ml 1,98 M li sirka kislota eritmasiga (ρ = 1,015 g/ml) 10 ml 40,2% li shu modda eritmasidan (ρ = 1,050 g/ml) qo'shilganda, 27,2% li kislota eritmasi (ρ = 1,035 g/ml) hosil bo'ladi?
A) 9,57 B) 9,63 C) 8,42
D) 8,68 E) 9,51

27. (00-4-54) Massasi 150 g bo'lgan 2,35% li ammiak eritmasi orqali qanday hajm (l, n. sh.) dagi ammiak gazi o'tkazilganda – 7 M li eritma (ρ = 0,948 g/ml) hosil bo'ladi?
A) 22,2 B) 23,1 C) 21,2
D) 20,7 E) 21,8

28. (00-5-43) Massalari 1,5 kg bo'lgan 20% li va 0,5 kg bo'lgan 2% li eritmalardan foydalanib, 10% li eritmadan eng ko'pi bilan qancha massadagi (g) eritma tayyorlash mumkin?
A) 3100 B) 3000 C) 2750
D) 3250 E) 3450

29. (00-8-50) Konsentratsiyasi 25% li xlorid kislota eritmasini hosil qilish uchun uning 10% li 150 g eritmasi orqali vodorod xloridning qanday hajmini (20°C, 101 kPa) o'tkazish talab etiladi?
A) 17,8 B) 23,2 C) 19,1
D) 20,3 E) 21,5

30. (00-9-27) 100 g 2% li mis (II) sulfat eritmasini tayyorlash uchun kerak bo'lgan mis kuporosi ($CuSO_4 \cdot 5H_2O$) va suvning massasini toping.
A) 3,13 va 96,87 B) 13,8 va 86,2
C) 14,5 va 85,5 D) 20,2 va 79,8
E) 23,4 va 76,6

31. (00-9-30) Laboratoriyada o'yuvchi natriyning massa ulushi 10% va 20% bo'lgan eritmalari bor. Ishqorning massa ulushi 12% bo'lgan 500 g eritmasini hosil qilish uchun har qaysi eritmadan qanday massada (g) kerak bo'ladi?
A) 400 va 100 B) 420 va 80
C) 350 va 150 D) 380 va 120
E) 390 va 110

32. (01-2-77) 25 ml 2,5 M HCl eritmasini tayyorlash uchun uning 6 M eritmasidan qancha millilitr olish kerak?
A) 12,0 B) 11,8 C) 10,4
D) 9,6 E) 14,0

33. (01-3-20) Osh tuzining massa ulushi 0,15 bo'lgan 200 g eritmasiga 400 g suv qo'shildi. Eritmadagi osh tuzining massa ulushini toping.
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4 E) 0,05

34. (01-3-80) Nitrat kislotaning 0,5 molyarli eritmasidan 750 ml tayyorlash uchun uning 2 molyarli eritmasidan qancha hajm (ml) talab etiladi?
A) 125 B) 150 C) 225
D) 250 E) 187,5

35. (01-4-137) 80% li sirka kislota eritmasini hosil qilish uchun 192 g suvda necha gramm sirka angidrid eritish kerak?
A) 418,9 B) 408,5 C) 394,2
D) 450,6 E) 402,8

36. (01-5-49) KOH ning 18% li 400 g eritmasiga tarkibida 0,5 mol KOH bo'lgan 100 ml eritma (ρ = 1,022 g/ml) qo'shildi. Oxirgi eritmadagi erigan moddaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 25 B) 15 C) 30 D) 35 E) 45

37. (01-5-57) 3,63% li HCl eritmasini hosil qilish uchun 1,2 l suvga (n. sh.) qancha hajm (l) HCl gazini yuttirish kerak?
A) 30,5 B) 34,5 C) 27,0 D) 52,5 E) 55,0

38. (01-6-5) Kaliy gidroksidning 21% li eritmasini tayyorlash uchun 47 g kaliy oksidini KOH ning necha gramm 7,93% li eritmasida eritish kerak?
A) 353 B) 147 C) 284
D) 93,34 E) 420

39. (01-7-30) Qo'rg'oshin akkumulyatorida qo'llanadigan 28% li (ρ = 1,2 g/ml) sulfat kislota eritmasidan 5 l tayyorlash uchun 96% li (ρ = 1,84 g/ml) sulfat kislota va suvdan necha grammdan olish kerak?
A) 1750 va 4250 B) 1498,2 va 4501,8
C) 1505,2 va 4494,8 D) 1512,3 va 4487,7
E) 1522,5 va 4477,5

40. (01-8-18) Konsentratsiyasi 25% bo'lgan eritma tayyorlash uchun bariy xloridning 300 g 15% li eritmasiga qanday massadagi (g) bariy xloriddan qancha (g) qo'shdi kerak?
A) 32 B) 40
C) 25 D) 20 E) 50

41. (01-9-54) Konsentratsiyalari 0,5 M va 0,2 M bo'lgan eritmalardan necha millilitrdan aralashtirilganda, 0,24 M eritmadan 1240 ml hosil bo'ladi?
A) 163,5 va 1076,5 B) 192,6 va 1047,4
C) 165,3 va 1074,7 D) 144,5 va 1095,5
E) 206,7 va 1033,3

42. (01-12-26) 15% li sulfat kislota eritmasini tayyorlash uchun 400 g suvda qancha gramm SO_3 ni eritish kerak?
A) 22,67 B) 49,0 C) 55,8
D) 53,1 E) 52,15

43. (02-1-16) 10 g 96% li sulfat kislotadan 100% li kislota olish uchun unda qancha (g) sulfat angidrid eritish kerak?
A) 0,4 B) 1,4 C) 0,86 D) 9,6 E) 1,78

44. (02-5-1) Natriy gidroksidning 40% li 200 ml (ρ = 1,43 g/ml) va 10% li 300 ml eritmalari (ρ = 1,1 g/ml) aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 26 B) 16 C) 24 D) 36 E) 30

45. (02-5-2) 400 g 25% li eritma tayyorlash uchun 11% li (ρ = 1,10 g/ml) va 33% li (ρ = 1,33 g/ml) eritmalardan necha millilitrdan olish kerak?
A) 50 va 350 B) 134,7 va 188,3
C) 200 va 200 D) 150 va 250
E) 132,3 va 191,4

46. (02-6-45) 15% li ammoniy gidroksid eritmasini tayyorlash uchun 200 g 10% li ammoniy gidroksid eritmasida qancha litr (n. sh. da) ammiakni eritish kerak?
A) 69 B) 1,7 C) 3,5 D) 7,5 E) 15,5

47. (02-6-46) 15 ml 2,5 M H_2SO_4 eritmasidan qancha (ml) 0,5 M eritma tayyorlash mumkin?
A) 75 B) 25
C) 50 D) 60 E) 65

48. (02-7-1) 0,5 M li 500 ml (ρ = 1,0948 g/ml) bariy xlorid eritmasidan 5% li eritma tayyorlash uchun qancha suv (g) qo'shish kerak?
A) 360,2 B) 530,8 C) 592,8
D) 492,6 E) 452,2

E) elektrolit molekulalarining erituvchi molekulalari bilan to'qnashishi hisobiga boradi

4. (97-11-51) Elektrolitlar qatorini belgilang.
A) osh tuzi, shakar, kislorod
B) glyukoza, shakar, sulfat kislota
C) xlorid kislota, osh tuzi, soda
D) azot, osh tuzi, soda
E) soda, osh tuzi, shakar

5. (98-1-27) Kalsiy gidroksid eritmasi orqali teng mol miqdorda uglerod (IV) oksid o'tkazilganda, eritmaning elektrolitik o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?
A) o'zgarmaydi B) keskin kamayadi
C) keskin ortadi D) qisman kamayadi
E) qisman ortadi

6. (98-4-24) Anorganik birikmalar sinflaridan qaysilari elektrolit xususiyatiga ega?
1) oksidlar; 2) suvda erimaydigan gidroksidlar; 3) kislotalar; 4) tuzlar; 5) ishqorlar.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 2, 3
D) 3, 4, 5 E) 1, 4, 5

7. (98-4-25) Anorganik birikmalarning qaysilari suvli muhitda kuchsiz elektrolit xususiyatlariga ega?
1) suvda yomon eriydigan gidroksidlar;
2) tuzlar; 3) kislotalar; 4) amfoter oksidlar;
5) ishqorlar; 6) indifferent oksidlar.
A) 2, 3, 4 B) 1, 4, 6 C) 3, 5, 6
D) 2, 3, 5 E) 2, 4, 5

8. (98-12-45) Elektrolit xususiyatiga ega bo'lgan juftlarni tanlang.
A) alyuminiy nitrat va magniy oksid
B) temir (II) gidroksid va kaliy permanganat
C) xlorid kislota va suv
D) nitrat kislota va natriy sulfat
E) kaliy gidroksid va kalsiy karbonat

9. (99-4-42) 0,5 l suvda 0,5 mol noelektrolit modda eritildi. Eritmadagi moddaning gidratlangan zarrachalari soni qanchaga teng?
A) $3\ 10^{23}$ B) $6\ 10^{23}$
C) $0{,}5 \cdot 10^{23}$ D) $4{,}5 \cdot 10^{23}$
E) $0{,}3 \cdot 10^{24}$

10. (00-5-13) Alyuminiy xloridning 1,5 mol miqdoridagi xlor ionlari sonini hisoblang.
A) $2{,}7 \cdot 10^{24}$ B) 4,5 C) 3
D) 106,5 E) $18 \cdot 10^{23}$

11. (03-5-42) Qanday jarayonlar tufayli qattiq modda eriganda, issiqlik ajralib chiqadi?
1) modda eriganda, kristall panjaraning buzilishi; 2) erigan modda zarrachalarning gidratlanishi; 3) kristall panjarani buzishga sarflanadigan energiyaga qaraganda gidratlanishda ko'proq energiya ajralishi;
4) modda eriganda, energetik jarayonlar bo'lmasligi.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 3
D) 1, 4 E) 3, 4

12. (03-5-43) Qanday jarayonlar tufayli qattiq modda eriganda, issiqlik yutiladi?
1) erigan modda zarrachalarining gidratlanishi; 2) modda eriganda, kristall panjaraning buzilishi; 3) erishning erituvchi tabiatiga bog'liq bo'lishi.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2 E) 2, 3

13. (03-5-53) Elektrolitlar eritmalaridagi ionlarning holati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1) ionlar erkin holatda bo'ladi; 2) ionlar bilan erituvchi molekulalari orasida o'zaro ta'sir vujudga kelmaydi; 3) ionlar erituvchi molekulalari bilan birikib, gidratlar yoki solvatlar hosil qiladi; 4) ionlar erituvchi molekulalari bilan o'zaro ta'sirlashadi.
A) 1, 2 B) 1, 3
C) 1, 4 D) 2, 3
E) 3, 4

14. (03-5-54) Qaysi erituvchida elektrolit eriganda, hosil bo'lgan qarama-qarshi zaryadli ionlarning o'zaro tortish kuchi maksimal kamayadi?
A) etil spirti B) atseton
C) benzol D) suv
E) toluol

15. (04-1-370) 0,2 M sirka kislota suvda eritilganda, molekulalarning 4 foizi ionlarga ajraldi. Shu eritmadagi zarrachalarning umumiy sonini hisoblab toping.
A) $48,12 \cdot 10^{20}$ B) $3,6 \cdot 10^{31}$
C) $9,6 \cdot 10^{21}$ D) $50,4 \cdot 10^{22}$
E) $18,06\ 10^{21}$

16. (v6-109-7) 1 molyarli ammoniy gidroksid (α = 1,4%) eritmasidagi ammoniy kationining miqdorini (mol ion) hisoblang.
A) $5,6 \cdot 10^{-3}$ B) $2,8\ 10^{-3}$
C) $4,2 \cdot 10^{-3}$ D) $1,5 \cdot 10^{-4}$

17. (v7-123-7) Qaysi variantlarda elektrolit ionlarining eritmadagi holati to'g'ri ifodalangan?
1) ionlar erkin holatda bo'ladi; 2) ionlar bilan erituvchi molekulalari o'zaro ta'sirlashmaydi; 3) ionlar bilan erituvchi molekulalari o'zaro ta'sirlashib gidratlar yoki solvatlar hosil qiladi; 4) ionlar bilan erituvchi molekulalar o'zaro ta'sirlashadi.
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 1, 4

18. (v7-129-7) Kalsiy karbonat suspenziyasi orqali yetarli miqdorda uglerod (IV) oksid uzoq vaqt davomida o'tkazilganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?
A) kamayadi
B) o'zgarmaydi
C) avval kamayadi, so'ng ortadi
D) ortadi

19. (v9-106-13) Tarkibida bir mol kalsiy gidroksid bo'lgan eritma orqali 22,4 l (n. sh.) uglerod (IV) oksid o'tkazilganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) avval kamayadi, so'ng ortadi
C) kamayadi
D) o'zgarmaydi

20. (v9-112-14) Tarkibida ikki mol kalsiy karbonat bo'lgan suspenziya orqali 44,8 l (n. sh.) uglerod (IV) oksid o'tkazilganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?
A) avval kamayadi, so'ng ortadi
B) ortadi
C) kamayadi
D) o'zgarmaydi

21. (v9-123-7) Tarkibida bir mol kalsiy gidroksid bo'lgan eritma orqali 44,8 l (n. sh.) uglerod (IV) oksid o'tkazilganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?
A) avval kamayadi, so'ng ortadi
B) o'zgarmaydi
C) ortadi
D) kamayadi

22. (v16-109-21) Siklogeksan quyidagi usullarda olinadi.
1) geksanni degidrogenlash va sikllash; 2) benzolni gidrogenlash; 3) 1,6-dixlorgeksanga kalsiyni ta'sir ettirib; 4) atsetilenni silklash.
A) 2 va 3 B) 2, 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

23. (v17-102-31) Elektrolitning dissotsiatsiyalanish konstantasi qiymatining o'zgarishi nima(lar)ga bog'liq?
1) elektrolit tabiatiga; 2) erituvchi tabiatiga; 3) konsentratsiyaga; 4) haroratga.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4
C) faqat 4 D) 1, 2, 3, 4

36. Dissotsilanish darajasi. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar

1. (96-10-33) Eritma konsentratsiyasining ortishi natijasida kuchsiz elektrolitlarning dissotsialanish darajasi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) kamayadi
C) ortadi, so'ngra kamayadi
D) kamayadi, so'ngra ortadi
E) o'zgarmaydi

2. (97-1-21) Quyidagi kislotalarning qaysi biri eng kuchli?
A) HF B) HOCl C) H_3PO_4
D) HNO_2 E) HNO_3

3. (97-2-11) Quyidagilar orasidan ikkitasi kuchli, bittasi esa kuchsiz elektrolit keltirilgan qatorni toping.
A) NaCl, H_2SO_4, NaOH
B) H_2S, NH_4OH, Na_2SO_4
C) CH_3COOH, $Ca(OH)_2$, H_3PO_4
D) $Ba(OH)_2$, NaCl, CH_3COOH
E) H_2SO_3, H_2CO_3, NaOH

4. (97-3-51) Qaysi moddani eng kuchsiz elektrolit deb hisoblash mumkin?
A) shakar
B) nitrat kislota
C) kaliy xlorid
D) karbonat kislota
E) xlorid kislota

5. (97-6-50) Dissotsialanish darajasi 75% bo'lgan 100 ml 0,2 M li $Ca(NO_3)$ eritmasida necha mol kation bo'ladi?
A) 0,025 B) 0,02 C) 0,015
D) 0,08 E) 0,01

6. (97-9-12) Quyida keltirilgan kislotalarning qaysilari kuchli elektrolit hisoblanadi?
1) vodorod bromid; 2) sulfit kislota; 3) perxlorat kislota; 4) nitrat kislota; 5) karbonat kislota.
A) 3, 4, 5 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3
D) 1, 4, 5 E) 1, 3, 4

7. (97-10-181) Qaysi eritmada ionlar konsentratsiyasi eng kam miqdorda bo'lishi mumkin?
A) HNO_3 B) HCl C) HBr
D) H_2S E) $HClO_3$

8. (97-11-85) Eng kuchli elektrolitlar qatorini aniqlang.
A) karbonat kislota, osh tuzi, nitrat kislota
B) ammoniy atsetat, vodorod sulfid, nitrat kislota
C) xlorid kislota, nitrat kislota, osh tuzi
D) silikat kislota, sulfat kislota, nitrat kislota
E) karbonat kislota, xlorid kislota, sulfat kislota

9. (97-11-93) Kaliy nitratning 1 mol/l eritmasidan 1,0 l berilgan. Bu eritmada tuzning dissotsialanish darajasi 70% ga teng. Necha gramm elektrolit ionlarga dissotsialangan? [$A_r(K)$ = 39, $A(N)$ = 14, $A_r(O)$ = 16]
A) 70,8 B) 71,9 C) 72,6
D) 70,7 E) 70,1

10. (98-2-32) Elektrolitning har 150 ta molekulasidan 90 tasi ionlarga ajralgan bo'lsa, uning dissotsialanish darajasi necha foizga teng?
A) 90 B) 60 C) 80 D) 70 E) 75

11. (98-2-39) Agar elektrolitning dissotsialanish darajasi α = 25% bo'lib, eritmaga $3 \cdot 10^{20}$ ta molekula kiritilgan bo'lsa, elektrolitning nechta molekulasi dissotsialangan bo'ladi?
A) $7,5 \cdot 10^{19}$ ta B) $1,2 \cdot 10^{21}$ ta
C) $6 \cdot 10^{23}$ ta D) $8,3 \cdot 10^{22}$ ta
E) $8,3 \cdot 10^{20}$ ta

12. (98-4-21) Qaysi moddalar ionlarga dissotsialanadi?
1) temir (III) gidroksid; 2) nitrat kislota; 3) magniy xlorid; 4) mis sulfat; 5) mis (II) gidroksid.
A) 1, 3, 4 B) 2, 4, 5 C) 1, 4, 5
D) 1, 2, 5 E) 2, 3, 4

13. (98-4-22) Moddalarning qaysilari ionlarga dissotsialanmaydi?
1) bariy nitrat; 2) mis (II) gidroksid; 3) alyuminiy xlorid; 4) mis oksid; 5) natriy karbonat; 6) temir (II) sulfid.
A) 1, 4, 6 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 5
D) 1, 3, 6 E) 3, 4, 5

14. (98-4-23) Quyidagi moddalar orasidan elektrolitlarni tanlang:
1) kalsiy yodid; 2) kalsiy sulfat; 3) silikat kislota; 4) kaliy gidroksid; 5) qo'rg'oshin sulfid; 6) magniy nitrat.
A) 1, 4, 6 B) 2, 5, 6 C) 2, 3, 5
D) 3, 5, 6 E) 1, 3, 4

15. (98-4-29) Agar modda molekulalarining dissotsialanish darajasi 15% bo'lsa, 120 ta molekuladan qanchasi dissotsialangan bo'ladi?
A) 6 B) 14 C) 7 D) 12 E) 18

16. (98-4-30) Quyidagi molekulalar orasidan kuchli elektrolitlarni tanlang:
1) temir (III) xlorid; 2) kalsiy gidroksid; 3) bariy gidroksid; 4) kaliy nitrat; 5) natriy gidrokarbonat; 6) vodorod sulfid kislota.
A) 1, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 2, 3, 5, 6
E) 1, 2, 3, 4, 6

17. (98-4-31) Quyidagi moddalar orasidan kuchsiz elektrolitlarni tanlang:
1) vodorod ftorid kislota; 2) natriy atsetat; 3) ammoniy gidroksid; 4) natriy gidrokarbonat; 5) kaliy karbonat; 6) ammoniy sulfat; 7) magniy gidroksid; 8) nitrit kislota.
A) 1, 4, 6, 7 B) 2, 4, 5, 8
C) 3, 5, 6, 7 D) 1, 2, 4, 8
E) 1, 3, 7, 8

18. (98-4-32) Kuchli elektrolitlar qatorini ko'rsating:
1) magniy gidroksid; 2) natriy sulfat; 3) suv; 4) vodorod ftorid kislota; 5) kaliy sulfid; 6) alyuminiy xlorid.
A) 2, 4, 5 B) 1, 2, 6 C) 3, 4, 6
D) 2, 5, 6 E) 1, 3, 4

19. (98-4-33) Kuchli elektrolitlar qatorini ko'rsating:
1) kumush nitrat; 2) mis gidroksid; 3) rux silikat; 4) magniy sulfat; 5) kaliy sulfid; 6) kumush ortofosfat; 7) kumush ftorid.
A) 1, 4, 5, 7 B) 1, 2, 3, 5
C) 2, 4, 6, 7 D) 1, 3, 5, 7
E) 3, 5, 6, 7

20. (98-4-34) Kuchli elektrolitlar qatorini ko'rsating:
1) kaliy xlorid; 2) temir (III) nitrat; 3) mis oksid; 4) kaliy sulfit; 5) kalsiy silikat; 6) berilliy gidroksid.
A) 1, 2, 4 B) 2, 4, 5 C) 1, 5, 6
D) 3, 4, 6 E) 2, 3, 5

21. (98-4-35) Quyidagi moddalar orasidan kuchsiz elektrolitlarni toping:
1) alyuminiy nitrat; 2) silikat kislota; 3) mis (II) karbonat; 4) temir (II) nitrat; 5) vodorod ftorid kislota; 6) natriy silikat.
A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 3, 4, 6
D) 2, 4, 6 E) 1, 2, 4

22. (98-4-36) Agar magniy sulfatning dissotsialanish darajasi 12,5% bo'lib, dissotsialangan molekulalar soni 15 ta bo'lsa, eritilgan molekulalar soni qancha bo'ladi?
A) 45 B) 60 C) 90 D) 105 E) 120

23. (98-4-37) Agar 96 ta molekuladan 6 tasi dissotsialansa, elektrolitning dissotsialanish darajasi (%) qanchaga teng bo'ladi?
A) 2,05 B) 3,10 C) 6,25
D) 9,50 E) 12,75

24. (98-4-38) Dissotsialanish darajasi 12% bo'lgan elektrolitning 24 molekulasi dissotsialangan bo'lsa, eritilgan molekulalar soni qancha bo'ladi?
A) 20 B) 45 C) 150 D) 200 E) 120

25. (98-9-18) Dissotsialanish darajasi 95% ga teng bo'lgan elektrolitning 120 ta molekulasining nechtasi dissotsialanishi mumkin?
A) 114 B) 94 C) 104 D) 84 E) 74

26. (98-9-70) 0,5 molyarli ammoniy gidroksid eritmasidagi OH^- ionlarning konsentratsiyasi 0,015 mol/l bo'lsa, elektrolitning dissotsialanish darajasi (foizlarda) qanchaga teng bo'ladi?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 10 E) 8

27. (98-10-33) 0,02 M li sulfat kislota to'la dissotsialangan eritmadagi vodorodning mol-ion miqdorini hisoblang.
A) 2,00 B) 0,20 C) 0,02
D) 0,04 E) 0,06

28. (98-10-34) Kuchli elektrolitlar qatorini toping.
A) kaliy xlorid, kalsiy sulfat, nitrat kislota, ammoniy gidroksid
B) alyuminiy xlorid, vorodod yodid, ammoniy xlorid, natriy atsetat
C) natriy nitrat, chumoli kislota, natriy propionat, bariy xlorid
D) nitrat kislota, natriy xlorid, sirka kislota, ammoniy xlorid
E) gipoxlorit kislota, vodorod ftorid kislota, karbonat kislota, perxlorat kislota

29. (99-3-12) Faqat kuchsiz elektrolitlardan iborat guruhni ko'rsating.
1) alyuminiy gidroksid, ammoniy gidroksid, kislorod gidridi; 2) ammoniy gidroksid, sirka kislota, suv; 3) kalsiy sulfat, alyuminiy xlorid, sirka kislota; 4) vodorod sulfid, suv, karbonat kislota; 5) rux xlorid, nitrit kislota, mis sulfat; 6) natriy gidroksid, vodorod ftorid kislota, rux gidroksid.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 4
D) 3, 4, 5 E) 1, 4, 6

30. (99-3-43) Kuchli elektrolitlar guruhini ko'rsating.
1) kaliy xlorid, kalsiy sulfat, nitrat kislota, ammiak gidrati; 2) kaliy nitrat, sirka kislota, natriy atsetat, alyuminiy xlorid; 3) alyuminiy xlorid, xlorid kislota, ammoniy xlorid, natriy atsetat; 4) xlorid kislota, kaliy xlorid, sirka kislota, ammoniy xlorid.
A) 1 B) 4 C) 2, 3 D) 1, 2 E) 3

31. (99-5-64) Konsentratsiyasi 0,2 mol/l bo'lgan 500 ml KOH eritmasi bilan massasi 200 g 10% li nitrat kislota eritmasining o'zaro ta'sirlashuvidan hosil bo'lgan tuzning massasini (g) hisoblab toping.
A) 5,05 B) 20,2 C) 30,3
D) 15,7 E) 10,1

32. (99-6-82) Kalsiy nitratning dissotsialanish darajasi 72% bo'lsa, uning 0,5 M li eritmasining 200 ml hajmidagi anionlar massasi qanchaga teng bo'ladi?
A) 4,45 B) 8,9 C) 6,2
D) 12,4 E) 24,8

33. (99-6-83) Kaliy nitrat eritmasining dissotsialanish darajasi 72% ga teng. 0,5 M li shu tuz eritmasining 200 ml miqdoridagi ionlar sonini hisoblang.
A) $1{,}3\cdot10^{23}$ B) $1{,}8\cdot10^{23}$
C) $0{,}13\cdot10^{22}$ D) $0{,}43\cdot10^{23}$
E) $0{,}87\cdot10^{23}$

34. (99-6-85) Sirka kislotaning 0,1 M li eritmasining dissotsialanish darajasi 1,32% ga teng. Shunday eritmaning 1 l hajmidagi vodorod ionlari sonini hisoblang.
A) $0{,}8\cdot10^{21}$ B) $1{,}32\cdot10^{23}$
C) $1{,}32\cdot10^{20}$ D) $0{,}66\cdot10^{20}$
E) $2{,}64\cdot10^{20}$

35. (00-2-49) Quyidagi moddalardan qaysi biri kamroq darajada dissotsialanadi?
A) fenol B) o-dinitrofenol
C) m-dinitrofenol D) p-dinitrofenol
E) 2,4,6-trinitrofenol

36. (00-3-11) Elektrolitning dissotsialanish darajasini oshirish uchun qanday amallarni bajarish kerak?
1) elektrolitni sovitish; 2) elektrolitga suv qo'shish; 3) elektrolitni bug'latish; 4) bosimni orttirish; 5) isitish; 6) bosimni kamaytirish.
A) 2, 5 B) 1, 3 C) 4, 6
D) 2, 4 E) 3, 5

37. (00-9-50) Elektrolitning dissotsialanish darajasi 10% ga teng bo'lsa, eritmadagi $3{,}01\cdot10^{23}$ ta molekulaning qanchasi ionlarga parchalanadi?
A) $3{,}01\cdot10^{22}$ B) $3{,}01\cdot10^{23}$
C) $3{,}01\cdot10^{21}$ D) $6{,}02\cdot10^{23}$
E) $6{,}02\cdot10^{22}$

38. (01-7-38) Konsentratsiyalari 0,5 M kaliy xlorid, 0,15 M kaliy sulfat va 0,45 M kaliy fosfat bo'lgan eritmalarda dissotsialanish darajasi 0,96 bo'lganda, kationning konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 1,98 B) 2,15 C) 2,28
D) 2,06 E) 2,45

39. (01-8-44) Dissotsialanish konstantasi $2{,}8\cdot10^{-8}$ bo'lgan gipoxlorid kislotaning 25°C da 0,02 molyarli eritmasining dissotsialanish darajasini hisoblang.
A) $1{,}7\cdot10^{-3}$ B) $1{,}7\cdot10^{-5}$
C) $2{,}8\cdot10^{-4}$ D) $1{,}5\cdot10^{-3}$
E) $1{,}2\cdot10^{-3}$

40. (02-2-39) Ma'lum sharoitda kalsiy gidroksidning 0,5 molyarli eritmasida uning 0,175 mol miqdori ionlarga dissotsialangan. Erigan moddaning dissotsialanish darajasini hisoblang.
A) 0,3 B) 0,4 C) 0,35
D) 0,45 E) 0,48

41. (02-5-13) Qaysi javobda faqat kuchli elektrolitlar berilgan?
A) sulfat kislota, mis (II) gidroksid, mis (II) xlorid
B) sulfat kislota, fosfat kislota, xlorid kislota
C) bariy gidroksid, bariy nitrat, bariy xlorid
D) suv, vodorod sulfid, vodorod peroksid
E) etanol, sirka kislota, triftorsirka kislota

42. (02-7-8) Agar elektrolitning dissotsialanish darajasi $\alpha = 50\%$ bo'lib, eritmaga $5\cdot10^{25}$ ta molekula kiritilgan bo'lsa, elektrolitning nechta molekulasi dissotsialangan?
A) $7{,}5\cdot10^{25}$ B) $3{,}5\cdot10^{26}$
C) $2{,}5\cdot10^{25}$ D) $2{,}5\cdot10^{26}$
E) $0{,}25\cdot10^{25}$

43. (02-9-52) Dissotsialanish darajasi qanday omillarga bog'liq?
1) temperaturaga; 2) konsentratsiyaga; 3) erituvchi tabiatiga; 4) erigan modda tabiatiga.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 4 C) 3, 4
D) 2, 3, 4 E) 1, 2, 3, 4

44. (03-1-34) Ma'lum hajmdagi kuchsiz bir negizli kislota eritmasida $6{,}02\cdot10^{18}$ ta vodorod ionlari va $5{,}96\cdot10^{20}$ kislota molekulasi bor. Shu kislotaning α (%) qiymati nechaga teng?
A) 1,5 B) 1,0 C) 2,0 D) 3,4 E) 5,6

45. (03-1-35) Dissotsialanish darajasi 0,032 ga teng bo'lgan 0,2 M li chumoli kislotaning dissotsialanish konstantasini aniqlang.
A) $1{,}5\cdot10^{-3}$ B) $2\cdot10^{-3}$ C) $2\cdot10^{-4}$
D) $2{,}5\cdot10^{-4}$ E) $3\cdot10^{-4}$

46. (03-4-38) Sulfat kislotaning 0,1 M 0,5 dm^3 eritmasidagi ($\alpha = 100\%$) sulfat ionlarining massasini (g) toping.
A) 7,5 B) 3,75 C) 4,8
D) 9,6 E) 4,55

47. (03-8-19) Gipoxlorit kislotaning dissotsialanish konstantasi $5\cdot10^{-8}$ ga teng bo'lsa, uning 0,1 M eritmasidagi vodorod ionlari konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.
A) $7\cdot10^{-5}$ B) $2{,}5\ 10^{-4}$ C) $9\cdot10^{-5}$
D) $4{,}5\cdot10^{-4}$ E) $6\cdot10^{-5}$

48. (04-1-360) Dissotsialanish darajasi 2% ga teng bo'lgan sirka kislotaning 0,001 M eritmasidagi vodorod ionlari konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.
A) $2\cdot10^{-2}$ B) $2\cdot10^{-4}$ C) $2\cdot10^{-1}$
D) $2\cdot10^{-5}$ E) $3\cdot10^{-2}$

49. (04-1-363) Sirka kislotaning 0,1 M li eritmasining dissotsialanish darajasi 0,44% ga teng. Shunday eritmaning 1 l hajmida vodorod ionlari sonini hisoblang.
A) $0{,}8\cdot10^{21}$ B) $1{,}32\cdot10^{23}$
C) $1{,}32\cdot10^{20}$ D) $0{,}66\cdot10^{20}$
E) $2{,}64\cdot10^{20}$

50. (04-1-365) Sirka kislotaning 3 M li eritmasida vodorod ionlarining konsentratsiyasi 0,3 mol/l bo'lsa, dissotsialanish darajasini (%) toping.
A) 10 B) 50 C) 30 D) 60 E) 100

51. (05-1-185) Dissotsialanish darajasi 100% bo'lgan sharoitda bir xil molyar konsentratsiyali qaysi tuz eritmasida ionlar miqdori ko'proq bo'ladi?
A) temir (II) sulfat B) natriy fosfat
C) magniy sulfat D) kaliy permanganat
E) kaliy nitrat

52. (v4-102-6) Quyidagi qatorlardan qaysi biri kuchsiz elektrolitlar qatori hisoblanadi?
A) ammoniy va alyuminiy gidroksidlar, vodorod sulfid, nitrat kislota
B) magniy va mis (II) gidroksidlar, karbonat kislota, suv
C) ammoniy va alyuminiy gidroksidlar, kaliy nitrat, nitrat kislota
D) nitrat va fosfat kislotalar, sirka kislota, qo'rg'oshin (II) gidroksid
E) vodorod xlorid, magniy sulfat, marganes (II) va natriy gidroksidlar

53. (v4-112-26) Quyidagi kislotalarning dissotsialanish darajasi qanday tartibda ortib boradi?
A) $HClO$, $HClO_3$, $HClO_2$, $HClO_4$
B) $HClO_4$, $HClO_2$, $HClO_3$, $HClO$
C) $HClO$, $HClO_2$, $HClO_3$, $HClO_4$
D) $HClO_2$, $HClO_4$, $HClO$, $HClO_3$
E) $HClO_4$, $HClO_3$, $HClO_2$, $HClO$

54. (v4-115-6) Kuchli elektrolitlar qatorini aniqlang.
1) KOH; 2) NH_4OH; 3) HCl; 4) CH_3COONH_4; 5) H_2O; 6) $ZnCl_2$; 7) HBr.
A) 3, 7 B) 4, 5 C) 5, 7 D) 2, 5 E) 1, 2

55. (v4-124-6) Kalsiy gidroksidning 0,7 molyarli eritmasida uning 0,225 mol miqdori ionlarga dissotsialangan. Erigan moddaning dissotsialanish darajasini hisoblang.
A) 0,35 B) 0,48 C) 0,32
D) 0,45 E) 0,4

56. (v5-103-6) Agar dissotsialanish darajasi 95% ni tashkil etsa, 180 ta natriy sulfat molekulasidan ... ta ion hosil bo'ladi.
A) 342 B) 513 C) 171
D) 120 E) 80

57. (v5-111-6) Eritmada $3,0\ 10^{20}$ ta gidroksid ionlari va $1,5 \cdot 10^{22}$ ta ammoniy gidroksid molekulasi bor. Shu asosning dissotsialanish darajasini (%) toping.
A) 3,20 B) 3,69 C) 1,57
D) 1,96 E) 2,81

58. (v5-116-6) 5,6 l (n. sh.) SO_2 suvda to'liq erishidan hosil bo'lgan eritmadagi sulfit anionlar sonini toping (α = 12%).
A) $1,5 \cdot 10^{23}$ B) $4,8 \cdot 10^{22}$ C) $1,8 \cdot 10^{22}$
D) $3,61 \cdot 10^{23}$ E) $7,2 \cdot 10^{22}$

59. (v6-101-7) Kaliy sulfatning dissotsialanmagan molekulalari soni 80 ta bo'lsa, eritmadagi ionlar sonini hisoblang. (α = 75%)
A) 25 B) 240 C) 320 D) 720

60. (v6-102-7) $NaNO_3$ bir molyarli eritmasining dissotsialanish darajasi 70% bo'lsa, 2 l shunday eritmadagi dissotsialangan elektrolitning massasini (g) hisoblang.
A) 98,7 B) 212 C) 132 D) 119

61. (v6-103-7) Eritmada 720 ta ion mavjud bo'lsa, dissotsialanmagan natriy sulfat molekulalari sonini hisoblang. (α = 80%)
A) 60 B) 180 C) 240 D) 300

62. (v6-105-7) Eritmada 400 ta xlor ioni mavjud bo'lsa, dissotsialanmagan kalsiy xlorid molekulalari sonini hisoblang. (α = 80%)
A) 50 B) 200 C) 60 D) 150

63. (v6-111-7) NH_4OH ning 5 l eritmasidagi (0,1 mol/l, a = 1,43%) ionlar miqdorini (mol-ion) hisoblang.
A) $1,43 \cdot 10^{-2}$ B) $7,15 \cdot 10^{-3}$
C) $1,2 \cdot 10^{-3}$ D) $71,5 \cdot 10^{-3}$

64. (v6-112-7) 600 ml sulfit kislota eritmasidagi (0,1 mol/l) sulfit ionining mol miqdorini hisoblang. ($\alpha_{SO_3^{2-}}$ = 13%)
A) $6 \cdot 10^{-2}$ B) $7,8 \cdot 10^{-3}$
C) $4,6 \cdot 10^{-2}$ D) $3,4 \cdot 10^{-6}$

65. (v6-114-7) 500 ml karbonat kislota eritmasidagi (0,025 mol/l) karbonat ionlarining mol miqdorini hisoblang.
($\alpha_{CO_3^{2-}}$ = 1,5%)
A) $1,8 \cdot 10^{-4}$ B) $1,25 \cdot 10^{-2}$
C) $0,9 \cdot 10^{-2}$ D) $4,6 \cdot 10^{-1}$

66. (v6-117-7) Kuchli elektrolitlar keltirilgan javobni belgilang.
A) bariy xlorid, natriy nitrat, alyuminiy gidroksid, xlorid kislota
B) kaliy xlorid, ammoniy atsetat, litiy gidroksid, vodorod oksid
C) ammoniy xlorid, natriy sulfat, litiy gidroksid, xlorat kislota
D) natriy karbonat, magniy xlorid, ammoniy gidroksid, sulfat kislota

67. (v6-118-7) 18°C da 0,1 molyarli ftorid kislotada α = 8,4% bo'lsa, 4 l shunday eritmadagi dissotsialangan elektrolit massasini (g) hisoblang.
A) 0,73 B) 0,54
C) 0,67 D) 6,86

68. (v6-121-7) Eritmada 600 ta ion mavjud bo'lsa, dissotsialanmagan litiy sulfat molekulalari sonini hisoblang. (α = 80%)
A) 50 B) 150
C) 120 D) 250

69. (v6-122-7) Bariy xloridning dissotsialanmagan molekulalari soni 40 ta bo'lsa, eritmadagi xlor ionlari sonini hisoblang. (α = 75%)
A) 160 B) 120 C) 240 D) 75

70. (v6-123-7) 200 ml ammoniy gidroksid (0,2 mol/1) eritmasidagi ammoniy ionining miqdorini (mol) hisoblang. (α = 1,5%)
A) 0,04 B) 0,2 C) $6 \cdot 10^{-4}$ D) 0,001

71. (v6-124-7) 18°C da 0,1 molyarli nitrat kislotada α = 7% bo'lsa, 2,5 l shunday eritmadagi dissotsialanmagan elektrolit massasini (g) hisoblang.
A) 13,4 B) 16,5 C) 15,8 D) 14,6

72. (v6-139-7) 210,1 molyarli ammoniy gidroksid (α = 1,4%) eritmasidagi ammoniy kationining miqdorini (mol-ion) hisoblang.
A) $5,6 \cdot 10^{-3}$ B) $2,8 \cdot 10^{-3}$
C) $4,2\ 10^{-3}$ D) $1,5 \cdot 10^{-4}$

73. (v7-106-7) Kuchli elektrolitlarni tanlang.
1) ammoniy gidroksid; 2) kaliy nitrat; 3) rux gidroksid; 4) vodorod sulfid; 5) kalsiy xlorid; 6) litiy sulfat.
A) 2, 5, 6 B) 1, 3, 4
C) 1, 3, 4, 6 D) 2, 5

74. (v7-107-7) 0,01 molyarli eritmalardagi moddalarni ionlar miqdori (mol) kamayib borish tartibida joylashtiring (α = 100%).
1) bariy xlorid; 2) xlorsirka kislota; 3) natriy fosfat; 4) alyuminiy sulfat.
A) 2, 1, 3, 4 B) 4, 3, 1, 2
C) 4, 1, 3, 2 D) 2, 3, 1, 4

75. (v7-108-7) Kuchli elektrolitlar berilgan javobni tanlang.
1) sulfat kislota, xlorid kislota, kumush xlorid;
2) kaliy nitrat, nitrat kislota, xlorid kislota;
3) ammoniy xlorid, natriy atsetat, kalsiy karbonat; 4) kaliy sulfat, ammoniy xlorid, natriy nitrat.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 3, 4 D) 1, 2

76. (v7-109-7) Kuchli elektrolitlar keltirilgan qatorni tanlang.
A) ammoniy atsetat, vodorod sulfid, nitrit kislota
B) karbonat kislota, perxlorat kislota, nitrat kislota
C) kremniy kislota, sirka kislota, nitrat kislota
D) sulfat kislota, nitrat kislota, natriy atsetat

77. (v7-111-7) Kuchli elektrolitlar qatorini tanlang.
A) glyukoza, maltoza, sulfat kislota
B) osh tuzi, shakar, potash
C) suv, osh tuzi, soda
D) ichimlik sodasi, osh tuzi, mis kuporosi

78. (v7-112-7) Qaysi moddalar kuchsiz elektrolit hisoblanadi?
1) vodorod ftorid; 2) nitrit kislota; 3) kaliy karbonat; 4) natriy gidrokarbonat;
5) ammoniy gidroksid; 6) ammoniy sulfat.
A) 2, 3 B) 3, 4, 6 C) 1, 2, 5 D) 1, 5

79. (v7-113-7) Quyidagi qatorlardan qaysi biri ikkita kuchli va bitta kuchsiz elektrolitdan iborat?
A) H_2SO_3; H_2CO_3; CH_3COOH
B) Na_2SO_4; NH_4NO_3; $CaCl_2$
C) CH_3COOH; NaOH; NH_2OH
D) $BaCl_2$; NH_4OH; Li_2SO_4

80. (v7-116-7) Qaysi qatorlarda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan?
1) kaliy sulfat, alyuminiy xlorid, sulfat kislota;
2) ammoniy gidroksid, sirka kislota, nitrit kislota; 3) alyuminiy gidroksid, ammoniy gidroksid, natriy gidrid; 4) vodorod sulfid, ammoniy gidroksid, karbonat kislota; 5) rux xlorid, nitrat kislota, mis (II) sulfat; 6) natriy gidroksid, vodorod ftorid, rux gidroksid.
A) 1, 5 B) 2, 4 C) 1, 6 D) 3, 4

81. (v7-117-7) Dissotsialanish darajasi kamayib borgan elektrolitlar qatorini toping.
1) karbol kislota; 2) etanol; 3) 2,4-dinitrofenol; 4) pikrin kislota; 5) paranitrofenol.
A) 4, 5, 1, 3, 2 B) 4, 3, 1, 5, 2
C) 4, 1, 5, 3, 2 D) 4, 3, 5, 1, 2

82. (v7-121-7) Qaysi moddalar kuchli elektrolit hisoblanadi?
1) alyuminiy nitrat; 2) kremniy kislota;
3) mis (II) sulfat; 4) temir (II) nitrat; 5) sirka kislota; 6) natriy atsetat.
A) 2, 5 B) 2, 3, 5, 6
C) 4, 6 D) 1, 3, 4, 6

83. (v7-124-7) Qaysi moddalar kuchli elektrolit hisoblanadi?
1) kalsiy xlorid; 2) kaliy gidroksid;
3) ammoniy gidroksid; 4) sirka kislota;
5) natriy gidrokarbonat; 6) sulfit kislota.
A) 1, 5 B) 3, 4, 6 C) 1, 2, 5 D) 4, 6

84. (v7-127-7) Qaysi qatorda kuchli elektrodlar joylashgan?
1) alyuminiy nitrat; 2) magniy gidroksid;
3) natriy sulfat; 4) kaliy atsetat; 5) sirka kislota;
6) kalsiy karbonat.
A) 2, 5, 6 B) 1, 3, 4 C) 5, 6 D) 1, 4

85. (v7-177-7) Qaysi moddalar kuchli elektrolit hisoblanadi?
1) kaliy sulfid; 2) natriy sulfat; 3) ammoniy gidroksid; 4) sirka kislota; 5) magniy gidroksid; 6) alyuminiy xlorid.
A) 1, 2, 6 B) 2, 4, 5 C) 2, 5, 6 D) 3, 4, 6

86. (v7-186-7) Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan?
A) natriy xlorid, sirka kislota, sulfat kislota, kobalt (II) gidroksid
B) temir (III) gidroksid, sirka kislota, sulfit kislota, xrom (III) gidroksid
C) ammoniy xlorid, perxlorat kislota, kaliy nitrat, litiy gidroksid
D) ammoniy gidroksid, kaliy nitrat, vodorod sulfid, ammoniy xlorid

87. (v9-101-7) alyuminiy sulfat eritmasida dissotsialanmagan molekulalar soni 25 ta bo'lsa, eritmadagi alyuminiy ionlari sonini hisoblang (α = 80%).
A) 200 B) 500 C) 300 D) 100

88. (v9-102-7) 2,5 l 0,4 molyarli ammoniy gidroksid eritmasidagi (α = 5%) dissotsialanmagan ammoniy gidroksid molekulalari sonini hisoblang.
A) $5,7 \cdot 10^{23}$ B) $3,01 \cdot 10^{22}$
C) $8,9 \cdot 10^{23}$ D) $6,02 \cdot 10^{23}$

89. (v9-104-31) alyuminiy sulfat eritmasida dissotsialanmagan molekulalar soni 50 ta bo'lsa, eritmadagi ionlar sonini hisoblang (α = 75%).
A) 200 B) 750 C) 150 D) 75

90. (v9-108-5) Qaysi qatorda faqat kuchsiz elektrolitlar joylashgan?
A) $Ni(OH)_2$, $HClO_4$, NH_4OH, H_2CO_3
B) KNO_3, HCl, $CaCO_3$, LiOH
C) KCl, Na_2SO_4, KOH, $Ca(NO_3)_2$
D) CH_3COOH, H_2CO_3, H_2SO_3, NH_4OH

91. (v9-109-25) Qaysi qatorda faqat kuchsiz elektrolitlar joylashgan?
A) NaOH, NaCl, HNO_3, CH_3COOH
B) NH_4OH, H_2S, H_2CO_3, CH_3COOH
C) NH_4OH, Na_2S, HCN, H_2SO_3
D) CH_3COOH, CH_3COONa, H_2SO_3, Na_2SO_3

92. (v9-111-25) Qaysi qatorlarda faqat kuchsiz elektrolitlar keltirilgan?
1) CH_3COOH, NH_4OH, HNO_2; 2) Na_2SO_4, $AlCl_3$, H_2SO_4; 3) $Al(OH)_3$, NH_4OH, NaOH; 4) NaCl, HF, $Zn(OH)_2$; 5) H_2SO_3, NH_4OH, H_2CO_3; 6) $CaCl_2$, HNO_3, $CuSO_4$.
A) 1, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 2, 6

93. (v9-113-24) Alyuminiy xlorid eritmasida 600 dona ion mavjud bo'lsa, eritmadagi dissotsialanmagan alyuminiy xlorid molekulalari sonini hisoblang (α = 75%).
A) 150 B) 200 C) 800 D) 50

94. (v9-114-30) Kalsiy xlorid eritmasida dissotsialanmagan molekulalar soni 60 ta bo'lsa, eritmadagi xlor ionlari sonini hisoblang (α = 90%).
A) 540 B) 1080 C) 1620 D) 1200

95. (v9-116-34) 0,25 molyarli 0,2 l ammoniy gidroksid eritmasidagi ammoniy ionining miqdorini (mol) hisoblang (α = 2%).
A) 0,2 B) 0,025 C) 0,001 D) 0,05

96. (v9-119-33) Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar joylashgan?
A) KNO_3, HCl, $CaCO_3$, LiOH
B) KCl, Na_2SO_4, KOH, Ca $(NO_3)_2$
C) $Ni(OH)_2$, $HClO_4$, NH_4OH, H_2CO_3
D) CH_3COOH, H_2CO_3, H_2SO_3, NH_4OH

97. (v9-120-9) Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar joylashgan?
A) $Fe(OH)_3$, CH_3COOH, H_2SO_4, $Cr(OH)_3$
B) NaCl, CH_3COOH, H_2SO_4, $Ni(OH)_3$
C) NH_4Cl, $HClO_4$, KNO_3, LiOH
D) NH_4OH, KNO_3, H_2S, NH_4Cl

98. (v9-122-20) Natriy fosfat eritmasida 960 dona ion mavjud bo'lsa, eritmadagi dissotsialanmagan natriy fosfat molekulalari sonini hisoblang (α = 80%).
A) 300 B) 768 C) 60 D) 240

99. (v9-124-17) Elektrolitlarning dissotsialanish darajasi kamayib borish tartibida joylashgan javobni toping.
1) karbinol; 2) sirka kislota; 3) karbol kislota; 4) diftorsirka kislota.
A) 4, 2, 3, 1 B) 4, 3, 2, 1
C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 2, 4

100. (v9-127-5) Qaysi qatorda faqat kuchli elektrolitlar keltirilgan?
1) nitrit kislota; 2) natriy sulfat; 3) sulfit kislota; 4) litiy gidroksid; 5) karbonat kislota; 6) ammoniy gidroksid; 7) alyuminiy xlorid; 8) perxlorat kislota.
A) 1, 4, 7, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 2, 4, 7, 8 D) 2, 3, 5, 8

101. (v9-128-27) alyuminiy sulfat eritmasida dissotsialanmagan molekulalar soni 40 ta bo'lsa, eritmadagi sulfat ionlari sonini hisoblang (α = 80%).
A) 320 B) 480 C) 160 D) 800

102. (v12z-208-27) Kaliy sulfatning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan ionlar soniga teng bo'lsa, kaliy sulfatning dissosiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 78 B) 90 C) 70 D) 87,5

103. (v12z-211-27) Kalsiy xloridning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari sonining dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan ionlar soniga nisbati 1:8 bo'lsa, kalsiy xloridning dissosiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 73 B) 89 C) 80 D) 75

104. (v12z-212-18) Alyuminiy nitratning dissotsiatsiyalanmagan molekulalar sonining dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan anionlar soniga nisbati 1:12 bo'lsa, alyuminiy nitratning dissosiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 92 B) 80 C) 75 D) 85

105. (v12z-232-1) Eritmada 840 ta ion mavjud bo'lsa, dissotsialanmagan $MgCl_2$ molekulalari sonini hisoblang, (α = 80%)
A) 70 B) 280 C) 20 D) 240

106. (v12c-101-1) Natriy sulfatning dissotsiatsiyalanmangan molekulalari sonining dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan anionlar soniga nisbati 19 bo'lsa, natriy sulfatning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 82 B) 87 C) 75 D) 90

107. (v12c-104-34) Temir (III) nitratning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan ionlar soniga teng bo'lsa, temir (III) nitratning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 76 B) 93 C) 81 D) 87

108. (v12c-106-8) Ammoniy fosfating dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan anionlar soniga teng bo'lsa, ammoniy fosfatning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 95 B) 87 C) 83 D) 90

109. (v12c-108-21) Xrom (III) nitratning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan anionlar soniga teng bo'lsa, xrom (III) nitratning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 87 B) 93 C) 76 D) 81

110. (v12c-116-35) Natriy fosfatning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tartibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan kationlar soniga teng bo'lsa, natriy fosfatning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 67 B) 89 C) 95 D) 73

111. (v12c-123-16) Temir (III) sulfatning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan ionlar soniga teng bo'lsa, temir (III) sulfatning dissotsiatsiyalanish darajasini (q%) aniqlang.
A) 89 B) 77 C) 85 D) 94,4

112. (v12c-124-35) Xrom (III) xloridning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan kationlar soniga teng bo'lsa, xrom (III) xloridning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 90 B) 66,7 C) 70 D) 80

113. (v12c-125-15) Natriy sulfatning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan anionlar soniga teng bo'lsa, natriy sulfatning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 70 B) 78 C) 87,5 D) 90

114. (v12c-127-21) Kaliy fosfatning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan anionlar soniga teng bo'lsa, kaliy fosfatning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang.
A) 89 B) 95 C) 72 D) 67

115. (v12c-134-7) Xrom (III) sulfatning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari tarkibidagi atomlar soni dissotsiatsiyalangan molekulalardan hosil bo'lgan ionlar soniga teng bo'lsa, xrom (III) sulfatning dissotsiatsiyalanish darajasini (α%) aniqlang
A) 77 B) 89 C) 85 D) 94,4

116. (v13-136-35) Alyuminiy sulfat eritmasi tarkibidagi anionlarning massasi $71{,}76\cdot10^{-24}$ g (suvning dissotsiyalanishini hisobga olmang) bo'lsa, eritmadagi anionlar sonini toping (α = 75%).
A) 150 B) 450 C) 50 D) 300

117. (v13-143-3) Bariy xlorid eritmasi tarkibidagi anionlar massasi $2{,}83\cdot10^{-23}$ g (suvning dissotsiyalanishini hisobga olmang) bo'lsa, dissotsiyalanmagan bariy xlorid molekulalari sonini toping (α = 80%).
A) 240 B) 720 C) 60 D) 480

118. (v13-145-36) Kalsiy xlorid eritmasi tarkibidagi anionlar massasi $2{,}83\cdot10^{-23}$ g (suvning dissotsiyalanishini hisobga olmang) bo'lsa, dissotsiyalanmagan kalsiy xlorid molekulalari sonini toping (α = 80%).
A) 480 B) 720 C) 60 D) 240

119. (v14-101-32) Natriy sulfat dissotsialanishidan hosil bo'lgan anionlar soni dissotsialanmagan molekulalar tarkibidagi atomlar soniga teng bo'lsa, dissotsialanish darajasini (α%) toping.
A) 70 B) 87,5 C) 90 D) 78

120. (v15-113-5) Natriy sulfat dissotsialanishidan hosil bo'lgan kationlar soni dissotsialanmagan molekulalar tarkibidagi atomlar soniga teng bo'lsa, dissotsialanish darajasini (α%) toping.
A) 78 B) 90 C) 70 D) 87,5

121. (v15-117-33) Nitrat kislota molekulasining 900 ta dissotsiatsiyalangan molekulasiga nechta ion to'g'ri kelishini ko'rsating. (α = 0,9)
A) 1800 B) 200 C) 900 D) 450

122. (v15-118-15) Ammoniy fosfat dissotsialanishidan hosil bo'lgan anionlar soni, dissotsialanmagan molekulalarning atomlar soniga teng bo'lsa, dissotsialanish darajasini (α%) toping.
A) 95 B) 83 C) 87 D) 90

123. (v15-129-1) Alyuminiy nitrat dissotsilanganda dissotsilanmagan molekulalar soni va ionlar soni 1:12 nisbatda bo'lsa, dissotsilanish darajasini toping (α%).
A) 85 B) 80 C) 92 D) 75

124. (v16-115-30) 0,05 M li NH_3 eritmasidagi gidroksid ionlarining konsentratsiyasini (mol/litr) toping. ($K_{NH_3} = 2\cdot10^{-5}$)
A) 10^{-8} B) 10^{-11} C) 10^{-3} D) 10^{-10}

125. (v16-120-7) 0,25 M li HCN eritmasidagi gidroksid ionlarining konsentrasiyasini (mol/litr) toping. ($KHCN = 4\cdot10^{-10}$)
A) 10^{-4} B) 10^{-5} C) 10^{-9} D) 10^{-11}

126. (v17-104-8) 400 g alyuminiy sulfat 0,1 M (ρ = 1,25 g/ml) eritmasida kation va anion molli nisbatini aniqlang. Suvning dissotsiatsiyasi e'tiborga olinmasin. Gidroliz darajasi 5% ga teng.
A) 1:1,36 B) 2:3 C) 1:3,26 D) 1:2

127. (v17-109-16) Quyidagi qaysi moddalar suvli eritmada kuchsiz elektrolit hisoblanadi?
A) kaliy dixromat, ammoniy gidrokarbonat
B) ftorid kislota, ammiak gibrat
C) bariy sulfid, natriy gidrosulfit
D) kumush nitrat, xlorid kislota

128. (v17-110-18) Quyudagi qaysi moddalar suvli eritmada kuchsiz elektrolit hisoblanadi?
A) kaliy dixromat, ammoniy gidrokarbonat
B) ftorid kislota, ammiak gidrat
C) bariy sulfid, natriy gidrosulfit
D) kumush nitrat, xlorid kislota

129. (v17-114-20) Tarkibida 12 g sirka kislota tutgan suvli eritmada 0,006 mol ion bo'lsa, kislotaning dissotsilanish darajasini (%) toping. (Suvning dissotsilanishini hisobga olmang.)
A) 1,5
B) 2,75
C) 1
D) 2

130. (v17-124-20) 19,6 g H_2SO_4 suvda eriganda eritmada 0,54 nol ion mavjud bo'lsa, kislotaning dissotsiatsiyalanish darajasini (%) aniqlang (suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin).
A) 90
B) 85
C) 88
D) 96

37. Kislota, asos va tuzlarning dissotsilanishi

1. (96-1-23) Qaysi modda suvda eriganda bir bosqichli dissotsiatsiyalanish natijasida S^{2-} ioni hosil bo'ladi?
A) natriy sulfat B) natriy sulfit
C) natriy sulfid D) natriy gidrosulfat
E) natriy gidrosulfid

2. (96-8-95) Dissotsialanish darajalari 100% bo'lgan sharoitda bir xil molyar konsentratsiyali qaysi tuz eritmasida ionlar miqdori ko'proq bo'ladi?
A) kaliy nitrat B) qizil qon tuzi
C) magniy sulfat D) kaliy permanganat
E) temir (III) sulfat

3. (96-10-19) Sirka va ortofosfat kislotalar suvda eriganda nechta kimyoviy bog'lari geterolitik parchalanadi, ya'ni elektrolitik dissotsialanadi?
A) 1 va 1 B) 4 va 3 C) 1 va 2
D) 4 va 1 E) 1 va 3

4. (97-7-52) Kaliy dixromatning dissotsialanishida nechta ion hosil bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

5. (97-10-49) Qaysi molekulaning dissotsialanishida eng ko'p ion hosil bo'ladi?
A) K_2SO_4 B) $Al_2(SO_4)_3$
C) $K[Fe(CN)_6]$ D) $Ca(HCO_3)_2$
E) $FeCl_3$

6. (98-1-30) Bir xil konsentratsiyali qaysi moddalar eritmalarida dissotsialanish darajasi yuqoriroq?
A) etil spirt B) fenol
C) sirka kislota D) xlorsirka kislota
E) triftorsirka kislota

7. (98-4-27) Qaysi qatorda kislotalarning dissotsialanish darajasi ortib borishi to'g'ri ko'rsatilgan?
1) sulfat kislota; 2) ortofosfat kislota;
3) xlorat kislota; 4) silikat kislota.
A) 1, 2, 3, 4 B) 4, 3, 2, 1
C) 4, 2, 3, 1 D) 3, 1, 2, 4
E) 3, 2, 1, 4

8. (98-8-38) Eritmada mavjud bo'lmaydigan tuzni ko'rsating:
A) alyuminiy sulfad B) alyuminiy xlorid
C) alyuminiy nitrat D) alyuminin sulfat
E) alyuminiy fosfat

9. (98-10-32) Hajmi 2 l bo'lgan $KAl(SO_4)_2$ ning 0,25 M konsentratsiyali eritmasidagi jami ionlar sonini hisoblang.
A) $6 \cdot 10^{23}$ B) $3 \cdot 10^{23}$ C) $12 \cdot 10^{23}$
D) $15 \cdot 10^{23}$ E) $2{,}4 \cdot 10^{24}$

10. (98-12-10) Bertole tuzi dissotsialanganda, qanday ionlar paydo bo'ladi?
1) kaliy; 2) xlor; 3) xlorat; 4) kislorod; 5) xlorit.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 1, 5 E) 3, 4

11. (99-5-25) Temir (III) digidroksonitratni dissotsialanish tenglamasining o'ng tomonini ko'rsating.
A) $\rightarrow Fe^{3+} + 2HO^- + NO_3^-$
B) $\rightarrow Fe(OH)^{2+} + HO^- + NO_3^-$
C) $\rightarrow Fe(OH)_2^+ + NO_3^-$
D) $\rightarrow Fe^{2+} + HO^- + NO_3^-$
E) $\rightarrow Fe(NO_3)^{2+} + 2HO^-$

12. (99-5-26) Quyidagi moddalarni 1 mol miqdori to'la dissotsialanganda ionlarning mollar soni ortib borishi tartibida joylashtiring.
A) natriy gidroksid, kalsiy gidroksonitrat, temir (III) nitrat, bariy gidrokarbonat
B) natriy gidroksid, kalsiy gidroksonitrat, bariy gidrokarbonat, temir (III) nitrat
C) temir (III) nitrat, bariy gidrokarbonat, natriy gidroksid, kalsiy gidroksonitrat
D) kalsiy gidroksonitrat, natriy gidroksid, temir (III) nitrat, bariy gidrokarbonat
E) bariy gidrokarbonat, temir (III) nitrat, kalsiy gidroksonitrat, natriy gidroksid

13. (99-6-67) Bir molekula ammoniy dixromat va 3 molekula vismut (III) nitrat dissotsialanganda hosil bo'lgan umumiy ionlar sonini aniqlang.
A) 7 B) 12
C) 14 D) 15 E) 23

14. (00-3-18) Moddalarning qaysi birlari birinchi bosqichda dissotsialanishida digidrofosfat ionlari hosil bo'ladi?
1) natriy fosfat; 2) natriy gidrofosfat; 3) natriy digidrofosfat; 4) ammoniy gidrofosfat;
5) fosfat kislota; 6) kalsiy gidrofosfat.
A) 1, 6 B) 3, 5 C) 2, 4
D) 4, 5 E) 2, 3

15. (00-3-43) Chumoli kislotaning dissotsialanish darajasi 0,026 bo'lsa, uning 0,03 molyar konsentratsiyasi eritmasidagi vodorod ionlari molyar konsentratsiyasini hisoblang ($\alpha = 0{,}026$).
A) 0,86 B) 0,115 C) 0,0115
D) 0,008 E) 0,0008

16. (00-5-58) Ortofosfat kislota eritmasida quyidagi ionlarning qaysilari ko'proq miqdorda mavjud bo'ladi?
1) H^+; 2) PO_4^{3-}; 3) HPO_4^{2-};
4) $H_2PO_4^-$; 5) PO_3^-; 6) $P_2O_7^{4-}$.
A) 1, 2 B) 1, 3
C) 1, 4 D) 1, 5 E) 1, 6

17. (00-9-46) Dissotsialanganda ikki xil katmonga parchalanadigan elektrolitni ko'rsating.
A) $KAl(SO_4)_2$ B) NH_4Cl
C) H_3PO_4 D) $AlCl_3$
E) $Cu(OH)_2$

18. (00-9-49) Tarkibida 0,1 mol/l alyuminiy xlorid bo'lgan eritmada Al^{3+} va Cl^- ionlarining mollar soni yig'indisini toping.
A) 0,4 B) 0,1 C) 0,2
D) 0,3 E) 0,6

19. (01-10-25) Ortofosfat kislota eritmasida 1) digidrofosfat; 2) gidrofosfat va; 3) fosfat ionlarining miqdori ortib borish tartibini toping.
A) 2, 3, 1 B) 3, 2, 1 C) 1, 2, 3
D) 1, 3, 2 E) 3, 1, 2

20. (01-11-21) Bir yil davomida odamzod 7 kg osh tuzini iste'mol qilishi ma'lum bo'lsa, har kuni kishi organizmi qabul qilgan anionlar sonini toping.
A) $1{,}56 \cdot 10^{22}$ B) $2{,}05 \cdot 10^{23}$
C) $1{,}97 \cdot 10^{22}$ D) $2{,}05 \cdot 10^{22}$
E) $1{,}97 \cdot 10^{23}$

21. (01-11-41) Konsentratsiyasi 0,01 M bo'lgan suvli eritmalarda zarrachalar soni ortib borish tartibini ko'rsating.
1) kalsiy xlorid; 2) natriy fosfat; 3) xlorsirka kislota; 4) sirka kislota.
A) 4, 3, 1, 2 B) 1, 4, 2, 3
C) 1, 4, 3, 2 D) 4, 3, 2, 1
E) 4, 1, 2, 3

22. (01-12-28) Tarkibida 0,01 mol modda saqlovchi alyuminiy sulfat eritmasidagi ionlar sonini aniqlang.
A) $3 \cdot 10^{22}$ B) $1{,}2 \cdot 10^{23}$
C) $6 \cdot 10^{22}$ D) $1{,}5 \cdot 10^{23}$
E) $3 \cdot 10^{23}$

23. (02-5-14) Qaysi moddalar bosqichli dissotsialanadi?
1) sulfat kislota; 2) suv; 3) bariy gndroksid;
4) mis (II) gidroksid; 5) natriy fosfat; 6) natriy gidrofosfat; 7) mis gidroksoxlorid;
8) alyuminiy xlorid.
A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 3, 4, 6
C) 1, 4, 6, 7 D) 2, 3, 4, 7
E) 3, 5, 8

24. (02-5-16) Ortofosfat kislota eritmasida necha xil ionlar bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

25. (02-7-5) Bir molekula kaliy dixromat va ikki molekula alyuminiy sulfat dissotsialanganda hosil bo'ladigan ionlarning umumiy sonini toping.
A) 4 B) 8 C) 10 D) 13 E) 18

26. (02-7-14) Dissotsialanganda ikki xil anion hosil qiladigan elektrolitni ko'rsating.
A) natriy gidroksid B) sulfat kislota
C) natriy-kaliy sulfat D) natriy nitrat
E) mis (II) sulfat

27. (02-7-15) Dissotsialanganda ikki xil kation hosil qiladigan elektrolitni ko'rsating.
A) mis (II) sulfat B) bariy gidroksoxlorid
C) natriy-kaliy sulfat D) sulfat kislota
E) bariy gidroksid

28. (02-9-46) Bir xil massada olingan 10% li qaysi eritmada erigan moddalarning molekulalar soni eng ko'p bo'ladi?
A) kaliy nitrat B) nitrat kislota
C) osh tuzi D) vodorod xlorid
E) alyuminiy sulfat

29. (02-12-45) Kislota molekulalari dissotsialanganda, eritmada qanday ionlar mavjud bo'ladi?
A) vodorod ionlari
B) vodorod va kislota qoldig'i ionlari
C) gidroksid ionlari
D) gidroksoniy va kislota qoldig'i ionlari
E) gidroksoniy va vodorod ionlari

30. (03-4-44) 1 m^3 suvda 1 mg natriy ishqor erigan. Shu eritmaning 1 sm^3 ida necha dona ion bo'ladi?
A) $1{,}5 \cdot 10^{15}$ B) $2 \cdot 10^{10}$ C) $1{,}1 \cdot 10^{18}$
D) $2 \cdot 10^{15}$ E) $1{,}5 \cdot 10^{13}$

31. (03-6-38) $Al(OH)_3$ dissotsialanishining birinchi bosqichida qanday moddalar hosil bo'ladi?
A) OH^-; $Al(OH)$ B) OH^-; $Al(OH)_3$
C) OH^-; $AlOH^{2+}$ D) OH^-; Al^{3+}; H^+
E) O^{2-}; H^+; Al^{3+}

32. (04-1-60) Bir xil massada olingan 10% li eritmalarning qaysi birida molekulalar soni ko'proq bo ladi?
A) kaliy nitrat B) nitrat kislota
C) xlorid kislota D) osh tuzi
E) alyuminiy sulfat

33. (04-1-350) Hajmi 2 l bo'lgan $KAl(SO_4)_2$ ning 0,5 M konsentratsiyali eritmasidagi metall ionlar sonini hisoblang.
A) $6 \cdot 10^{23}$ B) $3 \cdot 10^{23}$
C) $12 \cdot 10^{23}$ D) $15 \cdot 10^{23}$
E) $2{,}4 \cdot 10^{24}$

34. (04-1-362) Bir molekula ammoniy dixromat va 4 molekula sariq qon tuzi dissotsialanganda hosil bo'lgan umumiy ionlar sonini aniqlang.
A) 7 B) 12 C) 14 D) 15 E) 23

35. (04-1-364) Bosqichli dissotsialanmaydigan moddalarni tanlang?
1) sulfat kislota; 2) suv; 3) bariy gidroksid;
4) mis (II) gidroksid; 5) natriy; 6) natriy gidrofosfat; 7) mis gidroksoxlorid;
8) alyuminiy xlorid.
A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 3, 4, 6
C) 1, 4, 6, 7 D) 2, 3, 4, 7
E) 2, 3, 5, 8

36. (04-1-366) Bir molekula kaliy dixromat va alyuminiy xlorid dissotsialanganda hosil bo'ladigan ionlarning umumiy sonini toping.
A) 4 B) 8 C) 7 D) 13 E) 18

37. (04-1-696) Birinchi bosqichda dissotsialanishida digidrofosfat ionlari hosil qilmaydigan moddalarni tanlang?
1) natriy digidrofosfat; 2) natriy gidrofosfat;
3) natriy fosfat; 4) ammoniy gidrofosfat;
5) kalsiy gidrofosfat; 6) fosfat kislota.
A) 1, 6 B) 3, 5 C) 2, 4
D) 4, 5 E) 2, 3, 4, 5

38. (05-1-192) Sulfat va chumoli kislotalar suvda eriganda nechta kimyoviy bog'lari geterolitik parchalanadi, ya'ni elektrolitik dissotsialanadi?
A) 1 va 1 B) 4 va 3 C) 1 va 2
D) 2 va 1 E) 1 va 3

39. (05-1-195) Qaysi elektrolitlar bir bosqichli dissotsialanadi?
1) sirka kislota; 2) ichimlik soda;
3) kaliyalyuminiyli achchiqtosh; 4) sariq qon tuzi;
5) kaliy digidrofosfat; 6) kaliy permanganat.
A) 1, 2 va 3 B) 2, 3 va 6
C) 1, 3 va 5 D) 2, 4 va 5
E) 1, 3 va 6

40. (v4-101-6) Konsentratsiyasi 0,01 M bo'lgan suvli eritmalarda zarrachalar soni kamayib borish tartibini ko rsating.
1) kalsiy xlorid; 2) natriy fosfat; 3) xlorsirka kislota; 4) sirka kislota.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 1, 3, 4
C) 2, 1, 4, 3 D) 2, 3, 4, 1
E) 2, 4, 1, 3

41. (v4-110-10) Quyidagi gidridlarni dissotsialanish darajasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) suv; 2) vodorod sulfid; 3) vodorod selenid;
4) vodorod tellurid.
A) 2, 1, 3, 4 B) 3, 1, 4, 2
C) 4, 3, 2, 1 D) 3, 2, 1, 4
E) 1, 2, 3, 4

42. (v5-101-16) Oksalat kislota necha bosqichda dissotsialanadi?
A) 1 B) 5 C) 4 D) 2 E) 3

43. (v5-123-1) 10^{-3} m^3 suvda 1 mg o'yuvchi kaliy erigan. Bu eritmaning 1 ml ida necha dona ionlar bo'ladi?
A) $0{,}54 \cdot 10^{16}$ B) $2{,}08 \cdot 10^{19}$
C) $2{,}16\ 10^{10}$ D) $1{,}10 \cdot 10^{20}$
E) $1{,}08 \cdot 10^{16}$

44. (v6-106-7) Bir xil konsentratsiyali qaysi birikma eritmasida ionlar miqdori eng kam bo'ladi?
A) NH_4NO_3 B) $(NH_4)_2SO_4$
C) NH_4OH D) NH_4Cl

45. (v6-107-7) Bir xil konsentratsiyali qaysi birikma eritmasida ionlar miqdori eng ko'p bo'ladi?
A) H_2S B) H_2SO_3
C) H_2CO_3 D) H_2SO_4

46. (v6-107-8) Ortofosfat kislota eritmasida quyidagi ionlarning miqdori kamayib borishi tartibida joylashtiring:
1) digidrofosfat; 2) gidrofosfat; 3) fosfat.
A) 3, 2, 1 B) 2, 3, 1
C) 1, 3, 2 D) 1, 2, 3

47. (v6-110-7) Dissotsialanganda ko'proq ion hosil qiluvchi molekulani tanlang.
A) alyuminiy sulfat B) natriy sulfat
C) natriy xlorid D) kalsiy xlorid

48. (v6-115-7) Bir xil konsentratsiyali qaysi birikma eritmasida ionlar miqdori eng kam bo'ladi?
A) H_2SO_4 B) H_2CO_3
C) HNO_3 D) HCl

49. (v6-119-7) Bir xil konsentratsiyali qaysi birikma eritmasida ionlar miqdori eng ko'p bo'ladi?
A) CH_3COOH B) NH_4OH
C) HNO_2 D) HCl

50. (v6-120-7) Bir xil konsentratsiyali qaysi modda eritmasida ionlar miqdori eng kam bo'ladi?
A) HNO_3 B) $HClO_3$ C) HNO_2 D) HCl

51. (v7-125-7) Eritmalardagi moddalarning har biridan 1 mol olingan bo'lsa, ionlar miqdori (mol) ortib boradigan moddalar qatorini tanlang (α = 100%).
A) natriy nitrat; kaliy fostat; kaliy karbonat; magniy xlorid
B) kalsiy xlorid; alyuminiy sulfat; natriy gidroksid; mis (II) sulfat
C) natriy xlorid; bariy nitrat; alyuminiy nitrat; alyuminiy sulfat
D) alyuminiy sulfat; temir (III) xlorid; kalsiy xlorid; litiy gidroksid

52. (v8-110-7) Qaysi tuzning 0,01 molyarli eritmasida ionining konsentratsiyasi yuqori bo'ladi?
A) NaCl B) Na_2SO_4
C) $Al_2(SO_4)_3$ D) Na_2SO_3

53. (v8-113-7) Eritmalardagi tuzlarning har biri l moldan olingan bo'lsa, ionlar miqdori ortib boradigan qatorni tanlang. (α = 100%)
A) $NaNO_3$; K_3PO_4; K_2CO_3; $MgCl_2$
B) $CaCl_2$; $Al_2(SO_4)_3$; NaOH; $CuSO_4$
C) NaCl; $BaCl_2$; $Al(NO_3)_3$; $Fe_2(SO_4)_3$
D) $Al_2(SO_4)_3$; $FeCl_3$; $CaCl_2$; LiOH

54. (v9-103-33) Bir xil (mol/l) qaysi birikma(lar) eritmasida ionlar miqdori (mol) ko'p bo'ladi?
1) NH_4OH; 2) CH_3COOH;
3) HCl; 4) HNO_2; 5) HNO_3.
A) 3, 5 B) 2 C) 1, 2, 4 D) 5

55. (v9-110-26) Elektrolitlarning dissotsialanish darajasi ortib borish tartibida joylashgan javobni toping.
1) karbinol; 2) sirka kislota;
3) karbol kislota; 4) diftorsirka kislota.
A) 1, 3, 2, 4
B) 1, 2, 3, 4
C) 4, 2, 3, 1
D) 4, 3, 2, 1

56. (v9-117-4) Bir xil konsentratsiyali (mol/l) qaysi birikmalar eritmalarida ionlar miqdori (mol) kam bo'ladi?
1) $(NH_4)_2SO_4$; 2) H_2SO_3; 3) NH_4Cl;
4) NH_4OH; 5) H_2SO_4; 6) H_2CO_3; 7) NH_4NO_3.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6
C) 3, 4, 7 D) 1, 2, 5, 6

57. (v9-125-27) Bir xil konsentratsiyali (mol/l) qaysi birikma(lar) eritmasida ionlar miqdori (mol) kam bo'ladi?
1) H_2CO_3; 2) H_2SO_4; 3) HNO_3; 4) HCl.
A) 4 B) 1 C) 2 D) 3, 4

58. (v9-129-5) Bir mol elektrolit dissotsialanishidan hosil bo'lgan ionlar miqdori (mol) kamayib borishi tartibida joylashgan elektrolitlar qatorini tanlang (α = 100%).
1) alyuminiy sulfat; 2) natriy xlorid; 3) kalsiy xlorid; 4) litiy nitrat; 5) bariy nitrat; 6) alyuminiy xlorid.
A) 1, 6, 2, 5, 3, 4
B) 2, 4, 5, 6, 3, 1
C) 2, 4, 3, 5, 6, 1
D) 1, 6, 3, 5, 2, 4

59. (v11-104-17) Elektrolitlarning qaysi biri dissotsialanganda eng ko'p ion hosil qiladi? (α = 100%)
A) Glauber tuzi B) qizil kon tuzi
C) Bertolle tuzi D) sariq qon tuzi

60. (v12z-214-30) Dissotsiatsiyalanganda eng ko'p ion hosil qiladigan, gidrolizga uchramaydigan tuzni aniqlang.
A) kaliy sulfat B) kaliy xlorid
C) kaliy fosfat D) alyuminiy sulfat

61. (v12z-226-22) 1:1 mol nisbatda temir (III) nitrat va natriy sulfid eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmada qaysi ionlar bo'ladi?
1) Fe^{3+}; 2) Na^+; 3) S^{2-}; 4) NO_3 ; 5) OH^-.
A) 1, 2, 4 B) 2, 4
C) 1, 3 D) 1, 2, 3, 4

62. (v12z-238-22) Dissotsiatsiyalanganda eng ko'p ion hosil qiladigan, anion bo'yicha gidrolizga uchramaydigan tuzni aniqlang.
A) magniy xlorid B) natriy karbonat
C) ammoniy xlorid D) kalsiy sulfat

63. (v12c-104-3) Dissotsiatsiyalanganda eng ko'p ion hosil qiladigan, kation bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzni aniqlang.
A) alyuminiy sulfat B) magniy nitrat
C) alyuminiy xlorid D) bariy fosfat

64. (v14-109-6) Kaliy sulfat dissotsialanishidan hosil bo'lgan kationlar soni, dissotsialanmagan molekulalarning atomlari soniga teng bo'lsa, dissotsialanish darajasini (α%) toping.
A) 87,5 B) 90 C) 78 D) 70

65. (v16-127-30) 1,5 mol nisbatda alyuminiy sulfat va natriy karbonat eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmada qavsi ionlar bo'ladi?
1) Al^{+3}; 2) Na^+; 3) SO_4^{-2} ; 4) SO_3^{-2} ; 5) OH^-.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3, 5

38. Suvning dissotsilanishi. Vodorod ko'rsatilkich. Muhitning pH qiymati

1. (96-4-45) 18°C da sirka kislotaning 0,1 molyarli eritmasida kislotaning dissotsialanish darajasi 3% ga teng bo'lsa, eritmadagi vodorod ionlarining konsentratsiyasini ($mol \cdot l^{-1}$) toping.
A) 0,003 B) 0,006 C) 0,005
D) 0,002 E) 0,008

2. (01-5-2) Agar 0,012 M li eritmada H_2SO_4 to'liq dissotsialansa, ushbu eritmaning pH qiymati qanday bo'ladi?
A) 2,15 B) 1,83 C) 1,62
D) 2,33 E) 2,89

1) kaliy iodid; 2) kaliy silikat; 3) alyuminiy sulfat; 4) kaliy sulfid; 5) kaliy sulfat; 6) kaliy gipoxlorit.
A) 3, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 3
D) 4, 5, 6 E) 2, 4, 6

50. (98-8-84) Moddalardan qaysi birlari gidrolizga uchraydi?
1) bariy xlorid; 2) alyuminiy nitrat; 3) natriy fosfat; 4) ammoniy xlorid; 5) natriy sulfat; 6) natriy karbonat.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 3, 4, 6 D) 3, 4, 5, 6
E) 1, 2, 4, 6

51. (98-10-35) Qaysi modda suvda eritilganda, ishqoriy muhit hosil bo'ladi?
A) natriy gidrofosfat B) ammoniy xlorid
C) alyuminiy sulfat D) temir (III) xlorid
E) natriy digidrofosfat

52. (98-10-56) Alyuminiy sulfid alyuminiy va oltingugurt orasidagi reaksiya natijasida olindi. Uni suvli sharoitda olib bo'lmaslik sababini ko'rsating.
A) bu modda suvda erimaydi
B) suvli eritmada reaksiya mahsuloti oxirigacha gidrolizga uchraydi
C) suvli eritmada alyuminiy gidroksid hosil bo'ladi
D) suvli eritmada vodorod sulfid hosil bo'ladi
E) mahsulot gidroliz reaksiyasida qatnashmaydi

53. (98-11-1) Tuzlarning gidroliz reaksiyasi natijasida muhit qanday bo'lishi mumkin?
1) asosli; 2) kislotali; 3) neytral.
A) 1 yoki 2 B) 1 yoki 3
C) 2 yoki 3 D) 1, 2 yoki 3
E) faqat 1

54. (98-11-2) Qanday tuzlar gidroliz reaksiyasida qatnashadi?
1) kuchli asoslar va kuchli kislotalardan hosil bo'lgan tuzlar; 2) kuchsiz asoslar va kuchli kislotalardan hosil bo'lgan tuzlar; 3) kuchsiz kislotalar va kuchli asoslardan hosil bo'lgan tuzlar; 4) kuchsiz kislotalar va kuchsiz asoslardan hosil bo'lgan tuzlar.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3 D) 3, 4 E) 2, 3, 4

55. (98-11-3) Natriy atsetat tuzi qaysi ionlar hisobiga gidrolizda qatnashadi?
A) atsetat ioni B) natriy ioni
C) vodorod ioni D) gidroksil ioni
E) barcha ionlar

56. (98-11-9) Quyidagi tuzlarning qaysilari gidroliz reaksiyasida qatnashadi?
1) natriy nitrat; 2) potash; 3) kaliy gidrofosfat; 4) kalsiy xlorid
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3
D) 3, 4 E) 1, 4

57. (98-11-10) Qaysi tuzlarning gidroliz reaksiyasi natijasida muhit kuchsiz kislotali bo'ladi?
1) kaliy fosfat; 2) kaliy gidrofosfat;
3) kaliy digidrofosfat.
A) 1 B) 1, 2 C) 2 D) 3 E) 1, 3

58. (98-11-11) Quyida keltirilgan qaysi tuzlar to'la gidrolizga uchraydi?
1) kaliy nitrat; 2) ammoniy xlorid;
3) alyuminiy atsetat; 4) temir (III) sulfat;
5) xrom (III) karbonat.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 5
D) 3, 4 E) 1, 5

59. (98-11-12) Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) kaliy sulfit; 2) potash;
3) bariy xlorid; 4) natriy yodid.
A) 1, 4 B) 1, 2
C) 2, 3 D) 1, 3
E) 3, 4

60. (98-11-13) Quyidagi gidroliz reaksiyasining muvozanatini qaysi jarayon o'ng tomonga siljitadi?
$AlCl_3 + H_2O \rightleftarrows Al(OH)Cl_2 + HCl$

1) eritmani suyultirish; 2) temperaturani oshirish; 3) HCl eritmasidan quyish; 4) $AlCl_3$ konsentratsiyasini oshirish.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 3, 4
D) 1, 2 E) 1, 4

61. (98-12-46) Gidroliz natijasida kislotali muhit yaratadigan tuzlar juftini tanlang.
A) mis (II) xlorid va natriy silikat
B) temir (III) xlorid va mis (II) nitrat
C) kaliy sulfid va temir (II) xlorid
D) natriy ftorid va natriy sulfat
E) ammoniy atsetat va rux nitrat

62. (99-1-11) Qaysi moddalardan sintez qilingan tuz qaytmas gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) perxlorat kislota va litiy gidroksid;
2) permanganat kislota va natriy gidroksid;
3) sulfid kislota va alyuminiy gidroksid;
4) nitrit kislota va kaliy gidroksid; 5) sirka kislota va ammoniy gidroksid.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 3, 5
D) 3, 4 E) 4, 5

63. (99-1-41) Qaysi tuz qaytmas gidrolizda qatnashadi?
A) kaliy yodid B) ammoniy ftorid
C) natriy ftorid D) mis (II) xlorid
E) kaliy sulfid

64. (99-2-12) Qaysi tuzning gidrolizi oxirigacha boradi?
A) $(NH_4)_2CO_3$ B) KF
C) KJ D) $FeCl_3$
E) $AlCl_3$

65. (99-3-44) Quyidagi moddalarning qaysilari eritmaga qo'shilganda, natriy karbonatning gidrolizi kuchayadi?
1) natriy gidroksid; 2) rux xlorid;
3) suv; 4) kaliy sulfid.
A) 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4
D) 1, 3 E) 2, 4

66. (99-4-12) Quyidagi moddalar eritmalaridan qaysilari temir (III) xloridning gidrolizini kuchaytiradi?
1) sulfat kislota; 2) rux xlorid;
3) ammoniy karbonat; 4) rux.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 2, 3
D) 1, 4 E) 1, 2, 3, 4

67. (99-6-86) Qaysi tuzlar qaytmas gidroliz reaksiyasida qatnashadi?
1) ammoniy sulfid; 2) natriy xlorid; 3) kaliy fosfat; 4) ammoniy karbonat; 5) alyuminiy atsetat; 6) xrom (III) sulfid; 7) ammoniy nitrat; 8) mis (II) nitrat.
A) 1, 2, 4, 7
B) 1, 4, 5, 6
C) 1, 4, 7, 8
D) 1, 2, 3, 5
E) 2, 5, 6, 7

68. (99-7-5) Faqat kation bo'yicha gidrolizda qatnashadigan tuzlarni tanlang.
1) ammoniy xlorid; 2) ammoniy karbonat;
3) ammoniy sulfat; 4) bariy nitrat;
5) alyuminiy xlorid; 6) kaliy nitrat; 7) natriy nitrat; 8) kaliy yodid.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5 C) 5, 6, 7
D) 4, 6, 7 E) 6, 7, 8

69. (99-7-6) Qaysi tuzlar gidrolizda kation bo'yicha qatnashadi?
1) soda; 2) kaliy ortofosfat; 3) bariy xlorid;
4) kalsiy nitrat; 5) kaliy silikat; 6) magniy sulfat.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 5
D) 4, 5, 6 E) 2, 4, 5

70. (00-5-57) Fosfor (V) xloridning suvdagi eritmasi lakmusni qanday rangga bo'yaydi?
A) qizil B) pushti C) ko'k
D) binafsha E) rangsiz

71. (01-2-53) Qaysi tuz gidrolizlanmaydi?
A) $Fe(NO_3)_2$ B) $Cu(NO_3)_2$
C) $AgNO_3$ D) $MgCl_2$
E) $BeCl_2$

72. (01-2-73) Xrom (III) sulfat eritmasiga natriy karbonat eritmasi qo'shilganda, xromning qanday birikmasi hosil bo'ladi?
A) $Cr_2(CO_3)_3$ B) $Cr(OH)CO_3$
C) $(CrOH)_2SO_4$ D) $Cr(OH)_3$
E) $Cr(OH)_2CO_3$

73. (01-4-58) Gidrolizga uchraydigan tuzlarni aniqlang.
1) osh tuzi; 2) kaliy sulfid; 3) kaliy nitrid;
4) kaliy permanganat; 5) natriy atsetat.
A) 2, 3, 5 B) 2 va 3 C) 2, 4, 5
D) 2, 3, 4 E) 1, 3, 4, 5

74. (01-4-64) Qaysi modda natriy karbonat eritmasiga qo'shilganda, gidroliz kuchayadi?
1) kaliy gidroqsid; 2) natriy sulfid; 3) suv;
4) rux xlorid.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3
D) 2, 4 E) 3, 4

75. (01-4-65) Natriy karbonat eritmasiga qo'shilganda, gidroliz muvozanatini chap tomonga siljitadigan moddalarni aniqlang:
1) suv; 2) rux xlorid; 3) kaliy gidroksid;
4) natriy sulfid.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 3, 4

76. (01-5-29) Bir mol kremniy xlorid gidrolizga uchraganda, necha mol H_2O reaksiyaga kirishadi?
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2 E) 5

77. (01-6-7) Qaysi tuzlar gidrolizga uchramaydi?
1) kaliy permanganat; 2) seziy ftorid;
3) ammoniy yodid; 4) kumush nitrat;
5) alyuminiy sulfid.
A) 1, 2, 5 B) 2, 3 C) 1, 5
D) 3, 5 E) 1, 4

78. (01-8-14) Eritmasida lakmus rangi o'zgarmaydigan moddalarni toping.
A) sulfat kislota
B) natriy xlorid
C) natriy digidroortofosfat
D) gidroksokalsiy xlorid
E) kalsiy gidroqsid

79. (01-8-42) Natriy sulfid, magniy sulfat va kaliy nitrat eritmalarini bir-biridan farqlash imkonini beradigan reaktivni tanlang.
A) alyuminiy gidroqsid B) temir (III) xlorid
C) xlorid kislota D) lakmus
E) fenolftalein

80. (01-8-43) Ammoniy karbidning gidroliz reaksiyasi tenglamasining koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.
A) 20 B) 13 C) 17 D) 19 E) 12

81. (01-12-29) Quyidagi moddalarning qaysi biri temir (III) xlorid eritmasiga qo'shilganda, tuzning gidrolizlanishini susaytiradi?
1) rux; 2) natriy gidroksid; 3) suv;
4) xlorid kislota; 5) osh tuzi.
A) 1 B) 2, 3 C) 4 D) 2, 4 E) 3, 5

82. (01-12-30) Qaysi tuz gidrolizlanganda, asos tuz hosil bo'ladi?
A) soda B) kumush nitrat
C) alyuminiy sulfid D) alyuminiy xlorid
E) galliy (I) xlorid

83. (02-1-20) Suvni tozalash maqsadida uni xlorlash jarayonida ortiqcha xlorni yo'qotish uchun, odatda, natriy sulfit ishlatiladi Reaksiya tenglamasini tuzib, bir massa qism xlorga necha massa qism $Na_2SO_3 \cdot 7H_2O$ kerak bo'lishini hisoblab toping.
A) 1,26 B) 2,52 C) 1,78
D) 3,55 E) 7,10

84. (02-5-17) Quyidagi qaysi tuz to'la gidrolizga uchraydi?
1) alyuminiy sulfid; 2) ammoniy xlorid;
3) natriy sulfat; 4) ammoniy atsetat;
5) kaliy xlorid.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 1, 3 E) 4, 5

85. (02-10-26) Al_4C_3 va Mg_3N_2 larning gidrolizi natijasida hosil bo'lgan gaz moddalari koeffitsiyentlari orasidagi nisbat qanday bo'ladi?
A) 2:3 B) 3:2 C) 3:4 D) 4:3 E) 3:3

86. (03-5-21) B_2S_3, Al_2S_3, Ga_2S_3, In_2S_3 qatorida sulfidlarning gidrolizlanishi qanday o'zgaradi?
A) kuchayadi
B) kamayadi
C) o'zgarmaydi
D) avval ortib, keyin kamayadi
E) avval kamayib, keyin ortadi

87. (04-1-353) Tuzlardan qaysi birining eritmasi ishqoriy muhitga ega emas?
1) kaliy silikat; 2) kaliy nitrat; 3) alyuminiy sulfat; 4) kaliy sulfid; 5) kaliy sulfat; 6) gipoxlorid.
A) 1, 4, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 5
D) 3 E) 2, 4, 6

88. (04-1-373) Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchraydi?
1) kaliy sianid; 2) bariy nitrat; 3) magniy sulfat; 4) litiy sulfid; 5) fransiy xlorid.
A) 1 va 2 B) 2 va 5
C) 3 va 4, 5 D) 1 va 3, 4
E) 4 va 5

89. (04-1-374) Barcha tuzlarni:
1) kuchli asos va kuchli kislota; 2) kuchli asos va kuchsiz kislota; 3) kuchsiz asos va kuchli kislota; 4) kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan deb taqsimlash mumkin. Ulardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3 E) 2, 3, 4

90. (04-1-376) Javoblarda keltirilgan moddalarning qaysi biri suvda eritilganda, ishqoriy muhit hosil bo'ladi?
A) bariy nitrat B) ammoniy xlorid
C) alyuminiy sulfat D) temir (III) xlorid
E) bariy nitrit

91. (04-1-379) Moddalardan qaysi birlari gidrolizga uchramaydi?
1) natriy fosfat; 2) alyuminiy nitrat; 3) bariy xlorid; 4) ammoniy xlorid; 5) natriy sulfat; 6) natriy karbonat.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4
C) 3, 5 D) 3, 5, 6
E) 1, 2, 4, 6

92. (04-1-380) Suvda kaliy sulfat eritilganda, eritma qanday muhitga ega bo'ladi?
A) kuchsiz kislotali
B) kislotali
C) neytral
D) kuchsiz ishqoriy
E) ishqoriy

93. (04-1-383) Qaytmas gidrolizda qaysi tuz qatnashadi?
A) kaliy yodid B) ammoniy xlorid
C) natriy ftorid D) ammoniy atsetat
E) kaliy sulfid

94. (04-1-386) Gidrolizga uchraydigan tuzlarni aniqlang?
1) tristearinoglitserat; 2) kaliy sulfid; 3) kaliy nitrat; 4) kaliy permanganat; 5) etil atsetat.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 5
C) 1, 2, 3, 5 D) 2, 3
E) 1, 3, 4, 5

95. (04-1-390) Xrom (III) xlorid va natriy karbonat eritmalari o'zaro aralashtirilganda qanday modda cho'kmaga tushadi?
A) $Cr_2(CO_3)_3$ B) $[Cr(OH)_4]^-$
C) $[Cr(OH)_2]_2CO_3$ D) $CrCO_3$
E) $Cr(OH)_3$

96. (04-1-391) Quyidagi tuzlarning qaysilari kation, ham anion qaysilari anion va qaysilari ham kation bo'yicha gidrolizda qatnashadi?
1) kaliy karbonat; 2) temir (II) sulfat; 3) natriy yodid; 4) ammoniy atsetat; 5) berilliy xlorid; 6) seziy sulfat; 7) natriy sulfat; 8) ammoniy gidroxlorid.
A) 1, 4; 2, 6; 5, 7
B) 2, 7; 2, 6; 7, 8
C) 1, 7; 2, 5; 4, 8
D) 2, 4; 5, 6; 7, 8
E) 2, 5; 1, 7; 4, 8

97. (04-1-700) Qaytar gidrolizga uchraydigan tuzlarni aniqlang:
1) $(NH_4)_2CO_3$; 2) Na_2CO_3; 3) $(NH_4)_2SiO_3$; 4) $BaSiO_3$; 5) Na_2SiO_3; 6) $Cu(CH_3COO)_2$.
A) 1, 3, 6 B) 4 va 5 C) 2 va 4
D) 2, 4, 5 E) 3, 4, 6

98. (05-1-202) Qanday asos va qanday kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizga uchramaydi?
1) kuchli asos va kuchli kislota; 2) kuchli asos va kuchsiz kislota; 3) kuchsiz asos va kuchli kislota; 4) kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan.
A) 2 C) 4 B) 1 D) 3 E) 2, 3, 4

99. (05-1-203) Quyidagi: 1) natriy sulfat; 2) alyuminiy sulfid; 3) natriy karbonat; 4) ammoniy atsetat; 5) kaliy sulfat; 6) kaliy nitrat tuzlar gidrolizga uchraganda, ularning qaysi birida neytral muhit bo'ladi?
A) 2 va 4 B) 3 va 5 C) 2 va 6
D) 2 va 3 E) 1 va 5

100. (05-1-204) Quyidagi: 1) bariy nitrat; 2) natriy sulfid; 3) natriy nitrat; 4) kaliy xlorid; 5) kaliy sulfat; 6) ammoniy xlorid tuzlarning qaysilari gidrolizga uchraydi?
A) 1 va 2 B) 5 va 6 C) 2 va 5
D) 3 va 4 E) 2 va 6

101. (05-1-205) Quyidagi: 1) natriy sulfid; 2) natriy sulfat; 3) temir (II) sulfat; 4) kaliy karbonat; 5) nikel nitrat; 6) mis sulfid tuzlar gidrolizga uchraganda, qaysi tuzlar eritmasi ishqoriy muhitga ega bo'ladi?
A) 1 va 2 B) 3 va 5 C) 4 va 6
D) 1 va 3 E) 1 va 4

102. (05-1-208) Gidrolizga uchraydigan tuzlar qatorini ko'rsating.
A) KCl, CH_2COONa, Na_2S, $MgSO_4$
B) $CaCl_2$, $Ba(NO_2)_2$, K_3PO_4, CuS
C) NH_4Cl, Na_2SiO_3, K_2SO, $MgCl_2$
D) $CuCl_2$, CP_3COOK, K_2SIO_3, $Al(NO_3)_3$
E) NaCl, $Mg(NO_3)_2$, KBr, CaS_4

103. (05-1-215) Qaysi juft tuzlar suvda eriganda, muhit ishqoriy bo'ladi?
A) seziy xlorid, ammoniy xlorid
B) rubidiy nitrit, seziy sulfat
C) ammoniy karbonat, potash
D) mis (II) xlorid, ammoniy nitrat
E) kaliy sulfat, rubidiy karbonat

104. (05-1-216) Xrom (III) nitrat eritmasiga soda yoki ammoniy sulfid eritmalari qo'shilganda, qanday cho'kmalar hosil bo'ladi?
1) xrom (III) sulfat; 2) xrom (III) karbonat; 3) xrom (III) sulfid; 4) xrom (III) gidroksid; 5) xrom (III) gidrokarbonat.
A) 3 B) 2, 3
C) 1, 5 D) 4
E) 2, 4

105. (05-1-217) Temir (III) xlorid eritmasiga quyidagi moddalarning qaysi biri qo'shilganda, tuzning gidrolizlanishini susaytiradi?
1) rux; 2) natriy gidroksid; 3) suv; 4) xlorid kislota; 5) osh tuzi.
A) 1 B) 2, 3 C) 4 D) 2, 4 E) 3, 5

106. (v4-103-7) Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchraydi?
1) natriy nitrat; 2) bariy nitrat; 3) mis sulfat; 4) kaliy karbonat; 5) fransiy xlorid.
A) 3 va 4 B) 4 va 5
C) 1 va 2 D) 1 va 3, 4
E) 2 va 5

107. (v4-104-7) Kislotali muhit hosil qiluvchi tuz eritmasini aniqlang.
A) NH_4Cl B) NaCl
C) KNO_3 D) CH_3COONH_4
E) Na_2CO_3

108. (v4-117-7) Quyidagi: 1) natriy karbonat; 2) kalsiy nitrat; 3) natriy atsetat; 4) litiy sulfat; 5) xrom (III) sulfat tuzlarning qaysilari gidrolizga uchraganda eritma muhiti ishqoriy bo'ladi?
A) 3 va 4 B) 3 va 5 C) 1 va 3
D) 4 va 5 E) 2 va 4

109. (v4-118-7) Quyidagi tuzlardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) kaliy nitrit; 2) kaliy nitrat; 3) natriy sulfat; 4) mis xlorid; 5) kaliy permanganat.
A) 1, 2, 4 B) 3, 4, 5 C) 1, 2, 3
D) 2, 3, 5 E) 1, 3, 4

110. (v4-121-8) $Na_2S + AlCl_3 + H_2O \leftrightarrows$ reaksiyasida necha mol osh tuzi ajralib chiqadi?
A) 6 B) 3 C) 4 D) 1 E) 2

111. (v4-125-7) Ko'rsatilgan tuzlardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) natriy sianid; 2) natriy nitrit; 3) natriy karbonat; 4) kaliy sulfat; 5) bariy nitrat.
A) 2 va 3 B) 4 va 5
C) 1, 2 va 3 D) 3 va 4
E) 1, 3 va 5

112. (v5-102-7) Kuchsiz asos bilan kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlangada, gidrolizda qanday ionlar ishtirok etadi va eritma muhiti qanday bo'ladi?
A) tuzning kationi; ishqoriy
B) tuzning ham anioni, ham kationi; neytral
C) bunday tuz gidrolizga uchramaydi; neytral
D) tuzning kationi; kislotali
E) tuzning anioni; neytral

113. (v5-104-7) Kuchli asos bilan kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda, gidrolizda qanday ionlar ishtirok etadi va eritma muhiti qanday bo'ladi?
A) tuzning anioni; ishqoriy
B) tuzning kationi; ishqoriy
C) tuzning kationi; kislotali
D) tuzning ikkala ioni ham; neytral
E) tuzning ionlari gidrolizda qatnashmaydi; neytral

114. (v5-105-7) Qaysi tuz kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
A) $CaCl_2$ B) $FeCl_2$
C) Na_2SO_4 D) K_2SO_3
E) $NaNO_2$

115. (v5-106-26) Alyuminiy xloridning tarkibida 20,2% Al va 79,8% Cl bor. Alyuminiyning ekvivalentini toping.
A) 3 B) 27 C) 44,5
D) 9 E) 4,9

116. (v5-107-7) Qaysi tuzlar gidrolizi qaytmas bo'ladi?
1) Na_2S; 2) Al_2S_3; 3) NaCl; 4) $FeCl_3$; 5) Cr_2S_3.
A) 2, 5 B) 1, 3 C) 1, 2
D) 2, 3, 4 E) 1, 2, 3

117. (v5-109-7) Quyidagi tuzlarning qaysilari kation bo'yicha gidrolizlanadi?
1) Na_2CO_3; 2) $ZnCl_2$; 3) $(NH_4)_2SO_4$; 4) K_2S; 5) $Cu(NO_3)_2$.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 2, 3, 5
D) 1, 4, 5 E) 1, 4

118. (v5-112-7) Qaysi tuzlar ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) $FeCl_3$; 2) CH_3COONH_4; 3) CH_3COONa; 4) $AlCl_3$.
A) 2 B) 2, 3 C) 4 D) 1, 4 E) 3

119. (v5-114-7) Kuchsiz kislota bilan kuchli asos hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda, gidrolizda … ishtirok etadi va eritma muhiti … bo'ladi.
A) tuzning kationi; kislotali
B) tuzning ikkala ioni ham; neytral
C) tuzning kationi; ishqoriy
D) tuzning anioni; ishqoriy
E) tuzning anioni; neytral

120. (v5-116-7) 145,95 g fosfat kislotaning xlor angidridi (PCl_5) gidrolizlanganda … g H_3PO_4 va … g HCl hosil bo'ladi.
A) 74,2; 144,3 B) 65,2; 134,8
C) 68,6; 127,7 D) 59,8; 118,4
E) 98; 36,5

121. (v5-117-7) Kuchsiz asos bilan kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda, gidrolizda … ishtirok etadi va eritma muhiti … bo'ladi.
A) tuzning anioni; ishqori
B) tuzning ikkala ioni ham; neytral
C) tuzning kationi; ishqoriy
D) tuzning kationi; kislotali
E) tuzning anioni; neytral

122. (v5-135-7) Ko'p kislotali kuchsiz asos va kuchli kislotaning ta'sirlashuvidan hosil bo'lgan tuz gidrolizlanganda, gidrolizda … qatnashadi va eritma muhiti … bo'ladi?
A) tuzning kationi; kislotali
B) bunday tuz gidrolizga uchramaydi; neytral
C) tuzning anioni; ishqoriy
D) tuzning anioni; kislotali
E) tuzning ham anioni, ham kationi; neytral

123. (v6-103-8) Quyida berilgan tuzlardan faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini tanlang:
1) natriy xlorid; 2) magniy nitrat; 3) kaliy sianid; 4) ammoniy sulfat; 5) litiy karbonat; 6) kalsiy xlorid.
A) 3, 5 B) 2, 4 C) 1, 6 D) 1, 2, 4

124. (v6-106-8) Qaysi tuzlarning eritmasi ishqoriy muhitga ega bo'ladi?
1) natriy sianid; 2) natriy nitrat; 3) natriy karbonat; 4) natriy sulfat; 5) natriy nitrit.
A) 2, 3 B) 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 5

125. (v6-108-8) Quyida berilgan birikmalardan faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini belgilang:
1) natriy xlorid; 2) magniy nitrat; 3) kaliy sianid; 4) ammoniy sulfat; 5) litiy karbonat; 6) kalsiy xlorid.
A) 3, 5 B) 3, 5, 6 C) 1, 6 D) 2, 4

126. (v6-109-8) Alyuminiy sulfat va natriy karbonat tuzlari stexiometrik nisbatda bo'lgan eritmalar aralashtirilsa, … hosil bo'ladi.
A) alyuminiy karbonat, natriy sulfat va suv
B) natriy sulfat va alyuminiy karbonat
C) alyuminiy sulfat, natriy sulfat va suv
D) natriy sulfat, alyuminiy gidroksid va uglerod (IV) oksid

127. (v6-114-8) Gidrolizga uchramaydigan tuzlarni tanlang.
1) natriy xlorid; 2) magniy nitrat; 3) kaliy sianid; 4) ammoniy sulfat; 5) litiy karbonat; 6) kalsiy xlorid.
A) 3, 5 B) 2, 4 C) 1, 6 D) 1, 2, 4

128. (v6-119-8) Gidrolizga uchraydigan kimyoviy birikmalar qatorini aniqlang.
1) tuzlar; 2) asoslar; 3) kislotalar; 4) monosaxaridlar; 5) oqsillar; 6) murakkab efirlar; 7) yog'lar.
A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 3, 6, 7 D) 1, 5, 6, 7

129. (v6-120-8) Quyidagilardan faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni tanlang:
1) alyuminiy nitrat; 2) ammoniy karbonat; 3) litiy nitrat; 4) seziy sulfat; 5) natriy sianid; 6) kaliy sulfid.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3 C) 5, 6 D) 1, 3, 6

130. (v7-102-8) Qaysi modda tuproqning kislotaliligini oshiradi?
A) potash B) natriy nitrat
C) natriy xlorid D) ammoniy nitrat

131. (v7-104-8) Quyidagi tuzlardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) kaliy nitrit; 2) natriy nitrat; 3) litiy sulfat; 4) mis (II) xlorid; 5) kaliy sianid.
A) 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 5 D) 1, 4, 5

132. (v7-105-8) Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchraydi?
1) natriy sulfat; 2) natriy sulfit; 3) natriy karbonat; 4) kaliy atsetat; 5) kaliy sulfid; 6) kalsiy nitrat.
A) 5, 6 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 6 D) 1, 2, 3, 4

133. (v7-106-8) Fosforning qaysi birikma(lar)i gidrolizga uchraydi?
1) kalsiy fosfat; 2) fosfit kislota; 3) kalsiy fosfid; 4) fosfin.
A) 3 B) 1, 3 C) 4 D) 2, 4

134. (v7-107-8) Quyidagi tuzlardan qaysilari kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) $MgCl_2$; 2) $NaClO_4$; 3) $KHCO_3$; 4) $AlCl_3$; 5) NaCl; 6) $Zn(NO_3)_2$; 7) $(NH_4)_2SO_4$.
A) 1, 4, 6, 7 B) 2, 3, 5
C) 2, 5, 7 D) 1, 3, 4, 6

135. (v7-109-16) Qaysi modda don o'simliklarini himoya qilishda gerbitsid sifatida ishlatiladi?
A) malaxit
B) 2,4,6-trinitrobenzoy kislota
C) temir kuporosi
D) 2,4-dixlorfenoksisirka kislota

136. (v7-110-8) Qaysi tuzlar faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
A) natriy atsetat; alyuminiy xlorid
B) kalsiy karbonat; magniy xlorid
C) bariy nitrat; kaliy sulfat
D) ammoniy xlorid; rux nitrat

137. (v7-112-8) Qaysi kislotalarning natriy gidroksid bilan hosil qilgan tuzlari gidrolizga uchraydi?
1) HCl; 2) CH_3COOH; 3) HNO_2; 4) $HClO_4$; 5) H_2SO_4; 6) HClO.
A) 2, 3, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 6 D) 2, 4, 5

138. (v7-114-8) Quyidagi tuzlardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) $MgCl_2$; 2) $NaClO_4$; 3) $KHCO_3$; 4) $AlCl_3$; 5) NaCl; 6) KCN; 7) $Al_2(SO_4)_3$; 8) Na_2SO_4.
A) 1, 7 B) 2, 5, 8 C) 3, 6 D) 3, 4, 6

139. (v7-115-8) Gidrolizga uchraydigan tuzlar qatorini tanlang.
A) $(NH_4)_2SO_4$; $BaCl_2$; $Al(NO_3)_3$; NaCN
B) Na_2CO_3; $CuSO_4$; CH_3COOK; Li_2SO_4
C) $ZnCl_2$; $Zn(NO_3)_2$; K_2SO_4; K_2S
D) NH_4Cl; $(NH_4)_2CO_3$; $Ca(CH_3COO)_2$; Na_2SO_3

140. (v7-159-8) Tuproqning kislotaliligini yo'qotish uchun qaysi modda ishlatiladi?
A) natriy nitrat B) kaliy nitrat
C) kalsiy xlorid D) kalsiy karbonat

141. (v7-179-8) Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchraydi?
1) natriy sulfid; 2) litiy nitrat; 3) ammoniy sulfat; 4) kaliy karbonat; 5) kalsiy xlorid.
A) 2, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 3, 4 D) 3, 4

142. (v7-187-8) Qaysi tuzlar faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
A) K_2CO_3; KCN; $KHCO_3$
B) $CaCO_3$; $CaSO_3$; $Ca(CH_3COO)_2$
C) $ZnCl_2$; $Zn(NO_3)_2$; $ZnSO_4$
D) NH_4Cl; $(NH_4)_2SO_4$; NH_4CH_3COO

143. (v8-103-7) Qaysi tuzlar faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) Na_2CO_3; 2) $Al(NO_3)_3$; 3) CH_3COOK; 4) $(NH_4)_2SO_4$; 5) K_2S; 6) $Zn(NO_3)_2$; 7) NH_4Cl; 8) NaCN.
A) 1, 3, 5, 8 B) 2, 4, 6, 7
C) 1, 3, 8 D) 2, 4, 7

144. (v8-106-7) Quyidagi birikmalardan ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini aniqlang:
1) Li_2SO_4; 2) $(NH_4)_2CO_3$; 3) K_2SO_4; 4) Al_2S_3; 5) $Ca(NO_3)_2$; 6) CH_3COONH_4.
A) 1, 4 B) 2, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

145. (v8-108-7) Quyidagi tuzlardan qaysilari gidrolizlanganda eritma muhiti ishqoriy bo'ladi?
1) kaliy karbonat; 2) bariy nitrat; kaliy atsetat; 4) litiy sulfat; 5) natriy xlorid; 6) kaliy sulfid.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3 C) 1, 3, 6 D) 2, 4

146. (v8-114-7) Faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni aniqlang.
1) Ammoniy nitrat; 2) ammoniy karbonat; 3) litiy nitrat; 4) seziy sulfat; 5) natriy sianid; 6) kaliy sulfid.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3 C) 5, 6 D) 1, 3, 6

147. (v8-117-7) Quyidagi kislotalardan qaysilarining ishqorlar bilan hosil qilgan tuzlari gidrolizga uchraydi?
1) xlorid kislota; 2) gipoxlorit kislota; 3) nitrat kislota; 4) nitrit kislota; 5) sulfat kislota; 6) vodorod sulfid.
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 6

148. (v8-127-7) Qaysi tuzlar gidrolizga uchramaydi?
1) $MgCl_2$; 2) $NaNO_3$; 3) K_2CO_3; 4) $ZnCl_2$; 5) NaCl; 6) KCN; 7) $Al_2(SO_4)_3$; 8) Na_2SO_4.
A) 1, 4, 7 B) 2, 5, 8 C) 1, 3, 8 D) 2, 6

149. (v8-129-7) Qaysi tuzlar faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) $ZnCl_2$; 2) $Ca(CN_3COO)_2$; 3) $(NH_4)_2SO_4$; 4) KCN; 5) K_2CO_3; 6) NH_4Cl; 7) $Zn(NO_3)_2$.
A) 1, 3, 6, 7 B) 2, 4, 5
C) 1, 3, 7 D) 2, 4, 5, 6

150. (v9-101-21) Qaysi tuzlar faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) magniy xlorid; 2) kaliy atsetat; 3) ammoniy atsetat; 4) kaliy sianid; 5) natriy nitrit; 6) ammoniy sulfat; 7) alyuminiy nitrat.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 6, 7
C) 1, 3, 6, 7 D) 2, 4, 5

151. (v9-102-10) Qaysi birikmalar suvda eritilganda ishqoriy muhit hosil qiladi?
1) natriy; 2) natriy nitrat; 2) kaliy peroksid; 4) litiy xlorid; 5) kaliy sulfat; 6) natriy gidrokarbonat.
A) 2, 4, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 6 D) 1, 3, 6

152. (v9-104-9) Qaysi birikmalar suvda eritilganda ishqoriy muhit hosil bo'ladi?
1) natriy peroksid; 2) alyuminiy nitrat; 3) magniy xlorid; 4) kaliy gidrid; 5) natriy gidrokarbonat; 6) rux sulfat.
A) 1, 5 B) 2, 3, 6
C) 2, 3 D) 1, 4, 5

153. (v9-106-14) Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) natriy sulfat; 2) ammoniy nitrit; 3) litiy nitrat; 4) alyuminiy karbonat; 5) kaliy xlorid; 6) ammoniy atsetat.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6
C) 1, 3, 5, 6 D) 4, 5, 6

154. (v9-108-33) Qaysi birikmalar suvda eritilganda neytral muhit hosil bo'ladi?
1) alyuminiy karbonat; 2) natriy sulfat; 3) magniy xlorid; 4) litiy sulfat; 5) natriy gidrokarbonat; 6) natriy gidrid.
A) 3, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 5, 6

155. (v9-108-34) Natriy sulfid, magniy sulfat va kaliy nitrat eritmalarini qaysi reaktiv yordamida farqlash mumkin?
A) fenolftalein B) lakmus
C) xlorid kislota D) ammoniy gidroksid

156. (v9-109-33) Qaysi birikmalar suvda eritilganda neytral muhit hosil bo'ladi?
1) natriy; 2) natriy nitrat; 3) kaliy peroksid; 4) litiy xlorid; 5) kaliy sulfat; 6) natriy gidrokarbonat.
A) 2, 3, 6 B) 2, 4, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 3, 6

157. (v9-110-3) Quyida berilgan birikmalardan faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini tanlang:
1) natriy karbonat; 2) magniy sulfat; 3) kaliy sulfit; 4) ammoniy nitrat; 5) litiy xlorid; 6) rux xlorid.
A) 1, 3, 5 B) 1, 3 C) 2, 4, 6 D) 2, 5

158. (v9-111-8) Qaysi tuzlar faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) alyuminiy nitrat; 2) natriy karbonat; 3) ammoniy atsetat; 4) rux sulfat; 5) ammoniy sulfat; 6) kaliy karbonat; 7) natriy sianid; 8) magniy nitrat.
A) 2, 3, 6, 7 B) 2, 6, 7
C) 1, 4, 5, 8 D) 1, 4, 8

159. (v9-112-26) Quyidagi birikmalardan ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini aniqlang:
1) natriy sulfat; 2) ammoniy atsetat; 3) litiy nitrat; 4) alyuminiy karbonat; 5) kaliy xlorid.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4 C) 4, 5 D) 1, 2, 5

160. (v9-113-19) Qaysi birikmalar suvda eritilganda neytral muhit hosil bo'ladi?
1) natriy sulfat; 2) natriy sulfit; 3) natriy karbonat; 4) natriy atsetat; 5) natriy xlorid; 6) natriy nitrat.
A) 2, 3, 4 B) 1, 6 C) 1, 5, 6 D) 3, 5

161. (v9-114-7) Quyidagi birikmalardan ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini tanlang:
1) natriy nitrat; 2) ammoniy karbonat; 3) kaliy sulfat; 4) alyuminiy sulfid; 5) litiy xlorid; 6) ammoniy atsetat.
A) 3, 6 B) 2, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

162. (v9-115-8) Qaysi qatorda faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlar keltirilgan?
A) kaliy karbonat, kaliy sianid, kaliy gidrokarbonat
B) ammoniy xlorid, ammoniy sulfat, ammoniy atsetat
C) rux xlorid, rux nitrat, rux sulfat
D) kalsiy karbonat, kalsiy sulfit, kalsiy atsetat

163. (v9-116-36) Qaysi birikmalar suvda eritilganda kislotali muhit hosil bo'ladi?
1) natriy peroksid; 2) alyuminiy nitrat;
3) magniy xlorid; 4) kaliy gidrid; 5) natriy gidrokarbonat; 6) rux sulfat.
A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 6 C) 1, 5 D) 2, 3

164. (v9-117-6) Qaysi tuzlar faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) alyuminiy nitrat; 2) natriy karbonat;
3) ammoniy atsetat; 4) rux sulfat; 5) ammoniy sulfat; 6) kaliy karbonat; 7) natriy sianid;
8) magniy nitrat.
A) 2, 3, 6, 7 B) 1, 4, 8
C) 1, 4, 5, 8 D) 2, 6, 7

165. (v9-118-6) Qaysi qatordagi tuzlarning barchasi gidrolizga uchraydi?
A) rux xlorid, rux nitrat, natriy sulfat, kaliy sulfid
B) ammoniy sulfat natriy xlorid, alyuminiy nitrat, kaliy sianid
C) natriy karbonat, mis (II) sulfat.
D) kaliy atsetat, litiy sulfat ammoniy xlorid, ammoniy karbonat, kalsiy atsetat, natriy sulfit

166. (v9-127-10) Quyida berilgan birikmalardan faqat kation bo'yicha gidrolizga uchraydiganlarini belgilang:
1) natriy karbonat; 2) magniy sulfat;
3) kaliy sulfit; 4) ammoniy nitrat;
5) litiy xlorid; 6) rux xlorid.
A) 2, 4, 6 B) 1, 3 C) 1, 3, 5 D) 2, 5

167. (v9-128-13) Qaysi tuzlar faqat anion bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) magniy xlorid; 2) kaliy atsetat; 3) ammoniy atsetat; 4) kaliy sianid; 5) natriy nitrit;
6) ammoniy sulfat; 7) alyuminiy nitrat.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 6, 7
C) 2, 4, 5 D) 1, 6, 7

168. (v12z-101-16) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) Na_2CO_3; 2) $Al_2(SO_4)_3$;
3) $NaClO_3$; 4) $(NH_4)_3PO_4$;
a) anion bo'yicha; b) kation bo'yicha;
c) uchramaydi; d) ham kation, ham anion bo'yicha.
A) 3-c, 4-a, 1-a, 2-b B) 2-b, 1-a, 4-d, 3-a
C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d D) 4-c, 3-d, 2-a, 1-b

169. (v12z-103-21) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) Na_2CO_3; 2) $Al_2(SO_4)_3$;
3) $NaClO_3$; 4) $(NH_4)_3PO_4$;
a) kation bo'yicha; b) anion bo'yicha; c) ham kation, ham anion bo'yicha; d) uchramaydi.
A) 4-c, 3-d, 2-a, 1-b B) 2-a, 1-b, 4-d, 3-d
C) 3-b, 4-c, 1-d, 2-a D) 1-b, 2-b, 3-d, 4-d

170. (v12z-106-33) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) K_2CO_3; 2) Na_3PO_4; 3) $(NH_4)_2SO_3$;
4) $(CH_3COO)_2Mg$;
a) anion bo'yicha; b) kation bo'yicha;
c) uchramaydi; d) ham kation, ham anion bo'yicha.
A) 4-d, 3-d, 2-a, 1-a B) 2-b, 1-b, 4-b, 3-d
C) 1-b, 2-b, 3-c, 4-a D) 3-b, 4-b, 1-a, 2-b

171. (v12z-115-35) Quyidagi qaysi tuzlarning eritmasi fenolftalein rangini o'zgartiradi?
1) KI; 2) $AlCl_3$; 3) K_2SO_3;
4) $(NH_4)_2SO_4$; 5) NaCN.
A) 1, 2 B) 2, 5 C) 3, 5 D) 3, 4

172. (v12z-123-15) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) $(NH_4)_3PO_4$; 2) $(CH_3COO)_2Mg$;
3) $(CH_3COO)_2Ba$; 4) $Al(NO_3)_3$;
a) kation bo'yicha; b) anion bo'yicha; c) ham kation; ham anion bo'yicha; d) uchramaydi.
A) 3-b, 4-a, 1-c, 2-c
B) 1-c, 2-c, 3-b, 4-d
C) 2-c, 1-c, 4-a, 3-c
D) 4-a, 3-b, 2-b, 1-c

173. (v12z-124-25) Qaysi tuzlar kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
1) Na_3PO_4; 2) $Cu(NO_3)_2$; 3) K_2SO_4;
4) NH_4NO_3; 5) $NiSO_4$; 6) K_2CO_3.
A) 2, 4, 5 B) 3, 4, 5
C) 1, 3, 6 D) 1, 2, 3

174. (v12c-201-34) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) $(NH_4)_2CO_3$; 2) NaCl; 3) $Al(NO_3)_3$;
4) $BaCl_2$; 5) CH_3COONH_4;
a) kation bo'yicha; b) anion bo'yicha; c) ham kation, ham anion bo'yicha; d) uchramaydi.
A) 3-a, 4-a, 5-c, 2-d, 1-c
B) 4-d, 3-a, 5-c, 1-c, 2-d
C) 1-c, 2-d, 5-d, 4-d, 3-a
D) 5-d, 4-d, 3-b, 2-d, 1-c

175. (v12c-202-2) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) Na_2SO_3; 2) $Al_2(SO_4)_3$;
3) $(NH_4)_2S$; 4) $Ca(ClO_3)_2$;
a) anion bo'yicha; b) kation bo'yicha;
c) uchramaydi; d) ham kation, ham anion bo'yicha.
A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-a B) 3-c, 4-d, 1-b, 2-a
C) 4-c, 2-b, 1-a, 3-c D) 2-b, 1-a, 4-c, 3-d

176. (v12c-204-33) Quyidagi moddalar nimasi bo'yicha va qanday muhitda gidrolizga uchrashini birlashtirib ko'rsating:
1) K_2SO_3; 2) $(NH_4)_2CO_3$; 3) $BaSO_4$; 4) $Fe(NO_2)_2$.
a) kation bo'yicha; b) gidrolizga uchramaydi;
c) anion bo'yicha; d) ham kation, ham anion bo'yicha; I) kislotali muhit; II) ishqoriy muhit; III) neytral muhit.
A) 2-b-III, 4-a-I, 1-c-II, 3-d-III
B) 2-d-III, 1-c-II, 4-a-II, 3-d-III
C) 3-b-III, 4-a-I, 1-c-II, 2-d-III
D) 3-b-III, 1-c-II, 4-a-II, 2-d-III

177. (v12c-207-3) Quyidagi moddalar nimasi bo'yicha va qanday muhitda gidrolizga uchrashini birlashtirib ko'rsating:
1) $(NH_4)_3PO_4$; 2) Na_2SO_3; 3) $Mg(NO_3)_2$; 4) KCl;
a) kation bo'yicha; b) gidrolizga uchramaydi;
c) anion bo'yicha; d) ham kation, ham anion bo'yicha;
I) ishqoriy muhit; II) kislotali muhit;
III) neytral muhit.
A) 3-a-II, 4-b-III, 1-d-III, 2-c-I
B) 2-c-I, 1-d-III, 4-b-III, 3-a-II
C) 2-c-II, 4-b-III, 1-d-III, 3-c-I
D) 3-a-I, 1-d-III, 4-b-III, 2-c-II

178. (v12c-219-25) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) $FeSO_4$; 2) Na_3PO_4; 3) $(NH_4)_2SO_3$; 4) $CaCl_2$;
a) kation bo'yicha; b) anion bo'yicha; c) ham kation, ham anion bo'yicha; d) uchramaydi.
A) 4-c, 3-c, 2-b, 1-a
B) 2-b, 1-a, 4-c, 3-a
C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
D) 3-c, 4-d, 1-a, 2-d

179. (v12c-223-33) Quyidagi moddalarni qaysi holat bo'yicha gidrolizga uchrashini aniqlang:
1) $AlCl_3$; 2) $NaNO_3$; 3) $CaCO_3$;
4) $Ba(CN)_2$; 5) Al_4C_3;
a) anion bo'yicha; b) kation bo'yicha:
c) uchramaydi; d) ham kation, ham anion bo'yicha.
A) 1-b, 5-d, 2-c, 3-c, 4-a
B) 5-d, 4-d, 3-c, 2-c, 1-b
C) 4-a, 3-c, 2-c, 5-c, 1-b
D) 1-b, 2-c, 3-a, 4-a, 5-c

180. (v12c-233-20) Temir (II) xlorid eritmasiga quyidagi qaysi moddalar qo'shilsa. gidroliz tezlashadi?
1) NaOH; 2) $ZnCl_2$; 3) H_2O; 4) Zn.
A) 2, 4 B) 1, 4 C) 2, 3 D) 1, 3

181. (v13-118-10) Lakmus, fenoftalein va metil zarg'aldog'i ta'sirida quyidagi tuz eritmalari qanday rangga o'tishini juftlab ko'rsating.
1) KNO_3; 2) $Al(NO_3)_3$; 3) Na_2CO_3;
a) qizil; b) ko'k; c) to'q qizil; d) och pushti;
e) sariq; f) o'zgarmaydi.
A) 1-f, f, f; 2-b, f, e; 3-a, c, e
B) 1-f, f, f; 2-a, f, d; 3-b, c, e
C) 1-f, a, f; 2-b, e, f; 3-b, c, e
D) 1-f, d, f; 2-a, f, d; 3-b, c, e

182. (v13-132-2) Alyuminiy yuqori haroratda mol miqdordagi havoda qizdirilganda hosil bo'lgan moddalar gidrolizlanganda 6,72 l (n. sh.) gaz va 48,9 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan alyuminiyni massasini (g) aniqlang.
A) 43,2 B) 32,4 C) 21,6 D) 10,8

183. (v13-138-23) Alyuminiy yuqori haroratda mol miqdordagi havoda qizdirilganda hosil bo'lgan moddalar gidrolizlanganda 4,48 l (n. sh.) gaz va 51,3 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan alyuminiyni massasini (g) aniqlang.
A) 32,4 B) 24,3 C) 8,1 D) 16,2

184. (v13-140-8) Alyuminiy yuqori haroratda mol miqdordagi havoda qizdirilganda hosil bo'lgan moddalar gidrolizlanganda 12,32 l (n. sh.) gaz va 99 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan alyuminiyni massasini (g) aniqlang.
A) 44,55 B) 45,15 C) 44 D) 29,7

185. (v13-157-3) Alyuminiy yuqori haroratda mol miqdordagi havoda qizdirilganda hosil bo'lgan moddalar gidrolizlanganda 14,56 l (n. sh.) gaz va 55,8 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan alyuminiyni massasini (g) aniqlang.
A) 17,55 B) 2,7 C) 20,25 D) 18,5

186. (v13-165-3) Alyuminiy yuqori haroratda mol miqdordagi havoda qizdirilganda hosil bo'lgan moddalar gidrolizlanganda 11,2 l (n. sh.) gaz va 64,5 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan alyuminiyni massasini (g) aniqlang.
A) 13,5 B) 54
C) 40,5 D) 27

187. (v13-170-4) Alyuminiy yuqori haroratda mol miqdordagi havoda qizdirilganda hosil bo'lgan moddalar gidrolizlanganda 8,96 l (n. sh.) gaz va 36,3 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan alyuminiyni massasini (g) aniqlang.
A) 16,2 B) 6,55
C) 13,5 D) 10,8

188. (v14-111-7) Al_4C_3 va CaC_2 aralashmasi gidrolizga uchraganda tegishli ravishda 1-reaksiyada ajralgan gazning miqdori 2-reaksiyada hosil bo'lgan moddalar miqdoridan 3 marta ko'p bo'lsa, dastlabki aralashmadagi moddalarning mol nisbatini aniqlang.
A) 2:1 B) 1:3
C) 1:2 D) 1:1,5

189. (v15-107-5) Disianning gidrolizidan olingan kislotaning massasi disianning massasidan 1,25 marta og'ir bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 80 B) 95 C) 72,2 D) 36,1

190. (v17-101-26) Modda nomi va uning suvli eritmasi muhiti orasidagi muvofiqlikini o'rnating:
a) bariy yodid; b) yodid kislota; c) kalsiy gidroksid; d) temir (II) bromid;
1) kislotali; 2) neytral; 3) ishqoriy.
A) a-1, b-1, c-3, d-1 B) a-2, b-1, c-3, d-1
C) a-1, b-1, c-3, d-2 D) a-2, b-2, c-1, d-3

191. (v17-109-4) Eritmalarda gidroliz jarayonini sekinlashtirish uchun qanday jarayonlarni amalga oshirish kerak?
1) eritmani suyultirish; 2) haroratni oshirish; 3) eritmani konsentrlangan holda saqlash; 4) haroratni pasaytirish.
A) 1, 4 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 2, 3

192. (v17-109-32) ... tuzining gidrolizida kuchli kislota hosil bo'ladi.
A) $NaNO_2$ B) $CuCl_2$
C) Na_2SO_4 D) KCN

193. (v17-111-7) Qaysi tuz eritmasida kislotali muhitni ta'minlash gidroliz reaksiyasini susaytiradi?
A) $CaSO_3$ B) KCN
C) $CuSO_4$ D) $NaNO_3$

194. (v17-112-1) $CuCl_2$ gidrolizlanganda birinchi bosqichda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
A) $Cu(OH)_2$; HCl B) $Cu(OH)_2$; Cl_2
C) CuOHCl; HCl D) $Cu(OH)_2Cl$; Cl_2

195. (v17-114-21) $CrCl_2$ va $CrCl_3$ eritmalarida konsentratsiyasi 2 mol litrdan bo'lgan eritma mavjud. Shu eritmalarning qaysi birida PH muhiti katta?
A) $CrCl_2$ ko'p
B) $CrCl_3$ ko'p
C) teng
D) to'g'ri javob yo'q

196. (v17-117-25) Temir (III) xloridi va natriy karbonat eritmalari o'zaro almashinish reaksiyalarida qanday cho'kma hosil bo'ladi?
A) $Fe(OH)_3$
B) $Fe_2(CO_3)_3$
C) $Fe(OH)_3$ va $Fe_2(CO_3)_3$
D) $Fe(OH)_2$

197. (v17-118-20) Quyidagi qaysi modda kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
A) LiHS B) K_2CO_3
C) $Zn(NO_3)_2$ D) $Ca(HSO_3)_2$

40.2. Organik birikmalar gidrolizi

1. (96-4-43) Quyidagi moddalarning qaysilari gidroliz reaksiyasida qatnashadi?
1) $H_2C_2O_4$; 2) $HCOOCH_3$;
3) CH_3ONO_2; 4) $CaCO_3$.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 1, 3 E) 2, 4

2. (98-7-51) Tarkibi C_8H_8 bo'lgan aromatik uglevodorodning 52 grammini gidrogenlashda reaksiya unumi 80% bo'lganda, gidrogenlash uchun qancha hajm (l) vodorod kerak bo'ladi?
A) 44,8 B) 67,2 C) 8,96
D) 56,0 E) 35,8

3. (00-4-8) Tabiiy yuqori molekulyar birikmalardan qaysi birlari ishqoriy va kislotali muhitda gidrolizlanadi?
1) saxaroza; 2) yog'lar;
3) etilatsetat; 4) maltoza.
A) 1, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4
D) 2, 3 E) 1, 3, 4

4. (00-7-33) Qaysi moddalarning to'la gidrolizi natijasida faqat glyukoza hosil bo'ladi?
1) kraxmal; 2) saxaroza;
3) sellyuloza; 4) maltoza.
A) 1, 3 B) 1, 2, 4 C) 3, 4
D) 1, 3, 4 E) 2, 3, 4

5. (00-7-34) Gidroliz jarayonida qatnashadigan uglevodni ko'rsating.
1) kraxmal; 2) sellyuloza; 3) maltoza;
4) dezoksiriboza; 5) saxaroza.
A) 1, 2, 3, 4
B) 1, 2, 3, 5
C) 1, 2, 4, 5
D) 1, 2, 3
E) 3, 4, 5

6. (00-7-37) Qaysi uglevodlar gidroliz reaksiyasida qatnashmaydi?
1) dezoksiriboza; 2) kraxmal; 3) fruktoza;
4) sellyuloza; 5) maltoza; 6) saxaroza.
A) 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 3
D) 1, 6 E) 1, 3, 5

7. (02-12-47) 2,6 g ditsianning gidroliz mahsulotiga sulfat kislotaning 60% li eritmasi ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan organik birikmaning eritmadagi massasini toping.
A) 4,5 B) 5,0 C) 4,9
D) 3,7 E) 3,5

8. (v4-101-7) Quyidagi moddalarning qaysilari gidroliz reaksiyasida qatnashadi?
1) etilatsetat; 2) oksalat kislota; 3) propil nitrat; 4) kalsiy karbonat.
A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 2
D) 1, 3 E) 2, 3

9. (v5-101-14) Qaysi uglevod gidrolizlanmaydi?
A) sellyuloza B) saxaroza
C) maltoza D) glyukoza
E) kraxmal

10. (v5-105-33) To'la gidrolizlangan sellyuloza eritmasida kumush ko'zgu reaksiyasi kuzatilgan bo'lsa, bu xususiyat eritmada ... borligidan dalolat beradi.
A) glyukoza B) fruktoza
C) ksiloza D) arabinoza
E) saxaroza

11. (v6-103-16) Quyidagi murakkab modda gidrolizlanganda qanday mahsulotlar olinadi?
$CH_3COOCH(CH_3)_2$
A) propanol-1 va chumoli kislota
B) etanol va 2-metilpropan kislota
C) metanol va propan kislota
D) propanol-2 va sirka kislota

12. (v6-108-33) Qaysi uglevodlar gidroliz jarayonida qatnashadi?
1) kraxmal; 2) sellyuloza; 3) fruktoza;
4) dezoksiriboza; 5) saxaroza.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4, 5

13. (v6-110-14) Qaysi uglevod gidrolizlanadi?
A) fruktoza
B) glyukoza
C) riboza
D) kraxmal

14. (v6-112-33) To'la gidroliz natijasida faqat glyukoza hosil qiladigan modda(lar)ni ko'rsating:
1) kraxmal; 2) saxaroza; 3) sellyuloza.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 3

15. (v6-116-33) Gidroliz reaksiyasida qatnashmaydigan uglevodlarni ko'rsating.
1) dezoksiriboza; 2) kraxmal; 3) fruktoza;
4) sellyuloza; 5) maltoza; 6) saxaroza.
A) 2, 4, 6 B) 3, 5 C) 1, 6 D) 1, 3

16. (v6-118-8) Quyidagi moddalarning qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) natriy sulfat; 2) ammoniy atsetat;
3) glitserin; 4) olein kislota glitseridi;
5) fruktoza; 6) natriy gidrid; 7) saxaroza.
A) 2, 4, 6, 7 B) 1, 2, 4, 7
C) 3, 5, 6 D) 1, 3, 5

17. (v7-113-15) Gidroliz reaksiyasining barcha mahsulotlari kumush oksidning ammiakdagi eritmasi bilan reaksiyaga kirishadigan moddani aniqlang.
A) vinilformiat B) etilbenzoat
C) metilformiat D) etilatsetat

18. (v8-111-7) Quyidagi moddalardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) nuklein kislota; 2) metakril kislota;
3) nukleozid; 4) nukleotid; 5) kraxmal;
6) fruktoza.
A) 2, 6 B) 1, 3, 4
C) 2, 3, 6 D) 1, 3, 4, 5

19. (v8-120-7) Quyidagi moddalarning qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) natriy sulfat; 2) ammoniy atsetat;
3) etilenglikol; 4) stearin kislota glitseridi;
5) fruktoza; 6) natriy gidrid.
A) 2, 4, 6 B) 1, 2, 4 C) 3, 5, 6 D) 1, 3, 5

20. (v8-125-7) Quyidagi moddalardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) RNK; 2) nuklein kislota; 3) glyukon kislota;
4) riboza; 5) nukleotid; 6) butilatsetat.
A) 3, 4 B) 1, 2, 5, 6
C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 5, 6

21. (v9-123-5) Quyidagi moddalardan qaysilari gidrolizga uchramaydi?
1) DNK; 2) metakril kislota; 3) nukleozid;
4) glyukoza; 5) sellyuloza; 6) metilmetakrilat.
A) 2, 4, 6 B) 1, 4, 5, 6
C) 2, 4 D) 1, 3, 5, 6

22. (v12c-213-31) Quyidagi qaysi organik moddalar gidrolizlanadi?
1) glyukoza; 2) etanol; 3) brommetan;
4) metanal; 5) saxaroza; 6) metilformiat;
7) 2-etilbutan; 8) stearin kislota.
A) 2, 7 B) 1, 2, 4 C) 3, 5, 6 D) 1, 5, 6

23. (v15-101-16) Amigdalin gidrolizlanganda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
1) glyukoza; 2) fruktoza; 3) sirka aldegid;
4) benzaldegid; 5) glitserin; 6) sianid kislota;
7) karbonat angidrid.
A) 3, 5, 7 B) 1, 3, 6 C) 1, 4, 6 D) 2, 4, 6

24. (v15-108-14) Akril kislota nit rili gidrolizidan qanday gaz ajralib chiqadi?
A) vodorod sianid B) ammiak
C) gidrazin D) disian

25. (v17-103-6) Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating:
1) $(NH_4)_2CO_3$; 2) K_2SO_4; 3) CH_3COONH_4;
4) $NaNO_2$; 5) $Cu(NO_3)_2$; 6) $(CH_3COO)_2Ca$.
A) 2, 6 B) 1, 4, 5
C) 1, 3, 4 D) 1, 3

26. (v17-105-21) 25 g amigdalin suv bilan reaksiyada qancha (g) sianid kislota olish mumkin?
A) 2,42 g B) 1,42 g
C) 0,42 g D) 3,42 g

27. (v17-106-11) Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda kislotali muhit hosil qiladiganlarni ajrating.
1) $(NH_4)_2SO_4$; 2) K_2SO_4; 3) CH_3COONH_4;
4) $NaNO_2$; 5) $Cu(NO_3)_2$; 6) $(CH_3COO)_2Ca$.
A) 1, 4, 5
B) 2, 6
C) 1, 5
D) 1, 3, 4

28. (v17-112-16) Amigdolin gidrolizi mahsuloti:
A) fruktoza, benzoy kislotasi, sianid kislota.
B) glyukoza, benzoy kislotasi, HCN
C) glyukoza, benzaldegid, HCN
D) glyukoza, sirka aldegidi, sianid kislota

41. Suyuqlanma va eritmalarning elektrolizi

41.1. Elektroliz

1. (96-10-50) Elektrometallurgiya usuli bilan ajratib olinadigan metallarni ko'rsating.
A) Na, Fe, Al B) W, Al
C) Al, Fe D) Na, Al E) Fe, Cu

2. (96-13-90) Rux sulfat tuzining suvli eritmasi grafitli elektrodlar yordamida elektroliz qilinganda katod va anodda qanday moddalar ajralib chiqadi?
A) vodorod va kislorod
B) ryx va vodorod
C) rux va oltingugurt
D) vodorod va oltingugurt
E) rux, kislorod va vodorod

3. (96-15-92) Natriy xlorid suyuqlanmasi elektroliz qilinganda 560 litr (n. sh.) xlor ajralib chiqqan bo'lsa, necha kilogramm natriy olingan?
A) 0,95 B) 1,15 C) 1,25
D) 2,35 E) 1,50

4. (96-15-122) 28 g kaliy gidroksidini olish uchun necha gramm kaliy xloridining suvdagi eritmasi elektroliz qilinishi kerak?
[M_r(KOH) = 56; M_r(KCl) = 74,5]
A) 74,5 B) 149 C) 223,50
D) 18,62 E) 37,25

5. (97-2-16) Qaysi tuzning eritmasi elektrolizga uchratilganda, qatorda metall ajrab chiqmaydi?
A) $AgNO_3$ B) $CuSO_4$ C) $FeSO_4$
D) $NaNO_3$ E) $AuCl_3$

6. (97-4-39) Mis (II) sulfat eritmasi inert anod bilan elektroliz qilinganda katod va anodda qanday moddalar ajralib chiqadi?
A) mis va kislorod
B) mis va oltingugurt (IV) oksid
C) vodorod va kislorod
D) vodorod va oltingugurt (IV) oksid
E) mis va vodorod

7. (97-4-59) Elektroliz jarayonida kimyoviy reaksiyalarning qaysi turi sodir bo'ladi?
A) birikish B) o'rin olish
C) gidroliz D) almashinish
E) oksidlanish-qaytarilish

8. (97-4-80) Kalsiy nitrat eritmasi inert anod bilan elektroliz qilinganda, katod va anodda qanday moddalar ajralib chiqadi?
A) kalsiy va azot (IV) oksid
B) kalsiy va kislorod
C) vodorod va kislorod
D) vodorod va azot (II) oksid
E) kalsiy va azot

9. (97-5-62) Kaliy xlorid eritmasini elektroliz qilganda katodda qaysi modda ajralib chiqadi?
A) kaliy B) vodorod C) kislorod
D) suv E) xlor

10. (97-8-27) N. sh. da 22,4 l metandagi ham ma vodorod atomlari o'rnini xlor atomlari to'liq olishi uchun, 234 g osh tuzi suyuqlanmasining elektrolizidan hosil bo'lgan xlor yetadimi?
A) yetadi
B) 22,4 l xlor ortib qoladi
C) 22,4 l xlor yetmaydi
D) yetmaydi
E) 44,8 l xlor ortib qoladi

11. (98-2-43) Kaliy sulfat eritmasi elektroliz qilinganda, katod va anodda qanday moddalar ajralib chiqadi?
A) kaliy va oltingugurt (IV) oksid
B) kaliy va kislorod
C) vodorod va kislorod
D) vodorod va oltingugurt (IV) oksid
E) kislorod va oltingugurt (IV) oksid

12. (98-8-8) Na_2SO_4 eritmasi elektrolizga uchratilganda elektrodlarda qanday moddalar ajralib chiqadi?
A) natriy va oltingugurt (VI) oksid
B) vodorod va oltingugurt (VI) oksid
C) natriy va kislorod
D) vodorod va kislorod
E) vodorod va sulfit angidrid

13. (98-8-9) 149 g kaliy xlorid suyuqlanmasi va 149 g kaliy xlorid tutgan eritma elektrolizga uchratilganda ajralib chiqqan xlorning hajmlarini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 22,4 va 11,2 B) 22,4 va 22,4
C) 22,4 va 33,6 D) 22,4 va 44,8
E) 11,2 va 22,4

14. (98-9-39) 100 g kaliy sulfat eritmasida kaliy sulfatning massa ulushi 0,082. Shu eritma elektroliz qilinganda, anodda 5,6 g (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Elektrolizdan keyingi eritmaning foiz konsentratsiyasini toping.
A) 12,8 B) 9 C) 14 D) 18 E) 20

15. (98-10-47) Agar nikel (II) sulfat eritmasi elektroliz silinganda katodda 0,02 mol modda ajralib chiqsa, nikeldan yasalgan anodning massasi necha grammga o'zgaradi?
[A_r(Ni) = 58,7]
A) 1,58 B) 1,17 C) 2,35
D) 0,59 E) 2,35

16. (98-12-50) Mis (II) nitrat eritmasi inert elektrodlar ishtirokida elektroliz qilinganda, qanday moddalar hosil bo'ladi?
A) mis, kislorod
B) vodorod, kislorod
C) mis, azot oksid
D) vodorod, azot oksid
E) mis, suv

17. (99-2-16) Qaysi metall faqat elektroliz usuli bilan olinadi?
A) mis B) temir
C) alyuminiy D) xrom
E) volfram

18. (99-4-48) Tuz eritmasining elektrolizi jarayonida anodda 5,6 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Elektroliz uchun qancha gramm kumush nitrat olingan?
A) 80 B) 42,5 C) 108
D) 46,3 E) 170

19. (99-5-30) Kaliy yodid eritmasi elektroliz qilinganda elektrodlardan birida 4,48 l (n. sh. da) gaz modda ajralib chiqdi. Bunda anodda qancha modda (g) hosil bo'lgan?
A) 50,8 B) 25,4 C) 38,1
D) 76,2 E) 63,5

20. (99-7-24) Tarkibida 0,1 mol simob (II) xlorid va 0,2 mol mis (II) xlorid bo'lgan eritma orqali 1 soat davomida 10 amper doimiy tok o'tkazilgan Anodda ajralib chiqqan modda, uning hajmi (l) va massasini (g) aniqlang.
A) xlor, 13,25; 4,2 B) xlor, 26,4; 8,4
C) xlor, 39,7; 12,5 D) kislorod, 3; 2,1
E) kislorod, 6; 4,2

21. (00-1-47) KOH eritmasi ko'mir elektrodlar bilan elektroliz qilinganda, anodda 1500 ml gaz olindi. Katodda qanday modda va qancha miqdorda ajralib chiqadi?
A) vodorod; 750 ml B) kaliy; 2,16 g
C) kaliy; 5,15 g D) vodorod; 3000 ml
E) vodorod; 2060 ml

22. (00-1-48) Mis sulfat eritmasi inert elektrodlar ishtirokida elektroliz qilinganda katod va anodda quyidagilardan qaysilari ajralib chiqadi?
A) Cu, H_2 B) Cu, O_2
C) Cu, SO_2 D) H_2, O_2
E) H_2, SO_2

23. (00-4-5) Massa ulushi 8,5% bo'lgan kumush nitratning 800 g eritmasi, massasi 50 g ga kamayguncha, elektroliz qilindi. Reaksiyada olingan nitrat kislotaning massa ulushini (%), inert elektrodlarda ajralib chiqqan moddalar va ular massasini (g) hisoblang.
1) 3,36; 2) katod 43,2 (Ag) i 0,4 (H_2); 3) katod 43,2 (Ag); 4) anod 6,8 O_2; 5) anod 6,4 O_2; 6) katod 43,6 (Ag); 7) 4,48; 8) 6,7.
A) 8, 2, 5 B) 1, 2, 5 C) 7, 3, 4
D) 7, 6, 5 E) 1, 3, 4

24. (00-6-43) Hajmi 100 ml (ρ = 0,884 g/ml) bo'lgan benzolni quyosh nuri ta'sirida xlorlash reaksiyasi uchun 350,7 g osh tuzi suyuqlanmasining elektrolizi natijasida olingan xlor yetarli bo'ladimi?
A) 2,3 l xlor ortib qoladi
B) 8,9 l xlor yetmay qoladi
C) 7,8 l xlor ortib qoladi
D) 5,6 l xlor yetmay qoladi
E) Benzol bilan xlor orasidagi reaksiya to'liq sodir bo'ladi

25. (01-1-14) Mis (II) nitrat eritmasi inert elektrodlar ishtirokida to'la elektroliz qilindi. Elektr toki o'chirilgandan keyin elektrodlar qisqa vaqt davomida elektroliz yorda qolib ketsa, eritmada qanday mahsulot bo'lishi mumkin?
A) HNO_3
B) $Cu(NO_3)_2$
C) HNO_2
D) HNO_3 + $Cu(NO_3)_2$
E) $CuNO_3$ + HNO_3

26. (01-2-54) Kaliy karbonat suyuqlanmasi elektroliz qilinganda, 736 l gaz ajraldi. Bunda olingan kaliyning massasini (kg) aniqlang.
A) 3,2 B) 1,7 C) 2,8 D) 1,9 E) 1,2

27. (01-2-79) Natriy sulfat eritmasi elektroliz qilinganda, katodda qanday mahsulot olinadi?
1) kislorod; 2) vodorod;
3) natriy; 4) natriy ishqori.
A) 2 va 4 B) 1
C) 3 D) 2 E) 2 va 3

28. (01-3-51) Massasi 1,8 g bo'lgan suvning elektr toki ta'sirida parchalanishidan hosil bo'lgan vodoroddan qancha massa (g) vodorod xlorid olish mumkin?
A) 13,6 B) 14,6 C) 36,5
D) 7,3 E) 146

29. (01-4-42) To'g'ri ifodalangan Faradey qonunlarining ta'riflarini aniqlang:
1) har xil elektrolitlarning eritmalaridan bir xil miqdordagi elektr toki o'tkazilganda, elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalarning massasi ularning kimyoviy ekvivalentlariga teskari proporsional bo'ladi; 2) elektrodlarda ajralgan modda miqdori elektrolit eritmasidan o'tgan elektr toki miqdoriga teskari proporsionaldir; 3) har xil elektrolitlarning eritmalaridan bir xil miqdorda elektr toki o'tkazilganda, elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalarning massasi ularning kimyoviy ekvivalentlariga to'g'ri proporsional bo'ladi; 4) Elektrodlarda ajralgan modda massasi elektrolit eritmasidan o'tgan elektr toki miqdoriga to'g'ri proporsionaldir.
A) 1, 2 B) 1, 3
C) 1, 4 D) 3, 4
E) 2, 4

30. (01-4-43) Elektrokimyoviy ekvivalent deb nimaga aytiladi?
1) Elektrolit eritmasidan 1 A·c elektr toki o'tkazilganda, elektrodlarda ajralib chiqadigan modda miqdori uning ekvivalent massasiga teng; 2) Elektrolit eritmasidan 1 F elektr toki o'tganda, elektrodda ajralib chiqadigan modda massasi uning ekvivalent massasiga teng; 3) Elektrolit eritmasidan 96500 Kl elektr toki o'tganda, elektrodda ajralib chiqadigan modda massasi uning ekvivalent massasiga teng; 4) elektrolit eritmasidan 26,8 A s elektr toki o'tganda, elektrodda ajralib chiqadigan modda massasi uning ekvivalent massasiga teng.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4
D) 4 E) 3, 4

31. (01-5-37) KOH eritmasi inert elektrod yordamida elektroliz qilinganda, anodda 25 ml gaz chiqdi. Katodda ajralib chiqqan gazning hajmini hisoblang (ml).
A) 60 B) 80 C) 70
D) 50 E) 90

32. (01-5-38) Ko'mir elektrod ishtirokida $CuSO_4$ ning 800 g suvli eritmasi (ρ = 1,2 g/ml) elektroliz qilinganda, anodda 22,4 l gaz ajralib chiqadi. Olingan yangi eritmaning (%) konsentratsiyasini aniqlang.
A) 20 B) 42 C) 45 D) 50 E) 55

33. (01-6-21) Metall xlorid suyuqlanmasi elektroliz qilinganda, 0,896 xlor (n. sh.) va 3,12 g metall hosil bo'lgan. Qaysi metall xloridi elektroliz qilinganligini aniqlang.
A) natriy B) kalsiy
C) alyuminiy D) bariy
E) kaliy

34. (01-7-14) KNO_3 ning massasi 872 g bo'lgan 9,17% li eritmasi elektroliz qilinganda, anodda 61 l kislorod ajralib chiqdi (t = 21°C, P = 80,11 kPa). KNO_3 ning elektrolizdan keyingi massa ulushini (%) toping.
A) 8,85 B) 9,99 C) 8,96
D) 7,86 E) 6,99

35. (01-7-37) Mis (II) sulfatning 400 ml 6% li eritmasining (ρ = 1,022 g/ml) elektrolizi eritma massasi 10 g ga kamayguncha davom ettirildi. Eritmada qolgan tuz va hosil bo'lgan kislotaning massa ulushlarini (%) toping.
A) 3,2 va 3,07 B) 1,45 va 1,05
C) 0,14 va 3,2 D) 1,05 va 4,05
E) 1;14 va 3,07

36. (01-10-21) Qaysi moddalarning suvli eritmasi elektroliz qilinishi natijasida eritma konsentratsiyasi o'zgaradi?
1) NaOH; 2) $Cr_7 2(SO_4)_3$; 3) KCl;
4) H_2SO_4; 5) $NaNO_3$; 6) HBr.
A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 4, 5
C) 1, 2, 4 D) 2, 4, 6
E) 3, 4, 6

37. (01-10-39) Amalda bajarib bo'lmaydigan jarayonlarni ko'rsating.
1) temir (III) sulfat eritmasining elektrolizi;
2) magniy xlorid suyuqlanmasining elektrolizi;
3) magniy karbonat suyuqlanmasining elektrolizi; 4) saxarozaning elektrolizi;
5) simob (II) nitrat suyuqlanmasining elektrolizi.
A) 1, 2, 3 B) 1, 4, 5 C) 3, 4, 5
D) 1, 2, 5 E) 1, 4, 5

38. (01-11-35) Bariy nitrat eritmasi elektroliz qilinganda, qaysi jarayonlar yuz beradi?
1) bariy nitrat konsentratsiyasi ortadi; 2) bariy nitrat konsentratsiyasi kamayadi; 3) bariy nitrat konsentratsiyasi o'zgarmaydi; 4) bariy nitrat miqdori ortadi; 5) bariy nitrat miqdori kamayadi; 6) bariy nitrat miqdori o'zgarmaydi.
A) 2, 5 B) 1, 4 C) 2 D) 5 E) 1, 6

39. (01-11-38) Qaysi moddalarning suvli eritmalari inert elektrodlar bilan elektroliz qilinganda, bir xil moddalar hosil bo'ladi?
1) natriy gidroksid; 2) kaliy xlorid; 3) xlorid kislota; 4) sulfat kislota; 5) natriy nitrat.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 5 C) 1, 5
D) 1, 4, 5 E) 3, 4

40. (01-11-39) Nikel nitrat eritmasini elektroliz qilib, 59 g metall olindi. Agar eritma hajmi 166 ml (ρ = 1400 kg/m^3) bo'lsa, hosil bo'lgan moddaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 51,4 B) 54,2 C) 27,1
D) 56,7 E) 52,5

41. (01-12-11) Zichligi 1,1 g/ml bo'lgan 14% li 250 ml osh tuzi eritmasi elektroliz qilinganda, katodda 5 l gaz ajralib chiqdi. Eritmada hosil bo'lgan natriy gidroksidning massa ulushini va sarflangan osh tuzi massasini (g).
A) 7,5; 28,2 B) 6,9; 26,1
C) 8,0; 29,25 D) 6,67; 25,19
E) 10,25; 32,71

42. (02-4-22) 200 g 5% mis (II) sulfat eritmasining elektroliz jarayonini eritma massasi 4 ga kamayguncha davom ettirilgan. Elektrodlarda ajralib chiqqan moddalar massasini (g) toping.
1) katod; 3,6 g Cu; 2) katod; 1 g H_2;
3) anod; 0,8 g O_2; 4) anod; 0,4 g O_2;
5) katod; 2,2 g Cu; 6) katod; 3,2 g Cu.
A) 1, 3 B) 5, 2, 3 C) 1, 4
D) 3, 6 E) 1, 2, 3

43. (02-4-24) 300 g 6,3% li mis (II) nitrat eritmasi uning massasi 6 g ga kamayguncha elektroliz qilingan. Hosil bo'lgan eritmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) hisoblang.
1) 1,6 $Cu(NO_3)_2$; 2) 6,4 HNO_3; 3) 1,6 HNO_3;
4) 3,2 $Cu(NO_3)_2$; 5) 3,2 HNO_3.
A) 1, 3 B) 3 C) 1, 5 D) 2, 4 E) 4, 5

44. (02-4-25) 300 g 5% li mis (II) sulfat eritmasining elektrolizi eritma massasi 6 g kamayguncha davom ettirilgan. Qolgan eritmadagi moddalarning massa ulushini (%) hisoblang.
1) 2,04; $CuSO_4$; 2) 0,5; $CuSO_4$; 3) 1,02; $CuSO_4$;
4) 2,5; H_2SO_4; 5) 1,25; H_2SO_4.
A) 4 B) 2, 5 C) 3, 5 D) 1, 5 E) 3, 4

45. (02-4-26) 100 g 5% li mis (II) sulfat eritmasi elektrolizi eritma massasi 2,5 g ga kamayguncha davom etirilgan. Qolgan eritmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) hisoblang.
1) 0,7; $CuSO_4$; 2) 3,1; H_2SO_4; 3) 1,1; $CuSO_4$;
4) 1,6; H_2SO_4; 5) 0,8; H_2SO_4.
A) 1, 4 B) 2 C) 3, 2 D) 4 E) 1, 5

46. (02-7-17) Tarkibida 100 g natriy xlorid bo'lgan eritma elektroliz qilinganda 13,44 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Eritmadagi natriy xloridning massa ulushni (%) toping.
A) 28,0 B) 30,3 C) 35,5
D) 35,1 E) 54,1

47. (03-3-19) Qaysi moddalarning suvli eritmalari elektroliz qilinganda, katodda faqat vodorod qaytariladi?
1) $ZnCl_2$; 2) KBr; 3) $Ca(NO_3)_2$;
4) NaCl; 5) H_2SO_4; 6) KOH.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 5, 6
E) 1, 2, 3, 4, 5, 6

48. (03-3-23) Nikel (II) xloridning suvli eritmasi nikelli anod bilan elektroliz qilinganda, qanday moddalar xosil bo'ladi?
1) vodorod; 2) kislorod; 3) nikel; 4) xlor.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4
D) 1, 4 E) faqat 3

49. (03-3-24) Kaliy ftoridning suvli eritmasini elektroliz qilib, qanday moddalar olish mumkin?
1) vodorod; 2) kislorod; 3) kaliy;
4) ftor; 5) kaliy gidroksid.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 3, 4, 5
D) 1, 4, 5 E) 1, 4

50. (04-1-438) Kaliy, rux, mis, temir va oltin xloridlarining suvli aralashmasi elektroliz qilinganda katodda qaysi metall eng oxirida qaytariladi?
A) kaliy B) rux C) mis
D) temir E) oltin

51. (04-1-457) Massasi 234 g toza natriy xlorid suyuqlanmasi elektroliz qilinganda anodda qancha hajm (n. sh.) xlor hosil bo'ladi?
A) 44,8 B) 46 C) 23
D) 69 E) 92

52. (04-1-463) Agar anodda 5,6 gramm gaz ajralib chiqsa, elektroliz uchun necha gramm kumush nitrat olingan?
A) 119 B) 42,5 C) 108
D) 46,3 E) 170

53. (04-1-464) Agar Kl eritmasi elektroliz qilinganda elektrodlardan birida 1,12 l (n. sh. da) gaz modda ajralib chiqsa, anodda qancha modda (g) hosil bo'lganini hisoblang.
A) 50,8 B) 25,4 C) 12,7
D) 76,2 E) 63,5

54. (04-1-467) Kaliy karbonat suyuqlanmasi elektroliz qilinganda, 786 l (n. sh. da) gaz ajraldi. Bunda olingan kaliyning massasini (kg) aniqlang.
A) 3,2 B) 1,7 C) 2,8 D) 1,9 E) 1,8

55. (04-1-502) Elektroliz usulida qaysi metallar olinmaydi?
1) oltin; 2) temir; 3) natriy;
4) marganes; 5) kalsiy.
A) 1, 2, 3
B) 1, 2, 4
C) 1, 3
D) 2, 4
E) 3, 5

56. (04-1-518) 28 g kaliy gidroksid olish uchun necha mol kaliy xloridning suvdagi eritmasi elektroliz qilinishi kerak?
A) 0,745 B) 1,49 C) 22,3
D) 0,5 E) 37,25

57. (04-1-519) Natriy xlorid suyuqlanmasi elektroliz qilinganda 560 litr (n. sh.) xlor ajralib chiqqan bo'lsa, necha mol natriy olingan?
A) 0,95 B) 1,15 C) 12,5
D) 13,5 E) 50

58. (05-1-287) Qaysi qatordagi metallarni ular tuzlarining suvli eritmalarini elektroliz qilib olish mumkin?
A) temir, litiy, nikel
B) kobalt, bariy. xrom
C) mis, natriy, rubidiy
D) oltin, kumush, mis
E) temir, kalsiy, xrom

59. (v4-108-35) Metall xlorid suyuqlanmasi elektroliz qilinganda, 0,896 xlor (n. sh.) va 5,48 g metall hosil bo'lgan. Qaysi metalning xloridi elektroliz qilinganligini aniqlang.
A) alyuminiy B) kaliy
C) natriy D) bariy
E) kalsiy

60. (v4-114-24) Natriy xlorid suyuqlanmasi elektroliz qilinganda 280 litr (n. sh.) xlor ajralib chiqqan bo'lsa, necha mol natriy olingan?
A) 12,5 B) 50 C) 22,4
D) 25 E) 27,5

61. (v4-122-35) Mis nitratni 1 l eritmasining elektrolizi jarayonida katodda 16 g mis ajralib chiqdi. Eritmada hosil bo'lgan kislota va anodda hosil bo'lgan modda miqdorini aniqlang.
A) 0,16; 0,04 B) 0,3; 0,075
C) 0,5; 0,125 D) 0,25; 0,125
E) 0,06; 0,015

62. (v5-125-35) Elektrolizda suv molekulalari umuman ishtirok etmaydigan moddalarni ko'rsating.
1) litiy bromid; 2) kalsiy yodid; 3) rux nitrat; 4) xrom (III) xlorid; 5) mis (II) xlorid.
A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 5
D) 3 E) 2, 3

63. (v5-126-35) Natriy sulfatning massasi 374 g bo'lgan 6,48% li eritmasi elektroliz qilinganda, anodda 74,2 l kislorod ajralib chiqdi. Natriy sulfatning elektrolizdan keyingi massa ulushi ... %.
A) 8,6 B) 13,1 C) 10,7
D) 9,5 E) 7,4

64. (v5-132-35) Ko'mir elektrod ishtirokida $CuSO_4$ ning 628 g 12% li suvli eritmasi elektroliz qilinganda, anodda 3,84 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Eritmada hosil bo'lgan kislota (%) konsentratsiyasi –
A) 45 B) 35,6 C) 54,8
D) 5,6 E) 3,4

65. (v5-133-35) Mis (II) nitrat eritmasini elektroliz qilib 4,7 g metall olindi. Agar olingan eritma hajmi 514 ml (ρ = 1,08 g/ml) bo'lsa, hosil bo'lgan moddaning massa ulushi ...%.
A) 2,7 B) 2,5 C) 4,5
D) 1,6 E) 1,1

66. (v5-135-35) Sulfat kislota eritmasi elektroliz qilinganda anodda 16,8 l (n. sh.) gaz ajralib, qolgan eritmaning massasi 311 g, undagi sulfat kislotaning massa ulushi 0,247 ni tashkil qilgan. Boshlang'ich eritmadagi kislotaning konsentratsiyasi ... %.
A) 23,7 B) 21,8 C) 13,8
D) 19,4 E) 22,7

67. (v6-102-10) Qaysi metallar elektroliz usulida olinadi?
1) oltin; 2) temir; 3) natriy;
4) marganes; 5) kalsiy.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 3, 5

68. (v6-105-11) Suvdan o'zgarmas tok o'tkazish natijasida 24 g kislorod hosil bo'lgan bo'lsa, parchalangan suvning massasini (g) aniqlang.
A) 9 B) 18 C) 27 D) 36

69. (v7-101-23) 800 g 5% li mis (II) sulfat eritmasining massasi 23,6 g ga kamayguncha elektroliz qilindi. Inert elektrodlarda ajralgan moddalar massasini (g) aniqlang.
1) katodda 16 g mis; 2) katodda 0,4 g vodorod; 3) katodda 6,4 g mis; 4) anodda 4 g kislorod; 5) anodda 3,6 g kislorod; 6) anodda 7,2 g kislorod.
A) 1, 2, 6 B) 1, 4 C) 3, 6 D) 1, 4, 5

70. (v7-102-35) Mis (II) sulfatning 1000 g 8% li eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 28 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan so'ng eritmadagi moddaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 4,8 B) 6,12 C) 24,5 D) 5,3

71. (v7-105-23) 500 g 8% li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 25,2 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan so'ng eritmadagi moddaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 6,7 B) 5,5 C) 7,4 D) 4,9

72. (v7-109-23) Kumush nitratning 500 g 6,8% li eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 22,4 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan so'ng eritmadagi moddaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 4,7 B) 3,6 C) 2,8 D) 1,9

73. (v7-110-23) Mis (II) sulfatning 800 g 10% li eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 22,4 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan so'ng eritmadagi moddaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 6,7 B) 30,6 C) 24,5 D) 4,9

74. (v8-101-21) 400 g 20% li mis (II) sulfat eritmasining massasi 76 g ga kamayguncha elektroliz qilindi. Inert elektrodlarda ajralgan moddalar massasini (g) aniqlang.
1) katodda 32 g mis; 2) katodda 8 g mis; 3) katodda 4 g vodorod; 4) anodda 40 g kislorod; 5) anodda 32 g kislorod; 6) anodda 8 g kislorod.
A) 3, 5 B) 1, 6 C) 2, 3, 6 D) 1, 3, 4

75. (v8-106-21) Kumush nitratning 510 g 10% li eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 11,2 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan keyingi eritmaning (ρ = 1,0 g/ml) molyarligini (mol/l) hisoblang.
A) 0,26 B) 1,82 C) 0,65 D) 0,97

76. (v8-107-21) 1500 g 8% li $CuSO_4$ ning eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 30,8 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan so'ng hosil bo'lgan moddaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 17,9 B) 5,2 C) 19,2 D) 4,9

77. (v8-108-15) 110 ml suvda 15 g natriy nitrat eritilib, elektroliz qilingandan so'ng 20% li eritma olindi. Elektroliz natijasida olingan kislorod hajmini (1,0°C, 101,3 kPa) hisoblang.
A) 40,4 B) 44,4 C) 50 D) 31

78. (v8-112-21) 800 g 8,5% li kumush nitrat eritmasining massasi 50 g ga kamayguncha elektroliz qilindi. Inert elektrodlarda ajralgan moddalar massasini (g) aniqlang.
1) katodda 43,2 g kumush; 2) katodda 46,6 g kumush; 3) katodda 0,2 g vodorod; 4) katodda 0,4 g vodorod; 5) anodda 6,4 g kislorod; 6) anodda 3,5 g kislorod.
A) 1, 4, 5 B) 1, 4 C) 2, 3, 6 D) 1, 6

79. (v8-113-21) 400 g 16% li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 26,88 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan keyingi eritmaning (ρ = 1 g/ml) molyarligini (mol/l) hisoblang.
A) 0,4 B) 11,8 C) 1,2 D) 5,3

80. (v8-116-21) 1000 g 12% li $CuSO_4$ ning eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 22,4 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan keyingi eritmaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 1,4 B) 8 C) 12 D) 5

81. (v8-120-21) 607 g 10% li oltin (III) xlorid eritmasining massasi 96,7 g ga kamayguncha elektroliz qilindi. Inert elektrodlarda ajralgan moddalar massasini (g) aniqlang.
1) katodda 39,4 g oltin; 2) katodda 4 g vodorod; 3) katodda 19,7 g oltin; 4) anodda 10,65 g xlor; 5) anodda 32 g kislorod; 6) anodda 21,3 g xlor.
A) 2, 5 B) 1, 6
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 5, 6

82. (v11-105-5) Rux xloridning suvli eritmasi elektroliz qilinganda anodda hajmi 26,88 l (n. sh. da) bo'lgan xlor, katodda esa massali 62,4 g bo'lgan rux ajralib chiqadi. Bunda ruxning chiqish unumini hisoblang.
A) 80% B) 78% C) 62,4% D) 89%

83. (v12z-201-9) 200 g 25% li metall bromid eritmasi elektroliz qilinganda 12,08% li eritma hosil bo'ldi. Metalni aniqlang.
A) K B) Li C) Rb D) Na

84. (v12z-203-16) Qanday hajmdagi (ml) 1 M li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda 28 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajraladi?
A) 250 B) 1000 C) 500 D) 600

85. (v12z-207-17) 200 g 25% li metall bromid eritmasi brom chiqishi tugaguncha elektroliz qilinganda 14,18% li eritma hosil bo'ldi. Metalni aniqlang.
A) Li B) Na C) K D) Rb

86. (v12z-210-15) 2,5 M li (ρ = 1,25) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 56 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, dastlabki eritma hajmini (l) aniqlang.
A) 1,5 B) 2,4 C) 3 D) 2,2

87. (v12z-211-33) 3 M li (ρ = 1,2) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 39,2 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,11) massasini (g) aniqlang.
A) 600 B) 444 C) 400 D) 500

88. (v12z-212-10) 2,5 M li (ρ = 1,25) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 56 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,2) konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 5,9 B) 15,4 C) 2,9 D) 30,9

89. (v12z-214-17) Qanday hajmdagi (ml) 2 M li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda 28 litr (n. sh.) kislorod va 33,6 litr (n. sh.) vodorod ajraladi?
A) 600 B) 1000 C) 500 D) 250

90. (v12z-228-9) 2,5 M li (ρ = 1,25) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 56 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,2) konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.
A) 15,4 B) 3,1 C) 2,9 D) 5,9

91. (v12z-243-3) Na_2SO_4 ning 400 g 7,1% li eritmasi elektroliz qilinganda katodda (inert elektrod) 22,4 l (n. sh.) gaz ajraldi. Elektrolizdan so'ng eritmadagi moddaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 7,84 B) 8,04
C) 9,46 D) 7,43

92. (v12z-246-26) 1214 g 10% li $AuCl_3$ eritmasi massasi 193,4 g ga kamayguncha elektroliz qilindi. Inert elektrodlarda ajralgan moddalar massalarini (g) toping.
1) katodda 8 g H_2; 2) anodda 78,8 g Au; 3) katodda 78,8 g Au; 4) anodda 64 g O_2; 5) anodda 42,6 g Cl_2.
A) 1, 2, 4, 5
B) 2, 3, 4, 5
C) 1, 2, 3, 5
D) 1, 3, 4, 5

93. (v12z-260-16) 3 M li (ρ = 1,2) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 39,2 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, dastlabki eritma massasini (g) aniqlang.
A) 1200 B) 1000 C) 600 D) 500

94. (v12c-103-7) 200 g 25% li metall bromid eritmasi elektroliz qilinganda 9% li eritma hosil bo'ldi. Metalni aniqlang.
A) K B) Rb C) Na D) Li

95. (v12c-109-11) 2,5 M li (ρ = 1,25) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 56 litr kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,2) hajmini (ml) aniqlang.
A) 1224 B) 2400 C) 1020 D) 2670

96. (v12c-119-4) 200 g 20% li metall bromid eritmasi elektroliz qilinganda 6,8% li eritma hosil bo'ldi. Metalni aniqlang.
A) Rb B) K C) Na D) Li

97. (v12c-120-27) Qanday hajmdagi (ml) 2 M li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda 39,2 litr (n. sh.) kislorod va 56 litr (l, n. sh.) vodorod ajraladi?
A) 500 B) 1000 C) 250 D) 600

98. (v12c-122-4) 607 g 30% li oltin (III) xlorid eritmasining massasi 218,1 l ga kamayguncha elektroliz qilindi. Katodda ajralgan moddalar massasini (g) aniqlang.
1) 118,2 g vodorod; 2) 4 g vodorod;
3) 39,4 g oltin; 4) 21,3 g xlor; 5) 32 g kislorod; 6) 63,9 g xlor.
A) 1, 6 B) 1, 2
C) 2, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5

99. (v12c-123-6) 25 M li (ρ = 1,25) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 56 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh). Vodorod ajralsa, hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,2) hajmini (ml) aniqlang.
A) 1020 B) 2670 C) 2400 D) 1224

100. (v12c-125-11) 2,5 M li eritma hosil qilish uchun 2 M li K_2SO_4 eritmasini modda 187 litr (n. sh.) gaz ajralguncha elektroliz qilindi. Dastlabki eritma hajmini (l) aniqlang.
A) 0,3 B) 1 C) 1,5 D) 1,2

101. (v12c-127-3) 1 M li (ρ = 1,4 g/ml) $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda 22,4 litr (n. sh.) vodorod va 16,8 litr (n. sh.) kislorod ajraldi. Natijada 1 M li eritma hosil bo'lgan bo'lsa, shu eritmaning zichligini (g/ml) aniqlang.
A) 1,4 B) 1,33 C) 1,1 D) 1,28

102. (v12c-130-1) 2,5 M li (ρ = 1,25) $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 56 litr (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, dastlabki eritma massasini (kg) aniqlang.
A) 2,4 B) 3 C) 1,5 D) 1,2

103. (v12c-130-6) Elektrotermik usul yordamida qaysi metallar olinadi?
A) oltin, kumush, rux, uran
B) ishqoriy va ishqoriy-yer metallari, alyuminiy
C) temir, simob, volfram, xrom
D) bariy, ayluminiy, rux, mis

104. (v12c-131-30) 200 g 20% li metall bromid eritmasi brom chiqishi tugaguncha elektroliz qilinganda 13,7% li eritma hosil bo'ldi. Metalni aniqlang.
A) Rb B) K C) Na D) Li

105. (v13-114-10) 21% nikel tutgan $NiSO_4 \cdot nH_2O$ kristallogidrati 710,08 g suvda eritilganda hosil bo'lgan eritmaning 200 grammidan nikelni batamom ajratib olish uchun 4 soat davomida 1,072 A tok kuchi o'tkazilgan bo'lsa, qolgan eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 4,04 B) 4,014 C) 3,92 D) 6,2

106. (v13-144-16) 300 g noma'lum foizli mis (II) sulfat eritmasi elektroliz qilinganda hosil bo'lgan kislotaning massa ulushi dastlabki tuzning massa ulushiga teng bo'lsa, mis (II) sulfat necha foizli edi (tuzning hammasi elektroliz bo'lgan)?
A) 77,5 B) 80,5 C) 87,52 D) 70,5

107. (v14-117-3) 3 M li $CuSO_4$ eritmasi (ρ = 1,2 g/ml) elektroliz qilinganda 4,21 M li eritma (ρ = 1,2 g/ml) hosil bo'ldi va eritma massasi 138 g ga kamaydi. Hosil bo'lgan eritma massasini (g) aniqlang.
A) 480 B) 342 C) 570 D) 800

108. (v15-101-33) Natriy nitratning 20°C da to'yingan 350 g eritmasi 10 A tok bilan 48250 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz so'ngida 260 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Cho'kmaga tushgan tuz massasini (g) aniqlang.
A) 84 B) 175 C) 45 D) 25

109. (v15-103-22) 176 g x% li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda tarkibida 40% sulfat ionini saqlovchi eritma hosil bo'ldi. Agar hosil bo'lgan eritmada SO_4^{2-} va Cu^{2+} ionlari soni nisbati 3:1 bo'lsa, hosil bo'lgan eritma massasini (g) toping. (Tuzning gidrolizlanishini hisobga olmang.)
A) 200 B) 144 C) 195 D) 100

110. (v15-107-20) 40% li mis (II) sulfatning 200 g eritmasi to'liq elektroliz qilinganda tarkibida $114,38 \cdot 10^{23}$ ta atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Elektroliz jarayonida necha gramm suv parchalangan?
A) 18 B) 27 C) 54 D) 9

111. (v15-109-11) 20°C da to'yingan 200 g 20%. li natriy nitrat eritmasi elektroliz qilindi. Bunda eritma massasi 50 g ga kamaydi. Agar eritma temperaturasi o'zgarmagan bo'lsa, cho'kmaga tushgan tuz massasini (g) aniqlang.
A) 50 B) 20 C) 10 D) 40

112. (v15-109-19) Tarkibida bitta qo'shbog' saqlagan 0,25 mol to'yinmagan dikarbon kislotaning kaliyli o'rta tuzi eritmasi elektroliz qilinganda elektrodlarda (D_{H_2} = 16,25) gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan alkinni toping.
A) C_2H_2 B) C_5H_8 C) C_4H_6 D) C_3H_4

113. (v15-113-6) $MeSO_4 + H_2O \rightarrow Me + O_2 + H_2SO_4$ elektroliz reaksiya tenglamasi asosida 200 g 16% li $MeSO_4$ eritmasi 4,4 F tok bilan elektroliz qilindi. Bunda tarkibida 22,8 mol atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Katodda ajralgan Me ni toping.
A) Cd B) Ni C) Fe D) Cu

114. (v15-115-34) 216 g x% li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda tarkibida 20% sulfat ionini saqlovchi eritma hosil bo'ldi. Agar hosil bo'lgan eritmada SO_4^{2} va Cu^{2+} ionlari soni nisbati 4:1 bo'lsa, boshlang'ich eritmaning konsentratsiyasini (%) toping. (Tuzning gidrolizlanishini hisobga olmang.)
A) 15,31 B) 8,33
C) 70,37 D) 29,63

115. (v15-117-16) Tarkibida bitta qo'shbog' saqlagan 0,25 mol to'yinmagan dikarbon kislotaning kaliyli o'rta tuzi eritmasi elektroliz qilinganda (D_{H_2} =14,5) gazlar aralashamasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan alkin massasini (g) toping.
A) 6,5 B) 10
C) 26 D) 40

116. (v15-121-25) 20°C da to'yingan 200 g 20% li natriy nitrat eritmasi elektroliz qilindi. Bunda eritma massasi 50 g ga kamaydi. Agar eritma temperaturasi o'zgarmagan bo'lsa, elektrolizga uchragan suv massasini (g) aniqlang.
A) 40 B) 20
C) 10 D) 50

117. (v15-122-31) 95,5 g x% li NaCl eritmasi elektroliz qilinganda tarkibida massa jihatdan 25% natriy ionini saqlovchi eritma hosil bo'ldi. Agar hosil bo'lgan eritmaga Na^+ va Cl^- ionlari soni nisbati 4:1 bo'lsa, eritmadan necha faraday tok o'tganini aniqlang.
A) 0,4 B) 1,2 C) 0,8 D) 0,6

118. (v15-126-7) $MeSO_4 + N_2O \rightarrow Me + O_2 + H_2SO_4$ elektroliz reaksiya tenglamasi asosida 150 g 64% $MeSO_4$ eritmasi 1,5 F tok bilan elektroliz qilindi. Bunda tarkibida 10,85 mol atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Katodda ajralgan metall massasini (g) aniqlang.
A) 39,3 B) 19 C) 0,3 D) 39

119. (v15-127-27) Osh tuzi eritmasi elektroliz qilindi va hosil bo'lgan, eritmaga 0,8 mol I 250 ml ortofosfat kislota qo'shilganda massa 3:1 mol nisbatda bo'lgan natriy gidrofosfat va natriy fosfat hosil bo'ldi. Elektroliz uchun 10 A tok kuchi ishlatilgan bo'lsa, sarflangan vaqtni (soat) hisoblang.
A) 1,2 B) 0,8 C) 0,9 D) 1,6

120. (v15-128-2) 500 g 16% li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinib olingan eritmada Cu va kislotaning massa ulushlari teng bo'ldi. Olingan eritma massasini (g) aniqlang.
A) 480,16 B) 475,2
C) 425,85 D) 456,8

121. (v15-129-32) 20°C da to'yingan 200 g 20% li natriy nitrat eritmasi elektroliz qilindi. Bunda eritma massasi 50 g ga kamaydi. Agar eritma temperaturasi o'zgarmagan bo'lsa, cho'kmaga tushgan tuz massasini (g) aniqlang.
A) 40 B) 20 C) 10 D) 50

122. (v16-103-6) $CrSO_4$ tuzining suvdagi eritmasi orqali 2,68 soat davomida necha amper tok kuchi o'tkazilsa, 6,24 g xrom metall ajralib chiqadi? Tokka nisbatan unum 80%.
A) 5 B) 4 C) 2 D) 3

123. (v16-104-28) 2,5 M li (ρ = 1,25) $Cu(NO_2)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda 56 l (n. sh.) kislorod va 44,8 litr (n. sh.) vodorod ajralsa, hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,2) konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 15,4 B) 5,9
C) 30,9 D) 2,9

124. (v16-105-4) 1000 g 16% li $CuSO_4$ eritmasi grafit elektrodlar yordamida to'liq elektroliz qilindi. Katodni to'liq eritish uchun 500 g 78,4 li sulfat kislota eritmasi sarf bo'ldi. Bunda hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 36,7 B) 25 C) 16,5 D) 47,06

125. (v16-114-12) 200 ml 1 M li $CuSO_4$ eritmasi grafit elektrodlar yordamida Cu^{2+} ionlari to'liq chiqib ketgunga qadar elektroliz qilindi. Ajratib olingan katodni to'liq eritish uchun 98 g 70% li sulfat kislota eritmasi sarf bo'ldi. Bunda qancha hajm gaz (l, n. sh.) ajralgan?
A) 3,36 B) 14,56 C) 10,08 D) 4,48

126. (v16-120-4) 1000 g 16% li $CuSO_4$ eritmasi grafit elektrodlar yordamida to'liq elektroliz qilindi. Katodni to'liq eritish uchun 500 g 78,4% li sulfat kislota eritmasi sarf bo'ldi. Bunda qancha hajm gaz (l, n. sh.) ajralgan?
A) 67,2 B) 89,6 C) 33,6 D) 44,8

127. (v16-127-34) 200 g 16% li mis (II) sulfat eritmasi to'liq elektroliz qilinganda 17,5% li eritma olindi. Eritmadan necha faradey tok o'tganini aniqlang.
A) 2,4 B) 8,4
C) 0,4 D) 8

128. (v16-129-6) $CrSO_4$ tuzining suvdagi eritmasi orqali 3 soat davomida 2,68 amper tok kuchi o'tkazilsa, 6,24 g xrom metalli ajralib chiqadi. Tokka nisbatan unumni (%) aniqlang.
A) 95 B) 80 C) 75 D) 70

129. (v17-102-12) 45 g alyuminiy sulfat gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan cho'kma parchalanganda, qattiq modda elektroliz qilinganda anodga gaz ajraldi. Ayting-chi, jami qancha hajm gazlar ajralgan (anod ko'mirdan iborat)?
A) 10,24 l B) 30,24 l
C) 40,32 l D) 20,24 l

130. (v17-110-1) Har biri 20 g bo'lgan mis elektrodlari mis (II) xloridi eritmasiga tushirildi va doimiy tok o'tkazildi. Bir necha vaqtdan so'ng katod olindi va nitrat kislotada eritildi, keyin unga natriy ishqori qo'shildi. Shunda 49 g massali cho'kma ajraldi. Elektrolizdan so'ng anodning massasini (g) aniqlang.
A) 8,0 B) 23,2 C) 23,0 D) 27,2

131. (v17-110-23) 20 g bo'lgan har bir mis elektrodlar mis (II) xlorid suvli eritmasiga tushurildi va doimiy tok o'tkazildi. Birmuncha vaqtdan so'ng katod chiqarilib, nitrat kislotada eritildi, keyin natriy ishqori qo'shildi. Shunda massasi 49 g cho'kma ajraldi. Katodning massasi qancha o'zgarganini aniqlang.
A) 20% ga kamaydi
B) 15% ga oshdi
C) 30% ga oshdi
D) 60% ga kamaydi

41.2. Faradeyning I qonuni bo'yicha masalalar

1. (99-4-16) Kumush nitrat eritmasidan kuchi 8 A ga teng bo'lgan tok 1/4 soat o'tganda, elektrodda necha gramm kumush ajralib chiqadi?
A) 8,06 B) 12,08 C) 9,88
D) 7,25 E) 10,47

2. (01-1-17) Kaliy gidroksid eritmasi 80,4 soat davomida 15 A tok ishtirokida elektroliz qilindi. Qolgan eritma massasi 195 g, konsentratsiyasi 30% li kaliy gidroksid ekanligi aniqlansa, boshlang'ich eritmadagi ishqor konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 5,8 B) 19,5 C) 39
D) 14,6 E) 9,75

3. (01-1-18) Noma'lum metall xloridning suyuqlanmasi orqali 0,5 soat davomida kuchi 11,52 A bo'lgan tok o'tganda, katodda 1,94 g metall ajralib chiqdi. Qaysi metall tuzi elektrolizda qatnashgan?
A) litiy B) berilliy C) alyuminiy
D) magniy E) kalsiy

4. (01-2-59) Sulfat kislota eritmasi orqali 3 A tok kuchi 1 soat davomida o'tkazilganda ajraladigan vodorodning hajmini (n. sh.) toping.
A) 11,2 B) 1,12 C) 2,24
D) 1,25 E) 5,6

5. (01-2-69) Kaliy ishqori eritmasi orqali 6 A tok 30 min davomida o'tkazilganda (n. sh.), qancha (ml) gaz ajraladi?
A) 1805 B) 1927 C) 1792
D) 1880 E) 1427

6. (01-4-44) 10 minut davomida 7 A elektr toki kadmiy sulfat eritmasidan o'tkazilganda, katodda qancha (g) kadmiy ajraladi?
A) $1,4 \cdot 10^{-2}$ B) 1,6
C) $1,5 \cdot 10^{-2}$ D) 2,44
E) 14,6

7. (01-4-45) 15 minut davomida 1,25 A kuchga ega bo'lgan tok mis (II) sulfat eritmasidan o'tkazilsa, katodda qancha (g) mis ajralib chiqadi?
A) 0,037 B) 0,37 C) 0,75
D) 0,073 E) 0,40

8. (01-4-46) Kuchi 3 A bo'lgan tok 40 min, davomida kumush nitrat eritmasidan o'tkazilganda, katodda qancha (g) kumush ajralib chiqadi?
A) 8,06 B) 28,02 C) 16,10
D) 4,03 E) 18,05

9. (01-4-48) Kuchi 15 A bo'lgan tok 15 minut davomida mis (II) xlorid eritmasidan o'tkazilganda, qancha (l, n. sh.) xlor ajraladi?
A) 2,24 B) 1,9 C) 1,57
D) 1,30 E) 4,7

10. (01-4-49) Kumush nitrat eritmasidan massasi 6,72 g bo'lgan kumushni ajratib olish uchun 18 A kuchga ega bo'lgan tokni eritmadan qancha vaqt (s) davomida o'tkazish kerak?
A) 500,4 B) 193,2 C) 931,8
D) 913,0 E) 333,6

11. (01-4-50) Qo'rg'oshin (II) xlorid suyuqlanmasdan katodda 15 g qo'rg'oshin ajralib chiqishi uchun kuchi 2,75 A bo'lgan tokni necha soat davomida o'tkazish kerak?
A) 1,41 B) 2,15 C) 2,51
D) 1,52 E) 2,85

12. (01-4-52) Kadmiy sulfat eritmasidan katodda 3,36 g kadmiy ajralib chiqishi uchun kuchi 1,08 A ga teng bo'lgan tokni necha soat davomida o'tkazish kerak?
A) 4,46 B) 6,45 C) 4,86
D) 1,49 E) 3,93

13. (01-4-53) Tok kuchi 8 A ga teng bo'lganda, 2 mol suvni parchalashga qancha vaqt (soat) kerak bo'ladi?
A) 44,8 B) 35,74 C) 29,6
D) 33,6 E) 13,4

14. (01-4-54) 8 minut davomida xrom (III) nitrat eritmasi elektroliz qilinganda, katodda 1,56 g xrom ajralgan bo'lsa tok kuchini toping?
A) 6 B) 18,1 C) 14,4
D) 13,6 E) 12,1

15. (01-4-55) 45 minut davomida katodda 15 g mis ajralishi uchun mis (II) sulfat eritmasi orqali o'tkazilishi lozim bo'lgan tokning kuchini hisoblang?
A) 15,92 B) 15,50 C) 16,8
D) 5,84 E) 5,66

16. (01-6-22) Mis (II) nitrat va kumush nitrat aralashmasining 200 ml eritmasidan 4 soat davomida 0,402 A kuchga ega bo'lgan elektr toki o'tkazilganda, katodda har ikki metaldan hammasi bo'lib 3,44 g ajralib chiqdi. Eritmadagi tuzlarning molyar konsentratsiyalarini aniqlang.
A) 0,1 va 0,1 B) 0,1 va 0,2
C) 0,2 va 0,2 D) 1 va 1
E) 1 va 0,2

17. (01-6-25) Suvsiz rux sulfat bilan kadmiy sulfatdan iborat 2,65 g aralashma suvda eritildi. Rux bilan kadmiyni batamom ajratib olish uchun eritmadan 90 minut davomida 0,536 A kuchga ega bo'lgan elektr toki o'tkazildi. Sulfatlar aralashmasining tarkibini (g) aniqlang.
A) 1,9 va 0,65 B) 1,5 va 1,15
C) 1,3 va 1,35 D) 1,8 va 0,85
E) 1,61 va 1,04

18. (01-7-6) 40 g Na_2SO_4 va $CdSO_4$ tuzlar aralashmasi 400 ml suvda eritildi. Agar kadmiyni batamom ajratib olish uchun eritmadan 2,144 A kuchga ega bo'lgan doimiy tok 4 soat davomida o'tkazilgan bo'lsa, elektrolizdan keyin eritmada qolgan tuzning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 0,5 B) 2 C) 1,1
D) 1,61 E) 1,82

19. (01-7-46) Valentligi 3 ga teng bo'lgan metall xloridi eritmasi orqali 30 min davomida 1,5 A kuchli doimiy tok o'tkazilganda, katodda 1,071 g metall ajralib chiqqan. Shu metalni aniqlang.
A) Y B) In C) Ln D) Ga E) Cr

20. (01-8-50) Mis (II) sulfat eritmasini 2,5 soat davomida 0,6 A tok bilan elektroliz qilinganda hosil bo'ladigan sulfat kislota massasini (g) hisoblang.
A) 1,36 B) 2,74 C) 5,48
D) 6,82 E) 7,8

21. (01-9-8) Kaliy sulfat eritmasi orqali 15 A kuchli doimiy tok 24 soat davomida o'tkazilganda, anodda 70,8 l gaz mahsuloti hosil bo'lgan. Elektroliz jarayonining unumini hisoblang.
A) 0,90 B) 0,86 C) 0,94
D) 0,96 E) 0,84

22. (02-2-32) 8 soat davomida osh tuzi eritmasi orqali 2,5 A doimiy tok o'tkazilganda, anodda ajralib chiqqan mahsulot hajmini (l) hisoblang.
A) 6,35 B) 9,12 C) 8,36
D) 11,2 E) 5,6

23. (02-4-23) 300 g 10% li kaliy nitrat eritmasi orqali 5 A tok 26,8 soat davomida o'tkazilganda, eritma massasi 45 g ga kamaydi. Qolgan eritmadan tuzning, massa ulushini (%) hisoblang.
A) 12,6 B) 11,8 C) 11,3
D) 16,7 E) 17,6

24. (02-5-22) Hajmi 300 ml bo'lgan 2 M li osh tuzi eritmasi 45 min. davomida 1,5 A tok yordamida elektroliz qilindi.
Elektrolizdan keyin qolgan eritmadagi ishqor konsentratsiyasini (M) hisoblang.
A) 0,10 B) 0,11 C) 0,13
D) 0,14 E) 0,16

25. (03-3-16) $CuSO_4$ eritmasi orqali 96500 kulon zaryad o'tkazildi, anodda necha litr (n. sh.) kislorod ajralib chiqdi?
A) 2,8 B) 5,6 C) 11,2
D) 22,4 E) 0

26. (03-8-22) Mis(II) sulfat eritmasi orqali 19300 kulon elektr miqdori o'tkazilganda, katodda qancha (g) mis ajralib chiqadi?
A) 3,2 B) 6,4 C) 9,6
D) 16,0 E) 8,0

27. (04-1-462) Tok kuchi 8 A ga teng bo'lib, elektroliz $\frac{1}{4}$ soat davom etganda kumush nitrat eritmasidan necha litr (n sh.) gaz ajralib chiqadi?
A) 0,6 B) 1,2 C) 0,42
D) 0,25 E) 0,84

28. (04-1-476) Mis (II) sulfat eritmasi orqali 19300 kulon elektr miqdori o'tkazilganda, katodda qancha (g) mis ajralib chiqadi?
A) 3,2 B) 6,4 C) 9,6
D) 16,0 E) 8,0

29. (v4-103-35) Kaliy xlorid suyuqlanmasini 5 A tok bilan 30 minut elektroliz qilish natijasida anodda qanday modda va necha gramm miqdorda ajralib chiqishini aniqlang.
A) xlor; 3,3 B) xlor; 1,75
C) kaliy; 1,95 D) kaliy; 3,9
E) xlor; 5,3

30. (v4-113-35) Elektroliz jarayonining unumi 0,603 bo'lganda, 20 ml kadmiy sulfatning 0,1 M li eritmasidan barcha kadmiyni ajratib olish uchun TOK kuchi 0,5 A bo'lgandagi jarayon vaqtini (min) hisoblang.
A) 16 B) 20 C) 2,3 D) 18 E) 21,3

31. (v4-115-35) Al_2O_3 suyuqlanmasi 30000 amper tok kuchida elektroliz qilindi. Agar Al ning chiqish unumi 55% ni tashkil etsa, bir kecha-kunduzda necha kg alyuminiy olish mumkin?
A) 190,3 B) 205,7 C) 125,1
D) 212,8 E) 132,9

32. (v5-104-10) Kaliy gidroksid eritmasi orqali 1,2 A tok 3 soat davomida o'tkazildi. Katodda ajralib chiqqan vodorodning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 22,4 B) 30
C) 15 D) 1,5 E) 3

33. (v5-117-35) 350 g suvda 40 g natriy xlorid eritildi va hosil bo'lgan eritma 3,16 A tok bilan ... soat elektroliz qilinganda ishqorning miqdori 0,68 mol bo'ladi.
A) 3,9 B) 6,3 C) 5,8
D) 4,3 E) 2,4

34. (v5-138-35) 200 g 15% li natriy sulfat eritmasi orqali 10 A tok 20,1 soat davomida o'tkazildi. Eritmada qolgan tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 22,64 B) 19,58 C) 18,52
D) 16,75 E) 20,45

35. (v5-139-35) Xlorid kislotaning 10% li 200 g eritmasi orqali 2 soat davomida kuchi 1,93 A ga teng bo'lgan tok o'tkazildi. Elektrolizdan so'ng eritma konsentratsiyasi (%) qanday bo'lganligini aniqlang.
A) 6,2 B) 6,5 C) 7,6
D) 9,3 E) 8,5

36. (v7-102-23) Mis (II) sulfatning 500 ml 0,1 molyarli eritmasidan 19300 Kl elektr miqdori o'tkazilganda, katodda (inert elektrod) necha gramm mis ajraladi?
A) 3,2 B) 6,4 C) 1,6 D) 12,8

37. (v7-103-23) 19300 sekund davomida 2 A tok kuchi bilan 250 ml 0,4 molyarli kadmiy sulfat eritmasi elektroliz qilinganda, katodda (inert elektrod) ajralgan kadmiy massasini (g) hisoblang (vodorodning ajralishi hisobga olinmasin).
A) 22,4 B) 104 C) 11,2 D) 52

38. (v7-103-35) Mis (II) sulfat va kadmiy sulfatdan iborat 5,28 g aralashma suvda eritildi. Mis bilan kadmiyni batamom ajratib olish uchun eritma 193 minut davomida 0,5 A tok kuchi bilan elektroliz qilindi. Boshlang'ich aralashma tarkibidagi tuzlarning massasini (g) aniqlang.
A) 1,6; 3,68 B) 0,8; 4,48
C) 2,64; 2,64 D) 3,2; 2,08

39. (v7-107-35) Mis (II) nitrat va kumush nitratlarning 0,1 molyarli eritmalaridan 400 ml dan aralashtirilib, so'ngra 4 A tok kuchi bilan 1930 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugagandan keyin eritmada qolgan tuzning massasini (g) toping.
A) 11,28 B) 3,76 C) 3,4 D) 7,52

40. (v7-108-35) 300 ml 0,1 M rux nitrat va 200 ml 0,2 M kumush nitrat eritmalarining aralashmasi 4 A tok kuch bilan 965 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugagandan keyin eritmadagi tuzning massasini (g) toping.
A) 3,78 B) 18,9
C) 5,67 D) 1,89

41. (v7-109-35) Tarkibida mis (II) nitrat va kumush nitrat bo'lgan 100 ml eritmani 4825 sekund davomida 0,8 A tok kuchi bilan elektroliz qilinganda, katodda har ikki metaldan hammasi bo'lib 2,04 g ajralib chiqdi. Boshlang'ich eritmadagi tuzlarning konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 0,1; 0,1 B) 0,2; 0,1
C) 0,01; 0,03 D) 0,1; 0,15

42. (v7-110-35) 400 ml 0,2 M mis (II) nitrat va 200 ml 0,2 M kumush nitrat eritmalarining aralashmasi 5 A tok kuchi bilan 3860 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugagandan keyin eritmadagi modda massasini (g) toping.
A) 2,52 B) 6,3 C) 18,9 D) 12,6

43. (v7-115-35) Mis (II) sulfat bilan kadmiy sulfatdan iborat 1,72 g aralashma suvda eritildi. Mis bilan kadmiyni batamom ajratib olish uchun eritma 386 s davomida 5 A tok kuchi bilan elektroliz qilindi. Boshlang'ich aralashma tarkibini (g) aniqlang.
A) 0,8; 0,92 B) 0,4; 1,32
C) 1,2; 0,52 D) 1,08; 0,64

44. (v7-118-35) Tarkibida $MnSO_4$ bo'lgan 96,4 g kristallogidrat suvda eritildi. Agar marganetsni batamom ajratib olish uchun eritmadan 5 A tok kuchi 15440 sekund davomida o'tkazilgan bo'lsa, elektroliz uchun olingan kristallogidratning formulasini toping.
A) $MnSO_4\ 5H_2O$ B) $MnSO_4\ 2H_2O$
C) $MnSO_4\ H_2O$ D) $MnSO_4 \cdot 4H_2O$

45. (v7-131-35) Tarkibida 0,2 mol rux xlorid va 0,1 mol mis (II) xlorid bo'lgan eritma orqali 5790 sekund davomida 5 A tok o'tkazilganda anodda (inert elektrod) ajralib chiqqan modda hajmi (l, n. sh.) aniqlang.
A) 3,36 B) 6,72 C) 4,48 D) 2,24

46. (v7-133-35) 458,7 g suvda 73,3 g Na_2SO_4 va $CdSO_4$ aralashmasi eritildi. Kadmiyni batamom ajratib olish uchun eritmadan 2 A kuchga ega bo'lgan tok 24125 sekund davomida o'tkazilgan bo'lsa, elektrolizdan so'ng eritmadagi sulfat kislotaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 7,68 B) 4,9 C) 4,26 D) 3,8

47. (v7-162-35) Tarkibida 0,1 mol simob (II) xlorid va 0,2 mol mis (II) xlorid bo'lgan eritma orqali 4825 sekund davomida 10 A tok o'tkazilganda anodda (inert elektrod) ajralib chiqqan modda hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 17,75 B) 6,72 C) 21,3 D) 5,6

48. (v7-173-35) Mis (II) nitrat va kumush nitratlarning 0,1 molyarli eritmalaridan 400 ml dan aralashtirilib, so'ngra 2 A tok kuchi bilan 1930 sekund elektroliz qilindi. Elektroliz tugagandan keyin eritmada qolgan tuzning massasini (g) toping.
A) 11,28 B) 3,76 C) 3,4 D) 7,52

49. (v8-101-32) 400 ml 0,2 molyarli $Cu(NO_3)_2$ va 200 ml 0,3 molyarli $AgNO_3$ eritmalarining aralashmasi 5 A tok kuchi bilan 3860 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugaganidan keyin eritmadagi tuzning massasini (g) hisoblang.
A) 3,76 B) 1,88 C) 7,52 D) 5,64

50. (v8-102-32) Tarkibida mis (II) nitrat va kumush nitrat bo'lgan 400 ml eritma orqali 3860 Kl elektr o'tkazildi. Katodda har ikki metaldan hammasi bo'lib, 2,8 g ajralib chiqdi. Boshlang'ich eritmadagi tuzlarning konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 0,01; 0,02 B) 0,025; 0,050
C) 0,025; 0,075 D) 0,02; 0,02

51. (v8-104-21) 4825 sekund davomida 4 A tok kuchi bilan 500 ml 0,2 molyarli kumush nitrat eritmasi elektroliz qilinganda katodda (inert elektrod) ajralgan kumush massasini (g) hisoblang.
A) 1,6 B) 10,8 C) 0,8 D) 21,6

52. (v8-105-32) Tarkibida $Cu(NO_3)_2$ va $AgNO_3$ bo'lgan 500 ml eritmani 3860 sekund davomida 10 A tok kuchi bilan elektroliz qilinganda, katodda har ikki metaldan hammasi bo'lib 28 g ajralib chiqdi. Boshlang'ich eritmadagi tuzlarning konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 0,2; 0,2 B) 0,1; 0,2
C) 0,2; 0,4 D) 0,1; 0,3

53. (v8-106-32) 500 g suvda 60,4 g Na_2SO_4 va $CuSO_4$ aralashmasi eritildi. Misni batamom ajratib olish uchun eritmadan 4 A kuchga ega bo'lgan tok 9650 sekund davomida o'tkazilgan bo'lsa, boshlang'ich aralashma tarkibidagi tuzlarning massasini (g) hisoblang.
A) 42,6; 33,8 B) 21,3; 39,1
C) 28,4; 32 D) 35,5; 24,9

54. (v8-109-32) 600 ml 0,1 M mis (II) nitrat va 300 ml 0,2 M kumush nitrat eritmalarining aralashmasi 5 A tok kuchi bilan 1930 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugaganidan keyin eritmada qolgan tuzining massasini (g) aniqlang.
A) 3,76 B) 5,64 C) 9,40 D) 7,52

55. (v8-111-21) 7,8% li 300 g natriy xlorid eritmasini 48250 sekund davomida 2 A tok kuchi bilan elektroliz qilindi. Anodda (inert elektrod) ajralgan xlor massasini (g) hisoblang.
A) 7,1 B) 35,5 C) 4,48 D) 14,2

56. (v8-111-32) Tarkibida 0,2 mol $AuCl_3$ va 0,3 mol $CuCl_2$ bo'lgan eritma orqali 965 sekund davomida 8 A tok o'tkazilganda anodda (inert elektrod) ajralib chiqqan modda hajmini (ml, n. sh.) hisoblang.
A) 1344 B) 168 C) 112 D) 896

57. (v8-113-32) 447,6 g suvda 90,8 g Na_2SO_4 va $CdSO_4$ aralashmasi eritildi. Kadmiyni batamom ajratib olish uchun eritmadan 2 A kuchga ega bo'lgan tok 28950 sekund davomida o'tkazilgan bo'lsa, hosil bo'lgan eritmadagi (ρ = 1,25 g/ml) sulfat ionining konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 1,0 B) 9,8 C) 1,25 D) 0,75

58. (v8-118-21) 7,8% li 300 g natriy xlorid eritmasini 48250 sekund davomida 2 A tok kuchi bilan elektroliz qilindi. Anodda (inert elektrod) ajralgan moddalar massasini (g) hisoblang.
A) 19,0 B) 35,5 C) 4,48 D) 14,2

59. (v8-123-32) 500 ml 0,1 M mis (II) nitrat va 300 ml 0,2 M kumush nitrat eritmalarining aralashmasi 5 A tok kuchi bilan 1930 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugaganidan keyin eritmada qolgan tuzning massasini (g) hisoblang.
A) 3,76 B) 5,64 C) 9,40 D) 7,52

60. (v9-112-17) 1,25 molyarli sulfat kislota eritmasi olish uchun 1 l 0,8 molyarli sulfat kislota eritmasidan 40 A tokni qancha vaqt (sekund) davomida o'tkazish lozim?
A) 19300 B) 96500 C) 28950 D) 38600

61. (v12z-202-29) Tarkibidan $Cu(NO_3)_2$ va $AgNO_3$ bo'lgan 500 ml eritma 3 A tok kuchi bilan 1930 sekund davomida elektroliz qilinganda katodda har ikki metaldan jami 4,2 g ajralib chiqdi. Boshlang'ich eritmadagi nitrat ionining molar konsentratsiyasini toping.
A) 0,03 B) 0,09 C) 0,24 D) 0,12

62. (v12z-204-30) 8 A tok kuchi bilan 48250 sekund davomida 3 M li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda 33,6 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki eritma hajmini (ml) aniqlang.
A) 500 B) 300 C) 1000 D) 600

63. (v12z-225-15) 400 g 10% li $CuSO_4$ eritmasi elektroliz qilinganda uning massasi 23,6 g ga kamaydi. Elektrodlarda ajralib chiqqan moddalar massasini toping.
1) katodda 18,88 g Cu; 2) katodda 0,4 g H_2;
3) katodda 2 g H_2; 4) anodda 5,6 g O_2;
5) katodda 16 g Cu; 6) anodda 7,2 g O_2.
A) 3, 5, 6 B) 2, 4, 5
C) 1, 3, 4 D) 2, 5, 6

64. (v12z-252-2) 600 ml dan olingan 0,4 M li mis (II) nitrat va kumush nitrat eritmalari aralashmasi 7720 sekund davomida 4 A tok bilan elektroliz qilindi. Elektrolizdan keyin eritmada qolgan tuz(lar)ning massasini (g) hisoblang.
A) 45,2 B) 37,6 C) 75,2 D) 40,8

65. (v12c-115-24) 3 M li $CuSO_4$ eritmasi 15 A tok kuchi bilan 48250 sekund davomida elektroliz olinganda 67,2 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki eritma hajmini (ml) aniqlang.
A) 600 B) 1000 C) 500 D) 100

66. (v12c-134-10) Hajmi 600 ml bo'lgan 2 M NaOH eritmasi 360 minut davomida 15 A tok yordamida elektroliz qilindi. Elektrolizdan keyin qolgan eritmadagi ishqor konsentratsiyasini (M) toping.
A) 6,5 B) 2,4 C) 3,5 D) 2,1

67. (v15-104-13) 400 ml (ρ = 1,2 g/ml) Na_2SO_4 eritmasiga 156 ml suv qo'shildi va 8 A tok kuchi bilan 48250 sekund davomida elektroliz qilinganda 7,1% li eritma hosil bo'ldi. Dastlabki eritmaning molyar konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.
A) 0,75 B) 0,5 C) 1,5 D) 0,25

68. (v15-104-26) 12 ml HNO_3 eritmasi 2 A tok kuchi bilan 16,08 soat davomida elektroliz qilinganda 0,1M li eritma hosil bo'lsa, dastlabki eritmaning pH qiymatini aniqlang.
A) 3 B) 5 C) 4 D) 2

69. (v15-105-32) 144 g x% li $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda tarkibida massa jihatdan 62% nitrat ionini saqlovchi eritma hosil bo'ldi. Agar hosil bo'lgan eritmada NO_3 va Cu^{2+} ionlari soni nisbati 4:1 bo'lsa, eritmadan necha faradey tok o'tganini aniqlang. (Tuzning gidrolizlanishini hisobga olmang.)
A) 0,4 B) 1,6 C) 0,5 D) 0,6

70. (v15-106-20) 144 g x% li $Cu(NO_3)_2$ eritmasi elektroliz qilinganda tarkibida massa jihatdan 62% nitrat ionini saqlovchi eritma hosil bo'ldi. Agar hosil bo'lgan eritmada NO_3 va Cu^{2+} ionlari soni nisbati 4:1 bo'lsa, olingan eritmadagi tuzning konsentratsiyasini (%) toping. (Tuzning gidrolizlanishini hisobga olmang.)
A) 31,5 B) 78,33 C) 70,37 D) 47

71. (v15-108-34) 12 ml HNO_3 eritmasi (pH = 2) orqali 2 A tok kuchi 16,08 soat davomida o'tkazilganda suvning qancha (mol) miqdori elektrolizga uchraydi?
A) 1 B) 0,6 C) 1,2 D) 10,8

72. (v15-110-26) Kaliy nitratning 30°C da to'yingan 150 g eritmasi 10 A tok bilan 71410 sekund davomida etektroliz qilindi. Agar kaliy nitrat 30°C da 26% tuz saqlasa, cho'kmaga tushgan tuz massasini (g) aniqlang.
A) 39 B) 15,6 C) 23,4 D) 66,6

73. (v15-111-2) 20°C da to'yingan 200 g natriy nitrat eritmasi 4,44 F tok bilan elektroliz qilindi. Bunda eritma massasi 50 g ga kamaydi. 20°C da to'yingan eritmaning eruvchanlik koeffitsiyentini aniqlang.
A) 15 B) 30 C) 25 D) 45

74. (v15-111-35) 12 ml HNO_3 eritmasi (pH = 2) necha amper tok kuchi bilan 16,08 soat davomida elektroliz qilinsa 0,1M li eritma hosil bo'ladi?
A) 3 B) 2 C) 4 D) 1

75. (v15-112-5) 400 ml (ρ = 1,2 g/ml) 0,75M li Na_2SO_4 eritmasiga 156 ml suv qo'shildi va 8 A tok kuchi bilan elektroliz qilinganda 7,1% li eritma hosil bo'ldi. Eritma necha sekund davomida elektroliz qilingan?
A) 48250 B) 38600 C) 96500 D) 19300

76. (v15-116-13) 12 ml HNO_3 eritmasi (pH = 2) 2 A tok kuchi bilan 16,8 soat davomida elektroliz qilingandan so'ng hosil bo'lgan eritmaning pH qiymatini aniqlang.
A) 0,1 B) 1 C) 0,01 D) 0,6

77. (v15-118-2) 12 ml HNO_3 eritmasi (pH = 2) 2 A tok kuchi biian 16,08 soat davomida elektroliz qilingandan so'ng hosil bo'lgan eritmaning pH qiymatini aniqlang.
A) 1 B) 0,01 C) 0,1 D) 0,6

78. (v15-118-22) Kaliy nitratning 25°C da to'yingan 210 g eritmasi 5 A tok bilan 38600 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz so'ngida 180 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Cho'kmaga tushgan tuz massasini (g) aniqlang.
A) 25 B) 12 C) 84 D) 72

79. (v15-119-25) 12 ml HNO_3 eritmasi (pH = 2) 2 A tok kuchi bilan 16,08 soat davomida elektroliz qilingandan so'ng hosil bo'lgan eritmaning hajmini (ml) aniqlang.
A) 5,3 B) 1,2 C) 6,8 D) 10,8

80. (v15-124-30) Kaliy nitratning 25°C da to'yingan 210 g eritmasi 5 A tok bilan necha sekund davomida elektroliz qilinganda 180 g to'yingan eritma hosil bo'ladi? Kaliy nitrat 25°C da 40% tuz saqlaydi.
A) 48250 B) 24125 C) 38600 D) 96500

81. (v15-124-34) 12 ml HNO_3 eritmasi (pH = 2) 2 A tok kuchi bilan necha soat davomida elektroliz qilinsa, 0,1M li eritma hosil bo'ladi?
A) 96,4 B) 57,9 C) 26,8 D) 16,08

82. (v16-104-27) 777,6 kg Al olish uchun qancha vaqt davomida Al_2O_3 suyuqlanmasini elektroliz qilish kerak. Tok kuchi 96500 A.
A) 26,6 soat B) 25,1 soat
C) 24 soat D) 1,5 sutka

83. (v17-104-1) 5 A tok bilan 26,8 soat davomida 0,2 kg KOH eritmasi elektroliz qilindi. Eritmaning pH qiymati 13 ga teng bo'lsa (ρ = 1,55 g/mol), dastlabki eritmaning massa ulushini (%) toping.
A) 0,85 B) 0,28 C) 0,24 D) 0,015

84. (v17-109-34) 48250 sekund davomida 20°C haroratda 350 g eritmadan 10 A tok kuchi o'tkazildi. 260 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Necha gramm tuz cho'kmaga tushdi?
A) 20 B) 22 C) 45 D) 35

85. (v17-113-9) 200 ml $CuSO_4$ 0,2 molyarli eritmadan 1930 kulon elektron o'tqazildi. Elektrolizdan so'ng qolgan modda massasini aniqlang.
A) 0,98
B) 4,8
C) 6,76
D) 5,78

86. (v17-117-28) 200 ml 1 M li AgNO eritmasi inert elektrodlar yordamida elektroliz qilinganda katodda 23 g modda ajraldi. Eritmadan necha faradey tok o'tganini aniqlang.
A) 1,6 B) 0,4 C) 1,4 D) 0,8

87. (v17-118-4) Bir metall tuzining suvdagi eritmasi orqali 4 soat davomida 2,66 amper tok o'tkazilsa, 8,4 g metall ajralib chuqadi. Tokka nisbatan unum 75% bo'lsa, metallning kimyoviy ekvivalentini aniqlang.
A) 28 B) 26 C) 29 D) 32

88. (v17-123-29) 67,73% li kumush nitratning 50,2 g eritmasi to'liq elektroliz qilinganda tarkibida 2,5 N_A ta atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Eritmadan necha faradey tok o'tganini hisoblang.
A) 0,6 B) 0,2 C) 1 D) 0,8

41.3. Faradeyning II qonuni bo'yicha masalalar

1. (00-1-53) Doimiy tok manbaiga ketma-ket ulangan $AgNO_3$, $CuSO_4$ va $AuCl_3$ eritmalari orqali 20 minut davomida kuchi 5 A bo'lgan tok o'tkazildi. Katodlarda hosil bo'lgan metallarning yuqoridagi qator tartibidagi massalari (g) quyidagilardan qaysi biriga mos keladi?
A) 1, 1, 1 B) 2, 5; 2, 1
C) 6, 7; 2, 4 D) 2, 5, 1 E) 4, 6, 7; 3

2. (01-12-12) Elektrodlari ketma-ket ulangan ikki idishning birida osh tuzi, ikkinchisida natriy yodid eritmalari bo'lib, ulardan bir xil miqdordagi elektr toki o'tkazilganda, ikkinchi idishdi 5,08 g yod hosil bo'ldi. Birinchi idishdagi elektroliz mahsulotining massasini (g) aniqlang.
A) 1,42 B) 8,14 C) 2,64
D) 3,06 E) 6,5

3. (v5-116-35) Tok ketma-ket $AgNO_3$, $CuSO_4$, $HClO_4$ ning suvdagi eritmalari orqali o'tadi. Agar 0,108 g kumush ajralib chiqqan bo'lsa, necha gramm mis va qancha (ml) vodorod ajralgan?
A) 0,032; 0,011 B) 0,032; 0,001
C) 0,064; 22,4 D) 0,032,11,2
E) 0,016; 5,6

4. (v7-106-23) Birinchi elektrolizerda 1 mol, ikkinchisida 2 mol mis (II) sulfat bo'lgan eritmalar orqali 4 faradey tok o'tganda katodlarda hosil bo'lgan moddalar massalarini (g) aniqlang.
A) 66; 128 B) 128; 128
C) 64; 64 D) 64; 128

5. (v7-108-23) Birinchi elektrolizerda 1,5 mol, ikkinchisida 2,5 mol mis (II) sulfat bo'lgan eritmalar orqali 5 faradey tok o'tganda katodlarda ajralib chiqqan moddalar massalarini (g) aniqlang.
A) 96; 160 B) 160; 160
C) 98; 160 D) 64; 64

6. (v7-178-35) Tarkibida 0,6 mol $AgNO_3$, 0,2 mol $CuSO_4$ va 0,15 mol $AuCl_3$ bo'lgan eritmalar tok manbaiga ketma-ket ulangan. Eritmalar orqali 48250 Kl tok miqdori o'tkazilganda katodlarda (inert elektrod) ajralgan moddalar (berilgan tartibda) massasini (g) aniqlang.
A) 54; 16; 32,83 B) 64,8; 12,8; 29,55
C) 54; 12,9; 29,6 D) 108; 64; 197

7. (v8-102-21) Birinchi elektrolizerda 2 mol, ikkinchisida 4 mol natriy xlorid bo'lgan eritmalar orqali 4 faradey tok o'tganda anodlarda (inert elektrod) ajralib chiqqan moddalar massalarini (g) hisoblang.
A) 142, 142 B) 71, 142
C) 87, 142 D) 71, 71

8. (v8-114-21) Birinchi elektrolizerda 1 mol, ikkinchisida 2 mol kumush nitrat bo'lgan eritmalar orqali 4 faradey tok o'tganda katodlarda (inert elektrod) ajralib chiqqan moddalar massalarini (g) hisoblang.
A) 432, 432 B) 108, 216
C) 216, 216 D) 111, 218

9. (v8-125-21) Birinchi elektrolizerda 2 mol, ikkinchisida 3 mol mis (II) sulfat bo'lgan eritmalar orqali 6 faradey tok o'tganda katodlarda (inert elektrod) ajralib chiqqan moddalar massalarini (g) hisoblang.
A) 128, 192 B) 192, 192
C) 130, 192 D) 128, 128

10. (v9-115-30) 195 g 6% li natriy xlorid va 500 g 9% li natriy yodid eritmalar bo'lgan, parallel ulangan elektrolizerlar orqali doimiy elektr toki o'tkazilganda, ikkinchi eritmadan 38,1 g yod ajraldi. Birinchi elektrolizerdagi katod va anodda hosil bo'lgan mahsulotlar massalari yig'indisini (g) hisoblang.
A) 8,2 B) 10,95 C) 7,4 D) 11,25

11. (v9-126-28) 500 g 7,45% li kaliy xlorid va 1000 g 11,62% li kaliy yodid eritmalar bo'lgan, parallel ulangan elektrolizerlar orqali doimiy elektr toki o'tkazilganda, ikkinchi eritmadan 88,9 g yod ajraldi. Birinchi elektrolizerdagi katod va anodda hosil bo'lgan mahsulotlar massalari yig'indisini (g) hisoblang.
A) 25,55 B) 20,05 C) 8,2 D) 18,25

12. (v11-101-12) Birinchi elektrolizerda 2 mol, ikkinchisida 3 mol mis (II) sulfat bo'lgan eritmalar orqali 5 faradey tok o'tganda katodlarda (inert elektrod) ajralib chiqqan moddalar massalarini (g) hisoblang.
A) 128, 128 B) 129, 160
C) 130, 192 D) 192, 192

13. (v12c-133-34) Tarkibida 0,4 mol $AgNO_3$, 0,4 mol $NaNO_3$, 0,3 mol $CuSO_4$ bo'lgan eritmalar solingan elektrolizer tok manbaiga ketma-ket ulangan. Eritmalar 12,5 A tok yordamida 3860 sekund davomida elektroliz qilingan bo'lsa, katodlarda (inert elektrod) ajralgan moddalar massasini (g) (mos ravishda) aniqlang.
A) 43,2; 1,5; 16 B) 43,3; 0,5; 16
C) 43,2; 11,5; 16 D) 43,2; 9,2; 16

14. (v13-103-34) Tarkibida 0,4 mol $AgNO_3$, 0,2 mol $AuCl_3$, 0,15 mol $CuSO_4$ bo'lgan eritmalar solingan elektrolizyorlar tok manbaiga ketma-ket ulangan. Eritmalar 6,7 A tok yordamida 2 soat davomida elektroliz qilingan bo'lsa, katodlarda (inert elektrod) ajralgan moddalar massasini (g) (mos ravishda) aniqlang.
A) 42,3; 32,8; 9,8 B) 21,65; 32,6; 9,6
C) 43,2; 32,6; 9,5 D) 43,3; 32,8; 9,8

15. (v13-120-12) Tarkibida 0,25 mol $AgNO_3$, 0,25 mol $AuCl_3$, 0,25 mol $CuSO_4$ bo'lgan eritmalar solingan elektrolizyorlar tok manbaiga ketma-ket ulangan. Eritmalar 6,7 A tok yordamida 2 soat davomida elektroliz qilingan bo'lsa, katodlarda (inert elektrod) ajralgan moddalar massasini (g) (mos ravishda) aniqlang.
A) 25; 32,8; 15 B) 27,25; 32,8; 16
C) 13,62; 32,6; 16 D) 28,25; 32,8; 14

16. (v13-146-12) Bir xil massada o'lchangan va biri kumushdan, qolganlari noma'lum metallardan yasalgan 3 ta kulonometrlardan 4 A tok 965 sek davomida o'tkazildi. Buning natijasida 2-kulonometr katodining massasi 1 siga nisbatan 3,02 g, 3-kulonometr katodining massasi 1-siga nisbatan 2,08 g kamaygani aniqlandi. Noma'lum metallarni toping.
A) Cu, Cd B) Zn, Fe
C) Zn, Cd D) Cu, Fe

17. (v15-130-31) Uchta kulonometrdan elektr toki o'tkazildi. Elektroliz jarayonida Cu kulonometr katodining massasi esa 0,24 g ga, ikkinchi kulonometr katodining massasi esa 0,42 g ga, uchinchisiniki 0,81 g ga ortdi. Ikkinchi va uchinchi kulonometrlarning elektrodlari qaysi metallardan yasalganligini aniqlang.
A) Cd; Ag B) Cu; Cd
C) Zn; Cd D) Mg; Fe

42. Kombinatsiyalangan masalalar

1. (99-7-36) 15% li eritmaning 80 g miqdoridagi alyuminiy xloridni tetragidroksoalyuminatga o'tkazish uchun 25% li natriy gidroksidning (ρ = 1,27 g/ml) eritmasidan necha millilitr olish kerak?
A) 503,3 B) 230,1 C) 181,2
D) 73,7 E) 45,3

2. (01-1-33) Konsentratsiyasi 60% bo'lgan nitrat kislota (zichligi 1,37 g/ml) bilan fosforni oksidlab olingan ortofosfat kislotadan o'rta tuz hosil qilish uchun 10% li kaliy gidroksidning 60 ml eritmasi (ρ = 1,09 g/ml) sarf bo'lgan. Fosfor oksidlanishida azot (II) oksid hosil bo'lgan deb hisoblang va reaksiyada qatnashgan nitrat kislota hajmini toping.
A) 5,0 B) 10,2 C) 15,3
D) 8,3 E) 16,6

3. (01-2-82) 100 ml 34% li (ρ = 1,113 g/sm^3) vodorod peroksiddan qancha hajm kislorod (n. sh.) olish mumkin?
A) 14,6 B) 12,5 C) 18,3
D) 11,2 E) 5,6

4. (01-3-36) 20% li 80 ml (ρ = 1,12 g/ml) o'yuvchi kaliy eritmasi bilan 15% li 102 ml (ρ = 1,17 g/ml) xlorid kislota eritmalari aralashtirildi. Eritmadagi moddalarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida hosil bo'lgan tuzning eritmadagi massa ulushini (%) toping.
A) 11,4 B) 23,8 C) 16,8
D) 8,6 E) 9,7

5. (01-7-19) 75% li H_2SO_4 eritmasida soda kristallari eritildi. Eritmada neytrallanish reaksiyasi oxirigacha sodir bo'lganda hosil bo'lgan eritmadagi tuzning konsentratsiyasi (%) ni toping.
A) 73,7 B) 75,5 C) 70,8
D) 71,3 E) 76,2

6. (01-10-45) 200 g kaliy yodidning 16,6% li eritmasini to'la elektroliz qilib, olingan eritmaga fosfat kislotaning 19,6% li eritmasidan 50 g qo'shilganda, kaliyning qaysi tuzi hosil bo'ladi? 1) fosfat; 2) gidrofosfat; 3) digidrofosfat.
A) 1 B) 2, 3 C) 3 D) 2 E) 1, 2

7. (02-3-11) Tarkibida 1,46% xlorid kislota va 0,544% rux xlorid bo'lgan eritmaning 250 g miqdoriga tegishli massada rux karbonat qo'shilganda, eritmadagi rux xloridning massa ulushi ikki marta ko'paygan. Hosil bo'lgan eritmadagi xlorid kislotaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 1,09 B) 1,16 C) 1,29
D) 1,27 E) 1,32

8. (02-12-33) 300 g 5% natriy ishqori eritmasini neytrallash uchun 8% li xlorid kislota eritmasi ishlatildi. Hosil bo'lgan tuzning 20% li eritmasini olish uchun necha gramm suvni bug'latish kerak?
A) 361,55 B) 372,45
C) 429,6 D) 355,65
E) 366,66

9. (03-2-3) 20 ml sulfat kislota eritmasidan foydalanib, 0,233 g bariy sulfat hosil qilish mumkin. Shuni hisobga olib, 150 ml sulfat kislota eritmasini neytrallash uchun 8% li natriy ishqori eritmasidan (ρ = 1,09 kg/l) necha millilitr kerakligini toping.
A) 6,9 B) 13,76
C) 14,7 D) 16,31
E) 17,4

10. (03-2-19) O'yuvchi kaliyning 2 M li eritmasining 250 ml miqdoriga natriy bo'lakchasi tashlandi. Hosil bo'lgan eritmani to'liq neytrallash uchun sulfat kislotaning 25% li (ρ = 1,18 kg/l) eritmasidan 166 ml sarflandi. Natriy bo'lakchasining massasini toping.
A) 11,5 B) 23 C) 46
D) 5,75 E) 50

11. (03-2-22) Zichligi 1,83 kg/l bo'lgan sulfat kislotaning 94% li suvdagi eritmasining 16,4 ml miqdoriga 16 g natriy metali ta'sir ettirilganda ajratib chiqadigan vodoroddan qancha hajm (n. sh. da) ammiak olish mumkin?
A) 11,2 B) 3,0 C) 5,2
D) 7,8 E) 6,4

12. (04-1-330) 20% li 80 ml (ρ = 1,12 g/ml) o'yuvchi kaliy eritmasi bilan 15% li 102 ml (ρ = 1,17 g/ml) xlorid kislota eritmalari aralashtirildi. Eritmadagi moddalarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida qaysi moddadan qancha (mol) ortib qiladi?
A) 11,4; KOH
B) 23,8; HCl
C) 1,6; KOH
D) 0,17; HCl
E) 0,97; HCl

13. (04-1-677) Necha kilogramm natriy nitratdan 20% li 200 l (ρ = 1,12 g/sm^3) nitrat kislota eritmasini tayyorlash mumkin?
A) 48,6 B) 54,0 C) 57,4
D) 51,0 E) 60,4

14. (05-1-283) 50 g kaliy yodidning 33,2% li eritmasini to'la elektroliz qilib olingan eritmaga fosfat kislotaning 39,2% li eritmasidan 25 g qo'shilganda, kaliyning qaysi tuzi hosil bo'ladi? 1) fosfat; 2) gidrofosfat; 3) digidrofosfat.
A) 1 B) 2, 3 C) 3 D) 2 E) 1, 2

15. (v5-111-28) Konsentratsiyasi 94% bo'lgan nitrat kislota (ρ = 1,49 g/ml) bilan misni oksidlab olingan gaz kislorod ishtirokida suvda eritildi va hosil bo'lgan kislotani neytrallash uchun 23,8 ml 10% li natriy gidroksid (ρ = 1,11 g/ml) sarf bo'ldi. Mis bilan reaksiyaga qatnashgan nitrat kislota hajmi (ml) – ... .
A) 6,47 B) 5,94 C) 12,3
D) 7,42 E) 8,72

16. (v5-113-24) Xlorid kislotaning 7,3% li 400 g eritmasiga 300 g natriy karbonat eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan aralashmani to'liq neytrallash uchun kaliy gidroksidning 22,4% li eritmasidan 0,05 kg sarflandi. Natriy karbonat eritmasi necha foizli bo'lganligini aniqlang.
A) 8,3 B) 11,8 C) 10,6
D) 9,5 E) 13,4

17. (v5-140-29) 2,5 g ikki valentli metall karbonatiga nitrat kislota ta'sir ettirilganda 4,1 g metall nitrati hosil bo'ldi. Bu qaysi metall?
A) Fe B) Mg C) Ca
D) Co E) Cu

18. (v6-108-26) 500 ml alyuminiy yodid (0,02 mol/l) eritmasidagi alyuminiy ionini to'la cho'ktirish uchun natriy karbonatning 0,15 molyarli eritmasidan ... ml zarur bo'ladi
A) 66,7 B) 100 C) 56,8 D) 150

19. (v6-139-26) 0,5 l natriy karbonat (0,12 mol/l) eritmasiga 13,32 g alyuminiy sulfat kristallogidrati ($Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$) qo'shilganda hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 1,32 B) 4,68 C) 3,12 D) 1,56

20. (v7-102-26) 0,6 g H_2 bilan 14,2 g Cl_2 aralashmasi o'zaro ta'sirlashgandan keyin, reaksiya mahsuloti 85,4 ml suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmaning (ρ = 1,25 g/ml) molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 5 B) 7,5 C) 6 D) 4

21. (v7-104-27) 100 g 98% li sulfat kislota eritmasi to'la neytrallanguncha unga kristallik soda solindi. Hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 41,5 B) 36,8 C) 32,3 D) 49

22. (v7-160-25) Tarkibida 0,8% natriy gidroksid va 1,06% natriy karbonat bo'lgan 200 g eritmaga, natriy gidrokarbonatning 200 g eritmasi qo'shilganda natriy gidroksidning massa ulushi 0,2% gacha kamaygan. Hosil bo'lgan eritmadagi karbonat anionining massa ulushini (%) aniqlang (α = 100%).
A) 0,6 B) 1,06
C) 0,8 D) 0,2

23. (v8-107-24) 435 g 12% li noma'lum metall nitratining eritmasiga ekvimolyar nisbatda olingan, suvda yaxshi eriydigan sulfat kislota tuzining 355 g 8% li eritmasi qo'shilganda 46,6 g cho'kma tushdi. Hosil bo'lgan eritmadagi kationning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 2,2 B) 4,5 C) 3,8 D) 2,3

24. (v8-117-24) 400 ml 1,5 molyarli kaliy gidrosulfit va 200 ml kaliy sulfit eritmalari aralashtirildi. Ushbu eritmaga 200 ml kaliy gidroksid eritmasi qo'shilganda, eritmadagi kaliy gidrosulfit konsentratsiyasi 0,5 mol/l gacha kamaydi. Eritmaga qo'shilgan kaliy gidroksid eritmasining konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 1,0 B) 0,8 C) 0,4 D) 0,6

25. (v9-106-26) Natriy xlorid eritmasi elektroliz qilinganda 8,4 l (n. sh.) xlor olindi. Hosil bo'lgan eritma 0,25 mol fosforning konsentrlangan nitrat kislota bilan ta'sirlashuvidan olingan fosfat kislota eritmasi bilan aralashtirildi. So'nggi eritmada hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 30 B) 35,5
C) 34 D) 41

26. (v9-108-35) 200 ml 14,6% li xlorid kislota eritmasi (ρ = 1,25 g/ml) bilan 250 g 21,2% li natriy karbonat eritmasi aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmadagi moddaning massa ulushini aniqlang.
A) 0,122 B) 0,585 C) 0,292 D) 0,117

27. (v9-110-16) 10 ml sulfat kislota va 0,1 molyarli 18 ml natriy gidroksid eritmalari aralashtirildi. Ushbu eritmani to'la neytrallash uchun 4 ml 0,2 mol/l li xlorid kislota sarflandi. Sulfat kislotaning konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 0,005 B) 0,05
C) 0,001 D) 0,1

28. (v9-110-23) 0,73% xlorid kislota, 0,272% rux xlorid tutgan 50 g eritmaga tegishli massada (g) rux karbonat qo'shilganda eritmadagi rux xloridning massa ulushi ikki marta ko'paygan bo'lsa, hosil bo'lgan eritmadagi xlorid kislotaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 0,35 B) 0,58 C) 0,82 D) 0,47

29. (v9-111-13) Natriy xlorid eritmasi elektroliz qilinganda 2,8 l (n. sh.) xlor olindi. Hosil bo'lgan eritma 7,75 g fosforning konsentrlangan nitrat kislota bilan ta'sirlashuvidan olingan fosfat kislota eritmasi bilan aralashtirildi. So'nggi eritmada hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 34 B) 45 C) 58 D) 30

30. (v9-126-3) 10 ml sulfat kislota va 0,1 molyarli 36 ml natriy gidroksid eritmalari aralashtirildi. Ushbu eritmani to'la neytrallash uchun 8 ml 0,2 mol/l li xlorid kislota sarflandi. Sulfat kislotaning konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.
A) 0,005 B) 0,1 C) 0,05 D) 0,001

31. (v12z-220-13) 88 g $NaNO_3$ ning suvli eritmasi tarkibida $25{,}284 \cdot 10^{23}$ dona kislorod atomi bor. Eritmaning massa ulushini 30% qilish uchun necha ml suv qo'shish kerak?
A) 28,16 B) 25,33
C) 48,14 D) 26,45

32. (v12z-237-29) $6{,}622 \cdot 10^{23}$ dona kislorod atomi saqlovchi 21,6 g HNO_3 ning suvli eritmasiga 10 g kislota qo'shilsa, necha foizli eritma hosil bo'ladi?
A) 70,15 B) 58,48
C) 62,14 D) 71,51

33. (v12c-101-2) 9,75 g NaOH va $Ba(OH)_2$ aralashmasi 80,25 ml suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmani neytrallash uchun 250 ml 0,52 M li HCl eritmasi talab etilsa, dastlabki eritmadagi NaOH ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 1,33 B) 4,5 C) 3,6 D) 2,5

34. (v12c-120-16) 9,75 g NaOH va $Ba(OH)_2$ aralashmasi 80,25 ml suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmani neytrallash uchun 250 ml 0,52 M li HCl eritmasi talab etilsa, dastlabki eritmadagi moddalarning mol nisbatlarini aniqlang.
A) 2,3 B) 1,3 C) 5,2 D) 3,5

35. (v13-101-5) 0,1 M li 400 g (ρ = 1,25 g/ml) alyuminiy sulfat eritmasidagi sulfat anionining mol miqdorini toping (suvning dissotsialanishi hisobga olinmasin). Gidrolizlanish darajasi 5% ga teng.
A) 0,162 B) 0,061 C) 0,07 D) 0,096

36. (v13-102-31) 0,1 M li 400 g (ρ = 1,25 g/ml) alyuminiy sulfat eritmasidagi kation va anionlar mollarining yig'indisini toping (suvning dissotsialanishi hisobga olinmasin). Gidrolizlanish darajasi 5% ga teng.
A) 0,162 B) 0,166 C) 0,07 D) 0,061

37. (v13-106-24) 0,1 M li 400 g (ρ = 1,25 g/ml) alyuminiy sulfat eritmasidagi kation va anionlar mollarining nisbatini toping (suvning dissotsialanishi hisobga olinmasin). Gidrolizlanish darajasi 5% ga teng.
A) 1:2 B) 1:3,26 C) 2:3 D) 1:1,36

38. (v13-121-16) 400 g $NiSO_4$ eritmasidan namma Ni siqib chiqarilgunga qadar 4 soat davomida 4,288 A tok bilan elektroliz qilindi. Hosil bo'lgan eritma massasi 20 marta ko'paygunca suyultirilsa, uning pH qiymati qanday bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 13 D) 10

39. (v13-147-6) 100 g noma'lum foizli mis (II) sulfat eritmasi elektroliz qilinganda hosil bo'lgan kislotaning massa ulushi dastlabki tuzning massa ulushiga teng bo'lsa, mis (II) sulfat necha foizli edi (tuzning hammasi elektroliz bo'lgan)?
A) 77,5 B) 80,5
C) 87,52 D) 70,5

40. (v14-110-10) 0,28% li KOH ning 200 g eritmasi 96500 sekund davomida elektroliz qilinganda eritmaning pH qiymati 13 ga teng bo'ldi (ρ = 1,55 g/ml). Eritmadan o'tgan tok kuchini (A) aniqlang.
A) 4 B) 2 C) 5 D) 9

41. (v14-111-9) 0,2 kg 16% li mis (II) sulfat eritmasi to'liq elektroliz qilinganda 17,5% li eritma olindi. Eritmadan necha faradey tok o'tganini aniqlang.
A) 8,4 B) 8 C) 2,4 D) 0,4

42. (v15-102-30) Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotaning 54,6 g 10 molyalli eritmasida eritilganda, H_2 gazi ajraldi va metall xloridining 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan metall xlorid molyalligini aniqlang.
A) 5 B) 6 C) 4 D) 3

43. (v15-112-9) Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotaning 54,6 g 10 molyalli eritmasida eritilganda H_2 gazi ajraldi va metall xloridining 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan metall xlorid massasini (g) aniqlang.
A) 25,4 B) 19 C) 26,4 D) 22,2

44. (v15-127-32) Bariy xloridning 40% li 300 g eritmasiga necha gramm glauber tuzi qo'shilsa, bariy xloridning massa ulushi 20% ga teng bo'ladi?
A) 78,9 B) 85,56 C) 96,9 D) 89,5

45. (v16-111-11) Kaliy nitratning 30°C da to'yingan eritmasi 10 A tok bilan 71410 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz so'ngida 60 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Agar kaliy nitrat 30°C da 26% tuz saqlasa, dastlabki to'yingan eritma massasini (g) aniqlang.
A) 150 B) 250 C) 111 D) 200

46. (v16-114-6) 0,28% li KOH ning 0,2 kg eritmasi 96500 sekund davomida elektroliz qilinganda eritmaning pOH qiymati 1 ga teng bo'ldi (ρ = 1,55 g/ml). Eritmadan o'tgan tok kuchini (A) aniqlang.
A) 5 B) 4 C) 2 D) 9

47. (v16-115-18) 20°C da to'yingan 200 g natriy nitrat eritmasi 4,44 F tok bilan elektroliz qilindi. Bunda eritma massasi 50 g ga kamaydi. 20°C da to'yingan eritmaning eruvchanlik koeffitsiyentini aniqlang.
A) 15 B) 30 C) 25 D) 45

48. (v16-121-28) 400 ml (ρ = 1,2 g/ml) 0,75 M li Na_2SO_4 eritmasiga 156 ml suv qo'shildi va 8 A tok kuchi bilan 48250 sekund davomida elektroliz qilindi. Hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
A) 3,55 B) 28,4 C) 7,1 D) 14,2

49. (v16-129-15) Natriy nitratning 20°C da to'yingan 350 g eritmasi 10 A tok bilan necha sekund davomida,elektroliz qilinganda, 260 g to'yingan eritma hosil bo'ladi? Natriy nitrat 20°C da 50% tuz saqlaydi.
A) 38600 B) 96500
C) 48250 D) 24125

50. (v17-105-4) Agar 73 g eritmada kislorod atomi $18{,}06 \cdot 10^{23}$ ni tashkil etsa, eritmadagi kaliy gidroksidi massa ulushini (%) aniqlang.
A) 56,0 B) 38,4 C) 22,4 D) 28,0

51. (v17-106-10) 400 g bariy xlorid eritmasiga 200 g noma'lum bir valentli metall sulfat eritmasidan tegishli miqdorda qo'shilganda eritmaning massasi 23,3 g ga kamaydi. Agar noma'lum metall sulfat eritmasining foiz konsentratsiyasi bariy xlorid

eritmasining foiz konsentratsiyasidan 3,5% a ko'p bo'lsa, noma'lum metall sulfatni aniqlang.
A) Rb_2SO_4 B) Li_2SO_4
C) Na_2SO_4 D) K_2SO_4

52. (v17-106-20) 0,2 mol $Na_2SO_4 \cdot 6H_2O$ tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib 0,8 molyalli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok bilan 19300 sekund davomida elektroliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang.
A) 96,4 B) 246,4
C) 80,2 D) 182

53. (v17-107-23) 40 g X% li NaOH eritmasiga 60 g Y% li NaOH eritma qo'shib 24% li eritma olindi. Agar 40 g X% li eritmaga Y% li eritma tarkibidagicha suv qo'shilsa necha foizli eritma olinadi? (X/Y = 0,5 ga teng)
A) 15 B) 14,6 C) 7,3 D) 6,4

54. (v17-108-4) 0,3 mol $Na_2SO_4 \cdot 7H_2O$ tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib, 3 molli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok bilan 19300 sekund davomida elektroliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang.
A) 182 B) 246,4 C) 96,4 D) 80,2

55. (v17-110-5) Mis (II) xloridi eritmasiga har biri 20 g bo'lgan mis elektrodlari tushirildi va ulardan doimiy tok o'tkazildi. Birmuncha vaqtdan keyin katod chiqarildi va nitrat kislotada eritildi, so'ng natriy ishqoridan mo'lroq qo'shildi. Shunda massasi 49 g cho'kma tushdi. Anodda ajralgan gazning massasini (g) aniqlang.
A) 6 B) 3 C) 0,375 D) 0

56. (v17-111-1) 240 g 40% li magniy sulfat eritmasini 20% li natriy fosfat eritmasi bilan aralashtirildi. Agarda olingan eritmada hosil bo'lgan tuzning massa ulushi magniy sulfat massa ulushidan 3,55 barobar katta bo'lsa, natriy fosfat eritmasining dastlabki massasini (g) aniqlang.
A) 492 B) 164 C) 246 D) 328

57. (v17-111-35) 40 g X% li NaOH eritmasiga 60 g Y% li NaOH eritmasi qo'shildi. Natijada 24% li eritma olindi. Agar eritmalar konsentratsiyalari nisbati mos ravishda 1:2 kabi bo'lsa, 60 g Y% li eritmada necha gramm NaOH bo'ladi?
A) 26 B) 18 C) 24 D) 30

58. (v17-112-6) 0,28% li KOH ning 0,2 kg eritmasi 96500 secund davomida elektroliz qilinganda eritmaning pOH qiymati 1 ga teng bo'ldi (ρ = 1,55 g/ml). Eritmadan o'tgan tok kuchni (A) aniqlang.
A) 4 B) 9 C) 5 D) 2

59. (v17-114-36) 300 g 75% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 45% li eritma hosil bo'ladi?
A) 250 B) 200 C) 150 D) 300

60. (v17-115-11) 0,6 mol $X(NO_3)_3$ tuz suvda eritilishidan olingan eritmada jami ion va molekulalar soni 1,8 N_A dona bo'lsa va tuzning dissotsialanishidan olingan X^{3+} kationining massasi 10,8 g ga teng bo'lsa, noma'lum metallni aniqlang (tuzning gidrolizlanishini va suvning dissotsialanishini hisobga olmang).
A) Mn B) Cr C) Fe D) Al

61. (v17-117-13) Dissotsiyalanish reaksiyasida H_3PO_4 va H_2SO_4 mavjud. Bu kislotalar dissotsiyalanishdan oldin mollari 2 va 3 ga teng. Dissotsiyalanish unumi 60% ga teng bo'lsa, ikkinchi bosqichda ketgan vodorodlar ionidan qancha massa sulfit kislota olish mumkin?
A) 245 g B) 155 g C) 153 g D) 246 g

62. (v17-117-34) 176 g $CuSO_4$ ning x% li eritmasi elektrolizga uchradi. Hosil bo'lgan eritmaning kontsentratsiyasi SO_4^{-2} = 40% va mollar nisbati SO_4^{-2}/Cu^{2+} = 3/1 ga teng.
Olingan eritmaning massasini aniqlang.
A) 186 B) 144 C) 162 D) 136

63. (v17-118-28) Massasi 84 g bo'lgan XCl_2 va YCl_3 0,6 mol suyuqlanmasidan metallni to'liq ajratish uchun 38600 sekund davomida kuchi 4 A tok o'tkazildi. Agar Y molekulyar massasi X dan 32 g ko'p bo'lsa, uch valentli metallning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 16,2 B) 26,6 C) 14,3 D) 33,6

64. (v17-120-12) Bishofit va glauber tuzidan iborat aralashma tarkibida barcha suv ajralib chiqquncha qizdiriladi va qizdirish to'xtatilgandan so'ng metallarning massa ulushi 2,18 marta oshgan bo'lsa, boshlang'ich aralashma mol nisbatini aniqlang.
A) 1:1 B) 1:3 C) 3:2 D) 2:4

65. (v17-122-9) 95,5 g NaCl x% li eritmasi elektrolizga uchratildi. Tarkibida Na^+ ioni 25% bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Agar olingan eritmada Na^+/Cl^- = 4/1 bo'lsa, hosil bo'lgan tuzning konsentratsiyasini aniqlang.
A) 14,1 B) 15,9 C) 16,2 D) 15,0

66. (v17-122-25) 300 g magniy sulfat eritmasiga tegishli miqdorda 40% li natriy fosfat eritmasi qo'shilganda hosil bo'lgan eritmaning massasi dastlabki magniy sulfat eritmasidan 55,8 g ga ko'p bo'ldi. Cho'kmaga tushgan magniy fosfat massasini (g) aniqlang.
A) 52,4 B) 26,2 C) 13,1 D) 78,6

67. (v17-126-27) Mis (II) xloridi eritmasiga har biri 20 g bo'lgan mis elektrodlari tushurildi va ulardan doimiy tok o'tkazildi. Birmuncha vaqtdan keyin katod chiqarildi va nitrat kislotada eritildi. So'ng natriy ishqoridan mo'lroq qo'shildi. Shunda massasi 49 g cho'kma ajraldi. Elektrodlarda ajralgan mahsulotlar va ularning massalarini aniqlang.
A) katodda: Cu – 12 g; anodda: O_2 – 3 g
B) katodda: Cu – 12 g; anodda: O_2 – 6 g
C) katodda: H_2 – 0,375 g; anodda: O_2 – 3 g
D) katodda: Cu – 12 g; anodda: gaz ajralmaydi

68. (v17-127-32) Nitrat kislotaning 20% li va 60% li eritmalari bo'lib, 20% li eritmadagi kislota 60% li erimadagi suv massasidan uch marta kam bo'lsa, ushbu eritmalar aralashtirilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 38 B) 33 C) 44 D) 51

69. (v17-128-28) Massasi 84 g bo'lgan XCl_2 va YCl_3 tarkibli aralashma 0,6 molga teng. Suyuqlanmadan metallni to'liq ajratish uchun 38600 sekund davomida 4 A tok kuchi sarflandi. Y molyar massasi X ga nisbatan 32 g ga ko'proq bo'lganda uch valentli metallni aniqlang.
A) Co B) Cr C) Al D) Fe

70. (v17-128-29) Nitrat kislotaning 30% li va 50% li eritmalari bo'lib, 30% li eritmadagi suv massasi 50% li eritmadagi kislota massasidan 1,4 marta katta bo'lsa, ushbu eritmalar aralashtirilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 45 B) 35 C) 40 D) 24

71. (v17-130-20) Sulfat kislotaning 850 g eritmasi tarkibida 140 N_A ta sp^3-gibridlangan orbitallar mavjud bo'lsa, H_2SO_4 ning massasini (g) toping.
A) 247 B) 490 C) 198 D) 360

VI bob. Miqdoriy hosiblash asoslari

43. Massa ulushi. Massa nisbati

1. (96-8-62) Qaysi birikmada fosforning massa ulushi ko'proq?
A) H_3PO_4 B) $(NH_4)_3PO_4$
C) $Ca_3(PO_4)_3$ D) $Ca(H_2PO_4)_2$
E) P_2O_5

2. (96-13-76) Quyidagi birikmalarning qaysi birida azotning massa ulushi eng katta?
1) NH_4NO_3; 2)NO; 3)N_2O_4; 4)N_2O_4; 5) HNO_3
A) 2 B) 3 C) 5 D) 1 E)

3. (97-7-65) Quyidagi raqamlar qatorining qaysi biri kalsiy digidrofosfatdagi elementlar massa ulushlariga mos keladi?
[A_r(Ca) = 40, A_r(P) = 31, A_r(O) = 16].
A) 17, 2, 26, 55 B) 11, 4, 20, 65
C) 20, 5, 17, 58 D) 32, 8, 14, 46
E) 6, 12, 33, 49

4. (97-10-96) Quyidagi moddalarning qaysi birida misning massa ulushi eng katta?
A) CuS B) CuO
C) $CuSO_4$ D) Cu_2O
E) $Cu_2(OH)_2CO_3$

5. (97-10-99) Temirning tabiiy birikmalari bo'lmish minerallardan qaysi birida ko'proq temir elementi bo'ladi?
A) magnetit Fe_3O_4 B) gematit Fe_2O_3
C) pirit FeS_2 D) siderit $FeCO_3$
E) mineral suvlar tarkibidanmi $Fe(HCO_3)_2$

6. (97-11-58) Kaliyli tuz minerali – silvinitdagi kaliyning massa ulushini aniqlang. [A_r(Na) = 23, A_r(K) = 39, A_r(Cl) = 35,5]
A) 0,32 B) 0,29 C) 0,35
D) 0,33 E) 0,31

7. (97-11-175) Yodning ($^{127}_{53}$ J) yuqori oksid tarkibida necha foiz kislorod bo'ladi?
A) 33,0 B) 33,5 C) 30,6
D) 32,5 E) 31,6

8. (97-12-5) Silvinit tarkibida ozuqa (K_2O) miqdori 0,15 massa ulushga teng. Mineral tarkibidagi kaliy xloridning massa ulushini aniqlang. [$^{355}_{17}$ Cl, $^{23}_{11}$ Na, $^{39}_{19}$ K].
A) 27,2 B) 21,6 C) 23,8
D) 16,6 E) 25,7

9. (98-11-31) Ammoniy digidrofosfat tarkibidagi fosforning foiz miqdorini hisoblang.
A) 23,5 B) 20,8 C) 27,4
D) 26,9 E) 12,2

10. (99-5-57) Modda tarkibidagi zarrachaning massa ulushi qaysi formula bo'yicha topiladi?
A) $n = \frac{m}{M}$ B) $\rho = \frac{m}{V}$
C) $\omega = \frac{m \cdot 100\%}{M}$ D) $m = \rho \cdot V$
E) $m = n \cdot M$

11. (99-6-41) Quyidagi birikmalarda bir xil massadagi azotga kislorod massalarining nisbati qanday o'zgaradi?
N_2O, NO, N_2O_3, NO_2, N_2O_5
A) 2:1:2:1:2 B) 1:2:3:4:5
C) 1:1:3:2:5 D) 16:16:48:32:80
E) 5:4:3:2:1

12. (99-7-39) Tarkibida vodorodning massa ulushi katta bo'lgan kislotani ko'rsating.
A) ortofosfat B) pirofosfat
C) vodorod ftorid D) sianid
E) yodid

13. (00-4-59) Kalsiy digidrofosfat bilan kalsiy gidrofosfat miqdorlari nisbati qanday bo'lganda, ulardan tayyorlangan aralashmadagi kalsiyning massa ulushi 20% bo'ladi?
A) 1,82 B) 1,79 C) 1,93
D) 1,87 E) 1,76

14. (00-5-23) Temir ammoniy achchiqtosh $[Fe(NH_4)_2(SO_4)_2 \cdot 6H_2O]$ ning 2,5 mol miqdoridagi kislorod atomlari nisbiy massasini hisoblang.
A) 560 B) 224 C) 320
D) 240 E) 400

15. (01-1-32) Tarkibida 25% ammoniy karbonat va 75% ammoniy nitrat bo'lgan aralashmadagi azotning massa ulushini hisoblang.
A) 5,83 B) 21,4 C) 29,9
D) 33,54 E) 57,5

16. (01-1-45) Tarkibiy qismlari bir xil massa ulushda qatnashgan moddalarni ko'rsating.
A) CH_4 B) C_6H_6 C) CT_4
D) C_2D_6 E) H_2O_2

17. (01-1-70) Uglerodning massa ulushi maksimal qiymatga ega bo'lgan moddani ko'rsating.
A) $C_2H_2Cl_4$ B) $C_2H_3Cl_3$
C) $C_2H_4Cl_2$ D) C_2H_5Cl
E) C_2Cl_6

18. (01-2-8) Uglerod tabiatda ikkita barqaror izotop: $^{12}_{6}C$ (98,892 foiz) va $^{13}_{6}C$ (1,107 foiz) ko'rinishida bo'ladi. Uglerod elementining atom massasini aniqlang.
A) 11,201 B) 11,844 C) 12
D) 12,011 E) 12,704

19. (02-3-37) Oddiy va og'ir suv aralashmasidagi kislorodning massa ulushi 86%. Og'ir suvning massa ulushini (%) toping.
A) 30,5 B) 32,6 C) 31,5
D) 33,5 E) 34,5

20. (02-4-35) Moddalarni ular tarkibidagi azotning massa ulushi ortib borish tartibida joylashtiring.
1) piridin; 2) pirrol; 3) purin; 4) pirimidin.
A) 1, 4, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2, 4, 3 D) 4, 2, 1, 3
E) 2, 4, 1, 3

21. (02-6-24) Alebastr tarkibidagi kalsiyning massa ulushi to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang.
A) 27,6 B) 26,0 C) 29,4
D) 23,3 E) 24,8

22. (03-1-43) 0,2 mol KCl va 0,3 mol $MgCl_2$ aralashmasidagi xlorning massa ulushi (%) nechaga teng?
A) 33 B) 45 C) 56 D) 65 E) 73

23. (04-1-468) Uglerod va oltingugurtdan iborat 10 g aralashma yondirilganda, 25 g karbonat va sulfit angidrid aralashmasi hosil bo'lgan. Dastlabki aralashmaning massa tarkibini aniqlang.
A) 2,0 C; 8,0 S B) 30 C; 70 S
C) 4,0 C; 6,0 S D) 3,0 C; 7,0 S
E) 6,0 C; 4,0 S

24. (04-1-528) Alebastr tarkibidagi oltingugurtning massa ulushi to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang.
A) 27,6 B) 26,0 C) 29,4
D) 18,6 E) 22,0

25. (04-1-600) Quyidagi birikmalardan qaysi birida xlorning massa ulushi eng kichik?
A) xlor (VII) oksid B) xlor (V) oksid
C) xlor (III) oksid D) perxlorat kislota
E) xlor (I) oksid

26. (04-1-620) 4,9 g Bertolle tuzining katalizatorsiz to'liq parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan birikmalarning massa ulushlarini aniqlang.
A) 44; 56 B) 50; 50 C) 84,8; 15,2
D) 87,7; 12,3 E) 56; 44

27. (05-1-10) Quyidagi birikmalarning qaysi birida kislorodning massa ulushi eng kam?
1) NH_4NO_3; 2) $(NH_4)_3SO_4$;
3) N_2O_3; 4) N_2O; 5) SO_2.
A) 2 B) 3 C) 5 D) 1 E) 4

28. (05-1-399) Quyidagi birikmalarning qaysi birida uglerodning massa ulushi 20% ga teng?
A) karbonat kislota B) is gazi
C) ohaktosh D) kalsiy atsetat
E) mochevina

29. (05-1-431) Miqdori 1:2 bo'lgan xlorpropanol va propanol aralashmalaridagi xlorpropanolning massa ulushini hisoblang.
A) 47 C) 44 B) 50,0
D) 51 E) 53

30. (v4-113-1) Murakkab moddalarni tanlang.
1) muz; 2) temir; 3) bo'r; 4) azot; 5) ozon; 6) fosfin; 7) karbin; 8) olmos; 9) "quruq muz"; 10) bertole tuzi.
A) 2, 4, 5, 8, 10 B) 1, 3, 6, 8, 10
C) 2, 4, 5, 7, 8 D) 1, 3, 5, 7, 9
E) 1, 3, 6, 9, 10

31. (v4-116-26) Birikmalardan qaysi birida xlorning massa ulushi eng kichik?
A) xlor (III) oksid B) xlor (I) oksid
C) xlor (VII) oksid D) perxlorat kislota
E) xlop (V) oksid

32. (v5-106-19) ^{107}Ag va ^{109}Ag dan tashkil topgan aralashmaning o'rtacha atom massasi 107,88 ga teng bo'lsa, kumushning har bir izotopining massa ulushini (%) aniqlang.
A) ^{107}Ag – 51; ^{109}Ag – 49
B) ^{107}Ag – 47; ^{109}Ag – 53
C) ^{107}Ag – 56; ^{109}Ag – 44
D) ^{107}Ag – 53; ^{109}Ag – 47
E) ^{107}Ag – 49; ^{109}Ag – 54

33. (v5-109-18) Temir rudasi tarkibida 92% temir (III) oksid bo'lsa, 1 kg shunday ruda tarkibida necha dona temir atomlari bo'ladi?
A) $6{,}02 \cdot 10^{23}$ B) $2{,}4 \cdot 10^{24}$
C) $9{,}03 \cdot 10^{23}$ D) $3{,}01 \cdot 10^{24}$
E) $6{,}92 \cdot 10^{24}$

34. (v5-127-18) Tarkibida 75% Fe_2O_3 bo'lgan rudaning necha foizini temir tashkil qiladi?
A) 46,6 B) 56 C) 16,8
D) 52,5 E) 28

35. (v8-106-15) 3 g etanni to'la yoqish uchun tarkibida kislorod va ozon bo'lgan 6,53 l (n. sh.) aralashma sarflandi. Sarflangan aralashma tarkibidagi ozonning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 30 B) 20 C) 50 D) 40

36. (v8-130-7) Tarkibida xrom (III) sulfat va natriy karbonat 1:3 mol nisbatda bo'lgan eritmalar aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmada qaysi ionlar miqdori (mol) yuqori bo'ladi?
1) Cr^{3+}; 2) Na^+; 3) SO_4^{2-}; 4) CO_3^{2-}; 5) OH^-.
A) 2, 3 B) 1, 4
C) 1, 2, 5 D) 1, 2, 3, 4

37. (v9-106-5) Tarkibida 40% ammoniy karbonat va 60% nitrat kislota bo'lgan aralashmadagi azotning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 19,2 B) 31 C) 23 D) 25

38. (v9-106-22) Uglerod va oltingugurtdan iborat 8,8 g aralashma yondirilganda 21,6 g oksidlar aralashmasi (CO_2) hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi uglerodning massa ulushini aniqlang.
A) 0,27 B) 0,73 C) 0,44 D) 0,56

39. (v9-112-13) 9,8% li sulfat kislota eritmasidagi oltingugurtning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 3,2 B) 8 C) 9,8 D) 4,9

40. (v9-121-2) Kalsiy digidrofosfat va kalsiy gidrofosfat o'zaro qanday nisbatda (massa) bo'lganda aralashmadagi kalsiyning massa ulushi 23,2% bo'ladi?
A) 1:1,7 B) 1:2,3 C) 1:3,8 D) 1:1

41. (v9-123-1) 9,8% li sulfat kislota eritmasidagi oltingugurt (VI) oksidining massa ulushini (%) hisoblang.
A) 8 B) 9,8 C) 4,9 D) 16

42. (v9-129-3) Temir (III) gidroksofosfatdagi temir va fosfor atomlarining massa nisbati qanday?
A) 2:1 B) 1,5:1 C) 3,3:1 D) 2,7:1

43. (v9-130-21) 0,2 mol kalsiy karbonat va 0,1 mol malaxit aralashmasidagi uglerodning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 12,4 B) 8,5 C) 15,8 D) 19,3

44. (v11-117-10) SO_2 va SO_3 lardan iborat 1 mol aralashmaning og'irligi 73,6 gramm bo'lsa, har bir gazning massa ulushini hisoblang.
A) 0,50; 0,50 B) 0,35; 0,65
C) 0,15; 0,85 D) 0,40; 0,60

45. (v12z-229-13) Kalsiy va alyuminiy amalgamalarining 10 grammi mo'l miqdordagi xlorid kislotada eritilganda 5,6 l gaz ajraldi va 3,3 grammi erimay qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi kalsiyning massa ulushini (%) toping.
A) 27 B) 60 C) 67 D) 40

46. (v12z-247-2) Oddiy va og'ir suv tarkibidagi kislorodlarning massa ulushlarini (%) toping.
A) 88,9; 80 B) 88; 81
C) 60; 40 D) 87,8; 86,4

47. (v12z-257-16) 75,6 g $Zn(NO_3)_2$ ni qizdirilgandan keyin qoldiq 43,2 g ga teng bo'ldi. Shu qoldiqdagi kislorodning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 22,2 B) 33,3
C) 44,4 D) 66,7

48. (v12c-107-36) 75,2 g $Cu(NO_3)_2$ ni qizdirilgandan keyin qoldiq 53,6 g ga teng bo'ldi. Shu qoldiqdagi kislorodning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 29,8 B) 41,8 C) 60,0 D) 35,8

49. (v12c-132-18) CO_2 va N_2 (n. sh.) gazlari aralashmasining 16,8 l massasi 29 g ni tashkil etsa, aralashmadagi gazlarning massasini aniqlang.
A) 20; 9 B) 22; 7 C) 13; 6 D) 9; 20

50. (v13-144-11) $A_2B_2O_7$ va A_2BO_4 bo'lgan moddalar tarkibida O_2 ning massa ulushi 38,1% va 33% ga teng (tegishlicha) A va B elementlarni aniqlang.
A) K, S B) Li, S
C) Li, Cr D) K, Cr

51. (v13-148-29) Tarkibida 8 g oltin bo'lgan oltin va qalay qotishmasiga 30 g qalay qo'shilgandan keyin oltinning massa ulushi 6% ga kamaygan bo'lsa, yangi qotishma tarkibidagi oltinni massa ulushini (%) aniqlang.
A) 16 B) 90 C) 10 D) 14

52. (v14-103-36) 0,3 mol kalsiy xlorid va 0,2 mol kaliy xlorid aralashmasi tarkibidagi xlorning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 37 B) 65 C) 33 D) 59

53. (v15-105-2) 20 litr (n. sh.) CO va CO_2 gazlari aralashmasida uglerodning massasi kislorodning massasidan 2 marta kichik bo'lsa, gazlar aralashmasining hajmiy (l, n. sh.). tarkibini mos ravishda aniqlang.
A) 12,5; 7,5 B) 8; 12
C) 5, 15 D) 10; 10

54. (v15-106-11) 8 litr (n. sh.) NO va NO_2 gazlari aralashmasida azotning massasi kislorodning massasidan 2 marta kichik bo'lsa, gazlar aralashmasining hajmiy (l, n. sh.) tarkibini mos ravishda aniqlang.
A) 3; 5 B) 2; 6 C) 6; 2 D) 4; 4

55. (v15-114-1) $Ca(CN)_2$ tarkibidagi uglerodning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 20 B) 25 C) 50 D) 26

56. (v15-116-15) Suv tarkibida kislorodning massa ulushi vodorodning massa ulushidan necha marta katta?
A) 8 B) 16 C) 9 D) 4

57. (v15-121-18) Hajmlar nisbati 1:1:2,5:3 bo'lgan C_4H_{10}, C_4H_8, C_2H_6 va CH_4 lardan iborat gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 13 B) 12 C) 14 D) 15

58. (v15-130-36) Karbonat angidrid va geliydan iborat 40 g aralashmaga ma'lum miqdor neon gazi qo'shilganda aralashmaning zichligi o'zgarmadi. Dastlabki aralashmadagi CO_2 ning massasini (g) aniqlang.
A) 0,4 B) 39,6
C) 35,2 D) 4,8

59. (v17-105-14) $Na_2S_2O_x$ tarkibli uchta tuz mavjud. Quyidagi berilgan oltingugurtning oksidlanish darajasiga (a, b, c) qarab x (1, 2, 3) larga mos keladigan javobini toping:
a) +6; +6; b) +4; 0; c) +4; +6;
1) 3; 2) 8; 3) 7.
A) 1-b, 2-a, 3-a B) 1-b, 2-a, 3-c
C) 1-a, 2-a, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-a

60. (v17-108-25) Mis rudasi tarkibida malaxit va azurit bor. Agar malaxitning massa ulushi 8,0%, azuritniki 3,6% bo'lsa, 5 t bo'lgan rudadan qancha massali mis olish mumkin? Rudadagi misning massa ulushini toping.
A) 330,4 kg 6,61% B) 350,9 kg 5,51%
C) 330,4 kg 5,5% D) 350,9 kg 6,61%

61. (v17-115-16) SO_2 va azot aralashmasida SO_2 ning massa ulushi 16/23 ga teng. Shu aralashmaga qanday gaz aralashtirilganda aralashmaning zichligi o'zgarmaydi?
A) CH_4 B) NO_2 C) Ar D) NH_3

62. (v17-116-29) $H_2S_2O_7$ va $H_4P_2O_7$ ning markaziy atom moddalarning massa ulushi bir xil bo'lsa, shu atomlarning massa nisbatini toping.
A) 1:1,05 B) 1,05:1 C) 1,08:1 D) 1:1,08

63. (v17-117-3) CH_4 va CD_4 gazlar aralashmasida uglerodning massa ulushi 65% ni tashkil qilsa, aralashmadagi CD_4 ning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 44,4 B) 33,3 C) 66,6 D) 55,5

44. Hajmiy ulushi. Aralashmaning o'rtacha molekulyar massasi

1. (97-1-11) Konsentratsiyasi 1,0 mol/l bo'lgan kaliy gidroksid eritmasining 50 ml orqali uglerod (IV) oksid bilan azot aralashmasidan 1550 ml miqdori (n. sh.) o'tkazilganda nordon tuz hosil bo'lishi aniqlangan. Gazlar aralashmadagi uglerod (IV) oksidning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 0,70 B) 0,75 C) 0,78
D) 0,80 E) 0,72

2. (97-7-25) Hajmiy tarkibi 80% metan va 20% noma'lum gazdan tarkib topgan aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 9,6 ga teng. Noma'lum gazning molekulyar massasini aniqlang.
A) 71 B) 48 C) 44 D) 32 E) 28

3. (97-11-130) Teng hajmdagi vodorod va geliydan iborat bo'lgan gaz aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang. [A_r(He) = 4].
A) 2 B) 2,5 C) 3,0 D) 3,5 E) 1,5

4. (97-12-61) Kislorod-ozon aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 16,4 ga teng. Aralashmadagi kislorodning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 95 B) 93 C) 97 D) 89 E) 87

5. (98-9-33) Hajmlari teng bo'lgan vodorod, azot va uglerod (IV) oksid aralashmasining o'rtacha nisbiy molekulyar massasini aniqlang.
A) 20,2 B) 22,4 C) 24,7
D) 26,5 E) 28,0

6. (99-2-2) Hajmiy ulushlari teng bo'lgan azot va karbonat angidrid gazlari aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi nechaga teng?
A) 14 B) 16 C) 18 D) 20 E) 22

7. (99-3-3) Vodorod va kisloroddan iborat 200 ml gazlar aralashmasi portlatilgandan keyin, yoqishga yordam beradigan 20 ml gaz ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushlarini (%) aniqlang
A) 35 O_2, 65 H_2
B) 45 O_2, 55 H_2
C) 40 O_2, 60 H_2
D) 50 O_2, 50 H_2
E) 55 O_2, 45 H_2

8. (99-4-35) 10% vodorod, 10% kislorod va azotdan iborat 40 ml gazlar aralashmasi portlatildi. Portlashdan keyingi oddiy moddalar aralashmasining hajmini (ml. n. sh.) va tarkibini (%) aniqlang.
A) 34, 94,1 N_2; 5,9 O_2
B) 36, 94,4 N_2; 5,6 O_2
C) 38, 84,0 N_2; 1,6 O_2
D) 37, 93,4 N_2; 6,6 O_2
E) 35, 88,0 N_2; 12 O_2

9. (00-1-61) Ma'lum sharoitda 8 l SO_2 va SO_3 gazlari aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 35 ga teng bo'lsa, dastlabki aralashmadagi SO_2 va SO_3 larning hajmi qanday bo'lgan?
A) 6 l SO_2 i 2 l SO_3
B) 4 l SO_2 i 4 l SO_3
C) 1 l SO_2 i 7 l SO_3
D) 2 l SO_2 i 6 l SO_3
E) 5,0 l SO_2 i 3,0 l SO_3

10. (00-4-45) Elektronlar soni bir xil bo'lgan uglerod (IV) oksid va metan hajmlari aralashmasining geliyga nisbatan zichligi qanday bo'ladi?
A) 4,26 B) 9,15 C) 8,25
D) 6,19 E) 6,38

11. (00-4-55) Vodorodga nisbatan zichligi 2 bo'lgan ammiak va vodorod aralashmasining qanday hajmi (l, n. sh.) 9,8% li 100 g fosfat kislota eritmasini to'la neytrallash uchun talab etiladi?
A) 23,2 B) 24,9 C) 25,7
D) 24,6 E) 63,2

12. (00-5-17) Hajmi 48 l bo'lgan ammiak va uglerod (IV) oksid aralashmasining massasi 72 g bo'lsa, aralashmadagi har bir gazning hajmini (l) hisoblang.
A) 18,5; 29,5 B) 29,5; 18,5
C) 12; 36 D) 26; 22
E) 22,4; 25,6

13. (00-8-19) Hajmi 1,68 l (n. sh.) bo'lgan uglerod oksidlari aralashmasidagi elektronlar soni $8{,}73 \cdot 10^{23}$ ta ekanligi ma'lum bo'lsa, aralashmadagi uglerod (II) oksidning hajm ulushi qanchaga teng bo'ladi?
A) 0,67 B) 0,24 C) 0,33
D) 0,76 E) 0,43

14. (00-9-10) Aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushlari quyidagicha: H_2 – 10%; N_2 – 55%; Ar – 35%. Bu gazlar aralashmasining havoga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 1,02 B) 0,90 C) 0,88
D) 1,48 E) 2,02

15. (00-10-3) Vodorodga nisbatan zichligi 22 ga teng bo'lgan azot oksidini ko'rsating.
A) azot (I) oksid B) azot (II) oksid
C) azot (III) oksid D) azot (IV) oksid
E) azot (V) oksidi

16. (01-8-21) Tarkibida 20% azot va 40% dan kislorod va geliy bo'lgan aralashmaning 22,4 m^3 miqdorining massasini (kg) hisoblang.
A) 12,8 B) 29,7 C) 18,2
D) 14,4 E) 20,0

17. (01-8-22) Tarkibida 20 hajm kislorod, 30 hajm azot va 50 hajm geliy bo'lgan gazlar aralashmasining molyar massasini hisoblang.
A) 16,8 B) 14,8 C) 6,4
D) 64 E) 18,8

18. (01-9-6) Massa jihatidan tarkibi 25,3% uglerod (IV) oksid 40,2% azot va 34,5% argondan tashkil topgan aralashmaning o'rtacha molekulyar massasi qanday? Aralashmadagi tarkibiy qismlarning hajmiy ulushlarini hisoblang.
A) 32,0; 0,2; 0,3; 0,5 B) 34,8; 0,2; 0,3; 0,5
C) 36,2; 0,3; 0,3; 0,4 D) 36,2; 0,2; 0,5; 0,3
E) 38,5; 0,2; 0,4; 0,4

19. (01-11-33) Tarkibi $2CO + CO_2 + 4H_2 + 3N_2$ bo'lgan gazlar aralashmasida 40 l yonmaydigan gaz bo'lsa, aralashmaning umumiy massasini (g) hisoblang (n. sh.).
A) 114,2 B) 85,6 C) 51,4
D) 68,7 E) 93,4

20. (01-11-47) 40% li natriy gidroksid eritmasining (ρ = 1,2 g/ml) 124,5 ml hajmi orqali karbonat angidrid bilan is gazi aralashmasi o'tkazilganda, ishqor o'rta tuzga aylandi, qolgan gaz 3 l (n. sh.) hajmni egallagan. Boshlang'ich aralashmadagi karbonat angidridning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 78 B) 76
C) 85 D) 88 E) 90

21. (02-3-53) Ozon va kislorod aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 16,4 ga teng. Aralashmadagi kislorod va ozonning hajmlar nisbatini toping.
A) 19:1 B) 17:1 C) 17:2
D) 16:1 E) 17:3

22. (02-3-58) Hajmlari bir xil bo'lgan vodorod va azot aralashmasi kontakt apparati orqali o'tkazilganda, vodorodning 90% miqdori ammiakka aylangan.

Apparatdan chiqayotgan gazning tarkibidagi vodorod va azotning hajmiy ulushlarini (%) hisoblang.
A) 7,1; 50 B) 2,2; 66
C) 12,5; 87,5 D) 6,1; 72
E) 7,3; 83

23. (02-5-29) Vodorodga nisbatan zichligi 14,5 bo'lgan azot va kisloroddan iborat gazlar aralashmasi tarkibidagi har bir moddaning protsent tarkibini toping.
A) 75 va 25 B) 25 va 75
C) 60 va 40 D) 50 va 50
E) 40 va 60

24. (02-8-38) Hajmi 5 l bo'lgan va vodorodga nisbatan zichligi 10 bo'lgan kislorod-vodorod aralashmasini tayyorlash uchun (n. sh.) har bir gazdan necha litrdan olish kerak?
A) 3 l O_2, 2 l H_2 B) 2 l O_2, 3 l H_2
C) 2,5 l O_2, 2,5 l H_2 D) 4 l O_2, 1 l H_2
E) 1 l O_2, 4 l H_2

25. (02-10-32) 75 l H_2 va O_2 aralashmasi portlatilganda, aralashma to'liq suvga aylandi. Boshlang'ich aralashmadagi vodorodning hajmini toping.
A) 70 B) 60 C) 50 D) 37,5 E) 25

26. (02-12-24) Hajmiy nisbatlari 1:3 bo'lgan uglerod (II) oksid va karbonat angidridlar aralashmasidagi kislorodning massa ulushini (%) toping.
A) 70 B) 75 C) 65 D) 60 E) 80

27. (02-12-35) Vodorodga nisbatan zichligi 11,75 bo'lgan 4,48 l (n. sh. da) metan va atsetilen aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan gaz, massasi 240 g 14% li KOH eritmasiga yuqtirilganda hosil bo'ladigan tuzlar va ularning massalarini toping.
A) 10 g $KHCO_3$ va 34,5 g K_2CO_3
B) 15 g K_2CO_3 va 29,5 g $KHCO_3$
C) 44,5 g K_2CO_3
D) 44,5 g $KHCO_3$
E) 34,5 g $KHCO_3$ va 10 g K_2CO_3

28. (03-1-7) Mo'l miqdorda olingan NaOH eritmasi orqali 1,03 l (n. sh.) CO_2 va SO_2 gazlar aralashmasi o'tkazilganda, eritmaning massasi 2,3 g ga ortgan. Boshlang'ich gazlar massasining foiz tarkibini aniqlang.
A) 12 va 88 B) 70,2 va 29,8
C) 61,6 va 38,4 D) 41 va 59
E) 91,5 va 8,5

29. (03-1-18) Vodorod va kisloroddan iborat 0,5 l gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 10 ga teng. Dastlabki gazlarning hajmiy foiz tarkibini aniqlang.
A) 50 va 50 B) 40 va 60
C) 60 va 40 D) 20 va 80
E) 70 va 30

30. (03-11-42) Vodorodga nisbatan zichligi 35 ga teng bo'lgan 16 l SO_2 va SO_3 gazlari aralashmasidagi har bir gazning hajmini (l) toping.
A) 62,5; 37,5 B) 10; 6
C) 6; 10 D) 64; 80
E) 5; 4

31. (03-11-44) Vodorodga nisbatan zichligi 15 ga teng bo'lgan 6 l kislorod va azot aralashmasidagi har bir gazning hajmini (l) toping.
A) 1; 5 B) 2; 4 C) 3; 3
D) 1,5; 4,5 E) 2, 5; 3,5

32. (03-11-45) Vodorodga nisbatan zichligi 35 ga teng bo'lgan SO_2 va SO_3 gazlari aralashmasining 8 l hajmini yondirish uchun qancha hajm (l, n. sh.) kislorod sarf bo'ladi?
A) 1,5 B) 2,9 C) 5,0
D) 2,5 E) 10,0

33. (03-11-46) Vodorodga nisbatan zichligi 35 ga teng bo'lgan SO_2 va SO_3 gazlari aralashmasining 8 l hajmini yondirish uchun qancha hajm (l, n. sh.) havo sarflanadi?
A) 15,5 B) 14,5 C) 12,5
D) 2,5 E) 17,5

34. (04-1-39) Uglerod (II) va uglerod (IV) oksid aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 18 ga teng. Aralashmaning hajmiy tarkibini (%) toping.
A) 50 CO va 50 CO_2 B) 25 CO va 75 CO_2
C) 75 CO va 25 CO_2 D) 40 CO va 60 CO_2
E) 60 CO va 40 CO_2

35. (04-1-93) Hajmi (n. sh. da) 8,34 l bo'lgan 14 g uglerod (II) oksid va uglerod (IV) oksid gazlari aralashmasi cho'g'langan ko'mir ustidan o'tkazilgandan keyin uning hajmi qanchaga (l) oshdi?
A) 5,004 B) 3,336
C) 8,34 D) 13,344
E) 7,536

36. (04-1-117) Vodorodga nisbatan zichligi X ga teng bo'lgan kislorod va vodorod aralashmasining hajmiy ulushlarini aniqlash uchun 1–5 holatlardan qaysilaridan foydalanish mumkin?
1) 16; 2) 1; 3) 2; 4) 15; 5) 17.
A) 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4
D) 1, 4, 5 E) 3, 5

37. (04-1-582) Ozon va kislorod aralashmasining geliyga nisbatan zichligi 18 ga teng. Aralashmadagi har bir gazning massa ulushini toping.
A) 0,25 va 0,75 B) 0,40 va 0,60
C) 0,30 va 0,70 D) 0,50 va 0,50
E) 0,75 va 0,25

38. (05-1-16) Tarkibi hajm bo'yicha 40% karbonat angidrid, 30% azot va 30% argondan iborat gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasi qancha bo'ladi?
A) 28 B) 40
C) 38 D) 32 E) 44

39. (05-1-23) Tarkibida 30 hajm kislorod, 20 hajm azot va 50 hajm geliy bo'lgan gazlar aralashmasining molyar massasini hisoblang.
A) 16,8 B) 14,8 C) 6,4
D) 17,2 E) 18,8

40. (05-1-53) Tarkibi $2CO + CO_2 + 4H_2 + 3N_2$ bo'lgan gazlar aralashmasida 32,06 l yonmaydigan gaz bo'lsa, aralashmaning umumiy massasini (g) hisoblang (n. sh).
A) 65,7 B) 85,7 C) 66,8
D) 68,7 E) 69,7

41. (v4-109-18) Tarkibi $CO + 4CO_2$ (n. sh.) bo'lgan gazlar aralashmasidagi 0,856 l ning massasini hisoblang.
A) 1,56 B) 1,82 C) 3,12
D) 1,61 E) 1,66

42. (v4-112-34) N. sh. da N_2 va CO_2 gazlari aralashmasining 16,8 l massasi 30 g ni tashkil etsa, aralashmadagi har bir gazning massasini (g) hisoblang.
A) N_2 – 22; CO_2 – 7
B) N_2 – 6,43; CO_2 – 23,57
C) N_2 – 7; CO_2 – 22
D) N_2 – 7,5; CO_2 – 22,5
E) N_2 – 5,25; CO_2 – 24,75

43. (v4-120-34) Massa jihatidan tarkibi 32,6% uglerod (IV) oksid, 36,2% argon va 31,2% azotdan tashkil topgan aralashmaning o'rtacha molekulyar massasi qanday? Aralashmadagi tarkibiy qismlarning hajmiy ulushlarini hisoblang.
A) 36,22; 0,32; 0,32; 0,36
B) 37,56; 0,27; 0,33; 0,4
C) 32,0; 0,21; 0,32; 0,47
D) 36,20; 0,25; 0,52; 0,23
E) 36,87; 0,2; 0,36; 0,44

44. (v5-111-29) Ammlak va uglerod (IV) oksididan iborat 48 l (n. sh.) aralashmaning massasi 67,3 g ga teng. Aralashmadagi har bir gazning hajmlarini (l) hisoblab toping.
A) NH_3 – 23,5; CO_2 – 24,5
B) NH_3 – 24,6; CO_2 – 23,4
C) NH_3 – 22,4; CO_2 – 25,6
D) NH_3 – 19,3; CO_2 – 28,7
E) NH_3 – 20,2; CO_2 – 27,8

45. (v5-115-12) Tarkibida hajm jihatdan 25% C_2H_6 va 75% C_2H_4 bo'lgan aralashmaning (n. sh.) zichligini aniqlang.
A) 1,52 B) 2,27 C) 2,58
D) 1,27 E) 1,32

46. (v5-115-36) Hajmlari teng bo'lgan etan va butan berilgan. Butanning massasi 7,25 g bo'lsa, etanning hajmini (l, n. sh.) hisoblab toping.
A) 2,8 B) 5,0 C) 5,6
D) 4,2 E) 3,1

47. (v5-117-10) Azot bilan uglerod oksidning nisbiy molekulyar massalari bir xil bo'lgan oksidlarning formulasini toping.
1) NO; 2) CO; 3) N_2O; 4) CO_2; 5) NO_2.
A) 2, 3 B) 4, 5 C) 1, 2
D) 3, 4 E) 1, 4

48. (v5-121-12) Tarkibida hajm jihatdan 80% CH_4, 15% C_2H_6 va 5% C_3H_8 bo'lgan aralashmaning (n. sh.) zichligini aniqlang.
A) 0,87 B) 1 C) 0,7
D) 0,95 E) 0,78

49. (v5-128-36) Teng hajmda metan va propan berilgan. Metanning massasi 5 g bo'lsa, propanning massasini (g) toping.
A) 10,25 B) 15,34 C) 13,75
D) 7,75 E) 5,00

50. (v5-134-12) Tarkibida hajm jihatdan 30% CH_4 va 70% C_2H_6 bo'lgan aralashmaning (n. sh.) zichligini aniqlang.
A) 1,15 B) 2,3 C) 20,2
D) 2 E) 0,9

51. (v6-101-19) Azot va vodoroddan iborat aralashmadagi azotning hajmiy ulushi 10,5% bo'lsa, 25 g shunday aralashmadagi vodorodning massasini (g) hisoblang.
A) 9,5 B) 22,4 C) 15,5 D) 2,6

52. (v6-104-19) Vodorod va kisloroddan iborat 75 g aralashma portlatilgandan so'ng qaysi gazdan necha gramm ortib qoldi? Boshlang'ich aralashmadagi kislorodning hajmiy ulushi 20%.
A) kislorod, 8 B) vodorod, 15
C) kislorod, 52,5 D) vodorod, 7,5

53. (v6-110-18) Mis (II) nitratning termik parchalanishidan hosil bo'lgan gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 20,7 B) 19,5 C) 43,2 D) 21,6

54. (v6-111-18) 300°C da ammoniy karbonat qizdirilishidan hosil bo'lgan gazlar aralashmasining shu temperaturadagi o'rtacha molekulyar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 61 B) 26 C) 24 D) 96

55. (v6-113-18) Hajmiy tarkibi 80% metan va 20% noma'lum gazdan iborat bo'lgan aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 9,6 ga teng. Noma'lum gazning molekulyar massasini aniqlang.
A) 48 B) 71 C) 32 D) 44

56. (v6-114-19) 34 g vodorod va kisloroddan iborat aralashmadagi kislorodning massasini (g) hisoblang. Aralashmadagi vodorodning hajmiy ulushi 68% ga teng.
A) 29,92 B) 10,88 C) 44,8 D) 23,12

57. (v6-120-19) 75 g vodorod va kisloroddan iborat aralashmadagi vodorodning massasini (g) hisoblang. Aralashmadagi kislorodning hajmiy ulushi 20% ga teng.
A) 15 B) 60 C) 5 D) 70

58. (v6-123-19) Ozon va azotdan iborat 20 g aralashma yetarli miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilganda necha gramm yod ajraladi? Aralashmadagi azotning hajmiy ulushi 77%.
A) 4,48 B) 23,34 C) 47 D) 35,8

59. (v7-101-18) Vodorodning hajmiy ulushi 70% bo'lgan vodorod va kisloroddan iborat 110 g aralashmadagi kislorod og'irligini (g) hisoblang.
A) 96 B) 33 C) 14 D) 77

60. (v7-105-18) Vodorodning hajmiy ulushi 60% bo'lgan, vodorod va azotdan iborat 124 g aralashmadagi azot massasini (g) aniqlang.
A) 49,6 B) 74,4 C) 12 D) 112

61. (v7-106-18) Ozon va azotdan iborat 160 g aralashma yetarli miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilgandan so'ng qolgan gazning massasi 112 g bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi ozonning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 30 B) 20 C) 80 D) 70

62. (v7-110-20) 20 l (n. sh.) ammiak temir katalizatori ustidan o'tkazilganda (t = 350°C), hajmi 25 l (n. sh.) bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu aralashmadagi N_2, NH_3 va H_2 larning hajmiy ulushini (berilgan tartibda) hisoblang.
A) 0,15; 0,55; 0,30 B) 0,20; 0,30; 0,50
C) 0,25; 0,50; 0,25 D) 0,10; 0,60; 0,30

63. (v7-111-20) CO, CO_2 va N_2 dan iborat aralashmani to'la yondirish uchun 1,12 l (n. sh.) kislorod sarflandi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasi $Ca(OH)_2$ eritmasi orqali o'tkazilganda 25 g cho'kma tushdi va 1,12 l (n. sh.) oddiy modda ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 25; 25; 50 B) 33; 50; 17
C) 29; 42; 29 D) 26; 61; 13

64. (v7-112-18) Vodorod va kisloroddan iborat 50 g aralashma portlatilgandan so'ng qaysi gazdan necha gramm ortib qoldi? Boshlang'ich aralashmadagi vodorodning hajmiy ulushi 80% ga teng.
A) kislorod, 22,4 B) vodorod, 38,75
C) kislorod, 10 D) vodorod, 5

65. (v7-115-18) Kislorod va ozondan iborat 20 g aralashma yetarli miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilganda necha gramm yod ajraladi? Boshlang'ich aralashmadagi ozonning hajmiy ulushi 50%.
A) 53 B) 254 C) 127 D) 63,5

66. (v8-102-3) Elektronlari soni o'zaro teng bo'lgan uglerod (IV) oksid va azot aralashmasining vodorodga nisbatan miqdorini aniqlang.
A) 13,5 B) 17 C) 36 D) 5,4

67. (v8-106-3) Elektronlari soni o'zaro teng bo'lgan azot va kislorod aralashmasining havoga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 0,84 B) 0,42
C) 1,03 D) 1,59

68. (v8-125-31) Is gazi propan va metandan iborat 15,68 l (n. sh.) aralashma yondirilganda 44 g CO_2 va 21,6 g H_2O hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi moddalar (berilgan tartibda) hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 7,84; 5,6; 2,24 B) 8,96; 2,24; 3,36
C) 672; 4,48; 4,48 D) 5,6; 3,36; 6,72

69. (v8-128-15) 22,4 l (n. sh.) NO va NO_2 aralashmasida $104{,}75 \cdot 10^{23}$ elektron mavjud bo'lsa, ushbu aralashmadagi azot (II) oksidning hajmiy ulushini hisoblang.
A) 0,30 B) 0,75 C) 0,70 D) 0,25

70. (v9-101-27) Uglerod yonishi natijasida 11,2 l (n. sh.) uglerod oksidlarining aralashmasi hosil bo'lib, uning geliyga nisbatan zichligi 9 bo'lsa, reaksiya uchun sarflangan kislorod hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 8,96 B) 11,2 C) 5,6 D) 8,4

71. (v9-103-17) CO va CO_2 dan iborat 37,6 g aralashma yetarli miqdordagi kislorodda yondirilganda 44 g mahsulot hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi karbonat angidridning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 40 B) 60 C) 70 D) 30

72. (v9-103-26) Is gazi va etandan iborat 44,8 l (n. sh.) aralashma yondirilganda (reaksiya unumi 70%) 39,2 l (n. sh.) karbonat angidrid hosil bo'lsa, aralashmadagi is gazining hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 25 B) 60 C) 75 D) 40

73. (v9-104-8) Gazlar aralashmasidagi metan, kislorod va vodorodning hajmiy ulushlari mos ravishda 40; 40 va 20 bo'lsa, ushbu aralashmadagi metan va vodorodning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 40; 20 B) 43; 1 C) 32,6; 2 D) 45; 2

74. (v9-107-9) CO va C_3H_8 dan iborat 80 l (n. sh.) aralashma to'la yondirilganda 120 l (n. sh.) karbonat angidrid hosil bo'lsa, is gazining hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 20 B) 25 C) 60 D) 75

75. (v9-108-12) CO va CO_2 dan iborat aralashmadagi uglerod va kislorod massalari nisbati 1:2 ga teng. Aralashmadagi gazlarning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 45; 55 B) 50; 50
C) 39; 61 D) 35; 65

76. (v9-110-4) 44,8 l (n. sh.) metan 1500°C da qizdirilganda umumiy hajmi 56 l (n. sh.) bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, undagi gazlarning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 22,4; 11,2; 22,4 B) 39,2; 5,6; 11,2
C) 33,6; 5,6; 16,8 D) 35,84; 11,2; 6,72

77. (v9-110-11) Azot (II) oksid va ammiakdan iborat 11,2 l (n. sh.) gazlar aralashmasida $36{,}12 \cdot 10^{23}$ ta elektron bor bo'lsa, shu aralashmadagi gazlarning massa ulushini hisoblang.
A) 0,40; 0,60 B) 0,54; 0,46
C) 0,25; 0,75 D) 0,34; 0,66

78. (v9-111-27) Hajmlari 3:1 nisbatda bo'lgan vodorod va azot aralashmasi kontakt apparati orqali o'tkazilganda vodorodning 10% (hajmiy ulushi) miqdori ammiakka aylangan bo'lsa, kontakt apparatdan chiqayotgan gazlarning hajmiy ulushlarini hisoblang.
A) 0,71; 0,24; 0,05 B) 0,82; 0,10; 0,08
C) 0,65; 0,29; 0,06 D) 0,56; 0,32; 0,12

79. (v9-113-27) 44,8 l (n. sh.) metan 1500°C da qizdirilganda hajmi 56 l (n. sh.) bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, undagi gazlarning hajmiy ulushlarini (%) aniqlang.
A) 60; 10; 30 B) 70; 20; 10
C) 50; 30; 20 D) 35; 45; 20

80. (v9-115-19) 300 g 9,8% li H_2SO_4 eritmasini to'la neytrallash uchun geliyga nisbatan zichligi 2 ga teng bo'lgan NH_3 va H_2 iborat aralashmadan qancha hajm (l, n. sh.) kerak bo'ladi?
A) 47,5 B) 26,4 C) 19,2 D) 33,6

81. (v9-116-28) Massa nisbatlari 1:3:6 bo'lgan vodorod, azot (II) oksid va etandan iborat 200 g gazlar aralashmasining hajmini (l, n. sh.) va undagi vodorodning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 358,4; 62,5 B) 164,7; 10
C) 224; 12,5 D) 179,2; 25

82. (v9-117-33) Azot (II) va azot (IV) oksidlardan iborat aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 16,6 bo'lsa, ushbu aralashmadagi azot va kislorod atomlari soni qanday nisbatda bo'ladi?
A) 1:1,2 B) 1:2 C) 1:1 D) 1:1,5

83. (v9-118-35) Azot (I), azot (II) va azot (IV) oksidlaridan iborat aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 19,4 ga teng. Agar aralashmadagi azot (I) oksidning hajmiy ulushi 40% bo'lsa, undagi azot (II) oksidning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 30,9 B) 23,7 C) 45,4 D) 52,6

84. (v9-119-8) Azot (II) oksidi va ammiakdan iborat 11,2 l (n. sh.) gazlar aralashmasida $36{,}12\ 10^{23}$ ta elektron bor bo'lsa, shu aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 20; 30 B) 25; 75 C) 40; 60 D) 33; 67

85. (v9-121-36) Azot oksidining kislorodga nisbatan zichligi 2,375 bo'lsa, uning 301 ta molekulasining og'irligini (g) hisoblang.
A) $7{,}6 \cdot 10^{-20}$ B) $5{,}3 \cdot 10^{-21}$
C) $9{,}6 \cdot 10^{-21}$ D) $3{,}8 \cdot 10^{-20}$

86. (v9-124-27) Tarkibida 30% metan, 10% vodorod va 60% kislorod (hajm bo'yicha) bo'lgan gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini hisoblang.
A) 32,4 B) 24,2 C) 37,3 D) 20,8

87. (v9-127-35) CO_2 va CO dan iborat 22,4 l (n. sh.) aralashmada 8,932 mg elektron mavjud bo'lsa, undagi gazlarning hajmiy ulushini (%) hisoblang (elektronning massasi proton massasidan 1836 marta kichik).
A) 60; 40 B) 55; 45
C) 30; 70 D) 85; 15

88. (v9-129-21) Hajmiy nisbatlari 1:3:4 bo'lgan etilen, azot va is gazidan iborat gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasi, zichligi (n. sh.) va undagi azotning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 28; 1,14; 50 B) 28; 3,75; 12,5
C) 56; 1,20; 37,5 D) 28; 1,25; 37,5

89. (v9-130-23) CO_2 va CO dan iborat 22,4 l (n. sh.) aralashmada 10,67 mg elektron mavjud bo'lsa, undagi gazlarning hajmiy ulushini (%) hisoblang (elektronning massasi proton massasidan 1836 marta kichik).
A) 60; 40 B) 80; 20 C) 50; 50 D) 70; 30

90. (v11-102-9) Bir xil sharoitda olingan ammiak va metilamin hajmlari qanday nisbatda bo'lsa, ularning birinchisidagi elektronlar soni ikkinchisidan ikki marta ko'p bo'ladi?
A) 3,6:1 B) 4,8:1 C) 5,2:1 D) 2,4:1

91. (v12z-202-30) Ozon va etandan iborat aralashmadagi ozonning elektron, proton va neytronlari yigindisi shu aralashmadagi etanning proton va neytronlari yig'indisidan 1,2 marta ko'p bo'lsa, aralashmadagi etanning massa ulushini aniqlang.
A) 0,67 B) 0,56 C) 0,33 D) 0,44

92. (v12z-204-7) Azot (II), azot (III) va azot (IV) oksidlaridan iborat aralashmaning geliyga nisbatan zichligi 11,8 ga teng. Agar aralashmadagi azot (III) – oksidning hajmiy ulushi 20% bo'lsa, undagi NO_2 ning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 50 B) 48,73 C) 29,34 D) 40

93. (v12z-208-18) Kislorodga nisbatan zichligi 0,625 ga teng bo'lgan metan va etan iborat 28 l aralashmasini to'liq yondirish uchun qancha hajm (l) kislorod sarflanadi?
A) 56 B) 68 C) 72 D) 64

94. (v12z-216-10) Azot (IV) oksidi 903 ta molekulasining massasini (g) aniqlang.
A) $4{,}6 \cdot 10^{-23}$ B) $4{,}6 \cdot 10^{-20}$
C) $6{,}9 \cdot 10^{-23}$ D) $6{,}9 \cdot 10^{-20}$

95. (v12z-217-34) $D(CH_4)$ = 1,85 bo'lgan CO va O_2 dan iborat 44,8 l aralashma reaksiyaga kirishdi va D(Ne) = 1,85 bo'lgan aralashma hosil bo'ldi. Shu aralashmadagi CO_2 ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 66,7 B) 50 C) 60 D) 40

96. (v12z-218-15) Ozon va etandan iborat aralashmadagi ozonning elektron, proton va neytronlari yigindisi shu aralashmadagi etanning proton va neytronlari yig'indisidan 1,2 marta ko'p bo'lsa, aralashmaning zichligini (g/l) aniqlang.
A) 1,82 B) 1,45 C) 1,6 D) 3,6

97. (v12z-221-20) Azot (IV) oksidi 602 ta molekulasining massasini (g) aniqlang.
A) $6{,}9 \cdot 10^{-20}$ B) $4{,}6 \cdot 10^{-23}$
C) $6{,}9 \cdot 10^{-23}$ D) $4{,}6 \cdot 10^{-20}$

98. (v12z-221-27) 50 ml metan va CO aralashmasiga 50 ml O_2 qo'shib portlatildi. Hosil bo'lgan mahsulot tarkibidagi suv bug'lari kondensatlangandan keyin gaz hajmi 60 ml ni tashkil etdi. Dastlabki aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 20:80 B) 30:70 C) 10:90 D) 25:75

99. (v12z-224-34) $D(CH_4)$ = 1,85 bo'lgan CO va O_2 dan iborat 44,8 l aralashma reaksiyaga kirishdi va D(Ne) = 1,85 bo'lgan aralashma hosil bo'ldi. Shu aralashmadagi CO ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 59,5 B) 40,5
C) 25 D) 50

100. (v12z-225-28) Hajmi 5,6 l (n. sh.) bo'lgan N_2 va O_2 aralashmasining massasi 7,6 g bo'lsa, aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 70; 30 B) 75; 25
C) 40; 60 D) 28; 72

101. (v12z-238-19) Hajmiy nisbatlari 1:3:2 bo'lgan ammiak, kislorod va azotdan iborat gazlar aralashmasi yondirildi va boshlang'ich sharoitga keltirildi. Reaksiyadan keyingi gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 28,57 B) 29,9
C) 31,2 D) 29,25

102. (v12z-240-8) Hajmi 11,2 l (n. sh.) bo'lgan NO va CH_4 aralashmasining massasi 10,8 g ga teng. Aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 80, 20 B) 40, 60
C) 75, 25 D) 70, 30

103. (v12z-245-7) Etan va atsetilen aralashmasini bromli suv solingan idish orqali o'tkazilganda idish massasi 2,6 g ga ortgan. Boshlang'ich miqdordagi aralashma yondirilganda esa 5,6 l (n. sh.) CO_2 hosil bo'lgan. Boshlang'ich aralashmadagi eng yengil gazning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 30 B) 50 C) 40 D) 20

104. (v12z-251-11) Hajmi 7,84 l (n. sh.) bo'lgan CO va NO aralashmasining massasi 10,3 g bo'lsa, aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 26,5; 73,5 B) 25,5; 74,5
C) 24,5; 75,5 D) 28,5; 71,5

105. (v12z-252-9) Hajmi 11,2 l (n. sh.) bo'lgan N_2 va Cl_2 aralashmasining massasi 26,9 g bo'lsa, aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 30; 70 B) 20; 80 C) 40; 60 D) 35; 65

106. (v12z-254-16) Hajmiy nisbatlari 1:1:1 bo'lgan vodorod, kislorod va azotdan iborat gazlar aralashmasi yondirildi va boshlang'ich sharoitga keltirildi. Reaksiyadan keyingi gazlar aralashmasining o'rtacha molar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 30,0 B) 29,0 C) 28,57 D) 29,33

107. (v12c-103-23) Ftorga nisbatan zichligi 1 ga teng bo'lgan propan va kislorod aralashmasi yondirildi va suv bug'lari kondensatlangandan keyin hosil bo'lgan aralashmaning kislorodga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 1,375 B) 0,96 C) 2,17 D) 1,16

108. (v12c-104-31) Vodorodga nisbatan zichligi 15 ga teng bo'lgan CO va CO_2 aralashmasi tashki etsa. Aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 10,5; 89,5 B) 87,5; 12,5
C) 15,8; 84,2 D) 93,4; 6,6

109. (v12c-108-16) Hajmi 8,96 l (n. sh.) bo'lgan Cl_2 va O_2 aralashmasining massasi 20,6 g bo'lsa, aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 30, 70 B) 40, 60 C) 50, 50 D) 20, 80

110. (v12c-109-19) Hajmi 8,96 l (n. sh.) bo'lgan vodorod va kislorod aralashmasining massasi 3,8 g ga teng. Aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 80, 20 B) 40, 60 C) 75, 25 D) 70, 30

111. (v12c-110-4) Azot (IV) oksid va uglerod (IV) oksiddan iborat 22,4 l (n. sh.) gazlar aralashmasida elektronlar soni Avogadro sonidan 22,4 marta ko'p bo'lsa, shu aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) mos ravishda hisoblang.
A) 30, 70 B) 60, 40 C) 10, 90 D) 40, 60

112. (v12c-114-5) Hajmi 6,72 l (n. sh.) bo'lgan NO_2 va CH_4 aralashmasining massasi 10,8 g bo'lsa, aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 56,3; 43,7 B) 65,5; 34,5
C) 54,1; 45,9 D) 66,7; 33,3

113. (v12c-115-31) Hajmiy nisbatlari 1:3:1 bo'lgan silan, kislorod va ammiakdan iborat gazlar aralashmasi yondirildi va boshlang'ich sharoitga keltirildi. Reaksiyadan keyingi gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 30,0 B) 28,57 C) 29,33 D) 29,0

114. (v12c-122-36) Azot (IV), uglerod (IV) va oltingugurt (IV) oksidlaridan iborat aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 24,4 ga teng. Agar aralashmadagi oltingugurt (IV) – oksidning hajmiy ulushi 20% bo'lsa, undagi CO_2 ning massa ulushuni (%) hisoblang.
A) 32 B) 36 C) 48 D) 43

115. (v12c-123-13) Hajmi 6,72 l (l, n. sh.) bo'lgan NH_3 va NO aralashmasining massasi 7,7 g bo'lsa, aralashmadagi gazlarining hajmiy ulushini (%) toping.
A) 30,4; 69,6 B) 31,5; 68,5
C) 33,3; 66,7 D) 20,3; 79,7

116. (v12c-130-13) Hajmiy nisbatlari 1:2:1 bo'lgan ammiak, kislorod va azotdan iborat gazlar aralashmali yondirildi va boshlang'ich sharoitga keltirildi. Reaksiyadan keyingi gazlar aralashmasining o'rtacha molar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 30,0 B) 29,0 C) 29,8 D) 28,7

117. (v12c-130-16) Hajmiy nisbatlari 1:3:1 bo'lgan fosfin, kislorod va azotdan iborat gazlar aralashmasi yondirildi va boshlang'ich sharoitga keltirildi. Reaksiyadan keyingi gazlar aralashmasining o'rtacha molar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 32 B) 29 C) 28 D) 30

118. (v12c-130-20) Ozon va etandan iborat arlashmadagi ozonning elektron, proton va neytronlar yig'indisi shu aralashmadagi etanning proton va neytronlari yig'indisidan 1,2 marta ko'p bo'lsa, aralashmaning o'rtacha molyar massasini (g) aniqlang.
A) 34 B) 40,8 C) 37,2 D) 36

119. (v13-134-17) Oltingugurt dioksid, uglerod monooksid va uglerod dioksidlardan iborat 200 l aralashma ishqor eritmasidan o'tkazilganda uning hajmi 80 l bo'lib qoldi. Geliyga nisbatan zichligi 10,4 ga teng gazlar aralashmasidagi gazlarning hajmiy ulushini (%) mos ravishda aniqlang.
A) 40; 40; 20 B) 25; 25; 50
C) 20; 40; 40 D) 30; 40; 30

120. (v13-150-30) Hajmiy nisbatlari mos ravishda 2:16:7 nisbatda olingan alken, kislorod, azot aralashmasi portlatildi va suv bug'i kondensatlandi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini tarkibida ikkita oddiy va bitta murakkab modda bo'lib, etanga nisbatan zichligi 1,14 ga teng bo'lsa, dastlabki aralashmani o'rtacha molyar massasini aniqlang.
A) 30,56 B) 32,8 C) 33,25 D) 31,68

121. (v13-151-28) Hajmiy nisbatlari mos ravishda 1:7:2 nisbatda olingan alkan, kislorod, azot aralashmasi portlatildi va suv bug'i kondensatlandi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini tarkibida ikkita oddiy va bitta murakkab modda bo'lib, neonga nisbatan zichligi 1,8 ga teng, bo'lsa, dastlabki aralashmadagi alkanni massa ulushini (%) aniqlang.
A) 10,0 B) 13,6 C) 17,1 D) 5,4

122. (v13-160-30) Neytronlar soni bir xil bo'lgan azot va ammiakdan iborat gazlar aralashmasidagi azotning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 33,3 B) 45,2 C) 55,3 D) 66,7

123. (v13-172-20) Tarkibidagi kaliyning massa ulushi 52,35 foiz bo'lgan kaliy va kaliysuperoksid aralashmasi suvda eritilishidan hosil bo'lgan gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini toping.
A) 28,47 B) 16 C) 14,86 D) 18

124. (v15-101-9) Azot va metanning 60 ml aralashmasi 60 ml (mo'l miqdordagi) kislorodda yondirildi. Reaksiya tugagandan so'ng reaksion aralashma dastlabki sharoitga

...etilganda aralashmaning hajmi 80 ml ga teng bo'lsa, dastlabki aralashmadagi azotning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 1/3 B) 2/3 C) 3/4 D) 1/4

125. (v15-102-4) X_2Y_3 moddada 20% X bor bo'lsa, X_4Y moddada necha foiz Y borligini aniqlang.
A) 60 B) 72,72 C) 40 D) 27,28

126. (v15-103-2) Azot va metanning 60 ml aralashmasi 60 ml (mo'l miqdordagi) kislorodda yondirildi. Reaksiya tugagandan so'ng reaksion aralashma dastlabki sharoitga keltirilganda aralashmaning hajmi 80 ml ga teng bo'lsa, hosil bo'lgan aralashmadagi azotning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 25 B) 30 C) 50 D) 75

127. (v15-103-17) Oddiy gazsimon moddalar aralashmasida xlor atomlari soni kislorod atomlari sonidan 2 marta kam, kripton atomlari sonidan esa 3 marta ko'p. 5 g shunday aralashma hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 2,15 B) 2,24 C) 5,6 D) 3,36

128. (v15-104-2) Mochevina tarkibidagi uglerod atomining oksidlanish darajasini aniqlang.
A) –4 B) +4 C) 0 D) +2

129. (v15-104-27) Alken va kisloroddan iborat 90 litr aralashma yondirilganda 50 litr aralashma olindi. Agar reaksiya uchun olingan kislorod hajmi alkenning 2/3 qismini yondirishga, yetarli bo'lsa, dastlabki aralashmadagi alkenning hajmiy ulushini (%) aniqlang. (Suv bug'i kondensatlangan.)
A) 20 B) 80 C) 33,33 D) 66,67

130. (v15-106-32) Bir aralashma tarkibidagi Ne va N_2 hajmiy ulushlari mos ravishda x va y ga teng, ikkinchi xuddi shunday aralashma tarkibidagi Ne va N_2 hajmiy ulushlari mos ravishda y va x ga teng. Agar ikkala aralashma o'rtacha molyar massalarining farqi 2,4 ga teng bo'lsa, x va y larni toping.
A) 0,30; 0,70 B) 0,25; 0,75
C) 0,35; 0,65 D) 0,40; 0,60

131. (v15-106-36) Bir aralashma tarkibidagi CH_4 va Ar hajmiy ulushlari mos ravishda x va y ga teng, ikkinchi xuddi shunday aralashma tarkibidagi CH_4 va Ar hajmiy ulushlari mos ravishda y va x ga teng. Agar ikkala aralashma o'rtacha molyar massalarining farqi 9,6 ga teng bo'lsa, x va y larni toping.
A) 0,40; 0,60 B) 0,35; 0,65
C) 0,30; 0,70 D) 0,25; 0,75

132. (v15-107-23) Bir aralashma tarkibidagi SO_2 va N_2 hajmiy ulushi ari mos ravishda x va y ga teng, ikkinchi xuddi shunday aralashma tarkibidagi SO_2 va N_2 hajmiy ulushi ari mos ravishda y va x ga teng. Agar ikkala aralashma o'rtacha molyar massalarining farqi 25,2 ga teng bo'lsa, x va y larni toping.
A) 0,35; 0,65 B) 0,2; 0,8
C) 0,45; 0,55 D) 0,15; 0,85

133. (v15-107-25) 12 litr (n. sh.) CH_4 va C_2H_4 gazlari aralashmasida uglerodning massasi vodorodning massasidan 4 marta kalta bo'lsa, gazlar aralashmasining hajmiy (l, n. sh.) tarkibini mos ravishda aniqlang.
A) 7; 5 B) 6; 6 C) 2; 10 D) 8; 4

134. (v15-109-29) CH_4 1500°C da qizdirilganda atsetilen hosil qiladi. Agar reaksiya unumi 60% ga teng bo'lsa, olingan gazlar aralashmasidagi vodorodning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 37,5 B) 18,75 C) 45,0 D) 56,25

135. (v15-109-35) Bir aralashma tarkibidagi CO_2 va SO_2 hajmiy ulushlari mos ravishda, x va y ga teng, ikkinchi xuddi shunday aralashma tarkibidagi CO_2 va SO_2 hajmiy ulushlari mos ravishda y va x ga, teng. Agar ikkala aralashma o'rtacha molyar massalarining farqi 2 ga teng bo'lsa, x va y larni toping.
A) 0,2; 0,8 B) 0,45; 0,55
C) 0,35; 0,65 D) 0,15; 0,85

136. (v15-111-9) Alken va kisloroddan iborat 70 litr aralashma yondirilganda 45 litr aralashma olindi. Agar reaksiya uchun olingan kislorod hajmi alkenning 40% ini yondirishga yetarli bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kislorod hajmiy ulushini (%) aniqlang (suv bug'i kondensatlangan).
A) 33,33 B) 36,71 C) 66,67 D) 64,28

137. (v15-111-26) Suv bug'lari va vodoroddan iborat 12 g aralashmaga ma'lum miqdor geliy gazi qo'shilganda aralashmaning zichligi o'zgarmadi. Dastlabki aralashmadagi vodorodning massa, ulushini (%) aniqlang.
A) 43,75 B) 6,25 C) 93,75 D) 56,25

138. (v15-112-20) Suv bug'lari va vodoroddan iborat 12 g aralashmaga ma'lum miqdor geliy gazi qo'shilganda aralashmaning zichligi o'zgarmadi. Dastlabki aralashmadagi suvning massasini (g) aniqlang.
A) 11,25 B) 0,75 C) 6,75 D) 5,25

139. (v15-112-24) Qaldiroq gazning vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 36 B) 24 C) 6 D) 12

140. (v15-113-16) Noma'lum alkanning 0,45 moli noma'lum hajmdagi kislorod bilan to'liq yondirildi. Agar shu kislorod 44,8 litr (D_{H_2} = 18) ozon-kislorod aralashmasidan olingan bo'lsa, noma'lum alkanni toping.
A) C_4H_{10} B) C_5H_{12} C) C_2H_6 D) C_3H_8

141. (v15-113-26) Ammiak va kislorodning 28 litr (n. sh.) aralashmasi katalizator ishtirokida reaksiyaga kirishgandan so'ng 6 litr (n. sh.) kislorod ortib qolgan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kislorodning hajmini (litr, n. sh.) aniqlang.
A) 20 B) 18,2 C) 8 D) 15,4

142. (v15-115-10) Mochevina suv bilan qizdirilishidan olingan gazlar aralashmasining o'rtacha molyar massasini aniqlang.
A) 34 B) 52 C) 26 D) 44

143. (v15-116-7) Bir aralashma tarkibidagi NO_2 va SO_2 hajmiy ulushlari mos ravishda x va y ga teng, ikkinchi xuddi shunday aralashma tarkibidagi NO_2 va SO_2 hajmiy ulushlari mos ravishda y va x ga teng. Agar ikkala aralashma o'rtacha molyar massalarining farqi 10,8 ga teng bo'lsa, x va y larni toping.
A) 0,35; 0,65 B) 0,15; 0,85
C) 0,45; 0,55 D) 0,2; 0,8

144. (v15-119-1) Tarkibi hajm bo'yicha 30% karbonat angidrid va noma'lum gazdan iborat aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 17,8 ga teng. Noma'lum gazni toping.
A) N_2 B) H_2 C) O_2 D) Cl_2

145. (v15-124-24) Suv bug'lari va vodoroddan iborat 12 g aralashmaga ma'lum miqdor geliy gazi qo'shilganda aralashmaning zichligi o'zgarmadi. Dastlabki aralashmadagi suvning massasini (g) aniqlang.
A) 6,75 B) 0,75 C) 5,25 D) 11,25

146. (v15-124-33) Noma'lum alken kaliy permanganatning suvli eritmasi bilan ta'sirlashganda hosil bo'lgan cho'kma massasi reaksiyaga kirishgan alken massasidan 2,07 marta og'ir bo'lsa, ushbu alken havo bilan qanday hajmiy nisbatda yonadi? (havo tarkibida hajm jihatidan 20% O_2 bor deb hisoblansin).
A) 1:37,5 B) 1:22,5 C) 1:30 D) 2:30

147. (v15-127-22) CH_4 va CO_2 aralashmasi massasining 1/2 qismi 18,4 g, 3/4 qismi esa 1,2 mol kelsa, aralashmaning o'rtacha molyar massasini aniqlang.
A) 46 B) 28 C) 36,8 D) 23

148. (v16-110-11) NO_2, alken va ko'p halqali aromatik uglevodoroddan iborat aralashma bor. Moddalar mos ravishda 6:3:1 (mol) nisbatda aralashtirilganda ularning atomlari soni o'zaro teng bo'ladi. 2 mol shunday aralashmadagi vodorod atomlari sonini aniqlang.
A) $3{,}25 \cdot 10^{24}$ B) $2{,}40\ 10^{24}$
C) $1{,}92 \cdot 10^{24}$ D) $1{,}69 \cdot 10^{24}$

149. (v16-112-30) Odatda havo tarkibida hajm jihatdan 0,04% karbonat angidrid bo'ladi. Agar uning havodagi miqdori 0,1% gacha ko'tarilsa, bosh og'rig'i va nafas olish qiyinlashuvi vujudga keladi. 16 ta o'quvchidan iborat havo almashtirgich tizimi bo'lmagan 5×8×4 m^3 o'lchamli o'quv zalida qancha vaqt (minut)dan so'ng yuqoridagi holatlar kuzatila boshlaydi? (1 ta o'quvchi bir soatda 20 litr karbonat angidrid ajratadi deb hisoblang)
A) 360 B) 42 C) 18 D) 30

150. (v16-118-6) NO va NO_2 ning 120 ml aralashmasiga 100 ml kislorod aralashtirildi. Reaksiyadan keyin gazlar aralashmasi tarkibidagi ortib qolgan kislorod hajmi dastlabki gazlar aralashmasidagi NO_2 hajmidan 1,5 marta ko'p ekanligi aniqlandi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasining o'rtacha molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 106/3 B) 62/3 C) 53/3 D) 124/3

151. (v16-120-6) 4 litr metan va etilen aralashmasi tarkibidagi uglerodning massasi vodorodning massasidan 3,75 marta katta bo'lsa, gazlar aralashmasining molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 22 B) 24 C) 19 D) 23,2

152. (v16-122-16) NO va NO_2 ning 120 ml aralashmasiga 100 ml kislorod aralashtirildi. Reaksiyadan keyin gazlar aralashmasi tarkibidagi ortib qolgan kislorod hajmi dastlabki gazlar aralashmasidagi NO_2 hajmidan 1,5 marta ko'p ekanligi aniqlandi. Hosil bo'lgan va dastlabki gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichliklari farqini aniqlang.
A) 4 B) 5 C) 6 D) 3

153. (v16-125-27) Hajmi 8,96 l (n. sh.) bo'lgan vodorod va kislorod aralashmasining massasi 3,8 g ga teng. Aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 80, 20 B) 75, 25 C) 40, 60 D) 70, 30

154. (v16-128-4) 8 litr metan va etilen aralashmasi tarkibidagi uglerodning massasi vodorodning massasidan 4 marta katta bo'lsa, gazlar aralashmasidagi alkanning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) $\frac{250}{3}$ B) $\frac{100}{3}$ C) $\frac{200}{3}$ D) $\frac{400}{9}$

155. (v17-106-17) 20 litr NH_3 parchalanganda uning hajmi 3/2 marta ortdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini aniqlang.
A) 15,0 B) 11,33
C) 15,6 D) 12,8

156. (v17-108-30) Vodorod, etilen va karbonat angidrid gazidan iborat aralashmaning o'rtacha molekulyar massasi 29,5 g/mol ($\omega(CO_2)$ = 74,6%). Unga platinali katalizator tushurilgandan so'ng idishdagi bosim 25% ga kamaydi. Hosil bo'lgan aralashmaning vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 19,67 B) 39,33
C) 14,75 D) 29,5

157. (v17-109-2) H_2S va NH_3 dan iborat aralashmaning o'rtacha molekulyar massasini aniqlang. Aralashmadagi sp^3 va s gibridli orbitallarning sonlar nisbati 5:3 ga teng.
A) 25,2 B) 23,8
C) 27,2 D) 28,9

158. (v17-110-13) Tarkibi SO_2, C_2H_6 va H_2S dan iborat bo'lgan gazli aralashma o'rta molekulalar massasi 44,8 g/mol ga teng. Agar aralashmada sp^2 va sp^3 gibridli orbitallar nisbatlari 1:1 bo'lganda, aralashmadagi H_2S ning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 0,4 B) 0,3 C) 0,6 D) 0,7

159. (v17-111-21) 60 ml azot va metan aralashmasiga 60 ml kislorod qo'shildi. Aralashma yondirildi va n. sh. ga keltirildi. Aralashma hajmi 80 ml bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi azotning hajmiy ulushini toping.
A) 1/3 B) 2/3 C) 1/2 D) 1/5

160. (v17-111-32) 20 litr NH_3 parchalanganda uning hajmi 5/4 marta ortdi. Hosil bo'lgan gazlar aralishmasining geliyga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 4,8 B) 3,4 C) 4,2 D) 6,8

161. (v17-112-9) Hajmiy nisbatlari mos ravishda 1:3 bo'lgan 8,96 litr (n. sh.) CO_2 va CH_4 gazlar aralashmasiga gazlarning atomlar soni teng bo'lguncha CO_2 qo'shildi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasining vodorodga nibatan zichligini toping.
A) 14,25 B) 16,75 C) 33,5 D) 28,5

162. (v17-115-14) 20 litr NH_3 parchalanganda uning hajmi 5/4 marta ortdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi NH_3 ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 60 B) 50 C) 80 D) 70

163. (v17-115-36) Vodorod va O_2 dan iborat aralashmaning geliyga nisbatan zichligi qancha bo'lganda aralashma tarkibidagi O_2 (ω) massa ulushi H_2 ning hajmiy ulushiga teng bo'ladi?
A) 4 B) 6 C) 2 D) 8

164. (v17-119-22) SO_2, C_2H_6 va H_2S dan iborat gaz aralashmasining o'rta molekulyar massasi 44,8 g/mol ga teng. Agar aralashmadagi sp^2 va sp^3 gibridli orbital sonlar nisbatlari 1:1 bo'lsa, aralashmadagi SO_2 ning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 0,7 B) 0,3 C) 0,6 D) 0,4

165. (v17-119-33) Hajmiy nisbatanlari mos ravishda 1:3 bo'lgan 8,96 litr (n. sh.) CO_2 va CH_4 gazlar aralashmasiga gazlarning atomlar soni teng bo'lguncha CO_2 ning hajmiy ulushini toping.
A) 3/8 B) 5/8 C) 1/4 D) 3/4

166. (v17-119-36) 20 litr NH_3 parchalanganda uning hajmi 5/4 marta ortdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi H_2 va N_2 ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 50; 30
B) 30; 20
C) 40; 30
D) 30; 10

167. (v17-122-29) 20 litr NH_3 parchalanganda uning hajmi 5/4 marta ortdi. Hosil bo'lan gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini aniqlang.
A) 12,8 B) 14,2 C) 10,4 D) 13,6

168. (v17-123-36) 20 litr NH_3 parchalanganda uning hajmi 5/4 marta ortdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi NH_3 ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 60 B) 50 C) 80 D) 70

169. (v17-124-18) Noma'lum gazning CO_2 bilan aralashmasida uning massa ulushi 17,5%, hajmiy ulushi esa 25% ga teng bo'lsa, noma'lum gazni aniqlang.
A) CH_4 B) Ne C) C_2H_2 D) CO

170. (v17-124-21) Ozon va kislorod aralashmasi tarkibidagi ozon to'liq kislorodga aylanishi natijasida aralashma hajmi 35% ga oshadi. Boshlang'ich aralashmaning o'rtacha molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 43,2 B) 40,6 C) 33,9 D) 36,8

171. (v17-127-9) Is gazi va vodorod aralashmasidan 1,5:1,5 massa nisbatda metan va etan aralashmasi olingan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi CO va H_2 gazlarining hajmiy nisbatini hisoblang.
A) 1:4 B) 1:2,4 C) 1:2,75 D) 1:3,27

45. Ortiqcha – kam berilgan moddalar bo'yicha masalalar

1. (96-8-82) 4 ml vodorod va 4 ml kislorod aralashmasi portlatilgandan keyin qaysi gaz qanday hajmda reaksiyaga kirishmay qolgan?
A) vodorod 2 ml B) kislorod 2 ml
C) vodorod 1 ml D) kislorod 1 ml
E) vodorod 1 ml, kislorod 2 ml

2. (97-2-3) Tarkibida 22,2 g kalsiy xlorid bo'lgan eritma bilan tarkibida 25 g natriy karbonati bo'lgan eritma ta'sirlashishi natijasida necha gramm cho'kma ajralib chiqdi?
A) 20,0 B) 22,2 C) 25,0
D) 25,4 E) 28,0

3. (97-6-10) 100 g 8,5% li kumush nitrat eritmasi bilan 20 g 11,7% li osh tuzi eritmasi o'zaro aralashtirildi. Ortib qolgan moddaning massasini (g) aniqlang.
[$A_r(Ag)$ = 108, $A_r(N)$ = 14, $M_r(NaCl)$ = 58,5]
A) 1,5 B) 3,0 C) 2,0
D) 1,7 E) 2,5

4. (97-6-37) 400 ml 2,5 M HCl eritmasi bilan tarkibida $3{,}02 \cdot 10^{23}$ ta Na_2CO_3 molekulasi bo'lgan eritma o'zaro ta'sirlashganda, qancha hajm (l, n. sh.) gaz ajralib chiqadi?
A) 11,2 B) 44,8 C) 22,4
D) 33,6 E) 5,6

5. (97-7-51) 15% li natriy gidroksid eritmasidan 150 ml va 100 ml 10% li xlorid kislota eritmalarini aralashtirilganda qaysi modda qaysi miqdorda ortib qoladi?
A) 15 g natriy gidroksid
B) 27 g xlorid kislota
C) 10 g xlorid kislota
D) 18 g natriy gidroksid
E) 11,6 natriy gidroksid

6. (97-8-1) 400 ml 0,5 m sulfat kislota bilan 10,4% li 160 ml (ρ = 1,25 g/l) bariy xlorid eritmalari o'zaro aralashtirildi. Bunda qaysi modda va necha gramm ortib qoladi?
A) 20,8 g $BaCl_2$
B) 2,08 g $BaCl_2$
C) 0,98 g H_2SO_4
D) 9,8 g H_2SO_4
E) ortib qolmaydi

7. (97-9-37) 8 g Fe_2O_3 5,4 g Al bilan qaytarilganda, qaysi modda qancha miqdorda ortib qoladi? [$M_r(Fe_2O_3)$ = 160, $A_r(Al)$ = 27]
A) 1,35 g Al B) 2 g Fe_2O_3
C) 4 g Fe_2O_3 D) 2,7 g Al
E) qolmaydi

8. (97-9-45) 50 g 20% li NaOH eritmasi 50 g HCl ning 36,5% li eritmasi bilan aralashtiriladi. Ortiqcha olingan komponentning qolgan modda miqdori aniqlansin.
[M_r(NaOH) = 40, M_r(HCl) = 36,5]
A) 0,25 (HCl) B) 3,6 (HCl)
C) 1,8 (NaOH) D) 3,8 (NaOH)
E) 0,8 (NaOH)

9. (97-10-89) 14 g temir moddasi 6,4 g oltingugurt bilan reaksiyaga kirishganda, qanday va qancha massada (g) modda ortib qoladi?
A) 2,8 g S B) 2,8 g Fe
C) 11,2 g Fe D) 11,2 g S
E) 5,6 g Fe

10. (97-11-135) 34 g ammiak 80 g vodorod xlorid bilan aralashtirildi. Bunda qancha miqdorda (g) yangi modda hosil bo'lishi kerak?
[$A_r(N)$ = 14, $A_r(Cl)$ = 35,5]
A) 105 B) 109 C) 107
D) 110 E) 104

11. (97-11-155) 13 g rux 1,1 mol kislorod bilan birikkanda, necha mol kislorod ortib qoladi? [$A_r(Zn)$ = 65]
A) 0,2 B) 1,0 C) 0,15
D) 0,25 E) 0,3

12. (97-11-157) 40,5 g alyuminiyga 6 mol miqdor konsentrlangan xlorid kislota ta'sir ettirib, necha litr (n. sh.) vodorod olish mumkin?
[$A_r(Al)$ = 27]
A) 67,2 B) 44,8 C) 50,4
D) 62,7 E) 48,4

13. (98-2-10) 100 g 26% li nitrat kislota eritmasida 6,4 g mis eritildi. Eritmada hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 18 B) 9 C) 27 D) 36 E) 4,5

14. (98-2-16) Tarkibida 20 g gidroksid bo'lgan eritmaga 70 g 30% li nitrat kislota eritmasi quyildi. Hosil bo'lgan eritmaga botirilgan lakmus qog'ozi qanday rangga kiradi?
A) ko'k B) o'zgarmaydi
C) qizil D) rangsiz
E) o'zgaradi

15. (98-7-20) Kalsiy oksidning 5,6 g miqdoriga 5,4 g grafit qo'shib qizdirildi. Reaksiyadan so'ng grafitdan necha gramm ortib qoladi?
[$N_r(Ca)$ = 40, $N_r(O)$ = 16, $N_r(C)$ = 12]
A) 0,2 B) 11,0 C) 0,1 D) 1,8
E) ortmaydi

16. (98-9-8) 40 g mis (II) sulfat eritilgan eritmaga 11,2 g temir kukuni qo'shilganda, qanday moddalar va qanday massada (g) hosil bo'ladi?
A) 11,4 Cu va 27,14 $FeSO_4$
B) 12,8 Cu va 30,4 $FeSO_4$
C) 13,4 Cu va 25,14 $FeSO_4$
D) 9,4 Cu va 29,14 $FeSO_4$
E) 15,4 Cu va 26,58 $FeSO_4$

17. (98-12-36) 0,2 mol vodorod bilan 0,3 mol ftor orasidagi reaksiya natijasida necha litr (n. sh.) vodorod ftorid hosil bo'ladi?
A) 8,96 B) 5,6 C) 11,2
D) 4,48 E) 16,8

18. (99-3-54) 50 g oltingurt (VI) oksid 1000 ml suvda eritildi va unga kaliy gidroksid (1,19 g/ml) ning 400 ml 20% li eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritma muhiti qanday bo'ladi?
A) ishqoriy B) kislotali
C) neytral D) kuchli kislotali
E) neytralga yaqin

19. (99-5-50) 3 g vodorod bilan 24 g kislorod aralashmasi portlatilganda, necha gramm suv hosil bo'ladi?
A) 31 B) 28 C) 30 D) 27 E) 29

20. (99-5-65) 65 g 20% li xlorid kislota 15 g rux bilan reaksiyaga kirishganda, taxminan necha gramm vodorod ajralib chiqadi?
A) 0,356 B) 0,460 C) 0,259
D) 0,392 E) 0,312

21. (99-8-2) 25% li 73 g xlorid kislota bilan 40 g natriy silikatning ta'sirlashuvidan hosil bo'lgan silikat kislotaning massasini (g) hisoblab toping.
A) 18,9 B) 18,3 C) 20,4
D) 19,5 E) 20,7

22. (00-9-43) 15 g 5% li bariy xlorid eritmasi 10 g 8% li natriy sulfat eritmasi bilan aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) hisoblang.
A) 0,84 B) 0,92 C) 0,74
D) 0,88 E) 0,92

23. (01-2-67) 5 l kislorod olish uchun 96% li texnik kaliy permanganatdan qancha gramm kerak?
A) 64,5 B) 74,2 C) 76,7
D) 87,5 E) 68,0

24. (01-3-35) Kumush nitratning massa ulushi 0,85 bo'lgan 200 g eritmasi bilan osh tuzining massa ulushi 0,15 bo'lgan 400 g eritmasi o'zaro aralashtirildi. Ortib qolgan moddaning massasini (g) aniqlang.
A) 13,6 g $AgNO_3$ B) 152,5 g $AgNO_3$
C) 1,5 g NaCl D) 5,44 g NaCl
E) ortib qolmaydi

25. (01-3-47) Massasi 5,4 bo'lgan suvga massasi 4,6 g bo'lgan natriy bo'lakchasi tashlandi. Reaksiya natijasida qaysi moddadan qancha massa (g) ortib qoladi?
A) 0,224 g H_2O B) 0,112 g H_2O
C) 1,12 g Na D) 11,2 g Na
E) 1,8 g H_2O

26. (01-7-2) 40 g oltingugurt (VI) oksidning 920 g suvda eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini aniqlang.
A) 5,1 B) 6 C) 10,2 D) 4,35 E) 4,2

27. (02-10-45) Ammiak sintezi uchun olingan 100 l N_2 va H_2 aralashmasining 20% i N_2 bo'lsa, berilgan javoblardan qaysi biri noto'g'ri?
A) reaksiya natijasida 40 l NH_3 hosil bo'ladi
B) reaksiyaga 20 l N_2 va 60 l H_2 kirishgan
C) 20 l H_2 ortiqcha olingan
D) N_2 va H_2 to'liq reaksiyaga kirishgan
E) 80 l aralashma reaksiyaga kirishgan

28. (02-12-10) 0,15 M li 120 ml HNO_3 bilan 2 litrida 14 g KOH bo'lgan eritmadan 200 ml aralashtirildi. Reaksiyadan so'ng eritmadagi OH^- ionlarining molyar konsentratsiyasini aniqlang.
A) 0,05 B) 0,15 C) 0,02
D) 0,04 E) 0,0125

29. (02-12-40) Temir (II) oksidning 18 gramm va 7,75 g fosforning reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan fosfor oksidning va ortib qolgan moddaning massalarini toping.
A) 7,1; 4,65 B) 6,3; 3,47
C) 7,56; 5,4 D) 6,6; 5,6
E) 6,4; 3,2

30. (03-12-16) 130 g nitrat kislota bilan tarkibida 80 g o'yuvchi natriy bo'lgan eritmaning o'zaro ta'siri natijasida qaysi moddadan qancha (g) ortib qoladi?
A) HNO_3; 2 B) HNO_3; 4
C) NaOH; 6 D) NaOH; 8
E) NaOH; 4

31. (03-12-25) Tarkibi 20 g ammoniy xlorid va 20 g kalsiy oksiddan iborat bo'lgan aralashmani qizdirib, qancha (g) ammiak olish mumkin? Reaksiya unumini 98% ga teng deb hisoblang.
A) 6,2 B) 7,2 C) 6,8
D) 9,2 E) 5,6

32. (04-1-87) Quyidagi reaksiyada ishtirok etmagan oltingugurt (IV) oksidining va kislorodning massasi katalizator ustidan $6{,}02 \cdot 10^{24}$ molekula oltingugurt (IV) oksidi va 336 l (n. sh.) kisloroddan iborat aralashma o'tkazilganda, 640 g oltingugurt (IV) oksidi hosil bo'ldi.
A) 12,8; 35,2
B) $1{,}2 \cdot 10^{24}$; 352
C) $9{,}0 \cdot 10^{23}$; 320
D) 128; 352
E) 12,8; 400

33. (04-1-328) 15 g 4,4% li bariy xlorid eritmasi 10 g 8% li natriy sulfat eritmasi bilan aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) hisoblang.
A) 0,84 B) 0,92 C) 0,74
D) 0,88 E) 0,92

34. (04-1-490) 11,2 g temir qipig'i va 97,4 g xlorid kislotaning 15% li eritmasi bilan reaksiyasida qanday modda va necha gramm hosil bo'lishini toping.
A) temir (II) xlorid; 20 g
B) temir (II) xlorid; 25,4 g
C) temir (II) gidroksoxlorid; 21,4 g
D) temir (III) gidroksoxlorid, 28,6 g
E) temir (III) xlorid; 29,5 g

35. (04-1-500) Mis (II) sulfatning 60 g 30% li eritmasiga 15 g temir kukuni qo'shildi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 4,8 B) 12 C) 5,6
D) 7,2 E) 17,1

36. (04-1-544) Tarkibida 15,2 g temir (II) sulfat bo'lgan eritmaga 2,4 g magniy qipig'i solindi. Bunda qancha temir ajralib chiqadi?
A) 2,67 g B) 4,67 g C) 2,8 g
D) 9,34 g E) 5,6 g

37. (04-1-579) Massasi 24 g kislorod bilan 1,5 m^3 vodorod aralashmasi portlatilganda, necha kg suv hosil bo'ladi?
A) 31 B) 27 C) 30
D) 2,7 E) 1,2

38. (04-1-635) 1 g toza sulfat kislota erigan 1 l eritma bilan 2 l (n. sh.) ammiak reaksiyada qatnashganda, necha mol tuz hosil bo'lgan va eritma muhiti qanday (gidroliz hisobga olinmasin)?
A) 1,0; kislotali
B) 1,8; neytral
C) 0,01; ishqoriy
D) 1,35; ishqoriy
E) 1,5; neytral

39. (04-1-641) 40 g mis (II) sulfat eritilgan eritmaga 5,6 g temir kukuni qo'shildi. Qanday moddalar va qanday massada (g) hosil bo'ladi hamda qaysi moddadan qancha (g) ortib qoladi?
A) 11,4 Cu va 27,14 $FeSO_4$
B) 12,8 Cu va 30,4 $FeSO_4$; 6,4 g $CuSO_4$
C) 13,4 Cu va 25,14 $FeSO_4$; 12 g $CuSO_4$
D) 6,4 Cu va 15,2 $FeSO_4$
E) 6,4 Cu va 15,2 $FeSO_4$; 24 g $CuSO_4$

40. (04-1-660) 5,1 g ammiak 9,8 g sulfit kislota bilan reaksiyaga kirishgan. Bunda qancha (g) yangi modda hosil bo'lgan.
A) 13,2 B) 15,2 C) 25,5
D) 12,5 E) 13,9

41. (04-1-704) 25% li 73 g xlorid kislota eritmasi bilan 30,5 g natriy silikatning ta'sirlashuvidan hosil bo'lgan tuzning massasini (g) hisoblab toping.
A) 18,9 B) 29,3 C) 20,3
D) 19,5 E) 20,7

42. (v4-101-27) 0,565 g temir qipig'i bilan 0,32 g oltingugurt kukuni orasidagi reaksiyada necha mol temir sulfid hosil bo'ladi? Ortib qolgan moddaning boshlang'ich aralashmaga nisbatan massa ulushi qanday bo'ladi?
A) 0,88 va 0,45% S B) 0,80 va 0,4% Fe
C) 0,01 va 0,56% S D) 0,80 va 0,50% S
E) 0,01 va 0,56% Fe

43. (v5-105-10) 24 ml vodorod bilan 15 ml kislorod aralashmasi portlatildi. Portlashdan keyin qaysi gaz qancha hajmda (ml) qolgan?
A) 9, H_2 B) 3, O_2 C) 6, H_2
D) 9, O_2 E) 3, H_2

44. (v5-105-26) 1,19 g KBr tutgan eritmaga 3,4 g $AgNO_3$ qo'shildi. Olingan cho'kma ajratildi. Filtratda qanday moddalar va necha grammdan qolgan?
A) 0,3 g $AgNO_3$; 0,3 g KNO_3
B) 1,19 g KBr; 1,8 g AgBr
C) 1,7 g $AgNO_3$; 1,01 g KNO_3
D) 1,7 g $AgNO_3$; 3,4 g KNO_3
E) 1,88 g AgBr; 1,01 g KNO_3

45. (v5-107-35) 40 g qalayga 36,5% li HCl eritmasi ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan vodorodning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 9,24 B) 19,83 C) 8,26
D) 10,13 E) 7,53

46. (v5-110-18) 3 g vodorod va 3 g kislorod o'zaro reaksiyaga kirishganda necha litr (n. sh.) gaz ortib qoladi?
A) 33,6 B) 29,4 C) 0,375
D) 22,4 E) 2,625

47. (v5-122-29) 35 g ammiak bilan 73 g vodorod xlorid reaksiyaga kirishganda necha gramm NH_4Cl hosil bo'ldi? Qanday modda necha gramm ortib qolgan?
A) 53,5; 17 HCl B) 53,5; 36,5 NH_3
C) 110; 35 HCl D) 107; 1 NH_3
E) 107; 34 NH_3

48. (v5-123-26) 10% li 25 ml (ρ = 1,047 g/sm^3) HCl eritmasiga 30 ml 10% li (ρ = 1,109 g/sm^3) NaOH eritmasi qo'shildi. Reaksiya tugagandan keyin muhit qanday bo'ladi?
A) ishqoriy B) kuchli kislotali
C) kislotali D) kuchsiz kislotali
E) neytral

49. (v5-134-17) 30 ml aralashmadagi N_2 va H_2 o'zaro reaksiyaga kirishgandan so'ng gazlarning og'irrog'idan 4 ml ortib qoldi. Dastlabki aralashmadagi vodorodning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 35 B) 65 C) 25 D) 40 E) 75

50. (v6-108-19) 5,4 g Al bilan 8 g Fe_2O_3 qaytarilganda qaysi modda qancha miqdorda (g) ortib qoladi?
A) Fe_2O_3, 2 B) Al, 1,35
C) Al, 2,7 D) Fe_2O_3, 4

51. (v6-109-19) Kislorodning hajmiy ulushi 20% bo'lgan vodorod va kisloroddan iborat 27 g aralashma portlatilgandan so'ng ortib qolgan gaz va uning massasini (g) aniqlang.
A) kislorot, 8,64 B) vodorod, 17,28
C) vodorod, 2,7 D) kislorod, 0,32

52. (v6-115-25) Natriy gidroksid (0,4 mol/l) va sulfat kislota (0,1 molyarli) eritmalaridan 0,5 l dan olib aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmadagi (ρ = 1 g/ml) gidroksid ionining massa ulushini (%) toping.
A) 0,56 B) 0,17 C) 0,017 D) 0,34

53. (v7-102-18) Kislorodning hajmiy ulushi 20% bo'lgan vodorod va kisloroddan iborat 200 g aralashma portlatilgandan so'ng qaysi gazdan qancha miqdorda (g) ortib qoladi?
A) vodorod; 20 B) vodorod; 155
C) kislorod; 120 D) kislorod; 35

54. (v7-106-20) 30 l (n. sh.) ammiak temir katalizatori ustidan o'tkazilganda (t = 350°C), hajmi 40 l (n. sh.) bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu aralashmadagi N_2, NH_3 va H_2 larning hajmiy ulushini (berilgan tartibda) hisoblang.
A) 0,125; 0,50; 0,375 B) 0,10; 0,60; 0,30
C) 0,25; 0,50; 0,25 D) 0,125; 0,125; 0,50

55. (v7-117-28) 40 g oltingugurt (VI) oksid 1000 ml suvda eritilib unga natriy gidroksidning 20% li eritmasidan (ρ = 1,2 g/ml) 200 ml qo'shilsa eritmaning muhiti qanday bo'ladi?
A) kislotali B) ishqoriy
C) kuchli kislotali D) neytral

56. (v9-102-2) 6 molyarli 400 ml (ρ = 1,2 g/ml) natriy gidroksid eritmasiga 36,5 g HCl yuttirilishidan hosil bo'lgan eritmadagi ishqorning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 10,8 B) 13,8 C) 6,7 D) 7,3

57. (v9-102-35) 22,4 l (n. sh.) atsetilen olish uchun tarkibida 20% qo'shimcha moddalar bo'lgan kalsiy karbidning necha gramiga suv ta'sir ettirish kerak?
A) 46 B) 64 C) 124 D) 80

58. (v9-104-2) 100 g 36% li xlorid kislotaning 47,8 g qo'rg'oshin (IV) oksid bilan reaksiyasida ajralgan gazning hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 8,96 B) 2,24 C) 4,48 D) 6,72

59. (v9-104-18) 6 molyarli 400 ml (ρ = 1,2 g/ml) natriy gidroksid eritmasiga 22,4 l (n. sh.) HCl yuttirilishidan hosil bo'lgan eritmadagi ishqorning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 13,8 B) 10,8 C) 7,3 D) 6,7

60. (v9-110-18) 6 molyarli 5 ml natriy gidroksid eritmasiga (ρ = 1,2 g/ml) 448 ml (n. sh.) HCl yuttirilishidan hosil bo'lgan eritmadagi ishqorning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 5,94 B) 3,36 C) 4,62 D) 7,3

61. (v9-120-32) 96 ml 20% li (ρ = 1,25 g/ml) natriy gidroksid eritmasiga 11,2 l (n. sh.) vodorod sulfide shimdirilishidan hosil bo'lgan tuz(lar)ni va u(lar)ning massasini (g) aniqlang.
A) Na_2S, 7,8; NaHS, 22,4
B) Na_2S, 19,5
C) NaHS, 16,8; Na_2S, 15,6
D) Na_2S, 23,4; NaHS, 11,2

62. (v9-122-10) 120 g 20% li natriy gidroksid eritmasiga 8,96 l (n. sh.) vodorod sulfid shimdirilishidan hosil bo'lgan tuz(lar)ni va ularning massasini (g) aniqlang.
A) Na_2S, 5,7; NaHS, 16,5
B) Na_2S, 7,8; NaHS, 22,4
C) NaHS, 11,2; Na_2S, 15,6
D) Na_2S, 19,5

63. (v11-102-36) 6 molyarli 7 ml natriy ishqori eritmasiga (ρ = 1,2 g/ml) 600 ml (n. sh.) HCl yuttirilishidan hosil bo'lgan eritmadagi tuzning konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 17,91 B) 26,2 C) 16,74 D) 9,45

64. (v12c-105-30) 400 g 20% li $AgNO_3$ eritmasi bilan 41,7 ml 26% li HCl eritmasi (ρ = 1,2 g/ml) aralashtirildi. Eritmada qolgan moddaning massa ulushini (%) toping.
A) 60 B) 6,0 C) 4,88 D) 19,5

65. (v13-103-22) Tarkibida 16 g $CuSO_4$ bo'lgan eritmaga 4,8 g temir qipig'i solinganda qancha (g) mis ajralib chiqadi?
A) 5,5 B) 12,8 C) 6,4 D) 3,2

66. (v13-145-18) 1,095 g vodorod xloridning 1,19 g NH_3 bilan o'zaro ta'sirlashishidan hosil bo'ladigan ammoniy xloridning massasini (g) aniqlang.
A) 0,160 B) 160,5 C) 16,05 D) 1,605

67. (v14-125-3) 0,2 l 4 M $FeCl_3$ eritmasiga 0,15 mol H_2S shimdirildi. Hosil bo'lgan eritma filtrlandi. Filtrat necha gramm 25% li NaOH eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi?
A) 360 B) 384 C) 420 D) 180

68. (v16-102-25) 400 g 20% li NaOH va 222,5 g 30% li $AlCl_3$ eritmalari aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) toping.
A) 15,2% NaCl va 8,1% $Na[Al(OH)_4]$
B) 16,3% NaCl va 7,2% $Na[Al(OH)_4]$
C) 13,3% NaCl va 8,2% $Na[Al(OH)_4]$
D) 14,1% NaCl va 9,5% $Na[Al(OH)_4]$

69. (v16-106-8) 50 g 4% li $AlBr_3$ eritmasiga 50 g 4% li NaOH eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi moddalarning massa ulushlarini hisoblang.
A) 0,9% NaBr; 0,8% NaOH; 2,3% $Na[Al(OH)_4]$
B) 2,3% NaBr; 0,8% NaOH; 1,9% $Na[Al(OH)_4]$
C) 4,3% NaBr; 0,8% NaOH; 0,9% $Na[Al(OH)_4]$
D) 2,3% NaBr; 0,8% NaOH; 0,9% $Na[Al(OH)_4]$

70. (v17-106-22) 100 g natriy gidroksidining 0,4% eritmasiga 50 g sulfat kislotasi 1,96% li eritmasidan quyildi. Olingan eritmani 100 litrga teng hajmgacha suv bilan suyultirildi. Metiloranjli indikator olingan eritma bilan ta'sirlashganda qanday rangga o'tadi?
A) to'q qizil B) sariq
C) pushti D) rang o'zgarmaydi

71. (v17-118-35) 1,095 g vodorod xloridi 1,19 g NH_3 ammiak bilan reaksiyaga kirishdi. Ammoniy xloridining massasini aniqlang.
A) 0,160 B) 160,5 C) 16,05 D) 1,605

72. (v17-122-4) 45 g osh tuziga 49 g sulfat kislota ta'sir ettirildi. Shunda 12 g vodorod xloridi hosil bo'ldi. Agar hech narsa qo'shmasdan, reaksion idishda ortib qolgan aralashmadan vodorod xloridini olish mumkinmi? Agarda mumkin bo'lsa, qancha qo'shimcha massa (g) vodorod xloridini olsa bo'ladi?
A) ha, 16 B) ha, 18 C) yoq D) ha, 11

46. Tarkibida qoshimchalar bo'lgan moddalarni aniqlashga doir masalalar

1. (96-5-29) 20 g texnik alyuminiyga uyuvchi kaliyning mo'l eritmasi bilan ta'sir ettirildi, natijada 20 l vodorod (n. sh. da) ajralib chiqdi. Texnik alyuminiy tarkibida necha protsent erimaydigan qo'shimcha bo'lgan?
A) 20 B) 84 C) 30 D) 10 E) 50

2. (96-15-28) 15 g magniy qotishmasi mo'l miqdor suyultirilgan sulfat kislotada eritilganda 10 l vodorod (n. sh. da) ajralib chiqdi. Bu qotishmada necha protsent erimaydigan qo'shimcha bo'lgan?
A) 28 B) 14 C) 72 D) 35 E) 21

3. (97-2-52) 10% aralashmasi bor bo'lgan 16,0 g alyuminiy karbidi gidrolizlanganda qancha hajm (n. sh., l) metan ajralib chiqadi? [A_r(Al) = 27, A_r(C) = 12]
A) 67,2 B) 44,8 C) 6,72
D) 4,48 E) 11,2

4. (97-4-7) Qisman oksidlangan magniy kukuni tarkibida 1% kislorod bor. Shu namunada (massa bo'yicha) necha foiz magniy metalli bo'ladi?
A) 94,5 B) 95,5 C) 96,5
D) 97,5 E) 98,5

5. (97-4-17) Tarkibidagi aralashmaning massa ulushi 0,36 bo'lgan 45 g texnik kalsiy karbiddan n. sh. da necha litr atsetilen olish mumkin?
A) 33,6 B) 22,4 C) 11,2
D) 5,7 E) 44,8

6. (97-8-41) 75,2 g texnik mis (II) nitrat termik parchalanganda, n. sh. da 4,2 l kislorod hosil bo'ldi. Boshlang'ich tuz tarkibida aralashmaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 5,25 B) 6,25 C) 7,25
D) 8,25 E) 9,25

7. (97-10-30) 36% qo'shimchasi bo'lgan 50 g texnik kalsiy karbidni mo'l miqdor suvda eritganda necha litr (n. sh.) atsetilen ajrab chiqadi? [A_r(Ca) = 40, A_r(C) = 12]
A) 33,6 B) 22,4 C) 11,2
D) 5,6 E) 112

8. (97-11-126) Quyidagi reaksiya asosida nikel (II) oksidni qaytarib, nikel olinadi:
NiO + C = Ni + CO. Agar ko'mirdagi uglerodning massasi ulushi 90% ni tashkil etsa, 58,7 g nikel olish uchun qanday massada ko'mir kerak?
[A_r(Ni) = 58,7, M_r(C) = 12].
A) 11,8 B) 12,0 C) 12,5
D) 13,3 E) 13,0

9. (98-2-3) Tarkibida 20% qo'shimchalari bo'lgan 1 kg piritdan n. sh. da 90% unum bilan qancha (l) sulfit angidrid olish mumkin [A_r(Fe) = 56, A_r(S) = 32]?
A) 208,8 B) 228,8 C) 248,8
D) 268,8 E) 288,8

10. (98-7-30) Natriy nitratning tarkibida 10% aralashma bor. Shu tuzdan 300 g 6,3% li nitrat kislota eritmasini tamirlash uchun reaksiyaga $NaNO_3$ moddasidan necha gramm olish kerak [M_r(Na) = 23, M_r(N) = 14]?
A) 28,3 B) 30,0 C) 25,5
D) 32,2 E) 33,3

11. (98-11-45) 5,6 l atsetilen (n. sh.) olish uchun necha gramm 95 foizli texnik kalsiy oksid olish kerak?
A) 7,37 B) 28,4 C) 16,84
D) 34,5 E) 43,7

12. (99-7-28) Tarkibida 20% begona moddalar bo'lgan gematitning 200 kg miqdoridan 94% temirli cho'yandan necha kilogramm tayyorlash mumkin?
A) 170,2 B) 212,8 C) 160
D) 119 E) 123,2

13. (01-1-57) Agar texnik kalsiy karbidning 10 g miqdoridan olingan atsetilen hajmi 3000 ml (n. sh.) bo'lsa, namunadagi chet moddaning massa ulushini hisoblang.
A) 7,15 B) 8,45 C) 12,3
D) 14,3 E) 15,5

14. (01-3-63) Tarkibida qo'shimchalarning massa ulushi 0,15 bo'lgan 200 g ohaktoshning yuqori temperaturada parchalanishidan qancha massa (g) karbonat angidrid olish mumkin?
A) 18 B) 28 C) 22,4 D) 38 E) 74,8

15. (01-3-71) Tarkibida 88% sof alyuminiy karbid bo'lgan 20 g texnik namunaga mo'l miqdor suv ta'sir ettirilgan. Reaksiya unumi 85% ni tashkil etsa, hosil bo'lgan gazning (n. sh. dagi) hajmi qancha bo'ladi?
A) 3,16 B) 6,16 C) 5,16
D) 4,16 E) 7,00

16. (01-3-74) Tarkibida 75% sof malaxit bo'lgan 200 g mineraldan qancha (g) mis (II) oksid ajratib olish mumkin? Reaksiya unumi 0,9 ga teng.
A) 108,8 B) 104,8 C) 97,3
D) 108,4 E) 106,4

17. (01-5-41) Tarkibida 15% qo'shimcha modda bo'lgan 75,3 g CaC_2 ga suv ta'sir ettirilsa, necha litr gaz ajralib chiqadi (n. sh.)?
A) 5,6 B) 11,2 C) 33,6
D) 22,4 E) 44,8

18. (01-6-52) Tarkibida 30% qo'shimchalar bo'lgan 327,14 g gausmanit (Mn_3O_4) dan . alyuminotermin usuli bo'yicha necha gramm marganes olish mumkin?
A) 55 B) 75 C) 110
D) 165 E) 135

19. (01-9-19) Tarkibida 0,5 foiz chet moddalar bo'lgan dolomit mineralining kuydirilishi natijasida 5 l gaz mahsulot olingan. Reaksiya uchun olingan dolomit massasini hisoblang.
A) 20,6 B) 22,1 C) 20,0
D) 19,6 E) 22

20. (01-11-34) Xlorid kislota bilan tarkibiga metall holdagi rux aralashgan texnik rux fosfid reaksiyaga kirishganda, 8 l fosfin va 2 l vodorod (n. sh.) olingan. Texnik mahsulot tarkibidagi ruxning massa ulushini (%) toping.
A) 18,0 B) 21,8 C) 10,8
D) 11,2 E) 16,4

21. (02-1-4) Tarkibida 60% gacha alyuminiy oksid tutgan boksitning 127,5 g miqdorida necha dona alyuminiy atomlari bo'ladi?
A) $3{,}0 \cdot 10^{23}$ B) $1{,}20 \cdot 10^{24}$
C) $1{,}50 \cdot 10^{22}$ D) $9{,}0 \cdot 10^{23}$
E) $6{,}0 \cdot 10^{23}$

22. (02-6-41) Tarkibida 98,52% toza oltingugurt bo'lgan, yonmaydigan qo'shimchasi bor 24,36 g mahsulot yonganda, 209,25 kJ issiqlik ajraldi. Oltingugurt (IV) oksidning hosil bo'lish issiqligini aniqlang.
A) 87,36 B) 174,72 C) 54,60
D) 279,0 E) 139,5

23. (03-9-3) 1 kg kalsiy karbidga suv ta'sir ettirib, 260 l (n. sh.) atsetilen olingan bo'lsa, kalsiy karbid tarkibidagi qo'shimchaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 74,3 B) 49,5 C) 37,2
D) 32,0 E) 25,7

24. (03-9-4) Tarkibida 10% qandsiz qo'shimchasi bo'lgan 200 kg glyukoza bijg'ishidan hosil bo'lgan spirtdan qancha massa (kg) sirka kislota olish mumkin?
A) 46 B) 60 C) 90 D) 120 E) 138

25. (03-12-7) Tarkibida 98% sof $AlCl_3$ bo'lgan texnik alyuminiy xlorid tarkibidagi xlorning massa ulushini (%) toping.
A) 74,5 B) 78,12 C) 80,2
D) 82,7 E) 75,6

26. (03-12-12) Tarkibida 94% sof $MgCO_3$ bo'lgan 10 kg magnezitni kuydirishdan qancha (kg) karbonat angidrid olish mumkin?
A) 2,92 B) 4,92 C) 0,49
D) 9,24 E) 2,29

27. (03-12-20) Tarkibida 92% $CaCO_3$ bo'lgan 20 t ohaktoshdan qancha (t) so'ndirilmagan ohak olish mumkin?
A) 10,3 B) 9,3 C) 11,3
D) 12,3 E) 14,4

28. (03-12-22) 100 g kalsiy karbidga suv ta'sir ettirib, 30 l (n. sh.) C_2H_2 olindi. Olingan namunadagi CaC_2 ning massa ulushini toping.
A) 78,5 B) 98,5 C) 95,7
D) 87,5 E) 97,5

29. (04-1-633) 25 g magniy qotishmasi mo'l miqdor suyultirilgan sulfat kislotada eritilganda, 10 l vodorod (n. sh. da) ajralib chiqdi. Bu qotishmada necha foiz erimaydigan qo'shimcha bo'lgan?
A) 57,2 B) 29 C) 72,2
D) 35 E) 42,8

30. (04-1-708) Tarkibida 10% qo'shimchalari bo'lgan 50 g ohaktoshdan qancha massa (g) kalsiy oksid olish mumkin? Reaksiya unumi 90% ga teng.
A) 17,8 B) 5,6 C) 25,2
D) 19,8 E) 22,7

31. (04-1-709) Tarkibida qo'shimchalarning massa ulushi 0,15 bo'lgan 200 g ohaktoshning yuqori temperaturada parchalanishidan qancha mol karbonat angidrid olish mumkin? Reaksiya unumi 90% ga teng.
A) 1,7 B) 1,5 C) 2,0
D) 38 E) 74,8

32. (04-1-780) 100 g texnik kalsiy karbidga suv ta'sir ettirib, 30 l (n. sh.) C_2H_2 olindi. Olingan namunadagi qo'shimchalarning massa ulushini toping.
A) 14,3 B) 98,5 C) 95,7
D) 85,7 E) 97,5

33. (04-1-798) Tarkibida 15% qo'shimchasi bo'lgan 25 g texnik kalsiy karbiddan, reaksiya unumi 0,81 bo'lganda, necha mol atsetilen olish mumkin?
A) 6,02 B) 0,27 C) 5,28
D) 0,24 E) 1,32

34. (04-1-805) Agar texnik kalsiy karbidning 10 g miqdoridan olingan atsetilen hajmi 3000 ml (n. sh.) bo'lsa, namunadagi kalsiyning massa ulushini hisoblang.
A) 53,5 B) 68,45 C) 12,3
D) 14,3 E) 85,7

35. (05-1-182) Xlorid kislota bilan tarkibiga metall holdagi rux aralashgan texnik rux fosfid reaksiyaga kirishganda 6 l fosfin va 4 l vodorod (n. sh.) olingan. Texnik mahsulot tarkibidagi ruxning massa ulushini (%) toping.
A) 23,8 B) 21,8 C) 25,22
D) 74,78 E) 76,2

36. (v4-109-24) Tarkibida 0,5 foiz chet moddalar bo'lgan dolomit mineralining kuydirilishi natijasida 15,68 l gaz mahsulot olingan. Reaksiya uchun olingan dolomit massasini hisoblang.
A) 64,7 B) 39,5 C) 62,6
D) 58,9 E) 70,3

37. (v4-112-24) 20 g texnik alyuminiyga o'yuvchi kaliyning mo'l eritmasi bilan ta'sir qilindi, natijada 20,9 l vodorod (n. sh.) da ajralib chiqdi. Texnik alyuminiy tarkibida necha foiz sof alyuminiy bo'lgan?
A) 30 B) 80 C) 20 D) 10 E) 84

38. (v5-113-27) 10 kg texnik pirit qizdirilganda 3500 l (n. sh.) SO_2 hosil bo'ladi. Piritning tozalik darajasini (%) hisoblang.
A) 93,75 B) 29 C) 2,86
D) 34,28 E) 90

39. (v6-109-29) Laboratoriyada 26,88 l (n. sh.) ammiak olish uchun 25% qo'shimchasi bo'lgan kalsiy gidroksiddan necha gramm zarur bo'ladi?
A) 84,4 B) 59,2 C) 36 D) 44,4

40. (v7-109-24) Tarkibida 25% qo'shimcha modda bo'lgan 200 g marmarning termik parchalanishidan olingan gaz cho'g'langan ko'mir ustidan o'tkazilganda qancha hajm (l, n. sh.) gaz olinadi?
A) 67,2 B) 44,8 C) 33,6 D) 38,08

41. (v9-102-12) Tarkibida 20% qo'shimcha modda bo'lgan 300 g piritdan (reaksiya unumi 50%) necha gramm 70% li sulfat kislota olinadi?
A) 196 B) 280 C) 490 D) 392

42. (v9-102-22) 8,4 l (n. sh.) metan olish uchun tarkibida 20% qo'shimcha modda bo'lgan alyuminiy karbiddan necha gramm kerak bo'ladi (reaksiya unumi 50%)?
A) 36 B) 50,4 C) 16,8 D) 45

43. (v9-125-15) Tarkibida 20% begona modda bo'lgan 59,25 g kaliy permanganat termik parchalanishidan olingan kislorod ozonga aylantirilib, kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilganda qancha miqdorda (mol) erkin yod olish mumkin? Reaksiyaning birinchi va ikkinchi bosqichlarida unum 50%, uchinchisida esa 100%.
A) 0,05 B) 0,025 C) 0,1 D) 0,0125

44. (v11-102-33) Tarkibida 42% begona jinslari bo'lgan 160 g Fe_3O_4 ni qaytarish uchun alyuminiy va is gazidan iborat aralashma ta'sir ettirildi. Jarayon so'ngida 8,96 l gaz ajralib chiqqani ma'lum bo'lsa, hosil bo'lgan Al_2O_3 ni massa ulushini toping.
A) 47,20 B) 8,96 C) 40,80 D) 23,29

45. (v12z-257-30) 10 g po'lat kislorod oqimida yondirilganda 0,28 l karbonat angidrid hosil bo'lgan bo'lsa, po'lat tarkibidagi uglerod massa ulushini (%) toping.
A) 0,5 B) 2,8 C) 1,5 D) 1,0

46. (v12z-259-12) Tarkibida 20% qo'shimchasi bo'lgan 180 g alyuminiy karbiddan qancha hajm (l) metan olish mumkin?
A) 33,6 B) 44,8 C) 67,2 D) 89,6

47. (v12c-127-6) Tarkibida 96% metan bo'lgan 300 l (n. sh.) tabiiy gazdan necha litr atsetilen olish mumkin (reaksiya unumi 65%)?
A) 93,6 B) 94,5 C) 288 D) 144

48. (v13-137-12) Tarkibida 10% qo'shimchasi bo'lgan 200 kg piritdan 80% unum bilan qancha (kg) 70% li sulfat kislota olish mumkin?
A) 150 B) 300
C) 336 D) 168

49. (v13-158-35) Texnikada FeS_2 ning tarkibida 15% yod moddasi bo'lgan aralashmasi ishlatiladi. 120 tonna shunday aralashmadan qancha tonna 90% li H_2SO_4 olish mumkin? (Reaksiya unumi 80%)
A) 148 B) 166,6
C) 150 D) 142

50. (v14-102-4) Tarkibida qo'shimcha sifatida 10,48% $BaCO_3$ bo'lgan bariy oksidi 6 M li nitrat kislota bilan ta'sirlashdi. Bunda 1,12 l (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadan qanday massada (g) olinganligini hamda sarflangan nitrat kislota eritmasining hajmini (ml) aniqlang.
A) 47; 150
B) 94; 200
C) 141; 250
D) 78; 300

51. (v15-103-7) Tarkibida 10% qo'shimchasi bo'lgan 200 g piritdan 80% unum bilan qancha (g) 70% li sulfat kislota olish mumkin?
A) 336 B) 300 C) 168 D) 150

52. (v16-117-12) 20 g xalkozin va 40 g kupritning o'zaro ta'sirlashuvidan olingan metall 80% li sulfat kislotada eritilganda 13,44 litr (n. sh.) gaz hosil bo'lgan bo'lsa, kupritning tozalik darajasini (%) aniqlang.
A) 56 B) 86 C) 64 D) 72

47. Reaksiya unumini hisoblashga doir masalalar anorganik moddalar uchun. Organik moddalar uchun: Reaksiya unumi hisoblashga doir masalalar organic moddalar uchun

1. (96-3-41) Vodorod xloridning hosil bo'lish unumi 50% bo'lsa, 36,5 g vodorod xlorid olish uchun necha litr (n. sh.) xlor va vodorod kerak?
A) H_2 – 5,6; Cl_2 – 5,6
B) H_2 – 5,6; Cl_2 – 11,2
C) H_2 – 11,2; Cl_2 – 11,2
D) H_2 – 11,2; Cl_2 – 22,4
E) H_2 – 22,4; Cl_2 – 22,4

2. (96-4-48) 43,2 g simob (II) oksid parchalanganda 0,56 l (n. sh.) kislorod hosil bo'lsa, reaksiya unumi qanday bo'ladi?
A) 0,45 B) 0,40 C) 0,35
D) 0,30 E) 0,25

3. (96-8-50) Reaksiya unumi 75% ni tashkil etganda 0,5 kg xlorbenzoldan necha gramm fenol hosil bo'ladi [M_r(fenol) = 94]?
A) 313 B) 370 C) 375
D) 450 E) 395

4. (96-15-48) Massasi 8,4 g bo'lgan siklogeksanni degidrogenlanishdan olingan benzol bromlandi. Bunda 40 g geksabromsiklogeksan hosil bo'ldi. Reaksiya mahsulotining unumini aniqlang.
A) 50% B) 60,5% C) 68,5%
D) 72,8% E) 80,1%

5. (96-15-97) 22,6 g kaprolaktamga suv biriktirilganda 21 g ε-aminokapron kislotasi hosil bo'lgan. Ushbu reaksiyaning unumini (% larda) hisoblang.
A) 100 B) 95 C) 90 D) 85 E) 80

6. (96-15-134) Reaksiyaning unumi 50% bo'lsa, 156 g benzoldan $AlCl_3$ katalizator ishtirokida necha gramm geksaxlorbenzol olish mumkin? [$M_r(C_6H_6)$ = 78, $M_r(C_6Cl_6)$ = 285].
A) 142,5 B) 145,5 C) 291
D) 285 E) 570

7. (97-1-24) Reaksiya unumi 75% ni tashkil etgan reaksiyada 33,6 l azot mo'l miqdordagi vodorod bilan reaksiyaga kirishganda, necha litr mahsulot hosil bo'ladi?
A) 52,4 B) 33,6 C) 22,4
D) 44,8 E) 50,4

8. (97-2-21) Agar reaksiya unumi 80% ni tashkil qilsa, tarkibida 10% aralashmasi bo'lgan 100 kg piritdan qanday massali (kg) 70% li sulfat kislota eritmasini olish mumkin [$M_r(FeS_2)$ = 120]?
A) 165 B) 168 C) 172
D) 175 E) 180

9. (97-2-33) Reaksiyaning unumi 80% bo'lganda, 600 g aminosirka kislota olinishi uchun qanday hajmda (l) ammiak kerak bo'ladi [$M_r(NH_2CH_2COOH)$ = 75]?
A) 112 B) 224 C) 336
D) 22,4 E) 33,6

10. (97-4-64) Reaksiya unumi 0,75 bo'lganda, tarkibida 40% oltingugurt bo'lgan 1 t temir kolchedandan n. sh. da qancha hajm (m^3) oltingugurt (IV) oksid olish mumkin?
A) 80 B) 90 C) 120
D) 112 E) 180

11. (97-6-25) 184 g etanoldan n. sh. da 40 l butadiyen olindi. Reaksiya unumini (%) hisoblang.
A) 86 B) 98,5 C) 99
D) 92,5 E) 89,3

12. (97-7-72) Mahsulot unumi 90% bo'lgan reaksiyada 41,4 g etanol olish uchun hajmi qanday bo'lgan etilen zarur?
A) 5,6 B) 11,2 C) 22,4
D) 33,6 E) 44,8

13. (97-8-4) 500 kg kalsiy fosfatdan 90% unum bilan qancha (kg) qo'sh superfosfat olish mumkin?
A) 1019 B) 337,9 C) 1190
D) 1209 E) 366

14. (97-9-32) Agar reaksiya unumi 90% bo'lsa, 120 g sirka kislota va 138 g etanoldan qancha etilatsetat olish mumkin
[$M_r(CH_3COOH)$ = 60, M_r(etanol) = 46]?
A) 124,2 B) 264 C) 237,6
D) 158,4 E) 176

15. (97-10-29) 14 mol metan termik parchalanganda, normal sharoitda o'lchangan 135,2 l atsetilen ajralib chiqdi. Mahsulotning unumini (%) hisoblang.
A) 68 B) 65 C) 86
D) 77 E) 75

16. (97-10-57) 10 g alyuminiy oksidning elektrolizi natijasida 4,5 g metall ajralib chiqdi. Reaksiyaning unumini aniqlang.
A) 82% B) 100% C) 50%
D) 80% E) 85%

17. (97-10-172) Reaksiya unumi 50% bo'lgan sharoitda 2 mol kaliy permanganat termik parchalanganda, necha litr kislorod ajraladi?
A) 11,2 B) 22,4 C) 33,6
D) 44,8 E) 16,8

18. (97-10-194) 22,4 l etilen brom bilan o'zaro ta'sir ettirilganda, 188 g 1,2-dimbrometan hosil bo'ldi. Reaksiya mahsuloti ning unumini hisoblab toping (%). [A_r(Br) = 80], [A_r(C) = 12]
A) 100 B) 95 C) 90 D) 80 E) 85

19. (97-11-30) 57,5 ml etil spirt (ρ = 0,8 g/sm^3) kaliy bromid va konsentrlangan sulfat kislota (katalizator) bilan qizdirilganda 87,2 g alkilbromid hosil bo'ldi. Reaksiya mahsulotining unumini (%) toping. [$M_r(C_2H_5OH)$ = 46, A_r(Br) = 80]
A) 90 B) 80 C) 95 D) 85 E) 78

20. (98-2-45) 79 g kaliy permanganat qizdirilganda, 5,32 l (n. sh.) kislorod olindi.

Reaksiya unumini hisoblang.
[A_r(K) = 39, A_r(Mn) = 55]
A) 91 B) 92 C) 93 D) 94 E) 95

21. (98-3-48) Benzolni nitrolab (reaksiya unumi 80%) va hosil bo'lgan nitrobenzolni qaytarib (reaksiya unumi 85%), 15,8 g anilin olindi. Sarf bo'lgan benzol miqdorini (g) aniqlang.
A) 10,5 B) 19,5 C) 30,0
D) 42,5 E) 39

22. (98-3-55) 4,55 g piridinga n. sh. da 3100 ml vodorod birikdi. Reaksiya unumini hisoblang.
A) 81 B) 72 C) 80 D) 88 E) 92

23. (98-4-12) Reaksiya unumi 85% bo'lganda, 390 g benzoldan necha gramm nitrobenzol olish mumkin? [A_r(C) = 12, A_r(N) = 14].
A) 415 B) 593 C) 693
D) 655 E) 523

24. (98-7-25) Reaksiya unumi 50% bo'lganda, 17 g ammiak olish uchun necha litr azot va necha litr vodorod (n. sh. da) sarf bo'ladi? [M_r(N) = 14].
A) azot – 22,4; vodorod – 67,2
B) azot – 22,4; vodorod – 22,4
C) azot – 11,2; vodorod – 22,4
D) azot – 22,4; vodorod – 11,2
E) azot – 67,2; vodorod – 22,4

25. (98-7-46) 3,9 g benzol katalizator ishtirokida siklogeksanga qadar gidrogenlandi. Bu reaksiyada 1,68 l vodorod sarflangan bo'lsa, reaksiya unumi qanchaga teng bo'ladi?
A) 80 B) 75 C) 65 D) 50 E) 90

26. (98-7-52) Reaksiya unumi 80% bo'lganda, 113,5 g trinitrotoluol olish uchun necha gramm toluol kerakligini aniqlang
[M_r(N) = 14, M_r(C) = 12].
A) 57,5 B) 60,5 C) 115,0
D) 28,7 E) 121,0

27. (98-7-54) 31,2 g benzol olish uchun 52 l atsetilen sarflangan bo'lsa, reaksiya unumi qanchaga teng bo'ladi?
A) 51,7 B) 48 C) 60 D) 65 E) 70

28. (98-7-62) 42 g etil spirtdan 50 g etil yodid hosil qilindi. Reaksiya unumini hisoblang.
[M_r(I) = 127, M_r(C) = 12, M_r(O) = 16]
A) 50 B) 75 C) 35 D) 25 E) 45

29. (98-9-24) Laboratoriyada 28 l etindan 19,5 g benzol olindi. Bu miqdor nazariy unumning necha foizini tashkil etishi mumkin?
A) 54 B) 50 C) 56 D) 60 E) 58

30. (98-9-43) 48,6 g kraxmal gidrolizi natijasida 48,6 g glyukoza hosil bo'lgan. Reaksiya unumini aniqlang.
A) 0,95 B) 0,90 C) 0,85
D) 0,80 E) 0,98

31. (98-10-54) Mahsulot unumi 95% bo'lganda, 13,8 kg potashga so'ndirilgan ohak bilan ta'sir qilinganda hosil bo'lgan kaliy gidroksid massasini (kg) hisoblang.
A) 8,8 B) 9,2 C) 9,7
D) 9,4 E) 10,6

32. (98-10-64) 28 g azot ishtirokida 50% unum bilan hosil bo'lgan ammiakni neytrallash uchun talab etiladigan 20% xlorid kislota massasini (g) hisoblang.
A) 365 B) 91,25 C) 136,8
D) 204 E) 182,5

33. (98-11-46) Reaksiyaning har bir bosqichida unum 80% tashkil etgan sharoitda 18,6 g anilin sintezida qatnashgan benzolni olish uchun qanday hajmdagi atsetilen talab etiladi [M_r(anilin) = 93]?
A) 20,8 B) 21,3 C) 24,2
D) 26,3 E) 36,0

34. (99-1-24) Reaksiya unumi 80% bo'lganda, 20,8 g feniletilen chuqur katalitik gidrogenlanganda hosil bo'lgan mahsulot massasini va qancha hajm vodorod sarf bo'lishini aniqlang.
A) benzol, 15,6 g; 9,0 l
B) etilbenzol, 17,9 g; 14,9 l
C) etilsiklogeksan, 17,9 g; 14,3 l
D) etilensiklogeksan, 9,1 g; 8,9 l
E) benzol va etan, 7,8 g; 3,0 g; 8,9 l

35. (99-2-17) 140 t kuydirilgan ohakdan 182 t so'ndirilgan ohak olingan bo'lsa, reaksiyaning unumi (%) qanchaga teng?
A) 96,8 B) 97,2 C) 98,4
D) 98,8 E) 99,0

36. (99-2-22) Agar reaksiya unumi 70% bo'lsa, 112 m^3 ammiakdan qancha (kg) 60% li nitrat kislota olish mumkin?
A) 315 B) 328,6 C) 367,5
D) 427,5 E) 525

37. (99-5-9) Mahsulot unumi 0,45 bo'lganda, 9,8 g benzol olish uchun necha litr (n. sh.) metan sarflanadi?
A) 16,9 B) 67,2
C) 47,5 D) 37,6
E) 20,2

38. (99-7-29) Reaksiya unumi 90% bo'lganda, tarkibida 15% begona modda bo'lgan 300 kg limonitdan ($2Fe_2O_3 \cdot 3H_2O$) necha kilogramm temirni qaytarib olish mumkin?
A) 68,7 B) 80,3 C) 34,4
D) 229,5 E) 136,7

39. (99-7-66) 17 g ammiak bilan 4,4 g karbonat angidridning yuqori bosim ostidagi reaksiyasi natijasida 2,7 g mahsulot hosil bo'lsa, reaksiyaning unumini hisoblang.
A) 90 B) 45 C) 87 D) 51 E) 94

40. (99-8-5) Reaksiya unumi birinchi va ikkinchi bosqichlarda 50% ni, oxirgisida 100% ni tashkil etganda, 33 g 2,4,6-tribromanilin olish uchun kerak bo'lgan benzolning massasini (g) hisoblang.
A) 30,0 B) 31,2 C) 32,0
D) 29,2 E) 32,8

41. (00-3-53) 3,2 kg temir kolchedanidan 3,97 kg sulfat kislota olindi. Agar kolchedan tarkibida 45% oltingugurt bo'lsa, sulfat kislotaning hosil bo'lish umumini (%) toping.
A) 80 B) 77 C) 90 D) 95 E) 99

42. (00-3-63) Reaksiya unumi 0,8 bo'lganda, 8,7 gramm propion aldegid olish uchun propil spirtdan qancha olish kerak?
A) 10 B) 8,0 C) 9,5
D) 11,25 E) 10,55

43. (00-8-7) Yuqori molekulyar birikmalar gruppasiga taalluqli bo'lgan moddalarning qaysilari kislotali va ishqoriy sharoitlarda gidroliz reaksiyasida qatnashish xossasiga? 1) insulin; 2) kraxmal; 3) sellyuloza; 4) miozin; 5) gemoglobin; 6) yog'lar; 7) glikogen.
A) 2, 3, 7 B) 1, 4, 5
C) 1, 3, 4, 7 D) 1, 4, 5, 6
E) 2, 3, 6

44. (01-1-52) Reaksiya unumi 85% bo'lganda, buten-1 va buten-2 laming massasi 9,8 bo'lsa, aralashma qanday massadagi (g) bromni biriktira oladi?
A) 3,92 B) 14 C) 23,8
D) 28 E) 37,8

45. (01-1-67) Hajmi 6,72 l (n. sh.) atsetilendan 7,53 ml benzol (ρ = 0,88 g/ml) olingan bo'lsa, reaksiya unumini hisoblang.
A) 0,85 B) 0,91 C) 0,89
D) 0,93 E) 1,00

46. (01-3-58) Reaksiya mahsulotining unumi 73% ni tashkil etsa, 2,45 g bertole tuzidan qancha massa (g) kislorod olish mumkin?
A) 0,19 B) 0,70 C) 0,39
D) 0,40 E) 0,49

47. (01-3-59) 6,3 g natriy sulfitdan qancha litr (n. sh.) sulfit angidrid olish mumkin? Reaksiya unumi 90% ga teng.
A) 1,0 B) 0,30 C) 0,40
D) 0,50 E) 0,60

48. (01-3-64) Massasi 200 g bo'lgan kalsiy karbonatning parchalanishidan 33 l (n. sh. da) karbonat angidrid ajralib chiqdi. Reaksiya unumini toping (% hisobida).
A) 85 B) 90 C) 73,66
D) 93,75 E) 83,75

49. (01-3-67) 11,1 g malaxitning parchalanishidan 1,12 l (n. sh. da) karbonat angidrid ajralib chiqqan bo'lsa, reaksiya unumi qancha bo'ladi?
A) 44,6 B) 50,8 C) 89,3
D) 54,6 E) 100

50. (01-3-69) 7,2 g alyuminiy karbidning suv bilan ta'sirlashuvi natijasida qancha hajm (n. sh.) metan olish mumkin? Reaksiya unumi 80% ga teng.
A) 3,0 B) 1,06 C) 2,70 D) 2,4 E) 3,92

51. (01-3-70) 3,2 g kalsiy karbiddan qancha hajm atsetilen olish mumkin? Reaksiya unumi 90% ga teng.
A) 1,064 B) 2,394 C) 2,500
D) 2,600 E) 1,008

52. (01-7-53) Reaksiya unumi 90% bo'lganda, Lebedev usuli bo'yicha 200 l 96% li etanoldan (ρ = 0,8 g/ml) qancha (kg) divinil olish mumkin?
A) 84,5 B) 90,2 C) 89,0 D) 80 E) 86

53. (01-8-23) Reaksiyaning har bir bosqichida unum 80% bo'lgan sharoitda 72 g grafit bilan kalsiy oksid aralashmasi yuqori temperaturada qizdirilganda olingan mahsulotning suv bilan reaksiyasida hosil bo'lgan gazning hajmini (l) toping.
A) 5,6 B) 11,2 C) 28,7
D) 35,8 E) 44,8

54. (02-2-37) Reaksiyaning mahsulot unumi 0,75 bo'lganda, massasi 35 g bo'lgan sirka kislotadan va etil spirtdan foydalanib, necha gramm etilatsetat hosil qilish mumkin?
A) 38,5 B) 30 C) 35 D) 38 E) 33

55. (02-6-59) Berilgan ma'lumotlarga qaraganda, har yili atmosferaga 100 mln t oltingugurt (IV) oksid chiqariladi. Undan 85% unum bilan qancha (mln t) 60% li sulfat kislota olish mumkin?
A) 153 B) 98 C) 255
D) 217 E) 85

56. (03-8-8) Reaksiya unumi 50% ni tashkil etsa, 2 mol mis(II) nitratning parchalanishi natijasida qancha hajm (l, n. sh.) gaz ajraladi?
A) 44,8 B) 67,2 C) 96,2
D) 22,4 E) 56,0

57. (03-8-12) 10 g alyuminiy oksid elektroliz qilinganda, 4,5 g metall ajraldi. Reaksiya unumini (%) toping.
A) 80 B) 85 C) 82 D) 100 E) 50

58. (03-12-13) 40 mol suvni elektroliz qilish natijasida 620 g kislorod olingan bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 96,88 B) 88,96 C) 89,96
D) 98,96 E) 100

59. (03-12-14) Reaksiya unumi 94% ga teng bo'lgan sharoitda 49 g sulfat kislotaning yetarli miqdordagi rux bilan o'zaro ta'siridan qancha (g) vodorod olish mumkin?
A) 0,94 B) 1,00 C) 2,00
D) 1,12 E) 2,24

60. (03-12-26) 1 t fosfor olish uchun tarkibida 65% $Ca_3(PO_4)_2$ bo'lgan fosforitdan qancha (t) kerak? Reaksiya unumini 97% ga teng deb hisoblang.
A) 8,8 B) 7,9 C) 7,6
D) 5,9 E) 7,1

61. (04-1-555) Reaksiya unumi 90% bo'lganda, tarkibida 15% begona modda bo'lgan 501 kg gematitdan necha kilogramm temir olish mumkin?
A) 268,3 B) 80,3 C) 34,4
D) 229,5 E) 137,5

62. (04-1-561) Tarkibida 75% sof malaxit bo'lgan 200 g mineraldan qancha (g) mis (II) oksid ajratib olish mumkin? Reaksiya unumi 0,85 ga teng.
A) 108,1 B) 104,8 C) 97,3
D) 91,9 E) 96,8

63. (04-1-658) Reaksiya unumi 60% bo'lsa, 110 l ammiakni $N_2 + 3H_2 = 2NH_3$ reaksiya bo'yicha olish uchun necha litr (n. sh.) vodorod sarf bo'ladi?
A) 67,2 B) 168 C) 253,8
D) 330 E) 275

64. (04-1-710) Massasi 200 g bo'lgan kalsiy karbonatning parchalanishidan 29 l (n. sh.) karbonat angidrid ajralib chiqdi. Reaksiya unumini toping (% hisobida).
A) 87,05 B) 90 C) 73,66
D) 64,73 E) 83,75

65. (04-1-765) Reaksiya unumi 60% bo'lganda, 20,8 g fenil etilen chuqur katalitik gidrogenlanganda hosil bo'lgan mahsulot massasini va qancha mol vodorod sarf bo'lishini aniqlang.
A) benzol, 15,6 g; 9,0
B) etilbenzol, 17,9 g; 14,9
C) etilsiklogeksan, 15,7; 12,5
D) etilsiklogeksan, 13,44; 0,48
E) benzol va etan, 7,8 g; 3,0 g; 8,9

66. (04-1-766) Metilsiklogeksandan toluol hosil bo'lishida reaksiya unumi 80% ni tashkil etsa, 24,5 g metilsiklogeksanni katalitik degidrogenlashda qancha (g) vodorod ajralib chiqadi?
A) 12,6 B) 1,2
C) 13,4 D) 1,5 E) 11,5

67. (04-1-779) 14 mol metan termik parchalanganda, n. sh. da o'lchangan 153,2 l (n. sh.) atsetilen hosil bo'lgan. Bu qiymat nazariy jihatdan hosil bo'lishi kerak bo'lgan mahsulotning necha foizini tashkil etadi?
A) 68 B) 86 C) 65 D) 77 E) 97

68. (04-1-797) 3,2 g kalsiy karbiddan qancha hajm (n. sh.) atsetilen olish mumkin? Reaksiya unumi 89,3% ga teng.
A) 1,064 B) 1,120 C) 2,500
D) 2,600 E) 1,000

69. (04-1-806) Reaksiya unumi 86,7% bo'lgan sharoitda suv bilan reaksiyaga kirishib 16,8 l atsetaldegid (n. sh.) hosil qilish uchun qancha (g) atsetilen olish kerak?
A) 19,5 B) 16,9 C) 24,4
D) 22,5 E) 9,75

70. (04-1-813) Reaksiyaning unumi 50% bo'lsa, 156 g benzoldan necha mol geksaxlorbenzol olish mumkin?
A) 14,25 B) 14,55 C) 2,91
D) 5,82 E) 1,0

71. (04-1-815) Reaksiya unumi 75% bo'lgan reaksiyada necha gramm benzol olinganda 554 g nitrobenzol hosil bo'ladi?
A) 468 B) 738 C) 554
D) 263 E) 351

72. (04-1-826) 33 g 2,4,6-tribromanilin olish uchun zarur bo'lgan benzolning massasini (g) hisoblang. Reaksiya unumi birinchi va ikkinchi bosqichlarda 50% ni, oxirgisida 80% ni tashkil etgan.
A) 1,56 B) 31,2 C) 32,0
D) 29,2 E) 39,0

73. (05-1-378) Reaksiya unumi 70% bo'lsa, 110 l ammiakni $N_2 + 3H_2 = 2NH_3$ reaksiya bo'yicha olish uchun necha litr (n. sh.) vodorod sarf bo'ladi?
A) 67,2 B) 168 C) 253,8
D) 235,7 E) 275

74. (05-1-458) Reaksiyaning unumi 25% bo'lsa, 156 g benzoldan necha mol geksaxlorbenzol olish mumkin?
A) 0,25 B) 0,75 C) 2,00
D) 0,50 E) 1,00

75. (v4-101-30) Massasi 4,2 g bo'lgan siklogeksan degidrogenlanishdan olingan benzol bromlandi. Bunda 25 g geksabromsiklogeksan hosil bo'ldi. Reaksiya mahsulotining unumini (%) aniqlang.
A) 69,0 B) 69,75 C) 88,0
D) 89,6 E) 79,1

76. (v4-107-10) Massasi 18,6 g bo'lgan kaliy permanganat qizdirilganda, 0,656 l (n. sh.) kislorod olindi. Kislorodning chiqish unumini (%) hisoblang.
A) 70 B) 50 C) 80 D) 40 E) 60

77. (v4-107-32) 36 g glyukoza bijg'ishi natijasida 8,87 l (n. sh. da) CO_2 hosil bo'lsa, reaksiya unumini aniqlang.
A) 89 B) 99 C) 22 D) 94 E) 1

78. (v4-109-31) Reaksiya unumi 75% ni tashkil etganda, 0,5 g xlorbenzoldan necha kilogramm fenol hosil bo'ladi?
A) 333 B) 444 C) 313
D) 3333 E) 4444

79. (v4-113-16) Massasi 3 g bo'lgan organik kislotadan unumi 0,75 bo'lgan reaksiya natijasida formiat kislotaning 5,8743,5 g murakkab efiri hosil bo'lgan. Reaksiyada hosil bo'lgan murakkab efirning molekulyar massasini toping.
A) 74 B) 106 C) 60 D) 120 E) 88

80. (v5-104-32) 36,8 g glitseringa natriy metalli ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan gazning hajmini (l, n. sh.) aniqlang (reaksiya unumi 75%).
A) 10,54 B) 10,08 C) 13,44
D) 12,15 E) 4,48

81. (v5-109-29) Reaksiya unumi 70% bo'lsa, 1,19 g ammiak olish uchun necha litr (n. sh.) vodorod kerak?
A) 1,64 B) 1,56 C) 2,35
D) 0,78 E) 3,36

82. (v5-109-31) $X_1 \xrightarrow{1500^\circ} X_2 \xrightarrow{450} C_6H_6$ sxema bo'yicha reaksiya unumi birinchi bosqichda 80% ni, ikkinchi bosqichda 75% ni tashkil etadi. 57,78 ml (ρ = 0,9 g/sm^3) benzol olish uchun necha litr (n. sh.) X_1 modda kerak bo'ladi?
A) 112,31 B) 156,8
C) 106,66 D) 134,4
E) 149,33

83. (v5-109-34) 23,25 g anilinga bromli suv ta'sir ettirilsa necha gramm oq cho'kma hosil bo'ladi? Reaksiya unumi 85%.
A) 50,5 B) 70,1 C) 82,2
D) 88,1 E) 43,1

84. (v5-111-27) Reaksiya unumi 80% ni tashkil etsa, 60 kg temir kolchedanidan qancha (kg) 90% li sulfat kislota olish mumkin?
A) 87,1 B) 78,5 C) 89,1
D) 85,9 E) 80,3

85. (v5-112-31) Mahsulot unumi 45% bo'lganda 9,8 g benzol olish uchun necha litr (n. sh.) metan sarflanadi?
A) 47,5 B) 20,2 C) 37,5
D) 56,9 E) 67,2

86. (v5-117-31) Mahsulotning unumi 67% bo'lganda 4,6 g anilin olish uchun ... g ammoniy sulfid kerak.
A) 8,63 B) 6,86 C) 5,7
D) 11,7 E) 15,0

87. (v5-131-31) Agar 10,77 l (n. sh.) atsetilendan 10 g benzol hosil qilingan bo'lsa, reaksiya unumini (%) hisoblang.
A) 75 B) 80 C) 90 D) 70 E) 65

88. (v5-146-33) 72 g glyukozani moy kislotali bijg'ishi natijasida (reaksiya unumi 75%) necha litr (n. sh.) oddiy modda ajralib chiqadi?
A) 33,6 B) 22,4 C) 17,92
D) 13,44 E) 44,8

89. (v6-105-15) Reaksiya unumi 80% bo'lganda, 8,7 gramm propion aldegid olish uchun propil spirtdan qancha (g) olish kerak?
A) 8,0 B) 10 C) 11,25 D) 0,5

90. (v6-105-32) Reaksiya unumi 80% bo'lganda, Lebedev usuli bo'yicha 100 l 96% li etanoldan (ρ = 0,8 g/ml) qancha (kg) divinil olish mumkin?
A) 50 B) 39 C) 36 D) 40

91. (v6-108-27) 22,4 l (n. sh.) kislorod ozonatorga (unum 75%) kiritilishidan olingan gaz mo'l miqdordagi kaliy yodid eritmasiga shimdirilganda (unum 56%) necha gramm yod olinadi?
A) 14,93 B) 127
C) 71,12 D) 167,64

92. (v6-117-28) Reaksiya unumi 0,85 bo'lganda, tarkibida 40% oltingugurt bo'lgan 1 t temir kolchedanidan qancha hajm (m^3, n. sh.) oltingugurt (IV) oksid olish mumkin?
A) 238 B) 210 C) 112 D) 280

93. (v6-118-28) Reaksiya mahsulotining unumi 80% ni tashkil etsa, 2,24 l (n. sh.) sulfit angidriddan qancha (g) sulfat kislota olish mumkin?
A) 8,8 B) 9,8 C) 6,6 D) 7,8

94. (v6-128-28) 3,2 kg temir kolchedanidan 3,523 kg sulfat kislota olindi. Agar kolchedan tarkibida 45% oltingugurt bo'lsa, sulfat kislotaning hosil bo'lish unumini (%) toping.
A) 77 B) 80 C) 95 D) 90

95. (v6-142-15) Reaksiya unumi 86% bo'lganda, 8,7 gramm propion aldegid olish uchun propil spirtdan qancha (g) olish kerak?
A) 8,0 B) 10 C) 11,25 D) 9,5

96. (v7-102-12) 3,16 g kaliy permanganat qizdirilganda 2,24 l (n. sh.) kislorod olindi. Reaksiya unumini hisoblang.
A) 0,80 B) 0,90 C) 1,0 D) 0,73

97. (v9-102-32) 200 g 9% li sirka kislota bilan 161 g 10% li etanolning eterifikatsiya reaksiyasi (unum 75%) natijasida hosil bo'lgan murakkab efirning massasini (g) aniqlang.
A) 19,8 B) 9,24 C) 26,4 D) 10,3

98. (v9-103-7) 45,5 g kalsiy fosfiddan olingan fosforning to'la yonishidan hosil bo'lgan fosfor (V) oksid massasini (g) aniqlang (reaksiya unumi 60%).
A) 35,5 B) 28,4 C) 21,3 D) 71

99. (v9-115-2) Reaksiya unumi 75% bo'lsa, 32,8 g natriy atsetatdan qancha hajm (l, n. sh.) metan olish mumkin?
A) 6,72 B) 4,48 C) 8,96 D) 3,36

100. (v11-107-28) Reaksiya unumi 90% bo'lganda, 4,9 g Al_2O_3 ni elektroliz qilib, necha g alyuminiy olish mumkin?
A) 2,87 g B) 2,11 gC) 2,59 g D) 2,33 g

101. (v12z-103-15) Reaksiya unumi 70% bo'lsa, S.V. Lebedev usuli bo'yicha 200 l 96% li etil spirtdan (ρ = 0,8 g/sm^3) necha kilogramm divinil olish mumkin?
A) 63 B) 54 C) 90 D) 74

102. (v12z-105-22) 315 g shakar kislota olish uchun necha gramm glyukozani oksidlash kerak? Reaksiya unumi 75%.
A) 360 B) 320 C) 400 D) 270

103. (v12z-119-28) Reaksiya unumi 80% bo'lganda 805 g kaliyli sovun olish uchun necha gramm tristearat kerak bo'ladi?
A) 1006,25 B) 741,7
C) 672,4 D) 927,1

104. (v12z-132-5) Marganets (IV) oksid 0,2 mol ammiak bilan reaksiyaga kirishib (80% unum bilan) necha gramm N_2 hosil qiladi?
A) 1,12 B) 1,4 C) 11,2 D) 0,896

105. (v12c-239-2) Reaksiya unumi 80% bo'lganda 32 g qurum olish uchun qancha hajm (l) metan sarflanadi?
A) 67,2 B) 75,2 C) 89,6 D) 74,67

106. (v12c-241-3) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda fenolning massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, atsetilenning boshlang'ich hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 26 B) 67,2 C) 78 D) 33,6

107. (v12c-244-15) Reaksiya unumi 80% bo'lganda 927,1 g tristearatdan necha gramm kaliyli sovun olish mumkin?
A) 805 B) 644
C) 741,68 D) 825

108. (v12c-249-2) 23,4 g atsetilen simob tuzlari ishtiroki gidratlanishidan olingan mahsulot mis (II) gidroksid bilan reaksiyasi natijasida 86,4 g qizil cho'kma hosil bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 80% B) 75% C) 60% D) 66,7%

109. (v12c-260-24) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 75%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 66,7%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 60,6 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan karbol kislota massasini (g) aniqlang.
A) 28,2 B) 47 C) 56,4 D) 84,6

110. (v13-101-28) Ammiak olish reaksiyasida kimyoviy muvozanat qaror topganda NH_3 ning konsentratsiyasi 0,7 mol/l, vodorodniki 4,2 mol/l, azotniki 1,4 mol/l bo'lsa, ammiakning hosil bo'lish unumi nechaga teng?
A) 0,7 B) 0,2 C) 0,5 D) 0,8

111. (v13-110-21) 79 g $KMnO_4$ qizdirilganda 5 l (n. sh.) O_2 olingan bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 85 B) 89 C) 80 D) 95

112. (v13-132-34) 44,8 l atsetilendan reaksiya unumi 40% bo'lganda qancha (g) benzol olish mumkin?
A) 10,8 B) 30,8 C) 36 D) 20,8

113. (v13-133-3) 3,36 l (n. sh.) atsetilendan 2,216 ml benzol olindi. Agar benzolning zichligi 0,88 g/ml bo'lsa, mahsulot unumini (%) hisoblang.
A) 55,2 B) 53,3 C) 50 D) 54,1

114. (v13-170-9) 44,5 g antratsen (500°C, V_2O_5) oksidlanishidan hosil bo'lgan modda massasini (g) toping. Reaksiya unumi 75%.
A) 45 B) 36,4 C) 52 D) 39

115. (v14-116-6) Bertolle usulida olingan metan 1773 K da qizdirilganda, ajralgan gazlarning miqdori shu alkan hosil bo'lishida olingan H_2S gazining miqdoridan 0,25 marta katta bo'lsa, alkan hosil bo'lish reaksiyasi unumini aniqlang.
A) 1,0 B) 0,5 C) 0,25 D) 0,75

116. (v15-102-14) 19,75 g piridin olish uchun necha gramm sianid kislota zarur? Reaksiya unumi 90%.
A) 6,75 B) 5,4 C) 7,5 D) 13,5

117. (v15-106-6) Kalsiy karbonat va kalsiy sulfatdan iborat 9,72 g aralashmaga 49 g 20% li sulfat kislota bilan ishlov berildi. Ortiqcha kislotani neytrallash uchun 22,4 g 15% li kaliy gidroksid eritmasi sarflandi. Dastlabki aralashmadagi kalsiyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 37,0 B) 41,1 C) 33,7 D) 58,9

118. (v15-110-33) CH_4 1500°C da qizdirilganda atsetilen hosil qiladi. Agar olingan gazlar aralashmasida hajm jihatdan 15% atsetilen mavjud bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 42,86 B) 30,0 C) 21,4 D) 25,0

119. (v15-111-11) Reaksiya unumi 75% bo'lsa, 0,6 mol oltin (I) xloridin yuqori temperaturada qizdirib necha gramm oltin olish mumkin?
A) 45,7 B) 29,8 C) 59,1 D) 60,8

120. (v16-106-30) $xCaCO_3 = yCaCO_3 + + zCaO + zCO_2$ ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 2:1:1:1 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 75 B) 60 C) 80 D) 50

121. (v16-108-1) 11,6 g asetonning kroton kondensatsiyalanishidan (II bisqich) necha gramm organik mahsulot olinadi? (reaksiya unumi 75%)
A) 4,9 B) 2,45 C) 7,35 D) 9,8

122. (v16-108-12) 166,5 g malaxit $(Cu_2(OH)_2CO_3)$ parchalanishi natijasida 10,08 litr (n. sh.) CO_2 hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 80 B) 60 C) 75 D) 20

123. (v16-108-19) Reaksiya unumi 75% bo'lsa, 0,6 mol oltin (I) xloridni yuqori temperaturada qizdirib necha gramm oltin olish mumkin?
A) 45,7 B) 29,8 C) 59,1 D) 60,8

124. (v16-109-9) 44,4 g alkanol H_2SO_4 bilan qizdirilganda 75% unum bilan gaz ajraldi. Ushbu gaz $KMnO_4$ eritmasi orqali o'tkazilganda 40,5 g organik modda hosil bo'ldi. Dastlabki spirtning benzoy kislota bilan hosil qilgan birikmasining molyar massasini (g/mol) toping.
A) 150 B) 192 C) 178 D) 164

125. (v16-111-36) 166,5 g malaxit $(Cu_2(OH)_2CO_3)$ parchalanishi natijasida 13,44 litr (n. sh.) CO_2 hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 80 B) 75 C) 20 D) 60

126. (v16-112-24) Bertolle usulida olingan metan 1500°C ga qizdirilganda, ajralgan gazlarning miqdori shu alkan hosil bo'lishida olingan H_2S gazining miqdoridan 0,25 marta katta bo'lsa, alkan hosil bo'lish reaksiyasi unumini aniqlang.
A) 1,0 B) 0,5
C) 0,25 D) 0,75

127. (v16-113-24) Laboratoriya sharoitida 15,68 litr (n. sh.) azot olish uchun necha gramm mis (II)-oksid sarflanishini aniqlang. (η = 50%)
A) 160 B) 336 C) 144 D) 168

128. (v16-118-29) $xCaCO_3 = yCaCO_3 + zCaO + zCO_2$ ifoda qanday ma'noni anglatadi?
A) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligini
B) reaksiyaning qaytarligini
C) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligini
D) $CaCO_3$ tarkibida qo'shimchalar borligini

129. (v16-119-4) $xCaCO_3 = yCaCO_3 + zCaO + zCO_2$ ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 10:1:9:9 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 50 B) 75 C) 90 D) 60

130. (v16-121-19) Disianning gidrolizidan olingan kislotaning massasi disianning massasidan 1,25 marta og'ir bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 72,2 B) 36,1 C) 80 D) 95

131. (v16-129-24) 1 mol $MeCO_3$ tuzi 75% unum bilan parchalanganda olingan gaz va qoldiqdagi tuz massalari farqi 8 g bo'lsa, noma'lum metalni aniqlang.
A) Mg B) Ba C) Fe D) Ca

132. (v16-130-25) $xCaCO_3 = yCaCO_3 + + zCaO + zCO_2$ ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 75 B) 50 C) 80 D) 60

133. (v17-111-23) $xCaCO_3 = yCaCO_3 + + zCaO + zCO_2$ ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot umumini (%) aniqlang.
A) 75 B) 80 C) 50 D) 60

134. (v17-114-16) Toza $CaCO_3$ tuzi termik parchalanganda mahsulot unumi 80% bo'lsa, $xCaCO_3 = yCaCO_3 + + zCaO + xCO_2$ ifodada x, y, z, x koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlarini aniqlang.
A) 5:2:3:3 B) 4:1:3:3
C) 2:1:4:4 D) 5:1:4:4

48. Moddaning molekulyar formulasini aniqlashga doir masalalar

1. (96-7-36) Vodorod, azot va kislorodning qandaydir moddadagi massa ulushlari tegishlicha 2,30 va 68% ga teng. Shu moddaning eng oddiy formulasini aniqlang.
A) HNO_2 B) NH_4NO_3 C) HNO_2
D) NH_4NO_2 E) $H_2N_2O_3$

2. (96-10-31) Azot oksidlaridan birida azot bilan kislorodning massa ulushlari 7:20 nisbatda bo'ladi. Shu oksidning formula sini chiqaring.
A) N_2O B) NO C) N_2O_3
D) N_2O_4 E) N_2O_5

3. (97-1-57) Modda tarkibida massa ulushlari 1,90% vodorod, 67,62% xlor va 30,48% kislorod bo'lsa, modda formulasini toping [A_r(Cl) = 35,5; A_r(O) = 16]
A) $HClO_4$ B) HClO C) $HClO_3$
D) $HClO_2$ E) $HCl \cdot H_2O$

4. (97-11-105) Kimyoviy moddaning tarkibidagi elementlar massa ulushlari quyidagicha: kislorod 76,19%, azot 22,22% va vodorod 1,59% bo'lsa, birikmaning nomini aniqlang.
A) nitrit kislota B) ammoniy gidroksid
C) nitrat kislota D) ammoniy nitrat
E) ammoniy nitrit

5. (97-11-106) Moddaning vodorodga nisbatan zichligi 22 ga teng, uning tarkibidagi elementlar: azot 63,63%, kislorod 36,37% miqdordadir. Shu moddaning molekulyar formulasini aniqlang.
A) azot (II) oksid B) azot (IV) oksid
C) azot (III) oksid D) azot (I) oksid
E) azot (V) oksid

6. (97-11-107) 10 g metall bilan suv o'zaro ta'sir ettirilganda, 5,6 litr vodorod ajralib chiqdi. Shu metall o'zining birikmalarida ikki valentli bo'lsa, uning nisbiy atom massasini va u qaysi metalli ekanligini aniqlang.
A) A_r = 9; Be B) A_r = 24; Mg
C) A_r = 40; Ca D) A_r = 65; Zu
E) A_r = 137; Ba

7. (97-11-161) Azot oksidlaridan birining tarkibida 30,4% azot bor. Shu oksid nomini aniqlang. [A_r(N) = 14]
A) azot (IV) oksid B) azot (II) oksid
C) azot (V) oksid D) azot (I) oksid
E) azot (III) oksid

8. (99-3-23) Havoga nisbatan bug'ining zichligi 7,587 ga teng bo'lgan fosfor oksidlarining biridagi fosforning massa ulushi 56,4% ni tashkil etadi. Shu oksidning molekulyar formulasini aniqlang.
A) P_2O_3 B) P_2O_5 C) P_4O_6
D) P_4O_{10} E) P_3O_4

9. (99-5-15) Murakkab moddaning 3,99 g miqdori to'liq yonishidan 2,31 g uglerod (IV) oksid va 6,72 g oltingugurt (IV) oksid hosil bo'ldi. Murakkab moddaning eng oddiy formulasini toping.
A) H_2S B) HCNS C) HCN
D) CS_2 E) COS

10. (99-6-13) Tarkibida elementlarning massa ulushi quyidagicha bo'lgan moddaning nechta izomeri bor?
C = 0,387; N = 0,452, H = 0,161?
A) 2 ta
B) izomeri yo'q
C) bunday tarkibli modda mavjud emas
D) 4 ta
E) 3 ta

11. (02-3-63) Moddaning 1 kg miqdoridagi elementlarining elektronlari massasi 0,3227 g ga teng. Shu moddani toping. (m_e = 1/1823 m.a.b.)
A) PH_3 B) CH_4 C) H_2S
D) H_2O E) NH_3

12. (02-10-47) Tarkibida Ca, Cl va O bo'lgan birikmaning 7 grammida 1,6 g Ca va 0,08 mol xlor atomi bo'lsa, uning formulasini toping.
A) $CaCl_2$ B) $Ca(ClO_2)_2$ C) $Ca(Cl_3O)_2$
D) $Ca(Cl_2O)_2$ E) $Ca(ClO)_2$

13. (02-12-15) 4 M li 60 ml ECl_2 eritmasi 83,2 gramm keladi. Eritmaning 60% ekanligi ma'lum bo'lsa, E elementning nisbiy atom massasi nechaga teng?
A) 137 B) 56 C) 65 D) 64 E) 40

14. (02-12-26) Tarkibida massa ulushi 31,84% bo'lgan bir valentli metall, 39,18% kislorod va qolgani xlordan iborat bo'lgan moddaning formulasini toping.
A) $LiClO_3$ B) $KClO_4$ C) $NaClO_2$
D) $Ba(ClO_4)_2$ E) $KClO_3$

15. (02-12-59) 0,1 mol oddiy modda yondirilganda, kislorodning massa ulushi 43,6% bo'lgan 0,1 mol oksid hosil bo'lgan. Bu oddiy moddaning va havoga nisbatan zichligi 7,6 bo'lgan oksidning formulasini toping.
A) P_4; P_4O_6 B) P_4; P_2O_5
C) S_8; SO_3 D) N_2; N_2O_5
E) C_6; CO_2

16. (04-1-64) Kislota angidridining massa ulushi 87,6% ni tashkil etsa, shu kislota formulasini toping.
A) H_2SO_4 B) H_2TeO_4
C) H_2WO_4 D) H_2PoO_4
E) H_2SeO_4

17. (04-1-315) Tarkibida massa ulushi 0,3 miqdorda kislorod tutgan tuzning formulasini toping.
A) kaliy nitrat B) kaliy metafosfat
C) bertolle tuzi D) kaliy bromat
E) kaliy xlorit

18. (04-1-572) Vodorod, azot va kislorodning moddadagi massa ulushlari tegishlicha 1,6; 22,2 va 76,2% ga teng. Shu moddaning eng oddiy formulasini aniqlang.
A) nitrat kislota B) ammoniy nitrat
C) nitrit kislota D) ammoniy nitrat
E) azot (IV) oksidning monogidrati

19. (04-1-781) Massasi 0,70 g bo'lgan noma'lum modda yondirilganda, 0,05 mol CO_2 va 0,05 mol suv bug'i hosil bo'lgan. Bu moddaning 0,1 g bug'i 32 ml (n. sh.) hajmni egallasa, uning 70 grammining yonishiga qancha miqdor (mol) kislorod sarflanadi?
A) 5 B) 7 C) 15 D) 75 E) 6,1

20. (v4-102-18) Azot oksidlaridan birida azot bilan kislorodning massalari 7:20 nisbatda bo'ladi. Shu oksidning formulasini aniqlang.
A) azot (II) oksid B) azot (III) oksid
C) azot (V) oksid D) azot (IV) oksid
E) azot (I) oksid

21. (v4-111-10) Vodorod, azot va kislorodning moddadagi massa ulushlari tegishlicha 5; 35 va 60% ga teng. Shu moddaning eng oddiy formulasini aniqlang.
A) nitrit kislota
B) azot (IV) oksidning monogidrati
C) nitrat kislota
D) ammoniy nitrit
E) ammoniy nitrat

22. (v5-104-9) Kumushning massa ulushi 87% bo'lsa, alyuminiy bilan kumush birikmasining formulasini aniqlang.
A) Ag_4Al_2 B) $AgAl_2$ C) Ag_5Al_3
D) Ag_3Al_2 E) Ag_2Al

23. (v5-105-18) 24,6 g noma'lum birikma havosiz sharoitda qizdirilganda parchalanib 11,07 g suv va 6,9 l (n. sh.) kimyoviy jihatdan inert bo'lgan murakkab gaz hosil bo'ladi. Noma'lum birikma formulasi – ... .
A) NH_4OH B) NH_4NO_2
C) NH_4Cl D) $(NH_4)_2CO_3$
E) NH_4NO_3

24. (v5-107-18) 10 g metall oksidini qaytarish uchun 4,2 l (n. sh.) vodorod sarf bo'lgan. Hosil bo'lgan metalni HCl da eritilganda 2,8 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqqan. Oksidning formulasini toping.
A) Fe_3O_4 B) CrO C) Fe_2O_3
D) Cr_2O_3 E) FeO

25. (v5-117-18) 12,8 g birikma havosiz sharoitda parchalanganda 7,2 g suv va 4,48 l (n. sh.) kimyoviy jihatdan inert bo'lgan oddiy modda hosil bo'lgan. Boshlang'ich moddaning formulasini aniqlang.
A) $(NH_2)_2CO$ B) NH_4OH
C) NH_4NO_2 D) NH_3
E) NH_4NO_3

26. (v5-125-9) Qalay bilan natriy birikmasida 20,5% natriy bo'lsa, birikmaning formulasini aniqlang.
A) Na_2Sn B) Na_2Sn_3
C) Na_4Sn_3 D) Na_4Sn_2
E) $NaSn_2$

27. (v6-106-26) 135,52 g metall sulfidining qizdirilishi natijasida olingan gaz kislorod bilan oksidlanib, suvda eritilganda 150,92 g kislota olindi. Agar metall ikki valentli bo'lsa, uning nomini toping.
A) mis B) rux C) nikel D) temir

28. (v6-107-18) 350 ml (n. sh.) fosfor bug'i 0,97 g kelsa, bug'dagi fosfor molekulalarining tarkibi qanday bo'ladi?
A) P_2 B) P C) P_6 D) P_4

29. (v11-114-21) Oksidlanish darajasi +1 bo'lgan metall va oksidlanish darajasi –1 bo'lgan metallmasdan hosil bo'lgan qattiq kristall modda kislota va ishqorning suvdagi eritmalari bilan shiddatli ravishda reaksiyaga kirishadi. Shu moddaning 2,4 g miqdori suv bilan reaksiyaga kirishganda 37° va 97882 Pa bosimida o'lchanganda 2,63 l vodorod ajralib chiqqan, eritma esa ishqoriy muhitga ega bo'lgan. Boshlang'ich moddaning formulasini aniqlang.
A) NaH B) KH C) MnO_2 D) LiH

30. (v12c-104-16) 301 ta molekulasining massasi $2{,}3\cdot10^{-20}$ g bo'lgan modda formulasini aniqlang.
A) C_2H_6 B) O C) N_2O D) NO_2

31. (v12c-107-5) 22,4 litr (n. sh.) noma lum gaz tarkibida $9{,}03\cdot10^{24}$ ta proton bo'lsa, uni aniqlang.
A) NH_3 B) CO C) NO D) PH_3

32. (v12c-115-33) 301 ta molekulasining massasi $2{,}2\cdot10^{-20}$ g bo'lgan modda formulasini aniqlang.
A) N_2O B) C_2H_6 C) NO_2 D) O

33. (v13-101-34) Tarkibida 72,758% II-valentli metall bo'lgan metall va simob (II) nitrat aralashmasi ochiq havoda qizdirildi. Uning massasi deyarli o'zgarmadi. Aralashmadagi Me ni toping.
A) Ba B) Ca C) Zn D) Cd

34. (v13-103-17) Tarkibida 69,565% II-valentli metall bo'lgan metall va ruh nitrat aralashmasi ochiq havoda qizdirildi. Uning massasi deyarli o'zgarmadi. Aralashmadagi Me ni toping.
A) Zn B) Ba C) Ca D) Cu

35. (v13-112-7) Tarkibida 70% II-valentli metall bo'lgan metall va mis (II) nitrat aralashmasi ochiq havoda qizdirildi. Uning massasi deyarli o'zgarmadi. Aralashmadagi Me ni toping.
A) Zn B) Mg C) Ba D) Ca

36. (v13-112-25) 12,34 g metalning kislorodli birikmasi uglerod (IV) oksid bilan ta'sirlashganda qattiq A modda va B gaz hosil bo'ldi. A modda bariy nitrat eritmasi bilan ta'sirlashganda 10,34 g cho'kma hosil bo'ldi. B gaz qizdirilgan mis trubkasi orqali o'tkazilganda esa trubka massasi 2,52 g ga ortdi. Dastlabki metall oksidi formulasini toping.
A) KO_2 B) BaO_2 C) SnO_2 D) RbO_2

37. (v16-107-36) Noma'lum metall asosli fosfat tuzining molyar massasi 322. Shu tuzning ekvivalenti 53,667 ga teng bo'lsa, metalning ekvivalentini aniqlang.
A) 15 B) 18,67 C) 9 D) 17,33

38. (v16-110-13) 5,6 l (n. sh.) gaz $2{,}709\cdot10^{24}$ ta elektrondan iborat bo'lsa, gazning formulasini aniqlang.
A) NO B) NH_3 C) CO D) H_2S

39. (v16-111-1) 80 g 3,15% li bir asosli kuchli kislota eritmasida $4{,}816\cdot10^{22}$ ta ion hosil bo'lgan bo'lsa, noma'lum kislotani toping. (α = 100%)
A) HNO_3 B) HIO_3 C) $HClO_4$ D) $HBrO_3$

40. (v16-111-31) Metall gidrofosfat tuzining molyar massasi 342. Shu tuzning ekvivalenti 57 ga teng bo'lsa, metalning ekvivalentini aniqlang.
A) 9 B) 15 C) 18,67 D) 17,33

41. (v16-113-9) Metall digidrofosfat tuzining molyar massasi 318. Shu tuzning ekvivalenti 106 ga teng bo'lsa, metalning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 28 B) 23,8 C) 8,5 D) 26,5

42. (v16-115-25) $X_2YCl_2 + 2HCl \rightarrow 2XCl_2 + H_2Y$ reaksiya bo'yicha 54 g noma'lum xlorli moddadan 76 g XCl_2 olingan bo'lsa, hosil bo'lgan H_2Y moddaning massasini (g) aniqlang. [$A_r(X):A_r(Y) = 3:2$]
A) 5,4 B) 7,2 C) 4,5 D) 3,6

43. (v16-120-36) Noma'lum metall asosli fosfat tuzining molyar massasi 266. Shu tuzning ekvivalenti 88,67 ga teng bo'lsa, qanday massadagi (g) tuz tarkibida $2{,}384\cdot10^{25}$ ta neytron bo'ladi?
A) 79,8 B) 102,6 C) 55,6 D) 128,8

44. (v16-121-5) $\frac{19}{14}$ g azot oksidi tarkibida $\frac{1}{2}$ g azot bor. Shu oksidning formulasini aniqlang.
A) N_2O_5 B) NO_2 C) NO D) N_2O_3

45. (v16-121-22) 1:1,5 hajmiy nisbatda olingan X va Y gazlari aralashmasining o'rtacha molyar massasi bilan 1,5:1 hajmiy nisbatda olingan X va Y gazi aralashmasining o'rtacha molyar massasi ayirmasi 3,2 ga teng, yig'indisi esa ayirmasidan 22,5 marta ko'p. Gazlarni toping.
A) CH_4, Ne B) CO, CO_2
C) O_2, O_3 D) O_2, He

46. (v16-123-36) Metall gidrofosfat tuzining molyar massasi 342. Shu tuzning ekvivalenti 57 ga teng bo'lsa, 102,6 g tuz tarkibidagi atomlar sonini aniqlang.
A) $3{,}15\cdot10^{24}$ B) $3{,}15\cdot10^{23}$
C) $3{,}612\cdot10^{24}$ D) $3{,}088\cdot10^{24}$

47. (v16-124-9) 11,2 l (n. sh.) noma'lum gaz tarkibida $54{,}18\cdot10^{23}$ ta proton bo'lsa, uni aniqlang.
A) H_2S B) NH_3 C) NO D) CO

48. (v16-130-32) Metall digidrofosfat tuzining molyar massasi 318. Shu tuzning ekvivalenti 106 ga teng bo'lsa, qanday massadagi (g) tuz tarkibida $3{,}804\cdot10^{25}$ ta neytron bo'ladi?
A) 113,4 B) 102,6 C) 120 D) 127,2

49. (v17-108-17) NY_3X da azotning massa ulushi 8,24%. NY_2X da esa 9,09% ni tashkil etsa, X va Y ni toping.
A) Cu va O_2
B) Ca va Cl_2
C) Hg va O_2
D) Ag va O_2

50. (v17-111-13) Tarkibida massa bo'yicha 28% Me, 24% S va 48% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.
A) Na_2SO_3
B) $Cr_2(SO_4)_3$
C) $Fe_2(SO_4)_3$
D) $FeSO_4$

51. (v17-117-10) Tarkibida massa bo'yicha 28,4% Me, 32,1% Cr va 39,5% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.
A) $FeCrO_4$
B) $Al_2(Cr_2O_7)_3$
C) Na_2CrO_4
D) $Fe_2(CrO_4)_3$

52. (v17-119-13) Cl_2Y_2X birikmada xlorning massa ulushi 52,59%. Cl_2YXda esa 59,66%. Noma'lum modda formulasini toping.
A) S va N_2 B) S va O_2
C) S va Cl_2 D) S va F_2

49. Aralashmadagi moddalarning tarkibini aniqlash. Aralashmalar

1. (96-5-37) 12 g uglerod (II) oksidli va oltingugurt (IV) oksidlari aralashmasi oksidlanish natijasida 6,72 l uglerod (IV) oksid va oltingugurt (VI) oksidlari hosil bo'lgan. Dastlabki aralashmadagi uglerod (II) oksidining massa ulushini aniqlang.
A) 50% B) 46,67% C) 33,33%
D) 67% E) 40,15%

2. (96-13-60) Kalsiy oksid bilan kalsiy karbonat aralashmasidan 7,8 g miqdori xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishganda 1,12 l gaz modda hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi karbonatning massa ulushini toping.
A) 0,50 B) 0,64 C) 0,70
D) 0,75 E) 0,80

3. (96-13-63) 4,8 g magniy va 5,6 g temir aralashmasi xlorid kislotada eriganda necha mol vodorod hosil bo'ladi?
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3
D) 0,4 E) 0,5

4. (96-15-36) 10 g uglerod (II) oksidi va uglerod (IV) oksidi aralashmasi to'liq yonishi natijasida 13,2 g uglerod (IV) oksidi hosil bo'lgan. Aralashmadagi uglerod (II) oksidining massa ulushini aniqlang.
A) 44% B) 56% C) 28%
D) 227% E) 50%

5. (97-1-3) Massasi 50 g bo'lgan kalsiy karbonat bilan kalsiy oksid aralashmasini to'la parchalanganda 2,24 l (n. sh.) gaz mahsulot ajralib chiqsa, boshlang'ich aralashmadagi kalsiy karbonat massa ulushini toping.
A) 0,25 B) 0,15 C) 0,20
D) 0,30 E) 0,35

6. (97-2-36) 20 ml vodorod bilan kislorod aralashmasi portlatilgandan so'ng, 3,2 ml kislorod qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi kislorodning hajmini (ml) aniqlang.
A) 8,2 B) 8,0 C) 16,8
D) 6,4 E) 8,8

7. (97-2-55) Massasi 48 g bo'lgan mis va mis (II) oksid aralashmasi sulfat kislota bilan ta'sirlashdi. Bunda 6,72 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Aralashmadagi mis oksidining massa ulushini (%) aniqlang: [A_r(Cu) = 63,5; A_r(S) = 32]
A) 64 B) 60 C) 62 D) 65 E) 68

8. (97-4-56) 1 g temir (II) va temir (III) oksidlar aralashmasi vodorod bilan to'liq qaytarilganda 0,27 g suv hosil bo'ldi. Aralashmadagi temir (II) oksidning massasini (g) aniqlang.
A) 0,77 B) 0,67 C) 0,57
D) 0,47 E) 0,37

9. (97-4-63) 1 g mis va alyuminiy qotishmasi mo'l kaliy gidroksid eritmasida eritilganda, n. sh. da 1,12 l gaz ajralib chiqdi qotishma tarkibidagi misning massa ulushini aniqlang.
A) 10 B) 20 C) 30 D) 40 E) 50

10. (97-7-5) 20 g natriy, kaliy va misdan (massalar nisbati tegishli ravishda 1:1:2) tayyorlangan qotishma suvga tashlandi. Bunda n. sh. da qancha hajm (l) vodorod ajralib chiqadi?
A) 3,87 B) 11,2 C) 12,5
D) 14,2 E) 15,6

11. (97-8-60) 6,05 g temir va rux qipig'i aralashmasiga ortiqcha miqdorda mis (II) xlorid eritmasi ta'sir ettirilganda, 6,4 g mis ajralib chiqdi. Aralashma tarkibida necha gramm temir bo'lgan?
A) 1,4 B) 1,8 C) 2,1
D) 2,5 E) 2,3

12. (98-7-23) 5,5 g alyuminiy va temir aralashmasiga xlorid kislota qo'shilganda, 4,48 l gaz ajralgan. Aralashmada necha gramm alyuminiy va temir bo'lganligini aniqlang. [M_r(Fe) = 56, M_r(Al) = 27, M_r(Cl) = 35,5]
A) Al – 2,5; Fe – 3,0 B) Al – 2,7; Fe – 2,8
C) Al – 2,3; Fe – 3,3 D) Al – 3,0; Fe – 2,5
E) Al – 2,8; Fe – 2,7

13. (98-8-93) Temir va misdan iborat 11,95 g aralashmani to'liq xlorlash uchun 5,6 l (n. sh.) xlor sarflandi. Aralashmadagi temirning massasini (g) hisoblang.
A) 5,9 B) 5,3 C) 4,8
D) 5,6 E) 6,1

14. (98-10-62) Rux va magniy qotishmasining 2,5 g miqdori suyultirilgan sulfat kislotada eritilganda, 26°C va $1{,}2 \cdot 10^5$ Pa da o'lchangan vodorod hajmi 1,3 l bo'lgan. Qotishma komponentlarining massa ulushlarini (%) hisoblang.
A) 60 Zn va 40 Mg B) 72 Zn va 28 Mg
C) 63 Zn va 37 Mg D) 37 Zn va 63 Mg
E) 74 Zn va 26 Mg

15. (98-10-65) 26,4 g ammoniy sulfat va 34 g natriy nitrat aralashmasi, massa o'zgarmay qolguncha, qizdirilgan. Parchalanmay qolgan modda massasini (g) hisoblang.
A) 14,2 B) 28,4 C) 21,3
D) 85 E) 17

16. (99-1-16) Mis va alyuminiy qirindisidan iborat bo'lgan 18,2 g aralashmaga 0,6 mol xlorid kislota ta'sir ettirilganda 6,72 l gaz (n. sh.) ajralib chiqqan. Aralashmada qancha (g) mis qirindisi bo'lgan?
A) 6,4 B) 12,8 C) 5,4
D) 10,0 E) 8,1

17. (99-3-18) Fe_2O_3 va CuO dan iborat 95,5 g aralashma vodorod oqimida qaytarildi. Qaytarilish mahsulotlariga ortiqcha miqdordagi xlorid kislota ta'sir ettirishdan n. sh. da o'lchangan 4,48 l vodorod ajralib chiqdi. Qancha (g) mis qaytarilganligini hisoblab toping.
A) 65,5 B) 60,0 C) 63,5
D) 61,8 E) 61,0

18. (99-3-50) Kalsiy va kalsiy oksiddan iborat 2 g aralashmaga suv ta'sir etishidan 448 ml vodorod (n. sh.) ajralib chiqdi. Aralashma tarkibidagi kalsiy oksidining massa ulushini (%) hisoblab toping.
A) 58 B) 60 C) 55 D) 62 E) 64

19. (99-4-51) Alyuminiy va misdan iborat 20 g qotishmaga konsentrlangan nitrat kislota bilan ishlov berildi. Bunda 4,48 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Qotishma tarkibi (%) qanday?
A) Al – 56, Cu – 44 B) Al – 50, Cu – 50
C) Al – 25, Cu – 75 D) Al – 68, Cu – 32
E) Al – 65, Cu – 35

20. (99-7-38) 15 g mis va alyuminiy qotishmasiga xlorid kislota bilan ishlov berilganda, 5,6 g vodorod hosil bo'lsa, qotishmadagi alyuminiyning massa ulushini hisoblang.
A) 0,20 B) 0,30 C) 0,15
D) 0,90 E) 0,45

21. (00-4-15) Temir va kislorod atomlaridan $6{,}02 \cdot 10^{23}$ donadan molekulasi bo'lgan temir (II) sulfat va pirit aralashmasi massasini (g) toping.
A) 64 B) 128 C) 120
D) 60 E) 192

22. (00-10-9) Temir va alyuminiyning [illegible] aralashmasiga xlorid kislota ta'sir ettirganda 8,96 l gaz (n. sh. da) ajralib chiqdi. Aralashmadagi metallarning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 45,5 Fe; 54,5 Al
B) 50,91 Fe; 49,09 Al
C) 43,65 Fe; 46,35 Al
D) 52,91 Fe; 47,09 Al
E) 54,5 Fe; 45,5 Al

23. (00-10-11) Mis bilan alyuminiydan iborat 10 g aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 4,48 l (n. sh. da) gaz ajralib chiqdi. Aralashmadagi metallarning massalarini (g) hisoblang.
A) 5,5 Cu; 4,5 Al B) 3,65 Cu; 6,35 Al
C) 6,05 Cu; 3,95 Al D) 6,35 Cu; 3,65 Al
E) 5,94 Cu; 4,06 Al

24. (01-2-70) Natriy bromid va natriy xloridning 35,2 g aralashmasi kumush nitrat bilan 73,48 g cho'kma hosil qildi. Aralashmaning foiz tarkibini aniqlang?
A) 46,2 NaCl, 53,8 NaBr
B) 60 NaCl, 40 NaBr
C) 30,8 NaCl, 69,2 NaBr
D) 20 NaCl, 80 NaBr
E) 41,0 NaCl, 59,0 NaBr

25. (01-6-63) 19,8 g magniy va 18,0 g kremniy (IV) oksid aralashmasi havosiz joyda uzoq vaqt qizdirilganda hosil bo'lgan kremniyni eritish uchun zichligi 1,33 g/ml bo'lgan 34% li KOH eritmasidan qancha hajm (ml) kerak?
A) 129,1 B) 76,4 C) 104,6
D) 112,8 E) 74,3

26. (01-7-4) KCl bilan $MgCl_2$ ning 3,93 g aralashmasidan kumush xloridni. cho'ktirish uchun kumush nitratning 0,5 M eritmasidan 120 ml sarf qilingan. Xloridalar aralashmasining massa tarkibini (g) aniqlang.
A) 2 va 1,93 B) 2,4 va 1,53
C) 1 va 2,93 D) 2,98 va 0,95
E) 1,2 va 2,73

27. (01-9-18) Massasi 9,86 g bo'lgan magniy karbonat va magniy gidrokarbonat aralashmasi mo'l miqdorda olingan xlorid kislota ta'sirida 2,7 l gaz mahsulot hosil qilgan. Reaksiya uchun olingan karbonat va gidrokarbonatlarning modda miqdorlarini aniqlang.
A) 0,05 va 0,06 B) 0,1 va 0,01
C) 0,08 va 0,03 D) 0,07 va 0,04
E) 0,09 va 0,02

28. (01-9-25) Kalsiy karbonat va kalsiydan tashkil topgan aralashmadagi tuzning to'la parchalanguncha qizdirilgandan keyingi massasi boshlang'ich aralashma massasiga teng bo'lgan. Aralashmadagi kalsiy karbonat va metalning massa ulushlari (%) qanday bo'lgan?
A) 38,88 va 61,12 B) 42,05 va 57,95
C) 52,95 va 47,35 D) 49,54 va 50,46
E) 47,62 va 52,38

29. (01-10-57) Massasi 292 g natriy karbonat va natriy gidrokarbonat aralashmasi qizdirilganda, massa 274 g gacha kamaygan. Aralashmada natriy karbonatning massa ulushini (%) toping.
A) 87,9 B) 83,3 C) 95,2
D) 81,3 E) 79,2

30. (02-1-7) 2 g kalsiy oksid bilan kalsiyning aralashmasi suv bilan reaksiyaga kirishganda 224 ml gaz ajralib chiqdi. Aralashmadagi kalsiy oksidning foiz miqdorini hisoblang.
A) 20 B) 90 C) 60 D) 40 E) 80

31. (02-2-5) Massasi 5,1 g bo'lgan alyuminiy kukuni qanday massadagi (g) kalsiy karbonat bilan ochiq havoda qizdirilganda sodir bo'lgan reaksiya davomida hosil bo'lgan moddalar massalari yig'indisi boshlang'ich aralashma massasiga teng bo'ladi?
A) 130,1 B) 19,63 C) 10,3
D) 13,6 E) 15,1

32. (02-2-10) Massasi 54,4 g bo'lgan kalsiy karbid va alyuminiy karbid aralashmasiga suv bilan ishlov berilganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasi tarkibida 0,07% brom bo'lgan suvning 800 g miqdori bilan reaksiyaga kirishishi aniqlangan. Boshlang'ich aralashmadagi alyuminiy karbidning massa ulushini hisoblang.
A) 0,53 B) 0,80 C) 0,57
D) 0,61 E) 0,60

33. (02-3-3) Massasi 90 g bo'lgan eritmadagi natriy gidroksid va natriy karbonatning massa ulushlari tegishli ravishda 1,33 va 2,63% bo'lgan. Shu eritmaga 4,2 g natriy gidrokarbonat qo'shilgandan keyin, eritmadagi natriy karbonat va gidrokarbonatning massa ulushlarini (%) hisoblang.
A) 4,24; 3,15 B) 6,41; 2,84
C) 4,58; 2,31 D) 5,28; 1,15
E) 5,88; 1,78

34. (02-3-27) Kaliy va natriy nitratlari aralashmasidan 72,8 g miqdori qizdirilganda 8,96 l gaz (n. sh.) hosil bo'lgan. Aralashmadagi kaliyli tuzning massa ulushini (%) toping.
A) 38,2 B) 34,6 C) 43,6
D) 45,5 E) 47,2

35. (02-5-35) 14 g uglerod (II) oksid va uglerod (IV) oksid gazlari aralashmasi 8,34 l hajmni egallaydi. Aralashma cho'g'langan ko'mir ustidan o'tkazilgandan keyin qancha hajmni (l) egallaydi?
A) 5,004 B) 3,336
C) 10,008 D) 13,344
E) 7,536

36. (02-12-27) $CaCO_3$ va $Ca_3(PO_4)_2$ lar havosiz joyda qizdirilganda, massa 11% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi har bir tuzning massa ulushini toping.
A) 0,25; 0,75 B) 0,35; 0,65
C) 0,45; 0,55 D) 0,5; 0,5
E) 0,6; 0,4

37. (04-1-496) Fe_2O_3 va CuO dan iborat 85,5 g aralashma vodorod oqimida qaytarildi. Qaytarilish mahsulotlariga mo'l miqdordagi xlorid kislota ta'sir ettirishdan n. sh. da o'lchangan 2,24 l vodorod ajralib chiqdi. Qancha (g) mis qaytarilganligini hisoblab toping.
A) 32 B) 62 C) 77,5
D) 70 E) 64,0

38. (04-1-510) Kalsiy oksid bilan kalsiy karbonat aralashmasining 7,8 g miqdori xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishganda 1,12 l (n. sh.) gaz modda hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi oksidning massa ulushi qancha bo'lgan?
A) 0,50 B) 0,64 C) 0,70
D) 0,75 E) 0,36

39. (04-1-525) 8,5 g Na va K qotishmasi suv bilan ishlandi. Bunda 3,8 l (n. sh. da) vodorod ajraldi. Aralashmadagi K ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 80,0 B) 37,1 C) 69,9
D) 45,5 E) 20

40. (04-1-535) 20,2 g kaliy nitrat qizdirilganda, 17,0 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. Qoldiqning tarkibini (%) aniqlang.
A) 35% KNO_3, 65% KNO_2
B) 45% KNO_3, 55% KNO_2
C) 50% KNO_3, 50% KNO_2
D) 100% KNO_3
E) 100% KNO_2

41. (04-1-536) 3,16 g kaliy permanganat qizdirilganda, 3,04 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. Qoldiq tarkibidagi $KMnO_4$ ning massasini aniqlang.
A) 1,19 B) 1,97 C) 56,5
D) 2,65 E) 2,25

42. (04-1-550) Mis va alyuminiy qirindisidan iborat bo'lgan 11,8 g aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda, 8,96 l gaz (n. sh.) ajralib chiqqan. Aralashmada qancha (g) alyuminiy qirindisi bo'lgan?
A) 6,4 B) 12,8 C) 4,6
D) 10,0 E) 7,2

43. (04-1-607) Temir va misdan iborat 11,2 g aralashmani to'liq xlorlash uchun 4,48 l (n. sh.) xlor sarflandi. Aralashmadagi misning massasini (g) hisoblang.
A) 3,6 B) 2,24 C) 4,8
D) 7,46 E) 8,96

44. (04-1-672) Laboratoriyada o'tkazilgan tajribalardan birida 39,6 g ammoniy sulfat va 101 g natriy nitratlarning konsentrlangan eritmasi aralashma massasi o'zgarmay qolguncha qizdirilgan. Parchalanmay qolgan modda massasini (g) hisoblang.
A) 14,2 B) 28,4 C) 21,3
D) 85 E) 42,6

45. (05-1-178) N. m. da N_2 va CO_2 gazlari aralashmasining 16,8 l massasi 30 g ni tashkil etsa, aralashmadagi har bir gazning massasini (g) hisoblang.
A) N_2 – 7; CO_3 – 22
B) N_2 – 5,25; CO_2 – 24,75
C) N_2 – 22; CO_2 – 7
D) N_2 – 7,5; CO_3 – 22,5
E) N_2 – 6,43; CO_2 – 23,57

46. (v4-101-24) Massasi 11,2 g bo'lgan magniy karbonat va magniy gidrokarbonat aralashmasi mo'l miqdorda olingan xlorid kislota ta'sirida 3,14 l gaz mahsulot hosil qilgan. Reaksiya uchun olingan karbonat va gidrokarbonatlarning modda miqdorlarini aniqlang.
A) 0,08 va 0,03 B) 0,31 va 0,1
C) 0,05 va 0,06 D) 0,27 va 0,087
E) 0,1 va 0,01

47. (v4-107-34) $KMnO_4$ bilan bertole tuzining 10,05 g aralashmasi parchalanganda, 1,792 l (n. sh.) kislorod ajralib chiqqan. Reaksiya uchun olingan aralashmaning massa (g) tarkibini aniqlang.
A) 2 va 6,06 B) 4,06 va 4,0
C) 3,16 va 4,9 D) 3,06 va 5,0
E) 4,74 va 5,31

48. (v4-117-24) Kalsiy oksid bilan kalsiy karbonat aralashmasining 10 grammi xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishganda 1,12 l (n. sh.) gaz modda hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi oksidning massa ulushi qancha bo'lgan?
A) 0,70 B) 0,36 C) 0,50
D) 0,75 E) 0,64

49. (v4-120-29) Massasi 54,4 g bo'lgan kalsiy karbid va alyuminiy karbid aralashmasiga suv bilan ishlov berilganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasi tarkibida 9% brom bo'lgan suvning 907 g miqdori bilan reaksiyaga kirishishi aniqlangan. Boshlang'ich aralashmadagi alyuminiy karbidning massa ulushini hisoblang.
A) 0,57 B) 0,60 C) 0.53
D) 0,70 E) 0,80

50. (v4-127-34) $KMnO_4$ bilan bertole tuzining 10,05 g aralashmasi parchalanganda, 1,792 l (n. sh.) kislorod ajralib chiqqan. Reaksiya uchun olingan aralashmaning massa (g) tarkibini aniqlang.
A) 2 va 6,06 B) 4,06 va 4,0
C) 3,16 va 4,9 D) 3,06 va 5,0
E) 4,74 va 5,31

51. (v5-101-25) 10 g temir va rux qotishmasiga xlorid kislota ta'sir ettirilganda necha litr (n. sh.) vodorod ajralib chiqadi? Qotishmada ruxning massa ulushi 60% ga teng.
A) 3,66 B) 6,2 C) 2,36
D) 1,6 E) 2,06

52. (v5-105-27) 335 g sulfat kislota va natriy xlorid aralashmasidan 73 g HCl olindi va 120 g NaCl ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi NaCl ning massa ulushini hisoblang.
A) 0,92 B) 0,54 C) 0,70
D) 0,80 E) 0,60

53. (v5-110-25) 90,3 g alyuminiy va alyuminiy oksidi aralashmasiga yetarli miqdorda xlorid kislota eritmasi bilan ishlov berilganda 23,5 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Boshlang'ich aralashmaning (%) tarkibini aniqlang.
A) 21 – Al; 79 – Al_2O_3
B) 28 – Al; 72 – Al_2O_3
C) 65 – Al; 35 – Al_2O_3
D) 30 – Al; 70 – Al_2O_3
E) 34 – Al; 66 – Al_2O_3

54. (v5-120-24) 20,9 g natriy karbonat va natriy gidrokarbonat aralashmasiga yetarli miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda 4,928 l (n. sh.) gaz ajraldi. Aralashmaning foiz tarkibini aniqlang.
A) 51% Na_2CO_3, 49% $NaHCO_3$
B) 74% Na_2CO_3, 16% $NaHCO_3$
C) 56% Na_2CO_3, 44% $NaHCO_3$
D) 35% Na_2CO_3, 65% $NaHCO_3$
E) 43% Na_2CO_3, 57% $NaHCO_3$

55. (v5-121-31) Tarkibida massa jihatdan 26% benzol, 74% toluol bo'lgan 250 g aralashmani yondirish uchun … m^3 havo (φ_{O_2} = 0,2) talab etiladi.
A) 3,1 B) 2,5 C) 3,84
D) 4,8 E) 2,7

56. (v5-122-24) 48 g SO_3 gazi natriy ishqori eritmasidan o'tkazilganda 78,6 g nordon va o'rta tuzlar aralashmasi hosil bo'ldi. Aralashmadagi o'rta tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 42,3 B) 48,8 C) 51,7
D) 54,2 E) 67,4

57. (v5-128-25) 10 g alyuminiy va Al_2O_3 aralashmasiga xlorid kislota ta'sir ettirilganda qancha hajm (1, n. sh.) vodorod ajralib chiqadi? Aralashmada Al_2O_3 60% ni tashkil etadi.
A) 6,22 B) 3,88 C) 7,47
D) 4,98 E) 12,44

58. (v5-145-1) 3,5 gramm natriy xlorid va natriy bromid aralashmasi suvda eritilib, aralashma orqali mo'l miqdorda xlor gazi o'tkazildi. Reaksiyadan so'ng massasi 2,64 g ga teng natriy xlorid olindi. Boshlang'ich aralashma tarkibida qancha gramm natriy bromid bo'lganligini hisoblab toping.
A) 1,3 B) 0,3 C) 2 D) 2,8 E) 0,86

59. (v5-151-18) 37 g kalsiy karbonat va natriy nitrat aralashmasi qizdirilganda hosil bo'lgan gazlar kalsiy gidroksid eritmasidan o'tkazilgandan so'ng qolgan gaz 2,24 l (n. sh.)ni tashkil qildi. Boshlang'ich aralashmadagi $CaCO_3$ ning massa ulushi … % bo'lgan.
A) 62 B) 68 C) 54 D) 39 E) 46

60. (v6-101-28) Massasi 48 g bo'lgan mis va mis (II) oksid aralashmasi konsentrlangan sulfat kislota bilan ta'sirlashdi. Bunda 6,72 l (n. sh.) SO_2 ajralib chiqdi. Aralashmadagi mis oksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 60 B) 64 C) 55 D) 62

61. (v6-103-19) Massasi 50 g bo'lgan kalsiy karbonat bilan kalsiy oksid aralashmasi to'la parchalanganda 2,24 l (n. sh.) gaz mahsulot ajralib chiqsa, boshlang'ich aralashmadagi kalsiy karbonatning massa ulushi qancha bo'lgan?
A) 0,15 B) 0,25 C) 9,30 D) 0,20

62. (v6-104-36) Kalsiy va alyuminiy karbidlar aralashmasi suv bilan ishlov berilib olingan gazlar bromli suv eritmasidan o'tkazilganda eritma massasi 1,3 g ortdi. Qolgan gazni yoqishga 33,6 l (n. sh.) havo sarflandi. Boshlang'ich aralashmaning massasini (g) aniqlang. [$\omega(O_2)$ = 20%]
A) 3,2 B) 10,4 C) 24,8 D) 7,2

63. (v6-106-34) Natriy gidrokarbonat va natriy karbonatdan iborat 34,9 g aralashmani to'la neytrallash uchun 28% li (ρ = 1,2 g/ml) sulfat kislotadan 87,5 ml sarflandi. Hosil bo'lgan eritmadagi moddaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 51 B) 27 C) 34 D) 42

64. (v6-107-19) 100 g dolomit qizdirilganda uning massasi 12 g ga kamaydi. Reaksiyaga kirishmagan dolomit massasi (g) va qolgan aralashmadagi kalsiy oksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 88; 5,6 B) 75; 8,6
C) 25; 75 D) 75; 7,6

65. (v6-109-34) Natriy gidrokarbonat va natriy karbonatdan iborat 38 g aralashmani to'la neytrallash uchun 40% li (ρ = 1,3 g/ml) sulfat kislotadan 56,6 ml sarflansa, hosil bo'lgan eritmaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 38 B) 22 C) 45 D) 50

66. (v6-123-35) Oltin (III) xlorid natriy gidroksid ishtirokida metanal bilan reaksiyaga kirishganda 78,8 g oltin hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan natriy formiatning massasini (g) hisoblang.
A) 56,7 B) 34,9 C) 40,8 D) 29,3

67. (v7-107-24) 35,8 g natriyning karbonat va gidrokarbonat tuzlari kuydirilib doimiy massaga keltirilganda 26,5 g ni tashkil qildi. Boshlang'ich tuzlar qanday nisbatda (mol) olingan?
A) 1:2 B) 1:1 C) 1:4 D) 1:3

68. (v7-108-26) Kaliy permanganat va kaliy xloratdan (MnO_2 ishtirokida) iborat 0,5 mol aralashma qizdirilganda 12,32 l (n. sh.) kislorod ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning mol nisbatini aniqlang.
A) 1:1,5 B) 1:1 C) 1:3 D) 1:2

69. (v7-109-26) KCl va $MgCl_2$ dan iborat 0,4 mol aralashmadagi xlorid ionini to'la cho'ktirish uchun kumush nitratning 0,4 molyarli eritmasidan 1,25 l sarflansa, boshlang'ich aralashmadagi xloridlarning (berilgan tartibda) mol nisbatini aniqlang.
A) 2:1 B) 3:1
C) 2:3 D) 3:2

70. (v7-110-18) 18,4 g dolomit qizdirilganda uning massasi 2,2 g ga kamaydi. Reaksiyaga kirishmagan dolomit massasi (g) va qolgan aralashmadagi magniy oksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 13,8; 6,2 B) 16,2; 2,4
C) 13,8; 1,0 D) 13,8; 5,4

71. (v7-111-24) FeO va Fe_2O_3 dan iborat 1 mol aralashmani to'la qaytarish uchun 4,4 g vodorod sarflandi. Boshlang'ich aralashmadagi oksidlar (mol) nisbatini aniqlang.
A) 1:1,5 B) 1:2 C) 1:1 D) 1:3

72. (v7-135-24) Na va Ca dan iborat 0,3 mol aralashma suv bilan ta'sirlashganda 4,48 l (n. sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi kalsiy massasini (g) aniqlang.
A) 2 B) 8 C) 12 D) 4

73. (v8-101-33) Natriy gidrokarbonat va natriy karbonatdan iborat 0,5 mol aralashmani to'la neytrallash uchun 20% li sulfat kislotadan 196 g sarflandi. Hosil bo'lgan moddaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 43,2 B) 25,5 C) 18,3 D) 32,4

74. (v8-102-23) Kaliy superoksid va natriy peroksiddan iborat 47,2 g aralashma suvda eritilganda 10,08 l (n. sh.) gaz ajralgan bo'lsa, boshlang'ich aralashma tarkibini (g) mos ravishda aniqlang.
A) 31,4; 15,8 B) 24,6; 22,6
C) 40,5; 6,7 D) 35,5; 11,7

75. (v8-103-33) Natriy gidrokarbonat va natriy karbonatdan iborat 0,3 mol aralashmani to'la neytrallash uchun 20% li (ρ = 1,25 g/ml) xlorid kislotadan 58,4 ml sarflandi. Hosil bo'lgan moddaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 19,4 B) 12,4 C) 26,8 D) 31,2

76. (v8-104-15) 112 l (n. sh.) NO va NO_2 aralashmasida $596 \cdot 10^{23}$ elektron mavjud bo'lsa ushbu aralashmadagi azot (II) oksidning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 0,40 B) 0,75 C) 0,60 D) 0,25

77. (v8-105-15) 112 l (n. sh.) CO va CO_2 aralashmasida $614,04 \cdot 10^{23}$ elektron mavjud bo'lsa, ushbu aralashmadagi uglerod (II) oksidning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 0,20 B) 0,80 C) 0,65 D) 0,35

78. (v8-105-33) $NaHCO_3$ va $CaCO_3$ dan iborat 50,4 g aralashmaning xlorid kislotada eritilishidan zichligi (n. sh.) 2,143 g/l bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu gazlar aralashmasi 800 g bromli suv bilan to'la reaksiyaga kirishgan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan xlorid kislota miqdori (mol) va bromli suvning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 0,5; 4 B) 0,9; 2 C) 0,6; 2 D) 1,2; 3

79. (v8-106-23) Tarkibining 58,5% i kaliy bo'lgan, natriy va kaliydan iborat necha gramm aralashma suvda eritilganda 7,392 l (n. sh.) gaz ajraladi?
A) 8,28 B) 11,7 C) 9,99 D) 19,98

80. (v8-106-26) Mol nisbatlari 1:3 bo'lgan Cu va C larning 10 g aralashmasini eritish uchun 98% li (ρ = 1,8 g/ml) sulfat kislotaning qanday hajmi (ml) zarur bo'ladi?
A) 80 B) 78,4 C) 44,4 D) 36,1

81. (v8-109-23) Tarkibining 80,5% i natriy bo'lgan, natriy va kaliydan iborat necha gramm aralashma suvda eritilganda 2,24 l (n. sh.) gaz ajraladi?
A) 8,7 B) 6,2 C) 5 D) 10

82. (v8-109-24) 12 g magniy oksidni sirka va sulfat kislotalar aralashmasida eritilganda magniy atsetat trigidrati va magniy sulfat geksagidratidan iborat 65,2 g aralashma hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan kislotalarning massalari yig'indisini (g) hisoblang.
A) 19,6 B) 41,7 C) 31,6 D) 21,8

83. (v8-112-23) Natriy gidrokarbonat va natriy karbonatdan iborat 0,8 mol aralashmani to'la neytrallash uchun 50% li sulfat kislotadan 117,6 g sarflandi. Hosil bo'lgan moddaning massa ulushini hisoblang.
A) 0,30 B) 0,29 C) 0,53 D) 0,42

84. (v8-113-23) Tarkibining 19,5% i kaliy bo'lgan, natriy va kaliydan iborat necha gramm aralashma suvda eritilganda 4,48 l (n. sh.) gaz ajraladi?
A) 3,7 B) 16,2
C) 5,4 D) 10,0

85. (v8-113-24) 20 g magniy oksidini sirka va sulfat kislotalar aralashmasida eritilganda magniy atsetat trigidrati va magniy sulfat pentagidratidan iborat 102,2 g aralashma hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan kislotalarning massalari yig'indisini (g) hisoblang.
A) 53,4 B) 41,4 C) 39,4 D) 62,7

86. (v8-113-26) Mol nisbatlari 1:2 bo'lgan Fe_2O_3 va Cu larning 28,8 g aralashmasini eritish uchun 98% li (ρ = 1,8 g/ml) sulfat kislotaning qanday hajmi (ml) zarur bo'ladi?
A) 70 B) 68,6 C) 98 D) 38,9

87. (v8-115-23) Tarkibining 78% i kaliy bo'lgan, natriy va kaliydan iborat necha gramm aralashma suvda eritilganda 6,72 l (n. sh.) gaz ajraladi?
A) 29,3 B) 19,6 C) 20,2 D) 33,7

88. (v8-120-26) Mol nisbatlari 1:3:4 bo'lgan Fe_2O_3, C va Cu larning 90,4 g aralashmasini eritish uchun 98% li (ρ = 1,8 g/ml) sulfat kislotaning qanday hajmi (ml) zarur bo'ladi?
A) 333,2 B) 166,7 C) 188,9 D) 340

89. (v8-128-23) Tarkibining 23% i natriy bo'lgan, natriy va kaliydan iborat necha gramm aralashma suvda eritilganda 11,2 l (n. sh.) gaz ajraladi?
A) 33,7 B) 26,3
C) 51,4 D) 42,8

90. (v9-102-11) 1 mol natriy bromid va kalsiy bromiddan iborat aralashmadagi brom ionini to'la cho'ktirish uchun 1,75 l 0,8 molyarli kumush nitrat eritmasi sarflandi. Bromidlar aralashmasining massa tarkibini (g) aniqlang.
A) 41,2; 120 B) 36,5; 80
C) 51,5; 100 D) 61,8; 80

91. (v9-103-2) Natriy gidrokarbonat, alyuminiy nitrat va natriy sulfat eritmalariga fenolftalein qo'shilganda ularning rangi (berilgan tartibda) qanday o'zgaradi?
1) rangi o'zgarmaydi; 2) ko'k rangga kiradi; 3) to'q qizil rangga kiradi; 4) sariq rangga kiradi.
A) 2, 3, 1 B) 3, 1, 1 C) 4, 2, 1 D) 3, 2, 1

92. (v9-104-16) Kaliy permanganat bilan kaliy xloratdan iborat 0,4 mol aralashma termik parchalanganda 8,96 l (n. sh.) kislorod ajralib chiqdi. Reaksiya uchun olingan aralashmaning massa (g) tarkibini aniqlang.
A) 47,4; 12,25 B) 31,6; 24,50
C) 15,8; 36,75 D) 23,7; 30,6

93. (v9-106-11) Kaliy permanganat bilan kaliy xloratdan iborat 0,4 mol aralashma termik parchalanganda 11,2 l (n. sh.) kislorod ajralib chiqqan. Reaksiya, uchun olingan moddalarning massasini (g) aniqlang.
A) 15,8; 36,75 B) 23,7; 30,6
C) 31,6; 24,50 D) 47,4; 12,25

94. (v9-107-15) Kalsiy oksid va kalsiy karbonat aralashmasi xlorid kislotada eritilganda 1,12 l (n. sh.) CO_2 va 22,2 g CaCl hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi kalsiy karbonatning massa ulushini hisoblang.
A) 0,53 B) 0,37
C) 0,63 D) 0,47

95. (v9-109-16) 20,2 g kaliy nitrat va kaliy oksid aralashmasi termik parchalanganda 1,22 l (n. sh.) gaz mahsulot olindi. Boshlang'ich aralashmadagi kaliy nitratning massa ulushini hisoblang.
A) 0,25 B) 0,40 C) 0,50 D) 0,35

96. (v9-113-11) 0,3 mol natriy xlorid va kalsiy xloriddan iborat aralashmadagi xlor ionini to'la cho'ktirish uchun 500 ml 0,8 molyarli kumush nitrat eritmasi sarflandi. Xloridlar aralashmasining massa tarkibini (g) aniqlang.
A) 8,77; 16,65 B) 2,9; 19,9
C) 11,7; 11,1 D) 5,85; 22,2

97. (v9-117-13) 0,6 mol kaliy, natriy va kalsiydan iborat aralashmaning og'irligi 22,1 g bo'lib, suv bilan reaksiyaga kirishganda 0,9 g vodorod ajralib chiqdi. Boshlang'ich aralashmadagi natriyning massasini (g) hisoblang.
A) 3,45 B) 4,6 C) 5,75 D) 2,3

98. (v9-121-10) 200 g 19,6% li H_2SO_4 eritmasini to'la neytrallash uchun geliyga nisbatan zichligi 4,2 ga teng bo'lgan ammiak va metaldan iborat aralashmadan qancha hajm (l, n. sh.) kerak bo'ladi?
A) 17,92 B) 13,44 C) 22,4 D) 33,6

99. (v9-122-16) 1 mol kaliy, natriy va kalsiydan iborat aralashmaning og'irligi 36,3 g bo'lib, suv bilan reaksiyaga kirishganda 1,5 g vodorod ajralib chiqdi. Eritmadagi kaliy gidroksidning massasini (g) hisoblang.
A) 11,2 B) 16,8 C) 37 D) 8

100. (v11-101-6) $CaCO_3$ va $KHCO_3$ aralashmasining 0,8 mol miqdori termik parchalanganda 11,2 l (n. sh.) gaz va 5,4 g H_2O hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi $KHCO_3$ ning massasini aniqlang.
A) 20 B) 60 C) 6 D) 2

101. (v11-104-5) Rux va mis (II) nitrat aralashmasi qizdirilganida 32,3 g qoldiq va 22,4 l gaz hosil bo'ldi. Qoldiq tarkibidagi rux birikmasini massasini aniqlang.
A) 56,7 B) 24,3 C) 18,8 D) 8

102. (v11-104-32) 100 g $CaCO_3$ va $MgCO_3$ aralashmasi parchalanganda 24,64 l (n. sh.) gaz va 51,6 g oksidlar aralashmasi olindi. Dastlabki aralashmadagi $CaCO_3$ ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 47,5 B) 0,475 C) 52,5 D) 0,525

103. (v11-105-20) $CaCO_3$ va $KHCO_3$ aralashmasining 0,8 mol miqdori termik parchalanganda 11,2 l (n. sh.) gaz va 5,4 g H_2O hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi $CaCO_3$ ning (%) ulushini aniqlang.
A) 2,5 B) 7,5 C) 25 D) 75

104. (v11-107-18) Cu, Fe va Al dan iborat 17,35 g aralashmaga konsentrlangan HNO_3 ta'sir ettirilganda 4,48 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi, xuddi shunday aralashmaga HCl ta'sir ettirilganda esa 8,96 l (n. sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi metallarning miqdorlarini (mol) aniqlang.
A) 0,3; 0,2; 0,2
B) 0,4; 0,3; 0,2
C) 0,2; 0,1; 0,2
D) 0,1; 0,1; 0,2

105. (v11-108-1) 12,45 g rux, mis, alyuminiy qotishmasiga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganida (n. sh. da) 4,928 l qo'ng'ir gaz ajralib chiqdi. Shunga miqdor qotishmaga xlorid kislota qo'shilsa, 6,944 l gaz ajraldi. Qotishma tarkibidagi misning og'irligini grammda hisoblang.
A) 6,4 B) 7,05 C) 5,4 D) 0,65

106. (v11-113-31) $NaHCO_3$ va $MgCO_3$ dan iborat aralashmaning 1 mol miqdori HCl eritmasi bilan ta'sirlanganda 22,4 l (n. sh.) gaz modda va 80,4 g tuzlar aralashmasi olindi. Dastlabki aralashmadagi $MgCO_3$ ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 60 B) 0,40 C) 40 D) 0,60

107. (v11-129-20) Rux va mis (II) nitrat aralashmasi qizdirilganida, 32,3 g qoldiq va 22,4 l gaz hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmaning massasini aniqlang.
A) 75,5 B) 75,3 C) 81 D) 76,7

108. (v12z-201-10) Atsetilen va propilendan iborat 16,2 g aralashma Ni katalizatori ishtirokida to'liq gidrogenlanganda 17,8 g alkanlar aralashmasi hosil bo'lsa, atsetilen massasini (g) aniqlang.
A) 7,8 B) 5,2 C) 12,6 D) 8,4

109. (v12z-201-14) 3,82 g NaOH va $Ba(OH)_2$ aralashmasi 71,18 ml suvda eritildi. Olingan eritmani neytrallash uchun 12,5 ml 4 M li HCl sarf bo'ldi. Dastlabki aralashmaning massa nisbatini aniqlang.
A) 1:9 B) 1:8,55 C) 2:7,25 D) 3:8

110. (v12z-201-15) 46,9 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 55,2 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 19,04 sm^3 gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi misning massasini (mg) aniqlang.
A) 26 B) 12,8 C) 8,1 D) 25,6

111. (v12z-202-18) 50,6 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 64,4 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 15,68 sm^3 gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi mis atomlari sonini aniqlang.
A) $1,806 \cdot 10^{23}$ B) $36,12 \cdot 10^{19}$
C) $18,06 \cdot 10^{19}$ D) $36,12 \cdot 10^{22}$

112. (v12z-203-10) $NaNO_3$ va $AgNO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda, O_2 ning massa ulushi 58,2% bo'lgan 11 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kumush nitratning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 17 B) 83 C) 60 D) 40

113. (v12z-205-3) Atsetilen va propilendan iborat 16,2 g aralashma Ni katalizatori ishtirokida to'liq gidrogenlanganda 17,8 g alkanlar aralashmasi hosil bo'lsa, shu aralashma necha gramm 10% li bromli suvni rangsizlantiradi?
A) 640 B) 1280 C) 1600 D) 800

114. (v12z-206-32) 0,9 mol K, Na va Ca aralashmasi suvda eritilganda 13,44 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan aralashmada kaliy gidroksidning massasi kalsiy gidroksid massasidan 11 g ga kam bo'lsa, boshlang'ich aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 29,0 B) 22,2 C) 25,1 D) 17,0

115. (v12z-207-18) 1:2 mol nisbatda olingan Ca va Al aralashmasiga C aralashtirib qizdirildi. Hosil bo'lgan moddalar suvda eritilib, ajralib chiqqan gazlar Br_2 li suvdan o'tkazilganda massasi 2,6 g ga kamaydi. Dastlabki aralashma massasini aniqlang.
A) 4 B) 10,4 C) 9,4 D) 5,4

116. (v12z-208-17) 62,25 g Bertole tuzining to'la parchalanishidan 12 g kislorod hosil bo'lsa, qolgan qattiq qoldiq tarkibidagi necha gramm KCl bo'ladi?
A) 14,9 B) 36,25
C) 18,625 D) 23,28

117. (v12z-209-21) Kaliy va kalsiy aralashmasi suvda eritilganda 6,95 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Kaliy gidroksidning massasini (g) aniqlang. ($\omega(K) = 0,78$)
A) 22,4 B) 11,2 C) 19,5 D) 15,6

118. (v12z-209-27) 46,9 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 55,2 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 19,04 sm^3 gaz ajralsa, rux xloridning massasini (mg) aniqlang.
A) 54,4 B) 52 C) 108,8 D) 26

119. (v12z-210-4) 3,82 g NaOH va $Ba(OH)_2$ aralashmasi 71,18 ml suvda eritildi. Olingan eritmani neytrallash uchun 12,5 ml 4 M li HCl sarf bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi NaOH ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 2,5 B) 0,6 C) 0,53 D) 4,56

120. (v12z-211-21) Al va Mg aralashmasi teng ikki qismga ajratildi. Bir qismiga HCl ta'sir ettirilganda 19,4 l gaz ajraldi. Ikkinchi qismiga ishqor ta'sir ettirilganda 10,08 l gaz chiqdi. Dastlabki aralashmadagi Mg ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 54,24 B) 77,5 C) 65,44 D) 45,76

121. (v12z-212-4) Temir va alyuminiydan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 20,16 litr (n. sh.) gaz ajralsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 30,5 B) 16,8 C) 27,6 D) 19,2

122. (v12z-212-29) $NaNO_3$, $Zn(NO_3)_2$, $Hg(NO_3)_2$ dan iborat 1,25 mol aralashma qizdirilishi natijasida 47,04 l NO_2 va 19,04 l (n. sh.) O_2 ajraldi. Dastlabki aralashmadagi moddalar massasini (g) mos ravishda aniqlang.
A) 8,5; 56,7; 146,25 B) 146,25; 17; 113,4
C) 17; 113,4; 146,25 D) 146,25; 56,7; 8,5

123. (v12z-213-16) 0,9 mol Mg, Ca va Al dan iborat 27 g aralashmaga HCl ta'sir ettirilganda 22,4 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadagi kalsiyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 35,5 B) 44,4 C) 60 D) 12,0

124. (v12z-214-2) $KClO_3$ (MnO_2 katalizatorda) va $KMnO_4$ iborat 0,6 mol aralashma qizdirilganda 17,92 litr (n. sh.) kislorod ajraldi. Dastlabki aralashmani massa nisbatini aniqlang.
A) 1:6,45 B) 1:5,12
C) 1:4,03 D) 3,9:1

125. (v12z-214-4) Natriy digidrofosfat va natriy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma natriy gidroksidning 80 g 40% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 100,4 B) 64,4 C) 82 D) 50,2

126. (v12z-218-8) Kaliy va kalsiy aralashmasi suvda eritilganda 8,96 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Kaliy gidroksidning massasini (g) aniqlang. ($\omega(K) = 0,4$)
A) 19,5 B) 11,2 C) 8 D) 22,4

127. (v12z-219-5) $Cu(NO_3)_2$ va KNO_3 dan iborat aralashma qizdirilganda, O_2 ning massa ulushi 41,03% bo'lgan 31,2 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 112,2 B) 57,8 C) 98,2 D) 67,9

128. (v12z-220-2) $NaNO_3$ va $AgNO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda, O_2 ning massa ulushi 58,2% bo'lgan 11 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, kumush massasini (g) aniqlang.
A) 21,6 B) 42,5 C) 10,8 D) 17,0

129. (v12z-223-23) Natriy digidrofosfat va natriy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma natriy gidroksidning 80 g 40% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, hosil bo'lgan eritma massa ulushini (%) aniqlang.
A) 56,78 B) 45,45 C) 64,4 D) 82

130. (v12z-224-35) 0,6 mol K, Na va Ca aralashmasi suvda eritilganda 7,84 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan aralashmada kaliy gidroksidning massasi kalsiy gidroksid massasidan 9,4 g ga ortiq bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi kalsiyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 57,6 B) 19,7 C) 22,66 D) 4,0

131. (v12z-226-7) 0,9 mol K, Na va Ca aralashmasi suvda eritilganda 13,44 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan aralashmada kaliy gidroksidning massasi kalsiy gidroksid massasidan 11 g ga ortiq bo'lsa, natriyning massasini (g) aniqlang.
A) 9,2 B) 7,8 C) 16 D) 4,6

132. (v12z-227-27) 3,82 g NaOH va $Ba(OH)_2$ aralashmasi 71,18 ml suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmani neytrallash uchun 12,5 ml 4 M li HCl eritmasi sarflansa, dastlabki eritmadagi NaOH ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 1,5 B) 2,5 C) 0,53 D) 4,56

133. (v12z-228-8) KNO_3 va $Cu(NO_3)_2$ dan iborat aralashma qizdirilganda, O_2 ning massa ulushi 41,03% bo'lgan 31,2 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kaliy nitratning massasini (g) aniqlang.
A) 78 B) 60,6 C) 20,2 D) 98,2

134. (v12z-230-3) KNO_3 $AgNO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda O_2 ning massa ulushi 51,07% bo'lgan 9,4 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kaliy nitratning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 20,2 B) 37,2 C) 46,7 D) 54,3

135. (v12z-233-10) 61,25 g Bertole tuzining to'la parchalanishidan 14,4 g kislorod ajraldi. Qolgan qattiq qoldiq tarkibidagi necha gramm KCl bo'ladi?
A) 36,75 B) 14,9 C) 22,35 D) 26,075

136. (v12z-234-32) Natriy digidrofosfat va natriy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma natriy gidroksidning 80 g 40% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmadagi natriy gidrofosfat massa ulushini (%) aniqlang.
A) 36 B) 55,9 C) 44,1 D) 28,4

137. (v12z-235-12) Natriy digidrofosfat va natriy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma natriy gidroksidning 80 g 40% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmadagi natriy digidrofosfat massasini (g) aniqlang.
A) 36 B) 72 C) 64,4 D) 28,4

138. (v12z-235-36) 1:2:4 mol nisbatda olingan Mg, MgO, $MgCO_3$ dan iborat aralashmaga H_2SO_4 ta'sir ettirilganda 2,24 l (n. sh.) CO_2 gazi ajralib chiqdi. Dastlabki aralashmadagi MgO ning massa ulushini (%) toping.
A) 76,36 B) 5,45
C) 18,18 D) 1,828

139. (v12z-236-24) 110,8 g KNO_3 bilan kaliy xlorat aralashmasi qizdirilganda 11,2 l gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning massalarini (g) toping.
A) 60,6; 50,2
B) 80,8; 30,0
C) 101; 9,8
D) 40,4; 70,4

140. (v12z-237-1) 1:2:3 mol nisbatda bo'lgan Fe, Al va Cu dan iborat 30,2 g qotishmaga yetarli miqdorda konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda qancha hajm (l, n. sh.) gaz ajraladi va necha gramm 60% li kislota sarflanadi?
A) 8,96; 63 B) 15,68; 126
C) 13,44; 126 D) 13,44; 63

141. (v12z-237-25) 46,9 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 55,2 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 19,04 sm^3 gaz ajralsa, mis nitratning massasini (mg) aniqlang.
A) 12,8 B) 37,6 C) 75,2 D) 25,6

142. (v12z-242-15) 3,82 g NaOH va $Ba(OH)_2$ aralashmasi 71,18 ml suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmani neytrallash uchun 12,5 ml 4 M li HCl eritmasi talab etilsa, dastlabki eritmadagi $Ba(OH)_2$ ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 3,5 B) 5,5 C) 4,56 D) 4,0

143. (v12z-243-16) $NaNO_3$ va $AgNO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda O_2 ning massa ulushi 58,2% bo'lgan 11 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi natriy nitratning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 25,5 B) 60 C) 74,5 D) 40

144. (v12z-243-34) 0,7 mol K, Na va Ca aralashmasi suvda eritilganda 8,96 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan aralashmada kaliy gidroksidning massasi kalsiy gidroksid massasidan 3,8 g ga ortiq bo'lsa, natriy gidroksid massasini (g) aniqlang.
A) 9,2 B) 11,2 C) 16 D) 8

145. (v12z-255-27) Mis va alyuminiy qotishmasiga mo'l natriy gidroksid eritmasi bilan ishlov berilganda 1,344 l (n. sh.) gaz ajraldi. Qoldiq modda nitrat kislotada eritilib, bug'latildi va qattiq qizdirilganda massasi 0,4 g ga teng bo'lib qoldi. Qotishmaning massa (g) tarkibini mos ravishda aniqlang.
A) 0,16; 0,54 B) 0,32; 1,08
C) 0,64; 0,27 D) 3,2; 1,08

146. (v12z-259-19) Alyuminiy karbid va bariy karbonatdan iborat aralashmaga ortiqcha nitrat kislota ta'sir ettirilganda neonga nisbatan zichligi 0,94 teng bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Bug'latilganda 281,7 g qattiq qoldiq hosil bo'ldi. Boshlangich aralashmaning massasini (g) toping.
A) 73,5 B) 65,4 C) 62,9 D) 68,2

147. (v12c-102-8) KNO_3 va $AgNO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda O_2 ning massa ulushi 51,07% bo'lgan 9,4 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kumush nitratning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 46,7 B) 17,0 C) 37,2 D) 54,3

148. (v12c-102-10) Temir va alyuminiydan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 20,16 litr (n. sh.) gaz ajralsa, alyuminiy xlorid massasini (g) aniqlang.
A) 10,8 B) 53,4 C) 20,7 D) 40,05

149. (v12c-102-19) 0,9 mol Mg, Ca va Al dan iborat 27 g aralashmaga HCl ta'sir ettirilganda 22,4 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadagi magniy atomlari sonini aniqlang.
A) $2,408 \cdot 10^{24}$ B) $1,806 \cdot 10^{23}$
C) $24,08 \cdot 10^{22}$ D) $18,06 \cdot 10^{21}$

150. (v12c-103-6) Kaliy va alyuminiy amalgamalariming 14,3 grammi mo'l miqdordagi xlorid kislotada eritilganda 7,84 l gaz ajialdi va 5 grammi erimay qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi kaliyning massa ulushini (%) toping.
A) 41,9 B) 58,1 C) 27,3 D) 37,8

151. (v12c-103-12) Natriy digidrofosfat va natriy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma natriy gidroksidning 80 g 40% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmani mol nisbatini aniqlang.
A) 0,51 B) 32 C) 11,25 D) 31

152. (v12c-103-13) 50,6 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 64,4 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'su ettirilganda 15,68 sm^3 gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi rux atomlari sonini aniqlang.
A) $48,16 \cdot 10^{19}$ B) $24,08 \cdot 10^{19}$
C) $2,408 \cdot 10^{23}$ D) $4,816 \cdot 10^{23}$

153. (v12c-103-31) KNO_3 va $AgNO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda O_2 ning massa ulushi 51,07% bo'lgan 9,4 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, kumush massasini (g) aniqlang.
A) 21,6 B) 37,2 C) 10,8 D) 17,0

154. (v12c-104-7) Kaliy va kalsiy aralashmasi suvda eritilganda 6,95 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Aralashmadagi kaliyning massasini (g) aniqlang. ($\omega(K) = 0,78$)
A) 25 B) 4,4 C) 15,6 D) 19,5

155. (v12c-104-13) Bariy nitrat va qo'rg'oshin (II) nitratlar aralashmasi uzoq vaqt qizdirilganda kislorodning hajmiy ulushi 50% bo'lgan 35,84 l (n. sh.) gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, qo'rg'oshin (II) nitratning massasini (g) aniqlang.
A) 89,2 B) 289 C) 132,4 D) 178,4

156. (v12c-104-22) 50,6 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 64,4 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 15,68 sm^3 gaz ajralsa, rux xloridning massasini (mg) aniqlang.
A) 108,8 B) 54,5 C) 52 D) 26

157. (v12c-105-5) Litiy va magniy bilan hosil qilgan birikmalari suvda erimaydigan, lekin kumush bilan hosil qilgan birikmasi suvda yaxshi eriydigan ionni aniqlang.
A) xlorid B) atsetat
C) ftorid D) nitrat

158. (v12c-106-3) 0,6 mol K, Na va Ca aralashmasi suvda entilganda 7,84 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan aralashmada kaliy gidroksidning massasi kalsiy gidroksid massasidan 9,4 g ga ortiq bo'lsa, natriy gidroksidi massasini (g) aniqlang.
A) 11,7 B) 4,6 C) 12 D) 8

159. (v12c-108-13) Kaliy va kalsiy aralashmasi suvda eritilganda 8,96 litr (n. sh gaz ajraldi. Aralashmadagi kalsiy gidroksidning massasini (g) aniqlang. ($\omega(K) = 0,4$)
A) 20 B) 11,2 C) 12 D) 22,2

160. (v12c-108-28) KNO_3, $Fe(NO_3)_2$, $AgNO_3$ dan iborat 1 mol aralashma qizdirilsa natijasida 22,4 l NO_2 va 8,96 l (n. sh.) O_2 ajraldi. Dastlabki aralashmaning massasini (g) aniqlang.
A) 60,125 B) 137,25
C) 87,25 D) 147,25

161. (v12c-110-23) Bariy nitrat va qo'rg'oshin (II) nitratlar aralashmasi uzoq vaqt qizdirilganda kislorodning massa ulushi 54,9% bo'lgan 40,8 l (n. sh.) gazlar

aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 331 B) 289 C) 222,8 D) 445,6

162. (v12c-110-25) Kumush va misdan iborat 0,5 mol aralashma 160 g 63% li nitrat kislota bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 21,8 B) 40,8 C) 45,2 D) 28,0

163. (v12c-111-8) 28,2 g magniy va alyuminiy nitridlari aralashmasi to'la gidrolizlanganda 13,44 l gaz hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi magniy nitridning massasini (g) toping.
A) 123 B) 15,9 C) 20,0 D) 8,2

164. (v12c-111-26) 50,6 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 64,4 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 15,68 sm^3 gaz ajralsa, alyuminiy xloridning massasini (mg) aniqlang.
A) 26,7 B) 80,1 C) 5,4 D) 16,2

165. (v12c-113-35) KNO_3 va $AgNO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda O_2 ning massa ulushi 51,07% bo'lgan 9,4 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, kaliy massasini (g) aniqlang.
A) 7,8 B) 20,2 C) 37,2 D) 17,0

166. (v12c-116-13) 27,2 g alyuminiy karbid va kalsiy karbiddan iborat aralashma to'la gidrolizlanganda 11,2 l gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Alkin hosil qiladigan karbidning massasini (g) toping.
A) 12,8 B) 7,4 C) 14,4 D) 20,0

167. (v12c-117-4) 130 g simob (II) nitratga yetarli miqdordagi ishqor qo'shib qizdirilganda hosil bo'ladigan sariq cho'kma massasini toping.
A) 94,0 B) 86,8 C) 80,4 D) 167,2

168. (v12c-119-15) Kumush va misdan iborat 0,5 mol aralashma 160 g 63% li nitrat kislota bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashma tarkibidagi misning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 20 B) 47 C) 80 D) 53

169. (v12c-120-14) 46,9 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 55,2 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 19,04 sm^3 gaz ajralsa, rux nitratning massasini (mg) aniqlang.
A) 75,6 B) 151,2 C) 26 D) 52

170. (v12c-121-18) Litiy va magniy amalgamalai ming 12-grammi mo'l miqdordagi xlorid kislotada eritilganda 8,96 l gaz ajraldi va 4,4 grammi erimay qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi litiyning massa ulushini (%) toping.
A) 76,7 B) 40,0
C) 60,0 D) 23,3

171. (v12c-123-7) Temir va alyuminiydan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 20,16 litr (n. sh.) gaz ajralsa, temir (II) xlorid massasini (g) aniqlang.
A) 38,1 B) 50,8
C) 19,05 D) 16,8

172. (v12c-123-27) 0,9 mol Mg, Ca va Al dan iborat 27 g aralashmaga ta'sir ettirilganda 22,4 litr (n. sh.)ga ajraldi. Dastlabki aralashmadagi kalsiyning massasini (g) aniqlang.
A) 16 B) 8
C) 44,4 D) 12

173. (v12c-124-4) Kaliy va kalsiy aralashmasi suvda eritilganda 6,95 litr (l, n. sh.) gaz ajraldi. Aralashmadagi kalsiy gidroksidning massasini (g) aniqlang. (ω(K) = 0,78)
A) 20 B) 4,4 C) 22,2 D) 8,14

174. (v12c-125-4) KNO_3 va $Cu(NO_3)_2$ dan iborat aralashma qizdirilganda, O_2 ning massa ulushi 41,03% bo'lgan 31,2 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kaliy nitratning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 38,3 B) 59,6 C) 61,7 D) 40,4

175. (v12c-125-32) Natriy digidrofosfat va natriy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma natriy gidroksidning 80 g 40% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmani mol nisbatini aniqlang.
A) 3:1 B) 0,5:1 C) 3:2 D) 1:1,25

176. (v12c-127-30) 50,6 mg Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 64,4 mg azot (IV) oksid hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 15,68 sm^3 gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi atomlar sonini aniqlang.
A) $1,204 \cdot 10^{21}$ B) $12,04 \cdot 10^{23}$
C) $54,18 \cdot 10^{19}$ D) $5,418 \cdot 10^{23}$

177. (v12c-128-31) 0,7 mol K, Na va Ca aralashmasi suvda eritilganda 8,96 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan aralashmada kaliy gidroksidning massasi kalsiy gidroksid massasidan 3,8 g ga ortiq bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi kalsiyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 19,0 B) 43,8 C) 37,2 D) 4,0

178. (v12c-128-36) 0,9 mol Mg, Ca va Al dan iborat 27 g aralashmaga HCl ta'sir ettirilganida 22,4 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadagi magniyning massasini (g) aniqlang.
A) 9,0 B) 35,5 C) 7,2 D) 12

179. (v12c-129-22) 0,9 mol Mg, Ca va Al dan iborat 27 g aralashmaga HCl ta'sir ettirilganda 22,4 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadagi magniyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 35,5 B) 44,4 C) 9,6 D) 26,67

180. (v12c-130-9) 35,2 g 2:1 mol nisbatda olingan alyuminiy karbid va kalsiy karbid aralashmasi to'la gidrolizlanganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasini to'la yondirish uchun qancha hajm (l, n. sh.) kislorod sarflanadi?
A) 22,4 B) 29,16 C) 32,48 D) 13,44

181. (v12c-131-23) Ca va CaC_2 iborat 23,2 g aralashmaga mo'l miqdorda H_2O ta'sir ettirilganda 8,96 litr (n. sh.) gazlar aralashmasi ajralib chiqdi. Boshlang'ich aralashmadagi CaC_2 ning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 17,24 B) 68,4
C) 82,76 D) 31,6

182. (v12c-132-10) 8 g temir va magniy aralashmasiga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 4,48 l (n. sh.) vodorod ajralgan bo'lsa, aralashmadagi temir va magniyning massalarini (g) mos ravishda hisoblang.
A) 5; 3 B) 6; 2
C) 5,6; 2,4 D) 4,4; 3,6

183. (v12c-133-1) Kalsiy karbid va kalsiy karbonatdan iborat aralashmaga ortiqcha HCl kislota bilan ishlov berilganda, havoga nisbatan zichligi 1,27 ga teng bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Bug'latilgach 55,5 g qattiq qoldiq qoldi. Boshlang'ich aralashmaning massasini (g) aniqlang.
A) 25,6 B) 42,8 C) 39,2 D) 46,4

184. (v12c-133-19) Temir va alyuminiydan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 20,16 litr (n. sh.) gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi temir massa ulushini (%) aniqlang.
A) 22,4 B) 61 C) 16,8 D) 68

185. (v12c-133-35) 0,9 mol K, Na va Ca aralashmasi suvda eritilganda 13,44 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan aralashmada kaliy gidroksidning massasi kalsiy gidroksid massasidan 11 g ga kam bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi kalsiyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 26,9 B) 19,0
C) 12,0 D) 41,4

186. (v12c-134-14) KNO_3 va $Cu(NO_3)_2$ dan iborat aralashma qizdirilganda, O_2 ning massa ulushi 41,03% bo'lgan 31,2 g gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, mis massasini (g) aniqlang.
A) 12,8 B) 37,6
C) 98,2 D) 25,6

187. (v13-101-8) 32 g mis va magniy qotishmasi sulfat kislotada eritilganda 8,96 l vodorod ajralgan bo'lsa, qotishmadagi metallarning massa ulushlarini aniqlang.
A) 40; 60 B) 20; 80
C) 50; 50 D) 70; 30

188. (v13-101-17) Tarkibida 2,3% natriy va 97,7% simob bo'lgan 100 g amalgamaga mol suv ta'sir ettirilganda ajralib chiqqan vodorodning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 2,24 B) 6,72
C) 1,12 D) 4,48

189. (v13-103-12) 40 g Ca va CaO aralashmasi bilan HBr reaksiyaga kirishganda 3,36 l gaz hosil bo'lgan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.
A) 15; 85 B) 35; 65
C) 40; 60 D) 50; 50

190. (v13-107-7) 48 g pirit kuydirilishi natijasida uning massasi 16,66% ga kamaydi. Hosil bo'lgan qoldiqning massa (g) tarkibini aniqlang.
A) 12 va 28 B) 10 va 30
C) 16 va 24 D) 20 va 20

191. (v13-108-36) 13,2 g vodorod va oltingugurt (IV) oksid aralashmasidagi vodorodning hajmiy ulushi 50% ni tashkil etsa, vodorodning massasini (g) aniqlang.
A) 0,4 B) 12,8 C) 0,8 D) 11,8

192. (v13-110-1) 108 g Li va Na dan iborat aralashmaga suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 20,16 l (n. sh.) gaz ajraldi, hosil bo'lgan natriyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.
A) 38,25 B) 306 C) 31,05 D) 24,84

193. (v13-114-31) 2,775 g galmey va rux aldamasidan iborat aralashma tarkibida 20% kislotada erimaydigan qoldiq mavjud. Ushbu aralashmaga gaz ajralib chiqishi tugaguncha 0,4 molyarli 100 ml HCl eritmasi bilan ishlov berilganda hosil bo'lgan eritmadagi tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 1,36 B) 1,12
C) 2,72 D) 2,22

194. (v13-119-32) 276 g Li va K dan iborat aralashmaga suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 33,6 l (n. sh.) gaz ajraldi, hosil bo'lgan kaliyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.
A) 606 B) 75,75 C) 51,75 D) 414

195. (v13-131-8) 15,04 g mis (II) nitrat ma'lum texnik parchalanganda 8,56 g qattiq qoldiq hosil boldi. Mis (II) nitratning parchalanish darajasini (%) va olingan qoldiqning massa (g) tarkibini aniqlang.
A) 75; 4,8 – CuO; 3,76 – $Cu(NO_3)_2$
B) 68; 3,76 – CuO; 4,8 – $Cu(NO_3)_2$
C) 72; 4,56 – CuO; 4,0 – $Cu(NO_3)_2$
D) 70; 4,76 – CuO; 3,8 – $Cu(NO_3)_2$

196. (v13-132-9) 8,6 g Cu va Ag dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 4,48 l qo'ng'ir zaharli gaz ajralib chiqdi. Aralashmani massa tarkibini toping.
A) 3,48 va 5,12 B) 5,84 va 3,16
C) 4,48 va 4,12 D) 5,48 va 3,12

197. (v13-133-15) 168,2 g kalsiy karbonat va bariy karbonat aralashmasi qizdirilganda bariy karbonatning uchdan ikki qismi parchalandi, kalsiy karbonatning beshdan uch qismi qoldi. Natijada 141,8 g qoldiq qoldi. Hosil bo'lgan aralashma tarkibidagi kislorodning massa ulushini (%) aniqlang?
A) 31,4 B) 20,0 C) 28,2 D) 23,7

198. (v13-134-33) 70 litr ammiak bilan kislorod aralashmasi Pt katalizatori ishtirokida oksidlandi. Suv bug'lari kondensatlangach 25 litr O_2 ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi NH_3 ning hajmini (l) toping.
A) 20 B) 40 C) 25 D) 50

199. (v13-135-1) 148,8 g Na va K dan iborat aralashmaga suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 13,44 l (n. sh.) gaz ajraldi, hosil bo'lgan natriyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.
A) 102 B) 204 C) 210 D) 200

200. (v13-135-23) 168,2 g kalsiy karbonat va bariy karbonat aralashmasi qizdirilganda bariy karbonatning uchdan ikki qismi parchalandi, kalsiy karbonatning beshdan uch qismi qoldi. Natijada 141,8 g qoldiq qoldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi kalsiy karbonat massa ulushini (%) aniqlang?
A) 17,8 B) 21,2 C) 30,0 D) 35,3

201. (v13-137-24) 130,4 g kalsiy karbonat va magniy karbonat aralashmasi qizdirilganda magniy karbonatning yarmi parchalandi, kalsiy karbonatning to'rtdan uch qismi qoldi. Natijada 108,4 g qoldiq qoldi. Dastlabki aralashmadagi kalsiy karbonat massasini (g) aniqlang?
A) 62 B) 46 C) 80 D) 60

202. (v13-138-18) 2,2 g Mg va MgO aralashmasiga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 1,12 l gaz ajralgan bo'lsa, dastlabki aralashmaning foiz tarkibini aniqlang.
A) 40,5; 59,5 B) 60; 40
C) 54,5; 45,5 D) 70; 30

203. (v13-141-27) 168,2 g kalsiy karbonat va bariy karbonat aralashmasi qizdirilganda bariy karbonatning uchdan ikki qismi parchalandi, kalsiy karbonatning beshdan uch qismi qoldi. Natijada 141,8 g qoldiq qoldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi kalsiy karbonat massasini (g) aniqlang?
A) 21,2 B) 50,0 C) 30,0 D) 35,3

204. (v13-144-6) 48 g Li va Na dan iborat aralashmaga suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 8,96 l (n. sh.) gaz ajraldi, hosil bo'lgan natriyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.
A) 134 B) 168 C) 151 D) 136

205. (v13-146-7) 80 g ZnS, NaCl va $CaCO_3$ aralashmasiga mo'l miqdorda HCl ta'sir ettirilishidan 13,44 l (n. sh.) gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Bu aralashma mo'l miqdorda SO_2 bilan o'zaro ta'sirlashuvidan 19,2 g qattiq modda hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) aniqlang.
A) 38,8; 21,2; 40 B) 48,5; 26,5; 25
C) 25,5; 17,3; 57,2 D) 25,5; 48,5; 26

206. (v13-147-9) Alyuminiyning massa ulushi 13,85% bo'lgan temir va alyuminiydan iborat aralashmaga mo'l miqdorda HCl ta'sir ettirilganda 4,5 mol gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi temirning massasini (g) aniqlang.
A) 112,5 B) 54 C) 168 D) 27

207. (v13-148-2) 154,4 g magniy karbonat va bariy karbonat aralashmasi qizdirilganda bariy karbonatning yarmi parchalandi, magniy karbonatning uchdan ikki qismi qoldi. Natijada 132,4 g qoldiq qoldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi bariy karbonat massasini (g) aniqlang?
A) 39,4 B) 29,7 C) 59,1 D) 78,8

208. (v13-157-11) 154,4 g magniy karbonat va bariy karbonat aralashmasi qizdirilganda bariy karbonatning yarmi parchalandi, magniy karbonatning uchdan ikki qismi qoldi. Natijada 132,4 g qoldiq qoldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi magniy karbonat massasini (g) aniqlang?
A) 57,0 B) 38,0 C) 50,4 D) 75,6

209. (v13-158-3) 130,4 g kalsiy karbonat va magniy karbonat aralashmasi qizdirilganda magniy karbonatning yarmi parchalandi, kalsiy karbonatning to'rtdan uch qismi qoldi. Natijada 108,4 g qoldiq qoldi. Dastlabki aralashmadagi magniy karbonat massasini (g) aniqlang?
A) 67,2 B) 38,6 C) 58,8 D) 50,4

210. (v13-158-20) Alyuminiyning mol ulushi 25% bo'lgan temir va alyuminiydan iborat aralashmaga mo'l miqdorda HCl ta'sir ettirilganda 4,5 mol gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi temirning massasini (g) aniqlang.
A) 54 B) 112,5 C) 27 D) 168

211. (v13-163-28) 223,2 g Na va K dan iborat aralashmaga suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 20,16 l (n. sh.) gaz ajraldi hosil bo'lgan natriyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.
A) 419 B) 156 C) 212 D) 306

212. (v13-172-32) 154,4 g magniy karbonat va bariy karbonat aralashmasi qizdirilganda bariy karbonatning yarmi parchalandi, magniy karbonatning uchdan ikki qismi qoldi. Natijada 132,4 g qoldiq qoldi. Dastlabki aralashmadagi bariy karbonat massasini (g) aniqlang?
A) 118,2 B) 78,8 C) 39,4 D) 51,0

213. (v14-101-12) 3,2 g kremniy va uglerod aralashmasi qizdirilgan ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda 2,56 l gaz ajraldi. Aralashmadagi uglerodning massa ulushini toping.
A) 0,7 B) 0,6
C) 0,5 D) 0,4

214. (v14-102-3) 20 g mis, temir va rux aralashmasiga mo'l miqdordagi xlorid kislota eritmasi ta'sir ettirilganda 0,2 mol gaz ajraldi. Xuddi shuncha miqdordagi aralashmaga mo'l miqdordagi o'yuvchi kaliy ta'sir ettirilganda 0,1 mol gaz ajraldi. Boshlang'ish aralashmadagi metallarning massa ulushlarini (%) toping.
A) 19,2; 20,8; 60
B) 22,2; 37,8; 40
C) 20; 30; 50
D) 39,5; 28; 32,5

215. (v14-107-36) 35,2 g natriy gidrosulfat, gidrokarbonati va gidroksidi aralashmasi mol miqdordagi xlorid kislotada eritilganda D_{H_2} = 25,33 bo'lgan 0,3 mol gazlar aralashmasi ajraldi. Reaksiyaga kirishgan HCl massasini (g) aniqlang.
A) 7,3 B) 36,5 C) 18,25 D) 73

216. (v14-109-10) Mol nisbatlari 3:2 bo'lgan propan bilan noma'lum alkindan iborat aralashma to'liq gidrogenlanganda geliyga nisbatan zichligi 12,4 ga teng bo'lgan aralashma olindi. Alkinning bitta molekulasi tarkibidagi sp^3 va sp orbitallar sonining yig'indisini toping.
A) 16 B) 12 C) 10 D) 8

217. (v14-117-5) Tarkibida 68% alyuminiy karbid va 32% kalsiy karbid saqlagan 20 g aralashmaga suv ta'sir ettirilganda olingan gazlarni yoqish uchun necha litr (n. sh.) kislorod sarf bo'lgan.
A) 18,3 B) 42,5 C) 37,2 D) 24,5

218. (v14-121-5) 13,2 g oltingugurt (IV) oksid va vodorod aralashmasidagi SO_2 ning hajmiy ulushi 50% ni tashkil etsa, vodorodning massasini (g) aniqlang.
A) 12,8 B) 11,8 C) 0,4 D) 0,8

219. (v14-130-30) 40 g Ca va CaO aralashmasi bilan HBr reaksiyaga kirishganda 3,36 l gaz hosil bo'lgan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.
A) 15; 85 B) 50; 50 C) 40; 60 D) 35; 65

220. (v15-101-10) 32,6 g Na va K dan iborat aralashmaga suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 2,8 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Hosil bo'lgan natriyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.
A) 17 B) 42,5 C) 34 D) 10,5

221. (v15-101-13) Natriy va kalsiy gidrofosfatlar aralashmasidagi metallarning massasi aralashmaning massasidan 144 g ga kam bo'lsa, aralashmadagi natriy gidrofosfatning massasini (g) toping. (m(Na) + m(P) = 92,5).
A) 142 B) 204 C) 138 D) 136

222. (v15-101-35) 0,24 kg suvda LiH va KH aralashmasi eritilishi natijasida 8,32% li ishqor eritmasi hosil bo'ldi va eritma massasi dastlabki umumiy massaga nisbatan 1,2 grammga kamaydi. Ishqorlarning mol nisbatini aniqlang.
A) 2:1 B) 1,25:1 C) 1:1,4 D) 2:3

223. (v15-102-7) MgO va Mg_3N_2 aralashmasida azot atomlari soni kislorod atomlari sonidan 1,5 mol ko'p va magniy atomlari sonidan 1,75 marta kam bo'lsa, aralashmaning massasini (g) toping.
A) 98,6 B) 220 C) 120 D) 188

224. (v15-102-23) 20 g mis, temir va rux aralashmasiga mo'l miqdordagi xlorid kislota eritmasi ta'sir ettirilganda 0,2 mol gaz ajraldi. Xuddi shuncha miqdordagi aralashmaga mo'l miqdordagi o'yuvchi kaliy ta'sir ettirilganda 0,1 mol gaz ajraldi. Boshlang'ish aralashmadagi metallarning massa ulushlarini (%) toping.
A) 39,5; 28; 32,5 B) 19,2; 20,8; 60
C) 22,2; 37,8; 40 D) 20; 30; 50

225. (v15-103-13) K va Mg aralashmasi massasining 2/5 qismi 9,48 g, 3/5 qismi esa 0,48 mol kelsa, aralashma tarkibidagi K ning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,3 B) 0,8 C) 0,6 D) 0,5

226. (v15-104-1) Pt va Al ning 72 g qotishmasi suyultirilgan nitrat kislotada eritildi. Hosil bo'lgan eritma mo'l miqdorda ishqor bilan qizdirilganda 43,2 g temir (II) oksidni to'liq qaytarish uchun yetarli bo'lgan gaz ajraldi. Qotishmadagi alyuminiyning massa ulushini (%) aniqlang. (qotishmadagi alyuminiy nitrat kislota bilan to'liq reaksiyaga kirishgan)
A) 75 B) 25 C) 60 D) 40

227. (v15-104-7) Na elementining massa ulushi 23% bo'lgan natriy oksid va bariy oksid aralashmasi suvda eritildi. Olingan aralashmani to'liq neytrallash uchun 380 ml 1,5 molyarli H_2SO_4 eritmasi sarf bo'ldi. Boshlang'ich aralashmaning massasini (g) toping.
A) 40 B) 30 C) 60 D) 80

228. (v15-104-8) Al_2O_3 va CaO ning 26 g aralashmasiga mo'l miqdorda uglerod qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan gaz yuqori temperatura va bosimda 1M li 700 ml NaOH eritmasiga to'liq yuttirildi. Dastlabki aralashmadagi Al, Ca va kislorodlarning mol nisbatlarini toping.
A) 1:1:4 B) 1:1,5:2,7
C) 4:1:7 D) 1,5:1:3,1

229. (v15-105-16) Pt va Al ning 57,6 g qotishmasi suyultirilgan nitrat kislotada eritildi. Hosil bo'lgan eritma mo'l miqdorda ishqor bilan qizdirilganda 21,6 g temir (II) oksidni to'liq qaytarish uchun yetarli bo'lgan gaz ajraldi. Qotishmadagi platinaning massa ulushini (%) aniqlang. (qotishmadagi alyuminiy nitrat kislota bilan to'liq reaksiyaga kirishgan).
A) 60 B) 25 C) 75 D) 40

230. (v15-105-18) NaH va Ca_3N_2 dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Birinchi qism suvda, ikkinchi qism esa mo'l miqdordagi xlorid kislota eritmasida eritildi. Suvli reaksiyadan ajralgan gazlar aralashmasi hajmi xlorid kislota eritmasidan ajralgan gazlarnikidan ikki marta ko'p bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi gidridning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 36,7 B) 33,3 C) 12,5 D) 24,5

231. (v15-105-28) Kaliy va magniy gidrofosfatlar aralashmasi dagi metallarning massasi aralashmaning massasidan 192 g ga kam bo'lsa, aralashmadagi kaliy gidrofosfatning massasini (g) toping. (m(K) + m(P) = 140).
A) 120 B) 240 C) 174 D) 60

232. (v15-106-15) 79 g noma'lum I valentli va II valentli metall aralashmasining 2 moli suvda eritilganda 28 litr (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Agar hosil bo'lgan XOH ning massasi $Y(OH)_2$ nikidan 49,5 g ga kam bo'lsa, reaksiya uchun olingan II valentli metall massasini (g) aniqlang.
A) 10,5 B) 85,5 C) 68,5 D) 36

233. (v15-107-3) Natriy va kalsiy gidrofosfatlar aralashmasidagi metallarning massasi aralashmaning massasidan 192 g ga kam bo'lsa, aralashmadagi kalsiy gidrofosfatning massasini (g) toping. (m(Na) + m(P) = 108).
A) 136 B) 142 C) 204 D) 138

234. (v15-107-27) 600 g temir va mis aralashmasining (massa bo'yicha) 1/6 qismini mis tashkil etadi, Aralashmaga uning massasining 2/3 qismiga teng mis qo'shilganda hosil bo'lgan aralashmadagi misning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 83,33 B) 50 C) 33,33 D) 40

235. (v15-107-32) Natriy karbonat kristallogidrati va kaliy karbonat 9,28:5,52 massa nisbatda aralashtirildi. Aralashma yetarli miqdordagi suvda eritilganda natriy va kaliy ionlari molyar konsentratsiyalari teng bo'lgan eritma olindi. Kristallogidrat tarkibini aniqlang.
A) $Na_2CO_3\ 7H_2O$ B) $Na_2CO_3 \cdot 12H_2O$
C) $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ D) $Na_2CO_3 \cdot 8H_2O$

236. (v15-108-1) P, Al va C dan iborat 0,4 mol aralashmada jami elektronlar soni $2{,}9498 \cdot 10^{24}$ ta. Aralashmadagi fosforning elektronlari soni uglerodning elektronlari sonidan 5 marta ko'p bo'lsa, aralashmadagi alyuminiyning massasini (g) aniqlang.
A) 2,7 B) 1,2 C) 10,1 D) 6,2

237. (v15-109-33) Kaliy va magniy gidrofosfatlar aralashmasidagi metallarning massasi aralashmaning massasidan 288 g ga kam bo'lsa, aralashmadagi magniy gidrofosfatning massasini (g) toping. (m(K) + m(P) = 171).
A) 174 B) 120 C) 60 D) 240

238. (v15-111-15) Natriy karbonat va natriy gidrokarbonat dan iborat 60 g aralashma kuydirilganda 2,7 g suv ajralib chiqqan bo'lsa, aralashmadagi Na_2CO_3 va $NaHCO_3$ ning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.
A) 55; 45 B) 58; 42
C) 48; 52 D) 40; 60

239. (v15-111-17) Natriy va kalsiy gidrofosfatlar aralashmasidagi metallarning massasi aralashmaning massasidan 192 g ga kam bo'lsa, aralashma mol nisbatini toping. (m(Na) + m(P) = 108).
A) 1:4 B) 1:1 C) 1:2 D) 1:0,5

240. (v15-111-21) Au va Al ning 72 g qotishmasi suyultirilgan nitrat kislotada eritildi. Hosil bo'lgan eritma mo'l miqdorda ishqor bilan qizdirilganda 43,2 g temir (II) oksidni to'liq qaytarish uchun yetarli bo'lgan gaz ajraldi. Qotishmadagi alyuminiyning massasini (g) aniqlang. (qotishmadagi alyuminiy nitrat kislota, bilan to'liq reaksiyaga kirishgan)
A) 14,4 B) 24,4 C) 28,8 D) 10,8

241. (v15-112-21) Kaliy va magniy gidrofosfatlar aralashmasidagi metallarning massasi aralashmaning massasidan 144 g ga kam bo'lsa, aralashmadagi magniy gidrofosfatning massasini (g) toping. (m(K) + m(P) = 124,5).
A) 60 B) 174 C) 120 D) 240

242. (v15-112-28) MgO va Mg_3N_2 aralashmasida azot atomlari soni kislorod atomlari sonidan 1,5 mol ko'p va magniy atomlari sonidan 1,5 mol kam bo'lsa, aralashmaning massasini (g) toping.
A) 120 B) 220 C) 188 D) 98,6

243. (v15-113-22) Mg va MgO dan iborat aralashma yetarli miqdor 76,8 ml (ρ = 1,25 g/ml) 24,5% li sulfat kislota eritmasida eritildi. Natijada 5 litr (27°C va 100 kPa) gaz ajralib chiqdi. Dastlabki aralashma massasini (g) toping.
A) 11,2 B) 10 C) 8,8 D) 6,4

3. (97-9-57) 98% sulfat kislota (ρ = 1,84 g/ml) mis bilan ta'sirlashganda, 5,6 l SO_2 hosil bo'ladi. Reaksiya jarayonida qancha mis eriganligi va necha millilitr sulfat kislota sarflanganligini aniqlang?
A) 5 g; 13,6 ml B) 10 g; 18,6 ml
C) 16 g; 27,2 ml D) 5 g; 6,8 ml
E) 10 g; 6,8 ml

4. (97-11-196) 31,6 g kaliy permanganatni parchalab necha mol kislorod olish mumkin? [$A_r(K)$ = 39, $A_r(Mn)$ = 55]
A) 1,0 B) 0,2 C) 0,1 D) 0,3 E) 0,15

5. (98-7-21) Toza oltin mo'l miqdordagi "podsho arog'i"da eritildi. Agar 0,85 g oltin olingan bo'lsa, oltinning qaysi tuzini va qanday massada (g) olish mumkin? [$N_r(Au)$ = 197, A(N) = 14, A(Cl) = 35,5, A(O) = 16].
A) oltin (III) nitrat-19,3
B) oltin (III) nitrat-15,2 va oltin (III) xlorid-19,3
C) oltin (III) xlorid-15,17
D) oltin (III) nitrat-19,7
E) oltin (III) xlorid-19,7

6. (98-8-94) 16,9 g $HClO_3$ ni HCl gacha qaytarish uchun eritmadan necha litr oltingugurt (IV) oksid o'tkazish kerak?
A) 13,44 B) 15,88 C) 10,57
D) 12,91 E) 14,22

7. (98-10-30) Konsentratsiyasi 20% bo'lgan temir (II) sulfat eritmasining 500 g miqdorini kislotali sharoitda oksidlash uchun necha litr 0,1 molyarli kaliy permanganat eritmasi sarf bo'ladi? [$M_r(Fe)$ = 56, $M_r(Mn)$ = 55]
A) 0,66 B) 1,32 C) 1,98
D) 2,64 E) 0,33

8. (99-1-18) $KMnO_4 + HCl \rightarrow$ reaksiyasi asosida 158 g kaliy permanganatdan foydalanib, necha litr xlor gazi olish mumkin?
A) 22,4 B) 44,8 C) 56,0
D) 67,2 E) 89,6

9. (99-1-26) Etilbenzol kaliy permanganat bilan kislotali sharoitda oksidlanganda necha mol uglerod (IV) oksid hosil bo'ladi va reaksiyada necha mol permanganat sarf bo'ladi?
A) 10 va 15 B) 20 va 10
C) 5 va 12 D) 44 va 40
E) 40 va 42

10. (99-1-45) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 0,5 mol oksidlovchi bilan necha mol qaytaruvchi reaksiyaga kirishadi?
$K_2Cr_2O_7 + FeSO_4 + H_2SO_4 \rightarrow$ ...
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

11. (99-2-46) 22,4 g temirning yetarli miqdordagi juda suyultirilgan nitrat kislota bilan o'zaro ta'siridan hosil bo'lgan ammoniy nitratning modda miqdorini aniqlang.
A) 0,10 B) 0,12 C) 0,15
D) 0,20 E) 0,25

12. (99-7-21) Butanni kislotali sharoitda kaliy permanganat bilan etilatsetatgacha oksidlash reaksiya tenglamasining o'ng tomondagi moddalar koeffitsiyentlari yig'indisini hisoblang
$C_4H_{10} + KMnO_4 + H_2SO_4 \rightarrow CH_3COOC_2H_5 +$
$+ MnSO_4 + K_2SO_4 + H_2O$
A) 20 B) 28 C) 48 D) 27 E) 54

13. (99-7-43) 500 g vodorod peroksid eritmasi parchalanganda, 14 l (n. sh.) kislorod hosil bo'lsa, peroksidning massa ulushini hisoblang.
A) 85 B) 78 C) 17 D) 8,5 E) 7,8

14. (00-3-47) $K_2Cr_2O_7 + H_2S + H_2SO_4 \rightarrow$ reaksiyasini amalga oshirib, 1 mol oksidlovchi ishtirokida necha gramm oltingugurt olish mumkin?
A) 64 B) 128 C) 96 D) 32 E) 48

15. (01-2-55) 7,6 g temir (II) sulfat erigan kislotali sharoitdagi eritmani oksidlash uchun 1 M $KMnO_4$ eritmasidan qancha hajm (ml) kerak?
A) 10 B) 60 C) 30 D) 40 E) 20

16. (01-2-58) 120 ml 0,5 M kaliy permanganat eritmasini kislotali sharoitda qaytarish uchun qancha gramm vodorod sulfid kerak?
A) 5,6 B) 3,4 C) 4,3 D) 5,1 E) 3,1

17. (01-2-60) Eritmadagi vodorod sulfidning 40 ml 0,05 M $K_2Cr_2O_7$ eritmasining 40 ml miqdori hajmi bilan oksidlangan bo'lsa, eritmada qancha gramm vodorod sulfid bo'lgan?
A) 0,152 B) 0,204 C) 0,312
D) 0,102 E) 0,380

18. (01-2-66) Kislotali sharoitda kaliy yodid eritmasiga 80 ml 0,15 n $KMnO_4$ eritmasi qo'shilganda, qancha gramm yod ajraladi?
A) 0,56 B) 3,5 C) 0,76 D) 4,2 E) 0,72

19. (01-4-124) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 2 mol oksidlovchi ishtirok etganda, qancha hajm (l, n. sh.) kislorod ajralib chiqadi? $H_2O_2 + PbO_2 + CH_3COOH \rightarrow$
A) 33,6 B) 22,4 C) 67,2
D) 56 E) 44,8

20. (01-4-126) Quyidagi $H_2C_2O_4 + KMnO_4 \rightarrow$ oksidlanish-qaytarilish reaksiyasini tugallang va 1,5 mol qaytaruvchini oksidlash natijasida qancha hajm (l, n. sh.) CO_2 hosil bo'lishini hisoblang.
A) 56,0 B) 100,8 C) 67,2
D) 33,6 E) 22,4

21. (01-5-27) 0,1 mol FeS ga mo'l miqdorda HCl kislotasi ta'sir ettirilganda ajralib chiqqan gaz bromli suv orqali o'tkazilganda, eritmaning rangi o'zgardi. Bunda necha gramm brom reaksiyaga kirishadi?
A) 64 B) 58 C) 45 D) 32 E) 128

22. (01-7-15) Kaliy xloratning 0,5 M li 10 ml eritmasi berilgan. Shu tuzni qaytarish uchun massa ulushi 6% bo'lgan H_2O_2 eritmasidan necha gramm kerak bo'ladi?
A) 11,19 B) 10,28 C) 8,5
D) 12,86 E) 13,56

23. (01-7-45) Reaksiya natijasida 3,81 g yod hosil bo'lishi uchun konsentratsiyasi 0,33 molyarli bo'lgan temir (III) xloridning necha millilitri kaliy yodid bilan reaksiyada qatnashishi talab etiladi?
A) 94,5 B) 88 C) 91 D) 93 E) 109

24. (01-8-53) Oltin (III) xlorid va 119 g vodorod peroksid orasidagi ishqoriy 4-sharoitdagi reaksiya natijasida hosil bo'ladigan oltin massasini (g) va kislorod hajmini (l) hisoblang.
A) 460; 78,4 B) 394; 67,2
C) 197; 33,6 D) 294; 44,8
E) 460; 67,2

25. (01-9-21) Oksalat kislotani kislotali sharoitda $K_2Cr_2O_7$ bilan oksidlash reaksiyasi tenglamasidagi o'ng va chap tomondagi moddalar koeffitsiyentlari nisbatini toping.
A) 8:15 B) 6:13 C) 15:12
D) 12:15 E) 15:8

26. (01-12-8) Etilbenzol sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda, uglerod (IV) oksid hosil bo'lsa, etilbenzolning ekvivalent molyar massasini aniqlang.
A) 53,0 B) 35,3 C) 2,5
D) 2,7 E) 18,8

27. (01-12-9) Toluol kislotali sharoitda kaliy permanganat bilan oksidlanganda, uglerod (IV) oksid ajralgan bo'lsa, toluolning ekvivalent molyar massasini toping.
A) 4,18 B) 2,88 C) 3,83
D) 2,56 E) 6,57

28. (01-12-10) 5,8 g butan kislotali sharoitda kaliy permanganat bilan oksidlanganda, etilatsetat hosil bo'ladi. Reaksiyaga kirishgan kaliy permanganatning massasini (g) toping.
A) 18,95 B) 31,6 C) 94,8
D) 79,02 E) 52,6

29. (02-9-22) $KMnO_4$ ning H_2O_2 bilan sulfat kislota ishtirokidagi reaksiyasi natijasida 5,6 l kislorod hosil bo'ldi. Shu reaksiyada qatnashgan miqdordagi vodorod peroksidning KI bilan (H_2SO_4 ishtirokida) o'zaro ta'siridan qancha (g) yod ajralib chiqadi?
A) 31,75 B) 63,5 C) 92,25
D) 127 E) 254

30. (02-11-30) Eritmaning 25 ml hajmidagi temir (II) sulfatni oksidlash uchun kislotali sharoitda kaliy permanganatning 0,02 M li eritmasidan 19,8 ml sarf bo'lgan. Qaytaruvchining molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) $8,91 \cdot 10^{-1}$ B) $2,97 \cdot 10^{-1}$
C) $5,94 \cdot 10^{-2}$ D) $3,96 \cdot 10^{-2}$
E) $7,92 \cdot 10^{-2}$

31. (03-3-58) Tarkibida natriy, xlor va kislorod bo'lgan 0,544 g tuz eritmasiga, kislotali muhitda yodning ajralib chiqishi to'xtaguncha, KI eritmasi quyildi. Natijada 1,85 g cho'kma hosil bo'ldi. Dastlabki moddaning 1 mol miqdorini to'liq termik parchalaganda, qattiq moddaning massasi necha grammga kamayadi?
A) 16 B) 32 C) 48 D) 64 E) 8

32. (04-1-459) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 3 mol oksidlovchi bilan necha mol qaytaruvchi reaksiyaga kirishadi? $K_2Cr_2O_7 + FeSO_4 + H_2SO_4 \rightarrow$
A) 2 B) 3 C) 18 D) 0,5 E) 6

33. (04-1-469) Sulfat kislotali sharoitda kaliy permanganatga 3,5 mol natriy nitrit ta'sir ettirilganda, qancha mol suv hosil bo'ladi?
A) 2,1 B) 6,5 C) 5 D) 3,25 E) 5,25

34. (04-1-475) Reaksiya sulfat kislotali muhitda o'tkazilganda, 112 l (n. sh.) kislorod olish uchun qancha massa (g) kaliy permanganat va vodorod peroksid kerak?
A) 31,6; 17 B) 376; 170
C) 31,6; 8,5 D) 15,8; 17
E) 31,6; 34

35. (04-1-613) Xlorni marganes (IV) oksid, sulfat kislota va osh tuzi orasidagi reaksiya $MnO_2 + NaCl + H_2SO_4 \rightarrow Na_2SO_4 + MnSO_4 + Cl_2 + H_2O$ asosida olish mumkin, 67,2 (n. sh. da) xlor olish uchun qancha (g) oksidlovchi talab etiladi.
A) 261 B) 522 C) 426
D) 852 E) 213

36. (05-1-270) Taklif etilgan reaksiyada 18 g $Fe_3(SO_4)_3$ hosil bo'lishi uchun necha gramm sarflanadi?
$K_2Cr_2O + FeSO_4 + H_2SO_4 \rightarrow$
$\rightarrow Fe_2(SO_4)_s = Cr_2(SO_4)_3 + K_2SO_4 + \ldots$
A) 2,94 B) 5,88 C) 8,82
D) 3,7 E) 4,41

37. (05-1-273) Quyidagi reaksiyada 40,6 g K_3SO_4 hosil bo'lishi uchun necha gramm qaytaruvchi kerak bo'ladi?
$KMnO_4 + CaH_5C_2H_5 + H_2SO_4 \rightarrow CO_2 + MnSO_4 + K_2SO_4 + H_2$
A) 5,9 B) 11,8 C) 23,6
D) 21,2 E) 10,6

38. (05-1-278) Quyidagi reaksiyada 9,8 g xrom (III) sulfat hosil bo'lishi uchun necha gramm qaytaruvchi sarf bo'ladi?
$KBr + H_2SO_4 + K_2Cr_2O_7 \rightarrow$
$\rightarrow Br_2 + Cr_2(SO_4)_3 + H_2O + K_2SO_4$
A) 11,9 B) 23,8 C) 35,7
D) 17,8 E) 20,6

39. (05-1-285) Ushbu
$KNO_3 + Al + KOH + H_2O \rightarrow NH_3 + K[Al(OH)_4]$
reaksiyada 11,9 g $K[Al(OH)_4]$ hosil bo'lishi uchun necha gramm oksidlovchi sarflanadi?
A) 5,05 B) 6,06 C) 3,37
D) 2,02 E) 4,8

40. (05-1-404) Titan qaysi moddalar bilan reaksiyasiga kirishganda, oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi?
1) fransiy; 2) natriy gidroksid; 3) kislorod; 4) magniy; 5) oltingugurt.
A) 1, 3 B) 3, 4 D) 2, 3, 5
C) 2, 3 E) 1, 4

41. (v4-101-35)
$HNO_3 + CuFeS_2 \rightarrow Cu(NO_3)_2 + Fe(NO_3)_3 + H_2SO_4 + NO_2 + H_2O$. Ushbu reaksiyada 19,6 g azot (IV) oksid hosil qilish uchun necha gramm $CuFeS_2$ kerak bo'ladi?
A) 4,6 B) 6,0 C) 6,8 D) 9,2 E) 18,4

42. (v4-104-35) 7,25 g butan kislotali sharoitda kaliy permanganat bilan oksidlanganda hosil bo'lgan etilatsetatning massasini (g) toping.
A) 14 B) 13
C) 19 D) 9 E) 11

43. (v4-106-35)
$HgS + HNO_3 + HCl \rightarrow HgCl_2 + H_2SO_4 + NO + H_2O$ reaksiyasida 10,2 g $HgCl_2$ olish uchun necha gramm oksidlovchi sarflanadi?
A) 6,3 B) 4,48 C) 12,6
D) 5,6 E) 18,9

44. (v4-109-35)
$K_2Cr_2O_7 + CH_3OH + H_2SO_4 \rightarrow$
$\rightarrow HCOOH + K_2SO_4 + Cr_2(SO_4)_3 + H_2O$
reaksiyasida 2,3 g chumoli kislota olish uchun necha gramm sulfat kislota sarflanadi?
A) 14,7 B) 16,8 C) 9,8
D) 13,1 E) 19,6

45. (v4-110-25) $PbO_2 + H_2O_2 + CH_3COOH \rightarrow$
$\rightarrow Pb(CH_3COO)_2 + O_2 + H_2O$ reaksiyasi natijasida 11,95 g oksidlovchidan foydalanib, necha gramm tuz hosil bo'ladi?
A) 32,5 B) 19,2 C) 17,2
D) 18,4 E) 16,2

46. (v4-114-35) $HNO_3 + Cu_2O \rightarrow$
$\rightarrow Cu(NO_3)_2 + NO + H_2O$ reaksiya bo'yicha 3,15 g H_2O hosil bo'lishi uchun necha gramm kuprit sarflanadi?
A) 10,8 B) 8,4 C) 11,7
D) 12,6 E) 9,6

47. (v4-116-35) $FeCl_3 + KI \rightarrow I_2 + FeCl_2 + KCl$ reaksiya natijasida 3,68 g yod hosil bo'lishi uchun konsentratsiyasi 0,33 molyarli bo'lgan temir (III) xloridning necha millilitri kaliy yodid bilan reaksiyada qatnashishi talab etiladi?
A) 91 B) 109 C) 94,5 D) 93 E) 88

48. (v4-121-35) Quyida ifodalangan reaksiyada 15,25 g benzoy kislota olish uchun necha gramm qaytaruvchi kerak bo'ladi?
$C_6H_5CHCHC_2H_5 + KMnO_4 + H_2SO_4 \rightarrow$
$\rightarrow C_6H_5COOH + C_2H_5COOH + K_2SO_4 + MnSO_4 + H_2$
A) 14,5 B) 15,8 C) 16,5
D) 17,2 E) 18,0

49. (v4-122-25) $KMnO_4 + C_6H_5CHCHC_2H_5 + H_2SO_4 \rightarrow C_6H_5COOH + C_2H_5COOH + K_2SO_4 + MnSO_4 + H_2O$ reaksiyasi natijasida 40,63 g cho'kma hosil bo'lsa, qaytaruvchidan necha gramm sarflanganligini aniqlang.
A) 23,5 B) 24,6 C) 22,2
D) 25,2 E) 21,4

50. (v4-123-35) $AS_2S_3 + HNO_3 + H_2O \rightarrow$
$\rightarrow H_3ASO_4 + H_3ASO_4 + H_2SO_4 + NO$ reaksiya natijasida 4,48 l (n. sh.) gaz modda ajralib chiqishi uchun necha gramm AS_2S_3 sarflanadi?
A) 5,27 B) 8,6 C) 7,25
D) 4,8 E) 6,56

51. (v4-124-35) $NaClO_3 + MnO_2 + NaOH =$
$= NaCl + NaMnO_4 + H_2O$ reaksiya natijasida 1,35 g suv hosil bo'lishi uchun necha gramm qaytaruvchi sarflanadi?
A) 8,5 B) 10,5 C) 7,5
D) 13,0 E) 6,5

52. (v4-126-35) $KMnO_4 + NaBr + H_2O \rightarrow$
$\rightarrow Br_2 + MnO_2 + KOH + NaOH$ reaksiyasi natijasida 6 g brom hosil bo'lishi uchun necha gramm qaytaruvchi sarflanadi?
A) 24,2 B) 10,6 C) 7,7
D) 3,8 E) 16,3

53. (v4-128-35) $KMnO_4 + PH_3 + H_2SO_4 \rightarrow$
$\rightarrow H_3PO_4 + MnSO_4 + K_2SO_4 + H_2O$ reaksiya natijasida 16,33 g H_3PO_4 hosil bo'lishi uchun necha gramm oksidlovchi kerak bo'ladi?
A) 63,2 B) 38,9 C) 31,6
D) 51,4 E) 42,1

54. (v4-130-35) Quyidagi reaksiya uchun 17,92 g $FeCr_2O_4$ sarflansa, necha gramm kaliy xromat hosil bo'ladi?

$FeCr_2O_4 + K_2CO_3 + O_2 \rightarrow$
$\rightarrow K_2CrO_4 + Fe_2O_3 + CO_2$
A) 19,4 B) 38,8 C) 25,3
D) 31,04 E) 27,6

55. (v5-101-27)
$I_2 + HNO_3 = HIO_3 + NO + H_2O$ reaksiyada 2,8 l (n. sh.) NO ajralgan bo'lsa, reaksiyaga kirishgan yodning massasini (g) hisoblang.
A) 5,29 B) 1,05 C) 31,7
D) 4,7 E) 9,5

56. (v5-104-25) 83,3 g qalay konsentrlangan sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishganda ... l (n. sh.) SO_2 ajralib chiqadi.
A) 21,4 B) 47,4 C) 62,7
D) 29,74 E) 31,36

57. (v5-106-35) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 1 mol oksidlovchi bilan necha mol qaytaruvchi reaksiyaga kirishadi? $K_2Cr_2O_7 + FeSO_4 + H_2SO_4 \rightarrow$ ...
A) 3 B) 14 C) 12 D) 2 E) 6

58. (v5-114-25) 137,9 g oltin "shoh arog'i" bilan ta'sirlashib ... mol $AuCl_3$ va ... l (n. sh.) azot (II) oksid hosil qiladi.
A) 0,7; 15,68 B) 0,6; 13,44
C) 0,4; 8,96 D) 0,8; 17,92
E) 0,9; 20,16

59. (v5-115-30) Xrom (III) sulfat ishqoriy sharoitda vodorod peroksid bilan reaksiyasida kaliy xromat, kaliy sulfat va suv hosil bo'ladi. Ushbu reaksiya tenglamasidagi koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.
A) 14 B) 29 C) 27 D) 9 E) 13

60. (v5-116-25) 95,2 g qalay yetarli miqdordagi konsentrlangan nitrat kislota bilan ta'sirlashganda 0,8 mol β-qalay kislota va ... l (n. sh.) azot (IV) oksid hosil bo'ladi.
A) 71,68 B) 39,6 C) 84,2
D) 59,74 E) 61,3

61. (v5-131-35) $FeS_2 + HNO_3 \rightarrow Fe(NO_3)_3 +$
$+ H_2SO_4 + NO + H_2O$ reaksiya tenglamasida o'ng va chap tomonlar koeffitsiyentlari ayirmasini hisoblang.
A) 5 B) 4 C) 1 D) 2 E) 0

62. (v5-156-35) $HNO_3 + P \rightarrow$
$\rightarrow NO_2 + H_3PO_4 + H_2O$ reaksiyada 3,5 mol oksidlovchi qatnashgan bo'lsa, unda ishtirok etgan qaytaruvchining massasiga teng bo'lgan fosfor miqdorini chala yoqish uchun ... l (n. sh.) havo (φ_{O_2} = 0,2) kerak.
A) 67,2 B) 74,5 C) 11,76
D) 58,8 E) 21,7

63. (v6-101-35) Kaliy yodid sulfat kislota ishtirokida vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 63,5 g kristall modda olingan. Reaksiyada qatnashgan vodorod peroksidning massasini (g) hisoblang.
A) 8,5 B) 10,4 C) 7,6 D) 13,7

64. (v6-104-35) 2% li 170 g vodorod peroksid eritmasining ishqoriy sharoitda oltin (III) xlorid bilan reaksiyasida hosil bo'lgan oltinning massasini (g) hisoblang.
A) 32 B) 13 C) 21 D) 9

65. (v6-107-27) 63,2 g kaliy permanganat parchalanganda ajralgan gazni ozonator orqali o'tkazib, kaliy yodid eritmasiga yuborilganda 2,95 g yod ajraldi. Ozonning hosil bo'lish unumini (%) aniqlang.
A) 11,2 B) 7,5 C) 22,5 D) 8,7

66. (v6-110-27) 36% li (ρ = 1,18 g/sm^3) xlorid kislota bilan kaliy permanganat reaksiyasida olingan gaz kaliy yodid eritmasiga shimdirilganda 38,1 g yod ajraldi. Reaksiya uchun qancha hajm (ml) kislota eritmasi sarflangan?
A) 12,9 B) 41,2 C) 52,8 D) 48,67

67. (v6-111-35) Chumoli aldegid ishqoriy sharoitda oltin (III) xlorid bilan reaksiyaga kirishganda 20,4 g natriy formiat hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida olingan oltinning massasini (g) hisoblang.
A) 53,2 B) 39,4 C) 69,4 D) 27,7

68. (v6-113-35) Kaliy permanganatning sulfat kislota ishtirokidagi natriy peroksid bilan reaksiyasida 16,8 l (n. sh.) gaz ajraldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
A) 33,2 B) 67,5 C) 47,4 D) 52,4

69. (v6-115-35) Kaliy bixromat sulfat kislota ishtirokida metanol bilan reaksiyaga kirishganda 4,6 g chumoli kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
A) 19,6 B) 3,2 C) 8,7 D) 21,4

70. (v6-116-35) 1,5 l kaliy dixromat eritmasini (0,01 N) H_2SO_4 li sharoitda to'la qaytarish uchun necha gramm temir kuporosi kerak bo'ladi?
A) 1,39 B) 0,98 C) 8,34 D) 4,56

71. (v6-117-35) Oltin shoh arog'ida eritilganda 7,5 g azot (II) oksid hosil bo'lgan. Reaksiya natijasida olingan oltin (III) xloridning massasini (g) hisoblang.
A) 64,3 B) 59,2 C) 48,4 D) 75,9

72. (v6-122-35) Reaksiya sulfat kislota ishtirokida o'tkazilganda 14,2 g natriy sulfat olish uchun necha grammdan kaliy permanganat va natriy sulfit kerak bo'ladi?
A) 3,16; 3,45 B) 1,58; 1,42
C) 6,32; 12,6 D) 23,34; 16,75

73. (v6-124-35) Ishqoriy sharoitda oltin (III) xlorid vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 14,56 l (n. sh.) gaz ajraldi. Reaksiyada hosil bo'lgan oltinning miqdorini (g) hisoblang.
A) 85,3 B) 128 C) 97,3 D) 76,6

74. (v6-126-35) Kaliy permanganatning sulfat kislota ishtirokidagi natriy peroksid bilan reaksiyasida 17,92 l (n. sh.) gaz ajraldi. Reaksiya natijasida qaytarilgan moddaning massasini (g) hisoblang.
A) 48,3 B) 24,2 C) 50,6 D) 62,4

75. (v7-101-28) Sulfit kislota bilan vodorod sulfid orasidagi reaksiya natijasida 80 g oltingugurt hosil bo'lsa, reaksiya uchun qanday hajm (l, n. sh.) vodorod sulfid olingan?
A) 44,8 B) 37,3 C) 56 D) 11,2

76. (v7-103-26) 35% li (ρ = 1,2 g/ml) xlorid kislota bilan kaliy permanganat reaksiyasida olingan gaz kaliy yodid eritmasiga shimdirilganda 12,7 g yod ajraldi. Reaksiya uchun qancha hajm (ml) kislota eritmasi sarflangan?
A) 5,84 B) 16,7 C) 7,35 D) 13,9

77. (v7-113-28) 51 g vodorod sulfidni nitrat kislotada oksidlaganda oltingugurt, azot (II) oksid hamda suv hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida necha litr (n. sh.) azot (II) oksidi ajralgan?
A) 22,4 B) 11,2 C) 33,6 D) 44,8

78. (v7-164-23) Tarkibida 27,65 g kaliy permanganat bo'lgan eritma orqali sulfat kislota ishtirokida 17,92 l (n. sh.) vodorod sulfid o'tkazilganda hosil bo'lgan oltingugurtning massasini (g) toping.
A) 8 B) 25,6 C) 14 D) 20

79. (v8-102-22) Oltin shoh arog'ida eritilganda 42 g azot (II) oksid hosil bo'lgan. Reaksiya natijasida olingan oltin (III) xloridning massasini (g) hisoblang.
A) 303,5 B) 424,9 C) 548,4 D) 275,1

80. (v8-103-22) Qo'rg'oshin (IV) oksid ... kislota ishtirokida vodorod peroksid bilan ta'sirlashganda 1,12 l (n. sh.) gaz modda ajralgan. Reaksiyada qatnashgan kislotaning massasini (g) hisoblang.
A) 11,95 B) 3,0 C) 1,7 D) 6,0

81. (v8-105-22) Metanol sulfat kislota ishtirokda kaliy bixromat bilan oksidlandi. Reaksiyaga 0,8 mol oksidlovchi kirishgani ma'lum bo'lsa, hosil bo'lgan chumoli kislota miqdorini (mol) hisoblang.
A) 1,2 B) 1,0 C) 0,9 D) 1,5

82. (v8-106-22) Xrom (III) sulfat kaliy gidroksid ishtirokida vodorod peroksid bilan ta'sirlashganda 19,4 g kaliy xromat hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
A) 13,6 B) 5,1 C) 6,8 D) 10,2

83. (v8-111-22) 400 ml 0,3 molyarli kaliy sulfit eritmasini H_2SO_4 ishtirokida oksidlash uchun 0,25 molyarli kaliy permanganat eritmasidan qancha hajm (ml) zarurligini hisoblang.
A) 38 B) 192 C) 48 D) 157

84. (v8-112-22) 5,1% li 200 g vodorod peroksid eritmasini KOH ishtirokida qaytarish uchun 0,25 molyarli xrom (III) sulfat eritmasidan qancha hajm (ml) zarurligini hisoblang.
A) 300 B) 150 C) 400 D) 280

85. (v8-117-22) Kaliy yodid sulfat kislota ishtirokida natriy peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 381 g kristall modda ajraldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
A) 117 B) 78 C) 107,3 D) 140,4

86. (v8-121-22) Chumoli aldegid ishqoriy sharoitda oltin (III) xlorid bilan reaksiyaga kirishganda 81,6 g natriy formiat hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida olingan oltinning massasini (g) hisoblang.
A) 157,6 B) 118,2 C) 169,4 D) 177,3

87. (v8-122-22) 250 ml temir (II) sulfat eritmasini oksidlash uchun (H_2SO_4 ishtirokida) kaliy permanganatning 0,1 molyarli eritmasidan 500 ml sarf bo'ldi. Temir (II) sulfatning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

88. (v8-125-25) Kaliy permanganatning termik parchalanishidan olingan gaz ozonator orqali o'tkazilib kaliy yodid eritmasiga shimdirilganda, 203,2 g yod ajraldi. Reaksiyada qatnashgan kaliy permanganatning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 1,5 B) 1,2 C) 2,4 D) 0,8

89. (v9-101-12) 8,5 g fosfin sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda fosfat kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) aniqlang.
A) 126,4 B) 158 C) 63,2 D) 79

90. (v9-101-13) 10,2 g vodorod peroksidni neytral sharoitda kislorodgacha oksidlash uchun zarur bo'lgan kaliy permanganatning massasini (g) hisoblang.
A) 94,8 B) 47,4 C) 31,6 D) 23,7

91. (v9-103-25) Kaliy permanganatning sulfat kislota ishtirokidagi natriy peroksid bilan reaksiyasida 5,6 l (n. sh.) gaz ajraldi.

Reaksiya natijasida qaytarilgan moddaning massasini (g) hisoblang.
A) 62,4 B) 50,6 C) 15,1 D) 24,2

92. (v9-105-28) Fosfin sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda 49 g fosfat kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) aniqlang.
A) 126,4 B) 158 C) 94,8 D) 79

93. (v9-106-19) 5% li 204 g vodorod peroksid eritmasining ishqoriy sharoitda oltin (III) xlorid bilan reaksiyasida hosil bo'lgan oltinning massasini (g) hisoblang.
A) 35,6 B) 21 C) 32 D) 39,4

94. (v9-109-20) Kaliy yodid sulfat kislota ishtirokida natriy peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 7,62 g kristall modda ajraldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
A) 2,34 B) 3,74 C) 3,18 D) 1,02

95. (v9-112-7) 17 g fosfin sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlanganda fosfat kislota hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) aniqlang.
A) 79 B) 63,2 C) 126,4 D) 158

96. (v9-114-1) 100g 36% li xlorid kislotaning 47,8 g qo'rg'oshin (IV) oksid bilan reaksiyasida ajralgan gazning hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 6,72 B) 4,48 C) 2,24 D) 8,96

97. (v9-114-24) Qo'rg'oshin (IV) oksid sirka kislota ishtirokida vodorod peroksid bilan reaksiyaga kirishganda 16 g gaz modda ajralgan. Reaksiyada qatnashgan oksidlovchining massasini (g) hisoblang.
A) 98,7 B) 113,4 C) 119,5 D) 127,4

98. (v9-115-31) 250 ml 0,2 molyarli vodorod peroksid eritmasini kislotali muhitda oksidlash uchun 0,1 normalli kaliy permanganate eritmasidan necha litr zarur bo'ladi?
A) 1 B) 4 C) 3 D) 2

99. (v11-106-6) $KMnO_4$ sulfat kislota ishtirokida KNO_2 bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan eritma bug'latildi va qattiq qizdirildi. Qizdirish natijasida 560 ml gaz ajralib chiqdi. Qattiq qoldiqning massasini aniqlang.
A) 9,81 B) 7,73
C) 425 D) 9,01

100. (v11-108-21) 166 g KJ eritmasi kislotali sharoitda $KMnO_4$ bilan reaksiya natijasida ajralib chiqqan yodning miqdoriga teng miqdorda yodni olish uchun necha gramm 30% li KJ eritmasi ozon bilan reaksiyaga kirishishi kerak bo'ladi?
A) 553,5 B) 498
C) 1106,6 D) 166

101. (v11-122-24) $AuCl_3$ ning ishqoriy sharoitda H_2O_2 bilan ta'sirlashuvi natijasida 1,28 g Au hosil bo'ldi, shu reaksiya natijasida hosil bo'lgan gaz molekulalari sonini hisoblang.
A) $5,87 \cdot 10^{21}$ B) $3,9 \cdot 10^{21}$
C) $7,2 \cdot 10^{20}$ D) $4,4 \cdot 10^{22}$

102. (v12z-255-3) Oltin "shoh arog'i"da eritilganda 2,24 l gaz ajralib chiqqan bo'lsa, reaksiyada necha gramm HCl sarf bo'ladi?
A) 7,3 B) 14,6
C) 10,95 D) 23,6

103. (v12z-256-28) NaOH ishtirokida 2 M li $KMnO_4$ ning 50 ml eritmasi bilan necha gramm Na_2SO_3 ni oksidlash mumkin?
A) 5,6 B) 7,4
C) 4,6 D) 6,3

104. (v12c-102-36) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 0,6 mol oksidlovchi bilan necha mol qaytaruvchi reaksiyaga kirishadi?
$KMnO_4 + C_6H_4 - (CH_3)_2 + H_2SO_4 \rightarrow HOOC - - C_6H_4 - COOH + K_2SO_4 + MnSO_4 + H_2O.$
A) 0,9 B) 0,75 C) 0,5 D) 0,25

105. (v12c-126-7) Kaliy manganat xlor bilan reaksiyaga kirishib 0,4 mol kaliy permanganat hosil qildi. Reaksiyada qatnashgan qaytaruvchining massasini (g) aniqlang.
A) 142 B) 33,5 C) 78,8 D) 7,1

106. (v12c-130-4) $K_2Cr_2O_7 + C + H_2SO_4 \rightarrow \rightarrow Cr_2(SO_4)_3 + CO_2 + K_2SO_4 + H_2O$
reaksiyada qatnashgan oksidlovchining ekvivalentini toping.
A) 294 B) 98 C) 49 D) 147

107. (v13-102-19) 120 ml 0,5 M li $KMnO_4$ eritmasini (kislotali muhit) qaytarish uchun necha gramm vodorod sulfid kerak bo'ladi?
A) 4,2 B) 5,1 C) 7,6 D) 1,6

108. (v13-110-17) $FeS_2 + KMnO_4 + H_2SO_4 \rightarrow \rightarrow Fe_2(SO_4)_3 + S + MnSO_4 + K_2SO_4 + H_2O$
reaksiya bo'yicha piritni oksidlashga 5 N 600 ml $KMnO_4$ eritmasi va sulfat kislota sarflangan bo'lsa, reaksiya natijasida hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 32 B) 64 C) 6,4 D) 12,8

109. (v13-112-30) 94,35 g $CaCl_2$ ishqoriy muhitda $KMnO_4$ bilan oksidlanganda qancha (g) kalsiy perxlorat hosil bo'ladi? Reaksiya unumi 78,3%.
A) 110 B) 140 C) 200 D) 159

110. (v13-115-29) 800 g KI eritmasi orqali ozon gazi o'tkazilganda 15,3 g erkin yod ajralib chiqdi. KI eritmasining konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 3 B) 3,5 C) 2 D) 2,5

111. (v13-135-6) Toluolni kislotali sharoitda $KMnO_4$ bilan benzol kislotagacha oksidlaganda 12,2 g kislota olingan bo'lsa, qancha (g) oksidlovchi sarflangan?
A) 17,6 B) 19 C) 19,8 D) 18

112. (v13-137-19) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyada hosil bo'lgan moddalar tarkibidagi kislorod atomlari soni $158,928 \cdot 10^{23}$ ta bo'lsa, reaksiyasi uchun olingan moddalar tarkibidagi vodorod atomlari sonini aniqlang. (η = 60%)
$P_2S_3 + HNO_3 + H_2O \rightarrow H_3PO_4 + H_7SO_4 + NO.$
A) $794,64 \cdot 10^{22}$ B) $132,44 \cdot 10^{23}$
C) $65,016 \cdot 10^{23}$ D) $108,36 \cdot 10^{23}$

113. (v13-138-11) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi uchun olingan kislota va kumol massasi ayirmasi 409,2 g bo'lsa, reaksiyada hosil bo'lgan barcha tuzlar massasini yig'indisini (g) aniqlang. (η = 75%)
$C_6H_5CH(CH_3)_2 + KMnO_4 + H_2SO_4 \rightarrow \rightarrow C_6H_5COOH + CO_2 + K_2SO_4 + MnSO_4 + H_2O.$
A) 642,6 B) 172,8 C) 230,4 D) 856,8

114. (v13-142-25) Temir (II) sulfatning kislotali muhitda kaliy permanganat bilan oksidlanish reaksiyasi tenglamasidagi koeffitsienti yig'indisini toping.
A) 16 B) 72 C) 20 D) 36

115. (v13-143-25) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi uchun olingan moddalarning massasi yig'indisi 312 g bo'lsa, reaksiyada hosil bo'lgan tuz va kislota massasi yig'indisini (g) aniqlang. (η = 80%)
$FeS_2 + HNO_3 \rightarrow \rightarrow Fe(NO_3)_3 + NO + H_2SO_4 + H_2O.$
A) 138,0 B) 210,2 C) 175,2 D) 350,4

116. (v13-149-23) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyada hosil bo'lgan barcha moddalarning massasi yig'indisi 2616,75 g bo'lsa, reaksiyasi uchun olingan moddalar tarkibidagi barcha atomlar sonini aniqlang. (η = 75%)
$Hg_3N + HNO_3 \rightarrow Hg(NO_3)_2 + NO + H_2O.$
[Ar(Hg) = 201].
A) $68,38 \cdot 10^{24}$ B) $64,113 \cdot 10^{22}$
C) $85,484 \cdot 10^{24}$ D) $113,978 \cdot 10^{23}$

117. (v13-151-27) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyada hosil bo'lgan azot oksidi massasidan kislotalar massasi yig'indisini ayirmasi 88,7 g bo'lsa, reaksiyasi uchun olingan kislota massasini (g) aniqlang. (η = 66,7%)
$P_4S_7 + HNO_3 \rightarrow H_3PO_4 + H_2SO_4 + NO_2 + H_2O.$
A) 292,95 B) 184,75
C) 122,85 D) 195,3

118. (v13-153-6) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi uchun olingan moddalar tarkibidagi kislorod atomlari soni $132,44 \cdot 10^{23}$ ta bo'lsa, hosil bo'lgan kislotalar massasini yig'indisini (g) aniqlang. (η = 80%)
$As_2S_3 + HNO_3 + H_2O \rightarrow H_3AsO_4 + H_2SO_4 + NO.$
A) 433,5 B) 514,8 C) 643,5 D) 346,8

119. (v13-160-22) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi uchun olingan azot atomlari soni $69,832 \cdot 10^{23}$ ta bo'lsa, reaksiyada hosil bo'lgan tuz va gaz massasi ayirmasini (g) aniqlang. (η = 75%)
$Hg_3N + HNO_3 \rightarrow Hg(NO_3)_2 + NO + H_2O.$
[Ar(Hg) = 201].
A) 991,5 B) 778,5
C) 1322 D) 1261,2

120. (v13-168-20) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyada hosil bo'lgan tuz va suv massasi yig'indisi 256,8 g bo'lsa, reaksiyasi uchun olingan barcha moddalar massasini yig'indisini (g) aniqlang. (η = 75%)
$Cu_2S + H_2SO_4 \rightarrow CuSO_4 + SO_2 + H_2O.$
A) 598,4 B) 374,0 C) 336,6 D) 448,8

121. (v13-171-9) Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida reaksiya uchun olingan moddalarning massasi ayirmasi 96 g bo'lsa, reaksiyada hosil bo'lgan tuz va kislota massasi yig'indisini (g) aniqlang. (η = 80%)
$FeS_2 + HNO_3 \rightarrow \rightarrow Fe(NO_3)_3 + NO + H_2SO_4 + H_2O.$
A) 138,0 B) 76,8 C) 87,6 D) 119,0

122. (v14-101-19) 82% li 100 g sulfit kislota eritmasidan eritmadagi kislota tamom bo'lgunga qadar xlor gazi o'tkazilgan. Hosil bo'lgan eritmadagi kislorodli kislotaning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 22,33 B) 21,34 C) 20,37 D) 57,31

123. (v14-109-2) $AuCl_3$ ning ishqoriy sharoitda vodorod peroksid bilan reaksiyasi natijasida 0,09 mol oltin hosil bo'lgan bo'lsa, bu reaksiyada ajralgan gazning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 2,16 B) 1,062 C) 4,48 D) 3,024

124. (v14-129-4) 63,2 g kaliy permanganatni kislotali sharoitda qaytarish uchun qancha hajm (l, n. sh.) vodorod sulfid va necha gramm sulfat kislota zarur?
A) 22,4; 58,8 B) 13,44; 58,8
C) 22,4; 98 D) 8,96; 39,2

125. (v15-119-36) 0,02 mol kaliy dixromatni qaytarish uchun necha gramm natriy nitrit va sulfat kislota zarur?
A) 4,14; 13,72
B) 4,14; 7,84
C) 5,52; 13,72
D) 5,52; 7,84

126. (v15-126-22) Quyidagi reaksiyaning koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.
$KCl + K_2CrO_4 + H_2SO_4 \rightarrow$
$\rightarrow KClO_4 + K_2SO_4 + Cr_2(SO_4)_3 + H_2O$
A) 59 B) 26 C) 66 D) 72

127. (v15-127-24) Quyidagi reaksiya tenglamasidagi barcha koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.
$P_xS_y + 62HNO_3 + 8H_2O \rightarrow$
$\rightarrow H_3PO_4 + H_2SO_4 + 62NO$
A) 168 B) 78 C) 108 D) 154

128. (v15-131-1) $AuCl_3$ ning ishqoriy sharoitda vodorod peroksid bilan reaksiyasi natijasida 0,09 mol oltin hosil bo'lgan bo'lsa, bu reaksiyada ajralgan gazning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 1,062 B) 3,024 C) 2,16 D) 4,48

129. (v16-113-36) Magniy nitritni 250 ml 1,6 M li $KMnO_4$ bilan sulfat kislota ishtirokida oksidlanganda hosil bo'lgan noma'lum modda massasini (g) aniqlang.
$KMnO_4 + Mg(NO_2)_2 + H_2SO_4 \rightarrow$
$\rightarrow K_2SO_4 + MnSO_4 + H_2O$
A) 74 B) 148 C) 14,8 D) 59,2

130. (v16-117-6) $KMnO_4 + HCl$ ... oksidlanish-qaytarilish reaksiyasini tugallang. O'ng va chap tomondagi tuzlarning massalari ayirmasi 127,5 g bo'lsa, reaksiyada sarflangan 36,5% li HCl eritmasining (ρ = 1,25 g/ml) hajmini (ml) aniqlang.
A) 1920 B) 2400 C) 1460 D) 1825

131. (v16-122-29) $X + HNO_{3(kons)} \rightarrow Cr(NO_3)_3 + + NO_2 + H_2SO_4 + H_2O$.
Ushbu reaksiyada nitrat kislota oldidagi koeffitsiyent misning, konsentrlangan nitrat kislota bilan ta'sirlashuvidagi nitrat kislota oldidagi koeffitsiyentdan 7,5 marta katta. Agar reaksiyada nitrat kislota va sulfat kislota mol nisbati 10:1 bo'lsa, X moddani toping. (NO_2 va H_2SO_4 mol nisbati 8:1).
A) CrS B) $CrSO_3$ C) Cr_2S_3 D) Cr

132. (v17-101-13) 35 g natriy yodidga sulfat kislota reaksiyasida qancha massa yod olish mumkin?
A) 25 g B) 29,6 g
C) 23,4 g D) 25,4 g

133. (v17-101-23) Qo'rg'oshin (II) sulfid 0,75 mol ozon bilan ta'sirlashdi. Hosil bo'lgan tuz massasini (g) va ajralgan gazning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 56,8; 4,2 B) 85,2; 6,3
C) 113,6; 8,4 D) 28,4; 2,1

134. (v17-104-14) 360 g qo'rg'oshin (II) gidroksidini ozon bilan reaksiyasida qancha tuz va gaz hosil bo'lgan?
A) 360 g; 35 l
B) 359 g va 38,4 l
C) 357 g; 33,4 l
D) 358 g; 38,4 l

135. (v17-105-3) 50 g $CrCl_3$ ga NaClO va ishqor NaOH bilan reaksiyasida qancha osh tuzi hosil bo'ladi?
A) 83,2 g B) 83,5 g
C) 84 g D) 83 g

136. (v17-121-30)
$P + HClO_3 + H_2O = HCl + H_3PO_4$ reaksiya bo'yicha qaytaruvchi $30N_A$ elektron bergan bo'lsa, hosil bo'lgan kislotalar massalari yig'indisini (g) toping.
A) 576
B) 770,5
C) 612,6
D) 84

II. ANORGANIK KIMYO

I bob. Anorganik birikmalarning asosiy sinflari

52. Anorganik birikmalarning sinflanishi va nomenklaturasi

1. (96-13-22) Juftlarning qaysi biridagi moddalar orasida kimyoviy jarayon sodir bo'ladi?
A) Na_2O, SO_2 B) SiO_2, CO_2
C) KCl, Na_2CO_3 D) Fe_2O_3, CO_2
E) NaCl, K_2SO_4

2. (99-3-10) Quyida keltirilgan moddalarni qaysi birining grafik formulasi to'g'ri tasvirlangan?

1) sulfat kislota  ;

2) kaliy gidrokarbonat  ;

3) alyuminiygidroksoxlorid O=Al–Cl;

4) magniy gidrofosfat  ;

5) natriy digidrofosfat 

A) 1, 3 B) 1, 2 C) 3, 5
D) 4, 5 E) 2, 4

3. (02-10-12) Quyida berilganlarning qaysi biri ham kislota, ham asoslarning umumiy xossasidir?
1) suvdagi eritmasi elektr tokini o'tkazadi;
2) Al bilan reaksiyasida H_2 hosil qiladi;
3) lakmus qog'ozini qizil rangga bo'yaydi.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 2, 3
D) 1, 3 E) 1

4. (03-5-16) Ishqor eritmasi bilan reaksiyaga kirishmaydigan metalni ko'rsating.
A) Al B) Ga C) Tl D) In E) Be

5. (v6-112-10) Amfoter xossaga ega bo'lgan asoslarni tanlang.
1) temir (II) gidroksid; 2) alyuminiy gidroksid;
3) xrom (II) gidroksid; 4) xrom (III) gidroksid;
5) rux gidroksid; 6) berilliy gidroksid;
7) temir (III) gidroksid.
A) 1, 3, 4, 5 B) 2, 4, 5, 6, 7
C) 3, 5, 6, 7 D) 1, 2, 3

6. (v7-105-10) Amfoter xossaga ega bo'lgan asoslarni tanlang.
1) FeO; 2) Al_2O_3; 3) CrO;
4) Cr_2O_3; 5) ZnO; 6) BeO.
A) 1, 3, 4, 5 B) 2, 4, 5, 6
C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 3

7. (v11-107-29) Amfoter oksidlar hosil qiladigan metallarni tanlang.
1) rux; 2) magniy; 3) alyuminiy; 4) kalsiy.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 1, 3

8. (v15-114-11) Amfoter xossa namoyon qiluvchi birikmalarni tanlang.
1) ZnO; 2) $CH_3CH(NH_2)COOH$;
3) $(NH_4)_2SO_3$; 4) CH_3COONa;
5) $KHCO_3$; 6) $(NH_4)_2S$; 7) $Cr(OH)_3$
A) 1, 2, 7 B) 1, 3, 6, 7
C) 1, 4, 5, 7 D) 1, 2, 3, 6, 7

9. (v16-101-17) Qaysi element metalmas xossalarga ega?
A) Al B) Ga C) In D) B

10. (v17-110-14) Qaysi guruh moddalari bilar birikma bo'lolmaydi?
A) oksid B) kislota C) tuzlar D) asoslar

53. Oksidlar. Suv. Peroksidlar

1. (96-1-34) Quyidagi oksidlarning qaysi orasida kimyoviy jarayon amalga oshadi?
1) Na_2O; 2) CuO; 3) NO; 4) SiO_2.
A) 1 va 2 B) 1 va 3 C) 1 va 4
D) 2 va 3 E) 3 va 4

2. (96-3-33) Qaysi qatorda faqat asosli oksidlar keltirilgan?
A) Fe_2O_3, HgO, MgO B) Li_2O, Cu_2O, FeO
C) Ag_2O, ZnO, BaO D) Al_2O_3, MnO, Fe
E) Fe_2O_3, K_2O, Ag_2O

3. (96-4-35) Oksidlarning kislotalik xossasi ortib borish qatorini toping:
1) P_4O_{10}; 2) As_2O_5; 3) N_2O_5; 4) Sb_2O_5.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 1, 3, 4
C) 4, 2, 1, 3 D) 4, 3, 2, 1
E) 3, 4, 2, 1

4. (96-5-27) Qaysi qatordagi barcha metallar oddiy sharoitda suv bilan reaksiyaga kirishadi?
A) Al, Li, Au, Fe B) K, Na, Ca, Li
C) K, Ni, Cr, Ti D) Mg, Ni, Na, Ag
E) Ca, Ag, Al, Fe

5. (96-5-30) Quyidagi metall oksidlaridan qaysilari amfoter xossaga ega?
1) CaO; 2) FeO; 3) Al_2O_3; 4) SnO;
5) Mn_2O_3; 6) MnO_2; 7) CrO_3; 8) K_2O.
A) 1, 2, 3 B) 5, 6, 7 C) 2, 4, 8
D) 3, 4, 6 E) 1, 5, 8

6. (96-5-33) Quyidagi oksidlardan qaysi metallmaslarning oksidlari?
1) ZnO; 2) SO_2; 3) CaO; 4) FeO;
5) CO_2; 6) MgO; 7) BeO; 8) NO_2.
A) 1, 2, 3 B) 6, 7, 8 C) 2, 4, 6
D) 2, 5, 8 E) 1, 4, 7

7. (96-7-31) Quyidagi metall oksidlaridan qaysilari amfoter xossani namoyon etadi?
1) FeO; 2) MgO; 3) K_2O; 4) Al_2O_3;
5) MnO_2; 6) MnO.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 5, 6
D) 4, 5 E) 2, 6

8. (96-7-32) Quyidagi metall oksidlaridan qaysi biri suvda eriydi?
A) ZnO B) K_2O C) FeO D) CuO
E) MnO

9. (96-7-35) Quyidagi oksidlarning qaysi birida elementlarning massa nisbatlari 1:1,5 bo'ladi?
A) H_2O B) Li_2O C) SO_3
D) N_2O_3 E) SO_2

10. (96-7-38) Quyidagi oksidlardan qaysi biri marganes (II) oksidi?
A) MnO B) Mn_2O_7 C) MnO_2
D) Mn_2O_2 E) MnO_3

11. (96-8-22) Xrom (VI) oksid qanday xususiyatga ega?
A) asosli B) kislotali
C) amfoter D) tuz hosil qilmaydigan
E) befarq

12. (96-8-24) Xlor (VII) oksid qaysi kislota angidridi?
A) xlorid B) xlorat C) xlorit
D) perxlorat E) gipoxlorit

13. (96-8-25) Kislotali oksidlar qaysi qatordagi moddalar bilan reaksiyaga kirishadilar?
A) H_2O, CaO, NaOH B) Na_2O, S
C) CO_2, NO_2, Na_2O D) NaCl, NaOH, CuO
E) HCl, NaOH, $CuSO_4$

14. (96-8-26) Qaysi oksidlar suv va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishmaydi?
A) CO_2, SiO_2 B) N_2O, NO
C) ZnO BeO D) CO SiO
E) CaO, Na_2O

15. (96-10-36) Quyidagi oksidlar qatorining qaysi birida asoslik xossa ortib boradi?
A) Mn_2O_7, MnO_3, MnO_2, Mn_2O_3, MnO
B) Li_2O, BeO, B_2O_3, CO_2, N_2O_5
C) Na_2O, MgO, Al_2O_3, SiO_2, SO_3
D) CO_2, CO, P_2O_5, CaO, CuO
E) Fe_2O_3, FeO, CaO, ZnO, K_2O

16. (96-13-82) Quyidagi oksidlarning qaysilari ion bog' yordamida hosil bo'lgan?
1) Cl_2O; 2) SO_3; 3) MgO; 4) Cs_2O;
5) P_2O_3; 6) CaO; 7) Br_2O; 8) CO_2.
A) 1, 2, 3 B) 5, 7, 8 C) 1, 5, 7
D) 3, 4, 6 E) 2, 4, 8

17. (96-13-91) Quyidagi metall oksidlaridan qaysi biri suvda eriydi?
A) Al_2O_3 B) Na_2O C) NiO
D) Mn_2O_3 E) CrO

18. (96-13-94) Quyidagi metall oksidlaridan qaysilari amfoter xossani namoyon etadi?
1) ZnO; 2) CaO; 3) NiO;
4) BeO; 5) CuO; 6) Na_2O.
A) 5, 6 B) 3, 4 C) 1, 2
D) 1, 4 E) 2, 6

19. (96-15-9) Quyidagi asosli oksidlardan qaysilari suv bilan bevosita reaksiyaga kirishadi?
1) K_2O; 2) Al_2O_3; 3) CuO; 4) Na_2O; 5) Li_2O;
6) CrO; 7) ZnO; 8) NiO.
A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 1, 4, 5
D) 6, 7, 8 E) 2, 3, 8

20. (96-15-29) Quyidagi metall oksidlaridan qaysilari asosli xossaga ega?
1) Mn_2O_7; 2) MgO; 3) Cr_2O_3; 4) MnO_3;
5) Na_2O; 6) FeO; 7) BeO; 8) ZnO.
A) 1, 2, 3 B) 2, 5, 6 C) 4, 5, 7
D) 4, 7, 8 E) 1, 3, 6

21. (96-15-32) Quyidagi oksidlardan qaysilari kislotali oksid?
1) CO; 2) Na_2O; 3) SO_3; 4) PbO; 5) CrO_3;
6) MnO; 7) NO_2; 8) NiO; 9) Al_2O_3.
A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 7, 8, 9
D) 3, 5, 7 E) 2, 4, 6

22. (96-15-102) Quyidagi moddalarning qaysilaridan uglerod (IV) oksid olish mumkin?
1) bo'r; 2) marmar; 3) ohaktosh;
4) gips; 5) apatit.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4
D) 2, 4, 5 E) 1, 4, 5

23. (97-1-56) Oksidlarning qaysilari suvda eriydi?
1) K_2O; 2) Ag_2O; 3) Fe_3O_4;
4) BaO; 5) MgO; 6) Cr_2O_3.
A) 1, 4 B) 1, 2 C) 1, 3
D) 2, 4 E) 5, 6

24. (97-3-29) Qaysi metallar amfoter oksidlar hosil qiladi?
1) Mg; 2) Zn; 3) Al; 4) Ca.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 2, 4

25. (97-3-31) Vodorod xlorid qaysi oksid bilan reaksiyaga kirishadi?
A) SiO_2 B) CO_2 C) MgO
D) CO E) SO_2

26. (97-4-23) Quyidagi oksidlarni kislotali xossasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) Rux oksid; 2) Alyuminiy oksid; 3) Azot (V) oksid; 4) Bor oksid; 5) Uglerod (IV) oksid.
A) 3, 5, 4, 2, 1 B) 5, 4, 3, 2, 1
C) 1, 2, 4, 5, 3 D) 3, 5, 2, 4, 1
E) 1, 3, 4, 2, 5

27. (97-4-50) Faqat kislotalar bilan reaksiyaga kirisha oladigan oksidni aniqlang.
A) rux oksid B) berilliy oksid
C) uglerodi (IV) oksid D) alyuminiy oksid
E) bariy oksid

28. (97-5-21) Kimyoviy reaksiyalarda vodorod peroksid qaysi xossani namoyon qilishi mumkin?
A) faqat oksidlovchi
B) faqat qaytaruvchi
C) oksidlovchi, ham qaytaruvchi
D) oksidlovchi ham, qaytaruvchi ham bo'lmaydi
E) qaysi modda bilan reaksiyada qatnashishiga qarab yoki oksidlovchi, yoki qaytaruvchi bo'ladi

29. (97-7-12) Quyidagi oksidlarni kislotali xossasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) PbO_2; 2) CO_2; 3) SnO_2; 4) SiO_2; 5) GeO_2.
A) 1, 2, 4, 3, 5 B) 3, 2, 4, 1, 5
C) 1, 3, 5, 4, 2 D) 1, 3, 5, 2, 4
E) 2, 4, 5, 3, 1

30. (97-8-47) Konsentrlangan sulfat kislota qaysi metallmasning 1 moli bilan o'zaro reaksiyaga kirishganda, eng ko'p oltingugurt (IV) oksid hosil bo'ladi?
A) uglerod B) fosfor
C) azot D) oltingugurt
E) kremniy

31. (97-10-63) Karbonat angidrid quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) HCl; 2) O_2; 3) NO_2;
4) KOH; 5) H_2O; 6) CaO.
A) 4, 5, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 2, 3
D) 2, 4, 5 E) 2, 5, 6

32. (97-10-103) Quyidagi metallarning qaysi biri suv bilan faqat yuqori temperaturada reaksiyaga kirishadi?
A) Li B) K C) Fe D) Ca E) Na

33. (97-11-63) Qaysi oksidni vodorod yordamida qaytarish mumkin?
A) magniy oksid B) mis (II) oksid
C) kalsiy oksid D) natriy oksid
E) alyuminiy oksid

34. (97-12-46) Quyidagi oksidlarni ulardagi kimyoviy bog'ning qutbliligi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) ftor oksid; 2) bor oksid; 3) karbonat angidrid; 4) azot (II) oksid; 5) vodorod oksid.
A) 1, 3, 2, 4, 5 B) 4, 3, 5, 2, 1
C) 5, 4, 3, 2, 1 D) 2, 3, 4, 1, 5
E) 1, 2, 5, 3, 4

35. (97-12-48) Quyidagi oksidlarning qaysilari kaliy gidroksid bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) SO_2; 2) N_2O_5; 3) Na_2O; 4) Al_2O_3;
5) ZnO; 6) CaO; 7) SiO_2.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 5, 6, 7
C) 1, 3, 4, 6, 7 D) 1, 3, 5, 6, 7
E) 1, 2, 4, 5, 6

36. (98-1-52) Qaysi moddani parchalab azot (IV) oksid olish mumkin?
A) kaliy nitrat B) mis (II) nitrat
C) ammoniy nitrat D) ammoniy nitrit
E) natriy nitrit

37. (98-2-14) Quyidagi yuqori oksidlarni kislotalilik xossasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) N_2O_5; 2) CO_2; 3) Cl_2O_7; 4) SO_3.
A) 2, 4, 1, 3 B) 3, 4, 1, 2
C) 2, 2, 4, 3 D) 1, 3, 4, 2
E) 2, 3, 1, 4

38. (98-8-32) Suvda eriydigan oksidlarni ko'rsating:
1) kaliy oksid; 2) alyuminiy oksid;
3) kalsiy oksid; 4) natriy oksid;
5) temir (III) oksid; 6) temir qo'sh oksid.
A) 1, 2, 3 B) 2, 5, 6 C) 1, 3, 5
D) 1, 3, 6 E) 1, 3, 4

39. (98-9-41) Sanab o'tilgan elementlarning qaysilari peroksidlar hosil qiladi?
1) vodorod; 2) uglerod; 3) azot; 4) natriy;
5) fosfor; 6) oltingugurt; 7) bariy.
A) 2, 3, 6 B) 1, 3, 7 C) 2, 5, 6
D) 3, 6, 7 E) 1, 4, 7

40. (98-12-54) Quyidagi oksidlarning qaysi biri quch hosil qilmaydiganlar turiga kiradi?
A) azot (IV) oksid B) azot (II) oksid
C) uglerod (IV) oksid D) kremniy (IV) oksid
E) natriy oksid

41. (98-12-57) Uglerod (II) oksid qanday xususiyatlarga ega?
1) gaz; 2) qattiq modda; 3) rangsiz; 4) sariq rangli; 5) zaharli; 6) suvda oz eriydi.
A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 3, 5, 6
C) 2, 4, 5, 6 D) 1, 3, 5, 6
E) 3, 4, 5, 6

42. (99-1-49) Quyidagilar orasidan asosli oksidlarni ko'rsating:
1) marganes (II) oksid; 2) marganes (III) oksid; 3) marganes (IV) oksid;
4) marganes (VI) oksid; 5) marganes (VII) oksid; 6) xrom (II) oksid; 7) xrom (III) oksid; 8) xrom (VI) oksid.
A) 1, 4, 6 B) 3, 6, 7 C) 1, 2, 6
D) 4, 5, 8 E) 2, 6, 7

43. (99-3-52) O'zaro reaksiyaga kirishadigan oksidlar juftini ko'rsating:
1) natriy oksid, azot (V) oksid; 2) bariy oksid, xrom (VI) oksid; 3) kaliy oksid, mis (II) oksid;
4) kaliy oksid, alyuminiy oksid;
5) kremniy (IV) oksid, fosfor (V) oksid;
6) kalsiy oksid, uglerod (II) oksid.
A) 1, 2, 3 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 5
D) 3, 4, 5 E) 1, 2, 4

44. (99-5-52) Suvning kimyoviy xossalarini ifodalovchi reaksiya tenglamalarini ko'rsating:
1) $O_2 + H_2O \rightarrow$; 2) $CaO + H_2O \rightarrow$;
3) $K + H_2O \rightarrow$; 4) $Ag_3 + H_2O \rightarrow$;
5) $Mg + H_2O \rightarrow$; 6) $SO_3 + H_2O \rightarrow$.
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6
C) 2, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5
E) 1, 2, 3, 4

45. (00-1-44) Kuldiruvchi gaz N_2O quyidagilardan qaysi birining termik parchalanishi natijasida hosil bo'ladi?
A) $NaNO_3$ B) NH_4Cl C) NH_4NO_3
D) $Ca(NO_3)_2$ E) $AgNO_3$

46. (00-6-17) Halqasida o'rindoshlari bo'lmagan azotli geterotsiklik birikma namunasi kuydirilganda, 0,8 mol CO_2. 0,5 mol suv va 0,1 mol azot hosil bo'lgan. Olingan birikma nomini ko'rsating.
A) piridin B) purin C) piperidin
D) pirrol E) pirimidin

47. (01-6-66) Quyidagi oksidlardan qaysi birining kislotalilik xossasi yuqori?
A) Cl_2O_7 B) SO_2 C) P_2O_5
D) SO_3 E) SiO_2

48. (01-8-52) Indifferent oksidlarni tanlang.
1) azot (I) oksid; 2) azot (II) oksid; 3) azot (III) oksid; 4) azot (IV) oksid; 5) uglerod (IV) oksid; 6) uglerod (II) oksid; 7) fosfor (III) oksid; 8) fosfor (V) oksid; 9) oltingugurt (VI) oksid; 10) oltingugurt (IV) oksid; 11) kaliy oksid; 12) magniy oksid; 13) alyuminiy oksid; 14) kremniy (IV) oksid; 15) vodorod oksid.
A) 1, 2, 14 B) 3, 4, 5
C) 7, 8, 11 D) 1, 2, 6
E) 1, 14, 15

49. (01-10-9) Neapol shahri yaqinidagi "itlar g'ori"da odamlar hech qanday noqulaylik sezmaydi, lekin unda itlar nafas olishi

qiyinlashib halok bo'ladi. G'ordagi yer tirqishlaridan chiqadigan qaysi gaz shu hodisaning sababchisi bo'ladi?
A) azot B) vodorod sianid
C) uglerod (IV) oksid D) uglerod (II) oksid
E) metan

50. (02-8-55) Qaysi oksidlar ishqor bilan o'zaro ta'sirlashadi?
1) kalsiy oksid; 2) rux oksid; 3) xpom (VI) oksid; 4) xrom (III) oksid; 5) magniy oksid; 6) fosfor (V) oksid; 7) kremniy (IV) oksid; 8) azot (I) oksid; 9) azot (IV) oksid.
A) 3, 6, 7, 8, 9 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 4, 5, 7, 9 D) 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9
E) 2, 3, 4, 6, 9

51. (02-9-2) Qaysi moddalarni (n. sh.) suvda eritib, 100% li kislota olish mumkin?
1) oltingugurt (IV) oksid; 2) vodorod xlorid; 3) oltingugurt (VI) oksid; 4) uglerod (IV) oksid; 5) azot (V) oksid; 6) vodorod bromid; 7) kremniy (IV) oksid.
A) 2, 6 B) 2, 4, 7 C) 3, 5
D) 1, 3, 5 E) 2, 3, 5, 6

52. (02-9-4) Suv bilan reaksiyaga kirishuvchi moddalarni ko'rsating.
1) azot (II) oksid; 2) kalsiy oksid; 3) kremniy (IV) oksid; 4) azot (IV) oksid; 5) natriy peroksid; 6) natriy oksid; 7) bariy oksid; 8) bariy peroksid.
A) 2, 4, 6, 7 B) 1, 5, 8
C) 2, 4, 6 D) 2, 4, 5, 6, 7, 8
E) 2, 6, 7

53. (02-9-10) Qaysi gazlar to'ldirilgan idishlarga tushirilgan ho'l lakmus qog'oz o'z rangini o'zgartiradi?
1) azot (IV) oksid; 2) ammiak;
3) azot (II) oksid; 4) uglerod (II) oksid.
A) 1 B) 2 C) 3, 4
D) 1, 2 E) 1, 3

54. (02-9-11) Quyidagi gazlarning qaysilari ta'sirida ho'llangan lakmus ko'k rangga kiradi?
1) oltingugurt (IV) oksid; 2) azot (IV) oksid;
3) vodorod sulfid; 4) vodorod xlorid;
5) azot (I) oksid; 6) uglerod (II) oksid.
A) 1, 2, 3, 4 B) 3, 4
C) 3, 4, 5, 6 D) 5, 6
E) hech qaysisiga

55. (02-9-12) Quyidagi kislotalarning qaysilariga P_2O_5 muvofiq qiladi?
1) ortofosfat; 2) fosfit;
3) pirofosfat; 4) metafosfat.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3 C) 2, 3, 4
D) 1, 3, 4 E) hammasiga

56. (02-11-44) Laboratoriya amaliyotida qaysi oksidlar qurituvchi sifatida qo'llanadi?
1) CuO; 2) BaO; 3) CaO;
4) ZnO; 5) P_2O_5; 6) Fe_3O_4.
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 5 C) 3, 4, 6
D) 1, 3, 5 E) 2, 4, 6

57. (03-1-50) Quyidagi oksidlarning qaysi biri +16° dan pastda polimer holatida bo'ladi?
A) SO_3 B) SO_2 C) CO_2
D) NO_2 E) NO

58. (03-6-37) Kislotali oksidlar qatorini ko'rsating.
A) P_2O_5, CrO_3, MnO
B) CO_2, Fe_2O_3, BaO
C) CrO_3, MnO_3, Mn_2O_7
D) SO_2, CO_2, MnO
E) Na_2O, Fe_2O_3, N_2O

59. (03-7-69) Azot (IV) oksid qaysi modda bilan reaksiyaga kirishadi?
A) osh tuzi B) kislorod
C) kalsiy gidroksid D) karbonat angidrid
E) vodorod xlorid

60. (04-1-198) Kislotali oksidlar qatorini ko'rsating.
A) fosfor (V) oksid, xrom (VI) marganes (II) oksid
B) karbonat angidrid, gematit, bariy oksid
C) xrom (VI) oksid, marganes (VI) oksid, marganes (VII) oksid
D) sulfat angidrid, karbonat angidrid, marganes (II) oksid
E) natriy oksid, gematit, azot (I) oksid

61. (04-1-546) Quyidagi metall oksidlaridan qaysilari amfoter xossaga ega?
1) kalsiy oksid; 2) temir (III) oksid;
3) marganes (III) oksid; 4) marganes (IV) oksid; 5) xrom (III) oksid; 6) kaliy oksid.
A) 1, 2, 3 B) 2, 5, 6 C) 2, 4, 5
D) 3, 4, 6 E) 2, 5

62. (04-1-571) Quyidagi oksidlarning qaysi birida elementlarning massa nisbatlari 1:1 bo'ladi?
A) suv B) litiy oksid
C) oltingugurt (IV) oksid D) azot (V) oksid
E) oltingugurt (VI) oksid

63. (04-1-575) Quyidagilar orasidan kislotali oksidlarni tanlang:
1) xrom (III) oksid; 2) marganes (III) oksid;
3) marganes (IV) oksid; 4) marganes (VI) oksid;
5) marganes (VII) oksid; 6) xrom (II) oksid;
7) marganes (II) oksid; 8) xrom (VI) oksid.
A) 1, 4, 6 B) 3, 6, 7 C) 1, 2, 6
D) 4, 5, 8 E) 2, 6, 7

64. (04-1-577) Moddalarning qaysi biri suv bilan reaksiyaga kirishadi?
1) oltingugurt; 2) kaliy xlorid; 3) alyuminiy sulfid; 4) xrom (VI) oksid; 5) kremniy (IV) oksid; 6) alyuminiy karbid; 7) natriy peroksid; 8) kalsiy fosfid.
A) 1, 2, 3, 4 B) 3, 4, 6, 8
C) 1, 3, 4, 5 D) 2, 4, 6, 7
E) 2, 4, 6, 7, 8

65. (05-1-289) Quyidagi metall oksidlaridan qaysi biri suvda eriydi?
A) rux oksid B) bariy oksid
C) temir (II) oksid D) mis (II) oksid
E) marganes (II) oksid

66. (05-1-346) Tarkibida faqat kislota oksidlar bo'lgan birikmalar qatorini toping.
A) SO_3, CO_2, SI_2, Mn_2, O_t, SO_2
B) CaO, P_2O_3, MnO, Cr_2O_3, CrO
C) P_3O_e, CuO, SO_2, NiO, MnO
D) SO_2, CuO, SO_2, SO_3, MnO_3
E) SO_3, V_2O_5, CrO_3, TeO_3, Mn_2O_3

67. (v4-101-9) Qaysi qatordagi barcha metallar oddiy sharoitda sovuq suv bilan reaksiyaga kirishmaydi?
A) kaliy, nikel, xrom, titan
B) kalsiy, kumush, alyuminiy, temir
C) alyuminiy, litiy, oltin, temir
D) rux, nikel, temir, kumush
E) kaliy, natriy, kalsiy, litiy

68. (v4-101-10) Qaysi oksidlar ishqorda eriydi?
1) bariy oksid; 2) Kpemniy (IV) oksid;
3) temir (III) oksid; 4) kalsiy oksid.
A) 1 va 4 B) 3 va 4 C) 1 va 2
D) 2 va 3 E) 1 va 3

69. (v4-104-10) Quyidagi oksidlardan qaysi birining asoslik xossasi yuqori?
A) CO_2 B) SiO_2 C) SO_2
D) MgO E) K_2O

70. (v4-106-10) Quyidagi oksidlarning qaysi birida elementlarning massa nisbatlari 1:8 bo'ladi?
A) oltingugurt (IV) oksid
B) oltingugurt (VI) oksid
C) suv
D) azot (V) oksid
E) litiy oksid

71. (v4-108-10) Quyidagi oksidlardan qaysilari kislotali oksidlar hisoblanadi?
1) uglerod (II) oksid; 2) natriy oksid;
3) oltingugurt (VI) oksid; 4) qo'rg'oshin (II) oksid; 5) xrom (III) oksid; 6) mapganes (VI) oksid; 7) alyuminiy oksid; 8) nikel (II) oksid; 9) azot (IV) oksid.
A) 3, 5, 9 B) 3, 6, 9 C) 1, 3, 6
D) 3, 5, 7 E) 4, 5, 9

72. (v4-112-12) Quyidagi moddalarning qaysilaridan uglerod (IV) oksid olish mumkin emas?
1) bo'r; 2) marmar; 3) ohak;
4) gips; 5) ohaktosh.
A) 3, 4 B) 1, 2, 5 C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 5 E) 1, 2, 3

73. (v4-113-9) Quyidagi metall oksidlaridan qaysilari amfoter xossaga ega?
1) Mapganes (VII) oksidi; 2) magniy oksid;
3) xrom (III) oksid; 4) marganes (VI) oksid;
5) natriy oksid; 6) temir (II) oksid; 7) berilliy oksid; 8) rux oksid.
A) 4, 5, 7 B) 1, 3, 8 C) 1, 2, 6
D) 2, 5, 8 E) 3, 7, 8

74. (v4-115-9) Qaysi metallar ishqorda erimaydi?
1) natriy; 2) rux; 3) kalsiy; 4) alyuminiy.
A) 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 3
D) 2, 3 E) 2, 4

75. (v6-110-11) Vodorod oksidning qaynash temperaturasi kislorod guruhchasidagi boshqa elementlar oksidlarining qaynash temperaturasidan yuqori bo'lishi sababini toping.
A) kislorodning elektrmanfiyligi eng yuqori bo'lganligi sababli
B) kislorod atomida d-orbitallar yo'q bo'lishi tufayli
C) suvning molekulyar massasi juda kichikligi tufayli
D) suv molekulalari orasida vodorod bog' mavjudligi sababli

76. (v6-116-11) Tarkibida faqat kislota oksidlar bo'lgan birikmalar qatorini toping.
A) CaO, P_2O_3, MnO, Cr_2O_3, CrO
B) SO_3, CO_2, SiO_2, Mn_2O_7, SO_2
C) CO_2, CuO, SO_2, SO_3, MnO_2
D) P_2O_5, CuO, SO_2, NiO, MnO

77. (v6-117-11) Asosli oksidlarni tanlang.
1) azot (I) oksid; 2) azot (II) oksid; 3) rubidiy oksid; 4) azot (IV) oksid; 5) uglerod (IV) oksid; 6) uglerod (II) oksid; 7) fosfor (III) oksid; 8) fosfor (V) oksid; 9) oltingugurt (VI) oksid; 10) oltingugurt (IV) oksid; 11) kaliy oksid; 12) magniy oksid.
A) 4, 5, 10 B) 1, 3, 2
C) 6, 7, 8, 9 D) 3, 11, 12

78. (v6-118-10) Kislota va ishqor bilan reaksiyaga kirishadigan oksidlarni tanlang.
1) berilliy oksid; 2) natriy oksid; 3) alyuminiy oksid; 4) oltingugurt (IV) oksid; 5) xrom (III) oksid; 6) kalsiy oksid; 7) azot (V) oksid.
A) 4, 7 B) 1, 3, 5
C) 3, 4, 7 D) 2, 6

79. (v7-116-10) Faqat kislota bilan reaksiyaga kirishadigan oksidlarni tanlang.
1) Al_2O_3; 2) Na_2O; 3) BeO; 4) SO_2;
5) Cr_2O_3; 6) CaO; 7) NO_2.
A) 4, 7 B) 1, 3, 5 C) 3, 4, 7 D) 2, 6

80. (v9-111-12) Quyidagi qaysi oksid(lar)da kislorodning massa ulushi 53,33% ga teng?
1) azot (II) oksid; 2) azot (IV) oksid;
3) kremniy (IV) oksid; 4) kalsiy oksid.
A) 1, 3 B) 2 C) 2, 4 D) 1

81. (v9-117-19) Qaysi moddalar eritmasi bilan uglerod (IV) oksid reaksiyaga kirishadi?
1) potash; 2) kaliy xlorid;
3) sulfat kislota; 4) natriy gidroksid.
A) 3 B) 1, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 3

82. (v11-103-13) Marganetsning qaysi oksid(lar)i amfoter xususiyatga ega?
1) MnO; 2) Mn_2O_3; 3) MnO_2;
4) MnO_3; 5) Mn_2O_7.
A) 5 B) 4, 5 C) 1, 2, 3, 4 D) 3

83. (v13-101-11) Quyidagi qaysi oksidlar ta'sirida lakmus qog'ozi qizil rangga kiradi?
1) CO; 2) SO_3; 3) N_2O; 4) NH_3; 5) NO;
6) Cr_2O_3; 7) N_2O_3; 8) SO_2.
A) 2, 5, 7 B) 1, 3, 5 C) 1, 4, 6 D) 2, 7, 8

84. (v13-115-4) SO_2 ning sanoatda olinishini aniqlang.
A) $H_2S + H_2SO_{4(kons)} \rightarrow SO_2 + H_2O$
B) $FeS_2 + O_2 \rightarrow Fe_2O_3 + SO_2$
C) $Na_2O_3 + HCl \rightarrow NaCl + SO_2 + H_2O$
D) $Cu + H_2SO_{4(kons)} \rightarrow CuSO_4 + SO_2 + H_2O$

85. (v16-106-29) Tegishli metalning kislorodda yonishi natijasida hosil bo'ladigan oksid(lar)ni belgilang.
1) CaO; 2) Na_2O; 3) Li_2O; 4) K_2O; 5) CuO.
A) 2, 3, 5 B) 3, 4, 5 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 4

86. (v17-102-20) Quyidagi CuOH, H_2SiO_3 gidroksidlarni parchalashda qanday oksidlar olinadi?
A) Cu_2O, SiO_2
B) CuO, SiO_2
C) Cu_2O, SiO_3
D) Cu_2O, Si_2O_3

87. (v17-105-28) Bariy oksidi sanab o'tilgan qaysi modda bilan ta'sir etishi mumkin:
a) suv; b) nitrat kislota; c) kaliy oksidi;
d) mis (II) oksidi; e) kalsiy gidroksidi; f) fosfat kislota; j) oltingugurt (IV) oksidi?
A) a, b, f, j B) a, c, f, e
C) d, b, c, j D) a, d, f, e

88. (v17-107-16) Suvda erimadigan oksidlarni belgilang.
1) CaO; 2) CuO; 3) Na_2O; 4) ZnO; 5) Li_2O;
6) SiO_2.
A) 2, 5, 6 B) 2, 4, 6
C) 1, 3, 6 D) 1, 3, 4

89. (v17-110-22) Azot (II) oksidiga xlor gazi ta'sir ettirilganda qanday modda hosil bo'ladi?
A) NO_2Cl_2
B) NOCl
C) N_2OCl_4
D) $NO(Cl_2)_2$

90. (v17-113-28) 3-davrdagi qaysi nometallning yuqori oksidi kislotali xususiyatni jadal namoyon qiladi?
A) SO_2 B) SiO_2
C) Cl_2O_7 D) Cl_2O

91. (v17-116-7) Yonib turgan alangani qaysi gazlar o'chirishi mumkin?
A) H_2S, CO_2 B) SO_2, SO_3
C) NH_3, HCl D) CO, CO_2

92. (v17-121-34) Kadmiy, galliy, gafniylarning yuqori oksidlari formulalarini aniqlang:
A) CdO, Ga_2O_3, HfO_2
B) CdO_2, Ga_2O_7, Hf_2O_3
C) Cd_2O, Ga_2O, HfO
D) Cd_2O_3, GaO, HfO_3

54. Asoslar

1. (96-1-46) Quyidagi moddalarning qaysi biri amfoter xossaga ega?
1) $Cr(OH)_3$; 2) $Fe(OH)_2$; 3) CH_3CHO; 4) Alanin.
A) 1 va 2 B) 1 va 3 C) 1 va 4
D) 2 va 3 E) 3 va 4

2. (96-3-34) Qaysi qatordagi hamma gidroksidlar ishqor bilan reaksiyaga kirishadi?
A) $Fe(OH)_2$, $Zn(OH)_2$, $Al(OH)_3$
B) $Mg(OH)_2$, $Cr(ON)_3$, $Al(OH)_3$
C) $Zn(OH)_2$, $Al(OH)_3$, $Cr(OH)_3$
D) $Fe(OH)_3$, $Fe(OH)_2$, $Al(OH)_3$
E) $Fe(OH)_3$, $Cr(OH)_3$, $Zn(OH)_2$

3. (96-4-20) Qaysi reaksiya natijasida asos hosil bo'ladi?
1) $Na[Al(OH)_4] + HCl \rightarrow$;
2) $CaO + CO_2 + H_2O \rightarrow$;
3) $Be + NaOH \rightarrow$;
4) $Cr_2S_3 + H_2O \rightarrow$;
5) $SO_2 + NaOH \rightarrow$;
6) $NH_3 + HNO_3 \rightarrow$.
A) 1, 4 B) 1, 5 C) 2, 6
D) 2, 5 E) 3, 6

4. (96-4-30) Qaysi moddalar natriy ishqor bilan reaksiyaga kirishadi?
1) Si; 2) Cu; 3) SiO_2; 4) FeO.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 4
D) 2, 4 E) 1, 3

5. (96-13-19) Qaysi kationlar ishqor mo'l bo'lgan holda cho'kma hosil qiladi?
1) Fe^{3+}; 2) Al^{3+}; 3) Ca^{2+}; 4) Mg^{2+};
5) NH^{4+}; 6) Zn^{2+}; 7) Cu^{2+}.
A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 7 C) 1, 5, 7
D) 2, 4, 6 E) 4, 5, 6

6. (96-13-27) Quyidagi moddalarning qaysilari ishqor eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi?
1) CO; 2) CO_2; 3) HCN; 4) CH_4.
A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 3, 5, 6
C) 1, 3, 5, 6 D) 2, 4, 5, 6
E) 3, 4, 5, 6

7. (96-13-61) Gidroksidlarning qaysi biri amfoter xossaga ega?
A) $Ca(OH)_2$ B) $Fe(OH)_3$
C) $Fe(OH)_2$ D) $Mg(OH)_2$
E) LiOH

8. (97-6-9) Quyidagi gidroksidlarni asoslik xossasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) CsOH; 2) KOH; 3) $Fe(OH)_3$; 4) $Ca(OH)_2$;
5) $Fe(OH)_2$.
A) 1, 2, 4, 5, 3 B) 5, 3, 4, 1, 2
C) 3, 5, 4, 2, 1 D) 1, 2, 3, 4, 5
E) 1, 2, 4, 3, 5

9. (97-6-36) Quyidagi moddalarning qaysilari KOH bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) osh tuzi; 2) suv; 3) karbonat angidrid;
4) mis (II) sulfat; 5) ortofosfat kislota;
6) ammoniy gidroksid; 7) vodorod sulfid;
8) kumush xlorid; 9) magniy gidroksid;
10) kalsiy gidrokarbonat.
A) 1, 2, 4, 5, 8, 9 B) 2, 4, 6, 7, 8, 10
C) 1, 3, 5, 7, 9, 10 D) 4, 5, 7, 9, 10
E) 3, 4, 5, 6, 7, 10

10. (97-6-47) Quyidagi gidroksidlarni asoslik xossasi ortib borish tartibida joylashtiring:
1) Qalay (II) gidroksid; 2) Kaliy gidroksid;
3) Alyuminiy gidroksid; 4) Kalsiy gidroksid;
5) Magniy gidroksid.
A) 2, 4, 5, 3, 1 B) 3, 4, 5, 1, 2
C) 4, 2, 3, 5, 1 D) 3, 1, 5, 4, 2
E) 3, 4, 5, 1, 2

11. (97-8-17) Quyidagi gidroksidlarning qaysilari amfoter xossaga ega?
1) bariy gidroksid; 2) berilliy gidroksid;
3) rux gidroksid; 4) xrom (III) gidroksid;
5) alyuminiy gidroksid; 6) magniy gidroksid.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5
C) 3, 4, 5, 6 D) 1, 3, 5, 6
E) 2, 4, 5, 6

12. (97-10-139) Quyidagi asoslarning qaysinisi eng kuchli?
A) litiy gidroksid B) natriy gidroksid
C) kaliy gidroksid D) rubidiy gidroksid
E) seziy gidroksid

13. (98-1-12) Gidroksidlarda asoslik xossa ortib borish tartibini ko'rsating.
1) bariy gidroksid; 2) berilliy gidroksid;
3) stronsiy gidroksid; 4) kalsiy gidroksid;
5) magniy gidroksid.
A) 1, 2, 5, 4, 3 B) 1, 2, 4, 5, 3
C) 2, 1, 4, 5, 3 D) 2, 5, 4, 3, 1
E) 3, 4, 5, 1, 2

14. (98-1-82) Qaysi moddalar ishqor eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi?
1) benzol; 2) etanol; 3) fenol;
4) geksen; 5) etilxlorid.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4
D) 3, 5 E) 2, 5

15. (98-8-20) Massasi 16,4 g bo'lgan natriy fosfatini olish uchun qancha natriy gidroksid (g) kerak bo'ladi?
A) 14,0 B) 13,0 C) 8,0
D) 12,8 E) 12,0

16. (98-8-30) Eng kuchsiz gidroksidni ko'rsating.
A) rubidiy gidroksid B) natriy gidroksid
C) kaliy gidroksid D) litiy gidroksid
E) fransiy gidroksid

17. (98-8-42) Temir (III) gidroksid quyidagi moddalardan qaysilari bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) kaliy xlorid; 2) xlorid kislota; 3) ammoniy rodanid; 4) nitrat kislota; 5) suv.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3
D) 2, 3, 5 E) 2, 3, 4

18. (99-3-40) Quyidagi metallar gidroksidlarini asosli xossalari ortib borish tartibida joylashtiring:
1) magniy; 2) kremniy (IV); 3) kaliy;
4) alyuminiy; 5) kalsiy.
A) 2, 1, 4, 5, 3 B) 4, 2, 3, 1, 5
C) 1, 2, 4, 5, 3 D) 5, 2, 4, 1, 3
E) 3, 5, 2, 4, 1

19. (99-5-54) Qanday moddalar asoslar deyiladi?
A) metall atomlari va kislota qoldiqlaridan tashkil topgan moddalar
B) bitta yoki bir necha gidroksoguruhlar bilan birikkan metall atomlaridan tashkil topgan moddalar
C) biri kislorod bo'lgan ikki elementdan tashkil topgan moddalar
D) kislota va tuzlarning ta'sirida o'z rangini o'zgartiradigan moddalar
E) qizdirganda tuz va suv hosil qiluvchi murakkab moddalar

20. (99-10-20) Quyidagi qaysi moddalarning eritmalariga ishqor ta'sir ettirilsa, cho'kma hosil bo'ladi?
1) natriy sulfat; 2) xlorid kislota; 3) mis (II) sulfat; 4) alyuminiy xlorid; 5) temir (III) sulfat; 6) ammoniy xlorid; 7) temir (II) sulfat.
A) 3, 5 va 7
B) 1, 3, 4 va 6
C) 3, 4, 7 va 6
D) 2, 3, 5 va 7
E) 3, 4, 5 va 7

21. (00-6-38) Natriy gidroksid eritmasi bilan qaysi moddalar reaksiyaga kirishadi?
1) propanol; 2) fenol; 3) pirokatexin;
4) etanol; 5) o-krezol; 6) metanol.
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 6 C) 2, 3, 5
D) 3, 5, 6 E) 1, 4, 5

22. (00-10-23) Qaysi qatordagi moddalar ishqor bilan reaksiyaga kirishganda vodorod ajralib chiqadi?
A) Al, Mg, Be
B) Zn, Ca, Be
C) Zn, Si, Al
D) faqat Al
E) Al va Zn

23. (02-8-57) Quyidagi gidroksidning qaysilarini ularning tegishli oksidlariga suv ta'sir ettirib olish mumkin?
1) rux gidroksid; 2) alyuminiy gidroksid;
3) xrom (III) gidroksid; 4) berilliy gidroksid;
5) kalsiy gidroksid; 6) bariy gidroksid;
7) qo'rg'oshin (II) gidroksid; 8) rubidiy gidroksid.
A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 5, 6, 8
D) 1, 2, 3, 7 E) faqat 8

24. (02-9-13) Quyidagi moddalarning qaysilari kalsiy gidroksid bilan reaksiyaga kirishmaydi?
1) uglerod (IV) oksid; 2) xlorid kislota;
3) xrom (III) oksid; 4) bariy gidroksid;
5) ortofosfat kislota; 6) xrom (VI) oksid.
A) 1, 2, 5 B) 3, 4, 6
C) 2, 5 D) 1, 2, 3, 5, 6
E) faqat 4

25. (04-1-295) Quyidagi metallar gidroksidlarini asosli xossalari kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) seziy; 2) kaliy; 3) temir (III);
4) kalsiy; 5) temir (II).
A) 1, 2, 4, 5, 3 B) 3, 5, 4, 2, 1
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 2, 4, 5, 3, 1
E) 3, 5, 2, 1, 4

26. (04-1-559) Yuqori temperaturada 9,8 g mis (II) gidroksidning parchalanishidan 7,028 g mis (II) oksid hosil bo'lsa, reaksiya unumi qancha bo'ladi (% hisobida)?
A) 67,5 B) 85,5 C) 87,85
D) 93,75 E) 81,25

27. (04-1-566) 49 g mis (II) gidroksid tayyorlash uchun quyidagi sxema
$Cu \rightarrow Cu(NO_3)_2 \rightarrow Cu(OH)_2$ bo'yicha 62% li nitrat kislotadan necha gramm olish kerak?
A) 39,5 B) 79 C) 118,5
D) 101,6 E) 203,2

28. (05-1-288) Qaysi qatordagi gidroksidlar ishqor bilan reaksiyaga kirishadi?
A) temir (II), rux va alyuminiy gidroksidlari
B) mis, xrom (III) va alyuminiy gidroksidlari
C) berilliy, alyuminiy, xrom (III) gidroksidlari
D) rux, alyuminiy, kalsiy gidroksidlari
E) temir (II), xrom (III) va rux gidroksidlari

29. (05-1-322) Qaysi qatordagi metallardan hech bir ishqor eritmalarida erimaydi?
A) kaliy, magniy, xrom
B) alyuminiy, rux, magniy
C) alyuminiy, oltin, temir
D) kalsiy, berilliy, marganes
E) natriy, mis, kalsiy

30. (v4-102-10) Quyidagi gazlarning qaysilari ishqor bilan reaksiyaga kirishadi?
1) azot (I) oksid; 2) azot (IV) oksid;
3) azot (II) oksid; 4) etan; 5) uglerod (IV) oksid.
A) 2, 5 B) 3, 5
C) 1, 2 D) 1, 3, 4
E) 2, 3

31. (v4-105-9) Quyidagi gidroksidlardan qaysilari faqat asosli xossaga ega?
1) ammoniy gidroksid; 2) kaliy gidroksid;
3) berilliy gidroksid; 4) kalsiy gidroksid;
5) rux gidroksid; 6) temir (II) gidroksid;
7) xrom (III) gidroksid; 8) qalay (II) gidroksid.
A) 2, 3, 5, 7 B) 3, 5, 7, 8
C) 1, 3, 5, 7 D) 1, 2, 4, 6
E) 2, 4, 6, 8

32. (v4-123-24) Kaliy gidroksid eritmasi bilan reaksiyaga kirisha olmaydigan moddalar qatorini ko'rsating.
1) kremniy (IV) oksid; 2) benzil spirt; 3) etil xlorid; 4) natriy gidroksid; 5) kremniy;
6) etanol; 7) alyuminiy; 8) rux oksid;
9) magniy gidroksid; 10) fenol.
A) 2, 4, 6, 9 B) 1, 3, 5, 7, 8, 10
C) 2, 4, 5, 9 D) 5, 6, 7, 8
E) 1, 4, 5, 6

33. (v5-116-2) Quyidagi asoslardan qaysi biri eng kuchli?
1) NH_4OH; 2) $Ba(OH)_2$; 3) $Be(OH)_2$;
4) $Mg(OH)_2$; 5) $Zn(OH)_2$.
A) 1 B) 5 C) 4 D) 3 E) 2

34. (v5-118-2) Quyidagi moddalarning qaysilari $Ba(OH)_2$ bilan reaksiyaga kirishadi?
1) BeO; 2) CO_2; 3) Na_2O;
4) CO; 5) HNO_2; 6) NH_4OH.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 5 C) 3, 4, 5
D) 3, 5, 6 E) 2, 4, 6

35. (v5-131-24) Quyidagi gidroksidlarning qaysilarini oksidlariga suv ta'sir ettirib olish mumkin?
1) KOH; 2) NaOH; 3) $Cu(OH)_2$; 4) $Pb(OH)_2$;
5) $Ca(OH)_2$; 6) $Cr(OH)_3$; 7) LiOH.
A) 1, 2, 3 B) 3, 4, 5, 7
C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 5, 7
E) 3, 4, 6

36. (v5-132-24) Laboratoriyada magniy metalidan foydalanib magniy gidroksid hosil qilish uchun qaysi moddalar juftligi ishlatiladi?
A) MgO, NaOH
B) O_2, KOH
C) O_2, H_2O
D) HCl, KOH
E) $MgCl_2$, NaOH

37. (v7-112-10) Natriy gidroksid eritmasi qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
A) mis, mis (II) gidroksid
B) nitrat kislota, natriy xlorid
C) alyuminiy, alyuminiy gidroksid
D) kumush, kumush (I) oksid

38. (v14-115-25) Moddalardan qaysi bir(lar)i ishqorda eriydi, lekin konsentrlangan nitrat kislotada erimaydi?
1) alyuminiy; 2) ammoniy karbonat; 3) soda;
4) rux oksidi; 5) mis (II) nitrat.
A) 3, 4 B) 2, 3, 5
C) faqat 3 D) 1, 5

55. Kislotalar

1. (96-1-32) Quyidagi aralashmalarning qaysi biri suyultirilgan xlorid kislotada eriydi?
1) temir va mis; 2) alyuminiy va magniy;
3) kalsiy va bariyning karbonati; 4) bariy sulfat va kaliy xlorid.
A) 1 va 2 B) 1 va 3 C) 2 va 3
D) 2 va 4 E) 3 va 4

2. (96-5-35) Sulfat kislota eritmasi quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishadi?
1) LiOH; 2) HNO_2; 3) CH_3COOH; 4) FeO;
5) Na_2SO_4; 6) K_2CO_3; 7) SO_3; 8) Au.
A) 1, 4, 6 B) 1, 2, 3 C) 4, 5, 6
D) 5, 7, 8 E) 2, 3, 8

3. (96-8-103) Qaysi metallar konsentrlangan nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishmaydi?
A) Ca, Mg, Zn B) Cu, Hg, Al
C) Fe, Cr, Al D) Fe, Pb, Au
E) Pb, Cu, Ag

4. (96-8-104) Kislotalarning qaysi biri eng kuchli?
A) HClO B) $HClO_3$ C) $HClO_2$
D) $HClO_4$ E) H_2SO_3

5. (96-8-105) Kislotalarning umumiy xossalari qaysi xususiyatlari bilan bog'liq?
A) suvda oson erishi
B) dissotsialanish xususiyati
C) molekulasida vodorod atomi mavjudligi
D) kislota qoldig'iga ega bo'lishi
E) dissotsialanganda vodorod ionini ajralishi

6. (96-13-62) Kislotalarning qaysi biri kuchsizroq?
A) H_2CO B) H_2SiO_3
C) H_2SnO_3 D) H_2GeO_3
E) H_2PbO_3

7. (96-15-34) Suyultirilgan nitrat kislota quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishadi?
1) NaOH; 2) H_2SO_4; 3) $Fe(NO_3)_2$; 4) ZnO;
5) $Ca(NO_3)_2$; 6) NO_2; 7) $ZnCO_3$; 8) Pt.
A) 1, 4, 7 B) 1, 2, 3 C) 4, 5, 6
D) 6, 7, 8 E) 2, 5, 8

8. (97-1-55) Qaysi metallarning oksidlari amfoter xususiyatga ega?
1) Mg; 2) Be; 3) Ca; 4) Al; 5) Zn; 6) Ba;
7) Cr (III valentli bo'lganda); 8) Rb.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5
C) 3, 4, 5, 8 D) 2, 4, 6, 7
E) 2, 4, 5, 7

9. (97-2-56) Qaysi reaksiyada konsentrlangan nitrat kislota qo'llanilgan?
A) $Cu + HNO_3 \rightarrow Cu(NO_3)_2 + NO + H_2O$
B) $Mg + HNO_3 \rightarrow Mg(NO_3)_2 + NO + H_2O$
C) $Pb + HNO_3 \rightarrow Pb(NO_3)_2 + NO_2 + H_2O$
D) $Zn + HNO_3 \rightarrow Zn(NO_3)_2 + NH_4NO_3 + H_2O$
E) $Mg + HNO_3 \rightarrow Mg(NO_3)_2 + NH_4NO_3 + H_2O$

10. (97-4-4) Sanoatda nitrat kislota ishlab chiqarish uchun qaysi moddalar xomashyo bo'la oladi?
A) azot va vodorod B) ammiak va havo
C) azot va suv D) ammiak va suv
E) havo va suv

11. (97-7-21) Quyidagi kislotalarning qaysi biri nordon tuz hosil qila olmaydi?
A) sulfat kislota B) fosfat kislota
C) sulfid kislota D) karbonat kislota
E) perxlorat kislota

12. (97-10-58) Quyida keltirilgan kislotalarning qaysilari nordon tuz hosil qila oladi?
1) xlorid; 2) Sirka; 3) sulfid; 4) fosfat;
5) Yodid; 6) karbonat; 7) sulfit kislotalar.
A) 3, 4, 6, 7 B) 2, 3, 5, 6
C) 2, 3, 4, 5 D) 3, 4, 5, 6
E) 4, 5, 6, 7

13. (97-10-80) Qaysi kislota metallar bilan reaksiyaga kirishganda, vodorod ajralib chiqmaydi?
A) H_3PO_4 B) H_3SO_4 C) HNO_3
D) HCl E) H_2S

14. (97-10-95) Kislotadan bir xil massali vodorod olish uchun ikkinchi guruh metallarining qaysi biri eng kam massada olinadi?
A) Ca
B) Sr
C) Zn
D) Ba
E) Mg

15. (97-10-104) Keltirilgan metallarning qaysi biri suyultirilgan sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishadi?
A) Ag B) Cu C) Hg D) Fe E) Pt

16. (97-12-6) 0,47 g ortofosfat kislota eritmasini neytrallash uchun 12,2% li KOH eritmasidan (ρ = 1,12 g/ml) 4 ml sarflandi. Kislota konsentratsiyasini (%) hisoblang.
[36 31 19 15 R]
A) 98 B) 49 C) 68 D) 41 E) 24,5

17. (98-1-51) HBr quyidagilarning qaysi biri bilan reaksiyaga kirishadi?
A) sulfat kislota (kons)
B) kaliy yodid
C) fosfor (III) xlorid
D) natriy ortofosfat (kons)
E) kremniy (IV) oksid

18. (98-10-61) $HClO \rightarrow HClO_2 \rightarrow HClO_3 \rightarrow \rightarrow HClO_4$ qatorida kislotalar kuchi qanday o'zgaradi?
A) kuchayadi
B) kamayadi
C) o'zgarmaydi
D) kislotalar konsentratsiyasiga bog'liq
E) temperaturaga bog'liq

19. (98-11-33) Quyida keltirilganlardan metafosfat kislotani ko'rsating.
A) H_3PO_4 B) HPO_3
C) $H_2P_2O_6$ D) $H_4P_2O_7$
E) H_2PO_3

20. (98-11-36) Qaysi kislota indikatorning rangini o'zgartira olmaydi?
A) vodorod ftorid B) silikat kislota
C) karbonat kislota D) sirka kislota
E) gipoxlorit kislota

21. (98-12-16) Qaysi metallar jufti suyultirilgan xlorid kislota va konsentrlangan sulfat kislota bilan ta'sirlashi oladi?
A) magniy, simob B) mis, simob
C) rux, kumush D) kalsiy, rux
E) kumush, temir

22. (99-10-16) Quyidagi moddalarning qaysilari suvda eriganda, kislota hosil bo'ladi?
1) natriy xlorid; 2) kalsiy oksid; 3) ammiak;
4) vodorod xlorid; 5) etanol; 6) vodorod sulfid.
A) 4 va 6 B) 1 va 3 C) 2 va 6
D) 3 va 5 E) 3 va 6

23. (99-10-22) Potash va Bertole tuzi qaysi kislotalarning tuzi hisoblanadi?
A) karbonat kislota va perxlorat kislota
B) karbonat kislota va xlorat kislota
C) sulfit kislota va xlorat kislota
D) karbonat kislota va perxlorat kislota
E) sulfit kislota va xlorat kislota

24. (01-1-24) Kislotalar bilan reaksiyasi portlashga olib keladigan metallarni ko'rsating.
1) natriy; 2) bariy; 3) berilliy; 4) kaliy;
5) kalsiy; 6) magniy.
A) 1, 2, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 3, 6
D) 2, 5, 6 E) 1, 3, 4

25. (01-2-33) Ushbu qatorda H_2SO_3–H_2SeO_3–H_2TeO_3 kislotalarning kuchi qanday o'zgaradi?
A) kamayadi B) ortadi
C) o'zgarmaydi D) maksimumdan o'tadi
E) minimumdan o'tadi

26. (01-8-41) Javoblardan xlorid kislota, kaliy gidroqsid, kumush nitratlarning har biri bilan reaksiyaga kirisha oladigan moddani tanlang.
A) ammoniy karbonat B) alyuminiy
C) rux gidroqsid D) natriy atsetat
E) alyuminiy oksid

27. (02-7-13) Qaysi metalning yuqori oksidi kislotalar bilan ta'sirlanmaydi?
1) temir; 2) marganes; 3) simob;
4) mis; 5) xrom.
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 2, 5
D) 1, 3 E) 4, 5

28. (02-7-30) Ko'p negizli kislotalarni ko'rsating.
1) sirka kislota; 2) benzol kislota; 3) oksalat kislota; 4) stearin kislota; 5) adipin kislota;
6) olein kislota; 7) kahrabo kislota; 8) akril kislota.
A) 1, 2, 4 B) 2, 5, 8 C) 3, 5, 7
D) 2, 6, 7 E) 3, 7, 8

29. (02-9-1) Xlorid kislota qaysi oksidlar bilan reaksiyaga kirishishi mumkin?
1) kremniy (IV) oksid; 2) oltingugurt (IV) oksid; 3) mis (II) oksid; 4) uglerod (IV) oksid;
5) xrom (II) oksid; 6) xrom (III) oksid;
7) xrom (VI) oksid; 8) azot (I) oksid.
A) 1, 2, 4 B) 3, 5, 6
C) 3, 5, 6, 7 D) 1, 2, 4, 7, 8
E) 1, 3, 5, 6

30. (02-9-44) Kislotalar kabi dissotsialansa oladigan gidroksidlarini ko'rsating.
1) xrom (III) gidroksid; 2) qo'rg'oshin (II) gidroksid; 3) magniy gidroksid; 4) qalay (II) gidroksid.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2 E) 1, 2, 4

31. (02-12-74) Quyidagi metallarning qaysi biri suyultirilgan H_2SO_4 bilan reaksiyaga kirishadi?
A) Cu B) Pb C) Ag D) Zn E) Pt

32. (03-1-17) Quyidagilardan qaysilari ham ishqor eritmasi, ham konsentrlangan HNO_3 bilan reaksiyaga kirishadi?
A) CO_2, $Al(OH)_3$, Zn
B) $KHSO_4$, $KHCO_3$, Fe
C) Al, CaO, Cu(OH)
D) CO_2, Al, H_2S
E) SO_2, H_2S, $Zn(OH)_2$

33. (03-2-10) Quyidagi jumlaning yetmagan qismini toping. Nitrat kislotadan boshqa kislotalarning suvdagi eritmalari ... hisobiga reaksiyaga kirishadi.
A) barcha metallar bilan vodorod kationlari
B) passiv metallar bilan vodorod kationlari
C) aktiv metallar bilan vodorod kationlari
D) aktiv metallar bilan kislota qoldig'i
E) barcha metallar bilan kislota qoldig'i

34. (03-2-11) Quyidagi jumlaning yetmagan qismini toping. Sulfat va nitrat kislotalar hisobiga reaksiyaga kirishadi.
A) barcha metallar bilan kislota qoldig'i
B) aktiv metallar bilan kislota qoldig'i tarkibidagi markaziy atom
C) aktiv metallar va ba'zi passiv metallar bilan kislota qoldig'i tarkibidagi markaziy atom
D) aktiv metallar va ba'zi passiv metallar bilan vodorod kationlari
E) barcha metallar bilan vodorod kationlari va kislota qoldig'i

35. (03-3-64) Al, Cu va Mg lardan iborat qotishmani to'liq eritmaga o'tkazish uchun qaysi kislota eritmasidan foydalaniladi?
A) $HCl_{(suyul)}$ B) $H_2SO_{4(suyul)}$
C) $HCl_{(kons)}$ D) $HNO_{3(suyul)}$
E) CH_3COOH

36. (03-5-15) Bor qaysi elektrolitlarning suyultirilgan eritmalarida eriydi?
A) xlorid kislota B) sulfat kislota
C) natriy gidroksid D) nitrat kislota
E) ftorid kislota

37. (03-5-20) Ortoborat kislota qaysi organik modda bilan reaksiyaga kirishganda, yashil rang berib yonadigan modda hosil qiladi?
A) etil spirt B) butil spirt
C) glitserin D) benzol
E) toluol

38. (03-5-25) Qo'rg'oshin konsentrlangan sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishganda, uning qaysi birikmasi hosil bo'ladi?
A) $Pb(HSO_4)_2$ B) $PbSO_4$
C) PbS D) $Pb(SO_4)_2$
E) $PbSO_3$

39. (03-6-51) Qaysi kislota qattiq holatda bo'ladi?
A) ortofosfat B) sulfat
C) silikat D) selenat
E) konsentrlangan nitrat kislota

40. (03-6-58) Termik parchalanish natijasida asosli va kislotali oksid hosil qiladigan moddani aniqlang.
A) mis karbonat B) natriy nitrat
C) alyuminiy nitrat D) kaliy xlorat
E) natriy xlorid

41. (03-12-15) 130 g nitrat kislota bilan tarkibida 80 g o'yuvchi natriy bo'lgan eritmaning o'zaro ta'siridan qancha (g) natriy nitrat olish mumkin?
A) 95 B) 85 C) 170
D) 160 E) 150

42. (04-1-347) Sulfat kislota eritmasi quyidagi modalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishmaydi?
1) litiy gidroksid; 2) nitrit kislota; 3) sirka kislota; 4) temir (II) oksid; 5) natriy sulfat;
6) kaliy karbonat; 7) sulfat angidrid; 8) oltin.
A) 1, 4, 6
B) 2, 5, 8
C) 3, 5, 8
D) 2, 3, 5
E) 2, 3, 5, 8

43. (04-1-596) Qaysi metalning yuqori oksidi kislotalar bilan ta'sirlashadi?
1) temir; 2) marganes; 3) simob;
4) mis; 5) xrom.
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 2, 5
D) 1, 3, 4 E) 4, 5

44. (04-1-659) Suyultirilgan nitrat kislota quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishmaydi?
1) natriy ishqor; 2) sulfat kislota; 3) temir (II) nitrat; 4) rux oksid; 5) kalsiy nitrat;
6) azot (IV) oksid; 7) rux karbonat; 8) platina.
A) 1, 3, 4, 7 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 5, 6, 7 D) 1, 6, 7, 8
E) 2, 5, 6, 8

45. (04-1-690) Taklif etilgan moddalar orasidan pirofosfat kislotani aniqlang.
A) H_3PO_4 B) HPO_3
C) $H_2P_2O_6$ D) $H_4P_2O_7$
E) H_2PO_3

46. (05-1-344) Quyidagi kislotalarning qaysi birida kislotalik xususiyat kuchliroq?
A) karbonat B) sulfat
C) perxlorat D) borat
E) silikat

47. (v4-111-6) Javoblardan kumush nitrat, kaliy gidroksid, xlorid kislotalarning har biri bilan reaksiyaga kirisha oladigan moddani tanlang.
A) rux gidroksid
B) alyuminiy oksid
C) ammoniy karbonat
D) natriy atsetat
E) alyuminiy

48. (v4-123-10) Xlorid kislota bilan metallarning reaksiyasi natijasida qaysi tuzlarni olish mumkin?
1) alyuminiy xlorid; 2) temir (III) xlorid; 3) temir (II) xlorid; 4) rux xlorid; 5) mis (II) xlorid; 6) kumush xlorid.
A) 3, 5, 6 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 4
D) 4, 5, 6 E) 1, 2, 3, 4

49. (v6-115-11) Qaysi kislotalar ikki asosli?
1) xlorid; 2) sirka; 3) sulfid; 4) gipofosfit; 5) yodid; 6) karbonat; 7) sulfit.
A) 3, 4, 7 B) 1, 2, 5 C) 4, 5, 6 D) 3, 6, 7

50. (v6-116-10) Qaysi metall konsentrlangan nitrat kislota bilan xona haroratida reaksiyaga kirishadi?
A) platina B) oltin
C) mis D) alyuminiy

51. (v6-118-25) 1,2 mol fosfit kislotani to'la neytrallash uchun 0,6 molyarli natriy gidroksiddan qancha hajm (l) kerak bo'ladi?
A) 6 B) 4 C) 2,5 D) 4,8

52. (v6-120-10) Platina qanday kislota(lar) bilan ta'sirlashganda, $H_2[PtCl_6]$ hosil bo'ladi?
A) H_2SO_4 B) HCl
C) HCl va HNO_3 D) HNO_3

53. (v7-104-10) Qaysi metall konsentrlangan nitrat kislota bilan xona haroratida reaksiyaga kirishmaydi?
A) kalsiy B) rux
C) mis D) platina

54. (v7-107-19) $B(OH)_3$; $CO(OH)_2$; $NO(OH)$; $NO_2(OH)$ Ushbu qatorda birikmalarning kislotalik xossasi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) kamayadi
C) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi
D) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi

55. (v7-110-19) Cl(OH); ClO(OH); $ClO_2(OH)$. Ushbu qatorda birikmalarning kislotalik xossasi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) kamayadi
C) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi
D) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi

56. (v7-111-19) Cl(OH); Br(OH); I(OH). Ushbu qatorda birikmalarning kislotalik xossasi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) kamayadi
C) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi
D) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi

57. (v7-115-19) $ClO_2(OH)$; $BrO_2(OH)$; $IO_2(OH)$. Ushbu qatorda birikmalarning kislotalik xossasi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) kamayadi
C) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi
D) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi

58. (v9-118-25) Berilgan moddalarning qaysilari xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishadi?
1) NaCl; 2) $Zn(OH)_2$; 3) CaO; 4) $AgNO_3$; 5) H_3PO_4; 6) H_2SO_4; 7) K_2CO_3.
A) 2, 4, 5, 6
B) 1, 4, 6
C) 1, 2, 3
D) 2, 3, 4, 7

59. (v11-102-8) $B(OH)_3$; $CO(OH)_2$; NO(OH); $NO_2(OH)$ birikmalarning kislotalik xossasi qanday o'zgaradi?
A) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi
B) kamayadi
C) ortadi
D) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi

60. (v11-110-4) Cl(OH); Br(OH); I(OH) birikmalarning kislotalik xossasi qanday o'zgaradi?
A) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi
B) kamayadi
C) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi
D) ortadi

61. (v12c-122-28) Qaysi metallmas konsentrlangan sulfat kislotada erimaydi?
A) Si B) S C) P D) C

62. (v12c-126-19) Xlorid kislota qaysi qatordagi barcha moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
A) NH_3, $C_2H_5NH_2$, CH_3COONa
B) CH_3NH_2, NO, C_2H_5OH
C) C_2H_6, CH_3OH, CH_3NH_2
D) C, NH_3, $C_2H_5NH_2$

63. (v16-102-36) H_3BO_3 ning tuzlari ... nomlanadi.
A) boran B) borat C) buran D) burat

64. (v16-103-7) Qizdirilgan konsentrlangan nitrat kislotaning bor bilan reaksiyasini ko'rsating.
A) $B + 2HNO_3 \rightarrow BN + O_2 + H_2O$
B) $B + 6HNO_3 \rightarrow B_2H_6 + 6NO + 6O_2$
C) $B + 3HNO_3 \rightarrow HBO_2 + 3NO + H_2O$
D) $B + 3HNO_3 \rightarrow H_3BO_3 + NO_2$

65. (v16-103-27) Mavjud bo'lmagan moddaning formulasini ko'rsating.
A) $H_2S_2O_3$ B) H_2SO_4
C) H_2SO_3 D) H_3SO_3

66. (v17-102-33) Qaysi kislota kuchsiz kislorodli va nordon tuz hosil qila oladi?
A) arsenat B) sirka
C) sulfid D) fosfin

67. (v17-123-12) Kislotalarning umumiy xususiyatlarini namoyon qilish uchun sulfat kislota qaysi moddalar bilan ta'sirlashadi?
A) SiO_2 B) Cu C) KOH D) C

56. Tuzlar

1. (96-1-14) Temir (III) gidrofosfat hosil bo'lishi uchun temir (III) gidroksid bilan ortofosfat kislota qanday mol nisbatda aralashtirilishi kerak?
A) 3:1 B) 1:1 C) 1:2
D) 3:2 E) 2:3

2. (96-1-27) Quyidagi moddalarning qaysi biri qizdirilganda qoldiqsiz parchalanadi?
A) natriy nitrat
B) kumush nitrat
C) kaliy gidrokarbonat
D) ammoniy karbonat
E) ammoniy bixromat

3. (96-3-44) 80 g 10% li natriy gidroksid ($\rho = 1$) eritmasidan 2,24 l vodorod sulfid o'tkazish natijasida qanday tuz va qancha massada (g) hosil bo'ladi (gidroliz hisobga olinmasin)?
[$A_r(Na) = 23$, $A_r(S) = 32$]
A) NaHS; 5,6 B) Na_2S; 5,6
C) NaHS; 7,8 D) Na_2S; 7,8
E) Na_2S; 15,6

4. (96-5-40) Nordon tuz hosil bo'lishi uchun 28 g kaliy gidroksid bo'lgan eritmaga necha gramm vodorod sulfid yutilishi kerak?
A) 34 g B) 8,5 g C) 25,5 g
D) 32 g E) 17 g

5. (96-13-92) 1,4 g fosfat kislotani H_3PO_4 neytrallash uchun 1,2 g natriy ishqori sarflandi Bunda qanday tuz hosil bo'lgan va uning massasi necha gramm?
[$A_r(P) = 31$, $A_r(Na) = 23$]
A) Na_3PO_4; 2,3 B) Na_2HPO_4; 2,67
C) NaH_2PO_4; 2,49 D) Na HPO; 2,13
E) NaH_2PO_4; 1,95

6. (97-4-14) Yosh ximik qo'lida mis va xlorid kislota bor. U qanday qilib mis (II) xlorid olishi mumkin?
A) mis bilan xlorid kislotani o'zaro reaksiyaga kirishtiriladi
B) olib bo'lmaydi
C) mis havoda qattiq qizdiriladi va hosil bo'lgan oksid kislotada eritiladi
D) mis avval suv bilan, so'ngra xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishtiriladi
E) xlorid kislotani qizdirib, xlor olinadi va mis bilan xlor o'zaro ta'sir ettiriladi

7. (97-4-84) "Alyuminiy gidroksisulfat" nomi qaysi formulaga mos keladi?
A) $KAl(SO_4)_2$ B) $Al(OH)SO_4$
C) $KAlO_2$ D) $Al(OH)_2Cl$
E) $Al_2(HPO_4)_3$

8. (97-5-67) Qaysi moddalar ta'sirlashuvi natijasida tuz hosil bo'ladi?
A) $SO_2 + H_2O \rightarrow$ B) $SiO_2 + CO_2 \rightarrow$
C) $CaO + FeO \rightarrow$ D) $Na_2O + CO_2 \rightarrow$
E) $Na_2O + H_2O \rightarrow$

9. (97-5-68) Alyuminiy digidroksosulfat formulasini ko'rsating.
A) $Al(SO_4)_3$
B) $Al(OH)SO_4$
C) $[Al(OH)_2]_2SO_4$
D) $Al(HSO_4)_3$
E) $KAl(SO_4)_2$

10. (97-7-64) Qo'rg'oshin (II) nitrat termik parchalanganda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
A) qo'rg'oshin (II) nitrit, kislorod
B) qo'rg'oshin, azot (IV) oksid
C) qo'rg'oshin (II) oksid, azot (IV) oksid, kislorod
D) qo'rg'oshin (IV) oksid, azot (IV) oksid
E) qo'rg'oshin, azot (IV) oksid, kislorod

11. (97-9-23) 8,96 litr vodorod sulfid yondirilganda hosil bo'lgan sulfit angidridni 25% natriy gidroksidning 50 ml eritmasiga (zichligi 1,28 g/ml) yuttirilganda, qanday tuzning necha foizli eritmasi hosil bo'ladi?
[$M_r(SO_2) = 64$, $M_r(NaOH) = 40$, $M_r(H_2S) = 34$].
1) Na_2SO_3; 2) 41,6; 3) $NaHSO_4$; 4) 46,4; 5) $NaHSO_3$
A) 1 va 2 B) 4 va 5 C) 3 va 4
D) 2 va 5 E) 2 va 3

12. (97-9-60) Kalsiy gidroksid eritmasidan gaz modda o'tkazilganda, oldin cho'kma tushadi, so'ng erib ketadi. Reaksiyaga qanday gaz olinganligi va qanday moddalar hosil bo'lganligini ko'rsating:
1) karbonat angidrid; 2) sulfat angidrid; 3) xlor; 4) kalsiy xlorid; 5) ohaktosh; 6) kalsiy gidroksoxlorid; 7) kalsiy sulfat; 8) kalsiy gidrosulfit; 9) kalsiy gidrokarbonat.
A) 1, 5, 9 B) 2, 4, 6 C) 2, 7, 8
D) 3, 4, 6 E) 1, 7, 8

13. (97-10-76) Asosli tuz hosil qilishi mumkin bo'lgan moddalar juftini ko'rsating.
A) $Ba(OH)_3$, HCl
B) $BaCO_3$, HCl
C) $BaCl_3$, H_3SO_4
D) BaO, KNO_3
E) $Ba(NO_3)_2$, $MgCl_2$

14. (97-10-168) 200 g 20% li sulfat kislota bilan qancha hajmdagi ammiak reaksiyaga kirishib, ammoniy sulfat hosil qiladi?
A) 5,6 B) 11,2 C) 15,4
D) 18,3 E) 22,4

15. (97-10-192) Digidroortofosfat qoldig'i bo'lgan tuzni aniqlang.
A) Na_2HPO_4 B) Na_3PO_4
C) $CaHPO_4$ D) $Ca(H_2PO_4)_2$
E) $Al_2(HPO_4)_3$

16. (97-11-102) Tarkibida 196 g ortofosfat kislota bo'lgan eritmaga tarkibida 280 g o'yuvchi kaliy bo'lgan eritma qo'shildi. Eritmada qanday tuzlar hosil bo'lganligini aniqlang.
A) kaliy digidroortofosfat
B) kaliy gidroortofosfat va kaliy digidroortofosfat
C) kaliy ortofosfat
D) kaliy gidroortofosfat na kaliy ortofosfat
E) kaliy digidroortofosfat va kaliy ortofosfat

17. (97-12-1) Kaliy karbonat bilan reaksiyaga kirishadigan moddalarning tartib raqamlarini ko'rsating.
1) osh tuzi; 2) vodorod oksid; 3) bariy xlorid; 4) vodorod xlorid; 5) kalsiy karbonat; 6) magniy sulfat; 7) temir (III) gidroksid; 8) sulfat kislota; 9) kalsiy gidroksid; 10) vodorod sulfid.
A) 1, 3, 5, 6, 8, 10 B) 2, 4, 6, 7, 9, 10
C) 3, 4, 5, 6, 7, 8 D) 1, 4, 5, 8, 9, 10
E) 2, 3, 4, 6, 8, 9

18. (97-12-7) Qaysi modda parchalanganda, erkin azot hosil bo'ladi?
A) ammoniy dixromat B) kaliy nitrat
C) ammoniy ortofosfat D) ammoniy sulfat
E) nitrat kislota

19. (97-12-11) Tarkibida 24,5 g fosfat kislota bo'lgan eritma orqali 11,2 l (n. sh.) ammiak o'tkazildi. Bunda qanday tuz hosil bo'ladi?
A) ammoniy digidroortofosfat
B) ammoniy gidroortofosfat
C) ammoniy ortofosfat
D) ammoniy pirofosfat
E) ammoniy metafosfat

20. (98-8-11) Qaysi reaksiyada asosli tuz hosil bo'lishi mumkin?
A) $KOH + H_2SO_4 \rightarrow$
B) $Ca(OH)_2 + H_3PO_4 \rightarrow$
C) $KOH + CO_2 \rightarrow$
D) $NaOH + H_3PO_4 \rightarrow$
E) $KOH + H_2S \rightarrow$

21. (98-8-12) Qanday modda yordamida $Mg(HSO_3)_2$ o'rga tuzga aylanishi mumkin?
A) magniy gidroksid B) sulfit angidrid
C) natriy gidrosulfit D) sulfit kislota
E) natriy sulfit

22. (98-8-18) $Ca(HCO_3)_2$ ning eritmasiga qanday modda qo'shilganda $CaCO_3$ hosil bo'ladi?
A) kalsiy gidroksid B) xlorid kislota
C) suv D) uglerod (IV) oksid
E) kalsiy xlorid

23. (98-8-19) Massa ulushi 20% bo'lgan 300 g natriy ishqori eritmasi orqali vodorod sulfid o'tkazildi. Nordon tuz hosil qilish uchun vodorod sulfiddan qancha hajm (l, n. sh.) kerak?
A) 44,8 B) 28,0 C) 22,4
D) 33,6 E) 37,2

24. (98-8-26) Kaliy nitratni qizdirganda uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 16,6 B) 16,3 C) 14,0
D) 15,8 E) 14,5

25. (98-12-24) Karbonatlar quyidagi reaksiyalarning qaysilarida qatnashadi?
1) $CaCO_3 + HCl \rightarrow$; 2) $CaCO_3 + MgCl_2 \rightarrow$;
3) $Na_2CO_3 + Ca(NO_3)_2 \rightarrow$; 4) $MgCO_3 \xrightarrow{t^\circ}$;
5) $K_2CO_3 + SiO_2 \xrightarrow{t^\circ}$; 6) $BaCO_3 + NaCl \rightarrow$
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 2, 5, 6
C) 1, 3, 4, 6 D) 2, 4, 5, 6
E) 1, 3, 4, 5

26. (99-1-17) Moddaning tarkibi $Al(OH)SO_4$ formula bilan ifodalangan bo'lsa, bu modda qaysi turga kirishini aniqlang.
A) tuzlar B) kislotalar
C) gidroksidlar D) qo'sh tuz
E) gidroksotuz

27. (99-3-21) 448 ml oltingugurt (IV) oksid (n. sh.) natriy gidroksidning 100 ml 0,2 M eritmasi orqali o'tkazilganda hosil bo'lgan tuzni va uning massasini (g) aniqlang.
A) 2,08, $NaHSO_3$ B) 4,18, Na_2SO_3
C) 2,08 Na_2SO_3 D) 3,35, $NaHSO_3$
E) 4,1 Na_2SO_3

28. (99-3-41) Grafik formulalardan qaysi biri natriy digidrofosfatga tegishli?



A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

29. (99-4-11) 1 mol kalsiy digidrofosfat bilan 2 mol kalsiy gidroksid orasidagi reaksiya natijasida qanday tuz hosil bo'ladi?
A) kalsiy fosfat
B) kalsiy gidrofosfat
C) kalsiy gidroksofosfat
D) kalsiy digidrofosfat
E) Moddalar orasida reaksiya oxirigacha bormaydi.

30. (99-4-18) Qaysi birikma portlovchi modda (porox) tayyorlashda ishlatiladi?
A) natriy karbonat B) potash
C) kaliyli selitra D) o'yuvchi kaliy
E) osh tuzi

31. (99-4-56) Moddalarning qaysilari gidrofosfat deb nomlanadi?
1) Na_3PO_4; 2) K_2HPO_4; 3) NaH_2PO_4;
4) $(NH_4)_2HPO_4$; 5) LiH_2PO_4; 6) $CaHPO_4$.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 4
D) 3, 4, 5 E) 2, 4, 6

32. (99-4-57) Qaysi javobda quyida nomi keltirilgan moddalarning formulalari tegishli tartibda ko'rsatilgan?
1) magniy karbonat; 2) temir (II) gidrokarbonat; 3) temir (III) sulfat; 4) kalsiy gidroftorfosfat.
A) $CaHPO_4$, $Fe_2(SO_4)_3$, $MgCO_3$, $Fe(HCO_3)_2$
B) $MgCO_3$, $Fe_2(SO_4)_3$, $Fe(HCO_3)_2$, $Ca(H_2PO_4)_2$
C) $MgCO_3$, $Fe(HCO_3)_2$, $Fe_2(SO_4)_3$, $CaHPO_4$
D) $MgCO_3$, $CaHPO_4$, $Fe(HCO_3)_2$, $Fe_2(SO_4)_3$
E) $Fe(HCO_3)_2$, $Ca_3(PO_4)_2$, $FeSO_4$, $MgCO_3$

33. (99-6-88) Sulfat ion bilan eriydigan va karbonat ion bilan erimaydigan tuzlar hosil qiladigan ionlarni tanlang:
1) magniy; 2) temir (II); 3) rux; 4) bariy;
5) natriy; 6) ammoniy; 7) marganes (II).
A) 1, 2, 4, 7 B) 1, 3, 6, 7
C) 4, 5, 6, 7 D) 1, 2, 3, 7
E) 3, 4, 6, 7

34. (00-3-55) 3,1 g kalsiy fosfatdan ajratib olingan fosfor kislorod atmosferasida oksidlandi, bu oksid kaliy gidroksidning 20 ml hajmdagi 1,5 molyar eritmasida eritildi. Eritmada qanday mahsulotlar bo'ladi?
1) kaliy fosfat; 2) kaliy gidrofosfat; 3) kaliy digidrofosfat.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2 E) 2, 3

35. (00-9-44) Kalsiy gidroksid eritmasi orqali karbonat angidrid o'tkazilganda, massasi 81 g bo'lgan kalsiy gidrokarbonat olindi. Eritma orqali o'tkazilgan CO_2 ni n. sh. da o'lchangan hajmini (l) aniqlang.
A) 22,4 B) 11,2 C) 5,6
D) 33,6 E) 44,8

36. (01-1-7) Qaysi modda parchalanganda, tarkibida kislorod bo'lgan uchta modda hosil bo'ladi?
A) ammoniy dixromat
B) malaxit
C) kumush nitrat
D) ammoniy nitrit
E) mis kuporosi

37. (01-2-43) Natriy nitrat qizdirilganda qanday modda hosil bo'ladi?
A) $NaNO_2$ B) Na_2O C) Na_3N
D) Na_2O_2 E) Na

38. (01-6-36) Qizdirilganda quyidagilarning qaysi biridan kislorod ajratib olish mumkin?
A) temir (III) sulfat B) potash
C) temir (II) karbonat D) temir (III) nitrat
E) pirit

39. (01-6-54) Quyidagi ammoniyli tuzlardan qaysi biri parchalanganda, kislorod hosil bo'ladi?
A) NH_4ClO_4 B) $(NH_4)_2SO_4$
C) $(NH_4)_2S_2O_8$ D) NH_4NO_2
E) $(NH_4)_2Cr_2O_7$

40. (01-10-29) Qaysi tuzlarni ikki usulda – xlorid kislota hamda xlor ta'sirida olish mumkin?
1) temir (II) xlorid; 2) alyuminiy xlorid;
3) temir (III) xlorid; 4) rux xlorid.
A) 2, 4 B) 2, 3 C) 2, 3, 4
D) 1, 2 E) 1, 4

41. (02-2-34) Quyidagi metallardan qaysilarining karbonati metall va metallmas oksidlarini, nitrati ikki xil oksid va kislorod, boshqasi esa erkin metall, oksid va kislorod hosil qilib parchalanadigan elementlarni tanlang:
1) magniy; 2) kalsiy; 3) natriy; 4) qo'rg'opgan; 5) mis; 6) simob.
A) 1, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 4, 5, 6
C) 1, 2, 3, 5, 6 D) 1, 3, 4, 6
E) 1, 3, 6

42. (02-3-62) Quyidagi moddalar orasidan kaliy xloridi xloridi gipoxloriti, xloridi va perxloratlari ketma-ketligini ko'rsating:
1) $KClO_2$; 2) KClO; 3) $KClO_3$; 4) $KClO_4$; 5) KCl.
A) 3, 4, 2, 5, 1 B) 3, 5, 4, 2, 1
C) 3, 5, 2, 4, 1 D) 4, 3, 2, 5, 1
E) 5, 3, 2, 1, 4

43. (02-3-68) O'rta aso. nordon va qo'shaloq tuzlarni tegishli tartibda ko'rsating:
1) $Mg(OH)Cl$; 2) $MgCO_3$;
3) $KHSO_4$; 4) K_2NaPO_4.
A) 4, 3, 2, 1 B) 3, 4, 1, 2
C) 4, 3, 1, 2 D) 3, 4, 2, 1
E) 2, 1, 3, 4

44. (02-9-3) Qaysi formulalarni yozishda xatoga yo'l qo'yilgan?
1) $(AlOH)_3(PO_4)_2$; 2) NH_4MgPO_4; 3) $Al(HSO_3)_3$;
4) $Al(OH)_2SO_4$; 5) $AlOHCO_3$; 6) $(CuOH)_3(PO_4)_2$;
7) $Cu(OH)_2SO_4$; 8) $FeOHNO_3$.
A) 2, 4, 8 B) 1, 3, 7 C) 6, 7
D) 4, 6 E) 1, 2, 4, 6, 8

45. (02-9-7) Kaliy gidrofosfati kaliy fosfatga aylantirish uchun qaysi moddadan foydalanish mumkin?
1) kaliy gidroksid; 2) ortofosfat kislota;
3) fosfor (V) oksid; 4) kaliy oksid; 5) kaliy xlorid.
A) 1 B) 2 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 1, 2, 3, 4, 5

46. (02-11-21) Qaysi tuzni uning eritmalarini bug'latib olish mumkin?
A) $MgCl_2$ B) KCl C) $AlCl_3$
D) $BeCl_2$ E) $ZnCl_2$

47. (02-11-54) Qaysi moddalar qizdirilganda, barcha mahsulotlar oksidlar sinfiga taalluqli bo'ladi?
1) ammoniy karbonat; 2) ammoniy nitrat; 3) malaxit; 4) ammoniy nitrat; 4) ammoniy dixromat.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 4, 5 E) 3, 5

48. (03-7-75) Qaysi kislotalardan nordon tuz olish mumkin?
1) xlorid; 2) sirka; 3) sulfid; 4) ortofosfat; 5) yodid; 6) karbonat; 7) sulfit.
A) 2, 3, 5, 6 B) 3, 4, 6, 7
C) 1, 3, 4, 5 D) 3, 4, 5, 6
E) 4, 5, 6, 7

49. (04-1-168) Natriy gidroksidning fosfat kislota bilan neytrallanish reaksiyasida kislotaning ekvivalent massasi 32,66 g/mol bo'lsa, qanday tuz hosil bo'ladi:
1) natriy fosfat; 2) natriy gidrofosfat; 3) natriy digidrofosfat.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 2, 3 E) 1, 2, 3

50. (04-1-187) Quyidagi yozilgan formulalarning qaysilari mavjud bo'lmagan moddalarga to'g'ri keladi?
1) $(AlOH)_3(PO_4)_2$; 2) NH_4MgPO_4; 3) $Al(HSO_3)_3$; 4) $Al(OH)_2SO_4$; 5) $AlOHCO_3$; 6) $(CuOH)_3(PO_4)_3$; 7) $Cu(OH)_3SO_4$; 8) $FeOHNO_3$.
A) 2, 4, 8 B) 1, 3, 7
C) 4, 6, 7 D) 1, 3, 5, 6, 7 E) 1, 2, 4, 8, 8

51. (04-1-354) Kalsiy gidroksid eritmasi orqali mo'l miqdorda uglerod (IV) oksid o'tkazilganda, 1 eritmada qanday o'zgarish kuzatiladi.
A) o'zgarish kuzatilmaydi
B) sariq rangli cho'kma tushadi
C) eritma tiniqlashadi
D) qizil rangli cho'kma tushadi
E) eritma xiralashib, so'ngra tiniqlashadi

52. (04-1-361) 1 mol kalsiy gidroksid bilan 1 mol kalsiy digidrofosfat orasidagi reaksiya natijasida qanday tuz hosil bo'ladi?
A) kalsiy fosfat
B) kalsiy gidrofosfat
C) kalsiy gidroksofosfat
D) kalsiy digidrofosfat
E) Moddalar orasida reaksiya oxirigacha bormaydi

53. (04-1-372) Quyidagilar orasidan rangli kation yoki anionlarni tanlang:
1) perxlorat; 2) fosfat; 3) permanganat; 4) perbromat; 5) xromat; 6) silikat; 7) mis (II); 8) temir; 9) alyuminiy; 10) xrom; 11) dixromat.
A) 1, 3, 5, 6, 9, 10 B) 3, 5, 7, 8, 10, 11
C) 2, 3, 6, 7, 9, 10 D) 1, 3, 4, 5, 7, 11
E) 2, 4, 5, 6, 10, 11

54. (04-1-512) 1,47 g fosfat kislota H_3PO_4 ni neytrallash uchun 1,8 g natriy ishqori sarflandi. Bunda qanday tuz hosil bo'lganligini va uning massasini toping.
A) Na_3PO_4, 4,4 B) Na_3HPO_4, 2,13
C) NaH_2PO_4, 2,49 D) Na_2PO_4, 2,46
E) NaH_2PO_4, 1,95

55. (04-1-516) Nordon tuz hosil bo'lishi uchun 28 g kaliy gidroksid bo'lgan eritmaga necha mol vodorod sulfid yutilishi kerak?
A) 34 B) 8,5 C) 2,55
D) 0,5 E) 17

56. (04-1-574) Normal tuz hosil bo'lishi uchun 28 g kaliy gidroksid bo'lgan eritmaga necha gramm vodorod sulfid yuttirilishi kerak?
A) 1 B) 2 C) 8,5 D) 0,4 E) 0,25

57. (04-1-630) 80 g 10% li natriy gidroksid (ρ = 1 g/ml) eritmasidan 2,24 l vodorod sulfid o'tkazish natijasida qanday tuzdan qancha mol hosil bo'ladi? (gidroliz hisobga olinmasin)
A) NaHS, 5,6 B) Na_2S, 0,1
C) NaHS, 7,8 D) Na_2S, 7,8
E) Na_2S, 0,2

58. (04-1-697) Natriy digidropirofosfat tuzining formulasini toping.
A) $Na_4P_2O_7$ B) $Na_2H_2P_2O_7$
C) $NaH_3P_2O_7$ D) $Na_3HP_2O_7$
E) Na_4HPO_4

59. (04-1-705) Kalsiy gidroksid eritmasi orqali karbonat angidrid o'tkazilganda, massasi 20,25 g bo'lgan kalsiy gidrokarbonat olindi. Eritma orqali o'tkazilgan CO_2 ning n. sh. da o'lchangan hajmini (l) aniqlang.
A) 22,4 B) 11,2 C) 5,6
D) 33,6 E) 73,2

60. (04-1-722) Kalsiy gidroksid eritmasi orqali qanday gazdan 2,24 l (n. sh.) o'tkazilganda, 10 g oq cho'kma hosil bo'ladi?
A) kislorod B) ammiak
C) vodorod D) uglerod (IV) oksid
E) uglerod (II) oksid

61. (05-1-352) Quyidagilardan qaysi birini qizdirilganda kislorod ajratib olish mumkin?
A) temir (III) sulfat B) potash
C) temir (II) karbonat D) temir (III) nitrat
E) pirit

62. (05-1-381) Quyidagi moddalarning qaysi biri qizdirilganda qoldiqsiz parchalanadi?
A) natriy nitrat
B) kumush nitrat
C) kaliy gidrokarbonat
D) ammoniy karbonat
E) ammoniy bixromat

63. (05-1-389) Qaysi elementning nitrati parchalanganda u azot (IV) oksid, metall oksidi va kislorodga ajraladi?
1) kumush; 2) alyuminiy; 3) magniy; 4) simob; 5) rux; 6) kalsiy.
A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 5 C) 2, 5, 6
D) 1, 4, 6 E) 1, 3, 4

64. (v4-102-24) 1,47 g fosfat kislota H_3PO_4 ni neytrallash uchun 1,2 g natriy ishqori sarflandi. Bunda qanday tuz hosil bo'lganligini va uning massasini toping.
A) NaH_2PO_4; 2,49 B) NaH_2PO_4; 1,95
C) Na_3PO_4; 4,4 D) Na_3PO_4; 2,46
E) Na_2HPO_4; 2,13

65. (v4-104-24) Kaliy gidrokarbonat karbonatga o'tganda, uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 28,7 B) 31,0 C) 63,1 D) 36,9 E) 42,5

66. (v4-109-26) Berilgan moddalarni kaliy xloridi, xlorati, gipoxloriti, xloriti va perxloratlari ketma-ketligi tartibida ko'rsating.
1) $KClO_2$; 2) KClO; 3) $KClO_3$; 4) $KClO_4$; 5) KCl.
A) 3, 5, 2, 4, 1 B) 5, 3, 2, 1, 4
C) 3, 4, 2, 5, 1 D) 4, 3, 2, 5, 1
E) 5, 3, 2, 4, 1

67. (v4-113-10) Normal tuz hosil bo'lishi uchun 28 g kaliy gidroksid bo'lgan eritmaga necha mol vodorod sulfid yuttirilishi kerak?
A) 8,5 B) 0,25 C) 1 D) 0,4 E) 2

68. (v4-115-10) Asos, nordon, qo'shaloq va o'rta tuzlarni tegishli tartibda ko'rsating.
1) $Mg(OH)Cl$; 2) $MgCO_3$;
3) $KHSO_4$; 4) K_2NaPO_4.
A) 1, 3, 2, 4 B) 2, 1, 3, 4
C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 4, 3, 2
E) 1, 3, 4, 2

69. (v4-124-27) 80 g 5% li natriy gidroksid (ρ = 1 g/ml) eritmasidan 2,24 l vodorod sulfid o'tkazish natijasida qanday tuzdan qancha gramm hosil bo'ladi? (gidroliz hisobga olinmasin)
A) NaHS; 7,8 B) Na_2S; 0,2
C) NaHS; 5,6 D) Na_2S; 7,8
E) Na_2S; 0,1

70. (v5-102-26) Bertolle tuzi marganes dioksidi ishtirokida qizdirilganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
A) kaliy xlorid, kislorod
B) kaliy xlorid, xlor, kislorod
C) kaliy perxlorat, kaliy xlorid
D) kaliy xlorat, xlor
E) reaksiya bormaydi

71. (v5-104-29) ... metallar nitratlari parchalanishidan metall oksidi, kislorod va azot (IV) oksidi hosil bo'ladi.
A) Ag bilan Pt orasidagi
B) Li bilan Al orasidagi
C) Mg dan chapdagi
D) Cu dan o'ngdagi
E) Mg bilan Cu orasidagi

72. (v5-107-29) Qo'rg'oshin (II) nitrat yuqori temperaturada qizdirilishi natijasida uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 4,83 B) 19,24 C) 32,63
D) 25,38 E) 37,46

73. (v5-115-10) Bir xil massadagi ammiak bilan vodorod sulfid o'zaro ta'sirlashuvidan qanday modda hosil bo'ladi?
A) nordon tuz B) kompleks tuz
C) o'rta tuz D) qo'shaloq tuz
E) asosli tuz

74. (v5-120-18) Tarkibida 10 g NaOH bo'lgan eritmaga 30 g 30% li H_2SO_4 eritmasi qo'shilganda qanday tuz necha gramm hosil bo'ladi?
A) o'rta tuz 17,7 B) nordon tuz, 30
C) o'rta tuz, 13,0 D) asos tuz, 17,7
E) nordon tuz, 11,0

75. (v5-125-29) Qaysi metall nitratlari parchalanishidan metall, kislorod va azot (IV) oksidi hosil bo'ladi?
A) kumush nitrat B) kaliy nitrat
C) natriy nitrat D) magniy nitrat
E) mis (II) nitrat

76. (v5-135-18) Natriy nitrat qizdirilganda to'la parchalansa, uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 23,5 B) 16,82 C) 18,82
D) 14,11 E) 9,41

77. (v6-110-29) 200 g 20% li sulfat kislota bilan qanday hajmdagi (l) ammiak reaksiyaga kirishib, ammoniy sulfat hosil qiladi?
A) 11,2 B) 5,6 C) 18,3 D) 15,4

78. (v6-112-34) 50 g 2,4% li natriy digidrofosfat va 200 g 0,4% li natriy gidroksid eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan mahsulotning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 1,2 B) 0,65 C) 0,95 D) 0,01

79. (v6-114-12) Quyidagi qaysi moddalar termik parchalanganda karbonat angidrid ajramaydi?
1) dolomit; 2) kaliy permanganat; 3) malaxit; 4) gips; 5) marmar; 6) ichimlik sodasi.
A) 2, 4, 6 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 3, 5

80. (v6-118-12) Termik parchalanish natijasida ikki xil tuz hosil qiladigan moddani aniqlang.
A) malaxit B) mis karbonat
C) kaliy xlorat D) alyuminiy nitrat

81. (v6-127-34) 200 ml 0,05 molyarli kaliy gidrofosfat va 2,19% li 50 g xlorid kislota eritmalari aralashtirildi. Eritmada qanday moddalar mavjud bo'ladi?
A) kaliy fosfat, xlorid kislota
B) fosfat kislota, kaliy xlorid, xlorid kislota
C) kaliy gidro- va digidrofosfatlar
D) kaliy digidrofosfat, xlorid kislota, kaliy gidroksid

82. (v7-112-28) 56 l (n. sh.) oltingugurt (IV) oksid kaliy gidroksidning 6,25 l 0,4 molyarli eritmasi orqali o'tkazilganda hosil bo'lgan tuzning formulasini va uning massasini (g) aniqlang.
A) $KHSO_3$; 275 B) K_2SO_3; 395
C) $KHSO_3$; 300 D) K_2SO_3; 300

83. (v7-121-10) Quyidagi qaysi nitratlar termik parchalanishi natijasida metallar hosil bo'ladi?
A) mis va ammoniy nitratlar
B) simob (II) va kumush nitratlar
C) kalsiy va kaliy nitratlar
D) temir (III) va natriy nitratlar

84. (v9-103-13) Natriy digidropirofosfat hosil qilish uchun natriy gidroksid va pirofosfat kislota qanday (mol) nisbatda reaksiyaga kirishish lozim?
A) 1,5:1 B) 2:1 C) 3:1 D) 4:1

85. (v9-104-36) Qaysi modda(lar) qizdirilganda asosli va kislotali oksidlar hosil bo'ladi?
1) kaliy nitrat; 2) alyuminiy gidroksid;
3) kalsiy karbonat; 4) mis (II) nitrat.
A) 1, 2 B) 3 C) 2 D) 3, 4

86. (v9-105-15) 6,72 l (n. sh.) vodorod sulfid mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda hosil bo'lgan gaz 80 ml 20% li (ρ = 1,25 g/ml) natriy gidroksid bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida olingan tuz(lar)ni va u(lar)ning massasini (g) aniqlang.
A) Na_2SO_4, 28,4; $NaHSO_4$, 12
B) Na_2SO_3, 37,8
C) Na_2SO_3, 25,2; $NaHSO_3$, 10,4
D) $NaSO_3$, 12,6; $NaHSO_3$, 20,8

87. (v9-107-24) Natriy gidroksidning 200 g 20% li eritmasiga necha litr (n. sh.) oltingugurt (VI) oksid shimdirilganda (reaksiyada o'rta tuz hosil boqadi) natriy gidroksid konsentratsiyasi 9,09% ni tashkil etadi?
A) 11,2 B) 20 C) 5,6 D) 40

88. (v9-109-36) 2 mol kalsiy gidroksid bilan 1 mol kalsiy digidrofosfat orasidagi reaksiya natijasida qanday tuz hosil bo'ladi?
A) kalsiy fosfat
B) kalsiy digidrofosfat
C) kalsiy gidrofosfat
D) kalsiy gidroksofosfat

89. (v9-111-2) 56 l (n. sh.) vodorod sulfid mod miqdordagi kislorodda yondirilganda hosil bo'lgan gaz 600 g 30% li natriy gidroksid eritmasiga shimdirilishidan hosil bo'lgan tuz(lar)ning formulasi va massa ulush(lar)ini (%) aniqlang.
1) Na_2SO_3; 2) $NaHSO_3$; 3) $NaHSO_4$; 4) NaHS;
a) 25,2; b) 33; c) 41,4; d) 6,8.
A) 3-b, 4-b B) 1-a, 2-c
C) 1-b, 2-d D) 1-c

90. (v9-114-17) Natriy gidroksidning 400 g 20% li eritmasiga necha gramm oltingugurt (VI) oksid shimdirilganda (reaksiyada o'rta tuz hosil bo'ladi) natriy gidroksid konsentratsiyasi 10% ni tashkil etadi?
A) 58,5 B) 36,4 C) 19,6 D) 27,5

91. (v9-116-8) Kaliy gidropirofosfat hosil qilish uchun kaliy gidroksid va pirofosfat kislota qanday (mol) nisbatda reaksiyaga kirishishi kerak?
A) 4:1 B) 2:1 C) 3:1 D) 1:1

92. (v9-117-3) 32,8 g fosfit kislota (H_3PO_3) va 112 g 25% li kaliy gidroksid orasidagi reaksiya natijasida olingan mahsulot(lar) formulasi va massasini (g) aniqlang.
A) K_2HPO_3, 15,8; KH_2PO_3, 36
B) KH_2PO_3, 12; K_2HPO_3, 47,4
C) K_2HPO_3, 31,6; KH_2PO_3, 24
D) K_2HPO_3, 78,4

93. (v9-117-20) 1 mol kalsiy gidroksid bilan 2 mol kalsiy gidrofosfat orasidagi reaksiya natijasida qanday tuz hosil bo'ladi?
A) kalsiy digidrofosfat
B) kalsiy gidroksofosfat
C) kalsiy gidrofosfat
D) kalsiy fosfat

94. (v11-101-24) Quyidagilar orasidan faol (aktiv) metallarning tuzlari berilgan qatorni ko'rsating:
1) PbS; 2) NaOH; 3) $CaSO_4$;
4) FeS_2; 5) $FeSO_4$; 6) $CaCO_3$;
7) $BaSO_4$; 8) NaCl; 9) KCl.
A) 3, 5, 8, 9 B) 1, 3, 6, 7, 8
C) 3, 6, 7, 8, 9 D) 2, 3, 6, 7, 8

95. (v11-119-32) Quyidagilar orasidan faol (aktiv) metallarning tuzlari berilgan qatorni ko'rsating:
1) PbS; 2) NaOH; 3) $CaSO_4$;
4) FeS_2; 5) $FeSO_4$; 6) $CaCO_3$;
7) $BaSO_4$; 8) NaCl; 9) KCl.
A) 3, 5, 8, 9 B) 2, 3, 6, 7, 8
C) 3, 6, 7, 8, 9 D) 1, 3, 6, 7, 8

96. (v12z-203-4) 1 mol alyuminiy digidrofosfat va 2 mol alyuminiy gidroksid reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) alyuminiy fosfat
B) alyuminiy gidroksofosfat
C) alyuminiy gidrofosfat
D) alyuminiy fosfat va alyuminiy gidrofosfat

97. (v12z-205-25) 1 mol kaliy digidrofosfat va 1 mol kaliy gidroksid reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) kaliy gidrofosfat
B) kaliy fosfat
C) kaliy gidrofosfat va fosfat kislota
D) kaliy fosfat va kaliy gidrofosfat

98. (v12z-206-7) 1 mol magniy gidroksofosfat va 1 mol fosfat kislota reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) magniy digidrofosfat
B) magniy gidrofosfat
C) magniy fosfat va magniy gidroksofosfat
D) magniy fosfat

99. (v12z-210-29) 1 mol alyuminiy digidroksofosfat va 1 mol fosfat kislota reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) alyuminiy gidrofosfat
B) alyuminiy gidroksofosfat
C) alyuminiy fosfat va alyuminiy gidroksofosfat
D) alyuminiy fosfat

100. (v12z-212-9) 1 mol alyuminiy digidroksosulfat va 2 mol sulfat kislota reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) alyuminiy gidrosulfat
B) alyuminiy gidroksosulfat va alyuminiy sulfat
C) alyuminiy sulfat
D) alyuminiy gidroksosulfat

101. (v12z-213-3) Qo'rg'oshin (II) nitrat qattiq qizdirilganda uning massasi necha foizga kamayadi?
A) 4,8 B) 37,46 C) 32,63 D) 50

102. (v12z-215-23) 1 mol alyuminiy digidroksosulfat va 1 mol sulfat kislota reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) alyuminiy gidroksosulfat va alyuminiy sulfat
B) alyuminiy gidrosulfat
C) alyuminiy gidroksosulfat
D) alyuminiy sulfat

103. (v12z-227-6) 1 mol bariy gidroksofosfat va 1 mol fosfat kislota reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) bariy fosfat
B) bariy fosfat va bariy gidroksofosfat
C) bariy gidrofosfat
D) bariy digidrofosfat

104. (v12z-236-36) 2,24 l (n. sh.) ammiak gazi ortofosfat kislotaning 49% li 20 g eritmasiga shimdirilganda necha gramm qanday tuz hosil bo'ladi?
A) 128; ammoniy fosfat
B) 0,1; ammoniy gidrofosfat
C) 11,5; ammoniy gidrofosfat
D) 11,5; ammoniy digidrofosfat

105. (v12z-260-19) 2 mol natriy digidrofosfat va 3 mol natriy gidroksid reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) natriy fosfat va natriy gidrofosfat
B) natriy gidrofosfat
C) natriy gidrofosfat va fosfat kislota
D) natriy fosfat

106. (v12c-101-27) 2 mol alyuminiy digidrofosfat va 3 mol alyuminiy gidroksid reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) alyuminiy fosfat va alyuminiy gidrofosfat
B) alyuminiy gidrofosfat
C) alyuminiy fosfat
D) alyuminiy gidroksofosfat

107. (v12c-102-3) 1 mol natriy digidrofosfat va 1 mol natriy gidroksid reaksiyasi natijasida qanday tuz(lar) hosil bo'ladi?
A) natriy fosfat va natriy gidrofosfat
B) natriy gidrofosfat va fosfat kislota
C) natriy gidrofosfat
D) natriy fosfat

A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 4, 5, 6 D) 1, 4, 7

78. (v6-102-34) Ishqoriy metall gidridi 1000 g suvda eritilganda 60,48 l (n. sh.) gaz modda ajralib, 10,2% li eritma hosil bo'ldi, metalni toping.
A) natriy B) litiy
C) kaliy D) seziy

79. (v6-116-25) 2,82 g ishqoriy metall oksidi 45,18 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 7% ni tashkil qildi. Metall oksidini aniqlang.
A) K_2O B) Li_2O C) Cs_2O D) Na_2O

80. (v6-117-34) Ishqoriy metall gidridi 237 g suvda eritilganda 11,2 l (n. sh.) gaz modda ajralib, 5% li eritma hosil bo'ldi, metalni toping.
A) kaliy B) natriy C) litiy D) seziy

81. (v6-121-25) 9,3 g ishqoriy metall oksidi 200 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 5,73% ni tashkil qilsa, oksid tarkibidagi metalni toping.
A) kaliy B) litiy C) seziy D) natriy

82. (v6-136-29) Ammiak bug'larining 2,75 mol suyultirilgan natriy bilan reaksiyasida hosil bo'ladigan gazning hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 28 B) 14 C) 30,8 D) 22,4

83. (v7-101-12) Natriy silikat, natriy karbonat va kaliy sulfid eritmalarini bir-biridan farqlash uchun qaysi eritmadan foydalaniladi?
A) litiy gidroksid B) natriy xlorid
C) vodorod xlorid D) natriy gidroksid

84. (v7-107-10) Ishqoriy elementlar ... – elementlar oilasiga mansub.
A) p B) s C) f D) d

85. (v7-107-20) 2% li natriy gidroksid eritmasini tayyorlash uchun 200 g suvga qancha (g) natriy gidrid qo'shish kerak?
A) 1,67 B) 4,28 C) 2,42 D) 3,84

86. (v7-108-24) 2,8 g ishqoriy metall suvda eritilganda 4,48 l (n. sh.) gaz ajralib 10% li eritma hosil bo'lsa, reaksiya uchun necha gramm suv olingan?
A) 103,2 B) 86,4 C) 7,2 D) 93,6

87. (v7-118-24) 11,7 g ishqoriy metall suvda eritilganda, 3,36 l (n. sh.) gaz ajralib 15% li eritma hosil bo'lsa, reaksiya uchun necha gramm suv olingan?
A) 95,2 B) 117,4 C) 100,6 D) 112

88. (v8-110-23) 378 g suvda ishqoriy metall gidridi eritilganda 22,4 l (n. sh.) gaz ajralib, 10% li eritma hosil bo'ldi. Qaysi metall gidridi ishlatilgan?
A) Na B) Li C) K D) Cs

89. (v9-101-3) 0,8 g metall gidridi suv bilan ta'sirlashganda 2,24 l (n. sh.) vodorod hosil bo'ldi. Bu moddani aniqlang.
A) litiy gidrid
B) rubidiy gidrid
C) natriy gidrid
D) kaliy gidrid

90. (v9-108-3) 13,8 g natriyning suv bilan o'zaro ta'siridan olingan vodoroddan necha litr (n. sh.) vodorod sulfid olish mumkin?
A) 10,2 B) 13,44 C) 6,72 D) 4,48

91. (v9-109-23) 195 g natriy peroksidning uglerod (IV) oksid bilan reaksiyasida olingan gaz qancha hajm (l, n. sh.) SO_2 ni oksidlariga (Pt, V_2O_5 ishtirokida) yetarli bo'ladi?
A) 56 B) 84 C) 28 D) 112

92. (v9-111-26) 300 ml 0,5 molyarli natriy gidroksid eritmasiga kaliy metali tushirildi. Hosil bo'lgan eritmani neytrallash uchun 0,4 molyarli sulfat kislota eritmasidan 500 ml sarflandi. Kaliy metalning massasini (g) hisoblang.
A) 19,5 B) 15,6 C) 9,75 D) 3,9

93. (v9-111-28) Ishqoriy metallarning qaysi biri havodagi azot bilan to'g'ridan-to'g'ri reaksiyaga kirishib nitrid hosil qiladi?
A) alyuminiy B) natriy
C) seziy D) litiy

94. (v11-107-32) 0,75 mol ishqoriy metall fosfidi tarkibidagi metall atomlari sonini aniqlang.
A) $13{,}5\cdot10^{23}$
B) $4{,}5\cdot10^{23}$
C) $6{,}02\cdot10^{23}$
D) $14{,}4\cdot10^{23}$

95. (v12z-223-13) Natriy metalining 55,2 grammi natriy peroksidgacha oksidlandi. so'ng suv bilan reaksiyada parchalandi. Bunda ajralgan gaz (l, n. sh.) hajmini toping.
A) 13,44 B) 53,76 C) 16,88 D) 33,6

96. (v12c-132-7) Necha g kaliy va kalsiy aralashmasi suvda eritilganda 6,95 litr (n. sh.) gaz ajraladi? (ω(K) = 0,78)
A) 15 B) 25 C) 20 D) 40

97. (v13-133-28) Osh tuzi tibbiyotda nima maqsadda ishlatiladi?
A) fiziologik eritma tayyorlashda
B) dizenfksiyalashda
C) natriy metalli olishda
D) suyuq sovun olishda

98. (v13-141-1) 12,6 g qattiq holdagi ishqoriy metall ftoridiga konsentrlangan sulfat kislota ta'sir ettirilganda ajralgan gaz $Ca(OH)_2$ eritmasi orqali o'tkazilganda 11,7 g cho'kma hosil bo'ladi. Noma'lum metalni aniqlang.
A) Na B) K C) Rb D) Cs

99. (v13-172-26) 6,06 g ishqoriy metall nitrati qizdirilgan 5,1 g nitrit hosil bo'ldi. Metalni aniqlang.
A) K B) Li C) Na D) Rb

100. (v15-101-30) 0,1 mol kislorodda 6,9 g natriy metali oksidlandi va qizdirish davom ettirildi. Hosil bo'lgan qattiq modda(lar) issiq suvda eritilishidan hosil bo'lgan qazning hajmini (l) aniqlang.
A) 0,336 B) 0,112
C) gaz ajralmaydi D) 0,56

101. (v15-115-28) 3,36 l kislorodda 11,5 g natriy metalli oksidlandi va qizdirish davom ettirildi. Hosil bo'lgan qattiq modda(lar) issiq suvda eritilishidan hosil bo'lgan gazning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,02 B) gaz ajralmaydi
C) 0,025 D) 0,06

102. (v16-116-12) 25,25 g noma'lum I valentli metall nitrati parchalanganda 2,8 litr gaz ajralib chiqdi. Bu metalni toping.
A) Na B) Li C) K D) Ag

103. (v16-118-25) Ishqoriy yer metall ionlarining elektron konfigurasiyalari qanday bolishi mumkin?
1) ...$3s^2$; 2) ...$2p^6$; 3) ...$4s^2$; 4) ...$3p^6$.
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 4

104. (v16-121-30) 0,3 mol ishqoriy metall oksididan uning 42,6 g sulfati yoki necha gramm xloridini olish mumkin?
A) 58,5 B) 11,7 C) 46,8 D) 35,1

105. (v16-128-12) Na^+ ioni alangani qaysi rangga bo'yaydi?
A) kariq B) qo'ng'ir
C) binafsha D) ko'k

106. (v17-102-2) Ishqoriy metallar bu – ...
A) IA guruh elementlari
B) IIA guruh elementlari
C) IB guruh elementlari
D) IIB guruh elementlari

107. (v17-102-13) Na_2O_2 molekulasidagi natriy va kislorodning oksidlanish darajalarini aniqlang.
A) +1; –2 B) +2; –1
C) –2; +2 D) +1; –1

108. (v17-105-22) Massasi 187,2 g xomashyodan, Leblan usuli bilan necha gramm soda olish mumkin (reaksiyaning hamma bosqichlarida chiqish unumi 75%)?
A) 63,6 B) 68,9
C) 71,55 D) 53,0

109. (v17-108-2) Silvinitning massa nisbatini toping.
A) 1,01:0,5 B) 1:1,5
C) 1,27:1 D) 2:3

110. (v17-108-9) Na, K, va Rb peroksidlar aralashmalari suvda eritilganda 4,48 l (n. sh.) gaz ajraldi. Agar tarkibida 27,35% kislorod bo'lsa, aralashma massasini aniqlang.
A) 12,8 B) 46,8
C) 63,3 D) 19,2

111. (v17-111-4) Na^+ ioni alangani qaysi rangga bo'yaydi?
A) ko'k
B) qo'ng'ir
C) sariq
D) binafsha

112. (v17-112-24) 22,35 g ishqoriy metalli qattiq xloridi kontsentrlangan H_2SO_4 sulfat kislota bilan ta'sirlashganda 20°C haroratda va bosimi 1,2 atmosferada o'lchangan hajmi 6 l bo'lgan gaz ajraldi. Metallni aniqlang.
A) Li B) Cs
C) Na D) K

113. (v17-112-25) Ishqoriy metall oksidida kislorodning massa ulushi metallnikidan katta. Ishqoriy metallning nisbiy atom massasini toping.
A) 85 B) 7
C) 23 D) 39

114. (v17-118-19) Noma'lum MeOH 40% li eritmasining 240 g miqdorini to'la neytrallash uchun 1 mol/litr sulfat kislota eritmasidan 320 ml sarflandi. Noma'lum metallni aniqlang.
A) Cs B) Na
C) K D) Rb

115. (v17-127-25) Tarkibida 2,3% natriy va 97,7% simob bo'lgan 100 g aralashmaga mol miqdorida suv ta'sir ettirilganda ajralgan vodorod hajmini aniqlang.
A) 4,48 B) 1,12
C) 2,24 D) 6,72

60. Ishqoriy – yer metallar (II guruh)

1. (96-4-37) 10 g $CaCO_3$ ning suspenziyasini gidrokarbonat holida eritmaga o'tkazish uchun necha litr (n. sh.) uglerod (IV) oksid talab etiladi?
A) 2,24 B) 5,6 C) 11,2
D) 22,4 E) 33,6

2. (97-3-41) 2 mol ohaktoshni qizdirib parchalab, n. sh. da necha litr karbonat angidrid olish mumkin? [$A_r(Ca) = 40$, $A_r(C) = 12$]
A) 22,4 B) 33,6 C) 11,2
D) 44,8 E) 44,0

3. (97-6-11) Ohakli suvdan uglerod (IV) oksid o'tkazilganda, eritma avval loyqalanadi, keyin esa tiniq bo'lib qoladi. Buning sababini tushuntiring.
A) bunda avval nordon, keyin normal tuz hosil bo'ladi
B) avval normal, keyin esa nordon tuz hosil bo'ladi
C) avval kalsiy karbonat, keyin esa kalsiy gidrokarbonat hosil bo'ladi
D) avval kalsiy gidrokarbonat, keyin esa kalsiy karbonat hosil bo'ladi
E) normal tuz suvda, eriydi, nordon tuz esa erimaydi

4. (97-8-9) Dolomitning parchalanishida qaysi element oksidlanadi?
A) kalsiy B) magniy C) uglerod
D) kislorod E) hech qaysi

5. (97-10-62) Keltirilgan birikmalardan qaysi biri tabiatda uchraydi?
A) $Mg_3(PO_4)_3$ B) $Zn_3(PO_4)_2$
C) $Cs_3(PO_4)_2$ D) Mg_3P_2
E) $H_4P_2O_7$

6. (97-11-158) 0,2 mol magniyni yondirish uchun necha litr kislorod sarflanadi?
[$A_r(Mg) = 24$]
A) 2,0 B) 2,20 C) 2,24
D) 2,40 E) 2,10

7. (98-4-63) Xlorofill molekulasida fotosintez jarayonida qaysi metall qatnashadi?
A) kalsiy B) magniy
C) stronsiy D) bariy
E) berilliy

8. (98-8-10) Ohakni so'ndirish reaksiyasi qaysi bosqichda sodir bo'ladi?

$CaCl_2 \xrightarrow{1} CaCO_3 \xrightarrow{2} CaO \xrightarrow{3}$

$\rightarrow Ca(OH)_2 \xrightarrow{4} CaCO_3 \xrightarrow{5} Ca(HCO_3)_2$.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

9. (98-8-17) Massasi 516 g bo'lgan tabiiy gips kuydirilganda hosil bo'lgan alebastrning massasini toping.
A) 425 B) 435 C) 440
D) 450 E) 465

10. (98-8-34) Tabiiy mineral dolomitning asosiy tarkibiy qismi kimyoviy formulasini ko'rsating.
A) $CaCO_3$ B) $CaCl_2$
C) $CaCO_3 \cdot MgCO_3$ D) $CaSO_4 \cdot 2H_2O$
E) $Ca_3(PO_4)_2$

11. (98-8-35) Sanoatda kalsiy oksidni olish reaksiyasini ko'rsating.

A) $Ca(OH)_2 \xrightarrow{1} CaO + H_2O$

B) $Ca + O_2 \rightarrow CaO$

C) $CaCO_3 \xrightarrow{1} CaO + CO_2\uparrow$

D) $2CaCO_3 \cdot MgCO_3 \xrightarrow{1} CaO + MgO + 2CO_2\uparrow$

E) $2CaSO_4 \rightarrow 2CaO + 2SO_2 + O_2$

12. (98-9-19) Tarkibida 14,8 g $Ca(OH)_2$ bo'lgan ohakli suvdan CO_2 gazi o'tkazilganda, cho'kma hosil bo'ldi, gaz o'tkazish davomida cho'kma to'la eridi. Bunda necha litr CO_2 kerak bo'lganligini hisoblab toping.
A) 4,48 B) 2,24 C) 5,08
D) 3,42 E) 8,96

13. (98-10-9) Massasi 28,8 g bo'lgan kalsiy karbid qanday hajmdagi (ml) suv bilan reaksiyaga kirishadi va hosil bo'lgan gaz hajmi necha litr bo'ladi? Suvning zichligini 1 g/sm^3 deb qabul qiling.
[$A_r(A) = 27$; $A_r(C) = 12$]
A) 86,4 va 13,44 B) 43,2 va 5,6
C) 43,2 va 13,44 D) 43,2 va 11,2
E) 86.4 va 11,2

14. (99-7-26) Quyidagi metallarning qaysi biri xossalari bo'yicha alyuminiyga o'xshash?
A) berilliy B) magniy C) kalsiy
D) stronsiy E) bariy

15. (00-3-49) Tarkibida 75% $CaCO_3$ bo'lgan 10 tonna ohaktoshdan qancha so'ndirilmagan ohak olinadi?
A) 4,4 B) 7,5 C) 5,5 D) 4,2 E) 4,0

16. (00-3-56) 5,6 gramm kalsiy oksiddan 6,4 gramm kalsiy karbid olingan bo'lsa, reaksiya natijasida necha litr uglerod (II) oksid hosil bo'lganini aniqlang.
A) 22,4 B) 2,24 C) 4,48
D) 6,72 E) 3,36

17. (01-1-28) 18 g massali ikki valentli metalning suv bilan reaksiyasi natijasida 10,08 l vodorod ajralib chiqsa, shu metalni aniqlang.
A) berilliy B) magniy
C) kalsiy D) stronsiy
E) bariy

18. (01-1-29) Molyar nisbatlari 1:2:3 bo'lgan kalsiy, kalsiy oksid va kalsiy karbid aralashmasining 68,8 g massasi suv bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan gaz moddalar hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 14 B) 18 C) 18,4
D) 22 E) 28

19. (01-2-44) Magniy metali qaysi tuz ishtirokida suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi?
A) NaCl B) KCl
C) NH_4Cl D) $CuSO_4$
E) $FeSO_4$

20. (01-2-47) 50 g CaO ga ko'mir qo'shib qizdirilganda ajraladigan gazning (n. sh.) hajmini (l) hisoblang.
A) 22,4 B) 33,6 C) 56 D) 20 E) 67,2

21. (01-3-53) Massasi 75 g bo'lgan ohaktoshning parchalanishidan hosil bo'lgan karbonat angidrid qancha massa (g) o'yuvchi natriy bilan reaksiyaga kirishib, o'rta tuz hosil qiladi?
A) 10 B) 20 C) 60
D) 40 E) 56

22. (01-3-103) Massasi 28,4 g bo'lgan xlorning so'ndirilgan ohak bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan xlorli ohak massasini (g) hisoblang.
A) 101,6 B) 14,3 C) 114,4
D) 50,8 E) 57,2

23. (01-6-16) 25 g $CaCO_3$ parchalanganda, 17,3 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. $CaCO_3$ ning necha foizi parchalanganligini va qattiq qoldiqning tarkibini aniqlang.
A) 80%; 8 g $CaCO_3$ va 9,3 g CaO
B) 50%; 12,5 g $CaCO_3$ va 4,8 g CaO
C) 100%; 17,3 g CaO
D) 60%; 10 g $CaCO_3$ va 7,3 g CaO
E) 70%; 7,5 g $CaCO_3$ va 9,8 g CaO

24. (02-5-24) Kalsiyning qaysi birikmasi alebastr deb nomlanadi?
A) kalsiy karbonat
B) kalsiy sulfatning digidrati
C) kalsiy sulfatning yarim gidrati
D) kalsiy fosfat
E) kalsiy va magniy karbonatlarning qo'shaloq tuzi

25. (02-9-40) Ohakning suvda erishida issiqlik ajralib chiqadi. Temperaturaning ortishi ohakning erishiga qanday ta'sir etadi?
1) eruvchanlik kamayadi; 2) eruvchanlik ortadi; 3) ta'sir etmaydi; 4) eruvchanlik o'zgarmaydi.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 3, 4

26. (02-11-22) Magniy xlorid eritmasi orqali qaysi gazni o'tkazib, eritmani bug'latib, magniy xlorid olish mumkin?
A) vodorod sulfid B) vodorod xlorid
C) CO_2 D) vodorod
E) gaz o'tkazish kerak emas

27. (02-12-50) 22,5 g berilliy mo'l miqdorda olingan natriy ishqori eritmasi bilan ta'sirlanganida, eritmada necha gramm modda hosil bo'ladi?
A) 30,75 B) 405,2 C) 307,5
D) 39,45 E) 40,52

28. (02-12-69) CaH_2 ga suv bilan ishlov berilganda ajralib chiqqan gaz qizdirilgan FeO ustidan o'tkazildi. Buning natijasida namunaning massasi 16 g ga kamaydi. Qancha (g) CaH_2 suv bilan ishlangan?
A) 1 B) 1,1 C) 11 D) 2,1 E) 21

29. (03-5-11) Magniy bilan suv reaksiyasiga ammoniy xlorid qo shilganda tezlanish sababi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) NH_4^+ ioni katalitik ta'sir ko'rsatadi
B) Cl^- ioni katalitik ta'sir ko'rsatadi
C) Cl^- ioni oksid qavatini siqib chiqaradi
D) ammoniy xlorid magniy yuzasidagi magniy gidroksiddan iborat himoya qavatini eritib yo'qotadi
E) ammoniy xlorid gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan xlorid kislota oksid qavatini yo'qotadi

30. (03-5-14) Be, Mg, Ca, Sr, Ba qatoridagi qaysi metallarning sulfatlari suvda eritmadan o'zida suv saqlamay kristallanadi?
A) Be, Ba B) Mg, Sr
C) Ca, Be D) Be, Mg
E) Sr, Ba

31. (03-7-1) 25 g kalsiy karbonat parchalanganda, 17,3 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. Kalsiy karbonatning necha foizi parchalanganligini toping.
A) 50 B) 60 C) 70 D) 80 E) 90

32. (03-7-2) 92 g dolomit parchalanganda, 70 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. Qattiq qoldiqning tarkibidagi dolomitning massa ulushini aniqlang.
A) 50 B) 60 C) 70 D) 80 E) 90

33. (03-8-5) Texnik nomi "potash" bo'lgan moddani ko'rsating.
A) kaliy karbonat B) natriy karbonat
C) magniy karbonat D) kalsiy karbonat
E) kaliy gidrokarbonat

34. (03-8-43) Ohaktosh, bo r va marmar qizdirilganda, qaysi gaz hosil bo'ladi?
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

35. (03-12-17) 12 g magniyning to'liq yonishidan qancha (g) magniy oksid hosil bo'ladi?
A) 10 B) 40 C) 15 D) 20 E) 30

36. (04-1-89) Molyar nisbatlari 1:2:3 bo'lgan kalsiy karbid, kalsiy va kalsiy oksid aralashmasining 68,8 g massasi suv bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan gaz moddalar hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 14 B) 14,8 C) 18,4
D) 22 E) 14, 17

37. (04-1-389) Dolomit bilan xlorid kislota orasidagi kimyoviy jarayonda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi va ularning koeffitsiyentlar yig'indisi nechaga teng bo'ladi?
1) kalsiy xlorid; 2) kalsiy karbonat; 3) vodorod xlorid; 4) xlor; 5) magniy xlorid; 6) suv; 7) karbonat angidrid.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5, 6, 7
C) 1, 4, 6, 7, 8 D) 2, 3, 6, 7, 4
E) 1, 5, 6, 7, 6

38. (04-1-523) CaO va Ca aralashmasi tarkibidagi kalsiyning massa ulushi (%) qanday bo'lganda, 2 g aralashmaga suv ta'sir etishidan 672 ml vodorod (n. sh.) ajralib chiqadi?
A) 58 B) 60 C) 55 D) 62 E) 40

39. (04-1-526) Tarkibida 85% $CaCO_3$ bo'lgan 10 tonna ohaktoshdan qancha (t) so'ndirilmagan ohak olinadi?
A) 4,4 B) 7,56 C) 5,5 D) 4,2 E) 4,76

40. (04-1-531) 25 g kalsiy karbonat parchalanganda, 16,3 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. Kalsiy karbonatning necha foizi parchalanganligini toping.
A) 50,8 B) 62,8 C) 70 D) 79 E) 52

41. (04-1-707) Massasi 75 g bo'lgan ohaktoshning parchalanishidan hosil bo'lgan karbonat angidrid, reaksiya unumi 0,75 teng bo'lganda, qancha massa (g) o'yuvchi kaliy bilan reaksiyaga kirishib, o'rta tuz hosil qiladi?
A) 45 B) 20 C) 84 D) 40 E) 63

42. (04-1-711) 5,6 gramm kalsiy oksiddan 6,4 gramm kalsiy karbid olingan bo'lsa, reaksiya natijasida necha mol uglerod (II) oksid hosil bo'lganini aniqlang.
A) 0,1 B) 2,24 C) 0,2
D) 0,72 E) 0,01

43. (v4-107-12) 18,4 gramm kalsiy "X" modda bilan reaksiyaga kirishib, 12,88 gramm kalsiy oksid va 1,38 gramm uglerod hosil bo'ldi. "X" moddaning nomini va qancha miqdorda (g) olinganini aniqlang.
A) karbonat angidrid, 5,06
B) karbonat angidrid, 11,0
C) kalsiy karbonat, 8,4
D) karbonat kislota, 6,2
E) kislorod, 16,0

44. (v5-102-10) 7,2 g berilliy natriy ishqori eritmasi bilan reaksiya kirishib, natriy tetragidroksoberillat hosil bo'ladi va … l (n. sh.) gaz ajraladi.
A) 19,04 B) 13,44 C) 17,92
D) 14,56 E) 16,8

45. (v5-102-12) Kalsiy birikmalaridan qaysi biri "o'lik gips" deb ataladi?
A) $CaSO_4 \cdot 1/2H_2O$ B) $CaSO_4 \cdot 5H_2O$
C) $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ D) $CaSO_4$
E) $(CaSO_4)_2 \cdot H_2O$

46. (v5-103-18) 120 g dolomit qizdirilganda uning massasi 22 g ga kamaydi. Qattiq qoldiq tarkibidagi magniy oksidning massa ulushini (%) toping.
A) 24,49 B) 26,49 C) 10,2
D) 12,24 E) 20,4

47. (v5-106-24) 12 g metall oksidlanishidan 16,8 g oksid hosil bo'lgan. Qaysi metall oksidlangan?
A) Fe B) Ba C) Ca D) K E) Al

48. (v5-118-12) Quyidagilardan qaysi biri "o'lik gips" deyiladi?
A) alebastr B) yarim suvli gips
C) tabiiy gips D) kuydirilgan gips
E) suvsiz gips

49. (v5-119-24) Magniy oksid bilan magniyning 8 g aralashmasiga xlorid kislota bilan ishlov berilganda 5,6 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Boshlang'ich aralashmadagi magniyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 20 B) 25 C) 80 D) 85 E) 75

50. (v5-126-9) Magniy metalning 1 grammini yondirish uchun 462 ml (n. sh.) kislorod kerak. Magniyning ekvivalentini toping.
A) 6,6 B) 36 C) 12,12 D) 24,24 E) 24

51. (v5-130-1) Berilliyning natriy ishqori eritmasi bilan reaksiyasida natriytetrogidroksoberillat va gaz ajralsa, reaksiya tenglamasidagi koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.
A) 12 B) 5 C) 7 D) 6 E) 8

52. (v6-103-12) Ohaktosh bo'r, marmar va malaxit qizdirilganda qanday gazlar hosil bo'ladi?
A) CO_2; NO_2; SO_2; SO_3
B) H_2; O_2; N_2; CO_2
C) CO_2; CO_2; CO_2; CO_2
D) CO_2; CO_2; CO_2; SO_2

53. (v6-105-34) Berilliy natriy gidroksid eritmasi bilan reaksiyaga kirishib (natriy tetragidroksoberillat) olingan gaz modda avval 400°C li mis (II) oksid bo'lgan nayga, undan so ng fosfor (V) oksidi bo'lgan nayga (t = 25°C) kiritildi. Agar ikkinchi nayning massasi 15,3 g ga ortgan bo'lsa, berilliyning massasini (g) toping.
A) 1,74 B) 3,12 C) 5,12 D) 7,65

54. (v6-111-25) 5,2 g ishqoriy-yer metall oksidi 757,3 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 0,80% ni tashkil qildi, metalni toping.
A) bariy B) kalsiy
C) magniy D) stronsiy

55. (v6-112-25) 6,12 g ishqoriy-yer metall oksidi 221,88 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 3% ni tashkil qilgan bo'lsa, metalni toping.
A) magniy B) kalsiy
C) bariy D) stronsiy

56. (v6-124-34) Ishqoriy-yer metall gidridi 300 g suvda eritilganda 784 ml (n. sh.) gaz modda ajralib, 0,71% li eritma hosil bo'ldi. Qaysi metall gidridi ishlatilgan?
A) Ba B) Ca C) Mg D) Sr

57. (v7-107-25) 16 g $CaCO_3$ parchalanganda 11,6 g qattiq qoldiq hosil bo'ldi. $CaCO_3$ ning necha foizi parchalanganligini va qattiq qoldiqning tarkibini aniqlang.
A) 59%; 5,6 g $CaCO_3$ va 6 g CaCO
B) 52,6%; 4,4 g $CaCO_3$ va 7,2 g CaCO
C) 62,5%; 6 g $CaCO_3$ va 5,6 g CaCO
D) 100%; 8,96 g $CaCO_3$

58. (v9-107-6) Ishqoriy-yer metallarining qaysi biri havodagi azot bilan to'g'ridan-to'g'ri reaksiyaga kirishib nitrid hosil qiladi?
A) rux B) stronsiy
C) bariy D) magniy

59. (v11-103-16) Dolamitning 18,4 grammi qizdirilganda uning massasi 2,2 g ga kamaydi. Reaksiyaga kirishmagan dolomit massasi (g) va qolgan aralashmadagi magniy oksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 13,8; 6,2 B) 13,8; 5,4
C) 16,2; 2,4 D) 13,8; 1,0

60. (v11-107-26) 9,92 g ohaktosh va so'ndirilgan ohak aralashmasi qizdirilganida (n. sh. da) 0,896 l SO_2 gazi hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi ohaktoshning massa ulushini aniqlang.
A) 0,8 B) 0,9 C) 0,6 D) 0,4

61. (v13-150-6) 248 g mis (II) sulfat eritmasiga 20 g Mg kukuni solindi. Birozdan so'ng metall cho'kma yig'ib olib quritilganda uning massasi 28 g ni tashkil etdi. Olingan

eritmadagi magniy sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 12 B) 16 C) 14 D) 10

62. (v14-105-1) 32 g mis va magniy qotishmasi sulfat kislotada eritilganda 8,96 l vodorod ajralgan bo'lsa, qotishmadagi metallarning massa ulushlarini (%) aniqlang.
A) 50; 50 B) 40; 60.
C) 20; 80 D) 70; 30

63. (v14-114-10) Gips tarkibidagi atomlar soni 60,48 g nitrat kislotadagi molekulalar soniga teng bo'lsa, gips massasini (g) aniqlang.
A) 2,75 B) 13,76
C) 10,88 D) 165,12

64. (v15-111-33) $CaCO_3$ va $MgCO_3$ ning qanday molyar nisbatdagi aralashmasi 1000°C gacha qizdirilganda aralashma massasi ikki marta, kamayadi?
A) 5:2 B) 4:7 C) 1:3 D) 2:5

65. (v15-113-10) Ishqorda etmaydigan moddalarni ko'rsating.
1) temir; 2) kremniy (IV) oksid;
3) mis (II) oksid; 4) ammoniy xlorid; 5) rux.
A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 5
C) 1, 3 D) 2, 4

66. (v15-114-19) Be + KOH + X + H_2 reaksiya tenglamasidagi barcha koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.
A) 8 B) 6 C) 5 D) 4

67. (v15-116-1) HCl eritmasida toza $CaCO_3$ namunasi to'la eritildi. Natijada eritma massasi 5,6 g ga ortgan bo'lsa, eritilgan namuna massasini (g) aniqlang.
A) 10 B) 7,4 C) 20 D) 30

68. (v16-118-30) Massasi 12 g bo'lgan magniy karbonat angidrid gazida yondirilganda ajralib chiqqan oksidni eritish uchun 50% li xlorid kislota eritmasi sarflangan bo'lsa, hosil bo'lgan eritma massasini (g) toping.
A) 57 B) 46,5 C) 73 D) 93

69. (v16-119-12) 1 gektar ekin maydoniga 103,2 kg pretsipitat [$CaHPO_4 \cdot 2H_2O$] solish kerak. Bu o'g'it tarkibidagi ozuqa elementining miqdorini (mol) hisoblang.
A) $4 \cdot 10^2$ B) $1{,}5 \cdot 10^2$
C) $3 \cdot 10^2$ D) $2 \cdot 10^2$

70. (v16-124-6) Magniy 10,08 litr (n. sh.) karbonat angidridda yonganda necha gramm oksid hosil bo'ladi?
A) 14,4 B) 12 C) 24 D) 36

71. (v16-125-12) Magniy va magniy fosfiddan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 85,5 g tuz hosil bo'lsa, hosil bo'lgan gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 17 B) 2,5 C) 10 D) 5

72. (v17-104-6) 2,4 g cho'g'langan magniy karbonat angidridi bilan o'zaro ta'siridan hosil bo'lgan, qaytarilgan moddaning massasini (g) aniqlang.
A) 4 B) 0,6 C) 0,28 D) 1,4

73. (v17-105-9) $CaCO_3$ namunasi qattiq qizdirilganda uning massasi 22% ga kamaygan. Hosil bo'lgan aralashma tarkibidagi CaO ning massa ulushini (%) toping.
A) 35,9 B) 28 C) 64,1 D) 78

74. (v17-105-35) Massasi 5 g bo'lgan bariy sulfat va natriy xlorid aralashmasi mo'lroq suv bilan ishlandi, natijada aralashma massasi 2 g kamaydi. Aralashmadagi bariy sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 60 B) 25 C) 34,5 D) 56

75. (v17-110-15) Xlorli ohak formulasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Ca(OH)Cl
B) $Ca(OH)_2 \cdot CaCl_2$
C) Ca(OCl)Cl
D) $CaO\ Ca(OH)_2\ Cl_2$

76. (v17-116-8) XO_2 ionida 24 elektron bor. Shu noma'lum x moddani topib, magniy bilan reaksiyada qanday modda hosil bo'ladi?
A) $MgCl_2$
B) MgO
C) Mg_4C_2
D) Mg_3N_2

77. (v17-119-23) $MgCO_3$ 50% unum bilan parchalanadi. *x* va *y* ni aniqlang.

$MgCO_3$	MgO	CO_2
Massa: m	x	y

A) $x = \frac{22m}{42}$; y = 20 m
B) $x = \frac{11m}{21}; y = \frac{10m}{21}$
C) $x = \frac{10m}{21}; y = \frac{11m}{21}$
D) $x = \frac{10m}{42}; y = \frac{11m}{42}$

78. (v17-120-28) Gipsda atomlar soni 60,48 g nitrat kislotasi molekulalar soniga teng. Gips massasini aniqlang.
A) 13,76 B) 165,12
C) 10,88 D) 2,75

79. (v17-121-16) Cho'g'langan magniy bilan 2,2 g karbonat angidrid gazi o'zaro ta'sirlashishdan hosil bo'lgan moddaning formulasi va massasini (g) aniqlang.
A) MgC_2 – 0,96; MgO – 0,32
B) MgO – 4; C – 0,6
C) MgC_2 – 0,48; MgO – 0,64
D) MgO – 4; CO – 1,4

80. (v17-122-14) 61,2 g bariy oksidiga kremniy ta'sirlashgandan hosil bo'lgan, unumi 75% ga teng metall massasini (g) aniqlang.
A) 41,4 B) 54,8
C) 27,4 D) 20,5

81. (v17-125-22) Ishqoriy yer metallarni ko'rsating.
A) K va Ca
B) Cs va St
C) Ca va Ba
D) Be va Ba

82. (v17-127-21) Bariy-bariy oksidi hamda kremniydan pirometallurgiya usulida olinadi. Agar reaksiyada 91,8 g bariy oksidi ishtirok etgan bo'lsa, kremniy massasini (g) aniqlang.
A) 8,4
B) 5,6
C) 4,2
D) 7,0

83. (v17-128-22) Kayinit minerali tarkibidagi umumiy bog'lar ko'paytmasi yig'indisini toping.
A) 48
B) 50
C) 52
D) 49

84. (v17-130-15) IIA guruhga mansub metall oksidida kislorodning massa ulushi metallnikidan katta. Metall tarkibida nechta s-elektron mavjud?
A) 5 B) 7
C) 4 D) 9

61. Metallar – p va d elementlar. Metallurgiya

1. (96-4-38) 1 g misni nitrat kislotada eritilganda necha millilitr azot (II) oksid hosil bo'ladi?
A) 560 B) 680 C) 700 D) 780 E) 820

2. (96-4-47) Quyidagi reaksiyalarning qaysi birida yagona element uch xil holatgacha qaytariladi?
A) Cu + HNO_3 →
B) $H_2SO_{4(suyuq)}$ + Fe →
C) $H_2SO_{4(kons)}$ + Cu →
D) $H_2SO_{4(kons)}$ + Zn →
E) $FeS_2 + O_2$ →

3. (96-5-24) Metalni uning oksididan uglerod (II) oksidi bilan qaytarib olishga qanday usul deyiladi?
A) alyuminiytermiya B) metallotermiya
C) elektrometallurgiya D) karbotermiya
E) gidrometallurgiya

4. (96-7-33) Qaysi kislota yoki kislota aralashmalarida oltin eriydi?
A) kons HCl
B) kons HNO_3
C) kons H_2SO_4
D) kons 3 hajm HCl* kons 1 hajm H_2SO_4
E) kons 3 hajm HCl* kons 1 hajm HNO_3

5. (96-8-29) 98% li sulfat kislota (ρ = 1,84 g sm^{-3})ning necha millilitri mis bilan reaksiyaga kirishib 1,12 l SO hosil qiladi? [A_r(S) = 32]
A) 12,05 B) 9,22 C) 1,84
D) 3,92 E) 5,33

6. (96-10-18) Rux aldamasi ZnS havoda kuydirilganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
1) asosli oksid; 2) kislotali oksid; 3) amfoter oksid; 4) o'rta tuz.
A) 1 va 2 B) 1 va 3 C) 2 va 3
D) 3 va 4 E) faqat 4

7. (96-15-24) Metalni uning oksididan alyuminiy bilan qaytarib olishga qanday usul deyiladi?
1) gidrometallurgiya; 2) karbotermiya;
3) alyuminotermiya; 4) elektrometallurgiya.
A) 2 B) 4 C) 1 D) 3 E) 2, 4

8. (97-4-82) Metallarni termik kavsharlash jarayoni qaysi kimyoviy reaksiya asosida hosil beradi?
A) Al + Cl_2 → B) Al + HCl →
C) Al + S → D) Al + FeO_4 →
E) Al + O_2 →

9. (97-9-21) 20 g mis (II) oksidni qaytarish uchun yetarli vodorod miqdoridan ikki baravar ortiqcha hosil qilish uchun mo'l miqdordagi sulfat kislotada necha gramm rux eritilishi kerak? [A_r(Cu) = 64, A_r(Zn) = 65]
A) 37,5 B) 18,7 C) 32,5
D) 23,4 E) 65

10. (97-9-54) d-metallar uchun xos bo'lgan xossalarni ko'rsating:
1) kompleks birikma hosil qilish; 2) ishqor hosil qilish; 3) o'zgaruvchan valentlikka ega bo'lish; 4) asosiy guruh a'zolari bo'lish;
5) yonaki guruh a'zolari bo'lish.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 5
D) 2, 2, 4 E) 2, 3, 5

11. (97-10-25) 8 g misga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilsa (n. sh.), qanday hajmdagi (l) gaz ajralib chiqadi?
[A_r(Cu) = 64, A_r(S) = 32]
A) 4,6 B) 4,8 C) 5,2
D) 5,6 E) 5,8

12. (97-11-57) Yuqori temperaturada 6,5 g rux suv bilan reaksiyaga kirishadi. Hosil bo'lgan rux oksid miqdorini (mol) ko'rsating. [$A_r(Zn) = 65$, $A_r(O) = 16$].
A) 1,0 B) 0,5 C) 0,1
D) 0,05 E) 0,01

13. (98-5-6) Qaysi metalning zichligi po'latnikidan kam bo'lgani holda, mustahkamligi zanglamaydigan po'latnikidan 3 marta katta bo'ladi?
A) rux B) temir C) mis
D) titan E) magniy

14. (98-10-57) Kislota va ishqor eritmalarida eriydigan d-elementlar birikmalarini ko'rsating.
1) $Zn(OH)_2$; 2) $Al(OH)_3$; 3) $Cu(OH)_2$;
4) $Cr(OH)_2$; 5) $Mn(OH)_2$.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 3, 4 E) 4, 5

15. (99-1-52) Rux metalning mo'l miqdordagi juda suyultirilgan nitrat kislotasi bilan o'zaro ta'siridan olingan eritmaga ishqor ta'sir qildirilsa qanday gaz ajralib chiqadi?
A) gaz ajralib chiqmaydi B) vodorod
C) azot D) azot (II) oksid
E) ammiak

16. (99-2-37) Metallar olish reaksiyalaridan qaysi biri gidrometallurgiya usuli hisoblanadi?

A) $Al + Fe_3O_4 \xrightarrow{t^\circ} Al_2O_3 + Fe$

B) $Fe_2O_3 + CO \xrightarrow{t^\circ} CO_2 + Fe$

C) $KCl + Na \xrightarrow{t^\circ} NaCl + K$

D) $CuO + H_2 \xrightarrow{t^\circ} H_2O + Cu$

E) $CuSO_4 + Fe \longrightarrow FeSO_4 + Cu$

17. (99-4-17) Metallardan qaysi birining suyuqlanish temperaturasi eng past?
A) alyuminiy B) qo'rg'oshin
C) kaliy D) simob
E) mis

18. (99-7-27) Mis (II) sulfat eritmasidan 160 g misni siqib chiqaradigan rux massasini hisoblang.
A) 216,2 B) 248,6 C) 164,8
D) 181,2 E) 162,5

19. (00-4-20) Ikki metaldan tayyorlangan qotishma suyuq xlorid kislotada to'liq eriydi, konsentrlangan natriy gidroksidda esa qisman eriydi. Qaysi metallar bu qotishma tarkibiga kirgan bo'lishi mumkin?
1) Fe; 2) Mn; 3) Mg; 4) Zn; 5) Hg.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 4, 5

20. (00-4-47) Qaysi metallarning kationlari diamagnit xossaga ega?
1) Na; 2) Al; 3) Ca; 4) Fe; 5) Mg; 6) Ni.
A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5
C) 1, 3, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6
E) 1, 2, 3, 6

21. (01-2-34) Qaysi konsentrlangan kislota qizdirilganda HCl ishtirokida oltinni eritadi?
1) HNO_3; 2) HCl; 3) H_2SO_4;
4) H_2SeO_4; 5) H_2TeO_4.
A) 1, 2 B) 2, 4 C) 1, 3
D) 3 E) 3, 5

22. (01-2-46) Qaysi metall karbonati qizdirilganda, oson parchalanadi?
A) K_2CO_3 B) Na_2CO_3
C) $SrCO_3$ D) $CaCO_3$
E) $MgCO_3$

23. (01-2-64) Kumush (I) oksid qaysi elektrolitda yaxshi eriydi?
A) NH_4OH B) H_2SO_4
C) HCl D) H_2O
E) HNO_3

24. (01-2-65) Televizor ekrani ruxning qanday birikmasi bilan qoplanadi?
A) ZnO B) ZnC_2
C) $Zn(OH)_2$ D) Zn_3N_2
E) ZnS

25. (01-2-71) Xrom (III) sulfat tuziga kaliy nitrat va kaliy karbonat tuzlari aralashmasini qo'shib suyuqlantirilganda, (n. sh.) da qancha l CO_2 ajraladi?
A) 89,6 B) 112 C) 99,8
D) 67,2 E) 134,4

26. (01-4-30) Keltirilgan xossalarning qaysilari d-elementlarni xarakterlaydi?
1) d-elementlarning ionlanish energiyasi qancha katta; 2) d-elementlar kuchli oksidlovchilar; 3) d-elementlar metallardir; 4) ularning atomlarida d-orbitallar elektronlar bilan to'lib boradi; 5) d-elementlar o'zgaruvchan valentlik namoyon yonladilar; 6) d-elementlar barcha agregat holatlarda mavjuddir.
A) 1, 2 B) 1, 5 C) 1, 2, 5
D) 1, 2, 6 E) 3, 4, 5

27. (02-3-56) Ikki metaldan yasalgan qotishmaning bir qismi konsentrlangan xlorid kislotada eriydi konsentrlangan issiq sulfat kislotada esa to'la eriydi. Shu qotishma qaysi metallardan yasalgan?
1) kalsiy; 2) kumush; 3) magniy;
4) temir; 5) rux; 6) mis.
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 3
D) 2, 6 E) 3, 5

28. (02-6-1) Kumush tuzlarining $2 \cdot 10^{-11}$ mol/l miqdordagi konsentratsiyasi ba'zi bakteriyalar va tuban o'simliklarga ta'sir qilib, ularning o'sishini to'xtatadi. 1 g kumush nitratning qanday hajmdagi (l) eritmasi shu xususiyatga ega bo'ladi?
A) $2{,}94 \cdot 10^{8}$
B) $2{,}55 \cdot 10^{8}$
C) $1{,}99 \cdot 10^{9}$
D) $3{,}01 \cdot 10^{7}$
E) $3{,}28\ 10^{9}$

29. (02-6-31) Quyida keltirilgan qaysi javoblarda Mn^{3+} ionining suvli eritmalarda beqaror, Mn^{2+} ionining barqaror bo'lishi to'g'ri tushuntirilgan?
A) ion radiuslarining turlicha bo'lishi
B) ionlarning turlicha gidratlanishi
C) ionlarning oksidlanishi qaytarilish xossalarini turlicha namoyon qilishi
D) ionlardagi d-orbitallarning energetik holatiga ta'sir etuvchi turli sondagi elektronlarga ega bo'lishi
E) ionlarning kislota – asos xossalarining turlicha bo'lishi

30. (02-9-25) Qaysi metall konsentrlangan H_2SO_4 bilan o'zaro ta'sirlashib, uni SO_2 gacha qaytara oladi?
1) seziy; 2) alyuminiy; 3) kumush;
4) mis; 5) oltin.
A) 1, 2 B) 2, 5 C) 3, 4
D) 1, 5 E) faqat 4

31. (02-11-28) 20°C da simobning to'yingan bug'larining bosimi 0,160 Pa ga teng. Xonada simob termometri singanda, havoning 1 sm^3 hajmida simobning massasi qancha (mg) bo'ladi?
A) $1{,}3 \cdot 10^{-7}$ B) $1{,}3 \cdot 10^{-5}$
C) $1{,}3 \cdot 10^{-6}$ D) $1{,}3 \cdot 10^{-8}$
E) $1{,}3 \cdot 10^{-3}$

32. (02-12-53) Mis (I) sulfidning 0,5 mol miqdori mis (I) oksid bilan reaksiyasi natijasida olinadigan qattiq moddaning massasini toping.
A) 192 B) 100 C) 90
D) 189 E) 178

33. (03-1-58) Mo'l miqdordagi NaOH bilan CrO_3 ning o'zaro ta'sirlashishida qaysi tuz hosil bo'ladi?
A) Na_2CrO_4 B) $NaCrO_4$
C) Na_2CrO_2 D) Na_2CrO_3
E) $Na_2Cr_2O_7$

34. (03-5-23) Infraqizil nurlarga sezgir fotoelement qaysi metall yordamida tayyorlanadi?
A) indiy B) alyuminiy C) bor
D) tellur E) galliy

35. (03-9-17) Kadmiy sulfid konsentrlangan xlorid kislotada eriganda, uning qanday birikmasi hosil bo'ladi?
A) $CdCl_2$ B) $H_2[CdCl_4]$
C) $H_4[CdCl_6]$ D) CdS
E) $CdSO_3$

36. (03-9-18) Oltinni metallmas qo'shimchalardan ajratish uchun qaysi metall ishlatiladi?
A) Zn B) Al C) Fe D) Hg E) Cu

37. (v4-105-27) 2,5 mol misga konsentrlangan HNO_3 ta'sir ettirilganda, necha l (n. sh.) gaz ajralib chiqadi?
A) 70 B) 134,4 C) 100,8
D) 56 E) 112

38. (v4-111-28) 0,5 g mis, sulfat kislotada eritilganda necha millilitr (n. sh.) da oltingugurt (IV) oksid hosil bo'ladi?
A) 233 B) 350 C) 560
D) 700 E) 175

39. (v4-116-25) 15% li rux yodid eritmasining 159,5 g miqdoriga ishqor eritmasidan oz miqdorda qo'shilganda, cho'kma hosil bo'ladi. Bu cho'kma to'la erib ketishi uchun natriy gidroksidning 4 M li eritmasi (ρ = 1,15 g/ml) dan necha gramm qo'shish kerakligini hisoblang.
A) 43,1 B) 41,4 C) 38,75
D) 44,5 E) 32,5

40. (v5-101-8) ... g kumush bilan nitrat kislota reaksiyasida 119 g $AgNO_3$ va 15,68 l (n. sh.) azot (IV) oksid hosil bo'ladi.
A) 75,6 B) 81,7 C) 69,5
D) 86,3 E) 85,6

41. (v5-106-10) ... g qo'rg'oshin kaliy ishqori eritmasi bilan reaksiya kirishib, kaliy geksogidroksoplyumbat (II) va 16,8 l vodorod hosil qiladi.
A) 145,0 B) 134,5 C) 155,2
D) 186,3 E) 165,6

42. (v5-106-28) 6,4 g mis metalli havoda kuydirilganda hosil bo'lgan mis oksidini eritish uchun 20% li sulfat kislotadan (ρ = 1,14 g/ml) qanday hajmda (ml) olish kerak?
A) 45 B) 24,5 C) 22
D) 43 E) 44

43. (v5-113-12) ... g magniy yetarli miqdorda kremniy (IV) oksidi bilan ta'sirlashganda 19,6 g kremniy olinadi.
A) 47,4 B) 28,3 C) 33,6
D) 29,7 E) 22,4

44. (v5-119-2) ... suyuqlanish temperaturasi 30°C dan pastroq bo'lgani uchun qo'lga olish bilan suyuqlanib ketishi mumkin.
A) Talliyning B) Indiyaing
C) Galliyning D) Borning
E) Alyuminiyning

45. (v6-109-10) Rux metall konsentrlangan nitrat kislotada eritilganda qanday gaz ajralib chiqadi?
A) azot (I) oksidi B) ammiak
C) azot (III) oksidi D) azot (IV) oksidi

46. (v6-113-10) Metall suv bilan ta'sirlashishi natijasida gaz ajralib chiqdi va shu eritmaga fenolftalein qo'shilganda u to'q pushti (malina) rangga kirdi. Bu qaysi metall?
A) rux B) alyuminiy
C) berilliy D) kalsiy

47. (v6-118-26) 27 g kumush suyultirilgan nitrat kislotada to'la eritilishidan olingan reaksion muhitga mo'l miqdorda kaliy ishqor eritmasi qo'shilganda hosil bo'lgan cho'kmaning massani (g) hisoblang.
A) 38 B) 23 C) 43 D) 29

48. (v7-118-10) Rux sulfidga xlorid kislota ta'sir ettirilganda ajralib chiqqan gaz mol miqdorda olingan natriy gidroksid eritmasiga shimdirilganda qanday modda hosil bo'ladi?
A) kaliy xlorid B) natriy sulfid
C) natriy gidrosulfid D) rux gidroksid

49. (v9-101-31) 156,6 g qalay (IV) xlorid ortiqcha miqdorda olingan ammoniy gidroksid bilan reaksiyaga kirishganda necha gramm α-qalay kislota hosil bo'ladi?
A) 84,5 B) 101,4 C) 67,6 D) 169

50. (v9-110-34) Mis (II) sulfat qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) SiO_2; 2) KNO_3; 3) $Ba(NO_3)_2$;
4) Fe; 5) H_2; 6) KOH.
A) 3, 4, 6 B) 4, 5, 6 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 6

51. (v9-123-21) 200 g 3,19% li rux yodid eritmasiga cho'kma to'la tushguncha ishqor eritmasi qo'shildi. Cho'kmani to'la eritish uchun 2 molyarli natriy gidroksid eritmasidan qancha hajm (ml) kerak bo'ladi (reaksiyada $Na_2[Zn(OH)_4]$ hosil bo'ladi)?
A) 30 B) 25 C) 15 D) 20

52. (v12z-216-30) 0,2 mol $AuCl_3$ ni 180°C da qizdirilsa necha litr (n. sh.) xlor ajraladi?
A) 8,96 B) 4,48 C) 2,24 D) 6,72

53. (v12z-221-8) 115,85 g $Pb(NO_3)_2$ qizdirilishidan hosil bo'lgan qattiq modda CO yordamida qaytarildi. Bunda hosil bo'lgan modda 22,2 g $Ca(OH)_2$ tutgan eritma bilan ta'sirlashdi. Hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) toping.
A) 30 B) 25 C) 35 D) 20

54. (v12z-233-28) Kumush quyidagi qaysi suyultirilgan kislota bilan reaksiyaga kirishadi?
A) H_2SO_3 B) H_2SO_4
C) HNO_3 D) HNO_2

55. (v12c-126-34) 112,8 g $Cu(NO_3)_2$ ni qizdirilgandan keyin qoldiq 80,4 g ga teng bo'ldi. Shu qoldiqdagi misning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 47,76 B) 23,88
C) 31,84 D) 63,68

56. (v12c-128-22) 112,8 g $Cu(NO_3)_2$ ni qizdirilgandan keyin qoldiq 80,4 g ga teng bo'ldi. Shu qoldiqdagi kislorodning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 75,77 B) 41,79
C) 35,82 D) 29,79

57. (v13-105-10) Zn metalliga konsentrlangan H_2SO_4 ta'sir ettirilganda boradigan reaksiya tenglamasini yozib, barcha koeffitsientlar yig'indisini aniqlang.
A) 40 B) 38 C) 42 D) 37

58. (v13-108-22) Qaysi usulda birikmalarni C, CO, Hg, Al, Si lar yordamida qaytarib olinadi?
A) pirometallurgiya B) gidrometallurgiya
C) elektrotermik D) elektrolitik

59. (v13-137-7) 18,4 g mis (II) oksidning NH_3 bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan gazning miqdorini (g) toping. Suv bug'i hisobga olmang.
A) 3,95 B) 2,1 C) 2,15 D) 2,25

60. (v13-148-28) Miqdori 0,25 molga teng bo'lgan malaxit tarkibida necha gramm-atom kislorod mavjud va shu massaga ega bo'lgan malaxit qizdirilganda (n. sh.) qancha hajm (l) gaz ajralib chiqadi?
A) 1,25; 5,6 B) 0,625; 2,8
C) 2,15; 6,5 D) 2,5; 11,2

61. (v15-101-27) Argentit mineralining tarkibi qaysi moddadan iborat?
A) Ag_2O B) Ag_4C C) Ag_2S D) HgS

62. (v15-102-5) Oltin shoh arog'i bilan oksidlanganda 0,02 mol oltin (III) xlorid hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida ajralgan NO ning massasini (g) aniqlang.
A) 0,8 B) 0,4
C) 1 D) 0,6

63. (v15-104-3) Xromli temirtoshdan 13 g xrom olish uchun qancha (g) is gazi talab etiladi?
A) 10 B) 16 C) 12 D) 14

64. (v15-106-7) Xrom dastlab qaysi birikma tarkibidan topilgan?
A) $Fe(CrO_2)_2$ B) $PbCr_2O_4$
C) Cr_2O_3 D) $K_2Cr_2O_7$

65. (v15-109-21) Xromning xlor va vodorod xlorid bilan reaksiyasida qanday birikmalar hosil bo'lishini mos ravishda aniqlang.
A) $CrCl_3$ va $CrCl_3$ B) $CrCl_3$ va $CrCl_2$
C) $CrCl_2$ va $CrCl_3$ D) $CrCl_3$ va $CrCl_3$

66. (v15-110-34) Xrom kislorod bilan ta'sirlashganda hosil bo'ladigan birikmasining 0,25 moli massasini (g) aniqlang.
A) 25 B) 38 C) 17 D) 55

67. (v15-112-25) Qaysi usulda olingan xrom juda toza bo'ladi?
A) $Cr_2O_3 + Al = Al_2O_3 + Cr$
B) $Fe(CrO_2)_2 + 4CO = Fe + 2Cr + 4CO_2$
C) $Cr_2O_3 + Si = SiO_2 + Cr$
D) dixromatlarning eritmalarini elektroliz qilish

68. (v15-113-20) Lampochka ishlab chiqaruvchi korxonalarning chiqindisi tarkibida uchraydigan o'g'itni belgilang.
A) Mo B) Co C) Zn D) W

69. (v16-101-12) Sianlash usulida 0,01 mol oltin olish uchun qancha (g) KCN talab etiladi?
A) 2,6 B) 1,3 C) 3,6 D) 4,3

70. (v16-101-24) Argentit mineralining tarkibi qaysi moddadan iborat?
A) Ag_4C B) Ag_2O C) HgS D) Ag_2S

71. (v16-110-34) Lampochka ishlab chiqaruvchi korxonalarning chiqindisi tarkibida uchraydigan o'g'itni belgilang.
A) Mo B) Co C) Zn D) W

72. (v17-105-26) Argentitning formulasini ko'rsating.
A) AgCl B) $AgNO_3$
C) Ag_2SO_4 D) Ag_2S

73. (v17-106-19) Anglezit minerali kimyoviy formulasini toping.
A) Pb_2SO_4 B) $Pb[SiO_4]$
C) PbO_2 D) $Pb[CN_6]$

74. (v17-109-33) Metallar orasida eng yengili va og'ir metallar qaysilar?
A) Pt, Na
B) Li, W
C) Li, Mt
D) Li, Os

75. (v17-111-5) Quyidagi keltirilgan javoblarda og'ir metallarni tanlang:
A) Zn, Hg, Mg
B) Cd, Co, Ni
C) Li, Ti, Sb
D) Sb, Ti, Hg

76. (v17-113-24) Tarkibida 87% marganets (IV) oksidi bo'lgan 200 g pirolyuzit mavjud. Alyumotermik usulda pirolyuzitdan marganets qaytarish uchun qanday massa (g) alyuminiy talab etiladi?
A) 26 B) 48
C) 84 D) 72

77. (v17-115-3) 10,00 t (1 t = 10^3 kg) ko'mir bilan 10,00 t oksididan qaytarilishda ruxni necha tonna olish mumkin?
A) 8
B) 5,04
C) 10
D) 8,02

78. (v17-120-6) Qanday metallar pirometallurgik usul bilan olinadi?
1) Na; 2) Al; 3) Fe; 4) Zn; 5) Ca; 6) Cr.
A) 3, 4, 6 B) 1, 2, 5
C) 2, 3, 6 D) 3, 4, 5

79. (v17-120-21) Quyidagi qaysi qatorda elementlarning metallmaslik xossalari ortib boradi?
A) kalsiy, seziy, alyuminiy
B) alyuminiy, kalsiy, seziy
C) seziy, alyuminiy, kalsiy
D) seziy, kalsiy, alyuminiy

80. (v17-121-4) Eng suyuq metall va metallmasni toping.
A) simob xlor
B) simob brom
C) litiy yod
D) brom litiy

81. (v17-122-15) Davriy jadvalda eng yumshoq metall va eng qattiq metallni ko'rsating.
A) kaliy / magniy
B) litiy / xrom
C) kaliy / yod
D) litiy / platina

82. (v17-126-23) Qaysi metall sovitilgan holda suvni muzlatadi?
A) simob
B) brom
C) litiy
D) kaliy

83. (v17-127-5) Oliy nerv tizimini stabillizatsiyalovchi elementni ko'rsating:
A) Fe
B) Mn
C) Cr
D) Cu

84. (v17-129-11) Surik formulasini aniqlang:
A) Pb_2O_3
B) PbO_2
C) Pb_3O_4
D) PbO

85. (v17-129-20) Quyidagi reaksiya tenglamalaridagi noma'lum moddani toping.
D – ?



A) CuO
B) Cu_2O
C) Cu
D) $CuSO_4$

62. Metallarning korroziyalanishi

1. (97-5-18) Bir-biri bilan ulangan metallar Cu–Al, Pb–Cu va Fe–Sn da har birining qaysi birlari birinchi bo'lib korroziyaga uchraydi?
A) mis, qo'rg'oshin, qalay
B) alyuminiy, qo'rg'oshin, temir
C) mis, mis, qalay
D) alyuminiy, mis, temir
E) alyuminiy, qo'rg'oshin, kaliy

2. (97-10-55) Po'lat quvurlarni korroziyadan himoya qilish maqsadida qanday metaldan yasalgan protektor (himoya taxtachasi) qo'llaniladi?
A) Ni B) Rb C) Zn D) Cu E) Sn

3. (98-1-46) Metallarning qaysi biri oson korroziyaga uchraydi?
A) temir B) mis C) rux
D) nikel E) xrom

4. (99-1-46) Temirga qaysi metall tegib turganda, uning korroziyasi kuchayadi?
A) magniy B) rux C) mos
D) kalsiy E) litiy

5. (99-7-25) Temir yuzasida katod himoya qatlamini hosil qilish uchun qaysi metallardan foydalanish mumkin?
1) rux; 2) qalay; 3) xrom; 4) kadmiy;
5) qo'rg'oshin; 6) marganes; 7) nikel.
A) 1, 3, 6 B) 2, 4, 7 C) 1, 2, 3
D) 1, 2, 7 E) 5, 6, 7

6. (00-4-4) Quyidagi iborani tugatish uchun qaysi javobdan foydalanish to'g'ri bo'ladi?
"Metallarning elektro kimyoviy korroziyasi deb ...
A) metallarning quruq gazlar ta'sirida yemirilishiga aytiladi".
B) metallarning qutbsiz erituvchilar ta'sirida yemirilishiga aytiladi".
C) metallarning havo kislorodi ta'sirida yemirilishiga aytiladi".
D) metallarning quruq gazlar va, elektr tokini o'tkazmaydigan suyuqliklar ta'sirida yemirilishiga aytiladi".
E) bir-biriga tegib turgan ikki xil tabiatli metallarning elektrolit ishtirokida yemirilishiga, aytiladi".

7. (03-2-8) Temirning kislorod ishtirokidagi korroziyasi qanday muhitda sodir bo'ladi?
1) neytral; 2) kislotali; 3) ishqoriy.
A) 1 B) 1, 2 C) 2 D) 2, 3 E) 3

8. (03-2-9) Vodorod hosil bo'lish bilan sodir bo'ladigan temir korroziyasi qanday muhitda amalga oshadi?
1) kislotali; 2) ishqoriy; 3) neytral.
A) 1 B) 1, 2 C) 2 D) 3 E) 2, 3

9. (03-3-18) Qaysi omillar temirning elektr kimyoviy korroziyasini kuchaytiradi?
1) muhit pH ini kamaytirish; 2) muhit pH ini orttirish; 3) havoda CO_2 konsentratsiyasini orttirish; 4) eritmada kislorod miqdorini orttirish.
A) 1 B) 2 C) 1, 3 D) 3 E) 1, 3, 4

10. (04-1-495) Qaysi metall temirga tegib turganda, temirning korroziyasi eng kuchayadi?
A) magniy B) rux C) mis
D) oltin E) kumush

11. (v13-139-33) Nikellangan temir buyum darz ketganda ro'y beradigan korroziya qanday korroziya deyiladi?
A) elektrokimyoviy korroziya
B) elektrik korroziya
C) gazlar ta'siridagi korroziya
D) kimyoviy korroziya

12. (v13-141-2) Temir havo kislorodi va va suv ta'sirida korroziyaga uchrab, zanglaydi. 1,12 g temir zanglaganda qancha hajm (l, n. sh.) kislorod sarflanadi?
A) 22,4 B) 0,336 C) 0,224 D) 0,112

63. Metallarning kuchlanish qatori (Elektrokimyoviy kuchlanish qatori). Plastinka bo'yicha masalalar

1. (96-1-40) Mis nitrat eritmasiga qaysi guruhdagi metallar tushirilganda mis ajralib chiqadi?
A) Ag, Mg, Al B) Hg, Ag, Pt
C) Fe, Hg, Ag D) Pb, Zn, Ag
E) Al, Zn, Fe

2. (96-3-30) Amaliy jihatdan qaysi reaksiyalar sodir bo'ladi?
1) $CuCl_2 + Ag \rightarrow$; 2) $K + H_2O \rightarrow$;
3) $H_2SO_{4(k)} + Cu \rightarrow$; 4) $Fe_3O_4 + Mg \rightarrow$;
5) $Fe + S \rightarrow$.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 3, 4, 5
D) 1, 3, 4, 5 E) 1, 2, 4

3. (96-15-120) Mis qaysi metallarni ularning tuzlari eritmasida siqib chiqarishi mumkin?
A) Zn, Pb B) Pb, Sn
C) Sn, Hg D) Hg, Ag
E) Ag, Cr

4. (97-2-15) Eritmada bir xil konsentratsiyada quyidagi ionlar mavjud: 1) Cu^{2+}; 2) Ag^{+}; 3) Pb^{2+}; 4) Ni^{2+}; 5) ular elektroliz vaqtida katodda qanday ketma-ketlikda qaytariladi?
A) 2, 1, 3, 4, 5 B) 2, 3, 5, 4, 1
C) 3, 5, 4, 2, 1 D) 2, 4, 3, 5, 2
E) 1, 2, 3, 4, 5

5. (97-4-2) Rux plastinka tarkibida 13,5 g mis (II) xlorid bo'lgan eritmaga tushirildi. Plastinka massasi 0,01 g ga o'zgargan bo'lsa, eritmada necha gramm mis (II) xlorid qoladi?
A) 13,11 B) 11,15 C) 2,4
D) 5,76 E) qolmaydi

6. (97-4-26) Massasi 100 g bo'lgan mis (II) sulfat eritmasiga 10 g massali rux plastinka tushiriladi. Eritmada hamma mis ionlari qantarilib bo'lganidan so ng plastinka massasi 9,9 g keldi. Dastlabki eritmada mis (II) sulfatning massa ulushi (% larda) qanday bo'lgan?
A) 4 B) 8 C) 12 D) 16 E) 20

7. (97-4-55) Metallarning kuchlanishlar qatorida vodoroddan o'ngda joylashgan metallar quyidagi kislotalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) suyultirilgan sulfat kislota;
2) konsentrlangan sulfat kislota;
3) suyultirilgan nitrat kislota; 4) fosfat kislota;
5) konsentrlangan xlorid kislota.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 2, 3
D) 4, 5 E) 2, 5

8. (97-8-44) Rux sulfat eritmasiga aralashib qolgan mis (II) sulfatni qaysi metall bilan tozalash mumkin?
A) mis B) magniy C) kumush
D) rux E) temir

9. (97-10-21) Quyidagi metallarning qaytaruvchilik xossasi kamayish qatoriga joylashtiring va undagi temirning tartib raqamini aniqlang: Fe, Ca, Pb, Al, Cu.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

10. (97-10-106) Keltirilgan reaksiyalarning qaysi biri sodir bo'lmaydi?
A) $CuSO_4 + Fe \rightarrow$ B) $Pb(NO_3)_2 + Zn \rightarrow$
C) $Cu(NO_3)_2 + Pb \rightarrow$ D) $ZnSO_4 + Fe \rightarrow$
E) $Fe_2O_3 + Al \rightarrow$

11. (97-10-107) Suyultirilgan kislotalardan vodorodni siqib chiqara olmaydigan metalni ko'rsating.
A) Mg B) Al C) Na D) Hg E) Ca

12. (97-10-114) Qaysi holda reaksiya sodir bo'lmaydi?
A) $Cu + AgNO_3 \rightarrow$ B) $Pb + Cu(NO_3)_2 \rightarrow$
C) $Cu + Hg(NO_3)_2 \rightarrow$ D) $Cu + Pb(NO_3)_2 \rightarrow$
E) $Ca + Fe(NO_3)_3 \rightarrow$

13. (98-2-18) Massasi 40 g bo'lgan temir plastinka mis (II) sulfat eritmasiga tushirildi. Plastinka massasi 43 grammga yetganda eritmaga necha gramm temir o'tadi?
A) 15 B) 19 C) 21 D) 4 E)

14. (98-10-48) Misdan yasalgan sterjen kumush nitrat eritmasida tutib turilganda 38,4 g massasi 15,2 g ga ortgan. Sterjen 95% li sulfat kislotada eritish uchun necha gramm eritma sarf bo'ladi?
A) 140 B) 105 C) 124
D) 175 E) 210

15. (99-2-18) Mis (II) sulfat eritmasiga massasi 10 g bo'lgan temir plastinka tushirildi. Bunda plastinkaning massasi 11 g ga teng bo'lgan. Qancha (g) temir eritmaga o'tgan?
A) 1 B) 4 C) 6 D) 7 E)

16. (99-5-31) Quyidagi jarayonlarning qaysi birlari amalda bormaydi?
1) rux+qo'rg'oshin (II) nitrat →;
2) mis + simob (II) nitrat →; 3) mis + temir (II) xlorid →; 4) mis + marganes (II) sulfat →
5) qo'rg'oshin + xrom (III) xlorid →.
A) 1, 2, 3 B) 3, 4, 5 C) 2, 3, 4
D) 4, 5, 6 E) 1, 3, 5

17. (00-9-72) Mis sulfatning 125 g 20% li eritmasiga massasi 50 g bo'lgan temir plastina tushirildi. Birozdan so'ng temir plastina eritmadan chiqarib olindi, quritildi va uni tortib ko'rilganda massasi 51 g bo'lganligi aniqlandi. Eritmadagi temir sulfatning massa ulushini (foizlarda) aniqlang.
A) 7,7 B) 19,0 C) 15,3
D) 16 E) 15,5

18. (01-6-24) Xlorid kislota eritmasiga massasi 50 g bo'lgan metall plastinka tushirib qo'yildi. 336 ml (n. sh.) vodorod ajralib chiqqandan keyin, plastinka massasi 1,68% ga kamaygan. Plastinka qaysi metaldan yasalgan?
A) alyuminiy B) temir C) kalsiy
D) rux E) magniy

19. (01-6-70) 10 grammli temir plastinka tarkibida 1,6 g mis (II) sulfat bo'lgan eritmaga tushirilganda, plastinkaning massasi qanday o'zgaradi?
A) 0,08 g kamaydi B) o'zgarmaydi
C) 0,16 g kamayadi D) 0,08 g ortadi
E) 0,16 g ortadi

20. (01-7-52) Mis (II) sulfatning 0,1 M eritmasining 200 ml miqdoriga massasi 10,112 g bo'lgan temir bo'lagi tushirildi. Eritmadagi misning hammasi siqib chiqarilganidan keyin, plastinka massasi qancha (g) bo'ladi?
A) 12,64 B) 10,0 C) 13,31
D) 10,27 E) 15,22

21. (01-11-27) Rux plastinkasini qaysi eritmada tutib turilganda, uning massasi ortadi?
1) kumush nitrat; 2) temir (II) sulfat; 3) xlorid kislota; 4) simob (II) xlorid.
A) 3 B) 1, 4 C) 2, 4
D) 1 E) 1, 2, 4

22. (01-11-32) Kumush nitrat eritmasiga massasi 12,25 g bo'lgan rux tayoqchasi tushirilgan va tayoqchaga 2 g kumush qoplangandan so'ng, tayoqcha eritmadan chiqarib olingan. Tayoqcha massasi qanday bo'ladi?
A) 13,85 B) 13,25 C) 13,65
D) 11,65 E) 13,05

23. (02-3-59) Simob (II) xlorid eritmasiga massasi 50 g bo'lgan mis bo'lakchasi botirilgan. Tajriba oxirida bo'lakcha massasi 52,7 bo'lgan. Eritmada necha gramm simob (II) xlorid bo'lgan?
A) 1,36 B) 4,47 C) 2,38
D) 5,40 E) 2,31

24. (02-5-38) Mis (II) sulfat eritmasiga massasi 61,26 g bo'lgan temir plastinka botirib qo'yildi. Plastinka eritmadan olinib, yuvilib quritilganda, uning massasi 62,8 g bo'lgan. Plastinkaga necha gramm mis o'tirib qolganini toping.
A) 9,8 B) 1,54 C) 8,1
D) 10,53 E) 12,32

25. (02-12-20) $AgNO_3$ ning 0,2 M 200 ml eritmasiga nikel plastinka botirilganda, qanday jarayon sodir bo'ladi?
1) plastinka og'irligi ortadi; 2) kumush nitrat konsentratsiyasi ortadi; 3) 1,18 g nikel eriydi; 4) 2,36 g nikel eriydi; 5) plastinka massasi kamayadi.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 5
D) 1, 4 E) 3, 5

26. (02-12-22) $CuSO_4$ eritmasiga Zn plastinka tushirilganda, quyida keltirilgan tenglamalardan qaysi biri sodir bo'ladigan jarayonni to'liq aks ettiradi?
A) $Cu^{2+} \leftrightarrows Cu + 2e$
B) $Zn^{2+} \leftrightarrows Zn + 2e$
C) $Zn + 2e$
D) $Zn + Cu^{2+} \rightarrow Cu + Zn^{2+}$
E) $Cu + Zn^{2+} \rightarrow Cu^{2+} + Zn$

27. (03-1-47) Massasi 15 g bo'lgan mis plastinka kumush nitrat eritmasiga tushirilganda ajralib chiqqan kumushni eritish uchun 15% li HNO_3 dan (ρ = 1,085 g/ml) 25 ml sarf bo'ldi. Kumush nitrat eritmasidan chiqarib olingan mis plastinkasining massasini aniqlang.
A) 16,53 B) 18,68 C) 19,87
D) 21,23 E) 27,65

28. (03-2-13) Quyidagi fikrlardan qaysilari to'g'ri ekanligini toping:
1) metallar aktivlik qatorida vodoroddan chapda joylashgan-metallarning kation holatiga o'tishi qolganlariga qaraganda aktivroq bo'ladi; 2) metallar aktivlik qatorida vodoroddan o'ngda joylashgan metallarning kation holatiga o'tishi qolganlariga qaraganda aktivroq bo'ladi; 3) metallar aktivlik qatorida vodoroddan chapda joylashgan metallar barcha kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi; 4) metallar aktivlik qatorida vodoroddan o'ngda joylashgan metallar ionlarining neytral atom holatiga o'tishi qolganlariga qaraganda aktivroq bo'ladi.
A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 4
E) 3, 4

29. (03-3-22) Suvli eritmada ekvimolyar konsentratsiyada olingan quyidagi ionlar aralashmasiga ega bo'lgan eritma elektroliz qilinganda, ularning qaytarilish tartibini ko'rsating:
1) Fe^{2+}; 2) Al^{3+}; 3) Cu^{2+}; 4) Zn^{2+}; 5) Pb^{2+}
A) 3, 5, 4, 1, 2 B) 2, 4, 1, 5, 3
C) 5, 4, 3, 2, 1 D) 3, 5, 1, 4, 2
E) 3, 4, 5, 2, 1

30. (03-3-34) Massasi 50 g bo'lgan metall plastinka xlorid kislota eritmasiga tushirilganda, uning massasi 1,68% ga kamaydi va 0,336 l gaz ajralib chiqdi. Plastinka qaysi metaldan yasalgan?
A) Mg B) Al
C) Fe D) Zn E) Cd

31. (03-7-6) Kadmiy sulfat eritmasiga massasi 50 g bo'lgan rux plastinka botirib qo'yildi. Oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, plastinkaning massasi 3,76% ga ortdi. Eritmaga o'tgan ruxning massasini toping.
A) 5,3 B) 4,3 C) 3,4
D) 3,9 E) 11,2

32. (03-7-7) Kumush nitrat eritmasiga massasi 40 g bo'lgan mis plastinka tushirildi. Oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, ya'ni kumush eritmadan batamom ajralgandan, so'ng plastinkaning massasi 3,8% ga ortganligi ma'lum bo'ldi. Eritmada qancha (g) kumush nitrat bo'lganligini va ajralib chiqqan metalning massasini aniqlang.
A) 5,87; 3,73 B) 3,73; 5,87
C) 10,8; 10,8 D) 1,70; 5,4
E) 1,3; 1,5

33. (04-1-478) CuC_2 va $CdCl_2$ eritmalariga +2 ion hosil qiluvchi metaldan yasalgan bir xil massali plastinkalar tushirildi. Birinchi eritmaga tushirilgan plastinka massasi 1,2% ga, ikkinchisi 3,6% ortdi. Eritmalarning molyar konsentratsiyalari bir xilda kamaygan. Plastinka qaysi metaldan iborat bo'lgan?
A) Al B) Zn C) Fe D) Ca E) Ba

34. (04-1-498) Amalga oshmaydigan jarayonlarni tanlang.
1) rux + qo'rg'oshin (II) nitrat →;
2) kumush + simob (II) nitrat →;
3) qalay + qo'rg'oshin (II) nitrat →;
4) mis + marganes (II) sulfat →;
5) qo'rg'oshin + xrom (III) xlorid →
A) 1, 2, 3 B) 3, 4, 5 C) 2, 3, 4
D) 2, 4, 5 E) 1, 3, 5

35. (04-1-552) Massasi 10 g bo'lgan temir plastinka mis (II) sulfat eritmasiga tushirildi. Bunda plastinkaning massasi 11 g ga teng bo'lgan. Qancha (g) temir (II) sulfat hosil bo'lgan?
A) 19 B) 4 C) 6 D) 7 E) 8

36. (v4-102-9) Mis qaysi metallarni ularning tuzlari eritmasidan siqib chiqarishi mumkin emas?
A) qalay, simob B) kumush, xrom
C) rux, kumush D) simob, kumush
E) qo'rg'oshin, qalay

37. (v4-110-9) Mis (II) nitrat eritmasiga qaysi guruhdagi metallar tushirilganda mis ajralib chiqmaydi?
A) temir, simob, kumush
B) alyuminiy, rux, temir
C) kumush, magniy, alyuminiy
D) qo'rg'oshin, rux, kumush
E) simob, kumush, platina

38. (v4-118-35) 5 grammli temir plastinka tarkibida 6,4 g mis (II) sulfat bo'lgan eritmaga tushirilganda, plastinkaning massasi qanday o'zgaradi?
A) 0,16 g kamayadi B) 0,16 g ortadi
C) 0,08 g kamayadi D) 0,08 g ortadi
E) 0,32 g ortadi

39. (v4-120-35) Mis (II) sulfatning 0,15 M eritmasining 200 ml miqdoriga massasi 10,112 g bo'lgan temir bo'lagi tushirildi. Eritmadagi misning hammasi siqib chiqarilganidan keyin plastinka massasi qancha (g) bo'ladi?
A) 10,35 B) 15,22 C) 12,64
D) 10,27 E) 10,0

40. (v4-122-34) Kumush nitrat eritmasiga massasi 76 g bo'lgan mis plastinka tushirildi. Kumush batamom siqib chiqarilgandan keyin plastinkaning massasi 4,2% ga ortdi. Eritmada qancha kumush nitrat bo'lgan?
A) 6,8 B) 9,8 C) 8,2 D) 8,8 E) 7,1

41. (v5-102-35) Kumush nitrat eritmasiga tushirilgan 8,14 g massali rux tayoqchaga 2,8 g kumush qoplangandan so'ng eritmadan chiqarib olingan tayoqchaning massasi ... (g).
A) 13,65 B) 11,2 C) 0,84
D) 10,1 E) 7,30

42. (v5-105-28) 300 g 10% li mis (II) xlorid eritmasiga 10 g massali rux plastinka tushirildi. Plastinka massasi 1% ga kamayganda jarayon to'xtatildi. Reaksiyaga kirishgan ruhning massasini (g) va eritmada qolgan mis (II) xloridning massa ulushini (%) aniqlang.
[A_r(Zn) = 65, A_r(Cu) = 64]
A) 5,6 va 5,9 B) 6,5 va 6,5
C) 6,5 va 5,5 D) 5,5 va 5,5
E) 8,5 va 6,5

43. (v5-114-29) Tarkibida 38% mis bo'lgan oltin qotishmasining 10 g miqdorini eritish uchun tarkibida necha gramm nitrat kislota bo'lgan eritma talab etiladi? Nitrat kislota NO holigacha qaytariladi.
A) 9,975 B) 12 C) 26,25
D) 30,4 E) 3,74

44. (v5-126-25) 200 g 16% li mis (II) sulfat eritmasiga 50 g temir plastinka tushirildi. Jarayon plastinka massasi 50,96 g bo'lganda to'xtatildi. Oxirgi eritmadagi mis sulfat va temir (II) sulfatlarning massa ulushlarini (%) toping.
A) 6,4 va 7,8 B) 5,6 va 9,7
C) 6,4 va 9,1 D) 8,42 va 6,4
E) 6,4 va 8,42

45. (v5-130-35) 163 g 3,7% li kumush nitrat eritmasiga 12 g li rux plastinkasi tushirildi va uning massasi 14 g ga yetganda jarayon to'xtatildi. Eritmadagi moddalarning massasi (g) – ... .
A) $AgNO_3$ = 1,9; $Zn(NO_3)_2$ = 2,1
B) $AgNO_3$ = 1,8; $Zn(NO_3)_2$ = 3,6
C) $AgNO_3$ = 3,4; $Zn(NO_3)_2$ = 2,8
D) $AgNO_3$ = 2,4; $Zn(NO_3)_2$ = 4,2
E) $AgNO_3$ = 1,5; $Zn(NO_3)_2$ = 2,5

46. (v5-135-25) 380 g 12% li mis sulfat eritmasiga 7 g li rux plastinkasi tushirildi Plastinka massasi 1% ga kamayganda jarayon to'xtatildi. Eritmadagi qolgan rux va mis sulfatlarning massalari (g) – ... .
[A_r(Cu) = 64; A_r(Zn) = 65]
A) 4,56; 21,4 B) 8,45; 35,4
C) 11,27; 34,4 D) 12,4; 39,8
E) 9,75; 29,3

47. (v7-109-25) 6,4 g mis sterjen kumush nitrat eritmasiga solinib, birozdan keyin olinganda uning massasi 3,04 g ga ortgan. Ushbu sterjenni butunlay eritish uchun necha gramm 96% li sulfat kislota sarf bo'ladi?
A) 20,4 B) 16,3
C) 19,6 D) 24,5

48. (v7-113-10) Qaysi metall suyultirilgan xlorid kislotadan vodorodni siqib chiqara olmaydi?
A) litiy B) rux
C) mis D) kaliy

49. (v7-115-10) Qaysi metall xona haroratida suyultirilgan sulfat kislotadan vodorodni siqib chiqaradi?
A) rux B) oltin
C) kumush D) mis

50. (v7-119-24) 300 g rux sulfat eritmasiga og'irligi 20 g bo'lgan magniy plastinka solindi. Ma'lum vaqtdan so'ng plastinkani olinib quritilganda u 28,2 g ni tashkil qildi. Eritmadagi magniy sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 8,2 B) 9,6 C) 6,7 D) 7,6

51. (v9-105-25) 300 g 10,4% li kadmiy sulfat eritmasiga 10 g rux plastinka tushirildi. Biroz vaqtdan so'ng plastinkaning massasi 14,7 g ni tashkil qilsa, undagi ruxning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 23,8 B) 11,2 C) 44,2 D) 35,6

52. (v9-113-32) 17% li 400 ml (ρ = 1,25 g/ml) kumush nitrat eritmasiga og'irligi 20 g bo'lgan temir plastinka tushirildi. Plastinka massasi 36 g bo'lganda eritmadan chiqarildi. Qolgan eritmadagi moddalarning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 7,6; 9,8 B) 4,5; 14,6
C) 3,7; 10,5 D) 5,6; 10,3

53. (v9-114-27) Kadmiy sulfatning 400 g 20% li eritmasiga rux plastinka tushirildi. Plastinka massasi 4,7 g ga ortganda eritmadan chiqarib olindi. Qolgan eritmadagi rux sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 16,1 B) 4,07 C) 8,05 D) 9,4

54. (v9-116-20) Kadmiy sulfatning 16% li 500 g eritmasiga og'irligi 20 g bo'lgan rux plastinka tushirildi. Biroz vaqtdan so'ng plastinkani eritmadan chiqarib, quritilib tortilganda uning massasi 21,88 g ni tashkil qildi. Plastinkadagi kadmiyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 20,5 B) 35,6 C) 29,4 D) 79,5

55. (v9-121-35) 160 ml 11,9% li kumush nitrat eritmasiga (ρ = 1,25 g/ml) massasi 10 g bo'lgan mis plastinka tushirildi. Plastinkaning massasi 17,6 g bo'lganda eritmadan chiqarib olindi. Eritmada qolgan kumush nitratning massasini (g) aniqlang.
A) 15,2 B) 17,6 C) 6,8 D) 17

56. (v9-123-34) 400 g 15,6% li kadmiy sulfat eritmasiga rux plastinka tushirildi. Plastinka massasi 9,4 g ga ortganda chiqarib olingan bo'lsa, eritmada qolgan kadmiy sulfatning massasini (g) aniqlang.
A) 41,6 B) 62,4 C) 32,2 D) 20,8

57. (v9-124-30) Kumush nitratning 136 ml (ρ = 1,25 g/ml) 10% li eritmasiga 10 g mis plastinka tushirildi. Plastinkaning massasi 12,28 g bo'lganda eritmadan chiqarib olinsa, qolgan eritmadagi kumush nitratning massasini (g) hisoblang.
A) 11,9 B) 17 C) 3,21 D) 5,1

58. (v9-127-7) 20% li 340 g kumush nitrat eritmasiga 40 g temir plastinka tushirildi. Plastinka massasi 56 g bo'lganda eritmadan chiqarildi. Eritmada qolgan moddalarning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,8; 0,4 B) 0,4; 0,1
C) 0,2; 0,1 D) 0,6; 0,5

59. (v11-103-5) Kumush nitrat eritmasiga 6,4 g mis sterjen solinib, bir o'zdan keyin olinganda uning massasi 3,04 g ga ortgan. Ushbu sterjenni butunlay eritish uchun necha gramm 96% li sulfat kislota sarf bo'ladi?
A) 20,4 B) 19,6 C) 16,3 D) 24,5

60. (v11-103-31) 400 gramm 20% li kadmiy sulfat eritmasiga rux plastinka tushirildi. Plastinka massasi 4,7 grammga ortganda eritmadan chiqarib olindi. Qolgan eritmadagi rux sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 8,05 B) 16,1 C) 9,4 D) 4,07

61. (v11-107-10) Massasi 10 gramm bo'lgan rux plastinkasi kadmiy sulfatning 300 gramm 10,4% li eritmasiga tushirildi. Biroz vaqtdan so'ng Plastinkaning massasi 14,7 grammni tashkil qilsa, undagi ruxning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 23,8 B) 11,2 C) 35,6 D) 44,2

62. (v12z-230-9) Tarkibida 4,8 g $CuSO_4$ bo'lgan eritmaga kadmiy plastinka tushirildi. Mis batamom siqib chiqarilgandan keyin plastinka massasi 3,6% ga kamaydi. Eritmaga tushirilgan plastinka massasini (g) aniqlang.
A) 30 B) 50 C) 40 D) 80

63. (v12z-259-36) Ikki zaryadli ion hosil qiluvchi metaldan yasalgan bir xil massali ikkita plastinkadan birini $CuSO_4$ eritmasiga, ikkinchisini $HgSO_4$ eritmasiga tushirib qo'yildi. Birozdan so'ng birinchi Plastinkaning massasi 2,6% ga kamaydi, ikkinchisiniki esa 3,9% ga ortdi. Ushbu plastinkalar qaysi metaldan yasalgan?
A) Sn B) Pb C) Mo D) Sb

64. (v12c-101-8) 100 g kumush nitrat eritmasiga 16,8 g temir plastinka tushirildi va eritmadan kumush to'liq siqib chiqarilgandan keyin plastinka massasi 32,8 g ni tashkil etsa, plastinkadagi temirning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 34,1 B) 51,2 C) 48 8 D) 65,9

65. (v12c-121-31) Tarkibida 5,6 g $CuSO_4$ bo'lgan eritmaga rux plastinka tushirildi. Mis batamom ajralib chiqqandan keyin plastinka massasi 0,7% ga kamaydi. Rux plastinkasining massasini (g) aniqlang.
A) 4 B) 8 C) 6 D) 5

66. (v12c-126-1) 100 g kumush nitrat eritmasiga 16,8 g temir plastinka tushirildi va eritmadan kumush to'liq siqib chiqarilgandan keyin plastinka massasi 32,8 g ni tashqi etsa, hosil bo'lgan eritma tarkibidagi temir (II) nitrat massasini (g) aniqlang.
A) 34 B) 8 C) 36 D) 24,2

67. (v13-101-23) 400 g kadmiy 20% li kadmiy sulfat eritmasiga rux plastinka tushirildi. Plastinkani chiqarib olinganda uning massasi 4,7 g ga ortgan bo'lsa, eritmada rux sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 8,05 B) 9,4 C) 4,07 D) 16,1

68. (v13-106-12) +2 zaryadli ion hosil qiluvchi metaldan yasalgan va massasi bir xil ikkita plastinkaning birini mis (II) xlorid eritmasiga, ikkinchisini kumush nitrat eritmasiga tushirib qo'yildi. Biroz vaqt o'tgandan keyin mis (II) xlorid eritmasiga tushirilgan plastinkaning massasi 0,1%, ikkinchi plastinkaning massasi esa 2% ortdi. Mis (II) xlorid va kumush nitratning molyar konsentratsiyalari bir xilda kamaydi. Metalni aniqlang.
A) Fe B) Cd C) Zn D) Cr

69. (v13-109-17) +2 zaryadli ion hosil qiluvchi metaldan yasalgan va massasi bir xil ikkita plastinkaning birini mis (II) xlorid eritmasiga, ikkinchisini kumush nitrat eritmasiga tushirib qo'yildi. Biroz vaqt o'tgandan keyin mis (II) xlorid eritmasiga tushirilgan plastinkaning massasi 0,6% ga kamaydi, ikkinchi plastinkaning massasi esa 1,3% ortdi. Mis (II) xlorid va kumush nitratning molyar konsentratsiyalari bir xilda kamaydi. Metalni aniqlang.
A) Zn B) Cd C) Cr D) Fe

70. (v13-136-7) Massasi 73 g bo'lgan rux namunasi 240 g nikel (II) sulfat eritmasiga botirildi. Biroz vaqtdan so'ng namuna massasi 71,8 g gacha kamaygan bo'lsa, eritmadagi rux sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 13,3 B) 14,3 C) 14,6 D) 13,6

71. (v13-148-6) +2 zaryadli ion hosil qiluvchi metaldan yasalgan va massasi bir xil ikkita plastinkaning birini mis (II) xlorid eritmasiga, ikkinchisini kumush nitrat eritmasiga tushirib qo'yildi. Biroz vaqt o'tgandan keyin mis (II) xlorid eritmasiga tushirilgan plastinkaning massasi 0,2%, ikkinchi plastinkaning massasi esa 4% ortdi. Mis (II) xlorid va kumush nitratning molyar konsentratsiyalari bir xilda kamaydi. Metalni aniqlang.
A) Fe B) Cd C) Zn D) Cr

72. (v13-172-33) +2 zaryadli ion hosil qiluvchi metaldan yasalgan va massasi bir xil ikkita plastinkaning birini mis (II) xlorid eritmasiga, ikkinchisini kumush nitrat eritmasiga tushirib qo'yildi. Biroz vaqt o'tgandan keyin mis (II) xlorid eritmasiga tushirilgan plastinkaning massasi 0,4%, ikkinchi plastinkaning massasi esa 8% ortdi. Mis (II) xlorid va kumush nitratning molyar konsentratsiyalari bir xilda kamaydi. Metalni aniqlang.
A) Fe B) Cd C) Zn D) Cr

73. (v15-110-31) 11,2 g Fe plastinka 150 g mis (II) sulfat eritmasiga tushirildi. Mis batamom ajralib chiqqandan so'ng plastinka metallarini to'liq eritish uchun 80 ml 37,5% li HNO_3 eritmasi (rho = 1,26 g/ml) sarflandi. Boshlang'ich eritmadagi tuz konsentratsiyasini (%) aniqlang. Metallar HNO_3 bilan NO hosil qiladi.
A) 18 B) 12 C) 16 D) 24

74. (v15-111-28) Kumush nitrat eritmasiga noma'lum massali mis plastinka tushirildi. Kumush plastinkaga batamom o'tirgandan so'ng olingan plastinka massasi 118 g keldi. Agar olingan plastinkani to'liq eritish uchun 350 g 70% li sulfat kislota eritmasi sarfi ansa, dastlabki plastinkaning necha foizi kumush nitrat bilan reaksiyaga kirishganligini aniqlang.
A) 60 B) 50 C) 20 D) 80

75. (v15-121-30) 0,25 kg 32% li mis (II) sulfat eritmasiga ruxdan yasalgan plastinka tushirilganda eritmadagi barcha mis plastinkaga yopishgandan keyingi olingan metall qotishmasidagi ruxni eritish uchun 28% li kaliy gidroksiddan 400 g sarflandi. Dastlabki plastinka massasini (g) hisoblang.
A) 130 B) 65 C) 195 D) 97,5

76. (v16-110-23) Kumush nitrat eritmasiga noma'lum massali mis plastinka tushirildi. Kumush plastinkaga batamom o'tirgandan so'ng olingan plastinka massasi 124 g keldi. Agar olingan plastinkani to'liq eritish uchun 200 g 73,5% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, dastlabki plastinka massasini (g) aniqlang.
A) 16 B) 48 C) 32 D) 24

77. (v16-116-2) Mis (II) sulfat eritmasiga massasi 33,6 g temir plastinka tushirildi. Biroz vaqtdan keyin plastinka eritmadan olinib, quritildi. Plastinkaning massasi 36,8 g ga teng bo'ldi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan misning massasini (g) aniqlang.
A) 8 B) 25,6 C) 32 D) 3

78. (v17-106-7) Mis (II) sulfat eritmasiga metall plastinkasi tushirildi. Reksiya vaqtida plastinkadagi ikki valentli metall eritmaga o'tdi va plastinka massasi 1 g oshdi. Ajralgan mis massasi 1,6 g ni tashkil etdi. Metallni aniqlang.
A) Zn B) Fe C) Mg D) Ca

79. (v17-107-29) 250 g $CuSO_4$ eritmasiga 16,8 g temir plastinkasi tushirildi. Mis batamom siqib chiqarilgandan so'ng plastinkadagi metallarning ajralib chiqishi uchun 100 ml (ρ = 1,26) 50% li HNO_3 sarflandi, boshlang'ich eritmadagi tuzning massa ulushini aniqlang (metallar HNO_3 bilan NO hosil qiladi).
A) 24 B) 32
C) 9,6 D) 6,72

80. (v17-115-24) Mis (II) sulfat eritmasiga metall plastinkasi tushirildi. Reaksiya vaqtida ikki valentli metall plastinkasi eritmaga o'tdi va plastinka massasi 2 g ga oshdi. Ajralgan mis massasi 16 g ni tashkil etdi. Metallni aniqlang.
A) Ca B) Fe
C) Mg D) Zn

81. (v17-117-12) Ikki valentli metallning bir xil massali ikki plastinkalardan bin mis (II) xloridi eritmasiga, ikkinchisi kumush nitrat eritmasiga tushurildi. Birinchi eritmadagi plastinka massasi 0,4% ga oshdi, ikkinchi eritmadagi esa 8% ga oshdi. Mis xloridi va kumush nitrati eritmalari molyar kontsentratsiyalari bir xil kamaydi. Plastinka metallini aniqlang.
A) Zn B) Cr
C) Fe D) Cd

82. (v17-126-2) Mis (II) sulfat eritmasiga metall plastinkasi tushirildi. Reaksiya vaqtida plastinkadagi ikki valentli metall eritmaga o'tdi va plastinka massasi 1 g oshdi. Ajralgan mis massasi 1,6 g ni tashkil etdi. Noma'lum metall massasini (g) aniqlang.
A) 0,6 B) 1,2
C) 2,4 D) 0,75

64. Suvning qattiqligi

1. (96-4-61) Suvning yuvish xususiyatini qanday tushuntirasiz?
1) suvning yumshayishi tufayli; 2) ko'pik hosil bo'lishi tufayli; 3) ishqor hosil qilib gidrolizlanishi natijasida; 4) kislota hosil qilib gidrolizlanishi natijasida; 5) sovunning suvda erishi tufayli
A) 1 va 2 B) 2 va 3 C) 1 va 3
D) 2 va 4 E) 4 va 5

2. (96-10-51) Suvning qattiqligini yo'qotish uchun qanday moddalar qo'shiladi?
1) Na_2CO_3; 2) $Ca(OH)_2$; 3) $CaCO_3$;
4) NaOH; 5) HCl.
A) 1 va 2 B) 1 va 3 C) 2 va 4
D) 1 va 4 E) 4 va 5

3. (97-10-187) Qaysi kationlarning mavjud bo'lishi tufayli suv ma'lum qattiqlikka ega bo'ladi?
A) K^+, Rb^+ B) Li^+, Be^{2+}
C) Ca^{2+}, Mg^{2+} D) Sr^{2+}, Ba^{2+}
E) Na^+, K^+

4. (98-8-31) Suvning qattiqligi kalsiyning qaysi tuzi tufayli yuzaga keladi?
A) kalsiy gidrokarbonat B) kalsiy bromid
C) kalsiy sulfat D) kalsiy nitrat
E) kalsiy sulfit

5. (98-9-63) Suvning vaqtincha (muvaqqat) qattiqligi qaysi ionlar hisobiga paydo bo'ladi?
1) magniy; 2) karbonat; 3) gidrokarbonat;
4) sulfat; 5) xlor (III); 6) kalsiy; 7) nitrat;
8) temir (II).
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 6 C) 1, 3, 6
D) 1, 4, 8 E) 1, 4, 6

6. (99-2-38) Suvning doimiy qattiqligi qaysi tuzlar tufayli yuzaga keladi?
1) magniy gidrokarbonat; 2) magniy sulfat;
3) kalsiy gidrokarbonat; 4) kalsiy sulfat;
5) magniy xlorid; 7) kalsiy karbonat.
A) 1 va 2 B) 1 va 3
C) 2 va 4 D) 3 va 4
E) 1, 3 va 6

7. (99-4-50) Suvning vaqtinchalik qattiqligiga sababchi bo'ladigan tuz ta'sirini yo'qotish uchun qaysi modda ishlatiladi?
A) natriy nitrat B) kalsiy gidroksid
C) natriy xlorid D) vodorod xlorid
E) vodorod bromid

8. (99-5-32) Suvning doimiy qattiqligini yo'qotish uchun qaysi moddadan foydalansa bo'ladi?
A) soda B) kaliy sulfid
C) kaliy xlorid D) natriy gidroksid
E) kalsiy karbonat

9. (00-9-82) Qattiq suv tarkibida $Ca(HCO_3)_2$ massa ulushi 0,015% va $Mg(HCO_3)_2$ massa ulushi 0,005% ekanligi ma'lum bo'lsa, 20 l hajmdagi (ρ = 1 g/ml) suv qattiqligini yo'qotish uchun $Ca(OH)_2$ dan necha gramm qo'shish kerak?
A) 2,58 B) 2,28 C) 1,85
D) 3,38 E) 2,38

10. (00-10-22) Suvning 300 litrida 43,8 g $Mg(HCO_3)_2$ borligini bo'lgan holda, shu suvning muvaqqat qattiqligini (mg·ekv) aniqlang.
A) 1 B) 2 C) 2,5 D) 1,5 E) 3

11. (01-3-5) 2 l suvning har litrida 50 g $Ca(HCO_3)_2$ va 35 g $Mg(HCO_3)_2$ bo'lsa, uzoq vaqt qaynatish natijasida choynak tubida qanday massadagi (g) quyqa hosil bo'ladi?
A) 56,8 B) 102,0 C) 57
D) 113,5 E) 94,8

12. (01-3-6) Har litrida 10 g $CaSO_4$ va 40 g $MgSO_4$ bo'lgan suvning 5 litr miqdori berilgan. Bu suvni yumshatish uchun qancha (g) natriy karbonat sarf qilish kerak?
A) 431,0 B) 215,6 C) 323,4
D) 265 E) 353

13. (01-4-62) Muvaqqat qattiqlikni keltirib chiqarmaydigan tuzlarni aniqlang.
1) kalsiy gidrokarbonat; 2) kalsiy xlorid;
3) magniy xlorid; 4) magniy sulfat;
5) magniy gidrokarbonat.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 1, 5 E) 2, 3, 4

14. (01-4-63) Doimiy qattiqlikni keltirib chiqarmaydigan tuzlarni aniqlang.
1) kalsiy gidrokarbonat; 2) kalsiy xlorid;
3) magniy xlorid; 4) kalsiy sulfat; 5) magniy sulfat; 6) magniy gidrokarbonat.
A) 1, 2 B) 3, 4, 5 C) 3, 4, 6
D) 2, 4, 5 E) 1, 6

15. (03-8-6) Qattiq suv tarkibida kalsiy va magniyning gidrokarbonatlari bo'lsa, qanday suv deyiladi?
A) muvaqqat qattiqlikdagi B) yumshoq
C) juda qattiq D) og'ir
E) yengil

16. (04-1-517) Suvning qattiqligini yo'qotishda qanday moddalardan foydalanilmaydi?
1) soda; 2) kalsiy gidroksid; 3) kaliy gidroksid;
4) natriy gidroksid; 5) vodorod xlorid.
A) 1 va 2 B) 1 va 3
C) 2 va 4 D) 3 va 4, 5
E) 4 va 5

17. (04-1-576) Doimiy qattiqlikni keltirib chiqarmaydigan tuzlarni aniqlang.
1) magniy gidrokarbonat; 2) kalsiy gidrokarbonat; 3) magniy sulfat; 4) kalsiy sulfat; 5) magniy xlorid.
A) 1, 2 B) 1, 3, 4 C) 2, 4, 5
D) 3, 4, 5 E) 1, 3, 6

18. (04-1-584) 2 l suvda 50 g $Ca(HCO_3)_3$ va 35 g $Mg(HCO_3)_3$ bo'lsa, uzoq vaqt qaynatish natijasida choynak tubida qanday massadagi (g) quyqa hosil bo'ladi?
A) 71,13 B) 102,0 C) 51
D) 113,5 E) 94,82

19. (04-1-585) Har litrida 10 g $MgSO_4$ va 40 g $CaSO_4$ bo'lgan suvining 5 litr miqdori berilgan. Bu suvni yumshatish uchun qancha (g) natriy karbonat sarf qilish kerak?
A) 431,0 B) 215,6 C) 132,4
D) 127,3 E) 200

20. (v4-107-24) Suvni yumshatishda qanday moddalardan foydalanilmaydi?
1) soda; 2) kalsiy gidroksid; 3) kaliy gidroksid:
4) natriy gidroksid; 5) vodorod xlorid.
A) 2 va 4 B) 4 va 5
C) 1 va 2 D) 3 va 4, 5 E) 1 va 3

21. (v11-116-16) Suvning vaqtinchalik qattiqligini qanday usullar bilan yo'qotish mumkin?
1) suvga soda qo'shish orqali; 2) suvni qaynatish orqali; 3) natriy fosfat qo'shish orqali; 4) elektroliz usuli yordamida; 5) ohakli suv qo'shish orqali.
A) 1, 2, 3 B) 2, 4, 5 C) 3, 5 D) 1, 2, 5

22. (v14-130-22) Tarkibida 73 mg/l $Mg(HCO_3)_2$ va 40,5 mg/l $Ca(HCO_3)_2$ bo'lgan 5 l suv qaynatilsa qancha (g) quyqa tushadi?
A) 268 B) 0,335 C) 0,188 D) 188

23. (v15-129-33) 400 ml suv tarkibida 44,4 mg $CaCl_2$ va 14,6 mg $Mg(HCO_3)_2$ mavjud. Suvning qattiqligini (mg-ekv) aniqlang.
A) 4,75 B) 6,5 C) 3,75 D) 2,5

65. Alyuminiy

1. (96-1-39) Quyidagi moddalarning qaysi birini suvda eritilganda cho'kma va gaz modda hosil bo'ladi?
A) Al_2O_3 B) FeS_2
C) Al_4C_3 D) $MnCO_3$ E) PH_3

2. (97-5-65) Alyuminiy qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) xlorid kislota; 2) temir; 3) kislorod; 4) kaliy xlorid; 5) oltingugurt; 6) natriy sulfat.
A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 6 C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 6 E) 3, 4, 6

3. (97-5-66) Alyuminiy oksidni qaysi reaksiya natijasida olish mumkin?
1) $Al_2(SiO_3)_3 \xrightarrow{t}$; 2) $Al + O_2 \rightarrow$;
3) $Al_2S_3 + H_2O \rightarrow$. 4) $Al(OH)_3 \xrightarrow{t}$;
5) $AlCl_3 + NaOH \rightarrow$; 6) $Al + Na_2O \rightarrow$.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 5
D) 3, 6 E) 1, 6

4. (97-9-25) Qaysi karbid suvga ta'sir ettirilganda metan hosil bo'ladi?
A) kalsiy karbid B) bariy karbid
C) magniy karbid D) kumush karbid
E) alyuminiy karbid

5. (97-10-115) Sanoatda alyuminiy qaysi usul bilan olinadi?
A) pirometallurgiya B) metallotermiya
C) vodorodtermiya D) gidrometallurgiya
E) elektrometallurgiya

6. (97-10-145) Alyuminotermiya reaksiyasida qanday jarayon amalga oshadi?
A) alyuminiy kislorod ta'sirida oksidlanadi
B) alyuminiy xlorid kislotada eritiladi
C) alyuminiy suyuqlantiriladi
D) alyuminiy sulfat kislotada eriydi
E) metallar oksidlari alyuminiy yordamida qaytarilib, metall olinadi

7. (97-10-147) Alyuminiyga konsentrlangan sovuq nitrat kislota ta'sir ettirilsa, qanday jarayon sodir bo'ladi?
A) azot (I) oksid ajraladi
B) azot (II) oksid ajraladi
C) azot (IV) oksid ajraladi
D) reaksiya sodir bo'lmaydi
E) ammoniy nitrat hosil bo'ladi

8. (97-10-166) 13,5 g alyuminiy mo'l miqdordagi natriy ishqor bilan reaksiyaga kirishganda, necha litr vodorod ajralib chiqadi?
A) 11,2 B) 13,4 C) 15,6
D) 16,8 E) 22,4

9. (97-10-188) Alyuminiy olishda ishlatiladigan va sun'iy yo'l bilan tayyorlanadigan mineral (Na_3AlF_6) ning nomini ko'rsating.
A) boksit B) korund
C) kriolit D) termit
E) nefelin

10. (97-11-20) Alyuminiy kukuni bilan temir suyundisi (FeO, Fe_2O_3) ning ekvimolyar qalashma nomini toping.
A) termit B) korund
C) kriolit D) magnitli temirtosh
E) qizil temirtosh

11. (97-11-60) 2 mol alyuminiyga sulfat kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan vodorod hajmini (l) toping. [A_r(Al) = 27].
A) 22,4 B) 44,8 C) 67,2
D) 89,6 E) 112,0

12. (97-11-61) 9 g alyuminiy bilan xlorid kislota orasidagi reaksiyada hosil bo'ladigan hajmdagi vodorodni olish uchun natriy va suv orasidagi reaksiyada necha mol natriy sarf bo'ladi? [A_r(Al) = 27, A_r(Cl) = 35,5, A_r(Na) = 23]
A) 0,5 B) 1,0 C) 1,5
D) 2,0 E) 3,0

13. (97-11-94) Alyuminotermik usulda xrom (III) oksiddan 26 g xrom olish uchun necha gramm alyuminiy sarf qilish lozim? [A_r(Cr) = 52, A_r(Al) = 27, A_r(O) = 16].
A) 13,5 B) 14,0 C) 14,5
D) 15,0 E) 13,0

14. (97-11-95) Alyuminiy bilan misning 11,75 g aralashmasiga xlorid kislota bilan ishlov berildi va 6,72 litr gaz modda olindi. Aralashmada necha foiz alyuminiy bo'lgan? [A_r(Cu) = 63,5, A_r(Al) = 27, A_r(Cl) = 35,5]
A) 56 B) 64 C) 46
D) 48 E) 52

15. (97-11-129) Alyuminiy xloridning 13,35 g miqdori suvda eritildi va unga natriy gidroksiddan 12,0 g qo'shildi. hosil bo'lgan cho'kma massasi necha gramm bo'ladi? [A_r(Al) = 27, A_r(Cl) = 35,5, A_r(Na) = 23, A_r(O) = 16]
A) 7,8 B) 7,5 C) 7,6
D) 8,0 E) 8,2

16. (97-12-43) 1 mol $Al(OH)_3$ ni kaliy metaalyuminatga aylantirish uchun massasi 200 g bo'lgan KOH eritmasining foiz konsentratsiyasi qanday bo'lishi kerak?
A) 14 B) 28 C) 32
D) 42 E) 56

17. (98-7-18) 27,3 gramm vanadiy (V) oksidga toza alyuminiy ta'sir ettirib, necha gramm vanadiy olish mumkin? [M_r(Al) = 27, M_r(V) = 51, M_r(O) = 16]
A) 30,6 B) 45,9 C) 15,3
D) 20,4 E) 40,8

18. (98-7-24) 69,6 g magnetit bilan alyuminiy qizdirilganda, 50,4 g temir moddasi ajratib olingan. Shu reaksiyada alyuminiydan necha gramm sarflangan? [M_r(Fe) = 56, M_r(Al) = 27, M_r(O) = 16]
A) 27,0 B) 25,5 C) 21,6
D) 42,2 E) 10,8

19. (98-7-29) 96% li nitrat kislota bilan alyuminiy va misdan iborat 10 g aralashmaga ishlov berilganda, 4,48 l (n. sh. da) gaz ajralib chiqdi. Aralashmadagi alyuminiy massasini (g) aniqlang. [M_r(N) = 14, M_r(O) = 16, M_r(Al) = 27, M_r(Cu) = 64]
A) 3,6 B) 2,7 C) 6,4
D) 5,4 E) 3.2

20. (98-8-74) 480 g temir (III) oksidni to'liq qaytarishga kerakli bo'lgan vodorod hosil bo'lishi uchun alyuminiy moddasining qanday miqdori ishqor eritmasi bilan reaksiyaga kirishishi kerak.
A) 6,4 B) 5,5 C) 6,0
D) 5,7 E) 6,3

21. (99-7-35) Alyuminiyga 168 g kaliy ishqor ta'sirida hosil bo'lgan vodorod hajmiga teng bo'lgan vodorodni hosil qilish uchun suyultirilgan sulfat kislota necha gramm alyuminiy bilan reaksiyaga kirishishi kerak?
A) 243 B) 22,2 C) 27
D) 81 E) 54

22. (99-7-48) 189 g alyuminiy bilan 268,8 l xlor orasidagi reaksiya natijasida necha gramm ammoniy xlorid hosil bo'ladi?
A) 934,5 B) 1068 C) 467,2
D) 534 E) 1602

23. (00-3-50) Xrom (III) oksiddan alyuminiy qo'shib qizdirish natijasida 10,4 gramm xrom olingan bo'lsa, reaksiya uchun qancha alyuminiy metali ishlatilgan?
A) 5,1 B) 2,7 C) 3,7 D) 4,4 E) 5,4

24. (01-10-6) Umumiy massasi 41,6 g bo'lgan alyuminiy nitrat bilan toza alyuminiy yuqori temperaturada kuydirilganda, hosil bo'lgan mahsulot massasi boshlang'ich moddalar massasiga teng bo'lib qolgan. Boshlang'ich aralashmadagi alyuminiyning foiz massasi qanday bo'lgan?
A) 63,3 B) 54,2 C) 48,8
D) 40,6 E) 46,2

25. (02-1-8) 8,1 g alyuminiyni eritish uchun o'yuvchi kaliyning zichligi 1,445 g/sm^3 bo'lgan 44% eritmasidan necha ml kerak bo'ladi? Bunda necha litr gaz (n. sh.) ajralib chiqadi? Reaksiyada kaliy metallalyuminat hosil bo'ladi deb qabul qiling.
A) 15,2 ml va 39,6 l B) 16,8 ml va 36,5 l
C) 26,3 ml va 10,1 l D) 23,1 ml va 31,4 l
E) 13,2 ml va, 5,04 l

26. (02-1-61) Alyuminiy oksidning molekulyar formulasini O=Al–O–Al=O ko'rinishida yozish mumkinmi?
1) yozish mumkin, chunki undagi har bir atom valentligi ularga xos qiymatga ega;
2) mumkin chunki kislorod ham, alyuminiy ham σ- va π-boklar hosil qilishi uchun tegishli miqdorda s- va p-orbitallarga ega; 3) yo'q alyuminiy va kislorod atomlarining nisbiy elektrmanfiyliklaridagi farq katta bo'lgani sababli ular orasidagi kimyoviy bog' tabiati ionli bo'ladi; 4) mumkin, chunki tozaligi juda yuqori bo'lgan korund minerali (alyuminiy oksidning eng qattiq holdagi kristallari) ning tarkibidagi atomlarning mol nisbatlari n(Al):n(O) = 2:3 ga teng; 5) yo'q, chunki bu moddaning kristall panjarasi tugunida tarkibi murakkab bo'lgan kation $[OAl_4]^{n+}$ va $[AlO_6]^{m-}$ anionlardan tashkil topgan.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 2, 4
D) 3, 5 E) 4, 5

27. (02-3-6) Alyuminiy va xrom (III) gidroksidlar aralashmasidan 5 g miqdorini eritish uchun konsentratsiyasi 5,6 mol/l bo'lgan kaliy gidroksid eritmasidan necha millilitr talab etiladi? Boshlang'ich aralashma tarkibidagi kislorodning massa ulushi 50% ga teng.
A) 8,2 B) 8,9 C) 9,7
D) 9,3 E) 8,6

28. (02-5-20) Yer qobig'ida eng ko'p tarqalgan metall qaysi?
A) oltin B) temir C) alyuminiy
D) mis E) kaliy

29. (02-12-65) Quyidagi tuzlardan qaysi birining eritmasini alyuminiy idishda qaynatish mumkin emas?
A) KNO_3 B) $Hg(NO_3)_2$
C) Na_2CO_3 D) KCl
E) Na_2SO_4

30. (02-12-72) Quyidagi moddalarning qaysi biri kislotalik xossasini namoyon qiladi?
A) KCl B) CH_3OH
C) KOH D) $Al(OH)_3$
E) $CaCl_2$

31. (03-4-6) 3,915 g marganes oksid alyuminotermiya usuli bilan qaytarilganda, $1{,}806 \cdot 10^{22}$ ta alyuminiy oksid hosil bo'ldi. Qaytarilgan oksid formulasini toping.
A) MnO_2 B) MnO C) Mn_2O_3
D) Mn_2O_7 E) Mn_3O_4

32. (03-5-17) Alyuminiy yuzasida qaysi metaldan juda oz bo'lganda ham, undagi mustahkam oksid qavati yemirilib, metall to'liq oksidga aylanadi?
A) Cu B) Pb C) Sn D) Hg E) In

33. (03-5-22) Nima sababdan $AlCl_3$ suyuqlanmasini elektroliz qilib, Al metallini olib bo'lmaydi?
1) $AlCl_3$ suyuqlanmasi elektr tokini o'tkazmaydi; 2) $AlCl_3$ molekulalari orasida xlor bilan alyuminiy atomlari ko'prikli bog'lanish hosil qiladi; 3) $AlCl_3$ molekulalari orasida kovalent bog'lanish vujudga keladi.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2 E) 1, 2, 3

34. (03-6-54) Yer yuzida qanday metall eng ko'p tarqalgan?
A) temir B) mis
C) kalsiy D) magniy
E) alyuminiy

35. (04-1-144) Quyidagi juftlar qatoridan metallmasligi yuqoriroq bo'lgan elementlarni tanlang: oltingugurt va xlor; brom va yod; selen va brom; kremniy va vodorod.
A) xlor, brom, brom, kremniy
B) xlor, brom, brom, vodorod
C) oltingugurt, yod, selen, kremniy
D) xlor, brom, selen, vodorod
E) oltingugurt, brom, brom, kremniy

36. (04-1-540) Alyuminiy oksidini suyuqlantirib elektroliz qilish natijasida ajralib chiqqan gaz grafit anodini oksidlab CO_2 hosil qilgan. Reaksiya natijasida anodda ajralgan gazning normal sharoitdagi hajmi 67,2 l bo'lsa, olingan alyuminiyning miqdorini (mol) toping.
A) 27 B) 4 C) 4,5 D) 8,1 E) 108

37. (04-1-562) Xrom (III) oksiddan alyuminiy qo'shib qizdirish natijasida 10,4 gramm xrom olingan bo'lsa, reaksiya uchun qancha oksid sarflangan?
A) 15,2 B) 2,7 C) 3,7
D) 4,4 E) 5,4

38. (v4-106-25) 1,445 g alyuminiyni eritish uchun o'yuvchi kaliyning zichligi 1,445 g/sm^3 bo'lgan 44% li eritmasidan necha ml kerak bo'ladi? Bunda necha litr gaz (n. sh) ajralib chiqadi? Reaksiyada kaliy metaalyuminat hosil bo'ladi deb qabul qiling.
A) 26,3 ml va 10,17 l B) 13,2 ml va 5,04 l
C) 15,2 ml va 6,2 l D) 23,1 ml va 8,2 l
E) 39,6 ml va 15,12 l

39. (v4-107-25) Alyuminiy gidroksid qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?

1) soda; 2) kaliy ishqor; 3) mis (II) gidroksid; 4) nitrat kislota; 5) suv; 6) natriy ishqor.
A) 2, 4, 6 B) 4, 5, 6 C) 1, 2, 3
D) 1, 3, 5 E) 2, 3, 5

40. (v5-107-24) Natriy gidroksidning 50 g eritmasi 10,8 g Al bilan reaksiyaga kirishib $NaAlO_2$ hosil qilsa, NaOH ning boshlang'ich eritmadagi massa ulushini (%) toping.
A) 32 B) 29 C) 37 D) 21,6 E) 17,2

41. (v5-115-25) Alyuminotermiya usuli bilan xrom olish uchun qaysi moddalar ishlatiladi?
A) Cr_2O_3, Al_2O_3 B) Cr_2O_3, CO
C) Cr, Al_2O_3 D) Cr_2O_3, Al
E) Cr, Al

42. (v6-114-26) 0,2 l alyuminiy sulfat (0,45 mol/l) eritmasidagi alyuminiy ionini to'la cho'ktirish uchim kristall sodadan necha gramm zarur bo'ladi?
A) 83,8 B) 25,74 C) 77,22 D) 29,62

43. (v6-115-26) 280 ml alyuminiy xlorid (0,2 mol/l) eritmasidagi alyuminiy ionini to'la cho'ktirish uchun natriy ' arbonat (0,15 mol/l) eritmasidan ... l zarur bo'ladi.
A) 0,56 B) 0,37 C) 0,15 D) 0,84

44. (v6-116-26) 50 g 2,67% li alyuminiy xlorid va 1,1% li 150 g kaliy sulfid eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 2,23 B) 1,5 C) 0,78 D) 0,51

45. (v7-112-25) 400 ml 0,5 molyarli alyuminiy xlorid va 300 ml 2 molyarli natriy gidroksid eritmalari aralashtirildi. Aralashma orqali 3,36 l (n. sh.) vodorod xlorid o'tkazilganda hosil bo'lgan cho'kma massasini (g) toping.
A) 3,9 B) 15,6 C) 11,7 D) 5,4

46. (v8-103-2) Alyuminiy ftoriddan alyuminiy yodidga o'tganda galogenidlar turg'unligining kamayishi qanday tushuntiriladi?
A) alyuminiy yodiddan alyuminiy ftoridga tomon galogenidlar molyar massasi kamayib boradi
B) alyuminiy yodid va bromidlar bug' holatida ham dimer holatda bo'ladi, ftoridi va xloridi esa monomer bo'ladi
C) alyuminiy ftorid va xlorid kovalent bog'li, bromid va yodid ion bog'li xususiyatga ega
D) alyuminiy ftoriddan alyuminiy yodidga o'tganda Al-gal oraliq masofasi ortib boradi

47. (v9-104-13) Alyuminiy va ruxdan iborat 0,45 mol aralashma xlorid kislotada eritilganda 13,44 l (n. sh.) vodorod ajralsa, aralashmadagi alyuminiyning massa ulushini hisoblang.
A) 0,56 B) 0,45 C) 0,29 D) 0,71

48. (v9-109-4) 267 g 5% li alyuminiy xlorid eritmasidagi alyuminiyni to'la natriy geksagidroksoalyuminatga o'tkazish uchun 20% li (ρ = 1,2 g/ml) natriy gidroksid eritmasidan necha millilitr zarur bo'ladi?
A) 100 B) 120 C) 24 D) 89

49. (v9-110-1) Magniy va alyuminiydan iborat 0,3 mol aralashma xlorid kislotada eritilganda 8,96 l (n. sh.) vodorod ajralsa, aralashmadagi alyuminiyning massa ulushini hisoblang.
A) 0,69 B) 0,31
C) 0,18 D) 0,82

50. (v9-111-20) Alyuminiy va ruxdan iborat 0,2 mol aralashma xlorid kislotada eritilganda 5,6 l (n. sh.) vodorod ajralsa, aralashmadagi alyuminiyning massa ulushini hisoblang.
A) 0,29 B) 0,44
C) 0,56 D) 0,71

51. (v12z-216-18) 69,6 g oksidni alyuminotermiya usuli bilan qaytarish uchun 21,6 g alyuminiy sarflansa, oksid formulasini aniqlang.
A) MnO_2 B) Fe_3O_4
C) Cr_2O_3 D) Fe_2O_3

52. (v12c-105-27) 3,24 g alyuminiyga yetarli miqdorda kaliy nitrat va kaliy gidroksid eritmasi ta'sir ettirilganda necha litr (n. sh.) NH_3 ajralib chiqadi?
A) 2,5 B) 2,24 C) 1,01 D) 1,12

53. (v12c-124-2) Oksid pardasi olib tashlangan Al va Al_4C_3 dan iborat 0,6 mol aralashmaga mo'l miqdorda H_2O ta'sir ettirilganda 26,88 litr (n. sh.) gazlar aralashmasi ajralib chiqdi. Dastlabki aralashmadagi Al_4C_3 ning massa ulushini hisoblang.
A) 50,14 B) 72,73 C) 64,05 D) 81,4

54. (v13-103-14) 26,7 g alyuminiy xlorid bilan 15,6 g natriy sulfid mol miqdordagi suvda eritilishidan hosil bo'lgan gazni neytrallash uchun 0,25 M li natriy gidroksid eritmasidan qancha hajm (l) talab etiladi?
A) 2,4 B) 12 C) 0,8 D) 1,6

55. (v13-118-4) Alyuminiy va misdan iborat 4 g aralashma $HNO_{3(kons)}$ eritilganda 1,344 l (n. sh.) NO_2 ajralib chiqqan bo'lsa, aralashmaning foiz tarkibini aniqlang.
A) 60 va 40 B) 50 va 50
C) 58 va 42 D) 52 va 48

56. (v13-141-32) 50 g 8% li $AlCl_3$ va 50 g 8% li NaOH eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.
A) 1,17 B) 1,02 C) 0,51 D) 2,34

57. (v13-153-19) 200 g 2% li $AlCl_3$ va 200 g 2% li NaOH eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.
A) 1,17 B) 1,02 C) 0,51 D) 2,34

58. (v13-160-11) 25 g 16% li $AlCl_3$ va 25 g 16% li NaOH eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.
A) 1,02 B) 0,51
C) 1,17 D) 2,34

59. (v13-164-4) 69,3 g Al va Al_2O_3 aralashmasiga ishqor eritmasi ta'sir ettirilganda 10,08 l gaz ajralgan bo'lsa, dastlabki aralashmaning foiz tarkibini aniqlang.
A) 20; 80 B) 11,7; 88,3
C) 36,2; 63,8 D) 15; 85

60. (v13-166-12) 32 g 12,5% li $AlCl_3$ va 32 g 12,5% li NaOH eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.
A) 2,34 B) 1,02 C) 0,51 D) 1,17

61. (v13-168-8) 56 g 4,77% li $AlCl_3$ va 56 g 5% li NaOH eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.
A) 1,02 B) 1,17
C) 0,51 D) 1,56

62. (v15-112-7) 13,5 g alyuminiy mo'l miqdordagi natriy ishqori bilan reaksiyaga kirishganda necha litr (n. sh.) vodorod ajraladi?
A) 20,14 B) 11,2 C) 8,96 D) 16,8

63. (v15-121-14) 100 g 4% li $AlCl_3$ va 200 g 2% li o'yuvchi natriy eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.
A) 2,34 B) 0,51 C) 1,02 D) 1,17

64. (v16-101-26) 2,7 g alyuminiy 40% li kaliy gidroksid eritmasi bilan reaksiyaga kirishganda qancha hajm gaz ajraladi?
A) 6,72 B) 1,68 C) 8,84 D) 3,36

65. (v16-101-33) $Al(OH)_3$ va H_2SO_4 reaksiyaga kirishganda, necha xil tuz hosil bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

66. (v16-102-5) Qaysi sharoitda Al suv bilan reaksiyaga kirishadi?
$2Al + 6H_2O \rightarrow 2Al(OH)_3 + 3H_2$
A) Aralashmani 120°C gacha qizdirish
B) Katalizator sifatida Ni ishlatish
C) Alyuminiyning ustki oksid pardasi olib tashlansa
D) Alyuminiy suv bilan reaksiyaga kirishmaydi

67. (v16-102-7) $Na[Al(OH)_4] + \underset{kons\ kam}{AlCl_3} \rightarrow$ $\rightarrow Na[Al(OH)_4] + \rightarrow$ koeffitsiyentlar yig'indisini toping.
A) 16 B) 11 C) 9 D) 8

68. (v16-102-13) Sanoatda Al olinish usullarini ko'rsating.
A) Achchiqtoshlami suvsizlantirish
B) Kriolitdagi boksit suyuqlanmasining elektrolizi
C) Alyumotermiya usuli
D) Gilni kalsiy metall bilan qaytarish

69. (v16-102-15) Quyidagi sxemaning qaysi bosqichida qattiq qizdirish talab etiladi?
$Al \xrightarrow{1} Al(OH)_3 \xrightarrow{2} Al_2O_3 \xrightarrow{3} Al \xrightarrow{4} AlCl_3$
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

70. (v16-102-18) Alyuminiy konsentrlangan natriy karbonat eritmasi bilan reaksiyaga kirishganda qaysi gaz ajraladi?
A) CO_2 B) CO C) H_2 D) CH_4

71. (v16-105-18) Alyuminiy xlorid eritmasiga qaysi modda qo'silganda gaz va cho'kma hosil bo'ladi?
A) H_3PO_4 B) Fe
C) $Ca(OH)_2$ D) Na_2S

72. (v16-106-16) $Fe_3O_4 \rightarrow Fe \rightarrow FeCl_2 \rightarrow$ $\rightarrow Fe(OH)_2 \rightarrow Fe(OH)_3$
A) Al, HCl, NaOH, NaOH
B) CO, Cl_2, NaOH, $H_2O + O_2$
C) C, HCl, $Zn(OH)_2$, O_2
D) CO, HCl, NaOH, $H_2O + O_2$

73. (v16-106-27) Temir (II, III) oksid alyuminiy bilan reaksiyaga kirishganda 1 mol temir hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan alyuminiy oksidning massasini toping.
A) 56,8 B) 45,3 C) 27 D) 102

74. (v16-106-35) Keltirilgan oksidlardan qaysi biri ishqorlar eritmasida eriydi.
A) N_2O B) Al_2O_3 C) FeO D) Ag_2P

75. (v16-107-35) $Na[Al(OH)_4] + \underset{kons\ (ortiq)}{H_2SO_4} \rightarrow$ koeffitsiyentlar yig'indisini toping.
A) 16 B) 11 C) 9 D) 8

76. (v16-108-25) $AlCl_3 + NaOH_{(ortiq)} \rightarrow$ $\rightarrow$ koeffitsiyentlar yig'indisini toping.
A) 16 B) 11 C) 9 D) 8

77. (v16-108-29) Alyuminiy ruda va minerallar tarkibida uchraydi, masalan:
A) marmar, kvars, yashma
B) boksit, glinozem, nefelin
C) malaxit, pirit, kvars
D) asbest, bitum, biryuza

78. (v16-108-36) Quyidagi sxemaning qaysi bosqichida suyuqlanmani elektroliz qilish kerak?

$Al \xrightarrow{1} Al(OH)_3 \xrightarrow{2} Al_2O_3 \xrightarrow{3} Al \xrightarrow{4} AlCl_3$

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

79. (v16-109-23) $AlCl_3 + NH_3 \cdot H_2O_{(ortiq)} \rightarrow$ → reaksiyaning koeffitsiyentlar yig'indisini toping.
A) 16 B) 11 C) 9 D) 8

80. (v16-109-31) Sovuq konsentrlangan sulfat kislota bilan alyuminiy reaksiyaga kirishganda o'tadigan reaksiya tenglamasini ko'rsating.
A) $2Al + 6H_2SO_4 \rightarrow Al_2(SO_4)_3 + 3SO_3 + 6H_2O$
B) $2Al + 3H_2SO_4 \rightarrow Al_2(SO_4)_3 + 3H_2$
C) Al sovuq konsentrlangan sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishmaydi
D) $2Al + 4H_2SO_4 \rightarrow Al_2(SO_4)_3 + S + 4H_2O$

81. (v16-125-22) 69,6 g oksidni alyuminotermiya usuli bilan qaytarish uchun 21,6 g alyuminiy saflansa, hosil bo'lgan metall massasini (g) aniqlang.
A) 44,8 B) 50,4 C) 58,7 D) 41,6

82. (v16-127-36) $AlCl_3 + NH_3\ H_2O_{(ortiq)} \rightarrow$ → reaksiyaning koeffitsiyentlar yig'indisini toping.
A) 16 B) 11 C) 9 D) 8

83. (v17-101-11) Alyuminiy (III) oksidli birikmasiga qanday modda qo'shganda rubin yoqut hosil bo'ladi?
A) nikel
B) xrom
C) temir
D) marganes

84. (v17-102-11) Nefelin mineralining kimyoviy tarkibi kaolindan nima bilan farq qiladi?
A) Al_2O_3 mavjudligi
B) SiO_2 mavjudligi
C) SiO_2 mavjud emasligi
D) Na_2O mavjudligi

85. (v17-104-25) 25 g 16% li $AlCl_3$ va 25 g 16% li NaOH eritmalari aralashtirilgandan so'ng cho'kma tushdi. Cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Hosil bo'lgan qattiq cho'kma massasini aniqlang.
A) 1,02
B) 2,34
C) 0,51
D) 1,17

86. (v17-105-1) Suv massasi 23,7 g bo'lgan alumokaliy achchiqtosh $KAl(SO_4)_2 \cdot 12H_2O$ eritildi. Eritmaga NaOH ning massa ulushi 20% va zichligi 1,22 g/ml bo'lgan 24,6 ml hajmdagi eritmasiga qo'shildi. Alyuminiyning qanday birikmasi hosil bo'ladi? Cho'kmaning massasini aniqlang.
A) 4,8
B) 1,2
C) 3,4
D) 3,9

87. (v17-105-12) Quyidagi sxemadagi A va B moddalarni toping.



A) $Al_2(SO_4)_3$, $AlCl_3$
B) $Al(NO_3)_3$, $Al(OH)_3$
C) Al_2S_3, $AlCl_3$
D) Al_2S_3, $Al(OH)_3$

88. (v17-106-2) 1 mol nefelinning massasini (g) toping.
A) 284 B) 200
C) 556 D) 322

89. (v17-109-13) Alyuminiy (III) oksidiga qanday modda qo'yilsa, sapfir hosil bo'ladi?
A) Cr + N B) Mn + Pt
C) Fe + Ti D) Pb + Fe

90. (v17-109-29) Qirralari a = 2 sm bo'lgan kub shakidagi alyuminiy metalli (ρ = 2,7 g/sm^3) ishqor eritmasida eritilganda qancha (litr, n. sh.) gaz hosil bo'ladi?
A) 4,48
B) 26,88
C) 13,44
D) 11,2

91. (v17-110-32) 1827-yilda nemis olimi F. Veler biror-bir usulda alyuminiyni ajratib oldi? 0,2 mol alyuminiyni bunday usulda olish uchun zarur bo'lgan kaliy massasini (g) aniqlang (chiqish unumi 75% hisobidan).
A) 23,4 B) 31,2
C) 35,1 D) 15,2

92. (v17-116-17) 1827-yilda nemis olimi F. Veler qaysi bir usulda alyuminiyni olishga muvaffaq bo'ldi? Unumi 75% bo'lgan bunday usulda 0,6 mol kaliydan foydalanib necha gramm alyuminiy olish mumkin?
A) 5,4
B) 2,7
C) 4,05
D) 1,35

93. (v17-118-1)



A) 1 – O_2; 2 – HCl; 3 – H_2SO_4; 4 – NaOH
B) 1 – O_3; 2 – HCl; 3 – Na_2SO_4; 4 – Na
C) 1 – CO_2; 2 – HCl; 3 – H_2S; 4 – NaOH
D) 1 – H_2O_2; 2 – KCl; 3 – K_2SO_4; 4 – NaOH

94. (v17-120-30) Quyidagi qaysi modda suyultirilgan nitrat kislota va konsentrlangan natriy gidroksid bilan ta'sirlashadi?
A) temir (III) oksid
B) kalsiy
C) vodorod peroksid
D) alyuminiy

95. (v17-125-34) Achchiqtosh tibbiyotda nimada ishlatiladi?
A) operatsiyalarda
B) ivituvchi sifatida
C) og'iz bo'shlig'ida yara toshsa
D) burundan qon ketganda va yaralanganda qo'yiladi

96. (v17-127-7) Gazlamalarni bo'yashda ishlatiladigan modda:
A) sariq qon tuzi
B) qizil qon tuzi
C) mis kuporos moyi
D) achchiqtosh

97. (v17-129-24) Reaksiyaning tenglamasidagi x ni toping:
$Al + HNO_3 \xrightarrow{(sirka)} X + \ldots$
$X + KOH \xrightarrow{(qizdirildi)} \ldots$
A) $Al(NO_2)_3$ va N_2O
B) $Al(NO_3)_3$ va NO_2
C) $Al(NO_3)_3$ va NH_4NO_3
D) $Al(NO_3)_3$ va O_2

98. (v17-130-9) Mazkur sxemadagi X, Y va Z ta'sir etuvchi moddalarni aniqlang:
$Al_2O_3 \xrightarrow{X} AlCl_3 \xrightarrow{Y} \rightarrow Al(OH)_3 \xrightarrow{Z} NaAlO_2$.
A) X = HCl, Y = $Zn(OH)_2$, Z = Na_2O
B) X = Cl_2, Y = NaOH, Z = $Zn(OH)_2$
C) X = Cl_2, Y = NaOH, Z = O_2
D) X = HCl, Y = NaOH, Z = NaOH

66. Temir

1. (96-3-27) Qaysi reaksiya yordamida temir olish mumkin emas?
1) $FeCl_3 + Mg \rightarrow$; 2) $Fe_2O_3 + Cu \rightarrow$;
3) $Fe_2O_3 + C \rightarrow$; 4) $FeSO_4 + Hg \rightarrow$;
5) $Fe_2O + H_2 \rightarrow$
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 2, 3
D) 1, 2 E) 3, 5

2. (98-2-42) 1 mol temir (II) gidroksidni havo va suv ishtirokida oksidlab, temir (III) gidroksidga aylantirish uchun, n. sh. da necha litr (havoda kislorodning hajmiy ulushi 0,2) havo kerak? [A_r(Fe) = 56]
A) 7 B) 14 C) 28 D) 56 E) 112

3. (98-8-61) Massasi 23,2 g bo'lgan texnik Fe_3O_4 dan temir olish uchun 7,0 g alyuminiy sarf bo'lgan. Boshlang'ich aralashmadagi oksidning massa ulushini toping. [M_r(Fe) = 56]
A) 0,76 B) 0,86 C) 0,90
D) 0,94 E) 0,97

4. (98-10-50) Massasi 97,4 g bo'lgan xlorid kislotaning 15% li eritmasida 11,2 g temir qipig'i havo ishtirokida reaksiyada qatnashganda, qanday modda hosil bo'lishini toping.
A) temir (II) xlorid
B) temir (III) xlorid
C) temir (II) gidroksoxlorid
D) temir (III) gidroksoxlorid
E) temir (III) digidroksoxlorid

5. (99-3-1) Massasi 11,6 g bo'lgan temir birikmalarining birini metall holigacha qaytarish uchun n. sh. da o'lchangan 4,48 l vodorod sarflanadi. Shu birikma nomini aniqlang.
A) temir (II) gidroksid B) temir (III) oksid
C) temir (II) oksid D) temir (III) gidroksid
E) magnetit

6. (99-5-72) Mis (II) sulfatning 40 g 30% li eritmasiga 10 g temir kukuni qo'shildi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan oddiy moddaning massasini (g) aniqlang.
A) 4,8 B) 12 C) 5,6
D) 3,9 E) 8,4

7. (01-3-107) Mo'l miqdorda olingan temirning 250 ml (ρ = 1,84 g/ml) 98% li sulfat kislota bilan (300°C da) reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan sulfid angidrid massasini (g) hisoblang.
A) 73,6 B) 103 C) 294,4
D) 147,2 E) 49

8. (01-6-53) 6 mol temirga konsentrlangan H_2SO_4 ta'sir ettirilganda, necha l (n. sh.) gaz ajralib chiqadi?
A) 170,3 B) 148,3 C) 157,8
D) 162,1 E) 134,4

9. (02-10-43) 5,6 g CO bilan yetarli miqdordagi FeO reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan gazning hajmini (n. sh. da) hisoblang.
A) 2,24 B) 4,48 C) 3,36
D) 6,72 E) 8,96

10. (03-12-9) 8 g misni ajratib olish uchun qancha (g) mis(II) sulfat bilan temirni o'zaro ta'sir ettirish kerak?
A) 20 B) 30 C) 18 D) 40 E) 28

11. (03-12-10) 80 g mis(II) sulfat tarkibidagi misning hammasini ajratib olish uchun necha gramm temir kerak bo'ladi?
A) 56 B) 28 C) 14 D) 112 E) 64

12. (04-1-564) Mo'l miqdorda olingan temirning 250 ml (ρ = 1,84 g/ml) 98% li sulfat kislota bilan (300°C da) reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan tuzning massasini hisoblang.
A) 73,6 B) 103 C) 349,6
D) 147,2 E) 51,52

13. (04-1-602) 6,72 l (n. sh.) xlorda temir yondirildi. Bunda necha mol temir reaksiyaga kirishgan?
A) 5,6 B) 11,2 C) 1,8
D) 2,24 E) 0,2

14. (05-1-315) Qaysi reaksiya yordamida temir emas olish mumkin?
1) $FeCl_2 + Mg \rightarrow$; 2) $Fe_3O_3 + Cu \rightarrow$;
3) $Fe_3O_3 + C \rightarrow$; 4) $FeSO_4 + Hg \rightarrow$;
5) $Fe_2O_3 + H_2 \rightarrow$.
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 2, 3
D) 1, 2 E) 1, 3, 5

15. (05-1-323) Tarkibida 7,6 g temir (II) sulfat bo'lgan eritmaga 1,2 g magniy qipig'i solindi. Bunda qancha (g) temir ajralib chiqadi?
A) 2,67 B) 4,67 C) 2,8
D) 2,24 E) 5,6

16. (05-1-325) Tarkibida 8 g mis (II) sulfat bo'lgan eritmaga 2,8 g temir qipig'i solindi. Bunda qancha (g) mis ajralib chiqadi?
A) 5 B) 6,4 C) 3,2
D) 6 E) 5,5

17. (05-1-359) 6,72 l (n. sh.) xlorda temir yondirildi. Bunda necha gramm temir reaksiyaga kirishgan?
A) 5,6 B) 11,2 C) 1,8
D) 2,24 E) 0,2

18. (v4-111-26) 6,72 l (n. sh) xlorda temir yondirildi. Bunda necha gramm temir reaksiyaga kirishgan?
A) 1,8 B) 0,2 C) 5,6
D) 2,24 E) 11,2

19. (v4-115-17) 750 mg vodorod gazidagi atomlar soniga teng atomlarga ega bo'lish uchun necha gramm temir olish kerak?
A) 56 B) 26 C) 14 D) 42 E) 28

20. (v5-102-2) Magnetitning tarkibida 72,4% gacha temir bo'lsa, 0,1 kg magnetitda necha dona temir atomlari bo'ladi?
A) $6{,}02 \cdot 10^{23}$ B) $1{,}2 \cdot 10^{24}$
C) $7{,}78 \cdot 10^{23}$ D) $3{,}03 \cdot 10^{23}$
E) $6{,}66\ 10^{23}$

21. (v5-105-1) 23,2 g Fe_3O_4 ni temirga qaytarish uchun necha litr (n. sh.) is gazi kerak bo'ladi?
A) 4,48 B) 6,62 C) 2,24
D) 3,4 E) 8,96

22. (v5-114-28) Temir bilan reaksiyaga kirishish uchun olingan zichligi 1,84 g/ml, 18,02 molyarli 230 ml hajmdagi sulfat kislotadan 142,7 ml ortib qoldi. Temirning massasi (g) – … .
A) 34,8 B) 29,3 C) 21,8
D) 32,6 E) 19,8

23. (v5-117-27) 0,6 mol temir (II) sulfidga xlorid kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan gaz modda mo'l miqdorda olingan kislorodda yondirildi. Reaksiyaning so'nggi bosqichida hosil bo'lgan modda kaliy gidroksidning 40% li 120 ml eritmasi bilan to'liq neytrallandi. Ishqor eritmasining zichligini (g/ml) hisoblang.
A) 1,7 B) 1,6 C) 1,4
D) 1,1 E) 0,9

24. (v6-104-1) 140 g temir (III) gidrofosfat … ta atomdan tashkil topgan.
A) $4{,}21 \cdot 10^{34}$ B) $0{,}35 \cdot 10^{23}$
C) $1{,}02 \cdot 10^{24}$ D) $6{,}02 \cdot 10^{23}$

25. (v6-106-10) Tarkibida 1,44 tonna oltingugurt bo'lgan temir kolchedanidan qancha temir olish mumkin?
A) 2,04 B) 1,26
C) 2,10 D) 2,52

26. (v6-114-28) Massa ulushi 88% bo'lgan 0,1 kg temir sulfiddan normal sharoitda o'lchangan necha litr vodorod sulfid olish mumkin?
A) 22,4 B) 224 C) 33,6 D) 2,24

27. (v7-110-27) Mo'l miqdorda olingan temirning 163 ml 98% li (ρ = 1,84 g/ml) sulfat kislota bilan reaksiyasi (qizdirilganda) natijasida hosil bo'lgan sulfit angidrid hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 33,6 B) 67,2 C) 89,6 D) 44,8

28. (v7-112-27) Temir bilan reaksiyaga (qizdirilgan) kirishish uchun olingan 150 ml 15 molyarli (ρ = 1,7 g/ml) sulfat kislotadan 110 ml ortib qoldi. Reaksiya uchun olingan temirning massasini (g) hisoblang.
A) 16,8 B) 11,2 C) 1,68 D) 5,6

29. (v7-113-25) 16,8 g temir qipig'ining 146 g 15% li xlorid kislota eritmasi bilan reaksiyasi natijasida qanday modda(lar) hosil bo'ladi?
1) temir (II) xlorid; 2) temir (III) xlorid;
3) temir (II) gidroksoxlorid; 4) temir (III) gidroksoxlorid.
A) 2, 4 B) 1 C) 1, 2 D) 3

30. (v8-101-26) Temir bilan reaksiyaga (qizdirib) kirishish uchun olingan 70 g 96% li sulfat kislota eritmasidan 8,75 g ortib qoldi. Reaksiya uchun olingan temirning massasini (g) hisoblang.
A) 16,8 B) 11,2 C) 7,47 D) 5,6

31. (v9-108-9) Temir (III) oksid va mis (II) oksiddan iborat 120 g aralashma vodorod oqimida qaytarildi. Qaytarilish mahsulotlariga ortiqcha miqdordagi xlorid kislota ta'sir ettirilganda 22,4 l (n. sh.) gaz ajralib chiqsa, boshlang'ich aralashmadagi oksidlarning massa nisbatini aniqlang.
A) 1:0,25 B) 1:1 C) 1:0,5 D) 1:0,75

32. (v9-112-2) 135 g temir (II) gidroksidni suv ishtirokida to'la temir (III) ga o'tkazish uchun qanday hajm (l, n. sh.) havo (havodagi kislorodning hajmiy ulushi 0,2) zarur bo'ladi?
A) 8,4 B) 42 C) 28 D) 11,2

33. (v9-113-33) Temir (II) sulfat va mis (II) sulfat aralashmasidan toza temir (II) sulfatni ajratib olish uchun qaysi reaktivdan foydalanish lozim?
A) sulfat kislota B) temir
C) alyuminiy D) natriy gidroksid

34. (v11-110-34) Fe_3O_4 ning 23,2 gramini temirgacha qaytarish uchun necha litr (n. sh.) is gazi kerak bo'ladi?
A) 4,48 B) 3,4 C) 8,96 D) 2,24

35. (v16-101-16) Inson organizmida eritrotsitlarning asosini Fe^{2+} ioni va gemoglobin oqsili tashkil etadi. Gemoglobinning bir molekulasida nechta Fe^{2+} ioni bo'ladi?
A) bitta B) ikkita C) to'rtta D) uchta

36. (v16-111-12) Teri pigmentatsiyasida, Fe ning o'zlashtirilishida katta ahamiyatga ega metalni aniqlang.
A) Co B) Mn C) Cu D) Fe

37. (v16-121-7) Temirning xlor va xlorid kislota bilan ta'sirlashuvidan qanday birikmalar hosil bo'lishini mos ravishda aniqlang.
A) $FeCl_2$ va $FeCl_3$ B) $FeCl_3$ va $FeCl_2$
C) $FeCl_2$ va $FeCl_2$ D) $FeCl_3$ va $FeCl_3$

38. (v16-128-3) 12 g ugleroddagi atomlar soniga teng sonda atom tutuvchi temir kislorod bilan ta'sirlashib qancha (g) qo'shoksid hosil qiladi?
A) 77,33 B) 79,8 C) 72 D) 52

39. (v17-103-19) O'simliklarda temir moddasi kam bo'lishi qanday kasallikka olib keladi?
A) xloroz B) gematoz
C) fersit D) gematit

40. (v17-104-18) 5,04 g temirni zangga aylantirish uchun zarur bo'lgan havo hajmi (l, n. sh.) va suv massasini (g) aniqlang ($\varphi(O_2)$ = 20%).
A) 10; 2,43 B) 7,56; 2,43
C) 2,24; 1,8 D) 3,36; 3,6

41. (v17-109-31) 5,04 g temirni zang holatiga aylantirish uchun zarur bo'lgan havo hajmi (l, n. sh.) va suvning massasini (g) aniqlang ($\varphi(O_2)$ = 20%).
A) 10; 2,43 B) 7,56; 2,43
C) 2,24; 1,8 D) 3,36; 3,6

42. (v17-112-8) Temirdan 42 g kislorod va suv aralashmasi o'tkazilganda hosil bo'lgan zang massasini (g) aniqlang. Aralashmadagi vodorod va kislorod atom sonlari nisbati 1:1,25 ga teng.
A) 107 B) 71,3
C) 53,5 D) 64,2

43. (v17-115-2) 7,2 g metall kislotadan 6,72 litr (n. sh.) vodorodni siqib chiqarsa, 9,6 g metall qanday massadagi (g) Fe^{3+}ni siqib chiqaradi?
A) 5,6 B) 28
C) 15 D) 11,2

44. (v17-116-26) Magnetitdagi σ va π nechta?
A) $5\sigma\ 3\pi$ B) $6\sigma\ 2\pi$
C) $7\sigma\ 1\pi$ D) $4\sigma\ 4\pi$

45. (v17-124-2) 25 g qizil qon tuziga temir (II) xlorid eritmasi qo'shilganda qancha g trumbul ko'ki hosil boladi?
A) 14,5 g B) 13,2 g
C) 15 g D) 14,4 g

46. (v17-124-7) Vodorod va kislorod atomlar soni 1:1,25 nisbatda bo'lgan kislorod va suv aralashmasining 42 g (zang hosil bo'lishi bilan) temirning necha massasi (g) bilan ta'sirlashadi?
A) 56 B) 37,3
C) 28 D) 33,6

67. Cho'yan va po'lat ishlab chiqarish. Qotishmalar

1. (96-3-31) Massasi 10 g cho'yandan olingan namunani kislorod oqimida yondirish natijasida 1,1 g karbonat angidrid gazi hosil bo'lgan. Cho'yan tarkibidagi uglerodning massa ulushini aniqlang.
A) 0,01 B) 0,02 C) 0,025
D) 0,03 E) 0,05

2. (97-9-53) Domna jarayonida qatnashayotgan moddalarning qaysi biri qaytaruvchi hisoblanadi?
1) kislorod; 2) uglerod; 3) kremniy (IV) oksid; 4) ohaktosh; 5) is gazi; 6) karbonat angidrid.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 5, 6
D) 2, 5 E) 3, 5

3. (97-10-112) Mis-kumush qotishmasini eritish uchun qanday kislotadan foydalanish kerak?
A) xlorid B) nitrat C) sulfat
D) fosfat E) sulfid

4. (01-1-21) Tarkibida 36,8 g natriy va 62,4 g kaliy bo'lgan qotishmaning mo'l miqdordagi suv bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan gaz hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 17,9 B) 33,6 C) 35,8
D) 38,4 E) 44,8

5. (01-2-61) Magniy va alyuminiydan tayyorlangan 2,1 g qotishma kislorodda kuydirilganda, metallarning oksididan iborat 3,7 g aralashma hosil bo'ldi. Qotishmaning foiz tarkibini aniqlang.
A) 53; 47 B) 56; 44 C) 58; 42
D) 51; 49 E) 50; 50

6. (03-2-17) Cho'yan ishlab chiqarishda qaysi moddalar flyus sifatida ishlatilishi mumkin?
1) dolomit; 2) kalsiy oksid; 3) kalsiy karbonat; 4) kalsiy silikat; 5) kremniy(IV) oksid.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3
D) 3, 5 E) 1, 4

7. (03-2-18) Domna jarayonining mahsulotini-aniqlang.
1) faqat cho'yan; 2) shlak;
3) po'lat; 4) domna gazi.
A) 1 B) 1, 2 C) 1, 2, 3
D) 1, 3, 4 E) 1, 2, 4

8. (03-2-48) Qotishmalar tarkibida kam miqdorda uchraydigan elementlarni aniqlang:
1) Si; 2) C; 3) Cr; 4) Ni; 5) Cu; 6) S.
A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 6 C) 2, 4, 6
D) 1, 2, 3 E) 3, 4, 5

9. (03-6-45) Magniy va alyuminiyning 50 g qotishmasi xlorid kislotada eritilganda 48,25 l vodorod ajralib chiqqan. Qotishmadagi Mg va Al ning massa ulushini (%) toping.
A) 69,8; 30,2 B) 89,8; 10,2
C) 20; 80 D) 73,7; 26,3
E) 56,5; 43, 5

10. (03-8-13) Mis-kumush qotishmasini eritish uchun qaysi kislotadan foydalanish mumkin?
A) nitrat B) xlorid C) yodid
D) fosfat E) sulfid

11. (04-1-320) Massa ulushi 36% oltin tutgan mis qotishmasining 4 g miqdorini eritish uchun tarkibida necha gramm nitrat kislota bo'lgan eritma talab etiladi? Nitrat kislota NO holigacha qaytariladi.
A) 2,8 B) 3,8 C) 4,2 D) 6,72 E) 5,2

12. (04-1-538) Natriy bilan kaliyning 0,85 g qotishmasiga mo'l suv ta'sir ettirilganda, 336 ml (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Shu qotishmada ikki atom kaliyga necha atom natriy to'g'ri keladi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 8

13. (04-1-542) Massasi 10 g cho'yandan olingan namunani kislorod oqimida yondirish natijasida 1,1 g karbonat angidrid gazi hosil bo'lgan. Cho'yan tarkibidagi uglerodning massasini aniqlang.
A) 0,01 B) 0,02 C) 3 D) 0,03 E) 0,3

14. (04-1-553) Konsentrlangan nitrat kislota bilan massasi 20 g bo'lgan alyuminiy va misdan iborat qotishmaga ishlov berildi. Bunda 6,72 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Qotishma tarkibi (%) qanday?
A) Al – 56; Cu – 44 B) Al – 50; Cu – 50
C) Al – 25; Cu – 75 D) Al – 68; Cu – 32
E) Al – 52; Cu – 48

15. (v5-110-12) Domna pechida koks qanday ikki muhim vazifani bajaradi?
1) yoqilg'i; 2) qaytaruvchi; 3) uglerod (II) oksid hosil qiladi; 4) temir karbid (Fe_3C) hosil qiladi.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 2
D) 1, 4 E) 2, 3

16. (v6-105-26) Mis va oltindan iborat 70 g qotishmadagi misning massa ulushi 80% bo'lsa, unga necha gramm oltin qo'shilganda Cu_3Au tarkibli qotishmaga aylanadi?
A) 50,65 B) 43,47 C) 49,35 D) 30,65

17. (v6-106-32) Mo'l miqdordagi natriy bilan 3 mol etilenglikol reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan gaz modda hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 33,6 B) 22,4 C) 67,2 D) 44,8

18. (v6-120-26) Oltin va misdan iborat 50 g qotishmadagi misning massa ulushi 80% bo'lsa, unga necha gramm oltin qo'shilganda Cu_3Au tarkibli qotishmaga aylanadi?
A) 27 B) 40 C) 50 D) 31

19. (v9-103-35) Tarkibida 32% mis bo'lgan 50 g oltin qotishmasini tozalash uchun 90% li nitrat kislotadan (ρ = 1,5 g/ml) necha millilitr kerak bo'ladi?
A) 55,73 B) 70 C) 46,67 D) 63

20. (v11-113-27) Magniy va alyuminiydan iborat qotishmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganida (n. sh.)da 11,424 l gaz ajraldi. Xuddi shunday og'irlikdagi ikkinchi namuna ishqor eritmasi bilan ishlanganida esa 8,4 l gaz ajralib chiqdi. Dastlabki qotishmadagi magniyning massa ulushini hisoblang.
A) 32,4 B) 52 C) 67,6 D) 48

21. (v12z-240-34) Magniy va alyuminiydan iborat qotishmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 9,66 l (n. sh.) gaz ajraldi. Xuddi shunday massadagi qotishmaga ishqor eritmasi bilan ishlov berilganda 5,04 l (n. sh.) gaz ajraldi. Dastlabki qotishmadagi magniyning massa ulushini (%) toping.
A) 45 B) 55 C) 40 D) 60

22. (v13-135-27) Domna pechini balandligi (m) va bir sutkalik quvvati (tonna cho'yan ishlab chiqarish) qanchaga teng.
A) 13; 85–160 B) 31; 550–1300
C) 31; 850–1600 D) 21; 650–1500

23. (v16-101-2) Rux va kumushning ikki xil qotishmasi mavjud. Birinchi qotishmada bu metallar 2:5 massa nisbatda, ikkinchisida esa 7:6 massa nisbatda. Rux va kumushning massa nisbati 11:27 bo'lgan 54 kg yangi qotishma olish uchun birinchi qotishmani qanday massada (kg) olish kerak?
A) 32 B) 28 C) 22 D) 8

24. (v16-101-27) Metallarning massa nisbati 3:5 bo'lgan Pt va Cu qotishmasiga massa nisbati 1:3 bo'lgan qotishma qo'shilganda metallarning nisbati 3:7 bo'lgan 20 kg qotishma hosil bo'ldi. Birinchi qotishmaning massasini toping (kg)?
A) 8 B) 12 C) 3 D) 5

25. (v16-102-11) Mis va qalayning ikki xil qotishmasi mavjud. Birinchi qotishmada bu metallar 2:5 massa nisbatda, ikkinchisida esa 7:6 massa nisbatda. Mis va qalayning massa nisbati 11:16 bo'lgan 54 kg yangi qotishma olish uchun dastlabki qotishmalardan qanday massada (kg) olish kerak?
A) 28; 26 B) 8; 12
C) 14; 40 D) 22; 32

26. (v16-102-26) Metallarning massa nisbati 3:5 bo'lgan Pt va Cu qotishmasiga massa nisbati 1:3 bo'lgan qotishma qo'shilganda metallarning nisbati 3:7 bo'lgan 20 kg qotishma hosil bo'ldi. Ikkinchi qotishmaning massasini toping.
A) 8 B) 12 C) 9 D) 5

27. (v16-103-17) Metallarning massa nisbati 3:5 bo'lgan Pt va Cu qotishmasiga massa nisbati 1:3 bo'lgan qotishma qo'shilganda metallarning nisbati 3:7 bo'lgan 20 kg qotishma hosil bo'ldi. Ikkinchi qotishmadagi misning massasini (kg) toping.
A) 8 B) 12 C) 9 D) 5

28. (v16-103-23) Cho'yan ishlab chiqarishda flyus sifatida qaysi moddalarni ishlatish mumkin?
1) dolomit; 2) kalsiy oksid; 3) kalsiy karbonat; 4) kalsiy silikat; 5) kremniy (IV) oksid.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 3 D) 3, 5

29. (v16-104-17) Domna pechda hosil bo'ladigan mahsulotlarni ko'rsating.
1) cho'yan; 2) po'lat; 3) shlak; 4) domna gaz.
A) 1 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4 D) 1, 3, 4

30. (v16-104-18) Pt va Al ning 57,6 g qotishmasi suyultirilgan nitrat kislotada eritildi. Hosil bo'lgan eritma mo'l miqdorda ishqor bilan qizdirilganda 21,6 g temir (II) oksidni to'liq qaytarish uchun yetarli bo'lgan gaz ajraldi.

Qotishmadagi platinaning massa ulushini (%) aniqlang (qotishmadagi aluminiy nitrat kislota bilan to'liq reaksiyaga kirishgan).
A) 60 B) 25 C) 75 D) 40

31. (v16-106-23) Metallarning massa nisbati 3:5 bo'lgan Pt va Cu qotishmasiga massa nisbati 1:3 bo'lgan qotishma qo'shilganda metallarning nisbati 3:7 bo'lgan 20 kg qotishma hosil bo'ldi. Birinchi qotishmadagi Pt massasini toping.
A) 8 B) 12 C) 3 D) 5

32. (v16-107-32) Oltin va kumushning ikki xil qotishmasi mavjud. Birinchi qotishmada bu metallar 2:5 massa nisbatda, ikkinchisida esa 7:6 massa nisbatda. Oltin va kumushning massa nisbati 11:27 bo'lgan 54 kg yangi qotishma olish uchun birinchi qotishma tarkibida qanday massada (kg) kumush bo'lishi kerak?
A) 14 B) 12 C) 20 D) 5

33. (v16-109-16) Metallarning massa nisbati 3:5 bo'lgan Pt va Cu qotishmasiga massa nisbati 1:3 bo'lgan qotishma qo'shilganda metallarning nisbati 3:7 bo'lgan 20 kg qotishma hosil bo'ldi. Birinchi qotishmadagi misning massasini toping (kg).
A) 8 B) 12 C) 3 D) 5

34. (v17-106-21) Metallar massa nisbatlari 3:5 bo'lgan platina va mis qotishmasiga massa nisbatlari 1:3 qotishmasi qo'shilganda 3:7 nisbatdagi 20 kg metallar qotishmasi hosil bo'ldi. Ikkinchi qotishmadagi platina massasini (kg) aniqlang.
A) 8
B) 12
C) 3
D) 5

35. (v17-108-21) Massasi 3,68 g mis va alyuminiy qotishmasini mo'l xlorid kislotasi bilan ishlov berilib, 1,77 l (n. sh.) vodorod olindi. Aralashmadagi metallar massalarini (g) aniqlang.
A) 3; 0,68
B) 2,26; 1,42
C) 1,68; 2
D) 2,38; 1,3

36. (v17-110-2) Na–K qotishmasi qaysi qotishmalar turiga tegishli?
A) gomogenli
B) geterogenli
C) intermetalli
D) tuz hosil qilmaydigan

37. (v17-112-36) Metallar massa nisbatlari 3:5 bo'lgan platina va mis qotishmasiga, 1:3 nisbatli qotishmasi qo'shilganda 3:7 nisbatdagi qotishmasining 20 kg hosil bo'ldi. Birinchi qotishmada platina massasini (kg) aniqlang.
A) 8 B) 12 C) 3 D) 5

38. (v17-121-20) Glitserin aldegid molekulasini tetraedr holdagisini olsak, L(–) va D(+) optik izomeriyada simmetriya qilib bo'linganda chap yoki o'ng pallani qaysi biri og'ir bo'ladi?
A) teng bo'ladi B) faqat chap
C) faqat o'ng D) ikkalasi teng

39. (v17-126-35) «Gornga» qanday qatlam hosil qiladi?
A) yuqorida shlak, pastda cho'yan
B) yuqorida po'lat, pastida flus
C) gornga bu pech emas
D) bunday atama fanda mavjud emas

68. Kombinatsiyalangan masalalar

1. (99-3-19) Noma'lum metalga konsentrlangan sulfat kislota qo'shib qizdirilganda, massasi eritish uchun olingan metalning massasiga taxminan teng bo'lgan gaz ajralib chiqdi. Metalni aniqlang.
A) stronsiy B) rux
C) rubidiy D) mis
E) nikel

2. (00-9-76) Natriy xloridning massa ulushi 20% va 10% bo'lgan eritmalaridan foydalanib, massa ulushi 12% bo'lgan 150 gramm massali eritma hosil qilish uchun dastlabki har bir eritmadan qanday massada (g) olish kerak?
A) 140; 10 B) 110; 40
C) 125; 25 D) 130; 20
E) 120; 30

3. (00-9-78) Massa ulushi 8% bo'lgan 30 g bariy xlorid eritmasiga massa ulushi 10% bo'lgan natriy sulfatning 20 g eritmasi qo'shildi. Unda hosil bo'lgan cho'kmaning massasini aniqlang.
A) 3,0 B) 3,2 C) 3,1 D) 2,7 E) 2,8

4. (00-9-80) Massa ulushi 12% bo'lgan 60 ml xlorid kislotasining (ρ = 1,06 g/ml) eritmasi bilan 100 ml hajmdagi 0,5 molyar kumush nitrat eritmasi aralashtirildi. Qancha miqdorda kumush xlorid moddasi olingan?
A) 0,24 B) 0,20 C) 0,10
D) 0,08 E) 0,05

5. (00-10-10) Kalsiy gidridni suv bilan ishlanganda ajralib chiqqan gaz qizdirilgan temir (II) oksid ustidan o'tkazildi. Buning natijasida qattiq modda massasi 16 g ga kamaydi. Qancha gramm kalsiy gidrid suv bilan reaksiyaga kirishgan?
A) 18 B) 24 C) 21 D) 25 E) 28

6. (01-1-19) Massasi 5,4 g bo'lgan kumush suyultirilgan nitrat kislotada eritildi va eritmaga mo'l miqdordagi kaliy gidroksid eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan cho'kma massasini hisoblang.
A) 3,12 B) 5,8 C) 11,6
D) 6,25 E) 23,2

7. (01-7-29) Zichligi 1,087 g/ml bo'lgan temir (III) xloridning 10% li eritmasidan 30 ml miqdoriga 5% li kaliy gidroqsid eritmasi (ρ = 1,04 g/ml) dan necha millilitr qo'shib, $Fe(OH)_3$ hosil qilish mumkin?
A) 66,2 B) 71,4 C) 64,8
D) 73,1 E) 83,3

8. (01-7-41) Hajmi 24 ml bo'lgan mis (II) nitratning 1,25 M li eritmasidagi mis ionini to'la cho'ktirish uchun talab etiladigan 0,25 M konsentratsiyali ishqor eritmasining hajmini (ml) hisoblang.
A) 240 B) 215 C) 206
D) 248 E) 223

9. (01-9-2) Massasi 13,6 g bo'lgan natriy va kaliy gidridlar aralashmasining suv bilan reaksiyasi natijasida 0,5 mol gaz modda hosil bo'lgan. Aralashmadagi gidridlarning mol nisbatlarini hisoblang.
A) 0,4:0,1 B) 0,3:0,2
C) 0,1:0,4 D) 0,2:0,3
E) 0,1:0,5

10. (01-11-46) Natriy va kalsiy metallarining 6,3 g aralashmasi suv bilan reaksiyaga kirishganda, 3,36 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Aralashmadagi natriyning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 55,6 B) 36,5 C) 45,6
D) 63,5 E) 29,7

11. (01-12-13) Ruxga zichligi 1,84 g/ml 96% li sulfat kislota ta'sir ettirilganda ajralgan gazni kalsiy xlorid eritmasidan o'tkazilganda, 75% unum bilan 4,5 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiyada ishtirok etgan sulfat kislotaning hajmini (ml) aniqlang.
A) 19,4 B) 14,57 C) 12,25
D) 5,3 E) 2,45

12. (01-12-37) Natriy gidrofosfat eritmasiga kumush nitrat ta'sir ettirilganda, 6,29 g cho'kma olindi. Qancha natriy gidrofosfat reaksiyaga kirishgan?
A) 2,84 B) 4,26 C) 3,12
D) 0,71 E) 2,15

13. (02-1-17) Dengiz suvining bir tomchisida 50 milliardga yaqin oltin atomlari bor. Dengiz suvidan 30 tomchisining massasini 1 g deb olib, dengiz suvining bir tonnasidagi oltinning massasini (g) hisoblab toping.
A) $1{,}5\cdot10^{-5}$ B) 0,05 C) $4{,}9\cdot10^{-4}$
D) 0,00005 E) 10^4

14. (02-1-60) Qaysi metalning nitrididagi elektronlar soni uning oksididagina qaraganda 2,5 marta ko'proq bo'ladi?
A) Ca B) Cu C) Fe D) Al E) Mg

15. (02-3-64) Natriy gidrokarbonat bilan kaliy karbonat 1:1 molyar nisbatda aralashtirildi. Shunday aralashmaning 25 g miqdoriga mo'l miqdorda nitrat kislota qo'shilganda necha litr gaz hosil bo'ladi?
A) 5,05 B) 4,02 C) 2,52
D) 3,03 E) 5,41

16. (02-12-55) Ishqoriy metall nitratining parchalanishidan chiqqan kislorod massasi boshlang'ich tuz massasining 8,2% ini tashkil qilsa, qaysi tuz parchalangan bo'ladi?
A) $RbNO_3$ B) $CsNO_3$ C) $LiNO_3$
D) $FrNO_3$ E) $NaNO_3$

17. (03-2-24) 9,2 g natriy metali mo'l kislorodda yondirildi. Mahsulotga 2,24 l (n. sh. da) CO_2 gazi yuborilgandan so'ng, mo'l miqdordagi suvda eritildi. Ajralib chiqqan gazning hajmini (l, n. sh. da) toping.
A) 2,24 B) 4,48 C) 5,6
D) 6,72 E) 11,2

18. (03-2-45) Dengiz suvlarining 1 litri tarkibida ≈1,27 g magniy ionlari bo'lishi aniqlangan bo'lsa, 100 ml dengiz suvidagi Mg^{2+} ionlari sonini toping.
A) $2{,}18\cdot10^{21}$ B) $3{,}18\cdot10^{21}$
C) $3{,}18\cdot10^{22}$ D) $3{,}18\cdot10^{23}$
E) $2{,}18\cdot10^{23}$

19. (03-4-45) Po'latdagi xromning massa ulushi 1% bo'lishi uchun massasi 60 kg bo'lgan po'latga ferroxrom qotishmasining qanday massasini (g) qo'shish kerak (xromning ferroxromdagi massa ulushi 0,65 ga teng)?
A) 943,5 B) 923,1 C) 937,5
D) 888,8 E) 999,9

20. (03-5-49) Natriy karbonat eritmasining zichligi 1,102 g/ml ga teng. Uning 4 l eritmasiga xlorid kislota ta'sir ettirib, 66,6 l (n. sh.) CO_2 olindi. Natriy karbonatning eritmadagi massa ulushini (%) hisoblang.
A) 6,66 B) 7,15 C) 8,49
D) 10,25 E) 13,32

21. (03-7-4) 6,06 g kaliy nitrat qizdirilganda 5,34 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. Qoldiq tarkibidagi kaliy nitratning massasini aniqlang.
A) 1,5 B) 2,5 C) 3,0
D) 0 E) 6,06

22. (03-7-17) Misning tabiiy birikmalaridan 1,84 g olinib qizdirilganda, 13,26 g CuO, 3,67 g CO_2 va 1,5 g H_2O hosil bo'ldi. Uning 0,463 g miqdoriga mo'l miqdordagi xlorid kislota ta'sir ettirilganda, 238 ml (22°C va 99480 Pa) CO_2 ajralib chiqdi. Olingan eritma elektroliz qilinganda esa 0,266 g mis ajralib chiqdi. Misning qanday tabiiy birikmasi olinganligini aniqlang.
A) lazurit B) malaxit
C) mis(II) karbonat D) mis(II) sulfat
E) mis kuporosi

23. (04-1-329) Osh tuzining massa ulushi 0,16 bo'lgan 400 g eritmasi kumush nitratning massa ulushi 0,85 bo'lgan 200 g eritmasi bilan o'zaro aralashtirildi. Ortib qolgan moddaning massasini (g) aniqlang.
A) 13,6 g $AgNO_3$
B) 152,5 g $AgNO_3$
C) 1,5 g NaCl
D) 5,5 g NaCl
E) ortib qolmaydi

24. (04-1-336) Natriy oksidi va peroksidi aralashmasida natriyning 8 ta atomiga 5 ta kislorod atomi to'g'ri keladi. Natriy peroksidning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 70,5 B) 65,2 C) 75,3
D) 29,5 E) 25

25. (04-1-506) 9,95 g metall (II) oksiddan vodorod ta'sirida 5,97 g sof metall olindi. Reaksiyaga qaysi metalning oksidi olingan edi va bunda qancha hajm (l, n. sh.) vodorod reaksiyaga kirishgan?
A) Fe; 2 B) Mg; 5,5
C) Ni; 1,5 D) Cd; 2,5
E) Ca; 1,5

26. (04-1-533) 6,06 g kaliy nitrat qizdirilganda, 5,34 g qattiq qoldiq hosil bo'lgan. Kaliy nitratning necha foizi termik parchalanmaganligini toping.
A) 25 B) 60 C) 65 D) 70 E) 75

27. (04-1-534) 6,06 g kaliy nitrat qizdirilganda, 5,34 g qattiq hosil bo'lgan. Qoldiq tarkibidagi kaliy nitratning massasini aniqlang.
A) 1,51 B) 2,5 C) 3,0 D) 0 E) 3,82

28. (04-1-638) Tarkibida mis qo'shimchasi bo'lgan 10 g oltin kukuniga konsentrlangan nitrat kislota qo'shib qizdirildi. Bunda n. sh. da o'lchangan 112 ml gaz ajralib chiqdi. Reaksiya natijasida qanday gaz chiqqan va kukundagi misning massa ulushi necha foizni tashkil qiladi?
A) NO_2; 16 B) NO; 12,8
C) SO_2; 3,2 D) NO_2; 3,2
E) NO_2, 1,6

29. (04-1-675) Mo'l miqdordagi juda suyultirilgan nitrat kislotasi bilan rux oksidning o'zaro ta'siridan olingan eritmaga ishqor ta'sir eritilsa qanday gaz ajralib chiqadi?
A) gaz ajralib chiqmaydi B) vodorod
C) azot D) azot (II) oksid
E) ammiak

30. (v4-102-31) Natriy normal sharoitda 30 g spirtdan 4,54 l vodorodni siqib chiqarishi ma'lum. Agar shu spirt bir atomli bo'lsa, uning molekulyar massa qancha bo'ladi?
A) 60 B) 88 C) 32 D) 74 E) 46

31. (v4-108-17) Qaysi metalning oksididagi elektronlar soni uning nitrididagiga qaraganda 2,64 marta kamroq bo'ladi?
A) Fe B) Mg C) Ca D) Al E) Cu

32. (v4-109-25) Vodorod bilan qaytarish natijasida hosil bo'lgan temir va Fe_3O_4 aralashmasining 28,8 grammiga havosiz sharoitda xlorid kislota bilan ishlov berilganda 8,96 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Aralashmaning tarkibini (g) aniqlang.
A) 14,4 Fe_3O_4; 14,4 Fe
B) 7 Fe_3O_4; 21,8 Fe
C) 6,4 Fe_3O_4; 22,4 Fe
D) 4,8 Fe_3O_4; 24 Fe
E) 12,8 Fe_3O_4; 16 Fe

33. (v4-110-24) Massasi 11,6 g bo'lgan natriy va kaliy gidridlar aralashmasining suv bilan reaksiyasi natijasida 0,35 mol gaz modda hosil bo'lgan. Aralashmadagi gidridlarning mol nisbatlarini hisoblang.
A) 0,15:0,2 B) 0,1:0,51
C) 0,4:0,1 D) 0,3:0,073
E) 0,3:0,2

34. (v4-115-18) Dengiz suvining bir tomchisida 50 milliardga yaqin oltin atomlari bor. Dengiz suvidan 16 tomchisining massasini 1 g deb olib, dengiz suvining 100 tonnasidagi oltinning massasini (g) hisoblab toping.
A) 0,03 B) 0,15
C) $3 \cdot 10^{-5}$ D) 0,00003
E) 0,05

35. (v5-104-26) Natriy xlorid va xlorid kislotadan iborat 3,8 kg eritmani neytrallash uchun natriy ishqorining 5,2 M eritmasidan 568 ml sarflandi. Hosil bo'lgan eritmadagi xlor ionini to'la cho'ktirish uchun kumush nitratning 0,8 M li eritmasidan 4,37 l sarflandi. Dastlabki aralashmadagi moddalarning miqdori (mol) – … .
A) 0,75; 3,44 B) 0,75; 2,98
C) 2,95; 3,49 D) 1,57; 2,87
E) 0,55; 2,95

36. (v5-107-9) 64 g titan (IV) oksid yetarli miqdorda xlor va uglerod bilan o'zaro reaksiyasida necha litr (n. sh.) is gazi ajraladi?
A) 33,2 B) 30,64 C) 35,84
D) 39,3 E) 31,3

37. (v5-107-28) 33,6 g titan konsentrlangan sulfat kislota qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan SO_2 ning hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 20,7 B) 22,4 C) 23,52
D) 29,4 E) 26,9

38. (v5-109-35) Natriy va kaliy xloridlardan iborat aralashmadagi xlor ionini to'liq cho'ktirish uchun 12,65 g kumush nitrat sarflandi. Boshlang'ich aralashma suvda eritilib elektroliz qilinsa … l (n. sh.) xlor ajraladi.
A) 0,69 B) 0,83 C) 1,1
D) 0,47 E) 0,97

39. (v5-117-17) Noma'lum element atomidagi proton, neytron va elektronlarning umumiy soni 40 ta bo'lib, undan 32,5% ini elektronlar tashkil etadi. Elementning atom massasini aniqlang.
A) 20,38 B) 28 C) 27
D) 15 E) 35,5

40. (v5-123-9) Eng og'ir metall qaysi?
A) Hg B) Au
C) W D) Fe E) Os

41. (v5-125-24) 14,9 g KCl ga 0,1 mol sulfat kislota ta'sir ettirilganda ajralib chiqqan HCl, tarkibida 8 g NaOH bo'lgan eritmaga yuttirildi va eritma quriguncha bug'latildi. Qolgan qoldiqning tarkibi va massasini (g) aniqlang.
A) KCl; 19 B) NaCl; 5,85
C) HCl; 7,3 D) $KHSO_4$; 156
E) NaCl; 11,7

42. (v5-140-2) Eng og'ir va eng yengil metalni ko'rsating.
1) Br; 2) Li; 3) Hg; 4) Os; 5) Pb; 6) Al.
A) 4 va 1 B) 5 va 1 C) 5 va 6
D) 4 va 2 E) 3 va 2

43. (v6-101-34) Ikki valentli metall gidridi 134,1 g suvda eritilganda 896 ml (n. sh.) gaz modda ajralib, 2,5% li eritma hosil bo'ldi. Qaysi metall gidridi ishlatilgan?
A) Ba B) Ca C) Mg D) Sr

44. (v6-104-25) 2,4 g ishqoriy metall oksidi 93,6 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 4% ni tashkil qilsa, reaksiyaga olingan metalni aniqlang.
A) kaliy B) litiy C) seziy D) natriy

45. (v6-104-29) 0,1 mol simob suyultirilgan nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishganda, necha gramm simob (II) nitrat hosil bo'ladi va qanday gaz ajralib chiqadi?
A) 97,2; O_2 B) 32,4; H_2
C) 32,4; NO D) 97,2; NO

46. (v6-107-35) 87,5 g mis kuporosi mo'l miqdordagi suvda eritilib, unga 13,44 g temir kukuni qo'shildi. Reaksiya yakunlangandan so'ng olingan qattiq mahsulot 72 g 63% li nitrat kislotaga solinganda ajralib chiqqan NO_2 ning hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 10,75 B) 3,73 C) 8,06 D) 1,12

47. (v6-111-26) Natriy va qalaydan iborat 200 g qotishmadagi natriyning massa ulushi 20,5% bo'lsa, unga necha gramm qalay qo'shilganda Na_2Sn_3 tarkibli qotishmaga aylanadi?
A) 92 B) 41
C) 212 D) 159

48. (v6-112-26) Alyuminiy xlorid havosiz sharoitda kaliy bilan qizdirilganda 13,5 g alyuminiy olindi. Ushbu reaksiyada qatnashgan kaliyga teng miqdorda (mol) olingan natriy metalli suv bilan reaksiyaga kirishsa, necha litr (n. sh.) vodorodni siqib chiqaradi?
A) 11,2 B) 22,4 C) 16,8 D) 5,6

49. (v6-113-34) Rux va oltindan iborat 26,2 g aralashmaga mo'l miqdorda suyultirilgan xlorid kislota qo'shildi. Olingan gaz avval 400°C li mis (II) oksidi bo'lgan nayga, undan so'ng fosfor (V) oksidi bo'lgan nayga (t = 25°C) kiritildi. Agar ikkinchi nayning massasi 1,8 g ga ortgan bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi oltinning massasini (g) toping.
A) 9,8 B) 6,5
C) 19,7 D) 13,6

50. (v6-119-18) Qancha hajm (ml) konsentrlangan nitrat kislota (ω = 80%, ρ = 1,45 g/ml) bilan misning reaksiyasida $1{,}204 \cdot 10^{23}$ dona gaz molekulasi ajraladi?
A) 14,8 B) 21,7
C) 25,2 D) 31,5

51. (v6-120-25) 7,65 g ikki valentli metall oksidi 334,35 g suvda eritilganda hosil bo'lgan moddaning massa ulushi 2,5% ni tashkil qilsa, metalni toping.
A) bariy B) kalsiy
C) magniy D) stronsiy

52. (v6-123-26) Suyultirilgan nitrat kislotada kumush eritilishidan hosil bo'lgan reaksion muhitga mo'l miqdorda kaliy ishqor eritmasi qo'shilganda 101,4 g cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan kumushning massasini (g) hisoblang.
A) 64,2 B) 87,6 C) 94,4 D) 108

53. (v6-125-35) 256 g 15% li mis sulfat eritmasiga 8,4 g temir kukuni qo'shildi. Reaksiya yakunlangandan so'ng olingan qattiq mahsulot 30 g 63% li nitrat kislotaga solinganda qancha (l, n. sh.) NO_2 ajralgan?
A) 3,36 B) 10,75 C) 4,63 D) 6,72

54. (v7-104-26) 24,3% li 70 g kumush nitrat eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda natriy galogenid bo'lgan 80 g eritma qo'shildi. Cho'kma ajratilgandan so'ng 6,48% li eritma hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi tuzning eritmasi ishlatilgan?
A) NaBr B) NaCl C) NaF D) NaI

55. (v7-110-25) 19,2 g misni eritish uchun unga oldin konsentrlangan sulfat kislota va so'ngra to'la eriguncha suyultirilgan nitrat kislota qo'shildi. Olingan mis tuzini 200°C temperaturada massasi o'zgarmay qolguncha qizdirilganda 32 g mahsulot olindi. Mahsulot tarkibidagi moddalar massa nisbatini aniqlang.
A) 1:2 B) 1:1,5 C) 1:1 D) 1:3

56. (v7-117-24) Tarkibida $Ca(OH)_2$ va KOH bo'lgan aralashmani neytrallash uchun 0,26 mol sirka kislota sarflandi. Eritmada 9,8 g kaliy atsetat hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmaning massasini (g) aniqlang.
A) 21,6 B) 17,4 C) 11,52 D) 5,92

57. (v8-104-22) Natriy oksalat sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan ta'sirlashganda 63,2 g oksidlovchi qatnashganligi ma'lum bo'lsa, reaksiya natijasida qancha hajm (l, n. sh.) karbonat angidrid hosil bo'ladi?
A) 44,8 B) 22,4 C) 89,6 D) 33,6

58. (v8-111-23) 736,2 g suvda ikki valentli metall gidridi eritilganda 0,4 g gaz ajralib, 1% li eritma hosil bo'ldi. Qaysi metall gidridi ishlatilgan?
A) bariy B) kalsiy
C) magniy D) stronsiy

59. (v8-114-24) 70,4 g misni eritish uchun unga oldin konsentrlangan sulfat kislota so'ngra to'la eriguncha suyultirilgan nitrat kislota qo'shildi. Olingan mis tuzini 200°C temperaturada massasi o'zgarmay qolguncha qizdirilganda 152 g mahsulot olindi. Reaksiyada ishtirok etgan sulfat va nitrat kislotalar miqdorini (mol) hisoblang.
A) 1,8; 0,9 B) 0,8; 0,3
C) 0,9; 1,7 D) 1,6; 0,8

60. (v8-114-31) 183 g 1% li kalsiy gidroksid eritmasidan qancha hajm (l, n. sh.) karbonat angidrid o'tkazilganda hosil bo'lgan moddaning massa ulushi boshlang'ish eritmadagi kalsiy gidroksid massa ulushiga teng boradi?
A) 411 B) 509 C) 1000 D) 809

61. (v8-115-31) Natriy, kaliy va kalsiydan iborat 0,7 mol aralashma suvda eritilganda 10,08 l (n. sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi kaliyning miqdori (mol) natriynikidan 2 marta ko'p bo'lsa, hosil bo'lgan natriy gidroksidning massasini (g) hisoblang.
A) 33,6 B) 6,68 C) 28 D) 22,4

62. (v8-121-24) 32 g misni eritish uchun unga oldin konsentrlangan sulfat kislota so'ngra to'la eriguncha suyultirilgan nitrat kislota qo'shildi. Olingan mis tuzini 200°C

temperaturada massasi o'zgarmay qolguncha qizdirilganda 56g mahsulot olindi. Reaksiyada ishtirok etgan sulfat va nitrat kislotalar miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,4; 0,8 B) 0,2; 0,3
C) 0,9; 1,2 D) 0,4; 0,6

63. (v8-121-31) Natriy, kaliy va kalsiydan iborat 0,7 mol aralashma suvda eritilganda 10,08 l (n. sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi kaliyning miqdori (mol) natriynikidan 1,5 marta ko'p bo'lsa, hosil bo'lgan natriy gidroksidning massasini (g) hisoblang.
A) 8 B) 4 C) 12 D) 10

64. (v9-103-5) 72,6 g ikki valentli metall nitratining kristallogidrati uzoq vaqt davomida qizdirilganda, 56,4 g suvsiz tuz hosil bo'ldi, qizdirish davom ettirilganda, 24 g qoldiq qoldi. Kristallogidratning tarkibini aniqlang.
A) $Ni(NO_3)_2 \cdot 12H_2O$ B) $Fe(NO_3)_2\ 12H_2O$
C) $Cu(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$ D) $Zn(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$

65. (v9-103-8) Natriy karbonat va natriy gidrokarbonat o'zaro qanday nisbatda (massa) bo'lganda aralashmadagi natriyning massa ulushi 35,4% bo'ladi?
A) 1:3,8 B) 1:1 C) 1:1,7 D) 1:2,3

66. (v9-106-32) 28,4 g alyuminiy va xrom (III) gidroksidlardan iborat aralashmaning 50,7% i kisloroddan iborat bo'lsa, ushbu aralashmani to'la, eritish uchun (reaksiyada $Na[Me(OH)_4]$ hosil bo'ladi) 3 molyarli natriy gidroksid eritmasidan qancha hajm (l) zarur bo'ladi?
A) 0,08 B) 1,4 C) 0,1 D) 0,06

67. (v9-120-30) 19,2 g misning konsentrlangan nitrat kislotada erishidan olingan gaz kislorod ishtirokida 67,6 g suvda eritildi. Hosil bo'lgan moddaning eritmadagi massa ulushini (%) aniqlang.
A) 39,7 B) 5,4 C) 27,6 D) 37,8

68. (v9-129-6) Temir, temir (II) oksid va temir (III) oksiddan iborat 0,4 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 2,24 l (n. sh.) gaz ajraldi. Shunday miqdordagi aralashma vodorod bilan to'la qaytarilganda, 9 g suv hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi temir (II) oksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 44,4 B) 60 C) 40 D) 15,6

69. (v11-101-3) Temir bilan oltingugurt aralashmasini qizdirishdan hosil bo'lgan moddani xlorid kislotasida to'liq eritilganda (n. sh.) 4,48 l gazlar ajraldi. Gazsimon moddani qo'rg'oshin (II) nitrat eritmasidan o'tkazilganda 23,9 g cho'kma hosil bo'lsa, dastlabki moddalar massasi qanchadan bo'lgan?
A) 56 g Fe; 16 g S B) 56 g Fe; 32 g S
C) 11,2 g Fe; 3,2 g S D) 112 g Fe; 32 g S

70. (v12z-201-21) 34,9 g $PbCl_4$ ni past temperaturada qizdirib necha litr (n. sh.) xlor olish mumkin?
A) 4,48 B) 2,24 C) 5,6 D) 3,36

71. (v12z-204-2) Zn, Mg va Al dan iborat 0,6 mol aralashma HCl da eritilganda 15,68 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Shunday aralashmaning teng yarmi yondirilganda 17,2 g oksidlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi ruxning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 56,0 B) 65,0
C) 26,5 D) 34,0

72. (v12z-208-16) Eng ko'p tarqalgan ikkita metallarning 22 g ini to'la xlorlash uchun 20,16 l Cl_2 sarflandi. Yengil metalning massa ulushini (%) toping.
A) 51,0 B) 36,8 C) 49,0 D) 63,2

73. (v12z-218-2) Kaliy va magniy amalgamalarining 15,33 grammi mo'l miqdordagi xlorid kislotada eritilganda 6,72 l gaz ajraldi va 2,73 grammi erimay qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi kaliyning massa ulushini (%) toping.
A) 31,3 B) 61,9 C) 50,9 D) 30,1

74. (v12z-222-29) Zn, Mg va Al dan iborat 0,6 mol aralashma HCl da eritilganda 15,68 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Shunday aralashmaning teng yarmi yondirilganda 17,2 g oksidlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 23,2 B) 12,25 C) 17,05 D) 19,1

75. (v12z-227-2) 65 g simob (II) nitratga yetarli miqdorda ishqor qo'shib qizdirilganda hosil bo'ladigan sariq cho'kmaning massasini toping.
A) 83,6 B) 47 C) 43,4 D) 40,2

76. (v12z-233-19) 37,6 g alyuminiy va kalsiy qotishmasi suyultirilgan xlorid kislotada to'la eritilganda 35,84 l gaz ajraldi. Hosil bo'lgan $CaCl_2$ ning massasini (g) toping.
A) 27,75 B) 66,6 C) 44,4 D) 33,1

77. (v12z-236-28) 91,3 g natriy va bariy gidroksidlar aralashmasi 58,7 ml suvda eritildi. Olingan eritmani to'liq neytrallash uchun 200 ml 4 M li H_2SO_4 eritmasi sarf bo'ldi. Dastlabki eritmadagi bariy gidroksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 20 B) 34,2 C) 51,3 D) 40

78. (v12z-239-34) Rux va alyuminiydan iborat qotishmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 8,96 l (n. sh.) gaz ajraldi. Xuddi shunday massadagi qotishmaga ishqor bilan ishlov berilganda ham 8,96 l (n. sh.) gaz ajraldi. Boshlangich qotishmadagi alyuminiyning massa ulushini (%) toping.
A) 45,6 B) 78,3 C) 21,69 D) 56,4

79. (v12c-103-28) Eng ko'p tarqalgan va eng qattiq metallarning 15,8 g aralashmasini to'la xlorlash uchun 13,44 l Cl_2 sarflandi. Qattiq metalning massa ulushini (%) toping.
A) 65,8 B) 68,4 C) 21,66 D) 43,3

80. (v12c-107-21) 49,65 g $Pb(NO_3)_2$ qizdirilishidan hosil bo'lgan qattiq modda CO yordamida qaytarildi. Bunda hosil bo'lgan gaz 7,4 g $Ca(OH)_2$ tutgan eritma bilan ta'sirlashdi. Hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) toping.
A) 20 B) 5 C) 10 D) 15

81. (v12c-108-11) Zn, Mg va Al dan iborat 0,6 mol aralashma HCl da eritilganda 15,68 l (n. sh.) gaz ajraldi. Shunday aralashmaning teng yarim yondirilganda 15,15 oksidlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi ruxning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 34,0 B) 64,0 C) 65,0 D) 26,5

82. (v12c-111-9) Zn, Mg va Al dan iborat 0,6 mol aralashma HCl da eritilganda 15,68 l (n. sh.) gaz ajraldi. Shunday aralashmaning teng yarmi yondirilganda 15,15 g oksidlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 25,25 B) 12,25 C) 17,05 D) 10,1

83. (v12c-125-36) Temir bilan oltingugurt aralashmasini qizdirilishidan olingan moddani xlorid kislotada to'liq eritilganda (n. sh.) 8,96 l gazlar ajraldi. Gazlarni qo'rg'oshin (II) nitrat eritmasidan o'tkazilganda 47,8 g cho'kma hosil bo'ldi. Dastlabki moddalar massalarini (g) toping.
A) 16,8 Fe; 9,6 S B) 22,4 Fe; 6,4 S
C) 16,8 Fe; 6,4 S D) 11,2 Fe; 3,2 S

84. (v12c-131-19) Temir bilan oltingugurt aralashmasini qizdirilishidan hosil bo'lgan moddani xlorid kislotada to'liq eritilganda (n. sh.) 6,72 l gazlar ajraldi. Gazlarni qo'rg'oshin (II) nitrat eritmasidan o'tkazilgan 23,9 g cho'kma hosil bo'ldi. Dastlabki moddalar massalarini (g) toping.
A) 11,2 Fe; 3,2 S B) 16,8 Fe; 3,2 S
C) 5,6 Fe; 3,2 S D) 8,4 Fe; 6,4 S

85. (v13-102-1) 46,2 g qattiq holdagi ishqoriy metall ftoridiga konsentrlangan sulfat kislota ta'sir ettirilganda ajralgan gaz $Ca(OH)_2$ eritmasi orqali o'tkazilganda 42,9 g cho'kma hosil bo'ladi. Noma'lum metalni aniqlang.
A) Rb B) Cs C) Na D) K

86. (v13-102-17) 72 g noma'lum ikki valentli metall va uning karbonati HCl bilan ishlanganda 22,4 l gazlar aralashmasi ajraldi. Bu gazlar yondirilib, suv bug'lari kondensatlanganda gazning hajmi 17,92 l (n. sh.)ga qadar kamaygan bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi metall karbonatning massa ulushini (%) toping.
A) 6,67 B) 50,5 C) 49,5 D) 93,33

87. (v13-108-23) 7,5 g metalning kislorodli birikmasi uglerod (IV) oksid bilan ta'sirlashganda qattiq A modda va B gaz hosil bo'ldi. A modda bariy nitrat eritmasi bilan ta'sirlashganda 59,1 g cho'kma hosil bo'ldi. B gaz qizdirilgan mis trubkasi orqali o'tkazilganda esa trubka massasi 14,4 g ga ortdi. Dastlabki metall oksidi formulasini toping.
A) RbO_2 B) BaO_2 C) SnO_2 D) KO_2

88. (v13-118-17) 2,4 g ishqoriy metall oksidi 93,6 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 4% ni tashkil qiladi. 0,4 N li 900 ml H_2SO_4 eritmasini to'la neytrallash uchun 1-reaksiyadan hosil bo'lgan 4% li eritmadan necha g kerak?
A) 432 B) 216 C) 240 D) 120

89. (v13-120-25) 37,01 g metalning kislorodli birikmasi uglerod (IV) oksid bilan ta'sirlashganda qattiq A modda va B gaz hosil bo'ldi. A modda bariy nitrat eritmasi bilan ta'sirlashganda 31,03 g cho'kma hosil bo'ldi. B gaz qizdirilgan mis trubkasi orqali o'tkazilganda esa trubka massasi 7,56 g ga ortdi. Dastlabki metall oksidi formulasini toping.
A) SnO_2 B) RbO_2 C) HgO D) Te_2O_3

90. (v13-123-1) 29 g qattiq holdagi ishqoriy metall ftoridiga konsentrlangan sulfat kislota ta'sir ettirilganda ajralgan gaz $Ca(OH)_2$ eritmasi orqali o'tkazilganda 19,5 g cho'kma hosil bo'ladi. Noma'lum metalni aniqlang.
A) Rb B) Cs C) Na D) K

91. (v13-136-31) 62,7 g qattiq holdagi ishqoriy metall ftoridiga konsentrlangan sulfat kislota ta'sir ettirilganda ajralgan gaz $Ca(OH)_2$ eritmasi orqali o'tkazilganda 23,4 g cho'kma hosil bo'ladi. Noma'lum metalni aniqlang.
A) K B) Li C) Rb D) Cs

92. (v13-141-21) 2,4 g ishqoriy metall oksidi 93,6 g suvda eritilganda hosil bo'lgan birikmaning massa ulushi 4% ni tashkil qiladi. 0,4 N li 900 ml H_2SO_4 eritmasini to'la neytrallash uchun 1-reaksiyadan hosil bo'lgan 4% li eritmadan necha g kerak?
A) 432 B) 216 C) 120 D) 240

93. (v13-145-10) Temirning massa ulushi 86,15% bo'lgan temir va alyuminiydan iborat aralashmaga mo'l miqdorda HCl ta'sir ettirilganda 4,5 mol gaz ajralsa, dastlabki aralashmadagi alyuminiyning massasini (g) aniqlang.
A) 27 B) 112,5 C) 168 D) 54

94. (v13-147-21) 16,45 g metalning kislorodli birikmasi uglerod (IV) oksid bilan ta'sirlashganda qattiq A modda va B gaz hosil bo'ldi. A modda bariy nitrat eritmasi bilan ta'sirlashganda 13,79 g cho'kma hosil bo'ldi. B gaz qizdirilgan mis trubkasi orqali o'tkazilganda esa trubka massasi 3,36 g ga ortdi. Dastlabki metall oksidi formulasini toping.
A) HgO B) SnO_2 C) Te_2O_3 D) RbO_2

95. (v13-162-15) Noma'lum (II-valentli) metall va mis (II) nitrat aralashmasi tarkibida 11,32% Me bor. Aralashma ochiq havoda qizdirilganda uning massasi 43,4% ga kamaydi. Noma'lum metalni aniqlang.
A) Sr B) Ba C) Mg D) Ca

96. (v13-171-33) 162,5 g 30% li temir (III) xlorid eritmasiga 3,36 l (n. sh.) H_2S shimdirildi. Hosil bo'lgan eritma filtrlandi. Filtrat necha gramm 20% li NaOH eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi?
A) 180 B) 210 C) 360 D) 550

97. (v14-103-1) 4,6 g natriy 0,2 l suvda eritildi. Olingan eritmaning massa ulushini (%) toping. Olingan eritma necha gramm 10,83% li $FeCl_3$ eritmasi bilan ta'sirlashadi?
A) 3,02; 50 B) 3,91; 100
C) 2,05; 50 D) 4,02; 100

98. (v14-125-5) Natriy karbonat va natriy gidrokarbonatdan iborat 60 g aralashma kuydirilganda 2,7 g suv ajralib chiqqan bo'lsa, aralashmadagi Na_2CO_3 va $NaHCO_3$ ning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.
A) 40; 60 B) 55; 45
C) 58; 42 D) 48; 52

99. (v15-101-17) Rux va kumushning ikki xil qotishmasi mavjud. Birinchi qotishmada bu metallar 2:5 massa nisbatda, ikkinchisida esa 7:6 massa nisbatda. Rux va kumushning massa nisbati 11:27 bo'lgan 54 kg yangi qotishma olish uchun birinchi qotishmani qanday massada (kg) olish kerak?
A) 32 B) 28 C) 22 D) 8

100. (v15-103-12) Kalsiyning karbidi va gidrididan iborat aralashma suvda eritilishidan ajralib chiqqan gazlar aralashmasining zichligi kislorodnikidan 4 marta kichik bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi kalsiy gidridning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 27,59 B) 49,6 C) 72,41 D) 58,38

101. (v15-103-33) HNO_3 eritmasining Cu bilan reaksiyasi natijasida NO_2 va NO gazlari 1:0,5 mol nisbatda hosil bo'lgan. 0,5 mol misni eritish natijasida necha gramm tuz hosil bo'ladi?
A) 47 B) 94 C) 23,5 D) 29,125

102. (v15-105-30) Ishqoriy metall oksidi va peroksididan iborat 1,4 g aralashma gidrolizlanganda 112 ml (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Hosil bo'lgan gidroksidni to'liq neytrallash uchun 0,04 mol xlorid kislota eritmasi sarflangan bo'lsa, noma'lum metalni aniqlang.
A) K B) Na C) Rb D) Cs

103. (v15-106-34) HNO_3 eritmasining mis bilan reaksiyasi natijasida NO_2 va NO gazlari 0,5:1 mol nisbatda hosil bo'lgan. 1,4 mol misni eritish uchun necha mol nitrat kislota sarflanadi?
A) 0,8 B) 2,8 C) 4 D) 3,2

104. (v15-109-3) Temir va mis aralashmasiga aralashma massasining 2/5 qismiga teng mis qo'shilganda temirning massa ulushi 20% ga kamaygan bo'lsa, dastlabki aralashmada ω%(Fe)/ω%(Cu) nisbat nechaga tengligini aniqlang.
A) 4,2 B) 3,67 C) 1,5 D) 2,33

105. (v15-114-14) 5 g metall karbonati qizdirilishidan 2,8 g uning oksidi olindi. Ushbu oksid sulfat kislota bilan ta'sirlashganda hosil bo'ladigan suvning massasini (g) aniqlang.
A) 1,8 B) 0,9
C) 3,6 D) 2,7

106. (v15-116-21) 11,4 g Li va Mg aralashmasi yetarli sharoitda azot atmosferasida qizdirilganda hosil bo'lgan aralashma tarkibida 12,6 g nitridlar mavjudligi aniqlandi, Hosil bo'lgan aralashmadagi nitridlar massa ulushini (%) aniqlang. (Birinchi reaksiyaning unumi 80%, ikkinchi reaksiyaning unumi 70%)
A) 55,5; 44,4
B) 36; 64
C) 36; 45
D) 31,4; 51,3

107. (v15-119-27) Temir va mis aralashmasiga aralashma massasining 2/5 qismiga teng mis qo'shilganda temirning massa ulushi 20% ga kamaygan bo'lsa, dastlabki aralashmada 20% ga kamaygan bo'lsa, dastlabki aralashmada ω%(Fe)/ω%(Cu) nisbat nechaga tengligini aniqlang.
A) 2,33 B) 3,67 C) 4,2 D) 1,5

108. (v15-128-3) Xrom (III) oksidning 38 grammini eritish uchun 2 M li NaOH eritmasidan 250 ml sarflandi. Hosil bo'lgan tuz ($NaCrO_2$) massasini (g) aniqlang.
A) 11,85 B) 33,36 C) 26,75 D) 53,5

109. (v15-129-16) 50,8 g noma'lum I valentli va II valentli metall aralashmasining 0,8 moli suvda eritilganda 11,2 litr (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Agar hosil bo'lgan XOH ning massasi $Y(OH)_2$ nikidan 0,6 g ga kam bo'lsa, noma'lum metallarni aniqlang.
A) K; Ba B) K; Ca
C) Na; Ba D) Li; Ca

110. (v15-130-27) 100 g 16,02% li nitrat kislota eritmasiga mis bo'lakchasi tashlanganda hosil bo'lgan eritmadagi tuz bilan nitrat kislota massa ulushlari teng bo'lsa, ajralib chiqqan gazning hajmini (ml, n. sh.) aniqlang.
A) 112 B) 672 C) 448 D) 224

111. (v16-109-6) Xalkozin va kupritning o'zaro ta'sirlashuvidan olingan metall 80% li sulfat kislotada eritilganda 13,44 litr (n. sh.) gaz hosil bo'lgan bo'lsa, olingan metall massasini (g) toping.
A) 51,2 B) 12,8 C) 38,4 D) 25,6

112. (v16-112-13) Ma'lum miqdordagi metalni eritish uchun massa ulushi 25% bo'lgan HCl eritmasidan 233,6 gramm sarf bo'lgan. Bunda massa 38,31% ga teng bo'lgan metall xlorid eritmasi butil bo'ldi. Xlorid kislotada qaysi metall eritilganligini aniqlang (gidrolizni inobatga olmang).
A) Sc B) Fe C) Al D) Zn

113. (v16-114-3) Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotaning 54,6 g 10 molyalli eritmasida eritilganda H_2 gazi ajraldi va metall xloridining 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan metall xlorid miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,4 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,3

114. (v16-117-4) Ma'lum miqdordagi metalni eritish uchun massa ulushi 20% bo'lgan HCl eritmasidan 73 gramm sarf bo'lgan. Bunda massa ulushi 30,31% ga teng bo'lgan metall xlorid eritmasi hosil bo'ldi. Xlorid kislotada qaysi metall eritilganligini aniqlang (gidrolizni inobatga olmang).
A) Al B) Sc C) Zn D) Fe

115. (v17-101-30) $^{79}Br_2$ – 50,59%; ^{x}Br – 49,46% izotoplar ma'lum bo'lsa, ^{x}Br izotopni toping va shu izotop bilan alyuminiy reaksiyaga kirishsa, qancha (g) alyuminiy bromid hosil bo'ladi?
A) x = 81 45 g B) x = 80 50 g
C) x = 78 45 g D) x = 80 46,5 g

116. (v17-103-12) 10 g oltin (III) xloriddan qancha g oltinning xlorli birikmasini olish mumkin (ya'ni 185°C da)?
A) 8,8 g B) 6,6 g
C) 7,7 g D) 5,5 g

117. (v17-104-3) 1 mol metall gidroksid qizdirilganda 27 g suv hosil bo'ldi. Hosil bo'gan metall oksidining molyar massasi parchalangan metall gidroksidning molyar massasidan 49 g/mol ga ko'pligi ma'lum bo'lsa, reaksiyadan hosil bo'lgan metall oksid massasini (g) toping.
A) 102 B) 80 C) 56 D) 76

118. (v17-104-27) Tarkibida xolozin va mis bo'lmagan boshqa moddalar bor. Massasi 16 t bo'lgan mis rudasidan 650 g massadagi xomaki metall olindi. Agar 98,4% ni tashkil etsa, rudadagi mis va xolozinning massa ulushlarini aniqlang.
A) mis 4%, xolozin 5%
B) mis 6%, xolozin 5%
C) mis 5%, xolozin 6%
D) mis 7%, xolozin 4%

119. (v17-104-29) Kaliy va kaliy peroksidi suvda erishida vodorodga nisbatan zichligi 7,43 ga teng bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Dastlabki moddalarning mollar nisbatini aniqlang.
A) 0,66:2,66 B) 1:0,88
C) 0,88:1 D) 2,66:0,66

120. (v17-105-13) Li_2O ning suv bilan reaksiyasi natijasida LiOH hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan ishqorning massasi oksid massasidan 1,28 marta ko'p bo'lsa, reaksiya umumini (%) aniqlang.
A) 65 B) 80 C) 95 D) 75

121. (v17-106-13) $KOH + H_3PO_4 \rightarrow \rightarrow K_2HPO_4 + H_2O$ reaksiyada olingan mahsulotlar massasi yig'indisi va sarflangan ishqor massasi farqi 73,5 g bo'lsa, necha gramm 40% li ishqor eritmasi sarflangan?
A) 134,4 B) 210
C) 168 D) 112

122. (v17-107-11) 33,7 g MnO_2 bilan noma'lum MeO_2 (HCl bilan xuddi MnO_2 singari reaksiyaga kirishadi) aralashmasiga mo'l HCl ta'sir ettirilganda 6,72 litr (n. sh.) Cl_2 ajralib chiqdi. Agar aralashma tarkibi 1:5 (MeO_2:MnO_2) mol nisbatda bo'lsa, noma'lum metallni aniqlang.
A) Pt B) Pb C) Pd D) Sn

123. (v17-107-35) Massasi 2 g bo'lgan natriy va natriy oksidi aralashmasi 50 g suvga tushirilgandan so'ng 5,4% li eritma hosil bo'ldi. Natriy metallining boshlang'ich aralashmasidagi massa ulushini aniqlang.
A) 0,4 B) 0,3 C) 0,7 D) 0,25

124. (v17-108-23) Massasi 2 g natriy va natriy oksidi aralashmasi 50 g massali suvga tushirilgandan so'ng 5,4% li eritma hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi natriy oksidining massa ulushini aniqlang.
A) 0,65 B) 0,3 C) 0,75 D) 0,4

125. (v17-109-21) Qo'rg'oshin va kumush nitrat aralashmasi qizdirilganda $D(H_2) = 21$ bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'lgan. Dastlabki aralashmada mollar nisbatini aniqlang.
A) 1:3 B) 1:1 C) 1:1,25 D) 1:1,5

126. (v17-109-36) Massasi 84 g bo'lgan XCl_2 va YCl_3 tarkibli 0,6 mol suyuqlanmasidan metallni to'liq ajratish uchun 38600 sekund davomida 4 A tok kuchi sarflandi. Agarda Y molyar massasi X ga nisbatan 32 g ga ko'proq bo'lganda, ikki valentli metallni aniqlang.
A) Mg B) Zn C) Cd D) Ca

127. (v17-110-6) 119 g 14,25% kompleks tuz $HAuCl_4$ eritmasi holida qaytarilishi uchun dispers faza chin eritmadan suv qaytaruvchisi bilan qaytarilganda hosil bo'lgan qattiq modda va gaz moddaning massasi va hajmini toping.
A) 9,83 g; 1,68 l B) 9,83 g; 5,6 l
C) 4,93 g; 1,68 l D) 4,9356 l

128. (v17-110-33) 25 g simob sulfatga kalsiy oksidi qo'shilganda qancha simob olish mumkin?
A) 22,55 B) 21,55 C) 23,55 D) 24,55

129. (v17-113-18) 226 g $MgCO_3$ va $CaCO_3$ dan iborat aralashma qizdirilganda Mg li tuzning massasi 2,5 marotaba Ca li tuzning massasi 1,25 marta kamaydi va 177,6 g aralashma hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashma tartibidagi reaksiyaga kirishmay qolgan tuzlarning massa ulushlarini aniqlang.
A) 52,8; 47 B) 28,4; 45
C) 47; 53 D) 62; 38

130. (v17-113-30) Bariy (II) xlorid eritmasiga natriy sulfat eritmasi quyilganda hosil bo'lgan, cho'kmagacha qisqa onli reaksiyasida ishtirok etgan ionlar soni 45 ta edi. Unda ionga ajralmagan molekulalar soni nechta?
A) 4,5 ta B) 3,5 ta
C) 4,0 ta D) 1 ta

131. (v17-113-36) 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralsahma tarkibdagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'sa, litiyning massasini (g) hisoblang.
A) 2,8 B) 2,1
C) 1,4 D) 0,7

132. (v17-114-5) LiOH ning 0,8 M 500 ml eritmasiga 8,55 g ishqor qo'shilganda pH = 14 bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Ishqorni toping (a = 100%; hajm o'zgarishi hisobga olinmasin).
A) $Ba(OH)_2$ B) $Ca(OH)_2$
C) LiOH D) KOH

133. (v17-114-6) Bir valentli metall sulfati 80 ml eritmasiga (ρ = 1,25 g/ml) kislorodning massa ulushi 72% ga teng. Bunday eritmada tuzning molekula va ionlar soni $6{,}02 \cdot 10^{23}$ ekanligi ma'lum bo'ldi (α = 50%). Noma'lum metall massa ulushini aniqlang.
A) 7 B) 23 C) 39 D) 28

134. (v17-114-8) 40,4 g ikki valentli metall nitrati kristallgidratini qizdirishda 29,6 g massali suvsiz turi olinganda kristallogidratning formulasini aniqlang. Qizdirish davom etganda metall oksidi massasi 8 g li qattiq qoldiq hosil bo'ldi?
A) $Ca(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$
B) $Cu(NO_3)_2 \cdot 4H_2O$
C) $Mn(NO_3)_2 \cdot 4H_2O$
D) $Mg(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$

135. (v17-114-18) Al va $FeO \cdot Fe_2O_3$ ning o'zaro reaksiyasidan so'ng moddalar aralashmasini teng miqdorda 2 qismga ajratildi. 1 qismga ishqor eritmasi tas'ir etilganda 47,04 l gaz ajraldi. 2 qismning yarmiga esa mo'l miqdorda HCl ta'sir ettirilganda 43,68 l gaz ajraldi. Dastlabki (Al va Fe_2O_3 FeO) aralashmasidagi Al ning massasini aniqlang.
A) 162 B) 167 C) 152 D) 182

136. (v17-116-9) $KOH + H_3PO_4 \rightarrow \rightarrow K_2HPO_4 + H_2O$ reaksiyada olingan mahsulotlar massasi yig'indisi va sarflangan ishqor massasi farqi 58,8 g bo'lsa, nordon tuz massasini (g) aniqlang.
A) 156,6 B) 130,5 C) 78,3 D) 104,4

137. (v17-118-31) Miqdorlari 2:1 nisbatida olingan oddiy modda va uning birikmasining aralashmasidan 2,2 g miqdorini kislotada eritilganda 4,48 l rangsiz va yengil gaz hosil bo'lgan. Bu moddalar nima bo'lishi mumkin?
A) Li, LiH B) Na, NaH
C) Be, BeH_2 D) Ca, CaH_2

138. (v17-119-5) 100 g suvda 20°C ga 74,5 g kalsiy xlorid eridi. Har bir molekula kalsiy xloridga olti molekula suv to'g'ri kelladigan kristallogidratning eruvchanligi 0°C da har 100 g suvda 37,3 g ni tashkil etadi. 20°C da kalsiy xloridga nisbatan to'yingan eritmaning 250 g miqdorini 0°C gacha sovutilganda ajralib tushadigan kristallogidratning massasini aniqlang.
A) 190,7 B) 265,2
C) 0,577 D) 195,7

139. (v17-119-9) 10,96 g Ca_3N_2 va CaH_2 iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi, 2-qismiga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir erirlganda necha litr (n. sh.) gaz ajraladi?
A) 2,688 B) 3,136
C) 5,376 D) 1,688

140. (v17-119-29) Vanadiy oksidini kalsiy metalli bilan qaytarib, vanadiy olinadi. V_2O_5 ning massasi ulushi 85% ga teng bo'lgan 400 g massadagi konsentratni qaytarish natijasida qancha massa metall olish mumkin? Agar texnik kalsiy tartibida kalsiy oksid qo'shimchasi bo'lsa, CaO ning massa ulushi 5% ni tashkil etsa, qaytarish uchun sarf bo'lgan texnik kalsiyning massasini aniqlang.
A) 693 B) 593
C) 493 D) 393,7

141. (v17-120-23) 60 g platina zar suvida eritilganda necha ml gaz ajraladi?
A) 10 l B) 12 l
C) 9,19 l D) 8,18 l

142. (v17-121-9) Na_2O ning suv bilan reaksiyasi natijasida NaOH hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan ishqorning massasi oksid massasidan 1,55 marta kichik bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 80 B) 45 C) 75 D) 50

143. (v17-122-6) 24,1 g noma'lum metall qo'sh oksidi H_2 yordamida qaytarilganda 7,2 g suv hosil bo'ldi, metallni toping.
A) Pb B) Fe C) Co D) Cr

144. (v17-123-24) 80 ml bir valentli metall sulfati eritmasining (ρ = 1,25 g/ml) kislorodning massa ulushi 72% ga teng. Bunday eritmada tuz $6{,}02 \cdot 10^{23}$ molekulalari va ionlar birligi aniqlandi (α = 50%). Noma'lum metallni toping.
A) Li B) Na C) K D) Ag

145. (v17-124-9) Ikkita bir valentli metall gidroksidlarining ekvimollyar aralash massasi 47,5 g miqdordagi eritmasi orqali uglerod (IV) oksid o'tkazilganda 54,0 g karbonatlar aralashmasi olingan. Karbonatlarni 610°C gacha qizdirilganda aralashmadagi atom massasi og'irroq bo'lgan metallning karbonati batamom parchalaganligi ma'lum bo'lgan. Shu metallning qizil rangli oksidi hosil bo'lganligi sababli aralashma qizil tusga kirgan. Reaksiyada hosil bo'lgan karbonat va oksidlar aralashmasining atom massalari nisbati 5,78 bo'lsa, qaysi metallar ustida so'z borganligini aniqlang.
A) H; Li B) Na; K
C) Be; Mg D) Na; Cs

146. (v17-124-22) 72,8 g II A guruhga kiruvchi noma'lum metall va uning karbonat aralashmasiga HCl qo'shildi. Bunda 8,96 l (n. sh. da) gazlar olinadi va aralasma yondirildi. Suv bug'larga kondensatlanadi. Bunda hajm 6,72 l gacha (n. sh. da) kamaydi. Metallni toping.
A) Ag B) Ca C) Ba D) Be

147. (v17-124-24) Kalsiy va alyuminiy qotishmasi ikkiga bo'linib, teng massadagi birinchi qismiga inert atmosferada grafit bilan ishlov berildi. Hosil bo'lgan moddalar suv bilan tozalandi, shu jarayonda 11,2 l (n. sh. da) gaz ajraldi. Ikkinchi qism aralashmasini suvli muhitda ishqor bilan reaksiyasida 17,92 l (n. sh. da) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma massasini toping.
A) 40 g B) 37,6 g C) 15 g D) 36,7 g

148. (v17-125-27) 4,8 g titan suv bilan 600–800°C da reaksiya natijasida qancha hajm gaz olish mumkin?
A) 4,49 B) 4,50 C) 4,51 D) 4,48

149. (v17-126-29) 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibdagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning massasini (g) aniqlang.
A) 16,8 B) 22,4 C) 28 D) 11,2

150. (v17-127-1) 1 mol metallgidroksid qizdirilganda 9 g hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan mettal oksidining molyar massasi parchalangan metall gidroksidning molyar massasida 63 g/mol ga ko'pligi ma'lum bo'lsa, reaksiyadan hosil bo'lgan metall oksid massasini (g) toping.
A) 56 B) 72 C) 102 D) 54

151. (v17-127-20) Litiy va kaliy gidridlari aralashmasi suv bilan aralashtirildi, shunda 0,24 kg 8,32% ishqor eritmasi hosil bo'ldi. Olingan eritma massasi dastlabki eritma massasidan 1,2 g ga kam. LiOH va KOH mol nisbatlarini aniqlang.
A) 2:1 B) 1:2 C) 1:3 D) 3:1

152. (v17-127-36) 50 g miqdordagi noma'lum tuzning 14,24% li eritmasi ikki teng qismga bo'lingan eritmaning bir qismi mol miqdordagi ishqor eritmasi bilan ishlangan. Ajratib olingan va quritilgan cho'kmaning massasi 2,60 g bo'lgan. Eritmaning ikkinchi qismiga mol miqdorda bariy xlorid eritmasi qo'shilganda 2,80 g xlorid kislotaga eritmaydigan cho'kma hosil bo'lgan. Boshlang'ich eritmada qanday tuz borligini aniqlang.
A) BaO_2 B) HgO C) PbO_2 D) $Al(OH)_3$

153. (v17-128-21) KOH ning qaynoq eritmasi orqali xlor gazi o'tazilganda hosil bo'lgan eritma bug'latildi va katalizator ishtirokida qizdirish davom ettirildi. Hosil bo'lgan aralashma tarkbida 0,35 mol $KClO_4$ va 2,65 mol KCl bo'lsa, necha litr (n. sh.) xlor gazi o'tkazilgan?
A) 67,2 B) 33,6
C) 44,8 D) 11,2

154. (v17-128-24) Alyuminiy va temir (II) nitratlari aralashmalarini qizdirishda D_{He} = 11 teng bo'lgan gaz aralashmalari hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmada alyuminiy massa ulushini (%) aniqlang.
A) 28,28 B) 30,67
C) 69,33 D) 83,33

III bob. Metallmaslar

69. Vodorod

1. (96-3-43) Og'ir suv oddiy suvdan nima bilan farq qiladi?
A) qo'shimchalar miqdorining ko'pligi
B) kislorodning izotop tarkibi
C) vodorodning izotop tarkibi
D) molekulasida protonlar soni har xil bo'lishi
E) molekulasida elektronlar soni har xil bo'lishi

2. (96-15-10) Vodorod elementining nechta izotopi mavjud?
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4 E) 1

3. (97-2-53) Vodorodning oksidlanish darajasi bo'lgan birikmani ko'rsating?
A) NaOH B) NaH C) PH_3
D) H_2O E) HF

4. (97-8-22) 14 l vodorod va uglerod (II) oksid aralashmasini yondirish uchun qancha hajm (l) kislorod reaksiyaga kirishadi?
A) 7 B) 9 C) 14 D) 21 E) 28

5. (97-10-77) Vodorod olish mumkin bo'lgan reaksiyani ko'rsating.
A) $Cu + H_3SO_4 \rightarrow$ B) $Na + H_2O \rightarrow$
C) $Ag + H_2O \rightarrow$ D) $Cu + HNO_3 \rightarrow$
E) $Cu + H_2O \rightarrow$

6. (97-10-116) Quyidagi metallarning nechtasi xlorid kislotadan vodorodni siqib chiqaradi? Al, Cu, Mg, Ca, Na, Zn, Ag, H
A) 1 B) 2 C) 3 D) 5 E) 8

7. (97-11-143) Xlorid kislotadan 1 mol vodorod olish uchun quyidagi metallarning qaysi biridan kamroq sarflanadi?
A) natriy B) kaliy C) magniy
D) rux E) alyuminiy

8. (99-10-26) Quyidagi qaysi metallar odatdagi sharoitda suv bilan reaksiyaga kirishganda, vodorod hosil bo'ladi?
1) rux; 2) magniy; 3) alyuminiy; 4) temir; 5) natriy; 6) mis; 7) kalsiy.
A) 5 va 7 B) 1 va 5 C) 3, 5 va 7
D) 2 va 4 E) 3 va 5

9. (00-3-15) Quyidagilarning qaysi biri qaldiroq gaz deb ataladi?
A) havo tarkibidagi azot
B) bertole tuzi parchalanganda hosil bo'ladigan gaz
C) ikki hajm vodorod bilan bir hajm kisloroddan iborat aralashma
D) ko'mir yonganda. Atmosferaga chiqayotgan gaz
E) havo tarkibidagi nodir gazlar

10. (01-3-99) Vodorod bilan reaksiyada qatnashadigan organik moddalar sinfini ko'rsating:
1) alkanlar; 2) alkenlar; 3) alkinlar; 4) yog'lar; 5) aminlar; 6) uglevodlar.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 4, 5
D) 2, 3, 6 E) 2, 4, 6

11. (01-4-56) Reaksiya natijasida vodorod ajralib chiqadigan jarayonlarni ko'rsating:
1) $Na + H_2O \rightarrow$; 2) $NaH + H_2O \rightarrow$;
3) $Na + NH_3 \rightarrow$; 4) $Na + HCl \rightarrow$;
5) $Na_2O + H_2O \rightarrow$
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 5
C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5
E) 1, 2, 3, 5

12. (02-1-39) Quyidagi moddalarning qaysilari orasidagi reaksiya natijasida tajribada vodorod hosil qilinadi?
1) suyultirilgan sulfat kislota; 2) mis; 3) temir; 4) natriy ishqori; 5) suyultirilgan nitrat kislota; 6) konsentrlangan sulfat kislota; 7) ammiak; 8) alyuminiy; 9) kremniy; 10) natriy metali.
A) 1 + 3, 8; 4 + 2, 3 B) 1 + 3, 8; 4 + 8, 9
C) 5 + 2, 3; 6 + 2, 10 D) 5 + 8, 9; 6 + 2, 3
E) 4 + 7, 8; 6 + 3, 10

13. (02-5-23) Qaysi reaksiya natijasida vodorod gazi ajralib chiqmaydi?
1) $Zn + HCl \rightarrow$; 2) $Zn + H_2O \rightarrow$;
3) $Li + H_2O \rightarrow$; 4) $Zn + H_2SO_4$ (suyul.) $\rightarrow$;
5) $Zn + HNO_3 \rightarrow$
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4
D) 2, 4 E) 2, 5

14. (02-11-57) Vodorod muhitida bir hajm palladiy (ρ = 12,02 g/sm^3) 900 hajm (n. sh.) vodorodni yutadi. 1 mol palladiy qancha miqdor vodorodni yutishini hisoblang.
A) 0,39 B) 0,54 C) 0,35
D) 0,26 E) 0,47

15. (03-8-53) Qaysi gazni olish uchun ishqor va alyuminiydan foydalansa bo'ladi?
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

16. (04-1-100) Hajmlari 1,5 l brom bug'lari va 2 litr vodorod orasidagi reaksiyada brom bug'larining hajmi 20% ga kamaygandan so'ng hosil bo'lgan aralashma tarkibini hisoblang. Jarayon germetik yopiq idishda olib berilgan deb hisoblang.
A) 28,6; 45,8; 25,6 B) 34,3; 48,6; 17,0
C) 27,7; 38,6; 33,7 D) 19,7; 46,6; 33,7
E) 22,4; 33,6; 41,8

17. (04-1-598) Qizdirilgan mis (II) oksid ustidan qaysi gazdan qancha (ml; n. sh.) o'tkazilsa, 6,4 g qizg'ish rangli metall paydo bo'ladi?
A) vodorod; 2,24 B) xlor; 1,12
C) azot; 2,24 D) kislorod; 5,6
E) vodorod; 22,4

18. (v5-113-10) Vodorod ajralib chiqmaydigan reaksiyalar – ...
1) natriy + suv; 2) kalsiy gidrid + suv;
3) kalsiy gidroksid + suv; 4) alyuminiy (oksid pardasi olingan) + suv; 5) kaliy gidrid + suv;
6) alyuminiy oksid + suv; 7) litiy + suv.
A) 4, 7 B) 2, 5, 6, 7
C) 1, 5, 7 D) 1, 3, 4, 5, 7
E) 3, 6

19. (v5-122-10) Qaysi reaksiyalar yordamida vodorod gazini olish mumkin?
1) $Mg + HNO_3 \rightarrow$; 2) $Mg + HCl \rightarrow$;
3) $CH_4 + H_2O \xrightarrow{t=1000\ ^\circ C} $;
4) $Na_2O_2 + H_2O \rightarrow$;
5) $NaH + H_2O \rightarrow$; 6) $CaC_2 + H_2O \rightarrow$
A) 2, 3, 6 B) 1, 5, 6 C) 2, 3, 5
D) 2, 4, 5 E) 1, 2, 5

20. (v6-112-19) 38 ml vodorod bilan kislorod aralashmasi portlatilgandan so'ng 4,4 ml kislorod ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi kislorodning hajmini (ml, n. sh.) aniqlang.
A) 18 B) 15,6
C) 18,8 D) 16,8

21. (v6-114-10) Quyida berilgan metallardan 100 g dan olib suvga tashlansa, qaysi biri suvdan ko'proq miqdorda (mol) vodorodni siqib chiqaradi?
A) kaliy B) natriy
C) litiy D) alyuminiy

22. (v6-116-19) 150 ml (n. sh.) kislorod va vodorod aralashmasi portlatilgandan so'ng 60 ml (n. sh.) kislorod ortib qolgan bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi vodorodning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 40 B) 60 C) 35 D) 20

70. Havoning tarkibi. Yonish

1. (96-13-41) Havo tarkibidagi kislorodning massa ulushi qanday qiymatga ega?
A) 0,23 B) 0,24 C) 0,22
D) 0,21 E) 0,20

2. (97-7-61) Havoning qanday hajmida (l) 15 mol kislorod bo'ladi?
A) 100 B) 1200
C) 700 D) 950
E) 1600

3. (97-11-21) 4 mol benzol to'liq yonishi uchun necha litr havo sarf bo'ladi?
A) 760 B) 780 C) 800
D) 820 E) 840

4. (99-6-32) Hovrning qanday hajmida 10^{10} dona azot molekulalari bo'lishi mumkin? ($\varphi(N_2)$ = 0,78)
A) $4{,}8 \cdot 10^{-12}$ B) $3{,}7 \cdot 10^{-13}$
C) $1{,}7 \cdot 10^{-13}$ D) $2{,}1 \cdot 10^{-15}$
E) $4{,}8 \cdot 10^{-13}$

5. (99-7-41) Tarkibida 10 g kislorod bo'lgan havo (n. sh.) hajmi necha litr bo'ladi? (kislorodning massa ulushi 0,23)
A) 5,6 B) 7 C) 11,2
D) 22,4 E) 33,6

6. (99-10-8) Havodan yengil gazlar qatorini aniqlang.
A) vodorod, azot, etilen, ftor
B) vodorod, etilen, ammiak, etan
C) vodorod, is gazi, ammiak, atsetilen
D) azot, is gazi, vodorod, azot (II) oksid
E) vodorod, uglerod (IV) oksid, is gazi, ammiak

7. (01-4-92) Havodan ikki marta og'ir uglevodorodining formulasini aniqlang.
A) C_5H_{12} B) C_4H_{10} C) C_5H_{10}
D) C_4H_8 E) C_3H_8

8. (01-11-31) Vodorod sulfidning havodagi hajmiy ulushi 0,001% bo'lganda, hidi yaxshi seziladi. Shu havodagi vodorod sulfidning massa ulushini (%) toping.
A) $1{,}5 \cdot 10^{-3}$ B) $1{,}2 \cdot 10^{-4}$ C) 0,12
D) 0,012 E) 0,0012

9. (01-12-3) Havodagi uglerod (IV) oksidning hajmiy miqdori 0,03% ga teng bo'lsa, 1 l havodagi uglerod (IV) oksidning molekulalari sonini aniqlang.
A) $4{,}5 \cdot 10^{21}$ B) $4{,}0 \cdot 10^{18}$ C) $6{,}0 \cdot 10^{17}$
D) $1{,}5 \cdot 10^{18}$ E) $8{,}0 \cdot 10^{18}$

10. (02-1-9) Havodagi azotning 20% vodorod bilan reaksiyaga kirishsa, 2 m^3 ammiak olish uchun zarur bo'lgan azot (n. sh.) qancha hajm (m^3) havoda bo'ladi?
A) 1,6 B) 3,2 C) 9,6 D) 6,4 E) 5,0

11. (02-3-14) Vodorodga nisbatan zichligi 6,2 bo'lgan is gazi bilan vodorod aralashmasining 12 l miqdorini yondirish uchun necha litr havo [$\varphi(O_2)$ = 0,2] talab etiladi?
A) 30 B) 12 C) 20 D) 14 E) 16

12. (02-11-43) Havo va kislorod aralashmasidagi kislorodning hajmiy ulushi 80% bo'lishi uchun havo va kislorodni qanday hajmiy nisbatda aralashtirish kerak?
A) 1,17:1 B) 1,14:1 C) 1,12:1
D) 1,21:1 E) 1:1,21

13. (03-6-53) 31 g fosforni yondirish uchun qancha hajm (n. sh. da) havo sarflanadi?
A) 222,61 B) 420,21
C) 133,31 D) 144,61
E) 266,21

14. (03-8-52) Havodan 1,5 marta og'ir bo'lgan 0,5 mol gazda $9\ 10^{23}$ dona molekula bo'lsa, bu gaz qanday ataladi?
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

15. (03-9-14) Havoda qanday gaz bo'lganda, kumush oksidlanishi mumkin?
A) SO_2 B) NO_2 C) H_2S
D) CO_2 E) CO

16. (04-1-720) Havodan 1,52 marta og'ir bo'lgan 0,5 mol gazda $3{,}31\ 10^{24}$ dona atom bo'lsa, bu gaz qanday ataladi?
A) vodorod B) xlor
C) azot D) propan
E) karbonat angidrid

17. (v4-103-1) Havodan og'ir gazlar aralashmasini toping.
1) havo va kislorod; 2) nam havo; 3) havo va azot (I) oksid; 4) havo va uglerod (IV) oksid; 5) uglerod (II) oksid va azot.
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4
D) 3, 4, 5 E) 1, 3, 4

18. (v4-105-18) Havodagi uglerod (IV) oksidning hajmiy miqdori 0,03% ga teng bo'lsa, 0,5 l havodagi uglerod (IV) oksidning molekulalari sonini aniqlang.
A) $5{,}0\cdot10^{18}$ B) $8{,}0\cdot10^{18}$
C) $4{,}5\cdot10^{21}$ D) $4{,}6\cdot10^{18}$
E) $4{,}0\cdot10^{18}$

19. (v4-115-28) Havodagi azotning 20% miqdori vodorod bilan reaksiyaga kirishsa, 4,5 m^3 ammiak olish uchun zarur bo'lgan azot (n. sh.) qancha hajm (m^3) havoda bo'ladi? [$\varphi(N_2) = 0{,}78$]
A) 1,44 B) 5,0 C) 14,4
D) 6,4 E) 8,9

20. (v5-102-1) 1774-yili fransuz olimi ... havo asosan ikkita gaz – azot va kislorodning aralashmasidan iboratligini isbotladi.
A) A. Lavuazye B) G. Kavendish
C) M. V. Lomonosov D) J. Pristli
E) J. Dalton

21. (v5-102-29) Havo tarkibida massa jihatdan 75,5% azot bo'ladi. Mahsulot unumi 90% bo'lganda, 1 m^3 (n. sh.) azot ajratib olish uchun qancha (kg) havo kerak?
A) 2,07 B) 6,9 C) 1,25
D) 1,56 E) 1,43

22. (v5-110-10) Havo tarkibida massa jihatdan 23% O_2 bo'ladi. Mahsulot unumi 85% bo'lganda, 1 m^3 (n. sh.) kislorod ajratib olish uchun qancha (kg) havo kerak?
A) 1,43 B) 1,25 C) 1,84
D) 18,4 E) 6,9

23. (v5-112-18) 27°C da tarkibida 20% H_2, 40% CH_4, 30% CO va 10% N_2 bo'lgan 220 l gazlar aralashmasini to'liq yondirish uchun necha litr (n. sh.) havo kerak bo'ladi ($\varphi_{O_2} = 0{,}20$)?
A) 210 B) 1200 C) 1051
D) 1020 E) 1155

24. (v5-115-29) Hajm jihatdan 12% vodorod, 28% metan, 38% azot va 22% karbonat angidrid bo'lgan aralashmaning 0,6 m^3 ini yondirish uchun ... (m^3) havo kerak. ($\varphi_{O_2} = 0{,}21$)
A) 1,77 B) 3,16 C) 2,4
D) 2,37 E) 1,1

25. (v6-113-19) 420 mg azot olish uchun necha litr (0°C, 101,3 kPa) havo kerak bo'ladi? Havodagi azotning hajmiy ulushi 78%.
A) 0,96 B) 0,38 C) 0,54 D) 0,43

26. (v6-115-19) 25 mg argon olish uchun necha litr (0°C, 101,3 kPa) havo kerak bo'ladi? Havodagi argonning hajmiy ulushi 0,93%.
A) 2,7 B) 1,5 C) 3,4 D) 1,0

27. (v6-121-19) Is gazi va vodoroddan iborat 16,8 l (n. sh.) gazlar aralashmasini yondirish uchun zarur bo'ladigan havo hajmini (l, n. sh.) hisoblang. [$\varphi(O_2) = 0{,}20$]
A) 16,8 B) 42 C) 54 D) 22,4

28. (v7-108-18) Havo va azot aralashmasidagi azotning hajmiy ulushi 85% bo'lishi uchun havo va azotni qanday hajmiy nisbatda olish kerak? [$\varphi(N_2) = 0{,}75$]
A) 1,5:1 B) 2:1 C) 2,5:1 D) 1:1

29. (v7-116-18) Havo va kislorod aralashmasidagi kislorodning hajmiy ulushi 80% bo'lishi uchun havo va kislorodni qanday hajmiy nisbatda olish kerak? [$\varphi(O_2) = 0{,}2$]
A) 1:4 B) 1:2 C) 1:3 D) 1:1

30. (v7-121-28) Havo tarkibida massa jihatdan 78% azot bo'lsa, 1 m^3 (n. sh.) azot ajratib olish uchun qancha (kg) havo kerak bo'ladi?
A) 1,43 B) 1,6 C) 1,78 D) 2,07

31. (v9-122-36) Yopiq idishda 2 mol is gazi 10 mol havoda yondirilishidan hosil bo'lgan aralashma tarkibidagi moddalarni va ularning miqdorini (mol) aniqlang ($\varphi(O_2) = 0{,}2$; $\varphi(N_2) = 0{,}8$).
A) CO_2, 2; O_2, 1; N_2, 8
B) CO_2, 2; O_2, 1; CO, 1
C) CO_2, 1; O_2, 2; N_2, 8
D) CO_2, 1; O_2, 1; CO, 2

32. (v13-155-4) Hajmiy tarkibi 79,1% azot va 20,9% kisloroddan tashkil topgan 1 l havoning massasini (g) toping. Shuncha massadagi havodan foydalanib qancha massadagi (85%
C) ko'mirni yoqish mumkin.
A) 13 va 1,32
B) 3,1 va 0,132
C) 1,3 va 1,032
D) 1,3 va 0,132

71. IV guruh metallmaslari

71.1. Uglerod. Uglerodning birikmalari

1. (96-4-29) SiF_4 bilan HF birikib $H_2[SiF_6]$ hosil qiladi. CF_4 shunday birikma hosil qilmaydi. Buning sababi nimada?
A) uglerod atomida akseptorlik vazifasini bajaradigan bo'sh elektron orbital yo'q
B) uglerod atomining elektro-manfiyligi kremniynikidan katta
C) uglerod atomining radiusi kichik bo'lishi
D) C–F bog'i qutbliligi Si–F nikidan kichik bo'lishi sababli
E) uglerodning ionlanish potensiali kremniynikidan katta bo'lishi tufayli

2. (96-13-67) Uglerod quyidagi konsentrlangan kislotalarning qaysi biri bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) HCl; 2) HNO_3; 3) H_3PO_4; 4) H_2SO_4.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 3
D) 1, 4 E) 2, 4

3. (96-15-84) Karborund tarkibiga uglerod bilan yana qanday kimyoviy element kiradi?
A) Al B) Si C) O D) Ca E) F

4. (96-15-119) "Quruq muz" (qattiq uglerod (IV) oksid) qanday kristall panjaraga ega?
A) atomli B) ionli
C) molekulyar D) metall
E) ham atomli, ham ionli

5. (97-3-35) Karbonat kislotasiga qaysi ta'riflar to'g'ri keladi?
1) uglerod atomi kislorod atomlari Hosil qilgan uchburchak ichida joylashgan; 2) uglerod atomi tetraedr markazida joylashgan; 3) karbonat kislota-kuchsiz elektrolit; 4) karbonat ionlarini tutgan suv qattiq suv deyiladi; 5) natriy gidrokarbonatining eruvchanligi karbonatining eruvchanligidan yomon.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 5
D) 2, 3, 5 E) 3, 4, 5

6. (97-7-66) Tenglamasi $C + H_2O \rightarrow$ $\rightarrow CO + H_2 - Q$ bo'lgan reaksiyadan qaysi modda olish uchun foydalaniladi?
A) uglerod (II) oksid B) sintez-gaz
C) suv gazi D) vodorod
E) generator gazi

7. (97-8-53) Qaysi metallmasning suv bilan reaksiyasi natijasida vodorod hosil bo'lishi mumkin?
A) xlor B) uglerod
C) fosfor D) oltingugurt E) azot

8. (97-11-91) 46 g dolomit karbonat angidrid batamom chiqib ketguncha qizdirilganda, massaning qanchasi yo'qoladi? [$A_r(Ca) = 40$, $A_r(Mg) = 24$, $A_r(C) = 12$].
A) 22,0 B) 20,0 C) 24,0
D) 20,5 E) 22,5

9. (97-11-137) 42 g natriy gidrokarbonat qizdirilganda, qancha (l) uglerod (IV) oksid hosil bo'ladi?
[$A_r(Na) = 23$, $A_r(C) = 12$, $A_r(O) = 16$]
A) 6,0 B) 5,6 C) 5,0
D) 5,2 E) 5,4

10. (97-11-184) Uglerod elementi quyidagi qaysi moddalar tarkibiga kirgan?
1) karbid; 2) ohaktosh; 3) osh tuzi; 4) Chili selitrasi; 5) bertole tuzi; 6) ichimlik soda.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 5
D) 1, 2, 6 E) 3, 4, 6

11. (98-4-11) Massa ulushi 10,1% bo'lgan kaliy nitrat eritmasining 200 g miqdori quruq tuz holigacha bug'latildi va qattiq qizdirildi. Qoldiqning massasini aniqlang.
[$A_r(K) = 39$, $A_r(N) = 14$]
A) 17,0 B) 20,2 C) 10,1
D) 8,5 E) 12,7

12. (98-11-34) Grafitning elektr o'tkazuvchanligi sababi qaysi qatorda to'g'ri talqin etilgan?
A) uglerodning 2s-orbital elektronlarining tok, holatga o'tishi sababli
B) uglerodning to'rtta toq elektronlari hisobiga
C) atom orbitallarning cho'ziq bo'lishi hisobiga
D) atom kristall panjaraga ega bo'lishi tufayli
E) delokallashgan π-bog'lar elektronlari hisobiga

13. (99-1-54) Grafit qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) $HNO_{3(kons)}$; 2) $H_2SO_{4(kons)}$;
3) HCl; 4) $K_2Cr_2O_7$; 5) KOH.
A) 1, 2 va 3 B) 1, 2 va 5
C) 1, 4 va 5 D) 1, 3 va 5 E) 1, 2 va 4

14. (99-3-24) 36 g grafit suv bug'i bilan reaksiyaga kirishishidan qanday gazlar qanday hajmda (l) hosil bo'ladi (n. sh).
A) 67,2 CO_2; 167,4 H_2 B) 67,2 CO; 67,2 H_2
C) 22,4 CO; 22,4 CO_2 D) 44,8 CO; 67,2 H_2
E) 44,8 CO_2; 67,2 H_2

15. (99-4-25) Gazlardan qaysi biri yaxna ichimliklar (limonad, koka-kola va boshqalar) tayyorlashda qo'llaniladi?
A) ammiak
B) uglerod (IV) oksid
C) oltingugurt (IV) oksid
D) azot
E) metan

16. (99-7-52) Massasi 100,8 g bo'lgan ammoniy dixromat kuydirilganda hosil bo'lgan gazsimon modda hajmini (n. sh.) aniqlang.
A) 5,6 B) 8,96 C) 11,2
D) 22,4 E) 44,8

17. (01-1-38) Quyidagi gaz holidagi vodorodli birikmalarning turg'unligi keltirilgan qatorda qanday o'zgaradi?
CH_4–SiH_4–GeH_4–SnH_4–PbH_4
A) ortib boradi
B) kamayib boradi
C) o'zgarmaydi
D) metallmaslarnikida ortib boradi, metallarnikida kamayib boradi
E) metallmaslarnikida kamayadi, metallarnikida ortib boradi

18. (01-12-19) Uglerodning qaysi izotopi uning tabiiy birikmalari bo'lgan arxeologik qazilmalarning yoshini aniqlashda ishlatiladi?
A) ^{14}C B) ^{13}C C) ^{10}C
D) ^{12}C E) ^{16}C

19. (02-1-34) Laboratoriyada uglerod (IV) oksidni olish uchun qaysi moddalardan foydalaniladi?
1) bo'r; 2) metanni yondirish; 3) kalsiy karbonatni termik parchalash; 4) marmar bo'lakchalari; 5) etil spirtini yoqish mahsulotlari; 6) xlorid kislotaning o'rtacha konsentratsiyali eritmasi.
A) 1 va 6 B) 2 C) 3
D) 4 va 6 E) 5

20. (02-2-4) Hajmi 1,8 l bo'lgan is gazi bilan konsentrlangan natriy gidroksid (40% li) eritmasi orasidagi reaksiya unumi 65% bo'lgan. Quyidagi javoblar orasidan hosil bo'lgan modda va uning miqdorini toping.
A) Na_2CO_3; 0,69 B) $NaHCO_2$; 0,1
C) HCOONa; 0,1 D) $NaHCO_3$; 0,05
E) $NaHCO_3$; 0,55

21. (02-3-13) Uglerod (II) oksid bilan vodorod aralashmasining 10 l miqdorini yondirish uchun talab etiladigan kislorod hajmini hisoblang.
A) 16 B) 8 C) 6 D) 5 E) 7

22. (02-4-6) Hajmi 1000 m^3 suv gazini olish uchun tarkibida 0,95 massa ulush uglerod tutgan ko'mir massasini (kg) toping.
A) 290 B) 282 C) 262
D) 580 E) 524

23. (03-8-42) "Koka-kola" va mineral suv ichimliklaridan ajralib chiqib turadigan gazning nomini toping.
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

24. (04-1-101) Hajmi 2000 m^3 bo'lgan suv gazini olish uchun massa ulushi 0,95 bo'lgan ko'mirning massasini (kg) hisoblang. Reaksiya davomida isrofgarchilik 3% bo'lgan deb hisoblang.
A) 290 B) 273 C) 262 D) 581 E) 169

25. (04-1-629) Uglerodni konsentrlangan sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 6,72 l ikkita gaz aralashmasi hosil bo'lgan. Reaksiya natijasida qanday gazlar va qanday miqdorda (mol) hosil bo'lgan?
A) CO_2 – 4,4; SO_3 – 12,8
B) CO_2 – 0,1; SO_2 – 6,4
C) CO_2 – 2,2; SO_2 – 6,4
D) CO_2 – 2,2; SO_3 – 6,4
E) CO_2 – 0,1; SO_2 – 0,2

26. (04-1-703) Suv bug'i bilan 36 g grafit reaksiyaga kirishishidan qanday gazlar, qanday hajmda (n. sh.) (l) hosil bo'ladi?
A) 67,2 CO_2; 167,4 H_3 B) 67,2 CO; 67,2 H_2
C) 22,4 CO; 22,4 CO_2 D) 44,8 CO; 44,8 H_2
E) 44,8 CO_2; 67,2 H_2

27. (04-1-724) Qaysi reaksiya natijasida karbid hosil bo'ladi?
A) $C + Ca \xrightarrow{t}$ B) $C + H_2 \xrightarrow{t}$
C) $C + H_2O \xrightarrow{t}$ D) $C + ZnO \xrightarrow{t}$
E) $C + O_2 \xrightarrow{t}$

28. (v4-108-13) Uglerodning qaysi birikmalari organik moddalar hisoblanadi?
A) etanol, formaldegid, sirka kislota, yog', shakar
B) alyuminiy karbid, fenol, geksaxlorbenzol, nitroglitserin, karborund
C) uglerod (II) oksid, atsetilen, potash, benzol, fenol
D) soda, sirka kislota, kalsiy karbid, karbonat angidrid, uglerod (II) oksid
E) karbonat angidrid, natriy gidrokarbonat, kalsiy karbonat, uglerod (II) oksid, karbonat kislota

29. (v5-123-24) Natriy gidroksidi eritmasi orqali 1 mol karbonat angidrid gazi o'tkazilganda 97,2 g nordon va o'rta tuzlardan iborat aralashma hosil bo'ldi. Aralashmadagi nordon tuzning massasi … g bo'ladi.
A) 91,2 B) 57,4 C) 33,6
D) 48,7 E) 63,6

30. (v6-105-12) 8,4 g kalsiy oksid 1,2 g uglerod bilan reaksiyaga kirishganda qancha (l, n. sh.) gaz ajraladi? Reaksiyaga unumi 75%.
A) 2,52 B) 3,36 C) 16,8 D) 4,37

31. (v6-112-12) Uglerod qaysi kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) 36% li vodorod xlorid; 2) 100% li nitrat kislota; 3) konsentrlangan fosfat kislota; 4) 98% li sulfat kislota; 5) 3% li xlorid kislota.
A) 4, 5 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 5

32. (v8-107-2) Quyidagi iboralardan qaysilari to'g'ri?
1) ishqoriy metallar karbonatlariga qaraganda ularning gidrokarbonatlari suvda kamroq eriydi; 2) ishqoriy-er metallar karbonatlari suvda deyarli erimaydi, gidrokarbonatlari yaxshi eriydi; 3) ishqoriy metallar gidrokarbonatlariga qaraganda ularning karbonatlari suvda kamroq eriydi; 4) ishqoriy-er metallari gidrokarbonatlari suvda deyarli erimaydi, karbonatlari yaxshi eriydi.
A) 2, 4 B) 3, 3 C) 3, 4 D) 1, 2

33. (v9-109-24) 8,96 l (n. sh.) karbonat angidrid va tarkibida 11,1 g kalsiy gidroksid tutgan eritma o'zaro ta'sirlashganda qanday mahsulot(lar) hosil bo'ladi?
A) $Ca(HCO_3)_2$
B) $CaCO_3$, $Ca(HCO_3)_2$, H_2O
C) $(CaOH)_2CO_2$
D) $CaCO_3$, H_2O

34. (v9-118-7) 25 l (n. sh.) havoning $6{,}72 \cdot 10^{-6}$ ml (n. sh.)ni is gazi tashkil qilsa, qancha hajm (m^3, n. sh.) havoda $54{,}18 \cdot 10^{16}$ dona uglerod (II) oksid molekulasi mavjud bo'ladi?
A) 100 B) 50
C) 125 D) 75

35. (v11-119-30) 1,6% li 200 g natriy ishqor eritmasi orqali 1,12 l (n. sh. da) karbonat angidrid gazi o'tkazildi eritmada qanday moddalar hosil bo'lganligini aniqlang.
A) natriy karbonat
B) natriy gidroksid, natriy karbonat
C) natriy gidroksid, natriy gidrokarbonat
D) natriy karbonat, natriy gidrokarbonat

36. (v12z-202-24) 132,4 g $Pb(NO_3)_2$ qizdirilishidan hosil bo'lgan qattiq modda CO yordamida qaytarildi. Bunda hosil bo'lgan modda 25,9 g $Ca(OH)_2$ tutgan eritma bilan ta'sirlashdi. Hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) toping.
A) 40 B) 45 C) 35 D) 30

37. (v12z-204-15) Uglerod va kremniydan iborat aralashma teng miqdorda ikki qismga bo'lindi. Birinchi qismi natriy gidroksid eritmasida eritilganda 8,96 l gaz ajraldi. Ikkinchi qismi to'liq yondirilganda 25,2 g oksidlar aralashmasi olingan bo'lsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 18,4 B) 14,8 C) 9,2 D) 11,2

38. (v14-102-2) 5,6 g kremniy va uglerod aralashmasi qizdirilgan ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda 4,48 l gaz ajraldi. Aralashmadagi uglerodning massa ulushini toping.
A) 0,25 B) 0,75 C) 0,5 D) 0,4

39. (v16-104-7) Uglerod oksidlarining hajmi 0,25 mol bo'lgan aralashmasida 4,7 mol proton bo'lsa, aralashma natriy gidroksid eritmasi orqali o'tkazilganda uning hajmi necha marta kamayadi?
A) 5 B) 3 C) 4 D) 2,5

40. (v16-129-25) 8,1 g sianid kislota gidrolizidan olingan gaz necha gramm xlorid kislota bilan ta'sirlashadi?
A) 10,95 B) 43,8 C) 21,9 D) 5,475

41. (v17-115-15) 44,8 l is gazi vodorod bilan 360°C da katalizator ZnO bo'lsa, shu hajmda qancha g yangi mahsulot olish mumkin?
A) 128 g B) 64 g C) 16 g D) 8 g

42. (v17-117-24) To'g'ri mulohazani ko'rsating:
A) uglerodlarda σ-bog' hosil bo'lishda uglerod atomining s-orbitallari ishtirok etishi qancha ko'p bo'lsa, elektron juftliklar shunchali kuchli tortiladi.
B) uglerodlarda σ-bog' hosil bo'lishda ishtirok etadigan uglerod atomining s-orbitallari qancha ko'p bo'lsa, elektron juftliklar shunchali kuchsiz tortiladi.
C) uglerod atomining s-orbitallari elektron juftliklari tortilishga ta'sir etmaydi
D) uglerod σ-bog' hosil bo'lishda uglerod atomining s-orbitallari ishtirok etishi qancha kam bo'lsa, elektron juftliklar shunchali kuchli tortiladi.

71.2. Kremniy. Kremniyning birikmalari

1. (96-10-40) Kremniy quyidagi moddalarning qaysi biri bilan reaksiyaga kirishadi?
A) H_2O B) H_2SO_4 C) NaOH
D) CO_2 E) KCl

2. (96-15-77) Kremniy (IV) oksidi quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishadi?
1) H_2SO_4; 2) $Cu(OH)_2$; 3) NaOH; 4) $Ca_3(PO_4)_2$; 5) HF.
A) 1 va 3 B) 2 va 3 C) 2 va 4
D) 1 va 5 E) 3 va 5

3. (97-2-23) "Eriydigan shisha" deb nomlangan moddaning formulalarini ko'rsating: 1) Na_2SiO_3; 2) $Al_2(SiO_3)_3$; 3) $CaSiO_3$; 4) K_2SiO_3.
A) 1, 4 B) 1, 2 C) 1, 3
D) 2, 3 E) 2, 4

4. (97-5-26) Kremniy ishtirok etgan reaksiyalarning qaysi biri odatdagi sharoitda sodir bo'ladi?
A) Si + Na → B) Si + F_2 →
C) Si + Mg → D) Si + O_2 →
E) Si + H_2→

5. (97-10-150) Kremniy (IV) oksid qanday tuzilishga ega?
A) molekulyar kristall panjarali
B) atom kristall panjarali
C) amorf modda
D) ion bog'lanishga ega
E) metall bog'lanishga ega

6. (97-11-68) Shisha mahsulotlarining kimyoviy yemirilishi jarayoniga sabab bo'luvchi chala reaksiya tenglamasini ko'rsating:
A) $SiO_2 + C$ → B) $SiO_2 + Mg$ →
C) $Si + O_2$ D) $SiO_2 + HF$ →
E) SiO_2 + zar suvi →

7. (97-11-103) Eng toza kremniy olish uchun qaysi kimyoviy reaksiya qo'llaniladi?
A) $SiO_2 + C$ → B) $SiO_2 + Al$ →
C) $SiH_4 + O_2$ → D) $SiCl_4 + Zn$ →
E) $SiO_2 + Mg$ →

8. (98-3-7) Kremniy (IV) oksidning kristall panjarasi qaysi turkumga mansub?
A) atomli B) molekulyar
C) ion D) metall
E) aralash holatda

9. (98-9-48) Billur shisha tayyorlashda qanday xom ashyolardan foydalaniladi?
1) kremniy (IV) oksid; 2) potash; 3) kalsiy karbonat; 4) natriy karbonat; 5) kobalt (II) oksid; 6) qo'rg'oshin (II) oksid.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 6
D) 2, 4, 6 E) 2, 3, 6

10. (98-12-8) Kremniy (IV) oksidning kristall panjarasi qaysi turga kiradi?
A) atomli B) molekulyar
C) ionli D) metall
E) aralash holat

11. (98-12-41) Kremniy (IV) oksidda kremniy atomining gibridlanish turi qanday bo'ladi?
A) sp B) sp^2 C) sp^3
D) sd E) spd^2

12. (99-1-38) Kremniy (IV) oksidda bog'lar orasidagi burchak, kristall panjara va gibridlanish turi qanday?
A) 180°, molekulyar, sp
B) 120°, atomli, sp^2
C) 109°28', atomli, sp^3
D) 109°28', molekulyar, sp^3
E) 180°, atomli, sp^2

13. (99-2-23) 60 kg natriy gidroksid bilan tarkibida 75% SiO_2 bo'lgan 40 kg qum birgalikda suyuqlantirildi. Bunda hosil bo'lgan tuzning massasi (kg) va tarkibi qanday bo'ladi?
A) 61, natriy silikat
B) 50, natriy gidrosilikat
C) 122, natriy silikat
D) 100, natriy gidrosilikat
E) 81,33, natriy silikat

14. (99-2-47) Kremniy va ugleroddan iborat 10 g aralashmaga natriy gidroksid eritmasi ta'sir qildirilganda, 4,48 l (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Dastlabki aralashmadagi kremniyning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 28 B) 40 C) 56
D) 60 E) 72

15. (01-11-50) Kremniy qaysi moddalar bilan reaksiyasiga kirishganda, oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi?
1) fransiy; 2) natriy gidroksid; 3) kislorod; 4) magniy; 5) oltingugurt.
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 3
D) 2, 3, 5 E) 1, 4

16. (01-12-22) Kremniy qaysi kislotalarda eriydi va uning qanday birikmasi hosil bo'ladi?
1) HF; 2) HNO_3 + HF; 3) HCl + HNO_3; 4) $H_2[SiCl_6]$; 5) HCl; 6) $SiCl_4$; 7) $HClO_4$; 8) $Si(ClO_4)_4$; 9) $H_2[SiFe]$
A) 1, 9 B) 2, 3 C) 4, 5
D) 6, 7 E) 2, 9

17. (02-5-27) SiO_2 → Si → Mg_2Si → SiH_4 → → SiO_2 → Na_2SiO_3 → H_2SiO_3 o'zgarishlarni amalga oshirish uchun qo'shiladigan reagentlar ketma-ketligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) ko'mir, magniy, sulfat kislota, kislorod, osh tuzi, natriy ishqori
B) ko'mir, magniy oksid, suv, kislorod, natriy oksid, sulfat kislota
C) magniy, magniy, xlorid kislota, kislorod, natriy gidroksid, xlorid kislota
D) uglerod (II) oksid, magniy gidroksid, sulfat kislota, natriy gidroksid, uglerod (IV) oksid
E) uglerod (II) oksid, magniy, vodorod, suv osh tuzi, xlorid kislota

18. (02-5-30) Qaysi metallmas o'zgaruvchan tokni doimiy tokka aylantiradigan asboblarda ishlatiladi?
A) uglerod B) fosfor C) kremniy
D) yod E) oltingugurt

19. (03-2-55) Suvda eriydigan silikatlardan qaysilari ko'proq ishlatiladi?
1) Na_2SiO_3; 2) Na_2SiO_4; 3) $CaSiO_4$; 4) $CuSiO_4$; 5) K_2SiO_3.
A) 1, 5 B) 1, 3 C) 2, 4
D) 3, 5 E) 4, 5

20. (03-2-56) Silikat sanoatida oq gildan buyumlar tayyorlanadi?
A) sopol, sement B) sement, truba
C) chinni, sopol D) fayans, chinni
E) sement, fayans

21. (04-1-693) Kremniyning oksidlanish darajasi –4 bo'lgan ionining elektron konfiguratsiyasi qaysi element ionining elektron konfiguratsiyasiga o'xshash bo'ladi?
A) argon B) geliy C) neon
D) natriy E) xlor

22. (04-1-725) Zichligi taxminan bir xil bo'lgan silan va kislorod o'zaro ta'sirlashganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
A) bu moddalar o'zaro reaksiyaga kirishmaydi
B) kremniy oksid C) kremniy va suv
D) qo'm va suv E) silan va kislorod

23. (v5-120-7) 119 g kremniy kislotaning xlor angidridi ($SiCl_4$) gidrolizidan ... g H_2SiO_3 va ... g HCl hosil bo'ladi.
A) 54,6; 102,2 B) 62,8; 117,4
C) 38,5; 170 D) 36,5; 119
E) 64,2; 180,2

24. (v6-101-12) O'zgaruvchan tokni doimiy tokka aylantiradigan uskunalarda qaysi metallmas ishlatiladi?
A) fosfor B) uglerod
C) yod D) kremniy

25. (v7-102-19) Quyidagi qaysi xususiyatlar kremniy (IV) oksidiga tegishli?
1) markaziy atomning gibridlanishi: a) sp^3; b) sp;
2) agregat holati (t = 25°C): a) gaz; b) qattiq;
3) suyuqlanish temperaturasi: a) –56,6°C; b) 1610°C;
4) molekulaning fazoviy tuzilishi: a) tetraedr; b) chiziqli.
A) 1-b, 2-a, 3-a, 4-b B) 1-a, 2-b, 3-b, 4-a
C) 1-b, 2-a, 3-b, 4-a D) 1-a, 2-b, 3-a, 4-a

26. (v7-106-24) Kremniy va ko'mirdan iborat 4 g aralashmaga konsentrlangan sulfat kislota bilan ishlov berildi. Olingan gazlar aralashmasi NaOH eritmasiga shimdirilganda eritmaning massasi 17,2 g ga ortdi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalar nisbatini (mol) aniqlang.
A) 1:2 B) 1:1 C) 1:4 D) 1:3

27. (v7-160-20) Silan va metandan iborat 11,2 l (n. sh.) gazlar aralashmasi yondirilganda 6 g qattiq modda ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi metanning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 60 B) 20 C) 40 D) 80

28. (v7-168-24) Kremniy, grafit va kalsiy karbonatdan iborat 30 g aralashmaning natriy gidroksid eritmasi bilan reaksiyasida 11,2 l (n. sh.) gaz ajraldi. Shuncha miqdordagi aralashma xlorid kislota eritmasi bilan reaksiyaga kirishganda 2,24 l (n. sh.) gaz ajraldi. Aralashmadagi grafitning massasini (g) toping.
A) 10 B) 7 C) 13 D) 3

29. (v7-170-24) Kremniy, grafit va kalsiy karbonatdan iborat 40 g aralashmaning natriy ishqor eritmasi bilan reaksiyasida 4,48 l (n. sh.) gaz ajraldi. Shuncha miqdordagi aralashma xlorid kislota eritmasi bilan reaksiyaga kirishganda 3,36 l (n. sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma tarkibidagi grafit massasini (g) toping.
A) 22,2 B) 2,8 C) 15 D) 26,4

30. (v12z-201-31) Silanni xlorlash natijasida argonga nisbatan zichligi 4,25 bo'lgan moddadan 1,7 g hosil bo'ldi. Reaksiya kirishgan silan va xlorning hajmiy nisbati 1:8 bo'lsa, shuncha xlor olish uchun necha gramm bertolle tuzi kerak bo'ladi?
A) 3,27 B) 4,22 C) 2,81 D) 1,63

31. (v12z-202-5) Kremniy (IV) oksiddan 11,2 g kremniy olish uchun necha gramm magniy kerakligini aniqlang.
A) 64 B) 19,2 C) 38,4 D) 48

32. (v12z-216-26) 10 mol Na_2SiO_3 olish uchun kerak bo'ladigan o'yuvchi natriy va qumtuproq massalarini (g) toping.
A) 800; 600 B) 10; 20
C) 280; 520 D) 600; 400

33. (v12c-109-30) Kremniyli birikma tarkibida 4 ta σ-bog' bo'lsa, kremniyning gibridlanishi qanday bo'lishi mumkin?
A) bunday birikma mavjud emas B) sp
C) sp^2 D) sp^3

34. (v12c-114-15) Kremniy (IV) oksiddan 11,2 g kremniy olingan bo'lsa, reaksiyada hosil bo'lgan magniy oksid massasini (g) aniqlang.
A) 28 B) 24 C) 32 D) 16

35. (v12c-123-5) Oddiy shisha ishlab chiqarishdagi asosiy moddalar berilgan qatorni ko'rsating.
A) K_2O, Li_2O, SiO_2
B) K_2CO_3, SiO_2, $ZnCO_3$
C) Na_2CO_3, $MgCO_3$, SiO_2
D) Na_2CO_3, $CaCO_3$, SiO_2

36. (v12c-126-27) 10 mol Na_2SiO_3 uchun kerak bo'ladigan o'yuvchi natriy va qumtuproq massalarini (g) toping.
A) 800; 600 B) 900; 100
C) 10: 20 D) 280: 520

37. (v12c-132-13) Kremniy (IV) oksiddan 5,6 g kremniy olingan bo'lsa, reaksiyada hosil bo'lgan magniy oksid massasini (g) aniqlang.
A) 16 B) 28 C) 24 D) 32

38. (v13-101-7) Ba'zi vaqtlarda shisha ishlab chiqarishda soda o'rniga natriy sulfat va ko'mirdan foydalaniladi. Shu moddalar qo'llanganda shishaning hosil bo'lish jarayonida ajralib chiqqan gazlar aralashmasining havoga nisbatan zichligi 1,24 ga teng bo'lib, bu aralashma 2% li bromli suvning 1,6 kg ni rangsizlantira oladi. Bromli suv bilan ta'sirlashmay qolgan gazning hajmini (l, n. sh.) toping.
A) 2,24 B) 3,36 C) 4,48 D) 1,12

39. (v15-104-16) Nitrat kislota bilan natriyning qaysi tuzi ta'sirlashganda cho'kma hosil qiladi?
A) Na_2S B) Na_2SiO_3
C) Na_2CO_3 D) Na_2SO_4

40. (v15-108-16) 10 litr (n. sh.) CO va CO_2 gazlari aralashmasida uglerodning massasi kislorodning massasidan 2 marta kichik bo'lsa, gazlar aralashmasining hajmiy (l, n. sh.) tarkibini mos ravishda aniqlang.
A) 5; 5 B) 3; 7 C) 6; 4 D) 4; 6

41. (v15-110-1) 11,2 g kremniy va uglerod aralashmasi qizdirilgan ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda 8,96 l gaz ajraldi. Aralashmadagi kremniyning massa ulushini toping.
A) 0,4 B) 0,6 C) 0,5 D) 0,3

42. (v15-110-3) 10 g kremniy va uglerod aralashmasi qizdirilgan ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda 8,96 l gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadagi kremniyning massa ulushini toping.
A) 0,65 B) 0,35 C) 0,44 D) 0,56

43. (v16-115-29) Karborund va kvars aralashmasida molekulalar soni atomlar sonidan 2,5 marta kam bo'lsa, 2 mol aralashmadagi kremniyning atomlar sonini aniqlang.
A) $18,06 \cdot 10^{23}$ B) $12,04 \cdot 10^{23}$
C) $15,05 \cdot 10^{23}$ D) $1,204 \cdot 10^{23}$

44. (v17-103-11) Shishaga ko'k rang berish uchun qanday modda qo'shish kerak?
A) $Fe(OH)_2$ B) Cr_2O_3
C) CaO D) Cu(OH)Cl

45. (v17-103-27) Diopsit va anotit tarkiblaridagi kremniyning massa ulushini hisoblang.
A) 13,67% B) 14,02%
C) 67,47% D) 22,67%

46. (v17-104-11) 20 g magniy silitsid xlorid kislota bilan reaksiyasi natijasida qanday gaz qancha hajmda paydo bo'ladi?
A) 5,50 l B) 5,60 l
C) 5,34 l D) 5,89 l

47. (v17-104-16) Haqiqiy qumning formulasini toping.
A) SiO_2 B) $Si_n(O_2)_n$
C) $Si_m(O_2)_n$ D) $(SiO_2)_n$

48. (v17-105-8) Shishaga yashil rang berishda unga qanday modda qo'shiladi?
A) $Fe(OH)_2$ B) PbO_2
C) Cr_2O_3 D) $CuCl_2$

49. (v17-109-12) 108 g natriy sulfat ko'mir va qum reaksiyasi natijasida ajralib chiqgan gazdan qancha massa sulfat kislota olish mumkin?
A) 124,46 g
B) 200 g
C) 196,45 g
D) 445,4 g

72. V guruh metallmaslari

72.1. Azot. Azotning birikmalari

1. (96-4-46) Magniy suyuq nitrat kislota bilan reaksiyasida N_2O hosil bo'lgan. Unda 1 mol magniy necha mol HNO_3 bilan reaksiyada qatnashadi?
A) 2,0 B) 2,5 C) 4 D) 8 E) 10

2. (96-7-41) Laboratoriyada ammiak quyidagi usullardan qaysi biri yordamida olinadi?
A) $3H_2 + N_2 = 2NH_3$
B) $NH_4OH \longrightarrow NH_3 + H_2O$
C) $NH_4Cr \rightarrow NH_3 + HCl$
D) $2NH_4Cl + Ca(OH) = CaCl_2 + 2NH_3 + 2H_2O$
E) $NH_4NO_3 \xrightarrow{t} NH_3 + HNO_3$

3. (96-10-38) Massasi 100 g bo'lgan konsentrlangan (63% li) nitrat kislota eritmasida necha gramm mis eriydi? Reaksiya natijasida necha litr (n. sh. da) gaz ajralib chiqadi? [$A_r(Cu) = 64$, $A_r(N) = 14$]
A) 16 g Cu, 11,2 l gaz
B) 32 g Cu, 11,2 l gaz
C) 32 g Cu, 22,4 l gaz
D) 16 g Cu, 5,6 l gaz
E) 32 g Cu, 5,6 l gaz

4. (96-13-25) Ma'lum massaga ega bo'lgan misni nitrat kislotada eritish kerak. Bu vazifani 90% li yoki 30% li eritmadan foydalanib bajarilganda sarf bo'lgan kislotalarning bir-biriga miqdoriy nisbatlari qanday bo'ladi?
A) 1,5:1 B) 2:1 C) 2:1,5
D) 2:2 E) 2:2,5

5. (96-13-65) Havo kislorodi ishtirok etmagan sharoitda 9,2 g azot (IV) oksid suvda eritilganda hosil bo'lgan mahsulotlarning yaxlitlangan massa ulushlarini toping.
A) 45% va 55% B) 40% va 60%
C) 43% va 57% D) 49% va 51%
E) 54% va 46%

6. (97-3-23) Konsentrlangan nitrat kislota qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishmaydi?
1) Mg; 2) Cu; 3) Al; 4) SiO_2.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 3, 4

7. (97-6-38) Mis (II) nitrat molekulasi termik parchalanganda, qanday moddalar hosil bo'ladi?
A) mis (II) nitrit va, kislorod
B) mis (II) oksid, azot va, kislorod
C) mis (II) oksid, azot (IV) oksid va kislorod
D) mis, azot (IV) oksid va kislorod
E) mis (II) oksid va azot (II) oksid

8. (97-8-48) Juda suyultirilgan mo'l nitrat kislota magniy bilan o'zaro ta'sirlashganda, qanday gaz ajralib chiqadi?
A) azot (II) oksid B) azot (IV) oksid
C) azot (I) oksid D) azot
E) gaz ajralib chiqmaydi

9. (97-10-61) Massasi 100 g bo'lgan ammoniy nitritni ma'lum vaqt qizdirilgandan so'ng uning massasi 93,6 g bo'lib qoldi. Bunda necha litr azot ajralib chiqadi?
A) 3,36 B) 20,4 C) 2,24
D) 22,4 E) 25,0

10. (97-10-109) Konsentrlangan nitrat kislota qaysi metall bilan reaksiyaga kirisha oladi?
A) oltin B) platina C) temir
D) mis E) alyuminiy

11. (97-10-111) Nitrat kislota qaysi metall bilan ta'sirlashganda, NO_2 gazi ajralib chiqadi?
A) Ba B) Fe
C) Al D) Cu E) Pb

12. (97-12-21) 28 l ammiak va kislorod aralashmasi katalizator ishtirokida reaksiyaga kirishdi. Bunda 6 l kislorod ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi kislorodning hajmini (l) aniqlang.
A) 8,3 B) 14,4 C) 18,2
D) 20,2 E) 12,6

13. (98-4-8) 10,8 g azot (V) oksid 89,2 g suvda eritilganda hosil bo'lgan mahsulotning massa ulushini hisoblang.
A) 12,6 B) 10,8 C) 6,3
D) 5,4 E) 13,4

14. (98-7-26) Hajmlari 2,24 l dan bo'lgan ikki xil rangsiz gaz reaksiyaga kirishib, rangsiz gaz mahsulot hosil qildi. Bu gazning hajmi 4,48 l bo'lib, havoda qo'ng'ir rangli moddaga aylanadi. Qo'ng'ir rangli gaz atomlar kislorod ishtirokida suvda eriganda, 0,2 mol konsentratsiyali hajmi 1 l bo'lgan kislota eritmasi hosil qilgan. Qanday kislota hosil bo'lgan?
A) sulfat B) xlorid C) sulfid
D) lerxlorat E) nitrat

15. (98-7-27) 17 g azot gidridni neytrallash uchun 20% li ($\rho = 1,1$ g/sm^3) xlorid kislotadan necha millilitr sarf bo'ladi?
A) 166 B) 156 C) 176
D) 160 E) 155

16. (98-7-28) 1 mol ammoniy sulfat va 2 mol natriy nitratdan iborat aralashma uzoq vaqt davomida qizdirilib, doimiy og'irlikka keltirildi. Natijada necha gramm modda qolgan?
[$M_r(N) = 14$, $M_r(S) = 32$, $M_r(Na) = 23$, $M_r(O) = 16$]
A) 132 B) 170 C) 160
D) 142 E) 302

17. (98-7-32) 410 g alyuminiy nitrid qizdirilgan suv bug'lari bilan reaksiyaga kirishganda, necha gramm ammiak olish mumkin?
[$M_r(Al) = 27$, $M_r(N) = 14$, $M_r(O) = 16$]
A) 150 B) 340 C) 85
D) 170 E) 185

18. (98-9-4) Mis (II) nitrat termik parchalanganda qanday mahsulotlar hosil bo'lishini ko'rsating.
A) mis, azot, kislorod
B) mis (I) nitrat, kislorod
C) azot (IV) oksid, kislorod, mis
D) mis oksid, azot (IV) oksid, kislorod
E) mis gidroksid, kislorod, azot

19. (98-9-5) Moddalar guruhining qaysi biridagi ikkala modda termik parchalanganda nitratlar hosil bo'ladi?
A) mis (II) va ammoniy nitratlari
B) kalsiy va natriy nitratlari
C) kumush va simob nitratlari
D) temir (III) va natriy nitratlari
E) alyuminiy va natriy nitratlari

20. (98-12-21) Kumush elementining suyultirilgan nitrat kislota bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan azot birikmasini va uning stexiometrik koeffitsiyentini toping.
A) NO_2 B) NO C) $3N_2O$
D) $2NH_3$ E) 4NO

21. (99-3-22) Konsentrlangan nitrat kislota quyidagi moddalarning qaysi birlari bilan reaksiyaga kirishganda, oksidlovchi xossa namoyon qilishini ko'rsating.
1) fosfor (V) oksid; 2) xlorid kislota; 3) kaliy bromid; 4) vodorod yodid; 5) kalsiy oksid; 6) mis; 7) alyuminiy; 8) uglerod (IV) oksid; 9) metafosfat kislota.
A) 2, 4, 6 B) 3, 4, 6 C) 4, 6, 8
D) 3, 5, 7 E) 5, 7, 9

22. (99-5-37) 20% li 200 kg nitrat kislota eritmasini hosil qilish uchun qancha (kg) natriy nitrat kerak?
A) 48,6 B) 54,0 C) 57,4
D) 51,0 E) 59,5

23. (99-7-54) Yuqori temperatura va bosimda ammiak bilan karbonat angidrid orasidagi reaksiya natijasida azot miqdori ko'p bo'lgan o'g'it hosil bo'ladi. Shu o'g'itdan 6 t olish uchun kerak bo'ladigan ammiak massasini (t) va karbonat angidrid hajmini (m^3) hisoblang.
A) 3,4 va 2240 B) 1,7 va 2240
C) 3,4 va 2,24 D) 6,8 va 1120
E) 4,6 va 448

24. (99-7-59) O'simliklar uchun tayyorlangan 1 l distillangan suvda 2,72 g kaliy digidrofosfat eritilgan. Hosil bo'lgan eritmadagi fosforning foiz konsentratsiyasini hisoblang.
A) 0,062 B) 0,6 C) 0,12
D) 0,012 E) 0,065

25. (01-1-31) Azotni laboratoriyada olish usulini ko'rsating.
1) $(NH_4)_2Cr_2O_7 \xrightarrow{t} Cr_2O_3 + N_2 + H_2O$;
2) $NH_3 + O_2 \rightarrow N_2 + H_2O$;
3) $CuO + NH_3 \rightarrow Cu + N_2 + H_2O$;
4) $NH_4NO_2 \xrightarrow{t} N_2 + H_2O$;
5) $NH_3 + Br_2 \rightarrow N_2 + HBr$;
6) $NH_3 + H_2O_2 \rightarrow Na + H_2O$.
A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 5
D) 2, 4 E) 2, 6

26. (01-2-41) Uy temperaturasida azot bilan o'zaro reaksiyaga kirishadigan ishqoriy metalni ko'rsating.
A) Cs B) Na C) Rb D) Li E) K

27. (01-11-20) Tarkibida 3 mol bog'langan azot bo'lgan birikmalarni toping:
1) pikrin kislota; 2) kaprolaktam; 3) ammoniy nitrat; 4) alyuminiy nitrat; 5) kalsiy nitrat; 6) nitroglitserin.
A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 2, 3, 4
D) 1, 3, 4 E) 2, 5, 6

28. (02-1-24) Kontakt apparatida oksidlanish mahsulotining chiqishi 95%, yuttirish kolonalarida kislotaning chiqishi esa 94% bo'lsa, bir tonna ammiakdan qancha (t) 55% li nitrat kislota hosil bo'ladi?
A) 4,40 B) 6,02 C) 3,30
D) 2,04 E) 8,06

29. (02-9-26) Nitrat kislotaning to'liq qaytarilish mahsulotlarini ko'rsating:
1) azot (IV) oksid; 2) azot; 3) azot (I) oksid; 4) ammiak; 5) azot (II) oksid; 6) ammoniy ioni.
A) 6 B) 1, 3, 5 C) 4 D) 4, 6 E) 2

30. (02-9-27) Bir xil miqdorda olingan ruxning turli xil konsentratsiyadagi nitrat kislota bilan o'zaro ta'siri natijasida quyida keltirilgan moddalar hosil bo'ladi. Qaysi moddalar hosil bo'lishida kislota eng kam va eng ko'p sarf bo'ladi?
1) azot (IV) oksid; 2) azot; 3) azot (I) oksid; 4) ammoniy nitrat; 5) azot (II) oksid.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 4, 3
D) 2, 1 E) 5, 1

31. (02-10-35) 2 sm^3 NO_2 gazini hosil qilish uchun qaysi gazdan 1 sm^3 miqdorini parchalash kerak?
A) N_2O_3 B) N_2O C) NO
D) N_2O_4 E) N_2O_5

32. (02-11-47) Quyidagi elementlar nitratlaridan qaysi biri parchalanganda, kislorod hosil bo'lmaydi?
A) oltin B) rux
C) ammoniy D) simob (I)
E) simob (II)

33. (03-2-52) Mis bilan konsentrlangan nitrat kislota reaksiyaga kirishganda, qaysi gaz ajralib chiqadi?
A) vodorod B) azot (II) oksid
C) azot (III) oksid D) azot (IV) oksid
E) azot

34. (03-2-54) Azot oksidlarining to'g'ri yozilgan qatorini ko'rsating.
A) NO, N_2O_3, N_2O_7, N_2O_6
B) NO, N_2O_4, N_2O_5, N_2O_7
C) N_2O, N_2O_5, NO, N_2O_6, N_2O_3
D) N_2O, NO, N_2O_3, N_2O_4, N_2O_5
E) N_2O, N_2O_3, N_2O_4, N_2O_7

35. (03-5-4) Odatdagi temperaturada azot bilan reaksiyaga kirisha oladigan metallar qatorini ko'rsating.
A) kalsiy, stronsiy, bariy
B) litiy, berilliy, magniy
C) natriy, kaliy, seziy
D) bariy, berilliy, natriy
E) seziy, magniy, radiy

36. (03-5-18) Xossalari benzolga o'xshash, "anorganik benzol" deb ataluvchi moddaning formulasini ko'rsating.
A) B_6H_6 B) Si_6H_6
C) Sn_6H_6 D) $B_3N_3H_6$
E) $B_2N_4H_6$

37. (03-7-52) 20°C da 1 l suvda $6{,}8 \cdot 10^{-4}$ mol azot eriydi. Bu miqdor g/l hisobida qanchani tashkil etadi?
A) 0,038 B) 0,019
C) 1 D) 0,0095
E) 0,076

38. (03-8-49) Ammiakning xlorda yonish mahsulotlaridan birini toping.
A) vodorod B) xlor
C) azot D) kislorod
E) karbonat angidrid

39. (03-10-27) Nitratlari $MeNO_3 \xrightarrow{t} \rightarrow MeNO_2 + O_2$ sxema bo'yicha parchalanishga uchraydigan metallarni aniqlang:
1) Ca; 2) Na; 3) Zn; 4) K; 5) Cs; 6) K; 7) Cu.
A) 1, 2, 3, 5, 6 B) 2, 3, 4
C) 3, 5, 6, 7 D) 1, 2, 4, 5, 6
E) 1, 2, 4, 5, 7

40. (03-10-28) Nitratlari $MeNO_3 \xrightarrow{t} \rightarrow MeNO_2 + O_2$ sxema bo'yicha parchalanishga uchraydigan metallarni aniqlang:
1) Al; 2) Va; 3) Li; 4) Be; 5) Cr; 6) Ag.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4
D) 4, 5, 6 E) 3, 4, 5

41. (03-10-29) Nitratlari $MeNO_3 \xrightarrow{t} \rightarrow MeO + NO_2 + O_2$ sxema bo'yicha parchalanishga uchraydigan metallarni aniqlang.
A) Ca, Ba, Zn B) K, Na, Li
C) Mg, Al, Ti D) Zn, Cu, K
E) Co, Ag, Hg

42. (03-10-32) Azot (V) oksid N_2O_5 uy temperaturasida qanday moddalarga parchalanadi?
A) NO va NO_2 B) N_2O va NO
C) N_2O va NO_2 D) NO_2 va O_2
E) N_2O_4 va O_2

43. (03-10-34) Azot (III) oksid N_2O_3 sovitilganda qanday moddalarga parchalanadi?
A) azot (II) oksid, azot (IV) oksid
B) azot (IV) oksid, azot (V) oksid
C) azot (V) oksid
D) azot (II) oksid
E) azot (IV) oksid

44. (04-1-113) Agar 8 l ammiak parchalanib to'liq ravishda azot va vodorodga aylantirilsa, vodorodning hajmi (n. sh.) azotnikidan necha litrga ortiq bo'ladi?
A) 2 B) 4 C) 6 D) 3 E) 8

45. (04-1-656) Havo kislorodi ishtirok etgan sharoitda 9,2 g azot (IV) oksid suvda eritilganda hosil bo'lgan mahsulotning massasini toping.
A) 14,5 B) 15,7 C) 25,2
D) 14,9 E) 12,6

46. (04-1-664) Massasi 100 g bo'lgan konsentrlangan (63% li) nitrat kislota eritmasida necha mol mis eriydi? Reaksiya natijasida necha litr (n. sh. da) gaz ajralib chiqadi?
A) 16 Cu, 11,2 l gaz B) 0,25 Cu, 11,2 l gaz
C) 3,2 Cu, 22,4 l gaz D) 0,16 Cu, 5,6 l gaz
E) 3,2 g Cu, 5,6 l gaz

47. (04-1-668) Qanday mahsulotlar mis (II) nitratning termik parchalanishida hosil bo'ladi va natijada uning massasi necha foizga kamayadi?
A) mis, azot, kislorod; 81
B) mis (I) nitrat, kislorod; 41
C) azot (IV) oksid, kislorod, mis; 51
D) mis (II) oksid, azot (IV) oksid, kislorod; 42,6
E) mis (II) oksid, azot (IV) oksid, kislorod; 57,4

48. (04-1-669) Moddalar guruhining qaysi biridagi ikkala modda termik parchalanganda gaz modda sifatida faqat erkin kislorod hosil bo'ladi va ularning massasi necha foizga kamayadi?
A) mis (II) va ammoniy nitratlari 14; 50
B) kaliy va natriy nitratlari 84; 81
C) kumush va simob nitratlari 12; 56
D) temir (III) va natriy nitratlari 18; 20
E) kaliy va natriy nitratlari 16; 19

49. (04-1-670) 2000°C da ikkita rangsiz gazlar aralashmasi qizdirilganda, havoda oksidlanadigan 0,2 mol qo'ng'ir rangli gaz hosil bo'ladi. Uni kislorod ishtirokida 150 g suvda eritilganda, hosil bo'lgan kislotaning konsentratsiyasi (%) qanchaga teng bo'ladi?
A) 10,6 B) 11,6 C) 12,6
D) 7,9 E) 8,4

50. (04-1-676) 112 m^3 ammiakdan qancha (kg) 75% li nitrat kislota olish mumkin?
A) 420 B) 328,6 C) 367,5
D) 427,5 E) 525

51. (v4-112-28) Havo kislorodi ishtirok etgan sharoitda 18,4 g azot (IV) oksid suvda eritilganda hosil bo'lgan mahsulotning massasini toping.
A) 25,2 B) 12,6 C) 14,5
D) 14,9 E) 15,7

52. (v4-129-17) Tarkibida 2 ta azot atomi bor bo'lgan birikmalarni toping.
1) kaprolaktam; 2) pikrin kislota; 3) ammoniy nitrat; 4) kalsiy nitrat; 5) alyuminiy nitrat; 6) nitroglitserin.
A) 2, 3, 4 B) 3, 4 C) 3, 4, 6
D) 1, 3, 4 E) 3, 5

53. (v5-106-29) 100 g ammoniy nitrit qizdirilgandan so'ng uning massasi 93,6 g ni tashkil etdi. Bunda necha litr (n. sh.) gaz ajralgan va tuzning necha foizi parchalangan?
A) 2,24; 6,4 B) 4,48; 3,2
C) 32,76; 93,6 D) 1,12; 6,4
E) 35; 100

54. (v5-110-29) Nitrat kislota qora shisha idishda saqlanadi, chunki u yorug'likda parchalanib ... gazlari hosil bo'ladi:
1) N_2O_5; 2) N_2O; 3) NO_2; 4) NO; 5) O_2.
A) 3 B) 1, 3, 4 C) 1, 4
D) 1 E) 3, 5

55. (v5-113-17) Azot oksidlaridan qaysi biri tibbiyot sohasida og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi?
A) NO_2 B) N_2O C) N_2O_4
D) N_2O_3 E) N_2O_5

56. (v5-113-25) 1,6 g mis konsentrlangan nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishganda 1,12 l (n. sh.) gaz ajraldi. Keyin eritma bug'latilib, massasi o'zgarmay qolguncha qizdirilganda yana 1,12 g gaz ajraldi. Reaksiyada hosil bo'lgan CuO ning massasini toping.
A) 1,4 B) 4,7 C) 2 D) 2,8 E) 0,4

57. (v5-116-29) 8 mol ammiakning 7 mol kislorodda oksidlanishidan necha litr (n. sh.) azot hosil bo'ladi?
A) 44,8 B) 75,3 C) 67,2
D) 89,6 E) 33,6

58. (v5-121-29) Azot (IV) oksidi kislorodsiz suv bilan ta'sirlashganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
1) azot (II) oksid; 2) nitrat kislota; 3) ammiak; 4) azot (V) oksid; 5) nitrit kislota; 6) ammoniy gidroksid.
A) 2, 4, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5
D) 2, 5 E) 1, 4

59. (v5-122-34) Nitrat kislotaning murakkab efirlarini aniqlang:
1) 2-nitroetan; 2) trinitrotoluol; 3) pikrin kislota; 4) nitrosellyuloza; 5) nitroglitserin; 6) etanol va nitrat kislota reaksiya mahsuloti.
A) 2, 3, 4 B) 3, 5, 6 C) 4, 5, 6
D) 3, 4, 5 E) 1, 2, 3

60. (v5-123-29) Momaqaldiroq va chaqmoq paytida yoqqan yomg'ir suvida qanday kislota bo'ladi?
A) H_2CO_3 B) H_2S C) H_2SO_4
D) HCl E) HNO_3

61. (v5-126-29) Ammiak katalizator ishtirokida oksidlanganda 3 mol azot (II) oksid hosil bo'ldi va 16,8 l kislorod ortib qoldi. Reaksiya uchun olingan kislorodning hajmini (l) hisoblang.
A) 84,5 B) 95,3 C) 100,8
D) 79,6 E) 67,2

62. (v5-127-29) Mo'l miqdordagi azot (IV) oksidi suvda eritilganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
1) ammoniy nitrat; 2) nitrat kislota; 3) nitrit kislota; 4) azot; 5) ammiak; 6) azot (II) oksid.
A) 1, 3 B) 4, 5 C) 2, 6
D) 4, 5, 6 E) 1, 2, 3

63. (v6-102-29) Ushbu moddalardan qaysi birining termik parchalanishi natijasida kuldiruvchi gaz hosil bo'ladi?
A) NH_4Cl B) $NaNO_3$
C) $Ca(NO_3)_2$ D) NH_4NO_3

64. (v6-103-29) Kontakt apparatida oksidlanish mahsulotining unumi 90%, yuttirish kolonnalarida kislotaning chiqishi esa 92% bo'lsa, bir tonna ammiakdan qancha (t) 58% li nitrat kislota hosil bo'ladi?
A) 6,0 B) 4,4
C) 5,7 D) 5,2

65. (v6-108-11) Quyidagi ionlar nitratlaridan qaysi biri parchalanganda, kislorod hosil bo'lmaydi?
A) rux B) oltin
C) simob (I) D) ammoniy

66. (v6-116-17) Konsentrlangan nitrat kislota ta'sirida quyidagi aminokislotalardan qaysi biri jigarrangga bo'yaladi?
A) glikokol B) fenilalanin
C) valin D) alanin

67. (v7-108-12) Ammiakning mo'l miqdordagi kislorodda (platina ishtirokida) yoqilishidan olingan mahsulot o'z-o'zidan jigarrangga kiradi. Shu mahsulotning kislorod ishtirokida suvda eritilishidan hosil bo'lgan moddaning molekulyar massasini toping.
A) 63 B) 98 C) 17 D) 47

68. (v7-109-28) 19,6 g azotdan hosil bo'lgan ammiakni neytrallash uchun talab etiladigan 25% li xlorid kislota massasini (g) hisoblang.
A) 204,4 B) 102,2 C) 408,8 D) 306,6

69. (v7-111-10) Ammiak qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
A) mis (II) gidroksid, ammoniy gidrosulfat
B) kalsiy gidroksid, nitrat kislota
C) xlorid kislota, magniy gidroksid
D) ammoniy xlorid, sulfat kislota

70. (v7-115-7) Nitrat kislota va kaliy ishqor eritmalari teng miqdorda (mol) olinib aralashtirilganda quyidagi xossalardan qaysi biri saqlanib qoladi?
A) asoslik
B) kislotalik
C) kislotalik va asoslik
D) elektr o'tkazuvchanlik

71. (v7-119-28) 225 ml 35% li (ρ = 1,2 g/ml) nitrat kislota eritmasini neytrallash uchun zarur bo'lgan ammiak hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 21,2 B) 22,4 C) 33,6 D) 32

72. (v8-119-19) Ammiak kislorod yordamida oksidlanganda (Pt katalizator) ammiakning konsentratsiyasi uch marta oshirilib, kislorodning konsentratsiyasi ikki marta kamaytirilsa, to'g'ri reaksiyaning tezligi necha marta ortadi?
A) 1,86 B) 10,12
C) 5,87 D) 2,53

73. (v9-107-8) Mo'l miqdorda olingan konsentrlangan nitrat kislotaning 23,8 g qalay bilan reaksiyasida necha gramm β-qalay kislota hosil bo'ladi?
A) 67,6 B) 16,9 C) 47,5 D) 33,8

74. (v12c-101-32) 225 ml 35% li nitrat kislota eritmasini (ρ = 1,2 g/ml) neytrallash uchun 60% li KOH eritmasidan necha gramm kerak bo'ladi?
A) 84 B) 140 C) 2,5 D) 150

75. (v12c-115-3) 60 g 70,5% li nitrit kislota disproporsiyalanish reaksiyasiga kirishishi natijasida hosil bo'lgan eritma (ρ = 1,2 g/ml) normal konsentratsiyasini aniqlang.
A) 8,6 B) 26,3
C) 5,0 D) 45

76. (v13-154-17) Konsentrlangan nitrat kislota qaysi metallar bilan umuman ta'sirlashmaydi?
1) Au; 2) Pt; 3) Ta; 4) Rh;
5) Cr; 6) Fe; 7) Al; 8) Fr.
A) 1, 4, 5, 6, 7, 8 B) 3, 4, 5, 6, 7, 8
C) 1, 2, 4, 6, 7, 8 D) 1, 2, 3, 4, 8

77. (v14-129-5) 6,47 g havo tarkibidagi molekulalar sonini toping.
A) $0,27 \cdot 10^{23}$
B) $13,4 \cdot 10^{23}$
C) $1,08 \cdot 10^{23}$
D) $1,34 \cdot 10^{23}$

78. (v15-104-15) Vodorodga nisbatan zichligi 18,2 ga teng bo'lgan 3 litr (n. sh.) azot (II) va azot (IV) oksidlari aralashmasiga 2 litr (n. sh.) kislorod qo'shilsa, boshlang'ich aralashmaning hajmi necha litr (n. sh.) ga kamayadi? (Barcha hajmlar bir xil sharoitda o'lchangan.)
A) 0,9 B) 2,0 C) 1,8 D) 0,5

79. (v15-104-28) Mashhur mikrobiolog olim V.L. Omelyanskiy fikricha bu element biologik nuqtai nazardan eng asl metallardan ham aslroqdir. V.L. Omelyanskiy qaysi elementni nazarda tutgan?
A) kislorod B) oltin
C) azot D) kumush

80. (v15-104-30) 12 g mochevina suv bilan qildirilishi natijasida necha gramm ammiak olinadi?
A) 6,8 B) 3,4 C) 8,5 D) 1,7

81. (v15-106-16) 8,1 g sianid kislota gidrolizidan olingan gaz necha gramm xlorid kislota bilan ta'sirlashadi?
A) 43,8 B) 21,9 C) 5,475 D) 10,95

82. (v15-110-9) Ammoniy xlorid bilan reaksiyaga kirishadigan moddalarni ko'rsating.
1) kaliy gidroksid; 2) kumush nitrat;
3) ftorid kislota; 4) natriy sulfat
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 2, 4

83. (v15-123-15) 8,1 g sianid kislota gidrolizdan olingan kislota necha gramm o'yuvchi natriy bilan ta'sirlashadi?
A) 30 B) 12 C) 24 D) 6

84. (v16-104-16) Kadaverinning ammiakdagi eritmasiga 76,5 g ammiak qo'shilganda, kadaverinning konsentratsiyasi 2,5 marta kamaydi. Bunda eritmadagi jami atomlar soni 2,6 marta ortdi. Hosil bo'lgan eritmaning massa ulushini aniqlang.
A) 0,35 B) 0,5 C) 0,75 D) 0,2

85. (v16-108-24) Ammiak va kislorodning 28 litr (n. sh.) aralashmasi katalizator ishtirokida reaksiyaga kirishgandan so'ng 6 litr (n. sh.) kislorod ortib qolgan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kislorodning hajmini (litr, n. sh.) aniqlang.
A) 15,4 B) 18,2 C) 20 D) 8

86. (v16-119-31) HNO_3 eritmasining Zn bilan reaksiyasi natijasida NO_2 va NO gazlari 1:1 mol nisbatda hosil bo'lgan, 1 mol ruxni eritish uchun necha gramm nitrat kislota sarflanadi?
A) 189 B) 126 C) 88,2 D) 94,5

87. (v17-103-7) 60,5 g natriy nitritga 40 g 30% li nitrat kislota quyilganda reaksiya natijasida hosil bo'lgan azot (III) oksididan qancha g hosil bo'ladi?
A) 1,24 g B) 7,24 g
C) 6,45 g D) 9,54 g

88. (v17-103-24) Mis nitratni qo'ng'ir gaz to'liq ajralib bo'lguncha qizdirildi, so'ng maydalangan ko'mir bilan aralashtirildi va yana qizdirildi. Reaksiya natijasida nima hosil bo'ldi?
A) mis
B) mis (II) oksidi
C) mis gidroksidi
D) mis (I) oksidi

89. (v17-106-36) Azot, azot(II) oksid va azot(IV) oksiddan iborat 88 ml gazlar aralashmasi suvdan o'tkazilganda 50 ml gaz yutilmay qoldi. Yutilmay qolgan gazlar aralashmasiga 16 ml kislorod qo'shilganda aralashmaning hajmi 55 ml ga teng bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi NO_2 ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 50 B) 75 C) 25 D) 40

90. (v17-109-22) Kislorodning massa ulushi 49,5% ga teng bo'lgan X_2O_5 va X_2O_3 tarkibli aralashmaning 61,4 g massasi kislorod bilan ta'sirlanadi va 71 g massali murakkab modda hosil bo'ldi. X elementni aniqlang.
A) P B) N C) As D) Sb

91. (v17-112-13) Ammoniy xlorid tarkibli namuna konsentratsiyasi 1,00 mol dm^{-3} bo'lgan 100 sm^3 natriy gidroksidi bilan qizdirildi. Ammiak to'liq yo'qotilgandan so'ng 50,0 sm^3 natriy gidroksidini neytrallash uchun 0,250 mol dm^{-3} bo'lgan 50,0 sm^3 sulfat kislota talab etiladi. Namunada ammoniy xloridi necha gramm bo'lgan?
A) 4,01 B) 5,01 C) 10 D) 401

92. (v17-114-4) Azot quyidagi qaysi modda bilan xona haroratida ta'sirlashadi?
A) magniy B) litiy
C) natriy D) kalsiy

93. (v17-115-34) Novshadil spirtini qaysi olim aniqlagan?
A) Gaber B) Gippokrat
C) Mendeleyev D) Dalton

94. (v17-116-22) Hozirgi paytda sovutgichlarimizda freon (CF_2Cl_2) ishlatiladi. Avval shu modda kuchini bera olgan modda qaysi?
A) HCl B) H_2N_4
C) NH_3 D) NH_4Cl

95. (v17-118-14) 33,6 litr (n. sh.) azot (IV) oksidi suvda eritilganda hosil bo'lgan kislota(lar) massasini (g) toping.
A) 77,5 B) 82,5 C) 65 D) 110

96. (v17-130-19) Sanoatda ammiakni platina katalizatori ishtirokida oksidlab, nitrat kislotani olish usulini qaysi muhandis-kimyogar ixtiro qilgan?
A) I.I. Andreyev
B) Buabadron
C) Asqarov
D) Dyuma

72.2. Fosfor. Fosforning birikmalari

1. (96-7-39) 490 g ortofosfat kislota qancha fosfor (V) oksidga muvofiq keladi?
[$M_r(H_3PO_4) = 98$, $M_r(P_2O_5) = 142$]
A) 54 g B) 355 g C) 400 g
D) 310 g E) 446 g

2. (96-15-83) Fosfor (V) oksidi sovuq suvda eritilganda qanday modda hosil bo'ladi?
A) H_3PO_4 B) H_3PO_2
C) $H_4P_2O_7$ D) H_3PO_3
E) HPO_3

3. (96-15-101) 0,5 mol fosfor (III) oksidni fosfor (V) oksidga aylantirish uchun n. sh. da o'lchangan necha litr kislorod kerak?
A) 44,8 B) 33,6 C) 22,4
D) 11,2 E) 5,6

4. (97-8-78) Fosfid formulasini ko'rsating.
A) P_2O_5 B) KPO_3 C) Ca_3P_2
D) Na_3PO_4 E) $K_4P_2O_7$

5. (97-9-59) Quyidagi o'zgarishlarda fosforning qanday birikmasi qoldirib ketilgan?
$Ca_3(PO_4) \rightarrow P \rightarrow \ldots \rightarrow H_3PO_4 \rightarrow (NH_4)_3PO_4$
A) PH_3 B) Ca_3P_2 C) H_3PO_3
D) P_2O_5 E) Na_2HPO_4

6. (97-10-149) Oddiy modda holdagi fosfor molekulasi nechta atomdan tashkil topgan?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 6

7. (97-11-136) Massasi 18,2 g bo'lgan kalsiy fosfiddan olingan fosforning to'la yonishidan hosil bo'lgan fosfor (V) oksid massasini aniqlang.
[$A_r(P) = 31$, $A_r(Ca) = 40$, $A_r(O) = 16$]
A) 14,0 B) 14,2 C) 14,5
D) 15,0 E) 15,2

8. (97-12-52) Kalsiy fosfatdan 3,1 g fosfor olish uchun qancha qum va uglerod kerak?
A) 5 g qum, 9 g uglerod
B) 3 g qum, 5 g uglerod
C) 11 g qum, 6 g uglerod
D) 7 g qum, 4 g uglerod
E) 9 g qum, 3 g uglerod

9. (98-5-16) Quyidagi qaysi sabablarga ko'ra fosforning qaytaruvchilik xossasi azotnikidan kuchli?
1) fosfor atomida bo'sh d-qobiqcha bor;
2) azotdan farqli o'laroq tetrafosfordagi har bir atom boshqa atomlar bilan uchta σ-bog' orqali bog'langan; 3) fosforning elektr manfiyligi azotnikidan katta; 4) fosforning ionlanish potensiali azotnikidan kichik.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 2, 4

10. (98-12-23) Quyidagi xususiyatlarning qaysi bir oq fosfor tavsifiga taalluqli?
1) atom kristall panjaraga egaligi;
2) suyuqlanish temperaturasining past bo'lishi; 3) molekulyar kristall panjaraga egaligi; 4) havoda oson oksidlanishi; 5) suvda va boshqa erituvchilarda eruvchanligi;
6) organik erituvchilarda eruvchanligi;
7) yuqori temperaturada suyuqlanuvchanligi.
A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 5, 6, 7
C) 1, 3, 4, 7 D) 2, 3, 4, 6
E) 1, 3, 5, 7

11. (99-3-11) 15,5 g kalsiy ortofosfatdan olingan fosfor kislorodda to'liq oksidlandi, oksidlanish mahsuloti konsentratsiyasi 0,8 mol/l bo'lgan natriy gidroksidning 250 ml eritmasida (ρ = 1 g/ml) eritildi. Qanday tuz hosil bo'lganligini va uning eritmadagi konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 3,37 natriy gidrofosfat
B) 5,37 natriy digidrofosfat
C) 0,56 natriy ortofosfat
D) 4,07 natriy digidrofosfat
E) 0,84 natriy gidrofosfat

12. (99-4-24) 93 g fosfor yonishidan qancha gramm fosfor (V) oksid hosil bo'ladi?
A) 217 B) 215 C) 209
D) 213 E) 210

13. (99-5-7) Fosforning qaysi reaksiyasi portlash bilan boradi?
A) $P + O_2 \rightarrow P_2O_5$
B) $KClO_3 + P \rightarrow P_2O_5 + KCl$
C) $P + Cl_2 \rightarrow PCl_5$
D) $P + Ca \rightarrow Ca_3P_2$
E) $P + Na \rightarrow Na_3P$

14. (99-7-58) Quyidagi formulalarning qaysi biri yuqori bo'lmagan temperaturadagi fosforning holatini to'g'ri aks ettiradi?
A) P B) P_2 C) P_4 D) P_6 E) P_8

15. (99-7-61) Ortofosfat kislotaning qizdirilishi natijasida oxirgi mahsulot nima bo'ladi?
A) $H_4P_3O_7$ B) P_2O_5
C) H_3PO_3 D) HPO_3 E) PH_3

16. (01-1-34) 3 mol fosfor (III) xloriddan fosfit kislota olish uchun talab etiladigan suv moddasi miqdorini hisoblang.
A) 3 B) 6 C) 9 D) 8 E) 5

17. (01-1-35) Fosfor yonishiga yordam beradigan azot birikmasini ko'rsating.
A) HNO_3 B) HNO_2
C) NH_4NO_2 D) N_2O
E) NH_3

18. (01-3-49) 7,75 g fosforning yonishi natijasida hosil bo'lgan fosfor (V) oksiddan qancha massa (g) ortofosfat kislota olish mumkin?
A) 24,5 B) 9,8 C) 4,9 D) 0.49 E) 98

19. (01-6-65) Mo'l miqdorda olingan natriy fosfidga zichligi 1,15 g/ml bo'lgan 30% li 635 ml xlorid kislota eritmasi ta'sir ettirilganda necha litr (n. sh.) gaz ajralib chiqadi?
A) 5,6 B) 44,8 C) 22,4
D) 11,2 E) 89,6

20. (02-2-52) Fosfor birikmalarining qaysi birida elementning massa ulushi maksimal qiymatga ega bo'ladi?
A) fosfor (III) oksid B) fosfat kislota
C) metafosfit kislota D) fosfin
E) fosfor (V) oksid

21. (03-6-60) Quyidagi moddalarning qaysi biridan vodorodni quritish uchun foydalanish mumkin?
A) fosfor (V) oksid
B) natron ohak
C) konsentrlangan sulfat kislota
D) glitserin
E) to'g'ri javob yo'q

22. (03-7-53) Fosfor pentaxlorid PCl_5 ning gidrolizlanishi natijasida qaysi modda hosil bo'ladi?
A) metafosfat B) fosfit
C) pirofosfat D) ortafosfat
E) fosfatangidrid

23. (03-12-18) 20 g metafosfat kislota (HPO_3) olish uchun qancha (g) fosfor kerak bo'ladi?
A) 3,18 B) 6,89 C) 5,67
D) 7,75 E) 6,75

24. (03-12-19) Tarkibida 42% oltingugurt bo'lgan 400 t piritdan qancha (t) sulfat kislota olish mumkin?
A) 514,5 B) 545,1 C) 145,5
D) 614,8 E) 412,2

25. (04-1-685) Fosfor bug'ining havoga nisbatan zichligi 4,276 ga teng bo'lsa, uning molekulasi nechta atomdan tashkil topgan?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 6

26. (04-1-686) Massasi 18,2 g bo'lgan kalsiy fosfiddan olingan fosforning to'la yonishidan hosil bo'lgan fosfor (V) oksid miqdorini (mol) aniqlang.
A) 18,0 B) 14,2 C) 28,4
D) 0,1 E) 0,2

27. (04-1-688) Fosfat kislotaning ammoniyli tuzi – ammoniy digidrofosfat tarkibidagi fosforning foiz miqdorini hisoblang.
A) 23,5 B) 20,8 C) 27,4
D) 26,9 E) 12,2

28. (05-1-392) Qaysi modda fosfor bilan reaksiyaga kirisha oladi?
A) kaliy xlorat B) vodorod sulfid
C) osh tuzi D) ammiak
E) sirka kislota

29. (v4-101-11) Mo'l miqdorda olingan natriy fosfidga zichligi 1,025 g/ml bo'lgan 34% li 368 ml xlorid kislota eritmasi ta'sir ettirilganda, necha litr (n. sh.) gaz ajralib chiqadi?
A) 26.24 B) 22,64 C) 21,7
D) 28,96 E) 19,8

30. (v4-106-11) Oddiy superfosfat o'g'itiga qaysi formula mos keladi?
A) $Ca(H_2PO_4)_2 + CaSO_4$
B) $CaHPO_4\ 2H_2O$
C) $Ca_2(PO_4)_2$
D) $(NH_4)_2HPO_4$
E) $Ca(H_2PO_4)_2$

31. (v5-101-7) Kalsiy fosfidning gidrolizida 51,8 g ishqor va … l (n. sh.) gaz hosil bo'ladi.
A) 9,7 B) 13,4 C) 10,4
D) 12,6 E) 11,2

32. (v5-103-11) Fosfat kislotaning xlorangidridi (PCl_5) gidrolizlanishida ... va ... hosil bo'ladi.
A) HPO_3; HCl B) H_3PO_2; HCl
C) H_3PO_4; HCl D) $H_4P_2O_7$; Cl_2
E) H_3PO_3; Cl_2

33. (v5-104-18) 6,41 g fosforni ortiqcha miqdorda kislorod bilan yondirilganda hosil bo'lgan mahsulot 238,32 g suvda eritildi. Eritmadagi moddaning massa ulushini (%) toping.
A) 7,2 B) 8,0 C) 6,7 D) 5,7 E) 4,5

34. (v5-120-25) Tarkibida 45% FeS_2 bo'lgan bir tonna qotishmadan necha kilogramm H_2SO_4 olish mumkin?
A) 367,5 B) 90 C) 898
D) 36,75 E) 735

35. (v5-134-25) Tarkibida 40% qo'shimchasi bo'lgan 40 g temir kolchedanidan necha gramm SO_2 olish mumkin?
A) 8,53 B) 42,67 C) 17,06
D) 25,6 E) 12,8

36. (v9-109-13) 91 g kalsiy fosfiddan olingan fosforning to'la yonishidan hosil bo'lgan fosfor (V) oksid massasini (g) aniqlang (reaksiya unumi 80%).
A) 71 B) 56,8 C) 35,5 D) 127,2

37. (v12z-201-12) Magniy va magniy fosfiddan iborat aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda D(He) = 3,7 bo'lgan 11,2 l gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi magniy massasini (g) aniqlang.
A) 13,4 B) 20,6 C) 14,4 D) 7,2

38. (v12z-205-8) 29,4 g sulfat kislotani angidridga aylantirish uchun necha gramm fosfor (V) oksidi kerak?
A) 28,4 B) 56,8 C) 42,6 D) 21,3

39. (v12z-210-34) Mg va Mg_3P_2 dan iborat 0,6 mol aralashmaga mo'l miqdorda HCl ta'sir ettirilganda 22,4 litr (n. sh.) gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi Mg ni massa ulushini (%) hisoblang.
A) 13,44 B) 2,24 C) 8,22 D) 6,72

40. (v12z-211-35) Magniy va magniy fosfiddan iborat aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda D(He) = 2,5 bo'lgan 17,92 l gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, xlorid kislota massasini (g) aniqlang.
A) 85,5 B) 65,7 C) 131,4 D) 32,85

41. (v12z-241-12) 50,4 g nitrat kislotani angidridga aylantirish uchun necha gramm fosfor (V) oksidi kerak?
A) 56,8 B) 28,4 C) 113,6 D) 42,6

42. (v12z-242-6) Ma'lumki gugurt cho'pining kallagi gugurt qutisi yonboshiga ishqalanganda alanga hosil bo'ladi. Agar ushbu jarayonda 85,2 g oksid hosil bo'lsa, reaksiyaga kirishgan bertolle tuzining massasini (g) aniqlang.
A) 61,25 B) 73,5 C) 122,5 D) 36,75

43. (v12c-101-21) 60,3 g perxlorat kislotani angidridga aylantirish uchun necha gramm fosfor (V) oksidi kerak?
A) 56,8 B) 42,6 C) 21,3 D) 28,4

44. (v12c-102-25) 14,7 g sulfat kislotani angidridga aylantirish uchun necha gramm fosfor (V) oksidi kerak?
A) 42,6 B) 28,4 C) 10,7 D) 21,3

45. (v12c-104-36) Ma'lumki gugurt cho'pining kallagi gugurt qutisi yonboshiga ishqalanganda alanga hosil bo'ladi. Agar ushbu jarayonda 42,6 g oksid hosil bo'lsa, reaksiyaga kirishgan bertolle tuzining massasini (g) aniqlang.
A) 122,5 B) 61,25 C) 73,5 D) 36,75

46. (v12c-105-17) Magniy va magniy fosfiddan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirganda 85,5 g tuz hosil bo'lsa, hosil bo'lgan gazlar aralashmasi massasini (g) aniqlang.
A) 6,4 B) 8 C) 17,92 D) 10

47. (v12c-108-18) 25,2 g nitrat kislotani angidridga aylantnish uchun necha gramm fosfor (V) oksidi kerak?
A) 28,4 B) 56,8 C) 42,6 D) 113,6

48. (v12c-112-25) Magniy va magniy fosfiddan iborat aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirganda D(He) = 3,7 bo'lgan 11,2 l gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, xlorid kislota massasini (g) aniqlang.
A) 57 B) 36,5 C) 21,9 D) 43,8

49. (v12c-115-27) Magniy va magniy fosfiddan iborat 0,7 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirganda 85,5 g tuz hosil bo'lsa, hosil bo'lgan gazlar aralashmasi hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 19,04 B) 8,96 C) 13,44 D) 17,92

50. (v12c-118-29) 29,1 g sulfat kislotani angidridga aylantirish uchun necha gramm fosfor (V) oksidi kerak?
A) 42,6 B) 56,8 C) 28,4 D) 21,3

51. (v12c-123-30) Magniy va magniy fosfiddan iborat 0,4 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirganda 57 g tuz hosil bo'lsa, hosil bo'lgan gazlar aralashmasi massasini (g) aniqlang.
A) 7,4 B) 14,8 C) 3,7 D) 11,2

52. (v12c-127-23) 40,2 g perxlorat kislotani angidridga aylantirish uchun necha gramm fosfor (V) oksidi kerak?
A) 42,6 B) 56,8 C) 28,4 D) 21,3

53. (v12c-128-10) Magniy va magniy fosfiddan iborat aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirilganda D(He) = 3,7 bo'lgan 11,2 l gazlar aralashmasi hosil bo'lsa, dastlabki aralashmadagi magniy fosfid massasining (g) aniqlang.
A) 26,8 B) 7,2 C) 13,4 D) 20,6

54. (v12c-134-6) Magniy va magniy fosfiddan iborat 0,4 mol aralashmaga xlorid kislota ta'sir ettirganda 57 g tuz hosil bo'lsa, hosil bo'lgan gazlar aralashmasi hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 17,92 B) 15,68 C) 22,4 D) 11,2

55. (v13-101-19) 22,75 g Ca_3P_2 dan olingan fosfinning to'la yonishidan hosil bo'lgan fosfor (V) oksidning massasini (g) toping.
A) 18,25 B) 18,75 C) 17,75 D) 17,1

56. (v13-107-28) $Ca_3(PO_4)_2 + SiO_2 + C \leftrightarrows CaSiO_3 + CO + P$ Ushbu reaksiya asosida 3,1 g fosfor olingan bo'lsa qancha (l) is gazi ajralgan? Reaksiya tenglamasidagi barcha koeffitsientlar yig'indisini aniqlang.
A) 5,6; 19 B) 2,8; 20
C) 5,3; 18 D) 2,4; 20

57. (v15-119-14) P kislotalaridan qaysi birida vodorod 2,25%; fosfor 34,83%; kislorod esa 62,92%ni tashkil qiladi?
A) ortofosfat kislota B) fosfit kislota
C) metafosfat kislota D) pirofosfat kislota

58. (v15-128-14) PBr_3 gidrolizlanganda 0,3 mol gaz olingan bo'lsa, reaksiyada hosil bo'lgan ikki asosli kislota formulasi va massasini (g) aniqlang.
A) H_3PO_3; 8,2 B) H_3PO_4; 9,8
C) H_3PO_3; 16,4 D) H_2PO_3; 8,0

59. (v16-110-16) Fosforit yoki apatitni elektr pechida havosiz muhitda SiO_2 va koks ishtikorida qizdirilganda olingan fosfor bug'i maxsus kamerada suv ostida kondensatlandi. Yig'ilgan fosforning tarkibi qanday?
A) P_3 B) P_6 C) P D) P_4

60. (v16-128-31) «Hayot va tafakkur elementi»ni aniqlang.
A) I B) P C) Br D) Pt

61. (v17-101-19) 28 g Me(I) fosfiddan 8,68 g fosfat olindi va noma'lum element fosfiddan uning oksidiga qaraganda uni elektronlari qanchaga katta?
A) 0,25 B) 0,5 C) 1,6 D) 0,625

62. (v17-108-22) Gugurt qutisining yon tomoniga surilgan qizil fosforning reaksiyaga kirishida qaysi elementlar oksidlanadi (1), qaytariladi (2)?
a) fosfor; b) kislorod; c) xlor; d) kaliy.
A) 1-d, 2-a B) 1-a, 2-c
C) 1-c, 2-a D) 1-a, 2-d

63. (v17-110-26) Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
A) 14,2 B) 85,2
C) 98,4 D) 72

64. (v17-112-19) Agar 250 g fosfaritdan 85% unumli 36,89 g fosfor olingan bo'lsa, fosfaritdagi kalsiy ortofosfat massa ulushini (%) aniqlang.
A) 62,7 B) 92,8 C) 86,8 D) 84,0

65. (v17-117-32) Ikki valentli element fosfidida elektronlar soni sulfidnikidan 0,4 martaga kam. Fosfidning necha grammida $138{,}46 \cdot 10^{23}$ neytron mavjud?
A) 54,6 B) 45,5
C) 33,5 D) 64,25

66. (v17-118-8) 14,7 g ortofosfat kislota 33,3 g noma'lum asos bilan reaksiyaga kirishganda $(MeOH)_3PO_4$ tuzi hosil bo'ldi. Bunda qancha (ml) suv hosil bo'ladi?
A) 9,15 B) 3,6 C) 8,1 D) 4,95

67. (v17-120-8) Fosforit yoki apatitni elektr pechida havosiz muhitda SiO_2 va koks ishtirokida qizdirilganda olingan fosfor bug'i maxsus kamerada suv ostida kondensatlandi. Yig'ilgan fosforning tarkibi qanday?
A) P B) P_6 C) P_3 D) P_4

68. (v17-122-7) Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 400 g 4,9% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 2,5 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi kaliy eritmasidan 378 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi KOH massasidan 3,5 marta katta.
A) 87 B) 106 C) 136 D) 68

73. Mineral o'g'itlar

1. (96-13-66) O'g'itlarga quyidagi moddalarning qaysilari qo'shilganda mahsulot "mikroo'g'it" deb ataladi?
1) fosfor; 2) kalsiy; 3) bor; 4) rux; 5) oltingugurt; 6) uglerod; 7) kobalt; 8) molibden.
A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 4, 6, 8
C) 1, 2, 5, 6 D) 3, 4, 7, 8
E) 1, 2, 3, 4

2. (97-4-5) Kaliy fosfat [$A_r(K) = 39$, $A_r(P) = 31$, $A_r(O) = 16$] tarkibidagi oziqlik miqdorining (K_2O va P_2O_5) massa nisbati qanday bo'ladi?
A) 1:2 B) 1:1 C) 2:3
D) 2:1 E) 3:2

3. (97-5-25) Quyidagi qaysi o'g'it tarkibida makroelementlarning massa ulushi ko'proq?
A) ammoniy gidroortofosfat
B) ammoniy digidroortofosfat
C) fosforit uni
D) qo'shaloq superfosfat
E) pretsipitat

4. (97-6-39) Tarkibida 80% kalsiy fosfat bo'lgan xibin apatining 1 tonnasini oddiy superfosfatga aylantirish uchun qancha sulfat kislota kerak bo'ladi?
A) 387,2 kg B) 196,0 kg
C) 200,5 kg D) 350,8 kg
E) 505,8 kg

5. (97-10-26) Quyida berilgan mineral o'g'itlardan qo'sh o'g'itni ko'rsating.
A) $NHANO_3$ B) NH_4Cl
C) $CO(NH_2)_2$ D) $Ca(H_2PO_4)\cdot H_2O$
E) $NH_4H_2PO_4$

6. (98-2-69) Qaysi o'g'it tarkibida ko'proq azot ko'proq bo'ladi?
A) kalsiy nitrat B) ammoniy nitrat
C) kaliy nitrat D) karbamid
E) ammoniy fosfat

7. (98-8-33) Karbonat kislotaning qaysi tuzi mineral o'g'it bo'la oladi?
A) natriy gidrokarbonat B) natriy karbonat
C) kaliy karbonat D) kalsiy karbonat
E) bariy karbonat

8. (98-12-56) Qo'shaloq superfosfatdagi fosforning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 48 B) 32 C) 18 D) 45 E) 25

9. (99-4-52) O'g'itlardan qaysilari oddiy mineral o'g'it hisoblanadi?
1) karbamid; 2) kaliyli selitra; 3) ammofoska; 4) ammiakli selitra; 5) qo'sh superfosfat; 6) kaliy xlorid.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 4 C) 2, 3, 5
D) 2, 4, 5 E) 1, 5, 6

10. (99-8-1) Sanoatda ammofos olish usuli quyidagi qaysi jarayonga asoslangan?
A) $HNO_3 + NH_3 \rightarrow NH_4NO_3$
B) $Ca(OH)_2 + H_3PO_4 \rightarrow CaHPO_4\cdot 2H_2O$
C) $H_3PO_4 + NH_3 \rightarrow (NH_4)_2HPO_4$
D) $Ca_3(PO_4)_2 + H_3PO_4 \rightarrow Ca(H_2PO_4)_2$
E) $Ca_3(PO_4)_2 + H_2SO_4 \rightarrow Ca(H_2PO_4)_2 + CaSO_4$

11. (00-10-12) Superfosfat namunasida fosfor (V) oksidining massa ulushi 20% ni tashkil qiladi. O'g'itdagi kalsiy digidrofosfatning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 33 B) 35 C) 37 D) 31 E) 39

12. (00-10-14) Agar 1 ga maydonga solinadigan azot massasi 60 kg bo'lsa, shu maydonni azot bilan ta'minlash uchun solinadigan ommaviy nitrat massasini (kg) aniqlang.
A) 151,5 B) 119,5 C) 171,4
D) 221,2 E) 241,4

13. (01-5-34) Pretsipitat o'g'itiga qaysi formula mos keladi?
A) $Ca_3(PO_4)_2$ B) $Ca(H_2PO_4)_2$
C) $Ca(H_2PO_4)_2 + 2CaSO_4$ D) $(NH_4)_2HPO_4$
E) $CaHPO_4\cdot 2H_2O$

14. (04-1-695) O'g'itlardan qaysilari oddiy o'g'it hisoblanadi?
1) karbamid; 2) ammofoska; 3) ammoniy sulfat; 4) ammiakli selitra; 5) qo'sh superfosfat; 6) kaliy nitrat.
A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 3, 4, 5
E) 1, 4. 5, 6

15. (v5-106-12) Pretsipitatdagi fosforning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 43,66 B) 15,12 C) 18,02
D) 12,25 E) 26,5

16. (v12z-218-20) Pretsipitat qaysi reaksiya asosida olinadi?
A) $Ca_3(PO_4)_2 + 2H_2SO_4 \rightarrow$
B) $Ca(OH)_2 + HPO_3 \rightarrow$
C) $Ca(OH)_2 + H_3PO_4 \rightarrow$
D) $Ca_3(PO_4)_2 + H_3PO_4 \rightarrow$

17. (v12c-106-2) Qo'sh o'g'itni aniqlang.
A) KNO_2 B) $NaNO_3$
C) NH_4NO_3 D) $CO(NH_2)_2$

18. (v12c-124-5) Superfosfatdagi kalsiy digidrofosfatning massa ulushi 35% ga teng. Bu o'g'itdagi fosfor (V) oksidning massa ulushini (%) toping.
A) 17,15 B) 21,2
C) 22,12 D) 35

19. (v13-103-13) O'simliklarda qaysi element yetishmaganda o'sish kechikadi?
A) azot B) azot va fosfor
C) temir D) fosfor va kaliy

20. (v13-145-14) Tarkibida 85% $Ca_3(PO_4)_2$ bor 500 kg fosforitdan qancha oddiy superfosfat (kg) olish mumkin?
A) 612 B) 694 C) 649 D) 654

21. (v17-112-27) Necha gramm kaliy digidrofosfati tarkibida 47 g kaliyli ozuqa element bo'ladi?
A) 85 B) 102
C) 153 D) 136

22. (v17-116-30) Necha gramm kaliy digidrofosfati tarkibida 142 g fosforli ozuqa elementi bo'ladi?
A) 136
B) 204
C) 272
D) 36

74. VI guruh metallmaslari. Kislorod. Ozon. Oltingugurt. Oltingugurtning birikmalari. Sulfat kislota

1. (96-4-33) Oltingugurt qaysi modda bilan reaksiyaga kirishmaydi?
A) H_2 B) Cl_2 C) O_2 D) I_2 E) Fe

2. (96-7-51) Massasi 21,2 g bo'lgan etilbenzol (C_8H_{10}) to'liq yonishi uchun normal sharoitida o'lchangan qancha hajm havo kerak bo'ladi? Kislorodning havodagi hajmiy ulushi 20% ni tashkil etadi.
A) 235,2 l B) 47,04 l
C) 117,6 l D) 94,08 l
E) 188,16 l

3. (96-8-60) Qaysi birikmada oltingugurt peroksidlar tuzilishini eslatadigan bog' hosil qiladi?
A) sulfidlar B) kolchedan C) pirit
D) sulfitlar E) sulfatlar

4. (96-8-78) Massalari 16,17 va 18 u.b. ga teng bo'lgan kislorod atomlari tutgan ozon molekulasi necha xil bo'ladi?
A) 7 B) 8 C) 9
D) 10 E) 12

5. (96-15-38) Laboratoriyada vodorod sulfid qanday olinadi?
A) vodorodga, oltingugurt ta'sir ettirib
B) sulfidlarni termik parchalab
C) sulfidlarga kuchli kislotalar ta'sir ettirib
D) kislotalarga oltingugurt ta'sir ettirib
E) oltingugurt oksidlarini vodorod bilan qaytarib

6. (97-3-1) Necha gramm ozonda $3\cdot 10^{24}$ dona molekula bor?
A) 144 B) 240 C) 195
D) 225 E) 270

7. (97-6-43) Kislorod qaysi modda bilan o'zaro ta'sirlashganda oksidlanadi?
A) vodorod B) ammiak
C) serovodorod D) ftor
E) xlor

8. (97-10-60) Oltingugurt (VI) oksidni nisbatan yuqori temperaturada ushlab turish natijasida uning yarmi oltingugurt (IV) oksid va kislorodga parchalandi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini hisoblang.
A) 70 B) 80 C) 60 D) 64 E) 72

9. (97-11-39) Oltingugurt va temir kukuni 8:14 og'irlik nisbatida olingan bo'lsa, ularning mol nisbatlari qanday bo'ladi?
A) 8:14 B) 4:7 C) 2:1 D) 1:1 E) 1:2

10. (97-11-164) Oltinchi guruh elementlarining vodorodli birikmalarini termik barqarorligi oshib borishi tartibida joylashtirilgan qatorni belgilang:
A) H_2Po, H_2Te, H_2Se B) H_2Te, H_2Se, H_2S
C) H_2Se, H_2S, H_2O D) H_2O, H_2S, H_2Se
E) H_2S, H_2Se, H_2Te

11. (98-1-53) Oltingugurt qaysi moddalar bilan reaksiyada qatnashishi mumkin?
1) nitrat kislota (kons.); 2) suv; 3) vodorod xlorid; 4) sulfat kislota (kons.); 5) ortofosfat kislota.
A) 1, 3 B) 1, 5 C) 2, 3
D) 1, 4 E) 1, 2

12. (98-2-78) Vodorod sulfid bilan oltingugurt (IV) oksid reaksiyasi natijasida 96 g qattiq modda hosil bo'lgan. Bu reaksiyada oltingugurt (IV) oksidning qancha hajmi (n. sh., l) qatnashgan? $A_r(S) = 32$
A) 11,2 B) 22,4 C) 33,6
D) 44,8 E) 67,2

13. (98-8-15) Massasi 245 g bo'lgan Bertole tuzini parchgipanishidan hosil bo'lgan kislorodning miqdorini (mol) hisoblab toping:
A) 1,0 B) 1,3 C) 3,0 D) 1,5 E) 2,0

14. (99-2-45) Konsentrlangan sulfat kislotaning 13 g rux bilan o'zaro ta'siridan qancha hajm (l) vodorod sulfid hosil bo'ladi?
A) 0,896 B) 1,12 C) 2,24
D) 0,448 E) 0,56

15. (99-4-34) Oltingugurt (VI) oksidni bitta molekulasining massasini (g) hisoblang.
A) $1,06\cdot 10^{-22}$
B) $1,33\cdot 10^{-22}$
C) $2,61\cdot 10^{-23}$
D) $10,63\cdot 10^{-23}$
E) $1,89\cdot 10^{-22}$

16. (99-6-35) Agar tabiiy kislorod tarkibida 95% ^{16}O, 4% ^{18}O va 1% ^{17}O bo'lsa, elementning atom massasi qanchaga teng bo'ladi?
A) 16,097 B) 16,068 C) 16,012
D) 15,999 E) 16,318

17. (99-10-25) "Qaldiroq gaz"ning tarkibini ko'rsating:
A) $H_2 + O$ B) $H_2 + O_2$ C) $H_2 + 2O_2$
D) $H_2 + Cl_2$ E) $2H_2 + O_2$

18. (00-1-63) Oltingugurtning karbonsulfid (CS_2) dagi 16% li 200 g eritmasi mo'l miqdordagi kislorodda yondirildi. Bunda n. sh. da o'lchangan necha l SO_2 gazi hosil bo'ladi?
A) 22,4 B) 44,8 C) 39,2
D) 121,4 E) 18,86

19. (00-10-19) Konsentrlangan sulfat kislotaga ko'mir qo'shib qizdirilganda ikki xil gaz hosil bo'ladi. Bu qanday gazlar?
A) SO_3 va CO_2 B) H_2 va CO_2
C) CO_2 va SO_2 D) CO va SO_2
E) CO va SO_3

20. (01-2-83) Kislorod qaysi modda bilan reaksiyaga kirishganda qaytaruvchi bo'ladi?
A) P_4 B) Si C) F_2 D) Cl_2 E) N_2

21. (01-3-54) Massasi 12,25 g bo'lgan bertole tuzining parchalanishidan ajralib chiqqan kislorod qancha massa (g) uglerodni yondirishga yetadi?
A) 32 B) 8 C) 48 D) 1,8 E) 3,2

22. (01-3-55) Massasi 3,16 g bo'lgan $KMnO_4$ ning parchalanishidan ajralib chiqqan kislorod qancha (g) oltingugurtning yonishiga yetadi?
A) 0,248 B) 2,48 C) 24,8
D) 248 E) 0,32

23. (01-3-60) Massasi 12,25 g bo'lgan kaliy xloratdan necha litr kislorod olish mumkin? Reaksiya unumi 90% ga teng.
A) 1,9 B) 2,3 C) 3,02
D) 4,9 E) 5,2

24. (01-3-61) Massasi 5,4 g bo'lgan simob (II) oksiddan qancha hajm (n. sh.) kislorod olish mumkin? Reaksiya unumi 90% ga teng.
A) 0,11 B) 0,25 C) 0,23
D) 0,28 E) 0,34

25. (01-3-100) Hajmi 3,36 l bo'lgan ozonning kaliy yodid eritmasi bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan yod massasini (g) hisoblang.
A) 25,4 B) 12,7 C) 38,1
D) 50,8 E) 11,43

26. (01-4-57) Reaksiya mahsuloti sifatida kislorod ajraladigan reaksiyalarni aniqlang:
1) $Na_2O_2 + CO_2 \rightarrow$; 2) $Na_2O_2 + H_2O \rightarrow$;
3) $KMnO_4 \xrightarrow{t^\circ}$; 4) $KClO_3 \rightarrow$;
5) $Na_2SO_4 + H_2O \xrightarrow{elektroliz}$.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 5
C) 2, 3, 4, 5 D) 3 va 4
E) 1, 2, 3, 4, 5

27. (01-5-5) Massasi 15,8 g bo'lgan kaliy permanganat qizdirilganda, 0,896 l (n. sh.) kislorod olindi. Kislorodning chiqish unumini (%) hisoblang.
A) 80 B) 60 C) 70 D) 40 E) 90

28. (01-5-18) Oltingugurtni mo'l miqdordagi kislorodda yondirganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasi oldin katalizatordan, so'ngra bariy gidroqsid eritmasi orqali o'tkazilganda, qanday modda hosil bo'ladi?
A) bariy sulfid B) bariy sulfat
C) bariy sulfit D) bariy gidrosulfid
E) bariy gidrosulfit

29. (01-6-14) Konsentrlangan H_2SO_4 kislotasi orqali o'tkazish jarayonida qanday gazlarni quritish mumkin?
1) xlor; 2) vodorod sulfid; 3) uglerod (IV) oksid; 4) vodorod xlorid; 5) azot; 6) vodorod.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5
C) 2, 3, 4, 5 D) 3, 4, 5, 6
E) 1, 3, 4, 6

30. (01-6-71) Quyidagi gazlar aralashmasiga HCl + NO + CO mo'l miqdorda O_2 qo'shildi. Hosil bo'lgan aralashma ishqor eritmasi orqali o'tkaziladi. Eritmada yutilmay qolgan gazlar aralashmasini ko'rsating.
A) NO + CO B) CO + O_2
C) HCl + NO D) NO + O_2
E) HCl + O_2

31. (01-8-10) Massasi 16,2 g bo'lgan kumush bilan konsentrlangan sulfat kislota orasidagi reaksiyada hosil bo'lgan gaz moddaning hajmini (l) toping.
A) 1,68 B) 5,6 C) 2,24
D) 4,48 E) 6,72

32. (02-3-21) Vodorod sulfidning mo'l miqdordagi kislorod bilan aralashmasiyondirilganda, aralashma hajmi 67.2 l ga kamaygan. Aralashmada necha litr vodorod sulfid bo'lgan?
A) 56 B) 11,2 C) 22,4
D) 33,6 E) 44,8

33. (02-3-26) Tarkibida 6% (hajmi bo'yicha) ozon bo'lgan ozon-kislorod aralashmasining qanday (ml) hajmi 1 l vodorodni yondirish uchun sarf bo'ladi?
A) 425 B) 405 C) 465
D) 485,5 E) 445

34. (02-3-52) Kislorod orqali miltillagan elektr razryad o'tkazilganda gaz hajmi 1,5 l ga kamaydi. Reaksiyada necha litr kislorod qatnashdi?
A) 6 B) 1,5 C) 3 D) 4,5 E) 5,5

35. (02-9-5) Vodorod sulfidni qaysi moddalar yordamida quritish mumkin?
1) kalsiy oksid; 2) kaliy gidroksid; 3) fosfor (V) oksid; 4) konsentrlangan sulfat kislotaga.
A) 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 2, 3
D) 1, 2, 3, 4 E) faqat 3

36. (02-9-28) Quyidagi reaksiyada oltingugurtning oksidlanish mahsulotini ko'rsating. $S + HNO_{3(kons)} \rightarrow$
A) sulfat kislota B) oltingugurt (IV) oksid
C) sulfit kislota D) oltingugurt (VI) oksid
E) vodorod sulfid

37. (03-11-7) Quyidagi reaksiya natijasida hosil bo'ladigan moddalarni aniqlang.
$H_2S + SO_2 \rightarrow$
A) oltingugurt va suv
B) sulfat kislota va suv
C) sulfit kislota va suv
D) sulfat angidrid va suv
E) sulfat kislota va sulfat angidrid

38. (04-1-581) Tarkibida 2,1 g kislorod bo'lgan havo (n. sh.) hajmi necha litr bo'ladi (kislorodning massa ulushi 0,23 deb hisoblang)?
A) 5,6 B) 7 C) 11,2 D) 22,4 E) 33,6

39. (04-1-592) Reaksiya mahsuloti sifatida kislorod ajralmaydigan reaksiyalarni aniqlang:
1) $Na_2O_2 + CO_2 \rightarrow$; 2) $Na_2O + H_2O \rightarrow$;
3) $KMnO_4 \xrightarrow{t^\circ}$; 4) $KClO_3 \xrightarrow{Kat\ t^\circ}$;
5) $Na_2SO_4 + H_2O \xrightarrow{elektroliz}$.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1 va 2
C) 2 va 3 D) faqat 2
E) 1, 2, 3, 4, 5

40. (v4-102-27) 1,6 g oltingugurtni yondirish uchun qancha hajm (l) havo kerak? Bunda olingan gaz 2 litr suvda eritilganda hosil bo'lgan sulfit kislotaning massa ulushini (%) toping [$\varphi(O_2) = 0,20$].
A) 5,6; 0,3 B) 0,3; 5,8
C) 16,8; 0,61 D) 5,6; 0,2
E) 8,4; 0,30

41. (v4-114-10) Berilgan moddalarning qaysi biri kuchli qizdirilganda kislorod hosil qiladi?
A) ammoniy dixromat
B) magniy karbonat
C) ammoniy nitrat
D) kaliy nitrat
E) kalsiy gidroksid

42. (v4-118-25) Massasi 17,6 g bo'lgan metall sulfidi (metalning oksidlanish darajasi +2) kuydirilganda ajralib chiqqan gaz tarkibida 50,4 g yod bo'lgan eritmani rangsizlantiradi. U qaysi metall?
A) rux B) kalsiy C) temir
D) kadmiy E) mis

43. (v5-107-1) $2,0 \cdot 10^{6}$ kg oltingugurt yondirilganda hosil bo'ladigan SO_2 molekulalari sonini hisoblang.
A) $6,02 \cdot 10^{23}$ B) $6,02 \cdot 10^{20}$
C) $3,76 \cdot 10^{23}$ D) $12,04 \cdot 10^{23}$
E) $3,76 \cdot 10^{19}$

44. (v5-111-10) Biror hajm kislorod ozonlangandan keyin hajmi 5 ml kamayganligi kuzatildi. Bunda necha millilitr ozon hosil bo'ldi va necha millilitr O_2 sarflandi?
A) 15 va 10 B) 10 va 5
C) 5 va 10 D) 20 va 15
E) 10 va 15

45. (v5-159-27) Ishlab chiqarishda oltingugurtning 5% isrof bo'lsa, 1 l 100% li H_2SO_4 olish uchun tarkibida 55% oltingugurt bo'lgan kolchedandan qancha (kg) kerak?
A) 343,68 B) 763,7 C) 624,9
D) 437,2 E) 670,2

46. (v6-101-11) Reaksiya mahsuloti sifatida kislorod ajralmaydigan reaksiya(lar)ni aniqlang:
1) $Na_2O_2 + CO_2 \rightarrow$; 2) $Na_2O + H_2O \rightarrow$;
3) $KMnO_4 \xrightarrow{t^\circ}$; 4) $KClO_3 \xrightarrow{Kat\ t^\circ}$;
5) $Na_2SO_4 + H_2O \xrightarrow{elektroliz}$.
A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 3, 4
C) 2 D) 2, 3

47. (v6-103-28) Hasharotlarga qarshi kurashishda 1 m^3 hajmga 50 g oltingugurt (IV) oksidi ishlatiladi. Balandligi 5 m, yuzi 60 m^2 bo'lgan xona uchun necha mol oltingugurtni oksidlash kerak bo'ladi?
A) 255,6 B) 219,3
C) 234,37 D) 433,7

48. (v6-105-28) Berilgan ma'lumotlarga qaraganda, har yili atmosferaga 100 mln. t oltingugurt (IV) oksid chiqariladi. Undan 95% unumi bilan qancha (mln t) 60% li sulfat kislota olish mumkin?
A) 98 B) 153 C) 212,5 D) 42

49. (v6-106-27) 25,4 g yod olish uchun mo'l miqdordagi kaliy yodid eritmasiga qancha hajm (l, n. sh.) ozon shimdirilishi kerak?
A) 3,36 B) 6,72 C) 2,24 D) 4,48

50. (v7-102-10) Quyidagi moddalarning qaysi biri kuchli qizdirilganda kislorod hosil qiladi?
A) malaxit B) ammoniy nitrat
C) kaliy nitrat D) ammoniy dixromat

51. (v7-106-1) Kislorod va vodorod olish maqsadida suv elektroliz qilinganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligini oshirish uchun qaysi moddani suvga qo'shish kerak?
A) mis sulfat B) natriy xlorid
C) glyukoza D) kaliy gidroksid

52. (v7-114-18) 160 g ozon va azotdan iborat aralashma yetarli miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilgandan so'ng 254 g cho'kma tushdi. Boshlang'ich aralashmadagi azotning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 30 B) 70 C) 20 D) 80

53. (v7-114-26) 6,72 l (n. sh.) kislorod ozonatorga kiritilishidan olingan gaz mo'l miqdordagi kaliy yodid eritmasiga shimdirilganda necha gramm yod olinadi?
A) 50,8 B) 2,54 C) 7,72 D) 76,2

54. (v8-102-34) 1 litr suvda 179,2 l (n. sh.) SO_3 eritilishidan hosil bo'lgan eritmaning (ρ = 1,25 g/ml) qanday hajmida (ml) 22,4 l (n. sh.) SO_3 eritilganda 65,9% sulfat kislota eritmasi hosil bo'ladi?
A) 250 B) 200 C) 157,6 D) 160,3

55. (v8-118-23) 4 g metanni to'la yoqish uchun tarkibida kislorod va ozon bo'lgan 10,18 l (n. sh.) aralashma sarflandi. Sarflangan aralashma tarkibidagi ozonning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 20 B) 25 C) 15 D) 10

56. (v9-103-9) Kislorod orqali elektr uchqunlari o'tkazilganda hajmi 2,5 l (n. sh.)ga kamaysa, uning boshlang'ich hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 31,5 B) 16,5 C) 7,5 D) 24,6

57. (v9-103-31) Oltingugurt (IV) va oltingugurt (VI) oksidlaridan iborat 11,2 l (n. sh.) gazlar aralashmasida $115,584 \cdot 10^{23}$ ta elektron bor bo'lsa, shu aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini hisoblang.
A) 0,20; 0,80 B) 0,40; 0,60
C) 0,34; 0,66 D) 0,25; 0,75

58. (v9-103-32) 120 g piritni qizdirilganda hosil bo'lgan gaz 700 g 20% li kaliy gidroksid eritmasiga yuttirildi. Hosil bo'lgan mahsulot(lar) va u(lar)ning massasini (g) toping.
A) $KHSO_3$, 180; K_2SO_3, 79
B) $KHSO_3$, 60; K_2SO_3, 237
C) K_2SO_3, 316
D) $KHSO_3$, 240

59. (v9-106-3) Konsentrlangan sulfat kislota bilan qalay reaksiyaga kirishganda 22,4 l (n. sh.) gaz ajralgan bo'lsa, reaksiya uchun olingan qalayning massasini (g) hisoblang.
A) 119 B) 59,5 C) 71,4 D) 95,2

60. (v9-120-12) Massalari bir xil bo'lgan quyida keltirilgan moddalarning qaysi biridan eng ko'p miqdorda kislorod olish mumkin?
A) $KClO_3$ B) KNO_3
C) HgO D) $KMnO_4$

61. (v9-124-16) Ishlab chiqarishda oltingugurtning 20% i isrof bo'lsa, 784 g 50% li sulfat kislota olish uchun tarkibida 50% oltingugurt bo'lgan temir kolchadanidan qancha (g) kerak bo'ladi?
A) 320 B) 128 C) 392 D) 256

62. (v9-127-31) Mis va mis (II) oksiddan iborat 40 g aralashma konsentrlangan sulfat kislotada qayta ishlanganda 5,6 l (n. sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi mis va mis (II) oksidning mol nisbatini aniqlang.
A) 1:1,8 B) 1:1,5 C) 1:1 D) 1:1,2

63. (v9-130-5) Mo l miqdordagi kislorod va vodorod sulfid o'zaro ta'sirlashganda hosil bo'lgan suv bug'lari kondensatlangandan so'ng aralashma massasi 7,2 g ga kamaygan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan vodorod sulfid massasini (g) hisoblang.
A) 8,96 B) 13,6 C) 17,4 D) 4,48

64. (v11-104-14) Oltingugurt (VI) oksid va oltingugurt (IV) oksid molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyat(lar) umumiy?
1) markaziy atomning valentligi; 2) markaziy atomning gibridlanishi; 3) bog' qutbli, molekula qutbsiz bo'lishi; 4) molekulaning fazoviy strukturasi.
A) 2 B) 1, 2, 4 C) 2, 3, 4 D) 1

65. (v12z-204-32) 7,2 g pentan to'la yog'ish uchun tarkibida kislorod va ozon bo'lgan 17 litr (n. sh.) aralashma sarflandi. Sarflangan aralashma tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushini (%) hisoblang.
A) 87,3 B) 80,5 C) 15,4 D) 89,2

66. (v12z-206-25) Biror moddani yoqish uchun 44,8 l ozon va kislorod aralashmasi yoki 268,8 l havo sarflansa, aralashmadagi kislorod moddasining hajmiy ulushini (%) aniqlang. (Havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 40 B) 20 C) 60 D) 80

67. (v12z-207-20) Biror moddani yoqish uchun ozonning hajmiy ulushi 20% bo'lgan 11,2 l ozon-kislorod aralashmasi yoki necha l havo sarflanishi mumkin (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%)?
A) 44,8 B) 61,6 C) 56 D) 67,2

68. (v12z-220-30) Biror moddani yoqish uchun 44,8 l ozon va kislorod aralashmasi yoki 268,8 l havo sarflansa aralashmadagi ozon moddasining hajmiy ulushini (%) aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 20 B) 60 C) 80 D) 40

69. (v12z-225-36) Biror moddani yoqish uchun 33,6 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 201,6 l havo sarflansa, aralashmadagi ozonning massa ulushini (%) aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 40 B) 60 C) 50 D) 20

70. (v12z-226-13) CH_4 va C_3H_6 dan iborat 11,2 l (n. sh.) aralashmani yoqish uchun $\varphi(O_2)$ = 86% bo'lgan kislorod va ozon aralashmasidan 1,4 mol sarflandi. Hosil bo'lgan karbonat angidridni o'rta tuzga aylantirish uchun 21% li (ρ = 1,2 g/ml) KOH eritmasidan necha millilitr kerak?
A) 480 B) 400 C) 200 D) 240

71. (v12z-237-15) Biror moddani yoqish uchun 33,6 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 201,6 l havo sarflansa, aralashmaning metanga nisbatan zichligini (g/l) aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 3,6 B) 38,4 C) 2,4 D) 1,7

72. (v12c-101-14) Biror moddani yoqish uchun 11,2 l ozon kislorod aralashmasi yoki 61,6 l havo sarflansa aralashmadan ozon moddasining massasini (g) aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 9,6 B) 4,8 C) 12,8 D) 27,3

73. (v12c-106-19) Biror moddani yoqish uchun 33,6 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 201,6 l havo sarflansa, aralashmaning o'rtacha molekulyar massasini aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 46,08 B) 30,72 C) 57,6 D) 38,4

74. (v12c-106-31) Sulfat kislota fosfor (V) oksid ishtirokida sulfat angidridga aylantirilishi natijasida hosil bo'lgan kislotani aniqlang.
A) ortafosfat kislota B) fosfit kislota
C) metafosfat kislota D) sulfit kislota

75. (v12c-107-6) Biror moddani yoqish uchun 44,8 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 268,8 l havo sarflansa, aralashmadagi ozon moddasining massasini (g) aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 51,2 B) 19,2 C) 38,4 D) 76,8

76. (v12c-111-2) Biroi moddani yoqish uchun ozonning hajmiy ulushi 20% bo'lgan 11,2 l ozon-kislorod aralashmasi yoki necha l havo sarflanish mumkin.(havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%)?
A) 56 B) 61,6 C) 67,2 D) 44,8

77. (v12c-112-14) Biror moddani yoqish uchun 44,8 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 268,8 l havo sarflansa, aralashmaning o'rtacha molekulyar massasini aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%)?
A) 38,4 B) 70,4 C) 76,8 D) 35,2

78. (v12c-117-16) Biror moddani yoqimli uchun ozonning hajmiy ulushi 20% bo lgan 11,2 l ozon-kislorod aralashmasi yoki necha l havo sarflanishi mumkin (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%)?
A) 56 B) 44,8 C) 67,2 D) 61,6

79. (v12c-120-11) Biror moddani yoqish uchun 11,2 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 61,6 l havo sarflansa, aralashmaning massasini (g) aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 17,6 B) 33,6 C) 16,8 D) 35,2

80. (v12c-122-34) Biror moddani yoqish uchun 33,6 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 201,6 l havo sarflansa, aralashmaning zichligini (g/l) aniqlang. (Havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 2,57 B) 38,4 C) 1,14 D) 1,7

81. (v12c-123-18) Biror moddani yoqish uchun 11,2 l ozon-kislorod aralashmasi yoki 61,6 l havo sarflansa, aralashmadagi ozon moddasining hajmiy ulushini (%) aniqlang. (Havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 10 B) 80 C) 90 D) 20

82. (v12c-124-33) CH_4 va C_3H_6 dan iborat 11,2 l (n. sh.) aralashmani yoqish uchun $\varphi(O_2)$ = 86% bo'lgan kislorod va ozon aralashmasidan 1,4 mol sarflandi. Hosil bo'lgan karbonat angidrid 320 g 21% li (ρ = 1,25 g/ml) KOH eritmasidan o'tkazilganda hosil bo'lgan modda(lar) formulasini va massasini aniqlang.
A) 150 g $KHCO_3$
B) 30 g $KHCO_3$; 82,8 g K_2CO_3
C) 103,5 g K_2CO_3
D) 60 g $KHCO_3$; 41,4 g K_2CO_3

83. (v12c-127-9) 186,4 g kinovar yondirilganda hosil bo'lgan modda massasini va ajralgan gazni hajmini toping.
A) 173,6; 17,92 B) 173,6; 22,4
C) 160,8; 17,92 D) 160,8; 16,8

84. (v12c-129-23) 116,3 g kinovar yondirilganda hosil bo'lgan moddaning massasini va ajralgan gazni hajmni toping.
A) 108,5; 8,96 B) 43,4; 6,72
C) 88,4; 8,96 D) 100,5; 11,2

85. (v13-101-27) Oltingugurt quyidagi qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) H_2O; 2) K_2O; 3) HCl; 4) suyultirilgan H_2SO_4; 5) konsentrlangan H_2SO_4; 6) NaOH; 7) C.
A) 5, 6, 7 B) 3, 4, 5
C) 1, 2, 3 D) 2, 4, 6

86. (v13-102-9) Massa ulushi 15% (ρ = 1,1 g/ml) bo'lgan sulfat kislota eritmasi mol miqdorda rux bilan reaksiyaga kirishishi natijasida ajralgan vodorod 11,6 g Fe_3O_4 ni Fe gacha qaytarishi ma'lum bo'lsa, bu reaksiya uchun qancha hajm (ml) eritma olingan?
A) 118,78 B) 116,8
C) 115,3 D) 113,4

87. (v14-101-5) 0,4 mol oltingugurtning mo'l miqdordagi kislorodda yonishidan ajralib chiqqan 11,2 l gazlar aralashmasi katalizatordan o'tkazildi va $Ba(OH)_2$ ning 0,4 M li eritmasiga shimdirildi. Eritma to'la neytrallangan bo'lsa, hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 86,8 B) 93,2 C) 91,6 D) 90

88. (v15-101-18) 5,6 litr (n. sh.) ozon olish uchun talab etiladigan bariy peroksid massasini (g) aniqlang.
A) 42,25 B) 114,75
C) 229,5 D) 126,75

89. (v15-105-9) Ozon-kislorod aralashmasi tarkibidagi ozonning to'liq parchalanishi natijasida aralashma hajmi 35% ga oshadi. Mod miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali dastlabki ozon-kislorod aralashmasining 800 ml (n. sh.) hajmi o'tkazilganda necha gramm yod cho'kmaga tushadi?
A) 7,62 B) 6,35 C) 3,81 D) 3,18

90. (v15-107-13) Ozonni aniqlash reaksiyasida 5 mol ozon eritmaga yutilgan bo'lsa, necha gramm yod hosil bo'lganligini aniqlang.
A) 2540 B) 1905 C) 1270 D) 4780

91. (v15-115-19) O_2 va O_3 aralashmasi massasining 3/4 qismi 62,4 g, 4/5 qismi esa 1,6 mol kelsa, aralashma tarkibidagi O_3 ning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 1,2 B) 0,6 C) 0,8 D) 0,2

92. (v15-117-20) Etan va ozondan iborat aralashmadagi ozonning elektron, proton va neytronlari yig'indisi shu aralashmadagi etanning proton va neytronlari yig'indisidan 1,2 marta katta bo'lsa, aralashmadagi ozonning massa ulushini toping.
A) 0,30 B) 0,44 C) 0,56 D) 0,70

93. (v15-119-7) 0,4 mol oltingugurtning mo'l miqdordagi kislorodda yonishidan ajralib chiqqan 11,2 l gazlar aralashmasi katalizatordan o'tkazildi va $Ba(OH)_2$ ning 0,4M li eritmasiga shimdirildi. Eritma to'la neytrallangan bo'lsa, hosil bo'lgan cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 93,2 B) 91,6 C) 90 D) 86,8

94. (v15-121-19) 20 ml (n. sh.) ozon hosil bo'lishi uchun qancha hajm (ml, n. sh.) kislorod kerak?
A) 25 B) 15 C) 30 D) 40

95. (v15-124-11) 6 ml (n. sh.) kislorod ozonga aylanganda qancha hajmni (ml, n. sh.) egallaydi?
A) 9 B) 1 C) 8 D) 4

96. (v15-130-10) Kislorod sanoatda qanday usul(lar) bilan olinadi?
A) Bertolle tuzini yoki kaliy permanganatni parchalab
B) kaliy dixromatni parchalab
C) vodorod peroksidni parchalab
D) suvni elektroloz qilib yoki havoni suyuqlantirib

97. (v15-130-33) Kislorod ozonga aylanishida hajm 55 ml (n. sh.) ga kamaygan bo'lsa, dastlabki hajmni (ml, n. sh.) toping.
A) 185 B) 110 C) 165 D) 220

98. (v15-131-7) Kislorod va ozon gazlari aralashmasining 5,6 litri (n. sh.) 10 g ga teng bo'lsa, aralashmadagi ozonning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 50 B) 60 C) 40 D) 80

99. (v16-102-24) Ozonni aniqlash reaksiyasida 5 mol ozon eritmaga yutilgan bo'lsa, necha gramm yod hosil bo'lganligini aniqlang.
A) 2540 B) 4780 C) 1905 D) 1270

100. (v16-104-36) 20 ml (n. sh.) ozon hosil bo'lishi uchun qancha hajm (ml,n.sh) kislorod kerak?
A) 40 B) 25 C) 15 D) 30

101. (v16-106-6) Sulfat kislotaning 850 g eritmasi tarkibida $8,428 \cdot 10^{28}$ ta sp^3-gibridlangan orbitallar mavjud bo'lsa, H_2SO_4 ning miqdorini (mol) toping.
A) 5 B) 4 C) 6 D) 3

102. (v16-107-8) Oltingugurt rudalarini "bekorchi jins"lardan tozalash uchun qaysi usuldan foydalaniladi?
A) flotatsiya B) haydash
C) termik qizdirish D) biokimyoviy

103. (v16-109-24) Kislorod va ozon gazlari aralashmasining 5,6 litri (n. sh.) 10 g ga teng bo'lsa, aralashmadagi ozonning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 50 B) 40 C) 60 D) 80

104. (v16-110-17) Oltingugurtning ikkita ioni tarkibida s-elektronlar soni o'zaro teng, p-elektronlar esa 1:2 nisbatda. Ulardan zaryadi katta bo'lgan ionidagi elektronlar sonini toping.
A) 14 B) 18 C) 12 D) 10

105. (v16-111-19) 6 ml (n. sh.) kislorod ozonga aylanganda qancha hajmni (ml, n. sh.) egallaydi?
A) 9 B) 8 C) 2 D) 4

106. (v16-112-28) Berilgan eritmadagi misni sulfid tarzida to'liq cho'ktirish uchun kaliy sulfid tuzi mis (II) sulfat tuzidan 10 g kam sarflansa, necha gramm K_2S sarflangan?
A) 22 B) 44 C) 48 D) 32

107. (v16-115-19) 0,6 mol H_2S mo'l miqdordagi kislorodda yondirildi. Olingan gazning NaOH bilan reaksiyasida hosil bo'lgan nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 16,4 g ga ko'p bo'lsa, o'rta tuz massasini (g) aniqlang.
A) 12,6 B) 37,8 C) 25,2 D) 50,4

108. (v16-115-24) Berilgan eritmadagi misni sulfid tarzida to'liq cho'ktirish uchun kaliy sulfid tuzi mis (II) sulfat tuzidan 10 g kam sarflanadi. Kaliy sulfid o'rniga necha gramm $K_2S \cdot 5H_2O$ sarflanadi?
A) 22 B) 40 C) 32 D) 50

109. (v16-127-18) Kislorod metallar bilan birikkanda qanday xossani namoyon qiladi?
A) oksidlovchi
B) gidratlovchi
C) ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi
D) qaytaruvchi

110. (v17-101-14) 200 g sulfat kislota eritmasida mis metalli eritilganda 13,44 litr (n. sh.) SO_2 ajraldi. Eritmadagi tuz va ortib qolgan kislota massalarining farqi 62,4 g bo'lsa, dastlabki eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 67,2
B) 75,6
C) 53,5
D) 87,5

111. (v17-102-10) Yer qobig'ida eng ko'p tarqalgan elementlar – bu:
A) O_2 va N_2
B) O_2 va Si
C) O_2 va havo
D) O_2 va C

112. (v17-102-28) $H_2SO_4 - S - H_2S$ qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?
A) qaytaruvchilik
B) oksidlovchilik
C) suvda eruvchanligi
D) dissotsialanish darajasi

113. (v17-105-16) Kislorod ozonator orqali o'tkazilganda ozon va kislorod aralashmasi hosil bo'ldi. Aralashmada kislorodning massa ulushi 20% bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 90 B) 85
C) 80 D) 45

114. (v17-107-5) 3 mol CO va CH_4 gazlar aralashmasida jami 12 mol atom mavjud. Ushbu aralashmani to'liq yondirish uchun hajm bo'yicha 20% O_3 saqlagan O_2-O_3 aralashmasidan necha mol kerak?
A) 2,5 B) 5,5 C) 4,1 D) 3,5

115. (v17-107-20) 16,8 g massali S, C va P dan tarkib topgan, undagi P massa ulushi 73,8% va 66,67% molli ulushi bo'lgan aralashmaning yonishi uchun ozon va kisloroddan iborat 13,44 l aralashmasi sarflandi. Ozon va kislorodli aralashmadagi ozonning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 33,33%
B) 40%
C) 60%
D) 66,67%

116. (v17-108-19) 55% li 109 g oleum 9 g suv bilan aralashtirilsa necha foizli oleum hosil bo'ladi?
A) 15,15
B) 85,85
C) 16,95
D) 44,84

117. (v17-110-16) Noma'lum p element $H_2Э$ tarkibli gidrid hosil qildi. Uning yuqori oksidi molekulasida 58 ta elektron mavjud. Yuqori gidroksidning tarkibida vodorodning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 1,38 B) 5,43 C) 2,78 D) 7,24

118. (v17-112-34) Aralashma ulushi 10% bo'lgan 0,2 kg piritdan 70% li sulfat kislotadan qancha olish mumkin (reaksiya unumi 80%)?
A) 300 B) 168 C) 150 D) 336

119. (v17-115-18) Kumush kislorod bilan reaksiyaga kirishmas ekan. Lekin qandaydir modda kumush oksidiga aylantirarkan. Bu qanday modda?
A) azot
B) xlor
C) ozon
D) kislorod

120. (v17-117-15) Ozonatar orqali havo o'tkazilganda gazlar aralashmasining zichligi 5% ga oshgan bo'lsa, bunday aralashmada necha % (hajmiy jihatdan) ozon bor?
A) 10 B) 15 C) 12 D) 8

121. (v17-117-33) 16 g oltingugurt va 200 g sulfat kislotasining 98% li eritmasidagi o'zaro ta'siridan qanday gaz va qanday hajmda (l, n. sh.) hosil bo'ldi?
A) 33,6 SO_2
B) 67,2 SO_2
C) 44,8 H_2S
D) 22,4 H_2

122. (v17-120-9) Sulfat kislotani sanoatda olishni oxirgi bo'lib topgan olim:
A) 1827-y, Gey-Lyussak
B) 1859-y, Glober
C) 1789-y, Grem
D) 1831-y, P. Filipe

123. (v17-125-3) Kislorod ozonator orqali o'tkazilganda ozon va kislorod aralashmasi hosil bo'ldi. Aralashmada ozonning hajmiy ulushi 50% bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 60 B) 55 C) 65 D) 70

124. (v17-128-35) Kislorod ozonator orqali o'tkazilganda zichlik 5% ga ortdi. Hosil bo'lgan aralashma tarkibidagi ozonning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 25 B) 30
C) 10 D) 15

74.1 Oleum

16. (02-3-29) Quyida keltirilgan qaysi reagentlardan ketma-ket foydalanish orqali kumush bami va temir nitratlari aralashmasidan har bir katmonni tegishli birikmalar holida ajratib olish mumkin?
1) natriy piroqsid; 2) osh tuzi; 3) natriy sulfat.
A) 1, 2, 3 B) 2, 1, 3 C) 3, 2, 1
D) 2, 3, 1 E) 1, 3, 2

17. (02-5-61) Vodorod ftorid (plavik) kislotaga odatda vodorod xlorid kislota aralashgan bo'ladi. Aralashgan moddani qaysi reaktiv yordamida aniqlash mumkin?
A) natriy bromid B) kaliy yodid
C) brom D) kumush nitrat
E) yod

18. (02-6-56) Uchta probirkada natriy xlorid, natriy sulfit, natriy karbonat eritmalari bor. Ularni qaysi modda yordamida aniqlash mumkin?
A) xlorid kislota B) kumush nitrat
C) bariy xlorid D) sulfat kislota
E) kalsiy gidroksid

19. (03-3-48) $CuCl_2$ eritmasidan qaysi gaz o'tkazilsa, qora cho'kma hosil bo'ladi?
A) CO_2 B) Cl_2 C) H_2S
D) H_2 E) SO_2

20. (03-6-57) Qo'rg'oshin tuzining eritmasidan qanday gaz o'tkazilganda, qora cho'kma hosil bo'ladi?
A) karbonat angidrid B) azot
C) vodorod sulfid D) kislorod
E) ftor

21. (03-6-59) Kalsiy gidroksid eritmasi orqali qanday gaz o'tkazilganda, oq cho'kma hosil bo'ladi?
A) kislorod B) ammiak
C) vodorod D) uglerod (IV) oksid
E) uglerod (II) oksid

22. (03-12-23) 6 g osh tuzining suvdagi eritmasiga 17 g kumush nitrat eritmasi qo'shilganda, qancha (g) kumush xlorid cho'kmasi hosil bo'ladi?
A) 10 B) 12 C) 14 D) 16 E) 18

23. (05-1-196) Quyida keltirilgan qaysi reagentlardan ketma-ket foydalanish orqali temir, bariy va kumush nitratlari aralashmasidan har bir kationni tegishli birikmalar holida ajratib olish mumkin?
1) natriy gidroksid; 2) osh tuzi; 3) natriy sulfat.
A) 1, 2, 3 B) 2, 1, 3 C) 3, 2, 1
D) 2, 3, 1 E) 1, 3, 2

24. (05-1-198) Kaliy nitrat natriy sulfid va magniy sulfat eritmalami bir-biridan farqlash imkonini beradigan reaktivni tanlang.
A) alyuminiy gidroksid B) temir (III) xlorid
C) xlorid kislota D) lakmus
E) fenolftalein

25. (05-1-328) Quyidagi moddalarning qaysilari Fe^{3+} ioni uchun sifat reaktivi bo'la olmaydi?
1) benzol kislota; 2) fenol;
3) sariq qon tuzi; 4) qizil qon tuzi.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 2, 4

26. (05-1-349) Sulfat va xloridlarni qaysi modda yordamida bir-biridan farqlash mumkin?
A) kumush B) bariy nitrat
C) kalsiy xlorid D) rux
E) natriy silikat

27. (v4-104-28) Quyidagi moddalarning qaysilari yordamida ammoniy ionini aniqlash mumkin?
1) natriy gidroksid; 2) kalsiy gidroksid;
3) bariy gidroksid; 4) sulfat kislota; 5) osh tuzi.
A) 3, 4, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 2, 3
D) 2, 3, 4 E) 1, 3, 5

28. (v5-104-6) Ikkita probirkaning birida toza suv, ikkinchisida kaliy xlorid eritmasi berilgan. Moddalardan har biri qaysi probirkada ekanligini qanday aniqlash mumkin?
1) bug'latib; 2) lakmus eritmasi yordamida;
3) kumush (I) nitrat eritmasi yordamida;
4) fenolftalein eritmasi yordamida.
A) 3, 4 B) 1, 4 C) 1, 2
D) 1, 3 E) 2, 3

29. (v5-123-25) Temir (III) ionining sifat reaksiyasida ishlatiladigan moddani ko'rsating.
A) ammoniy gidroksid B) natriy gidroksid
C) kaliy rodanid D) osh tuzi
E) ammoniy karbonat

30. (v6-107-26) 200 ml natriy sulfid (0,15 mol/l) eritmasi bilan 500 ml (0,04 mol/l) alyuminiy yodid eritmasi aralashtirilishidan hosil bo'lgan eritmaga mo'l miqdorda kumush nitrat eritmasi qo'shilsa, ... g sariq cho'kma hosil bo'ladi.
A) 14,1 B) 7,0 C) 9,4 D) 4,7

31. (v7-111-8) Kumush nitrat eritmasiga qo'shilganda cho'kma hosil bo'ladigan moddalarni tanlang.
1) kaliy bromid; 2) natriy xlorat; 3) litiy yodid;
4) kaliy perxlorat; 5) kaliy ftorid; 6) natriy sulfat.
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5 C) 1, 3 D) 2, 4

32. (v8-101-7) Kumush nitrat eritmasi qo'shilganda cho'kma hosil qiluvchi moddalarni tanlang.
1) kaliy bromid; 2) natriy xlorat; 3) litiy yodid;
4) kaliy perxlorat; 5) kalsiy xlorid; 6) kaliy ftorid; 7) natriy ortofosfat.
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 1, 3, 5, 7 D) 2, 4, 7

33. (v8-122-7) Kumush nitrat eritmasi qo'shilganda cho'kma hosil qilmaydigan moddalarni aniqlang.
1) KBr; 2) $NaClO_3$; 3) LiH; 4) $KClO_4$;
5) $CaCl_2$; 6) KF; 7) Na_3PO_4.
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 1, 3, 5, 7 D) 1, 2, 3, 5, 6

34. (v9-101-9) Xlorid, sulfat va nitrat kislota eritmalari bo'lgan uchta idish berilgan. Qaysi reaktiv yordamida xlorid kislotani aniqlash mumkin?
A) natriy gidroksid B) kumush nitrat
C) bariy xlorid D) kalsiy gidroksid

35. (v9-114-25) Kaliy karbonat, kaliy xlorid va kaliy sulfid eritmalarini qaysi modda yordamida farqlash mumkin?
A) kalsiy gidroksid B) xlorid kislota
C) bariy xlorid D) kumush nitrat

36. (v9-118-36) Noma'lum modda eritmasiga kaliy gidroksid eritmasi qo'shilganda gaz ajraldi, ushbu eritmaga bariy gidroksid ta'sir ettirilganda esa xlorid kislotada eriydigan cho'kma va gaz ajraldi. Noma'lum moddaning formulasini aniqlang.
A) $(NH_4)_2CO_3$ B) $(NH_4)_2SO_4$
C) $BaSO_4$ D) NH_4HCO_3

37. (v15-115-31) Turnbul ko'ki hosil bo'lish reaksiyasining qisqa ionli tenglamasida koeffitsiyenti ar yig'indisi nechaga teng?
A) 12 B) 6 C) 9 D) 8

38. (v15-119-4) Berlin zangorisi hosil bo'lish reaksiyasining qisqa ionli tenglamasida koeffitsiyentlar yig'indisi nechaga teng?
A) 9 B) 6 C) 8 D) 12

39. (v16-108-20) $Al(NO_3)_3$ eritmasida BaJ_2 aniqlash uchun qanday reaktivlardan foydalanish mumkin?
1) Na_3PO_4; 2) $Pb(NO_3)_2$; 3) $FeSO_4$; 4) $Ca(OH)_2$.
A) 3 B) 2, 3 C) 4 D) 1

40. (v16-114-4) Xlorid kislota va xloridlarni aniqlash uchun qaysi kationning eruvchan tuzi ishlatiladi?
A) Ag^+ B) Fe^{2+} C) Cu^{2+} D) Na^+

41. (v16-128-22) Xlorid ionining eritmada mavjudligini aniqlash uchun qaysi birikma ishlatiladi?
A) $Cu(NO_3)_2$ B) $AgNO_3$
C) NaOH D) $FeSO_4$

42. (v17-108-24) Mis (II) oksidi eritmasidan qanday gazni o'tkazganda qora cho'kma tushadi?
A) H_2S B) SO_2
C) HCl) CO_2

77. Kombinatsiyalangan masalalar

1. (99-7-53) Zichligi 1,26 g/mol bo'lgan 40% li nitrat kislota eritmasining 100 ml hajmini ammiak bilan neytrallash natijasida hosil bo'lgan mahsulot massasini (g) aniqlang. Reaksiya unumi 90% ni tashkil etgan deb hisoblang.
A) 156 B) 212 C) 320
D) 312 E) 57,6

2. (99-7-55) 120 g ammoniy nitratning parchalanishidan hosil bo'ladigan azot (I) oksid miqdoriga teng bo'lgan mahsulotni hosil qilish uchun necha gramm magniy bilan nitrat kislota reaksiyaga kirishishi kerak?
A) 72 B) 144 C) 36
D) 228 E) 216

3. (00-3-54) Ammoniy karbonat va natriy sulfatdan iborat 59,5 g aralashma suvda eritilib, unga bariy xlorid eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan cho'kma 49,25 g bo'lgan. Boshlang'ich tuzlarning massa ulushlarini hisoblang.
A) 0,4 i 0,6 B) 0,35 i 0,65
C) 0,3 i 0,7 D) 0,33 i 0,67
E) 0,50 i 0,50

4. (00-4-56) Kaliy gidrosulfitning 1,6 M li eritmasining 80 ml hajmi bilan kaliy sulfitning 80 ml eritmasi aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmaga 2 ml kaliy gidroksid eritmasi qo'shildi. Natijada kaliy gidrosulfit konsentratsiyasi 0,617 mol/l ga yetgan. Eritmaga qo'shilgan KOH eritmasining molyar konsentratsiyasini hisoblang.
A) 16 B) 14 C) 12 D) 13 E) 11

5. (00-9-79) Massa ulushi 0,2 bo'lgan 50 ml hajmdagi nitrat kislota eritmasiga (ρ = 1,12 g/ml) massa ulushi 0,15 bo'lgan 45 ml hajmdagi (ρ = 1,17 g/ml) natriy gidroksid eritmasi aralashtirildi. Hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 14,38 B) 13,93 C) 13,08
D) 15,08 E) 14,08

6. (01-1-37) Kaliy digidrofosfit formulasini ko'rsating.
A) KH_2PO_4 B) $K_2H_2P_2O_7$
C) KH_2PO_3 D) KH_2PO_2
E) bunday tuz mavjud emas

7. (01-3-21) Kaliy nitratning massa ulushi 0,2 bo'lgan 700 g eritmasiga 300 ml suv qo'shildi. Eritmadagi kaliy nitratning massa ulushini toping.
A) 0,01 B) 0,03 C) 0,14
D) 0,05 E) 0,06

8. (01-3-27) Kaliy nitratning massa ulushi 0,06 bo'lgan 400 g eritmasi bug'lanishi natijasida eritma massasi 200 g ga kamaydi. Qolgan eritmadagi kaliy nitratning massa ulushini toling.
A) 0,24 B) 0,08 C) 0,09
D) 0,12 E) 0,04

9. (01-3-37) Massa ulushi 0,2 bo'lgan 40 ml (ρ = 1,14 g/ml) sulfat kislota eritmasi massa ulushi 0,35 bo'lgan 50 ml (ρ = 1,38 g/ml) o'yuvchi natriy eritmasi bilan aralashtirildi. Eritmadagi moddalarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida hosil bo'lgan o'rta tuzning eritmadagi massa ulushini toping.
A) 0,115 B) 0,162 C) 0,110
D) 0,140 E) 0,200

10. (01-3-93) Hajmi 2,24 l (n. sh.) bo'lgan CO va CO_2 aralashmasi yonishi natijasida hosil bo'lgan gazni 7,4 g so'ndirilgan ohakli eritma orqali o'tkazilganda hosil bo'lgan cho'kma massasini (g) hisoblang.
A) 5 B) 10 C) 15 D) 20 E) 22,5

11. (01-6-62) Ammiakni katalitik oksidlashda NO ning unumi 98%, gazni yuttirish kolonnasida HNO_3 kislotaning chiqishi 94% bo'lsa, 1 m^3 NH_3 dan massa ulushi 60% li, zichligi 1,367 g/ml bo'lgan nitrat kislotadan necha litr olish mumkin?
A) 1,45 B) 1,92 C) 2,15
D) 3,16 E) 2,77

12. (01-7-35) Massalari 100 g dan bo'lgan bariy xloridning 8,32% li eritmasi bilan natriy sulfatning 14,2% li eritmalari aralashtirilgandan keyin cho'kma ajratib olindi. Eritmadagi tuzlarning modda miqdorlarini hisoblang.
A) 0,04 $BaCl_2$ 0,08 NaCl
B) 0,045 NaCl, 0,075 Na_2SO_4
C) 0,075 Na_2SO_4 0,06 NaCl
D) 0,04 Na_2SO_4 0,06 NaCl
E) 0,06 Na_2SO_4, 0,08 NaCl

13. (01-9-12) Fosforning hajmi cheklangan havo ishtirokida yonishi natijasida 12,4 g oq fosfor reaksiyaga kirishganligi ma'lum bo'lsa, reaksiyada necha litr havo ishtirok etgan? Shu sharoitda hosil bo'lgan oksidning massasi (g) qanday bo'ladi [$\varphi(O_2)$ = 0,2].
A) 33,6; 22 B) 44,8; 56,8
C) 56; 22 D) 67,2; 56,8
E) 44,8; 22

14. (01-11-28) Massasi 1 kg bo'lgan modda tarkibida 0,2743 g elektron mavjud. Agar elektron massasi 1/1823 m.a.b ga teng bo'lsa; modda formulasini toping.
1) ammiak; 2) metan; 3) deyterometan;
4) vodorod sulfid; 5) og'ir suv;
6) vodorod ftorid; 7) suv.
A) 3, 5, 6 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 5
D) 1, 6, 7 E) 4, 5, 7

15. (02-3-1) Ammoniy gidrofosfat va natriy gidrofosfat aralashmasidagi kislorod atomlari soni $1{,}2 \cdot 10^{24}$ bo'lsa, ularni digidrofosfatlarga aylantirish uchun 10 molyarli HCl eritmasining qanday hajmi (ml) talab etiladi?
A) 100 B) 50 C) 200 D) 75 E) 150

16. (02-3-2) Tarkibida massa ulushlari 0,0266 va 0,0707 bo'lgan natriy gidroksid va natriy karbonatlar bo'lgan eritmaning 150 g massasiga 50 g miqdorda natriy gidrokarbonat eritmasi qo'shilganda, natriy gidroksidning massa ulushi 0,01 gacha kamaygan. Hosil bo'lgan eritmadagi natriy karbonatning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 4,86 B) 5,23 C) 7,95
D) 6,28 E) 7,02

17. (02-3-4) Hajmi 160 ml bo'lgan $AlCl_3$ ning 0,45 molyarli eritmasi bilan konsentratsiyasi 9 molyar bo'lgan natriy gidroksidning 32 ml hajmi aralashtirilgan va shu aralashma orqali zichligi 0,795 g/l (n. sh.) bo'lgan 11,2 l vodorod bromid bilan vodorod aralashmasi o'tkazilgan. Shu jarayonda hosil bo'lgan cho'kma massasini (g) hisoblang.
A) 3,76 B) 4,36 C) 5,94
D) 4,89 E) 6,98

18. (02-3-9) Massa ulushi 10% bo'lgan rux yodid eritmasining 159,5 g miqdoriga ishqor eritmasidan oz miqdorda qo'shilganda cho'kma hosil bo'ladi. Bu cho'kma to'la erib ketishi uchun natriy gidroksidning 4 M li eritmasi (ρ = 1,15 g/ml) dan necha gramm qo'shish kerakligini hisoblang.
A) 21,75 B) 22,5 C) 23,0
D) 24,5 E) 25,0

19. (03-2-6) Ortofosfat kislotaning 25% li eritmasining qancha miqdorida (g) 142 g fosfat angidrid eritilganda, 52% li kislota eritmasi hosil bo'ladi?
A) 354,2 B) 444,5 C) 452,4
D) 254,4 E) 445,2

20. (03-3-36) Pirit kuydirilganda, uning massasi 20% ga kamaydi. Hosil bo'lgan qattiq moddalar aralashmasida Fe_2O_3 ning massa ulushini hisoblang.
A) 40 B) 50 C) 66,7
D) 72 E) 80

21. (04-1-111) Azot, etilen, geliy va uglerod (II) oksid aralashmasida moddalarning hajmiy tarkibi (%) tegishli ravishda:
1) 0,8; 2) 0,75; 3) 0,85 va 4) 0,70 bo'lgan. Sanab o'tilgan (1–4) holatlarda keltirilgan ma'lumotlarning qaysilari ortiqcha ekanligini aniqlang.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 3, 4
D) 1, 2 E) 2, 4

22. (04-1-646) Kaliy gidroksidning (ρ = 1,4 g/sm^3) 100 ml 40% li eritmasidan vodorod sulfidning mo'l miqdordagi kislorodda yonishidan hosil bo'lgan mahsulot o'tkazilganda nordon tuz hosil bo'ladi. Reaksiya uchun olingan vodorod sulfidning hajmini (l, n. sh.) hisoblab toping.
A) 9,6 B) 22,4 C) 5,6
D) 11,2 E) 7,0

23. (04-1-665) Kaliy nitratning massa ulushi 10,1% bo'lgan 300 g eritmasi avval bug'latildi. So'ngra ajralib chiqqan tuz qattiq qizdirildi. Qizdirishdan keyin necha gramm qattiq modda qolgan?
A) 17,0 B) 20,2 C) 10,1
D) 8,5 E) 25,5

24. (v4-103-28) Kaliy nitratning massa ulushi 10,1% bo'lgan 150 g eritmasi avval bug'latildi. So'ngra ajralib chiqqan tuz qattiq qizdirildi. Qizdirishdan keyin necha mol qattiq modda qolgan?
A) 0,17 B) 25,5 C) 17,0
D) 8,5 E) 0,15

25. (v4-105-26) 5,6 l vodorod bilan 6,72 l xlor aralashmasi o'zaro ta'sirlashgandan keyin, reaksiya mahsuloti 95,4 ml suvda eritildi. Dastlabki aralashmada qanday gaz mo'l miqdorda bo'lganligini va hosil bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini toping.
A) H_2; 17,6 B) Cl_2; 16,06
C) Cl_2; 18,67 D) H_2; 16,7
E) H_2; 18,67

26. (v4-108-34) Massasi 93 g bo'lgan eritmadagi natriy gidroksid va natriy karbonatning massa ulushlari tegishli ravishda 1,42% va 2,7% bo'lgan. Shu eritmaga 4,7 g natriy gidrokarbonat qo'shilgandan keyin, eritmadagi natriy karbonat va gidrokarbonatning massa ulushlarini (%) hisoblang.
A) 6,15; 1,97 B) 5,90; 1,78
C) 4,24; 3,15 D) 5,28; 1,15
E) 6,41; 2,84

27. (v4-109-11) Fosforning hajmi cheklangan havo ishtirokida yonishi natijasida 26,66 g oq fosfor reaksiyaga kirishganligi ma'lum ... bo'lsa, reaksiyada necha litr havo ishtirok etgan? Shu sharoitda hosil bo'lgan oksidning massasi (g) qanday bo'ladi? [$\varphi(O_2)$ = 0,2]
A) 50,4; 33,0 B) 72,24; 47,3
C) 33,6; 22 D) 72,24; 69,06
E) 47,3; 72,24

28. (v4-110-18) Ortofosfat kislotaning 70 ml 65% li (ρ = 1,47 g/ml) suvli eritmasidagi vodorod atomlari sonini hisoblang.
A) $1{,}2 \cdot 10^{24}$ B) $5{,}2 \cdot 10^{24}$
C) $1{,}4 \cdot 10^{24}$ D) $3{,}6 \cdot 10^{24}$
E) $2{,}3 \cdot 10^{24}$

29. (v5-118-29) Azot (IV) oksidning kislorod ishtirokisiz mo'l miqdordagi KOH eritmasiga yuttirilishidan 0,4 mol kaliy nitrat hosil bo'ldi. Bunda yana qanday modda necha gramm hosil bo'ladi?
A) boshqa modda hosil bo'lmaydi
B) ammoniy gidroksid – 35
C) kaliy nitrit – 34
D) ammiak – 34
E) nitrat kislota – 50

30. (v5-121-35) 6,9 ml 32% li (ρ = 1,16 g/ml) xlorid kislota eritmasiga potashning 47,6 g eritmasi aralashtirilganda hosil bo'lgan mahsulotni to'liq neytrallash uchun 15,23 ml 5% li (ρ = 1,05 g/ml) natriy gidroksidi sarflandi. Potash eritmasining konsentratsiyasi ... %.
A) 4,5 B) 7,2 C) 6,4
D) 5,8 E) 2,9

31. (v6-101-25) Nitrat kislota (0,1 mol/l) va natriy gidroksid (0,4 mol/l) eritmalaridan 0,5 l dan olib aralashtirilganda hosil bo'lgan

eritmadagi (ρ = 1 g/ml) natriy ionining massa ulushini (%) toping.
A) 0,46 B) 0,345 C) 0,23 D) 0,31

32. (v6-103-34) Kaliy xlorid va kaliy sulfatdan iborat 67,1 g aralashmaga yetarli miqdordagi konsentrlangan sulfat kislota bilan ishlov berilgandan so'ng olingan tuz suvda eritildi. Eritmadagi sulfat ionini to'la cho'ktirish uchun tarkibida 83,2 g bariy xlorid bo'lgan eritma sarflangan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi tuzlarning mol nisbati qanday bo'lgan?
A) 1:3 B) 1:2 C) 1:1,5 D) 1:1

33. (v6-106-19) Hajmi 2,24 l (n. sh.) bo'lgan CO va CO_2 aralashmasi yonishi natijasida hosil bo'lgan gazni 7,4 g so'ndirilgan ohakli eritma orqali o'tkazilganda hosil bo'lgan cho'kma miqdorini (g) hisoblang.
A) 10 B) 5 C) 0,1 D) 1,5

34. (v6-110-19) Ozonning hajmiy ulushi 22% bo'lgan azot va ozondan iborat 75 g aralashma yetarli miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilganda necha gramm yod ajraladi?
A) 22,8 B) 87,3
C) 129,4 D) 267,5

35. (v6-110-34) Bariy xloridning 17% li 800 g eritmasiga qanday 3 massada (g) glauber tuzi qo'shilsa, bariy xloridning massa ulushi 10% ga teng bo'ladi?
A) 98 B) 84 C) 112 D) 78

36. (v6-111-27) Vodorod sulfidni yetarli miqdordagi xlorli suv ($Cl_2 + H_2O$) bilan oksidlaganda hosil bo'lgan sulfat va xlorid kislotalarning massa (g) nisbatini toping.
A) 1:2,98 B) 1:8 C) 1:4,5 D) 1:0,65

37. (v6-114-29) Ammiakni katalitik oksidlashda NO ning unumi 96%, gazni yuttirish kolonnasida NNO_3 kislotaning chiqishi 92% bo'lsa, 1 l NH_3 dan necha litr 52% li (ρ = 1,432 g/ml) nitrat kislota olish mumkin?
A) 3,33 B) 1,45 C) 3,16 D) 2,15

38. (v6-115-34) Natriy bromid va natriy xloriddan iborat 16,15 g aralashma suvda eritilib, uning ustidan mo'l miqdorda xlor gazi o'tkazildi. Shu eritmadagi xlor ionini to'la cho'ktirish uchun kumush nitratning 0,1 mol/l li eritmasidan 2 l sarflandi. Boshlang'ich aralashmadagi natriy bromidning massa ulushini (%) toping.
A) 5,85 B) 36,23 C) 63,78 D) 10,7

39. (v6-118-34) Bariy xloridning 20% li 600 g eritmasiga qanday massada (g) glauber tuzi qo'shilsa, bariy xloridning massa ulushi 10% ga teng bo'ladi?
A) 81 B) 79
C) 90 D) 103

40. (v6-143-34) Qo'rg'oshin kaliy ishqorida asta-sekin eritilganda (kaliy geksagidroksoplyumbat (II)) olingan gaz avval 400°C li mis (II) oksidi bo'lgan nayga, undan so'ng fosfor (V) oksidi bo'lgan nayga (t = 25°C) kiritildi. Agar ikkinchi nayning massasi 0,36 g ga ortgan bo'lsa, qo'rg'oshinning massasini (g) hisoblang.
A) 5,34 B) 3,12
C) 6,91 D) 4,14

41. (v7-103-18) Fosforni oksidlash uchun 11,2 l (n. sh.) kislorod sarflandi. Hosil bo'lgan fosfor angidridini 320 g 10% li natriy ishqor eritmasida eritildi. Hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 13,5 B) 17,75
C) 16,3 D) 20,2

42. (v7-109-27) Fosforni 90% li (ρ = 1,5 g/ml) nitrat kislota bilan oksidlab olingan ortofosfat kislotadan o'rta tuz hosil qilish uchun 240 g 5% li natriy gidroksid sarflandi. Reaksiyada qatnashgan nitrat kislota hajmini (ml) hisoblang.
A) 21,2 B) 35 C) 70 D) 23,3

43. (v7-111-18) Ozon va kisloroddan iborat 80 g aralashma yetarli miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilganda necha gramm yod ajraladi? Boshlang'ich aralashmadagi kislorodning hajmiy ulushi 50% ga teng.
A) 48 B) 254 C) 212 D) 63,5

44. (v7-111-26) Tarkibida HCl va NaCl bo'lgan eritmani neytrallash uchun 200 ml 0,5 M li NaOH eritmasi sarflandi. Hosil bo'lgan eritma tarkibidagi barcha Cl^- ionlarini cho'ktirish uchun esa 200 ml 2 molyarli $AgNO_3$ eritmasi zarur bo'ldi. Dastlabki aralashma tarkibidagi moddalarning mol nisbatini aniqlang.
A) 1:1 B) 1:3 C) 1:4 D) 1:2

45. (v7-172-28) Vodorod sulfidning mo'l miqdordagi kislorodda yonishidan hosil bo'lgan mahsulot natriy gidroksidning 20% li (ρ = 1,2 g/ml) 400 ml eritmasidan o'tkazilganda o'rta tuz hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan vodorod sulfidning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 26,88 B) 53,76 C) 13,44 D) 107,5

46. (v8-101-25) 20% li 850 g kumush nitrat eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda kaliy galogenid bo'lgan 303,5 g eritma qo'shildi. Cho'kma ajratilgandan so'ng 10% li eritma hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi tuzning eritmasi ishlatilgan?
A) kaliy bromid B) kaliy xlorid
C) kaliy ftorid D) kaliy yodid

47. (v8-101-35) 70% li 100 g nitrat kislota eritmasida kumush eritilganda kislotaning massa ulushi 27% ga teng bo'ldi. Ushbu eritmaga 35,1% li 50 g natriy xlorid eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi moddalarning miqdorini (g) aniqlang.
A) 25,5; 32,2
B) 20,3; 25,6
C) 38,2; 9,7
D) 15,1; 19

48. (v8-102-24) Hajmi 400 ml bo'lgan xlorid kislota va alyuminiy xlorid eritmasidan cho'kma hosil bo'lishi tugaguncha ammoniy gidroksidning 2,5 molyarli eritmasidan 200 ml sarflandi. Eritma bug'latildi va cho'kma massasi o'zgarmay qolguncha kuydirildi, qoldiq massasi 5,1 g. Boshlang'ich eritmadagi moddalarning molyar konsentratsiyalarini (berilgan tartibda) hisoblang.
A) 0,2; 0,1 B) 0,50; 0,25
C) 0,10; 0,15 D) 0,2; 0,4

49. (v8-103-35) 70% li 100 g nitrat kislota eritmasida kumush eritilganda kislotaning massa ulushi 54% ga teng bo'ldi. Ushbu eritmaga 15% li 39 g natriy xlorid eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi moddalarning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 9,7; 32,2 B) 8,5; 57,4
C) 12,2; 29,3 D) 6,5; 43,8

50. (v8-104-24) Natriy gidroksid va natriy karbonatlarning massa ulushi tegishli ravishda 0,2% va 1,06% bo'lgan 400 g eritmaga 2,52 g natriy gidrokarbonat qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi (ρ = 1 g/ml) gidrokarbonat va karbonat anionlarining molyarligini hisoblang.
A) 0,01; 0,07
B) 0,025; 0,15
C) 0,03; 0,05
D) 0,075; 0,125

51. (v8-104-31) Vodorod, is gazi va metandan iborat 15,68 l (n. sh.) aralashmaning to'la yonishi uchun 89,6 l (n. sh.) havo (φ_{O_2} = 0,2) sarflandi va 13,5 g suv hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi vodorod miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,25 B) 0,15 C) 0,45 D) 0,30

52. (v8-106-24) Natriy gidroksid va natriy karbonatlarning konsentratsiyasi tegishli ravishda 0,2 mol/l va 0,3 mol/l bo'lgan 250 ml (ρ = 1 g/ml) eritmaga 5,88 g natriy gidrokarbonat qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi (ρ = 1 g/ml) gidrokarbonat va karbonat anionlarining molyarligini hisoblang.
A) 0,02; 0,125 B) 0,08; 0,5
C) 0,02; 0,03 D) 0,07; 0,075

53. (v8-107-31) Is gazi, vodorod va metandan iborat 20,16 l (n. sh.) aralashmaning to'la yonishi uchun 23,52 l (n. sh.) kislorod sarflandi va 19,8 g suv hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi vodorodning hajmini (n. sh.) hisoblang.
A) 6,72 B) 4,48 C) 11,2 D) 8,96

54. (v8-110-25) Kaliy xloratning termik parchalanishidan (400°C, MnO_2) olingan gaz ozonator orqali o'tkazilib kaliy yodid eritmasiga shimdirilganda 15,24 g yod ajraldi. Reaksiyada qatnashgan kaliy xloratning miqdorini (g) hisoblang.
A) 7,35 B) 6,12 C) 6,35 D) 4,90

55. (v8-112-24) Hajmi 200 ml bo'lgan xlorid kislota va alyuminiy xlorid eritmasidan cho'kma hosil bo'lishi tugaguncha ammiakning 5 molyarli eritmasidan 44 ml sarflandi. Eritma bug'latildi va cho'kma massasi o'zgarmay qolguncha kuydirildi, qoldiq massasi 3,06 g. Boshlang'ich eritmadagi moddalarning molyar konsentratsiyalarini (berilgan tartibda) hisoblang.
A) 0,10; 0,04 B) 0,04; 0,06
C) 0,10; 0,05 D) 0,2; 0,3

56. (v8-116-31) Is gazi, metan va atsetilendan iborat 40,32 l (n. sh.) aralashma yondirilganda, 53,76 l (n. sh.) CO_2 va 43,2 g H_2O hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi moddalar (berilgan tartibda) hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 11,2; 20,16; 8,96 B) 8,96; 17,92; 13,44
C) 8,96; 22,4; 8,96 D) 6,72; 20,16; 13,44

57. (v8-119-35) 70% li 100 g nitrat kislota eritmasida kumush eritilganda kislotaning massa ulushi 54% ga teng bo'ldi. Ushbu eritmaga 15% li 39 g natriy xlorid eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi moddalarning miqdorini (g) aniqlang.
A) 9,7; 32,2 B) 8,5; 57,4
C) 12,2; 29,3 D) 6,5; 43,8

58. (v8-126-35) Nitrat kislota eritmasiga mo'l miqdorda mis metalli qo'shilishidan olingan 13,4 l (n. sh.) gazlar aralashmasi 2 l 0,2 molyarli bariy gidroksid eritmasidan o'tkazilganda bariy gidroksidning konsentratsiyasi ikki marta kamaygan bo'lsa, reaksiyada ishtirok etgan misning massasini (g) hisoblang. $A_r(Cu) = 64$.
A) 12,8 B) 32,0 C) 25,6 D) 19,2

59. (v9-102-24) 49 g bertolle tuzini (katalizatorsiz) yuqori temperaturada qizdirish natijasida olingan mahsulotdan kaliy xlorid ajratib olindi. Mahsulotning qolgan qismiga konsentrlangan sulfat kislota ta'sir etganda hosil bo'lgan (havoda tutaydigan) suyuq moddaning massasini (g) toping.
A) 60,3 B) 40,2 C) 30,15 D) 58,3

60. (v9-110-28) Oltingugurt mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasi oldin katalizator dan, so'ngra bariy gidroksid eritmasidan o'tkazilsa qanday modda hosil bo'ladi?
A) bariy sulfid B) bariy gidrosulfid
C) bariy sulfat D) bariy sulfit

61. (v9-112-4) Kaliy xlorid, kaliy nitrat va kaliy permanganatdan iborat 86,9 g aralashma qizdirilganda 6,72 l (n. sh.) gaz shuncha miqdordagi aralashmaga konsentrlangan xlorid kislota qo'shilganda 11,2 l (n. sh.) gaz ajralsa, ushbu aralashmadagi kaliy ionining miqdorini (mol) aniqlang.
A) 1,0 B) 0,6 C) 0,8 D) 1,2

62. (v9-126-34) Izopren va kislorod aralashmasi yonishidan 33,6 l (n. sh.) karbonat angidrid ajraldi. Ortib qolgan izoprenni to'la gidrogenlash uchun 0,4 mol vodorod sarflandi. Boshlang'ich aralashmadagi uglevodorod hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 15,68 B) 11,2 C) 4,48 D) 6,72

63. (v9-128-2) NO va NO_2 dan iborat 2,24 l (n. sh.) aralashmada 0,904 mg elektron, mavjud bo'lsa, undagi gazlarning hajmiy ulushini hisoblang (elektronning massasi proton massasidan 1836 marta kichik).
A) 0,25; 0,75 B) 0,8; 0,2
C) 0,5; 0,5 D) 0,6; 0,4

64. (v9-128-34) Piritning kuydirilishidan olingan gaz suvda eritildi va unga brom rangsizlanguncha tomchilatib bromli suv qo'shildi. So'ngra ortiqcha miqdorda bariy xlorid eritmasi qo'shildi. Cho'kma filtrlanib quritilganda 93,2 g ni tashkil qildi. Reaksiyada qatnashgan piritning massasini (g) hisoblang.
A) 38,4 B) 24
C) 25,6 D) 32

65. (v11-101-7) Natriy gidroksid va karbonat tutgan 112,8 g aralashmaga 250 g xlorid kislotasi qo'shilganida, (n. sh. da) 17,92 l gaz ajralib chiqdi va 130,85 g osh tuzi bilan natriy gidroksid tutgan eritma hosil bo'ldi. Xlorid kislota eritmasining foiz konsentratsiyasini (% da) aniqlang.
A) 30,66 B) 7,3
C) 23,36 D) 11,68

66. (v11-102-7) Natriy gidroksid va karbonat tutgan 112,8 g aralashmaga 200 g xlorid kislotasi solinganida, (n. sh. da) 17,92 l gaz ajralib chiqdi va 130,85 g osh tuzi va natriy gidroksid tutgan eritma hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi moddalarning og'irliklarini aniqlang.
A) 24 va 88,8 B) 28 va 84,8
C) 20 va 92,8 D) 32 va 80,8

67. (v11-106-9) Massasi 150 g bo'lgan 7,5% li natriy karbonat eritmasi bilan 120 g massali alyuminiy nitrat eritmasi aralashtirilganda reaksiya to'liq sodir bo'ldi. Hosil bo'lgan yangi eritmadagi moddaning massa ulushini (ω%) va alyuminiy nitratning dastlabki konsentratsiyasini (%) hisoblang.
A) 15; 18 B) 6,93; 12,5
C) 5,52; 4,67 D) 11,25; 15

68. (v11-111-32) N. sh. dagi hajmi 20,16 litr bo'lgan xlor olish uchun HCl ning 32% li eritmasidan (ρ = 1,163 g/ml) qancha hajm (ml) talab etiladi? Reaksiyada oksidlovchi sifatida $K_2Cr_2O_7$ ishlatilgan.
A) 479 B) 412
C) 632,3 D) 153,3

69. (v12z-201-25) Pirit oksidlanishidan (reaksiya unumi 66,7%) olingan oltingugurt (IV) oksid yana oksidlandi (reaksiya unumi 75%). Hosil bo'lgan moddadan 80% unum bilan H_2SO_4 $0,2SO_3$ tarkibli oleum olindi. Agar oleumning massasi dastlabki modda massasidan 66 g ga kam bo'lsa, pirit massasini (g) aniqlang.
A) 180 B) 120 C) 240 D) 90

70. (v12z-214-12) Kaliy xlorid va kaliy bromidlar aralashmasi suvda eritilib, yetarli miqdorda xlor o'tkazilib, eritma bug'latildi. Natijada aralashma massasi 8,9 g ga kamaydi. Hosil bo'lgan aralashmaga yetarli miqdorda kumush nitrat eritmasi ta'sir ettirilganda 86,1 g cho'kma tushdi. Dastlabki aralashmadagi kaliy bromid massa ulushini (%) aniqlang.
A) 29,8 B) 53,6 C) 44,4 D) 23,8

71. (v12z-216-5) Kaliy digidrofosfat va kaliy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma kaliy gidroksidning 80 g 56% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmaning mol nisbatini aniqlang.
A) 0,5:1 B) 3:2 C) 1:1,25 D) 3:1

72. (v12z-221-35) Necha litr (n. sh.) xlor kaliy gidroksidning qaynoq eritmasi bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 74,5 g kaliy xlorid hosil bo'ladi?
A) 22,4 B) 6,72 C) 21,3 D) 13,44

73. (v12z-228-25) Uglerod va kremniydan iborat aralashma teng miqdorda ikki qismga bo'lindi.
Birinchi qismi natriy gidroksid eritmasida eritilganda 13,44 l gaz ajraldi. Ikkinchi qismi to'liq yondirilganda 35,6 g oksidlar aralashmasi olingan bo'lsa, uglerod (IV) oksidning massasini (g) aniqlang.
A) 35,2 B) 17,6 C) 13,2 D) 8,9

74. (v12z-229-20) Pirit qizdirilganda hosil bo'lgan temir oksidini qaytarish uchun 5,4 g alyuminiy kerak bo'lsa, pirit necha litr (n. sh.) kislorod bilan reaksiyaga kirishgan?
A) 12,32 B) 35,2 C) 36,96 D) 24,64

75. (v12z-233-22) Kaliy digidrofosfat va kaliy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma kaliy gidroksidning 80 g 56% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmadagi kaliy gidrofosfat massasini (g) aniqlang.
A) 46 B) 40,8 C) 17,4 D) 34,8

76. (v12z-234-14) 6,61 g kalsiy va bariy gidroksidlar aralashmasi 83,39 ml suvda eritildi. Olingan eritmani to'liq neytrallash uchun 12,5 ml 4 M li H_2S eritmasi sarf bo'ldi. Dastlabki eritmadagi kalsiy gidroksidning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 1,64 B) 5,13 C) 5,7 D) 1,48

77. (v12z-242-14) 97,5 g simob (II) nitratga yetarli miqdorda ishqor qo'shilganda hosil bo'ladigan sariq cho'kmaning massasini toping.
A) 65,1 B) 60,3 C) 130,2 D) 70,5

78. (v12c-103-17) Kaliy xlorid va kaliy bromidlar aralashmasi suvda eritilib, yetarli miqdorda xlor o'tkazilib, eritma bug'latildi. Natijada aralashma massasi 8,9 g ga kamaydi. Hosil bo'lgan aralashmaga yetarli miqdorda kumush nitrat eritmasi ta'sir eritilganda 86,1 g cho'kma tushdi. Dastlabki aralashmadagi kaliy bromid massasini (g) aniqlang.
A) 44,7 B) 53,6 C) 23,3 D) 29,8

79. (v12c-104-5) Kaliy digidrofosfat va kaliy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma kaliy gidroksidning 80 g 56% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmadagi kaliy digidrofosfat massasini (g) aniqlang.
A) 34,8 B) 81,6 C) 40,8 D) 54

80. (v12c-108-9) Uglerod va kremniydan iborat aralashma teng miqdorda ikki qismga bo'lindi. Birinchi qismi natriy gidroksid eritmasida eritilganda 8,96 l gaz ajraldi. Ikkinchi qisim to'liq yondirilganda 25,2 g oksidlar aralashamasi olingan bo'lsa, uglerod (IV) oksidning massasini (g) aniqlang.
A) 6,6 B) 13,2 C) 7,2 D) 26,4

81. (v12c-112-3) Kaliy xlorid va kaliy bromidlar aralashmasi suvda eritilib, yetarli miqdorda xlor o'tkazilib, eritma bug'latik. Natijada aralashma massasi 17,8 g ga kamayadi. Hosil bo'lgan aralashmaga yetarli miqdorda kumush nitrat eritmasi ta'sir ettirilganda 86,1 g cho'kma tushdi. Dastlabki aralashmadagi kaliy xlorid massa ulushini (%) aniqlang.
A) 55,6 B) 14,9 C) 71,52 D) 23,84

82. (v12c-113-28) 99,3 g $Pb(NO_3)_2$ qizdirilishidan hosil bo'lgan qattiq modda uglerod (II) oksidi yordamida qaytarildi. Bunda hosil bo'lgan modda 14,8 g $Ca(OH)_2$ tutgan eritmaga ta'sir ettirildi. Hosil bo'lgan cho'kinaning massasini (g) toping.
A) 30 B) 40 C) 10 D) 20

83. (v12c-115-7) Necha litr (n. sh.) xlor kaliy gidroksidning qaynoq eritmasi bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 37,25 g kaliy xlorid hosil bo'ladi?
A) 21,3 B) 11,2
C) 13,44 D) 6,72

84. (v12c-117-23) 98 g bertole tuzining to'la parchalanishidan 19,2 g kislorod hosil bo'lsa, qolgan qattiq qoldiq tarkibida necha gramm KCl bo'ladi?
A) 29,8 B) 14,8 C) 59,6 D) 37,25

85. (v12c-118-35) Kaliy xlorid va kaliy bromidlar aralashmasi suvda eritilib, yetarli miqdorda xlor o'tkazildi va eritma bug'latildi. Natijada aralashma massasi 8,9 g ga kamaydi. Hosil bo'lgan aralashma kumush nitrat eritmasi orqali o'tkazilganda 86,1 g cho'kma tushdi. Dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 53,6 B) 49,15 C) 58,05 D) 44,7

86. (v12c-119-22) Uglerod va kremniydan iborat aralashma teng miqdorda ikki qismga bo'lindi. Birinchi qismi to'liq yondirilganda 35,6 g oksidlar aralashamasi olindi. Ikkinchi qismim yarmi natriy gidroksid eritmasida eritilganda 6,72 l gaz ajralgan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi kremniyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 36 B) 16 C) 84 D) 64

87. (v12c-120-7) Azot (II) oksid va silandan iborat aralashmadagi azot (II) oksidning elektron, proton va neytronlari yig'indisi shu aralashmadagi silanning proton va elektr onlari yig'indisidan 5 marta ko'p bo'lsa, aralashmadagi silanning massa ulushini aniqiang.
A) 0,21 B) 0,8 C) 0,33 D) 0,67

88. (v12c-121-13) Uglerod va kremniydan iborat aralashma teng miqdorda ikki qismga bo'lindi. Birinchi qismi to'liq yondirilganda 35,6 g oksidlar aralashmasi olindi. Ikkinchi qismini yarmi natriy gidroksid eritmasida eritilganda 6,72 l gaz ajralgan bo'lsa, kremniy (IV) massasini (g) aniqlang.
A) 18 B) 9
C) 8,4 D) 17,6

89. (v12c-128-8) Uglerod va kremniydan iborat aralashma teng miqdorda ikki qismga bo'lindi. Birinchi qismi to'liq yondirilganda 25,2 g oksidlar aralashmasi olindi. Ikkinchi

qismini yarmi natriy gidroksid eritmasida eritilganda 4,48 l gaz ajralgan bo'lsa, kremniy (IV) oksidning massasini (g) aniqlang.
A) 24 B) 18 C) 12 D) 6

90. (v12c-129-6) Kaliy digidrofosfat va kaliy gidrofosfatlardan iborat 0,5 mol aralashma kaliy gidroksidning 80 g 56% li eritmasi bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 116,4 B) 99 C) 75,6 D) 58

91. (v12c-131-12) Kaliy xlorid va kaliy bromidlar aralashmasi suvda eritilib, yetarli miqdorda xlor o'tkazilib, eritma bug'latildi. Natijada aralashma massasi 17,8 g ga kamaydi. Hosil bo'lgan aralashmaga yetarli miqdorda kumush nitrat eritmasi ta'sir ettirilganda 86,1 g cho'kma tushdi. Dastlab aralashmadagi kaliy xlorid massa ulushini aniqlang.
A) 23,84 B) 71,52 C) 14,9 D) 55,6

92. (v12c-133-15) Kaliy xlorid va kaliy bromidlar aralashmasi suvda eritilib, yetarli miqdorda xlor o'tkazilib, eritma bug'latildi. Natijada aralashma massasi 17,8 g ga kamaydi. Hosil bo'lgan aralashmaga yetarli miqdorda kumush nitrat eritmasi ta'sir ettirilganda 86,1 g cho'kma tushdi. Dastlabki aralashma massasini (g) aniqlang.
A) 44,7 B) 62,5
C) 35,8 D) 53,6

93. (v12c-134-23) 139,8 g kinovar yondirilganda hosil bo'lgan moddaning massasini va ajralgan gazni hajmini toping.
A) 260,4; 26,88 B) 120,6; 13,44
C) 140,4; 13,44 D) 120,6; 26,88

94. (v13-101-22) Ikki xil modda o'zaro reaksiyaga kirishganda palag'da tuxum hidli A gaz hosil bo'ldi. Bu gaz mol miqdordagi kislorodda yonganda B gaz hosil bo'ldi. A va B gazlarning o'zaro ta'siri natijasida sariq rangli modda cho'kmaga tushsa, A va B gazlarni aniqlang.
A) H_2S va SO_2 B) H_2 va SO_2
C) SO_2 va CO_2 D) H_2S va SO_3

95. (v13-102-18) Is gazi, karbonat angidrid, sulfit angidridlardan iborat aralashmaning zichligi 2,036 g/l (n. sh.)ga teng. Agar shu aralashmaning to'liq oksidlanishi uchun 44,8 l havo sarflansa, dastlabki aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushlarini (%) aniqlang (havodagi kislorodning ulushi 20%.).
A) 25; 19; 56 B) 40; 20; 40
C) 0,4; 0,2; 0,4 D) 0,25; 0,19; 0,56

96. (v13-113-2) LiH va Ba_3N_2 dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Birinchi qism H_2O da eritildi, ikkinchi qism HCl da eritildi. Suvda eritilganda hosil bo'lgan gazlar HCl da eritilganda ajralib chiqqan gazdan hajm bo'yicha 1,4 marta ko'p bo'lsa, dastlabki aralashma tarkibidagi LiH ni massa ulushini (%) toping.
A) 8,35 B) 5,6 C) 11,2 D) 16,7

97. (v13-134-30) Vodorod va is gazidan iborat 70 ml aralashmaga 70 ml O_2 qo'shib portlatildi. Reaksiya tugagach, sistema dastlabki sharoitga keltirilganda hajm 105 ml gacha kamaydi. Suv bug'lari kondensatlangandan so'ng esa hajm 70 ml ga teng bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi gazlarning massa nisbatini aniqlang.
A) 1:14 B) 1:7 C) 2:7 D) 1:3,5

98. (v13-141-17) 15,68 litr (n. sh.) H_2S mol miqdorda kislorodda yondirilishidan olingan mahsulotlar o'yuvchi natriy gidroksid (22% li, ρ = 1,25) eritmasidan o'tkazildi. Nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 19,2 g ga kam bo'lsa, o'tkazilgan ishqor eritmasining hajmini (ml) hisoblang.
A) 203,63 B) 160
C) 101,83 D) 145,46

99. (v13-146-23) 33,6 g qattiq holdagi ishqoriy metall ftoridiga konsentrlangan sulfat kislota ta'sir ettirilganda ajralgan gaz $Ca(OH)_2$ eritmasi orqali o'tkazilganda 31,2 g cho'kma hosil bo'ladi. Noma'lum metalni aniqlang.
A) K B) Li C) Cs D) Na

100. (v13-150-29) 12,8 g oltingugurtning mo'l miqdordagi kislorodda yonishidan ajralib chiqqan 11,2 l gazlar aralashmasi katalizatordan o'tkazildi va $Ba(OH)_2$ ning 0,4 M li eritmasiga shimdirildi. Reaksiya natijasida o'rta tuz hosil bo'lgan bo'lsa, bariy gidroksid eritmasining hajmini (l) toping.
A) 0,4 B) 1 C) 0,5 D) 10

101. (v13-158-16) LiH va Ba_3N_2 dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Birinchi qism H_2O da eritildi, ikkinchi qism HCl da eritildi. Suvda eritilganda hosil bo'lgan gazlar HCl da eritilganda ajralib chiqqan gazdan hajm bo'yicha 1,5 marta ko'p bo'lsa, dastlabki aralashma tarkibidagi LiH ni massa ulushini (%) toping.
A) 6,8 B) 17,6 C) 3,4 D) 8,8

102. (v13-166-4) 20,4 g H_2S mol miqdorda kislorodda yondirildi. Olingan gaz o'yuvchi natriy bilan reaksiyasida nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 16,4 g ga ko'p bo'lsa, o'rta tuz massasini (g) aniqlang.
A) 25,2 B) 12,6 C) 50,4 D) 37,8

103. (v13-168-32) Bertole tuzi katalizator ishtirokida qizdirilganda hosil bo'lgan aralashmadagi xlorning massa ulushi 40% ni tashkil etsa, kaliy xloratning parchalanish darajasini (%) aniqlang.
A) 50 B) 65,56 C) 78 D) 70,3

104. (v14-104-35) Natriy elementining massa ulushi 46% bo'lgan natriy oksid va kaliy oksid aralashmasi suvda eritildi. Olingan aralashmani to'liq neytrallash uchun 350 ml 2 molyarli xlorid kislota eritmasi sarf bo'lsa, hosil bo'lgan eritma tarkibidagi natriy xlorid massasini (g) toping.
A) 14,63 B) 29,25 C) 35,5 D) 58,5

105. (v14-113-7) 0,6 mol H_2S mo'l miqdordagi kislorodda yondirildi. Olingan gaz o'yuvchi natriyning 200 g eritmasi bilan reaksiyasida hosil bo'lgan nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 16,4 g ga ko'p bo'lsa, eritmadagi nordon tuzning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 40,9 B) 17,45 C) 37,72 D) 62,28

106. (v14-115-23) 0,7 mol H_2S mo'l miqdordagi kislorodda yondirilishidan olingan mahsulotlar 200 g natriy gidroksid eritmasidan o'tkazildi. Nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 19,2 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan eritmadagi o'rta tuzning massasini (g) hisoblang.
A) 37,8 B) 25,2 C) 63 D) 50,4

107. (v15-101-8) Uglerod oksidlarning hajmi 5,6 litr (n. sh.) bo'lgan aralashmasida 4,7 mol proton bo'lsa, aralashma natriy gidroksid eritmasi orqali o'tkazilganda uning hajmi necha marta kamayadi?
A) 3 B) 4 C) 2,5 D) 5

108. (v15-101-25) Fosfor va uglerodning 6,05 g aralashmasi 80% li H_2SO_4 eritmasida eritilganda hosil bolgan gazlar aralashmasini oksidlashga 5% li bromli suvdan 2,8 kg sarflangan bo'lsa, gazlar aralashmasining etanga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 1,633 B) 1,933
C) 2,07 D) 2,124

109. (v15-104-4) Noma'lum massali fosfor va uglerod aralashmasini oksidlash uchun 80% li H_2SO_4 eritmasidan foydalanilganda normal sharoitda zichligi 2,59 g/l ga teng bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Shu aralashmani oksidlash uchun 5% li xlorli suvdan 2,485 kg sarflangan bo'lsa, boshlang'ich aralashma tarkibidagi moddalar massasini (g) aniqlang.
A) 3,1; 2,4 B) 6,2; 6
C) 7,75; 9 D) 3,1; 9

110. (v15-109-10) Noma'lum massali fosfor va uglerod aralashmasini oksidlash uchun 80% li H_2SO_4 eritmasidan foydalanilganda vodorodga nisbatan zichligi 29 ga teng bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Shu aralashmani oksidlash uchun 5% li bromli suvdan 2,8 kg sarflangan bo'lsa, boshlang'ich aralashma tarkibidagi moddalar massasini (g) aniqlang.
A) 1,75; 9 B) 3,2; 2,4
C) 3,1; 9 D) 1,55; 4,5

111. (v15-109-22) Etilen, etan atsetilen molekulasidagi uglerod atomlarining yadrolari orasidagi masofalarni (nm) mos ravishda aniqlang.
A) 0,134; 0,120; 0,154
B) 0,120; 0,134; 0,154
C) 0,154; 0,134; 0,120
D) 0,134; 0,154; 0,120

112. (v15-114-9) Fosfor va uglerodning 6,05 g aralashmasi 80% li H_2SO_4 eritmasida oksidlanganda normal sharoitda zichligi 2,59 g/l ga teng bo'lgan gazlar aralashmasi olindi. Shu aralashmani oksidlash uchun 5% li bromli suvdan qancha (kg) zarur?
A) 4,8 B) 2,4 C) 1,24 D) 2,8

113. (v15-116-9) Fosfor va uglerodning 12,1 g aralashmasi 80% li H_2SO_4 eritmasida eritilganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasini oksidlashga 2% li bromli suvdan 14 kg sarflangan bo'lsa, gazlar aralashmasidagi har bir gazning mol miqdorini aniqlang.
A) 0,25; 0,75 B) 1,75; 0,75
C) 1,75; 0,25 D) 1,5; 0,25

114. (v15-117-17) Noma'lum massali fosfor va uglerod aralashmasini oksidlash uchun 80% li H_2SO_4 eritmasidan foydalanilganda havoga nisbatan zichligi 2 ga teng bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Shu aralashmani oksidlash uchun 5% li bromli suvdan 2,8 kg sarflangan bo'lsa, boshlang'ich aralashmaning umumiy massasini (g) aniqlang.
A) 6,05 B) 5,5 C) 12,1 D) 16,75

115. (v15-117-31) Sikloalkan va CO_2 gazlari aralashmasida sikoalkanning hajmiy ulushi 60%, massa ulushi 65,63% bo'lsa, sikloalkan formulasini toping.
A) C_2H_4 B) C_3H_6 C) C_4H_8 D) C_5H_{10}

116. (v15-118-19) Fosfor va uglerodning 12,1 g aralashmasi 80% li H_2SO_4 eritmasida eritilganda hosil bo'lgan gazlar aralashmasini oksidlashga 5% li bromli suvdan 5,6 kg sarflangan bo'lsa, gazlar aralashmasining o'rtacha molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 58 B) 29 C) 49 D) 27

117. (v15-118-25) O'zaro teng miqdorda olingan etan, eten va etin gazlari aralashmasi to'liq yonishi uchun 1,8 mol O_2 sarflandi.

Dastlabki gazlar aralashmasining massasini (g) aniqlang.
A) 24,6 B) 8,4 C) 15,6 D) 16,8

118. (v15-119-8) S, Si va C dan iborat 0,9 mol aralashmada jami neytronlar soni $6{,}3812 \cdot 10^{24}$ ta.
Aralashmadagi kremniyning elektronlari soni oltingugurtning elektronlari sonidan 1,75 marta ko'p bo'lsa, aralashmadagi uglerodning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,2 B) 0,3 C) 0,4 D) 0,6

119. (v15-121-12) Noma'lum massali fosfor va uglerod aralashmasini oksidlash uchun 80% li H_2SO_4 eritmasidan foydalanilganda havoga nisbatan zichligi 2,59 g/l teng bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Shu aralashmani oksidlash uchun 5% li bromli suvdan 2,8 kg sarflangan bo'lsa, boshlang'ich aralashmaning umumiy massasini (g) aniqlang.
A) 3,7 B) 17,5 C) 2,1 D) 6,05

120. (v15-122-2) Kaliy xlorat katalizator ishtirokida qizdirilganda hosil bo'lgan aralashmadagi xlorning massa ulushi 36% ni tashkil etsa, undagi kaliyning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 70,36 B) 78 C) 65,56 D) 39,6

121. (v15-122-24) Metall sulfati kristallogitrati va $Na_2S \cdot 4H_2O$ ning quruq aralashmasi ($\omega(H_2O) = 43{,}9\%$) 214 ml suvda eritilganda 17,6 g metall sulfidi cho'kib, hosil bo'lgan 278,4 g eritmadagi yagona elektrolit Na_2SO_4 ning molyarligi 0,8 mol/kg ga teng bo'ldi. Dastlabki kristallogidratlar aralashmasidagi suvning umumiy massasini (g) aniqlang.
A) 42 B) 54 C) 36 D) 18

122. (v15-126-21) Fosfor va uglerodning 6,05 g aralashmasi 80% li H_2SO_4 eritmasida oksidlanganda normal sharoitda zichligi 2,59 g/l ga teng bo'lgan gazlar aralashmasi olindi. Shu aralashmani oksidlash uchun 5% li bromli suvdan qancha (kg) zarur?
A) 4,8 B) 2,8 C) 2,4 D) 1,24

123. (v15-128-16) 0,1 litr 25% li (ρ = 1,178 g/ml) sulfat kislota eritmasiga 500 g suv qo'shildi. Olingan eritmadagi H_2SO_4 ning massa ulushini (%) toping. Hosil bo'lgan eritmaning 40 grammidan necha gramm $BaSO_4$ cho'kmaga tushadi?
A) 4,77; 4,54 B) 5,85; 5,26
C) 6,25; 6,52 D) 5,24; 6,25

124. (v15-129-31) 100 g 3,4% li vodorod peroksid eritmasi qizdirilishidan 0,56 litr (n. sh.) kislorod ajralib chiqdi. Peroksidning parchalanish darajasini (%) aniqlang.
A) 50 B) 80 C) 60 D) 70

125. (v17-102-8) Quyidagi o'zgarishlarda 156 g $Cu(NO_3)_2$ bo'lsa, J moddadan qancha olish mumkin?



A) 180 g
B) 190 g
C) 189 g
D) 199 g

126. (v17-103-28) 1,25 mol $CaXO_3$ birikma tarkibida X ning massasi Ca va O ning birgalikdagi massasidan 70 g ga kam bo'lsa, X ni aniqlang.
A) C B) S
C) Si D) Mn

127. (v17-109-18) Bir valentli metall sulfati 80 ml eritmasida (ρ = 1,25 g/ml) kislorodning massa ulushi 72% ga teng. Bunday eritmada tuzning molekula va ionlar soni $6{,}02 \cdot 10^{23}$ ekanligi ma'lum bo'ldi (α = 50%). Noma'lum metallning protonlar sonini aniqlang.
A) 11 B) 19 C) 3 D) 29

128. (v17-112-18) Qizdirilgan mis (II) oksidi ustidan 1,68 l (n. sh.) ammiak laboratoriya sharoitida o'tqazilganda olingan gaz 44,8 l (n. sh.) kislorodda yondirildi. Shunda idishdagi harorat 2000°C ga yetdi. Reaksiyaga kirishgan gazning massasi (g) ni aniqlang.
A) 1,05 B) 3,3 C) 4,35 D) 2,25

129. (v17-115-5) $MeXO_4$ ning molyar massasi 156 g/mol ga teng. X_2O_3 va $MeSO_3$ larning molekulyar massalari farqi 32 m.a.b. ga teng bo'lsa, X_2O_3 ning molekulyar massalari (m.a.b.) aniqlang.
A) 144 B) 102 C) 160 D) 152

130. (v17-115-29) 5,6 l hajmiga ega bo'lgan uglerod oksidlari aralashmasida 4,7 mol protonga ega. Gaz aralashmasini NaOH eritmasidan o'tkazilganda aralashma hajmi necha martaga kamayadi?
A) 1,5 B) 1,2 C) 2,5 D) 2,0

131. (v17-119-2) 3,6 g pirit to'liq yondirilgandan keyin gaz ajralib chiqdi 38,8 g 20% kaliy xromat eritmasiga 61,2 g 6,4% li sulfat kislota eritmasidan quyilib, eritmalar aralashtiriladi. Reaksiyadan hosil bo'lgan eritma va ortib qolgan mahsulotga ajralib chiqqan gaz yuttiriladi. Reaksiyadan so'ng hosil bo'lgan eritma tarkibidagi moddalar massa ulushini toping.
A) 5%; 9% B) 8%; 7%
C) 5,6%; 4,7% D) 7,6%; 6,7%

132. (v17-122-34) 20 g ammoniy nitratdan qancha hajm kuydiruvchi gaz olish mumkin?
A) 5,6 l B) 44,8 l C) 4,48 l D) 0,56 l

133. (v17-125-30) Mg va MgO aralashmasiga H_2SO_4 24,5% eritmasidan (ρ = 1,25) 76,8 ml qo'shamiz, 5 l (27°C, 100 kPa) gaz ajraldi. Eritmadagi H_2O suv molekulalarini aniqlang.
A) $24{,}48 \cdot 10^{23}$ B) $12{,}24 \cdot 10^{23}$
C) $48{,}96 \cdot 10^{23}$ D) $6{,}02 \cdot 10^{23}$

134. (v17-127-10) Tarkibida ammoniy xlorid bo'lgan namuna konsentratsiyasi 1,00 mol dm^{-3} bo'lgan natriy gidroksid 100 sm^3 eritmasi bilan qizdirildi. Ammiak to'liq chiqarilgandan so'ng natriy gidroksidini neytrallash uchun konsentratsiyasi 0,250 mol dm^{-3} bo'lgan 50,0 sm^3 sulfat kislota talab etiladi. Namunada necha gramm ammoniy xloridi bo'lgan?
A) 40,1 B) 4,01 C) 10 D) 401

135. (v17-127-34) Standart harorat va bosimda 200 sm^3 kislorod olish uchun qanday miqtorda (g) kaliy xlorat (v) turini parchalash lozim? Parchalanish reaksiyasi katalizator ishtirokida quyidagi tenglama orqali boradi:

$$2KClO_{3(v)} \xrightarrow{MnO_2} 2KCl_{(v)} + 3O_{2(g)}.$$

A) 0,661 B) 5,51 C) 0,729 D) 1,551

136. (v17-129-2) 2,6061 g suvsiz natriy karbonat turini distillangan suvda eritib standart eritma olindi, eritma hajmi 250 sm^3 gacha keltirildi. 25,0 sm^3 bunday eritma xlorid kislota bilan titrlandi. Indikator sifatida metiloranj ishlatiladi. Bu indikator natriy karbonatning natriy xloridga to'liq aylanganda o'z rangini o'zgartiradi. Neytrallash uchun 18,7 sm^3 kislota talab etildi. Kislotaning konsentratsiyasini aniqlang (mol. dm^{-3}).
A) 1,263 B) 2,63
C) 0,026 D) 0,263

III. ORGANIK KIMYO

78. A.M. Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasi. Tarixi. Organik birikmalarning ishlatilishi

1. (96-5-42) Organik birikmalarning kimyoviy tuzilish nazariyasini qaysi olim ishlab chiqqan?
A) F.A. Kekule B) S.V. Lebedev
C) M.V. Lomonosov D) A.M. Butlerov
E) M.G. Kucherov

2. (97-1-27) Quyidagi moddalardan qaysi biri organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasiga zid keladi?
A) $C_5H_{10}Cl_2$ B) $C_5H_{11}COOH$
C) $C_8H_{17}Cl_2$ D) C_9H_{18}
E) $C_7H_{15}CHO$

3. (97-7-68) Qaysi modda bilan rux orasidagi reaksiya natijasida siklobutan hosil bo'ladi?
A) 1,3-dibrombutan B) 1,4-dibrombutan
C) 1,4,5-tribrompentan D) 2-brombutan
E) 1,5-dibrompentan

4. (97-11-191) G'o'za bargini to'kish uchun ishlatiladigan kalsiy sianamid tarkibida 50% kalsiy, 15% uglerod va 35% azot borligi ma'lum. Birikmaning formulasini aniqlang [$A_r(Fe) = 56$, $A_r(Cr) = 52$, $A_r(O) = 16$].
A) $CaCN_2$ B) Ca_2CN
C) $Ca(CN)_2$ D) $Ca_3(CN)_2$
E) $Ca_2(CN)_3$

5. (97-12-15) Qaysi tuz kir yuvish maqsadida ishlatiladi?
A) natriy gidrokarbonat B) magniy oleinat
C) natriy atsetat D) natriy stearat
E) kalsiy stearat

6. (98-2-29) Kraxmal va sellyulozaning ishlatilishida umumiy bo'lgan sohani tanlang.
A) inson uchun oziq-ovqat mahsuloti
B) qog'oz tayyorlash
C) pista ko'mir ishlab chiqarish
D) etil spirt ishlab chiqarish
E) atsetat tola ishlab chiqarish

7. (98-8-71) Ekologik jihatdan afzal bo'lgan qilg'ini tanlang.
A) kerosin B) benzin
C) ko'mir D) vodorod
E) tabiiy gaz

8. (98-9-66) Quyidagi moddalarning qaysi biri yovvoyi o'tlarga qarshi kurash vositasi (gerbitsid) sifatida ishlatilgan?
A) 2,4-dixlorfenoksisirka kislota
B) 2,4-dixlorfenoksisirka kislotaning natriyli tuzi
C) geksaxlorfenol
D) geksaxlorbutadiyen-1,3
E) feniletilspirt

9. (98-11-37) Quyidagi iboralardan qaysi biri organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasidagi holatlarga xos emas?
A) organik moddalar molekulasini hosil qilgan hamma atomlar o'z valentliklariga muvofiq ravishda Ma'lum izchillikda birikkan
B) moddalarning xossalari molekulada atomlarning qanday tartibda birikkanligiga ham bog'lik, bo'ladi
C) berilgan moddaning xossalariga ko'ra, uning molekula tuzilishini aniqlash,

molekulasining tuzilishidan esa uning xossalarini oldindan aytish mumkin
D) organik moddalar uchun gibridlanish hodisasi xosdir
E) modda molekulasidagi atomlar va atomlar guruhi o'zaro bir-biriga ta'sir etadi

10. (99-4-58) "Izomeriya" terminini fanga kim kiritgan?
A) M. Bertlo B) A. Butlerov
C) F. Vyoler D) Ya. Berselius
E) A. Kuper

11. (99-9-40) Qaysi sinfga taalluqli bo'lgan modda aralashgan parafinni unga ishqor bilan ishlov berib tozalanadi?
A) alkinlar B) aminlar
C) aromatik uglevodorod D) alkenlar
E) karbon kislotalar

12. (00-4-10) Yong inni o'chirish uchun qaysi birikma qo'llanishi mumkin?
A) $CHCl_3$ B) C_2H_5Cl C) CH_3Cl
D) CH_3I E) CCl_4

13. (00-4-11) Qaysi modda tibbiyotda jarohatlar tuzalishini tezlashtirishda qo'llanadi?
A) CHI_3 B) CH_2I_2
C) CH_3Cl D) CH_2Cl_2
E) $CHCl_3$

14. (00-6-1) Qaysi modda sifatli yuvish vositasi xususiyatiga ega?
A) $C_{17}H_{35}COONa$ B) $C_{17}H_{35}COOK$
C) $(C_{17}H_{35}COO)_2Ca$ D) $C_{17}B_{35}CO(NH_2)$
E) $C_{17}H_{35}COOH$

15. (00-7-2) Dorivor modda sulfidning tarkibiga kiruvchi geterotsiklik birikmani ko'rsating?
A) pirrol B) piridin
C) pirimidin D) timin
E) sitozin

16. (00-8-10) Qaysi modda uzoq vaqt davomida jarrohlikda narkoz uchun qo'llab kelingan edi, hozir esa uning zaharli xususiyati aniqlangach, tabobatda qo'llanmaydigan bo'ldi?
A) CHI_3 B) CH_2Cl_2 C) $CHCl_3$
D) CH_2I_2 E) CH_3Cl

17. (00-10-41) Qishloq xo'jaligida insektitsid sifatida ishlatiladigan galodli birikmaning nomini ko'rsating.
A) dixloretan B) geksaxlorsiklogeksan
C) etil bromid D) xloroform
E) dixlorbenzol

18. (02-5-48) Qaysi galogenli hosila tibbiyotda ochiq jarohatlarni davolashda ishlatiladi?
A) xloroform B) yodoform
C) etilxlorid D) xlorbenzol
E) geksaxlorbenzol

19. (02-5-49) Qaysi galogenli hosila tibbiyotda narkoz jarayonida ishlatiladi?
A) xloroform B) yodoform
C) etil spirt D) diegilefir
E) geksaxlorbenzol

1) aldegid; 2) alkan; 3) bir atomli to'yingan spirt; 4) diyen; 5) aren; 6) oddiy efir.
A) 1, 3 B) 3, 6 C) 2, 4
D) 4, 5 E) 1, 6

54. (98-9-11) Tarkibi C_6H_{10} bo'lgan molekulalarda bitta uchlamchi uglerod atomiga ega bo'lgan alkinlar soni nechtaligini aniqlang.
A) 3 B) 5 C) 4 D) 2 E) 6

55. (98-9-13) C_7H_7Cl tarkibli galogenli aromatik birikmalar soni nechta?
A) 2 B) 3 C) 5 D) 6 E) 4

56. (98-9-21) Nazariy jihatdan $C_7H_7O_2N$ tarkibli aromatik nitrobirikmalar nechta bo'lishi mumkin?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 6 E) 5

57. (98-9-28) Qaysi sinf moddalari oddiy efirlarga izomer hisoblanadi?
A) murakkab efirlar B) aldegidlar
C) ketonlar D) karbon kislotalar
E) bir atomli spirtlar

58. (98-9-44) Pentanning barcha izomerlaridagi birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomlari soni keltirilgan qatorni toping.
A) 9, 4, 1, 1 B) 8, 4, 1, 1
C) 10, 3, 1, 1 D) 6, 4, 1, 1
E) 6, 4, 2, 1

59. (98-9-49) Zichligi xlorga nisbatan 1,69 bo'lgan aromatik uglevodorod izomerlari nechta bo'ladi?
A) 10 B) 6 C) 7 D) 8 E) 9

60. (98-11-38) Izomerlar tushunchasini qaysi ibora to'g'ri ifodalaydi?
A) ayni gomologik qatorni tashkil etuvchi moddalar
B) sifat tarkibi bir xil bo'lgan moddalar
C) miqdor tarkibi bir xil bo'lgan moddalar
D) tarkibi hamda molekula massasi bir xil bo'lib, tuzilishi farq qiladigan moddalar
E) bir-biridan gomologik qatorlar farqi bilan ajralib turadigan moddalar

61. (98-11-43) Sis-trans-izomeriya qaysi moddaga xos?

A) buten-1 B) 2-metilpropen
C) penten-2 D) 1,1-dixloretan
E) butin-2

62. (98-11-58) Tarkibi $C_6H_{12}O_2$ bo'lgan tarmoqlanmagan radikalli murakkab efirlarning izomerlar soni nechta bo'ladi:
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7 E) 8

63. (98-11-59) Tarkibi $C_6H_{12}O_2$ bo'lgan kislotalarning izomerlar soni nechta bo'ladi?
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8 E) 9

64. (98-12-25) Qaysi gomologik qator uglevodorodlari bir-biriga izomer bo'lishi mumkin?
A) alkanlar va alkadiyenlar
B) alkinlar va alkadiyenlar
C) alkenlar va arenlar
D) sikloalkanlar va arenlar
E) sikloalkanlar va alkinlar

65. (98-12-31) Formulasi C_4H_8O bo'lgan birikmalarning izomerlari nechta bo'ladi?
A) 10 B) 8 C) 11 D) 7 E) 9

66. (99-2-48) $C_4H_6O_2$ tarkibli formulaga to'g'ri keladigan to'yinmagan karbon kislota va murakkab efirlarning izomerlar soni nechta?
A) 4 B) 5 C) 7
D) 9 E) 6

67. (99-3-25) Moddalardan qaysi birining izomerlari yo'q?
1) 1,2-dixlorpropan; 2) dixloretan;
3) 1,1-dibrometan; 4) propan;
5) metanal; 6) sirka kislota.
A) 1, 5 B) 1, 4 C) 3, 6
D) 3, 4 E) 4, 5

68. (99-4-26) Izomer moddalar uchun quyidagi javoblarning qaysilari to'g'ri:
1) sifat tarkibi; 2) miqdor tarkibi;
3) molekulyar massasi; 4) kimyoviy tuzilishi;
5) kimyoviy xossalari.
A) 1 va 5 xar xil, 2, 3 va 4 bir xil
B) 1, 3 va 4 bir xil, 2 va 5 har xil
C) 1, 3 va 5 har xil, 2 va 4 bir xil
D) 1, 2 va 3 bir xil, 4 va 5 har xil
E) 1, 4 va 5 bir xil, 2 va 3 har xil

69. (99-5-47) Moddalardan qaysi birlari sirka kislotasiga izomer?
1) $HOOC–CH_2–CH_3$; 2) $HCOOOCH_3$;
3) $HO–CH_2–CHO$; 4) CH_3OCH_2OH;
5) $CH_3C(O)–CH_3$; 6) CH_3CHO.
A) 5, 6 B) 3, 4 C) 2, 3
D) 1, 5 E) 2, 4

70. (99-6-2) C_3H_9N tarkibli birikmaning nechta izomeri mavjud?
A) 4 B) 6 C) 3 D) 5 E) 7

71. (99-6-10) Quyidagi gomologik qatorning qaysi a'zosidan boshlab izomerlanish hodisasi yuz beradi?
A) metilamin B) etilamin
C) propilamin D) butilamin
E) pentilamin

72. (99-6-11) $C_4H_{11}N$ tarkibli nechta birlamchi amin mavjud?
A) 4 B) 2 C) 5 D) 3 E) 1

73. (99-6-16) C_7H_9N tarkibli aromatik aminning nechta izomeri bor?
A) 5 B) 3 C) 6 D) 2 E) 4

74. (99-6-18) Aminomoy kislotaning nechta izomeri bor?
A) 5 B) 3 C) 4 D) 2 E) 6

75. (99-6-25) $C_3H_7O_2N$ tarkibli kislotaning nechta izomeri bor?
A) 4 ta B) 3 ta
C) izomeri yo'q D) 5 ta
E) 2 ta

76. (99-7-67) Tarkibi $C_8H_6O_2$ bo'lgan aromatik kislotalarning izomerlari sonini aniqlang.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

77. (99-7-69) Umumiy formulasi $C_5H_{11}NO_2$ bo'lgan aminokislotalarning nechta izomeri bo'lishi mumkin?
A) 8 B) 9 C) 10 D) 11 E) 12

78. (99-7-70) Tarkibi C_7H_{16} bo'lgan va asosiy zanjirida beshta uglerod atomi bo'lgan izomer uglerodlar soni nechta bo'ladi?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 3 E) 7

79. (99-8-10) $C_4H_7NO_2$ tarkibli aminokislotalar soni nechta?
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9 E) 10

80. (99-8-13) Quyida keltirilgan I–IV moddalarda bir-biridan faqat uglerod skeleti bilan farq qiladigan izomerlar jufti (1–6) ni toping. I – $CH_3CH_2CH_2CH_2Vr$;
II – $CH_3CH_2CHBrCH_3$; III – $(CH_3)_2CHCH_2Br$;
IV – $(CH_3)_3CBr$:
1) I, II; 2) I, III; 3) I, IV; 4) II, III;
5) II, IV; 6) III, IV.
A) 1, 3, 4, 5 B) 2, 4, 5, 6
C) 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5
E) 1, 2, 3, 4

81. (99-8-14) Quyidagi birikmalar orasidan bir xil sifat tartiblilarini toping:
1) glitsin; 2) anilin; 3) toluol; 4) alanin; 5) fenol.
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 3, 5
D) 2, 4 E) 1, 2

82. (99-8-15) Quyidagi birikmalar orasidan bir xil sifat va miqdor tartiblilarini toping:
1) etilatsetat; 2) moy kislota;
3) metakril kislota; 4) valerian kislota.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 2, 4
D) 1, 4 E) 1, 2

83. (99-8-16) Qaysi moddalar gomologlar hisoblanadi?
1) etilatsetat; 2) buten kislota;
3) akril kislota; 4) moy kislota.
A) 1, 2 B) 2, 4 C) 2, 3
D) 1, 4 E) 1, 3

84. (99-8-17) Qaysi moddalar gomologlar hisoblanadi?
1) glitserin; 2) glitsin; 3) etilenglikol; 4) alanin.
A) 2, 4 B) 2, 3 C) 1, 2
D) 1, 4 E) 1, 3

85. (99-8-18) Qaysi moddalar bir-biriga gomolog bo'la oladi?
1) fenol; 2) toluol; 3) n-krezol; 4) siklogeksan.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3
D) 2, 4 E) 1, 4

86. (99-8-22) Qo'sh bog' holati bilan farq qiladigan juftlari bo'lgan birikmalarni tanlang:
1) vinilsirka va kroton kislotalar; 2) olein va geptan kislotalar; 3) glitsin va nitroetan;
4) penten-1 va penten-2.
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4
D) 1, 3 E) 2, 3

87. (99-8-26) Qaysi birikmalar organik moddalarning turli sinflariga taalluqli bo'lgan izomerlar turkumiga kiradi?
1) $(CH_3)_2CHCH_2CH_2NO_2$;
2) $CH_3(CH_2)_4CH_2NO_2$;
3) $(CH_3)_2CHCH(NH_2)COOH$;
4) $(CH_3)_2CHCH(NH_2)CHO$.
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 3
D) 2, 4 E) 3, 4

88. (99-8-29) Geksin-1, geksin-2 va geksin-3 larda qanday turdagi izomeriya mavjud?
A) zanjir
B) qo'sh bog'ning holat
C) uch bog'ning holat
D) funksional guruhning holati
E) fazoviy

89. (99-8-30) 2-metilbutan, pentan va 2,2-dimetilpropan birikmalari qaysi turdagi izomeriyaga kiradi?
A) zanjir
B) ko'sh bog'ning holat
C) uch bog'ning holat
D) funksional guruhning holat
E) fazo

90. (99-8-32) Qaysi maddalar uchun sis- va trans-izomeriya xos?
1) $CH_3–C(CH_3)=CH–CH_3$;
2) $CH_2=C(C_2H_5)_2$;
3) $CH_3CH=CHCH_2CH_3$;
4) $CH_3CH=C(C_2H_5)_2$;
5) $C_2H_5(CH_3)C=C(CH_3)C_2H_5$.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 3, 5
D) 2, 5 E) 1, 5

91. (99-8-35) Quyidagi uglevodorod tarkibida geometrik izomeriya paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan qo'sh bog'larni toping. $CH_3–CH=CH–CH=CH–CH=CH_2$
A) yen-1 va yen-3 B) yen-3 va yen-5
C) yen-1 va yen-5 D) yen-2 va yen-4
E) yen-3

92. (99-8-50) Qaysi birikmalar bitta gomologik qatorga mansub?
1) $CH_2=CH–CH=CH_2$;
2) $CH\equiv C–CH_2–CH=CH_2$;
3) $CH_2=C=CH–CH_2OH$;
4) $CH_2=CH–CH=CH–CH_3$;
5) $CH_2=CH–CH=CH–CH_2–CH_3$.
A) 1, 4, 5 B) 3, 4, 5 C) 1, 2, 5
D) 1, 3 E) 2, 5

93. (99-9-11) Tarkibi C_5H_{10} bo'lgan alkenning struktur va geometrik izomerlar sonini ko'rsating.
A) 5 va 2 B) 6 va 2 C) 6 va 4
D) 5 va 4 E) 4 va 2

94. (99-9-14) Asosiy halqada beshta uglerod atomlari bo'lgan C_3H_{12} tarkibli alkenning nechta struktur va geometrik izomerlari bo'lishi mumkin?
A) 5 va 2 B) 7 va 4 C) 6 va 4
D) 6 va 2 E) 8 va 4

95. (00-2-2) Asosiy zanjiri 4 ta uglerod atomidan tashkil topgan C_7H_{16} tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta bo'ladi?
A) 2 B) 5 C) 3 D) 1 E) 6

96. (00-2-3) Tarkibi C_4H_9 bo'lgan alkilning radikallari soni nechta?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 7 E) 8

97. (00-3-20) Quyidagilardan izomer moddalarni ko'rsating:
1) HCHO; 2) $CH_3CH_2CO_2CH_2CH_3$;
3) $CH_3(CH_2)_3CHO$; 4) $CH_3CO(CH_2)_2CH_3$;
5) $CH_3CH_2COCH_2CH_3$; 6) CH_3CHO.
A) 1, 2, 3 B) 2, 4, 5 C) 3, 4, 5
D) 1, 3, 6 E) 2, 3, 4

98. (00-6-31) Dimetilbenzol aldegidining nechta izomeri bo'lishi mumkin?
A) 4 B) 7 C) 5 D) 8 E) 6

99. (00-6-48) $CH_3(CH_2)_7COOH$ tarkibli modda nomini ko'rsating.
A) oktan kislota B) pikrin kislota
C) kroton kislota D) stearin kislota
E) nonan kislota

100. (00-8-29) Geometrik izomeriya hodisasi qaysi kislotada kuzatilmaydi?
A) buten-2-karbon kislota B) vinilsirka
C) linol D) olein
E) 3-penten

101. (00-8-38) Qaysi oddiy aldegidning izomeri aldegidlar sinfiga taalluqli?
A) propanal B) etanal
C) butanal D) pentanal
E) 2-metilbutanal

102. (00-10-5) Quyidagi moddalarda izomerlar va gomologlar sonining nisbatini toping:
1) 2,2,3,3-tetrametilbutan;
2) 2,4-dimetilgeksan; 3) 3,3-dimetilgeksan;
4) 3,3-dimetilgeptan; 5) 3,3-dimetilpentan.
A) 3:3 B) 3:2 C) 2:3
D) 1:4 E) 2:2

103. (01-1-46) 4,4-dimetil-3-etilpentin-1 ning izomerlarini toping.
1) $CH_3C\equiv CCH(CH_3)C(CH_3)_2CH_3$;
2) $CH_3C\equiv CCH(CH_3)C(CH_3)(C_2H_5)CH_3$;
3) $CH\equiv CCH_2CH_2CH(C_2H_5)C_2H_5$;
4) $CH\equiv CCH_2CH(C_2H_5)CH_2CH_2CH_2CH_3$;
5) $CH_3CH_2C\equiv CC(CH_3)_2CH_2CH_3$.
A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 5
D) 1, 4, 5 E) 3, 4, 5

104. (01-1-54) Tarkibida bitta to'rtlamchi uglerod atomi bo'lgan uglevodorod C_6H_{12} nomini ko'rsating.
A) 2,2-dimetilbuten-3 B) 4-metilpenten-2
C) 3,3-dimetilbuten-1 D) 2,3-dimetilbuten-2
E) 2,3-dimetilbuten-1

105. (01-1-62) Qaysi xususiyat 2,2-dimetilbutan va geksanni umumlashtiradi?
A) gomologlar
B) bitta modda
C) struktur izomerlar
D) geometrik izomerlar
E) optik izomerlar

106. (01-2-3) Izobutanni xlorlash reaksiyasi natijasida uning necha xil monoxlorli hosilasi hosil bo'ladi?
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4 E) 5

107. (01-2-4) H-butanni xlorlash natijasida uning necha xil digaloidli hosilasini olish mumkin?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6 E) 7

108. (01-4-89) Geptanning to'rtlamchi uglerodli nechta izomeri mavjud?
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4 E) yo'q

109. (01-4-98) C_4H_8 tarkibli uglevodorod bromli suvni rangsizlantiradi, suv bilan birikib, uchlamchi spirt hosil qiladi. Uglevodorodining tuzilish formulasini ko'rsating.
A) $CH_3CH_2CHCH_2$
B) $CH_3CHCHCH_3$
C) $CH_2C(CH_3)_2$
D) CH_3CH_2CCH
E) CH_3CHCH_2

110. (01-4-111) Quyidagi uglevodorodlarning qaysilari izomer hisoblanadi?
1) divinil; 2) butadiyen-1, 2;
3) propilen; 4) atsetilen;
5) dimetilatsetilen;
6) propin;
7) buten-1.
A) 3, 4, 6 B) 1, 3, 6 C) 2, 5, 7
D) 1, 5, 7 E) 1, 2, 5

111. (01-5-14) Siklogeksan va 2-metil-1-penten bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) gomologlar; 2) tuzilish izomerlari;
3) geometrik izomerlar;
4) ikkalasi ham bir xil modda.
A) 1 B) 2 C) 4 D) 3 E) 1, 3

112. (01-5-21) Metilpiridin moddasining izomerlar soni nechta?
A) 2 B) 6 C) 4 D) 5 E) 3

113. (01-5-25) Pentadiyen-1,3 va pentin-1 bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) gomologlar; 2) tuzilish izomerlari;
3) geometrik izomer; 4) ikkalasi bir xil modda.
A) 1 B) 1, 3 C) 3 D) 4 E) 2

114. (01-5-26) Malein va fumar kislotalari bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) tuzilish izomerlari; 2) gomologlar;
3) geometrik izomer; 4) ikkalasi ham bir xil modda.
A) 2 B) 3 C) 1 D) 1, 3 E) 4

115. (01-6-47) Izopren va izopropilatsetilen bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) gomologlar; 2) tuzilish izomerlari;
3) geometrik izomerlar; 4) ikkalasi ham bir xil modda.
A) 1 B) 3 C) 2 D) 4 E) 1, 2

116. (01-6-72) Propion kislota va sirka kislotaning metil efiri bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) tuzilish izomeri; 2) gomologlar;
3) geometrik izomer; 4) ikkalasi ham bir xil modda.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1 E) 1, 2

117. (01-7-26) Tarkibi C_4H_6 bo'lgan uglevodorodlarning barcha izomerlari sonini toping.
A) 5 B) 6 C) 4 D) 7 E) 8

118. (01-8-24) Geliyga nisbatan zichligi 25 bo'lgan alkanning asosiy zanjirida beshta uglerod atomi bo'lgan tuzilish formulalarining soni nechta bo'ladi?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7 E) 3

119. (01-10-5) Asosiy zanjirida beshta uglerod atomi bo'lgan C_6H_{10} diyon uglevodorodlarning ochiq zanjirli izomerlari soni nechta bo'lishi mumkin?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6 E) 7

120. (01-10-20) Qaysi moddalarda izomerlar soni bir xil?
1) dibrombenzol; 2) tribrombenzol;
3) vinilbenzol; 4) dibromnitrobenzol;
5) C_7H_7Br.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 5
D) 2, 5 E) 2, 4

121. (01-11-10) Dixlomitrobenzolning nechta izomeri bor?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 7 E) 8

122. (02-1-29) Tarkibi C_5H_8 bo'lgan ochiq zanjirli uglevodorodlarning izomerlari nechta bo'lishi mumkin?
A) 12 B) 10 C) 6 D) 11 E) 8

123. (02-1-36) Quyidagi moddalar orasidan 2-metilgeksen-1 ning gomologlarini toping:
1) $CH_3(CH_2)_3C(CH_3)CH_2$;
2) $(CH_3)_2CHC_2H_5$;
3) $CH_2C(CH_3)CHCH_2$;
4) $CH_2C(CH_3)(CH_2)_2CH_3$;
5) $C_2H_5C(CH_3)CH_2$;
6) $CH_2CHCH(CH_3)_2$.
A) 1, 2, 3 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 4
D) 3, 5, 6 E) 4, 5, 6

124. (02-1-48) C_5H_{11} radikalining izomerlari sonini toping.
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9 E) 10

125. (02-1-50) Formulasi C_7H_{14} va asosiy zanjirida 5 ta uglerod atomlari bo'lgan alken uchun quyidagi izomerlarning qaysilari taalluqli bo'ladi?
1) 2,3-metilpenten-1;
2) 2-etilpenten-1;
3) sis-4,4-dimetilpenten-2;
4) 3-etilpenten-1; 5) 2-etilpenten-2;
6) trans-4-etilpenten-2;
7) 4-etilpenten-1.
A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 3, 4, 7
C) 1, 3, 5, 6 D) 1, 3, 5, 6
E) 1, 2, 3, 4

126. (02-1-83) Tarkibi C_4H_8O bo'lgan moddaning yopiq zanjirli izomerlar sonini toping.
A) 4 B) 6 C) 5 D) 7 E) 3

127. (02-1-84) Tarkibi C_4H_8O bo'lgan ochiq va yopiq zanjirli spirtlar sonini toping.
A) 10 B) 7 C) 4 D) 11 E) 9

128. (02-2-9) Pentin molekulasi uchun ochiq zanjirli izomerlar soni nechta bo'ladi?
A) 9 B) 3 C) 5 D) 7 E) 4

129. (02-2-27) Formulasi C_7H_{16} bo'lgan alkanda bitta uchlamchi uglerod atomiga ega bo'lgan izomerlar soni nechta bo'ladi?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

130. (02-2-28) Tarkibi C_7H_{16} bo'lgan alkanning ikkita uchlamchi uglerodga ega bo'lgan izomerlar soni nechta bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4 E) 5

131. (02-2-47) Tarkibi $C_4H_7NO_2$ bo'lgan yopiq zanjirli nitrobirikmalar soni qancha bo'lishi mumkin?
A) 3 B) 1 C) 4 D) 2 E) 5

132. (02-2-53) Quyidagi moddalar orasidan bir-biriga gomolog bo'lganlarini tanlang:
1) $CH_3C(CH_3)_2CH_2CH_3$;
2) $CH_3CH(CH_3)CH_2CH_2CH_3$;
3) $CH_3CH_2CH(CH_3)CH_2CH_3$;
4) $CH_3C(CH_3)_2CH_3$;
5) $CH_3C(CH_3)_2(CH_2)_2CH_3$;
6) $CH_3CH(CH_3)CH_2CH_3$.
A) 1, 4, 5; 2, 6 B) 1, 4, 5; 3, 6
C) 1, 3, 5; 2, 6 D) 1, 4, 6; 2, 5
E) 3, 4, 5; 1, 6

133. (02-2-54) Quyidagi moddalar orasidan izomerlarni tanlang:
1) $CH_3CH(CH_3)CH_2CH_3$;
2) $CH_3C(CH_3)_2(CH_2)_2CH_3$;
3) $CH_3CH(CH_3)(CH_2)_2CH_3$;
4) $CH_3CH(CH_3)CH(CH_3)CH_3$;
5) $CH_3C(CH_3)_2CH_2CH_3$; 6) $CH_3C(CH_3)_3$
A) 2, 3, 4; 1, 5 B) 1, 3, 4; 1, 6
C) 2, 4, 6; 1, 5 D) 3, 4, 5; 1, 6
E) 1, 4, 6; 3, 5

134. (02-3-45) Quyidagi modda $C_3H_6(Cl)COOH$ da nechta struktur izomer bo'ladi?
A) 3 B) 7 C) 5 D) 4 E) 6

135. (02-5-64) Tarkibi $C_8H_8O_2$ bo'lgan aromatik birikma izomerlaridan nechtasi gidroliz reaksiyasida qatnashadi (oksialdegid va oksiketonlarni hisobga olmang)?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

136. (02-6-4) Tarkibi $C_8H_{10}O$ bo'lgan aromatik birikmaning nechta izomeri bor?
A) 14 B) 19 C) 15 D) 12 E) 18

137. (02-6-5) Benzol yadrosida 2 ta o'rinbosardan ortiq bo'lmagan $C_8H_{10}O$ izomerlaridan nechtasi xona temperaturasida natriy metali bilan reaksiyada qatnasha oladi?
A) 2 B) 6 C) 8 D) 10 E) 14

138. (02-6-6) Benzol halqasida 2 tadan ortiq o'rinbosari bo'lmagan $C_8H_{10}O$ tarkibli izomerlar sonini toping.
A) 8 B) 13 C) 9 D) 14 E) 12

139. (02-6-7) Benzol halqasida 2 tadan ortiq o'rinbosar tutmagan $C_8H_{10}O$ ning izomerlari nechta bo'ladi?
A) 2 B) 3 C) 6 D) 8 E) 12

140. (02-6-8) Tarkibi $C_8H_{10}O$ bo'lgan aromatik birikmalarning nechtasi xona temperaturasida natriy metali bilan reaksiyaga kirishadi?
A) 8 B) 10 C) 6 D) 14 E) 12

141. (02-6-11) Tarkibi $C_8H_{10}O$ bo'lgan bir o'rinbosarli izomerlardan nechtasi natriy metali bilan reaksiyaga kirishadi?
A) 0 B) 1 C) 2 D) 3 E) 4

142. (02-6-12) Tarkibida karboksil va murakkab efir gruppasi bo'lgan $C_8H_8O_2$ aromatik birikmalarning nechta izomeri kumush ko'zgu reaksiyasida qatnashadi?
A) 6 B) 9 C) 10 D) 8 E) 7

143. (03-7-48) Tarkibi C_4H_9OH bo'lgan spirtning struktura izomerlari soni nechta?
A) 1 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

144. (03-7-57) Tarkibi $C_3H_5NO_2$ bo'lgan moddalar nechta bo'lishi mumkin?
A) 9 B) 8 C) 10 D) 7 E) 11

145. (03-7-66) C_3H_5 tarkibli bir valentli radikallar nechta bo'lishi mumkin?
A) 4 B) 2 C) 5 D) 3
E) bunday radikal yo'q

146. (03-8-16) Vodorodga nisbatan zichligi 29 ga teng bo'lgan to'yingan uglevodorodning nechta izomeri bor?

A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta
D) 9 ta E) 24 ta

147. (04-1-730) Geptan nechta izomerga ega bo'ladi?
A) 1 B) 11 C) 9 D) 7 E) 5

148. (04-1-733) C_8H_{10} tarkibli moddaning necha ochiq zanjirli va monotsiklli izomeri bor? (ochiq zanjirli molekulalar uchun sis- va trans-izomerlarni hisobga oling).
A) 4:6 B) 5:5 C) 7:5
D) 6:5 E) 10:10

149. (04-1-736) Bir atomli spirtlarga qaysi sinf moddalari izomer hisoblanadi?
A) murakkab efirlar B) aldegidlar
C) ketonlar D) karbon kislotalar
E) oddiy efirlar

150. (04-1-739) Organik birikmalarda kuzatiladigan izomeriya hodisasining ta'rifi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?
A) ayni gomologik qatorni tashkil etuvchi moddalar
B) sifat tarkibi bir xil bo'lgan moddalar
C) miqdor tarkibi bir xil bo'lgan moddalar
D) tarkibi hamda molekulyar massasi bir xil bo'lib, tuzilishi bilan farq qilmaydigan moddalar
E) tarkibi va molekulyar massasi bir xil bo'lib, tuzilishi va xossalari har xil bo'lgan moddalar

151. (04-1-741) O'zaro izomer bo'lmagan sinflarni aniqlang:
1) bir atomli to'yingan spirt; 2) alkan;
3) aldegid; 4) diyen; 5) aren; 6) oddiy efir.
A) 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4
C) 3, 4, 5 D) 4, 6
E) 1, 6

152. (04-1-746) Qaysi uglevodorodlarda sis- va trans-izomeriya mavjud emas?
1) buten-1; 2) penten-1; 3) penten-2;
4) buten-2; 5) pentadiyen-1,3;
6) butadiyen-1,3.
A) 1, 2 va 4 B) 1, 2 va 3
C) 3, 4 va 5 D) 2, 3 va 5
E) 1, 2 va 6

153. (04-1-747) Izomerlari mavjud bo'lgan moddalarni aniqlang.
1) propan; 2) dixloretan; 3) 1,1-dibrometan;
4) 1,2-dixlorpropan; 5) metanol; 6) sirka kislota.
A) 1, 5 B) 1, 4 C) 2, 4, 6
D) 2, 3, 4 E) 2, 3, 4, 6

154. (04-1-753) C_4H_9 tarkibli bir valentli normal tuzilishli va tarmoqlangan zanjirli radikallar nechta bo'lishi mumkin?
A) 4,4 B) 2 C) 5,2 D) 2,2
E) bunday radikal yo'q

155. (04-1-761) Pentanning tarmoqlangan izomerlaridagi to'rtlamchi, uchlamchi, ikkilamchi va birlamchi uglerod atomlar soni keltirilgan qatorni toping.
A) 9, 4, 1, 1
B) 8, 4, 1, 1
C) 1, 1, 1, 7
D) 1, 1, 4, 9
E) 7, 1, 1, 1

156. (04-1-771) Necha xil monoxlorli hosilalar 2,2-dimetilbutan xlorlanganda hosil bo'ladi?
A) 5 B) 2 C) 3 D) 1 E) 4

157. (04-1-794) Tarkibi C_6H_{12} va asosiy zanjirda to'rtta uglerod atomlarini tutgan alkenning nechta struktur va geometrik izomerlari bo'lishi mumkin?
A) 5 va 2 B) 7 va 4 C) 3 va 0
D) 6 va 2 E) 3 va 1

158. (04-1-820) Etanga nisbatan 4 marta zich bo'lgan aromatik uglevodorod barcha izomerlardagi halqaga birikkan radikallarda nechtadan birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomlar bor?
A) 18; 5; 0; 0 B) 9; 6; 2; 4
C) 18; 3; 1; 0 D) 18; 5; 1; 0
E) 19; 6; 0; 0

159. (05-1-416) Butan va 2-metilpropan bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) gomologlar; 2) tuzilish izomerlari;
3) geometrik izomerlar; 4) ikkalasi ham bir xil moda.
A) 1 B) 2 C) 4 D) 3 E) 1, 3

160. (v4-102-29) Formulasi C_5H_{10} bo'lgan nechta alken va sikloalkanlar bo'lishi mumkin?
A) 6 alken, 4 sikloalkan
B) 3 alken, 6 sikloalkan
C) 5 alken, 6 sikloalkan
D) 6 alken, 5 sikloalkan
E) 4 alken, 5 sikloalkan

161. (v4-103-13) Moy kislota va sirka kislotaning etil efiri bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) tuzilish izomeri; 2) gomologlar;
3) geometrik izomer; 4) ikkalasi ham bir xil modda.
A) 4 B) 1, 2 C) 2 D) 1 E) 3

162. (v4-103-36) Quyidagi moddalarning qaysi birida sis- va trans-izomerlar bo'ladi?
A) 2-metilbuten-2 B) 2-metilpenten-2
C) buten-1 D) 3-metilgeksen-3
E) penten-1

163. (v4-105-13) Izopren va propilatsetilen bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) gomologlar; 2) tuzilish izomerlari;
3) geometrik izomerlar;
4) ikkalasi ham bir xil modda.
A) 2 B) 1, 2 C) 1 D) 4 E) 3

164. (v4-110-13) Quyidagi modda:
2-metilgeksen-1 ning gomologlarini toping:
1) $CH_3(CH_2)_3C(CH_3)CH_2$;
2) $(CH_3)_2CHC_2H_5$; 3) $CH_2C(CH_3)CHCH_2$;
4) $CH_2C(CH_3)(CH_2)_2CH_3$;
5) $C_2H_2C(CH_3)CH_2$;
6) $CH_2C(CH_3)_2$.
A) 2, 3, 4 B) 4, 5, 6 C) 1, 2, 3
D) 3, 5, 6 E) 1, 4, 5

165. (v4-111-29) Butadiyen-1,3 va butin-1 bir-biriga nisbatan nima hisoblanadi?
1) gomologlar; 2) tuzilish izomerlari;
3) geometrik izomer; 4) ikkalasi bir xil modda.
A) 3 B) 2 C) 1 D) 4 E) 1, 3

166. (v4-119-13) Izomer moddalarni tanlang.
1) $CH_3CH(CH_3)CH_2CH_3$;
2) $CH_3C(CH_3)_2(CH_2)_2CH_3$;
3) $CH_3CH(CH_3)(CH_2)_2CH_3$;
4) $CH_3CH(CH_3)CH(CH_3)CH_3$;
5) $CH_3C(CH_3)_2CH_2CH_3$; 6) $CH_3C(CH_3)_3$.
A) 2, 4, 6; 1, 5 B) 1, 4, 6; 3, 5
C) 2, 3, 4; 1, 5 D) 3, 4, 5; 1, 6
E) 1, 3, 4; 1, 6

167. (v4-119-36) Quyidagi moddalarning qaysi birida sis- va trans-izomerlar bo'ladi?
A) 2-metilbuten-2 B) 2-metilpenten-2
C) buten-1 D) 3-metilgeksen-3
E) penten-1

168. (v5-101-13) Geksanning izomerlari sonini va barcha izomerlaridagi ikkilamchi, uchlamchi, birlamchi va to'rtlamchi uglerodlarning yig'indisini ko'rsating.
A) 5, 7, 3, 18, 2 B) 5, 9, 4, 16, 1
C) 4, 9, 5, 15, 1 D) 4, 10, 4, 15, 1
E) 3, 8, 6, 16, 2

169. (v5-103-16) $C_5H_{12}O$ tarkibli oddiy efir izomerlari ... ta.
A) 8 B) 4 C) 6 D) 5 E) 7

170. (v5-105-13) Pentanning barcha izomerlari soni ... ta bo'lib, ulardagi uglerodlarning ... tasi birlamchi uglerod atomi hisoblanadi.
A) 3; 7 B) 2; 5 C) 3; 9
D) 3; 6 E) 4; 11

171. (v5-105-16) Tarkibi $C_5H_{10}O_2$ bo'lgan bir asosli karbon kislotaning izomerlari ... ta. .
A) 3 B) 5 C) 6 D) 4 E) 2

172. (v5-109-30) Pentinning izomerlari – ...

1) 3-metilbutin-1; 2) 2,3-dimetilbutadiyen-1,3;
3) izopren; 4) 4-metil-3-etilpentin-1;
5) metiletilatsetilen; 6) metilpropilatsetilen;
7) 4,4-dimetilpentin-1; 8) 3-metilbutin-1;
9) 3,4-dimetilpentin-1; 10) pentadiyen-1,4.
A) 3, 6, 7, 9, 10
B) 1, 3, 5, 8, 10
C) 4, 7, 9
D) 1, 4, 6, 8, 10
E) 2, 4, 5, 6, 8

173. (v5-111-32) $C_4H_{10}O$ formulaga to'g'ri keladigan birlamchi spirtlar va oddiy efirlar sonini ko'rsating.
A) 2 va 2 B) 2 va 3 C) 4 va 2
D) 4 va 3 E) 3 va 3

174. (v5-112-32) $C_5H_{11}Br$ tarkibli alkanning galogenli izomeri nechta bo'lishi mumkin?
A) 8 B) 10 C) 6 D) 9 E) 7

175. (v5-114-36) Quyidagi formulalar bilan necha xil birikma berilgan?
1) $CH_3CH(CH_3)CH_2CH_2CH_3$;
2) $CH_3(CH_2)_2CH(CH_3)CH_3$;
3) $CH_3CH_2CH(CH_3)CH_2CH_3$;
4) $CH_3CH_2CH(CH_3)CH(CH_3)CH_3$;
5) $CH_3CH(CH_3)CH(CH_3)CH_2CH_3$;
6) $CH_3CH_2CH(CH_3)CH_2CH_3$.
A) 3 B) 2 C) 4 D) 5 E) 6

176. (v5-117-30) Qaysi birikmalarda geometrik izomeriya mavjud bo'ladi?
1) $CH_3–C(CH_3)=CH_2$;
2) $CH_2=CH–CH_2–CH_3$; 3) $CH_3–C(CH_3)=$
$=CH–CH_3$;
4) $CH_3–CH_2–CH=CH–CH_3$;
5) $CH_3–CH=CH–CH_2–CH=CH–CH_3$.
A) 2, 5 B) 4, 5 C) 1, 3
D) 1, 4 E) 2, 3

177. (v5-119-13) Siklogeksanning uch a'zoli halqa tutgan izomerlari soni – ... .
A) 4 B) 5 C) 12 D) 7 E) 6

178. (v5-119-34) $C_4H_9NO_2$ tarkibli aminokislota izomerlari nechta?
A) 7 B) 5 C) 8 D) 4 E) 6

179. (v5-123-34) C_3H_9N tarkibli aminning nechta izomeri mavjud?
A) 3 B) 7 C) 4 D) 5 E) 6

180. (v5-127-13) Tarkibi C_5H_{10} bo'lgan sikloparafinning izomerlari soni nechta?
A) 3 B) 6 C) 4 D) 2 E) 5

181. (v5-127-36) C_6H_{12} tarkibli sikloalkan izomerlari soni – ... .
A) 8 B) 12 C) 6 D) 11 E) 10

182. (v5-130-13) Butanning ... ta izomeri bo'lib, ularda ... ta birlamchi, ... ta ikkilamchi va ... ta uchlamchi uglerod atomlari bo'ladi.
A) 1; 4; 1; 1 B) 2; 3; 2; 1
C) 2; 4; 1; 1 D) 2; 5; 2; 1
E) 3; 5; 2; 1

183. (v5-131-26) C_4H_9Br tarkibli alkanning galogenli izomeri nechta bo'lishi mumkin?
A) 5 B) 7 C) 3 D) 6 E) 4

184. (v5-133-13) Geksanning ... ta izomeri bo'lib, ularda ... ta uchlamchi uglerod atomi bo'ladi.
A) 4; 2 B) 3; 2 C) 5; 4 D) 5; 6 E) 4; 3

185. (v5-133-32) Izobutilformiat gidrolizida hosil bo'lgan spirtning tarkibida OH^- tutgan ... ta izomeri bo'ladi.
A) 1 B) 5 C) 4 D) 3 E) 2

186. (v5-134-13) Alken, keton, oddiy efirlarga mos ravishda izomer bo'lgan moddalar qatorini ko'rsating.
A) arenlar, sikloalkanlar, spirtlar
B) sikloalkanlar, spirtlar, aldegidlar
C) sikloalkanlar, aldegidlar, arenlar
D) kislotalar, spirtlar, sikloalkanlar
E) sikloalkanlar, aldegidlar, spirtlar

187. (v5-144-15) C_4H_9CHO tarkibli aldegidning (tarkibida – CHO tutgan) ... ta izomeri mavjud.
A) 3 B) 6 C) 4 D) 2 E) 5

188. (v6-103-32) Tarkibi C_4H_9OH bo'lgan bir atomli spirtning ... ta izomeri bo'ladi.
A) 4 B) 3 C) 2 D) 5

189. (v6-111-36) Tarkibi $C_4H_{10}O$ bo'lgan bir atomli spirt va ochiq zanjirli oddiy efir izomerlari soni yig'indisini toping.
A) 4 + 3 B) 3 + 5 C) 5 + 4 D) 2 + 4

190. (v6-114-36) Geksan izomerlaridagi uchlamchi va birlamchi uglerod atomlari soni o'zaro qanday nisbatda bo'ladi?
A) 1:2,25 B) 1:1,78 C) 1:4 D) 1:9

191. (v6-116-36) Tarkibi $C_4H_{10}O$ bo'lgan bir atomli spirt va ochiq zanjirli oddiy efir izomerlari soni qanday nisbatda bo'ladi?
A) 1:0,25 B) 1:0,50 C) 1:1,0 D) 1:0,75

192. (v6-117-16) ... ning tarkibida ikkita qo'shbog' bo'lsa-da, uning geometrik izomerlari mavjud emas.
A) Pentadiyen-1,3 B) Olein kislota
C) Metakril kislota D) 2-buten kislota

193. (v6-120-36) $C_5H_{10}O_2$ tarkibli karbon kislota va uning murakkab efiri izomerlari yig'indisi nechta bo'lishi mumkin?
A) 3 + 7 B) 2 + 6
C) 1 + 9 D) 5 + 8

194. (v6-121-36) Tarkibi C_4H_9COOH bo'lgan nechta murakkab efir izomeri bo'lishi mumkin?
A) 11 B) 8 C) 7 D) 9

195. (v6-124-36) C_4H_9COOH tarkibli karbon kislotaning asosiy zanjirida 4 ta uglerod bo'lgan nechta izomeri bo'lishi mumkin?
A) 4 B) 5 C) 2 D) 3

196. (v6-144-36) Siklogeksanning 12 izomeri ma'lum bo'lsa, ulardagi birlamchi uglerod atomlari soni nechta bo'lishi mumkin?
A) 24 B) 13 C) 21 D) 8

197. (v7-104-15) 2-metilgeksen-2 ning izomerlarini aniqlang.
1) $CH_3(CH_2)_2C(CH_3)CH_2$;
2) $(CH_3)_2CHCH_2C_2H_5$;
3) $CH_2C(CH_3)CH_2CH_2CH_3$;
4) $CH_3C(CH_3)_2CHCHCH_3$;
5) $C_2H_5C(CH_3)CHCH_2CH_3$;
6) $CH_3CH_2CH(CH_3)_2$.
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 6 C) 3, 5, 6 D) 2, 3, 4

198. (v7-105-15) $C_5H_{11}OH$ tarkibli bir atomli spirtning qaysi izomerlari oksidlanganda aldegid hosil bo'ladi?
1) pentanol-2; 2) 3-metilbutanol-2;
3) 2-metilbutanol-1; 4) pentanol-3;
5) 3-metilbutanol-1; 6) 2-metilbutanol-2.
A) 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 6

199. (v7-107-15) Oddiy efirlarga qaysi sinf moddalari izomer hisoblanadi?
A) aldegid B) murakkab efir
C) bir atomli spirt D) keton

200. (v7-111-15) Glitsin 2-aminopropan kislota va valin uchun taalluqli bo'lgan javobni toping.
A) strukturaviy izomerlar
B) gomologlar
C) geometrik izomerlar
D) barchasi bitta modda

201. (v7-113-13) Qaysi qatorda benzol gomologlari keltirilgan?
A) 1,2,3-trimetilbenzol, toluol, vinilbenzol
B) toluol, etilbenzol, kumol
C) fenol, toluol, kumol
D) metilbenzol, etilbenzol, vinilbenzol

202. (v7-120-30) Tarkibi C_5H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorodning qanday izomer(lar)i oksidlanganda bir asosli karbon kislotaga aylanadi?
1) etilbenzol; 2) 1,4-dimetilbenzol;
3) 1,2-dimetilbenzol; 4) kumol;
5) p-ksilol; 6) stirol.
A) 1 B) 3 C) 1, 4, 6 D) 2, 3, 5

203. (v7-170-14) Quyidagi uglevodorodlardan geometrik izomerlari mavjud bo'lganlarini tanlang:
1) 2-metilpentadiyen-1,4;
2) 3-metilpentadiyen-1,3; 3) 2-metilbutadiyen-1,3; 4) 4-metilpenten-2;
5) 4-metilpentadiyen-1,3; 6) pentadiyen-1,3;
7) 4-metil-2-etilpentadiyen-1,3.
A) 2, 4, 6 B) 3, 5, 6
C) 1, 2, 4, 7 D) 1, 3, 5, 7

204. (v7-184-14) Tarkibi C_4H_8 bo'lgan alken izomerlari bromlanganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
1) 1,2-dibrombutan;
2) 2,3-dibrombutan;
3) 1,3-dibrom-2-metilpropan;
4) 1,2-dibrom-2-metilpropan;
5) 1,4-dibrombutan.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2 C) 1, 2, 4 D) 3, 4

205. (v8-101-28) Benzol halqasida bitta va ikkita o'rinbosarlari bo'lgan $C_{10}H_{14}$ tarkibli aromatik moddalarning izomerlari yig'indisini aniqlang.
A) 4 + 12 B) 4 + 9
C) 3 + 12 D) 3 + 10

206. (v8-104-2) Har xil uglevodorod sinfiga doir ikkita modda elementar analiz qilinganda, ularning foiz tarkibi, bir xil ekanligi aniqlandi. Qaysi uglevodorodlar analiz qilingan?
1) etilen uglevodorodlari; 2) atsetilen uglevodorodlari; 3) aromatik uglevodorodlar; 4) parafinlar; 5) sikloparafinlar; 6) dien uglevodorodlar.
A) 2, 3 yoki 4, 5 B) 1, 5
C) 1, 5 yoki 2, 6 D) 2, 6

207. (v8-104-28) Benzol halqasida ikkita o'rinbosari bo'lgan $C_{10}H_{14}$ tarkibli aromatik moddaning izomerlari sonini aniqlang.
A) 10 B) 8 C) 12 D) 9

208. (v8-105-11) C_4H_8 formulaga ega bo'lgan uglevodorod uchun nechta oshiq zanjirli (geometrik izomerlari bilan) va siklik, tuzilishli izomer uglevodorodlar to'g'ri keladi?
A) 2 + 2 B) 4 + 1 C) 3 + 3 D) 4 + 2

209. (v8-105-12) $C_5H_{11}OH$ tarkibli bir atomli spirtning qaysi izomerlari oksidlanganda aldegid hosil bo'ladi?
1) pentanol-2; 2) 2,3-dimetilbutanol-1;
3) 2-metilbutanol-1; 4) pentanol-3;
5) 3-metilbutanol-1; 6) 2-metilbutanol-2.
A) 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 6

210. (v8-105-28) Benzol halqasida bitta o'rinbosari bo'lgan C_9H_{12} tarkibli aromatik moddaning izomerlari sonini aniqlang.
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

211. (v8-106-28) Benzol halqasida bitta o'rinbosari bo'lgan $C_{10}H_{14}$ tarkibli aromatik moddaning izomerlari sonini aniqlang.
A) 4 B) 3 C) 6 D) 5

212. (v8-107-28) Benzol halqasida ikkita o'rinbosari bo'lgan C_9H_{12} tarkibli aromatik moddaning izomerlari sonini aniqlang.
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

213. (v8-110-28) Benzol halqasida bitta va ikkita o'rinbosarlari bo'lgan C_9H_{12} tarkibli aromatik moddalar izomerlari yig'indisini aniqlang.
A) 3 + 4 B) 2 + 4 C) 3 + 5 D) 2 + 3

214. (v8-111-10) Qaysi qatorda kumol izomerlari keltirilgan?
A) 1,2,3-trimetilbenzol, toluol, vinilbenzol
B) toluol, etilbenzol, kumol
C) 1-metil-2-etilbenzol, p-etiltoluol, propilbenzol
D) izopropilbenzol, propilbenzol, vinilbenzol

215. (v8-114-28) Tarkibida benzol halqasi bo'lgan C_7H_8O tarkibli fenol izomerlari (OH^- guruhi to'g'ridan to'g'ri benzol halqasi bilan ulangan) sonini aniqlang.
A) 3 B) 2 C) 5 D) 4

216. (v8-120-28) Tarkibi C_8H_{12} bo'lgan benzol yadrosi tutgan uglevodorodning nechta izomeri mavjud?
A) 7 B) 6 C) 9 D) 8

217. (v8-129-12) $C_5H_{11}OH$ tarkibli bir atomli spirtning qaysi izomerlari oksidlanganda aldegid hosil bo'lmaydi?
1) 2-metilbutanol-1;
2) 3-metilbutanol-2;
3) 2-metilbutanol-2;
4) 2,2-dimetilpropanol-1;
5) 3-metilbutanol-1;
6) pentanol-3.
A) 2, 3, 6 B) 1, 4, 5 C) 2, 3 D) 4, 5

218. (v9-101-15) Qaysi qatorda siklobutan izomerlari keltirilgan?
A) siklopentan; siklogeksan; siklopropan
B) dimetilatsetilen; butadiyen-1,3; metilsiklopropen
C) buten-1; buten-2; 2-metilpropen-1
D) izopren; butadiyen-1,3; metilsiklobutan

219. (v9-103-3) Qaysi qatorda izobutilen izomerlari keltirilgan?
A) buten-1; buten-2; butadiyen-1,2
B) siklobutan; buten-2; metilsiklopropan
C) izopren; butadiyen-1,3; metilsiklobutan
D) vinilatsetilen; dimetilatsetilen; 1,2-dinetilsiklopropan

220. (v9-106-30) Bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 50 bo'lgan, asosiy zanjirida esa beshta uglerod atomi tutgan alkanning nechta izomeri mavjud?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 7

221. (v9-107-26) Geometrik izomeri mavjud bo'lgan diyen uglevodorodni aniqlang.
A) pentadiyen-1,3
B) pentadiyen-2,3
C) pentadiyen-1,2
D) pentadiyen-1,4

222. (v9-110-19) Qaysi qatorda benzol gomologlari keltirilgan?
A) metilbenzol; propilbenzol; vinilbenzol
B) m-krezol; o-krezol; p-krezol
C) ksilol; kumol; toluol
D) toluol; ksilol; krezol

223. (v9-111-32) Tarkibi C_5H_8 bo'lgan, asosiy zanjirida beshta uglerod atomi tutgan ochiq zanjirli diyen uglevodorodning izomerlari nechta bo'ladi (geometrik izomerlari hisobga olinmasin)?
A) 5 B) 3 C) 4 D) 6

224. (v9-113-23) Qaysi qatorda 1-metil-2-etilbenzol izomerlari keltirilgan?
A) 1,2,3-trimetilbenzol; kumol; propilbenzol
B) propilbenzol; krezol; 1,2,4-trimetilbenzol
C) vinilbenzol; o-ksilol; 1,4-dimetilbenzol
D) propilbenzol; 1,2,3-trimetHbenzol; o-ksilol

225. (v9-116-10) Qaysi qatorda, siklobutan izomerlari keltirilgan?
A) dimetilatsetilen; butadiyen-1,3; metilsiklopropen
B) izopren; butadiyen-1,3; metilsiklobutan
C) buten-1; buten-2; 2-metilpropen-1
D) siklopentan; siklogeksan; siklopropan

226. (v9-118-12) Tarkibida oltita, asosiy zanjirida beshta uglerod atomi bo'lgan alkenning ochiq zanjirli izomerlari soni nechta bo'ladi (geometrik izomerlar hisobga olinmasin)?
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8

227. (v9-118-23) Qaysi qatorda etilbenzol izomerlari keltirilgan?
A) o-krezol; m-krezol; p-krezol
B) o-ksilol; m-ksilol; p-ksilol
C) metilbenzol; etilbenzol; propilbenzol
D) vinilbenzol; o-ksilol; 1,4-dimetilbenzol

228. (v9-123-19) Qaysi qatorda siklogeksan izomerlari keltirilgan?
A) 2-metilpenten-1; pentin-1; pentadiyen-1,3
B) siklogeksan; siklobutan; siklogeksen
C) geksin-1; metilsiklopenten; 2-metilpentadiyen-1,4
D) etilsiklobutan; metilsiklopentan; 2,3-dimetilbuten-2

229. (v9-124-15) Tarkibi C_5H_8 bo'lgan, asosiy zanjirida beshta uglerod atomi tutgan ochiq zanjirli alkadiyen va alkin uglevodorodning izomerlari nechta bo'ladi (geometrik izomerlari hisobga olinmasin)?
A) 2 + 4 B) 2 + 3
C) 3 + 5 D) 3 + 4

230. (v11-103-34) C_9H_{12} tarkibli benzol halqasida bitta o'rinbosari bo'lgan aromatik moddaning izomerlari sonini aniqlang.
A) 2 B) 4 C) 1 D) 3

231. (v11-108-22) Siklogeksen izomerlari keltirilgan qatorni belgilang.
A) etilsiklobutan; metilsiklopentan; 2,3-dimetilbuten-2
B) geksin-1; metilsiklopenten; 2-metilpentadiyen-1,4
C) siklogeksan; siklobutan; siklogeksen
D) 2-metilpenten-1; pentin-1; pentadiyen-1,3

232. (v11-111-29) Etilbenzol izomerlari keltirilgan qatorni belgilang.
A) metilbenzol; etilbenzol; propilbenzol
B) o-krezol; m-krezol; p-krezol
C) o-ksilol; m-ksilol; p-ksilol
D) vinilbenzol; o-ksilol; 1,4-dimetilbenzol

233. (v12z-219-7) $C_5H_{10}Cl_2$ va $C_4H_8Cl_2$ moddalarning normal zanjirli izomerlari sonining nisbatini aniqlang.
A) 2:1 B) 2,5:1 C) 1:1 D) 1,5:1

234. (v12z-219-27) Quyidagi moddalar orasidan o'zaro gomolog (a) va o'zaro izomer (b) bo'lganlarini aniqlang:
1) $C_6H_5CHCH_2$; 2) $C_6H_5CH(CH_3)_2$; 3) C_6H_6;
4) $C_6H_5CH_2CH_3$; 5) $(CH_3)_2CHCCCH_3$;
6) $CH_2CHC(CH_3)CHCH_3$.
A) a-2, 4; b-1, 5; b-3, 6
B) a-2, 3, 4; b-5, 6
C) a-2, 4; a-1, 6; b-3, 5
D) a-2, 4; a-5, 6; b-1, 2

235. (v12z-229-36) Quyidagi moddalar orasidan o'zaro gomolog (a) va o'zaro izomer (b) bo'lganlarini aniqlang:
1) $(CH_3)CHCHCH(CH_3)_2$;
2) $CH_3COOCH(CH_3)_2$;
3) $(CH_3)_2CHCHCHCH_2CH_3$;
4) $(CH_3)_2CHCH_2COOH$;
5) $(CH_3)_2CHCCCH_3$;
6) CH_3CCH.
A) a-1, 3; b-2, 5; b-4, 6
B) a-1, 3; b-2, 4; b-5, 6
C) a-2, 4; a-5, 6; b-1, 3
D) a-1, 3; a-5, 6; b-2, 4

236. (v12z-232-25) Necha xil R–COONa tarkibli moddaga NaOH ta'sir ettirib $CH(CH_3)_2(CH_2)_2CH(CH_3)CH(CH_3)_2$ tarkibli uglevodorod olish mumkin (nazariy jihatdan)?
A) 8 B) 10 C) 7 D) 12

237. (v12z-239-15) Quyidagi moddalar orasidan o'zaro gomolog (a) va o'zaro izomer (b) bo'lganlarini aniqlang:
1) $CH_3(CH_2)_2CH_3$; 2) CH_3CH_2OH;
3) $CH_3C(CH_3)_2CH_3$; 4) CH_3CH_2CHO;
5) CH_3OCH_3; 6) $CH_3C(CH_3)O$.
A) a-1, 3; a-4, 6; b-2, 5
B) a-1, 3; b-2, 4; b-5, 6
C) a-5, 6; b-1, 3; b-2, 4
D) a-1, 3; b-2, 5; b-4, 6

238. (v12z-240-14) Necha xil R–COONa tarkibli moddaga NaOH ta'sir ettirib $CH_3CH(CH_3)CH(CH_3)C(CH_3)_2CH_2CH_3$ tarkibli uglevodorod olish mumkin (nazariy jihatdan)?
A) 4 B) 7 C) 5 D) 6

239. (v12z-241-21) Necha xil R–COONa tarkibli moddaga NaOH ta'sir ettirib, $CH(CH_3)_2CH(CH_3)(CH_2)_2CH(CH_3)CH_2CH_3$ tarkibli uglevodorod olish mumkin (nazariy jihatdan)?
A) 8 B) 12 C) 7 D) 10

240. (v12z-247-15) $C_5H_{11}Cl$ va $C_3H_6Cl_2$ larning izomerlari sonlarining nisbatini aniqlang.
A) 1:1,5 B) 1,5:1
C) 2:1 D) 1:2

241. (v12c-102-18) Quyidagi moddalar orasidan o'zaro gomolog (a) va o'zaro izomer (b) bo'lganlarini aniqlang:
1) $CH_3(CH_2)_2CH_3$; 2) CH_3CH_2OH;
3) $CH_3C(CH_3)_2CH_3$; 4) CH_3OCH_3;
5) CH_3CH_2CHO; 6) $CH_3C(CH_3)O$.
A) a-1, 3; b-2, 4; b-5, 6
B) a-1, 3; b-2, 5; b-4, 6
C) a-5, 6; b-1, 3; b-2, 4
D) a-1, 3; a-5, 6; b-2, 4

242. (v12c-109-4) C_4H_9Cl va $C_5H_{11}Cl$ larning xlor birlamchi uglerod atomlari bilan bog'langan izomerlari sonlarining nisbatini aniqlang.
A) 35 B) 11 C) 13 D) 12

243. (v12c-129-36) $C_4H_6Cl_2$ tarkibli moddaning asosiy zanjirida to'rtta uglerod atomi bo'lgan atsiklik izomerlari sonini aniqlang. (geometrik izomerlarni hisobga olmang)
A) 12 B) 17 C) 14 D) 10

244. (v12c-130-8) $C_4H_6Cl_2$ tarkibli moddanining asosiy zanjirida to'rtta uglerod atomi bo'lgan atsiklik izomerlar sonini aniqlang (geometrik izomerlari hisobga olmang).
A) 17 B) 12 C) 10 D) 14

245. (v13-122-27) C_6H_{14} tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta?
A) 3 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 4 ta

246. (v13-134-6) C_9H_{12} formulaga benzolning nechta gomolog izomeri to'g'ri keladi?
A) 6 ta B) 7 ta C) 8 ta D) 5 ta

247. (v13-169-2) Aminopiridinning necha xil izomeri bor?
A) 3 B) 2 C) 5 D) 4

248. (v15-121-13) C_7H_{16} tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta?
A) 5 ta B) 7 ta C) 9 ta D) 6 ta

249. (v16-106-11) Sis va trans izomeriya xos bo'lgan uglevodorodlar sinfini ko'rsating.
1) alken; 2) alkin; 3) sikloalkan; 4) alkan; 5) alkadiyen.
A) 1 B) 1, 2 C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 4

250. (v16-108-34) Naftalinda bitta o'rinbosari bo'lgan izomeri nechta?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 8

251. (v16-111-35) Fazoviy izomerlari mavjud bo'lgan moddani ko'rsating.
A) geksin-2 B) penten-2
C) 2-metilbutadiyen-1,3 D) buten-1

252. (v16-124-29) Quyidagi moddalar orasidan o'zaro gomolog (a) va o'zaro izomer (b) bo'lganlarini aniqlang.
1) $CH_3(CH_2)_2CH_3$; 2) CH_3CH_2OH;
3) $CH_3C(CH_3)_2CH_3$; 4) CH_3OCH_3;
5) CH_3CH_2CHO; 6) $CH_3C(CH_3)O$.
A) a-1, 3; a-5, 6; b-2, 4
B) a-1, 3; b-2, 5; b-5, 6
C) a-1, 3; b-2, 4; b-5, 6
D) a-5, 6; b-1, 3; b-2, 4

83. Organik kimyo reaksiyalarining mexanizmi

1. (96-15-103) Quyidagi birikmalardan qaysi biri o'rin olish reaksiyalariga eng oson kirishadi?
A) butan B) benzol C) toluol
D) siklogeksan E) etilen

2. (97-4-67) Buten-2 bilan vodorod xlorid o'zaro ta'sirlashganda, xlor atomi uglerodning qaysi atomiga birikadi?
A) birinchisiga B) ikkinchisiga
C) uchinchisiga D) to'rtinchisiga
E) ikkinchi yoki uchinchisiga

3. (98-2-21) Vodorod yodid bilan

$Br - \overset{4}{CH_2} - \overset{3}{CH} = \overset{2}{CH} - \overset{1}{CH_2} - Cl$ o'zaro

ta'sirlashganda, yod atomi uglerodning qaysi atomiga birikadi?
A) 1 ga B) 2 ga C) 3 ga
D) 4 ga E) 2 yoki 3

4. (99-7-68) 2-metilbutanni uch marta xlorlash natijasida qaysi mahsulot hosil bo'ladi? (Nomenklatura alfavit tartibda yozilgan.)
A) 2-metil-1,1,1-trixlorbutan
B) 2-metil-1,2,3-trixlorbutan
C) 2-metil-2,3,3-trixlorbutan
D) 3-metil-2,2,3-trixlorbutan
E) 2,2,3-trixlor-3-metilbutan

5. (99-9-6) Markovnikov qoidasi qaysi reaksiyada o'z kuchini saqlamaydi?
1) 2-metilgeksen-3 + HBr;
2) 2-metilpropen + HBr;
3) buten-2 + HCl;
4) 2-metilpropen + HBr;
5) 2,3-dimetilbuten-2 + H_2O.
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 5
D) 2, 3, 5 E) 1, 2, 3

6. (99-9-35) 2-metilbutan xlorlanganda, necha xil monoxlorli hosilalar hosil bo'ladi?
A) 5 B) 2 C) 3 D) 1 E) 4

7. (00-1-57) Quyidagi aldegidlarning qaysi biri vodorod ta'sirida oson qaytariladi?
A) HCHO B) CH_3CHO
C) CH_3CH_2CHO D) $CH_3CH(CH_3)CHO$
E) $CH_3C(CH_3)_2CHO$

8. (01-6-55) O'rtacha molekulyar massasi 132500 g/mol polimerlanish darajasi 2500 bo'lgan polimerning monomerini ko'rsating.
A) etilen B) propilen
C) akrilonitril D) vinilxlorid
E) tetraftoretilen

9. (02-1-30) 2-metilpropenga vodorod xlorid birikishi natijasida qanday mahsulot hosil bo'ladi?
A) 2-metil-1-xlorpropan
B) 2-metil-2-xlorpropan
C) 1-xlor-2-metilpropan
D) 2-xlor-3-metilpropan
E) 3-xlor-2-metilpropan

10. (05-1-422) Berilgan strukturalar orasidan radikallarni toping.

1) H–O· 2) $H-\underset{H}{\overset{H}{N}}\cdot$; 3) $:\ddot{Cl}:$; 4) $:\ddot{Cl}:$; 5) $H:\underset{H}{\overset{H}{\ddot{N}}}:H$.

A) 2, 3 B) 1, 3 C) 4, 5
D) 1, 4 E) 1, 4, 5

11. (v8-102-36) Aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan NO_2 guruh tutgan uchta izomer aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).

A) 5 B) 3, 5
C) 1, 2, 4, 6 D) 4

12. (v8-115-36) Aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan NO_2 guruh tutgan to'rtta izomer aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).



A) 4 B) 2, 4, 6 C) 3 D) 1, 3, 5

13. (v8-123-36) Aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan NO_2 guruh tutgan ikkita izomer aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).

A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 4, 5 D) 4, 5, 6

14. (v9-129-15) Mo'l miqdorda olingan kislorod bilan vodorod sulfid o'zaro ta'sirlashishidan hosil bo'lgan suv bug'lari kondensatlangandan keyin aralashma hajmi 6,72 l (n. sh.)ga kamaygan. Boshlang'ich aralashmadagi vodorod sulfid hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 4,48 B) 2,24 C) 10,2 D) 6,8

15. (v15-101-11) Galogenangidridlar qaysi guruhning o'rniga galogen almashinishi hisobiga vujudga keladi?
A) –COH B) –OH
C) –COOH D) –H

16. (v15-104-29) Sirka angidridning quyidagi moddalar bilan boradigan reaksiyalarini qaysi guruhga kirishini o'zaro moslang.
a) alkogoliz; b) gidroliz; c) ammonoliz;
1) ammiak; 2) propil spirt; 3) suv.
A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-c, 2-b, 3-a
C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-a, 2-b, 3-c

17. (v15-109-9) Katalizator Lyuis kislotasi ($FeCl_3$, $AlCl_3$) ishtirokida benzolga xlor ta'sir ettirish reaksiyasi qaysi mexanizm asosida boradi?
A) elektrofil birikish B) nukleofil o'rin olish
C) radikal o'rin olish D) elektrofil o'rin olish

18. (v16-105-26) Markovnikov qoidasiga ko'ra HCl alkenga birikkanda, vodorod atomi ... birikadi.
A) eng ko'p gidrogenlangan vodorod atomiga
B) birikmaydi
C) eng kam gidrogenlangan uglerod atomiga
D) eng ko'p gidrogenlangan uglerod atomiga

19. (v16-113-12) a) ... → CH_3CCCH_3 + KBr + + H_2O; b) ... CH_3CH_2CCH + CuBr;
Ushbu moddalar hosil bo'lishi uchun quyidagi qaysi birikmalar ta'sirlashishi kerak? (Reaksiya mahsulotlari koeffitsiyentsiz ko'rsatilgan.)
1) 2-brombutan; 2) 1-brombutan;
3) KOH (spirt); 4) 2,2-dibrombutan;
5) HBr; 6) CH_3CH_2CCCu; 7) KOH (suv).
A) a-2, 4; b-1, 7 B) a-1, 3; b-6, 7
C) a-4, 3; b-6, 5 D) a-2, 7; b-3, 6

20. (v17-102-25) n-buntan ma'lum sharoitda xlorlanganda dixlorli mahsulot hosil bo'ldi. Uni xlorlash davom ettirilganda ikki xil trixlorhosila olindi. Agar dastlabki dixlorhosila asimmetrik uglerod atomini tutsa, uning nomini aniqlang.
A) 1,2-dixlorbutan
B) 1,4-dixlorbutan
C) 2,3-dixlorbutan
D) 1,3-dixlorbutan

21. (v17-122-24) Karbonil (fonzil) guruh qutblanishi qaysi aldegidda kuchliroq namoyon bo'ladi – chumoli yoki sirka aldegiddami?
A) hech qaysida
B) sirka aldegidda
C) chumoli va sirka aldegidda
D) chumoli aldegidda

84. To'yingan uglevodorodlar

84.1. Alkanlar

1. (96-1-56) Quyidagi reaksiya tenglamasidagi $C_nH_{2n-2} + xO_2 \rightarrow CO_2 + H_2O$ kislorod molekulasining koeffitsiyenti toping "x"ning qiymatini.
A) 1,5n + 0,5 B) 1,5n – 0,5
C) n – 1 D) 2n – 2
E) n – 2

2. (96-3-50) Propan quyidagi qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) Cl_2; 2) HBr; 3) O_2;
4) HNO_3; 5) CH_3COOH.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 4
D) 1, 3, 5 E) 1, 2, 5

3. (96-4-57) 2-metilpropanning nechta dixlorli hosilalari bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4 E) 5

4. (96-8-42) Quyidagi formulalarning qaysi biri alkanlarga tegishli?
A) C_7H_8 B) C_6H_6 C) C_7H_{14}
D) C_8H_{18} E) $C_{11}H_{20}$

5. (96-10-54) Vyurs reaksiyasi yordamida normal sharoitdagi hajmi 1,12 l bo'lgan butan olish uchun necha gramm etil xlorid kerak? [$M_r(C_2H_5Cl)$ = 64,5].
A) 3,22 B) 6,45 C) 9,67
D) 12,9 E) 16,12

6. (96-13-30) Quyidagi moddalarning qaysilaridan 1:2,1 massa nisbatda olib Vyurs reaksiyasini olib borilganda n-geksan hosil bo'ladi?
1) CH_3Cl; 2) C_2H_5Cl; 3) C_4H_7Cl;
4) C_4H_9Cl; 5) $C_5H_{11}Cl$.
A) 1, 2 B) 1, 5 C) 2, 4
D) 3, 5 E) 2, 5

7. (96-13-68) 2,2-dimetilpropanning nechta monoxlorli bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

8. (97-6-23) Etan va havo qanday hajmiy nisbatda o'zaro reaksiyaga kirishadi? havoda kislorodning hajmiy ulushi 20% ga teng.
A) 1:7 B) 1:3,5 C) 1:10,5
D) 1:13,5 E) 1:17,5

9. (97-6-69) Alkanlarning galogenli hosilalari organik sintezda qanday maqsadlarda ishlatiladi?
A) erituvchilar olishda
B) reaksiyaga kirishish qobiliyati kuchli bo'lgan moddalar olish va ular asosida keyingi o'zgarishlarni amalga oshirishda
C) polimerlar olishda
D) vodorod galogenidlar olishda
E) reaksiyaga kirishish qobiliyati kuchsiz bo'lgan moddalar olishda

10. (97-7-28) Quyidagi reaksiyani kim kashf etgan: $R_1–Cl + Na + R_2Cl \rightarrow R_1–R_2 +$ + $R_2–R_2 + R_1–R_1 + NaCl$.
A) Markovnikov B) Vyurs
C) Kucherov D) Zinin
E) Lebedev

11. (97-8-65) Alkanlardagi C–H atomlar orasida σ-bog'ning kimyoviy xossalari uchun qanday reaksiya tipi xarakterli?
A) o'rin olish B) almashinish
C) birikish D) parchalanish
E) gidratlanish

12. (97-8-66) Alkanlarda birikish reaksiyasi qaysi bog' hisobiga sodir bo'ladi?
A) C–C dagi σ-bog' hisobiga
B) C–C dagi π-bog' hisobiga
C) C–H dagi σ-bog'ning uzilishi hisobiga

D) molekulasidagi kovalent bog' hisobiga
E) birikish reaksiyasi sodir bo'lmaydi

13. (97-10-64) Alkanlar qatorida qaysi uglevodoroddan izomeriya hodisasi boshlanadi?
A) metandan B) butandan
C) etandan D) pentandan
E) propandan

14. (97-10-160) 6 g etan hosil bo'lishi uchun qanday hajmdagi (l) etilen vodorod bilan reaksiyaga kirishishi kerak? [M_r(etan) = 30]
A) 2,24 B) 4,48 C) 5,24
D) 6,58 E) 6,84

15. (97-12-25) N. sh. da 16 l butanni yoqish uchun qancha hajm (l) havo kerak? [$\varphi(O_2) = 0{,}2$)].
A) 430 B) 425 C) 514
D) 500 E) 520

16. (98-1-6) 3 g etanni monoxlorli hosilasini olish uchun xlorning qanday hajmi (l) talab etiladi?
A) 44,8 B) 28 C) 22,4
D) 11,2 E) 2,24

17. (98-1-61) Vyurs reaksiyasi asosida qaysi moddadan faqat 2,3-dimetilbutan olish mumkin?
A) bromli etil
B) 2-brombutan
C) 2-metil-3-brombutan
D) 2,3-dibrombutan
E) 2-brompropan

18. (98-1-65) Butanni krekingi natijasida necha xil organik modda hosil bo'ladi (degidrogenlash hodisasini hisobga olmang)?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 3 E) 2

19. (98-2-20) Propan bilan n-dekan, shuningdek, 2-metil-3-xlorpentan bilan 2-metil-3-xlorgeksan bir-biriga nisbatan:
A) gomologlar
B) xlorli hosilalar
C) izomerlar
D) normal tuzilishli uglevodorodlar
E) izotoplar

20. (98-2-74) Alkanlar molekulasining tuzilishi qanday geometrik shaklga ega?
A) chiziqsimon B) yassi
C) tetraedr shaklida D) kubsimon
E) geksaedr shaklida

21. (98-5-28) Vyurs reaksiyasi bo'yicha qaysi galoidalkillardan geksan olinganda, toza mahsulot hosil bo'ladi?
A) CH_3Br va $C_5H_{11}Br$
B) C_2H_5Br va C_4H_9Br
C) C_3H_7Br va C_3H_7Br
D) C_3H_7Br va C_4H_9Br
E) C_3H_7Br va $C_5H_{11}Br$

22. (98-7-39) 1 mol metandan xlorlanish reaksiyasi natijasida uglerod tetraxlorid olingan. Mahsulot unumi 60% ni tashkil etgan bo'lsa, necha gramm uglerod tetraxlorid olingan? [M_r(Cl) = 35,5, M_r(C) = 12]
A) 92,4 B) 46,2
C) 23,1 D) 95,0
E) 77,0

23. (98-7-42) Bir xil hajmli metan va propan berilgan. Metanning massasi 5 gramm. Propanning massasi (g) ni toping.
A) 10 B) 12,5 C) 13,75
D) 27,5 E) 14,5

24. (98-9-51) Necha gramm natriy atsetatdan 2,24 l metan olish mumkin?
A) 16,4 B) 8,2 C) 4,1
D) 12,3 E) 8,9

25. (98-10-55) 1500°C da mo'l miqdorda olingan grafitning 54 g alyuminiy bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan moddaning gidroliz reaksiya unumi 80% ni tashkil etganda hosil bo'lgan gazning hajmini (n. sh.) hisoblang.
A) 11,2 B) 22,4 C) 33,6
D) 44,8 E) 56

26. (98-11-42) Vyurs usulida qaysi moddalardan foydalanib, 2,2,4-trimetilpentan olish mumkin?
1) CH_3I; 2) C_2H_5Br; 3) C_4H_9Br;
4) 2-brompropan; 5) $(CH_3)_3C–CH_2Br$.
A) 1, 5 B) 2, 3 C) 2, 4
D) 3, 4 E) 4, 5

27. (99-4-8) Alkanlarda kimyoviy bog' hosil qilish uchun har bir uglerod atomining qaysi orbitalaridagi elektronlari gibridlanishda ishtirok etadi?
A) 1s-, 1p- B) 3s-, 1p-
C) 2s-, 2p- D) 1s-, 3p-
E) 1s-, 2p-

28. (99-7-73) Qanday hajmiy nisbatda bo'lgan metan va etilen aralashmasidagi metan to'la parchalanganda hosil bo'lgan vodorod aralashmadagi etilenga to'la yutilishga yetarli bo'ladi?
A) 1:1 B) 1:2 C) 2:1
D) 1:1,5 E) 1,5:2

29. (99-9-36) Izopropilyodid va 2-butilyodid natriy metali bilan reaksiyaga kirishganda, qaysi modda hosil bo'lmaydi?
A) 3,4-dimetilgeksan B) 2,4-dimetilpentan
C) 2,3-dimetilbutan D) 2,3-dimetilpentan
E) To'g'ri javob yo'q.

30. (99-9-37) 1-yod-2-metilproianning natriy metali bilan reaksiyasi natijasida qaysi modda hosil bo'ladi?
A) 2,4-dimetilgeksan B) 2,3-dimetilgeksan
C) 2,4-dimetilpentan D) 2,5-dimetilgeksan
E) 2,3-dimetilpentan

31. (99-9-38) Faqat 3,4-dimetilgeksan hosil bo'lishi uchun natriy metali qanday yodalkil(lar) bilan reaksiyaga kirishishi kerak?
A) 1-yod-2-metilpropan
B) 2-yod-2-metilpropan va 1-yod-2-metilpropan
C) 2-yodbutan
D) 1-yod-2-metilpropan
E) butilyodid va izopropilyodid

32. (99-9-39) Qaysi karbon kislota ishqor bilan qizdirilganda, 2-metilpropan hosil bo'ladi?
A) 2-metilbutan kislota
B) 3-metilbutan kislota
C) 2,2-dimetilpropan kislota
D) 2-metilpropan kislota
E) pentan kislota

33. (99-9-41) Parafinni unga aralashgan uglevodorodlardan tozalash uchun qanday reagent talab etiladi?
A) sulfat kislota B) bromli suv
C) xlorid kislota D) ishqor
E) natriy gidrokarbonat

34. (00-2-6) Metilyodid va izopropilyodid aralashmasining natriy metali bilan reaksiyasida qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
A) metan, 2-metilpropan, 2,3-dimetilbutan
B) etan, 2,3-dimetilbutan, 2-metilpropan
C) etan, 2,3-dimetilbutan, izobutan
D) etilbenzol
E) trimetilbenzol

47. (01-2-20) Quyosh nuri ta'sirida benzol mo'l miqdorda olingan xlor bilan reaksiyaga kirishadi, bunda qanday modda hosil bo'ladi?
A) xlorbenzol
B) 1,2-dixlorbenzol
C) benzilxlorid
D) geksaxlorsiklogeksan
E) 1,2-dixlorsiklogeksen

48. (01-2-51) Benzolda eriydigan kumush tuzini aniqlang.
A) $AgNO_3$ B) AgBr
C) AgCl D) $AgClO_4$
E) AgI

49. (01-4-74) 227 g trotil olish uchun topuol va nitrat kislota moddalaridan qancha miqdorda kerak bo'ladi?
A) 1 va 3 B) 1 va 2
C) 3 va 1 D) 10 va 30
E) 1000 va 3000

50. (01-4-75) Taklif etilgan tuzilish formulalaridan qaysi biri trotilga mos keladi?



A) 1 B) 2
C) 3 D) 4 E) 5

51. (01-6-58) Massasi 23,4 g bo'lgan benzolga brom ta'sir ettirilganda chiqqan gazni neytrallash uchun zichligi ρ = 1,1 g/sm^3 bo'lgan 10% li NaOH eritmasidan qancha hajm (ml) kerak?
A) 118,9 B) 113,7 C) 115,3
D) 109,1 E) 122,4

52. (01-6-59) 39 g benzolni geksaxloranga aylantirish uchun kerak bo'ladigan gazni olishga necha gramm kaliy permanganat kerak bo'ladi?
A) 95,3 B) 94,8 C) 97,5
D) 101,4 E) 113,4

53. (01-7-22) 9,75 g benzoldan brombenzol olishda hosil bo'lgan gaz mahsulotni neytrallash uchun 10% li NaOH eritmasidan (ρ = 1,1 g/ml) necha millilitr talab etilishini hisoblang.
A) 45,5 B) 40,4 C) 44
D) 42 E) 43

54. (01-8-59) Bromli suv rangini o'chiradigan, oksidlanganda tereftal kislota hosil qiladigan va kumush oksidning ammiakdagi eritmasi bilan cho'kma hosil qiladigan, tarkibi C_9H_8 bo'lgan uglevodorodni aniqlang.
A) benzilatsetilen
B) 1-etinil-2-metilbenzol
C) 4-metil-1-etilbenzol
D) metilfenilatsetilen
E) Bunday tarkibli uglevodorod mavjud emas

55. (01-10-7) Bromning temir (III) bromid ishtirokida benzol (ρ = 0,88 g/ml) bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan gaz mahsulot mo'l miqdordagi kumush nitrat eritmasi orqali o'tkazilganda massasi 9,4 g cho'kma hosil bo'lsa, reaksiyada qatnashgan benzol hajmini toping.
A) 6,5 B) 2,9 C) 3,7
D) 3,9 E) 4,43

56. (02-1-31) Tarkibi C_8H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorod nitrolanganda, faqat mononitroaren hosil bo'lsa, boshlang'ich modda tarkibini toping.
A) etilbenzol B) 1,2-dimetilbenzol
C) 1,3-dimetilbenzol D) 1,4-dimetilbenzol
E) Bunday birikma mavjud emas

57. (02-2-49) 31,5 ml nitrat kislota (ρ = 1,4 g/ml) necha gramm benzol bilan reaksiyaga kirisha oladi?
A) 56,0 B) 58,4 C) 59,8
D) 51,5 E) 54,6

58. (02-5-56) O'zgarishlar sxemasidagi



X, Y va Z mahsulotlarning nomini toping.
A) benzilxlorid, o-xlortoluol, μ-xlortoluol
B) o-xlortoluol, n-xlortoluol, benzilxlorid
C) geksaxlorbenzol, xlorbenzol, benzilxlorid
D) geksaxlorsiklogeksan, n-xlortoluol, o-xlortoluol
E) benzilxlorid, μ-xlortoluol n-xlortoluol

59. (02-10-1) Toluolga nitrolovchi aralashma ta'sir ettirilganda, tarkibida 15,4% azot bo'lgan modda olindi. Moddaning nomini aniqlang.
A) mononitrotoluol
B) 2,4-dinitrotoluol
C) 2,6-dinitrotoluol
D) 2,4,6-trinitrotoluol
E) 2,4-dinitrotoluol va 2,6-dinitrotoluol

60. (02-10-2) Trotil portlaganda, 98 l (n. sh.) uglerod (IV) oksid ajralgan bo'lsa, olingan trotilning massasini hisoblang.
A) 229 B) 142 C) 114,5
D) 458 E) 687

61. (02-11-55) Og'ir suvdan 162 g, benzoldan 133 ml (ρ = 0,88 g/ml) olib, quyidagi sxema bo'yicha olib borilgan reaksiyada, hosil bo'lgan u modda massasini hisoblang. $D_2O \xrightarrow{Na} X \xrightarrow{benzol,\ Pt} Y$.
A) 121,5 B) 113,4 C) 226,8
D) 135 E) 67,5

62. (02-11-60) Quyidagi reaksiya sxemasi bo'yicha mahsulotning unumi yaxshiroq, bo'lishi uchun talab etiladigan I, II va III reagentlarni taklif eting.
Benzol $\xrightarrow{I}$ X $\xrightarrow{II}$ Y $\xrightarrow{III}$ → n-brombenzol kislot:
1) CH_3Cl; $AlCl_3$; 2) $KMnO_4 + H^+$;
3) Br_2; Fe; 4) Br_2; hv; 5) O_2; V_2O_5.
A) 3, 1, 2 B) 3, 1, 5 C) 1, 4, 2
D) 1, 3, 2 E) 1, 5, 4

63. (02-12-60) Nitrometilbenzolning formulasini belgilang.
A) $C_6H_4(C_2H_5)(NO_2)$
B) $C_6H_4(CH_3)(NO_2)$
C) $C_6H_5(CH_2NO_2)$
D) $C_6H_3(CH_3)(CH_3)(NO_2)$
E) To'g'ri javob yo'q.

64. (03-7-22) Ksilolga galogen ta'sir ettirilganda, uch xil izomer moddalar aralashmasi hosil bo'ldi. Ksilolning nomini aniqlang.
A) 1,2-dimetilbenzol
B) 1,3-dimetilbenzol
C) 1,4-dimetilbenzol
D) A, B
E) A, B, C

65. (03-7-23) Ksilolga galogen ta'sir ettirilganda, ikki xil izomer moddalar aralashmasi hosil bo'lgan bo'lsa, ksilolning nomini aniqlang.
A) 1,2-dimetilbenzol B) 1,3-dimetilbenzol
C) 1,4-dimetilbenzol D) A, B
E) A, B, C

66. (v4-103-30) Massasi 15,9 g bo'lgan etilbenzolning (C_8H_{10}) to'liq yonishi uchun normal sharoitda o'lchangan qancha hajm havo kerak bo'ladi? Kislorodning havodagi hajmiy ulushi 20% ni tashkil etadi.
A) 117,6 l B) 176,4 l
C) 235,2 l D) 94,08 l
E) 47,04 l

67. (v4-104-30) Massasi 26,5 bo'lgan etilbenzol (C_8H_{10}) to'liq yonganda, normal sharoitda qancha (l) uglerod (IV) oksid hosil bo'ladi?
A) 8,96 B) 89,6 C) 17,92
D) 35,84 E) 44,8

68. (v4-107-30) 6,33 g benzoldan brombenzol olishda hosil bo'lgan gaz mahsulotni neytrallash uchun 10% li NaOH eritmasidan (ρ = 1,1 g/ml) necha millilitr talab etilishini hisoblang.
A) 29 B) 43 C) 80
D) 35 E) 40,4

69. (v4-108-30) 25 g benzolni geksaxloranga aylantirish uchun kerak bo'ladigan gazni olishga necha gramm kaliy permanganat kerak bo'ladi?
A) 72,6 B) 80 C) 95,3
D) 60,8 E) 82,3

70. (v4-110-34) Massasi 27,7 g bo'lgan benzolga brom ta'sir ettirilganda ajralib chiqqan gazni neytrallash uchun zichligi 1,25 g/sm^3 bo'lgan 10% li NaOH eritmasidan qancha hajm (ml) kerak?
A) 115,3 B) 122,4 C) 118,9
D) 109,1 E) 113,7

71. (v4-113-30) 25,5 ml nitrat kislota (ρ = 1,3 g/ml) necha gramm benzol bilan reaksiyaga kirisha oladi?
A) 45 B) 41 C) 56,0
D) 46 E) 38

72. (v4-115-29) Agar reaksiyaning unumi 70% bo'lsa, 39,0 g benzoldan necha mol nitrobenzol olish mumkin?
A) 0,25 B) 0,15 C) 0,5
D) 0,35 E) 0,1

73. (v4-115-30) Oksidlanganda benzoy kislota hosil qilmaydigan moddalarni ko'rsating:
1) benzol; 2) toluol; 3) etilbenzol;
4) geksan; 5) siklogeksan.
A) 3, 4 B) 1, 5 C) 1, 2
D) 1, 4, 5 E) 2, 3

74. (v4-116-33) Massasi 31,2 g bo'lgan benzoldan necha gramm nitrobenzol olish mumkin. Reaksiya unumi 0,75 ga teng.
A) 65,6 B) 28,7 C) 49,2
D) 32,6 E) 36,9

75. (v4-117-29) Massasi 117,6 g bo'lgan siklogeksan degidrogenlanishidan olingan benzol temir (III) bromid ishtirokida xlorlandi. Natijada massasi 116 g bo'lgan xlorli hosila olindi. Reaksiya mahsulotining unumini (%) aniqlang.
A) 70,5 B) 63,5 C) 50,5
D) 73,6 E) 80,3

76. (v4-124-30) Massasi 26,5 g bo'lgan etilbenzol (C_8H_{10}) to'liq yonganda, normal sharoitda qancha (l) uglerod (IV) oksid hosil bo'ladi?
A) 8,96 B) 89,6 C) 17,92
D) 35,84 E) 44,8

77. (v5-104-31) Bromning temir (III) bromid ishtirokida benzol (ρ = 0,88 g/ml) bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan gaz mahsulot mo'l miqdordagi kumush nitrat eritmasi orqali o'tkazilganda 1,58 g cho'kma hosil bo'lsa, reaksiyada qatnashgan benzol hajmi (ml) – … .
A) 0,74 B) 0,97 C) 0,65
D) 0,45 E) 0,58

78. (v5-106-31) Benzolga $AlCl_3$ ishtirokida propen ta'sir ettirilganda qanday mahsulot olinadi va uni kaliy permanganat bilan oksidlaganda qanday kislota hosil bo'ladi?
A) 1-metil-4-etilbenzol, benzoy kislota
B) kumol, benzoy kislota
C) izopropilbenzol, ftal kislota
D) etilbenzol, benzoy kislota
E) krizol, izoftal kislota

79. (v5-111-31) 117 g benzol 316 g brom bilan katalizator ishtirokida reaksiyaga kirishganda necha gramm brombenzol hosil bo'ladi? Qaysi moddadan necha gramm ortib qoladi?
A) 235,5; 76 Br_2
B) 121,5; 121,5 HBr
C) 157; 160 Br_2
D) 157; 80 Br_2
E) 235,5; 78 C_6H_6

80. (v5-114-13) Meta-ksilol molekulasida … holatda joylashgan bo'ladi.
A) metil va gidroksil guruhi bir-biriga nisbatan-1,3
B) ikkita gidroksil guruhi bir-biriga nisbatan-1,2
C) ikkita metil guruhi bir-biriga nisbatan-1,3
D) ikkita metil guruhi bir-biriga nisbatan-1,2
E) metil va gidroksil guruhi bir-biriga nisbatan-1,4

81. (v5-114-30) 48 g 1,3,5-trimetilbenzol olish uchun kerak bo'ladigan atsetilen gomologining hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 17,92 B) 48 C) 8,96
D) 16 E) 26,9

82. (v5-114-34) 2,84 l (n. sh.) atsetilen aktivlangan uglerod ustidan o'tkazilgandan so'ng oldiniga sulfat va nitrat kislotalar aralashmasi, so'ngra ammoniy sulfid bilan ta'sirlashganda olingan mahsulotning massasi (g) – … .
A) 3,9 B) 2,7 C) 4,7
D) 6,7 E) 2,3

83. (v5-116-31) Benzolga ultrabinafsha nurlar ishtirokida xlor ta'sir ettirilganda … hosil bo'ladi.
A) xlorbenzol B) 1,6-dixlorgeksan
C) 1,3,5-trixlorbenzol D) geksaxloran
E) 1,4-dixlorbenzol

84. (v5-119-31) 0,8 mol benzoldan brombenzol olishda hosil bo'lgan gazni neytrallash uchun kerak bo'lgan 10% li natriy ishqor eritmasining (ρ = 1,1 g/ml) hajmini (ml) hisoblang.
A) 320 B) 62,4 C) 291
D) 132 E) 145,5

85. (v5-120-34) 3,8 l (n. sh.) atsetilendan olingan aromatik birikmadan anilin olish uchun … g ammoniy sulfidi kerak.
A) 11,5 B) 20,6 C) 23,4
D) 8,7 E) 16,6

86. (v5-126-26) …% li osh tuzining 234 g eritmasi tarkibidagi tuz tugaguncha elektroliz qilinganda olingan xlor benzoldan 29,1 g geksaxloran olishga yetadi.
A) 19 B) 7 C) 12 D) 9 E) 15

87. (v5-128-31) Metilbenzolga yorug'likda xlor ta'sir ettirilganda qanday mahsulot(lar) hosil bo'lishini ko'rsating.
1) o-xlortoluol; 2) benzilxlorid; 3) m-xlortoluol;
4) p-xlortoluol; 5) 2,4,6-trixlortoluol.
A) 2, 3, 4 B) 1, 4 C) 2 D) 5 E) 3, 5

88. (v5-128-34) Trotil bu … .
A) m-nitrotoluol
B) o-nitrofenol
C) 2,4,6-trinitrofenol
D) 1-metil-2,4,6-trinitrobenzol
E) 2,4-dinitrotoluol

89. (v5-129-13) Benzolning gomologi bo'la olmaydigan moddalar – … .
1) kumol; 2) o-ksilol; 3) stirol; 4) toluol;
5) m-krizol; 6) etilbenzol; 7) fenol.
A) 3, 6 B) 3, 4, 5, 7
C) 1, 2, 4, 6 D) 3, 5, 7
E) 1, 2, 5

90. (v5-133-31) Tarkibi C_8H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorodning qaysi izomerlari oksidlanganda ikki asosli aromatik karbon kislota hosil bo'ladi?
1) etilbenzol; 2) 1,3,5-trimetilbenzol;
3) o-metiltoluol; 4) 1,4-dimetilbenzol;
5) izopropilbenzol; 6) 1,2-dimetilbenzol;
7) stirol.
A) 4, 5, 7 B) 3, 4, 6
C) 1, 3, 6, 7 D) 1, 2, 3
E) 2, 5, 7

91. (v5-135-31) Benzol katalizator ishtirokida … lar bilan reaksiyaga kirishadi.
1) azot; 2) xlor; 3) vodorod bromid;
4) brom; 5) propen; 6) nitrat kislota;
7) karbonat angidrid.
A) 2, 4, 5, 6 B) 4, 5, 6, 7
C) 1, 3, 5, 7 D) 1, 2, 3
E) 3, 4, 5

92. (v5-137-31) 1,6-dibrom-2-metilgeksan $\xrightarrow{Zn}$ A $\xrightarrow{Pb/300}$ B $\xrightarrow{Br_2}$ C
Ushbu o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A, B, C moddalar – ... .
A) metilbenzol; metilsiklogeksan; kumol
B) metilsiklogeksan; metilbenzol; 2,4,6-tribromtoluol
C) metilsiklogeksan; metilbenzol; benzoy kislota
D) metilsiklogeksan; toluol; 1,2,3-tribrombenzol
E) toluol; siklogeksan; trotil

93. (v5-139-31) Aromatik uglevodorod kaliy permanganat ta'sirida oksidlanganda tereftal kislota hosil bo'lsa, reaksiya uchun olingan aromatik uglevodorod – ... .
A) m-ksilol B) n-ksilol
C) kumol D) n-krizol
E) toluol

94. (v6-102-31) 12 g kumolning to'la yonishidan hosil bo'lgan gazlar 720 ml kaliy ishqori (2,5 mol/l) eritmasi bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan moddaning massasini (g) hisoblang.
A) 78,3 B) 124,2
C) 94,6 D) 248,4

95. (v6-104-16) Kaliy permanganat bilan 2-feniletanol qizdirib oksidlanganda qaysi modda hosil bo'ladi?
A) benzoy kislota
B) benzaldegid
C) benzil spirt
D) fenilsirka aldegid

96. (v6-111-31) Benzol va metilbenzolning 7,5 g aralashmasi 300 g (1,6% li) bromli suvni rangsizlantirdi. Benzol va 2,4,6-tribrom-1-metilbenzol massalari qanday nisbatda bo'ladi?
A) 1:0,5 B) 1:3
C) 1:3,29 D) 1:0,92

97. (v7-101-30) 78 g benzolni nitrollashdan olingan modda qaytarilib, so'ngra to'la bromlanganda necha gramm mahsulot hosil bo'ladi?
A) 123 B) 363
C) 330 D) 93

98. (v7-101-36) Tarkibi C_9H_{12} bo'lgan aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibi $C_9H_{11}NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan aromatik uglevodorodni aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).
A) 1-metil-4-etilbenzol
B) etilbenzol
C) 1-metil-2-etilbenzol
D) 1-metil-4-izopropilbenzol

99. (v7-102-36) Tarkibi $C_9H_{12}O$ bo'lgan modda temir (III) xlorid bilan rangli mahsulot hosil qilmaydi. Ushbu modda vodorod bromid bilan tarkibi $C_9H_{11}Br$ bo'lgan modda, kaliy permanganat ta'sirida oksidlanib tarkibi $C_8H_6O_4$ bo'lgan modda hosil qilsa, uning strukturasini aniqlang.



A) 2, 4 B) 1, 3 C) 3 D) 2

100. (v7-103-34) Taklif etilgan strukturalardan qaysi biri trotilga mos keladi?



A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

101. (v7-104-36) Tarkibi $C_8H_{10}O$ bo'lgan modda temir (III) xlorid bilan rangli mahsulot hosil qilmaydi. Ushbu modda vodorod bromid bilan tarkibi C_8H_9Br bo'lgan modda, kaliy permanganat ta'sirida oksidlanib tarkibi $C_8H_6O_4$ bo'lgan modda hosil qilsa, uning strukturasini aniqlang.



A) 2, 4 B) 1, 3 C) 4 D) 1

102. (v7-107-33) Bromning ($FeBr_3$ ishtirokida) benzol bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan mahsulot mo'l miqdordagi ishqor bilan ishlov berilganda 9,4 g mahsulot olingan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan benzol massasini (g) toping.
A) 15,7 B) 7,8 C) 3,9 D) 9,3

103. (v7-110-36) 0,6 mol toluolni yorug'lik ishtirokida xlorlanganda $C_6H_5CH_2Cl$, $C_6H_5CHCl_2$ va $C_6H_5CCl_3$ lar 3:2:1 mol nisbatda hosil bo'lsa, sarflangan xlor hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 22,4 B) 11,2 C) 67,2 D) 44,8

104. (v7-112-36) Tarkibi C_9H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorod oksidlanganda benzoldikarbon kislota, nitrolanganda (H_2SO_4 ishtirokida) esa tarkibi $C_5H_9NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi olinsa, aromatik uglevodorod(lar)ning tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).



A) 1, 3 B) 2 C) 4 D) 2, 4

105. (v7-114-30) 49 g siklogeptanni (Cr_2O_3 katalizator ishtirokida) qizdirib olingan aromatik uglevodorodga ortiqcha miqdorda bromli suv ta'sir ettirilganda olingan aromatik mahsulot massasini (g) hisoblang.
A) 78,5 B) 46 C) 85,5 D) 164,5

106. (v7-115-36) Tarkibi C_9H_{12} bo'lgan aromatik uglevodorod oksidlanganda benzoldikarbon kislota, nitrolanganda (H_2SO_4 ishtirokida) esa tarkibi $C_9H_{11}NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi olinsa, aromatik uglevodorod(lar)ning tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).



A) 1, 2, 3 B) 2 C) 4 D) 2, 4

107. (v7-122-30) 117 g benzol $AlCl_3$ ishtirokida yetarli miqdordagi propilen bilan reaksiyaga kirishdi.
Olingan mahsulot H_2SO_4 ishtirokida kislorod bilan oksidlandi. Hosil bo'lgan aromatik moddaning massasini (g) aniqlang.
A) 182 B) 117 C) 141 D) 156

108. (v7-133-36) Tarkibi C_8H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorod oksidlanganda benzoldikarbon kislota, nitrolanganda (H_2SO_4 ishtirokida) esa tarkibi $C_8H_9NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi olinsa, aromatik uglevodorod(lar)ning tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).



A) 1, 3 B) 2 C) 4 D) 2, 4

109. (v7-156-36) Tarkibi C_9H_{12} bo'lgan aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibi $C_9H_{11}NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan aromatik uglevodorod(lar)ni aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin):
1) propilbenzol; 2) o-ksilol;
3) vinilbenzol; 4) p-ksilol.
A) 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 2

110. (v7-188-30) Tarkibi C_8H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorodning qanday izomer(lar)i oksidlanganda bir asosli karbon kislotaga aylanadi?
1) etilbenzol; 2) 1,4-dimetilbenzol; 3) 1,2-dimetilbenzol; 4) kumol; 5) p-ksilol; 6) stirol.
A) 1 B) 3 C) 1, 4, 6 D) 2, 3, 5

111. (v8-102-28) Tarkibi C_9H_{12} bo'lgan benzol yadrosi tutgan uglevodorodning nechta izomeri mavjud?
A) 7 B) 6 C) 9 D) 8

112. (v8-105-5) Toluol molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini aniqlang.
A) –8 B) –9 C) –5 D) –6

113. (v8-111-28) Tarkibi C_9H_{12} bo'lgan aromatik uglevodorodning nechta izomeri oksidlanganda ikki asosli aromatik karbon kislota hosil bo'ladi?
A) 3 B) 2 C) 5 D) 4

114. (v8-111-36) Tarkibi C_8H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorod nitrolanganda (H_2SO_4 ishtirokida) tarkibi $C_8H_9NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi hosil bo'lsa, aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).



A) 1, 3 B) 1, 3, 4 C) 2, 4 D) 2, 3, 4

115. (v8-113-11) Tarkibi C_8H_{10} bo'lgan, oksidlanganda bir asosli karbon kislota hosil bo'ladigan modda(lar)ni aniqlang:
1) etilbenzol; 2) 1,4-dimetilbenzol;
3) 1,2-dimetilbenzol; 4) kumol;
5) p-ksilol; 6) stirol.
A) 2, 3, 5 B) 3 C) 1, 4, 6 D) 1

116. (v8-119-11) Mol miqdorda olingan xlor bilan benzol quyosh nuri ta'sirida reaksiyaga kirishsa, qanday modda hosil bo'ladi?
A) 1,2-dixlorbenzol
B) xlorbenzol
C) geksaxlorsiklogeksan
D) geksaxlorbenzol

117. (v8-125-36) Tarkibi C_9H_{12} bo'lgan aromatik uglevodorod oksidlanganda benzoldikarbon kislota, nitrolanganda (H_2SO_4 ishtirokida) esa tarkibi $C_9H_{11}NO_2$ bo'lgan uchta izomer aralashmasi olinsa, aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).



A) 2, 4 B) 1, 2, 3
C) 1 D) 3

118. (v9-103-12) Benzol konsentrlangan sulfat va nitrat kislotalar aralashmasi bilan o'zaro ta'sirlashganda olingan mahsulotni qaytarish uchun 3,36 l (n. sh.) vodorod sarflandi. Oxirgi aromatik mahsulotning massasini (g) aniqlang.
A) 5,83 B) 4,65 C) 2,64 D) 3,9

119. (v9-105-21) 11,7 g benzolni bromlashda hosil bo'lgan gazsimon mahsulotni neytrallash uchun 12% li natriy gidroksid eritmasidan (ρ = 1,25 g/ml) qancha millilitr zarur bo'ladi?
A) 6 B) 50 C) 60 D) 40

120. (v9-110-25) Tarkibi $C_8H_{10}O$ bo'lgan modda temir (III) xlorid bilan rangli mahsulot hosil qilmaydi. Ushbu modda vodorod bromid bilan tarkibi C_8H_9Br bo'lgan modda, kaliy permanganat ta'sirida oksidlanib, tarkibi $C_8H_6O_4$ bo'lgan modda hosil qilsa, uning tuzilishini aniqlang.



A) 2, 5 B) 2, 4
C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 6

121. (v9-112-28) Benzol toluol va kumoldan iborat 0,6 mol aralashma kislotali sharoitda kaliy permanganat bilan oksidlanganda 48,8 g benzoy kislota hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi benzol massasini (g) aniqlang.
A) 15,6 B) 19,5 C) 11,7 D) 7,8

122. (v9-113-20) Benzolni alyuminiy xlorid ishtirokida xlorlash reaksiyasida olingan gazsimon mahsulotni kumush nitrat eritmasi orqali o'tkazilganda 28,7 g cho'kma tushdi. Reaksiyada qatnashgan benzol massasi (g) va xlorning hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 7,8; 2,24 B) 3,12; 8,96
C) 15,6; 4,48 D) 2,34; 6 72

123. (v9-114-11) Berilgan moddalarning qaysilari benzol bilan reaksiyaga kirishadi?
1) brom (temir (III) xlorid ishtirokida);
2) xlor (nikel yoki platina ishtirokida);
3) nitrat kislota (sulfat kislota ishtirokida);
4) vodorod (t = 25°C, alyuminiy xlorid ishtirokida);
5) kaliy permanganat (sulfat kislota, ishtirokida); 6) sulfat kislota.
A) 1, 3, 6 B) 1, 3
C) 2, 4, 5, 6 D) 2, 4, 5

124. (v9-116-4) Berilgan moddalarning qaysilari benzol bilan reaksiyaga kirishmaydi?
1) brom (teinir (III) xlorid ishtirokida);
2) xlor (nikel yoki platina ishtirokida);
3) nitrat kislota (sulfat kislota ishtirokida);
4) vodorod (t = 25°C, alyuminiy xlorid ishtirokida); 5) kaliy permanganat (sulfat kislota ishtirokida); 6) sulfat kislota.
A) 1, 3, 6 B) 1, 3
C) 2, 4, 5 D) 2, 4, 5, 6

125. (v9-117-28) 2,76 g toluolni bromlash reaksiyasida (reaksiyada 2,4-dibromtoluol va 4-bromtoluol 2:1 mol nisbatda hosil bo'ladi) olingan gazsimon mahsulotni neytrallashga sarflangan 10% li natriy gidroksid (ρ = 1,25 g/ml) eritmasining hajmini (ml) hisoblang.
A) 20 B) 28,8
C) 48 D) 16

126. (v9-125-10) Tarkibi C_9H_{12} bo'lgan aromatik uglevodorod oksidlanganda benzoldikarbon kislota, nitrolanganda (H_2SO_4 ishtirokida) esa tarkibi $C_9H_{11}NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi olinsa, aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).
A) 1, 3, 5, 6 B) 4
C) 5 D) 2, 4

127. (v9-126-13) Tarkibi C_8H_{10} bo'lgan aromatik uglevodorodga, konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibi $C_8H_9NO_2$ bo'lgan ikkita izomer aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingan aromatik uglevodorod tuzilishini aniqlang (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)



A) 1, 2, 3 B) 3, 4 C) 3 D) 1, 2

128. (v11-101-27) Alyuminiy xlorid katalizatorligi ishtirokida benzolni xlorlash reaksiyasida olingan gazsimon mahsulotni kumush nitrat eritmasi orqali o'tkazilganda 4,305 g cho'kma tushdi. Reaksiyada qatnashgan benzol massasi (g) va xlorning hajmini (ml, n. sh.) hisoblang.
A) 0,78; 224 B) 2,34; 672
C) 1,56; 448 D) 3,12; 896

129. (v12z-221-6) Benzoldan kumol usuli bilan fenol olinganda fenolning massasi boshlang'ich modda massasidan 10,8 g ga kam bo'lsa, kumol massasini (g) aniqlang (reaksiya unumi birinchi bosqichda 80%, ikkinchi bosqichda 75%).
A) 48 B) 36 C) 60 D) 108

130. (v12z-247-4) 51,6 g geksanni degidrogenlab necha gramm benzol va qancha hajm (l, n. sh.) vodorod olish mumkin?
A) 53,76; 46,8 B) 56,16; 64,5
C) 40,32; 35,1 D) 46,8; 53,76

131. (v12z-248-20) 63,2 g benzolsulfokislota olish uchun necha grammdan benzol va sulfat kislota kerak?
A) 15,6; 19,6 B) 31,2; 39,2
C) 39,2; 31,2 D) 23,4; 29,4

132. (v12z-250-16) 582 g geksaxlorsiklogeksan olish uchun necha gramm benzol va qancha hajm (l) Cl_2 sarflanadi?
A) 117; 112 B) 234; 134,4
C) 156; 134,4 D) 156; 89,6

133. (v12c-103-4) 19,5 ml (ρ = 0,8 g/ml) benzolni geksaxloranga aylantirishga sarflandigan miqdordagi xlorni olish uchun nechta marganets (IV) oksid kerak bo'ladi?
A) 50,4 B) 104,4
C) 17,4 D) 52,2

134. (v12c-115-20) 184 g toluol yorug'lik ta'sirida xlorlansa necha gramm monoxlorli hosila hosil bo'ladi?
A) 236 B) 253
C) 248 D) 245

135. (v12c-127-32) 21,2 g ksilolni to'la yondirish uchun qancha hajm (l, n. sh.) kislorod sarflanadi? Bunda necha gramm CO_2 hosil bo'ladi?
A) 47,04; 70,4 B) 23,52; 35,2
C) 47,04; 52,8 D) 35,28; 70,4

136. (v12c-131-13) 117 g benzol olish uchun necha grammdan natriy benzoat va o'yuvchi natriy kerak?
A) 216, 60 B) 200, 75
C) 288, 80 D) 72, 40

137. (v13-131-17) 51,2 g naftalin to'liq yonishidan hosil bo'lgan CO_2 ni to'la o'rta tuzga aylantirish uchun natriy gidroksidning 30% li eritmasidan necha gramm zarur bo'ladi?
A) 533,3 B) 320,2
C) 160 D) 1066,7

138. (v13-136-8) Benzolni temir (III) bromid ishtirokida bromlanib olingan vodorod bromid mol miqdordagi kumush nitrat eritmasi orqali o'tkazilganda 7,52 g cho'kma tushdi. Benzolning bromlanishida hosil bo'lgan mahsulotning massasini va nomini aniqlang.
A) 5,1 g geksobrombenzol
B) 6,28 g geksobrombenzol
C) 6,28 g brombenzol
D) 5,1 g brombenzol

139. (v13-155-18) 78 g benzolni yuqori temperatura va V_2O_5 katalizator ishtirokida oksidlanishidan olingan kislotani to'liq neytrallash uchun necha ml KOH eritmasi kerak bo'ladi? (ρ = 1,4 g/ml, C(%) = 10%)
A) 400 B) 600
C) 84 D) 800

140. (v14-102-35) Tarkibida ikkita o'rinbosari bo'lgan 0,2 mol aromatik uglevodorod kislotali sharoitda oksidlanishidan olingan gaz modda kislorod bilan aralashtirilganda (D_{H_2} = 20,8)

11,2 l gazlar aralashmasi olindi. Aromatik uglevodorod(lar) tuzilishini aniqlang.
A) metilpropilbenzol, dietilbenzol
B) metiletilbenzol
C) metilpropilbenzol
D) dietilbenzol

141. (v14-115-35) Metilasetilenning trimerlanishidan olingan simmetrik tuzilishli aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan NO_2 guruh tutgan nechta izomer hosil bo'ladi (nitrogruppa oriyentatsiya qoidasiga binoan o'rin almash yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)?
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

142. (v15-102-11) Qaysi modda qishloq xo'jaligida repellent (chivin va boshqa hasharotlarni haydovchi) sifatida ishlatiladi?
A) o-ftal kislotaning dimetil efiri
B) fenolftalein
C) ftal angidrid
D) metanal va ammiak

143. (v15-103-11) 2 molekula etin va 1 molekula C_3H_4 trimerlanishidan olingan aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan NO_2 guruh tutgan nechta izomer hosil bo'ladi? (nitrogruppa oriyentatsiya qoidasiga binoan o'rin almashadi; yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4

144. (v15-105-36) Qaysi olim siklogeksanni degidrogenlab benzol olish usulini ishlab chiqqan?
A) G.G. Gustavson B) V.V. Markovnikov
C) N.D. Zelinskiy D) N.K. Shorigin

145. (v15-112-31) Benzolning zichligi 0,879 g/sm^3 ga teng bo'lsa, uning molyar hajmini (sm^3/mol) aniqlang.
A) 54,48 B) 88,74
C) 68,56 D) 19,73

146. (v15-121-29) Qaysi olim siklogeksanni degidrogenlab benzot olgan?
A) N.N. Zinin B) G.G. Gustavson
C) N.D. Zelinskiy D) A.M. Butlerov

147. (v15-127-1) Etilasetilen trimerlanishidan olingan simmetrik tuzilishli aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan NO_2 guruh tutgan nechta izomer hosil bo'ladi? (nitrogruppa oriyentatsiya qoidasiga binoan o'rin almashadi; yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)
A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

148. (v16-103-12) Benzol xlor bilan quyosh nuri ta'sirida qanday modda hosil qiladi.
A) xlorbenzol
B) dixlorbenzol
C) geksaxlorbenzol
D) geksaxlorsiklogeksan

149. (v16-104-35) Benzolning bir valentli radikalining nomi?
A) fenol B) fenil
C) fenilen D) furan

150. (v16-107-5) Benzolning olish usullarini ko'rsating.
1) siklogeksanni degidrogenlash;
2) geksanni degidrogenlash va sikllash;
3) atsetilenning trimerlanishi;
4) 1,6-dixlorgeksanga natriy metalini ta'sir ettirib.
A) 1, 3 B) 1, 2, 3 C) 2, 3 D) 2, 3, 4

151. (v16-108-23) Benzol uchun xos bo'lgan reaksiyalarni ko'rsating.
1) biriktirish (+H_2); 2) polimerlanish; 3) kaliy permanganat bilan oksidlanish; 4) o'rin olish reaksiyalari (+HNO_3).
A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 1, 3

152. (v16-111-5) Benzolga qanday modda ta'sir ettirilganda kumol hosil bo'ladi.
1) propilen; 2) propan; 3) 1-xlorpropan;
4) 2-xlorpropan.
A) 1 B) 1 va 2 C) 3 D) 1 va 4

153. (v16-121-17) Aren bug'ining kislorodga nisbatan zichligi 4,1875 ga teng. Uning bitta molekulasi tarkibida nechta atom mavjud?
A) 24 B) 14
C) $6{,}02\cdot10^{23}$ D)10

154. (v17-102-27) C_9H_{12} formulaga benzolning nechta gomolog izomeri to'g'ri keledi?
A) 8 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta

155. (v17-105-7) Tarkibida 1 ta sp^3-sp^2 va 2 ta sp^3-sp^3 bog' tutgan benzol gomolog(lar)i nitrolanganda necha turdagi mononitrobirikma hosil bo'ladi (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)?
A) 4 B) 3 C) 6 D) 3

156. (v17-106-30) Tarkibida 8 ta sp^3 gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lar)i nitrolanganda necha turdagi mononitrobirikma hosil bo'ladi (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)?
A) 10 B) 5 C) 7 D) 8

157. (v17-108-32) 1865-yilda Kekule tushida ilon dumini tishlagan holatini ko'radi. Bu qaysi modda kashf etilishiga turtki bo'lgan?
A) talnol B) benzol
C) stirol D) fenol

158. (v17-112-15) 42,4 g benzol gomologinning nitrolanishidan 42,28 g bitta nitroguruh tutgan nitrobirikmalar aralashmasi hosil bo'ldi. Agar reaksiya unumi 70% bo'lsa, benzol gomologinning formulasini toping.
A) C_8H_{10} B) $C_{10}H_{14}$
C) C_7H_8 D) C_9H_{12}

159. (v17-113-8) 36,8 g toluol 56,8 g xlor bilan yorug'likda to'liq reaksiyaga kirishishi noma'lum bo'lsa, olingan xlorli organik modda massasini (g) aniqlang.
A) 28,4 B) 64,4
C) 32,2 D) 76,9

160. (v17-117-35) Tarkibida 2 ta sp^3-sp^2 bog' va 12 a sp^3 gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lar)i nitrolanganda necha turdagi mononitrobirikma hosil bo'ladi? (ton zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)
A) 8 B) 9 C) 10 D) 5

161. (v17-118-21) Toklardagi filloksera(kuya)ga qarshi kurashda qo'llaniladigan organik moddada uglerodning oksidlanish darajalari yig'indisini ko'rsating.
A) 0 B) +4 C) +2 D) +6

162. (v17-119-35) 15,9 benzol gomologini nitrolashda 9,06 mononitro birikmasi hosil bo'ldi. Agar reaksiya unumi 40% bo'lsa, benzol gomologi formulasini aniqlang.
A) C_8H_{10} B) C_9H_{12}
C) $C_{10}H_{14}$ D) C_7H_8

163. (v17-120-11) 64 g brom va 15,6 g benzol hamda katalizatordan iborat aralashmadan necha mol brombenzol olish mumkin?
A) 0,3 B) 0,5 C) 1,2 D) 0,2

164. (v17-123-32) Sxemada ko'rsatilgan benzoldan moddalar olishda X va Y reaksiyalarning nomlarini aniqlang:



A) X – sulfirlash, Y – xlorlash
B) X – sulfirlash, Y – degidroxlorlash
C) X – sulfirlash, Y – gidroxlorlash
D) X – oksidlash, Y – xlorlash

165. (v17-124-1) Benzol tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari yig'indisi 134,4 litr (n. sh.) atsetilen tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari yig'indisiga teng bo'lsa, benzol massasini (g) aniqlang.
A) 156
B) 117
C) 234
D) 78

87. Kislorodli organik birikmalar

87.1. Spirtlar

1. (96-5-50) 30 g spirtdan natriy normal sharoitda 5,6 l vodorodni siqib chiqarishi ma'lum. Agar shu spirt bir atomli bo'lsa, uning molyar massasini aniqlang.
A) 32 B) 46 C) 60
D) 74 E) 88

2. (96-7-52) 255 g toza propil spirti bilan natriy metalning qanday massasi reaksiyaga kirishadi? [$M_r(C_3H_7OH) = 60$]
A) 23 g B) 98 g C) 115 g
D) 46 g E) 120 g

3. (96-8-53) 0,5 mol metanol bug'i qizdirilgan mis oksid ustidan o'tkazilganda hosil bo'lgan aldegid 40 g suvda eritilgan. Formaldegidning massa ulushini toping.
A) 0,40 B) 0,30 C) 0,15
D) 0,20 E) 0,27

4. (96-8-54) Massasi 4,6 g bo'lgan etanol molekulalararo degidratlanganda hosil bo'lgan mahsulotning mol miqdori (reaksiya unumi 0,5 bo'lganda) qancha bo'ladi?
A) 0,01 B) 0,02 C) 0,025
D) 0,03 E) 0,04

5. (96-8-109) 10,6 g xlorpentan-1 dan pentanol-1 olish uchun necha mol kaliy ishqor kerak, necha gramm spirt hosil bo'ladi?
A) 0,1 va 8,8 B) 0,15 va 12,2
C) 0,1 va 12,2 D) 0,2 va 12,2
E) 0,25 va 17,6

6. (96-10-57) Tuzilishi ko'rsatilgan spirtlardan qaysi biri amalda mavjud emas?

A)
B) CH_2=CH–OH
C) CH_3–CH_2–OH
D) CH_2=CH–CH_2–OH
E) CH_3–CH(OH)–CH_3

7. (96-10-60) Nitroglitserin organik birikmalarning qaysi sinfiga kiradi?
A) nitrobirikmalar B) oddiy efirlar
C) murakkab efirlar D) yog'lar
E) aminokislotalar

8. (96-10-61) 0,98 g mis (II) gidroksidi eritish uchun necha gramm glitserin kerak? [$M_r[Cu(OH)_2] = 98$, $M_r(C_3H_8O_3) = 92$]
A) 0,46 B) 0,92 C) 1,38
D) 1,84 E) 2,3

9. (96-13-28) Yangi tayyorlangan 9,8 g mis gidroksid spirtlarning qaysi biri 12,4 g da eriydi?
A) CH_3OH B) C_2H_5OH
C) $C_6H_{11}OH$ D) $HO(CH_2)_2OH$
E) C_6H_9OH

10. (96-13-71) 10,62 g 1-xlorpentandan pentanol-1 olish uchun kaliy ishqordan necha mol sarf bo'ladi va necha gramm spirt olinadi?
A) 0,1 va 8,8 g B) 0,12 va 9,2 g
C) 0,09 va 8,2 g D) 0,14 va 10 g
E) 0,15 va 15 g

11. (96-13-100) 259 g to'yingan bir atomli spirt degidratlanishi natijasida 196 g alken hosil bo'ldi, shu spirtning molekulyar massasi qanday?
A) 32 B) 74 C) 60 D) 86 E) 46

12. (96-15-49) 15,5 g ikki atomli spirtda natriy normal sharoitda 5,6 l vodorodni siqib chiqarsa, spirtning molekulyar massasi nechaga teng.
A) 88 B) 75 C) 62 D) 114 E) 101

13. (96-15-95) Quyidagi moddalardan qaysi biri oksidlanganda propion aldegidi hosil bo'ladi?
A) CH_3OH B) C_2H_5OH
C) $CH_3-\underset{OH}{CH}-CH_3$ D) $CH_3-CH_2-CH_2-OH$
E) $CH_3-CH_2-CH_2-CH_2-OH$

14. (97-2-30) $CH_3-C\begin{matrix}O\\H\end{matrix}$ tuzilishdagi aldegid hosil bo'lishi uchun qanday spirt oksidlanishi kerak?
A) metanol B) butanol-1
C) butanol-2 D) propanol-1
E) etanol

15. (97-2-62) Normal sharoitda 1120 l hajmni egallagan uglerod (II) oksididan unumi 75% bo'lganda, metanolning qanday massasi (kg) hosil bo'ladi?
A) 0,16 B) 1,20 C) 1,12
D) 1,50 E) 1,55

16. (97-4-69) 6,9 g etil spirt oksidlanishidan hosil bo'lgan atsetaldegid yana oksidlantirildi, hosil bo'lgan kislota 80 ml suvda eritildi. Kislotaning eritmadagi massa ulushini aniqlang.
A) 11,2 B) 10,1 C) 9,5
D) 7,8 E) 15,6

17. (97-4-74) Yog'ochdan metanol ham, etanol ham olish mumkin. Bu spirtlarning hosil bo'lish jarayonlari bir-biridan nima bilan farq qiladi?
A) metanol yog'ochni havosiz joyda quruq haydashdan olingan metandan, etanol esa glyukozaning bijg'ishidan olinadi
B) metanol yog'ochni gidrolizlab, etanol esa yog'ochni bijg'itib olinadi
C) metanol yog'ochni kislorod ishtirokida haydash yo'li bilan, etanol esa yog'ochni ishqoriy muhitda gidroliz qilish yo'li bilan olinadi
D) metanol yog'ochni havosiz joydi quruq haydash yo'li bilan, etanol esa yog'ochni kislotali muhitda gidrolizlab, so'ngra gidroliz mahsulotini bijg'itish yo'li bilan olinadi
E) metanol yog'ochni ishqoriy muhitda gidrolizlab, etanol esa yog'ochni kislotali muhitda gidrolizlab olinadi

18. (97-5-31) Spirtlarning qaysi biri kuchliroq kislotali xossaga ega bo'ladi?
A) metanol B) etanol
C) 2-ftoretonol D) 2-brometonol
E) 2,2,2-triftoretanol

19. (97-6-72) Propanol-1 oksidlanishidan hosil bo'lgan modda qaysi sinfga mansub?
A) aldegidlar B) karbon kislotalar
C) oddiy efirlar D) ketonlar
E) oksidlanmaydi

20. (97-6-74) Etil spirtni alkogolyatga aylantirish uchun qaysi moddadan foydalanish zarur?
A) natriy gidroksid
B) sulfat kislota
C) ammiak
D) kaliy permanganat
E) natriy metalli

21. (97-10-161) 46 g etanolga 5 g natriy ta'sir ettirilsa, qancha hajmda (l) vodorod hosil bo'ladi? [$A_r(C) = 12$, $A_r(Na) = 23$]
A) 2,4 B) 3,6 C) 4,8
D) 9,6 E) 11,2

22. (98-1-7) Uglerod (II) oksiddan 320 g metil spirt sintez qilish uchun necha litr vodorod talab etiladi?
A) 448 B) 224 C) 67,2
D) 44,8 E) 22,4

23. (98-1-79) Oz miqdordagi sulfat kislota ishtirokida 23 g etanolni 140° da qizdirilgan 70% da unum bilan hosil bo'lgan suyuq organik modda massasini toping.
A) 9,8 B) 13 C) 26 D) 37 E) 52

24. (98-1-80) Spirtning qaysi biri natriy bilan oson reaksiyada qatnashadi?
A) butanol-1 B) butanol-2
C) propanol-1 D) propanol-2
E) metanol

25. (98-1-83) 7,4 g modda natriy metalli bilan reaksiyaga kirishganda, 1,12 l vodorod (n. sh.), boshlang'ich modda mis (II) oksil bilan oksidlanganda, "kumush ko'zgu" reaksiyasida qatnashadigan modda hosil bo'lsa, boshlang'ich kislorod tutgan moddaning tuzilishini aniqlang.
A) uchlamchi butil spirt
B) izobutil spirt
C) butanol-2
D) propanol-1
E) etil spirt

26. (98-5-29) Butanol-2 ni qaysi uglevodorodlarga suv ta'sir ettirib olish mumkin?
1) butan; 2) buten-1; 3) buten-2.
A) 1 B) 2 C) 3
D) 1 va 2 E) 2 va 3

27. (98-5-34) Butanol-2 degidratlansa, qanday birikma hosil bo'ladi?
1) buten-1; 2) buten-2; 3) butan.
A) 1 B) 2 C) 3
D) 1 va 2 E) 2 va 3

28. (98-5-45) Butanol-1 degidratlanganda, qaysi uglevodorod hosil bo'ladi?
A) butin-1 B) buten-1
C) buten-2 D) butan
E) butadiyen-1,2

29. (98-5-54) Propion aldegid qaysi spirtning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi?
A) metanol B) etanol
C) propanol-1 D) butanol-1
E) butanol-2

30. (98-5-59) Etanol 140°C ga yaqin temperaturada konsentrlangan sulfat kislota bilan qizdirilganda hosil bo'ladigan moddani ko'rsating.
A) etan B) etandiol
C) dietil efir D) etilen
E) etilsulfat

31. (98-5-65) Etanol konsentrlangan H_2SO_4 ishtirokida qizdirilsa (170°C), qanday birikma hosil bo'ladi?
A) etanal B) etilen
C) sirka, kislota D) butadiyen-1,2
E) etilatsetat

32. (98-7-57) 15 g propanol-1 ga 9,2 g natriy bilan ta'sir ettirilganda, qancha (g) natriy propionat olish mumkin?
[$M_r(Na) = 23$, $M_r(O) = 16$]
A) 20,5 B) 22,5 C) 25,0
D) 23,0 E) 19,0

33. (98-7-58) 0,5 mol metanol mo'l miqdordagi kaliy bromid va sulfat kislota bilan isitildi va massasi 38 g bo'lgan brommetan olindi. Brommetanning hosil bo'lish unumini aniqlang. [$M_g(Br) = 80$, $M_r(K) = 39$, $M_r(S) = 32$ $M_r(O) = 16$]
A) 60 B) 70 C) 90
D) 80 E) 50

34. (98-7-59) Mo'l miqdordagi natriy metali butanol-1 ga ta'sir ettirilganda, 2,8 l (n. sh.) vodorod ajralgan. Butanol-1 dan qancha modda miqdori reaksiyaga kirishgan?
[$M_r(Na) = 23$, $M_r(O) = 16$]
A) 0,5 B) 0,25 C) 0,40
D) 0,74 E) 0,37

35. (98-7-61) Propil spirtning benzoldagi eritmasiga ortiqcha miqdorda natriy ta'sir ettirilganda, 5,6 l vodorod (n. sh. da) ajralib chiqdi. Eritma tarkibida necha gramm spirt bo'lgan? [$M_g(Na) = 23$, $M_r(O) = 16$].
A) 0,3 B) 3,0 C) 15,0
D) 25,0 E) 30,0

36. (98-7-63) 4,6 g etil spirtga 5,0 g natriy ta'sir ettirish yo'li bilan olingan uglevodorodning normal sharoitda qancha hajm (ml) egallashini aniqlang.
A) 560 B) 1120 C) 280
D) 2240 E) 140

37. (98-7-64) 7,4 g bir atomli spirtga natriy metali ta'sir ettirilganda, 1,12 l vodorod ajralib chiqqan. Reaksiya uchun qaysi bir atomli spirt olinganini aniqlang. [$M_r(Na) = 23$, $M_r(O) = 16$]
1) propanol-1; 2) butanol-1; 3) pentanol-1; 4) 2-metilpropanol; 5) etanol; 6) metanol.
A) 2 va 4 B) 1 va 3
C) 5 va 6 D) 3 va 4
E) 3 va 5

38. (98-7-65) Bir atomli noma'lum spirtdan simmetrik tuzilishli to'yinmagan uglevodorod olingan. Bu to'yingan uglevodorodning 14 g miqdori 40 g brom bilan reaksiyaga kirishadi. Dastlab qanday spirt olinganini aniqlang.
[$M_r(Br) = 80$, $M_r(O) = 16$]
A) propalol-2
B) 2-metilpropanol-2
C) butanol-2
D) geksanol-3
E) oktanol-4

39. (98-12-61) 0,2 mol ikkilamchi spirtning vodorod bromid bilan reaksiyasi natijasida 24,6 g alkanning monobromli hosilasi olingan. Reaksiyada qaysi spirt qatnashgan?
[$M_r(Br) = 80$]
A) pentanol-2
B) geksanol-3
C) butanol-2
D) prppanol-2
E) geptanol-2

40. (99-4-30) Bir atomli spirtdan olingan alkanning 14 grami 40 g brom bilan reaksiyaga kirishgan. Dastlabki spirtning nomini aniqlang.
A) 2-metilbutanol-1
B) 2-metilpropanol-2
C) butanol-2
D) geksanol-2
E) pentanol-3

41. (99-4-31) 1,1-dixlor-2-metilbutanga ishqorning suvli eritmasi ta'sir ettirilganda, qanday modda hosil bo'ladi?
A) 3-metilbutanol-2
B) 2-metilbutanol-2
C) 1-xlor-2-metilbutanol-1
D) 2-metilbutanal
E) n-pentanal

42. (99-5-10) 120 ml (ρ = 0,8 g/ml) etil spirtga hajmi 120 ml bo'lgan (zichligi 1,2 g/ml) 40% li vodorod bromid eritmasi qo'shib qizdirilganda, necha gramm brometan hosil bo'ladi?
A) 67,5 B) 75,3 C) 79,8
D) 81,2 E) 77,4

43. (99-5-45) 33 g 1,2 dixloretanning gidrolizlanishidan hosil bo'lgan 60%li organik modda eritma (ρ = 1,2 g/ml) sining hajmni (ml) hisoblang.
A) 27,8 B) 26,9 C) 29,1
D) 30,5 E) 28,8

44. (99-9-12) Aromatik tabiatli spirt hamda fenolning gomologik aralashmasiga mo'l miqdordagi natriy bilan ishlov berilganda, 560 ml (n. sh.) gaz modda hosil bo'lgan. Shu miqdordagi aralashma konsentratsiyasi 10 mol/l bo'lgan natriy gidroksidning 2 ml eritmasi bilan to'la reaksiyaga kirisha oladi. Aralashmadagi spirtning massa ulushini hisoblang.
A) 60 B) 40 C) 80
D) 20 E) 30

45. (99-9-15) Qishda qor ostidagi baqalar muzlamasligining sababi nimada? Buning sababi ular qonida ... borligidadir.
A) dietilenglikol B) etil spirt
C) glitsin D) glitserin
E) proteinlar

46. (00-2-20) $CH_3CH_2CH(OH)C(CH_3)_2CH_3$ tarkibli spirtning degidratlanishi natijasida hosil bo'lgan alkenning nomini aniqlang.
A) 2,2-dimetilpenten-3
B) 4,4-dimetilpenten-2
C) 2,2-dimetilpenten-4
D) 4,4-dimetilpenten-1
E) 4,4-dimetilpenten-3

47. (00-2-21)
$CH_3CH(CH_3)C(OH)(CH_3)CH_2CH_3$ tarkibli spirtning degidratlanishi natijasida hosil bo'lgan alkenning nomini aniqlang.
A) 2,3-dimetilpenten-3
B) 2,3-dimetilpenten-2
C) 3,4-dimetilpenten-3
D) 2,3-dimetilpenten-4
E) 3,4-dimetilpenten-2

48. (00-3-10) 15 ml etil spirtga (ρ = 0,8 g/sm^3) 40% li hajmi 120 g vodorod bromid eritmasi qo'shib qizdirilganda, necha gramm modda hosil bo'ladi?
A) 67,5 B) 28,3 C) 79,8
D) 32,7 E) 37,5

49. (00-3-25) 30 g bir atomli spirtning ichki molekulyar degidratlanishidan 9 g suv hosil bo'ldi. Spirtning molekulyar formulasini aniqlang.
A) C_4H_9OH B) C_3H_7OH
C) C_2H_5OH D) $C_5H_{11}OH$
E) CH_3OH

50. (00-3-61) 0,6 mol metanol va 0,2 mol etanol aralashmasiga natriy metali bilan ishlov berilganda, necha litr vodorod ajralib chiqadi?
A) 8,96 B) 4,48 C) 22,4
D) 11,2 E) 44,8

51. (00-4-31) Qaysi moddalar mis (II) oksid bilan reaksiyada qatnashib, aldegidlar hosil qiladi?
1) butanol-1; 2) butanol-2; 3) propanol-1;
4) propanol-2; 5) sirka kislota.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 3, 4
D) 1, 5 E) 4, 5

52. (00-6-35) Qaysi izomer moddalar gidrogenlanganda, yagona bitta spirtga aylanadi?
1) propenol; 2) metiletilketon;
3) propanal; 4) 2-butenol-1.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 3
D) 2, 4 E) 3, 4

53. (00-6-50) Spirtli ichimliklardan biri vinoga qaysi modda qo'shilganda, uning qovushqoqligi ortadi?
A) etilenglikol B) glitsin
C) glitserin D) benzil spirt
E) serin

54. (00-7-23) Izopropil spirt bilan qaysi moddalar reaksiyaga kirishganda murakkab efir gruppasi paydo bo'ladi?
1) sut kislota; 2) etilenglikol; 3) valin;
4) krezol; 5) pikrin kislota; 6) tereftal kislota.
A) 1, 3, 5 B) 3, 4, 6 C) 2, 4, 6
D) 1, 3, 6 E) 2, 4, 5

55. (00-8-14) Qaysi moddalar orasidagi reaksiya natijasida propandiol-1,2 ni olish mumkin?
1) propen; 2) propin; 3) $KMnO_4 + H_2O$;
4) $KMnO_4 + H_2SO_4$; 5) H_2O;
6) $K_2Sr_2O_7 + H_2SO_4$.
A) 2, 6 B) 2, 3 C) 1, 3
D) 2, 5 E) 1, 4

56. (00-10-50) Ikkilamchi propil xloridga o'yuvchi kaliyning spirtdagi eritmasi, so'ngra vodorod bromid va natriy metali ta'sir ettirilganda C_6H_{14} tarkibli to'yingan uglevodoroddan 73,1 g hosil bo'ladi. Shu uglevodorodning struktura formulasini va reaksiyada qancha (g) propil xlorid sarf bo'lganini aniqlang.
A) $CH_3(CH_2)_4CH_3$; 129,6
B) $(CH_3)_2CHCH(CH_3)_2$; 133,5
C) $CH_3CH(CH_3)CH_2CH_2CH_3$; 135,4
D) $CH_3(CH_2)_4CH_3$; 135,4
E) $CH_3CH(CH_3)CH(CH_3)CH_3$; 135,4

57. (00-10-53) Etil spirti bilan chumoli kislotaning o'zaro ta'siridan qanday modda olinadi?
A) dietil efiri B) etilatsetat
C) etilpropionat D) metiletil efiri
E) etilformiat

58. (00-10-55) Etanol konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida qizdirilganda qanday ikki xil modda aralashmasi olinadi?
A) etan va dietil efiri
B) etilen va dietil efiri
C) eten va metiletil efiri
D) metan va dimetil efiri
E) dimetil efiri va dietil efiri

59. (01-1-26) 217 g etilenglikolning mo'l miqdordagi natriy bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan gaz modda hajmini (n. sh.) hisoblang.
A) 22,4 B) 33,6 C) 44,8
D) 56 E) 78,4

60. (01-2-11) 2-pentanol degidratlanganda, qanday alken hosil bo'ladi?
A) penten-1
B) penten-2
C) 2-metilbuten-2
D) 3-metilbuten-1
E) 2-metilpenten-2

61. (01-4-100) $C_nH_{2n+2}O$ tarkibli modda natriy metali bilan ta'sirlashganda vodorod ajralib chiqdi. Oksidlanish natijasida aldegid hosil bo'lsa, bu modda qanday ataladi?
A) vinil spirt B) butanol-2
C) izopropil spirt D) propil spirt
E) 2-metil-propanol-2

62. (01-9-43) Spirtlar qanday moddalar bilan reaksiyaga kirishishi yoki qanday reaksiyalarda qatnashishi mumkin?
1) ishqoriy va ishqoriy-yer metallari;
2) oksidlovchilar; 3) barcha metallar;
4) qaytaruvchilar; 5) kislotalar; 6) asoslar;
7) ichki molekulyar degidratlanish;
8) molekulalararo degidratlanish;
9) degidrogenlanish.
A) 1, 2, 4, 5, 7, 8 B) 2, 3, 4, 5, 7, 9
C) 1, 3, 5, 6, 8, 9 D) 1, 2, 4, 5, 6, 7
E) 2, 3, 4, 5, 6, 8

63. (01-12-14) Nitroglitserin portlashida ajralgan gazlar aralashmasini so'ndirilgan ohak eritmasidan o'tkazilganda, 56% unum bilan 10 g $CaCO_3$ hosil bo'ldi. Reaksiyada parchalangan nitroglitserin massasini va gazlar aralashmasi hajmini aniqlang.
A) 9,08; 6,33 B) 13,54; 9,3
C) 15,56; 10,78 D) 2,27; 1,63
E) 4,54; 3,26

64. (02-3-43) Butil spirtdan qaysi moddalarni ketma-ket qo'llab 3,4-dimetilgeksan olish mumkin?
1) H_2SO_4, t° < 140°C; 2) H_2SO_4 t° > 140°C;
3) HNO_3; 4) HBr; 5) Cl_2; 6) Na.
A) 2, 4, 6 B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 5
D) 2, 5, 6 E) 1, 5, 6

65. (02-3-44) Mis (II) oksid bilan 3-metilbutanol-1 spirtini oksidlab, qanday modda olish mumkin?
A) 2-metilbutan kislota
B) 2-metilbutanal
C) 3-metilbutan kislota
D) pentanal
E) 3-metilbutanal

66. (02-3-66) Massasi 36,4 g bo'lgan etanol va sirka kislota aralashmasi yondirilganda, 32,4 g suv hosil bo'lgan. Aralashmadagi etanolning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 47,5 B) 45,5 C) 46,6
D) 50,8 E) 48,6

67. (02-4-8) 54 g suvga necha millilitr metil spirt (ρ = 0,8 g/ml) qo'shilganda, ikkala modda tarkibidagi vodorod atomlarining modda miqdori bir xil bo'ladi?
A) 60 B) 30 C) 80
D) 90 E) 40

68. (03-7-46) Bir atomli to'yingan spirtning umumiy formulasi qanday ko'rinishda bo'ladi?
A) R–OH B) $CnH_{2n-n}OH$
C) $CnH_{2n+1}OH$ D) $CnH_{2n+5}OH$
E) $CnH_{2n+2}O$

69. (03-7-64) Qaysi spirt oksidlanganda, metilpropilketon hosil bo'ladi?
A) butanol-1 B) butanol-2
C) 2-metil propanol-2 D) pentanol-2
E) pentanol-1

70. (03-8-30) Mononitroglitserin hosil bo'lish reaksiyasida zichligi 1,085 g/m bo'lgan 15% li nitrat kislotaning 0,25 litri bilan reaksiyaga kirishadigan glitserin massasini aniqlang. Bunda qancha massadagi nitroglitserin hosil bo'ladi?
A) 25,0; 40,1 B) 30,2; 46,6
C) 45,3; 60,8 D) 59,4; 88,5
E) 68,8; 92,7

71. (03-9-2) Tarkibi 25,8% metanol va 74,2% etanoldan iborat 2,48 g aralashmaga 1,16 g natriy ta'sir ettirib, qancha hajm (ml, n. sh.) vodorod olish mumkin?
A) 112 B) 224 C) 336
D) 448 E) 672

72. (03-9-21) Spirtlardagi molekulalararo vodorod bog'ining mustahkamligi uglevodorod radikalining o'lchami oshishi bilan qanday o'zgaradi?
1) ortadi; 2) kamayadi; 3) o'zgarmaydi.
A) 1 B) 2 C) 1, 2 D) 3 E) 1, 3

73. (04-1-49) Necha millilitr etil spirt (ρ = 0,78 g/ml) 2 mol suvga qo'shilganda hosil bo'lgan eritmada spirt molekulalarining soni suvnikidan 2 marta ko'p bo'ladi?
A) 39 B) 236 C) 59
D) 55 E) 246

74. (v4-101-31) 259 g to'yingan bir atomli spirtning degidratlanishi natijasida 181,3 g alken hosil bo'ldi. Shu spirtning molekulyar massasi qancha bo'ladi?
A) 60 B) 46 C) 32
D) 86 E) 74

75. (v4-110-31) Butil spirtidan 3,4-dimetilgeksanni olish uchun qaysi moddalarni ketma-ket qo'llash kerak?
1) H_2SO_4, t > 140°C; 2) HNO_3;
3) HBr; 4) Cl_2; 5) Na; 6) H_2SO_4, t < 140°C.
A) 1, 3, 5 B) 1, 5, 6
C) 2, 4, 6 D) 2, 5, 6
E) 1, 4, 6

76. (v4-112-31) 10,6 g xlorpentan-1 dan pentanol-1 olish uchun necha mol kaliy ishqor kerak va necha gramm spirt hosil bo'ladi?
A) 0,1 va 8,8 B) 0,25 va 17,6
C) 5,6 va 8,8 D) 0,2 va 12,2
E) 0,15 va 12,2

77. (v4-118-31) 0,98 g mis (II) gidroksidni eritish uchun necha gramm glitserin kerak?
A) 1,84 B) 1,56 C) 0,46
D) 1,38 E) 0,69

78. (v5-107-32) 96% li 500 ml (ρ = 0,8 g/sm^3) etanolni yoqish uchun necha litr (n. sh.) havo kerak bo'ladi? (φ_{O_2} = 0,21)
A) 3840 B) 3748 C) 2417
D) 2671 E) 5617

79. (v5-113-32) 4,9 g trinitroglitserin olish uchun 22,2 mol/l li nitrat kislota eritmasidan ... ml kerak.
A) 5,2 B) 1,7 C) 3,6
D) 2,9 E) 4,4

80. (v5-114-18) 140°C da sulfat kislota ishtirokida 1 mol etanolning 25% ichki va 75% molekulalararo degidratlanishidan hosil bo'lgan moddalarning massa nisbatlarini toping.
A) 1:5,28 B) 1:4,25 C) 1:3,96
D) 1:4,93 E) 1:3

81. (v5-117-32) $CH_3C(CH_3)_2C(OH)(CH_3)CH_2CH_3$ modda degidratlanishi natijasida ... hosil bo'ladi.
A) $CH_3C(CH_3)_2CH(CH_3)CHCH_2$
B) $CH_3C(CH_3)CHC(CH_3)_3$
C) $CH_3C(CH_3)C(CH_3)C_3H_7$
D) $CH_2C(CH_3)C(CH_3)_2C_2H_5$
E) $CH_3C(CH_3)_2C(CH_3)CHCH_3$

82. (v5-122-32) $CH_3CH(CH_3)C(OH)(CH_3)C_2H_5$ spirtning degidratlanishidan hosil bo'lgan alkenning sistematik nomenklatura bo'yicha nomini toping.
A) 3,4-dimetilgeksen-3
B) gepten-2
C) 3,4-dimetilpenten-3
D) 2,3-dimetilpenten-2
E) 3-metilgeksen-3

83. (v5-125-32) Quyidagi spirtlarni qaynash temperaturasi ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) metanol; 2) n-geptanol;
3) n-pentanol; 4) n-propanol.
A) 4-3-1-2 B) 4-2-1-3
C) 1-2-4-3 D) 3-2-1-4
E) 1-4-3-2

84. (v5-126-32) 35 g bir atomli spirtdan olingan alken oldiniga ekvivalent miqdoridagi HBr, so'ngra natriy metalli bilan reaksiyaga kirishib 2,2,3,3-tetrametilbutan hosil qildi. Spirtning nomi va so'nggi mahsulot miqdori (mol) – ... .
A) 2-metilpropanol-1; 0,59
B) izopropilspirt; 0,87
C) uchlamchi butilspirt; 0,15
D) 2-metilbutanol-1; 0,08
E) 2-metilpropanol-2; 0,23

85. (v5-129-32) ... g glitserin natriy metali bilan ta'sirlashganda hosil bo'lgan vodorod 2,8 l (n. sh.) atsetilenni to'liq gidrogenlashga yetadi.
A) 10,2 B) 15,3 C) 12,3
D) 17,8 E) 18,4

86. (v5-132-32) Glitserinni birinchi marta 1779-yil ... va undan so'ng M. E. Shevrel sintez qilgan.
A) P.E. Bertlo B) F.A. Kekule
C) K.V. Sheele D) Sh.A. Vyurs
E) A. Nobel

87. (v6-105-4) 2-feniletanol molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) –10 B) –9 C) –7 D) –8

88. (v6-105-16) $HCOOCH_3$ modda gidrolizidan qanday mahsulot olinadi?
A) etanol-1 va chumoli kislota
B) metanol va sirka kislota
C) metanol va metan kislota
D) propanol-2 va sirka kislota

89. (v6-107-15) Vodorod bilan $CH_3CH(C_2H_5)CHO$ ni qaytarganda qanday mahsulot hosil bo'ladi?
A) 2-etilbutanol-1
B) 2-metilbutanol-1
C) 2-metilbutan kislota
D) 2-etilbutan kislota

90. (v6-111-32) $CH_3CH(Cl)C(CH_3)(Cl)CH_2CH_3$ modda ishqorning suvli eritmasi bilan ta'sirlashganda ... hosil bo'ladi.
A) 3-metilpentandiol-2,3
B) 3-metilpentandiol-2,4
C) 3-metilpentadiyen-1,3
D) 2-metilpentanol-3

91. (v7-101-32) 18 g A aldegidning qaytarilishidan o'shancha uglerod tutgan B spirt hosil bo'ldi. B spirtga mo'l miqdorda natriy metali ta'sir etganda 2,8 l (n. sh.) gaz ajraldi. B spirt strukturasini aniqlang.
A) izopropil spirti B) izobutil spirti
C) izogeksil spirti D) izopentil spirti

92. (v7-102-15) Metanol bug'ining havo bilan aralashmasi qizdirilgan mis ustidan o'tkazildi. Olingan organik mahsulot $Cu(OH)_2$ bilan reaksiyaga kirishganda 81 g sariq cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan spirt massasini (g) aniqlang.
A) 16 B) 31 C) 9 D) 28

93. (v7-104-32) Etanol va metanol aralashmasiga natriy metali ta'sir ettirilganda 2,24 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Shuncha miqdordagi spirt aralashmasi vodorod bromid bilan reaksiyaga kirishganda 20,4 g alkilbromidlar hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi etanolning massa ulushini (%) aniqlang
A) 59 B) 46 C) 78 D) 41

94. (v7-108-32) Etanol va propanol aralashmasiga natriy metali ta'sir ettirilganda 5,6 l (n. sh.) vodorod ajratib chiqdi. Shuncha miqdordagi spirt aralashmasi vodorod bromid bilan reaksiyaga kirishganda 58,7 g alkilbromidlar hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashma og'irligini (g) aniqlang.
A) 27,2 B) 9,6 C) 37,6 D) 18

95. (v7-109-32) 17,6 g bir atomli A spirtning oksidlanishidan o'shancha uglerod tutgan B kislota hosil bo'ldi. B kislotaga mo'l miqdorda rux ta'sir ettirilganda 2,24 l (n. sh.) gaz ajraldi. A spirt strukturasini aniqlang.
1) $CH_3CH_2C(CH_3)_2CH_2OH$;
2) $CH_3CH(OH)CH_2CH_2CH_3$;
3) $HOCH_2C(CH_3)_2CH_3$;
4) $CH_3C(CH_3)(OH)CH_3$.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 3 D) 2

96. (v7-115-32) 29,6 g bir atomli A spirtning oksidlanishidan o'shancha uglerod tutgan B aldegid hosil bo'ldi. B aldegidga mo'l miqdorda Ag_2O ning ammiakli eritmasi ta'sir ettirilganda 86,4 g cho'kma hosil bo'ladi. A spirt strukturasini aniqlang.
A) 2,2-dimetilpropanol-1; 2-metilpropanol-1
B) 2-metilpropanol-2; 2-metilbutanol-1
C) butanol-2; 2-metilbutanol-1
D) 2-metilpropanol-1; butanol-1

97. (v7-122-33) Agar ma'lum miqdordagi aromatik spirt natriy metalli bilan reaksiyaga kirishganda 13,44 l (n. sh.) gaz ajralishi ma'lum bo'lsa, shuncha miqdordagi aromatik spirt oksidlanishidan hosil bo'lgan benzoy kislota massasini (g) hisoblang.
A) 75,6 B) 112,8
C) 146,4 D) 85,4

98. (v7-178-32) 29,6 g bir atomli A spirtning oksidlanishidan o'shancha uglerod tutgan B kislota hosil bo'ldi. B kislotaga mo'l miqdorda rux ta'sir ettirilganda 4,48 l (n. sh.) gaz ajraldi. A spirtning strukturasini aniqlang.
1) butanol-1; 2) butanol-2; 3) 2-metilbutanol-1; 4) 2-metilpropanol-2.
A) 1, 3 B) 1 C) 4 D) 2, 4

99. (v8-101-11) Mis (II) gidroksid bilan qaysi moddani qizdirish natijasida $CH_3CH(C_2H_5)COOH$ tarkibli modda hosil bo'ladi?
A) 2-metilbutanal
B) 3-etilbutanal
C) 2-etilpentanal
D) 2-metilpropanal

100. (v8-102-29) Propanol va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 18 g suv va umumiy massasi 74 g bo'lgan uchta oddiy efir teng mol nisbatta hosil bo'ldi Reaksiyada qatnashgan ikkinchi spirtni aniqlang.
A) $CH_3CH(OH)CH_3$
B) CH_3OH
C) $CH_3CH(CH_3)CH_2OH$
D) CH_3CH_2OH

101. (v8-103-29) Etanol va metanol aralashmasiga natriy metali ta'sir ettirilganda 11,2 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Shuncha miqdordagi spirtlar aralashmasi vodorod bromid bilan reaksiyaga kirishganda 97,8 g alkilbromidlar hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashma og'irligini (g) aniqlang.
A) 43,2 B) 56,2 C) 28,4 D) 34,8

102. (v8-103-30) Quyidagi moddalardan qaysilari bir atomli to'yingan spirtlar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) aktiv metallar; 2) mis (I) oksid (qizdirganda); 3) mis (II) gidroksid (xlorid kislota ishtirokida); 4) sirka kislota (natriy gidroksid ishtirokida); 5) xlorid kislota (sulfat kislota ishtirokida).
A) 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 1, 5

103. (v8-104-12) Quyidagilar orasidan gidratlanganda uchlamchi spirt, kaliy permanganat bilan oksidlanganda diol-2,3 hosil bo'ladigan C_5H_{10} tarkibli uglevodorodlari aniqlang:
1) $CH_3CH_2C(CH_3)CH_2$; 2) $CH_3C(CH_3)CHCH_3$;
3) $CH_2C(CH_3)_2$; 4) $CH_2CHCH_2CH_3$;
5) $CH_3CHCHCH_3$; 6) $CH_3CHC(CH_3)_2$.
A) 1, 3, 4 B) 2, 6 C) 1, 3 D) 2, 5, 6

104. (v8-104-29) 2,16 g A aldegidning qaytarilishidan o'shancha uglerod tutgan B spirt hosil bo'ldi. B spirtga mol miqdorda natriy metali ta'sir ettirilganda 336 ml (n. sh.) gaz ajraldi. B spirtning strukturasini aniqlang.
A) propanol-2
B) 2-metilpropanol-1
C) 2-metilpentanol-1
D) 2-metilbutanol-1

105. (v8-113-29) Propanol va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 2,7 g suv va umumiy massasi 11,1 g bo'lgan uchta oddiy efir teng mol nisbatta hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan ikkinchi spirtni aniqlang.
A) metil spirt B) etil spirt
C) propil spirt D) butil spirt

106. (v8-116-29) Etanol va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 18 g suv va umumiy massasi 88 g bo'lgan uchta oddiy efir teng mol nisbatta hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan ikkinchi spirtni aniqlang.
A) propanol B) etanol
C) metanol D) butanol

107. (v8-117-29) 5,92 g bir atomli A spirtning oksidlanishidan o'shancha uglerod tutgan B kislota hosil bo'ldi. B kislotaga mo'l miqdorda etanol (H_2SO_4 ishtirokida) ta'sir ettirilganda 9,28 g murakkab efir olindi. A spirtning strukturasini aniqlang.
1) $CH_3CH_2CH(OH)CH_3$;
2) $CH_3CH_2CH_2CH_2CH_2OH$;
3) $CH_3CH(CH_3)CH_2OH$;
4) $CH_3C(CH_3)_2CH_2OH$;
5) $CH_3CH(CH_3)CH(OH)CH_3$;
6) $CH_3CH_2CH_2CH_2OH$.
A) 3, 6 B) 1, 3, 6 C) 2, 5 D) 2, 4, 5

108. (v8-121-12) Quyidagilar orasidan gidratlanganda uchlamchi spirt, kaliy permanganat bilan oksidlanganda diol-2,3 hosil bo'ladigan C_6H_{12} tarkibli uglevodorodlari aniqlang:
1) $H_2CCHCH_2CH_2CH_3$;
2) $H_3CCHC(CH_3)CH_2CH_3$;
3) $H_3CC(CH_3)CHCH_3$;
4) $H_3CCH(CH_3)CH_2CHCH_2$;
5) $H_3CCH(CH_3)CHCH_2$;
6) $H_3CC(CH_3)CHCH_2CH_3$.
A) 2, 6 B) 2, 3, 6 C) 1, 5 D) 1, 4, 5

109. (v9-101-4) Etil spirt va kaliy bromiddan iborat aralashma sulfat kislota bilan qizdirilganda 21,8 g alkilbromid hosil bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi etanolning massasini (g) hisoblang.
A) 13,4 B) 9,2 C) 8,6 D) 11,5

110. (v9-104-12) 75 ml (ρ = 0,8 g/ml) bir atomli spirtning natriy bilan ta'sirlashuvidan olingan vodorod 17 g izoprenni to'la gidrogenlashga, yetsa, reaksiya uchun qanday spirt(lar) olingan.
1) $CH_3CH_2CH_2OH$; 2) $CH_2CH_2CH_2CH_2CH_2OH$;
3) $CH_3CH(OH)CH_2CH_3$; 4) CH_3CH_2OH;
5) $CH_3CH(OH)CH_3$.
A) 2, 3 B) 1 C) 1, 5 D) 4

111. (v9-106-2) Berilgan moddalarning qaysilari etanol bilan reaksiyaga kirishadi?
1) etanol (t < 140°C, sulfat kislota ishtirokida); 2) natriy karbonat; 3) natriy metali; 4) etil spirt (t > 140°C, sulfat kislota ishtirokida); 5) kaliy permanganat (sulfat kislota ishtirokida); 6) sulfat kislota.
A) 1, 3, 5, 6 B) 2, 4
C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

112. (v9-107-22) 172,5 ml (ρ = 0,8 g/ml) etil spirtga 324 g 50% li vodorod bromid ta'sir ettirilganda necha gramm brometan hosil bo'ladi?
A) 327 B) 218 C) 381 D) 272,5

113. (v9-109-30) Glitserinning 70% li (ρ = 1,5 g/ml) nitrat kislota bilan ta'sirlashuvidan 18,2 g dinitroglitserin hosil bo'lsa, reaksiyada qatnashgan nitrat kislota eritmasining hajmini (ml) hisoblang.
A) 12,6 B) 6 C) 18 D) 12

114. (v11-107-13) 200 g uchlamchi butil spirt eritmasiga konsentrlangan H_2SO_4 ta'sir ettirildi. Hosil bo'lgan mahsulot 294 g $K_2Cr_2O_7$ va konsentrlangan H_2SO_4 bilan reaksiyaga kirishtirildi. Ushbu reaksiyada hosil bo'lgan gaz moddaning hajmini va uchlamchi butil spirtning massa ulushini aniqlang.
1) 18,4 l; 2) 16,8 l; 3) 11,2 l; 4) 5,6 l;
5) 27,75%; 6) 34,8%; 7) 22,5%; 8) 42,5%.
A) 2 va 5 B) 1 va 6
C) 3 va 8 D) 4 va 7

115. (v11-113-7) "Antifrizlar" qanday tarkibga ega?
A) dioksin + suv B) spirt + suv
C) etilenglikol + suv D) glitserin + suv

116. (v12z-201-35) A modda oksidlanganda etanal, B modda oksidlanganda keton hosil bo'lsa, A va B moddalar aralashmasi molekulalararo degidratlanishidan qanday moddalar hosil bo'ladi?
1) $CH_3CH_2OCH_2CH_3$;
2) $CH_3CH_2CH_2OCH_2CH_2CH_3$;
3) $CH_3CH(CH_3)OCH(CH_3)CH_3$;
4) $CH_3CH_2CH_2OCH_2CH_3$;
5) $CH_3CH(CH_3)OCH_2CH_2CH_3$;
6) $CH_3CH(CH_3)OCH_2CH_3$.
A) 2, 4, 5 B) 4, 5, 6
C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 6

117. (v12z-202-8) 6 ta molekulasida 120 ta sp^3-gibridlangan orbital bo'lgan 22,2 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan teng miqdordagi 3 xil oddiy efirning 30,6 g aralashmasi hosil bo'lsa, spirtlarni aniqlang.
1) C_3H_7OH; 2) C_4H_9OH; 3) C_2H_5OH; 4) CH_2OH.
A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 1, 3

118. (v12z-209-6) 176 g dioksan olish uchun necha gramm etilenglikol sarflanadi?
A) 124 B) 248 C) 186 D) 232

119. (v12z-228-3) 90,8 g trinitroglitserin olish uchun necha grammdan glitserin va nitrat kislota sarflanadi?
A) 100; 108 B) 69; 94,5
C) 36,8; 75,6 D) 46; 63

120. (v12z-231-7) Etilenglikolning ichki molekulyar degidratlanishidan hosil bo'lgan mahsulotni toping.
A) etil spirti B) etilen
C) atsetaldegid D) chumoli kislota

121. (v12z-243-22) 232 g allil spirtdan necha gramm glitserin olish mumkin?
A) 324 B) 348 C) 368 D) 312

122. (v12z-256-12) Alkogalat gidrolizlanganda kaliy gidroksid va 90 g propil spirti hosil bo'lgan bo'lsa, alkogolat va ishqor massasini (g) aniqlang.
A) 246; 168 B) 147; 84
C) 82; 56 D) 41; 28

123. (v12z-260-32) 6 ta molekulasida 96 ta sp^3-gibridlangan orbital bo'lgan 18 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 22,2 g teng miqdorda 3 xil oddiy efirlar aralashmasi hosil bo'lsa, spirtlar formulasini aniqlang.
1) C_3H_7OH; 2) C_4H_9OH;
3) C_2H_5OH; 4) CH_3OH.
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 2, 3

124. (v12c-101-25) 6 ta molekulasida 96 ta sp^3 gibridlangan orbital bo'lgan 18 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 26,4 g teng miqdorda 3 xil oddiy efirlar aralashmasi hosil bo'lsa, shu jarayonda hosil bo'lgan efirlarni ko'rsating.
1) $C_3H_7OC_2H_5$; 2) $C_3H_7OC_3H_7$; 3) CH_3OCH_3;
4) $C_4H_9OC_4H_9$; 5) $C_2H_5OC_2H_5$; 6) $C_4H_9OCH_3$;
7) $C_3H_7OCH_3$; 8) $C_4H_9OC_2H_5$.
A) 4, 5, 8 B) 1, 3, 7 C) 1, 2, 5 D) 3, 4, 6

125. (v12c-106-28) 6 ta molekulasida 120 ta sp^3-gibridlangan orbital bo'lgan 22,2 g spirt va unnig gomologi molekulalararo degidratlanishidan teng miqdordagi 3 xil oddiy efirning 26,4 g aralashmasi hosil bo'lsa, shu jarayonda hosil bo'lgan efirlarni belgilang.
1) $C_3H_7OC_2H_5$; 2) $C_3H_7OC_3H_7$; 3) CH_3OCH_3;
4) $C_4H_9OC_4H_9$; 5) $C_2H_5OC_2H_5$; 6) $C_4H_9OCH_3$;
7) $C_3H_7OCH_3$; 8) $C_4H_9OC_2H_5$.
A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 7 C) 4, 5, 8 D) 3, 4, 6

126. (v12c-114-4) 30,4 g etanol bilan propanol aralashmasiga natriy metali ta'sir ettirilganda 6,72 litr gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi C_3H_7OH massasini toping.
A) 20,8 B) 18,4 C) 12 D) 9,2

127. (v12c-118-28) 29,6 g A spirt teng miqdorda 2 idishga ajratildi. 1-idishdagi spirt oksidlanib, B kislota hosil bo'ldi. 2-idishdagi A spirt bilan B kislota reaksiyaga kirishganda 28,8 g murakkab efir hosil bo'lsa, murakkab efir(lar)ni aniqlang.
1) $CH_3CH_2COOCH(CH_3)_2$;
2) $CH_3CH_2COOCH_2CH_2CH_3$;
3) $CH_3CH_2CH_2COOCH_2(CH_3)_3$;
4) $CH_3CH(CH_3)COOCH_2CH_2CH_2CH_3$;
5) $CH_3CH(CH_3)COOCH_2CH(CH_3)CH_3$.
A) 5 B) 3, 4, 5 C) 4, 5 D) 1, 2

128. (v12c-127-1) 29,6 g A spirt teng miqdorda 2 idishga ajratildi 1 idishdagi spirt oksidlanib B kislota hosil bo'ldi. Ikkinchi idishdagi A spirt bilan B kislota reaksiyaga kirishganda 28,8 g murakkab efir hosil bo'lsa, kislota(lar)ni aniqlang. .
1) $CH_3CH_2CH_2COOH$; 2) $CH_2(CH_3)COOH$;
3) $CH_3CH(CH_3)COOH$; 4) CH_3CH_2COOH;
5) $CH_3CH_2COOCH_3$.
A) 1, 3 B) 1, 3, 5 C) 4 D) 2, 4

129. (v12c-132-6) A modda oksidlanganda propanal, B modda oksidlanganda keton hosil bo'lsa, A va B moddalar molekulalararo

degidratlanishidan qanday moddalar hosil bo'lmaydi?
1) $CH_3CH_2OCH_2CH_3$;
2) $CH_3CH_2CH_2OCH_2CH_2CH_3$;
3) $CH_3CH(CH_3)OCH(CH_3)CH_3$;
4) $CH_3CH_2CH_2OCH_2CH_3$;
5) $CH_3CH(CH_3)OCH_2CH_2CH_3$;
6) $CH_3CH(CH_3)OCH_2CH_3$.
A) 1, 3, 6 B) 2, 4, 5
C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 6

130. (v12c-134-12) 48 g A spirt teng miqdorda 2 idishga ajratildi. 1 idishdagi spirt oksidlanib B kislota hosil bo'ldi. Ikkinchi idishdagi A spirt bilan B kislota reaksiyaga kirishganda 46,4 g murakkab efir hosil bo'lsa, kislota(lar)ni aniqlang.
1) $CH_3CH_2CH_2COOH$; 2) $CH_2(CH_3)COOH$;
3) $CH_3CH(CH_3)COOH$; 4) CH_3CH_2COOH;
5) $CH_3CH_2COOCH_3$.
A) 2, 4 B) 1 C) 1, 3, 5 D) 4

131. (v12c-134-17) A modda oksidlanganda etanal, B modda oksidlanganda keton hosil bo'lsa, A va B moddalar molekulalararo degidratlanishidan qanday moddalar hosil bo'lmaydi?
1) $CH_3CH_2CH_2OCH_2CH_2CH_3$;
2) $CH_3CH_2OCH_2CH_3$;
3) $CH_3CH_2CH_2OCH_2CH_3$;
4) $CH_3CH(CH_3)OCH(CH_3)CH_3$;
5) $CH_3CH(CH_3)OCH_2CH_3$;
6) $CH_3CH(CH_3)OCH_2CH_2CH_3$.
A) 1, 3, 6 B) 2, 4, 5 C) 4, 5, 6 D) 1, 2, 3

132. (v13-101-20) Massasi 120 g bo'lgan bir atomli to'yingan spirt namunasidagi barcha atomlar miqdori 22,5 mol bo'lsa, spirtni toping.
A) etanol B) propanol
C) butanol D) metanol

133. (v13-108-14) Natriy etilatning 400 g 8,5% li spirtli eritmasini hosil qilish uchun necha grammdan natriy va etil spirti talab etiladi?
A) 11,5; 23 B) 11; 30
C) 10,5; 39 D) 11,5; 38

134. (v13-108-16) 80 g bir atomli to'yingan spirt molekulasida 15 mol atom bo'lsa, noma'lum spirtni toping.
A) C_4H_9OH B) CH_3OH
C) C_3H_7OH D) C_2H_5OH

135. (v13-112-35) 91,8 g spirtning oksidlanishidan 90 g aldegid hosil bo'lsa, shunday massadagi spirtdan olinadigan kislotaning kaliyli tuzi massasini (g) toping.
A) 140 B) 68,4 C) 104,4 D) 138,6

136. (v13-118-11) 60 g bir atomli to'yingan spirt molekulasida 18 mol atom bo'lsa, noma'lum spirtni toping.
A) $C_6H_{13}OH$ B) C_2H_5OH
C) C_3H_7OH D) $C_5H_{11}OH$

137. (v13-129-35) 16,1 g bir atomli to'yingan spirt molekulasida 3,15 mol atom bo'lsa, noma'lum spirtni toping.
A) C_2H_5OH B) $C_5H_{11}OH$
C) C_4H_9OH D) C_3H_7OH

138. (v13-134-31) 18 g propanol-1 bilan 11,5 g natriyning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida qancha (g) natriy propilat olish mumkin?
A) 24,6 B) 20
C) 26 D) 21

139. (v13-164-33) Uchlamchi butil spirtni olishda 7,65 g magniy gidroksoxlorid tuz ajralgan bo'lsa, reaksiyada ishtirok etgan atsetonning massasini (g) toping.
A) 11,6 B) 2,9 C) 7,45 D) 5,8

140. (v13-168-19) 66,3 g spirtning oksidlanishidan 65 g aldegid hosil bo'lsa, shunday massadagi spirtdan olinadigan kislotani etanol bilan o'zaro ta'siridan hosil bo'ladigan efirning massasini (g) toping.
A) 144 B) 46,8 C) 93,6 D) 84,5

141. (v13-169-14) 2,3 g etanol bilan 46 g mis (II) oksidning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida 1,54 g aldegid olingan bo'lsa, reaksiya unumini (%) hisoblang.
A) 65 B) 80 C) 70 D) 75

142. (v14-101-21) Metil spirtining mol ulushi 0,5 ga teng bo'lgan suvli eritmasining 100 grammi 69 g Na bo'lakchasi bilan ta'sirlashsa, necha gramm alkogolyat hosil bo'ladi?
A) 54 B) 81 C) 108 D) 162

143. (v14-112-8) 100 g 92% li C_2H_5OH ning suvli eritmasi to'liq alkogolyatga aylanishi uchun necha gramm Na metalli bilan ta'sirlashishi kerak?
A) 47,5 B) 46 C) 56,22 D) 10,22

144. (v15-106-23) Bir atomli to'yingan spirt karbon kislotaga qadar oksidlandi. Bunda sp^3-gibrid orbitallar soni 1,5 marta kamaydi. Spirtni aniqlang.
A) propanol B) butanol
C) metanol D) etanol

145. (v15-108-9) Bir atomli to'yingan spirt karbon kislotaga qadar oksidlandi. Bunda sp^3-gibrid orbitallar soni 2 marta kamaydi. Spirtni aniqlang.
A) etanol B) metanol
C) propanol D) butanol

146. (v15-109-5) Bir atomli to'yingan spirt karbon kislotaga qadar oksidlandi. Bunda sp^3-gibrid orbitallar soni 4/3 marta kamaydi. Spirtni aniqlang.
A) etanol B) propanol
C) metanol D) butanol

147. (v15-110-21) Bir atomli to'yingan spirt karbon kislotaga qadar oksidlandi. Bunda sp^3-gibrid orbitallar soni 1,25 marta kamaydi. Spirtni aniqlang.
A) etanol B) butanol
C) metanol D) propanol

148. (v16-102-27) Spirtlar quyidagi qaysi moddalar bilan ta'sirlashmaydi?
A) kislotalar B) kislorod
C) metallar D) ishqorlar

149. (v16-108-32) $C_2H_4(OH)_2$ ning barcha nomlarini ko'rsating.
1) etandiol-1,2; 2) etilenglikol;
3) etinil; 4) etanal.
A) 1 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 4

150. (v16-109-36) Eng oddiy aromatik spirtning nomi?
A) fenol B) benzil spirt
C) fenil D) gidroksid

151. (v16-110-7) CH_3OH va uning gomologidan iborat aralashma H_2SO_4 ishtirokida qizdirilganda (t = 120°C) umumiy massasi 23,5 g uchta oddiy efir va 5,4 g suv hosil bo'ldi. Agar mahsulotlarning (molyar massalari ortib borish tartibida) mol nisbatlari 2:1:3 bo'lsa, gomolog tarkibini aniqlang.
A) C_4H_9OH B) $C_5H_{11}OH$
C) C_3H_7OH D) C_2H_5OH

152. (v16-114-17) Bir atomli to'yingan spirt karbon kislotaga qadar oksidlandi. Bunda sp^3-gibrid orbitallar soni 1,5 marta kamaydi. Spirtni aniqlang.
A) propanol B) butanol
C) etanol D) metanol

153. (v16-122-4) To'yingan bir atomli A spirt oksidlanganda tarkibida spirt, aldegid va monokarbon kislota (mol nisbatlari 1:2:3) bo'lgan 32,5 g aralashma olindi. Ushbu aralashmaga $NaHCO_3$ qo'shilganda 3,36 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Aralashmadagi aldegid massasini (g) aniqlang.
A) 5 B) 10 C) 15 D) 7,5

154. (v16-122-22) 9 g propanolga yetarli miqdorda fosfor (V) xlorid ta'sir ettirilganda necha gramm kislorodli birikma hosil bo'ladi?
A) 23 B) 46 C) 30,7 D) 15,35

155. (v16-125-2) 44,4 g A spirt teng miqdorda 2 idishga ajratildi. 1-idish oksidlanib aldegid, aldegidni kumush oksidning aminiakdagi eritmasi bilan oksidlab, B kislota va 64,8 g Ag olindi. Ikkinchi idishdagi A spirt va B kislota o'zaro reaksiyaga kirishganda qanday mahsulot(lar) hosil bo'lishi mumkin?
1) $CH_3CH_2COOCH(CH_3)_3$;
2) $CH_3CH_2COOCH_2CH_2CH_3$;
3) $CH_3CH_2CH_2COOCH_2(CH_3)_3$;
4) $CH_3CH(CH_3)COOCH_2CH_2CH_2CH_3$;
5) $CH_3CH(CH_3)COOCH_2CH(CH_3)CH_3$.
A) 5 B) 4, 5 C) 1, 2 D) 3, 4, 5

156. (v17-101-7) $C_5H_{11}OH$ tarkibli spirtning ... ta izomer to'g'ri keladi.
A) 10 B) 6 C) 5 D) 8

157. (v17-105-30) Sanoatda metanolning harorati 300–600°C hamda rux va xrom oksidlari katalizatorlari ishtirokida uglerod (II) oksidi va vodoroddan olinadi. Katalizatorlarning o'zaro kislotalari qanday bo'ladi?
A) 2:1 B) 1:4 C) 9:1 D) 4:1

158. (v17-106-16) Quyidagi moddalar qanday reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) bir atomli spirtlar; 2) fenollar:
a) $Cu(OH)_2$; b) NaOH; c) Na; d) H_2; e) Br_2;
f) C_2H_5OH; j) HCOOH.
A) 1-c, j; 2-b, c, d, f
B) 1-a, c; 2-b, c, d, f
C) 1-c, j; 2-a, c, d, f
D) 1-c, j, e; 2-a, b, c, d, e

159. (v17-109-15) 18 g propanolga yetarli miqdorda fosfor (V) xlorid ta'sir ettirilganda necha gramm kislorodli birikma hosil bo'ladi?
A) 46 B) 92 C) 23 D) 30,7

160. (v17-111-8) Xloralgidrat degidratlanganda qanday molekulyar massali (m.a.b.) aldegid hosilasi olinadi?
A) 147,5 B) 101 C) 113 D) 64,5

161. (v17-111-15) 12 g propanolga yetarli miqdorda fosfor (V) xlorid ta'sir ettirilganda necha gramm kislorodli birikma hosil bo'ladi?
A) 23 B) 30,7 C) 15,35 D) 46

162. (v17-114-7) 0,8 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislota eritmasiga ishqoriy metall qo'shilganda 17,92 litr (n. sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 34:41 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislotaning molyar massasini aniqlang
A) 88 B) 60 C) 74 D) 46

163. (v17-115-30) Aynan bir xil moddalarni tanlang:

a) $CH_3-\underset{\underset{CH_3}{|}}{CHOH}-CH_2OH$; b) $\underset{\underset{CH_2OH}{|}}{CH_2}-\underset{\underset{CH_2OH}{|}}{CH_2}$; c) $\underset{\underset{CH_2OH}{|}}{CH_2}-CH_2OH$.

d) $OH–CH_2–CH_2–OH$;
e) $CH_3–CHOH–CHOH–CH_3$;
f)  g)
A) a va g; f va d; e va c
B) a va g; c va d; b va e
C) a va b; c va d; e va f
D) a va g; c va d; e va f

164. (v17-116-23) To'yingan bir atomli spirt tarkibida kislorodning massa ulushi uglerod va vodorodning birgalikdagi massa ulushidan 29/8 marta kichik bo'lsa, uglerodning massa ulushini aniqlang.
A) 3/ B) 12/23
C) 3/8 D) 24/37

165. (v17-116-28) Nitroglitsirin olish uchun glitsiringa nitrat kislota reaksiyasida qanday katalizator ishtirokida olib borilganda reaksiya bo'ladi?
A) $AlCl_3$ $FeCl_3$ B) MnO_2, Cr_2O_3
C) $H_2SO_{4(kons)}$ D) $C_2H_5OH_{(erit)}$

166. (v17-120-19) 9 g propanolga yetarli miqdorda fosfor (V) xlorid ta'sir ettirilganda necha gramm kislorodli birikma hosil bo'ladi?
A) 46 B) 30,7 C) 23 D) 15,35

167. (v17-122-23) Glitserinning nechta izomeri bor?
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

168. (v17-125-16) 0,8 mol to'yingan bir atomli spirtning 1/4 qismi yonishidan olingan CO_2 massasi shu spirtning 3/4 qismi oksidlanishidan olingan aldegid massasidan 9,2 g ga kam spirtni aniqlang.
A) etanol B) metanol
C) butanol D) propanol

169. (v17-127-16) Formulani aniqlang:
a) magniy etilat; b) alyuminiy metilat.
A) $(C_2H_5O)_2Mg$; $(CH_3O)_3Al$
B) C_2H_5Mg; $(CH_3)_3Al$
C) $(C_2H_5)_2Mg$; CH_3Al
D) C_2H_5Mg; CH_3Al

170. (v17-130-4) To'yigan bir atomli spirt tarkibida kislorodning massa ulushi uglerod va vodorodning birgalikdagi massa ulushidan 11/4 marta kichik bo'lsa, uglerodning massa ulushini aniqlang.
A) 3/8 B) 24/37
C) 3/5 D) 12/23

87.2. Oddiy efirlar

1. (99-5-12) Metanol, etanol va sulfat kislota aralashmasi qizdirilganda, qanday efirlar hosil bo'ladi?
A) dimetil-, dietil efirlari
B) dietil-, metil-etil efirlari
C) metil-etil-, dimetil efirlari
D) dimetil-, dietil-, metil-etil efirlari
E) dimstil va dietil efirlari

2. (99-9-27) Qaysi birikma(lar) faqat oddiy efirlar sinfiga taalluqli?
1)  ; 2) $(CH_3)_2CHOCH_2CH_3$;
3)  ; 4) $C_2H_5OCC_3H_7$; 5) C_3H_7ONa.
A) 1, 4 B) 2, 3 C) 4
D) 2 E) 1, 5

3. (02-6-73) Oddiy efirlar laboratoriyada qanday olinadi?
A) propanolning molekulalararo degidratlanishidan
B) butanolning ichki molekulyar degidratlanishidan
C) metan kislotaning etanol bilan eterifikatsiyalanishidan
D) butanalning kumush oksidning ammiakli eritmasi bilan oksidlanishidan
E) spirtning mineral kislotalar bilan eterifikatsiyalanishidan

4. (03-8-39) 0,2 mol propanol-1,75% unum bilan molekulalararo degidratlanishida qancha massa (g) oddiy efir olinadi?
A) 6,06 B) 7,65 C) 15,3
D) 22,95 E) 11,48

5. (03-9-6) Oddiy sharoitda gaz bo'lgan oddiy efirlarni ko'rsating:
1) dimetil; 2) dietil; 3) metiletil; 4) metilpropil.
A) 1 B) 1, 2 C) 1, 3
D) 1, 4 E) 2, 3

6. (03-9-8) Oddiy efirlarni qaysi kislotalar past temperaturada ham parchalashi mumkin?
1) $H_2SO_{4(kons)}$; 2) $H_2SO_{4(suyuq)}$; 3) HCl; 4) HI.
A) 1 B) 1, 3 C) 2, 3
D) 3, 4 E) 1, 4

7. (v9-108-27) 138 g etanolni sulfat kislota ishtirokida 140°C gacha qizdirilganda olingan suyuq mahsulotning massasini (g) aniqlang.
A) 111 B) 137 C) 74 D) 148

8. (v12z-205-28) 5 ta molekulasida 60 ta sp^3 gibridlangan orbital bo'lgan 13,8 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 18 g teng miqdorda 3 xil oddiy efirlar aralashmasi hosil bo'lsa, spirtlar formulasini aniqlang.
1) C_3H_7OH; 2) C_4H_9OH; 3) C_2H_5OH; 4) CH_3OH.
A) 3, 4 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 3

9. (v12z-220-27) 5 ta molekulasida 100 ta sp^3-gibridlangan orbital bo'lgan 22,2 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 34,8 g teng miqdorda 3 xil oddiy efirlar aralashmasi hosil bo'lsa, spirtlar formulasini aniqlang.
1) C_3H_7OH; 2) $C_5H_{11}OH$;
3) C_2H_5OH; 4) C_4H_9OH.
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 3 D) 2, 4

10. (v12z-224-7) 5 ta molekulasida 60 ta sp^3 gibridlangan orbital bo'lgan 13,8 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 18 g teng miqdorda 3 xil oddiy efirlar aralashmasi hosil bo'lsa, shu jarayonda hosil bo'lgan efirlarni ko'rsating.
1) $C_3H_7OC_2H_5$; 2) $C_3H_7OC_3H_7$; 3) CH_3OCH_3;
4) $C_4H_9OC_4H_9$; 5) $C_2H_5OC_2H_5$; 6) $C_4H_9OCH_3$;
7) $C_2H_5OCH_3$; 8) $C_4H_9OC_2H_5$.
A) 4, 5, 8 B) 3, 5, 7
C) 3, 4, 6 D) 1, 2, 5

11. (v12c-109-16) 5 ta molekulasida 100 ta sp^3 gibridlangan orbital bo'lgan 22,2 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 34,8 g teng miqdorda 3 xil oddiy efirlar aralashmasi hosil bo'lsa, shu jarayonda hosil bo'lgan efirlarni ko'rsating.
1) $C_5H_{11}OC_2H_5$; 2) $C_3H_7OC_3H_7$;
3) $C_4H_9OC_4H_9$; 4) $C_5H_{11}OC_5H_{11}$;
5) $C_2H_5OC_2H_5$; 6) $C_4H_9OC_3H_7$;
7) $C_3H_7OC_5H_{11}$; 8) $C_4H_9OC_2H_5$.
A) 1, 4, 5 B) 2, 4, 7 C) 2, 3, 6 D) 3, 5, 8

12. (v12c-117-36) 5 ta molekulasida 120 ta sp^3 gibridlangan orbital bo'lgan 26,4 g spirt va uning gomologi molekulalararo degidratlanishidan 30,6 g teng miqdorida 3 xil oddiy efirlar aralashmasi hosil bo'lsa, shu jarayonda hosil bo'lmagan efirlarni ko'rsating.
1) $C_3H_7OC_2H_5$; 2) $C_3H_7OC_3H_7$;
3) CH_3OCH_3; 4) $C_5H_{11}OC_5H_{11}$;
5) $C_2H_5OC_2H_5$; 6) $C_5H_{11}OCH_3$.
A) 1, 2, 5 B) 3, 4, 6 C) 4, 5, 6 D) 1, 2, 3

13. (v15-114-12) Dimetilefirning normal sharoit dagi agregat holatini aniqlang.
A) suyuq B) plazma
C) qattiq D) gaz

14. (v16-114-31) Dimetilefirning normal sharoitdagi agregat holatini aniqlang.
A) suyuq B) qattiq
C) plazma D) gaz

15. (v17-118-29) Analitik kimyoda Seyzel usulidan foydalanib, oddiy efirlar tarkibidagi $–OCH_3$, $–OC_2H_5$ guruhlarni miqdoriy aniqlash mumkin. Etoksietanga 5,12 g konsentrlangan yodid kislotani qizdirib turib ta'sir ettirilsa, qancha (g) organik modda olinadi (reaksiya unumi 75%)?
A) 4,68 B) 3,12
C) 2,34 D) 6,24

87.3. Fenollar

1. (96-3-49) Nima uchun fenolning gidroksid gruppasidagi vodorod atomi benzol yadrosidagi vodorodlarga nisbatan aktiv?
A) gidroksoguruh yadrodagi elektronlar zichligini kamaytiradi.
B) gidroksoguruhga vodorod ta'sir etadi.
C) gidroksoguruh yadrodagi elektronlar zichligini oshipadi
D) aromatik yadro gidroksoguruhga elektronlar uzatadi, shuning uchun yadrodagi vodorod atominingreaksion qobiliyati. pasayadi.
E) fenol benzoldan aktiv emas

2. (96-4-5) 94 g fenol eritmasiga benzol ishtirokida 4,6 g natriy ta'sir ettirish natijasida ajralib chiqqan gaz qanday hajmni egallaydi?
A) 0,56 l B) 0,83 l C) 1,12 l
D) 2,24 l E) 3,36 l

3. (96-8-49) Qaysi aromatik birikma karbol kislota deb ataladi?
A) $C_6H_5–NH_2$ B) $C_6H_5–CH_3$
C) $C_6H_5–OH$ D) $C_6H_5–COOH$
E) $C_6H_{13}–OH$

4. (96-8-64) Fenol nitrolanganda qaysi mahsulot hosil bo'ladi?
A) 2-nitrofenol B) 4-nitrofenol
C) 3,5-dinitrofenol D) 2,6-dinitrofenol
E) 2,4,6-trinitrofenol

5. (96-10-63) Kumol usuli bilan olingan fenolni nitrolash uchun 18,9 g nitrat kislota sarflandi. Fenolni sintez qilishda u bilan birga necha gramm atseton ajralib chiqqan?
A) 58 B) 29 C) 14,5
D) 11,6 E) 5,8

6. (96-13-31) Fenol bilan mo'l miqdorida nitrat kislota reaksiyasi natijasida qaysi mahsulot hosil bo'ladi?
A) 2-nitrofenol B) 3-nitrofenol
C) 4-nitrofenol D) 5-nitrofenol
E) 2,4,6-trinitrofenol

7. (98-2-36) Fenol sababdan kislota xossasini namoyon qiladi?
A) benzol yadrosining gidroksil gruppaga ta'siri sababli
B) gidroksil gruppaning benzol yadrosiga ta'siri sababli
C) hamma kislotalar kabi dissotsialanishi sababli
D) kislorod atomidagi juftlashgan elektronlarning benzol yadrosiga siljishi natijasida gidroksil gruppadagi vodorod atomining harakatchanligi ortishi sababli

E) kislorod atomining elektrmanfiyligi vodorod atominikidan katta bo'lganligi sababli

8. (98-2-62) 195 ml benzol (ρ = 0,8 g ml^{-1}) dan olingan fenol 40% li natriy gidroksid eritmasining necha grami bilan reaksiyaga kirisha oladi?
A) 200 B) 220 C) 234
D) 245 E) 191

9. (00-2-48) Quyidagi kislotalardan eng kuchlisini aniqlang.
A) fenol B) o-dinitrofenol
C) m-dinitrofenol D) n-dinitrofenol
E) 2,4,6-trinitrofenol

10. (00-6-33) Pirokatexin, metilatsetat va etilformiat aralashmasining 2,94 g miqdori bilan natriy gidroksidning reaksiyaga kirishishi mumkin bo'lgan miqdori 0,05 mol ga teng. Boshlang'ich aralashmadagi pirokatexinning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 77,7 B) 72,7 C) 72,4
D) 78,4 E) 74,8

11. (00-6-41) Quyidagi reaksiyalarning qaysilari spirtlarga nisbatan fenollarning kislotalilik xossalari kuchli ekanligini isbotlaydi?
1) $C_2H_5OH + Na$; 2) $C_6H_5OH + Na$;
3) $C_6H_5OH + NaOH$; 4) $C_2H_5OH + NaOH$;
5) $C_2H_5ONa + H_2O$; 6) $C_6H_5ONa + H_2O$.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 3, 5
D) 4, 5 E) 3, 6

12. (01-1-43) Nitrofenol gomologlarining umumiy formulasini ko'rsating.
A) $C_nH_{2n-8}(OH)(NO_2)$ B) $C_6H_5(OH)(NO_2)$
C) $C_{6n}H_{5n}(OH)_n(NO_2)_n$ D) $C_{n+6}H_{2n+5}NO_3$
E) $C_{6n}H_{6n}O_nNO_2$

13. (01-6-28) Sanoatda atseton qaysi uglevodoroddan olinadi?
A) kumol B) o-ksilol
C) toluol D) stirol
E) divinil

14. (01-9-46) Fenollar qanday moddalar bilan reaksiyada qatnashishi mumkin?
1) barcha metallar; 2) bromning suvdagi eritmasi; 3) organik kislotalar; 4) gidratlanish; 5) ishqorlar; 6) aminlar bilan birikib, anilin hosil qilish; 7) nitrat kislota; 8) cirka aldegid; 9) chumoli aldegid; 10) aktiv metallar; 11) temir (III) gidroqsid.
A) 1, 2, 7, 9, 10, 11
B) 2, 5, 7, 9, 10, 11
C) 2, 3, 5, 7, 9, 10
D) 4, 5, 7, 9, 10, 11
E) 2, 4, 6, 8, 9, 10

15. (v4-103-16) 18,8 g fenol mo'l miqdordagi nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishganda, necha gramm mahsulot hosil bo'ladi?
A) 41,6 B) 37,6 C) 45,8
D) 53,1 E) 38,7

16. (v4-105-31) 94 g fenolning benzoldagi eritmasiga 12,88 g natriy ta'sir ettirish natijasida qancha massa gaz ajralib chiqadi?
A) 0,2 B) 1,12 C) 0,56
D) 2,24 E) 0,83

17. (v4-109-30) 23,5 g fenolning mo'l miqdordagi nitrat kislota bilan reaksiyasi natijasida qaysi mahsulotdan necha gramm hosil bo'ladi?
A) 2,4,6-nitrofenol; 43,25
B) 2,4,6-trinitrofenol; 57,25
C) 2,4,6-nitrofenol; 62,15
D) 2,4,6-nitrofenol; 59,46
E) 2,4,6-nitrofenol; 54,25

18. (v4-115-31) Fenolning to'yingan eritmasi bilan 48 g brom reaksiyaga kirishgan bo'lsa eritmada necha mol fenol bo'lgan?
A) 4,7 B) 0,5 C) 8,2
D) 0,05 E) 0,1

19. (v5-102-14) Fenol formaldegid smolasi qanday reaksiya yordamida olinadi va fenolga qanday modda ta'sir ettiriladi?
A) polikondensatlanish, metanal
B) sopolimerlanish, formaldegid
C) polimerlanish, chumoli aldegidi
D) polimerlanish, metanol
E) sopolimerlanish, metilformiat

20. (v5-104-13) 1851-yil fenolni birinchi marta ... sintez qilgan.
A) N.D. Zelinskiy B) A.V. Kolbe
C) P.E. Bertlo D) A. Vyurs
E) V. V. Markovnikov

21. (v5-105-31) ... ml fenolning benzoldagi 10,4% li (ρ = 1,02 g/ml) eritmasiga mo'l miqdorda natriy metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqqan vodorod 2,6 g izoprenni to'liq katalitik gidrogenlashga yetarli bo'ladi.
A) 149,3 B) 210,1 C) 241,8
D) 127,4 E) 135,5

22. (v5-112-3) Pirokatexin molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisi – ... .
A) 0 B) –4 C) –2
D) +3 E) –1

23. (v5-112-13) Pirokatexin molekulasida ... holatda joylashgan bo'ladi.
A) metil va gidroksil guruhi bir-biriga nisbatan-1,3
B) ikkita gidroksil guruhi bir-biriga nisbatan-1,2
C) ikkita metil guruhi bir-biriga nisbatan-1,3
D) ikkita metil guruhi bir-biriga nisbatan-1,2
E) metil va gidroksil guruhi bir-biriga nisbatan-1,4

24. (v5-118-13) ... sariq rangli kristall bo'lib, u 1871-yilga qadar to'qimachilik korxonalarida sariq bo'yoq sifatida ishlatilgan.
A) pikrin kislota B) karbol kislota
C) akril kislota D) gidroxinon
E) Pirokatexin kislota

25. (v5-136-31) 1 g fenolni tribromfenolga aylantirish uchun kerak bo'ladigan bromning massasini (g) hisoblang.
A) 0,19 B) 2,55 C) 0,84
D) 5,1 E) 1,97

26. (v5-138-31) ... fenol va dimetilketon sintezida xomashyo sifatida ishlatiladi.
A) izopropilbenzol B) pikrin kislota
C) o-ksilol D) toluol
E) karbol kislota

27. (v6-103-31) 5% li karbol kislota eritmasi va bromli suv o'rtasidagi reaksiya oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmani to'la neytrallash uchun 20% li (ρ = 1,25 g/ml) natriy ishqor eritmasidan 12,8 ml sarflanadi. Kislota eritmasining massasini (g) hisoblang.
A) 20 B) 150,4
C) 37,6 D) 112,8

28. (v6-107-31) 75,2 g 5% li fenol eritmasi bilan bromli suv o'rtasidagi reaksiya oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmani to'la neytrallash uchun 28% li (ρ = 1,3 g/ml) natriy ishqor eritmasidan qancha hajm (ml) zarur bo'ladi?
A) 13,2 B) 4,4 C) 17,6 D) 8,8

29. (v6-110-21) o-nitrofenolning qaynash temperaturasi (45°C) m-nitrofenolnikidan (97°C) pastligining sababini aniqlang.
A) m-nitrofenolda vodorod bog'lanish bor, o-nitrofenolda yo'q
B) m-nitrofenolning molekulyar massasi katta
C) o-nitrofenolda ichki molekulyar vodorod bog'lanish, m-nitrofenolda molekulalararo vodorod bog'lanish mavjud
D) ularning kristall panjaralari turlicha

30. (v6-116-32) Sanoatda fenol olish usuli bo'yicha 116 g atseton sintez qilish uchun necha gramm benzol zarur bo'ladi? Reaksiya unumi birinchi bosqichda 60%, ikkinchisida – 100%.
A) 400 B) 240 C) 156 D) 260

31. (v7-103-30) Pirokatexin, etilformiat va metilatsetatdan iborat 0,6 mol aralashma 32 g natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishishi ma'lum bo'lsa, aralashmadagi pirokatexin massasini (g) aniqlang.
A) 29,6 B) 38,4 C) 22,0 D) 42,6

32. (v7-105-30) Fenilammoniyxlorid eritmasi va bromli suv orasidagi reaksiya oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmadan 2,4,6-tribromanilinni to'la ajratib olish uchun 1,5 molyarli natriy ishqor eritmasidan 2 l sarflandi. Boshlang'ich eritmadagi fenilammoniyxlorid miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,75 B) 1,0 C) 3,0 D) 0,25

33. (v7-106-30) Pirokatexin va karbol kislotadan iborat 0,3 mol aralashma 11,5 g natriy bilan reaksiyaga kirishishi ma'lum. Boshlang'ich aralashmadagi karbol kislotaning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 30 B) 36 C) 64 D) 70

34. (v7-107-34) Taklif etilgan strukturalardan qaysi bir pikrin kislotaga mos keladi?



A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

35. (v7-108-13) Fenol bilan reaksiyaga kirishmaydigan moddani belgilang.
A) xlorid kislota B) natriy
C) bromli suv D) natriy gidroksid

36. (v7-108-30) Fenol eritmasi va bromli suv orasidagi reaksiya oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmani to'la neytrallash uchun 1,6 molyarli natriy ishqor eritmasidan 0,25 l sarflandi. Boshlang'ich eritmadagi fenolning massasini (g) hisoblang.
A) 9,4 B) 37,6 C) 1,88 D) 12,53

37. (v7-108-36) 56,4 g fenolga nitrat kislota ta'sir ettirilganda (H_2SO_4 ishtirokida) o-nitrofenol, p-nitrofenol va pikrin kislotalar 1:2:3 mol nisbatda hosil bo'lsa, reaksiyaga qatnashgan nitrat kislota massasini (g) toping.
A) 189 B) 37,8 C) 75,6 D) 113,4

38. (v7-112-30) 400 g 2,59% li fenilammoniyxlorid eritmasi bilan bromli suv orasidagi reaksiya oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmadan 2,4,6-tribromanilinni to'la ajratib olish uchun 0,05 molyarli kaliy gidroksid eritmasidan qancha (l) zarur bo'ladi?
A) 1,6 B) 6,4 C) 3,8 D) 4,8

39. (v7-113-36) 112,8 g fenolning bromli suv bilan reaksiyasida 2-bromfenol, 4-bromfenol va 2,4,6-tribromfenollar 1:2:3 mol nisbatda hosil bo'lsa, reaksiyaga sarflangan brom massasini (g) toping.
A) 192 B) 384 C) 448 D) 240

40. (v7-119-30) Fenol gomologi mo'l miqdordagi natriy bilan ishlov berilganda 4,48 l (n. sh.) gaz hosil bo'lgan. Shuncha miqdordagi modda natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishganda 57,6 g natriy fenolyat olindi. Reaksiya uchun qanday moddalar olingan?
1) 2-etilfenol; 2) benzil spirt;
3) 3-fenilpropanol-1; 4) 2,4-dimetilfenol.
A) 1, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 2, 4

41. (v7-124-30) 21 g siklogeksanni katalizator (Pt) ishtirokida qizdirib (ρ = 300°C) olingan aromatik uglevodorodga oldiniga $FeCl_3$ ishtirokida brom, so'ngra natriy gidroksid bilan ishlov berilganda hosil bo'lgan mahsulot massasini (g) hisoblang.
A) 56,4 B) 39,25 C) 23,5 D) 82,75

42. (v8-108-28) Fenolga etarli miqdorda nitrat kislota (H_2SO_4 ishtirokida) ta'sir ettirilganda, 1:2:3 mol nisbatda 2-nitrofenol, 4-nitrofenol va 2,4,6-trinitrofenollardan iborat 0,9 mol mahsulot olindi. Hosil bo'lgan pikrin kislotaning massasini (g) aniqlang.
A) 68,7 B) 123,2
C) 103,05 D) 34,5

43. (v8-109-28) Fenolga etarli miqdorda nitrat kislota (H_2SO_4 ishtirokida) ta'sir ettirilganda, 1:2:3 mol nisbatda 2-nitrofenol, 4-nitrofenol va 2,4,6-trinitrofenollardan iborat 0,9 mol mahsulot olindi. Reaksiyaga qatnashgan nitrat kislotaning massasini (g) toping.
A) 56,7 B) 75,8 C) 113,4 D) 147,2

44. (v9-105-5) Berilgan moddalarning qaysilari fenol bilan reaksiyaga kirishadi?
1) propilen; 2) xlorid kislota; 3) bromli suv;
4) natriy karbonat; 5) metanal; 6) natriy gidroksid.
A) 1, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2
C) 1, 2, 4 D) 3, 4, 5, 6

45. (v9-110-29) 141 g fenolni bromlashda (reaksiyada 2,4,6-tribromfenol hosil bo'ladi) hosil bo'lgan gazsimon mahsulotni neytrallash uchun 12% li kaliy gidroksid (ρ = 1,25 g/ml) eritmasidan qancha hajm (ml) sarflanadi?
A) 1680 B) 1750
C) 2100 D) 1200

46. (v9-110-36) Fenol va etanol aralashmasiga ortiqcha miqdordagi natriy ta'sir ettirilganda 4,48 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Shuncha miqdordagi aralashmani to'la neytrallash uchun 48 ml 20% li natriy gidroksid eritmasi (ρ = 1,25 g/ml) sarflandi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning massa ulushini aniqlang.
A) 0,46; 0,54 B) 0,75; 0,25
C) 0,8; 0,2 D) 0,86; 0,14

47. (v9-112-30) Ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadigan moddani aniqlang.
A) benzil spirt B) etanol
C) fenol D) metanol

48. (v9-115-6) 4,7 g fenolni bromlashda (reaksiyada 2,4,6-tribromfenol hosil bo'ladi) hosil bo'lgan gazsimon mahsulotni neytrallash uchun 12% li kaliy gidroksid (ρ = 1,25 g/ml) eritmasidan qancha hajm (ml) sarflanadi?
A) 56 B) 8,4 C) 70 D) 16.8

49. (v11-103-9) Fenol va anilining benzoldagi eritmasi bor. Shu eritmadagi fenolning massa ulushi 17% ni, anilinniki esa 22% ni tashkil etadi, massasi 180 g bo'lgan shunday eritmani to'liq bromlash uchun bromning massa ulushi 7% bo'lgan eritmasidan qancha massa (kg) olish kerak? Brom uglerod tetraxloridda eritilgan.
A) 3,606 B) 1,562 C) 5,152 D) 2,44

50. (v11-106-34) Fenol va toluoldan iborat 0,75 mol aralashma NaOH ning 200 g 4% li eritmasi bilan to'la reaksiyaga kirishsa, boshlang'ich aralashmadagi fenolning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 72,9 B) 28 C) 72 D) 27,1

51. (v11-118-6) Fenol va toluoldan iborat 0,75 mol aralashma NaOH ning 200 g 4% li eritmasi bilan reaksiyaga kirishsa, boshlang'ich aralashmadagi moddalarning miqdorlarini (mol) aniqlang.
A) 0,25; 0,5 B) 0,05; 0,70
C) 0,2; 0,55 D) 0,3; 0,45

52. (v12z-101-4) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 62,5%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 80%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 40,4 g ga kam bo'lsa, shuncha miqdor atsetilen olish uchun necha litr (n. sh.) metan kerak?
A) 44,8 B) 179,2 C) 96 D) 134,4

53. (v12z-109-36) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (leksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda fenolning massasi. Boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, atsetilenning boshlang'ich hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 33,6 B) 26 C) 67,2 D) 78

54. (v12z-110-17) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, kumol massasini (g) aniqlang.
A) 36 B) 108 C) 48 D) 12

55. (v12z-114-1) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda fenolning massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, benzol massasini (g) aniqlang.
A) 93,6 B) 39 C) 78 D) 31,2

56. (v12z-117-28) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 62,5%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 80%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 40,4 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan karbol kislota massasini (g) aniqlang.
A) 75,2 B) 37,6 C) 23,2 D) 47

57. (v12z-118-18) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan karbol kislota massasini (g) aniqlang.
A) 84,6 B) 47 C) 63,5 D) 28,2

58. (v12z-122-26) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 62,5%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 80%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 40,4 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan keton massasini (g) aniqlang.
A) 37,6 B) 46,4 C) 29 D) 23,2

59. (v12z-126-14) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan keton massasini (g) aniqlang.
A) 17,4 B) 39,15 C) 52,2 D) 29

60. (v12z-128-33) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 75%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 66,7%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 60,6 g ga kam bo'lsa, kumol massasini (g) aniqlang.
A) 48 B) 72 C) 36 D) 108

61. (v12z-132-27) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 75%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 66,7%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 60,6 g ga kam bo'lsa, benzol bilan reaksiyaga kirishgan propilen hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 37,8 B) 26,88 C) 50,4 D) 42

62. (v12z-133-11) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 75%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 66,7%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 60,6 g ga kam bo'lsa, shuncha miqdor atsetilen olish uchun necha litr (n. sh.) metan kerak?
A) 201,6 B) 72 C) 144 D) 100,8

63. (v12z-134-25) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, reaksiyada qatnashgan propilen hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 22,4 B) 21 C) 11,2 D) 42

64. (v12z-203-3) 23,5 g fenolga nitrat kislota (H_2SO_4) ta'sir ettirilganda o-nitrofenol, p-nitrofenol va pikrin kislotalar 1:2:3 nisbatda hosil bo'ldi. Reaksiyaga kirishgan nitrat kislota massasini (g) aniqlang.
A) 31,5 B) 16,8 C) 38,7 D) 15,75

65. (v12z-208-9) Etanol va fenol aralashmasi natriy metali bilan reaksiyaga kirishganda 6,72 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Shu aralashmaning yarmi 50 g 16% li natriy gidroksid bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, dastlabki aralashmadagi spirtning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 4,6 B) 20 C) 9,2 D) 80

66. (v12z-227-35) Fenol va noma'lum amin aralashmasining 15,95 grami 1598 ml (n. sh.) HCl yoki 24 g 15% NaOH eritmasi bilan reaksiyaga kirisha oladi. Noma'lum aminni molekulyar massasini aniqlang.
A) 99 B) 121 C) 85 D) 107

67. (v12z-250-1) Fenol eritmasi va bromli suv orasidagi reaksiya oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmani to'la neytrallash uchun 2 molyarli NaOH eritmasidan 0,4 l sarflandi. Dastlabki eritmadagi fenolning massasini (g) hisoblang.
A) 15,04 B) 18,8 C) 9,4 D) 7,52

68. (v12c-206-1) 34,8 g marganes (IV) oksid xlorid kislota bilan ta'sirlashganda 6,72 l (n. sh.) gaz ajralsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.
A) 75 B) 66,7 C) 90 D) 80

69. (v12c-207-30) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 75%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 66,7%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 60,6 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan keton massasini (g) aniqlang.
A) 29 B) 52,2 C) 26,1 D) 34,8

70. (v12c-212-24) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 62,5%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 80%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 40,4 g ga kam bo'lsa, atsetilenning boshlang'ich massasini (g) aniqlang.
A) 39 B) 26 C) 67,2 D) 78

71. (v12c-218-16) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 62,5%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 80%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 40,4 g ga kam bo'lsa, shuncha miqdor atsetilen olish uchun necha (g) metan kerak?
A) 32 B) 96 C) 76,8 D) 128

72. (v12c-220-25) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, reaksiyada qatnashgan propilen massasini (g) aniqlang.
A) 42 B) 21 C) 63 D) 17,6

73. (v12c-224-36) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 75%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 66,7%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 60,6 g ga kam bo'lsa, atsetilenning boshlang'ich massasini (g) aniqlang.
A) 117 B) 100,8 C) 39 D) 78

74. (v12c-225-35) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 62,5%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 80%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 40,4 g ga kam bo'lsa, benzol bilan reaksiyaga kirishgan propilen massasini (g) aniqlang.
A) 21 B) 33,6
C) 17,92 D) 11,2

75. (v12c-230-25) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 50%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 80%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 75%) olinganda fenolning massasi boshlang'ich modda massasidan 49,8 g ga kam bo'lsa, atsetilenning boshlang'ich massasini (g) aniqlang.
A) 26 B) 78 C) 67,2 D) 39

76. (v12c-233-30) Atsetilendan benzol (reaksiya unumi 80%), benzoldan kumol (reaksiya unumi 62,5%), kumoldan fenol (reaksiya unumi 80%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 40,4 g ga kam bo'lsa, benzol bilan reaksiyaga kirishgan propilen hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 21 B) 17,92
C) 33,6 D) 11,2

77. (v13-137-8) 188 g 10% li karbol kislota, 229 g 20% li pikrin kislota va 110 g 20% li pirokatexin aralashmasini to'la neytrallash uchun 1,6 mol/l li o'yuvchi natriy eritmasidan qancha hajm (ml) kerak bo'ladi?
A) 700 B) 400 C) 500 D) 600

78. (v13-167-4) Fenolning benzoldagi 200 g eritmasi mo'l miqdordagi bromli suv bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida 66,2 g fenolning bromli hosilasi olingan bo'lsa, eritmadagi fenolning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 8,3 B) 9,6 C) 9,7 D) 9,4

79. (v15-104-36) Tibiyotda «purgen» nomi bilan surgi dori sifatida ishlatiladigan moddani olishda qaysi reagentlardan foydalaniladi?
A) etandiol va tereftal kislota
B) o-ftal kislota va metanol
C) ftal angidrid va fenol
D) chumoli aldegid va ammiak

80. (v15-106-22) Massasi (g) qanday bo'lgan fenoldan tarkibida 4,4 mol neytron tutgan siklogeksanon olish mumkin?
A) 470 B) 9,4 C) 490 D) 47

81. (v15-113-19) Fenolftalein qaysi moddalarni o'zaro ta'sir ettirib olinadi?
A) orto-ftal kislota va metanol
B) ftal angidrid va fenol
C) etandiol va tereftal kislota
D) chumoli aldegid va ammiak

82. (v15-119-35) Tibbiyotda «purgen» nomi bilan surgi dori sifatida ishlatiladigan moddani olishda qaysi reagentlardan foydalaniladi?
A) ftal angidrid va fenil
B) chumoli aldegid va ammiak
C) etandiol va tereftal kislota
D) o-ftal kislota va methanol

83. (v16-112-5) Uch atomli noma'lum fenol ortiqcha K metalli bilan ta'sirlashganda molyar massasi 282 g/mol bo'lgan fenolyat olindi. Dastlabki fenol molekulyar massasini (m.a.b.) hisoblang.
A) 168 B) 170
C) 184 D) 140

84. (v16-117-32) Fenolga sifat reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan binafsha rangli moddaning molekulyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 335 B) 331 C) 330 D) 231

85. (v17-101-36) Pirokatexinning monometil efiri qanday ataladi?
A) kotexa
B) rezorsin
C) gvayakol
D) xingidron

86. (v17-114-13) Sulfat usuli yordamida 54 g tuzdan olingan fenol massasini (g) aniqlang.
A) 18,8
B) 28,2
C) 14,1
D) 9,4

87. (v17-116-33) Sulfat usulda 28,2 g fenol olish uchun zarur bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang.
A) 43,2 B) 58,8
C) 54 D) 44,4

88. (v17-119-3) Rezortsin qaysi tuz ta'siridan binafsha rangga kiradi?
A) $AlCl_3$
B) $FeCl_3$
C) $FeCl_2$
D) $ZnCl_2$

89. (v17-120-25) Sulfatli usulda olingan. Shunda 28,2 g fenol va noorganik birikma hosil bo'ldi. Noorganik birikmaning massasini (g) aniqlang.
A) 42,6 B) 37,8 C) 14,2 D) 21,3

90. (v17-122-19) Fenolni nitrat kislota ta'sirida hosil bo'lgan modda 2,4,6-trinitrofenol olingan bo'lsa, bu modda kuchi sifatida xlorid kislotaga yaqin turadi. Alkoloidlarni identifikatsiya qilishda ishlatiladi. Shu 2,4,6-nitrofenolni 2-H nomini toping.
A) akril kislota
B) olein kislota
C) eloitin kislota
D) pikrin kislota

87.4. Aldegid va ketonlar

1. (96-7-54) Quyidagi birikmalardan qaysi biri sirka aldegid?

A) 
B) 
C) 
D) 
E) 

2. (96-10-56) Kucherov reaksiyasi yordamida ushbu moddalardan qaysi birini sintez qilish mumkin?
A) 1,2-dixloretan B) etil spirti
C) etilenglikol D) sirka aldegidi
E) chumoli kislotasi

3. (96-13-33) Molekulyar massasi eng kichik bo'lgan qaysi aldegidning tarkibi to'yinmagan spirtnikiga o'xshash?
A) chumoli B) sirka
C) propion D) butanal
E) pentanal

4. (96-13-72) Moy aldegidiga izomer bo'lgan moddalarni toping.
1) $C_3H_7OCH_3$; 2) C_4H_7OH;
3) C_4H_9OH; 4) $C_3H_5CH_3$.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 2, 4

5. (96-15-51) Quyidagi reaksiyalardan qaysi biri Kucherov reaksiyasi?
A) $CH_2{-}CH_2 + H_2O \rightarrow CH_3{-}CH_2OH$
B) $HCOOH \xrightarrow{H_2SO_4} CO + H_2O$
C) $2CH_3{-}CH_2OH + O \rightarrow 2CH_3{-}COOH$
D) 

E) 

6. (97-1-33) Organik birikmalarning qaysilari uchun funksional gruppa xos bo'ladi?

A) ketonlar B) karbon kislotalar
C) murakkab efirlar D) aldegidlar
E) ikkilamchi spirtlar

7. (97-1-68) 2-metilpropanaldagi 1, 2 va 3 uglerod atomlarining oksidlanish darajalarini ko'rsating.
A) –3, –2, –1 B) +2, 0, –2
C) –1, –2, +2 D) 0, +3, –3
E) +1, –1, –3

8. (97-2-65) Moddalarning qaysi biri propanal?
A) 
B) 
C) 
D) 
E) 

9. (97-5-32) Aldegidlarni vodorod bilan qaytarilganda qaysi modda hosil bo'ladi?
A) kislota B) keton
C) aldegidospirt D) spirt
E) to'yingan uglevodorod

10. (97-7-73) Sirka aldegidni aniqlash uchun qanday reaktivdan foydalanish mumkin?
A) fenolftalein eritmasi
B) temir (II) xlorid eritmasi
C) mis (II) gidroksid
D) mis (II) oksid
E) bromli suv

11. (97-8-13) Qaytarilganda 2-metilpropanol-1, oksidlanganda esa 2-metilpropan kislota hosil qiluvchi C_4H_8O tarkibli moddaning nomini aniqlang.
A) butanol-1 B) metiletilketon
C) 2-metilpropanol D) metilpropil efir
C) 5,24 va 36,1 D) 4,75 va 35,8
E) 3,85 va 37,2

28. (99-5-13) Glyukoza kumush (I) oksidning ammiakli eritmasi bilan reaksiyaga kirishganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
A) glyukon kislota, kumush va suv
B) glyukozaning kumushli tuzi va suv
C) kislota va kumush
D) ko'p atomli spirt va kumush
E) fruktoza va kumush

29. (99-8-9) 90 g glyukozaning spirtli bijg'ishida reaksiya unumi 80% ni tashkil qildi. Reaksiya mahsulotidan olingan kislotani neytrallash uchun 32% li natriy gidroksid erimasidan necha gramm sarflanadi?
A) 115 B) 95 C) 110
D) 90 E) 110

30. (00-2-14) Glyukoza eritmasiga mis (II) gidroksid ta'sir ettirilishi natijasida qizil cho'kma paydo bo'ladi. Bu cho'kmaning formulasini ko'rsating.
A) $Cu(OH)_2$ B) CuOH
C) Cu D) CuO
E) Cu_2O

31. (00-2-15) Probirkadagi noma'lum eritmaga havorang $Cu(OH)_2$ qushildi. Probirkadagi eritma sariq rangga bo'yaldi va qizil cho'kmaga aylandi. Probirkadagi boshlang'ich moddani aniqlang.
A) etil spirti B) metilxlorid
C) anilin D) alanin
E) glyukoza

32. (00-3-65) Glyukozaning moy kislotali bijg'ishi natijasida 8,96 l karbonat angidrid ajralgan bo'lsa, reaksiya uchun qancha (g) miqdor glyukoza olingan?
A) 36 B) 18 C) 54
D) 72 E) 180

33. (00-4-24) Massasi 360 g bo'lgan glyukozaning moy kislotali bijg'ishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlarning to'la reaksiyaga kirishishi uchun talab etiladigan NaOH ning modda miqdorini hisoblang.
A) 6 B) 10 C) 8 D) 5 E) 12

34. (00-4-25) Massasi 360 g bo'lgan glyukozaning spirtli bijg'ishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlarning to'la reaksiyaga kirishishi uchun talab etiladigan NaOH ning miqdorini hisoblang.
A) 8 B) 6
C) 10 D) 4 E) 5

35. (00-6-3) Glyukozaning β-shaklini ko'rsating.



3)  ; 4)  ;

5) 

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

36. (00-6-5) Riboza qaysi monosaxaridlar toifasiga taalluqli?
A) pentoza B) tetroza
C) geksoza D) treoza
E) geptoza

37. (00-7-5) Massasi 360 g bo'lgan glyukozaning moy kislotali bijg'ishi natijasida 22,4 l vodorod ajralib chiqqan bo'lsa, moy kislotaning hosil bo'lish unumini hisoblang.
A) 50 B) 20 C) 40
D) 60 E) 25

38. (00-7-15) Konsentratsiyasi 10% bo'lgan glyukoza eritmasi spirtli bijg'ishida hosil bo'lgan gaz mahsulotning hajmi 35 ml (ρ = 0,8 g/ml) etanolning yonishida hosil bo'lgan gaz hajmiga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, glyukozaning boshlang'ich eritmasi massasini hisoblang.
A) 109,8 B) 54,9 C) 111,8
D) 60,3 E) 55,9

39. (00-7-31) Qaysi uglevod ketogruppa tutgan geksozalarga taalluqli?
A) riboza B) glyukoza
C) fruktoza D) maltoza
E) dezoksiriboza

40. (00-7-55) Massasi 3 kg bo'lgan 12% li glyukoza eritmasining spirtli bijg'ishi natijasida 33,6 l uglerod (IV) oksid hosil bo'lgan. Etanolning hosil bo'lish unumini hisoblang.
A) 35,5 B) 71 C) 72
D) 37,5 E) 75

41. (00-8-27) Massasi 540 g bo'lgan glyukozaning spirtli bijg'ishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot bilan reaksiyada qatnashishi mumkin bo'lgan sirka kislotaning modda miqdorini hisoblang.
A) 5 B) 4 C) 7
D) 6 E) 2

42. (01-6-49) Fotosintez jarayonida o'simlik 67,2 l CO_2 ni yutganida, qancha miqdor glyukoza hosil bo'ladi?
A) 0,25 B) 0,75 C) 0,5
D) 1,0 E) 1,25

43. (01-11-25) Fruktozaning 10% li suvli eritmasidagi erigan modda bilan erituvchi molekulalari soni orasidagi nisbatni toping.
A) 2:95 B) 1:80 C) 1:45
D) 2:45 E) 1:90

44. (02-3-35) Quyidagi sxemada ishtirok etadigan I va II reagentlarni toping.

Maltoza $\xrightarrow{I}$ glyukoza $\xrightarrow{II}$ glyukon kislota:

1) $H_2O + OH^-$; 2) $H_2O + H^+$;
3) kons HNO_3; 4) $[Ag(NH_3)_2]OH$.
A) 3, 4 B) 1, 4 C) 2, 4
D) 2, 3 E) 1, 3

45. (02-6-20) Glyukozadagi uglerod, vodorod va kislorodning massa nisbatlari qanday bo'ladi?
A) 1:2:1 B) 6:12:6 C) 3:4:3
D) 2:6:2 E) 6:1:8

46. (v4-105-32) Fotosintez jarayonida o'simlik 33,6 l CO_2 yutganda, necha gramm glyukoza hosil bo'ladi?
A) 60 B) 45 C) 75 D) 90 E) 120

47. (v5-114-33) Glyukozaning spirtli bijg'ishi natijasida 161 g etanol olingan bo'lsa, necha gramm glyukoza sarflangan?
A) 315 B) 360 C) 308
D) 180 E) 157,5

48. (v5-115-33) ... g glyukozaning moy kislotali bijg'ishdan hosil bo'lgan vodorod 70,4 g etanalni qaytarishga yetarli bo'ladi.
A) 135 B) 117 C) 144
D) 153 E) 126

49. (v5-116-33) 36 g glyukozaning sut kislotali bijg'ishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotni neytrallash uchun natriy ishqorining 5% li (ρ = 1,05 g/ml) eritmasidan ... ml kerak.
A) 287 B) 296,6 C) 320
D) 304,7 E) 331

50. (v5-117-33) α-glyukoza bilan β-fruktozaning o'zaro ta'sirlashuvidan qanday modda hosil bo'ladi?
1) kraxmal; 2) saxaroza; 3) sellyuloza;
4) glyukon kislota; 5) riboza; 6) sut kislota.
A) 6 B) 3 C) 2
D) 2, 4, 6 E) 1, 3, 5

51. (v5-119-33) Glyukozaning moy va spirtli bijg'ishi natijasida hosil bo'ladigan moddalarni aniqlang.
1) etanol; 2) sut kislota; 3) moy kislota;
4) butanol; 5) limon kislota; 6) atseton;
7) vodorod; 8) uglerod (IV) oksid.
A) 1, 3, 7, 8
B) 1, 4, 6, 7, 8
C) 1, 5, 8
D) 2, 4, 6, 8
E) 3, 7, 8

52. (v5-120-33) 36 g glyukozani to'liq atsetillash uchun kerak bo'ladigan sirka kislotaning massasi (g) qancha?
A) 24 B) 48 C) 12
D) 36 E) 60

53. (v5-121-10) Suv osti g'avvosini kislorod bilan ta'minlash uchun qaysi jarayondan foydalaniladi?
A) $2Na_2O_2 + 2CO_2 \rightarrow 2Na_2CO_3 + O_2$
B) $6CO_2 + 6H_2O \xrightarrow{\text{foto sintez}} C_6H_{12}O_6 + 6O_2$
C) $2H_2O \rightarrow 2H_2 + O_2$
D) $2KClO_3 \rightarrow 2KCl + 3O_2$
E) $2KMnO_4 \rightarrow K_2MnO_4 + MnO_2 + O_2$

54. (v5-122-13) Glyukon kislota molekulasida nechta kislorod atomi bor?
A) 8 B) 9 C) 7
D) 10 E) 6

55. (v5-122-33) 6,57 g glyukozaning spirtli bijg'ishi natijasida olingan spirt oksidlanganda hosil bo'lgan kislotadan izopropilatsetat olish uchun propanol-2 (ρ = 0,79 g/ml) eritmasidan ... ml kerak.
A) 4,38 B) 7,48 C) 5,54
D) 8,76 E) 3,35

56. (v5-123-33) ... g glyukozaning moy kislotali bijg'ishdan hosil bo'lgan gaz mahsulotlar $Ca(OH)_2$ eritmasidan o'tkazilganda 140 g cho'kma hosil bo'ladi.
A) 112 B) 156 C) 126
D) 142 E) 139

57. (v6-102-33) Monosaxaridlar sinfiga taalluqli bo'lgan uglevodlar qatorini ko'rsating.
A) fruktoza, dezoksiriboza
B) glyukoza, saxaroza
C) riboza, saxaroza
D) riboza, kraxmal

58. (v6-113-33) Fruktozaning ochiq halqali molekulasida umumiy kimyoviy bog'lar soni nechta?
A) 24 B) 21 C) 20 D) 19

59. (v7-108-33) 225 g glyukozaning moy kislotali bijg'ishida ajralib chiqadigan gazlar hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 112 B) 56 C) 84 D) 134,4

60. (v7-112-15) Aldegid guruhi qaytarilganda ribozadan hosil bo'lgan spirt necha atomli bo'ladi?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 6

61. (v7-115-33) 300 g 9,0% li glyukoza eritmasini havorang mis (II) gidroksid cho'kmasi bilan qizdirilganda hosil bo'lgan qizil cho'kmaning massasini (g) aniqlang.
A) 24,3 B) 14,4 C) 16,2 D) 21,6

62. (v7-116-33) 144 g glyukozaning bijg'ishidan olingan etanol natriy bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan vodorod hajmini (l, n. sh.) hisoblang.
A) 43,62 B) 38,54
C) 17,92 D) 23,45

63. (v7-117-33) Glyukoza eritmasi bilan $[Ag(NH_3)_2]OH$ reaksiyaga kirishishi natijasida olingan qattiq modda konsentrlangan nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishganda 2,24 l (n. sh.) NO_2 ajraldi. Reaksiyada qatnashgan glyukoza massasini (g) toping.
A) 9 B) 18 C) 5,6 D) 24

64. (v7-118-33) Glyukozaning bijg'ishi natijasida 72 g sut kislota hosil bo'lsa, shunday miqdordagi glyukoza olish uchun qancha saxaroza (g) kerak bo'ladi?
A) 259,2 B) 180
C) 136,8 D) 128,3

65. (v7-120-33) 126 g glyukozaning spirtli bijg'ishidan olingan spirt kislotagacha oksidlandi. Ushbu kislotani neytrallash uchun 20% li (ρ = 1,2 g/ml) natriy gidroksid eritmasidan qancha hajm (ml) olish kerak?
A) 280 B) 129
C) 233 D) 140

66. (v8-108-11) Quyidagi moddalarning har biridan 1 mol miqdorda olinganda qaysi moddaning massasi eng og'ir bo'ladi?
A) fruktoza B) glyukoza
C) riboza D) saxaroza

67. (v8-109-11) Glyukoza bijg'iganda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
1) moy kislota; 2) sut aldegid; 3) vodorod;
4) kroton kislota; 5) uglerod (IV) oksid;
6) propion aldegid; 7) propion kislota.
A) 2, 4, 6 B) 1, 2, 3
C) 1, 4, 7 D) 1, 3, 5

68. (v12z-211-1) Maltozaning to'liq gidrolizidan olingan glyukozaning spirtli bijg'ishida 17,92 litr (n. sh.) gaz ajralsa, maltoza massasini (g) aniqlang.
A) 136,8 B) 72
C) 68,4 D) 273,6

69. (v12z-259-11) 1,26 kg glyukoza oksidlanish uchun qancha hajm (m^3) havo kerak (havoda kislorodning ulushi 20%)?
A) 48 B) 4,7
C) 0,94 D) 2,1

70. (v12c-101-20) Maltoza gidrolizidan olingan glyukoza spirtli bijg'iganda 13,44 litr (n. sh.) gaz ajralsa, maltoza massasini (g) aniqlang.
A) 102,6 B) 54 C) 51,3 D) 205,2

71. (v12c-110-2) Maltoza gidrolizidan olingan moddaning moy kislotali bijg'ishi natijasida 17,92 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Maltoza massasini (g) aniqlang.
A) 34,2 B) 51,3 C) 17,1 D) 68,4

72. (v12c-114-33) Yashil olma sharbati yod bilan ko'k rang beradi, pishib ketgan olma sharbati esa kumush oksidining ammiakdagi eritmasini qaytarish xususiyatiga ega. Buning sababi yashil olmada ..., pishgan olmada ... bor.
A) kraxmal, sirka aldegid
B) glyukoza, etanol
C) kraxmal, saxaroza
D) sellyuloza, glyukoza

73. (v12c-134-26) Maltoza gidrolizidan olingan moddaning moy kislotali bijg'ishi natijasida 35,84 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Maltoza massasini (g) aniqlang.
A) 51,3 B) 68,4 C) 34,2 D) 17,1

74. (v13-101-16) Maltoza gidrolizidan olingan glyukoza massasi boshlang'ich disaxarid massasidan 45 grammga ortiq bo'lsa, undan olingan moy kislotani yetarli miqdordagi Mg metali bilan o'zaro ta'siridan qancha hajm (l, n. sh.) gaz hosil bo'ladi?
A) 112 B) 56 C) 28 D) 67,2

75. (v13-106-13) Maltoza gidrolizidan olingan glyukoza massasi boshlang'ich disaxarid massasidan 13,5 grammga ortiq bo'lsa, undan olingan moy kislotani yetarli miqdordagi K metali bilan o'zaro ta'siridan qancha hajm (l, n. sh.) gaz ajraladi?
A) 8,4 B) 33,6 C) 16,8 D) 22,4

76. (v13-110-29) 256,5 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 30% li (ρ = 1,328 g/ml) NaOH sarflanadi?
A) 500 B) 376,5
C) 150 D) 112,45

77. (v13-112-3) 239,4 g maltozaning gidrolizlanishidan olingan glyukozaning bijg'ishidan hosil bo'lgan sut kislotaga mol miqdorda Na metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan gazning hajmini (l, n. sh.) va hosil bo'lgan tuzni massasini (g) toping.
A) 62,72; 375,2 B) 33,6; 313,6
C) 22,4; 187,6 D) 62,72; 750,4

78. (v13-115-33) Maltoza gidrolizidan olingan glyukoza massasi boshlang'ich disaxarid massasidan 22,5 grammga ortiq bo'lsa, undan olingan moy kislotani yetarli miqdordagi K metali bilan o'zaro ta'siridan qancha hajm (l, n. sh.) gaz ajraladi?
A) 14 B) 28 C) 22,4 D) 56

79. (v13-119-24) 239,4 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 30% li (ρ = 1,286 g/ml) KOH sarflanadi?
A) 101,6 B) 653 C) 196 D) 508

80. (v13-120-11) 273,6 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 32% li (ρ = 1,31 g/ml) KOH sarflanadi?
A) 224 B) 106,87
C) 534,35 D) 700

81. (v13-150-15) Maltoza gidrolizidan olingan glyukoza massasi boshlang'ich disaxarid massasidan 45 grammga ortiq bo'lsa, undan olingan moy kislotani yetarli miqdordagi K metali bilan o'zaro ta'siridan qancha hajm (l, n. sh.) gaz ajraladi?
A) 112 B) 28 C) 67,2 D) 56

82. (v15-105-19) Tibbiyotda quvvat beruvchi dori sifatida qo'llaniladigan uglevodni aniqlang.
A) fruktoza B) glukoza
C) saxaroza D) kraxmal

83. (v15-121-11) Glyukozaning qaytarilish va kuchsiz oksidlanish mahsulotlari nomi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
A) geksit; glyukon kislota
B) mannit; mannoshakar kislota
C) geksit; shakar kislota
D) mannit; mannon kislota

84. (v15-122-11) Glyukozaning sut kislotali bijg'ish jarayonida 90% unum bilan 0,075 mol sut kislota hosil bo'lishi uchun qancha kraxmal (g) kerak bo'ladi?
A) 7,075 B) 7,5 C) 6,75 D) 6,075

85. (v16-111-22) 99 g glukozaning fermentlar ta'sirida spirtli bijg'ishi natijasida hosil bo'lgan karbonat angidridning hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 32,2 B) 44,8 C) 24,64 D) 50,6

86. (v16-118-5) 63 g glukozaning fermentlar ta'sirida moy kislotali bijg'ishi natijasida hosil bo'lgan gazlarning massasini (g) aniqlang.
A) 59,8 B) 32,2 C) 41,4 D) 50,6

87. (v17-107-8) 40 g limon kislotasini olish uchun necha gramm glyukoza kerak?
A) 56,9 g B) 55,4 g C) 59,6 g D) 50 g

88. (v17-119-25) 108 g glyukoza kuchli oksidlovchilar bilan oksidlanganda olingan kislota necha gramm 24% li o'yuvchi natriy bilan ta'sirlashadi?
A) 100 B) 300 C) 200 D) 400

89. (v17-121-31) 36 g glyukoza kuchli oksidlovchilar bilan oksidlanganda olingan kislota necha gramm 8% li o'yuvchi natriy bilan ta sirlashadi?
A) 400 B) 300 C) 200 D) 100

90. (v17-123-22) Feling suyuqligini qaytarmaydigan (a), qaytaradigan (b) uglevodlarni ajrating.
1) maltoza; 2) saxaroza; 3) tregaloza;
4) sellobioza; 5) kraxmal; 6) laktoza.
A) a-2, 3, 5; b-1, 4, 6
B) a-2, 4, 5; b-1, 3, 6
C) a-1, 3, 6; b-2, 4, 5
D) a-2, 3, 4; b-1, 5, 6

88.2. Disaxaridlar

1. (96-15-96) 1 mol saxaroza gidrolizlanishdan hosil bo'lgan mahsulotlar bilan necha gramm kumush oksidini qaytarish mumkin? [$M_r(Ag_2O)$ = 232]
A) 116 B) 232 C) 58
D) 23,2 E) 11,6

2. (99-5-48) 1 t glyukoza olish uchun tarkibida 20% saxaroza tutgan qand lavlagisidan qancha tonnasi gidrolizlanishi kerak?
A) 8,3 B) 8,6 C) 7,9
D) 9,0 E) 10,7

3. (00-6-9) Uglevodlardan qaysi biri aldegid gruppasiga ega bo'lgan geksozalarga taalluqli?
A) glyukoza B) fruktoza
C) riboza D) dezoksiriboza
E) kraxmal

4. (00-7-27) Qand lavlagidan shakar olish jarayonida saxaroza va boshqa mahsulotlar tutgan sharbatga kalsiy gidroksid bilan ishlov berish qanday maqsadni ko'zda tutadi?
A) suvda eriydigan kalsiy saxaratini olish uchun
B) karbon kislotalarni ajratib olish uchun
C) eritmani oqsil moddalardan tozalash uchun
D) eritmani bo'yoq moddalardan tozalash uchun
E) kaliy tuzlarini ajratib olish uchun

5. (00-7-62) Saxarozani qaysi reagentlar yordamida propandiol-1,2 dan farqini aniqlash mumkin?
1) $CuSO_4$; 2) Cu; 3) NaOH;
4) Zn; 5) NH_4OH; 6) HCl; 7) $AgNO_3$.
A) 1 + 3, 4 + 6 B) 4 + 6
C) 6, 1 + 3 D) 4, 5 + 7
E) 2, 3 + 7

6. (v4-109-32) 1 mol saxaroza gidrolizlanishidan hosil bo'lgan mahsulotlar bilan necha gramm kumush oksidni qaytarish mumkin?
A) 5,8 B) 23,2 C) 116
D) 1,0 E) 232

7. (v5-129-33) 1000 kg glyukoza olish uchun tarkibida 20% saxaroza tutgan qand lavlagidan necha tonnasi gidroliz qilinishi kerak?
A) 8,9 B) 19,8 C) 9,5
D) 10,1 E) 11,3

8. (v12z-201-36) Saxaroza gidrolizidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishi natijasida 35,84 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Saxaroza massasini (g) aniqlang.
A) 273,6 B) 34,2 C) 136,8 D) 68,4

9. (v12z-216-7) Saxaroza gidrolizidan olingan mahsulot kumush oksidning ammiakdagi eritmasi bilan reaksiyaga kirishib. 39,2 g kislota hosil qilsa, saxaroza massasini (g) aniqlang.
A) 136,8 B) 72 C) 68,4 D) 36

10. (v12z-218-30) 102,6 g saxaroza gidrolizidan olingan glyukozaning spirtli bijg'ishidan olingan gaz massasini (g) aniqlang.
A) 13,44 B) 26,88 C) 52,8 D) 26,4

11. (v12c-102-21) 102,6 g maltoza gidrolizidan olingan mahsulot kumush oksidning ammiakdagi eritmasi orqali o'tkazilganda, necha gramm kislota hosil bo'ladi?
A) 58,8 B) 64,8 C) 117,6 D) 29,4

12. (v12c-104-19) 102,6 g saxaroza gidrolizidan olingan mahsulot kumush oksidning ammiakdagi eritmasi orqali o'tkazilganda, necha gramin cho'kma hosil bo'ladi?
A) 129,6 B) 32,4 C) 64,8 D) 58,8

13. (v12c-106-26) Saxaroza gidrolizidan olingan mahsulot kumush oksidning ammiakdagi eritmasi bilan reaksiyaga kirishib, 39,2 g kislota hosil qilsa, fruktoza massasini (g) aniqlang.
A) 18 B) 36 C) 136,8 D) 68,4

14. (v12c-108-10) Saxaroza gidrolizidan olingan glyukoza spirtli bijg'iganda 17,92 litr (n. sh.) gaz ajralsa, saxaroza massasini (g) aniqlang.
A) 136,8 B) 144 C) 273,6 D) 72

15. (v12c-115-5) 102,6 g maltoza gidrolizidan olingan glyukozaning spirtli bijg'ishidan olingan gaz hajmini (l, n. sh.) aniqlang.
A) 13,44 B) 26,4 C) 26,88 D) 52,8

16. (v12c-117-6) Saxaroza gidrolizidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishi natijasida 35,84 litr (l, n. sh.) gaz ajraldi. Fruktoza massasini (g) aniqlang.
A) 108 B) 54 C) 36 D) 72

17. (v12c-121-17) Saxarozaning to'liq gidrolizidan olingan mahsulot kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan reaksiyala kirishib 58,8 g kislota hosil qilsa, fruktoza massasini (g) aniqlang.
A) 102,6 B) 108 C) 54 D) 205,2

18. (v12c-122-15) Saxaroza gidrolizidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishi natijasida 17,92 litr (n. sh.) gaz ajraldi. Fruktoza massasini (g) aniqlang.
A) 72 B) 18 C) 36 D) 54

19. (v12c-124-12) Saxaroza gidrolizidan olingan glyukoza spirtli bijg'iganda 13,44 litr (n. sh.) gaz ajralsa, saxaroza massasini (g) aniqlang.
A) 54 B) 102,6 C) 205,2 D) 108

20. (v13-102-3) 188,1 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 34% li (ρ = 1,37 g/ml) NaOH sarflanadi?
A) 110 B) 236,15
C) 47,23 D) 323,53

21. (v13-104-21) 177,84 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 20% li (ρ = 1,219 g/ml) NaOH sarflanadi?
A) 520 B) 104
C) 426,58 D) 85,31

22. (v13-116-4) 153,9 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 28% li (ρ = 1,263 g/ml) KOH sarflanadi?
A) 126 B) 450 C) 356,3 D) 71,26

23. (v13-117-14) 116,28 g maltozaning gidrolizlanishidan olingan glyukozaning bijg'ishidan hosil bo'lgan sut kislotaga mol miqdorda Li metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan gazning hajmini (l, n. sh.) va hosil bo'lgan tuzni massasini (g) toping.
A) 52; 155,45 B) 15,25; 130,56
C) 7,6; 65,28 D) 30,5; 138,72

24. (v13-121-30) 116,28 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 26% li (ρ = 1,24 g/ml) KOH sarflanadi?
A) 366,15 B) 295,28
C) 59,05 D) 95,2

25. (v13-127-28) 177,84 g maltozaning gidrolizlanishidan olingan glyukozaning bijg'ishidan hosil bo'lgan sut kislotaga mol miqdorda Li metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan gazning hajmini (l, n. sh.) va hosil bo'lgan tuz massasini (g) toping.
A) 46,6; 106,08
B) 23,3; 199,68
C) 11,65; 99,84
D) 46,6; 212,16

26. (v13-128-18) 198,36 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 44% (ρ = 1,46 g/ml) KOH sarflanadi?
A) 252,8 B) 50,56
C) 369,1 D) 168,4

27. (v13-130-19) 140,22 g laktoza gidrolizlanishidan olingan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha ml 28% li (ρ = 1,306 g/ml) NaOH sarflanadi?
A) 44,85 B) 224,24
C) 292,85 D) 82

28. (v13-141-33) 140,22 g maltozaning gidrolizlanishidan olingan glyukozaning bijg'ishidan hosil bo'lgan sut kislotaga mol miqdorda K metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan gazning hajmini (l, n. sh.) va hosil bo'lgan tuzni massasini (g) toping.
A) 36,7; 272,24 B) 9,78; 105
C) 36,75; 136,12 D) 18,37; 209,9

29. (v13-144-12) 198,36 g maltozaning gidrolizlanishidan olingan glyukozaning bijg'ishidan hosil bo'lgan sut kislotaga mol miqdorda Na metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan gazning hajmini (l, n. sh.) va hosil bo'lgan tuz massasini (g) toping.
A) 52; 155,45 B) 26; 259,84
C) 52; 310,9 D) 13; 129,92

30. (v17-103-26) Atomlar soni teng bo'lgan saxaroza va suv 25°C da aralashtirilganda 360 g cho'kma va 2700 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan to'yingan eritmadagi saxaroza va suv massalarini (g) aniqlang.
A) 1410; 1290 B) 1500; 1200
C) 1352; 1350 D) 1134; 1566

31. (v17-106-8) Atomlar soni 1,5:1 bo'lgan saxaroza va suv 65°C da aralashtirilganda 110 g cho'kma va 2500 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Eritma tayyorlash uchun olingan saxaroza va suv massalarini (g) aniqlang.
A) 500; 2110 B) 1368; 1242
C) 684; 1926 D) 1710; 900

32. (v17-108-18) Maltoza gidrolizidan olingan glyukoza massasi boshlang'ich disaxarid massasidan 27 grammga ortiq bo'lsa, undan olingan moy kislotaning mo'l miqdor K metall bilan o'zaro ta'siridan qancha hajm (l, n. sh.) gaz olinadi?
A) 16,8 B) 67,2 C) 22,4 D) 33,6

33. (v17-112-17) Atomlar soni teng bo'lgan saxaroza va suv 25°C da aralashtirilganda 360 g cho'kma va 2700 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Eritma tayyorlash uchun olingan saxaroza va suv massalarini (g) aniqlang.
A) 1710; 1350 B) 1500; 1560
C) 1134; 1926 D) 1350; 1350

34. (v17-115-31) Saxaroza gidrolizga uchratilganda uning massasi 3,6 grammga ortib, gidroliz mahsulotlari nikel katalizatori ishtirokida vodorod bilan qaytarildi. Olingan mahsulot massasini (g) aniqlang.
A) 36,4 B) 18,2 C) 44 D) 72,8

35. (v17-116-3) 0,5 mol laktoza gidrolizlanishidan oligan glyukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'gan mahsulotlari to'la neytrallash uchun necha gramm 20% li NaOH sarflanadi?
A) 300 B) 500 C) 200 D) 400

36. (v17-117-2) 239,4 g maltozadan glyukoza olindi. Glyukozaning bijg'ishidan hosil bo'lgan sut kislotasi natriy bilan ta'sirlashdi. Ajralgan gazning hajmini hamda hosil bo'lgan tuzning massasini aniqlang.
A) 62,72; 750,4 B) 62,72; 375,2
C) 22,4; 187,6 D) 33,6; 313,6

37. (v17-117-14) 0,4 mol laktoza gidrolizlanishdan olingan glyukozaning moy kislotasi bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlari to'la neytrallash uchun necha gramm 28% li KOH sarflanadi?
A) 300 B) 400 C) 150 D) 200

38. (v17-117-27) Atomlar soni teng bo'lgan maltoza va suv 25°C da aralashtirilganda 360 g cho'kma va 2700 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan to'yingan eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 69 B) 72 C) 50 D) 48

39. (v17-121-13) Maltoza gidrolizidan olingan glyukozaning massasi maltoza massasidan 45 g ko'p. Glyukozani bijg'ishidan olingan moy kislotasi bilan kaliy o'zaro ta'sirlashgandan ajralgan gazning hajmini aniqlang.
A) 67,2 B) 112 C) 28 D) 56

88.3. Polisaxaridlar. Kraxmal. Sellyuloza

1. (96-13-36) Sellyuloza nitrolanish reaksiyasida hosil bo'lgan mahsulot nomi qanday, uning massasi boshlang'ich sellyulozanikidan necha marta katta bo'ladi?
1) mononitrotsellyuloza; 1,18;
2) dinitrotsellyuloza; 1,36;
3) trinitrotsellyuloza; 1,54;
4) tetranitrotsellyuloza; 1,72.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 1, 4

2. (97-4-34) Sellyulozani nitrolash mahsulotida 11% azot bo'lgan molekula tarkibida nechta nitroguruh bo'ladi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

3. (97-6-31) Tarkibida 20% kraxmal bo'lgan 1 t kartoshkadan 100 l etanol (ρ = 0,8 g ml^{-1}) olindi. Reaksiya unumini (%) hisoblang.
A) 50,2 B) 62,4 C) 70,4
D) 81,3 E) 86,6

4. (98-3-51) Sellyuloza makromolekulasining bitta zvenosiga nazariy jihatdan eng ko'pi bilan nechta nitroguruh kiritish mumkin?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 6

5. (98-12-64) 1 mol sellyuloza (n = 2000) dan trinitrotsellyuloza olish uchun necha kilogramm nitrat kislota talab etiladi? [$M_r(HNO_3)$ = 63]
A) 126 B) 252 C) 378
D) 315 E) 189

6. (99-5-44) Paxta tolasining molekulyar massasi 1750000 ga tengligini hisobga olib, uning polimerlanish darajasini aniqlang.
A) 9922 B) 11882 C) 10802
D) 11230 E) 9763

7. (00-7-30) Kraxmal gidrolizi natijasida disaxaridlar sinfiga taalluqli bo'lgan qaysi uglevod hosil bo'ladi?
A) glyukoza B) saxaroza
C) maltoza D) fruktoza
E) riboza

8. (00-7-32) Selluloid ishlab chiqarish uchun qaysi birikma ishlatiladi?
A) atsetilsellyuloza
B) trinitrotsellyuloza
C) kraxmal
D) mononitrotsellyuloza
E) dinitrotsellyuloza

9. (00-7-57) Sellyuloza molekulasi struktur zvenosining nechta reaksion markazi sirka angidrid bilan reaksiyada qatnasha oladi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

10. (01-9-5) Kolloksilin tabobatda qo'llashga qulaylik tug'diradigan xususiyatga ega. U qanday tayyorlanadi?

A) dinitrotsellyulozani spirt va dietil efir aralashmasida eritish bilan
B) dinitrotsellyulozani kamfora bilan aralashtirib suyuqlantirish bilan
C) trinitrotsellyulozani atsetonda eritish bilan
D) trinitrotsellyulozani etilatsetatda eritish bilan
E) atsetiliyellyulozani dixlormetan va etanol aralashmasida eritish bilan

11. (01-9-11) Triatsetilsellyuloza tarkibidagi elementlarning (C, H va O) massa miqdorlarini (%) toping:
1) O – 44,44; 2) H – 5,56; 3) C – 50;
4) O – 45,6; 5) H – 4,4; 6) O – 50;
7) O – 47,1; 8) C – 48,5; 9) C – 44,5;
10) H – 5,5; 11) C – 45,6.
A) 3, 5, 4 B) 3, 2, 1
C) 8, 5, 7 D) 9, 10, 6
E) 11, 5, 6

12. (02-3-7) Shvetsiyalik kimyogar Shenbayn stol ustiga to'kilgan ikki modda aralashmasini sochiq, bilan artib olgan va uni pech ustiga quritish uchun qo'ygan. Sochiq qurigan va portlash natijasida maydalanib ketgan. Portlovchi xususiyatga ega bo'lgan qaysi modda shu tarzda ixtiro etilgan edi? Aralashma qaysi birikmalardan tashkil topgan?
1) toluol + HCl; 2) H_2SO_4 + HNO;
3) H_2SO_4 + HCl; 4) $KMnO_4$ + H_2SO_4;
5) piroksilin; 6) kolloksilin;
7) trinitrotoluol; 8) pikrin kislota.
A) 7, 1 B) 6, 2 C) 8, 4
D) 3, 8 E) 5, 2

13. (02-3-34) Kraxmal (I) glyukoza (II) va maltoza (III) dan etil spirt olish mumkin. Har bir moddadan 1 kg miqdorda olinganda, ulardan hosil bo'lgan spirt miqdorning ortib borish tartibini toping.
A) II, III, I B) II, I, III C) III, I, II
D) I, II, III E) III, II, I

14. (03-3-42) Nitrotsellyuloza quyidagi moddalar sinflaridan qaysi biriga mansub?
A) nitrobirikma B) oddiy efir
C) murakkab efir D) amin
E) karbon kislota

15. (v5-109-14) Paxta tolasining o'rtacha molekulyar massasi 1750000 ga teng bo'lsa, uning polimerlanish darajasi nechaga teng? Shunday paxta tolasining 20 g dan trinitrotsellyuloza hosil qilish uchun nitrat kislotasining 50% li (ρ = 1,3 g/ml) eritmasidan qancha (ml) kerak bo'ladi?
A) 10262; 39,4
B) 11712; 38,2
C) 10802; 35,9
D) 10530; 30,4
E) 11880; 49,7

16. (v5-110-14) Sellyuloza … eriydi.
A) temir (II) xloridning kislotadagi eritmasida
B) etilatsetat va etanol aralashmasiga
C) suv va spirt aralashmasida
D) alyuminiy (III) xlorid eritmasida
E) mis (II) gidroksidining ammiakdagi eritmasida

17. (v6-101-33) Nitrat kislota bilan reaksiyaga kirisha oladigan sellyuloza molekulasi struktur zvenosining reaksion markazi nechta?
A) 3 B) 5 C) 1 D) 4

18. (v12z-234-13) Kartoshkada 22% kraxmal bo'ladi. 250 kg kartoshkadan olinadigan kraxmaldan necha kilogramm 80% li etil spirti olish mumkin (reaksiya unumi 80%)?
A) 25 B) 40 C) 44 D) 31,23

19. (v12c-107-30) Sellyulozani yoqish uchun 134,4 m^3 havo sarflansa, sellyuloza massasini (kg) aniqlang (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulushi 20%).
A) 64,8 B) 194,4
C) 97,2 D) 32,4

20. (v12c-120-34) Sellyulozani yoqish uchun 268,5 m^3 havo sarflansa, shuncha miqdor sellyuloza bilan necha gramm nitrat kislota to'liq reaksiyaga kirishishi mumkin (havo tarkibidagi kislorodning hajmiy ulusi 20%)?
A) 75600 B) 25200
C) 72000 D) 151200

21. (v16-108-3) Sellulozaning qaysi oddiy efirlari to'qimachilik va bo'yoqchilik sanoatida keng qo'llaniladi?
A) dimetilselluloza, dietilselluloza
B) trimetilselluloza, trietilselluloza
C) dinitroselluloza, trinitroselluloza
D) diatsetilselluloza, triatsetilselluloza

22. (v16-108-31) Sellyulozani eritish xususiyatiga ega bo'lgan «shveysar reaktivi»ning formulasini aniqlang.
A) $[Cu(NH_3)_2](OH)_2$ B) $[Cu(NH_3)_3]OH$
C) $[Ag(NH_3)_2]OH$ D) $[Cu(NH_3)_4](OH)_2$

23. (v16-127-19) Kaloksilinga kamfora va spirt aralashtirib qanday plastik massa hosil qilinadi?
A) selluloid B) piroksllin
C) atsetat ipak D) kollodiy

89. Azotli organik birikmalar

1. (96-1-50) Tarkibida 4 ta uglerod atomi bo'lgan nechta bifunksionalli aminokislotalar bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

2. (96-3-45) Qaysi birikma eng kuchli asos xossasini namoyon qiladi?
A) suv B) metilamin
C) ammiak D) anilin
E) benzol

3. (96-7-56) Zinin reaksiyasi bo'yicha 186 g anilin olish uchun necha gramm nitrobenzol kerak?
A) 123 B) 246 C) 183
D) 61,5 E) 307,5

4. (96-8-111) 0,27 g aromatik diamin yondirilganda 56 ml azot hosil bo'lsa, aminning molyar massasini toping.
A) 108 B) 96 C) 112
D) 118 E) 122

5. (96-15-104) Zinin reaksiyasi bilan 1 mol anilin olish uchun necha gramm ammoniy sulfid kerak? [$M_r(NH_4)_2S$ = 68].
A) 68 B) 102 C) 136
D) 204 E) 272

6. (97-4-27) 18,6 g anllin bilan necha gramm 8% li bromli suv reaksiyaga kirisha oladi? [M_r(anilin) = 93, A_r(brom) = 80]
A) 1200 B) 120 C) 12
D) 240 E) 360

7. (97-4-71) Vodorod xloridning suvli eritmasi quyidagi moddalarning qaysi biri bilan reaksiyaga kirisha oladi?
A) metan B) sirka kislota
C) glikokol D) benzol
E) siklogeksan

8. (97-5-35) Aminlarning suvli eritmalari qanday xossalarga ega?
1) kislotalik xususiyatiga ega; 2) asoslik xossaga ega; 3) amfoter xossaga ega;
4) biriktirish reaksiyasida qatnashadi.
A) 1 va 3 B) 2 va 4 C) 1 va 4
D) 2 va 3 E) 3 va 4

9. (97-7-33) 2 mol aminosirka kislota bilan 90% li metanol eritmasining (ρ = 0,8 g/ml) qancha hajmi to'liq reaksiyaga kirisha oladi?
A) 22,2 B) 44,4 C) 66,7
D) 77,8 E) 88,9

10. (97-9-33) 0,73 g birlamchi amin yondirildi, yonish mahsulotlari ishqor eritmasidan o'tkazilganda, 112 ml gaz ishqorga yutilmasdan ajralib chiqdi. Aminning nomini ko'rsating.
A) pentilamin B) etilamin
C) metilamin D) butilamin
E) propilamin

11. (97-10-162) Anilinning suvdagi suyultirilgan eritmasi mo'l miqdordagi brom bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 13,2 g cho'kma hosil bo'ldi. Boshlang'ich eritmadagi anilinning massasini aniqlang.
[A_r(anilin) = 93, A_r(Br) = 80]
A) 2,8 B) 3,7 C) 4,2
D) 5,6 E) 6,4

12. (97-11-34) 15 g glitsin bilan NaOH ning 100 ml 0,2 M eritmasi o'zaro ta'sirlashganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) hisoblang.
A) 2,0 B) 1,8 C) 2,24
D) 2,14 E) 1,94

13. (97-12-32) Quyidagi moddalarning qaysi birida asoslik xossa eng kuchli ifodalangan?
A) anilin B) metilamin
C) etilamin D) dimetilamin
E) difenilamin

14. (97-12-33) 18,9 g xlorsirka kislota bilan n. sh. da qancha hajm (l) ammiak reaksiyada qatnashadi? [$^{35,5}_{17}$ Cl]
A) 3,36 B) 4,48 C) 2,24
D) 8,96 E) 5,74

15. (97-12-40) Quyidagi moddalarni asoslik xossasi kamayib borish tartibida joylashtiring:
1) dimetilamin; 2) anilin; 3) ammiak.
A) 1, 2, 3 B) 2, 1, 3 C) 2, 3, 1
D) 1, 3, 2 E) 3, 1, 2

16. (97-12-69) Etilamin quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirisha oladi?
1) HNO_3; 2) NaOH; 3) NaCl;
4) H_2O; 5) CH_3COOH.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4
D) 1, 5 E) 3, 5

17. (98-1-95) Aminlarning qaysi biri xlorid kislota bilan osonroq reaksiyaga kirishadi?
A) metilamin B) metiletilamin
C) etilamin D) izopropilamin
E) anilin

18. (98-1-97) Quyidagi aminokislotaning suvdagi eritmasi qanday muhit hosil qiladi?
$HOOC–CH(NH_2)–CH_2–(CH_2)_3–NH_2$
A) neytral
B) kuchsiz kislotali
C) kislotali
D) kuchsiz ishqoriy
E) ishqoriy

19. (98-2-24) 8 l metilamin (gaz holdagi modda) yonishi uchun n. sh. da qancha hajm (l) havo kerak? (havoning hajm bo'yicha 21% ini kislorod tashkil etadi)
A) 10 B) 30 C) 50
D) 70 E) 90

20. (98-2-64) 2 mol glitsin olish uchun tarkibida 10% li aralashmalar bo'lgan kalsiy karbiddan necha gramm olish kerak bo'ladi?
A) 122,4 B) 141,0 C) 130,5
D) 128,0 E) 256,4

21. (98-2-75) Sanoatda anilin olish qaysi reaksiyaga asoslangan?
A) nitrolash B) degidratlanish
C) gidratlanish D) zanjirli
E) qaytarilish

22. (98-4-60) Quyidagilar orasidan birlamchi aromatik aminni toping:
1) anilin; 2) difenilamin; 3) n-metilanilin;
4) N-metilanilin.
A) 1 va 2 B) 2 va 3 C) 3 va 4
D) 1 va 3 E) 2, 3 va 4

23. (98-5-42) Anilinga odatdagi sharoitda bromli suv ta'sir ettirilsa, qanday birikma hosil bo'ladi?
A) N-bromanilin B) o-bromanilin
C) m-bromanilin D) n-bromanilin
E) 2,4,6-tribromanilin

24. (98-5-46) Uchlamchi aminobirikmani ko'rsating.
A) dietilamin B) etilamin
C) trietilamid D) etilendiamin
E) tetraetilammoniy xlorid

25. (98-8-101) 15,6 g benzolni nitrollashda hosil bo'lgan mononitro hosila amingacha qaytarildi. Reaksiya unumi birinchi bosqichda nazariy unumning 90% ni, ikkinchi bosqichda 75% ni tashkil qilsa, reaksiya natijasida zichligi 1,02 g/sm^3 ga teng bo'lgan qancha millilitr amin olinadi?
A) 12,7 B) 11,9 C) 12,5
D) 11,7 E) 12,3

26. (98-9-50) Alkilaminning vodorod xloridli tuzi tarkibida 32,42% xlor bo'lsa, amin qanday nomlanadi?
A) metilamin B) etilamin
C) propilamin D) butilamin
E) geksilamin

27. (98-10-14) 3-aminobutan kislotasi tarkibidagi uglerod atomlari (karboksil guruhidan boshlab)ning oksidlanish darajalari qatorini ko'rsating.
A) +3, +2, +1, +3 B) +3, –2, +1, +3
C) +3, –2, –2, –1 D) +3, +2, 0, –3
E) +3, –2, –1, –3

28. (98-12-65) Aminokislotalar qanday moddalar bilan reaksiyada qatnasha oladi?
1) spirt; 2) propan; 3) natriy karbonat;
4) ishqor; 5) fosfor; 6) kumush oksidning spirtli eritmasi.
A) 1, 3, 4 B) 2, 4, 6 C) 3, 5, 6
D) 1, 4, 6 E) 2, 3, 5

29. (99-1-31) 1,5 mol nitrobenzolni to'liq qaytarishda necha litr vodorod sarf bo'ladi?
A) 50,4 B) 134,4 C) 89,6
D) 101,0 E) 112,2

30. (99-6-7) Moddalardan qaysi birining nisbiy molekulyar massasi 73 ga teng?
A) 2-amino-2-metilpropan
B) 2-aminopropan
C) trimetilamin
D) dimetilizopropilamin
E) 2-amino-2-metilbutan

31. (99-6-8) Difenilaminning empirik formulasini ko'rsating.
A) $C_{12}H_{11}N$ B) $C_{10}H_{12}N$
C) $C_{12}H_{10}N$ D) $C_{11}H_{11}N$
E) $C_{12}H_{12}N$

32. (99-6-15) Nitrobirikmalardan qaysi birining qaytarilishi natijasida 1-amino-2-metilpropan hosil bo'ladi?
A) 2-nitrobutan
B) nitrobenzol
C) 2-metil-2-nitropropan
D) 1-nitropropan
E) 2-metil-1-nitropropan

33. (99-6-17) Metilaminni to'liq yondirish uchun 94,5 l havo sarflandi. Necha gramm metilamin yondirilgan? [(φO_2) = 0,2]
A) 10,88 B) 12,14 C) 9,06
D) 11,63 E) 8,93

34. (99-6-19) Aminokislotalar qanday tarkibiy qismlardan iborat?
1) nitrogruppa; 2) radikal; 3) aminogruppa;
4) karbonil gruppa; 5) gidroksil gruppa.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 5
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5
E) 1, 2, 4, 5

35. (99-6-21) Aminokislotalar qaysi guruh hisobiga kislotali xossa namoyon qiladi?
A) radikal va karboksil
B) aminoguruh
C) radikal
D) karboksil va aminoguruh
E) karboksil

36. (99-6-22) Aminokislotaning asosli xossaga ega bo'lishiga sababchi guruhni tanlang.
A) aminokislotalar asosli xossaga ega emas
B) karboksil
C) gidroksil
D) radikal
E) aminorguruh

37. (99-6-23) Peptid bog'lar qaysi qismlar orqali hosil bo'ladi?
A) karboksil guruhlar
B) radikallar
C) qo'shni aminokislotalarning amino va karboksil guruhlari
D) aminoguruhlar
E) radikalar va karboksil guruhlar

38. (99-6-24) Aminokislotalardan qaysi biri sintetik tolalar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida ishlatiladi?
A) aminovalerian kislota
B) 6-aminogeksan kislota
C) 4-aminobutan kislota
D) aminosirka kislota
E) β-aminomoy kislota

39. (00-4-23) Aminokislotalarning murakkab efirlari uchuvchan xususiyatga ega bo'lishi sababini ko'rsating.
A) bipolyar struktura mavjudligi tufayli
B) molekulalararo vodorod bog' borligi tufayli
C) molekulyar massa kattalashishi tufayli
D) bipolyar struktura yo'qolishi tufayli
E) aminokislota efirining molekulyar massasi boshlang'ich moddalar massasidan kamroq bo'lishi tufayli

40. (00-6-14) Alaninni qaysi xossalari bo'yicha unga izomer bo'lgan modda 1-nitropropandan farq qilish mumkin?
1) nitropropan suvda kam eriydigan suyuqlik;
2) nitropropan suvda yaxshi eriydigan kristall;
3) alanin suvda yaxshi eriydigan kristall modda; 4) alanin $NaHCO_3$ ning suvdagi eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi;
5) nitropropan $NaHCO_3$ ning suvdagi eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi; 6) alanin suvda yomon eriydigan kristall modda.
A) 1, 3, 4 B) 1, 3, 5 C) 2, 5, 6
D) 2, 4, 6 E) 1, 5, 6

41. (00-6-18) Ikkilamchi aminni ko'rsating.
A) ikkilamchi butilamin
B) uchlamchi butilamin
C) izobutilamin
D) trimetilamin
E) diizopropilamin

42. (00-8-25) Qaysi aminokislotalarni boshqa aminokislotalar bilan almashtirib bo'lmaydi?
1) valin; 2) glitsin; 3) leysin; 4) izoleysin;
5) treonin; 6) metionin; 7) lizin; 8) triptofan.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4, 5, 6, 7, 8
C) 2, 4, 5, 6, 7, 8 D) 1, 3, 4, 5, 6, 7
E) 1, 4, 5, 6, 7, 8

43. (00-8-54) Gidroksid gruppasi bo'lgan aminokislotani ko'rsating.
A) valin B) leysin C) glikokol
D) serin E) alanin

44. (01-4-79) 3-amino-2-metilbutan kislotani olish uchun qaysi moddaga ammiak ta'sir ettirish kerak?
A) 3-xlor-3-metilbutan kislota
B) 3-xlor-2-metilbutan kislota
C) 2-xlor-2-metilbutan kislota
D) 2-xlor-2-metilbuten kislota
E) 4-xlor-4-metilbuten kislota

45. (01-4-80) Eterifikatsiya reaksiyasiga massasi 3 g bo'lgan aminosirka kislotani kiritish uchun 96% li etanoldan (ρ = 0,8 g/ml) qancha hajm (ml) kerak bo'ladi?
A) 1,2 B) 1,8 C) 2,4
D) 3,0 E) 3,6

46. (01-10-11) Azot qaysi birikmalar tarkibiga kiradi?
1) pikrin kislota; 2) alanin; 3) tiolomit;
4) akril kislota; 5) anilin; 6) kroton kislota.
A) 1, 6 B) 2, 5 C) 1, 3, 4
D) 1, 2, 5 E) 3, 4, 6

47. (01-10-18) Qaysi modda bilan reaksiyasi asosida anilinning benzol yadrosidagi vodorod atomlarining reaksion aktivligi benzoldagiga qaraganda yuqori ekanligini ta'kidlash mumkin?
A) vodorod bromid
B) bromli suv
C) vodorod bilan platina katalizatori
D) ishqorning suvdagi eritmasi
E) ishqorning spirtdagi eritmasi

48. (01-10-34) Etilaminning 5% li suvli eritmasidagi erigan modda va erituvchi molekulalari soni nisbatini toping.
A) 1:95 B) 2:95 C) 3:95
D) 1:19 E) 1:45

49. (02-2-7) Monoaminomonokarbon kislotaning oltingugurtli birikmasi tarkibidagi oltingugurtning massa ulushi 0,237 ni tashkil etsa, shu kislotaning molyar massasi qanchaga teng?
A) 75 B) 89 C) 93
D) 147 E) 135

50. (02-2-29) Quyidagi moddalarning qaysilari qaytarilganda, uchlamchi butilamin olinadi?
1) 2-metil-3-nitrobutan; 2) 3-metil-2-nitrobutan;
3) 2-metil-2-nitrobutan; 4) 2-metil-2-nitropropan.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 3 E) 4

51. (02-5-51) Quyidagi moddalarni asosli xossalari oshib borish tartibida joylashtiring:
1) ammiak; 2) suv; 3) metilamin; 4) etilamin;
5) trimetilamin; 6) triizopropilamin.
A) 1, 2, 5, 4, 3, 6 B) 2, 3, 1, 5, 4, 6
C) 2, 1, 4, 3, 5, 6 D) 2, 3, 1, 4, 6, 5
E) 2, 1, 3, 4, 6, 5

52. (02-7-31) Nima uchun metilamin suvda yaxshi eriydi-yu, fenilamin yomon eriydi?
1) metil radikali aminogruppaning asoslik xossasini oshiradi; 2) fenil radikali aminogruppaning asoslik xossasini kamaytiradi; 3) metil radikali ta'sirida azotning taqsimlanmagan elektron jufti bilan protonning ta'sirlashuvi kuchayadi; 4) fenil radikali ta'sirida azotning taqsimlanmagan juft elektronlarining suv bilan ta'sirlashuvi

susayadi; 5) metil radikali suvning qutbli molekulalari bilan ta'sirlashadi; 6) fenil radikali suvning qutbli molekulalari bilan ta'sirlanmaydi.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 5, 6
D) 1, 3 E) 2, 4

53. (03-8-27) Zinin reaksiyasi bo'yicha anilin olishda 36,9 g nitrobenzol qatnashgan bo'lsa, qancha (g) oltingugurt ajraladi?
A) 30,8 B) 28,8 C) 23,3
D) 24,1 E) 18,5

54. (03-8-40) 13,0 g nitrobenzoldan 30% unum bilan 7,44 g anilin olindi. Nitrobenzol tarkibidagi qo'shimchaning massa ulushini foizda hisoblang.
A) 3,72 B) 5,40 C) 6,50
D) 9,30 E) 12,3

55. (03-9-23) Etilaminga nitrit kislota ta'sir ettirilganda, qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
1) etil spirt; 2) azot; 3) suv; 4) nitrozamin.
A) 1, 2 B) 1, 4 C) 1, 2, 3
D) 1, 3, 4 E) 2, 3, 4

56. (03-9-24) Dimetilanilin qanday reaksiya yordamida olinadi?
1) nitrobenzolni qaytarish orqali; 2) anilinga metil spirti ta'sir ettirish orqali; 3) anilinga fenilammoniy xlorid ta'sir ettirish orqali.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1, 2 E) 2, 3

57. (03-9-25) Aminofenolning qancha izomeri mavjud?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

58. (03-9-28) Arginin aminokislotasi bilan qizil-qo'ng'ir rang hosil qiluvchi reagentni aniqlang.
A) fruktoza B) glyukoza
C) kraxmal D) arabinoza
E) ksiloza

59. (04-1-63) Bitta anilin molekulasining massasi qaysi birliklarda ifodalanishi mumkin?
1) 93 m.a.b.; 2) 93 g;
3) 93 g/mol; 4) $1{,}54 \cdot 10^{22}$ g.
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 1, 3
D) 1 E) 3

60. (v4-102-33) 53,3 g nitrobenzolni katalizator ishtirokida qaytarib anilin olish uchun necha mol vodorod kerak?
A) 2 B) 2,5 C) 0,8 D) 1,5 E) 1,3

61. (v4-107-33) Anilindan qanday moddalar olinadi?
1) oqsil moddalar ishlab chiqarish; 2) bo'yoq moddalar tayyorlash; 3) nitrobenzol olish; 4) dorivor moddalar tayyorlash; 5) portlovchi moddalar olish.
A) 2, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4
D) 2, 4, 5 E) 1, 2, 5

62. (v4-109-33) Zinin reaksiyasi bilan 1 mol anilin olish uchun necha gramm ammoniy sulfid kerak?
A) 136 B) 272 C) 306
D) 204 E) 102

63. (v4-111-1) Azot qaysi birikmalar tarkibiga kirmaydi?
1) pikrin kislota; 2) alanin; 3) dolomit; 4) akril kislota; 5) anilin; 6) kroton kislota.
A) 1, 3, 4 B) 3, 4, 6 C) 1, 6
D) 1, 2, 5 E) 2, 5

64. (v4-112-33) Tarkibida 5 ta uglerod atomi bo'lgan aminokislotalar nechta bo'lishi mumkin?
A) 14 B) 13 C) 12 D) 10 E) 11

65. (v4-115-33) 18 g glitsin olish uchun necha litr (n. sh.) atsetilen kerak bo'ladi. Reaksiya unumi 0,75.
A) 7,168 B) 5,168 C) 7,328
D) 5,435 E) 6,638

66. (v4-118-33) 0,27 g diamin yondirilganda 63 ml azot hosil bo'lsa, aminning molyar massasini toping.
A) 116 B) 108 C) 54
D) 118 E) 96

67. (v5-101-5) 3-amino-2-metilpropan kislotaning asosiy zanjiridagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) +3 B) –3 C) –2
D) +4 E) +1

68. (v5-101-34) Quyida keltirilganlardan nitrobirikmalarni aniqlang:
1) nitroglitserin; 2) nitrobenzol;
3) nitrosellyuloza; 4) pikrin kislota;
5) trotil; 6) metanol va nitrat kislotaning reaksiya mahsuli.
A) 2, 4, 5 B) 4, 5, 6 C) 1, 3, 6
D) 1, 2, 3 E) 3, 4, 2

69. (v5-102-34) Sirka kislota oldiniga brom, so'ngra ammiak bilan reaksiyaga kirishib 33,75 g glitsin hosil qilsa, reaksiya uchun olingan etan kislotaning massasi (g) – … .
A) 19 B) 31 C) 17,6
D) 27 E) 22

70. (v5-112-33) 250 g 2-aminopropan olish uchun qancha (g) 2-nitropropanni katalitik qaytarish lozim? Reaksiya unumi 92%.
A) 476 B) 352 C) 410
D) 152 E) 347

71. (v5-115-34) Quyidagi aminlarni asosli xossalari ortib borishi tartibida joylashtiring:
1) metilamin; 2) dimetilamin; 3) anilin;
4) trimetilamin; 5) difenilamin.
A) 1, 2, 4, 3, 5 B) 4, 5, 2, 3, 1
C) 5, 3, 1, 2, 4 D) 3, 5, 1, 2, 4
E) 4, 2, 1, 3, 5

72. (v5-118-31) 0,2 mol benzolga nitrolovchi aralashma ta'sir ettirilganda (90% unum bilan) hosil bo'lgan mahsulotning qaytarilishidan (75% unum bilan) olingan aminning (ρ = 1,02 g/ml) hajmini (ml) hisoblang.
A) 17,4 B) 14,5 C) 15,8
D) 13,3 E) 12,3

73. (v5-118-34) 150 g aminosirka kislotaning yetarli miqdorda etil spirti bilan reaksiyaga kirishuvidan hosil bo'lgan murakkab efirning massasi (g) qancha?
A) 103 B) 242 C) 75
D) 206 E) 121

74. (v5-122-17) 2,86 g dimetilizopropilamin tarkibidagi vodorod atomlari soni – … .
A) $2{,}43 \cdot 10^{23}$ B) $2{,}57 \cdot 10^{23}$
C) $3{,}74 \cdot 10^{22}$ D) $7{,}9 \cdot 10^{23}$
E) $9{,}5 \cdot 10^{23}$

75. (v5-123-13) N.N. Zinin nitrobenzolni qaytarib anilin olish reaksiyasida anilindan boshqa hosil bo'lgan moddalar – … :
1) ammiak; 2) ammoniy sulfat; 3) ammoniy sulfid; 4) oltingugurt; 5) vodorod xlorid; 6) temir (II) xlorid; 7) vodorod oksid.
A) 5, 6 B) 1, 4, 7
C) 1, 3, 5, 7 D) 3, 4, 6
E) 2, 4, 7

76. (v5-123-18) … g anilin yetarli miqdordagi brom bilan reaksiyaga kirishib 33 g oq cho'kma hosil qiladi.
A) 8,4 B) 7,8 C) 9,3
D) 11,3 E) 6,7

77. (v5-125-34) 22,5 g aminosirka kislota natriy gidroksidi bilan reaksiyaga kirishganda 28 g tuz hosil bo'ldi. Reaksiyaning unumini (%) aniqlang.
A) 94,75 B) 96 C) 90
D) 93,5 E) 92

78. (v5-126-34) 248 g metilamin yondirilganda necha litr (n. sh.) azot hosil bo'ladi?
A) 44,8 B) 67,5 C) 89,6
D) 22,4 E) 179,2

79. (v5-127-34) 30% li 150 g aminosirka kislotaning massa ulushi 30% bo'lgan 60 g xlorid kislota eritmasi bilan ta'sirlashuvidan qancha (g) tuz hosil bo'ladi?
A) 67 B) 50 C) 65
D) 55 E) 86

80. (v5-138-34) Tarkibida azotning massa ulushi 15,73% bo'lgan aminokislota nomini aniqlang.
A) aminopropan B) aminopentan
C) aminogeksan D) aminobutan
E) aminoetan

81. (v5-153-34) 13,5 g aminosirka kislota massa ulushi 20% bo'lgan xlorid kislotaning necha grammi bilan reaksiyaga kirishadi?
A) 32,85 B) 33,5 C) 30
D) 33 E) 31,25

82. (v6-105-17) α-aminobutan kislota tarkibida … bo'lgani uchun u amfoter elektrolitdir.
A) azot va uglerod atomlari
B) azot va kislorod atomlari
C) amino guruh
D) amino va karboksil guruhlari

83. (v6-106-17) Anilin vaqt o'tishi bilan qoramtir tusga kiradi. Bu jarayonda qanday reaksiya sodir bo'ladi?
A) disproporsiyalanish
B) birikish
C) oksidlanish
D) o'rin olish

84. (v6-106-31) 3% li 259 g fenilammoniy xlorid eritmasi bilan bromli suv orasidagi reaksiyasi oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmadan 2,4,6-tribromanilinni to'la ajratib olish uchun 26% li (ρ = 1,24 g/ml) kaliy ishqor eritmasidan necha millilitr sarflanadi?
A) 31,3 B) 10,4 C) 41,7 D) 51,7

85. (v6-108-17) Uchlamchi aminni ko'rsating.
A) uchlamchi butilamin
B) diizopropilamin
C) trimetilamin
D) izobutilamin

86. (v6-113-17) Qaysi moddalarni ketma-ket qo'llash yordamida metilamin va butan aralashmasidan metilaminni ajratib olish mumkin?
1) NaOH; 2) Br_2; 3) HCl; 4) $KMnO_4$.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 3, 1 D) 4, 1

87. (v7-104-24) 20 g metilamin eritmasini neytrallash uchun 1,0 molyarli HCl eritmasidan 100 ml (ρ = 1,2 g/ml) sarflandi. Eritmadagi tuzning massa ulushini (%) toping.
A) 14,3 B) 5,6 C) 4,8 D) 6,75

88. (v7-110-16) Moysimon suyuq moddani (t = 25°C) belgilang.
A) benzol B) fenol
C) anilin D) etanol

89. (v7-113-30) 200 g 6,475% li fenilammoniyxlorid eritmasi bilan bromli suv orasidagi reaksiya oxirigacha olib borildi. Reaksion aralashmadan 2,4,6-tribromanilinni to'la ajratib olish uchun 0,1 molyarli kaliy ishqor eritmasidan qancha (l) zarur bo'ladi?
A) 1 B) 3 C) 2 D) 4

90. (v8-103-1) Quyidagi holatlar orasidan birlamchi amin ta'rifini toping.
A) gidrozin molekulasining to'rtta vodorod atomidan bittasi uglevodorod radikali bilan almashgan birikma
B) tarkibida amino va gidroksid guruh tutgan birikma
C) ammiak molekulasining uchta, vodorod atomining bittasi uglevodorod radikaliga almashingan birikma
D) ammiak molekulasida uchta vodorod atomidan ikkitasi radikalga almashingan birikma

91. (v8-103-5) Alanin molekulasidagi uchinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini aniqlang.
A) –3 B) –2 C) –1 D) +3

92. (v9-101-14) 49,5 g 2,4,6-tribromanilin olish uchun sarf bo'lgan benzolning massasini (g) hisoblang. Reaksiyaning birinchi va ikkinchi bosqichida unum 50% dan, so'nggi bosqichda esa unum 100%.
A) 46,8 B) 7,8 C) 11,7 D) 23,4

93. (v11-105-2) Kalsiy oksiddan besh bosqichda 41,85 gramm anilin olindi. Agar birinchi bosqichda reaksiya unumi 80% ikkinchida 75% uchinchida 95% to'rtinchida 100% beshinchida 90% bo'lsa, 10% qo'shimchasi bo'lgan so'ndirilmagan ohakdan qancha gramm talab etiladi?
A) 147,5 B) 54,6 C) 163,8 D) 43,1

94. (v11-105-23) Birlamchi amin ta'rifini toping.
A) ammiak molekulasida uchta vodorod atomidan ikkitasi radikalga almashingan birikma
B) tarkibida amino va gidroksil guruhlari tutgan birikma
C) gidrozin molekulasining to'rtta vodorod atomidan bittasi uglevodorod radikali bilan almashgan birikma
D) ammiak molekulasining uchta vodorod atomining bittasi uglevodorod radikaliga almashingan birikma

95. (v12z-215-13) 4-metilfenol bilan noma'lum amin aralashmasining 16,52 grammi 1792 ml (n. sh.) HCl yoki 50,4 g 10% li KOH bilan reaksiyaga kirish oladi. Aminning molekulyar massasini toping.
A) 99 B) 57 C) 71 D) 85

96. (v12z-233-33) 2 mol 6-aminogeksan kislotadan necha (g) kaprolaktam hosil bo'ladi?
A) 326 B) 198 C) 113 D) 226

97. (v12z-242-26) 39,16 g aminokislota bilan to'la reaksiyaga kirishishi uchun NaOH ning 176 g 10% li eritmasi sarflandi. Aminokislotani toping.
A) glitsin B) alanin C) valin D) serin

98. (v12z-247-7) 56,32 g CaC_2 dan foydalanib olingan glitsin bilan to'la reaksiyaga kirishishi uchun qancha hajm 30% li ρ = 1,286 g/ml KOH eritmasidan sarflanadi?
A) 63,37 B) 94,56
C) 127,73 D) 164,27

99. (v12z-252-12) 3-metilfenol bilan noma'lum aminning 15,06 g aralashmasi 1344 ml (n. sh.) HCl yoki 40 g 8% li NaOH eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi. Noma'lum aminning molekulyar massasini aniqlang.
A) 93 B) 65 C) 79 D) 107

100. (v12z-252-17) 35/2 g CaC_2 dan foydalanib olingan glitsin bilan reaksiyaga kirishish uchun qancha hajm 12% li ρ = 1,1 g/ml KOH eritmasi sarflanadi?
A) 233,3 B) 212,1 C) 280 D) 254,5

101. (v12z-259-18) 7,5 g aminokislota bilan tola reaksiyaga kirishishi uchun NaOH ning 80 g 5% li eritmasi sarflandi. Aminokislotani toping.
A) alanin B) serin
C) leysin D) glitsin

1. (96-10-58) Ushbu moddalardan qaysilari polimerlanish reaksiyasiga kirishadi?
1) stirol; 2) propan; 3) propilen;
4) 1,2-dixloretan; 5) brometan; 6) etanol.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 5 D) 3, 6 E) 5, 6

2. (96-15-98) Butadiyenstirol kauchukning formulasini ko'rsating:
A) $-CH_2-CH=CH-CH_2-CH_2-\underset{Cl}{CH}-$
B) $-CH_2-CH=CH-CH_2-CH_2-\underset{C_6H_5}{CH}-$
C) $-CH_2-\underset{Cl}{CH}-CH_2-\underset{C_6H_5}{CH}-$
D) $-\underset{2}{CH}-CH=\underset{CH_3}{C}-CH_2-$
E) $-CH_2-CH=CH-CH_2-CH_2-\underset{CN}{CH}-$

3. (97-7-27) Kapron tolasi qanday reaksiya asosida olinadi?
A) polimerlanish
B) eterifikatsiya
C) gidratlanish
D) polikondensatlanish
E) oksidlanish-qaytarilish

4. (97-9-34) Monomerlarga mos keluvchi ta'rifni ko'rsating.
A) polimer zanjirida ko'p marta takrorlanuvchi tarkibiy qism
B) molekulalararo vodorod bog'lanish hisobiga polimer hosil qiluvchi kichik molekula
C) tarkibidagi qo'shbog'ning uzilishi hisobiga o'zaro birikib, polimer hosil qiluvchi kichik molekulalar
D) yirik molekulalarga birika oluvchi kichik molekulalar
E) o'zaro birikuvchi kichik molekulalar

5. (97-10-68) Qaysi birikmalar jufti polimerlanish reaksiyasiga kirisha oladi?
A) eten va butan B) etan va butadiyen
C) eten va propen D) etan va propen
E) etan va penten

6. (98-1-93) Glyukozadan kraxmal hosil bo'lish reaksiyasining nomini ko'rsating:
A) polimerlanish
B) gidroliz
C) degidrirogenlash
D) polikondensatlanish
E) polialkillanish

7. (98-4-66) Ushbu polimer modda



qaysi monomerdan olinadi?

A) 
B) 
C) 
D) 
E) 

8. (98-12-29) Quyidagi qaysi reaksiya asosida polistirol olinadi?
A) polikondensatlanish
B) oksidlash
C) polimerlanish
D) vodorod ishtirokida qaytarish
E) qo'sh polimerlanish

9. (00-4-1) Polikondensatsiya reaksiyasi yordamida qanday yuqori molekulyar birikmalar olinadi?
1) butadiyenstirol kauchugi; 2) izopren kauchugi; 3) kapron; 4) lavsan;
5) polipropilen; 6) polietilen;
7) fenolformaldegid smolasi; 8) polivinilxlorid.
A) 1, 3, 8 B) 1, 6, 8 C) 2, 4, 5
D) 2, 3, 7 E) 3, 4, 7

10. (00-4-2) Polimerlanish reaksiyasida qaysi yuqori molekulyar birikmalar olinadi?
1) sellyuloza; 2) polistirol; 3) kapron;
4) lavsan; 5) polietilen; 6) polivinilxlorid.
A) 2, 5, 6 B) 1, 3, 4 C) 2, 4, 5
D) 1, 2, 6 E) 3, 4, 5

11. (00-4-9) Buten-2 ni polimerlash natijasida hosil bo'lgan yuqori molekulyar birikmaning struktur zvenosini ko'rsating.
A) $-CH(CH_3)CH(CH_3)-$
B) $-CH_2CH(C_2H_5)-$
C) $-CH_2CH=CHCH_2-$
D) $-CH_2C(CH_3)_2-$
E) $-CH=C(C_2H_5)-$

12. (00-4-12) Qaysi monomerlarning qo'sh polimerlanish formulasi $(-CH_2C(CH_3)=CHCH_2CH_2-C(CH_3)_2-)_n$ bo'lgan yuqori molekulyar birikma hosil qilishga olib keladi?
1) xloropren; 2) izopren; 3) butadiyen-1,3; 4) pentadiyen-1,3; 5) izobutilen; 6) buten-1; 7) buten-2.
A) 1, 5 B) 3, 6 C) 2, 5
D) 3, 7 E) 4, 7

13. (00-4-14) Formulasi $(-CH_2CH=CHCH_2CH_2CH_2-)_n$ bo'lgan yuqori molekulyar birikma zvenosi qaysi monomerlarning qo'sh polimerlanishi natijasida hosil bo'ladi?
1) izopren; 2) xloropren; 3) butadiyen-1,3; 4) etilen; 5) propen.
A) 3, 4 B) 1, 4 C) 2, 5
D) 1, 5 E) 2, 4

14. (00-7-8) Izobutilenning polimerlanish reaksiyasi natijasida olingan yuqori molekulali moddaning struktur zvenosini toping.
A) $-CH_2C(CH_3)_2-$
B) $-CH_2C(CH_3)=CH-$
C) $-CH_2CH(C_2H_5)-$
D) $-CH(CH_3)CH(CH_3)-$
E) $-CH_2CH=CHCH_2$

15. (00-7-9) Quyidagi moddalarning qaysi biri qo'sh polimer ekanligini aniqlang.
A) divinil kauchugi
B) fenolformaldegid smola
C) izopren kauchugi
D) polimetilmetakrilat
E) butadiyenstirol kauchugi

16. (00-7-10) Qaysi polimerlar polikondensatsiya reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi?
1) polivinilxlorid; 2) polistirol;
3) polimetilmetakrilat; 4) fenolformaldegid smolasi; 5) butadiyen kauchugi; 6) sellyuloza.
A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 5
D) 4, 6 E) 2, 5

17. (00-7-60) Karbamid smolasini hosil qilish uchun metanal qaysi modda bilan reaksiyaga kirishishi kerak?
A) $CO(NH_2)_2$ B) $RC(O)NH_2$
C) RNH_2 D) fenol
E) anilin

18. (00-8-1) Qaysi moddalar orasidagi reaksiya natijasida karbamid smolasi hosil bo'ladi?
1) formaldegid; 2) etanal; 3) atseton; 4) mochevina; 5) atsetamid.
A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 4
D) 1, 5 E) 2, 5

19. (00-8-15) Izopren va izobutilen monomerlarining qo'sh polimerlanishida ikkala mahsulot teng miqdorda qatnashganda hosil bo'lgan yuqori molekulyar birikmaning struktur zvenosini ko'rsating.
A) $-CH_2C(CH_3)_2-$
B) $-CH=C(CH_3)CH_2CH_2CH_2C(CH_3)_2-$
C) $-CH_2C(CH_3)=C(CH_3)CH_2C(CH_3)_2-$
D) $-CH_2CH(CH_3)CH=CHCH_2C(CH_3)_2-$
E) $-CH_2C(CH_3)=CHCH_2CH_2C(CH_3)_2-$

20. (00-8-16) Formulasi $[-CH_2CCl=CHCH_2CH_2CH(C_2H_5)-]_n$ bo'lgan yuqori molekulyar birikma qaysi monomerlarning qo'sh polimerlanishidan hosil bo'lganligini ko'rsating.
1) xloropren; 2) izopren; 3) butadiyen-1,3; 4) pentadiyen-1,3; 5) izobutilen; 6) buten-1; 7) buten-2.
A) 1, 6 B) 2, 7 C) 3, 5
D) 4, 5 E) 2, 6

21. (00-8-17) Butadiyen-1,3 va etilen monomerlari qo'sh polimerlanish jarayonida teng miqdorda qatnashganda hosil bo'lgan yuqori molekulyar birikmadagi struktur zvenoni ko'rsating.
A) $-CH_2CH=C(CH_3)CH_2CH_2CH_2-$
B) $-CH_2C(CH_3)=CHCH_2CH_2-$
C) $-CH_2CH=CHCH_2CH_2-$
D) $-CH_2CH=CHCH_2CH_2CH_2-$
E) $-CH_2CH=CHCH_2CH=CH-$

22. (01-6-56) Kapronning polietilenga nisbatan yuqoriroq temperaturada suyuqlanishiga sabab nima?
A) kaproning polikondensatlanish reaksiyasi yordamida olinishi
B) kapronda vodorod bog'lanishning borligi
C) kapron molekulyar massasining kattaligi
D) kapron molekulyar massasining kichikligi
E) kapron tarkibida azot atomining borligi

23. (02-5-58) Glyukozadan kraxmal hosil bo'lishi kimyoviy reaksiyalarning qaysi turiga kiradi?
A) polimerlanish
B) polikondensatlanish
C) gidrolizlanish
D) degidrogenlanish
E) sovunlanish

24. (03-6-62) Polimerlanish reaksiyasi qanday organik birikmalar uchun xos bo'ladi?
A) to'yingan uglevodorodlar
B) aromatik uglevodorodlar
C) geterotsiklik uglevodorodlar
D) to'yinmagan uglevodorodlar
E) karbotsiklik birikmalar

25. (v4-103-14) O'rtacha molekulyar massasi 43400 g/mol, polimerlanish darajasi 1550 bo'lgan polimerning monomerini ko'rsating.
A) akrilonitril B) tetraftoretilen
C) etilen D) vinilxlorid
E) propilen

26. (v4-104-14) Quyidagi moddalarning qaysilari polikondensatsiyalanish reaksiyasining mahsulotlari hisoblanadi?
1) kraxmal; 2) oqsil; 3) sellyuloza; 4) kapron; 5) polietilen.
A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 4
C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 5
E) 2, 4, 5

27. (v5-106-33) α-glyukozaning polikondensatlanishidan nima hosil bo'ladi?
1) saxaroza; 2) glyukon kislota; 3) sellyuloza; 4) kraxmal; 5) olti atomli spirt; 6) sut kislota.
A) 6 B) 5 C) 4
D) 3, 4, 5 E) 1, 2

28. (v6-105-14) Yuqori molekulali modda izobutilenning polimerlanish reaksiyasi natijasida olingan. Uning struktur zvenosini toping:
1) $-CH_2C(CH_3)_2-$; 2) $-CH_2C(CH_3)=CH-$;
3) $-CH(CH_3)CH(CH_3)-$; 4) $-CH_2CH(C_2H_5)-$.
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1

29. (v6-111-14) Yuqori molekulali moddalarning qaysilari qo'sh polimerlanish reaksiyasi natijasida olinmaydi?
1) divinil kauchugi; 2) fenolformaldegid smola; 3) izopren kauchugi; 4) polimetilmetakrilat; 5) butadiyenstirol kauchugi.
A) 1, 3, 4 B) 1, 2
C) 2, 3, 4 D) 2, 5

30. (v6-112-15) Polikondensatsiya reaksiyasida metanal qaysi modda bilan reaksiyaga kirishadi?
A) benzil spirt B) etilen
C) benzoy kislota D) fenol

31. (v6-118-14) Fenolformaldegid smolasi olish uchun ... va fenol o'zaro ... reaksiyasiga kirishishi zarur.
A) metanol / polikondensatsiyalanish
B) formaldegid / polimerlanish
C) metanal / polikondensatsiyalanish
D) chumoli aldegid / polimerlanish

32. (v6-119-14) Polikondensatsiya reaksiyasi natijasida hosil bo'lmaydigan polimerlarni aniqlang:
1) fenolformaldegid smolasi; 2) polistirol; 3) polimetilmetakrilat; 4) polivinilxlorid; 5) butadiyen kauchugi; 6) sellyuloza.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 6
C) 4, 6 D) 1, 5

33. (v9-102-21) Akril kislotaning polimerlanishidan olingan yuqori molekulyar birikma zvenosining tuzilishini aniqlang.
A) $-C(CH_3)(COOCH_3)CH_2-$
B) $-C(CH_3)(COOH)CH_2-$
C) $-CH(COOCH_3)CH_2-$
D) $-CH(COOH)CH_2-$

34. (v9-117-5) Strukturasi $(-CH_2C(CH_3)(COOH)CHClCHCl-)$ bo'lgan sopolimer zvenosi qaysi monomerlarning qo'shpolimerlanishi natijasida hosil bo'ladi?
1) izopren; 2) metilmetakrilat; 3) vinilxlorid; 4) metakril kislota; 5) xloropren; 6) 1,2-dixloreten.
A) 2, 3 B) 3, 4
C) 1, 5 D) 4, 6

35. (v9-118-14) Strukturasi $(-CH_2CH(COOCH_3)CH_2CH(CH_3)-)_n$ bo'lgan sopolimer zvenosi qaysi monomerlarning qo'shpolimerlanishi natijasida hosil bo'ladi?
1) izopren; 2) metilakrilat; 3) izobutilen; 4) metilmetakrilat; 5) xloropren; 6) propilen.
A) 1, 3 B) 2, 6
C) 3, 4 D) 3, 5

36. (v12z-207-24) Izoprenning 27,2 grammini polimerlanishidan hosil bo'lgan namunada $1{,}52506 \cdot 10^{21}$ ta makromolekula bor. Polimerlanishda qatnashmagan izopren 320 g 2% li bromli suvni rangsizlantiradi. Polipropilenning o'rtacha molekulyar massasini toping.
A) 10737 B) 1020
C) 102000 D) 10200

37. (v13-138-36) Quyida keltirilgan sopolimer makromolekulasini tuzilishiga ko'ra qanday turdagi polimer moddalarga kiritish mumkin?



A) blok sopolimer
B) payvand sopolimer
C) bu molekula sopolimerlarga kirmaydi
D) oddiy sopolimer

38. (v13-139-11) Quyida berilgan YuMBlar orasidan polikondensatlanish reaksiyalari orqali olinadiganlarini aniqlang:
1) fenolformaldegid smola; 2) teflon; 3) neylon; 4) lavsan; 5) polistirol; 6) siloksan; 7) butadiyen-stirol.
A) 1, 4, 6, 8 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 4, 5, 7 D) 1, 3, 4, 6

39. (v13-142-35) Quyidagi qaysi tolalar polikondensatlanish usulida sintez qilinadi?
1) lavsan; 2) nitron; 3) kapron;
4) siloksan; 5) neylon.
A) 2, 4 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 3, 5

40. (v13-143-36) ...–AAAAAAABBBBBBBB–... tuzilishli sopolimer makromolekulasining tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.
A) payvand sopolimer
B) oddiy sopolimer
C) bu molekula sopolimerlarga kirmaydi
D) blok sopolimer

41. (v13-145-20) ...–AABAABBAABABBABBBAABAABA–... tuzilishli sopolimer makromolekulasining tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.
A) payvand sopolimer
B) bu molekula sopolimerlarga kirmaydi
C) blok sopolimer
D) oddiy sopolimer

42. (v13-151-12) Quyida berilgan YuMBlar orasidan tabiiy YuMBlarni ko'rsating:
1) sellyuloza; 2) viskoza; 3) kraxmal;
4) atsetat; 5) oqsillar; 6) rezina;
7) nuklein kislotalar; 8) lignin.
A) 3, 4, 5, 6, 7 B) 2, 4, 6, 7, 8
C) 1, 2, 3, 4, 6 D) 1, 3, 5, 7, 8

43. (v15-110-13) Formulasi $(–CH_2 – (CH)_2 –CH_2 – CH(C_6H_5) – CH_2–)_n$ bo'lgan yuqori molekulyar birikma zvenosi qaysi monomerlarning sopolimerlanishidan hosil bo'lgan?
1) izopren; 2) butadiyen-1,3;
3) xloropren; 4) stirol; 5) akrilonitril
A) 1, 5 B) 2, 5 C) 2, 4 D) 1, 4

44. (v17-103-31) Qaysi polimer zvenosi aromatik halqa saqlaydi?
A) neylon B) lavsan
C) kapron D) nitron

45. (v17-107-2) Berilgan moddalarning qaysi biri polimerlanadi?
A) xloretan B) xloretilen
C) propan D) dixloretan

46. (v17-110-36) Qaysi monomerdan polistirol olinadi?
A) vinilxlorid B) vinilbenzol
C) vinilatsetilen D) vinilatsetat

47. (v17-121-14) Quyidagi tuzilishga ega polimerli zanjirlar hosil bo'lishda qanday monomerlar sopolimerlangan: $(–CH_2CH(CH_3)CH_2C(CH_3)CHCH_2–)_n$?
1) izopren; 2) metilokrill; 3) viniloxlorid;
4) metilmetakrilat; 5) xloropren; 6) propilen.
A) 2, 6 B) 3, 4 C) 1, 6 D) 5, 6

48. (v17-122-10) Makromolekulasi asosiy zanjirida azot elementi bor bo'lgan polimerga misol keltiring:
A) poliakrilonitril, kapron, polipeptidlar
B) polisaxaridlar, polistirol
C) polipropilen, polivinil spirti
D) poliformaldegid, poliizobutilen

49. (v17-123-11) Makromolekulalarning asosiy zanjiri tarkibida kislorod elementi bo'lgan polimerga misol keltiring:
A) poliformaldegid, polisaxaridlar
B) guttapercha, sun'iy kauchuk
C) butadiyen, poliizopren
D) polistirol, polipropilen

50. (v17-128-19) AABAABBAABABBABBB AABAABA – sopolimerlanish turini aniqlang.
A) oddiy sopolimer
B) bu molekula sopolimer emas
C) blokli sopolimer
D) svarkali (payvandli) sopolimer

93.3. Kauchuklar

1. (96-4-59) Qaysi birikma sun'iy kauchuk olishda qo'llanadi?
A) etilbenzol B) vinilbenzol
C) propilbenzol D) metilbenzol
E) izopropilbenzol

2. (96-8-65) Qaysi birikma tabiiy kauchukning monomeri?
A) $CH_3-\underset{\displaystyle CH_2}{\overset{\displaystyle |}{C}}-CH=CH_2$
B) $CH_2=CH–CH_2–CH_3$
C) $CH_3–CH=CH–CH_3$
D) $CH_3-\underset{\displaystyle CH_3}{\overset{\displaystyle |}{C}}=CH-CH_3$
E) $CH_3-\underset{\displaystyle CH_3}{\overset{\displaystyle |}{C}}=\underset{\displaystyle CH_3}{\overset{\displaystyle |}{C}}-CH_3$

3. (97-1-66) Ebonit deb nomlangan mahsulotni qaysi moddalardan olinadi?
1) neft; 2) glitserin; 3) kauchuk;
4) oltingugurt; 5) xloropren; 6) kapron.
A) 1 va 2 B) 2 va 3 C) 3 va 4
D) 2 va 5 E) 5 va 6

4. (97-10-157) Tabiiy kauchuk qanday monomerdan hosil bo'lgan?
A) etilen B) propilen
C) atsetilen D) vinilxlorid
E) izopren

5. (97-11-35) Xloropren kauchuk qaysi monomerning polimeri hisoblanadi?
A) 2-xlor-1,3-butadiyen
B) 2-xlor-1,2-butadiyen
C) xlorvinil
D) xlorin
E) 2-xlor-5-vinilpiridin

6. (98-1-98) Kauchuk rezinadan nima bilan farq qiladi?
A) polimerlanish darajasi
B) monomer tarkibi
C) kauchuk sulfid ko'priklarga ega
D) rezina sulfid ko'priklarga ega
E) molyar massalari bilan

7. (98-1-99) Tabiiy kauchukning monomerini ko'rsating.
A) 2-metil-1,3-butadiyen
B) 2-metil-buten-2
C) 1,3-butadiyen
D) 1,2-butadiyen
E) 2-xlor-1,3-butadiyen

8. (98-5-36) Tabiiy kauchuk qaysi uglevodorodning polimeri hisoblanadi?
A) etilen
B) 2-buten
C) 1,3-butadiyen
D) 2-metil-1,3-butadiyen
E) 1,2-butadiyen

9. (98-5-43) Sintetik kauchuk dastlab qaysi uglevodoroddan polimerlash orqali olingan?
A) izoprendan
B) butadiyen-1,3 dan
C) butadiyen-1,2 dan
D) etilendan
E) propilendan

10. (98-5-51) Xossalari bo'yicha tabiiy kauchukka yaqin bo'lgan divinil kauchukda metilen guruhlar qo'shboshga nisbatan qanday holatda joylashgan bo'ladi?
A) faqat sis-holatda
B) faqat trans-holatda
C) sis-va trans-holatda
D) bir zvenoda dis-holatda, keyingi zvenoda trans-holatda
E) ikkita zvenoda sis-holatda, ikkitasida esa trans-holatda

11. (98-5-57) Tabiiy va sintetik kauchuklarning rezinaga aylanishida qanday jarayonlar ro'y beradi?
1) kauchukning chiziqsimon molekulalarida qo'lbog'lar uzilishi hisobiga oltingugurt atomlari birikadi; 2) yopishqoq kauchuk elastik rezinaga aylanadi; 3) rezinaga aylanishda temperatura ta'sir etadi.
A) 1 B) 2 C) 3
D) 1 va 2 E) 1, 2 va 3

12. (00-4-13) Xlorpren va buten-1 larning bir xil miqdordagi monomerlari qatnashganda hosil bo'ladigan qo'shpolimerning struktur zvenosi formulasini toping.
A) $–CH_2CCl=CHCH_2–$
B) $–CH_2CCl=CHCH_2CH_2CH(C_2H_5)–$
C) $–CH=CClCH=CHCH_2CH(C_2H_5)–$
D) $–CH_2CCl=CHCH_2CH=C(C_2H_5)–$
E) $–CH_2CCl=C(CH_3)CH_2CH(C_2H_5)–$

13. (00-10-37) Tabiiy kauchukni to'yinmagan ekanligini qaysi reaksiya orqali isbotlash mumkin?
A) gidratlanish
B) polimerlanish
C) kaliy permanganat eritmasini va bromli suvni rangsizlanishi orqali
D) parchalanish
E) birikish

14. (02-5-41) Quyidagi qaysi moddalardan kauchuk hosil qilish mumkin?
1) etanal; 2) etilen; 3) 2-buten;
4) butadiyen-1,3; 5) benzol; 6) izopren.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 5
D) 4, 6 E) 2, 4, 6

15. (04-1-842) Quyida keltirilgan strukturalar orasidan qaysi biri tabiiy kauchuk zvenosining tuzilishini aks ettiradi?
A) $–CH_2–CH=CH–CH_2–$
B) $–CH_2–CH(CH_3)–CH_2–CH_2–$
C) $–CH_2–C(CH_3)=CH–CH_2$
D) $–CH_2–HC(CH_3)–CH=CH–$
E) $–CH=CH–CH=CH–$

16. (05-1-467) Qaysi birikma divinil kauchukning monomeri?
A) $CH_2=\underset{\displaystyle CH_3}{\overset{\displaystyle |}{C}}-CH=CH_2$
B) $CH_2=CH–CH=CH_2$
C) $CH_3–CH=CH–CH_3$
D) $CH_2=C=CH-CH_3$
E) $CH_3-\underset{\displaystyle CH_3}{\overset{\displaystyle CH_3}{\overset{|}{C}}}=C-CH_3$

17. (v5-151-13) ...-yili S. V. Lebedev sanoatda etanoldan butadiyen olish usulini ishlab chiqqan.
A) 1929 B) 1935 C) 1932
D) 1937 E) 1934

18. (v13-135-34) Tabiiy kauchukni geveya daraxtidan ajratib olish uchun qaysi kislotadan foydalaniladi?
A) CH_3COOH B) HNO_3
C) HCOOH D) HNO_2

19. (v13-143-2) Tabiiy kauchuk O'rta Osiyoda o'sadigan qaysi o'simliklarning tanasidan tabiiy ravishda ajraladi?
A) yashil sag iz, tog' sag'iz
B) geveya, gvaulla
C) geveya, ko'k sag'iz
D) ko'k sag'iz, tog' sag'iz

20. (v17-101-17) Indoneziyada va Hindiston yarimorolida uchraydigan ayrim o'simliklar shirasidan olinadigan kauchuksimon moddani toping.
A) sis-1,3-poliizopren
B) trans-1,4-poliizopren
C) sis-1,4-poliizopren
D) trans-1,3-poliizopren

21. (v17-112-12) Turli mamlakatlarda vistaneks, oppanol deb ataladigan kauchuksimon polimer tarkibida $6{,}02 \cdot 10^{20}$ ta molekula mavjud bo'lib uning polimerlanishiga 5,6 g monomer sarflanadi. Reaksiya unumi 100% bo'lsa, polimerlanish darajasi nechaga teng bo'ladi?
A) 900 B) 1000
C) 90 D) 100

93.4. Kimyoviy tolalar

1. (96-1-53) Ipak tolasi qaysi turdagi tolalarga mansub?
A) o'simlik B) sintetik
C) hayvon D) sun'iy
E) kimyoviy

2. (97-1-31) Lavsan poliefir tolasi qaysi moddalardan olinadi?
1) para-ksilol; 2) tereftal kislota; 3) benzoy kislota; 4) etilenglikol; 5) kaprolaktam.
A) 1, 4 B) 2, 4
D) 3, 5 C) 3, 4
E) 1, 5

3. (97-12-66) Sintetik kapron tolasi qanday reaksiya asosida olinadi?
A) polimerlanish
B) polikondensatlanish
C) izomerlanish
D) eterifikatsiya
E) qo'sh polimerlanish

4. (98-1-100) Lavsan qaysi birikmalar sinfiga taalluqli?
A) polioksibirikmalar B) polikislotalar
C) poliamidlar D) poliefirlar
E) uglevodorodlar

5. (98-7-67) Lavsan olishda qo'llaniladigan muhim organik kislota nomini ko'rsating?
A) benzoy B) fenilsirka
C) tereftal D) ftal
E) salitsil

6. (99-2-24) O'zbekistonda nitron tolasi ishlab chiqariladigan kimyoviy zavod qaysi shaharda joylashgan?
A) Chirchiq B) Angren
C) Samarqand D) Navoiy
E) Olmaliq

7. (00-3-24) Tabiiy tolalarni ko'rsating.
A) kapron, lavsan, paxta, ipak
B) jun, ipak, paxta, zig'ir
C) viskoza, nitron, zig'ir, kanop
D) xlorin, kapron, jun, zig'ir
E) viskoza, neylon, kapron, lavsan

8. (00-3-62) Lavsan tola asosini tashkil etuvchi moddalar juftligini aniqlang:
1) 1,3-butadiyen; 2) fenol; 3) formaldegid; 4) benzoy kislota; 5) etilenglikol; 6) etilen; 7) 1,4-dimetilbenzol; 8) tereftal kislota; 9) glitserin.
A) 2, 3, 9 B) 1, 6 C) 4, 7, 8
D) 5, 8 E) 4, 6, 8

9. (00-5-3) Lavsan tolasi tarkibi jihatidan birikmalarning qaysi sinfiga mansub?
A) oddiy efir
B) murakkab efir
C) tabiiy yuqori molekulyar birikmalar
D) nitrobirikmalar
E) qo'shpolimerlar

10. (00-5-4) Para-ksilolning oksidlanishi natijasida hosil bo'lgan moddaga etilenglikol ta'sir ettirildi. Reaksiya mahsulotining polikondensatlanishidan hosil bo'lgan yuqori molekulyar modda tolasi qanday nomlanadi?
A) nitron B) kapron
C) lavsan D) viskoza
E) atsetat

11. (00-5-5) Quyidagi moddalardan qaysi biri sun'iy tola hisoblanadi?
A) zig'ir B) ipak
C) lavsan D) kapron
E) viskoza

12. (01-4-73) Qaysi moddalarning o'zaro polikondensatlanishidan neylon tolasi hosil bo'ladi?
A) geksametilendiamin va adipin kislota
B) pentametilendiamin va adipin kislota
C) metakril kislota va aminoetan kislota
D) geksametilendiamin va akril kislota
E) geptiletilendiamin va adipin kislota

13. (04-1-840) Zig'ir va mis – ammiak tolalari qaysi turdagi tolalarga mansub?
1) hayvon; 2) o'simlik; 3) sun'iy; 4) sintetik.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4
D) 1, 3 E) 2, 4

14. (v5-107-14) Lavsan tolasiga to'g'ri keladigan javobni ko'rsating.
1) poliefir tola; 2) poliamid tola; 3) sintetik tola; 4) sun'iy tola; 5) geksametilendiamin; 6) tereftal kislota va etilenglikoldan olinadi; 7) polikondensatsiyalanish reaksiyasi mahsuloti; 8) polimerlanish reaksiyasi mahsuloti.
A) 2, 3, 6, 8 B) 2, 4, 6, 8
C) 1, 3, 6, 7 D) 2, 4, 5, 8
E) 1, 4, 5, 7

15. (v6-115-14) Etilenglikol bilan n-ksilolning oksidlanishi natijasida hosil bo'lgan modda orasidagi reaksiya natijasida hosil bo'lgan mahsulotning tolasi qanday nomlanadi?
A) kapron B) nitron
C) viskoza D) lavsan

16. (v13-133-32) Rossiyada "anid" deb yuritiladigan tolani olishda asosiy xomashyo bo'luvchi moddalarni belgilang:
1) geksametilendiamin; 2) akrilonitril; 3) etilenglikol; 4) tereftal kislota; 5) adipin kislota; 6) kaprolaktam.
A) 3, 4 B) 1, 6 C) 1, 5 D) 2

17. (v13-141-28) Quyida berilganlardan sun'iy tolalarni aniqlang:
1) viskoza; 2) atsetat; 3) xlorin; 4) nitron; 5) jun; 6) ipak; 7) paxta.
A) 1, 2, 3, 4 B) 5, 6, 7
C) 1, 2 D) 3, 4

18. (v13-144-23) Quyida berilganlardan sintetik tolalarni aniqlang:
1) viskoza; 2) atsetat; 3) xlorin; 4) lavsan; 5) jun; 6) paxta.
A) 5, 6 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2 D) 3, 4

19. (v13-164-19) Neylon tolasi olishda qaysi dikarbon kislota xomashyo sifatida ishlatiladi? Polimerlanish darajasi 500 ga teng bo'lgan neylon tolasi olish uchun qancha dikarbon kislota (kg) kerak bo'ladi?
A) sebatsin kislota; 67
B) adipin kislota; 73
C) pimelin kislota; 73
D) glutar kislota; 37

20. (v15-105-12) Lavsanning sistematik nomenklaturadagi nomini aniqlang.
A) polietilentereftalat B) terilen
C) dakron D) smola

21. (v15-115-12) Adipin kislotani geksametilendiamin bilan polimerizatsiyaga uchratib qanday tola olish mumin?
A) oppanol B) neylon
C) lavsan D) viskoza

94. Uglevodorodlarning tabiiy manbalari

1. (96-1-52) Qaysi tabiiy mahsulotni qayta ishlash natijasida fenol olinadi?
A) neft B) torf
C) toshko'mir D) yog'och
E) tabiiy gaz

2. (96-8-93) Quyidagi moddalarning qaysilari toshko'mirni pirolizi mahsulotlari qatoriga kiradi?
1) ligroin; 2) benzol; 3) kerosin; 4) fenol.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4
D) 2, 3 E) 2, 4

3. (97-1-29) Qaysi moddalar toshko'mirni quruq haydash mahsuloti bo'ladi?
1) toluol; 2) kerosin; 3) fenol; 4) mazut.
A) 1, 2 B) 1, 4 C) 2, 3
D) 3, 4 E) 1, 3

4. (97-1-65) Neftni haydash fraksiyalaridan kerosinli fraksiya qaysi temperaturalar oralig'ida olinadi?
A) 40–200°C
B) 150–200°C
C) 275°C va yuqorida
D) 700°C dan yuqorida
E) 180–300°C

5. (97-7-70) Toshko'mirni piroliz qilish qaysi maqsadni ko'zlaydi?
A) ammiak olish B) benzol olish
C) koks olish D) o'g'it olish
E) 2-metil-5-xlorpenten-3 olish

6. (98-1-78) Benzinning gazolin fraksiyasi tarkibini quyidagilarning qaysilari tashkil etadi?
A) to'yingan uglevodorodlar
B) aromatik uglevodorodlar
C) sikloalkanlar
D) to'yinmagan uglevodorodlar
E) to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlar

7. (98-9-68) Neft mahsulotlarini rektifikatsiya qiladigan minorada temperatura ortib borishi bilan ajralib chiqadigan mahsulotlar ketma-ketligini aniqlang:
1) ligroin; 2) gazolin; 3) benzin.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 1 C) 3, 2, 1
D) 2, 1, 3 E) 3, 1, 2

8. (01-2-9) Benzinning sifati uning tarkibidagi qaysi uglevodorodning foiz ulushi bilan aniqlanadi?
A) etilen B) izobutan
C) pentan D) neopentan
E) izooktan

9. (02-12-64) Termik kreking jarayonida olingan benzinning oddiy benzinga ko'ra detonatsiyaga chidamliligi sababini belgilang.
A) to'yingan uglevodlari kam bo'ladi
B) tarmoqlangan zanjirli uglevodorodlari bo'ladi
C) tarmoqlangan zanjirli uglevodorodiari bo'lmaydi
D) to'yinmagan uglevodorodlari ko'p bo'ladi
E) to'yingan uglevodorodlari ko'p bo'ladi

10. (03-7-37) Tabiiy gaz tarkibiga qanday uglevodorodlar kiradi?
A) kichik molekulali to'yingan uglevodorodlar
B) aromatik uglevodorodlar
C) sikloparafinlar
D) barcha to'yingan uglevodorodlar
E) barcha xildagi uglevodorodlar

11. (03-7-38) 40–200°C oralig'ida neftning qanday fraksiyasi yig'ib olinadi?
A) gazolin B) kerosin
C) ligroin D) mazut
E) A va B

12. (03-7-39) Ligroin fraksiyasi tarkibida qanday uglevodorodlar bo'ladi?
A) C_5H_{12} dan $C_{11}H_{24}$ gacha
B) C_8H_{18} dan $C_{18}H_{38}$ gacha
C) C_8H_{18} dan $C_{14}H_{30}$ gacha
D) $C_{12}H_{26}$ dan $C_{18}H_{38}$ gacha
E) $C_{18}H_{38}$ dan yuqori

13. (03-7-40) Neft tarkibida qanday uglevodorodlar uchraydi?
A) faqat to'yingan uglevodorodlar
B) faqat to'yinmagan uglevodorodlar
C) aromatik uglevodorodlar
D) sikloparafinlar, to'yingan va aromatik uglevodorodlar
E) barcha turdagi uglevodorodlar

14. (03-7-41) Tabiiy gazning asosiy qismini qaysi uglevodorod tashkil qiladi?
A) metan B) etan
C) propan D) benzol
E) atsetilen

15. (03-7-42) 150–250°C oralig'ida neftning qanday fraksiyasi yig'ib olinadi?
A) gazolin B) ligroin
C) kerosin D) B va C
E) mazut

16. (03-7-44) 180–300°C oralig'ida neftning qanday fraksiyasi yig'ib olinadi?
A) gazolin B) gazoil
C) mazut D) kerosin
E) ligroin

17. (03-7-45) Neftni haydashdan so'ng qoladigan qoldiqni aniqlang.
A) benzin B) kerosin
C) ligroin D) mazut
E) gazoil

18. (03-7-47) Toshko'mir piroliz qilinganda hosil bo'ladigan koks gazining ko'pchilik qismini qaysi gaz tashkil qiladi?
A) vodorod B) metan
C) etilen D) azot
E) iz gazi

19. (v5-102-13) Neft tarkibidan sikloalkanlarning besh va olti a'zoli vakillarini ilk bor ajratib olib, o'rgangan olim – ... .
A) L.K. Poling B) V.V. Markovnikov
C) N.N. Zinin D) F. Franklend
E) A. Vyurs

20. (v5-131-13) Tarmoqlanmagan zanjirli uglevodorodlar (masalan, n-pentan) detonatsiyaga oson uchraydi. Benzin tarkibiga kiruvchi, detonatsiyaga chidamli uglevodorodning nomi – ... .
A) 2,3-dimetilpentan
B) 2,3,3-trimetilpentan
C) n-pentan
D) 2-metilpropan
E) 2,2,4-trimetilpentan

21. (v5-132-13) Tabiiy gaz tarkibida (hajm jihatidan) 92% metan, 3% etan, 2% propan va 3% azot bor. Shu gazning 1 m^3 ni yoqish uchun necha m^3 havo kerak (φ_{O_2} = 0,2)?
A) 11,255 B) 9,525
C) 10,225 D) 12,225
E) 0,97

22. (v7-103-16) Termik kreking usuli bilan olingan benzin tarkibida qanday modda(lar) bo'lgani uchun unga antioksidlovchi qo'shiladi?
1) alkan; 2) izoalkan; 3) alken; 4) polimer.
A) 2 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 3

23. (v7-111-16) Benzin tarkibidagi qaysi uglevodorodning detonatsiyaga chidamliligi nolga teng?
A) 2,3,3-trimetilpentan
B) p-pentan
C) 2,3-dimetilpentan
D) 2,2,4-trimetilpentan

24. (v7-113-16) Termik kreking usulida olingan benzinga tegishli sifatlarni tanlang:
1) tarkibida alkenlar miqdori ko'proq;
2) tarkibida izoalkanlar miqdori ko'proq;
3) uzoq vaqt saqlash mumkin; 4) uzoq vaqt saqlab bo'lmaydi.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 1, 4

25. (v12c-111-22) Neftni birlamchi qayta ishlash qurilmasi birinchi bo'lib qachon va kim(lar) tomonidan yaratilgan?
A) 1823-y. aka-uka Dubininlar
B) 1833-y, Silliman
C) 1891-y, Shuxov
D) 1851-y, Silliman va Shuxov

26. (v14-119-3) Tabiiy gazning asosini qaysi uglevodorod tashkil etadi?
A) atsetilen B) metanol
C) benzol D) metan

27. (v16-101-5) Toshko'mir piroliz qilinganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
1) ligroin; 2) benzol; 3) kerosin; 4) fenol.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 4
C) 1, 3 D) 1, 2, 3

28. (v16-101-20) Gazolin fraksiyasida asosan quyidagi uglevodorodlar bo'ladi.
1) to'yingan uglevodorodlar; 2) aromatik uglevodorodlar; 3) sikloalkanlar;
4) to'yinmagan uglevodorodlar.
A) 1 B) 1, 2
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

29. (v16-103-20) Neftni qayta ishlash mahsulotlarning ketma-ketligi to'g'ri keltirilgan qatorini ko'rsating.
A) gazolin, benzin, ligroin, kerosin
B) benzin, gazolin, kerosin, ligroin
C) gazolin, benzin, kerosin, ligroin
D) gazolin, benzin, ligroin, kerosin

30. (v16-104-1) Neft tarkibida qanday uglevodorodlar uchraydi?
1) to'yingan; 2) to'yinmagan; 3) aromatik;
4) sikloparafinlar.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3

31. (v16-106-22) Katalitik krekingda olingan benzinning xossalarini ko'rsating.
1) detonatsiyaga chidamli; 2) alkenlarning miqdori ko'p; 3) izoalkanlarning miqdori ko'p;
4) ko'p vaqt davomida saqlanmaydi.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2 D) 3, 4

32. (v16-107-31) Neft fraksiyalari keltirilgan qatorini ko'rsating.
A) gazolin, benzin, ligroin, kerosin
B) mazut, benzin, gazolin, kerosin, ligroin
C) fenol fraksiyasi, gazolin, benzin, kerosin, ligroin
D) koks, gazoyl, ligroin, kerosin

33. (v16-109-4) Toshko'mir smolasidan qanday moddalar olinadi?
1) siklogeksan; 2) naftalin; 3) antratsen;
4) geksan.
A) 1, 2 B) 2, 3
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

34. (v16-112-15) Termik krekingda olingan benzinga qaysi moddalar borligi uchun antioksidant qo'shiladi?
1) alkanlar; 2) izoalkanlar;
3) alkenlar; 4) polimer.
A) 1 B) 3, 4 C) 3 D) 2

35. (v17-103-23) O'zbekiston Markaziy Osiyoda ko'mir zaxiralari bo'yicha nechanchi o'rinni egallaydi?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

36. (v17-110-3) Qoramoyning turli fraksiyalari haydalib bo'lgach, qolgan qoldiq nima deb ataladi?
A) qoldiq B) is qazi
C) kerosin D) gudron

95. Kombinatsiyalangan masalalar

1. (97-7-22) 20 ml metan va atsetilen aralashmasi ortiqcha kislorodda yondirilganda 32 ml karbonat angidrit hosil bo'ladi. Aralashmadagi metanning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 80 B) 40 C) 60 D) 50 E) 35

2. (97-9-26) Organik moddalar tuzilishi nazariyasiga mos keluvchi javoblarni ko'rsating:
1) molekuladagi atomlar valentliklariga mos ravishda ma'lum izchillikda bog'langan;
2) moddaning xossasi faqat uning sifat va miqdoriy tarkibiga bog'liq; 3) moddaning xossasi uning tarkibidagina emas, tuzilishiga ham bog'liq; 4) molekuladagi atomlar o'zaro ta'sir etadi; 5) molekuladagi har bir atomning xossasi qo'shni atom tabiatiga bog'liq emas.
A) 2, 4, 5 B) 1, 2, 3 C) 1, 3, 5
D) 1, 3, 4 E) 1, 2, 4

3. (97-10-67) Hajmi 195 ml bo'lgan benzoldan (ρ = 0,8 g/sm^3) olingan fenol bilan reaksiyaga kirisha oladigan 40% li natriy gidroksid eritmasining massasi necha grammga teng? [$M_r(C_6H_6OH)$ = 94, $M_r(NaOH)$ = 40]
A) 200 B) 250 C) 210
D) 220 E) 225

4. (98-2-26) Propen, eten yoki 2-metilpropenlarning qaysi biriga vodorod bromidning birikishi osonroq bo'ladi?
A) propenga
B) etenga
C) 2-metilpropenga
D) hammasiga bir xil birikadi
E) reaksiya sodir bo'lmaydi

5. (98-7-43) 11,4 g 2,2,4-trimetilpentan to'liq yondirilganda hosil bo'lgan uglerod (IV) oksidni yuttirish uchun NaOH ning 10% li eritmasidan (ρ = 1,1 g/sm^3) qancha millilitr kerak bo'ladi (eritmada nordon tuz hosil bo'ladi)? [$M_r(Na)$ = 3, $M_r(C)$ = 12, $M_r(O)$ = 16]
A) 291 B) 360 C) 306
D) 309 E) 285

6. (98-7-47) Molekulasida alkil radikali bo'lgan 13,8 g aromatik uglevodorod kaliy permanganat bilan qizdirib, ozgina kislota qo'shilgach, "A" modda olindi. "A" moddani neytrallash uchun natriy gidroksidning 20% li eritmasidan 30 g kerak bo'ldi. Boshlang'ich aromatik uglevodorodni aniqlang.
[$M_r(K)$ = 39, $M_r(Mn)$ = 55, $M_r(O)$ = 16, $M_r(Na)$ = 23]
A) $C_6H_5C_3H_7$ B) $C_6H_5C_2H_5$
C) $C_6H_5CH_3$ D) $C_6H_5C_4H_9$
E) $C_6H_5(CH_3)_2$

7. (98-7-49) Organik birikma 6,5 g rux kukuni bilan qizdirilib, 7,8 g benzol va 8,1 g rux oksid hosil qilindi. Dastlabki olingan organik modda spirtlar sinfiga kirsa, qaysi modda reaksiya uchun olingan bo'ladi?
A) benzil spirt B) fenol
C) gidroxinon D) rezorsin
E) β-etil-fenil spirt

8. (98-7-55) 62,4 g benzoldan brombenzol olishda ajralib chiqadigan gazni neytrallash uchun 10% li natriy gidroksid eritmasidan (ρ = 1,1 g/sm^3) necha millilitr sarf bo'ladi? [$M_r(Br)$ = 80, $M_r(Na)$ = 23, $M_r(O)$ = 16]
A) 145 B) 291 C) 185
D) 370 E) 160

9. (98-8-56) Necha litr (n. sh.) metandan reaksiya unumi 0,75 bo'lgan holatda 0,06 mol benzol olish mumkin?
A) 10,7 B) 6,72 C) 8,2
D) 11,2 E) 7,84

10. (98-10-29) 2 mol chumoli kislota, 282 g fenol va 57,5 ml etanol (ρ = 0,8 g/sm^3) aralashmasini neytrallash uchun 20% li natriy gidroksid eritmasidan necha gramm talab etiladi?
A) 1200 B) 600 C) 800
D) 1000 E) 1600

11. (98-11-47) 84,8 g etilbenzol degidrogenlanganda (unumi 80%) olingan stirol 4% li bromning uglerod tetraxloriddagi eritmasining qancha massasini rangsizlantiradi? $M_r(C_8H_{10})$ = 106, $M_r(Br_2)$ = 160
A) 256 B) 2560 C) 512
D) 1280 E) 1024

12. (99-5-43) Fenol, anilin va benzoldan iborat 50 g aralashmaga ishqor eritmasi bilan ishlov berilganda aralashma massasi 4,7 g ga kamaydi. Qolgan aralashmaga xlorid kislota qo'shib chayqatilganda aralashma massasi yana 9,3 g ga kamaydi. Aralashmadagi moddalarning yuqoridagi tartibdagi tarkibiy qismini (%) aniqlang.
A) 8,93; 17,67; 73,4
B) 9,40; 18,60; 72,00
C) 10,06; 19,90; 70,04
D) 7,99; 15,81; 76,2
E) 10,25; 20,27; 69,48

13. (99-8-6) Metanol va propanoldan iborat 15,2 g aralashmaga natriy metali ta'sir etishidan 3,36 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Dastlabki aralashmadagi spirtlarning massalarini hisoblab toping.
A) 3,2 metanol va 12,0 propanol
B) 12,0 metanol va 3,2 propanol
C) 6,4 metanol va 8,8 propanol
D) 4,8 metanol va 10,4 propanol
E) 10,4 metanol va 4,8 propanol

14. (99-9-13) Massalari 46 g bo'lgan etil spirt va 60 g sirka kislota orasidagi reaksiya mahsulotiga konsentratsiyasi 7 mol/l bo'lgan ishqor eritmasining 50 g miqdori qo'shildi. Hosil bo'lgan aralashma bug'latildi va qattiq qoldik, kuydirildi. Qolgan qoldiqdagi moddalarning massa ulushlarini hisoblang.
A) $\omega(NaOH)$ = 26,1%, $\omega(CH_3COONa)$ = 74,9%
B) $\omega(NaOH)$ = 45,3%, $\omega(CH_3COONa)$ = 54,7%
C) $\omega(NaOH)$ = 36,1%, $\omega(Na_2CO_3)$ = 63,9%
D) $\omega(NaOH)$ = 42,2%, $\omega(CH_3COONa)$ = 57,8%
E) $\omega(NaOH)$ = 41,3%, $\omega(Na_2CO_3)$ = 58,7%

15. (99-9-16) Benzil spirt, krezol va fenol aralashmasining 4,18 g miqdoriga mo'l miqdordagi kaliy ta'sirida 448 ml (n. sh.) gaz ajralib chiqqan. Boshlang'ich aralashmadagi fenolning massa ulushini hisoblang.
A) 22,3 B) 23,2 C) 25,5
D) 25,2 E) 22,5

16. (00-4-48) Benzol, siklogeksan va siklogeksen aralashmasi katalitik degidrogenlanganda, 23,4 g benzol va 11,2 l (n. sh.) vodorod ajratib olingan. Boshlang'ich aralashma 16 g bromni biriktirib olishi ma'lum bo'lsa, undagi benzolning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 34,42 B) 31,97 C) 33,61
D) 35,41 E) 30,87

17. (00-6-12) Hajmi 250 ml bo'lgan kumol (ρ = 0,86 g/ml) dan quyidagi:

kumol $\xrightarrow{H_2SO_4}$ X + CH_3COCH_3 sxema bo'yicha olingan X mahsulot bilan qanday massa (g) dagi 45% li natriy ishqor eritmasi reaksiyaga kirishadi?
A) 135,6 B) 172 C) 140,4
D) 150,2 E) 130,2

18. (00-6-13) Hajmi 316,3 ml (ρ = 0,86 g/ml) bo'lgan kumoldan quyidagi sxema bo'yicha olingan X mahsulot bilan reaksiyaga kirishishi talab etiladigan bromli suvni tayyorlash uchun bromning qanday massasi (g) talab etiladi?

kumol $\xrightarrow{[O]}$ X + CH_3COCH_3
A) 960 B) 320 C) 1056
D) 640 E) 910,6

19. (00-6-32) Massasi 351,3 g bo'lgan 1-xlor-1-feniletan spirtli va kaliy gidroksid eritmasining o'zaro reaksiyasi natijasida qanday modda, qancha miqdorda (g) hosil bo'ladi? Reaksiya turini aniqlang.
A) 1-feniletanol-1; 259,9; o'rin olish
B) fenilatsetilen; 217,3; ajralish
C) stirol; 260; ajralish
D) 1-feniletanol-1; 259,9; ajralish
E) vinilbenzol; 260; o'rin olish

20. (00-7-12) Metan va metilamin aralashmasini xlorid kislota eritmasi orqali o'tkazilganda gazlar hajmi ikki marta kamaygan. Boshlang'ich aralashmadagi metanning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 25 B) 34 C) 68
D) 17 E) 51

21. (00-7-13) Etan va metilamin aralashmasini xlorid kislota eritmasi orqali o'tkazilganda gazlar hajmi 1/3 marta kamaygan bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi etanning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 56 B) 33 C) 66
D) 76 E) 88

22. (00-9-26) 70 ml benzolda massasi 1,8 g bo'lgan naftalin eritildi. Benzolning zichligi 0,88 g/sm^3. Naftalinning eritmadagi massa ulushini (%) hisoblang.
A) 2,84 B) 1,50 C) 0,82
D) 2,21 E) 2,50

23. (01-1-48) Massasi 19,6 g bo'lgan natriy atsetat va unga nisbatan mo'l miqdorda olingan natriy gidroksid aralashmasi qizdirilganda hosil bo'lgan gaz modda nur ta'sirida mo'l miqdordagi xlor bilan reaksiyaga kirishgan. Reaksiya unumi 75% bo'lganda hosil bo'lgan mahsulot 11,55 g bo'lgan. Boshlang'ich aralashmadagi natriy atsetatning massa ulushini hisoblang.
A) 31,4 B) 41,8 C) 58,2
D) 68,6 E) 71,2

24. (01-1-49) Hajmi 11,2 l (n. sh.) bo'lgan gaz holdagi alkanning xlorlanishi natijasida hosil bo'lgan vodorod xloridni neytrallash uchun natriy gidroksidning 10% li eritmasidan (ρ = 1,1 g/ml) 727,3 ml sarf bo'lgan. Boshlang'ich alkan molekulasidagi vodorod atomlarining nechtasi xlor bilan o'rin almashganligini hisoblang.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) 5

25. (01-1-51) Metan va propan aralashmasining 16,8 l (n. sh.) to'la yonish mahsuloti ohakli suvga yuttirildi. Natijada 175 g cho'kma hosil bo'lgan. Boshlang'ich aralashmadagi gazlar hajmlarini aniqlang.
A) 8,96; 7,84 B) 7,84; 8,96
C) 8,4; 8,4 D) 5,2; 11,6
E) 5,6; 11,2

26. (01-4-77) Qancha natriy gidroqsid hamda stearin kislota glitserinidan 100 kg natriy stearat hosil qilish mumkin? Stearin kislota glitserini (kg):
1) 97; 2) 107,8; 3) 9,6 natriy gidroksid (kg); 4) 140; 5) 1,4; 6) 13,3.
A) 1, 4 B) 2, 6 C) 1, 6
D) 3, 4 E) 3, 5

27. (01-4-105) A modda natriy metali, o'yuvchi natriy va natriy karbonat eritmalari bilan reaksiyaga kirishib, bir xil B modda hosil qildi. B modda gidrolizga uchrab, uning eritmasiga fenolftaleinning bir tomchisi tomizilsa, tezda binafsha rangga o'tadi. A va B lar qanday moddalar?
A) fenol, natriy alkogolyat
B) etil spirt, natriy etilat
C) fenol, natriy etilat
D) etil spirt, natriy alkogolyat
E) fenol, natriy fenolyat

28. (01-4-117) Butan, pentan va butendan iborat 5,6 l (n. sh.) gazlar aralashmasi 12 g brom bilan reaksiyaga kirishdi. Gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 29,4 ga teng. Aralashmaning foizlar bilan ifodalangan tarkibini aniqlang.
A) 65; 10; 25 B) 50; 20; 30
C) 60, 30, 10 D) 50; 30; 20
E) 60; 10; 30

29. (01-5-11) Massasi 19,3 g bo'lgan sirka va propion aldegidlari aralashmasini katalitik gidrogenlaganda, 8,06 l (n. sh.) vodorod sarf bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi sirka aldegidining massa ulushini (%) aniqlang?
A) 15 B) 25 C) 23
D) 26 E) 21

30. (01-5-12) N. sh. da CO, CH_4 va C_2H_2 lardan iborat 13,44 l gazlar aralashmasi yondirilganda, 17,92 l CO_2 va 9 g suv hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi har bir gaz necha litrdan bo'lgan?
A) 5,60 (CO); 3,36 (CH_4); 4,48 (C_2H_2)
B) 3,36 (CH_4); 4,48 (CO); 5,60 (C_2H_2)
C) 3,36 (CO); 5,60 (CH_4); 4,48 (C_2H_2)
D) 5,0 (CO); 3,44 (CH_4); 5,0 (C_2H_2)
E) 3,44 (CO); 5,0 (CH_4); 5,0 (C_2H_2) .

31. (01-6-46) Benzol, fenol va anilinning 10 g aralashmasiga HCl gazi yuborilganda 2,59 g cho'kma tushdi. Cho'kmani filtrlab olgandan so'ng filtratga NaOH eritmasi ta sir ettirilsa, organik qavatning massasi 4,7 g ga kamaydi. Dastlabki aralashmadagi benzolning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 29,2 B) 34,4 C) 35,7
D) 25,3 E) 38,7

32. (01-6-48) 13,7 g penten-1, izopren va 3-yetilbutin-1 aralashmasiga qorong'ida Br_2 ta'sir ettirilganda, 69,7 g bromli mahsulotlar olindi. Dastlabki aralashmadagi pentanning massa ulushini aniqlang.
A) 0,843 B) 0,389 C) 0,526
D) 0,617 E) 0,254

33. (01-6-69) Zichligi 0,9 g/ml bo'lgan 9,4% li fenolning benzoldagi eritmasiga natriy metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqqan vodorod 1,12 l atsetilenni to'liq katalitik gidrogenlashga yetarli bo'lishi uchun qancha hajm eritma reaksiyaga kirishishi kerak?
A) 180 B) 263 C) 231
D) 255 E) 222

34. (01-7-23) Tarkibida 3 M sirka kislota bo'lgan eritma orqali 3 litr ammiak o'tkazilgan. Reaksiya mahsuloti gidrolizda qatnashmaydi deb qabul qiling. Reaksiyadan keyingi eritma necha gramm kalsiy karbonat bilan reaksiyada qatnashadi?
A) 100,5 B) 140,6 C) 143,3
D) 125,6 E) 130,0

35. (01-7-24) Chumoli va sirka kislotalar aralashmasi konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida 100% li 46 ml etanol ($\rho = 0,8$) bilan reaksiyaga kirishib, 64,8 g murakkab efirlar aralashmasi olingan mahsulotlarning miqdoriy tarkibini aniqlang.
A) 36 va 28,8 B) 28,3 va 36,5
C) 57,8 va 7 D) 49,8 va 15
E) 56 va 8,8

36. (01-7-32) Sirka va chumoli kislotalar aralashmasining 24,4 g massasiga 10% li ($\rho = 1,1$ g/ml) natriy ishqorning eritmasidan 227,3 ml qo'shildi. Ortib qolgan ishqor 2,8 l CO_2 bilan reaksiyasi natijasida nordon tuz hosil qilindi. Boshlang'ich aralashmaning miqdoriy tarkibi qanday bo'lgan?
A) 0,4 va 0,2 B) 0,4 va 0,1
C) 0,1 va 0,4 D) 0,05 va 0,5
E) 0,075 va 0,35

37. (02-11-52) Metilamin, etilamin va metan aralashmasining 19,04 l hajmi (n. sh.) yondirilganda, 8,4 l N_2, 30,24 l CO_2 hosil bo'lgan. Aralashmadagi etilaminning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 47,2 B) 46,3 C) 59,4
D) 58,8 E) 55,6

38. (03-2-20) Sirka kislotaning 15% li suvdagi eritmasining 200 g miqdoriga 23 g natriy metali tashlandi. So'ngra eritma bug'latildi va qoldiq qattiq qizdirildi. Ajralib chiqqan gazning n. sh. dagi hajmini (l) toping.
A) 5,6 B) 11,2 C) 22,4
D) 67,2 E) 44,8

39. (03-2-21) Sirka kislotaning 7,5% li suvdagi eritmasining 200 g miqdoriga 23 g natriy metali tashlandi. So'ngra eritma bug'latildi va qoldiq qattiq qizdirildi. Natijada hosil bo'lgan qoldiqning tarkibini (% larda) aniqlang.
A) ω (Na_2CO_3) = 100
B) ω (NaOH) = 43; ω (CH_3COONa) = 57
C) ω (NaOH) = 43; ω (Na_2CO_3) = 57
D) ω (Na_2CO_3) = 43; ω (NaOH) = 57
E) ω (Na_2CO_3) = 57; ω (CH_3COONa) = 43

40. (03-4-10) Etilen va tetradeyteroetilendan iborat 10 l aralashma (n. sh. da) 12,9 g keladi. Aralashma tarkibidagi moddalarning hajmini (l) toping.
A) 7,76 va 2,24 B) 3,88 va 6,12
C) 9,44 va 0,56 D) 5,6 va 4,4
E) 3 va 7

41. (03-5-52) Benzol va toluolning zichligi 20°C da 0,879 va 0,867 g/ml ga teng. 0,7 l benzol va 0,8 l toluol aralashtirilgan bo'lsa, olingan eritmadagi har bir moddaning mol ulushlarini hisoblang.
A) 0,44; 0,56 B) 0,51; 0,49
C) 0,61; 0,39 D) 0,72; 0,28
E) 0,81; 0,19

42. (03-7-27) Sirka kislotaning 6% li 200 g miqdordagi eritmasiga 9,2 g natriy bo'lakchalari tashlandi. Eritma bug'latildi va qoldiq qattiq qizdirildi. Ushbu jarayonlar natijasida ajralib chiqqan gazlarning umumiy hajmini toping.
A) 4,48 B) 2,24 C) 6,72
D) 5,6 E) 8,96

43. (03-12-39) 20 ml yonuvchi gaz yondirilganda, 50 ml kislorod sarflanadi. Shunday gazning yonishi natijasida esa 40 ml karbonat angidrid bilan 20 ml suv bug'i hosil bo'ldi. Gazning molekulyar formulasini aniqlang.
A) C_2H_2 B) C_2H_4 C) C_2H_6
D) C_3H_6 E) C_3H_8

44. (04-1-817) Massasi 1,06 g bo'lgan o-ksilol yonishidan hosil bo'lgan gaz o'yuvchi natriyning 10% li 80 g eritmasidan o'tkazildi. Reaksiya natijasida qanday moddadan necha gramm hosil bo'ladi va qaysi moddadan necha gramm ortib qoladi?
A) $NaHCO_3$; 16,8; ortmaydi
B) Na_2CO_3; 21,2; NaOH; 0,1
C) Na_2CO_3; 10,6; CO_2; 30,8
D) Na_2CO_3; 8,48; NaOH; 0,04
E) Na_2CO_3; 8,48; NaOH; 1,5

45. (04-1-819) Benzol va stirol aralashmasi massa ulushi 0,032 bo'lgan 500 g bromli suvni rangsizlantiradi. Aralashmaning xuddi shuncha miqdori yondirilganda 44,8 l (n. sh.) karbonat angidrid hosil bo'ladi. Aralashmadagi benzolning massa ulushini toping.
A) 66,66 B) 44,44
C) 56,00 D) 33,33
E) 60,00

46. (v4-103-33) Propan va metilaminning aralashmasi yetarli miqdordagi kislorodda yondirilganda hosil bo'lgan 168 l (n. sh.) gazlar aralashmasining 13,34 hajmiy foizini N_2 tashkil etsa, dastlabki aralashmaning massasi necha gramm bo'lgan?
A) 157 B) 128 C) 216
D) 106 E) 118

47. (v4-110-30) Piridin bilan benzolning 20 g aralashmasiga xlorid kislota ta'sir ettirilganda, 15 g tuz hosil bo'ldi. Aralashmadagi benzolning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 35 B) 42,87 C) 48,7
D) 45 E) 50

48. (v4-122-29) Zichligi 0,9 bo'lgan 10% li kaliy gidroksidning spirtdagi eritmasining qanday hajmi (ml) 1-xlorpropandan 24,9 g propen olishga imkon beradi?
A) 480 B) 280 C) 1120
D) 369 E) 560

49. (v5-102-31) 31,8 g o-ksilolni yoqish natijasida ajralib chiqqan uglerod (IV) oksidni o'yuvchi natriyning 30% li ($\rho = 1,25$ g/ml) 512 ml eritmasi orqali o'tkazildi. Hosil bo'lgan tuzni va uning massasini (g) aniqlang.
A) $NaHCO_3$, 403,2
B) $NaHCO_3$, 420,8
C) $NaCO_3$, 201,6
D) Na_2CO_3, 254,4
E) Na_2CO_3, 508,8

50. (v5-103-31) Fenol va sirka kislotasidan iborat aralashmani neytrallash uchun kaliy gidroksidning 13% li ($\rho = 1,12$ g/ml) eritmasidan $0,577 \cdot 10^2$ ml sarflandi. Xuddi shunday tarkibga ega bo'lgan ikkinchi aralashmaga bromli suv ta'sir ettirilganda 33,1 g cho'kma hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashma tarkibidagi komponentlarning massalarini (g) aniqlang.
A) 10,5; 4,9 B) 7,6; 3,3
C) 8,2; 4,6 D) 9,4; 3,0
E) 9,7; 2,1

51. (v5-104-16) 23,6 g natriy propionat n o'l miqdordagi natriy ishqori bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida olingan mahsulot oldiniga quyosh nuri ta'sirida (l bosqichda) xlorlanganda, so'ngra natriy metalli bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan moddaning hajmi ... l (n. sh.) bo'ladi.
A) 4,4 B) 3,9 C) 2,7
D) 1,9 E) 3,1

52. (v5-105-32) 16,6 g etanol va propanol aralashmasiga Na metalli ta'sir ettirilganda 3,36 l (n. sh.) vodorod ajralib chiqdi. Dastlabki aralashmadagi spirtlarning massalarini (g) aniqlang.
A) 6,4; 10,2 B) 4,6; 12
C) 5,6; 11 D) 11,2; 4,6
E) 6,6; 10

53. (v5-107-34) Pikrin kislota olish uchun zichligi 1,49 g/ml, 94% li nitrat kislotadan 90,1 ml sarflangan bo'lsa, reaksiya uchun olingan fenolning massasi (g) – ... .
A) 94 B) 78 C) 125
D) 63 E) 86

54. (v5-109-32) Metanol va etil spirtdan iborat 7,8 g aralashmani yoqish uchun 7,84 l kislorod sarflandi. Aralashmadagi etanolning massa ulushini (%) toping.
A) 59 B) 46 C) 62
D) 51 E) 39

55. (v5-110-31) 50,4 g siklogeksanni katalizator (Pt) ishtirokida qizdirib (300°C) olingan aromatik uglevodorodga oldiniga katalizator ($FeCl_3$) ishtirokida brom, so'ngra t°, p bilan natriy ishqori ta'sir ettirilganda ... olinadi.
A) 78,8 g fenol
B) 46,7 g fenol
C) 34,7 g benzoy kislota
D) 59 g 2,4,6-tribromtoluol
E) 56,4 g karbol kislota

56. (v5-112-34) Anilin va fenoldan iborat 4,67 g aralashmani neytrallash uchun kaliy gidroksidning 2,24% li ($\rho = 1,02$ g/ml) eritmasidan 49,02 ml sarflandi. Boshlang'ich aralashma tarkibidagi anilin va fenolning massalarini (g) hisoblang.
A) 3,80; 0,87 B) 2,46; 2,21
C) 2,79; 1,88 D) 3,17; 1,50
E) 3,37; 1,30

57. (v5-113-31) 80 g geptan xrom (III) oksid ishtirokida qizdirilganda hosil bo'lgan aromatik birikma konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi bilan reaksiyaga kirishib tarkibida 18,5% azot tutgan ... g portlovchi modda hosil bo'ladi.
A) 100 B) 156,7 C) 181,6
D) 127,5 E) 227,3

58. (v5-116-32) Etilatsetat va etilformiatdan iborat 5,6 g aralashmani gidrolizlash uchun natriy gidroksidning 10% li ($\rho = 1,08$ g/sm^3) eritmasidan 25,96 ml sarflandi. Boshlang'ich aralashma tarkibidagi etilformiat massasini (g) toping.
A) 3,12 B) 3,05 C) 2,96
D) 2,47 E) 2,08

59. (v5-117-34) 3,9 kg benzolga nitrolovchi aralashma ta'sir ettirilganda nitrobenzol va tarkibida 65% H_2SO_4, 11% HNO_3 va 24% H_2O bo'lgan 7,75 kg kislotali eritma hosil bo'ldi. Nitrolovchi aralashma tarkibida qancha (kg) nitrat kislota bo'lganligini hisoblab toping.
A) 2 B) 6 C) 4
D) 5 E) 3

60. (v5-118-36) 38 g natriy propionat va unga nisbatan mo'l miqdorda olingan NaOH aralashmasi qizdirilganda hosil bo'lgan gaz modda quyosh nuri ta'sirida xlor bilan reaksiyaga kirishib monogaloidli birikma hosil qilgan. Olingan mahsulot natriy metali bilan ta'sirlashib (reaksiya unumi 60%) 4,08 g mahsulot hosil bo'lgan bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi NaOH ning massa ulushi ... %.
A) 40,76 B) 70,54 C) 59,24
D) 29,46 E) 24,7

61. (v5-119-30) 6,5 g atsetilenning to'la yonishi uchun necha litr (n. sh.) kislorod sarf bo'ladi? Ajralib chiqqan CO_2 ni Na_2CO_3 ga to'la o'tkazish uchun 25% li NaOH eritmasidan necha gramm kerak?
A) 11,2; 88 B) 14; 152
C) 14; 160 D) 89,6; 160
E) 112; 80

62. (v5-122-30) Metilatsetilen va propan aralashmasi bromli suv solingan idish orqali o'tkazilganda, idishning og'irligi 4 g ga ortadi. O'shancha miqdordagi aralashmani yondirish uchun 212,8 l (n. sh.) havo (φ_{O_2} = 0,2) sarflandi. Dastlabki aralashmadagi propanning massa ulushi (%) – ... .
A) 67,9 B) 69,3 C) 53,26
D) 76,7 E) 89,7

63. (v5-122-36) Karbol kislota va anilindan iborat aralashma natriy gidroksidning 5% li 40 g eritmasi bilan reaksiyaga kirishdi. Xuddi shunday tarkibga ega bo'lgan ikkinchi aralashma 0,9 mol brom bilan to'liq reaksiyaga kirishdi. Berilgan aralashma tarkibida qancha (mol) anilin bo'lgan?
A) 1,05 B) 0,55 C) 0,25
D) 0,05 E) 0,09

64. (v5-123-31) Tarkibida fenol va sirka kislota bo'lgan 250 g suvli eritmani neytrallash uchun natriy gidroksidning 12% li (ρ = 1,12 g/sm^3) eritmasidan 44,63 ml sarflandi, xuddi shunday tarkibga ega bo'lgan ikkinchi eritmaga mo'l miqdorda olingan bromli suv ta'sir ettirilganda 16,55 g cho'kma hosil bo'ldi. Dastlabki aralashma tarkibida massa jihatdan qancha (%) kislota bo'lganligini aniqlang.
A) 3,6 B) 3,1 C) 2,4
D) 4,7 E) 1,9

159. (v13-114-1) Massasi 15,5 g gaz holdagi uglevodorod kripton bilan aralashtirildi. Natijada aralashmada kriptonning hajmiy ulushi 30% bo'ldi. Aralashma 11,2 litrli idishda 110 kPa va 24°C haroratda turgan bo'lsa, uglevodorodni toping.
A) C_2H_6 B) C_4H_8
C) C_4H_{10} D) C_3H_8

160. (v13-116-23) Massasi 244,2 g bo'lgan bir atomli to'yingan spirt namunasidagi barcha atomlar miqdori 49,5 mol bo'lsa, spirtni toping.
A) etanol B) propanol
C) butanol D) metanol

161. (v13-118-15) 12,1 g aldegid yangi tayyorlangan 68,6 g $Cu(OH)_2$ eritmasi bilan ta'sirlashdi. Hosil bo'lgan cho'kma ajratib olinib, qizdirilganda 51,6 g qoldiq olingan bo'lsa, noma'lum aldegidni aniqlang.
A) C_3H_7CHO B) HCHO
C) C_2H_5CHO D) CH_3CHO

162. (v13-119-29) Massasi 220 g bo'lgan bir atomli to'yingan spirt namunasidagi barcha atomlar miqdori 45 mol bo'lsa, spirtni toping.
A) butanol B) propanol
C) pentanol D) metanol

163. (v13-120-26) 12 g aldegid yangi tayyorlangan 98 g $Cu(OH)_2$ eritmasi bilan ta'sirlashdi. Hosil bo'lgan cho'kma ajratib olinib, qizdirilganda 73,6 g qoldiq olingan bo'lsa, noma'lum aldegidni aniqlang.
A) CH_3CHO B) C_3H_7CHO
C) HCHO D) C_2H_5CHO

164. (v13-121-35) 11,6 g aldegid yangi tayyorlangan 58,8 g $Cu(OH)_2$ eritmasi bilan ta'sirlashdi.
Hosil bo'lgan cho'kma ajratib olinib, qizdirilganda 44,8 g qoldiq olingan bo'lsa, noma'lum aldegidni aniqlang.
A) $C_6H_{13}CHO$
B) $C_5H_{11}CHO$
C) C_3H_7CHO
D) C_2H_5CHO

165. (v13-123-22) Massasi 15,5 g gaz holdagi uglevodorod kripton bilan aralashtirildi. Natijada aralashmada kriptonning hajmiy ulushi 20% bo'ldi. Aralashma 10 litrli idishda 110 kPa va 28°C haroratda turgan bo'lsa, uglevodorodni toping.
A) C_2H_6 B) C_3H_6
C) C_3H_4 D) C_3H_8

166. (v13-123-28) 81,9 g ko'p atomli to'yingan spirt tarkibida 43,2 g kislorod bo'lsa, spirtni toping.
A) $C_2H_4(OH)_2$ B) $C_6H_8(OH)_6$
C) $C_5H_9(OH)_3$ D) $C_5H_{10}(OH)_2$

167. (v13-126-11) Massasi 79,2 g bo'lgan bir atomli to'yingan aldegid namunasidagi barcha atomlar miqdori 12,6 mol bo'lsa, aldegidning formulasini toping.
A) propanal B) metanal
C) butanal D) etanal

168. (v13-126-16) 203 g bir atomli to'yingan aldegid molekulasi tarkibida 35 mol atom bo'lsa, noma'lum aldegidni toping.
A) propanal B) metanal
C) butanal D) etanal

169. (v13-127-22) 37,67 g ko'p atomli to'yingan spirt tarkibida 17,72 g kislorod bo'lsa, spirtni toping.
A) $C_5H_8(OH)_4$ B) $C_6H_8(OH)_6$
C) $C_5H_{10}(OH)_2$ D) $C_3H_5(OH)_3$

170. (v13-135-18) 276 g bir atomli to'yingan karbon kislota molekulasi tarkibida 30 mol atom bo'lsa, noma'lum karbon kislotani toping.
A) butan kislota B) metan kislota
C) etan kislota D) pentan kislota

171. (v13-136-18) 34,4 g alkanni ftorli hosilasi tarkibida 28 g ftor bo'lsa, shu moddaning formulasini aniqlang.
A) C_2H_5F B) $C_2H_4F_2$
C) CHF_3 D) $C_2H_2F_4$

172. (v13-143-5) 180 g bir atomli to'yingan aldegid molekulasi tarkibida 24 mol atom bo'lsa, noma'lum aldegidni toping.
A) propanal B) metanal
C) butanal D) etanal

173. (v13-144-30) Noma'lum organik modda tarkibida 21,62% kislorod bor. U natriy metali bilan sekin reaksiyaga kirishadi, vodorod xlorid bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi, yonganda esa faqat karbonat angidrid va suvni hosil qiladi, sulfat kislota ishtirokida kaliy permanganat bilan oksidlansa, ikki xil organik birikmaga aylanadi. Organik birikma tarkibida faqat bir atom kislorod borligini e'tiborga olib, uning nomini aniqlang.
A) metizopropil efiri B) uchlamchi butil spirti
C) butanol-2 D) dietil efir

174. (v13-150-18) 198 g bir atomli to'yingan aldegid molekulasi tarkibida 31,5 mol atom bo'lsa, noma'lum aldegidni toping.
A) butanal B) propanal
C) etanol D) etanal

175. (v13-150-35) 30 g bir atomli to'yingan spirt molekulasida 9 mol atom bo'lsa, noma'lum spirtni toping.
A) $C_7H_{15}OH$ B) C_2H_5OH
C) $C_6H_{13}OH$ D) C_4H_9OH

176. (v13-152-33) 110 g bir atomli to'yingan aldegid molekulasi tarkibida 17,5 mol atom bo'lsa, noma'lum aldegidni toping.
A) propanal B) etanal
C) etanol D) metanal

177. (v13-154-5) 180 g bir atomli to'yingan karbon kislota molekulasi tarkibida 24 mol atom bo'lsa, noma'lum karbon kislotani toping.
A) metan kislota B) propan kislota
C) etan kislota D) butan kislota

178. (v13-163-12) 128 g bir atomli to'yingan spirt molekulasida 24 mol atom bo'lsa, noma'lum spirtni toping.
A) C_3H_7OH B) C_4H_9OH
C) CH_3OH D) C_2H_5OH

179. (v13-167-3) 32 g alkanni ftorli hosilasi tarkibida 15,2 g ftor bo'lsa, shu moddaning formulasini aniqlang.
A) $C_4H_8F_2$ B) $C_4H_7F_3$
C) C_3H_7F D) $C_3H_6F_2$

180. (v14-101-3) Tarkibida H ning massa ulushi 8,1% bo'lgan bir asosli to'yingan karbon kislota tarkibidagi kislorodning massa ulushini (%) va uning 1 mol butil efiridagi uglerod atomlari sonini toping.
A) 56,7; $4{,}214 \cdot 10^{24}$
B) 56,7; $18{,}06 \cdot 10^{23}$
C) 43,3; $4{,}214 \cdot 10^{24}$
D) 43,3; $4{,}214 \cdot 10^{23}$

181. (v14-101-15) 10% li KOH eritmasining 28 grami bir asosli karbon kislotaning metil efiri bilan qizdirildi. Reaksiya so'ngida eritma bug'latildi va tarkibida 10% KOH bo'lgan 5,6 g qattiq modda olindi. Gidroliz uchun olingan moddani va uning massasini (g) aniqlang.
A) metilbutanoat, 3,06
B) metilbutanoat, 4,08
C) metilpropionat, 3,82
D) metilpropionat, 2,19

182. (v14-101-31) 36 g Grinyar reaktivi (RMgI) gidroliz qilinganda 6 g alkan hosil bo'lsa, qanday magniyli organik birikma ishlatilgan?
A) C_2H_5MgI B) C_3H_7MgI
C) CH_3MgI D) C_4H_9MgI

183. (v14-101-33) Benzol gomologining olti grammi nitrolanganda umumiy massasi 8,25 g bo'lgan to'rtta mononitrohosilalar aralashmasi olindi. Gomolog nomini aniqlang.
A) izopropilbenzol
B) 1-metil-2-etilbenzol
C) o-ksilol
D) 1-metil-3-etilbenzol

184. (v14-119-5) Tarkibida H ning massa ulushi 4,35% bo'lgan bir asosli to'yingan karbon kislota tarkibidagi kislorodning massa ulushini (%) va uning 1 mol propil efiridagi uglerod atomlari sonini toping.
A) 69,55; $2{,}408 \cdot 10^{24}$
B) 30,45; $24{,}08 \cdot 10^{24}$
C) 69,55; $2{,}408 \cdot 10^{23}$
D) 22,3; $6{,}02 \cdot 10^{24}$

185. (v15-101-4) Alkenga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 7,85 g monoxloralkan, bromid kislota ta'sir ettirilganda esa 12,3 g monobromalkan hosil bo'ladi. Alkenni toping.
A) C_5H_{10} B) C_2H_4
C) C_4H_8 D) C_3H_6

186. (v15-102-10) Dibromalkanga o'yuvchi kaliyning spirtdagi eritmasi ta'sir ettirilganda 71,4 g kaliy bromid olindi. Agar dastlabki dibromalkanning hosil bo'lgan alkindan massa farqi 70,2 g ga teng bo'lsa, alkinni toping. (η = 75%)
A) C_5H_8 B) C_2H_2 C) C_4H_6 D) C_3H_4

187. (v15-103-31) Dibromalkanga o'yuvchi kaliyning spirtdagi eritmasi ta'sir ettirilganda 35,7 g kaliy bromid olindi. Agar dastlabki

dibromalkanning hosil bo'lgan alkindan massa farqi 35,1 g ga teng bo'lsa, alkinni toping. (η = 75%)
A) C_4H_6 B) C_5H_8 C) C_3H_4 D) C_2H_2

188. (v15-104-32) To'yingan uglevodorod yonishi natijasida hosil bo'lgan suvning massasi boshlang'ich uglevodorod massasidan 1,5 marta ko'p bo'lsa. uglevodorodni toping.
A) etan B) pentan
C) propan D) butan

189. (v15-107-12) Dibromalkanga rux metalli ta'sir ettirilganda 45 g rux bromid olindi. Agar dastlabki dibromalkanning hosil bo'lgan alkendan massa farqi 41,4 ga teng bo'lsa, alkenni toping. (η = 80%)
A) C_4H_8 B) C_2H_4 C) C_5H_{10} D) C_3H_6

190. (v15-108-18) Noma'lum alkenning 12 litrini to'liq yoqish uchun 75 litr ozon-kislorod aralashmasi ($\varphi_{(O_2)}$ = 60%) sarflandi. Noma'lum alkenni toping.
A) penten B) propen
C) eten D) buten

191. (v15-112-8) $0{,}472 \cdot 10^2$ g to'yingan dikarbon kislota mol miqdordagi natriy gidroksid eritmasidan o'tkazilganda hosil bo'lgan tuz massasi dastlabki kislota massasidan 1,4 g ga ko'p bo'lsa, kislotani toping. (η = 75%).
A) glutar kislota B) qahrabo kislota
C) adipin kislota D) oksalat kislota

192. (v15-112-29) Noma'lum to'yingan aldegidning 0,25 moli oksidlanishidan olingan karbon kislota massasi shu aldegidning 0,5 moli yonishidan hosil bo'lgan karbonat angidrid massasidan 10,5 g ga kam bo'lsa, aldegidni aniqlang.
A) moy aldegid B) propion aldegid
C) chumoli aldegid D) sirka aldegid

193. (v15-114-18) Dibromalkanga rux metalli ta'sir ettirilganda 31,5 g rux bromid olindi. Agar dastlabki dibromalkanning hosil bo'lgan alkendan massa farqi 34,52 ga teng bo'lsa, alkenni toping. (η = 70%)
A) C_4H_8 B) C_5H_{10} C) C_2H_4 D) C_3H_6

194. (v15-115-25) Tarkibida 16,28% vodorod va 83,72% uglerod tutgan uglevodorod monoxlorlanganda faqat birlamchi va uchlamchi uglerodga ega bo'lgan xlorli hosila hosil bo'ldi. Uglevodorod formulasi va nomini aniqlang.
A) C_6H_{14}; 2-metilpentan
B) C_8H_{14}; 3-metilpentan
C) C_6H_{12}; n-geksan
D) C_6H_{14}; 2,3-dimetilbutan

195. (v15-116-11) Alkenga Cl_2 ning CCl_4 dagi eritmasi ta'sir ettirilganida 29,7 g dixlorid hosil bo'ldi. Xuddi shuncha miqdordagi alkenga $KMnO_4$ ning suvdagi eritmasi ta'sir ettirilsa, 18,6 g ikki atomli spirt hosil bo'ldi. Alkenni toping.
A) C_4H_8 B) C_3H_6
C) C_2H_4 D) C_5H_{12}

196. (v15-123-6) Dixloralkan molekulasida massa ulushi 0,0531 bo'lgan vodorod mavjud. Birikmaning mumkin bo'lgan struktur izomer soni nechta?
A) 3 B) 6 C) 4 D) 5

197. (v15-130-29) Noma'lum alkinning 6 litrini to'liq yoqish uchun 25 litr ozon-kislorod aralashmasi ($\varphi_{(O_3)}$ = 36%) sarflandi. Noma'lum alkinni toping.
A) propin B) butun C) etin D) pentin

198. (v17-101-31) 2,88 g modda qizdirilganda 1,06 g soda, 2,912 l karbonat angidrid gazi va 0,9 g suv hosil bo'ldi. Moddani aniqlang.
A) CH_3COOK
B) C_6H_5COOK
C) $C_7H_5O_2Na$
D) CH_3COONa

96. Organik birikmalar orasidagi genetic-bog'lanish. Organik birikmalarning sifat reaksiyalari

1. (96-1-47) Quyidagi moddalarning qaysi biri oqsillarning sifat reaksiyasi uchun ishlatiladi?
A) H_2SO_4 (suyuq)
B) HNO_3 (kons)
C) $FeCl_3$ (eritma)
D) $ZnCl_2$ (eritma)
E) NCl (suyuq)

2. (96-1-49) Mis (II) gidroksid qaysi moda bilan reaksiyaga kirishib, ravshan ko'k rangli eritma hosil qiladi?
A) etil spirt B) etilenglikol
C) propanol-2 D) atseton
E) metilatsetat

3. (96-4-3) Quyidagi birikmalardan qaysi biri bromli suv ta'sirida oson rangsizlanadi?
1) stirol; 2) M-dimetilbenzol; 3) benzol;
4) n-izopropilmetilbenzol; 5) 4-fenilbutan-1.
A) 1, 2 B) 1, 5 C) 2, 3
D) 1, 3 E) 2, 4

4. (96-8-47) Qaysi moddalar uchun "kumush ko'zgu" reaksiya amalga oshishi mumkin?
1) $H_4C_2O_2$; 2) CH_3CHO;
3) CH_3COCH_3; 4) HCOOH.
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 3
D) 2, 4 E) 3, 4

5. (96-8-55) Quyidagi sxemada hosil bo'lgan C moddani toping:

$$C \rightarrow C_2H_2 \xrightarrow{H_2} A \xrightarrow{H_2O\ KMnO_4} B \xrightarrow{[O]} C$$

A) CH_3COOH B) HCHO
C) COOH / COOH D) COOH
E) $NH_2–CH_2COOH$

6. (96-8-113) Oqsillar uchun sifat reaksiyasi quyidagi moddalarning qaysi biri bilan amalga oshirish mumkin?
A) NH_3 B) $Mg(OH)_2$
C) $HNO_{3(kons)}$ D) Na_2SO_4
E) $NaNO_3$

7. (96-13-38) Qaysi yuqori molekulali birikmalarga qanday reaktiv yordamida biuret reaksiyasi amalga oshiriladi?
1) polistirol; 2) oqsil; 3) etil spirt;
4) mis sulfat; 5) ammoniy gidroksid.
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 3
D) 2, 5 E) 2, 4

8. (97-4-19) Sirka kislota, natriy stearat va etil spirt eritmalarini qanday umumiy modda yordamida aniqlash mumkin?
A) ishqor eritmasi
B) fenolftalein eritmasi
C) temir (III) xlorid eritmasi
D) natriy metalli
E) lakmus eritmasi

9. (97-4-28) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A moddani aniqlang:

Siklogeksan $\xrightarrow{3H_2}$ X_1 $\xrightarrow{Cl_2,\ kat}$
$\rightarrow X_2 \xrightarrow{CH_3Cl+Na} X_3 \xrightarrow{[O]} A.$

A) benzol B) oksalat kislota
C) toluol D) benzoy kislota
E) anilin

10. (97-4-32) Quyidagi sxemada sirka kislotaning olinish usullari ko'rsatilgan:



Ular orasidan sanoatda foydalaniladigan usullarni ko'rsating.
A) 1 B) 3 C) 1 va 4
D) 1, 3, 4 E) 1, 2, 3, 4

11. (97-4-35) Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun qanday reaktivlardan foydalanish mumkin?

$C_2H_6 \xrightarrow{X} C_2H_5X \xrightarrow{Y} C_2H_5OH \xrightarrow{Z} \rightarrow (C_2H_5)_2O.$

Reaktivlar: 1) kons sulfat kislota; 2) brom; 3) yod; 4) natriy gidroksid. Javobda reaktivlar reaksiya sxemasidagi X, Y, Z tartibda joylashtirilgan shartli tartib raqamlari ko'rinishida keltirilgan.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4
C) 4, 1, 2 D) 2, 4, 1
E) 3, 1, 4

12. (97-5-36) Metan kislotasi uchun qaysi modda sifat reaksiyasini bajarishga imkon beradi?
A) fenolftalein
B) kumush oksidning ammiakdagi eritmasi
C) ishqor
D) temir (III) xlorid
E) mis (II) gidroksid

13. (97-6-29) Atsetilenni etilendan farqlash uchun qanday reagentdan foydalanish kerak?
A) bromli suv
B) kaliy permanganat eritmasi
C) kumush oksidning ammiakdagi eritmasi
D) vodorod xlorid
E) katalizator ishtirokida vodorod oqimi

14. (97-7-32) Quyidagi moddalarning qaysi qatori "kumush ko'zgu" reaksiyasini beradi?
A) glyukoza, glitserin, etilenglikol
B) glitserin, glyukoza, saxaroza
C) glyukoza, formaldegid, metan kislota
D) glyukoza, sut kislota, fruktoza
E) riboza, etilenglikol, etan kislota

15. (97-7-36) Toluol va stirolni bir-biridan farqlash uchun quyidagi moddalarning qaysi biridan foydalanish mumkin?
A) konsentrlangan nitrat kislota
B) yorug'lik nuri
C) bromli suv
D) kislorod
E) azot

16. (97-8-30) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A modda qaysi sinf vakili?

$CH_3–CH_3 \xrightarrow{Br_2} X_1 \xrightarrow{H_2O} X_2 \xrightarrow{[O]} \rightarrow X_3 \xrightarrow{Ag_2O/NH_3}$

A) aldegid
B) keton
C) birlamchi spirt
D) karbon kislota
E) ikki atomli spirt

17. (97-8-31) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A moddani aniqlang:

kraxmal $\xrightarrow{H_2O(H^+)}$ X_1 $\xrightarrow{\quad}$
$\rightarrow X_2 \xrightarrow{t,140°,\ kont.\ H_2SO_4} A.$

A) etil spirt B) etilen
C) sirka kislota D) sirka aldegid
E) dietil efir

18. (97-8-67) Etilen va izoprenni aniqlashda Siz qaysi reaktivlardan foydalangan bo'lardingiz?

A) bromli suv va xloroform
B) kaliy permanganat va kalsiy xlorid eritmalari
C) yodli suv va xlorid kislota
D) bromli suv va kaliy permanganat eritmasi
E) xlorid kislota va vodorod peroksid eritmasi

19. (97-9-29) Sxemadagi x, u, z larga mos moddalarni ko'rsating.

$C_2H_4 \xrightarrow{HCl} X \xrightarrow{H_2O,KOH} \rightarrow C_2H_5OH \xrightarrow{H_2SO_4} Y \xrightarrow{Br_2} Z$:

1) etanol; 2) etilen; 3) xloretan;
4) xlorvinil; 5) etan.
A) 3, 2, 1 B) 4, 2, 1 C) 3, 1, 4
D) 5, 2, 2 E) 3, 5, 4

20. (97-10-70) Qanday reaktivlar yordamida aldegid gruppani aniqlash mumkin?
1) yodli suv va ishqor eritmasi; 2) bromli suv;
3) kumush oksidning ammiakli eritmasi;
4) temir (III) xlorid eritmasi; 5) mis gidroksid.
A) 1, 3 B) 1, 5 C) 2, 4
D) 3, 5 E) 3, 4

21. (97-12-31) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A moddani aniqlang:

propen-2 $\xrightarrow{HCl} X_1 \xrightarrow{NaOH} X_2 \xrightarrow{[O]}$

A) propanol-1 B) atseton
C) propan kislota D) propanal
E) 3-xlorpropan kislota

22. (97-12-35) Benzol, stirol va fenol eritmalaridagi moddalarni qaysi reaktivdan foydalanib aniqlash mumkin?
A) kaliy permanganat eritmasi
B) bromli suv
C) ishqor eritmasi
D) xlorid kislota
E) vodorod peroksid

23. (98-1-85) Qaysi reaktiv yordamida sirka aldegidni etil spirt, sirka kislota va etilatsetatdan farqlash mumkin?
A) natriy gidroksid
B) kir sodasi
C) mis (II) gidroksid
D) mis
E) natriy

24. (98-1-86) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A moddani aniqlang.

$CH_4 \xrightarrow{Br_2} X_1 \xrightarrow{Na} X_2 \xrightarrow{Br_2, h\nu} \rightarrow X_3 \xrightarrow{NaOH(s)} X_4 \xrightarrow{CH_3Cl} A$

A) sirka aldegid B) dietil efir
C) formaldegid D) chumoli kislota
E) etanol

25. (98-2-25) Quyidagi sxema bo'yicha olingan A moddani nomlang:

$CH_4 \xrightarrow{t^\circ} X_1 \xrightarrow{H_2O} X_2 \xrightarrow{[O]} \rightarrow X_3 \xrightarrow{Cl_2} X_4 \xrightarrow{NH_3} A$

A) etilamin B) xlorsirka kislota
C) glikokol D) sirka kislota
E) benzol

26. (98-3-53) Benzol va fenol aralashmasini bir-biridan ajratish uchun qaysi reaktivdan foydalangan bo'lardingiz?
1) xlorid kislota; 2) ishqor eritmasi;
3) nitrat kislota; 4) kaliy permanganat eritmasi; 5) bromli suv.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 5 C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 5 E) 1, 2, 4

27. (98-3-57) Qaysi reaktivdan foydalanib, glitserin, glyukoza va etil spirt eritmalariga sifat reaksiyasini amalga oshirish mumkin?
A) natriy gidroksid B) mis (II) gidroksid
C) nitrat kislota D) natriy metalli
E) bitta reaktiv yordamida bilib bo'lmaydi

28. (98-6-56) Gidrolizlangan kraxmal eritmasida ("kumush ko'zgu") sifat reaksiyasi kuzatilgan bo'lsa, bu reaksiya eritmada qanday modda borligidan dalolat beradi?
A) fruktoza B) saxaroza
C) glyukoza D) formaldegid
E) pentanol

29. (98-11-55) Qanday modda mis (II) gidroksid bilan reaksiyaga kirishganda, sariq cho'kma, uni qizdirganda esa qizil rangli modda hosil bo'ladi?
A) etplenglikol B) glitserin
C) butan-1,2-diol D) propanal
E) propion kislota

30. (98-12-30) Quyidagi ketma-ketlikni qaysi reaksiyalar yordamida amalga oshirish mumkin?
propanol-1 → propanol-2 → 2-xlorpropa
1) gidrogenlash; 2) degidratlash;
3) galoidvodorodni biriktirish; 4) gidratlash;
5) ishqorning spirtdagi eritmasi bilan reaksiyasi; 6) degidrogenlash;
7) galogenvodorodlar bilan birikishi.
A) 1, 2, 5 B) 3, 6, 7 C) 2, 4, 5
D) 4, 5, 7 E) 2, 4, 7

31. (99-1-56) Geksin-1 va geksin-2 ni bir-biridan farqlash uchun qaysi reaktivdan foydalanish mumkin?
A) natriy gidroksid eritmasi
B) xlorid kislota eritmasi
C) bromli suv
D) kumush oksidning ammiakli eritmasi
E) kaliy permanganat eritmasi

32. (99-5-8) Sxemada hosil bo'lgan "Z" moddani aniqlang: butadiyen-

1,3 $\xrightarrow{t^\circ, Ni, H_2}$ X $\xrightarrow{Cl_2}$ U $\xrightarrow{KOH, spirt}$ Z

A) butadiyen-1,2 B) butan
C) buten-2 D) siklobutan
E) 2-metilsiklopropan

33. (99-5-46) Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradigan X, Y va Z moddalarni ko'rsating.

$C_2H_2 \xrightarrow{+} CH_3CHO \xrightarrow{} C_2H_5OH \xrightarrow{} \rightarrow C_2H_5B$

A) H_2O_2, O_2, HBr B) H_2O, H_2, HBr
C) H_2, O_2, Br_2 D) O_2, H_2O, Br_2
E) HCl, H_2O, Br_2

34. (99-8-33) Quyidagi sxema bo'yicha qanday moddalar hosil bo'ladi?

$(CH_3)_2CHCH_2I \xrightarrow{KOH} X \xrightarrow{HBr} Y$

A) X-izobutil spirt; Y-izobutilbromid
B) X-izobutilen; Y-ikkilamchi butilbromid
C) X-2-metilpropen-2; Y-1-brom-2-metilpropan
D) X-2-metilpropen; Y-uchlamchi butilbromid
E) X-2-metilpropanol-1; Y-2-brom-2-metilpropan

35. (99-8-47) Berilgan I–III moddalarning qaysi biri bilan reagentlarning (1–5) qaysinisi reaksiyada qatnasha oladi?

I- 
II 
III 

1) bromli suv; 2) vodorod bromid; 3) mis (I) tuzlari; 4) mis (II) tuzlari; 5) kaliy permanganat.
A) II +2 B) III +3 C) I +1
D) III +4 E) II +5

36. (99-9-46) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan mahsulotni aniqlang.

anilin $\xrightarrow{HCl} X \xrightarrow{NaOH} Y \xrightarrow{Br_2(H_2O)}$

A) 
B) 
C) 
D) 
E) 

37. (00-3-31) Raqamlangan 5 ta probirkalarda:
1) propanol-1;
2) propanol-2;
3) butanol-2;
4) butandiol-1,3;
5) butandiol-1,2 eritmalari solingan.
Ularning barchasiga dastlab mis (II) oksid, so'ngra Ag_2O ning ammiakdagi eritmasi ta'sir ettirildi. Qaysi probirkalarda "kumush ko'zgu" reaksiyasi sodir bo'ladi?
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4
D) 3, 4, 5 E) 1, 4, 5

38. (00-4-21) Quyidagi aminokislotalarning qaysi biri konsentrlangan nitrat kislota ta'sirida jigar rangga bo'yaladi?
A) fenilalanin B) glikokol
C) leysin D) valin
E) serin

39. (00-4-22) Quyidagi o'zgarishlar qatorida X moddani aniqlang:

benzol → X $\xrightarrow{(NH_4)_2S}$ anilin.

A) ftorbenzol B) fenol
C) nitrobenzol D) benzil spirt
E) xlorbenzol

40. (00-7-4) Etilenglikol, dezoksiriboza va saxarozalarga sifat reaksiyasini amalga oshirish uchun qanday reaktivdan va ular ishtirokida olingan mahsulotlardan foydalanish mumkin?
A) kumush nitrat, ammoniy gidroksid, xlorid kislota
B) mis (II) sulfat, natriy gidroksid, rux, xlorid kislota
C) mis (II) gidroksid, magniy, xlorid kislota
D) mis (II) sulfat, natriy gidroksid, xlorid kislota
E) kumush nitrat, ammoniy gidroksid, brom

41. (00-7-17) Quyidagi o'zgarishlar sxemasida hosil bo'ladigan moddani aniqlang. Siklopropan $\xrightarrow{Br_2}$ X $\xrightarrow{KOH\ spirt}$

A) propandiol-1,3 B) propandiol-1,2
C) propanol-1 D) propadiyen
E) propen

42. (00-7-18) Mahsulot Y nomini ko'rsating.

Siklopropan $\xrightarrow{HBr}$ X $\xrightarrow{Na}$ Y

A) 2,3-dimetilbutan B) geksan
C) izogeksan D) butan
E) pentan

43. (00-7-19) Sxemada hosil bo'lgan Y va Z moddalar nomini ko'rsating.

Siklopropan $\xrightarrow{H_2}$ X $\xrightarrow{Br_2,\ h\nu}$ Y $\xrightarrow{Na}$ Z

1) propilbromid; 2) 1,3-dibrompropan;

3) izopropilbromid; 4) siklopropan; 5) geksan; 6) 2,3-dimetilbutan.
A) 1, 6 B) 3, 5 C) 1, 5
D) 2, 4 E) 3, 6

44. (00-7-20) Quyidagi reaksiya ketma-ketligida qaysi modda hosil bo'ladi?

siklopropan $\xrightarrow{Br_2}$ X $\xrightarrow{KOH,\ H_2O}$

A) propandiol-1,3
B) propandiol-1,2
C) propanol-1
D) propanol-2
E) sikpopropanol

45. (00-7-21) Birlamchi spirt oksidlanishi natijasida hosil bo'lgan aldegidga karbon kislota aralashgan. Aldegidni karbon kislotadan qaysi modda yordamida tozalash mumkin?
A) NaOH B) Ag_2O/NH_3
C) H_2/Ni D) H_2SO_4
E) HNO_3

46. (00-7-24) Quyidagi sxemada qo'llanadigan Y va Z birikmalarini ko rsating.

Izobutil spirt $\longrightarrow$ X $\longrightarrow$ 2,5-dimetilgeksan:

1) NaBr; 2) Na; 3) HBr; 4) Br_2;
5) H_2SO_4; 6) Zn; 7) I_2.
A) 1, 2 B) 3, 2 C) 4, 2
D) 5, 6 E) 7, 6

47. (00-7-25) Quyidagi sxemada hosil bo'lgan mahsulot nomini ko'rsating.

Butanol-1 $\xrightarrow{\quad}$ X $\xrightarrow{HBr}$ Y $\xrightarrow{\quad}$

A) 3,4-dimetilgeksan
B) 2,5-dimetilgeksan
C) oktan
D) 2,2,3,3-tetrametilbutan
E) 2,2,3-trimetilpentan

48. (00-7-26) Quyidagi sxemadagi 3 modda nomini ko'rsating.

Butanol-1 $\xrightarrow{H_2SO_4,\ >170^\circ}$ X $\xrightarrow{\quad}$
$\longrightarrow$ Y $\xrightarrow{CH_3COOH}$

A) izobutilatsetat
B) uchlamchi butilatsetat
C) ikkilamchi butilatsetat
D) butilatsetat
E) sirka angidrid

49. (00-7-38) Vanilinni  uning halqa bo yicha gidrogenlangan mahsulotidan farqini topish uchun imkon beradigan reagent(lar)ni ko'rsating:
1) kumush (I) oksidning ammiakdagi eritmasi; 2) $FeCl_3$; 3) HCl; 4) $NaHSO_3$;
5) $Su(ON)_2$; 6) HCN.
A) 5 B) 1, 6 C) 2, 4
D) 3, 5 E) 2

50. (00-7-44) Sxemadagi X modda nomini ko'rsating.

X $\longrightarrow$ Y $\xrightarrow{NaOH+H_2O}$ $CH_3CH(OH)CH_2CH_2O$

A) metilsiklopropan B) siklobutan
C) izobutan D) buten-1
E) butin-2

51. (00-7-45) Sxemadagi X modda nomini ko'rsating.

X $\xrightarrow{Br_2}$ Y $\xrightarrow{KOH+spirt}$ butadiyen-1,3.

A) buten-1 B) butin-1
C) siklobutan D) izobutan
E) butin-2

52. (00-8-11) Qaysi reagentlar yordamida quyidagi jarayonlarni amalga oshirish mumkin?

nitrobenzol $\longrightarrow$ anilin $\longrightarrow$
$\longrightarrow$ fenilammoniy-bromid

1) X = NH_4Cl; 2) X = $(NH_4)_2S$; 3) X = NH_4NO_3; 4) Y = Br_2; 5) Y = HBr; 6) Y = NaBr.
A) 2, 4 B) 3, 5 C) 1, 6
D) 3, 6 E) 2, 5

53. (00-8-13) Metilamin va butan aralashmasidan metilaminni qaysi moddalarni ketma-ket qo'llash yordamida ajratib olish mumkin?
1) NaOH; 2) Br_2; 3) HCl; 4) $KMnO_4$.
A) 1, 3 B) 2, 4
C) 4, 1 D) 3, 1
E) 3, 4

54. (00-10-43) Quyidagi sxemalardagi oxirgi (X) moddaning formulasini aniqlang:

propil spirti $\xrightarrow{[O]}$ A $\xrightarrow{Ag_2O}$ X.

A) $CH_2(OH)$–$COOH$ B) CH_3CHO
C) $HCOOH$ D) CH_3CH_2COOH
E) CH_3CH_2OH

55. (01-1-68) Quyidagi sxema oxirida hosil bo'lgan mahsulotni va qaysi bosqichda Vyurs reaksiyasidan foydalanilganini aniqlang.

$CO + 2H_2 \xrightarrow{\quad} X_1 \xrightarrow{+HCl} X_2 \xrightarrow{\quad}$
$\longrightarrow X_3 \xrightarrow{\quad} X_4 \xrightarrow{NaOH,\ H_2O} X_5$

A) etan, V B) etanol, III
C) etilen, II D) etanol, V
E) atsetilen, IV

56. (01-5-19) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X_5 moddani aniqlang.

1-brom-2-metilbutan $\xrightarrow{KOH,\ spirt}$ X_1 $\xrightarrow{HBr}$
$\longrightarrow X_2 \xrightarrow{KOH,\ spirt} X_3 \xrightarrow{HBrH_2O_2} X_4 \xrightarrow{Na} X_5$.

A) 2,3,4,5-tetrametilgeksan
B) 2,4-dimetiloktan
C) 3,3,4,4-tetrametilgeksan
D) 3,3,4-trimetilgeptan
E) 2,3,3,5-tetrametilgeksan

57. (01-5-44) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X_5 modda qanday nomlanadi?

Etanal $\xrightarrow{H_2,\ Ni}$ X_1 $\xrightarrow{H_2SO_4(konts),\ t=140^\circ C}$
$\longrightarrow X_2 \xrightarrow{HBr} X_3 \xrightarrow{Na} X_4 \xrightarrow{P,\ t,\ kat} X_5$

A) butin-1 B) butin-2
C) butadiyen-1,3 D) siklobutan
E) buten-2

58. (01-6-29) Glitserin, glyukoza va sirka aldegidlari qanday bitta reaktiv yordamida aniqlash mumkin?
A) nitrat kislota
B) natriy gidroqsid
C) mis (II) gidroqsid
D) kumush oksidning ammiakdagi eritmasi
E) brom

59. (01-6-38) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X_5 moddani aniqlang:

natriy atsetat $\xrightarrow{NaOH,\ t^\circ}$ X_1 $\xrightarrow{1500^\circ C}$
$X_2 \xrightarrow{t\,C(kat)} X_3 \xrightarrow{\quad} X_4 \xrightarrow{HNO_3} X_5$.

A) 1,3,5-trinitrobenzol
B) 1,2,5-trinitrobenzol
C) 2,3,4-trinitrotoluol
D) 2,4,6-trinitrotoluol
E) 2,3,5-trinitrotoluol

60. (01-10-19) Quyidagi sxema asosida hosil bo'ladigan modda "M" ni aniqlang.



A) metilatsetat
B) etilenglikolning etil efiri
C) metiletil efir
D) etilatsetat
E) dietil efir

61. (01-10-47) Quyidagi genetik o'zgarishlar qatorida qaysi X modda hosil bo'ladi? Izobutan $\xrightarrow{Br_2,\ h\nu}$ A $\xrightarrow{KOH\ -\ spirt}$
$\longrightarrow$ B $\xrightarrow{polimerlanish}$ C

A) $(–CH_2CH(C_2H_5)–)_n$
B) $(–CH(CH_3)CH(CH_3)–)_n$
C) $(–C(CH_3)_2CH_2–)_n$
D) $(–CH_2CHCHCH_2–)_n$
E) $(–CHC(C_2H_5)–)_n$

62. (01-10-48) Quyidagi genetik o'zgarishlar qatorida hosil bo'lgan X moddani ko'rsating.

Butan $\xrightarrow{Br_2,\ h\nu}$ A $\xrightarrow{KOH+spirt}$ B
$\xrightarrow{polimerlanish}$ C

A) $(–CH(CH_3)CH(CH_3)–)_n$
B) $(–C(CH_3)_2CH_2–)_n$
C) $(–CH_2CH(C_2H_5)–)_n$
D) $(–CH_2CHCHCH_2–)_n$
E) $(–CHC(C_2H_5)–)_n$

63. (01-11-43) Quyidagi sxemaning oxirgi mahsulotish ko'rsating.

Siklobutan $\xrightarrow{Br_2}$ A $\xrightarrow{2KOH+spirt}$ B
$\xrightarrow{polimerlanish}$ C

A) $[–CH_2CHCHCH_2–]_n$
B) $[–CHC(C_2H_5)–]_n$
C) $[–CH_2C(CH_3)_2–]_n$
D) $[–CH(CH_3)CH(CH_3)–]_n$
E) $[–CH_2CH(C_2H_5)–]_n$

64. (02-1-32) Glitserin, formalin va sirka kislota eritmalarining bir-biridan farqini topish uchun qaysi moddalardan foydalanib, sifat reaksiyasini bajarish mumkin?
A) suyultirilgan nitrat kislota
B) kumush (I) oksidning ammiakdagi eritmasi
C) bromli suv
D) qizdirilgan mis simi
E) yangi tayyorlangan mis (II) gidroksid

65. (02-1-38) Quyida keltirilgan genetik o'zgarish mahsuloti X_5 modda etilatsetat bo'lsa, boshlang'ich modda va $X_1 – X_4$ lar nomlarini toping.

$C_nH_{2n+2} \xrightarrow{t} X_1 \xrightarrow{H_2O,\ Hg^{2+},\ H^+} X_2 \xrightarrow{[H]}$
$\longrightarrow X_3 \xrightarrow{[O]} X_4 \xrightarrow{RCH_2OH} X_5$

1) etilen; 2) metan; 3) etin; 4) eten; 5) metanol; 6) etanol; 7) propion kislota; 8) formaldegid; 9) atsetaldegid; 10) etan kislota.
A) 1, 3, 9, 6 B) 4, 9, 6, 10
C) 6, 8, 9, 10 D) 3, 9, 6, 10
E) 7, 8, 9, 10

66. (02-2-19) Quyidagi genetik o'zgarishlar qatorida hosil bo'lgan A, B va C moddalar nomlarini aniqlang: 1,3-dixlorbutan $\xrightarrow{+Zn}$
$\longrightarrow$ A $\xrightarrow{+HBr}$ B $\xrightarrow{+KOH}$ C.

A) metilsiklopropan; 2-brombutan; butanol-2
B) 2-metilpropan; 1-metil-2-brombutan; buten-2
C) siklobutan; bromsiklopropan; metilsiklopropan
D) pentan; butilbromid; n-butan
E) n-butan; brombutan; siklobutan

67. (02-3-36) Quyidagi sxemada qatnashuvchi moddalarni ko'rsating.

Sellyuloza $\longrightarrow$ glyukoza $\longrightarrow$ glyukozanin g pentansetati:
1) $(CH_3CO)_2O$; 2) $H_2O + H_2SO_4$;
3) $[Ag(NH_3)_2]OH$; 4) HNO_3; 5) $H_2O + NaOH$.
A) 1, 4 B) 2, 1 C) 4, 5
D) 2, 5 E) 3, 5

68. (02-4-13) Quyidagi ketma-ketlikdagi boshlang'ich modda X ni ko'rsating:

X $\xrightarrow{2HCl}$ Y $\xrightarrow{NaOH,\ H_2O}$ metilizobutilketon.

A) metilizobutilaletilen
B) 4-metilpentadiyen-1,3
C) 4-metil-1-pentin
D) 3-metilbutin-1
E) 4-metilpentin-2

69. (02-4-37) Quyidagi o'zgarishlar oxiridagi moddani toping.

2-metilpropan kislota $\xrightarrow{Br_2}$ ... $\xrightarrow{NaOH,\ cn}$ X $\xrightarrow{CH_3OH,\ H+}$

A) akril kislota
B) metilmetakrilat
C) metilakrilat
D) sut kislotaning metil efiri
E) 2-metoksidrodan kislota

70. (02-4-39) Quyidagi sxemadagi X moddani toping.

$CH_3CH_2COOH \xrightarrow{Br_2} ... \xrightarrow{NaOH\ cn} ... \xrightarrow{NH_3} X$

A) alanin
B) glikokol
C) anilin
D) β-aminopropin kislota
E) propion kislota amidi

71. (02-6-70) Quyidagi o'zgarishlar sxemasiga asoslanib, B va C moddalarni aniqlang.

$CH_3CHCH_2 \xrightarrow{HgSO_4} A \xrightarrow{O_2} B + C$

A) propanal va suv
B) propan kislota va suv
C) atseton va vodorod peroksid
D) atseton va vodorod
E) propanal va vodorod peroksid

72. (02-6-71) Kumush oksidning ammiakli eritmasi bilan reaksiyaga kirishadigan reagentlarni aniqlang.
A) etin, etilen, atsetaldegid
B) propin, butan-2, propion aldegid
C) glyukoza, formaldegid, chumoli kislota
D) butin-1, buten-1, propanal
E) riboza, propin, pentin-2

73. (02-12-66) Qaysi modda yordamida glyukozaning 5 atomli spirt ekanligini isbotlash mumkin?
A) $Cu(OH)_2$ B) CH_3COOH
C) Ag_2O D) $NaHSO_3$
E) NH_3

74. (03-1-54) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X_5 moddani aniqlang.

$CH_3COH \xrightarrow{H_2,\ Ni} X_1 \xrightarrow{H_2SO_4,\ t\ 140^\circ C} \rightarrow X_2 \xrightarrow{HCl} X_3 \xrightarrow{Na} X_4 \xrightarrow{AlCl_3} X_5$

A) etan B) oktan
C) izobutan D) butan
E) buten-1

75. (04-1-787) Qaysi reaktivdan foydalanib geksin-1 va geksin-2 ni bir-biridan farqlash mumkin?
A) natriy gidroksid eritmasi
B) mis (I) xloridning ammiakli eritmasi
C) bromli suv
D) ammiakli suv
E) kaliy permanganat

76. (04-1-790) Quyidagi genetik qatordagi oxirgi mahsulotni aniqlang.

butadiyen-1,3 $\xrightarrow{HCl}$ X $\xrightarrow{1\ mol\ H_2}$ $\rightarrow$ Y $\xrightarrow{KOH-spirt}$ Z

A) butadiyen-1,2
B) buten-1
C) buten-2
D) siklobutan
E) butandiol-3,1

77. (04-1-793) Ayrim-ayrim idishlarda berilgan atsetilen va etilenning bir-biridan farqini qaysi modda yordamida aniqlash mumkin?
A) kaliy permanganatning suvli eritmasi
B) bromli suv
C) kaliy permanganatning kislotali eritmasi
D) mis (I) xloridning ammiakdagi eritmasi
E) kumush nitrat

78. (04-1-812) Quyidagi o'zgarishlar ketma-ketligida A, B, C va D larni aniqlang.

$C_3H_6 + A \xrightarrow{kat} B \xrightarrow{O_2,\ kat,\ H_2SO_4} C + D$:

1) siklogeksan; 2) geksan; 3) benzol; 4) 1,3-butadiyen; 5) etilbenzol; 6) propanal; 7) stirol; 8) izopropilbenzol; 9) vinilbenzol; 10) fenol; 11) dimetilketon.
A) 2, 4, 7, 11 B) 3, 8, 10, 11
C) 1, 3, 5, 9 D) 5, 7, 9, 11
E) 6, 8, 10, 11

79. (05-1-452) Quyidagi genetik o'zgarishlar qatorida hosil bo'lgan X moddani ko'rsating.

Pentan $\xrightarrow{Br_2}$ A $\xrightarrow{KOH+spirt}$ B $\xrightarrow{polimerlanish}$

A) $(-CH(CH_3)CH(CH_3)-)_n$
B) $(-C(CH_3)_2CH_2-)_n$
C) $(-CH(C_2H_3)CH(CH_3)-)_n$
D) $(-CH_2CHCHCH_2-)_n$
E) $(-CH(C_3H_7CH-)_n$

80. (05-1-464) Qaysi moddalar yordamida biuret reaksiyasini amalga oshirish mumkin?
1) oqsil; 2) mis (II) sulfat; 3) natriy gidroksid; 4) etil spirt; 5) polistirol.
A) 1, 3, 4 B) 1, 4 C) 2, 3
D) 2, 5 E) 2, 4

81. (v4-101-16) Quyidagi sxemada hosil bo'lgan moddani toping:

$C \rightarrow C_2H_2 \xrightarrow{H_2O,\ Hg^{2+}} A \xrightarrow{O_2} B.$

A) COOH B) $NH_2-CH_2COOHCOOH$
C) CH_3COOH D) CO_2
E) HCHO

82. (v4-101-32) Berilgan sxemadagi I va II reagentlarni toping.

Maltoza $\longrightarrow$ glyukoza $\xrightarrow{II}$ glyukon kislota.

1) $H_2O + OH^-$; 2) $H_2O + H^+$;
3) kons HNO_3; 4) $[Ag(NH_3)_2]OH$.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 3, 4
D) 2, 3 E) 1, 4

83. (v4-103-29) Uchta probirkada quyidagi uchta gaz – butan, buten-1 va butin-1 berilgan. Ularni bilib olish uchun sifat reaksiyasini bajarishga imkon beradigan moddalarni tanlang:
1) bromli suv; 2) kaliy permanganatning kislotali eritmasi; 3) kaliy ishqori; 4) kumush xloridning ammiakdagi eritmasi; 5) mis (II) gidroksid.
A) 2, 4, 5 B) 1, 4, 5 C) 1, 2, 4
D) 3, 4, 5 E) 2, 3, 5

84. (v4-107-15) Qaysi moddalar uchun "kumush ko'zgu" reaksiyasi amalga oshishi mumkin emas?
1) $H_2C_2O_4$; 2) atsetaldegid;
3) CH_3COCH_3; 4) HCOOH.
A) 2, 3 B) 3, 4 C) 1, 2
D) 2, 4 E) 1, 3

85. (v4-112-29) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A, B va C moddalar nomlarini aniqlang.

1,3-dixlorbutan $\xrightarrow{-2Cl}$ A $\xrightarrow{+Br_2}$ $\rightarrow$ B $\xrightarrow{+KOH}$ C

A) siklobutan; bromsiklopropan; metilsiklopropan
B) n-butan; brombutan; siklobutan
C) metilsiklopropan; 2-brombutan; butanol-2
D) pentan; butilbromid; n-butan
E) 2-metilpropan; 1-metil-2-brombutan; buten-2

86. (v4-118-16) Qaysi karbon kislota "kumush ko'zgu" reaksiyasiga kirishadi?
A) propion kislota B) metan kislota
C) sirka kislota D) chumoli aldegidi
E) moy kislota

87. (v4-120-30) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X_5 moddani aniqlang.

kaliy atsetat $\xrightarrow{KOH,\ t}$ X_1 $\xrightarrow{1500^\circ C}$ $\rightarrow$ X_2 $\xrightarrow{t,\ C(akt)}$ X_3 $\xrightarrow{CH_3,\ Cl,\ AlCl_3}$ $\rightarrow$ X_4 $\xrightarrow{HNO_3}$ X_5

A) 2,3,4-trinitrotoluol
B) 2,3,5-trinitrotoluol
C) 1,3,5-trinitrobenzol
D) 2,4,6-trinitrotoluol
E) 1,2,5-trinitrobenzol

88. (v4-121-29) So'nggi mahsulotni ko'rsating. Siklobutan $\xrightarrow{Br_2}$ A $\xrightarrow{2\ mol\ KOH+spirt}$ $\rightarrow$ B $\xrightarrow{polimerlanish}$ C

A) $[-CH_2C(CH_3)_2-]_n$
B) $[-CH_2CH(C_2H_5)-]_n$
C) $[-CH_2CHCHCH_2-]_n$
D) $[-CH(CH_3)CH(CH_3)-]_n$
E) $[-CHC(C_2H_5)-]_n$

89. (v4-127-13) Glitserin, sirka kislota va formalin eritmalarini qanday reagentlar yordamida bir-biridan farqini topish mumkin?
A) bromli suv
B) yangi tayyorlangan mis (II) gidroksid
C) suyultirilgan nitrat kislota
D) qizdirilgan mis simi
E) kumush (I) oksidning ammiakdagi eritmasi

90. (v5-102-16) Sxemaga asosan X_5 moddani aniqlang:

$CH_4 \xrightarrow{1500^\circ C} X_1 \xrightarrow{HOH,\ Hg^{+2}} X_2 \xrightarrow{[O]} \rightarrow X_3 \xrightarrow{Cl_2} X_4 \xrightarrow{NH_3} X_5$

A) aminosirka kislota
B) 2-amino-2-xlorsirka kislota
C) sirka kislota
D) xlorsirka kislota
E) alanin

91. (v5-105-30) eten $\xrightarrow{KMnO_4,\ H_2O}$ $\rightarrow$ A $\xrightarrow{HCl}$ B $\xrightarrow{HCl}$ C sxemaga asosan hosil bo'lgan A, B, C moddalarni toping.
1) etil spirt; 2) 1,1-dixloretan;
3) 1,2-dixloretan; 4) 2-xloretanol;
5) etilenglikol; 6) etilxlorid.
A) 5, 1, 3 B) 5, 3, 2 C) 5, 4, 3
D) 1, 2, 3 E) 1, 2, 4

92. (v5-106-15) Qaysi moddalar kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan reaksiyaga kirishmaydi?
1) etanal; 2) sirka kislota; 3) metan kislota;
4) etilformiat; 5) etanol; 6) izopropilformiat;
7) butilatsetat.
A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 5
C) 1, 3, 4, 6 D) 3, 6, 7
E) 2, 5, 7

93. (v5-110-32) O'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A, B va C moddalarni aniqlang.

$C_2H_4 \xrightarrow{KMnO_4,\ H_2O} A \xrightarrow{HCl} B \xrightarrow{HOH} C$

1) C_2H_5OH;
2) $CHCl_2CH_3$;
3) CH_2ClCH_2Cl;
4) CH_2OHCH_2Cl;

5) CH_2OHCH_2OH;
6) C_2H_5Cl.
A) 4, 5, 2 B) 5, 4, 3 C) 1, 6, 4
D) 1, 5, 6 E) 5, 6, 3

94. (v5-110-36) 2-brom-2,3,3-trimetilbutan → $\xrightarrow{KOH(spirt)}$ X_1 $\xrightarrow{HBr}$ X_2 $\xrightarrow{Na}$ X_3 reaksiyadagi X_3 – … .
A) 2,2,3,3-tetrametilpentan
B) 2,2,3,3,4-pentametilgeptan
C) 2,2,3,3,4,4-geksametilpentan
D) 2,2,3,3,4,4,5,5-oktametilgeksan
E) 2,2,3,3-tetrametilbutan

95. (v5-111-14) Ikkita probirkada glyukoza va saxaroza eritmalari berilgan. Ularni qanday farq qilish mumkin?
A) kumush nitratning ammiakdagi eritmasi ta'sirida
B) mazasini tatib ko'rib
C) oksidlovchi ta'sir ettirib
D) yod eritmasi ta'sirida
E) mis (II) gidroksid ta'sir ettirib

96. (v5-112-12) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A modda tarkibida nechta uchlamchi uglerod atomi bor?
$CH_3–CH(CH_3)–CH_2–COONa$ $\xrightarrow{NaOH\ t^o}$ → X_1 $\xrightarrow{Br_2}$ X_2 $\xrightarrow{Na}$ X_3
A) 2 B) 4 C) 0 D) 3 E) 1

97. (v5-112-14) Qaysi uglevod kumush ko'zgu reaksiyasiga kirishadi?
A) kraxmal B) laktoza
C) glyukoza D) sellyuloza
E) fruktoza

98. (v5-112-16) Quyidagi sxemada hosil bo'ladigan Y moddani aniqlang.
CH_3COOH $\xrightarrow{Cl_2}$ X $\xrightarrow{NH_3}$
A) etan kislota
B) β-aminopropion kislota
C) xlorsirka kislota
D) glikokol
E) alanin

99. (v5-113-14) Kraxmalni boshqa uglevodlardan farqlash uchun qaysi reaktivdan foydalanish kerak?
A) yod eritmasi B) bromli suv
C) mis (II) gidroksid D) natriy ishqori
E) $AgNO_3$ ning ammiakdagi eritmasi

100. (v5-113-30) Quyidagi o'zgarishlarning qaysi bosqich(lar)ida to'yinmagan uglevodorod(lar) hosil bo'ladi?
1,3-dibrompropan $\xrightarrow{Na}$ (1)A $\xrightarrow{H_2/Pt}$ → (2)B $\xrightarrow{Br_2}$ (3)C $\xrightarrow{NaOH/sp}$ → (4)D $\xrightarrow{HCl}$ (5)E $\xrightarrow{Na}$ (6)F.
A) 4 B) 6 C) 1 va 3
D) 2 va 5 E) 2, 4 va 6

101. (v5-114-31) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X, Y, Z moddalarni aniqlang.
benzol $\xrightarrow{HNO_3(H_2SO_4)}$ X $\xrightarrow{Fe+HCl(suv\ muh.)}$ → Y $\xrightarrow{NaOH}$
1) 1,2-dinitrobenzol; 2) nitrobenzol; 3) karbol kislota; 4) 3-nitroxlorbenzol; 5) 3-nitroanilin; 6) fenilammoniy xlorid; 7) xlorbenzol; 8) anilin.
A) 4, 5, 7 B) 3, 4, 6
C) 2, 6, 8 D) 2, 5, 8
E) 1, 3, 5

102. (v5-114-32) Sxemaga asosan hosil bo'lgan A, B va C moddalarni aniqlang.
1,4-dixlorbutan $\xrightarrow{Zn}$ A $\xrightarrow{Br_2}$ → B $\xrightarrow{KOH\ (sp)}$ C
1) siklobutan; 2) metilsiklobutan;
3) 1,3-dibrombutan; 4) 1,4-dibrombutan;
5) butadiyen-1,2; 6) butadiyen-1,3.
A) 3, 1, 2 B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 6
D) 6, 3, 1 E) 2, 4, 5

103. (v5-115-31) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A, B, C moddalarni aniqlang. 1,6-dibromgeksan $\xrightarrow{Zn,\ to'q}$ → A $\xrightarrow{Pd,\ 300^oC}$ B $\xrightarrow{HNO_3/H_2SO_4}$
1) 2-nitrogeksan; 2) geksan; 3) siklogeksan; 4) geksadiyen-1,5; 5) benzol; 6) nitrobenzol.
A) 3, 2, 1 B) 2, 4, 5
C) 3, 5, 6 D) 2, 3, 6
E) 3, 4, 5

104. (v5-116-36) Sxemaga asosan qaysi bosqich(lar)da to'yinmagan uglevodorod(lar) hosil bo'lishini aniqlang.
izopentan $\xrightarrow{Cl_2/h\nu}$ (1)A $\xrightarrow{KOH/sp,\ t^o}$ → (2)B $\xrightarrow{Br_2}$ (3)C $\xrightarrow{Zn}$ (4)D.
A) 4 B) 3, 4 C) 2
D) 1, 3 E) 2, 4

105. (v5-121-33) CH_4 $\xrightarrow{1500^o}$ X_1 $\xrightarrow{H_2O}$ →X_2 $\xrightarrow{[O]}$ X_3 $\xrightarrow{Cl_2}$ X_4 $\xrightarrow{NH_3}$ A sxema bo'yicha olingan A moddaning nomi – … .
A) glitsin
B) alanin
C) 3-aminobutan kislota
D) sirka kislota
E) xlorsirka kislota

106. (v5-122-31) O'zgarishlar zanjiridagi "E" moddani aniqlang.
CaC_2 $\xrightarrow{2H_2O}$ A $\xrightarrow{c,(450-500)}$ → B $\xrightarrow{HNO_3/H_2SO_4}$ C $\xrightarrow{(NH_4)_2S}$ D $\xrightarrow{3Br_2}$ E
A) tribromnitrobenzol
B) 4-brom-1-aminobenzol
C) 2,4,6-tribromanilin
D) 2,4,6-tribromtoluol
E) o-dibrombenzol

107. (v5-125-16) Quyidagi moddalardan qaysilari kumush oksidining ammiakli eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi?
1) sirka aldegid; 2) chumoli kislota;
3) etilatsetat; 4) etilformiat; 5) sirka kislota;
6) propilformiat.
A) 2, 4, 5, 6 B) 3, 5
C) 1, 2, 4, 6 D) 1, 2, 5, 6
E) 1, 2

108. (v5-125-30) Quyidagi o'zgarishlarning so'nggi bosqichida hosil bo'lgan organik mahsulotni aniqlang.
Buten-1 $\xrightarrow{HBr}$ X_1 $\xrightarrow{NaOH(H_2O)}$ → X_2 $\xrightarrow{t<140^oC,\ H_2SO_4}$ X_3
A) 2-metilbuten-2 B) propen
C) izobutilen D) buten-2
E) penten-2

109. (v5-129-36) Bromli suvni rangsizlantiradigan moddalarni toping.
1) etilen; 2) etan; 3) divinil; 4) metilatsetilen;
5) izobutan; 6) benzol; 7) anilin.
A) 1, 3, 5, 7
B) hammasi rangsizlantiradi
C) 1, 3, 4, 7
D) 1, 2, 5, 6
E) 2, 3, 4, 5

110. (v5-130-36) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan oxirgi mahsulotni aniqlang. 1,3-dixlorpropan $\xrightarrow{Zn}$ A $\xrightarrow{H_2/Pt}$ → B $\xrightarrow{Cl_2/h\nu}$ C $\xrightarrow{KOH/sp}$ D $\xrightarrow{HBr}$ → E $\xrightarrow{Na}$ F
A) propilen B) geksan
C) 2,3-dimetilpropan D) izobutan
E) propan

111. (v5-137-26) Izopentan $\xrightarrow{Br_2,\ h\nu}$ → X $\xrightarrow{KOH+spirt}$ Y $\xrightarrow{HBr}$ Z. Keltirilgan sxemadagi oxirgi mahsulot 13,8 g bo'lsa, reaksiyaga kirishgan galogenning massasi (g) – … .
A) 17,8 B) 5,6 C) 11,6
D) 3,4 E) 14,6

112. (v5-147-30) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan "B" va "D" moddalarni ko'rsating. $CH_3CHCHCH_3$ $\xrightarrow{Br_2}$ A $\xrightarrow{Zn}$ → B $\xrightarrow{HCl}$ C $\xrightarrow{KOH/spirt}$
1) ikkilamchibutilxlorid; 2) 1,3-dibrombutan;
3) 2,3-dibrombutan; 4) buten-2; 5) penten-2.
A) 4, 5 B) 1, 2
C) 1, 4 D) 2, 3
E) 1, 5

113. (v6-101-17) Benzolda erigan anilinni ajratib olish uchun qaysi reagentlarni ketma-ket qo'llash kerak bo'ladi?
1) PCl_5; 2) $K_2Cr_2O_7$;
3) Na; 4) HCl; 5) NaOH.
A) 2, 4 B) 1, 3
C) 4, 5 D) 3, 1

114. (v6-102-32) Y mahsulot nomini ko'rsating.
siklopropan $\xrightarrow{Br_2}$ X $\xrightarrow{KOH\ H_2O}$ Y.
A) propandiol-1,2 B) propandiol-1,3
C) propanol-2 D) propanol-1

115. (v6-107-17) Genetik qatorda hosil bo'ladigan X moddani aniqlang.
benzol → X $\xrightarrow{(NH_4)_2S}$ anilin
A) fenol B) ftorbenzol
C) benzil spirt D) nitrobenzol

116. (v6-108-15) Havorang mis (II) gidroksid eritmasi bilan … reaksiyaga kirishib sariq cho'kma, uni qizdirganda esa qizil rangli modda hosil bo'ladi.
A) glitserin B) sirka kislota
C) etilenglikol D) etanal

117. (v6-108-30) Quyida berilgan o'zgarishlarda boshlang'ich modda nomini ko'rsating. X $\xrightarrow{Br_2}$ Y $\xrightarrow{NaOH+H_2O}$ → $CH_3CH(OH)CH_2CH_2OH$.
A) siklobutan B) metilsiklopropan
C) buten-1 D) izobutan

118. (v6-108-31) Benzol, tetraxlormetan, etanol kabi uchta suyuqlikni qaysi reaktiv yordamida farqlash mumkin?
A) natriy B) suv
C) brom D) vodorod xlorid

119. (v6-109-15) Quyidagi o'zgarishlar sxemasiga asoslanib, A, B, C moddalarni aniqlang: Atsetilen $\xrightarrow{H_2O,\ Hg^{2+}}$ A $\xrightarrow{+H_2}$ → B $\xrightarrow{t<140^oC,\ H_2SO_4}$ C
1) atsetaldegid; 2) formaldegid; 3) etanol; 4) natriy propionat; 5) dietilefir; 6) natriy atsetat; 7) natriy etilat.
A) 1, 3, 5 B) 2, 5, 7
C) 4, 6, 7 D) 3, 5, 7

120. (v6-114-32) Keltirilgan o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan mahsulot nomini ko'rsating. Butanol-1
$\xrightarrow{H_2SO_4,\ t^o>170^o}$ X $\xrightarrow{HBr}$ Y $\xrightarrow{Na}$ Z
A) 2,5-dimetilgeksan
B) 3,4-dimetilgeksan
C) 2,2,3,3-tetrametilbutan
D) oktan

121. (v6-117-32) Temir (III) xlorid bilan rangli mahsulotlar hosil qiladigan moddalarni toping:
1) glitserin; 2) etanol; 3) fenol; 4) metanol; 5) pirokatexin; 6) n-krezol.
A) 2, 4, 5 B) 1, 2, 6
C) 3, 5, 6 D) 3, 4, 5

122. (v6-118-32) Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan A, B, C moddalarni ko'rsating.

$CH_3–CH_2–CH_2–CH_2–$ → A → B → C

A) buten-1; butanol-2; buten-2
B) butanol; buten-2; dietilefir
C) buten-1; butanol-1; metilizopropilefir
D) butanol-2; buten-1; metilpropilefir

123. (v7-103-36) Bromli suvni rangsizlantiradigan, kaliy permanganat bilan oksidlanganda dikarbon kislota hosil qiladigan va kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan cho'kma hosil qilmaydigan uglevodorod(lar) strukturasini aniqlang.



A) 2 B) 1 C) 2, 3 D) 1, 3, 4

124. (v7-104-13) Qaysi moddalar ketma-ketligidan foydalanib buten-1 dan buten-2 olish mumkin?
A) konsentrlangan sulfat kislota, suv
B) vodorod bromid, natriy gidroksidning suvli eritmasi
C) metanol, suv
D) vodorod bromid, kaliy gidroksidning spirtli eritmasi

125. (v7-104-31) Quyida berilgan sxemadagi X_1, X_2 va X_3 moddalarni aniqlang.

$X_1 \xrightarrow{oksidlanish} X_2 \xrightarrow{oksidlanish} X_3$

A) xlormetan, etan, karbonat angidrid
B) etanol, sirka kislota, etilatsetat
C) sirka kislota, atsetaldegid, etanol
D) propanol, propanal, propan kislota

126. (v7-106-31) Quyidagi sxema asosida berilgan A, B va C moddalarni aniqlang.

Atsetilen → A → B → C

A) sirka, aldegid, sirka kislota, xlorsirka kislota
B) benzol, fenol, toluol
C) etilbenzol, stirol, polistirol
D) etanol, sirka aldegid, etilatsetat

127. (v7-111-30) 72 g aromatik uglevodorod kaliy permanganat bilan qizdirib, ozgina kislota qo'shilgach, "A" modda olindi. "A" moddani neytrallash uchun 120 g 20% li natriy gidroksid eritmasi kerak bo'ldi. Boshlang'ich aromatik uglevodorod(lar)ni aniqlang.
1) kumol; 2) metilbenzol; 3) propilbenzol; 4) ikkilamchibutilbenzol.
A) 2 B) 1, 3
C) 2, 4 D) 3

128. (v7-113-31) Quyida keltirilgan o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X_1, X_2 moddalarni aniqlang.

metan → X_1 → X_2

A) etan va propan
B) metanol va etan kislota
C) etilen va etilenglikol
D) atsetilen va sirka aldegid

129. (v7-115-13) Qaysi reaktiv yordamida etil spirt, benzol va tetraxlormetani bir-biridan farqlash mumkin?
A) kaliy B) suv
C) brom D) vodorod bromid

130. (v7-133-31) Quyida keltirilgan o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X_1 va X_2 moddalarni aniqlang.

$Al_4C_3 \xrightarrow{+H_2O} X_1 \xrightarrow{1500°C} X_2 \xrightarrow{} X_3 \xrightarrow{C_6H_6(AlCl_3)} X_4 \xrightarrow{3HNO_3} X_5$.

A) benzol, 2,4,6-trinitrotoluol
B) etan, 1,3,5-trinitrobenzol
C) benzol, 2,4,6-trinitrokumol
D) benzol, 1,3,5-trinitrobenzol

131. (v7-139-31) Quyidagi sxema asosida berilgan X_1, X_2 va X_3 moddalarni aniqlang.

$X_1 \xrightarrow{Cl_2(FeCl_3)} X_2 \xrightarrow{NaOH,\ t} X_3$

A) atsetilen, vinilxlorid, polivinilxlorid
B) fenol, 2,4,6-trixlorfenol, natriy fenolyat
C) propan kislota, 2-xlorpropan kislota, propan kislota
D) benzol, xlorbenzol, fenol

132. (v7-152-31) Quyida keltirilgan o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan X, Y, Z moddalarni aniqlang.

Atsetilen → X → Y → Z

A) etilenglikol, etanol, 1,2-dixloretan
B) etanal, etan kislota, xlorsirka kislota
C) etanal, etanol, etilxlorid
D) etanol, etanal, etanol

133. (v7-161-31) Quyidagi sxema asosida berilgan X_1, X_1 va X_3 moddalarni aniqlang.

$X_1 \xrightarrow{almashinish} X_2 \xrightarrow{almashinish} X_3$

A) etan, xloretan, etanol
B) metan, atsetilen, benzol
C) etan, etilen, polietilen
D) butan, butadiyen-1,3, buten-2

134. (v7-165-31) Quyidagi sxema asosida berilgan X_1, X_2 va X_3 moddalarni aniqlang.

$CH_3CH_2COONa \xrightarrow{NaOH} X_1 \xrightarrow{Br_2(h\nu)} X_2 \xrightarrow{(suv)} X_3 \xrightarrow{H_2SO_4,\ t>140} X_4 \xrightarrow{KMnO_4(H_2O)} X_5$

A) atsetilen, vinilxlorid, polivinilxlorid
B) fenol, 2,4,6-trixlorfenol, natriy fenolyat
C) propan kislota, 2-xlorpropan kislota, propan kislota
D) benzol, xlorbenzol, fenol

135. (v7-179-31) Quyidagi sxema asosida berilgan X_1, X_2 va X_3 moddalarni aniqlang.

